O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI 1930

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

# БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ МАГИСТРАНТЛАР ВА ИҚТИДОРЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ “ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН”

## МАВЗУСИДАГИ ИЛМИЙ – АМАЛИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯСИ




2020 йил 15 май

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yiliga bag‘ishlangan**

**Magistrantlar va iqtidorli talabalarning**

# TAFAKKUR VA TALQIN

**ilmiy maqolalar to‘plami**

**BUXORO – 2020**

## Tahrir hay'ati:

| | | |
|---|---|---|
| O.X.Xamidov | - | Iqtisodiyot fanlari doktori, professor |
| M.I.Daminov | - | Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent |
| O.S. Qahhorov | - | Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |
| S.Q. Qaxxorov | - | Pedagogika fanlari doktori, professor |
| D.R. Djurayev | - | Fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| M.Y. Ergashov | - | Kimyo fanlari nomzodi, professor |
| B.N.Navro'z-zoda | - | Iqtisodiyot fanlari doktori, professor |
| SH.A. Hayitov | - | Tarix fanlari doktori, professor |
| D.S. O'rayeva | - | Filologiya fanlari doktori, professor |
| S. Bo'riyev | - | Biologiya fanlari doktori, professor |
| SH.R.Barotov | - | Psixologiya fanlari doktori, professor |
| SH.SH.Olimov | - | Pedagogika fanlari doktori, professor |
| A.A. Turayev | - | Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |
| A.R.Hamroyev | - | Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent |

**Mas'ul muharrir:**
***A.A. Turayev – magistratura bo'limi boshlig'i f.-m.f.f.d., (PhD)***

**Musahhih:**
***S.M.Raximova – magistratura bo'limi uslubshunosi***
***O.G'.To'rayev –magistrant***


*Havola etilayotgan maqolalarning saviyasi va mazmuni uchun mualliflarning o'zlari mas'ul va javobgardirlar.*


*Buxoro davlat universiteti kengashining 2020 yil 5 maydagi 9-yig'ilishida ko'rib ch baiqilib nashrga tavsiya etilgan.*

# MUQADDIMA

Mamlakatdagi fan va ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar, yoshlarimizning ta'lim olishlari uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar natijasida, yoshlarning oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba bo'lish, doktoranturada tadqiqot ishlarini olib borish, xodimlarning o'z mutaxassisliklari bo'yicha malakalarini oshirib borish imkoniyatlarining kengayishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ma'lumotli, yuqori malakaga ega xodimlarning ulushi ortib bormoqda. Iqtidorli yoshlarimizga puxta zamonaviy bilimlar berish, ularning intellektual kamol topishlariga sharoitlar yaratib berishga hukumatimiz tomonidan katta e'tibor berilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi fikrlari yoshlarimizga berilayotgan katta e'tiborning isbotidir: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz". Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tar ekanmiz, mamlakatimizda ro'y berayotgan jadal o'zgarishlar, jahondagi keskin raqobat sharoitida yangi g'oya va innovatsion yondashuvga tayanib, buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlashimiz zarurligini har birimiz tushunib olishimiz zarur. 2020 yilga yurtimizda "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berilishi davlat tomonidan ilm o'rganish va iqtisodiyotimizni rivojlantirish qolaversa innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berilishining yaqqol nishonasidir.

Respublika hayotining har bir sohasi va jabhasini rivojlantirishga yoshlarni keng jalb etish, ularning iqtidori, ilmiy salohiyati va shijoatidan unumli foydalanish, zamonaviy texnika va texnologiyalarga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, ularda ijodiy tafakkur va yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish hukumatimizning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarda chet tillarni, axborot texnologiyalarini mukammal o'rganishga intilish ortishi oqibatida magistratura talabalarining nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo miqyosida raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishlariga zamin yaratdi. Bugungi kun yoshlari milliy istiqlol g'oyasi talablariga mos bo'lib, mamlakatimizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini yanada mustahkamlashga intilayotgan iqtidor egalaridir. Buxoro viloyati qadimdan yuqori salohiyatli kishilar maskani sifatida dunyoda mashhur bo'lib, ularning davomchilari sifatida puxta bilim egallagan iqtidorli yoshlarimiz davlatimiz taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Ushbu to'plamda ilm-fanda ustozlarning davomchilari bo'lgan, barkamol mutaxassis bo'lish uchun intilayotgan magistratura talabalarining ilmiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Keltirilgan maqolalar ilm-fan olamiga endigina kirib kelayotgan yosh tadqiqotchilarning izlanishlarining ilk samarasi bo'lib, bu

natijalarni ommalashtirish, yosh tadqiqotchilarning o‘zlarining ilmiy faoliyatlari yo‘nalishlari bo‘yicha hamkor korxonalar va o‘z sohasining yetuk olimlari bilan tanishishlari natijasida, yirik loyihalar ishlab chiqishlari, fan va ishlab chiqarish hamkorligining samarali ko‘rinishlarini yuzaga keltirishlari mazkur to‘plamni tayyorlashning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

Kelajakda vatan ravnaqi uchun xizmat qilishga chog‘lanayotgan yosh, ilmga chanqoq magistratura talabalari orasidan o‘z ilmiy maktablariga ega bo‘lgan olimlar, xalq xo‘jaligining fidoiy xodimlari yetishib chiqishiga ishonamiz.

**O.X. Xamidov**
*Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori.*

# РАҚОБАТБАРДОШ МУТАХАССИСЛАРНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ

**О.С.Қаххоров**
*БухДУ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, и.ф.ф.д, (PhD), доцент,*
**Х.Х.Рўзиев**
*БухДУ магистранти*

Олий таълим ислоҳотлари – энг аввало рақобатбардош мутахассисларни тайёрлаш ва меҳнат бозорига йўналтирилгандир. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори узлуксиз таълим тизимини ривожлантириш, мамлакатимизнинг изчил ривожланиб бораётган иқтисодиётини юқори малакали кадрлар билан таъминлаш, барча ҳудудлар ва тармоқларни стратегик жиҳатдан комплекс ривожлантириш масалаларини ҳал қилиш борасида олий таълим тизими иштирокини кенгайтириш йўлидаги яна бир муҳим амалий қадамдир.

Мутахассисларни тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш орқали республика олий таълим тизимида юқори малакали рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг мазмунини мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёти истиқболлари, жамият эҳтиёжлари, илм-фан, маданият, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқларидан келиб чиққан ҳолда тубдан такомиллаштиришдан иборат.

Жамиятни ривожлантиришдаги замонавий тамойиллар юқори сифатли касбий билимга эга бўлиш имкониятини яратишнинг тубдан янги босқичига ўтишни талаб қилади. Дунё аҳолиси ўртасида кам таъминланганликни бартараф этишдан бошлаб барқарор инсоний ривожланишгача бўлган глобал муаммоларни ҳал этиш мақсадида билимлар яратиш ва алмашишда олий мактабнинг ўрни муҳимдир.

Рақобатбардош мутахассисларни касбий-педагогик шакллантириш олий таълим муассасаларида уларнинг касбий ва шахсий камолотини таъминлаш учун зарур педагогик шарт-шароитларни яратиш, бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш мазмуни ва тузилмасини модернизациялаш, психологик-педагогик шароитларини аниқлаш ҳамда унинг сифатини назорат қилиш ва баҳолаш механизмини ишлаб чиқиш орқали мутахассис компетентлигини шакллантиришнинг асосий мақсадини белгилайди.

Демак, ҳозирги даврда олий таълим самарадорлигини ошириш, рақобатбардош мутахассисларнинг касбий-педагогик компетентлик даражасини ошириш, педагог кадрларни инновацион фаолиятга йўналтириш, олий таълим муассасаларидаги ўқув жараёнига инновацион таълим ва ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ этиш, илғор хорижий тажрибаларни тадбиқ этиш, олий таълим тизимини модернизациялашнинг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади.

Олий таълим тизими олдида турган долзарб вазифалардан бири ўқитишда инновацион технологиялар ва ютуқлардан кенг фойдаланиш, уларни ўқув жараёнига жорий қилиб бориш ҳамда ривожланган давлатларнинг ўқитиш тажрибаларини мамлакатимиз таълим тизимига тадбиқ этиш ҳисобланади. Олий таълим тизимини модернизациялаш (ингл. modern – янгиланган, замонавий, тезкор ўсиш) таълим жараёнига нисбатан инновацион ёндашувни талаб этади.

Таълим олувчилар, таълим хизматини талаб этувчилар сифатида олий таълим (бакалавриат, магистратура)нинг барча босқичида маънавий-ахлоқий ва касбий жиҳатдан шахс сифатида шакллантирувчилардир. Давлат таълим стандартлари ва ресурслари воситасида уларнинг сифатли таълим олиши ва касбий тайёрланиши кафолатланади.

Олий таълим муассасалари ресурслари қуйидагилардан иборат:

- молиявий (бюджет ва бюджетдан ташқари манбалардан олинадиган) ресурслар;
- моддий-техника база, лаборатория ва амалий машғулотлар ўтказиш учун зарур бўлган ресурслар;
- компьютер технологияларининг техникавий, математик ва дастурий таъминоти;
- ахборот базаси (дарсликлар ва ўқув қўлланмалари, кўргазма материаллари, жиҳозлар ва ҳ.к.)

Ўқув-тарбия жараёнининг санаб ўтилган компонентлари кадрлар тайёрлаш учун замин яратади. Уларнинг сифати ва рақобатбардошлиги айрим олинган ҳар бир компонентнинг ва умумий заминнинг ривожланганлик даражасига боғлиқдир. Шунга кўра қуйидаги савол юзага келади: ўқув-тарбия жараёни компонентларига кандай талаблар қўйилиши керак?

Бу жараёнга ўз навбатида кўпгина муҳим омилларни жорий этилиши таъсир этади:

- ўқув жараёнини қўллаб-кувватлаш ва унинг муҳити;
- ўқитувчиларнинг руҳий-педагогик тайёргарлиги;
- касбий маълумот манбаи сифатида чет тилларини билиши;
- фанни чуқур билиш, касбий ваколатлилик ва иқтидорлиги;
- илмий-методик ва илмий-тадқиқот ишлари янги методик ва билимлар манбалари эгаллаганлиги;
- ўз ишини такомиллаштиришга мунтазам интилиши;
- узлуксиз таълим тизими меъёрий ҳужжатларини яхши билиши;
- компъютер технологиясини эгаллаган бўлиши;
- ахборот базаси ва ресурслар имконларини таҳлил қила олиши.

Тарбиялашнинг таълимдаги сифатга таъсири ўқитувчининг маданияти ва маънавияти, унинг шахсий ҳулқ-атвори ва обрўсига, ватанпарварлик ва бурчни ҳис этишига кўра даражасига хусусиятларига боғлиқ. Таълим олувчилардан эса, юкори маданият, маънавият ва жаҳон миқиёсида фикрлашни шакллантириш учун ўқитувчи кенг гуманитар ва инсонпарварона

тайёргарликка, шунингдек ўқув тарбия ишини ташкил қилиш малакасига эга бўлиши лозим.

Таълим муассасасини ривожлантириш сифат режасини ишлаб чиқишда ўқув-тарбия жараёни сифатини ошириш билан боғлиқ йўналишларга эътибор бериш лозим. Булар қуйидагиларни ўз ичига олади:

- ўқитувчи кадрлар малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш;
- ўқув-тарбия жараёнини амалга ошириш шароитларини яхшилаш;
- лаборатория ва амалий ишлар учун зарур моддий-техника базасини мукаммал таъминланишига эришиш;
- маълумотлар базасини ривожлантириш, янгилаб ва тўлдириб бориш;
- ўқитувчилар ва таълим олувчилар ўртасидаги ўзаро муносабатларда маънавий-руҳий муҳитни яхшилаш;
- таълим олувчилар билими, малакасини объектив назорат қилиш ва баҳолаш тизимини ривожлантириш;
- тарбиявий ишларни такомиллаштириш.

Хулоса қилиб айтадиган, бўлсак ҳозирги глобаллашув жараёнларида рақобатбардош мутахассисларнинг касбий-педагогик компетентлигини шакллантиришда қуйидаги омилларни талаб этади:

- Фан-техника тараққиёти ва ижтимоий-иқтисодий янгиланишни узлуксиз таълим тизимига жорий этиш;
- Бўлажак мутахассисларни мустақил фирклаш ва ишлашда илмий тадқиқот ишларига жалб этиш (реферат, курс иши, битирув малакавий иши бажариш, лойиҳалар ишлаб чиқиш;)
- Олий таълим муассасаларидаги ўқув жараёнини илғор хорижий тажрибаларни ўрганиш;
- Таълим берувчилар ва таълим олувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш;
- Бюджетдан ташқари маблағ топиш ишларини ташкил қилиш;
- Таълимга тизимли ёндашиш кўлами ва муқобиллигини таъминлаш;
- Таълим олувчиларнинг касбий компетентлигини шакллантиришда ижтимоий фаоллик, ижодкорлик кўникмаларини ривожлантиришга хизмат қилувчи шахсга йўналтирилган ўқитишнинг самарали инновацион технологияларини яратиш ва амалиётга татбиқ этиш.

## Фойдаланилган адабиётлар:


1. Ш.М. Мирзиёевнинг 2017 йил 20 апрельдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли қарори.
2. Толипов Ў. Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари.– Т.: Фан, 2006. – 262 б.
3. Мирсолиева М.Т., Ҳошимова М. ОТМда ўқув жараёни ва ўқув-услубий фаолиятни модернизациялаш ҳамда инновацион таълим технологияларини жорий этиш// Ўқув-услубий мажмуа. – Т.: БИММ, 2015.

# КОРОНАВИРУС ПАНДЕМИЯСИ ВАҚТИДА ТАЛАБАЛАРГА ТАЪЛИМ БЕРИШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР

**С.Қ. Қаххоров,**
*БухДУ "Физика" кафедраси профессори*
**С.Х. Қаҳоров,**
*"Мехнат таълими"кафедраси ўқитувчиси*

**Масофавий таълим.** Бутун дунёда коронавирус пандемияси тарқалишини олдини олиш мақсадида эҳтиёт чоралари кўрилмоқда. Мамлакатимизда ҳам корановирусдан сақланиш учун барча эҳтиёт чоралари кўрилган.Жумладан барча таълим муассасаларида ҳам таълим олиш , таълим бериш ,билим олиш-билим бериш жараёнлари ахборот-коммуникация технологиялари асосида онлайин тарзда олиб борилмоқда.Шунингдек олий таълим тизимда онлайн ва масофавий ўқитиш орқали таълим йўлга қўйилди.

Республикамизда олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан масофавий таълимни ташкил қилинишини ва у қандай омилларга боғлиқлигини ўрганиш мақсадида 2002 йилда Малазия давлатига биринчи малака ошириш бўйича гуриҳ юборилган эди.Шу гурухда мен ҳам бор эдим. Инсоният йигирманчи аср ниҳоясида бир туркум муаммоларга дуч келдиким, улар бевосита ахборот телекоммуникация соҳасидаги жиддий ўзгаришлар, хусусан ахборот технологияларининг жадал суръатлар билан ривожланишига боғлиқ. Таълим, ишлаб чиқаришнинг турли жабҳаларига янги ахборот коммуникация воситалари кириб кела бошлади. Интернет глобал компютер тармоғини ривожланиши бутун дунё таълим тизимини такомиллаштиришнинг янги йўналишларини очилишига сабаб бўлди. Биринчидан, ўқув муассасаларининг техник таъминотини кескин ўзгариши, дунёвий ахборот ресурсларга кенг йўл очилиши ўқитишнинг янги шакл ва усулларидан фойдаланиш заруратини келтириб чиқарди.

Замонавий ахборот ва коммуникация технологиялари воситаларини таълим жараёнига кириб келиши анъанавий ўқитиш усулларига қўшимча равишда янги ўқитиш шакли - масофавий ўқитиш яратилишига омил бўлди. Масофадан ўқитиш давр талабига айланиб таълим тизимини ривожига асос бўлди. Масофавий таълимда таълим олувчи ва ўқитувчи фазовий бир-биридан ажралган ҳолда ўзаро махсус яратилган ўқув курслари, назорат шакллари, електрон алоқа ва Интернетнинг бошқа технологиялари ёрдамида доимий мулоқотда бўладилар. Интернет технологиясини қўллашга

асосланган масофавий ўқитиш жаҳон ахборот таълим тармоғига кириш имконини беради.

Олий таълим муассасаларида масофавий таълимни жорий этиш коронавирусни кириб келиши ва тарқалишини олдини олиш юзасидан чора-тадбирлар тайёрлаш бўйича республика махсус комиссия йиғилишининг 11-сон байонида келтирилган топшириқларни ижросини таъминлаш мақсадида 2020 йил 27 мартда 233 сонли буйруқ чиқарилди. Унга асосан масаофавий таълим платформасини яратиш лозим яъни масофадан ўқитиш тизимини яратиш керак. Масофавий таълимни амалга оширишда шу соҳа бўйича малакали мутахассис, етарли моддий техник база ва интернет тизими(телефон,телеграм,сматфон...) компьютер талаб даражасида бўлиши лозим. ОЎМТВ тизимидаги бир қанча олий ўқув юртлари таълим тизимини (2020-2021)ў.й. кредит модуль тизимида амалга оширади. Бу тизимни асосини масофавий ва мустақил ўқитиш ташкил қилади.Масофавий ўқитиш шакиллари (онлайн,вебнет,вебинар,e-learning,дастурлари ва ш.к.) иборат бўлади.

Масофавий ўқитиш барча таълим олиш истаги бўлганларга ўз малакасини узлуксиз ошириш имконини яратади. Бундай ўқитиш жараёнида таълим олувчи интерактив режимда мустақил ўқув-услубий материалларни ўзлаштиради, назоратдан ўтади, ўқитувчининг бевосита раҳбарлигида назорат ишларини бажаради ва гуруҳдаги бошқа “Вертикал ўқув гуруҳи” таълим олувчилари билан мулоқотда бўлади. Масофавий ўқитишда турли хил ахборот ва коммуникация технологияларидан фойдаланилади. Масалан, анъанавий босма усулига асосланган ўқитиш воситалари (ўқув қўлланма, дарсликлар) талабаларни янги материал билан таништиришга асосланса, интерактив аудио ва видео конференциялар маълум вақт орасида ўзаро мулоқотда бўлишга, електрон почта тўғри ва тескари алоқа ўрнатишга, яъни хабарларни жўнатиш ва қабул қилишга мўлжалланган. Олдиндан тасмага муҳрланган видеомаърузалар таълим олувчиларга маърузаларни тинглаш ва кўриш имконини берса, факсимал алоқа, хабарлар, топшириқларни тармоқ орқали тезкор алмашиниш таълим олувчиларга ўзаро тескари алоқа орқали ўқитиш имконини беради.

Юқоридагиларга асосланиб, таълим жараёнига оид айрим терминлар тавсифи ва таърифларни келтириб ўтамиз.

**Масофавий таълим** - масофавий ўқитишга асосланган таълим.

**Масофавий ўқитиш** - ўзаро маълум бир масофада Интернет технология ёки бошқа интерактив усуллар ва барча ўқув жараёнлари компонентлари -

мақсад, мазмун, метод, ташкилий шакллар ва ўқитиш усулларига асосланган таълим олувчи ва ўқитувчи ўртасидаги муносабат.

**Масофавий ўқитиш тизими** - масофавий ўқитиш шартлари асосида ташкил етиладиган ўқитиш тизими. Барча таълим тизимлари сингари масофавий ўқитиш тизими ўзининг таркибий мақсади, мазмуни, усуллари, воситалари ва ташкилий шаклларига ега.

**Масофавий ўқитишнинг педагогик технологиялари** - танланган ўқитиш концепциясига асосланган масофавий таълимнинг ўқув-тарбиявий жараёнини таъминловчи ўқитиш методи ва услублар мажмуаси.

Университетда малака ошириш маркази томонидан ҳам масофадан ўқитишни жорий қилиш бўйича ишлар амалга оширилмоқда.

**Мустақил таьлим.** Талабалар ўқитувчининг бевосита иштирокисиз ёки билвосита бошқарувида у берган вазифа, дарслик асосида индивидуал бажарадиган иши мустақил иш ҳисобланади. Талабаларнинг мустақил иши ўқув жараёнининг ажралмас қисмидир. Ўқув материалларининг талабалар томонидан мустақил ўзлаштирилишини такомиллаштиришмасдан замонавий таълим олдига қўйилган вазифаларни талаб даражасида бажариш мумкин эмас.

Мустақил таълимни амалга оширишда **Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сонли фармони** ижроси бўйича ташкил этилаётган қайта тайёрлаш курслари ўқув дастурларида албатта мустақил таълим ҳақида махсус мавзулар ўз ўрнини топиши керак;

- талабалар мустақил ишларини самарали бажаришлари учун компютер ва интернет тармоғи билан таъминланишлари зарур;

- талабалар мустақил ишини тўғри режалаштирмасдан керакли натижаларга эришиб бўлмайди.

Мустақил таълимни фаоллаштирмасдан олий таълимда талабаларни самарали ўқитишни кўз олдимизга келтириш қийин. Ҳозирги давр мутахассисидан юқори даражадаги тайёргарлик, мустақил равишда қарорлар қабул қила олиш, белгиланган вазифаларни бажариш учун кўп маълумотлар орасидан кераклигини танлаб олиш ва бу маълумотларни қайта ишлай олиш талаб қилинади. Талабаларнинг таълим олишда анъанавий ўқитиш усулидан мустақил фаолиятига катта эътибор бериб бориш асосий етакчи ғоядир. Мустақил таълим талабаларга билим беришда бу талабани ўз ҳолига ташлаб

қўйиш эмас, балки педагог томонидан мунтазам бошқариладиган талабаларнинг мустақил фаолиятидир.

**Талабаларнинг мустақил таълимидан асосий мақсадлар қуйидагилардан иборатдир:**

• янги билим олиш усулларини эгаллаш, жараёнларни мустақил таҳлил қила олиш;

• аудиториядаги машғулотларда олган билимларини мустаҳкамлаш, чуқурлаштириш, кенгайтириш ва тартибга солиш;

• меъёрий-ҳуқуқий актлар, маълумотлар ва махсус адабиётлар билан ишлашни ўрганиш;

• ўқув материалларини мустақил ўрганиш;

• фаоллиги, билим орттириши, ижодий ташаббуси, масъулияти ва тартиблигини ривожлантириш;

• олган билимларини амалиётда қўллай олишни шакллантириш;

• Мустақил фикр юритиш, ўз-ўзини ўстириш, ўзининг режасини амалга оширишни шакллантириш;

• тадқиқот қила олиш қобилиятини ривожлантириш.

Талабалар мустақил таълимининг асосий вазифаси мустақил равишда маълумотлар топиш усули билан билим олишни ривожлантириш, ўқув жараёнига ижодий ёндашишга фаол қизиқишни шакллантиришдан иборат. Талабалар мустақил равишда курс ишлари, курс лойиҳаси, битирув малакавий иши ва магистрлик диссертацияларини тайёрлаётганларида қўйилган муаммоларни чуқур таҳлил қилиб, ўзларининг мустақил асосланган фикр ва хулосаларини чиқаришлари керак.

**Мустақил таълимнинг самарали бўлиши учун қуйидаги усул ва воситалардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ:** кластер, суҳбат, баҳс, тоифалаш жадвали, пинборд, инсерт, “Биламан, билишни хоҳлайман, билиб олдим” жадвали, Т-жадвал, Венн диаграммаси, “Нима учун?”, балиқ скелети ва бошқалар.

**Маъруза дарсларида камида 50% вақтда талаба мустақил ишлаши керак.** Бунинг учун маърузани савол-жавоб-мунозара шаклида ташкил этиш лозим, яъни ўқитувчи янги маълумотни нафақат баён этади, балки қўйилган саволларга жавоб излаб топишни ташкиллаштиради; маърузани савол-жавоб усулида олиб боришда ўқитувчи маъруза давомида бутун курс ёки бўлим бўйича ўқувчиларнинг саволларига жавоб беради;

- анжуман, маъруза, ўқув дастури доирасида илмий-амалий машғулот сифатида, аввалдан белгиланган муаммо буйича маъруза ва сўзга чиқишлар эшитилади;

- машғулот якунида ўқитувчи маълумотларни тўлдиради ва аниқлик киритади;

- ўқувчиларнинг вақтинча эркин фикр алмашишига рухсат берилади;

- ўқитувчи олдиндан кўзланган хатоликлар қилиб, маъруза якунида талабаларнинг ташҳиси ва қўйилган хатоликлар таҳлили олиб борилади;

- ўқувчиларга саволлар берилади ва уларнинг жавобларидан фойдаланилади.

Талабалар мустақил ишининг мақсади, вазифалари, ташкил этилиши, бошқариш ва назорат қилиш ҳамда баҳолашни таҳлил қилиш натижасида талабаларнинг мустақил ишининг самарадорлигини ошириш учун қуйидаги хулоса таклифларни беришни мақсадга мувофиқ;

- бакалавриат йўналиши талабаларининг ҳафталик умумий юкламаси (аудитория ва аудиториядан ташқари) ҳажми 54 соат қилиб белгиланган бўлиб, мустақил таълим 22 соатни, яъни 40%ни ташкил этади (чет давлатларда эса бу курсаткич 60-70%). Лекин, шуни таъкидлаб утишимиз керакки, факатгина мустақил соат ҳажмини ошириш билан талабаларнинг мустақил иши самарадорлигини ошириш мумкин эмас;

- сифатли ўтказилган маъруза талабалар мустақил ишини бажаришига керакли маълумотлар беради. Бундан келиб чиқадики, талабалар мустақил ишини бажаришга қаратилган катта эътибор маъруза машғулотларининг ролини пасайтирмасдан, аксинча уларни янги педагогик ва ахборот технологияларни қўллаб ўтказиш орқали самарадорлигини ошириш мақсадга мувофиқдир;

- талабалар мустақил ишини тўғри режалаштириш, ташкил этиш, назорат қилиш ва баҳолашнинг сўнгги ютуқларини чуқур ўрганиш учун педагогларнинг малакасини ошириш максадга мувофикдир.

Ҳозирги вақтда айниқса коронавирус пандемияси вақтида олий таьлимда фанларни ўқитиш сифатини оширишда масофавий ва мустақил таьлимнинг ўрни муҳим аҳамият касб этади ва онлайн таълимни амалга оширишнинг асосини ташкил этади.

## 5A130202 – Амалий математика ва ахборот технологиялари

# SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QUV MATERIALINI TAYYORLASH VA UNDAN FOYDALANISH

**T.B. Boltayev,**
*BuxDU, Axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti,*
**Sh.A. Murodov,**
*BuxDU, II kurs magistranti*

*Ushbu maqolada LMS Moodle tizimidan foydalanib shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv materiali sifatida elektron ma’ruza tayyorlash va undan foydalanish masalasi tadqiq etiladi.*

XXI asr pedagogikasining asosiy xususiyatlaridan biriga aylangan elektron ta’lim yoki elektron pedagogikani takomillashtirish uchun axborot kommunikatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga samarali qo‘llash, undan unumli foydalanish muammolari taxminan yarim asrdan beri jahon jamoatchiligining diqqat markazida turibdi. Ta’lim samaradorligiga erishish butun dunyo miqyosidagi amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalardan biri bo‘lib, bu vazifalarning o‘z muddatida sifatli bajarilishi innovatsion texnologiyalarni, jumladan, AKTni ta’lim jarayoniga tatbiq qilishni taqozo etmoqda. Global informatsion fazodagi ta’limga oid materiallarga asoslangan holda LMS platformalarida shaxsga yo‘naltirilgan o‘rganish muhitini yaratish axborot texnologiyalari asriga mos kadrlar tayyorlashning asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. Respublikamizdagi ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi masofaviy ta’lim tamoyillaridan biri – shaxsga yo‘naltirilgan o‘rganish muhitini yaratish va joriy qilish bugungi kunda o‘quv mashg‘ulotlari sifatini oshirish bo‘yicha dolzarb masalalardan biri sanaladi.

*Elektron ma’ruza* – individual mo‘ljallangan o‘quv materiali kontentini tayyorlash imkoniyatini beruvchi asosiy vositalardan biridir. Bunday kontent real hayotda o‘qituvchi bilan o‘rganuvchining yuzma-yuz (face to face) ta’lim jarayonini modellashtiradi. Shuning uchun bunday kontentni tayyorlash metodi bilan tanishishdan oldin yuzma-yuz individual ta’lim jarayonini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

O‘qituvchi tomonidan o‘rganuvchi oldsinovdan o‘tkazilgandan keyin o‘rganuvchining javobiga qarab, o‘qituvchi unga berilishi (yetkazilishi) kerak bo‘lgan o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga o‘rganuvchining qanchalik tayyor ekanligini aniqlaydi va berilishi kerak bo‘lgan o‘quv materialidagi bloklar ketma-ketligini oldsinov natijalariga asosan shakllantiradi.

Odatda o‘quv materiallari o‘qituvchining “xotira”sida bo‘ladi. Bu xotira – ma’ruza daftari, prezentatsiya, navigatsiya kartochkalari bo‘lishi mumkin yoki uni

oʻqituvchi yoddan bilishi mumkin. Har holda oʻquv materiallari qismlari daraxtsimon (iyerarxik) tuzilmani tashkil etadi.

Daraxtning har bir tashkil etuvchisini *oʻquv materiallari bloki* deb ataymiz. Materialni oʻrganuvchiga yetkazish *ildiz blokdan* boshlanadi. Keyingi blokka oʻtish oʻrganish jarayoni tipiga bogʻliq. Agar oʻrganish toʻliq (boshdan oxirigacha) boʻlsa, joriy blok tarkibidagi qismiy bloklarning barchasiga didaktik ishlangan ketma-ketlik asosida oʻtiladi. Agar oʻrganish tanlab oʻrganish, ya’ni material oldin oʻzlashtirilgan, hozir esa uning faqat kerakli qismigina takroran oʻzlashtiriladigan hol boʻlsa, blokning qaysi blokiga oʻtish oʻqituvchi yoki oʻrganuvchi tomonidan tanlanadi. Oʻquv materiallari daraxtining bir qismi toʻliq oʻzlashtirilib, boshqa qismi esa tanlab oʻzlashtirilishi mumkin.

Har holda oʻrganish ildiz bloki bilan boshlanib, qaysidir blok bilan tugaydi. Bunday bloklar ketma-ketligi *daraxtning oʻrganish yoʻli* deb ataladi. Bu yerdagi *yoʻl* tushunchasi ma’lumotlar tuzilmalaridagi daraxt yoʻli tushunchasidan farq qiladi, ya’ni oʻrganish yoʻlida orqaga qaytishlar boʻlishi mumkin.

*Seriya* deb oʻrganish yoʻlidagi shunday bloklar ketma-ketligiga aytiladiki, bunda bloklar orasida tekshiruvlar boʻlmaydi. Daraxt ildizidan boshlanuvchi birinchi seriya bloklari oʻrganuvchiga beriladi. Seriya tugagach, oʻrganuvchiga ma’lum savollar beriladi. Oʻrganuvchining bu savollarga bergan javoblari orqali uning joriy oʻzlashtirish holati aniqlanadi. Bu holat tahlil qilinib, oʻquv materiallarining qaysi bloklariga oʻtish kerakligi aniqlanadi. Bu jarayon tajribasi yetarli boʻlmagan oʻqituvchi uchun uzoq boʻlib, didaktik maqsad nuqtai nazaridan unchalik samarali ham boʻlmaydi. Ammo tajribali oʻqituvchi uchun bu jarayon juda tez, hattoki avtomatizm darajasigacha yetadi, chunki har bir oʻrganuvchi oʻqituvchini bu muammoli vaziyatni yechishga undaydi.

Oʻrganuvchining bergan notoʻgʻri javobiga asosan, uning oʻquv materialining qaysi joyini yetarli darajada oʻzlashtira ololmaganligi aniqlanadi. Agar berilgan javob bunday tahlil uchun yetarli boʻlmasa, qoʻshimcha savol beriladi va uning natijasi tahlil qilinadi. Savol-javob natijasida olingan ma’lumot tahlil qilinib, alternativ qarorlardan biri qabul qilinadi. Bunday jarayon algoritmi quyidagicha:

- Beriladigan oʻquv materiali joriy blokini **B** deb belgilaymiz.
- Algoritm **Teach(B)**:
  - **Kirish**: Oʻquv materiali bloklarining daraxtsimon tuzilmasi;
  - **Chiqish**: Oʻrganuvchining oʻquv materialini yetarli darajada oʻzlashtirgan holati.
  - **Next(B)** – keyingi blokni aniqlash protsedurasi.
- **1-qadam: Oddiy bloklardan oʻtish.** Toki B ≠ “Yakuniy blok” va B ≠ “Tekshirish bloki” B ni oʻrganuvchiga berish; B ← Next(B);
- **2-qadam: Blok tipini aniqlash.** Agar B = “Yakuniy blok” boʻlsa 10-qadamga oʻtish, aks holda (B = “Tekshirish bloki”) B ni oʻrganuvchiga berib, natijani olish;
- **3-qadam: Oʻzlashtirishni tekshirish.** Agar oʻrganuvchi oldingi tekshiruv blokidan B gacha boʻlgan bloklarni yetarli darajada oʻzlashtirgan boʻlsa, B ← Next(B) va 1-qadamga oʻtish;

- **4-qadam: O‘zlashtirishdagi kamchilik tipini aniqlash.** Agar o‘rganuvchi oldingi tekshiruv blokidan B gacha bo‘lgan bloklarni o‘zlashtirishda oddiy e’tiborsizlikka yo‘l qo‘ygan yoki biror tashqi effekt uni o‘zlashtirish jarayonidan chalg‘itgan bo‘lsa (muhim joyi shundaki, o‘kituvchi unda o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun yetarli potensiali mavjud deb hisoblaydi) 5-qadamga o‘tish, aks holda 8-qadamga o‘tish;
- **5-qadam: Takrorlash bloki tahlili.** O‘rganuvchining oldingi tekshiruv blokidan B gacha bo‘lgan bloklarning qaysiciga o‘tish kerakligi aniqmi? Agar aniq bo‘lsa, (uni B1 deb belgilaymiz) 6-qadamga o‘tish aks holda 7-qadamga o‘tish;
- **6-qadam: Takrorlash.** B ← B1; o‘rganuvchiga uning diqqatini jamlash haqida izoh berish va 1- qadamga o‘tish;
- **7-qadam: Takrorlash blokini aniqlash.** Qo‘shimcha savol-javob orqali oldingi tekshiruv blokidan B gacha bo‘lgan bloklarning qaysisiga o‘tish kerakligini aniqlash (faraz qilaylik u B1 bo‘lsin) va 6-qadamga o‘tish;
- **8-qadam: Kerakli tushunchalar bloklarini aniqlash**. O‘rganuvchi mu-ayyan bir tushunchalar haqida yetarli bilimga ega emas. Shu tushunchalar yorititilgan bloklarni aniqlash. Faraz qilaylik, bu tushunchalar B1…Bk bloklarida yoritilgan bo‘lsin.
- **9-qadam: Kerakli tushunchalarni o‘rganuvchiga berish.** B← B1 dan to Bk gacha **Teach(B);** 5-qadamga o‘tish;
- **10-qadam: Algoritmni tugatish.**




*1-rasm. Elektron ma’ruza informatsion modeliga misol*

O‘quv materiallari ushbu algoritmga asoslangan ta’lim jarayoniga asosan tahrirlab boriladi. Masalan, o‘rganuvchilarning aksariyati agar tekshirish blokidan muvaffaqiyatli o‘tsa (*algoritmdagi 3-qadam*), bu tekshirishni olib tashlash kerak

bo‘ladi, xuddi shunday, aksariyat o‘rganuvchilar e’tiborsizliklari uchun o‘tilgan bloklar qayta o‘zlashtirish uchun berilgan bo‘lsa, bunday bloklarni kengroq va tushunarliroq qilib o‘zgartirish kerak, yoki agar o‘rganuvchilarning aksariyatiga bir xil tushunchalarni yetarli darajada o‘zlashtirmaganliklari uchun mos qo‘shimcha bloklar o‘zlashtirish uchun berilsa, bunday qo‘shimcha bloklarni asosiy blokka o‘zgartirish kerak bo‘ladi va h.k.

O‘qituvchi har bir talaba bilan alohida ishlaydi va bu jarayonning natijasi sifatida o‘qituvchining tajribasi yillar davomida takomillashib boradi. Ana shunday takomilllashgan tajriba ososida tashkil etiladigan ta’lim jarayonining informatsion modeli – *elektron ma’ruzaning tuzilmasini* tashkil etadi. LMS Moodle’dagi sodda ko‘rinishli *ma’ruzaga oid informatsion modelga* quyidagicha misol ko‘rsatish mumkin (1-rasm).

LMS Moodle’da o‘quv materiallari bloklari sahifalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu modelda o‘quv materialining:

- *Kirish sahifasi;*
- *Uchta ta alternativ mavzular sahifasi;*
- *Birinchi alternativ mavzuning davomiga oid sahifa;*
- *Savol sahifasi;*
- *Qo‘shimcha ma’lumot sahifasi;*
- *Birinchi alternativ mavzu xulosasiga oid sahifa;*
- *Tugash sahifasi.*

sahifalari ko‘rsatilgan.

Qolgan (2- va 3-) alternativ mavzularning ichki sahifalari modelni murakkablashtirmaslik uchun ko‘rsatilmagan (ularni ham 1-alternativ mavzuning tuzilmasiga o‘xshash deb tasavvur qilish mumkin).

LMS Moodle’ning standart sahifalari *oval* orqali, kontent sahifalar *to‘g‘ri to‘rtburchaklar* orqali va savol sahifasi *romb* orqali belgilangan.

Ushbu informatsion model asosida mustaqil ta’lim jarayoni quyidagicha kechadi:

- “Kirish” sahifasi o‘rganuvchiga taqdim etiladi;
- sahifadagi ma’lumot o‘zlashtirilgandan keyin o‘rganuvchi 3 ta sahifadan biriga kirishi mumkin (buni o‘rganuvchi o‘z xohishiga ko‘ra tanlaydi);
- 1-alternativ mavzu tanlanganda uning sahifasi ko‘rsatiladi (ushbu sahifa oxirida “keyingi”, “davomi” yoki shunga o‘xshash belgi bilan keyingi (“1-mavzuning davomi”) sahifasiga o‘tish tugmasi ko‘rsatiladi. U orqali ushbu sahifaga o‘tiladi);

  ***Izoh**. Sahifalarning bo‘linishi bir necha omillarga bog‘liq: ma’lumotlarning didaktik tomondan ko‘lami, boshqa sahifadan mazkur ma’lumotga murojaatning mavjudligi va shunga o‘xshash sabablar bo‘lishi mumkin.*

- “Savol” tugmasi orqali savol berilgan sahifaga o‘tiladi (bu sahifadagi har bir savol uchun 4 ta alternativ javob mavjud (aslida boshqa turdagi savol ham tuzish mumkin):

- Agar o'rganuvchi 1-javobni tanlasa, u 1-mavzuning davomini o'zlashtirmaganligi aniqlanadi va ushbu sahifaga jo'natiladi;
- agar 2-javobni tanlasa, u holda o'rganuvchi 1-mavzuni boshidan tushunmaganligi aniqlanadi va u mavzuning boshidan qayta o'zlashtirishga uzatiladi;
- agar o'rganuvchi 3-javobni tanlasa, uning 1-mavzu davomida berilgan ma'lumotlar asoslanadigan ba'zi bir tushunchalarga ega emasligi bilinadi, ushbu ma'lumot sahifasiga uzatilib, undan keyin esa yana 1-mavzuning davomini qayta qarab chiqishga yo'naltiriladi;
- 4-variant esa to'g'ri javob varianti bo'lib, u holda o'rganuvchiga mantiqiy ketma-ketlikda turgan keyingi ("xulosa") sahifasi beriladi (*algoritmda keyingi sahifaga o'tish* ***Next(B)*** *protsedurasi orqali ko'rsatilgan*).

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Kesim M., Altinpulluk H. The future of LMS and Personal Learning Environments. Elsevier Ltd, 2013. (URL: https://www.researchgate.net).
2. Амбросенко Н.Д., Маховых М.Ю., Потапова С.О. Разработка электронного курса на LMS Moodle. – Красноярск, 2018. – 12 стр.
3. Андреев А.В., Андреева С.В, Доценко И.Б. Практика электронного обучения с использованием Moodle. – Таганрог: Изд-во. ТТИ ЮФУ, 2008. – 146 с.
4. Анисимов А.М. Работа в системе дистанционного обучения Moodle. – Харьков, ХНАГХ, 2009. – 292 с.
5. Shoymardonov T.T. va boshq. Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash: o'quv-uslubiy majmua. – T., 2017. – 188 b.


## INTEGRALLARNI TAQRIBIY HISOBLASHDA NYUTON – KOTES FORMULALARI


**O.I. Jalolov,**
*BuxDU, Axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti,*
**F.R. Karimov,**
*BuxDU, I kurs magistranti*


Ko'p masalalarda biror [a,b] oraliqda uzluksiz bo'lgan f(x) funksiyadan olingan $\int_a^b f(x)dx$ integralni taqribiy hisoblashga to'g'ri keladi. Bilamizki integralni hisoblashning aniq formulasi quyidagicha:

$$\int_a^b f(x)dx = F(b) - F(a)$$

(bu yerda F(x) funksiya f(x) funksiyaning boshlang‘ich funksiyasi)

Hamma vaqt ham F(x) funksiyani analitik ko‘rinishda ifodalab bo‘lmaydi. Bundan tashqari f(x) funksiyamiz jadval ko‘rinishda berilgan bo‘lsa unda F(x) ni umuman aniqlab bo‘lmaydi.

$$\int_a^b f(x)dx \approx \sum_{k=1}^{n} A_k f(x_k) \qquad (1)$$

(1) ko‘rinishdagi formulaga kvadratur formula deyiladi.

Bu yerda $A_k$ - lar kvadratur formulaning koeffisiyentlari , $x_k$ - lar esa kvadratur formulaning tugun nuqtalari deyiladi. $\sum_{k=1}^{n} A_k f(x_k)$ - kvadratur yig‘indi deyiladi.

$R_n(f) = \int_a^b f(x)dx - \sum_{k=1}^{n} A_k f(x_k)$ - kvadratur formula xatoligi.

**Interpolyatsion kvadratur formula qurish.**

Ko‘pincha kvadratur formula qurish uchun f(x) funksiya [a;b] oraliqda n ta tugun nuqtalar yordamida interpolyatsiyalanadi:

$$f(x) = \sum_{k=0}^{n} \prod_{j=1, j\neq k}^{n} \frac{\left(x - x_j\right)}{\left(x_k - x_j\right)} \cdot f\left(x_k\right) + r_n(f)$$

$A_k = \int_a^b \sum_{k=0}^{n} \prod_{j=1, j\neq k}^{n} \frac{\left(x - x_j\right)}{\left(x_k - x_j\right)} dx$ belgilab olsak u holda

$\int_a^b f(x)dx \approx \sum_{k=1}^{n} A_k f(x_k)$ formula bilan hisoblanadi.

**Nyuton – Kotes formulalari.**

Integrallash [a,b] chekli oraliqda teng h qadam bilan uzoqlashgan $x_k$=a+k*h tugun nuqtalar bilan aniqlangan kvadratur formula quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$\int_a^b f(x)dx \approx (b-a)\sum_{k=0}^{n} B_k f(x_k)$$

Bu yerda tugun nuqtalar quyidagicha hisoblanadi.

$$B_k = \frac{(-1)^{n-k}}{n \cdot k!(n-k)!} \int_0^n \prod_{\substack{j=0 \\ j\neq k}}^{n} (t-j)dt$$

n ga qiymat berib koeffisientlarni aniqlasak quyidagicha bo‘ladi.

$$n=1 \quad da \quad B_0 = B_1 = \frac{1}{2}$$

$$n=2 \quad da \quad B_0 = B_2 = \frac{1}{6}, B_1 = \frac{4}{6}$$

$$n=3 \quad da \quad B_0 = B_3 = \frac{1}{8}, B_1 = B_2 = \frac{3}{8}$$

$$n=4 \quad da \quad B_0 = B_4 = \frac{7}{90}, B_1 = B_3 = \frac{32}{90}, B_2 = \frac{12}{90}$$

$$n=5 \quad da \quad B_0 = B_5 = \frac{19}{288}, B_1 = B_4 = \frac{75}{289}, B_2 = B_3 = \frac{50}{289}$$

Nyuton – Kotes formulalari aniqligi yuqori bo‘lgan interpolyatsion kvadratur formulalarga kiradi. Amaliyotda integrallarni hisoblashda juda yaxshi natija beradi. Endi Nyuton – Kotes formulalarini Mathcad dasturida algoritm va dasturini tuzib aniq misollarda qo‘llab natijalarni solishtirib ko‘ramiz.

$$\mathbf{B(n)} := \left| \begin{array}{l} \text{for } k \in 0..n \\ \quad b_k \leftarrow \dfrac{(-1)^{n-k}}{n \cdot k! \cdot (n-k)!} \cdot \left[ \displaystyle\int_0^n \text{if}\left[k=0, 1, \left[\prod_{j=0}^{k-1} (t-j)\right]\right] \cdot \text{if}\left[k=n, 1, \left[\prod_{j=k+1}^{n} (t-j)\right]\right] dt \right] \\ b \end{array} \right.$$

$$(\mathbf{B}(9))^T \rightarrow \left( \frac{2857}{89600} \quad \frac{15741}{89600} \quad \frac{27}{2240} \quad \frac{1209}{5600} \quad \frac{2889}{44800} \quad \frac{2889}{44800} \quad \frac{1209}{5600} \quad \frac{27}{2240} \quad \frac{15741}{89600} \quad \frac{2857}{89600} \right)$$

$$n := 9 \qquad a := -5 \qquad b := 5 \qquad i := 0..n \qquad f(x) := e^x \cdot x$$

$$\int_a^b f(x)\,dx = 593.693 \qquad h := \frac{b-a}{n} \qquad x_i := a + i \cdot h$$

$$(b-a) \cdot \sum_{k=0}^{n} B(9)_k \cdot f(x_k) = 594.409$$

*1-rasm. Mathcad dasturida algoritm va dasturi.*

1- rasmdan ko‘rinadiki Nyuton – Kotes formulasini n=9 bo‘lganda aniq misolda tekshirib ko‘rilgan va yuqori natijaga erishilgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isroilov M. Hisoblash metodlari. 1-qism. Toshkent. 2008 y.
2. Самарский А.А, Гулин А.В. Численные методы. –М.: Наука. 1989г.
3.

# ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОТОПИТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ С НОВЫМ ВОДОГРЕЙНЫМ КОТЛОМ(КУОВ) И ЕГО МАТЕМАТИЧЕСКИЙ МОДЕЛЬ

**Ж. Жумаев**
*доцент БухГУ*
**Г.М. Усмонова**
*Магистрант I курса специальности*
*«Прикладная математика и информационных технологий»*

Система отопления составляет основную часть строительных коммуникаций зданий и сооружений различного назначения. Одной из основных задач строительной индустрии и архитектуры является создание искусственного климата, обеспечивающего нормальные производственные и бытовые условия жизнедеятельности человека.

Решение отопительных задач в Республике определяется относительно сухим континентальным климатом. В холодной период года на территории Республики требуется непрерывное отопление зданий в течении 3…4 месяцев. Около 1/4 всего топлива, потребляемого в Республике расходуется для целей отопления. Поэтому с экономической точки зрения и в связи с напряженностью энергетического баланса важнейшей задачей является рациональное использование топливно-энергетических ресурсов, разрабатывая оптимальное конструкции системы отопления.

Этим и объясняется Постановление Президента Республики Узбекистан от 22.08.2019 г. N ПП-4422 "Об ускоренных мерах по повышению энергоэффективности отраслей экономики и социальной сферы, внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии[1].

Один из основных элементов системы отопления является генератор тепла, или отопительный котёл. На сегодняшний день отопительные котлы должны отвечать многим критериям[2, 3], должны быть безопаснее, удобными в эксплуатации и т.д.

Имея в виду эти условия, авторами [2] был изготовлен и запатентован отопительный котёл КУОВ, некоторые результаты которой изложены в [3].

Чтобы оценить эффективности патентованного генератора тепла нами были созданы макет-модель котла КУОВ и макет один из популярных котлов массового производственного изготовления марки КОГн–Ташкент(рис.1).

Для изучения распространения тепла был изготовлен макет отопительной системы из 16 стояков. Для обоих макетов был использован одно и тот же обычная газовая горелка, с временем отопления в одинаковое время и одинаковым расходом газа. Для обоих макетов на стояках был сконструирован распределитель теплоты, который был предложен авторами.

На рис. 2 приведён показатели достижения предела температуры по временам для обоих экспериментируемых котлов. Видно, что степень повышения температуры в предлагаемом котле выше, чем в прототипе. Это достигается конструкцией котла, данные который приведены в таблице 1.



рис.1. Макеты котлов КУОВ(левый) и КОГн-Ташкент(правый).




Рис. 2. Сличительная диаграмма времени достижения предельной температуры на главном стояке. Замеры после каждой 10 минут.

| № | Показатели | КОГн | КУОВ |
|---|---|---|---|
| 1 | Объём теплоносителя в котле, л. | 1,15 | 0,15 |
| 2 | Длина пути жара от пламени огня, м. | 0,23 | 2,198 |
| 3 | Длина пути теплоносителя в котлах, м. | 0,25 | 2,5 |
| 4 | Температура в трубе сброса отработанных газов на уровне накопителя распределителя(замер после 1-го часа), градус. | 130 | 28,4 |
| 5 | Температура теплоносителя на выходе из котла, градус. | 60 | 87,5 |

Таблица 1. Сличительная диаграмма показателей макетов котлов.

Разница показателей котлов в конструкции отражается в показателях их работы. Так, из таблицы видно, что в предлагаемом котле на атмосферу выбрасывается на много меньше энергии, чем на прототипе. Этим мы экономим топливное сырьё, ещё это экологически выгодно. Оставшаяся

энергия расходуется на повышении температуры теплоносителя, который в свой очередь передаётся к отопительную систему.




Рис.3. Распределение температуры на стойках макета системы отопления.

На рис. 3 показаны средние температуры на стойках системы отопления. Примерная одинаковая температура на стойках достигается через ноу-хау, которое предлагается авторами. Высокая температура, которая достигается при применении предлагаемого котла, результат новшеств, которое введены авторами патента, приведённого в списке литературы.

Таким образом, проведённые эксперименты показали высокий коэффициент полезного действия котла КУОВ, на основе введенных новшеств, приведённого в патенте. Таким образом, использование этого котла на практике может привести к экономию топливного сырья, запасы которой уменьшается каждым годом.

Для теоретического исследования течения воды в трубе котла(рис.1) и набора теплоты, которой передается через шнекообразной установки, надо писать математический модель. Шнек изготовлен для того, чтобы тепло, полученное при горении, быстро не ушла на выходную трубу котла, а обогревала воду, которой находится в трубе закрученное вблизи шнека(рис.1).

Таким образом, исследуемую область можно описать так: В трубе имеется вода, имеющая температуру окружающей среды, в какой то времени на границе трубы подается горячий воздух, который начинает обогревать воду. После некоторого времени вода нагревается, и по закону Архимеда горячая вода начинает двигаться вверх.

Картина теплового пограничного слоя приведена в [4]. Таким образом, скорость течения в стенке равно нулю, стенка имеет температуру, большую чем температура жидкости внутри трубы.При свободной конвекции тепловой и динамический пограничные слои взаимозависимы и их следует рассматривать совместно.Имея в виду выше изложенное, систему уравнений нестационарного пограничного слоя можно писать так:

$$\left.\begin{aligned}
&\frac{\partial\rho}{\partial t}+\frac{\partial(\rho u)}{\partial x}+\frac{\partial(\rho v)}{\partial y}=0,\\
&\frac{\partial u}{\partial t}+\rho u\frac{\partial u}{\partial x}+\rho v\frac{\partial u}{\partial y}=\frac{1}{\mathrm{Re}}\frac{\partial}{\partial y}\left(\mu\frac{\partial u}{\partial y}\right)-\frac{\rho}{Fr},\\
&\frac{\partial T}{\partial t}+\rho u\frac{\partial T}{\partial x}+\rho v\frac{\partial T}{\partial y}=\frac{1}{\mathrm{Pr}}\frac{1}{\mathrm{Re}}\frac{\partial}{\partial y}\left(\mu\frac{\partial T}{\partial y}\right),\\
&\rho=\frac{const}{T}
\end{aligned}\right\}$$

Предполагая течение симметричным, начальные и граничные условия можно сформулировать следующим образом:

$$\left.\begin{aligned}
&x=0:\begin{cases} u=0, T=T_0, v=v_0 & при\, 0\le y<1\\ u=0, T=1, v=0, & при\ \ y=1\end{cases}\\
&x\succ 0:\begin{cases} \frac{\partial u}{\partial y}=0, \frac{\partial T}{\partial y}=0, \frac{\partial v}{\partial y}=0 & при\, y=0\\ u=0, T=1, v=0 & при\ \ y=1\end{cases}
\end{aligned}\right\}$$

Следующая задача – решение системы.

**Литература:**

1. Постановление Президента Республики Узбекистан “Об ускоренных мерах по повышению энергоэффективности отраслей экономики и социальной сферы, внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии”. г. Ташкент, 22 августа 2019 г. № ПП-4422// http://www.lex.uz/docs/ -3512871.
2. Хамидов О.М., Хамидов Х.О. Водогрейный котёл. Патент на полезную модель. № FAP20120091. Агенство по интеллектуальной собственности Республики Узбекистан 26.06.2012. Зарегистрирован в государственном регистре полезных моделей Республики Узбекистан в 07.04.2014.
3. Джураев Х.Ф., Хамидов О.М., Расулов Ш.Х.. Совершенствование системы отопления жилищных домов на основе оптимизации гидродинамических параметров//Международный научный журнал «Учёный XXI века». №2-3, 2017. Стр. 6-10.
4. Жумаев Ж., Файзиева Д.Н.Вертикал жойлашган манба яқинида конвектив иссиқлик алмашиниш жараёнини сонли ўрганиш//Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 2014. № 2, 9-12 betlar.

# O'QUV JARAYONIDA MOODLE TIZIMINING IMKONIYATLARI VA AFZALLIKLARI

**N.S. Sayidova**
*BuxDU, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti, f-m.f.n.*
**J.J. Jo'raqulov**
*BuxDU, Fizika-matematika fakulteti II bosqich magistranti*

Ta'lim sifatidan qoniqmaslik turli sabablarga ko`ra bo`lishi mumkin. Buning dastlabki va asosiy sababi pedagog kadrlarni internet texnologiyalari va masofaviy ta`limdan foydalanib ta`lim berish sifatini yaxshilashdadir. Aynan hozirgi kun ta`lim tizimi faoliyatini yaxlitligiga va uning har bir bo`laklarini alohida holdagi samaradorligini belgilaydi. Bizning mamlakatimiz ta`lim tizimi ham boshqa rivojlangan davlatlar ta`lim tizimidan qolishmagan holda yuksalib bormoqda. Ilgarilari masofadan o`qitish yoki ma`lumot almashish qiyin vazifadek ko`ringan bo`lsada, bugungi kunga kelib u hayotimizning barcha sohalariga tadbiq qilinmoqda va uning ajralmas bir bo`lagi bo`lib qolgan.

Masofaviy ta`lim tizimida elektron universitetlarni tashkil etish, ularni masofadan boshqarish, on-line va off-line o`qitish tizimida Tyutorlarni shakllantirish hamda ularga ish faoliyatini olib borishlarini ta`minlash uchun bir qancha dasturiy vositalar ishlab chiqilgan. Bular: Ucoz sayt yaratuvchi konstruktorlari, Claroline, Moodle masofaviy ta`lim platformasi, OpenACS masofaviy ta`lim platformasi, Sakai masofaviy ta`lim platformasi, e-Learning Server masofaviy ta`lim platformasi, Atutor masofaviy ta`lim platformasi kabi erkin va ochiq kodli dasturiy vositalarni misol qilishimiz mumkin.

Bu dasturlar yordamida har bir masofaviy ta`lim professor-o`qituvchisi ya`ni Tyutor o`zining elektron kabinetini yaratadi, shu yerda har bir talaba o`z xoxishiga ko`ra ro`yxatdan o`tadilar va o`zlari tanlagan professor-o`qituvchidan (Tyutordan) Online va Offline tarzda bilimlarini oshiradilar va tahsil oladilar.

Yuqoridagi fikrlardan ko`rinib turibdiki axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning rivojlanishida yetuk mutaxassislarning roli va o`rni beqiyosdir. Bunday kadrlarni tayyorlashda masofaviy ta`lim texnologiyalariga oid fanlar va ularni o`qitishning samaradorligini oshirish bugunning dolzarb masalalaridan biridir. Biz hozirgi kunlarda Buxoro davlat universiteti "Axborot texnologiyalari" kafedrasida "Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili" yo`nalishi talabalariga o`qitilayotgan "Axborot texnologiyalari" fanining o`quv modullarini joylashtirish uning imkoniyat va afzalliklari ustida ilmiy-amaliy ishlarni bajarib kelmoqdamiz. Avvalo mavzuning nazariy masalalar va tashkiliy xarakterga ega bo`lgan hujjatlarni o`rganish, shu bilan birga oliy ta`lim muasasalarida "Moodle tizimi va uning imkoniyatlari" mavzusinining mazmun mohiyatini o`rganish hamda uni nazariy va amaliy tadqiq etishni ustida ishlamoqdamiz. Bunda biz avvalo shu ish uchun muhim bo`lgan adabiyotlar masalan: N.N. Azizxo'jaevaning "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" nomli o'quv qo'llanmalarini,

F.M. Zakirovaning “Elektron o‘quv-metodik majmualar va ta’lim resurslarini yaratish metodikasi” nomli metodik qo‘llanmani, A.M. Anisimovning “MOODLE masofaviy o’qitish tizimida ishlash” nomli o’quv qo’llanmalarini, L.V. Golish va D.M. Fayzullayevalarning “Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish” nomli o’quv uslubiy qo’llanmalarini, F. Zakirova, U. Muxamedxanov, Sh. Sharipov, R. Isyanov, F. Esanboboyev, S. Dottoyevlarning “Elektron o’quv-metodik majmualar va ta’lim resurslarini yaratish metodikasi” nomli metodik qo’llanmalarini internet orqali muhim ma`lumotlar bilan tanishdik va tahlil qilib chiqdik. Shundan so`ng oldimizga quyidagilarni maqsad qilib oldik:

- “Moodle tizimi va uning imkoniyatlari” mavzusini taraqqiyotining ustivor yo`nalishlarini nazariy va amaliy tahlil qilish;
- “Moodle tizimi va uning imkoniyatlari” mavzusi yordamida o`qitishda innovatsion ta`lim texnologiyalari va ilg`or xorijiy tajribalardan foydalanish yo`llarini yoritish;
- “Moodle tizimi va uning imkoniyatlari” mavzusidan o`quv moduli ishlanmasini tayyorlash;
- Oliy ta`lim muassasalarida “Moodle tizimi va uning imkoniyatlari” mavzusi orqali o`qitishni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Moodle – bu o`qituvchilar tomonidan online-kurslarni yaratish uchun maxsus ishlab chiqilgan sayt tarkibini boshqarish tizimi (Content Management System - CMS) dir. Uni ko`pincha E-learning tizimlarni o`qitishni boshqarish tizimlari (Learning Management Systems - LMS) yoki virtual o`qitish vositasi (Virtual Learning Environments - VLE) deb ham atashadi.

Moodle avtori - Martin Dougiamas. Universitetni Computer Science va Education mutaxassisligi kursini tugatgandan keyin, u "The use of Open Source software to support a social constructionist epistemology of teaching and learning within Internet-based communities of reflective inquiry" mavzusidagi dissertasiyasini himoya qildi. Axborot texnologiyalarini qo`llash orqali ta`limni qo`llab – quvvatlash platformasini yaratish g`oyasi unda 1999 yilda Curtin University (Avstraliya) Universitetida WebCT tijorat platformasi bilan ishlash tajribalaridan kelib chiqdi. Bu bepul tarqaladigan dasturiy majmua funksional imkoniyatlarini o`rganishdagi soddaligi va ishlatishdagi qulayligi bilan electron o`qitish tizimlaridan foydalanuvchilarning ko`pgina talablarini qanoatlantiradi. Moodle masofaviy sohada o`qitish jarayonini to`la qo`llab-quvvatlash uchun keng doiradagi imkoniyatlarni beradi – o`quv materiallarini turli usullarda berish, bilimlarni tekshirish va o`zlashtirish nazorati hozirda Moodle tizimini dunyoning ulkan universitetlari o`qitish uchun ishlatishmoqda.

Moodle (http://www.gnu.org/copyleft/gpl.html) GPL litsenziyasi ostida (http://www.opensource.org/docs/definition_plain.html) ochiq joriy kodi bilan dasturiy ta`minot kabi tarqalmoqda. Ochiq dasturiy kodli Moodle ga o`zgartirishlar kiritish, yaxshilash, modifikatsiyalash uchun http://www.moodle.org manzil bo`yicha kirish mumkin Moodle ni ishlatish strategiyasi, filosofiyasi bo‘yicha

qo‘shimcha axborotlarni http://thinkingdistance.org/ manzil bo‘yicha olish mumkin.

Moodle so`zi – bu - Modular Object - Oriented Dynamic Learning Environment‖ so`zining abbreviaturasidir. Rus tilida – Мудл va – Моодус (Модулная объектно-ориентированная динамическая управляюшая среда) nomlari ham qo`llaniladi. Moodle Unix, Linux, FreeBSD, Windows, Mac OS X, Netware peratsion tizimlari va PHP ishlatilishi mumkin bo`lgan ixtiyoriy boshqa tizimlarga ham modifikatsiyalarsiz qo`llanilishi mumkin. Ma`lumotlar MySQL va PostgreSQL ma`lumotlar bazasida saqlanadi, ammo ma`lumotlar bazasini boshqarishning tijorat tizimlari ham ishlatilishi mumkin. Moodle oson vositalar yaratish imkoniyatiga ega. Yangi versiyaga o`tishda qiyinchiliklar va yangilanishlar kelib chiqmaydi. Moodle MO`T ning yangi versiyasini http://www.moodle.org dan olish mumkin.

Hozirgi vaqtda yoshlarga ta`lim-tarbiya berishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga katta e`tabor berilmoqda. Yangidan qurib ishga tushirilgan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, qayta rekonstruksiya qilinayotgan oliy talim muasasalar ularning jahon andozalari darajasida axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanishi hamda barcha fanlarni zamonaviy kompiyuterlardan foydalanib mashg`ulotlar o`tishda professor-o`qituvchilarning professional tayyorgarligi yuksak darajada bo`lishini taqazo etadi.

Bugungi, axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanayotgan davrda, har bir tashkilotning internet tarmog`ida "virtual yuzi" bo`lish zarurati tug`ilmoqda, ayniqsa ta`lim muassasalarida virtual universitetlarni rivojlanishi tyutorlikka ya`ni masofaviy ta`lim o`qituvchisiga bo`lgan talabning ko`payishi natijasida ta`limiy web saytlarni yaratish bugungi kunnig dolzarb muammolari hisoblanadi. Web – sayt hozirgi kunda juda ko`p vazifalarni hal qilmoqda, taklif qog`ozchasiga aylanib bormoqda, ta`lim funksiyalarini amalga oshirmoqda va yangi foydalanuvchi yoki mijozlarni jalb qilmoqda. Bugungi kunda juda ko`p ta`lim saytlari mavjud. Lekin ta`limiy web – saytni yaratish va uni internet tarmog`iga joylashtirish bilan ta`limiy web – sayt ustida ishlar yakunlanmagan bo`ladi. Foydalanuvchi talabiga javob bermaydigan ta`limiy saytning ichki tarkibi – bugungi kunda keng tarqalgan muammolardan biri. Bu mavzu juda ko`p izlanishlarda yoritilgan ham.

"BuxDU virtual ta`lim muhiti" masofaviy ta`lim tizimi talabalarni masofadan turib o`qitish mo`ljallangan. Talabalar ushbu tizim orqali ixtiyoriy vaqtda ixtiyoriy joyda turib mavjud elektron resurslardan foydalanishi, o`qishi, o`qituvchidan vazifa va takliflar olishi mumkin. O`qituvchi, doimiy ravishda resurslarni yangilab turishi va o`quvchilarining tashrifi va bajarilayotgan vazifalarini nazorat qilib turishi mumkin. Vazifalar o`qituvchi tuzgan testlar yordamida yoki laboratoriya ishlari turi bilan berilib boriladi. Plaformada ishlash sodda bo`lib jahon standarlariga javob beradi.

Hozirgi kunda bir qancha ta`limiy web sayt yaratuvch dasturlar mavjud. Ulardan LMS tizimlari bo`lib, bizning ishimizda o`quv jarayonini boshqarishda

ushbu tizimlar yordamidan foydalanish va bu orqali qanday qilib masofaviy ta`limning ajramas qismi bo`lgan o`quv modullarini tashkil etish yuzasidan tavsiyalar berish bo`lib bu borada biz elektron uslubiy qo`llanmani tayyorlashga erishdik.

Bundan tashqari ishimizning nazariy qismini amaliy sohasi tahlil qilingan va ulardan eng ommaviysi hisoblanadigan Moodle platformasidan foydalanib o`quv jarayonini boshqarishda yuzaga keladigan muammolarni yechishga qaratilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining birinchi bobida “Moodle tizimi va uning imkoniyatlari” mavzusi taraqqiyotining ustuvor yo`nalishlari va “Moodle tizimi va uning imkoniyatlari” mavzusini o`qitishda innovatsiyalar va ilg`or xorijiy tajribalar tahlilining nazariy asoslari yoritib berilgan. Ikkinchi bobida “Moodle tizimi va uning imkoniyatlari” mavzusi o`quv moduli ishlanmasi keys to`plami, amaliy topshiriqlar ishlab chiqilgan. Bunda asosan dars jarayonida qo`llash uchun vaziyatli rolli - o`yin uslubi bo`yicha mustaqil ishlar uchun keys-vazifalar keltirilgan bo`lib, bu esa o`z navbatida mavzuni talabalar tomonidan yanada yaxshi o`zlashtirilishiga sabab bo`ladi. Bundan tashqari mavzu yuzasidan nazorat savollari test savollari tuzildi va pedagogik amaliyot vaqtida dars jarayoniga qo`llandi va aniq natijalarga erishildi.

Shu bilan bir qatorda mavzuga oid amaliy topshiriqlar ishlab chiqildi va bu topshiriqlar asosida o`tkazilgan ochiq darsda talabalarga bir qator vazifalar berildi.

Talabalar bu ishlab chiqilgan topshiriqlardan foydalanib, mustaqil o`zlari berilgan vazifalarni bajarishlari mumkin.

Demak, yuqoridagilarga asoslangan holda bu magistrlik dissertatsiya ishimizda ta`limiy web – sayt tushunchasining asl mohiyati va ularning klassifikatsiyasi, LMS tizimlari boshqaruv tushunchasi va yaratish bosqichlari tahlili, saytni keyinchalik “aylantirish” va rivojlantirishni o`rganish kabi oldimizga qo`yilgan vazifalar hal qilindi. Mavzuni yoritishda ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanildi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anisimov A.M. Moodle masofaviy o’qitish tizimida ishlash. Tarjima: tarjimonlar-Nishanov A.X., Anarbaeva F.O’. O’quv qo’llanma. 2-nashr, tuzat. va to’ldir.- Xarkov-XNAGX-2009.-317 bet.

2. Сайидова Н.С. Вебинар технологияларга асосланган малака ошириш ва олий таълим тизими жараёни. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро, 2017. -№3. -Б. 174-179

3. Сайидова Н.С., Казимова Г., Хадиева Г. Д. Web технологияни масофавий таълим адабиётларини ишлаб чиқаришда қўллаш. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро,2014. -№2.-Б.135-138.

4. https://moodle.org/login/index.php

# ADOBE PHOTOSHOP RASTRLI DASTURIDA OBYEKT VA FON USTIDA O’ZGATIRISH

**N.S.Sayidova,**
*BuxDU “Axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, fiz.-mat.fan.nomz.*
**O.R.Haydarov**
*BuxDU Fizika-matematika fakulteti I bosqich magistri*

Yangi informatsion texnologiyalar ichida kompyuter grafikasi va dizayni progressiv yo‘nalish hisoblanadi. Bu yo‘nalish ham texnika sohasida grafik stantsiyalarning paydo bo‘lishi ham dasturiy vositalarni yaratish sohasida katta rivojlanishni boshidan kechirmoqda. Chunonchi, sifati bo‘yicha videofi’em kadrlari bilan raqobat qila oluvchi real hajmli, harakatlanuvchi tasvirlarni yaratish imkoniyatlari yaratildi. Bu dasturiy mahsulotlar, shuningdek, reklama ishlab chiqarish mahsuli bo‘lib, san`at sohasida va multimedia texnologiyasida qo‘llaniladi. Shuningdek, namoyish grafikasi va ilmiy vizuallash, geometrik modellashtirish, grafik interfeyslarni proyektlash, animatsiyalar va virtual voqelikni ko‘rishga katta e`tibor berilmoqda.

Adobe Photoshop Windows muhitida ishlovchi Macintosh va IBM PC kompyuterlari uchun mo‘ljallangan elektron ko`rinishdagi foto tasvirlarni tahrirlovchi dasturdir. Adobe Photoshop dasturi Adobe System, Inc kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan bo`lib, ishlatishdagi alohida qulayliklari bilan mashhurdir.

Adobe Photoshop tasvir tahrirlagichi yordamida fotosuratlarga qo`shimchalar kiritish, fotosuratdagi dog’larni o`chirish, eski rasmlarni qayta ishlash va ularni tiklash kabi ishlarni bajarish mumkin. Rasmlarga matn kiritish, qo‘shimcha maxsus effektlar bilan boyitish, bir fotosuratdagi elementlarni ikkinchi fotosuratga olib o`tish, suratdagi ranglarni o`zgartirish, almashtirish kabi amallarni ham bajarish mumkin. Adobe Photoshop imkoniyatlari keng qamrovli bo`lib, u gazeta va jurnallarni turli-tuman rasmlar bilan boyitishda juda katta qulayliklar yaratadi.

Adobe Photoshop, ayniqsa, jurnalistlarning, rassomlarning ijodiy imkoniyatlarini to`la amalga oshirishlariga yordam beradi. Jurnalistika va bevosita matbuot yoki nashriyot sohasiga aloqador bo`lgan shaxslarning mazkur dastur bilan ishlashni bilishi uchun qo`shimcha imkoniyatlarni yaratib beradi. Photoshop dasturi – grafik muharrir bo`lib, rastr (nuhtali) tasvirlar bilan ishlashga mo‘ljallangan (rast formatli grafik fayllar, fotografya, tasvirlar va h.k.).

Ekrandagi piktogramma asboblarini foallashtirish uchun sichqoncha bilan chertish kifoya. Piktogrammalarni yon tomonida kichkina yo‘nalish joylashgan bo`ladi. Agarda yo`nalishga chertilsa, palitra ochiladi va bizlar shu guruhga kiruvchi asboblarni tanlash imkoniatiga ega bo`lamiz.

Asboblar bilan ishlashning yana bir qulaylik tomonlaridan biri klaviatura yordamida ekranga chaqirish (har bir asbobga mos keluvchi harfni yodda saqlab qolish kerakligini unutmasligimiz zarur). Agarda siz tugmalar kombinatsiyasini yoddan chiqargan bo`lsangiz, u holda kerakli bo`lgan asbob ustida bir necha

sekund sichqoncha yordamida ko`rsatib tursangiz sizga tugmalar kombinatsiyasi haqida ma'lumot beradi. Guruhdagi asboblarni ketma-ket joylashganiday qilib chaqirish uchun **Shift** va mos tugma bosiladi. Yoki **Alt** tugmasi bosilgan holda mos asbobni sichqoncha bilan ko`rsatish orqali amalga oshiriladi.

Bu maqolada biz Adobe Photoshop dasturida obyekt va fon ustida o`zgartirishlarni yoritish maqsadida ketma-ketlikka rioya qilgan holda bajaribasmga olib so`ng izohlashlarni qildik.



**1-rasm.** Adobe Photoshop dasturi uskunalar panelidagi asboblar.

Biz fon sifatida bir rasm olamiz va boshqa rasm tanlanib undan kerakli obyektni qirqib olamiz. Qirqib olinishi uchun quyidagi asbobni tanlaymiz.



**2-rasm.** Adobe Photoshop dasturi uskunalar belgilash asboblari.

Uskunalar panelidan 2-o'rinda turgan asbobni o'ng tomoniga bosilsa quyidagicha hosil bo'ladi va undan sehrli tayoqcha asbobi tanlanadi. Asbobni

ishlatish uchun bir boshdan obyekt belgilanadi. Qirqilgan obyekt esa quyidagicha ko’rinadi.




**3-rasm.** Adobe Photoshop dasturida obyekt ustida olib borilayotgan ishlash.

Endi bu obyektni boshqa kerakli fonga olib qo’yamiz bu uchun: belgilangan obyekt ustiga CTRL+C ya’ni nusxa ko’chiramiz keyin kerakli fon yoki rasm ustiga borib CTRL+V ya’ni  etib qo’yamiz:




**4-rasm.** Adobe Photoshop dasturida obyekt va fon ustida olib borilayotgan ishlash.

Endi buni o’rnini o’zgartirish uchun CTRL+T tugmasini klaviaturadan bosamiz va uni xonlagancha o’zgartirishimiz mumkin.

Shundan so`ng biz keraklicha qo’yib olgandan keyin sloylarni ko’ramiz, ya’ni yangi o’rnatgan obyektimiz yangi sloy bo’ladi. So`ngra yana bir bor CTRL+V ni bosganda hosil bo’ladigan obyektni boshqa holatda qo’yamiz.

CTRL+T dan hosil bo’ladigan ramkachadan  o’ng tomon o’rtasidagini olib quyidagicha harakatlantirsak yangicha korinish hosil bo’ladi:



**5-rasm.** Rasmlarni burashda ishlatiladi.

va bu holatni bir necha marotaba qaytarish mumkin. Bu esa hozirgi kunlarda juda ko`p sohalarda ma`lum bir dizayn ishlarida juda ko`p foydalanib kelinmoqda. Va marhamat oxirgi natijani ko`ramiz.




**6-rasm.** Adobe Photoshop dasturida obyekt ustida olib borilayotgan ishlash.

Bu maqoladan kerakli xulosa va aniq amaliy ishlashni mukammal bajarish uchun o‘quvchi, talaba va foydalanuvchilardan albatta ***Office*** dasturlarida matn bilan ishlash qoidalarini o`zlashtirgan bo‘lishi, matnni tahrirlash usullarini bilishi, ***Adobe Photoshop*** dasturini ishga tushirishni bilishi, dastur haqida umumiy ma’lumotga ega bo`lishi, hamda uskunalar panelini o`rnatish va uning imkoniyatlarini bilish kerakligi talab qilinadi, xolos.

Xulosa o‘rnida shuni ta`kidlash mumkinki, bu maqolani yozishdan maqsad o`quvchilarda “***Adobe Photoshop***” dasturida obekt va fon bilan ishlash bilim, ko`nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish bo‘lib, albatta natijalar kutiladi:

- o‘quvchi “***Adobe Photoshop***” dasturida obekt va fon bilan ishlash qoidalarini biladi va gapirib bera oladi;
- o‘quvchi “***Adobe Photoshop***” dasturida obekt va fon bilan ishlay oladi;
- o‘quvchi “***Adobe Photoshop***” dasturida obekt va fon bilan ishlash bo‘yicha maslahat bera oladi;
- o‘quvchi “***Adobe Photoshop***” dasturida obekt va fon bilan ishlash bo‘yicha hisobot bera oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sayidova N.S., Kazimova G. X., Salimova M. N. Adobe Photoshop dasturi va unda matnlar ustida olib boriladigan amaliy ishlar. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. - Buxoro, 2018. -№3. -Б. 202-208
2. Sayidova N.S., Atamuradov J.J., Hayitov U.H. Kompyuter grafikasi dasturlari (I Qism). O`quv qo`llanma. Talabalar uchun. – Buxoro: «Iste`dod». 2018, -b.227.
3. Sayidova N.S., Uslubiy ishlanmalar. Talabalar uchun. –Buxoro: «Iste`dod». 2017, -b.72.
4. Sayidova N.S., Kazimova G.H., Raximova G.A. Adobe Photoshop CS5 ning plugn, filtr va effektlar bilan ishlashni o`rgatuvchi interaktiv trenajor yaratish bo`yicha uslubiy qo`llanma. ZIYONET.UZ saytiga joylashtirilgan uslubiy qo`llanmasi №1. Elektron qo`llanma. Adress: http://library.ziyonet.uz/uz/book/81679 . 2017 yil.

# PROFESSOR-O'QITUVCHILARNI REYTINGINI ANIQLASH TIZIMI

**O.I.Jalolov**
*BuxDU, axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti*
**Q.I.Jo'rayev**
*BuxDU, I bosqich maristranti*

Hozirgi kunda inson faoliyatida ma'lumotlar bazasi **(MB)** kerakli axborotlarni saqlash va undan oqilona foydalanishda juda muhim rol o'ynamoqda. Sababi: jamiyat taraqqiyotining qaysi jabhasiga nazar solmaylik o'zimizga kerakli ma'lumotlarni olish uchun albatta, MBga murojaat qilishga majbur bo'lamiz. Demak, MBni tashkil qilish axborot almashuv texnologiyasining eng dolzarb hal qilinadigan muammolaridan biriga aylanib borayotgani davr taqozasidir.

Informatsion texnologiyalarning rivojlanishi va axborot oqimlarining tobora ortib borishi, ma'lumotlarning tez o'zgarishi kabi holatlar insoniyatni bu ma'lumotlarni o'z vaqtida qayta ishlash choralarining yangi usullarini qidirib topishga undamoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar har o'quv yili oxirida bajargan ishlari yuzasidan hisobot topshiradilar. Bunda professor-o'qituvchilar 110 ballik baholash nizomi va kafedra milliy reytingini aniqlashda qo'shgan hissalariga qarab baholanadi. Albatta baholashda oliy ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan komissiya barcha ishlarni ko'rib chiqadi. Bu jarayon ancha vaqtni oladi va albatta inson omili qatnashganligi uchun ba'zi bir kamchiliklarga duch kelinadi.

Ushbu maqolada mana shu jarayonni boshqaruvchi tizim va uning imkoniyatlari haqida ma'lumot keltirilgan. Albatta bu tizim hozirgi kunda universitet information tizimi ichida yaratilgan va ishlayapti.




1-rasm. Professor-o'qituvchilarni reytingini aniqlash tizimi.

Bu tizimga har bir professor-o'qituvchi o'zining login paroli orqali kirib hujjatlar bo'limini tanlaydi yil davomida bajargan ishlarini yuklab boraveradi. O'qituvchiga tegishli 20 ta hujjat turlari kiritilgan. Bu tizim o'qituvchining o'ziga ham juda qulay bolib, barcha bajargan ishlari shu tizimda turadi. Xoxlagan vaqt xoxlagan joydan bu tizimdan kerakli hujjatini olib biladi. Bundan tashqari yil davomida o'qituvchidan bitta hujjat bir necha marta so'raladi. Bu tizim orqali o'qituvchini bajargan ishlarini rahbariyat ixtiyoriy vaqtda ko'rib u to'g'risida kerakli hisobotlarni olishi mumkin. Bu tizim o'qituvchini ortiqcha komisiya oldida hisobotlar tayyorlashini, juda ko'p qog'ozlarni isrof bo'lishini oldini oladi. Ya'na bu tizimning qulayligi shundan iboratki har bir professor-o'qituvchini 110 ballik baholash tizimi bo'yicha, milliy reyting baholash tizimi bo'yicha kerakli hisobotlarni o'zi tayyorlab beradi.

Bu tizimning ER modeli quyidagicha qurilgan:




2-rasm. Tizimning ER modeli.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ш.Л. Шнырев - Базы данных. Москва. 2011г.
2. Ларри Ульман. Основы программирования на PHP.Москва.2017г.

# ANIMATSION ROLIKLAR YARATISHDA CRAZYTALK DASTURIDAN FOYDALANISH HAQIDA

**D.H. Fayziyeva,**
*BuxDU, Axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi*
**Sh.A. Murodov,**
*BuxDU, II kurs magistranti*

*Maqolada CrazyTalk dasturi haqida ma'lumot berilgan. CrazyTalk dasturining muhim imkoniyatlari ko'rsatilgan. Maqolada CrazyTalk dasturidagi turli vazifalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.*

CrazyTalk dasturi 3D foto morfing texnologiyasidan foydalangan holda tanlangan fotosuratga hissiyotlar, nutq, tovush, yuz elementlari va boshqa ko'p narsalarni qo'shadigan fotosuratlarga animatsiya beruvchi dastur.

CrazyTalk dasturida komiks yaratish uchun CrazyTalk'ga asl rasm yuklanadi, asosiy nuqtalar yordamida ko'zlar, og'iz va burun joylashgan joyni ko'rsatiladi, yuz shaklini belgilanadi va erkin ijodkorlikni boshlash mumkin. Hayol parvozi deyarli cheksiz!

- Loyihalarni multimediya qo'shadigan raqamli fotosuratlar bilan virtual animatsion aktyorlar yaratish imkoniyati CrazyTalk dasturida berilgan.
- Videolarni tahrirlashda, filmlarda, oilaviy foto albomlarda va boshqa multimedia loyihalarida CrazyTalk dasturidan foydalanish mumkin.
- CrazyTalk maxsus hissiyotlar bloki virtual fe'l-atvorni tabassum qilish, xafa bo'lish yoki nutq so'zlayotganda yuzni ochishga yordam beradi.
- matnni nutqqa aylantirish mumkin. Yozilgan matn yon tomonda joylashgan rasm bilan talaffuz qilinadi. Matnni kiritganingizdan so'ng, videofaylni keyinchalik do'stlarga yuborish mumkin yoki YouTube'ga mobil telefonga yuklash uchun yaratish mumkin.

CrazyTalk dasturi aktyorlar, personajlar va obyektlar suhbatining animatsiyasini yaratish uchun kerak bo'lgan hamma narsani qila oladi!

Tishlar va ko'zlarning to'g'ri modellarini shakllantirish uchun dastur boshlang'ich bosqichda "virtual tishlar" ning maxsus kutubxonasiga murojaat qilishni taklif qiladi. Siz virtual tishlarning shaklini har kim o'z tasviriga to'liq mos keladigan tarzda o'zgartirishi mumkin. Har bir qilingan ish bo'yicha tajribalarning yakuniy natijasi belgilangan formatdagi videofaylga yozib qo'yiladi. 3D yuzni modellashtirish texnologiyasi etnik xususiyatlarni hisobga olgan holda inson anatomik ma'lumotlari kutubxonasiga asoslanadi. Ishni tezlashtirish uchun 9 ta profil taklif etiladi. Tanlangan variant keyingi sozlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Old va yon rasmlar asosida bosh qismining to'liq 3D modelini yaratish yuzning konturini aniqroq aniqlash va animatsiya sifatini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi (1-rasm).




*1-rasm. CrazyTalk dasturida bosh qismining to'liq 3D modelini yaratish.*

CrazyTalk 8-versiyasida joriy qilingan yangi Head Creator tizimi tufayli qahramonlar yaratish va animatsiya qilish imkoniyatlari cheksiz. Endi oddiy manipulyatsiyalar orqali har qanday tasvirni yoki jonsiz narsani harakatlantirish mumkin (2-rasm).



*2-rasm. Head Creator tizimi tufayli qahramonlar yaratish va animatsiya qilish imkoniyatlari.*

Yuzning ramkasi yoki boshni burish paytida buzilishlarni minimallashtiradigan tarzda o'rnatiladi. Yuzni yo'naltirish funksiyasi orqali old va yon tomonlarni (45° gacha aylantirish bilan) tahrirlashga imkon beradi. Yuz atrofidagi qo'shimcha ramkaga ega bo'lgan maxsus qavat hajmli soch turmagi, katta quloq yoki shoxli belgilar bilan ishlashni osonlashtiradi (3-rasm).




*3-rasm. Yuzni yo'naltirish funksiyasi.*

Moslashtirilgan yuz profil uslublari har xil komikslar yoki multfilmlarning odamlari, hayvonlari va qahramonlari kabi turli xil personajlarning haqiqiy animatsiyasiga erishishga imkon beradi (4-rasm).




*4-rasm. Moslashtirilgan yuz profil uslublari*

Dastur nafaqat ko‘zlar va og‘izning uslubini tanlashga, balki yuzning ushbu elementlarining rangini, joylashishini va hajmini o‘zgartirishga imkon beradi (5-rasm).




*5-rasm. Moslashtirilgan ko‘z profil uslublari*

Mask muharriri funksiyasi avtomatik ravishda dastlabki rasm fonini olib tashlaydi, bu so‘zma-so‘z bir nechta qo‘l harakati bilan aniqlanadi va natijada sozlash va obyektning chegaralarini yumshatish. Agar so‘ralsa, o‘chirilgan fon

o‘rniga, sizning badiiy maqsadingizga mos keladigan har qanday boshqa rasmlardan foydalanishingiz mumkin (6-rasm).



*6-rasm. Mask muharriri funksiyasi*

CrazyTalk dasturidan foydalanish juda qiziqarli bo‘lishi shaxsiy kompyuter parametrlariga albatta bog‘liq. CrazyTalk dasturidan foydalanib turli komikslar va videoroliklar yaratish juda qiziqarli.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. http://all-freeload.net/
2. https://soft.mydiv.net/


## BUXORO DAVLAT UNIVERSITETIDA MASOFAVIY O‘QITISH TIZIMLARINI JORIY QILISH VA QO‘LASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**M.Z.Xusenov**
*BuxDU, axborot texnologiyalari kafedrasi o`qituvchisi*
**Q.I.Jo’rayev**
*BuxDU, 1- bosqich maristranti*

Axborot texnologiyalarining asosiy vazifasi turli jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish metod va vositalarini yaratishdir. O`z xususiyatlariga ko`ra, ma’lumotlar bilan bajariladigan ishlarni avtomatlashtirish boshqa jarayonlarni avtomatlashtirishdan tubdan farq qiladi. Bu sinf masalalari bilan ishlash uchun maxsus qurilmalaridan hamda dasturiy mahsulotlaridan foydalaniladi.

Ma'lumotlarga avtomatlashgan ishlov berishga mo`ljallangan maxsus qurilmalar hisoblash texnikasi, maxsus dastuiy vositalari esa boshqaruv tizimlar deb yuritiladi. Bugungi kunda talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo`lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo`llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o`qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo`lib qolmoqda. Aynan shu maqsadda axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarning umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

LMS tizimlari zamonaviy axborot texnologiyalari va masofaviy ta'lim tizimini tashkil etishi mumkin bo`lgan zamonaviy texnologiyalaridan biridir. Yangi
texnologiyalar negizida (masalan, "Moodle" tizimida) individuallashtirilgan ta'lim metodikasini ishlab chiqish, talabaning bilimlarini shakllantirish va takomillashtirish hamda egallagan bilim darajasini aniqlash kabi vazifalar hal qilinadi. Ta'lim jarayonida masofali o`qitish texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmuni, shakllari va usullarining ijobiy o`zgarishiga kuchli ta'sir ko`rsatadi.

Hozirgi kecha kunduzda rivojlangan davlatlarda turli xil LMS tizimlari ilatilib kelinmoqda. **Quyida masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli LMS dasturiy majmualarning** nomlari va ularning asosiy imkoniyatlari bo`yicha ma'lumotlarni bayon qilamiz. **Atutor** — Ochiq kodli ta'lim jarayonini boshqaruvchi **LMS** tizimi hisoblanadi. Tizimda mavjud o`qitish modullari: **Forum**s, **Materials**, **Messenger**, **Chat**, **Exercises**, **Group work**, **Student tracking** va boshqa modullari mavjud. Tizim bir necha standartlarni qo`llab-quvvatlaganligi sababli, internet orqali jismoniy nuqsonga ega bo`lgan o`quvchi-talabalar tizim orqali o`quv resurslardan foydalanishlari mumkin. Xususan, ko`zi ojiz talabalar maxsus web-ilovalar orqali tizimga bog`langan holda o`quv kontentdagi so`zlarni audio formatga o`tkazgan holda tinglashi mumkin.

**Chamilo** – tizimi ham boshqa **LMS** tizimlari singari **IMS(IMS Content Packaging, IMS QTI**) va **SCORM** standartlarini qo`llab-quvvatlaydi. Tizim krossplatformali hisoblanib, barcha operatsion tizimlarda ishlaydi. **GPLv3** litsenziyasi asosida ish yuritadi. Bu tizimda kurslarni tashkillashtirishda **sessiya** nomli qo`shimcha moduli mavjud bo`lib, ma'lum kurslar yakuni bo`yicha lokal imtihon aratish imkonini beradi. Shuningdek, hisobot bo`limi orqali esa kurslar, imtihonlar va foydalanuvchilarning holati bo`yicha hisobot yaratiladi.

**Dokoes** – **Claroline**ning 1.4.2 versiyasidan ajralib chiqqan yangi dasturiy majmua hisoblanadi. **Dokoes Claroline** platformasini ishlab chiqqan dastlabki ishchi guruh bir necha a'zolarining ish mahsuli bo`lib, ular ta'lim muassasalari uchun yaratilgan **Claroline** tizimidan farqli ravishda, davlat korxonalarining ishchi xodimlariga moslashtirishni maqsad qilishdi va amalga oshirishdi.

**Sakai** – dunyoning ko`pgina ta’lim muassasalarida keng foydalanib kelinayotgan navbatdagi ochiq kodli **GNU GPL** litsenziyasi asosida erkin tarqatiluvchi dasturiy majmua hisoblanadi. Boshqa **LMS** tizimlaridan farqi shundaki, tizim to`liq **JAVA** tilida yozilgan. Shu sababli tizim kross-platformali hisoblanadi.

**Ilias** – bu tizim ham erkin va ochiq kodli masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi **LMS** tizimi hisoblanadi. Dasturiy majmua 1998-yildan hozirgi vaqtgacha rivojlanib kelmoqda. Boshqa tizimlarda mavjud bo`lgan o`qitish modullari bu tizimda ham bor: **Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Student tracking, Calendar, Glossari, Wiki** va boshqa modullari mavjud.

**ATutor** – tizimi ommalashgan masofaviy ta’lim tizimlari qatoriga kiradi. **ATutor** tizimning tarkibida quyidagi modullar mavjud: **Forum, Glossary, File Storage, Site map, My tests and surveys, My tracker, Directory, Export content,**
**Chat, Links, Polls, Blogs, Web search** va h.k. Bu tizimda yaratilgan kurslar ob’yektga mo`ljallangan dasturlash tillarida klasslarni yaratish jarayoni kabi uch xil tipda aniqlanadi. Chunonchi, **public, Private, Protected**.

*Amerika Qo‘shma shtatlarining Oliy ta’lim muassasalarida LMS tizimlarining ishlatilish statistikasi (1-rasm)*

1-rasm




*Rossiya federatsiyasining Oliy ta’lim muassasalarida ishlatilayotgan LMS tizimlari (2-rasm)*

2-rasm




Ma'lumki, har bir ta'lim muassasasi o`z ta'lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o`zining virtual axborot ta'lim muhitini yaratishga harakat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 27 martdagi "Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish to'g'risida"gi 233-sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 yil 1 apreldan boshlab talabalar uchun masofaviy ta'limni universitet (bakalavriat ta'lim yo'nalishi, magistratura mutaxassisligi) xususiyatiga muvofiq metod va texnologiyalarda joriy etildi va shu asosida o'qitish tashkil qilindi.

Hoziri kunda **Moodle** platformasida 2019/2020 o'quv yili 2-semestrida o'qitiladigan fanlardan 1618 (aprel oyida 1500 dan ortiq)ta kurs yaratilgan bo'lib, jami foydalanuvchilarning soni 14049 ta ni tashkil etadi. 890 nafar kurs yaratuvchi professor-o'qituvchi va barcha ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar 12845 nafar, (jumladan 11062 nafar bakalavriat, 359 nafar magistratura, 213 nafar qo'shma ta'lim dasturlari, 1211 sirtqi va maxsus sirtqi bo'lim (1-kurs)) biriktirilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Энгель В. Moodle для новичков. Обзор возможностей Moodle в вопросах и ответах / В. Энгель. – Moodle Center, 2012 — 18 с.
2. Белозубов А.В. Система дистанционного обучения Moodle: Учебно методическое пособие СПб.: СПбГУ ИТМО, 2007.
3. mooble.buxdu.uz
4. buxdu.uz

## МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ЯНГИ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ

**Ж.Жумаев**
*БухДУ Амалий математика ва ахборот технологиялари кафедраси доценти*
**У.М.Халикова**

*БухДУ Амалий математика ва ахборот технологиялари йўналиши I босқич магистранти*

Республикамизда баркамол авлодни тарбиялаш, ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини руёбга чиқариш, уларни ҳар томонлама ривожланган шахс этиб вояга етказиш Республика Президенти Шавкат Мирзиёевнинг диққат-марказида турибди. 2017 йил 30 сентябрда “Мактабгача таълим тизимини бошқаришни тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан ПФ-5198 сонли фармонининг қабул қилиниши ва Мактабгача таълим Вазирлигининг ташкил этилганлиги ва 2019 йил 16 декабр куни “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг қабул қилиниши бунинг яққол исботидир.

Президентимизнинг сай-ҳаракатларига жавобан биз ҳам мактабгача таълим муассасалари(МТМ) машғулотларида янги ахборот-технологиялари асосида анимацион мултимедиали дастурларни яратиш ва улардан таълим жараёнида фойдаланишга катта эътибор бериб келмоқдамиз.

МТМ ларда таълим жараёнига татбиқ этиладиган мультимедиа технологияси аньанавий услубларга нисбатан маълум бир афзалликларга эгадир.Жумладан:

-боланинг фикрлаш қобилиятини оширади;

-бола бир вақтнинг ўзида ҳам кўради, ҳам эшитади(миянинг ўнг ва чап ярим шарлари бир вақтда фаоллик кўрсатади);

-анъанавий усулга нисбатан болаларга ўргатиладиган материалнинг ҳажми ортади;

-машғулотнинг самарадорлиги ошади.

Компьютерли машғулотлар анъанавий машғулотларга нисбатан қизиқарли ўтади, фаол бўлмаган болалар ҳам компьютерли машғулотларда фаол қатнашадилар, ҳатто мустақил равишда ҳам болалар ушбу дастурлардан фойдаланишлари мумкин.

Мактабгача таълим муассасаларида янги ахборот-технологиялари махсулотларидан фойдаланишдаги муаммолардан яна бири - илғор педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланиб, таълим-тарбия жараёни самарадорлигини ошириш методикасини ишлаб чиқиш, унга мосэлектрон дастурлар яратиш ҳамда амалиётга жорий қилиш зарурлигидир.

Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Технологияларни жорий этиш жараёнида болалар ёшини ҳисобга олиш ва мос ҳолда дидактик материалларни танлаш, таълим жараёнида болаларга педагогик ва психологик таъсир этиш усулларини ўрганиш ва амалиётга жорий этиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан ҳисобланади.

Ҳозирги кунда ижтимоий тармоқлар орқали бундай мультимедиа маҳсулотларини топишимиз мумкин, аммо улар асосан рус ва инглиз тилларида яратилган. Юртимизда давлат тили ўзбек тили эканлигини, туб

аҳолининг кўпчилиги ўзбек тилида сўзлашиши ва ўзбек тилида фаолият юритадиган МТМ лар учун бундай электрон мультимедиали дастурларнинг деярли йўқлиги муаммо бўлиб келмоқда.

Ушбу муаммонинг ечимида ўз ҳиссамизни қўшиш мақсадида эътиборимизни математика машғулотларига қаратмоқдамиз.Математика машғулотларининг методикасини, таркибий қисмларини, болалар психологиясини, ушбу соҳага ўз ҳиссасини қўшган олимларимиз асарларини ўрганиб келмоқдамиз. Бундай олимлар қаторига И.А.Маркушевич, С.И.Шварцбурд, Б.В.Гнеденко ва бошқа олимларни киритиш мумкин. И.А.Маркушевич тарбияланувчиларнинг кўникмалари бўйича методологик дастур беради, С.И.Шварцбурд бир неча компонентларга ажратган ҳолда математик тушунчаларни шакллантириш методикасини беради. Б.В.Гнеденко ўз ишларида математик қобилиятларнинг икки хил: “оддий, ўрта қобилият” ва “ўртадан юқори бўлган қобилият” каби даражаларини ажратиб кўрсатади, шунингдек, математикани ўргатишда тарбиявий чораларнинг қатор омилларини киритади.

МТМларнинг тарбияланувчиларида элементар математик тушунчаларни шакллантириш масаласи бўйича А.А.Столяр, А.В.Белошистая, З.И.Калмыковава бошқалар ҳам илмий-тадқиқотлар олиб боришган.

Бу борада Республикамиз олимлари ва услубиётчилари ҳамбирқатор методик қўлланмалар чоп эттирган. Масалан, М.Е.Жумаев “Болаларда математик тушунчаларни ривожлантириш назарияси ва методикаси”, Н.У.Бикбаева ва бошқаларнинг “Мактабгача тарбия ёшидаги болаларда математик тасаввурларни ривожлантириш” каби қўлланмаларида болаларда математик билимларни аньанавий усулда шакллантириш масалалари ёритиб берилган. З.А.Раҳмонқуловава Н. Қурбоновалар математик тасаввурларни шакллантириш бўйича машғулотлар ишланмасини тавсия этганлар.




*1-расм. Дастур ойналари.*

Назарий маълумотларга асосланиб мактабгача таълим муассасасининг 2018 йилда тасдиқланган “Илк қадам” давлат ўқув дастурига киритилган 5-7 ёшли болаларнинг эгаллаши зарур бўлган “элементар математик кўникмалари” ни ўзлаштиришга мўлжалланган ўзбек тилидаги видео роликларни, ривожлантирувчи

компьютер ўйинларини, дидактик материалларни ва тарбиячилар учун мўлжалланган электрон услубий қўлланмаларни ўз ичига олган “Мактабгача таълимда математика машғулотини ўқитишга мўлжалланган амалий дастур” яратилди ва дастурга Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги ҳузуридаги интелектуал мулк агентлиги томонидан № DGU 08018 рақамли гувоҳнома олинди.

1-расмда келтирилганлар яратилган дастур ойналаридир. 1-ойна маъруза матнлари ойнаси бўлиб унда илк қадам дастури, математика машғулотларининг маъруза матнлари ва қўшимча адабиётлар киритилган. 2-ойнада мавзулар кесимида электрон кўргазмалар тўпламлари жойлаштирилган. 3-ойнада математика машғулотлари мавзуларига мос равишда яратилган ўргатувчи видео роликлар жойлаштирилган.4-ойнада эса ҳар бир мавзуни мустаҳкамлашга доир ривожлантирувчи компьютер ўйинлари жойлаштирилган.




*2-расм. Мавзулаштирилган видео роликлар.*

2-расмдаги тасвирларда мавзулаштирилган видео роликлар лавҳалари келтирилган.

Яратилган дастурни амалда синовдан ўтказиш ва натижасини ўрганиш мақсадида Бухоро вилоят Когон шаҳар ва Когон туман МТМ тарбиячилари иштирокида “МТМ тарбиячилари компьютер саводхонлигини ошириш” мавзусида семинар-тренинг ўтказилиб тарбиячиларга дастурдан фойдаланиш йўриқномалари ва глобал тармоқда мавжуд дастурларни қидириш, юклаб олиш ва фойдаланиш усуллари тушунтирилди. Семинар-тренинг якунида МТМ да яратилган шарт-шароитлардан, тарбиячиларнинг салоҳиятидан келиб чиқиб Когон шаҳар 6-сон ва 14-сон ҳамда Когон туман 3-сон ва 4-сон мактабгача таълим ташкилотларининг катта ва тайёрлов гуруҳларида тажриба-синов тариқасида математика машғулотларини ушбу электрон дастур асосида олиб боришга келишилди.



3-расм. Семинар-тренинг лавҳалари.

Педагогик тажриба-синов ишларининг мақсади илмий тадқиқотда илгари сурилган фаразнинг нечоғлик тўғри эканлигини исботлашдан иборат. Бу жараён шартли равишда бир нечта босқичларга бўлинади.

Биринчи босқич тайёргарлик босқичи 2019-2020 йиллар давомида ўтказилиши режалаштирилган бўлиб, бу даврда қуйидаги ишлар амалга оширилди:

- тадқиқотнинг асосий йўналишини аниқлаб олиш;
- муаммонинг назарий ва амалий ҳолатини ўрганиш;
- мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячилари билан сўровномалар ўтказиш;
- ўқув-меъёрий ҳужжатларни таҳлил қилиш ва ўрганиш;
- таянч мактабгача таълим ташкилотларини танлаш, уларда тажриба-синов ишларини ўтказиш учун моддий-техник, илмий-услубий негиз ва педагогик шарт-шароитлар мавжудлигини ўрганиш;
- тажриба-синов ишларини ўтказиш учун зарур бўлган материалларни тайёрлаш;
- таянч мактабгача таълим ташкилотлари ва уларда фаолият кўрсатувчи тарбиячиларни тажриба-синов ишларини ўтказишга тайёрлаш;
- дастлабкитажрибасиновишлариниўтказиш.

2019-2020йилларда ушбу тажриба-синов ишларининг биринчи босқичи амалга оширилди, дастлабки натижалар сарҳисоб қилинганда анъанавий машғулотларга нисбатан электрон дастурлар асосида олиб борилган натижалар анча юқори бўлганлиги исботланди. Ҳозирги кунда масофавий тарзда олиб борилаётган дарс машғулотларида ҳам электрон дастурлардан жуда самарали фойдаланилмоқда, ота-оналар томонидан ҳам катта қизиқиш билан кутиб олиниб, фарзандларининг ўз хоҳиши асосида математик билимларни катта қизиқиш билан эгаллаётганлигини билдиришди.Ўқув йили якунида биринчи босқич тажриба-синов натижалари сарҳисоб қилинади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки мультимедиа маҳсулотлари боланинг нафақат ўзлаштириш даражасини оширади, балки диққат, хотира, фикрлаш, тасаввур, нутқ каби жараёнларнинг ривожланишига ҳисса қўшади, ранг, композицион туйғуларни ривожлантиради, болаларнинг интелектуал, ҳиссий ва ахлоқий ривожланишида иштирок этади.

# AXBOROTLARNI SHIFRLASHDA RSA ALGORITMI

**O.I.Jalolov**
*BuxDU, axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti*
**Q.I.Jo'rayev**
*BuxDU, I bosqich maristranti*

Hozirgi kunda bilamizki axborot eng muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. Axborotlarni turli xil hujumlardan himoyalashda axborotlarni shifrlash muhim ahamiyat kasb etadi Shifrlash 2 xil usulda amalga oshiriladi: simmetrik shifrlash va asimmetrik shifrlash. Ushbu maqolada RSA algoritmi tushuntirib berilgan. Ochiq kalitlarni shifrlash algoritmi RSA yigirmanchi asrning 70-yillari oxirida birinchilardan bo'lib taklif qilingan. Uning nomi mualliflarning ismlarining birinchi harflaridan iborat: R. Raivest (R. Rivest), S. Shamir (S.Shamir) va A. Adleman (A. Adleman). RSA algoritmi, ehtimol eng mashhur va keng tarqalgan assimetrik algoritm kriptografik tizimlardan biri.

RSA algoritmi asimmetrik shifrlash usuliga kiradi. Bunda axborotlarni himoyalashda 2 ta kalit ishlatiladi: ochiq kalit yordamida axborotlar shifrlanadi, maxfiy (yopiq) kalit yordamida shifrlangan axborot dastlabki holatiga qaytariladi, ya'ni shifrlangan axborot rasshifrovka qilinadi.

RSA algoritmi faqat sonlarni shifrlashga mo'ljallangan bo'lib, tub sonlar yordamida shifrlash amalga oshiriladi. RSA algoritmini tushunish uchun dastlab quyidagi matematik ifoda va funksiyani bilish talab qilinadi:

1) $m \, mod \, n = x$

Yuqoridagi ifoda $m$ sonini $n$ soniga bo'lgandagi qoldiq $x$ ga teng demakdir. Masalan: $26 \, mod \, 7 = 5$.

2) Eyler funksiyasi o'zaro tub sonlar juftligini aniqlaydi. $\phi(n) = n - 1$

Bu funksiya orqali $n$ sonigacha bo'lgan o'zaro tub sonlar nechtaligi topiladi. Bunda $n$ tub son bo'lishi kerak, agar $n$ tub son bo'lmasa uni tub sonlarning ko'paytmasi shaklida ifodalab olinadi. Agar $n = a * b$ ko'rinishida bo'lsa ($a$ va $b$ tub son), bunda quyidagi tenglik o'rinli bo'ladi:

$$\phi(a * b) = \phi(a) * \phi(b) = (a - 1)(b - 1)$$

Masalan: $\phi(7) = 7 - 1 = 6$ bundan $7$ gacha $6$ ta o'zaro tub sonlar juftligi borligi kelib chiqadi, ular quyidagilardir: $(1,7)$; $(2,7)$; $(3,7)$; $(4,7)$; $(5,7)$; $(6,7)$.

Eyler funksiyasi uchun quyidagi tenglik o'rinli: $m^{\phi(n)} \, mod \, n = 1$

RSA algoritmida biror $m$ sonni shifrlash uchun dastlab 2 ta tub $a$ va $b$ sonlarni tanlaymiz. $n = a * b$ bo'lsin, u holda yuqoridagi Eyler funksiyasiga asosan $\phi(n) = (a - 1)(b - 1)$ bo'ladi. Keyin yana bitta $e$ tub sonni tanlaymiz. Bunda $e < \phi(n)$ shart bajarilishi kerak. $m$ sonini quyidagi formula yordamida shifrlaymiz:

$m^e \bmod n = x$

$x$ – $m$ sonining shifrlangani bo'ladi.

Endi RSA algoritmini Mathcad tizimida bajarib ko'ramiz:

1. *p* va *q* tub sonlari tanlanadi: p:=13 q:=19
2. Hisoblanadi: *n = p * q* : *n=247*
3. Hisoblanadi: *m = (p - 1) * (q - 1):* *m=216*
4. *m* ga nisbattan o'zaro tub bo'lgan *d* soni tanlanadi
5. *e* soni shunday tanlanadiki: *e * d = 1 (mod m): d:=5 e=0.2*

Bu algoritm [0; n-1] gacha bo'lgan sonlarni shifrlab beradi.

Masalan: a:=244

Shifrlash: *b:=mod(a^e,n)* *natija: b= 3.00246508138818*

Teskari shifrlash: a:=mod(bd,n) natija: a=244

Yuqorida biz RSA algoritmi yordamida 244 sonini shifrladik *3.00246508138818* ko'rinishda va yopiq kalit yordamida uni ochib yana 244 sonini oldik. Bu yerda n=247 ga teng demak biz bu algoritm yordamida faqat 0 dan 246 gacha bo'lgan sonlarni shifrlashimiz mumkin. Agar bizga axborotni shifrlashda ishlatiladigan alfavitdagi belgilar soni ko'proq bo'sa, u holda p va q tub sonlarni tanlashda kattaroq tanlab olamiz. Bundan ko'rinadiki RSA algoritmi faqat sonlarni shifrlaydi. Agar bizga qandaydir axborotni kodlash kerak bo'lsa, bu axborotdagi har bir belgini ASCII yoki UNICOD kodini olib uni RSA algoritmi asosida shifrlashimiz mumkin. Yuqoridagi algoritm asosida 0 dan 100 gacha bo'lgan sonlarni shifrlab grafik ko'rinishda tasvirlaymiz.

$$\mathbf{p := 13 \quad q := 19 \quad n := p \cdot q \quad n = \blacksquare}$$

$$\mathbf{m := (p-1)\cdot(q-1) \quad d := 5 \quad e := \frac{mod(1, m)}{d}}$$

$$\mathbf{f(a, n) := mod\left(a^{e}, n\right) \quad k := 0 .. 100 \quad x_k := k}$$




1-rasm. RSA algoritmi grafigi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Блинов А.М. Информационная безопасность: Учебное пособие. Часть 1. – СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2010. – 96 с.
2. Варфоломеев А.А. Основы информационной безопасности: Учеб. пособие. – М.: РУДН, 2008. – 412 с.: ил.

# USING VIRTUAL REALITY IN EDUCATION AND CREATE VIRTUAL REALITY RESOURCES

**D.F.Hasanov**
*Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti magistranti,*
*dilmurodhf@gmail.com*

*The current realities of the world are bringing new pressing issues and conflicts related to the need to solve them effectively. In particular, if there is a wide development of information and communication technologies related to the Internet system, on the one hand there is a need to prepare the society and the educational system for the full use of the achievements of these processes.*

In the current period of development, special importance is attached to the application of multimedia teaching methods and software and technical tools in the field of pedagogy, teaching systems in general. In this direction, several international conferences have been held in recent years, which show how important the issues and problems discussed in this area are. But it should also be noted that many people in our society understand teachers as boring specialists who give step-by-step various instructions and assignments on the subject, which are taught for days, weeks and months, as well as somehow integrate a complex of knowledge into the students. But many do not know or understand what instructions and assignments they will give, what kind of multimedia software and technical tools they will use, and what effect such methods will bring. Over the years, many methods, methodologies, technology and software and technical tools of teaching have emerged that their role and importance in the society cannot be overemphasized. Some teaching methods are organized on the basis of learning the process of acquisition of knowledge by young children while others are organized taking into account the problems that occur during the teaching process.

One of the important factors at the modern stage of the development of educational processes is the introduction of new ones in the use of computers-the identification of new opportunities and their consistent application to practice. In turn, the rapid development of computer technology is creating favorable conditions for their wide application in educational processes. The consistent solution of issues related to all spheres of human activity, including the introduction of the internet in the educational system as one of the leading factors in the development of society, the formation of the skills of knowledge recipients to perceive existence on the basis of virtual means, is one of the pressing problems. The problem of creating virtual reality-based educational resources especially in this regard is of particular interest to researchers.

Virtual reality is an artificially generated information environment, which focuses on replacing the usual way of imagining the environment-with information generated on the basis of various technical means. The creation of information

visualization tools aimed at the development of virtual reality tools for educational purposes — can give an unattainable pedagogical effect with the help of other technical means.

The term "Virtuality "is derived from the Latin word “virtualis”, meaning a process that occurs or can occur under certain conditions", or that does not exist but is likely to occur. Since this term is encountered in many areas of human activity, there is also enough reason to bring it into the educational system. Many examples of this can be cited when interpreting concepts in different sciences. In particular, in physics, particles that can exist only in the state of interaction of other particles are referred to as virtual particles (virtual photons, bazon, etc.). Because of Virtual particles, interaction of real elementary particles occurs, in which the interaction of virtual particles occurs. The concept of nobility is also used in the field of Meteorology. The indicator of dry air in these indicators corresponding to the same pressure of air temperature, which has a certain humidity in this area, is called virtual temperature.

In psychology, the terms" virtual image"," virtual object " are used. For example, the view of human activity in unity with the machine is perceived as a virtual obyekt. After all, the work that this virtual obyekt directly performs is not inherent in the function of neither a person nor a machine, this feature of the obyekt occurs only when a person and a machine are taken together. From the psychological point of view, the following distinctive features of the virtual being are distinguished: spontaneity, actuality, autonomy, interactivity. Psychological virtual existence occurs as a product of the human psyche. A Virtual being can exist only when the object that creates it is active.

The imaginary memory of the computer is perceived as a virtual memory, which is not physically compatible with any separately received memory carriers, that is, virtual memory occurs as a result of the interaction of computer elements with each other in functionality. Thus, with the help of software tools that generate virtual memory, a person will be able to access information of a very large size. All modern computers used are equipped with a special java virtual Machine.

In education, elements of virtual reality, based on cinematography and various illustrations, have been used. The fact that computer technology has integrated information related to movement and sound into a single complex, has made a quality turn in the creation of educational resources based on virtual reality, with the creation of opportunities for knowledge recipients to actively influence (communicate) the processes observed.

Today, virtual reality-based educational resources can be classified as follows:

• first level-to achieve full efficiency through special technical means (shlem-display, special gloves, etc.);

• second level — to create a voluminous image using three-dimensional (or stereoscopic) monitors or projectors and special glasses;

• the third level is the demonstration of virtual reality on the basis of a computer standard monitor or projection device.

In turn, the problem of creating modeling pedagogical software is divided into the following areas, which are related to the application and further improvement of functional theories:

1) the philosophy of Virtual Reality Design. Problems of receiving information given on the basis of modeling and confidence of the recipient of knowledge in its compatibility with reality.

2) mathematical modeling. Problems of research on the properties of mathematical models in modeling for educational purposes.

3) information reflection theory. Problems of application and improvement of visualization techniques aimed at the construction of real images using graphical machine management tools that generate the impression of working in Real conditions.

4) computer environment perception psychology. Problems of attention to originality in the thinking of modern young people who are accustomed to receiving the bulk of information through television and computer monitors.

5) Virtual reality ecology. The problems of choosing an individual trainee of interaction with Virtual reality.

6) basic principles of didactics. In the development of modeling software, didactic principles reflecting the legalities of the educational process, formed on the basis of educational practice experiences, should be adopted as a basis. Didactic and methodical problems of determining the mutually acceptable ratio of knowledge given in Real and modeled forms are also separate research areas.

Feelings that arise during communication with the computer (for example, with the help of virtual slams) are very close to the feelings of a person in the process of communicating with the existing real being, and sometimes there are also cases of obvious perception of the usutunity of the first when these feelings are compared. The special impact effects of deep penetration into the mind in computer game technology can also be effectively utilized in the educational process. In this sense, it is understood that human consciousness has a certain nature of being, if it is taken into account that it interprets various tasks, images and imaginations initially on the basis of imaginary actions.

Today, the application of the concept of" virtual existence " in relation to computer modeling has become one of the most popular. In these conditions, a person interacts with an artificial three-dimensional or sensor environment while generating virtual practice. To do this, he uses a virtual shlem, special gloves or a holistic wearable suit as a communication equipment. With the help of these equipment, a person falls into a machine-generated environment, performing certain actions, such as moving in different directions, managing objects, and experiencing different emotions in the influence of virtual events.

НЕ элементлари таркибида бўлган моддаларнинг амалий аҳамиятига эътиборни қаратсак: шишанинг ёруғликка нисбатан шаффофлигини ошишини, инфрақизил нурларни ўтказиб, ультрафиолет нурларни ютишини, иссиқликка ва кислоталарга нисбатан чидамлилигини ошишини; буёқ ва лакларнинг талаб асосидаги пигментларини тайёрланишини; газ ва нефт саноатида сифатли катализаторлар ва фильтрларни тайёрланишини;

оптоэлектроника элементларини, лазерлар технологиясини ва бошқа жуда кўп соҳаларни кўришимиз мумкин.

НЕ элементли металлар, уларнинг қотишмалари ва оксидли бирикмалари асосидаги материаллар жуда катта анизотропия магнит энергияга эга бўлиб, улар ўзгармас магнитларни тайёрлашда фойдаланилади. Кристаллнинг магнитоанизотропик хоссалари магнитли анизотропия доимийси билан характерланади, унинг қиймати эса кристаллнинг оғир ва енгил магнитланиш йўналишларидаги магнитланиш энергиялар фарқига пропорционалдир. Айнан, НЕ элементли моддаларга хос бўлган магнитли анизотропия энергияларнинг катталиги доимий магнитларни тайёрлашда қўлланиладиган бирикмаларни олишда ҳал қилувчи аҳамиятга эгадир.

НЕ элементли металлар, қотишмалар, ферритлар ва магнит бирикмалар узоқ йиллардан бери ўрганилиб, уларнинг спонтан магнитланувчанлиги, магнитли анизотропияси, магнитострикцияси, магнитооптик хоссалари, магнитли фазавий ўтишлари ва бошқа кўпгина хоссалари ҳақида маьлумотлар олинган. НЕ элементли магнит тартибланган моддалар (ферро- ва ферримагнетиклар) темир гуруҳи асосида синтезланган шунга ўхшаш моддалардан кўп фарқ қиладиган магнит хоссаларга эга бўлиши кўрсатилган. Масалан, баьзи НЕ элементли металлар ва уларнинг бирикмалари жуда юқори ҳаттоки, рекорд магнитли анизотропия қийматига ва магнитострикцияга, катта фарадей айланиш самарасига, магнитокалорометрик қийматга, ўзига хос ҳароратга боғлиқ бўлган магнитланиш ва магнитли фазавий ўтишга ҳам эга. Ушбу моддаларда юқори ҳаракатланувчанликка эга бўлган жуда кичик “цилиндрик” ёки "пуфаксимон" доменлар генерацияланиши содир бўлиши мумкин. НЕ элементли магниит бирикмалар ўзларининг бошқа илмий ва амалий аҳамиятга эга бўлган магнитли ва магнитооптик хусусиятлари билан ҳам мутахассисларни ўзига жалб этиб келмоқда.

Магнетизмнинг пайдо бўлишига назар ташлаганда ушбу соҳанинг бундан 2 минг йил аввал ҳам грек ва хитойликлар магнитли темир қотишмасининг (тоғ табиатли магнетитнинг) темир предметларни ўзига тортишиш хоссаларини билишган. Улар бундан ташқари яна ушбу магнитланган стержен-таёқча ипга осилса (бу компассимон меридиана), шимол ва жануб бўйлаб йўналишни эгаллашини ҳам кузатишган.

Магнитли компаснинг географик жойларни аниқлашда фойдаланишни бундан 500 йил один ҳам билишган. Бироқ инсоният магнит материалларидан кенг фойдаланиш мумкинлигини фақатгина X1X асрнинг ўрталарига келиб ҳис эта бошлади, яьни Фарадейнинг электромагнит индукция қонуни очилгандан сўнггина унинг электрогенераторларда, моторларда, трансформаторларда, электротехника ва алоқа воситалари техникасида қўлланилиш имконияти пайдо бўлди.

Ҳозирги замон магнит материалшунослигининг негизини темир гуруҳи элементлари ташкил этса ҳам, янги магнит материалларини ишлаб чиқишни ривожлантиришга фақатгина ушбу моддаларнинг ўзи асосидагина эришиш

қийин масала эканлиги намоён бўлди. Шунинг учун ўтган асрнинг 60-йилларида лантаноидлар гуруҳи, яьни одатда НЕ элементлари деб номланувчи элементлар асосида магнит материаллар олиш ғоялари пайдо бўла бошлади. НЕ элементлардан лантаноидларни тадқиқ этиш, уларни хоссаларини ўрганиш ўша даврда мураккаб эди, чунки уларни тоза ҳолда олиш технологияси яратилмаган эди. Иккинчи Жаҳон урушидан сўнг ушбу йўналишдаги ҳолат кескин ўзгарди. Бунга сабаб атом саноатида фойдаланиладиган ураннинг изотопларини олиш технологияси ишлаб чиқилгани бўлди.

Тоза ҳолдаги НЕ элементли монокристаллар, плёнкалар ва массив намуналарда олиб борилган тадқиқотлар уларда қўллаш учун катта аҳамиятга эга бўлган хусусиятлар мавжудлигини кўрсатди.

Энди моддалар магнетизмининг асосида ётувчи физикавий жараёнларни кўриб чиқамиз.

Моддаларнинг магнетизми атомларнинг магнит хоссалари билан аниқланади. Атом магнетизми унинг электронлари ҳосил қилган магнит моменти билан характерланади.

Электрон ҳосил қилишда икки кўринишда иштирок этади. **Биринчидан,** ҳар бир электрол ядро атрофида айланиб, микроскопик берк токни ҳосил ќилади, бу эса ўз навбатида магнит моментини ҳосил бўлишига олиб келади. Унинг қийматлари ушбу микроскопик токнинг электрон орбитаси юзасига (яъни унинг сиртига) кўпайтмасига тенг. Мазкур магнит момент орбитал дейилади ва у электрон орбитаси юзасига ўтказилган перпендикуляр вектор кўринишида белгиланади. **Иккинчидан**, ҳар бир электрон ўзига хос хусусий моментига (квант механикаси хулосаларига асосан) эга бўлади. Уни спинли магнитли момент деб аташади.

## KREMNIY ELEMENTIGA ELEKTR MAYDONINING TA'SIRINI O'RGANISH

**Z.H.Fayziyeva**
*Bux DU, Fizika yo'nalishi I bosqich magistranti*
**B.A.Hikmatov**
*Bux DU, Fizika yo'nalishi I bosqich magistranti*

***Annotatsiya***: *Elementar yarimo'tkazgich bo'lgan kremniy va germaniy elementlarini, shuningdek murakkab strukturali yarimo'tkazgichlar xususiyatlarini o'rganish, ularning tashqi ta'sir ostida xususiyatlari o'zgarishini kuzatish orqali ham kerakli xossalarga ega bo'lgan asboblar yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.*

***Kalit so'zlar***: *kremniy, Xoll effekti, Lorens kuchi, elektr maydon, tok tashuvchilar, zaryadli zarralar.*

Yarim oʻtkazgichlar va dielektriklar fizikasi hozirgi zamon fizikasining eng asosiy qismi boʻlib, uning yutuqlari asosida asbobsozlik, radiotexnika va mikroelektronika sohalari rivojlanadi. Yarim oʻtkazgichlar elektr oʻtkazuvchanligi boʻyicha metallar bilan dielektriklar oraligʻidagi moddalar guruhiga kiradi va T=0 da ularning valent zonasi elektronlar bilan band boʻlib taqiqlangan zonasining kengligi katta emas (~1eV). Atom elektron buluti bilan oʻralgan yadrodan tashkil topgan.

Yarim oʻtkazgichlarga shunday materiallar kiradiki, ularning xona haroratidagi solishtirma elektr qarshiligi $10^{-5}$ dan $10^{10}$ om sm gacha boʻladi. (yarim oʻtkazgichli texnikada 1 $sm^3$ hajmdagi materialning qarshiligini oʻlchash qabul qilingan). Yarim oʻtkazgichlar soni metall va dielektriklar sonidan ortiq, juda koʻp hollarda kremniy, arsenid galliy, selen, germaniy, tellur va har xil oksidlar, sulfidlar va karbidlar kabi yarimoʻtkazgich materiallardan foydalaniladi.

Yarim oʻtkazgich materiallarining elektrofizik xususiyatlarini oʻrganish asosida yangi fizik asboblar yaratish imkoniyati tugʻiladi. Ayniqsa, qattiq jismlar fizikasining yarim oʻtkazgichlar fizikasi qismini oʻrganadigan materiallar asosida hozirgi zamon talablariga javob beradigan fizik asboblar va qurilmalar yaratiladi.

Kremniy elementning elektrofizik, mexanik, optik va boshqa xususiyatlarini oʻrganish katta ahamiyatga egadir. Tashqi ta’sir: nurlanish, bosim, deformatsiya va boshqa ta’sirlarda kremniyning xususiyatlari oʻzgarishini oʻrganish dolzarb muammodir.

Kremniy Si (Silicimin) Mendeleyev davriy sistemasidagi IV gruppa elementi, atom nomeri 14, atom massasi 28,0856 boʻlib, metallmaslar guruhiga kiradi. Binobarin, uning yakka atomida 14 ta elektroni boʻlib, 10 tasi mustahkam ichki qobigʻda 5 ta sathni toʻldirgan, qolgan 4 tasi ikkita tabiiy kremniy 3ta stabil izotopdan $^{28}_{14}$Si (92,28 %), $^{29}_{14}$Si (4,67 %), $^{30}_{14}$Si (3,05%) va ikkita radiaktiv izotopi $^{27}_{14}$Si ($\beta^+$ , 4.9s), $^{31}_{14}$Si($\beta^-$, 170 min) dan iborat.

Elektron strukturasi – $1S^2\,2S^2\,2P^6\,3S^2\,3P^2$ ga teng.

Kremniy Si atomining kristalli kimyoviy radiusi 0,134 nm, $Si^{+4}$ ionining radiusi 0,039 nm. Kremniy Si tomonlari markazlashgan kub fazoviy panjara shaklida kristallashadi va bu kubning panjara doimiysi $\lambda$=0,54304 nm. Kremniyning zichligi -2,328 g/$sm^3$ , erish temperaturasi 1415 $^0$C, issiqlik sigʻimi - 20,1 kj/mol·K, erish issiqligi -49,8 J/m·Mol, bugʻlanish issiqligi - 355 kj/mol.

Yarimoʻtkazgich boʻlmish kremniyda erkin zaryad tashuvchilar (elektronlar va kovaklar) konsentrasiyasi (p, n), harakatchanlik ($M_n$, $M_p$) ni oʻlchashning bir qancha usullari mavjud. U yoki bu usulning qoʻllanilishi ularning meterologik tavsifiga, oʻlchash usullarining fizik asoslari, namunaning elektrofizik xossalari, geometrik shakli va oʻlchamlariga bogʻliq. Bularning hammasi Xoll effektiga asoslangan usuldir. Bu usul bilan kremniy namunasining elektr oʻtkazuvchanligini ham aniqlash mumkin.

Dastlab toza kremniyni uning birikmalaridan ajratib olish kerak. Buning bir necha usullari mavjud. Kremniy tetraxloridi $SiCl_4$ ni yuqori haroratda Zn yordamida tiklash yoʻli bilan undan ancha toza kremniy Si ajratib olish mumkin:

$$SiCl(gaz)|+2Zn(gaz) \rightarrow Si(qattiq) + 2ZnCl_2(gaz)$$

Kremniy tetroxloridi $SiCl_4$ ni vodorod yordamida tiklash oldingi usulga nisbatan yana ham toza kremniy olish imkonini beradi. Bu reaksiya 1050 – 1100$^0$C da amalga oshadi.

$$SiCl_4+2N_2 \rightarrow Si +3NCl$$

Trixlorsilan Si $NCl_3$ ni vodorod yordamida tiklash usuli ham yuqori haroratda (1000-1100 $^0$C) kechadi.

$$Si\ NCl_3+ N \leftarrow 2Si+3NCl$$

Kremniy ajratib olishning bu usullari yetarli darajadagi tozalikni bera olmaydi, unda ko‘pdan ko‘p va xilma - xil kirishmalar qoladi.

Yarimo‘tkazgichli materialni parallelliped shaklida qirqib olinadi va uning sirtiga qo‘yilgan elektrodlar orqali o‘zgarmas tok o‘tkaziladi. Buning natijasida yarimo‘tkazgich ichida zaryadli zarralarning tartibli harakati yuz beradi. Tok o‘tayotgan sirtlarga perpendikulyar yo‘nalishda o‘zgarmas magnit maydoni qo‘yiladi va har xil ishorali zaryadli zarralar ushbu maydon ta’sirida o‘z harakat yo‘nalishlarini o‘zgartiradi. Natijada paralleliped shaklidagi yarimo‘tkazgichning qarama-qarshi sirtlarida musbat va manfiy ishorali zaryadli zarralar yig‘ilib qoladi va bu sirtlar orasida potensiallar farqi yuzaga keladi. Bizga ma’lumki, o‘zgarmas magnit maydonida harakat qilayotgan zaryadli zarrachaga maydon ***Lorens kuchi*** bilan ta’sir etadi:

$$F_L = q * [B * v] \qquad (1) \qquad \text{yoki}$$

$$F_L = q * B * v * sin\alpha \qquad (2)$$

agar α=90$^o$ bo‘lsa

$$F_L = q * B * v \qquad (3)$$

Bu kuch ta’sirida zaryadlar harakat yo‘nalishini o‘zgartiradilar va kuchlanganligi $E_x$ bo‘lgan ko‘ndalang elektr maydoni hosil qiladi. Bu maydon ham zaryadli zarraga $\vec{F}_x$ kuch bilan ta’sir etadi:

$$\vec{F_x} = q * E_x \qquad (4)$$

Lorens kuchi $\vec{F_L}$ va elekr maydoni hosil qilgan $\vec{F_x}$ kuchlar o‘zaro tenglashguncha zaryadli zarrachalarning burilishi davom etadi. Bu kuchlar o‘zaro tenglashgach tok tashuvchilar burilmay qoladi, ya’ni :

$$E_x * q = q * B * v \qquad (5)$$

Shunday holatda A va B sirtlar o‘rtasida potensiallar farqi yuzaga keladi:

$$U_x = E_x * d = B * v * d \qquad (6)$$

Bu yerda, d - material qalinligi. Bizga ma’lumki, elektronlarning $v$ – tezligini tok zichligi - $j$ bilan ifodalasak:

$$v = \frac{j}{n*e} \qquad (7)$$

bundan:

$$U_x = \frac{1}{e*n} * j * B * d = R * j * B * d \qquad (8)$$

Bu yerda $R = \frac{1}{e*n}$ - ***Xoll koeffisiyenti*** deyiladi.

Elektron o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan yarim o‘tkazgich uchun:

$$R = \frac{1}{n_o \cdot e} \qquad (9)$$ yoki

$$R = \frac{U_x}{j*B*d} \qquad (10)$$

Shunday qilib, Xoll effektini bilgan holda tok tashuvchilar konsentrasiyasi $n_0$ ni va uning ishorasini bilib olish mumkin.

$$n_0 = \frac{1}{R \cdot e} = \frac{j \cdot B \cdot d}{e \cdot U_x} \qquad (11)$$

Xoll koeffisiyenti orqali tok tashuvchilarning harakatchanligini ham aniqlash mumkin:

$$M = R / \rho \qquad (12)$$

Yarim o‘tkazgichlar kattaliklarini o‘lchash paytida olinadigan natijalar xatoligi kam bo‘lishi uchun yarim o‘tkazgichga qo‘yilgan o‘zgarmas magnit maydonining qiymati juda katta bo‘lishi lozim. Aks holda, zaryadli zarrachalarning magnit maydonda burilishi juda kam bo‘ladi va hosil bo‘ladigan potensiallar farqini o‘lchashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**


1. *“Yarimo`tkazgichlarda atomlar diffuziyasi”* – S. Zaynobiddinov, Sh. Yo‘lchiyev, D.Nazirov, M. Nosirov. T O S H K E N T - 2 0 1 2.
2. *“Yarimo’tkazgichlar va yarimo’tkazgichli asboblar texnologiyasi”* – A.Teshaboyev, S. Zaynobiddinov, E.A.Musayev. TOSHKENT- 2006.
3. *“Elektronika va sxemotexnika” o’quv qo’llanma.* - Saydumarov I.M., Shukurova S.M. TOSHKENT – 2014.


## PARABOLOID KONSENTRATORNING TAJRIBA NATIJALARI


**Sh. Sh.Fayziyev**

*Fizika –matematika fanlari doktori.*

**S.A.Temirov**

*BuxDU II bosqich magistranti*



*Ushbu maqolada shaxsiy foydalanish uchun quyosh oshxonasi sifatida yaratilgan paraboloid shakldagi konsentrator qurilmasining sinov natijalari keltirilgan.*


Butun dunyo davlatlarining ishlab chiqarish sanoati so’ngi o’n yillikda shu darajada rivojlanib ketdiki bunda noananaviy energiya manbalariga talab yuqori darajada oshib ketdi. Ayniqsa transport va qishloq xo‘jaligida bunday hollar

yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Ananaviy energiya manbalari toshko‘mir, o’tin, neft mahsulotlari va tabiiy gaz kabi tabiiy yoqilg‘ilar hisobiga hosil qilinadi. Bu esa o‘z navbatida tabiatdagi yoqilg‘i resurslari zahirasining kamayishiga olib kelmoqda. Ushbu holat juda global ekologik muammo hisoblanib toza energiyadan foydalanishni xalq xo’jaligida ishlatish hozirgi kunda dunyo olimlarining diqqat markazida bo’lib qoldi. Quyosh, shamol, geotermal energiyalari daryo suvlarining potensial energiyasi va oken suvlarining ko’tarilishi kabi muqobil energiya manbalaridan keng foydanish usullarini yaratish va qo‘llash yuqorida aytilgan muammolarning yechimi bo’lishi ko’pgina adabiyotlarda qayd etilmoqda [1].

Yer yuzidagi insoniyatning ko’payishi ayniqsa, so’ngi o’n yillikda jamiyatning ulkan rivojlanishi energiya sarfini ortishiga olib kelmoqda. Bu talabni qondirishning ekologiyaga zararsiz yo’llarini izlab topish fan va texnikaning asosiy dolzarb masalalaridan biri bo’lib hisoblanadi. Energiyaga bo’lgan talabning keskin ortishi alternativ noananaviy energiya manbalaridan zudlik bilan foydalanishga olib keladi. Quyosh energiyasidan xalq xo’jaligi sohalarida, jumladan, qishloq xo‘jaligida keng miqyosda foydalanishning samarali yo‘llarini izlab topish shular jumlasidandir.

Ushbu maqolada uy ro’zg’or ishlari uchun mo’ljallangan ayniqsa choy qaynatish yoki ko’p sonli bo’lmagan oilaga ovqat pishiradigan quyosh oshxonasi to’g’risida ma’lumotlar berilgan. Qurilma paraboloid shakldagi konsentratordan iborat bo’lib u ko’p sonli ko’zgulardan tashkil topgan. Quyosh konsentratorning asosi gipsdan (alebastr) yasalgan. Fokus masofasi 0,9 m, asosining tekisligi yuzasi 0,635 $m^2$ ga teng. Yuzasi 0,05x0,05 m o’lchamdagi jami 256 ta mayda ko’zgu-oynalar bilan qoplangan. Bu ko’zgularga tushayotgan quyosh nuri, har bir ko’zgudan qaytib, konsentrator fokus masofasida joylashgan nur qabul qilgichda yig’iladi. Nur qabul qilgichlarda harorat 400 $^0$C gacha ko’tarilishi qayd qilingan[1-rasm]

Qurilmaga mahalliy, arzon va topilishi onson bo’lgan mahsulotlat ishlatilgan. Quyosh nurlari qurilma yuzasiga to’liq tushib turishi uchun konsentrator har 30 minutda Quyosh harakati yo’nalishiga mos holda burib turiladi. Qurilmaning paraboloid qismini gorizontga nisbatan kerak bo’lgan burchakka og’dirish qulay bo’lishi uchun maxsus burchak o’zgartirgich o’rnatilgan.




*1-rasm. Qurilmaning sxematik ko'rinishi: 1-fokus nuqtasi (nur qabul qilgich), 2-konsentrator asosi, 3-qurilma tagligi-tagligi.*

Osmonning olam tomonlariga qaratish qulay bo'lishi uchun tagligiga g'ildiraklar o'rnatilgan. Qurilmaga mahalliy, arzon va topilishi onson bo'lgan materillar ishlatilgan.



*2-rasm: Qurilmaning haqiqiy ko'rinishi.*

**Olingan natijalarning tahlili:** qurilmada 0,5 litr suvni qizdirib qaynaguncha ketgan vaqti va temperaturasining o'zgarish dinamikasi ikki hol uchun tahlil qilindi. Birinchi holda suv solingan idishning og'zi ochiq holda natija olindi. [3-rasm].




*3-rasm. Qurilmadagi 0,5 litr suv temperaturasining o'zgarish dinamikasi.*

Ikkinchi holatda shuncha miqdordagi suv solingan idishning og'zi yopiq holatdagi suv temperaturasining o'zgarish dinamikasi tahlil qilindi [4-rasmda].




*4-rasm. Qurilmadagi 0,5 litr suv temperaturasining o'zgarish dinamikasi.*

Olingan natijalar og'zi yopiq idishdagi suv tezroq qaynashini ifodalaydi. Suyuqlikda hamisha erigan gazlar mavjud bo'lib ular idishning tubi va devorlarida hamda suyuqlik ichida muallaq suzib yurgan chang zarralarida mayda pufakchalarni hosil qiladi. Temperatura ko'tarilib borgan sari pufakchalardagi to'yingan bug' miqdori va bosimi orta boradi. Itarib chiqaruvchi Arximed kuchi ta'sirida pufakchalar yuqoriga qalqib chiqadi. Agar suyuqlikning yuqori qatlamlari temperaturasi pastroq bo'lsa, ko'tarilayotgan pufakchalardagi bosim tez kamayadi

va yuqorigacha yetib bormaydi. Pufakchalar ichidagi to'yingan bug' bosimi suyuqlik bosimiga tenglashgach pufakchalar yuqori qatlamga yetib boradi va qaynash jarayoni boshlanadi. Og'zi yopiq idishda yuqori qatlamdagi issiqlik saqlanib qoladi va qaynash jarayoni tezroq amalga oshadi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**


1. Duffie J., Beckman W. Solar engineering of thermal processes. New York. Wiley, 1991. -919p.
2. Захидов Р.А. Зеркальный системы концентрации лучистой энергии. Ташкент: Фан. 1986. -176
3. Zahidov R.A. Technology and testing of solar energy concentrating systems. Tashkent: 1978. 184 P.184.


## MODULYATSIYALANGAN MAGNITLI TUZILMALARNING $FeBO_3$ va $Tb_{0,2}Y_{2,8}Fe_5O_{12}$ KRISTALLARIDAGI XUSUSIYATLARI


**D.R.Djurayev**
*BuxDU fizika kafedrasi professori,*
**N.B.Yo'ldosheva**
*BuxDU Fizika kafedrasi magistranti*


Temir borat yashil rangli, spektrning ko`rish sohasida optik jihatdan anizotrop bo`lgan, shaffof kristall. Nol temperaturasidan past temperaturalarda $FeBO_3$ optik ikki o`qli kristall, bu o`qlardan biri simmetriyaning asosiy o`qi ($S_3$-o`q) bilan mos tushadi. Temir boratning xona temperaturasidagi yutilish spektri maksimumlari 0,62 va 0.88 mkm bo`lgan 2 ta yuqori qiymatlarga ega va yutilish koeffitsienti ~50 sm $^{-1}$ kattalikka yetadi. Yutilishning bu eng katta qiymatlari $Fe^{3+}$ ionlarining kristall maydoni tomonidan bo`lingan holatlari orasidagi o`tish: asosiy $^6A_1(^6S)$ holatdan uyg`otilgan $^4T_2(^4G)$ holatlarga o`tishi bilan bog`lanadi. Ushbu kristallning shaffoflik sohasidagi magnitooptik xossalari, asosan Faradey effekti va magnit chiziqli dixroizm bilan aniqlanadi [1-5].

$FeBO_3$ kabi romboedrik kuchsiz ferromagnetiklar bazis tekisligidan m va I vektorlarining chiqish burchaklari kichik (~$10^{-3}$ rad), shuning uchun $m_{//}\approx|m|$. $I_{//}\approx|I|$. Odatda, $I_z \ll I$ ekanligidan, antiferromagnetizm vektorining bo`ylama qismi kristallning optik doimiyliklariga juda kam ta`sir ko`rsatadi, shu sababli, $I_z$ ning toq magnitooptik effektlarga qo`shadigan hissasini $I_x$, $I_y$ ko`ndalang komponentalarga qo`shadigan hissasiga qaraganda hisobga olmasa ham bo`ladi. Faradey effekti va magnit aylanma dixroizmiga e`tibor bersak, $\varepsilon_{ij}$ tenzor antisimmetrik qismi komponentasining ferromagnetizm vektori bilan bog`liqligidan, qutblanish tekisligining burilishi ham, uning elliptikligi ham vektorning bo`ylama komponentasi tufayli vujudga keladi.

$$g = \gamma_1 m_z + \beta\gamma_2 m, \qquad (1)$$

bu yerda $\gamma_1$ va $\gamma_2$ romboedrik kristall anizotropiyasini tavsiflovchi doimiyliklardir.

Romboedrik kuchsiz ferromagnetikdan o`tayotgan yorug`lik nurining qutblanish parametrlarining namunaga tushayotgan yorug`lik qutblanish tekisligi azimuti $\Psi$ va tajribaviy koordinata sistemasiga nisbatan magnitlanganlik orientatsiyasi bilan bog`liqligi quyidagicha ko`rinish oladi:

$$Re\,\vartheta=[-\nu_1''\sin 2(\Psi-\varphi)-\gamma_1' m_z(\varphi)-\beta\gamma_2' m_\perp \cos(\varphi+\varphi_0)]\,\omega z/cn;$$

$$Im\,\vartheta=[-\nu_1'\sin 2(\Psi-\varphi)-\gamma_1'' m_z(\varphi)-\beta\gamma_2'' m_\perp \cos(\varphi+\varphi_0)]\,\omega z/cn; \qquad (2)$$

bu yerda $\nu_1''$ va $\gamma_1'$, $\gamma_2'$ lar magnitooptik doimiyliklar (mos holda magnit chiziqli dixroizm va Faradey effekti uchun); $\nu_1'$ $\gamma_1''$, $\gamma_2''$ lar magnit chiziqli ikkilanib sinish va magnit aylanma dixroizm uchun to`g`ri keladi (bunda $|\boldsymbol{l}| = 1$ deb qabul qilingan.).

Magnitooptik usul bilan bir jinsli bo`lmagan radial mexanik kuchlanishning $FeBO_3$ monokristalli domenli strukturasiga ta`siri tadqiq etildi. $FeBO_3$ ning bazisli tekisligi, siquvchi kuch yo`nalishi bo`ylab qo`yilgan magnit maydoni, magnitlanish jarayonida kristallda haroratga bog`liq bo`lgan $N_0 \le H \le H_s$ ma`lum maydon intervalida bo`luvchi ponasimon domenlar sistemasining hosil bo`lishi qayd etildi. Olingan natijalar domenli strukturaning termodinamik nazariya doirasida muhokama etildi. Foydalanilgan nazariy model tajribada olingan $D/L^{1/2}$ ($D$–ponasimon domenning o`rtacha eni, $L$–uning uzunligi) kattalikning haroratga va maydonga bog`lanishini ifodalay olishi ko`rsatilgan.

Namuna haroratlar sohasi $90 \le T \le 290$ K da tajriba o`tkazish mumkin bo`lgan azotli kriostatda joylashtirildi. Ikkita Gelmgolts g`altaklaridan iborat magnitlash sistemasi namuna joylashgan sohada ikkita o`zaro perpendikulyar bir jinsli magnit maydoni kuchlanganligi $N \le 50$ $_e$ bo`lgan maydonni hosil qilish imkoniyatini berdi (barcha tajribalarda N vektori namuna tekisligida yotgan bo`ldi).

Mexanik kuchlanishning $FeBO_3$ magnit holatiga ta`sirini aniqlash uchun barcha tajribalar «kuchlanishsiz» kristall va bir jinsli bo`lmagan kuchlanish ta`siridagi kristallda takrorlandi va olingan natijalar o`zaro solishtirildi. Bir jinsli bo`lmagan kuchlanish bilan namunaga ta`sir etish uchun uning bir burchagi misdan tayyorlangan shaybaga BF-2 kley bilan yopishtirildi. Misdan tayyorlangan shayba esa sovuq tashuvchi kriostatga mahkamlandi. Namuna xona haroratidan boshlab sovutilgan sari shaybaning haroratiy deformatsiyasi sodir bo`ladi va bu esa namunaga berilib, unda bir jinsli bo`lmagan kuchlanishni hosil qiladi. Xona haroratida magnitlanmagan holatda o`rganilayotgan namuna ikki qatlamli domenli strukturaga ega bo`ladi. Domenli chegaralarning yo`nalishi bazisli tekislik, ya`ni $S_2$ (yo`nalishi kristallni tabiiy ishlov berishda aniqlangan) o`q yo`nalishiga yaqin bo`lgan va yengil tekislik ichki geksagonal anizotropiyaga ega bo`lgan yo`nalishda ikki qatlamli domenli struktrura yo`nalishi bo`ladi (1a-rasm). Bunday domenli struktura mexanik kuchlanishdan xoli bo`lgan $FeBO_3$ yupqa plastinkalarga xosdir. Ma`lumki, ushbu holda spontan magnitlanish vektori azimuti **m** namuna tekisligidagi qo`shni domenlarda taxminan $180^\circ$ ga farq qiladi, domenlar orasidagi

chegara sifatida neel tipidagi (domenlar orasidagi qatlamlar-blok domen devori, kristall bazis tekisligiga parallel bo`lgan tekislik) devorlar xizmat qiladi.






*1 - rasm. «Yelimlangan» $FeBO_3$ kristalli domenli strukturasining kuchlanganlik N=0 bo`lganda olingan tasviri: a) T=290 K va b) T=90 K; v–kuchlanganlikka ega bo`lgan kristall bazisli tekisligidagi spontan magnitlanish (strelkalar) vektorining fazoviy taqsimoti. Punktir chiziqlar mexanik kuchlanish ta`sir etuvchi yo`nalishlar, shtrixlangan soha kristall ushlagichga mahkamlangan kley tomchisi. O`ngda- laboratoriya koordinatalar sistemasidagi o`qlar yo`nalishi: X o`qi $S_2$ ning uchta o`qidan bittasi bilan mos keladi, Z-o`qining yo`nalishi $S_3$ o`qi yo`nalishi bilan mos keladi [4,5].*

Tajribalar shuni ko`rsatdiki «kuchlanishsiz» holatdagi namunada kuzatiladigan domenli struktura barcha $90 \leq T \leq 290$ K haroratlar oralig`ida unga bog`liq emas ekan. « Yelimlangan» namuna domenli strukturasi esa o`zini boshqacha tutadi. Harorat pasaygan sari taxminan T=270 K dan boshlab neel devori osta-sekinlik bilan egrilana boshlaydi, domenli struktura esa ikki qatlamli holatdan chuqurliga aylana boshlaydi va markazi namuna kleylangan joyda bo`lgan taxminan bir xil qalinlikdagi kontsentrik halqa shaklidagi sektor ko`rinishida bo`ladi (1b-rasm)

1b-rasmdan kuzatish mumkinki, domenli struktura tasvirning maksimal kontrasti namunaning markaziy qismida bo`lar ekan. Bu yerda domenlar tasvirining aniqlik darajasi vertikal o`q *Y* bo`lab butun namuna yuzasi bo`yicha deyarli o`zgarmaydi (tanlangan koordinata sistema o`qlarining yo`nalishi 1v-

rasmda ko`rsatilgan). Ushbu tasvirning bir jinsli bo`lmasligi mikroskop optik sistemasining fokusi buzilishidan emas, balki kristall bazisli tekisligidagi **m** vektori azimutal burchagining o`zgarishi natijasida hosil bo`ladi.

Ferromagnetikdagi domenli strukturaning o`zgarishi. Magnitooptik usul yordamida kubsimon ferromagnetik $Tb_{0,2}Y_{2,8}Fe_5O_{12}$ ning domenli strukturasidagi o`zgarish, spontan orientatsiyali fazaviy o`tish (OFP) haroratlari sohasida tadqiq etilgani, past va yuqori haroratli magnit fazalarga ega bo`lgan domenlarning birgalikda mavjudligi kuzatildi. Ma`lum bir haroratlar oralig`ida OFP ning cho`zilganligi, qayta orientatsiyalanish haroratlar sohasida domenli konfiguratsiya evolyutsiya xarakteri jiddiy ravishda kristallda mavjud mexanik kuchlanishga bog`liqligi aniqlash imkoniyatini berdi. Tajribada olingan natijalarning 2-rasm va 3-rasmlarda keltirilgani kubsimon kristall uchun mavjud bo`lgan OFP nazariyasi doirasida amalga oshirilishi mumkin ekan.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, mavjud bo`lgan orientatsiyali fazoviy o`tishlar nazariya $Tb_{0,2}Y_{2,8}Fe_5O_{12}$ namunaning domenli strukturasida kuzatiladigan ko`p qirrali haroratga bog`liq bo`lgan evolyutsiyani ifodalay olmas ekan va spinli qayta orientatsiyalanishga namunaning kristallografik mexanik kuchlanishi sezilarli ta`sir qilar ekan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. D.R. Djuraev, L.N.Niyozov, B.Yu. Sokolov, Sh.Sh.Fayziev Orientatsionniy fazoviy perexod i modulirovannaya magnitnaya struktura monokristalla $\alpha$ – $Fe_2O_3$:Ga.//«Fundamentalnie i prikladnie voprosi fiziki» sbornik tezisov dokladov respublikanskoy konferentsii posvyashennoy 100-letiyu akademika. S.A.Azimova, Fiziko-texnichekiy institut NPO «Fizika-Solntse» AN RUz,Tashkent, 6-7 noyabrya 2014 g., S.164-165.
2. D.R.Djurayev, L.N.Niyazov, B.Yu.Sokolov Spontaneous spin flip phase transitions of the cubic ferrimagnetic $Tb_{0.2}Y_{2.8}Fe_5O_{12}$. The International Conference "Spin physics, spin chemistry and spin technology" (SPCT-2015), St. Petersburg, Russia, June 1-5, 2015.
3. D.R.Djuraev, B.Yu.Sokolov Indutsirovannie magnitnim polem orientatsionnie fazovie perexodi v strukturno neodnorodnix slabix ferromagnetikax. «Fan» nashriyoti Toshkent 2015, 136 str.
4. Niyazov L.N., Djuraev D.R. Investigation of influence of the magnetic structure rebuilding on the magneto optical anisotropy of a single crystal $Fe_2O_3$:Ga/ International Conference "Recent Trends in Nanomagnetism, Spintronics and their Applications" (RTNSA 2015) – Palacio Barrena, Ordizia, Spain: 2015, R. 81


## МУҚОБИЛ ЭНЕРГЕТИКА ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА КВАНТ ЭЛЕКТРОНИКА


**Д.Р.Джураев**

*БухДУ Физика кафедраси профессори, ф-м.ф.д,*

**Д.А.Мухаммедова**
*БухДУ I босқич магистранти*,

Электр энергияни ишлаб чиқиш ва уни узатиш боғлиқ муаммолар фаннинг бугунги кундаги долзарб муаммоларидан ҳисобланади. Бу биринчидан дунёда аҳоли сонининг ошиши билан боғлиқ бўлса иккинчидан унга мос равишда ишлаб-чиқаришнинг ошишидир. Демак энергияга ўлган талаб кундан-кунга ошиб боради. Ушбу муаммонинг ечими биринчидан энергия ишлаб чиқаришнинг янги самарадор усулларини ишлаб чиқиш бўлса иккинчидан уни самарали узатиш ва фойдаланиш йўлларини излаб топишдан иборат. Мазкур йўналишда мамлакатимизда катта ишлар амалга оширилмоқда. Бунга мисол қилиб, давлатиимз томонидан қабул қилинган кўпгина қарорларни келтириш мумкин. Улар орасида ЎРЌ-539 рақам билан имзоланган 2019 йилнинг 21 майидаги "Қайта тикланувчан энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисидаги" Ўзбекистон Республикасининг Қонуни алоҳида ўрин тутади. Шу ўринда муқобил энергетика таъминоти билан боғлиқ баъзи халқаро лойиҳаларни келтириш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 2-апрелдаги ПЌ-4256-сонли "Ўзбекистон Республикаси ва Бирлашган Араб Амирликлари ўртасида икки томонлама ҳамкорликни янада мустаҳкамлаш ва енгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарорига асосан Навоий вилоятининг Зарафшон шаҳрида БААнинг "Масдар" компанияси томонидан 200 МВтли шамол электр станциясини қуриш режалаштирилган. Лойиҳанинг ќиймати 150 млн. АҚШ долл. бўлиб, 2021-йил якунида фойдаланишга топиширилиши кўзда тутилган.

Давлатимиз раҳбарининг 2019-йил 4-майдаги ПЌ-4308-сонли "Хитой Халќ Республикасига олий даражадаги ташриф давомида эришилган келишувларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарорига асосан Хитойнинг "Лиаонинг Леадер Инвестмент Ҳолдинг Корп." компанияси томонидан Бухоро вилоятининг Ғиждувон туманида 200 МВтли шамол электр станциясини қуриш режалаштирилган. Лойиҳанинг қиймати 250 млн. АҚШ долл. бўлиб, бунинг ҳам 2021-йилда фойдаланишга топширииши кўзда тутилган.

Муқобил энергия манбаларига ммисол қилиб қуйидагиларни келтириш мумкин:

- Фотовольтаика
- Шамол энергияси
- геотермал энергия
- Биомасса энергияси
- Гидроэнергия ва бошқалар

Улар орасида бизнинг республикамиз шароитида фотовольтаика алоҳида ўрин тутади, чунки бир йилда мамлакаимизда 300 кундан ортиқ қуёшли кунларни кузатишимиз мумкин.

Энергия ишлаб чиқаришда ва уни узатишда квант электроникасидан фойдалнишга эътиборни қаратсак. Квант электроникаси ёруғликни генерациялаш ва кучайтириш билан боғлиқ фан бўлганлиги сабабли. Ундан ҳам энергия ишлабҷиқаришда, ҳам ундан самарали фойдаланиш ва узатишда фойдаланиш мумкин. Бу албатта бизлардан катта назарий ва амалий изланишларни олиб боришни талаб қилади.

Шуниси эътиборга лойиқки, бугунги кун бутун дунёда энергия тежамкорлигини ошириш, экологик тоза, қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишга катта эътибор қаратилмоқда. Сабаби аниқ - муқобил энергия манбаларидан унумли фойдаланиш ер ости бойликлари захирасини тежаш билан бир қаторда атмосферага чиқарилаётган зарарли газлар миқдорини камайтиради.

Умуман олганда, мамлакатимизда сув, қуёш, шамол, биогаз энергиясидан фойдаланиш борасида табиий қулай шарт-шароитлар мавжуд. Юртимизнинг қуёшли кунлари, шамол мунтазам эсиб турадиган очиқ ҳудудлари кўп. Бу эса муқобил энергия манбалари орқали иќтисодиёт тармоқларини, ҳудудлар ва аҳолимизни узлуксиз энергия билан таьминлаш, атроф-муҳитга чиқарилаётган зарарли чиқиндиларни камайтириш ҳамда барқарор ривожланиш имконини беради.

Бир сўз билан айтганда, Ўзбекистон қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантиришда улкан салоҳиятга эга. Негаки, ўлкамизда қўёшли кунларнинг кўп бўлиши билан баргаликда, доимий шамол эсувчи ҳудудларимиз ҳам бисёр. Бу қуёш ва шамол энергияси ишлаб чиќариш учун яхши имкониятлардан дарак беради.

Ушбу изланишларда энргияни ишлабғчиқиш узатиш ва фойдаланишда квант электроникаси қурилмалари, қонуниятлари эришилган илмий техник ютуқлардан фойдаланилганда фойдали ва самарали илмийғтехник ечимларни топиш имкониятлари мавжудлигига ишонч ҳосил қилишимиз мумкин.

Мазкур муаммолар ва ўзаро алоқадорликка маърузаада эътибор қаратилади.

## МОДУЛЯЦИЯЛАНГАН МАГНИТЛИ ТУЗИЛМАЛАР ВА ОРИЕНТАЦИЯЛИ МАГНИТЛИ ФАЗАВИЙ ЎТИШ

**Д.Р. Джураев**
*БухДУ Физика кафедраси профессори, ф-м.ф.д,*
**Н.Б. Йўлдошева**
*БухДУ II босқич магистранти*

Маълумки моддаларнинг бир ҳолатдан бошқа бир ҳолатга ўтишида содир бўладиган физикавий жараёнларни ўрганиш, ҳозирги кунда фан ва техникада кенг қўлланилаётган ва келажакда қўлланилиши мумкин бўлган турли ишлаб чиқариш соҳаларидаги истиқболли йўналишлар билан

чамбарчас боғлиқдир. Ушбу фазовий ўтишлар орасида магнитли фазавий ўтишлар алоҳида ўрин эгаллайди, чунки ушбу жараёнларни ҳар томонлама чуқур тадқиқ этиб, таҳлил этиш ҳозирги кунларда жадал ривожланаётган маълумотлар асри даражасига олиб келган информацион технологияда маълумотларни сақлаш ва кўчириш асосий хотира элементларини такомиллаштириш имкониятларини беради. Магнитли фазавий ўтишларни ўрганиш натижасида пайдо бўлган “спинотроника” йўналишининг ривожланиши ҳам модуляцияланган магнитли тузилмаларда бўладиган жараёнларни тадқиқ этиш билан боғлиқ. Бунда, яъни спин электроникасидаги асосий муаммолардан бири бу магнитланувчанлик кўринишидаги маълумотларни электр кучланишига айлантириш масаласидир. Ушбу масала гигант магнит қаршилик ҳодисасидан фойдаланиб ечилмоқда. Магнитоэлектрик самара ушбу муаммони ҳал қилишнинг альтернатив усули эканлиги фанда маълум. Магнитоэлектрик ҳодисалардан фойдаланиш келажакда ахборотни электр токи ёрдамида эмас спинлар ёрдамида узатиш, қабул қилиш ва сақлаш имкониятларини беради. Бу ўз навбатида хотира элементларини янада кичрайтириш ҳамда маълумотлар зичлигини ошириш натижасида ажралиб чиқадиган иссиқликни камайтириш ҳаттоки “йўқотиш” имконини ҳам беради.

Дунёда магнитоэлектрик эффектлар асосида ишловчи спин электроник қурилмалар ва асбоблар ишлаб чиқарилиши унинг учун зарур бўлган магнетоэлектрик эффект хусусиятларига эга бўлган материаллар-нинг чекланганлиги билан боғлиқ. Ушбу муаммони ечишда нодир ер (НЕ) элементли феррит – гранатлар (НЕФГ) алоҳида аҳамиятга эга. Бунга сабаб, яқинда уларда кузатилган етарлича катта флексомагнитоэлектрик самарадир (бир жинсли бўлмаган магнитоэлектрик эффект). Мазкур жараён хона ҳароратида кузатилди. Шунингдек бу ферримагнетиклар эпитаксиал қатламларидаги домен чегараларини унчалик катта бўлмаган бир жинсли электр майдони ёрдамида бошқариш имконияти мавжудлиги аниқланди. Шундай қилиб феррит – гранатлар домен структураларининг параметрлари ва хоссаларини тадқиқ этиш янги авлод спин электроникаси асбобларини яратиш учун элемент база сифатидаги материалларни ишлаб чиқувчи замонавий материалшуносликнинг устувор йўналиши ҳисобланиб, уларнинг иши материал домен конфигурациясининг электр ва магнит майдонлари таъсиридаги ўзгаришига асослангандир.

Кейинги йилларда республикамизда мазкур соҳада салмоқли илмий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда айниқса, материалнинг домен структура-си нотурғун ва домен чегаралари харакатчанлиги кескин ўзгарувчи нодир ер феррит гранатларининг магнит ориентацион фазавий ўтишлар соҳасидаги домен структурасини тадқиқ этилиши. Бунда фазавий ўтишлар яқинида ташқи таъсир (электр ва магнит майдонлари, босим ва ҳ.к) лар домен структурасига кўрсатадиган таъсир ҳал қилувчи ахамиятга эга бўлади. Бу эса материал домен конфигурациясини нисбатан кичик майдонлар воситасида бошқариш имкониятини беради.

Ориентацияли фазавий ўтиш (спини қайта ориентацияланадиган ўтишлар) ўзига хос магнитли фазавий ўтишлар бўлиб, унда ташқи таъсир (ҳарорат, магнит майдони ва бошқа турдаги таъсирлар) параметрлари ўзгаргандаги магнетикларнинг енгил магнитланиш қатлами ориентациясининг ўзгариши содир бўлади. Бундай фазавий ўтишлар магнетикларнинг магнит тартибланган фазалари орасида содир бўлиб, тартиб-тартиб деб номланадиган ўтишлар турига киради. Ориентацияли фазавий ўтишда магнитли атомли тузилма қайта ўзгаради ва кристалларнинг магнитли симметрияси ўзгаради.

Демак модуляцияланган магнитли тузилмаларда кузатилган магнитли мавжлар ориентацияли имагнитли фазавий ўтишлар билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, унда кечадиган физикавий жараёнларни тушунтиришда фойдаланиш мумкин экан. Бундай тадқиқотлар натижалари матбуотда эълон қилинган, улардан баъзиларини келтирамиз [1-3].

**Адабиётлар:**


1. С.Р. Бойдедаев, Д.Р.Джураев, Б.Ю. Соколов, Файзиев Ш.Ш. Влияние перестройки магнитной структуры кристалла $FeBO_3$: Mg на его магнитооптическую анизотропию. // Опт.и спектр. – 2009. – Т.107. – №2, С. 321 – 325.
2. Шарипов М.З., Джураев Д.Р., Соколов Б.Ю., Курбанов М. Модулированная магнитная структура неоднородно напряжённого монокристалла $FeBO_3$ // Украинский физический журнал. Киев, 2010. - Т.55. - № 6. –С. 706-711.


## ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ЙЎНАЛИШЛАРИ СИФАТИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИЯ


**М.Ф.Атоева**

*БухДУ Физика кафедраси доценти,*

**З.Ҳ. Файзиева**

*БухДУ I босқич магистранти*


Интеграция – (лот. – тиклаш, тўлдириш) – 1) бир жинсли турли қисмларнинг яхлит бир қисмга бирлашиши 2) ўзаро мослашиш ва бирлашиш жараёни.

Таълим тизимида интеграциялашган дарслар ўқув жараёнида мустаҳкам ўрин эгаллайди. Бундай дарслар талабаларда ижодкорлик руҳини, ўрганиш қувончини, муваффақият ва ўзига ишончни уйғотади, академик фанлар ўртасидаги алоқани ўрнатишга ёрдам беради, оламнинг ягона илмий тасвирини шакллантиришда ҳисса қўшади, талабаларнинг хаёлий тафаккури, эстетик ва ахлоқий хусусиятлари ривожлантиршга ижобий таъсир

кўрсатади. Таълимнинг турли шакллари ва улар қамраб олган фаолият турлари талабаларнинг чарчрқ ҳолатини сезиларли даражада камайтиради. Мақсадли равишда ташкил этилган фанлараро боғлиқлик узлаштириш самарадорлигига таъсир кўрсатади: олинаётган билимларга тизимли ёндашув пайдо қилади, когнитив қизикишлар ривожаланади, кўникмалар янада мураккаблашиб мукаммалашади.

Интеграциялашган дарснинг асосий мақсади – ўрганилаётган ҳодиса, воқеа, жараённинг яхлит кўринишига эришиш бўлиб, улар ўқув дастурининг мавзуси, бўлимида ўз аксини топгандир. Шу билан бирга, маълум бир фаннинг ичидаги ва фанлараро интеграция таълим тизимининг ҳозирги ривожалниши босқичида инновацион педагогик технологияларнинг асосий элементларига айланмоқда.

Таълими тизимида ўрта таълим соҳасидаги интеграциялашув даражасини уч босқичга ажратиш тавсия қилинади:

Биринчи (таълим) даражаси дарслар тизимини ривожалантириш билан боғлиқ бўлиб, унинг доирасида бир хил, яъни ўхшаш мавзулар (таълим масалалари) икки ёки ундан ортиқ фанлар доирасида параллел равишда кўриб чиқилади. Бунда бир таълим муассасасида айнан битта синфга дарс берадиган ўқитувчилар томонидан олдиндан режалаштириш асосида келишилган ҳолда амалга ошириладиган ўқув материалини синхронлаштриши назарга тутилади.

Интеграциялашган дарс – икки ёки ундан ортиқ ўқитувчи синфда бўлган ва дарсни ўтказишда фаол таъсир ўтказадиган дарсдир. Бу ақлий фаолликни ошириш ва ўқитиш усулларини ривожлантириш учун самарали моделдир.

Ўқув фанларини бирлаштириш учта шартни бажаришни ўз ичига олади:

- Турли хил элементларни, концепцияларни яқинлаштириш, фанлараро алоқаларни ўрнатиш, тушунча ва ҳодисаларни тизимлаштириш;
- Умумий мақсадлар ва пировард мақсад, фанларнинг тушунчалари ва ҳодисаларини таснифлаш асосида яхлитликни ўрнатиш;
- Ягона, аниқланган методик усуллардан фойдаланган ҳолда ягона ўқув дастури асосида ўқув курсини ташкил қилиш.

Шуни таъкидлаш жоизки, ушбу даражадаги фанлар бўйича ўқув стандартлари ва ўқув дастурларида белгиланган чекловлар мавжуд, шунинг учун умуман мавзуларни тўлалигича эмас, балки бир қатор мавзуларнинг айрим қисмларини бирлаштириш мумкин бўлади. Шу билан бирга, ўқув йилида ўқув йилида ўқув материалларини бир нечта фанлар бўйича синхронизация қилиш мумкин, бу эса ўз навбатида таълим олувчиларга таълим соҳасидаги янада кўпроқ мазмунли алоқаларни ўрнатишга имкон беради.

Ўрта таълим амалиётида фанларни қўшиб ўқитишнинг иккинчи даражаси – икки ёки бир неча фанларнинг таркибини бирлаштирган амалий курслар, электив курслар дастурларини ишлаб чиқиш билан боғлиқ.

Интегратив курс – бу битта академик фаннинг тегишли тематик блокларининг асосий таркибини ёки битта (ёки бир нечта) таълим

соҳасидаги турли мавзуларга тегишли тематик блокларнинг таркибини бирлаштиришдан иборат.

Таърифланган даража ўқитувчига яқин мавзудаги мавзуларни шарҳлашга кўпроқ кўламни назарда тутади, шунингдек, талабаларнинг қобилиятлари шаклланишига ўз ҳиссасини қўшади. Шу билан бирга, ушбу курсларни мактабда амалга ошириш, мактабнинг юқори босқичида ўқувчиларни фанлар бўйича профиль ва профилактик тайёргарлиги нуқтаи назаридан кўпроқ мос келади.

Учинчи даража (профессор-ўқитувчиларнинг биргаликдаги, услубий жиҳатдан мукаммал ташкил этилган ҳаракатларни талаб қиладиган энг мураккаб) – бу яхлит тизимни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, ўқув моделидан иборат бўлиб, у ўқув ва мактабдан ташқари машғулотлар, ўқув жараёни орқали ўқувчиларнинг атрофдаги воқелик ҳақидаги умумий илмий тушунчасини шакллантиришга қаратилган. Айтиб ўтилган даржада аввлаги даражаларни амалга оширмасдан эришиш мушкул, чунки интеграцион ёндашув амалиёти ишонч ҳосил қилишни талаб қилади. Шу билан бирга, фақат таълим муассасасини ривожлантиришнинг яхлит концепцияси таълим мазмунини синхронлаштириш ва интеграция қилиш борасида ўқув жараёнининг аниқ йўналишини белгилашда муҳим омил бўлиб хизмат қилиши мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Атоева М.Ф. Взаимосвязь с другими предметами обучения курса физики в среднем специальном образовании. – тезис. Инновационные технологии в науке и образованиие Международная научно-практическая конференция. – Пенза,2017. 25 август. – С. 220-222.
2. Атоева М.Ф. Электр ва магнетизм мавзуларини ноанъанавий ўқитиш методикаси. Ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент, 2018. – 202 бет

## FIZIKA KURSIDA “YORUG`LIKNING SINISHI VA QAYTISHI’’ MAVZUSIGA DOIR MASALARNI YECHISHDA “PhET” DASTURIDAN FOYDALANISH

**M.A.Ro’ziyeva**
*Bux DU II bosqich magistranti*

*Ushbu maqolada akademik litsey hamda umumiy o`rta ta’lim maktabning yuqori sinflariga Fizika fani “Geometrik optika” bo`limidagi “Yorug`likning sinishi va qaytishi” mavzusiga doir masalarni yechishda “PhET” dasturidan foydalanishning afzallik tomonlari keltirilgan.*

Fizika fanini o`qitishda o`quvchilar bilimini mustahkamlash uchun axborot komunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirish hozirgi zamon talabidir. Ayniqsa, fizikadan laboratoriya mashg’ulotlarini olib borish uchun barcha maktablarda birdek sharoit yaratilmagani, kerakli jihozlarning yetishmasligi

virtual labaratoriya mashg'ulotlariga talabning keskin oshib ketishiga olib kelmoqda. Ba'zi mavzularni nazariy jihatdan tushuntirib berish uchun fizik jarayonlarni tasvirlashda qo'shimcha texnologiyalardan foydalanish talab etiladi[1]. Bunday holatda o'quv jarayoniga zamonaviy kompyuter texnologiyalarini joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

O'quv jarayonida modellardan foydalanish yangi usul emas. Simulyatorlardan foydalanishning asosiy sabablaridan biri ularning real ob'ektlarga nisbatan juda ham arzon alternativ ekanligidadir. Simulyatorlar esa shunday haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz, ortiqcha hisoblashlarsiz virtual holatda biror bir fizik jarayonni modellashtirish hamda virtual laboratoriyaishlarini o'tkazishga imkoniyat yaratadi. Simulyatorlardan foydalanishning afzallik tomolari ularning xavfsiz va ortiqcha xarajat talab etmasligidadir.

Tabiiy fanlar yo'nalishida 2001 yildagi Nobel mukofotining laureati K. Viman tomonidan «Physics Education Technology» (PhET) sayti yaratilgan. "PhET" saytida har xil mavzularga oid modellar mavjud bo'lib, ular Java va Macromedia flash dasturlarida yaratilgan. "PhET" o'quv simulyatsiyalarni onlayn rejimida ishga tushirish yoki ularni kompyuterga o'rnatish mumkin. Simulatorni kompyuterga o'rnatib dasturning''bending light" qismini ishga tushuramiz. Dasturda yorug'lik bir muhitdan ikkinchi muhitga o'tganda yorug'likning sinish va qaytish jarayonini o'raganishning juda keng imkoniyatlari yaratilgan[3]. Bunga ko'ra dasturdan foydalanuvchi yorug'lik bir muhitdan ikkinchi muhitga o'tganda yorug'likning sinish va qaytish jarayoniga tegishli bo'lgan holatlarni tanlashi yoki o'zgartirishi mumkin. Jarayonda kechayotgan kattaliklarni o'lchash uchun o'lchov asboblari bo'limi mavjud. (1-rasm). Dastur hisoblashlar uchun kerak bo'ladigan turli fizik doimiyliklar, jadvallar va formulalarga ehtiyoj tug'dirmasligi bilan ham juda qulaydir.




*1-rasm. "PhET" dasturida Yorug'likning bir muhitdan ikkinchi muhitga o'tganda nurning sinish va qaytish jarayonini kuzatish imkoniyatlari*

**Masala.** Nur suv sirtiga 40° burchak ostida tushyapti. Sinish burchagi xuddi shunday bo'lishi uchun nur shisha sirtiga qanday burchak ostida tushishi lozim?[2]

**Yechilishi:** Masalani yechish ikki bosqichdan iborat. Birinchi o'rinda nurning havodan suvga o'tgandagi sinish burchagi topiladi. "PhET" dasturida nurni havodan 40° burchak ostida suvga yuborib jarayonni kuzataylik(2-rasm).




*2-rasm "PhET" dasturida 40° burchak ostida havodan suvga tushgan nurning sinishi*

Tasvirdan ko'rinib turibdiki nur suvga o'tganda 28,8° burchak ostida sinar ekan. Endigi navbatda esa "PhET" dasturida sinish burchagi 28,8° bo'lishi uchun nur shisha sirtiga qanday burchak ostida tushishini aniqlaymiz(3-rasm). Tasvirdan ko'rinib turibdiki nur shishada 28,8° burchak ostida sinib o'tishi uchun havodan 46,3° burchak ostida tushishi zarur ekan.




*3-rasm. "PhET" dasturida nurning havodan shishaga 28,8° burchak ostida sinib o'tgandagi ko'rnishi.*

Ananaviy usulda ushbu masalani yechib ko'raylik. Ko'rib turganingizdek masalada ikki muhitning sindirish ko'rsatgichi va 40° ning sinusi berilmagan. O'z-ozidan bizga burchaklar uchun sinuslar qiymatlari jadvali kerak bo'ladi. Jadvalda keltirilishicha sin40°=0,6428. Suv va shishaning sindirish ko'rsatgichlari mos ravishda $n_1$=1,333 va $n_2$=1,5 ekanligi jadvaldan aniqlanadi.

$n_1 = \frac{\sin\alpha}{\sin\beta}$, $\sin\beta = \frac{\sin\alpha}{n_1}$ $n_2 = \frac{\sin\gamma}{\sin\beta}$, $\sin\gamma = \sin\beta * n_2$

$\sin\gamma = \frac{\sin\alpha}{n_1} * n_2$ $\sin\gamma = \frac{\sin 40^\circ}{1{,}333} * 1{,}5 = \frac{0{,}6428}{1{,}333} * 1{,}5 = 0{,}7233$

$\sin\gamma = 0{,}7233$ $\gamma = 46{,}3$ Javob: 46,3°burchak ostida tushishi kerak

"PhET" dasturi Yorug'likning bir muhitdan ikkinchi muhitga o'tganda nurning sinish va qaytish jarayonini kuzatishda, yorug'lokninh sinishi va qaytishiga doir masalalarni turli burchaklar uchun sinuslar va tangenslar qiymatlari jadvallarisiz o'ta aniqlikda hisoblashda, o'quv va amaliy ko'nikmalarni egallashda va tasavvur etishda yordam beradi. Ushbu virtual labaratoriya fizik jarayonlarni hech qanday qurilmalarsiz kompyuterda bevosita kuzatishning imkonini beradi.

**Adabiyotlar:**


1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.:Sharq nashriyoti-matbaa konserni, 1997.
2. А.П.Римкевич, Физикадан масалалар тўплами, Ўқитувчи нашриёти , 1987, -130-б.
2. 3.Wolfram Demonstrations Project. – Yazikinterfeysa: angliyskiy. -
3. Razrabotchik: Wolfram Demonstrations Project & Contributors. -
4. www.demonstrations.wolfram.com


## ЭЛЕМЕНТАР ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА НАНОТЕХНОЛОГИЯ ВА КВАНТ ЭЛЕКТРОНИКАСИ ҲАҚИДАГИ ТУШУНЧАЛАР


**А.А.Тўраев**
*БухДУ доценти, ф-м.ф.ф.д.,(PhD)*
**Ў.Р.Мустафоев**
*БухДУ I босқич магистранти*


Физиканинг истиқболли йўналишларига «**нанотехнология**» ва «**квант электроникаси**» фанларини ҳам киритиш мумкин. Чунки, фан ва техникада кенг қўлланилаётган кўпгина илмий-техник янгиликлар ушбу фан ютуқлари асосида инсоният учун аввалар тасаввур қилиниши қийин бўлган турли даражадаги ва кўринишдаги мукаммал асбоб-ускуналарни тайёрлаш имкониятини берди. Шунинг учун, мазкур йўналишдаги тушунчаларни биз ёшларимизга қанча эртароқ сингдира бошласак, улар шунча эртароқ муваффақиятли натижаларга эришишлари мумкин. Бунинг учун, бошқа табиий фанлар қатори, нанотехнологиява квант электроникаси фанларининг

элементар тушунчаларини, сода қилиб ўқувчиларга мағзини очиб бериш зарур. Ушбу мақсадни кўзлаган ҳолда тақдим этилаётган маъруза тайёрланди. Унда нанотехнология ва квант электроникаси фанлари ҳақида элементар тушунчалар ҳамда уларда фойдаланиладиган физикавий сўзларнинг асосий маъноси илмий-оммабоп тилда очиб берилади.

Нанометр ўлчамдаги технологиянинг ташкил қилиш фикри биринчи бўлиб, Нобель мукофоти лауриати Ричард Фейнман (Richard Feynman) томонидан 1959 йилда таклиф этилган эди. У жуда кичик ўлчамларда ражасида моддаларни тузилишини бошқариш ва назорат қилиш муаммолари ҳақида ўзининг «У ерда пастда ҳали жуда кўп жой бор» (“There is plentyof space on the bottom”) номли маърузасида «бирорта ҳам физикавий ёки кимёвий қонунлар атомларнинг ўзаро ҳолатини ўзгартиришимизга тўсиқлик қилаолмайди» - деган эди.

**«Нанотехнология»** тушунчасининг ўзини япониялик олим Норио Танигучи (Norio Taniguchi) 1974 йилда киритди. У шундай деб бир микрондан кичик ўлчамдаги технология ва механизмларни аташни таклиф қилди. У нанотехнологиянинг қисқача таърифини берганда моддаларнинг 0,1÷100 нм даражада ўзгартириш ва уларга ишлов бериш мумкин бўлган такрорланадиган технологияларни назарда тутган эди.

Маълумки, модда билан ёруғлик ўзаро таъсирлашганда ёруғликнинг ютилиши, сочилиши, синиши ва қайтиши содир бўлади. Мазкур жараёнлар оптикада жуда яхши ўрганилган. Ўтган асрнинг 50 йилларида бу жараёнларга тескари бўлган ҳодиса, яъни моддадан ёруғлик ўтганида унинг кучайиши ҳам рўй бериши кашф этилди. Ушбу кашфиёт натижасида янги “квант электроникаси” фани пайдо бўлди.

**Квант электроникаси** деб мажбурий нурланишдан фойдаланишга асосланган электромагнит тебранишларни кучайтириш ва генерациялаш усулларини ва жараёнларини ҳамда квант кучайтиргичлар ва генераторлар хоссаларини ва қўлланилишини ўрганувчи физиканинг соҳасига айтилади.

Ушбу ҳодисанинг амалга оширилиши мумкинлигини илк маротаба А.Эйнштейн 1915 йилда айтган эди. Уёруғликнинг спонтан (яъни, ўз-ўзидан) нурланиши билан бир пайтда индукцияланган (яъни мажбурий) нурланиш ҳам мавжуд бўлиши мумкинлигини башорат қилган эди.

Ушбу башорат фақатгина 1960 йилга келибмоддада электромагнит нурланишнинг индукцияловчи нурланиш таъсирида генерацияланиши ва ўз навбатида кучайтирилишимумкинлиги амалда исботланди, яъни оптик квант генераторлари (ОКГ) яратилди. ОКГларни бошқача қилиб лазерлар ҳам деб айташ мумкин. Лазер(“LASER”–сўзи инглизча “**L**ight **A**mplification by **S**timulated **E**mission of **R**adiation” сўзларининг бош ҳарфларидан олинган) ёруғликни мажбурий нурланиш ёрдамида кучайтириш деган маънони англатади.

Лазерларни кашф қилганликлари учун Н.Г.Басов, А.М.Прохоров ваЧ.Таунс 1964 йили Физика сохасидаги Нобель мукофоти билан тақдирландилар.

Shunday qilib, yuqorida ko‘rsatilgan dasturlardan foydalanib, termodinamikaning birinchi qonunini izoprosesslarga qo‘llash o‘quvchilarga adyabatik jarayonning mavzularini yaxshiroq tushunish va o‘zlashtirishga imkon beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017- yil 6-apreldagi 187-sonl qarorı.

2.P.Habibullaev, A.Boydedaev, A.Baxromov, K.Suyarov, J.Usarov, M.Yuldasheva «Fizika» Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9 - sinfi uchun darslik. Toshkent – 2009.

3.Kamoliddinov.M, Vaxobjonov.B “Innovacion pedagogik texnologiyalar”. Toshkent - 2010.

4.B.Arzimbetova «Fizika pánin oqıtıwda zamanagóy usıllardan paydalanıw» Nókis - 2012.

6. Yusupov A., N.Turdiyev “Fizika: 9-sinf o’qituvchilari uchun metodik qo’llanma”-Toshkent- “Ma’naviyat”-2003 yil

7.M.T.Hojiyev, K.T.Olimov. Elektron darsliklarni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi. – Toshkent - 2005 y.

8. Ya.Perelman. Qiziqarli fizika.1-qism.–Toshkent - 1997 y.

9. Н.И.Белоконь. Основные принципы термодинамики. Москва -1968.

*5A130101 – Математика (йўналишлар бўйича)*

# ИККИ ЎЛЧАМЛИ ҚЎЗҒАЛИШГА ЭГА ФРИДРИХС МОДЕЛИ СОНЛИ ТАСВИРИНИНГ ТАҲЛИЛИ: ЮҚОРИ ЎЛЧАМЛИ ҲОЛ

**Т.Ҳ. Расулов,**
*БухДУ Математика кафедраси доценти,*
**Б.И. Бахронов,**
*БухДУ II курс магистранти*

*Ушбу мақолада икки ўлчамли қўзғалишга эга $H$ Фридрихс модели $d$ ўлчамли панжарадаги икки квант заррачали системага мос энергия оператори сифатида ўрганилади. Бу оператор сонли тасвири $W(H)$ нинг ёпиғи $T^d$ торнинг юқори ўлчамларида таҳлил қилинади. $d \ge 3$ ва $\alpha = 1,2$ учун $\mu_\alpha > 0$ параметрнинг шундай $\mu_\alpha^0$ критик қиймати топилиб, барча $\mu_\alpha \in (0; \mu_\alpha^0]$ лар учун $H$ оператор хос қийматларга эга бўлмаслиги ҳамда ихтиёрий $\mu_\alpha > \mu_\alpha^0$ учун $H$ оператор иккита хос қийматга эга бўлиши кўрсатилади. $W(H)$ тўпламнинг ёпиқ бўлишини таъминловчи шартлар топилади.*

Фридрихс ўзининг машҳур [1] монографиясида қўзғалмас оператор сифатида ўзгарувчига кўпайтириш оператори ва қўзғалиш оператори сифатида интеграл операторни танлайди. Маълумки, ўз-ўзига қўшма операторнинг узлуксиз (муҳим) спектри компакт қўзғалишларда ўзгармайди. Шу сабабли бу модель узлуксиз спектр қўзғалишлари назарияси модели деб номланган. Мазкур мақола Фридрихс моделининг сонли тасвирини тадқиқ қилишга бағишланган бўлиб, қўзғалмас оператор сифатида узлуксиз функцияга кўпайтириш оператори, қўзғалиш оператори сифатида эса ажралган ядроли икки ўлчамли интеграл оператор танланган.

Дастлаб чизиқли оператор учун сонли тасвир тушунчасига таъриф берамиз. Фараз қилайлик, $L$ комплекс Гильберт фазоси, $(\cdot;\cdot)$ ундаги скаляр (ички) кўпайтма ва $H$ оператор $L$ даги чизиқли оператор бўлиб, $D(H) \subset L$ унинг аниқланиш соҳаси бўлсин. У ҳолда $H$ операторнинг сонли тасвири комплекс сонлар тўплами $C$ нинг қисм тўплами бўлиб

$$W(H) := \{(Hx, x) : x \in D(H),\ \|x\| = 1\}$$

тенглик орқали аниқланган. Бу тушунча биринчи марта O.Toeplitz томонидан [2] ишда киритилган. [3] ишда F.Hausdorff томонидан $W(H)$ тўпламнинг қавариқ эканлиги кўрсатилган. Таъкидлаш лозимки, чизиқли чегараланган операторнинг сонли тасвири $H$ операторнинг $\sigma_p(H)$ нуқтали спектри (ёки

хос қийматлари тўплами) ва $\sigma(H)$ спектри учун спектрал муносабатлар деб аталувчи хоссага эгадир

$$W(H)\subset\sigma_p(H),\quad \overline{W(H)}\subset\sigma(H);$$

бунда агар $\dim L<\infty$ бўлса, у ҳолда $W(H)$ ёпиқ тўплам бўлади.

Кейинчалик сонли тасвир тушунчаси турли хил усуллар билан умумлаштирилган, уларнинг баъзилари ҳақида [4-7] адабиётлардан маълумотлар олишингиз мумкин. $W(H)$ сонли тасвирнинг муҳим тадбиқларидан бири бу $\sigma(H)$ спектр чегараларини ўрганишдир.

$d$ натурал сони учун $T^d$ орқали $d$ ўлчамли торни ва $L_2(T^d)$ орқали $T^d$ да аниқланган квадрати билан интегралланувчи (умуман олганда комплекс қийматларни қабул қилувчи) функцияларнинг Гильберт фазосини белгилаймиз.

$L_2(T^d)$ Гильберт фазосида Фридрихс модели деб аталувчи

$$H:=H_0-\mu_1V_1+\mu_2V_2 \tag{1}$$

операторни қараймиз, бунда $H_0$ ва $V_\alpha$, $\alpha=1,2$ операторлар

$$(H_0f)(p)=u(p)f(p),\ (V_\alpha f)(p)=\mu_\alpha\upsilon_\alpha(p)\int_{T^d}\upsilon_\alpha(t)f(t)dt,\ \alpha=1,2$$

каби аниқланган. Бунда $\mu_\alpha>0,\ \alpha=1,2$ мусбат ҳақиқий сонлар (таъсирлашиш параметрлари), $u(\cdot)$ ва $\upsilon_i(\cdot)$, $i=1,2$ функциялар $T^d$ да аниқланган ҳақиқий қийматли узлуксиз функциялар.

Кўрсатиш мумкинки, параметрларга қўйилган бундай шартларда (1) тенглик ёрдамида аниқланган $H$ оператор чизиқли, чегараланган ва ўз-ўзига қўшма оператор бўлади.

$H_0$ операторнинг $-\mu_1V_1+\mu_2V_2$ қўзғалувчи оператори икки ўлчамли бўлганлиги учун ўз-ўзига қўшма оператор муҳим спектрининг чекли ўлчамли қўзғалишларда ўзгармаслиги ҳақида машҳур Вейл теоремасига кўра, $H$ операторнинг муҳим спектри $H_0$ операторнинг спектри билан устма-уст тушади. $H_0$ оператор узлуксиз функцияга кўпайтириш операторидир ва

$$\sigma(H_0)=\sigma_{cont}(H_0)=[m;M],$$

бунда $m$ ва $M$ сонлари қуйидаги тенгликлар ёрдамида аниқланади:

$$m:=\min_{p\in T^d}u(p),\quad M:=\max_{p\in T^d}u(p).$$

Демак, $\sigma_{ess}(H)=[m;M]$ тенглик ўринли экан.

Мазкур мақолада қуйидаги қўшимча шартлар бажарилишини талаб қиламиз: $u(\cdot)$ функция $T^d$ тўпламда учинчи тартиблигача узлуксиз хусусий ҳосилаларга эга бўлиб, бирор $p_1\in T^d$ нуқтада ягона айнимаган минимумга ва $p_2\in T^d$ нуқтада ягона айнимаган максимумга эга бўлсин. Бунда экстремал нуқталарнинг ягоналиги соддалик нуқтаи назардан талаб қилинган. Аслида натижаларни бундай нуқталар сони чекли бўлган ҳолга ҳам умумлаштириш мумкин.

$d\geq 3$ ҳолда ушбу

$$\int_{T^d}\frac{\upsilon_1^2(t)dt}{u(t)-m},\quad \int_{T^d}\frac{\upsilon_2^2(t)dt}{M-u(t)},\qquad (2)$$

интегралларнинг мусбат ва чекли эканлигини осон кўрсатиш мумкин. Ишнинг асосий натижаларини баён қилишда муҳим бўлган қуйидаги миқдорларни киритамиз:

$$\mu_1^0:=\left(\int_{T^d}\frac{\upsilon_1^2(t)dt}{u(t)-m}\right)^{-1},\quad \mu_2^0:=\left(\int_{T^d}\frac{\upsilon_2^2(t)dt}{M-u(t)}\right)^{-1}.$$

Содда таҳлиллар ёрдамида

$$mes(\text{supp}\{\upsilon_1(\cdot)\}\cap\text{supp}\{\upsilon_2(\cdot)\})=0\qquad (3)$$

шарт бажарилганда ихтиёрий $\mu_\alpha\leq\mu_\alpha^0,\ \alpha=1,2$ учун $H$ оператор $[m;M]$ дан ташқарида ётувчи хос қийматларга эга бўлмаслигини ва ихтиёрий $\mu_\alpha>\mu_\alpha^0,\ \alpha=1,2$ учун $H$ оператор иккита $E_1\in(-\infty;m)$ ва $E_2\in(M;\infty)$ содда хос қийматларга эга бўлишини исботлаш мумкин. Бунда $mes\{\cdot\}$ орқали тўпламнинг Лебег ўлчови ва $\text{supp}\{\upsilon_1(\cdot)\}$ орқали эса берилган функциянинг ташувчиси белгиланган.

(3) шартни қаноатлантирувчи $\upsilon_\alpha(\cdot),\ \alpha=1,2$ функцияларга мисол келтирамиз:

$$v_1(p)=\begin{cases}\sin p_1\sin p_2\cdots\sin p_d, & 0\leq p_i\leq\pi,\ i=1,2,...,d\\ 0 & ,\ \textit{колган холларда}\end{cases};$$

$$v_2(p)=\sin p_1\sin p_2\cdots\sin p_d-v_1(p),\ p=(p_1,p_2,...,p_d)\in T^d.$$

Қуйидаги теорема $H$ оператор $W(H)$ сонли тасвирини тавсифлайди.

**1-теорема.** Фараз қилайлик $d\geq 3$ бўлиб, (3) шарт бажарилсин.

1) Агар $\alpha=1,2$ учун $\mu_\alpha\leq\mu_\alpha^0$ бўлса, у ҳолда $\overline{W(H)}=[m;M]=\sigma(H)$;

2) Агар $\mu_1\leq\mu_1^0$ ва $\mu_2>\mu_2^0$ бўлса, у ҳолда $\overline{W(H)}=[m;E_2]\subset\sigma(H)$;

3) If $\mu_1>\mu_1^0$ and $\mu_2\leq\mu_2^0$, then $\overline{W(H)}=[E_1;M]\subset\sigma(H)$;

4) Агар $\alpha=1,2$ учун $\mu_\alpha>\mu_\alpha^0$ бўлса, у ҳолда $W(H)=[E_1;E_2]\subset\sigma(H)$.

Эслатиб ўтиш лозимки, агар $d=1,2$ бўлса, у ҳолда (2) интегралларнинг чекли ёки чексиз бўлиши $\upsilon_\alpha(\cdot),\alpha=1,2$ функцияларнинг экстремал нуқталарда нолга тенг ёки нолмас қиймтларни қабул қилишидан боғлиқ бўлади. Масалан, агар $\upsilon_\alpha(p_\alpha)\neq 0,\ \alpha=1,2$ бўлса, у ҳолда (2) интеграл узоқлашувчи, яъни чексизга тенг. Шу сабабли, ихтиёрий $\mu_\alpha>0,\ \alpha=1,2$ учун $H$ оператор иккита $E_1\in(-\infty;m)$ ва $E_2\in(M;\infty)$ содда хос қийматларга эга бўлади. Бу тасдиқдан эса ўз навбатида $W(H)=[E_1;E_2]\subset\sigma(H)$ эканлиги ҳосил бўлади.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Friedrichs K.O. Perturbation of spectra in Hilbert space // Amer. Math. Soc. Providence, Rhole Island, 1965.
2. Toeplitz O. Das algebraische Analogon zu einem Satze von Fejer // Math. Z., **2**:1-2 (1918), pp. 187–197.
3. Hausdorff F. Der Wertvorrat einer Bilinearform // Math. Z., **3**:1 (1919), pp. 314–316.
4. Langer H., Markus A.S., Matsaev V.I., Tretter C. A new concept for block operator matrices: the quadratic numerical range // Linear Algebra Appl., **330**:1-3 (2001), pp. 89–112.
5. Tretter C., Wagenhofer M. The block numerical range of an n × n block operator matrix // SIAM J. Matrix Anal. Appl. **24**:4 (2003), 1003–1017.
6. Rodman L., Spitkovsky I.M. Ratio numerical ranges of operators // Integr. Equ. Oper. Theory, **71** (2011), pp. 245–257.
7. Cheung W.-S., Liu X., Tam T.-Y. Multiplicities, boundary points and joint numerical ranges // Operators and Matrices. **5**:1 (2011), pp. 41–52.

# ЛОКАЛ БЎЛМАГАН ПОТЕНЦИАЛЛИ УЧ ЗАРРАЧАЛИ МОДЕЛЬ ОПЕРАТОР МУҲИМ СПЕКТРИНИНГ ТАРМОҚЛАРИ ҲАҚИДА

**Т.Ҳ. Расулов,**
*БухДУ Математика кафедраси доценти,*
**Г.Ҳ. Умирқулова,**
БухДУ I курс магистранти

*Мақолада бир ўлчамли панжарадаги локал бўлмаган потенциалли уч заррачали модель оператор Гильберт фазосидаги чизиқли чегараланган ва ўз-ўзига қўшма оператор сифатида қаралган. Хос функцияларга мос Фаддеев тенгламаси қурилган ҳамда унинг асосий хоссаси баён қилинади. Унинг муҳим спектри тавсифланган ҳамда муҳим спектрни ташкил қилувчи кесмаларнинг максимал сони топилган. Муҳим спектрнинг икки ва уч заррачали тармоқлари аниқланган.*

Қаттиқ жисмлар физикаси [1], квант майдон назарияси [2] ва замонавий математик физиканинг яна кўплаб масалаларида узлуксиз фазодаги уч заррачали Шрёдингер операторларининг дискрет Шредингер операторлари деб аталувчи панжарадаги аналогига мос келувчи модел операторларнинг муҳим ва дискрет спектрларини ўрганиш масаласи муҳим ҳисобланади. Бундай операторларнинг муҳим спектр тармоқларининг жойлашув ўрнини тадқиқ қилиш эса ўз навбатида уларнинг дискрет хос қийматларини ўрганишда, хос қийматлар сонининг чекли ёки чексиз бўлиш шартларини топишда муҳим аҳамият касб этади. Одатда физикага оид адабиётларда локал потенциаллар, яъни функцияга кўпайтириш операторлари кўп ишлатилади.

Бироқ псевдопотенциаллар назариясида [3] локал бўлмаган потенциаллар ҳам мавжуддир. Улар хусусан даврий операторлар учун локаль потенциал ва бирор чекли ўлчамли потенциал йиғиндиси шаклида қурилишини таъкидлаб ўтиш жоиздир.

$d$ ўлчамли панжарадаги локал бўлмаган потенциали $n$ ўлчамли хусусий интегралли оператордан иборат уч заррачали модель оператор оператор [4, 5] ишларда ўрганилган. Тадқиқ қилинган операторнинг муҳим спектри учун формулар, кесмалар сони учун юқори баҳолаш ҳамда оператор чегараси учун оптимал баҳолашлар олинган.

Ушбу мақолада бир ўлчамли панжарадаги локал бўлмаган потенциалга эга бўлган уч заррачали модель оператор ўрганилади. Оператор параметрларига қўйилган шартларда унинг чизиқли, чегараланган ва ўз-ўзига қўшма эканлиги айтиб ўтилади. Муҳим спектрнинг жойлашув ўрни тавсифланади. Муҳим спектрнинг янги икки ва уч заррачали тармоқлари ажратилади.

$T^1$ бир ўлчамли тор, $T^2 = T^1 \times T^1$ декарт кўпайтма бўлсин. $L_2^s(T^2)$ орқали $T^2$ тўпламда аниқланган квадрати билан интегралланувчи (умуман олганда комплекс қийматли) симметрик функцияларнинг Гильберт фазосини белгилаймиз.

$L_2^s(T^2)$ Гильберт фазосида

$$(Hf)(x,y) = u(x,y)f(x,y) - \mu_1 v_1(x)\int_{T^1} v_1(t)f(t,y)dt - \mu_1 v_1(y)\int_{T^1} v_1(t)f(x,t)dt$$
$$- \mu_2 \int_{T^1} v_2(t)f(t,x+y-t)dt$$

тенглик ёрдамида таъсир қилувчи операторни қараймиз. Бунда $\mu_\alpha, \alpha = 1,2$ таъсирлашиш параметрлари деб аталувчи мусбат сонлар, $u(\cdot,\cdot)$ - $T^2$ тўпламда аниқланган ҳақиқий қийматли узлуксиз функция, $v_\alpha(\cdot), \alpha = 1,2$ - $T^1$ тўпламда аниқланган ҳақиқий қийматли узлуксиз функциялар.

Функционал анализ ва операторлар назарияси элементларидан фойдаланиб, оператор параметрларига қўйилган бундай шартларда у чизиқли, чегараланган ва ўз-ўзига қўшма эканлигини кўрсатиш мумкин.

Ишнинг асосий натижаларини баён қилиш мақсадида $C \setminus [m;M]$ соҳада аналитик бўлган

$$\Delta_1(x;z) := 1 - \mu_1 \int_{T^1} \frac{v_1^2(t)dt}{u(x,t) - z};$$

$$\Delta_2(x;z) := 1 - \mu_2 \int_{T^1} \frac{v_2(t)dt}{u(t,x-t) - z}.$$

функцияларни қараймиз, бунда $m$ ва $M$ сонлари қуйидагича аниқланган:

$$m := \min_{x,y \in T^1} u(x,y), \quad M := \max_{x,y \in T^1} u(x,y).$$

$\sigma_\alpha$ орқали бирор $p \in T^1$ учун $\Delta_\alpha(x;z) = 0$ бўладиган $z$ лар тўпламини белгилаймиз. Қуйидаги фазони киритамиз:

$$L_2^{(2)}(T^1) := \{(f_1, f_2) : f_i \in L_2(T^1), i = 1,2\}.$$

Ҳар бир фиксирланган $z \in C \setminus \{[m; M] \cup \sigma_1 \cup \sigma_2\}$ учун $L_2^{(2)}(T^1)$ Гильберт фазосида

$$T(z) := \begin{pmatrix} T_{11}(z) & T_{12}(z) \\ T_{21}(z) & 0 \end{pmatrix},$$

каби таъсир қилувчи операторли матрицани қараймиз, бунда

$$(T_{11}(z)\varphi_1)(x) = \frac{\mu_1 v_1(x)}{\Delta_1(x;z)} \int_{T^1} \frac{v_1(t)\varphi_1(t)dt}{u(x,t) - z};$$

$$(T_{12}(z)\varphi_1)(x) = \frac{\mu_2}{\Delta_1(x;z)} \int_{T^1} \frac{v_1(t-x)\varphi_2(t)dt}{u(t,t-x) - z};$$

$$(T_{21}(z)\varphi_1)(x) = \frac{\mu_1}{\Delta_2(x;z)} \int_{T^1} \frac{v_1(x-t)(v_2(t) + v_2(x-t))\varphi_1(t)dt}{u(t,x-t) - z}.$$

Ишнинг асосий натижаларидан бири қуйидаги теоремада ўз аксини топган.

**1-теорема.** $z \in C \setminus \{[m; M] \cup \sigma_1 \cup \sigma_2\}$ сони $H$ операторнинг хос қиймати бўлиши учун 1 сони $T(z)$ оператор учун хос қиймат бўлиши зарур ва етарлидир. Бундан ташқари, $z$ ва 1 хос қийматларнинг карраликлари устма-уст тушади.

Одатда $T(z)\varphi = \varphi$ тенгламага Фаддеев тенгламаси дейилади. Бу тенглама ёрдамида муҳим спектрнинг жойлашув ўрнини аниқлаш мумкин бўлади. Агар ҳосил қилинган тенгламанинг симметрик варианти олинса, унинг ёрдамида хос қийматлар сонини ўрганиш учун ишлаб чиқилган методларни қўллаш имконияти пайдо бўлади.

Навбатдаги натижа $H$ оператор муҳим спектрини тавсифлайди.

**2-теорема.** $H$ операторнинг муҳим спектри $[m; M] \cup \sigma_1 \cup \sigma_2$ тўплам билан устма-уст тушади, яъни қуйидаги

$$\sigma_{ess}(H) = [m; M] \cup \sigma_1 \cup \sigma_2$$

тенглик ўринлидир. Бундан ташқари, $\sigma_{ess}(H)$ тўплами кўпи билан учта кесмаларнинг бирлашмасидан иборат бўлади.

2-теоремани исботлашда $\sigma_{ess}(H) \supset [m; M] \cup \sigma_1 \cup \sigma_2$ муносабат замонавий математик физикада машҳур бўлган Вейл критерияси ёрдамида исботланади. $\sigma_{ess}(H) \subset [m; M] \cup \sigma_1 \cup \sigma_2$ муносабатни исботлашда эса Фаддеев тенгламаси ва Фредгольм теоремаси қўлланилади. Муҳим спектрни ташкил қилувчи кесмалар сонини аниқлаш эса $\Delta_\alpha(x;\cdot)$ функциянинг монотонлик хоссасига асослангандир.

$\sigma_1 \cup \sigma_2$ ва $[m; M]$ тўпламларга $H$ операторнинг муҳим спектрининг мос равишда икки ва уч заррачали тармоқлари дейилади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. A.I. Mogilner. Hamiltonians in solid state physics as multi-particle discrete Schroedinger operators: problems and results. Advances in Sov. Math., **5** (1991), pp. 139-194.
2. V.A. Malishev, R.A. Minlos. Linear infinite-particle operators. Translations of Mathematical Monographs. 143, AMS, Providence, RI, 1995.
3. В. Хейне, М. Коэн, Д. Уэйр. Теория псевдопотенциала. Мир, М., 1973.
4. Т.Х. Расулов, З.Д. Расулова. Спектр одного трехчастичного модельного оператора на решетке с нелокальными потенциалами. Сибирские электронные математические известия. **12** (2015), С. 168-184
5. T.H. Rasulov, Z.D. Rasulova. Essential and discrete spectrum of a three-particle lattice Hamiltonian with non-local potentials. Nanosystems: Physics, Chemistry, Mathematics, **5**:3 (2014), P. 327-342

## ОБРАТНАЯ ЗАДАЧА ДЛЯ ПАРАБОЛИЧЕСКОГО ИНТЕГРО-ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО УРАВНЕНИЯ С ПЕРЕМЕННЫМ КОЭФФИЦИЕНТОМ ТЕПЛОПРОВОДНОСТИ

**Д.К.Дурдиев,**

*Бухарский Государственный Университет, Профессор;*

**Ж.З.Нуриддинов ,**

*Бухарский Государственный Университет, Старший преподаватель;*

**У.Б.Хидиров**

*Бухарский Государственный Университет, Магистрант*

В этой работе расматривается задача одновременного определениятемпературы среды и многомерного ядра интеграла типа свертки повременной переменной зависящее от $t$ и 1-мернойпространственной переменной в 2-мерном уравнении теплопроводности с переменным коэффициентом при операторе Лапласа.Интегральный член в основном уравнении имеется в виде свертки ядра и решения прямой задачи.В качестве дополнительной информации задается решение прямой задачи на гиперплоскости$x_2 = 0$

Итак, рассмотрим задачу определения функций$u(x,t)$,k$(x_1,t)$, $x = (x_1,x_2) \in R^2, t > 0$ из следующих уравнений:

$$u_t = a(t)\Delta u - \int_0^t k(x_1,\tau)\, u(x,t-\tau)d\tau, \qquad (x,t) \in R_T^2\,, \tag{1}$$

$$u|_{t=0} = \varphi(x), \qquad x = (x_1,x_2) \in R^2, \tag{2}$$

$$u|_{x_2=0} = f(x,t), \qquad 0 \le t \le T\,. \tag{3}$$

где$\Delta$ - оператор Лапласа относительно пространственного переменного

$x = (x_1, x_2)\Delta = \sum_{i=1}^{2} \frac{\partial^2}{\partial x_i^2} R_T^2 = \{(x,t) | x = (x', x_2) \in R^2,\ 0 < t < T\}$представляет собой полосу с толщиной $T$,$T > 0$произвольное фиксированное число, $a(t)$является гладкой функциейи$0 < a_2 \le a(t)^2 \le a_1 < \infty$. для $t \in [0,T]$.

Задача (1)-(3) с помощью неоднократного дифференцированиясводится к вспомогательной задаче, которая более удобна дляисследования. Далее используя формулу, обобщающую формулу Пуассонадля решения задачи Коши в случае уравнения теплопроводности спеременным коэффициентом при лапласиане получены интегральныеуравнения. Следующая лемма устанавливает эквивалентность задачи (1)-(3) к некоторой замкнутой системы интегральных уравненийвольтерровского типа относительно решения задачи (1)-(3) и его производных:

Лемма.Задача (1) - (3)эквивалентна задаче определения функций$\vartheta(x,t), \omega(x,t), k(x_1,t)\vartheta = u_{x_2x_2},\quad \omega = \vartheta_t$ из следующих интегральных уравнений:

$$\vartheta(x,t) = \int_{R^2} \varphi_{\xi_2\xi_2}(\xi) G(x-\xi, \theta(t)) d\xi + \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(\tau))} \cdot$$

$$\cdot \int_{R^2} \int_0^{\theta^{-1}(\tau)} k(\xi_1,\alpha)\, \vartheta(\xi, \theta^{-1}(\tau) - \alpha) G(x-\xi, \theta(t) - \alpha) d\alpha d\xi \quad (4)$$

$$\omega(x,t) = \int_{R^2} a(0)\Delta\varphi_{\xi_2\xi_2}(\xi) G(x-\xi, \theta(t)) d\xi +$$

$$+ \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(\tau))} \int_{R^2} [lna(\theta^{-1}(\tau))' \omega(\xi, \theta^{-1}(\tau)) -$$

$$-lna(\theta^{-1}(\tau))' \int_0^{\theta^{-1}(\tau)} k(\xi_1,\alpha)\vartheta(\xi, \theta^{-1}(\tau) - \alpha)\, d\alpha +$$

$$+ \int_0^{\theta^{-1}(\tau)} k(\xi_1,\alpha)\omega(\xi, \theta^{-1}(\tau) - \alpha)\, d\alpha +$$

$$+k(\xi_1, \theta^{-1}(\tau))\varphi_{\xi_2\xi_2}(\xi)] G(x-\xi, \theta(t) - \alpha) d\xi \quad (5)$$

$$k(x_1,t) = \frac{a(t)}{\varphi(x_1,0)} [- \int_{R^2} a(0)\Delta\varphi_{\xi_2\xi_2}(\xi) G(x-\xi, \theta(t)) d\xi - \frac{a'(t)}{a^2(t)} f_t +$$

$$+\frac{1}{a(t)}f_{tt}-\frac{\partial^2}{\partial x_1^2}f_t]\frac{a(t)}{\varphi(x_1,0)}(-\int_0^{\theta(t)}\frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(\tau))}\int_{R^2}[lna(\theta^{-1}(\tau))'\omega(\xi,\theta^{-1}(\tau))$$

$$-$$

$$-lna(\theta^{-1}(\tau))'\int_0^{\theta^{-1}(\tau)}k(\xi_1,\alpha)\vartheta(\xi,\theta^{-1}(\tau)-\alpha)\,d\alpha+$$

$$\int_0^{\theta^{-1}(\tau)}k(\xi_1,\alpha)\omega(\xi,\theta^{-1}(\tau)-\alpha)\,d\alpha k(\xi_1,\theta^{-1}(\tau))\varphi_{\xi_2\xi_2}(\xi)]G(x-\xi,\theta(t)-\alpha)d\xi$$

$$+$$

$$+\frac{a'(t)}{a^2(t)}\int_0^t k(x_1,\tau)f(x_1,t-\tau)d\tau-\frac{1}{a(t)}\int_0^t k(x_1,\tau)f_\tau(x_1,t-\tau)d\tau) \qquad (6)$$

Для заданных функций $\varphi(x), f(x_1,t)$и решения задачи(1)-(3) используются пространства Гельдера [1, стр. 16-27] дляфункций, зависящих только от пространственных переменных$-H^\alpha$и для функций, зависящих от пространственных ивременной переменных - $H^{\alpha,\frac{\alpha}{2}}$ $\alpha$ – неотрицательное целое число.

Применяя метод сжатых отображений [2, стр.87-97] к системе уравнений (4)-(10) доказывается, что придостаточно малой толщине полосы $R_T^2$ ее решение существует единственно. Таким образом, доказана следующий основной результатнастоящей работы:

Теорема.Еслиусловия
$\varphi(x)\in H^{l+6}(R^2), |\varphi(x)|\geq\varphi_0=const>0 f(x_1,t)\in H^{l+4,\frac{l+4}{2}}(R_T),\quad l\in(0,1),$
$f(x_1,0)=\varphi(x_1,0), f_t(x_1,0)=\Delta\varphi(x_1,0)$

выполняются, то существует достаточно малое число $T>0$такое,что решение задачи (1)-(3) в классе функций$u(x,t)\in H^{l+4,\frac{l+4}{2}}(R_T^2)$, $k(x_1,t)\in H^{l,\frac{l}{2}}(R_T^2)$, существует единственно.

Теорема может быт доказана применением метода, использованного в работах [3],[4].

**Литература:**

1. Ладыженская О.А., Солонников В.А., Уральцева Н.Н. Линейные и квазилинейные уравнения параболического типа, Москва: Наука, 1967,736 с.
2. Колмогоров А.Н., Фомин С.В. Элементы теории функций и функционального анализа. Москва: Наука, 1976, 543 с.
3. Дурдиев Д. К., Рашидов А.Ш. Обратная задача определения ядра

в интегро-дифференциальном уравнении параболического типа, Дифференц. уравн., Том 50,No 1, 2014, ст.110-116
4. Durdiev D.K. and ZhumaevZh.Zh. Problem of determining a multidimensional thermal memory in a heat conductivity equation,Methods of Functional Analysis and Topology, Volume 25, No 3,2019, pp. 219-226.

# VARIATSION QATOR HAQIDA

**B.J.Mamurov,**
*BuxDU dotsent,*
**H.Sharopova,**
*BuxDU talabasi*

*Maqolada variatsion qatorni o`qitish bo`yicha tavsiyalar berilgan.*

Tasodifiy ravishda tanlab olingan $n$ ta obyektni sinash (o'lchash yoki kuzatish) natijalari $x_1, x_2, ..., x_n$ bo`lsin.

$x_1, x_2, ..., x_n$ larga tanlanma va n soniga tanlanmanimng hajmi deyiladi.

Masalan, sinf jurnalidan tasodifiy tanlangan 10 ta o`quvchining boylarini o`lchash natijalarini qarasak, bu natijalar tanlanma unung hajmi, esa 10 teng bo`ladi.

Ma`lumki, bu natijalar tartibsiz joylashgan bo`lishi mumkin. Kuzatish natijalarini ishlashning dastlabki bosqichi, ularni tartiblash hisoblanadi.

***Ta'rif:*** Agar tanlanma to'plam qiymatlar bo'yicha o'sish (yoki kamayish) tartibida

$$x_1^* \le x_2^* \le ..... \le x_n^* \text{ (yoki } x_n^* \ge x_{n-1}^* \ge ... \ge x_2^* \ge x_1^* \text{ )}$$

kabi joylashtirilsa,

$$x_1^*, x_2^*, ..., x_n^*$$

*variatsion qator* deyiladi.

Tanlanmagi $x_i, i = 1, 2, ..., n$ larga *variantalar* deyiladi.

"Variatsiya" so'zi lotincha so'z bo'lib, "variatio" "o'zgarish", "farq" degan ma'noni beradi.

Variatson qator tuzishda quyidagilarga e`tiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- tanlanmada berilgan ko'rsatkichiklarning eng kichigi va eng kattasini aniqlash;
- tanlanmada qatnashgan ko'rsatkichlarni eng kichigida boshlab tartib bilan joylashtirish va eng katta ko'rsakichini oxirida yozish;
- agar bir xil ko'rsatkichlar bir necha marta qatnashgan bo'lsa, bir xillarini ketma-ket yozish;
- agar takrorlanuvchi ko'rsatkichlar ko'p bo'lsa, u holda bu qatorni jadval ko'rinishida ifodalab olish maqsadga muvofiq.

Agar tanlanmada $x_1$ varianta $n_1$ marta, $x_2$ varianta $n_2$ marta, ..., $x_k$ varianta $n_k$ marta (bu yerda $n_1 + n_2 + ..... + n_k = n$) kuzatilgan bo‘lsa, u holda $n_1, n_2, \ldots, n_k$ sonlar *chastotalar* deyiladi.

Chastotali variatsion qatorning (jadvalning) 1-qatopiga(satriga) variantalar, 2-qatoriga, esa ularning mos chastotalari yoziladi. Bundan, tashqari oraliqli(intervali) variatsion qator ham tuzish mumkin, bunda , 1-qatorda teng uzunlikdagi qismiy oraliqlar, 2-qatorda bu oraliqlarga tushgan variantlar soni ko`rsatiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alimov Sh.A, Xolmuhammedov O.R, Mirzaahmedov M.A. Algebra (8-sinf uchun darslik):. T. O’qituvchi, 2019.

# УЧИНЧИ ТАРТИБЛИ ОПЕРАТОРЛИ МАТРИЦАГА МОС БИРИНЧИ ШУР ТЎЛДИРУВЧИСИНИНГ АСОСИЙ ХОССАЛАРИ

**Т.Ҳ. Расулов,**
*БухДУ Математика кафедраси доценти,*
**З.Э. Мустафоева,**
*БухДУ I курс магистранти*

*Мазкур мақолада стандарт Фок фазосининг ноль заррачали, бир заррачали ва икки заррачали қисм фазолари тўғри йиғиндисида таъсир қилувчи учинчи тартибли операторли матрица ўрганилган. Бу операторли матрица чизиқли, чегараланган ва ўз-ўзига қўшма оператор сифатида қаралган. Ўрганилган операторли матрицага мос келувчи биринчи Шур тўлдирувчиси қурилган ҳамда унинг асосий хоссаларидан баъзилари санаб ўтилган.*

Элементлари бирор Гильберт ёки Банах фазосини иккинчисига акс эттирувчи чизиқли операторлардан иборат матрицага блок операторли маьрица ёки шунчаки операторли матрица дейилади [1]. Операторлар назариясидан бизга яхши маълумки, учта Гильберт фазоларнинг тўғри йиғиндисида таъсир қилувчи ҳар қандай чизиқли, чегараланган оператор учинчи тартибли операторли матрица кўринишида тасвирланади. Бундай матрицалардан бири – бу сони сақланмайдиган кўпи билан учта заррачалар системасига мос келувчи Гамильтониандир. Мазкур ишда шундай матрицага мос биринчи Шур тўлдирувчиси ҳақида маълумот келтирамиз ҳамда унинг асосий хоссаларига тўхталамиз.

$T^d := (-\pi; \pi]^d$ орқали $d$ ўлчамли торни ва $L_2((T^d)^n)$ орқали $(T^d)^n, n = 1,2$ да аниқланган квадрати билан интегралланувчи (умуман олганда комплекс қийматларни қабул қилувчи) функциялар Гильберт фазосини белгилаймиз.

Фараз қилайлик, $H_1' := C,\, H_2' := L_2(T^d)$, $H_3' := L_2((T^d)^2)$ ва $H := H_1' \oplus H_2' \oplus H_3'$ бўлсин. Одатда $H_1', H_2'$ ва $H_3'$ фазоларга $L_2(T^d)$ фазо бўйича $F(L_2(T^d))$ стандарт Фок фазосининг мос равишда ноль заррачали, бир заррачали ва икки заррачали қисм фазолари дейилади, бу ерда

$$F(L_2(T^d)) := C \oplus L_2(T^d) \oplus L_2((T^d)^2) \oplus L_2((T^d)^3) \oplus \dots .$$

$H$ Гильберт фазосига эса ўз навбатида Фок фазосининг қирқилган уч заррачали қисм фазоси дейилади.

Мазкур мақолада $H$ Гильберт фазосида

$$A := \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & A_{13} \\ A_{12}^* & A_{22} & A_{23} \\ A_{13}^* & A_{23}^* & A_{33} \end{pmatrix} \tag{1}$$

каби аниқланган учинчи тартибли операторли матрицани қараймиз, бунда матрицавий элементлар қуйидагича аниқланган:

$$A_{11}f_1 = \omega_1 f_1, A_{12}f_2 = \int_{T^d} \vartheta_1(t) f_2(t)dt,\ A_{13} = 0;$$

$$A_{21} = A_{12}^*,\ (A_{22}f_2)(p) = \omega_2(p) f_2(p), (A_{23}f_3)(p) = \int_{T^d} \vartheta_2(t) f_3(p,t)dt;$$

$$A_{31} = 0,\ A_{32} = A_{23}^*, (A_{33}f_3)(p,q) = \omega_3(p,q) f_3(p,q).$$

Бу ерда $f_i \in H_i', i = 1,2,3; \omega_1$ - фиксирланган ҳақиқий сон; $\omega_2(\cdot), \vartheta_i(\cdot), i = 1,2$ ва $\omega_3(\cdot,\cdot)$ функциялар мос равишда $T^d$ ва $(T^d)^2$ да таъсир қилувчи ҳақиқий қийматли узлуксиз функциялар. Содда мулоҳазалар ёрдамида

$$A_{12}^* : H_1' \to H_2',\ (A_{12}^* f_1)(p) = \vartheta_1(p) f_1,\ f_1 \in H_1';$$

$$A_{23}^* : H_2' \to H_3',\ (A_{23}^* f_2)(p,q) = \vartheta_2(q) f_2(p),\ f_2 \in H_2'$$

эканлигини кўрсатиш мумкин.

$H$ Гильберт фазосида (1) формула ёрдамида таъсир қилувчи $A$ блок операторли матрица унинг параметрларига қўйилган шартларга кўра чизиқли, чегараланган ва ўз-ўзига қўшма оператор бўлади.

Замонавий математик физикада $A_{12}, A_{23}$ операторларга йўқотиш операторлари, $A_{12}^*, A_{23}^*$ операторларга эга пайдо қилиш операторлари дейилади. Мазкур мақолада заррачалар сони кўпи билан биттага кўпайиши ёки камайиши мумкин бўлган системага мос энергия оператора қаралади.

$H$ Гильберт фазосини иккита $H_1 := H_1' \oplus H_2'$ ва $H_2 := H_3'$ фазоларнинг тўғри йиғиндиси кўринишида тасвирлаймиз. Бу ёйилмага нисбатан (1) формула ёрдамида таъсир қилувчи $A$ блок операторли матрицани қуйидагича

$$A = \begin{pmatrix} B_{11} & B_{12} \\ B_{21} & B_{22} \end{pmatrix} \tag{2}$$

иккинчи тартибли блок операторли матрица кўринишида тасвирлаш мумкин, бунда

$$B_{11} := \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} \\ A_{21} & A_{22} \end{pmatrix}, \; B_{12} := \begin{pmatrix} A_{13} \\ A_{23} \end{pmatrix}, \; B_{21} := \begin{pmatrix} A_{31} & A_{32} \end{pmatrix}, B_{22} := A_{22}.$$

$L(H)$ орқали $H$ Гильберт фазосида аниқланган чизиқли чегараланган операторлар фазосини белгилаймиз. Ушбу

$$S_1 : C \setminus \sigma(B_{22}) \to L(H_1), \, S_1(\lambda) := B_{11} - \lambda - B_{12}(B_{22} - \lambda)^{-1} B_{21}, \, \lambda \in \rho(B_{22});$$

$$S_2 : C \setminus \sigma(B_{11}) \to L(H_2), \, S_2(z) := B_{22} - \lambda - B_{21}(B_{11} - \lambda)^{-1} B_{12}, \, z \in \rho(B_{11})$$

кўринишдаги операторларга (2) формула ёрдамида аниқланган $A$ операторли матрицага мос биринчи ва иккинчи Шур тўлдирувчилари дейилади [2-6].

Содда ҳисоблашларга кўра (2) формула ёрдамида таъсир қилувчи $H = H_1 \oplus H_2$ ёйилмага мос $A$ блок операторли матрицанинг $S_1(\lambda)$ биринчи Шур тўлдирувчиси

$$S_1(\lambda) = \begin{pmatrix} S_{11}(\lambda) & A_{12} \\ A_{12}^* & S_{22}(\lambda) \end{pmatrix}, \lambda \in \rho(A_{33}) \qquad (3)$$

каби аниқланишини топиш мумкин, бу ерда

$$S_{11}(\lambda) := A_{11} - \lambda, S_{22}(\lambda) := A_{22} - \lambda - A_{23}(A_{33} - \lambda)^{-1} A_{23}^* .$$

Ҳар бир фиксирланган $p \in T^d$ учун $C \setminus [m(p), M(p)]$ соҳада аналитик бўлган

$$\Delta(p;\lambda) := \omega_2(p) - \lambda - \int_{T^d} \frac{\vartheta_2^2(t)dt}{\omega_3(p,t) - \lambda},$$

функцияни қараймиз, бунда $m(p)$ ва $M(p)$ сонлар қуйидагича аниқланган:

$$m(p) := \min_{q \in T^d} \omega_3(p,q), \quad M(p) := \max_{q \in T^d} \omega_3(p,q).$$

У ҳолда $S_{22}(\lambda)$ оператор $\Delta(\cdot;\lambda)$ функцияга кўпайтириш оператори бўлади. Таъкидлаш жоизки, ҳар бир фиксирланган $\lambda$ учун (3) кўринишдаги операторларга умумлашган Фридрихс модели дейилади.

$\sigma$ орқали $\Delta(p;\lambda) = 0$ тенглама ҳеч бўлмаганда битта $p \in T^d$ учун ечимга эга бўладиган $\lambda \in C$ лар тўпламини белгилаймиз ҳамда

$$E_{\min} := \min_{p,q \in T^d} \omega_3(p,q), \, E_{\max} := \max_{p,q \in T^d} \omega_3(p,q).$$

У ҳолда $A$ операторнинг муҳим спектри учун

$$\sigma_{\text{ess}}(A) = \sigma \cup [E_{\min}, E_{\max}]$$

тенглик ўринлидир.

Ҳар бир фиксирланган $\lambda \in C \setminus [E_{\min}, E_{\max}]$ учун $\Delta(\cdot;\lambda)$ функция $T^d$ компакт тўпламда узлуксиз эканлигидан $\sigma_{\text{ess}}(S_1(\lambda)) = \text{Ran}(\Delta(\cdot;\lambda))$ тенгликни ҳосил қиламиз.

Қуйидаги иккита хосса $A$ ва $S_1(\lambda)$ операторларнинг муҳим ва дискрет спектрлари орасидаги муносабатни ифодалайди.

**1-хосса.** $\lambda \in C \setminus [E_{\min}, E_{\max}]$ сони $A$ операторнинг хос қиймати бўлиши учун ноль сони $S_1(\lambda)$ оператор учун хос қиймат бўлиши зарур ва етарлидир ҳамда уларнинг карраликлари устма-уст тушади.

**2-хосса.** Фараз қилайлик $\lambda \in C \setminus [E_{\min}, E_{\max}]$ бўлсин. У ҳолда

$$\lambda \in \sigma_{ess}(A) \Leftrightarrow 0 \in \sigma_{ess}(S_1(\lambda)).$$

1- ва 2-хоссалардан қуйидаги натижалар келиб чиқади.

**1-натижа.** Фараз қилайлик $\lambda \in C \setminus [E_{\min}, E_{\max}]$ бўлсин. У ҳолда

$$\lambda \in \rho(A) \Leftrightarrow 0 \in \rho(S_1(\lambda)).$$

**2-натижа**. Фараз қилайлик $\lambda_0 \in R \setminus [E_{\min}, E_{\max}]$ бўлсин. Агар бирор $\gamma > 0$ учун $(\lambda_0, \lambda_0 + \gamma) \in \rho(A)$ (мос равишда $(\lambda_0 - \gamma, \lambda_0) \in \rho(A)$) бўлса, у ҳолда шундай $\delta = \delta(\gamma) > 0$ сони топилиб, $(0, \delta) \subset \rho(S_1(\lambda_0))$ (мос равишда $(-\delta, 0) \subset \rho(S_1(\lambda_0))$) муносабат ўринли бўлади.

Таъкидлаш жоизки, ҳар бир фиксирланган $\lambda \in R \setminus \sigma_{ess}(A)$ учун $S_1(\lambda)$ оператор ўз-ўзига қўшма оператор бўлади. $\tau_{ess}(A)$ орқали $A$ оператор муҳим спектрининг қуйи чегарасини белгилаймиз.

**3-хосса.** $\lambda < \tau_{ess}(A)$ учун $A$ операторнинг $\lambda$ дан кичик хос қийматлари (карралиги билан қўшиб ҳисоблаганда) сони $S_1(\lambda)$ операторнинг манфий хос қийматлари (карралиги билан қўшиб ҳисоблаганда) сонига тенг.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. C. Tretter. Spectral Theory of Block Operator Matrices and Applications. Imperial College Press, 2008.
2. I. Schur. Uber potenzreihen, die im innern des einheitskreises beschrankt sint. J. Reine Angew. Math., **147** (1917), 205-232.
3. E. V. Haynsworth. Determination of the inertia of a partitioned Hermitian matrix. Linear Algebra Appl., **1**:1 (1968), 73-81.
4. М. Г. Крейн. Теория самосопряженных расширений полуограниченных эрмитовых операторов и ее приложения. Матем. сборник, **20** (1947), 365-404.
5. F. Zhang. The Schur complement and its applications. Vol. 4 of Numerical Methods and Algorithms. Springer, New York, 2005.
6. H. Bart, I. C. Gohberg, M. A. Kaashoek, A. C. V. Ran. Schur complements and state space realizations. Linear Algebra Appl., **399** (2005), 203-224.

## УЧИНЧИ ТАРТИБЛИ ОПЕРАТОРЛИ МАТРИЦАЛАР УЧУН КУБИК СОНЛИ ТАСВИР ВА УНИНГ ТАДБИҚЛАРИ

**Т.Ҳ. Расулов,**
*БухДУ Математика кафедраси доценти,*
**И.А. Шарипов,**
*БухДУ IV курс талабаси*

*Мақолада Фок фазосининг қирқилган уч заррачали қирқилган қисм фазосида таъсир қилувчи учинчи тартибли $A$ операторли матрица қаралади. $A$ операторли матрицанинг муҳим спектри тавсифланган ҳамда икки заррачали ва уч заррачали тармоқлари ажратилган. $A$ операторли матрица муҳим спектрини ташкил қилувчи кесмаларнинг максимал сони топилган. Ноллари $A$ операторнинг яккаланган чекли каррали хос қийматлари билан устма-уст тушувчи функция (детерминант) аниқланган. $A$ операторли матрицанинг қуйи ва юқори чегараси учун кубик сонли тасвир ёрдамида баҳолашлар олинган.*

Сонли тасвир тушунчаси ва унинг умумлашмалари Гильберт фазосидаги чегараланган ва чегараланмаган операторларнинг спектрал назариясида муҳим аҳамият касб этади. Фараз қилайлик, $H$ комплекс Гильберт фазоси ва $A$ оператор $H$ фазодаги чизиқли чегараланган оператор бўлсин. У ҳолда

$$W(A):=\{(Ax,x): x\in S_H\}$$

тўпламга $A$ операторнинг сонли тасвири дейилади, бу ерда $S_H:=\{x\in H: \|x\|=1\}$ орқали $H$ Гильберт фазосидаги бирлик сфера белгиланган. Бу тушунча биринчи марта 1918 йилда O.Toeplitz томонидан ўрганилган [1]; бу мақолада матрицанинг сонли тасвири унинг барча хос сонларини сақлашини ва унинг чегараси қаварик чизиқдан иборат эканлиги исботланган. 1919 йилда F.Hausdorff $W(A)$ тўпламнинг қаварик эканлиги кўрсатилган [2]. Кейинчалик бу хоссалар нафақат сонли матрицалар учун балки умумий ҳолда чизиқли чегараланган операторлар учун ҳам ўринли бўлиши, хусусан, унинг спектри сонли тасвирининг ёпиғи $\overline{W(A)}$ да ётиши кўрсатилган [3].

Сонли тасвирнинг қавариқлик хоссаси операторнинг спектри ярим текисликда ётишини кўрсатишда муҳим хосса ҳисобланади. Бироқ оператор спектри иккита тўпламларнинг бирлашмасидан иборат бўлса, сонли тасвир орқали оператор спектрининг жойлашув ўрнини ўрганиш ноқулайдир.

Оператор спектри юқоридаги каби хоссага эга бўлган ҳол учун 1998 йилда [4] мақолада квадратик сонли тасвир деб аталувчи янги тушунча киритилган ҳамда кейинчалик [5] ишда батафсил ўрганилган. Агар $H$ иккита $H_1$ ва $H_2$ Гильберт фазоларнинг тўғри йиғиндисидан иборат бўлса, яъни, $H=H_1\oplus H_2$ бўлса, у ҳолда ҳар қандай чизиқли чегараланган $A\in L(H)$ оператор

$$A=\begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} \\ A_{21} & A_{22} \end{pmatrix} \tag{1}$$

блок операторли матрица кўринишида тасвирланиб, унинг $A_{ij}\in L(H_j,H_i)$, $i,j=1,2$ матрицавий элементлари ҳам чизиқли чегараланган операторлар

бўлади. Бу ҳолда (1) блок операторли матрица ёйилмасига нисбатан $A$ операторнинг $W^2(A)$ квадратик сонли тасвири

$$A_f := \left((A_{ij} f_j, f_i)\right)_{i,j=1}^{2}, \; f=(f_1, f_2)\in H, \; \| f_i \| = 1, \; i=1,2$$

кўринишдаги $2\times 2$ матрицанинг барча хос сонларидан ташкил топган бўлади.

$2\times 2$ операторли матрицалар учун киритилган квадратик сонли тасвир тушунчаси $n\times n$ блок операторли матрицалар учун блок сонли тасвир тушунчасига тўғридан тўғри умумлаштирилади. Хусусан, $n=3$ бўлса блок сонли тасвирга кубик сонли тасвир дейилади. Ушбу мақолада Фок фазосининг қирқилган қисм фазосида таъсир қилувчи $3\times 3$ операторли матрица чегаралари учун кубик сонли тасвир ёрдамида баҳолашлар олинади.

Дастлаб кубик сонли тасвир тушунчасига таъриф берамиз. Фараз қилайлик, $H_1, H_2, H_3$ лар комплекс Гильберт фазолари бўлсин. $H = H_1 \oplus H_2 \oplus H_3$ тўғри йиғиндини қараймиз. Бу ёйилмага нисбатан исталган чизиқли чегараланган $A\in L(H)$ оператор

$$A=\begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & A_{13} \\ A_{21} & A_{22} & A_{23} \\ A_{31} & A_{32} & A_{33} \end{pmatrix} \qquad (2)$$

кўринишдаги $3\times 3$ блок операторли матрица кўринишида тасвирланади, бунда $A_{ij}\in L(H_j, H_i)$, $i,j=1,2,3$ матрицавий элементлар чизиқли чегараланган операторлардир. Қуйида биз $S_H := S_{H_1}\times S_{H_2}\times S_{H_3}$ орқали $H_i$ даги $S_{H_i}$ бирлик сферасини белгилаймиз.

$f=(f_1, f_2, f_3)^t \in S_H$ учун ушбу

$$A_f := \left((A_{ij} f_j, f_i)\right)_{i,j=1}^{3}$$

$3\times 3$ матрицани киритамиз. У ҳолда

$$W_{H_1\oplus H_2\oplus H_3}(A) := \bigcup_{f\in S_H} \sigma_p(A_f)$$

тўпламга $A$ операторнинг (2) блок операторли матрица ёйилмасига мос кубик сонли тасвири дейилади [6-8]. $H$ Гильберт фазонинг фиксирланган ёйилмасига нисбатан қуйидаги белгилашни ҳам ишлатиш мумкин:

$$W^3(A) = W_{H_1\oplus H_2\oplus H_3}(A).$$

$H_1 := C$ орқали комплекс сонлар майдонини, $H_n := L_2([-\pi;\pi]^{n-1})$ орқали эса $[-\pi;\pi]^{n-1}$, $n=2,3$ да аниқланган квадрати билан интегралланувчи (умуман олганда комплекс қийматли) функциялар Гильберт фазосини белгилаймиз. У ҳолда $H = H_1 \oplus H_2 \oplus H_3$ Гильберт фазога стандарт Фок фазосининг қирқилган уч заррачали қисм фазоси (ёки қирқилган Фок фазо) дейилади.

(1) формула билан аниқланган $A$ блок операторли матрицанинг матрицавий элементлари қуйидагича аниқланган бўлсин:

$$A_{11}f_1 = \varepsilon f_1,\ A_{12}f_2 = \int_{-\pi}^{\pi} \sin t\, f_2(t)dt,\ A_{13} = 0;$$

$$A_{21} = A_{12}^*,\ (A_{22}f_2)(x) = (\varepsilon + 1 - \cos x) f_2(x),\ (A_{23}f_3)(x) = \int_{-\pi}^{\pi} \sin t\, f_3(x,t)dt;$$

$$A_{31} = 0,\ A_{32} = A_{23}^*,\ (A_{33}f_3)(x,y) = (\varepsilon + 2 - \cos x - \cos y) f_3(x,y).$$

Бу ерда $f_i \in H_i$, $i = 1,2,3$; $\varepsilon$ ҳақиқий сон ва $A_{ij}^*$ оператор $A_{ij}$ га қўшма оператор. Бундай аниқланган $A$ оператор чизиқли, чегараланган ва ўз-ўзига қўшма эканлигини мос таърифлар ёрдамида осон текшириш мумкин.

$A$ операторнинг спектрини ўрганиш мақсадида $H_1 \oplus H_2$ фазода таъсир қилувчи чизиқли чегараланган ва ўз-ўзига қўшма бўлган

$$A_1 := \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} \\ A_{12}^* & A_{22} \end{pmatrix}$$

операторни киритамиз. Одатда бундай операторли матрицага умумлашган Фридрихс модели дейилади.

Чекли ўлчамли қўзғалишларда операторнинг муҳим спектри ўзгармаслиги ҳақидаги машҳур Вейл теоремасига кўра $A_1$ операторнинг муҳим спектри учун $\sigma_{ess}(A_1) = [\varepsilon; \varepsilon + 2]$ тенглик ўринлидир. $C \setminus [\varepsilon; \varepsilon + 2]$ соҳада аналитик бўлган

$$\Delta(z) := \varepsilon - z - \int_{-\pi}^{\pi} \frac{(\sin t)^2 dt}{\varepsilon + 1 - \cos t - z}$$

функцияни қараймиз. Унга одатда $A_1$ операторга мос Фредгольм оператори дейилади. Осонгина кўрсатиш мумкинки,

$$\sigma_{disc}(A_1) = \{z \in C \setminus [\varepsilon; \varepsilon + 2] : \Delta(z) = 0\}.$$

Қуйидаги теоремада $A$ операторнинг муҳим спектри $A_1$ операторнинг спектри ёрдамида тавсифланган.

**1-теорема.** $A$ операторнинг $\sigma_{ess}(A)$ муҳим спектри учун

$$\sigma_{ess}(A) = \{[0;2] + \sigma_{disc}(A_1)\} \bigcup [\varepsilon; \varepsilon + 4]$$

тенглик ўринлидир.

Энди $A$ оператор муҳим спектрининг янги тармоқларини киритамиз.

**1-таъриф.** $[0;2] + \sigma_{disc}(A_1)$ ва $[\varepsilon; \varepsilon + 4]$ тўпламларга $A$ оператор муҳим срҳпектрининг мос равишда икки ва уч заррачали тармоқлари дейилади.

$C \setminus \sigma_{ess}(A)$ соҳада аналитик бўлган

$$\Omega(z) := \varepsilon - z - \int_{-\pi}^{\pi} \frac{(\sin t)^2 dt}{\Delta(z - 1 + \cos t)}$$

функцияни қараймиз.

$A$ операторнинг дискрет спектри қуйидаги теорема ёрдамида ифодаланади.

**2-теорема.** $z \in C \setminus \sigma_{ess}(A)$ сони $A$ операторнинг хос қиймати бўлиши учун $\Omega(z)=0$ бўлиши зарур ва етарлидир.

2-теоремадан $A$ операторнинг $\sigma_{disc}(A)$ дискрет спектри учун

$$\sigma_{disc}(A)=\{z \in C \setminus \sigma_{ess}(A) : \Omega(z)=0\}$$

тенгликни ҳосил қиламиз.

Навбатдаги теоремада $W^3(A)$ кубик сонли тасвир ёрдамида $A$ оператор чегаралари учун баҳолашлар олинади.

**3-теорема.** $A$ операторнинг қуйи ва юқори чегаралари учун

$$\min \sigma(A) = \inf W^3(A) \geq \varepsilon - \pi\sqrt{2}\,;$$

$$\max \sigma(A) = \sup W^3(A) \leq \varepsilon + 2 + \sqrt{2\pi^2+4}\,;$$

баҳолашлар ўринлидир.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**


1. *Toeplitz O.* Das algebraische Analogon zu einem Satze von Fejer // Math. Z., **2**:1-2 (1918), pp. 187–197.
2. *Hausdorff F.* Der Wertvorrat einer Bilinearform // Math. Z., **3**:1 (1919), pp. 314-316.
3. *Wintner A.* Zur Theorie der beschraenkten Bilinearformen // Math. Z., **30**:1 (1929), pp. 228-281.
4. *Langer H., Tretter C.* Spectral decomposition of some nonselfadjoint block operator matrices // J. Operator Theory, **39**:2 (1998): pp. 339-359.
5. *Langer H., Markus A.S., Matsaev V.I., Tretter C.* A new concept for block operator matrices: the quadratic numerical range // Linear Algebra Appl., **330**:1-3 (2001): pp. 89-112.
6. *Tretter C.* Spectral Theory of Block Operator Matrices and Applications // 2008. Imperial College Press.
7. *Tretter C., Wagenhofer M.* The block numerical range of an $n \times n$ block operator matrix // SIAM J. Matrix Anal. Appl., **24**:4 (2003), pp. 1003-1017.
8. *Rasulov T., Tretter C.* Spectral inclusion for diagonally dominant unbounded operator matrices // Rocky Mountain J. Math., 2018, No. 1, 279-324.


# ФРЕДГОЛЬМ ОПЕРАТОРЛИ МАТРИЦАНИНГ СОНЛИ ТАСВИРИ ВА ХОС ФУНКЦИЯЛАРИ ҲАҚИДА

**Т.Ҳ. Расулов,**
*БухДУ Математика кафедраси доценти,*
**Н.И. Меражов,**
*БухДУ II курс талабаси*

*Ушбу мақолада чизиқли операторлар учун сонли тасвир тушунчаси берилиб, элементлари Фредгольм интеграл операторлари бўлган матрицанинг сонли тасвири ҳамда нуқтали спектри аниқ топилган. Бундан ташқари, унинг хос функциялари ҳақидаги баъзи мулоҳазалар баён қилинган.*

$H$ комплекс Гильберт фазоси, $A$ эса $H$ Гильберт фазосини $H$ Гильберт фазосига ўтказувчи чизиқли оператор бўлиб, $D(A)\subset H$ орқали унинг аниқланиш соҳасини белгилаймиз. Қуйидагича аниқланган

$$W(A):=\{(Ax,x): x\in D(A), \|x\|=1\}$$

тўпламга $A$ операторнинг сонли тасвири дейилади. Бу тушунча биринчи бўлиб Тёплиц томонидан сонли матрицалар учун [1] мақолада киритилган. Таърифга кўра, агар $A$ ўз-ўзига қўшма оператор бўлса, у ҳолда унинг сонли тасвири ҳақиқий тўплам сифатида ҳақиқий сонлар ўқида ётади. [2] мақолада умумлашган Фридрихс модели учун спектр ва сонли тасвир тўплам сифатида тенг бўладиган зарурий шартлар топилган. Бўсағавий хос қиймат ва бўсағавий резонанслар мавжуд бўлганида умумлашган Фридрихс моделининг спектри ва сонли тасвири орасидаги боғланишлар таҳлил қилинган. [3] мақолада эса дастлаб чизиқли оператор сонли тасвирининг асосий хоссалари исботланган, сўнгра умумлашган Фридрихс моделининг сонли тасвири учун муносабат топилган. Операторнинг сонли тасвири унинг спектри жойлашган минимал тўпламни топишда муҳим аҳамиятга эга. Бу тушунча узоқ йиллар давомида кўплаб олимлар томонидан турли хил усуллар билан умумлаштирилган. Масалан, квадратик сонли тасвир, кубик сонли тасвир, блок сонли тасвир тушунчалари шулар жумласидандир.

Энди масаланинг қўйилишига ўтамиз. $L_2[-\pi;\pi]$ орқали $[-\pi;\pi]$ кесмада аниқланган квадрати билан интегралланувчи (умуман олганда комплекс қийматли) функцияларнинг Гильберт фазосини белгилаймиз. Қуйидаги вектор-функциялар фазосини қараймиз:

$$L_2^{(2)}[-\pi;\pi]:=\{(f_1,f_2): f_i\in L_2[-\pi;\pi], i=1,2\}.$$

$L_2^{(2)}[-\pi;\pi]$ фазонинг ихтиёрий иккита $f=(f_1,f_2)$ ва $g=(g_1,g_2)$ элементлари учун скаляр кўпайтма

$$(f,g)=\int_{-\pi}^{\pi} f_1(t)\overline{g_1(t)}dt+\int_{-\pi}^{\pi} f_2(t)\overline{g_2(t)}dt$$

каби топилади.

$L_2^{(2)}[-\pi;\pi]$ Гильберт фазосида

$$T:=\begin{pmatrix} T_{11} & T_{12} \\ T_{21} & T_{22} \end{pmatrix},$$

тенглик ёрдамида таъсир қилувчи операторли матрицани қараймиз, бунда $T_{ij}: L_2[-\pi;\pi]\to L_2[-\pi;\pi]$, $i,j=1,2$ матрицавий элементлар қуйидаги кўринишдаги ажралган ядроли бир ўлчамли интеграл операторлар:

$$(T_{ij}f_j)(x)=t_{ji}(x)\int_{-\pi}^{\pi}t_{ij}(s)f_j(s)ds.$$

Бу ерда $t_{ij}(\cdot)$ лар $[-\pi;\pi]$ кесмада аниқланган ҳақиқий қийматли узлуксиз функциялар. Матрицавий элемент (интеграл оператор) ядросига қўйилган бундай шартларда берилган $T$ операторли матрица чизиқли, чегараланган ва ўз-ўзига қўшма оператор бўлади.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, $T$ операторли матрицанинг элементлари $T_{11}^*=T_{11}$, $T_{22}^*=T_{22}$ ва $T_{12}^*=T_{21}$ тенгликларни қаноатлантиришини функционал анализ элементлари ёрдамида текшириш мумкин.

Ишнинг асосий натижаларини баён қиламиз.

**1-теорема.** $\lambda=0$ сони $T$ оператор учун чексиз каррали хос қиймат бўлиб, унга мос келувчи $\varphi=(\varphi_1,\varphi_2)$ хос вектор-функция

$$\int_{-\pi}^{\pi}t_{ij}(s)\varphi_j(s)ds=0,\ i,j=1,2$$

шартни қаноатлантиради.

Баён қилинган 1-теоремани исботлаш учун $T\varphi=0$ хос қийматга нисбатан тенглама таҳлил қилинади ва координаталари теоремадаги шартни қаноатлантирувчи вектор-функциялар қисм фазоси чексиз ўлчамли эканлиги кўрсатилади. Бунда $L_2[-\pi;\pi]$ фазонинг чексиз ўлчамли эканлиги муҳим аҳамият касб этади.

**2-теорема.** $T$ операторнинг сонли тасвири учун қуйидаги тенглик ўринлидир

$$W(T)=[\min\sigma_p(T),\max\sigma_p(T)].$$

Бунда $\sigma_p(T)$ орқали $T$ операторнинг нуқтали спектри белгиланган бўлиб, у $T$ операторнинг барча хос қийматларидан ташкил топган.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. O. Toeplitz. Das algebraische Analogon zu einem Satze von Fejer. Math. Z., 2:1-2 (1918), 187-197.
2. Т.Х.Расулов, Э.Б.Дилмуродов. Исследование числовой области значений одной операторной матрицы. Вестник Самарского государственного технического университета, Серия физ.-мат. науки, 35:2 (2014), С. 50-63.
3. Т.Х.Расулов, Г.И.Ботиров. Численный диапазон обобщенной модели Фридрихса. Узбекский математический журнал. № 2 (2013), С. 72-81.

# BIR KVADRATIK STOXASTIK OPERATOPNING QO`ZG`ALMAS NUQTALARI HAQIDA

**B.J.Mamurov,**
*BuxDU dotsent,*
**D.Sohibov,**
*BuxDU I bosqich magistranti*

*Bu ishda bir kvadratik stoxastik qo`zg`almas nuqtalari masalasi o`rganilgan.*

Ixtiyoriy, jumladan kvadratik stoxastik operatorlarning ham qo`zg`almas nuqtalarini o`rganish muhim masalalardan hisoblanadi.

E={1,2, .. . ,n} bo`lsin.

1-ta`rif. $S^{n-1}$= { x=($x_1$, . . .,$x_n$)∈ $R^n$ : $x_i$ ≥0, $\sum_{i=1}^{n} x_i$ =1}
to`plamga (n-1) o`lchamli simpleks deb aytiladi.
Bunda har bir x∈ $S^{n-1}$ element E to`plamda ehtimollik o`lchovi bo`lib, uni n ta elementdan iborat qandaydir biologik(fizik) tizim kabi talqin qilish mumkin.
2-ta`rif. Kvadratik stoxastik operator deb, V: $S^{n-1} \to S^{n-1}$

$$V : x_k' = \sum_{i,j=1}^{n} p_{ij,k}\, x_i x_j,$$

ko`rinishdagi operatorga aytiladi, bunda $p_{ij,k} \geq 0$, $p_{ij,k}$ =$p_{ji,k}$, $\sum_{k=1}^{n} p_{ij,k}$=1.

Biz keying tadqiqotlarda n=3 bo`lgan holda qavariq kombinatsiyasi o`rganish uchun tanlangan kvadratik stoxastik operatorlardan biri

$$V: \begin{cases} x_1' = x_1^2 + 2x_1\, x_3 \\ x_2' = x_2^2 \quad +2x_1\, x_2 \\ x_3^1 = x_3^2 + 2x_3\, x_2 \end{cases} \qquad (1)$$

kvadratik stoxastik operator uchun qo`zg`almas nuqta masalasini qarab chiqamiz.
Qo`zg`almas nuqta ta`rifiga (1) operator uchun qo`zg`almas nuqtalar V(x)= x, tenglamaning yechimlari bo`ladi, ya`ni.

$$\begin{cases} x_1 = x_1^2 + 2x_1\, x_3 \\ x_2 = x_2^2 \quad +2x_1\, x_2 \\ x_3 = x_3^2 + 2x_3\, x_2 \end{cases} \qquad (2)$$

Agar $x_1$ =1-$x_2$ -$x_3$ ni (2) sistemaning 1-tenglamasiga qo`ysak,

$$x_2 = \frac{1}{2} + \sqrt{\frac{1}{4} + (x_3^2 - x_3)} \geq 0 \qquad (3)$$

ni olamiz,bundan $x_3 \in [0,1]$ .
Agar $x_2$ =1-$x_1$ -$x_3$ ni (2) sistemaning 2-tenglamasiga qo`ysak,

$$x_1 = -\frac{1}{2} + \sqrt{\frac{1}{4} + (x_3^2 - x_3)} \geq 0 \qquad (4)$$

ga kelamiz va $x_3 \in [0,1]$.
(3) va (4) ni $x_1 + x_2 + x_3$ =1 qo`yib, x=$x_3$ deb olsak,

$$-\frac{1}{2}+\sqrt{\frac{1}{4}+(x_3^2-x_3)}+\frac{1}{2}+\sqrt{\frac{1}{4}+(x_3^2-x_3)}+x=1$$

tenglikka ega bo`lamiz.
Tasdiq. (1) kvadratik stoxastik operatopning qo`zgalmas nuqtalari (1,0,0); (0,1,0); (0,0,1); (1/3, 1/3, 1/3) nuqtalar bo`ladilar..

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Р.Н. Ганиходжаев. Математический сборник. 183(1992), №8. 119-140 стр.


## 2x2 ОПЕРАТОРЛИ МАТРИЦАНИНГ СПЕКТРИ ҲАҚИДА


**Т.Ҳ. Расулов,**
*БухДУ Математика кафедраси доценти,*
**Ш.Б. Неъматова,**
*БухДУ III курс талабаси*



*Ушбу мақолада Фок фазосининг қирқилган икки заррачали қисм фазосида таъсир қилувчи, чизиқли, чегараланган ва ўз-ўзига қўшма бўлган* $2\times 2$ *операторли матрица қаралган. 0 сони бу матрица учун чексиз каррали хос қиймат бўлиши изоҳлаб ўтилган. Берилган операторли матрицанинг хос қийматларини ўрганиш масаласи 3-даражали кўпҳаднинг нолларини ўрганиш масаласига келтирилган. Операторли матрица кўпи билан битта манфий хос қийматга ва кўпи билан иккита мусбат оддий хос қийматга эга бўлиши тасдиқ сифатида баён қилинган. Хулоса ўрнида ўрганилаётган операторли матрица соф нуқтали спектрга эга эканлиги асосланган.*


$C$, $R$ ва $Z$ лар орқали мос равишда барча комплекс, ҳақиқий ва бутун сонлар тўпламини белгилаймиз. Ҳар бир фиксирланган $h>0$ сони учун $T_h^d$ орқали қарама-қарши ёқлари ўзаро мос қўйилган $d$ ўлчамли $(-\pi/h;\pi/h]^d$ кубни белгилаймиз. $T_h^d$ тўпламнинг аниқланишига кўра ҳар қандай $B\subset R^d$ тўплам учун шундай $h=h(B)>0$ топилиб $B\subset T_h^d$ муносабат ўринли, яъни $\lim\limits_{h\to 0} T_h^d = R^d$.

Фараз қилайлик $L_2(T_h^d)$ - $T_h^d$ да аниқланган квадрати билан интегралланувчи (умуман олганда комплекс қиймат қабул қилувчи) функцияларнинг Гильберт фазоси бўлсин. $H$ орқали $H_0:=C$ ва $H_1:=L_2(T_h^d)$ фазоларнинг тўғри йиғиндисини белгилаймиз, яъни $H:=H_0\oplus H_1$. Одатда $H_0$ ва $H_1$ фазоларига $L_2(T_h^d)$ Гильберт фазоси ёрдамида қурилган $F(L_2(T_h^d))$ Фок

фазосининг мос равишда ноль заррачали ва бир заррачали қисм фазолари дейилади. Таърифга кўра $F(L_2(T_h^d))$ Фок фазоси қуйидагича аниқланган:

$$F(L_2(T_h^d)) := C \oplus L_2(T_h^d) \oplus L_2((T_h^d)^2) \oplus \cdots.$$

Унинг элементлари $f = (f_0, f_1, f_2, ...)$ кўринишда бўлиб, $f_0 \in C$ ва $f_n \in L_2((T_h^d)^n),\ n \in N$. Бу элемент нормаси учун

$$\| f \| = \sqrt{| f |_0^2 + \sum_{n=1}^{\infty} \int_{(T_h^d)^n} | f_n(x_1,...,x_n) |^2 \, dx_1...dx_n}$$

тенглик ўринлидир.

Мазкур мақолада $H$ Гильберт фазосида $2 \times 2$ ўлчамли $A_h$ операторли матрицани қараймиз

$$A_h := \begin{pmatrix} A_{00} & A_{01} \\ A_{01}^* & A_{11} \end{pmatrix},$$

бунда $A_{ij} : H_j \to H_i,\ i \le j, i, j = 0,1$ матрицавий элементлар қуйидаги формулалар ёрдамида таъсир қилади:

$$A_{00} f_0 = -\varepsilon f_0, \quad A_{01} f_1 = \alpha \int_{T_h^d} \upsilon(t) f_1(t) dt,$$

$$(A_{11} f_1)(x) = -\beta \varphi(x) \int_{T_h^d} \varphi(t) f_1(t) dt, \quad f = (f_0, f_1) \in H.$$

Бу ерда $\varepsilon$ ҳақиқий мусбат сон, $\alpha, \beta > 0$ - "таъсирлашиш параметрлари", $\upsilon(\cdot)$ функция $T_h^d$ тўпламда аниқланган ҳақиқий қийматли узлуксиз функция.

$H$ Гильберт фазосида юқоридаги каби аниқланган $A_h$ операторли матрица, унинг параметрларига қўйилган бундай шартларда чизиқли, чегараланган ва ўз-ўзига қўшма оператор бўлади. Бу тасдиқни исботлашда Функционал анализ курсида киритилган тушунчалар, Фок фазоси ва унинг қирқилган қисм фазосидаги скаляр кўпайтма ҳамда норманинг аниқланишидан фойдаланилади.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, замонавий математик физикада $A_{01}$ операторга йўқотиш оператори, унинг қўшмаси бўлган $A_{01}^*$ операторга эса пайдо қилиш оператори дейилади ва

$$(A_{01}^{*}f_0)(x)=\alpha\nu(x)f_0,\ \ f_0\in H_0.$$

$A_h$ операторли матриצанинг барча элементлари бир ўлчамлидир, шу сабабли қаралаётган операторнинг ўзи кўпи билан 3 ўлчамли оператор бўлади. Агар $\nu(\cdot)$ ва $\varphi(\cdot)$ функциялар чизиқли боғланган бўлса, у ҳолда $A_h$ операторли матрица 2 ўлчамли, акс ҳолда 3 ўлчамли бўлади.

Мақолада ўрганилаётган операторли матрицалар икки каналли молекуляр резонанс модели [1-3] учун қўзғалиш оператори вазифасини ўтайди.

Қуйида ишнинг асосий натижаларини баён қиламиз.

**1-тасдиқ.** Ҳар бир фиксирланган $h>0$ учун $\lambda=0$ сони $A_h$ операторли матрицанинг чексиз каррали хос қиймати бўлади.

Бу тасдиқни исботлашда $A_h$ операторли матрица учун хос қийматга нисбатан тенглама қаралади ва унинг ечимлари қисм фазосининг чексиз ўлчамли бўлиши исботланади.

$\|\cdot\|_h$ орқали $H_1$ даги нормани, $(\cdot,\cdot)_h$ орқали эса $H_1$ даги скаляр кўпайтмани белгилаймиз. Ушбу

$$\Omega_h(z)=\left(-z^2-\varepsilon z+\alpha^2\|\upsilon^2\|_h\right)\left(z+\beta\|\varphi^2\|_h\right)+\beta\alpha^2(\upsilon,\varphi)_h^2$$

тенглик орқали аниқланган функцияни қараймиз.

**2-тасдиқ.** Ҳар бир $h>0$ учун $z_h\neq 0$ сони $A_h$ операторли матрицанинг хос қиймати бўлиши учун $\Omega_h(z_h)=0$ бўлиши зарур ва етарлидир.

Баён қилинган тасдиқни исботлашда $A_h$ операторли матрица учун хос қийматга нисбатан тенглама таҳлил қилинади.

Шундай қилиб, $A_h$ операторли матрица хос қийматларини ўрганиш масаласи 3-даражали $\Omega_h(z)$ кўпҳаднинг нолларини ўрганиш масаласига келтирилди. Бу хосса одатдаги Фредгольм детерминантига хос бўлган аналитик хосса бўлганлиги сабабли, $\Omega_h(z)$ функцияга одатда $A_h$ операторли матрицага мос Фредгольм детерминанти дейилади.

2-тасдиқга кўра $A_h$ операторли матрицанинг дискрет спектри учун

$$\sigma_{disc}(A_h)=\{z\neq 0:\Omega_h(z)=0\}$$

тенглик ўринли бўлади.

Навбатдаги натижа $A_h$ операторли матрица хос қийматларининг сони ва жойлашув ўрни ҳақида.

**3-тасдиқ.** Ҳар қандай фиксирланган $h>0$ сони учун $A_h$ операторли матрица кўпи билан битта мусбат ва кўпи билан иккита манфий оддий хос қийматларга эга бўлади.

Шундай қилиб, $A_h$ операторли матрицанинг спектри соф нуқтали бўлиб, 0 сони чексиз каррали хос қиймат, кўпи билан битта манфий оддий хос қиймати ҳамда кўпи билан иккита мусбат оддий хос қиймати мавжуд экан.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. С.Н.Лакаев. Некоторые спектральные свойства модели Фридрихса. Труды семинара им. И.Г.Петровского, –Ленинград, 1986, –№11, –С. 210–223.
2. С.Н.Лакаев, Ш.М.Латипов. О существовании и аналитичности собственных значений двухканальной молекулярно-резонансной модели. Теор. и матем. физика, –Москва, 2011, –Т.169, –№3, –С. 341-351.
3. Т.Х.Расулов. Исследование существенного спектра одного матричного оператор. Теоретическая и математическая физика, - Москва, 2010, -Т. 164, -№ 1, -С. 62-77.

## BIR JINSLI KUBUK STOXASTIK JARAYON HAQIDA

**B.J.Mamurov**
*BuxDU dotsent*
**S.B.Boboqulova**
*BuxDU II bosqich magistranti*

*Bu ishda kubik stoxastik jarayonlarning bir jinsligi ta`rif berilib, bunday jarayonning holatlarining xossalari o`rganilgan.*

Chiziqli bo`lmagan stoxastik jarajonlar, jumladan kvadratik va kubuk jarayonlar ko`pgina fizikaviy, kimyoviy, biologik jarayonlarning modeli bo`lib xizmat qiladi. E={1,2,…,n}va$x^{(0)}$= $(x_1^{(0)}, x_2^{(0)}, \dots, x_n^{(0)})$-E dagi boshlang`ich taqsimot bo`lsin. $P_{ijk,l}^{[s,t]}$ bilan s momentdan t momentgacha E to`plamningi, j, k elementlarining o`zaro ta`siri natijasida E to`plamning l elementining amalga oshish ehtimolligini belgilaymiz. Bunda agar vaqtning s momentida $x^{(s)}$= $(x_1^{(s)}, x_2^{(s)}, \dots, x_n^{(s)})$ ma`lum bo`lsa, barchat ≥ s+1 lar uchun $x^{(t)}$= $(x_1^{(t)}, x_2^{(t)}, \dots, x_n^{(t)})$ quyidagicha aniqlanadi: $x_l^{(t)} = \sum_{i,j,k} P_{ijk,l}^{[s,t]} x_i^{(s)} x_j^{(s)} x_k^{(s)}$ .

1-ta`rif [1]. Agar quyidagi shartlar bajarilsa:

1) $P_{ijk,l}^{[t,t+1]} = P_{ijk,l}^{[0,1]}$;

2) $p_{ijk,l}^{[n,t]}$ ning qiymatii, j, klarning E dagi ixtiyoriy almashinuvidan o`zgarmaydi; t-s$\geq 1$ va $\tau - s \geq 1$ bo`ladigan ixtiyoriy $s < \tau < t$ lar uchun

$$P_{ijk,l}^{[s,t]} = \sum_{m,\gamma,\delta} P_{ijk,m}^{[s,\tau]} P_{m\gamma\delta,l}^{[\tau,t]} x_\gamma^{(\tau)} x_\delta^{(\tau)} \qquad (1)$$

tenglik o`rinli bo`ladi (Kolmogorov-Chepmentenglamasi), buholda $P_{ijk,l}^{[s,t]}$ o`tish funksiyasi bilan aniqlangan jarayon kubik deyiladi.

2-ta`rif. Agar $t - s \geq 1$ shartni qanoatlantiruvchi $barcha\ s,t\ uchun\ P_{ijk,l}^{[s,t]}$ faqat t-s ga bo`g`liq bo`lsa, bunday kubik stoxastik jarayon bir jinsli deyiladi. Bungay kubik stoxastik jarayon uchun quyidagi lemma o`rinli.

Lemma. $P_{ijk,l}^{[s,t]}$-bir jinsli kubik stoxastik jarayon bo`lsin. Undabarcha

l=1,2,…,n ixtiyoriy $t \geq 2$ uchun $x_k^{(t)} = x_k^{(2)}$ tenglik o`rinli.

Isboti. $P_{ijk,l}^{[s,t]}=\sum_{m,\gamma,\delta} P_{ijk,m}^{[s,\tau]} P_{m\gamma\delta,l}^{[\tau,t]} x_\gamma^{(r)} x_\delta^{(r)}$tenglik va jarayonning bir jinsligidan

$m \geq 2$ va $t \geq m$bo`lganda:

$x_l^{(m)}=\sum_{\mathrm{i,j,k}} P_{ijk,l}^{[0,m]} x_i^{(0)} x_{\mathrm{j}}^{(0)} x_{\mathrm{k}}^{(0)}=$

$\sum_{\mathrm{i,j,k}} P_{ijk,l}^{[t-m,t]} x_i^{(0)} x_{\mathrm{j}}^{(0)} x_{\mathrm{k}}^{(0)}=$

$\sum_{\mathrm{i,j,k}} \left(\sum_{p,q,\theta} P_{ijk,p}^{[t-m,t-1]} P_{pq\theta,l}^{[t-1,t]} x_q^{(t-1)} x_\theta^{(t-1)} x_{\mathrm{k}}^{(0)} x_i^{(0)} x_{\mathrm{j}}^{(0)}\right).$

$x_m^{(\tau)}=\sum_{\mathrm{i,j,k}} P_{ijk,m}^{[0,\tau]} x_i^{(\tau)} x_{\mathrm{j}}^{(\tau)} x_{\mathrm{k}}^{(\tau)}$ bo`lgani uchun

$$x_l^{(m)} = \sum_{p,q,\theta} P_{pq\theta,l}^{[0,1]} x_p^{(m-1)} x_q^{(t-1)} x_\theta^{(t-1)}. \qquad (2)$$

(2) da t=m deb olsak,

$$x_l^{(m)} = \sum_{p,q,\theta} P_{pq\theta,l}^{[0,1]} x_p^{(m-1)} x_q^{(m-1)} x_\theta^{(m-1)}. \qquad (3)$$

Xuddi shunday yo`lbilan:

$$\sum_{\mathrm{i,j,k}} P_{ijk,l}^{[0,m]} x_i^{(0)} x_{\mathrm{j}}^{(0)} x_{\mathrm{k}}^{(0)}=\sum_{\mathrm{p,q,\theta}} P_{pq\theta,l}^{[0,2]} x_q^{(t-2)} x_\theta^{(t-2)} x_{\mathrm{p}}^{(m-2)}.$$

tenglikni olamiz.

Oxirgi tenglikda t=m deb olsak,

$$\sum_{\mathrm{p,q,\theta}} P_{pq\theta,l}^{[0,2]} x_q^{(m-2)} x_\theta^{(m-2)} x_{\mathrm{p}}^{(m-2)} =\sum_{\mathrm{p,q,\theta}} P_{pq\theta,l}^{[s-2,s]} x_{\mathrm{q}}^{(m-2)} x_\theta^{(m-2)} x_{\mathrm{p}}^{(m-2)}=$$

$$\sum_{p,q,\theta} \sum_{r,\gamma,\tau} P_{pq\theta,r}^{[s-2,s-1]} P_{r\gamma\tau,l}^{[s-1,s]} x_\gamma^{(s-1)} x_\tau^{(s-1)} x_q^{(m-2)} x_\theta^{(m-2)} x_{\mathrm{p}}^{(m-2)} =$$

$$\sum_{p,q,\theta} \sum_{r,\gamma,\tau} P_{pq\theta,r}^{[0,1]} P_{r\gamma\tau,l}^{[0,1]} x_\gamma^{(s-1)} x_\tau^{(s-1)} x_q^{(m-2)} x_\theta^{(m-2)} x_{\mathrm{p}}^{(m-2)}.$$

Bu holda (3) ni e`tiborga olsak,

$$\sum_{\mathrm{p,q,\theta}} P_{pq\theta,l}^{[0,2]} x_q^{(m-2)} x_\theta^{(m-2)} x_{\mathrm{p}}^{(m-2)} = \sum_{r,\gamma,\tau} P_{r\gamma\tau,l}^{[0,1]} x_\gamma^{(s-1)} x_r^{(m-1)} x_\tau^{(m-1)}, \ s\geq 2,$$

$$x_l^{(m)} = \sum_{r,\gamma,\tau} P_{r\gamma\tau,l}^{[0,1]} x_\gamma^{(s-1)} x_r^{(m-1)} x_\tau^{(m-1)}, \ s\geq 2 \quad .(4)$$

Kubik stoxastik jarayon ta`rifi va (2) da m=2 ,t=n bo`lganda:

$$x_l^{(2)} = \sum_{i,j,k} P_{ijk,l}^{[0,1]} x_i^{(1)} x_j^{(n-1)} x_k^{(n-1)}. \qquad (5)$$

(4) das=2 de bolib, (5) ni inobatga olsak, lemmaning isboti kelamiz

$$x_l^{(m)} = \sum_{p,q,\theta} P_{pq\theta,l}^{[0,1]} x_p^{(m-1)} x_q^{(m-1)} x_\theta^{(m-1)}. \qquad (3)$$

**Foydalanilganadabiyotlar**

1. Mamurov B.J., Rozikov U.A. On cubic stochastic operators and processes. Journal of Physics: Conference Series 697(2016) 012017.p.1-14.
2. Мухамедов Ф. М.,Норматов И.Х.,Розиков У.А. Эволюционные уравнения для одного класса конечномерных квадратичных стохастических процессов. Узб. матем. журнал. 1999. №4. С. 41-46.

*5А140501 – Кимё (фан йўналишлари бўйича)*

# ПРОТОТРОПНОЕ РАВНОВЕСИЕ В РЯДУ АЗОТИСТЫХ ПРОИЗВОДНЫХ 1,3-ДИКАРБОНИЛЬНЫХ СОЕДИНЕНИЙ

**Ш.А. Шеров, С.А.Кароматов,**
*магистрант БухГУ,*
**М.Я.Эргашов,**
*профессор БухГУ*

Для продуктов взаимодействия β-дикарбонильных соединений с азот-содержащими реагентами, не имеющими в своем составе дополнинительной нуклеофильной функции, вероятны три таутомерные формы – кетоиминная А, сопряженные кетоенаминная Б и иминоенольная В (Схема 1).




Схема 1.

Кетоенаминный Б и иминоенольный В таутомеры обладают сходными системами сопряжения, однако в случае таутомера В ее образование означает появление положительного заряда на атоме кислорода и отрицательного на атоме азота, что мало совместимо с их относительной электротрицательностью.

Для азотистых производных дикарбонильных соединений равновесие, если оно наблюдается, включает только формы А и Б. Они имеют внутренне присущую тенденцию находится в сопряженной кетоенаминной форме Б; именно в ней существует подавляющее большинство известных продуктов конденсации дикарбонильных соединений с первичными аминами [1]. Появление равновесия достигается стабилизацией формы А, например, использованием заместителя при атоме азота, способного вступать в сопряжение со связью C=N. Так, в виде таутомерных смесей часто существуют N,N-дизамещенные гидразоны дикарбонильных соединений, где реализуется p,π-сопряжение в гидразонном фрагменте [2]. Стабильность кетоенаминного таутомера Б определяется наличием системы p,π,π-сопряжения, включающего неподеленную пару электронов атома азота, связи C=C и C=O. Для максимального осуществления электронных взаимодействий необходимо строго определенное пространственное расположение участвующих в сопряжение элементов. Поэтому увеличением объема заместителей можно добиться такого сближения энергетических уровней формы А и Б, что первая

окажется конкурентоспособной. Используя стабилизацию формы А с помощью электронных взаимодействий или дестабилизацию формы Б увеличением стерических взаимодействий между заместителями, можно достичь истинного таутомерного равновесия для азотистых производных дикарбонильных соединений любого класса (будь это альдо- или кетоэфиры, кетоальдегиды или дикетоны) и на этой основе выявить закономерности кетоимин-кетоенаминного равновесия А и Б (имин-енаминного). Было показано, что введение донорных заместителей в ароматические кольца в различном положении дикарбонильного фрагмента благоприятствует иминному таутомеру А, в N-ароматическое ядро – таутомеру Б [1-3].

Введение π-акцепторных заместителей, например сложноэфирной или ацильной группы, в α-положение при атоме углерода карбонильной группы вызывает смещение равновесия в сторону сопряженной формы В [4]. Влияние подобного заместителя у связи C=N зависит от природы заместителя при атоме азота ($R^4$). Если в качестве последнего выступает алкильная или арильная группа, то введение электроноакцепторного заместителя $R^1$ благоприятствует таутомеру Б [7,8]. Когда заместитель при атоме азота-N,N-дизамещенная группа (речь идет о гидразонах дикарбонильных соединений), замена алкильной или арильной группы $R^1$ на π-акцепторную сдвигает равновесие в сторону таутомера А.

π-Электронодонорные заместители при связях C=N и C=O дикарбонильной части, способные выступать в сопряжение с кратными связями, вызывают смещение равновесия в сторону таутомера А (Схема 2).




Схема 2.

Так, приведенные выше S,N-кетен-ацетали, которые можно рассматривать как азотистые производные дикарбонильных соединений вида $RSCOCH(COOC_2H_5)_2$,существует как смеси иминной и енаминной форм [3-4]. Соответствующие производные ацетоуксусного и тем более ацетилмалоно-вого эфиров имеют енаминное строение [1].

Появление π-донорного заместителя при атоме азота, как это многократно показано на примере N.N-дизамещенных гидразонов дикарбонильных соединений, благоприятствует иминному таутомеру. Стабилизация иминной формы дизамещенных гидразонов связана с электронным взаимодействием внутри гидразонного фрагмента. Это взаимодействие требует определенного конформационного построения относительно связи N-N. Переход от N,N-диметилгидразонов дикарбонильных соединений к гидразонам с более

объемистыми заместителями при втором атоме азота, например, к диизопропилгидразонам, всегда приводит к уменьшению доли таутомера А [5].

N-Ацилгидразоны дикарбонильных соединений показывают ещё более выраженную тенденцию к существованию в иминной форме. В данном случае эта форма стабилизируется системой π,р,π-сопряжение с участием C=N, неподеленной пары электронов второго атома азота и связи C=O ацильной группы [4. Как показывает пример N-ароилгидразонов метило-вого эфира ацетоуксусной кислоты, введение акцепторного заместителя в ароматическое ядро увеличивающее интенсивность указанного сопряжения, в небольшой степени, но вся же способствует иминному таутомеру А [5] (Схема 3).

**А** **Б**

Схема 3.

Доля енаминной формы Б возрастает только при увеличении объема у атома углерода карбонильной функции при отсутствии α-заместителя. Во всех остальных случаях увеличение объема заместителя приводит к падению доли таутомера Б. Вполне ожидаема высокая чувствительность сопряженной формы Б, так как изменение его объема затрагивает взаимодействие относительно связи C=C. Увеличением объема концевых заместителей дикарбонильной компоненты и заместителя при атоме азота, включенных во взаимодействие относительно формально простых связей $N–C_{sp}^2$ и $C_{sp}^2–C_{sp}^2$, можно вызывать практически полное исчезновение таутомера Б [6].




**А** **Б**

Схема 4.

На положение таутомерного равновесия оказывают влияние и некоторые специфические взаимодействия между имеющимися заместителями. Так, продукты конденсации кетоэфиров с аминоспиртами показывают большую склонность к существованию в иминной форме А, чем продукты конденсации с изостерическими первичными аминами [5]. Здесь одним из факторов, благоприятствующих таутомеру А, является образование внутримолекулярной водородной связи (ВМВС) между группой OH аминного фрагмента и связью C=N (Схема 4).

Итак, конкурентная способность иминной формы А возрастает при введении π-донорных заместителей при атомах углерода связей C=N и C=O, при увеличении объема заместителя в α- и β-положениях дикарбонильной компоненты и особенно при связи C=O. Азотистые реагенты по степени вероятности появления иминной формы А в их продуктах взаимодействия с дикарбонильными соединениями могут быть расположены в следующий ряд:

$NH_2OR > NH_2NHCOR > NH_2NR_2 > NH_2Ar > NH_2Alk > NH_2COR > NH_3$

Продукты взаимодействия с аммиаком существуют исключительно в енаминной форме Б, производные с О-алкил(арил)гидроксиламинами имеют иминное строение А независимо от структуры дикарбонильного соединения и природы растворителя [4-6]. Для продуктов реакции дикарбонильных соединений с другими из перечисленных реагентов таутомерное равновесие вполне может быть реализовано.

В продолжении обсуждений перед нами была поставлена задача, выяснить насколько закономерности, выявленные при изучении реакций перфторалкилсодержащих1,3-дикетонов с ацилгидразинами [4-5] могут быть перенесены на взаимодействие этих нуклеофилов с 1,3-дикетонами, а именно, эфирами ацилпировиноградных кислот, также имеющих в своем составе сильный электроноакцепторный заместитель – алкоксикарбонильную группу, но отличающийся от перфторалкильного прежде всего меньшим эффективным объемом и несколько меньшими электронными свойствами ($\Delta G^o(CF_3)$=2,1 ккал/моль, $\Delta G^o(COOC_2H_5)$=1,20 ккал/моль где $\Delta G^o$ – свободная конформационная энергия заместителей циклогексана: $\sigma_1(CF_3)$=0,402; $\sigma_1(COOC_2H_5)$=0,30).

**Литература:**

1. Фрейманис Я.Ф. Химия енаминокетонов, енаминоиминов, енаимнотионов.- Рига.- Зинатне.- 1974.- 274 с.
2. Якимович С.И., Николаев В.Н. Таутомерные превращения в ряду азотистых производных β-дикарбонильных соединений // Вопросы физической органической химии.- Л.: Изд. ЛГУ, 1984.- Вып. 2.- С. 137-154.
4. Парпиев Н.А., Юсупов В.Г., Якимович С.И., Шарипов Х.Т. Ацилгидразоны и их комплексы с переходными металлами.- Ташкент.- Фан.- 1988.- 161 с.
5. Турсунов М.А., Умаров Б.Б., Эргашов М.Я., Авезов К.Г. Синтез и кристаллическая структура комплекса никеля(II) с ароилгидразоном этиловогоэфира 5,5-диметил-2,4-диоксогексановой кислоты // ЖСХ.- 2020.-Т.61.-№1.-С. 78-90.
6. Умаров Б.Б., Турсунов М.А., Минин В.В. Комплексы с производными кетоальдегидов и кетоэфиров. Ташкент.: Нишон-ношир. 2016. 350 с.
7. Tursunov M. A., Avezov K. G., Umarov B. B. and Parpiev N. A. $^1$H NMR Spectra and Crystal Structure of the Nickel(II) Complex with Ethyl 5,5-Dimethyl-2,4-Dioxohexanoate Aroylhydrazones. Russian J. of Coord. Chem. 2017. V. 43. N 4. P. 93-96.

# СТРОЕНИЕ И ТАУТОМЕРИЯ В РЯДУ АЦИЛГИДРАЗОНОВ БЕНЗОИЛУКСУСНОГО АЛЬДЕГИДА

**Г.К.Холикова,**
*магистрант БухГУ*,
**М.М. Амонов,**
*студент БухГУ,*
**Б.Б. Умаров,**
*профессор БухГУ*

Продукты конденсации кетоальдегидов с гидразидами ароматических кислот, согласно ранее проведенным исследованиям [1, 2], показывают кольчато-цепное равновесие, в котором наряду с гидразонной или енгидразинной формами принимает участие циклическая 5-гидроксипиразолиновая форма. В настоящем разделе нами изучено строение продуктов взаимодействия бензоилуксусного альдегида с гидразидами алифатических кислот, где последовательно варьировался объем заместителей ацильного радикала от атома водорода до *трет*-бутильного радикала. Реакция с ацилгидразидами протекает региоспецифично, с образованием по одному продукту конденсации только по альдегидной группе. Намного сложнее обстоит дело в нашем случае – при изучении реакции конденсации бензоилуксусного альдегида с ацилгидразидами алифатических кислот ($H_2L^1$–$H_2L^5$); в отличие от аналогичных ацилгидразонов β-дикарбонильных соединений [2-4]:


$A_Z^1$


$Б_Z$


$B_Z^1$


$A_E^1$


$Б_E$


$B_E^1$

R=H($H_2L^1$), $CH_3$($H_2L^2$), $C_2H_5$($H_2L^3$), *изо*-$C_3H_7$($H_2L^4$), *трет*-$C_4H_9$($H_2L^5$).

Уже в твердом состоянии они имеют различное строение в зависимости от заместителя ацильной части молекулы. Так, продукт конденсации с гидразином муравьиной кислоты ($H_2L^1$) в твердом состоянии

обладает циклической структурой (В), а продукты конденсации с гидразидами уксусной, пропионовой и *изо*-масляной кислот [R=$CH_3$, $C_2H_5$, $CH(CH_3)_2$, $H_2L^2$–$H_2L^4$] – Е-гидразонное строение ($А_Е$). Продукт конденсации бензоилуксусного альдегида с гидразидом триметилуксусной кислоты [R=$C(CH_3)_3$, $H_2L^5$) имеет Е-енгидразинную структуру ($Б_Е$).

Тройное равновесие показывают ацилгидразоны бензоилуксусного альдегида. Лиганды $H_2L^1$–$H_2L^5$ плохо растворимы в $CDCl_3$, поэтому в качестве растворителя был использован ДМСО-$d_6$. В этом растворителе наблюдается сложное кольчато-цепное превращение с участием всех вышеперечисленных таутомерных форм (табл. 1).

Сигналы α-метиленовых протонов гидразонной формы (А) удвоен, причем относительная интенсивность более высокополного сигнала падает, а интенсивность низкополного сигнала возрастает при последовательном увеличении объема заместителя в ацильной части . Подобное удвоение сигнала α-метиленовых протонов может указывать на наличие конфигурационного равновесия относительно связи C=N, или наличия конформационного равновесия относительно амидной C–N-связи при полном смещении конфигурационного равновесия в сторону одного из диастереомеров. Ацилгидразоны альдегидов имеют Е-конформацию, показывая в некоторых случаях конформационное равновесие относительно формально простой амидной связи [2-6]. В соответствии с этим представляется более вероятным, что гидразонная форма соединений (II) также имеют Е-конформацию, а удвоение сигналов α-метиленовых протонов в спектрах ПМР связано с равновесием между $Z^1$ и $E^1$-конформерами ($А_{Z1}$ и $А_{E1}$). С этим согласуются очень близкие значения химических сдвигов сигналов α-метиленовых протонов двух стереоизомеров гидразонной формы.

При увеличении объема заместителя в ацильной части стерические взаимодействия в $E^1$-изомере ($А_{E1}$) будут возрастать в значительно большей степени, чем в $Z^1$-изомере. Учитывая это, высокопольный сигнал α-метиле новых протонов, относительная интенсивность заместителя, следует отнести $E^1$-изомеру ($А_{E1}$), а низкопольный сигнал, интенсивность которого возрастает, $Z^1$-изомеру ($А_{Z1}$).

Енгидразинная форма (Б) новых органических соединений характеризуются в спектрах ПМР двумя дублетными сигналами винильного протона (табл. 2). Более высокопольный сигнал имеет КССВ около 7,5-8,0 Гц, что обусловливает наличие Z-енгидразинной формы ($Б_Z$), низкопольный сигнал имеет КССВ порядка 12-13 Гц, что, на наш взгляд, принадлежит Е-гидразонной форме ($Б_Е$). Конфигурационное равновесие внутри енгидразинной формы смещена в сторону Е-стереоизомера ($Б_Е$) и практически не зависит от структуры заместителя в ацильной части молекулы лиганда II. По аналогии с соединениями бензоилацетона [2,4-9] для 5-гидроксипиразолиновой формы формилгидразона бензоилуксусного альдегида ($H_2L^{11}$) можно было ожидать конформационного равновесия относительно амидной C–N-связи, однако четких указаний на существование

такого равновесия спектроскопия ПМР не дает. В спектре ПМР этого соединения, снятого сразу после приготовления раствора наблюдается два сигнала формильного протона при δ 7,89 и 8,95 м.д., а также сигналы при δ 5,32 и 6,54 м.д. Удвоение сигналов может быть связано с тем, что в растворе устанавливается медленное в шкале времени ЯМР конформацонное

Таблица 1.

Результаты ПМР спектроскопии растворов ацилгидразонов бензоилуксусного альдегида $H_2L^1$–$H_2L^5$ в ДМСО-$d_6$ (δ, м.д.)

| Соеди-нение | Гидразонная форма (А) | | | | Енгидразинная форма (Б) | | | | | | 5-гидроксипиразолиновая форма (В) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | $А_{Z1}$ | | $А_{E1}$ | | $Б_Z$ [а)] | | | $Б_E$ [а)] | | | | | |
| | $CH_2$ [б] | NH | $CH_2$ [б] | NH | C=CH [в] | $NH^1$ | $NH^2$ | C=CH [г] | $NH^1$ | $NH^2$ | $CH_2$ [д] | OH | HC=N |
| $H_2L^1$ | 4,08 | 11,18 | 4,06 | 11,56 | 5,86 | 11,34 | 10,85 | 6,08 | 9,40 | 10,28 | 3,04;3,24 | – | 7,06 |
| $H_2L^1$ | 4,07 | 11,00 | 4,04 | 11,14 | 5,84 | 11,42 | 10,54 | 6,07 | 9,38 | 10,15 | 2,98;3,20 | 6,65 | 7,12 |
| $H_2L^3$ | 4,09 | 10,80 | 4,03 | 11,08 | 5,85 | 11,48 | 10,51 | 6,04 | 9,35 | 10,09 | 2,96;3,19 | 6,65 | 7,15 |
| $H_2L^4$ | 4,10 | 10,82 | 4,02 | 11,07 | 5,84 | 11,37 | 10,58 | 6,02 | 9,34 | 10,08 | 2,95;3,18 | 6,62 | 7,14 |
| $H_2L^5$ | 4,10 | 10,78 | – | – | 5,86 | 11,55 | 10,59 | 5,99 | 9,27 | 9,27 | – | – | – |

Примечание: а) - $NH^1$ – сигнал протона при первом атоме азота, $NH^2$ – сигнал протона при втором атоме азота, связанном с ацильной группой. б) – дублет, J = 5,8-6,2 Гц. в) – дублет, J=7,6-8,0 Гц. г) – дублет, J=12,0-13,2 Гц. д) – АВ-система АВХ-фрагмента, $J_{AB}$ = 19-20 Гц. $J_{AX}$ и $J_{BX}$ = 2,0-2,5 Гц. Х-часть АВХ-системы, $J_{AX}$ и $J_{BX}$ = 2,0-2,5 Гц.

равновесие, обязанное различному расположению формильного протона и атома кислорода связи C=O относительно амидной части C–N ($E^1$,$Z^1$-изомерия). Анализ спектров ЯМР $^{13}C$ позволяет утверждать мнение о положении конформационного равновесия. 5-гидроксипиразолиновую форму (В) можно рассматривать как частный случай ацилгидразонной структуры. Как и следовало ожидать, сигнал формильного углерода находится в области более сильных полей, по сравнению с положением соответствующих сигналов $Z^1$-изомера. Отсюда следует и то, что в спектре ЯМР $^{13}C$ для $E^1$-изомера сигнал формильного углерода лежит в области слабого поля (158,00 м.д.), а сигнал атома углерода связи C=N резонирует в области более сильного поля (153,45 м.д.), на основании чего можно сделать вывод, что в растворе преобладающим является доля $Z^1$-изомера ($В_{Z1}$). Увеличение доли $Z^1$-изомера в растворе ДМСО-$d_6$ согласуется с результатами изучения конформационного равновесия формилгидразонов, согласно которым возрастание полярности растворителя благоприятствует $Z^1$-изомеру [2, 4, 8].

На выбранных примерах, органических соединений $H_2L^1$–$H_2L^5$, наблюдается целый спектр с набором различных по характеру равновесий: кольчато-цепное таутомерное равновесие между циклическим 5-гидрокси-пиразолиновым (В) и открытым таутомерами, в качестве которых выступает совокупность гидразонной (А) и енгидразинной (Б) форм, таутомерное равновесие между двумя линейными формами (А и Б), конфигурационное равновесие между геометрическими изомерами енгидразинной формы и конформационное равновесие между $Z^1$- и $E^1$-стереоизомерами гидразонной формы.

В таблице 2 приведены результаты определения таутомерного и стереоизомерного состава растворов соединений $H_2L^1$–$H_2L^5$ в ДМСО-$d_6$. Последовательное увеличение объема заместителя ацильной части приводит к увеличению доли енгидразинной формы (Б) за счет падения содержания гидразонной (А) и 5-гидроксипиразолиновой (В) форм. Наиболее чувствительной к стерическим требованиям указанного заместителя является циклическая форма (В), при введении *трет*-бутильного радикала эта форма вообще исчезает из таутомерного равновесия.

*Таблица 2.*

Таутомерный состав ацилгидразонов бензоилуксусного альдегида $H_2L^1$–$H_2L^5$ в растворе ДМСО-$d_6$ при комнатной температуре

| Соеди-нение | Гидразоная форма (А) | | Енгидразинная форма (Б) | | Циклическая форма (В) |
|---|---|---|---|---|---|
| | $А_{Z1}$, % | $А_{E1}$, % | $Б_{Z1}$, % | $Б_{E1}$, % | |
| $H_2L^1$ | 3 | 22 | 14 | 26 | 35 |
| $H_2L^2$ | 6 | 11 | 20 | 55 | 8 |
| $H_2L^3$ | 7 | 9 | 25 | 50 | 9 |
| $H_2L^4$ | 6 | 8 | 23 | 51 | 12 |
| $H_2L^5$ | 5 | – | 30 | 65 | – |

Таким образом, рассмотренный материал показывает, что варьируя структуру β-кетоальдегидной компоненты, природу применяемого растворителя в ряду ацилгидразонов β-кетоальдегидов можно реализовать различные таутомерные равновесия. Некоторые из них могут быть сложными, включающие до пяти, а иногда до шести определяемых методом ЯМР, медленных в шкале времени этого метода взаимно переходящихся друг в друга таутомерных, конфигурационных и конформационных форм. Вне зависимости от вида равновесия увеличение объема N-ацильного заместителя [$H<CH_3<C_2H_5<$*изо*-$C_3H_7$] уменьшает долю циклического изомера, он наиболее чувствителен к стерическим требованиям этого заместителя. А в случае *трет*-бутильного [*трет*-$C(CH_3)_3$] заместителя N-ацильного фрагмента 5-гидроксипиразолиновая форма (B) исчезает в растворе и в кристаллическом состоянии.

**Литературы:**


1. Современные проблемы синтеза и исследования органических соединений. Под ред. Р.Р. Костикова, Л.: изд-во Ленинградского госуниверситета.- 1990.- 156 с.
2. Умаров Б.Б., Турсунов М.А., Минин В.В. Комплексы с производными кетоальдегидов и кетоэфиров.- Ташкент.- Нишон-ношир.- 2016.- 350с.
3. Якимович С.И., Зерова И.В. Таутомерия в ряду ацилгидразонов формилпинаколина // Журн. орг. химии.- 1991.- Т. 27.- № 5.- С. 959–965.
4. *Tursunov M.A. Complexes of some 3d metals based on derivatives of ketoaldehydes and ketoesters, their structure and properties: Autoref.* diss… PhD. Bukhara.–BukhSU.– 2019. – 46 p.
5. Якимович С.И., Николаев В.Н., Куценко Э.Ю. Таутомерия в ряду ацилгидразонов бензоилацетона и бензоилуксусного альдегида // ЖОрХ. 1983.- Т. 19.- № 11.- С. 2333-2339.
6. Умаров Б.Б. Биядерные комплексы никеля(II) и меди(II) на основе бис-5-оксипиразолинов. Дис.…докт. хим. наук.- Ташкент.- ИУ АН РУз.- 1996.- 351 с.
7. Якимович С.И. Таутомерные превращения в ряду азотистых производных β-дикарбонильных соединений. Дис. … докт. хим. наук.- Ленинград.- ЛГУ.- 1988.- 415 с.
8. Парпиев Н.А., Умаров Б.Б., Авезов К.Г. Перфторалкилли β-дикетон ҳосилалари ва комплекс бирикмалари.- Тошкент.- “DIZAYN-PRESS” МЧЖ нашриёти.- 2013.- 340 б.
9. Якимович С.И., Николаев В.Н., Блохтина С.А. Таутомерия в ряду бензоилгидразонов алифатических β-дикарбонильных соединений. // ЖОрХ. 1984.- Т. 20.- № 7.- С. 1371-1378.

# КИМЁ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ ФАНИДАН ЭЛЕКТРОН ДАРСЛИК ЯРАТИШ ВА ДАРС ЖАРАЁНИДА ҚЎЛЛАШ

**Г.А. Худойназарова**
*БухДУ Кимё кафедраси доценти*
**С.Ғ.Бердиев**
*БухДУ кимё йўналиши I босқич магистранти*

Ўзбекистон мустақилликка эришгач, ҳаётимизнинг барча жабҳаларида бўлганидек, таълим тизимида ҳам ислоҳотлар йўлга қўйилдики, бунда тарбия-тарбия жараёнига замонавий ахборот технологияларини олиб кириш, таълимни компьютерлаштириш муаммоларини ҳал қилиш муҳим аҳамият касб этади. Бу муаммога ҳукуматимиз томонидан алоҳида эътибор билан қаралмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2019 йил 11 июлдаги ПФ-5763 сон “Олий ва ўрта махсус таълим сохасида бошқарувни ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармони ижросини таъминлаш мақсадида таълимнинг янги педагогик технологиялари ва ўқитиш услубларни жорий этишнинг халқаро ташкил этиш, ўқув режалари ва фан дастурларини такомиллаштириш, ўқитишнинг замонавий шакллари ва ахборот – коммуникатсия технология воситаларини жорий этган ҳолда ўқув жараёнини сифат жиҳатдан янгилаш бугунги куннинг долзарб муаммоларидан биридир”

Таълим тизимини тубдан ислоҳ этиш ўқувчи – ёшлармизнинг онги тафаккур ва дунёқарашини ўзгартириш, келажагига бўлган ишончини оширишнинг энг муҳим омили ва мустаҳкам асосига айлантиришда ўқитувчиларнинг ҳам ҳиссаси катта ҳисобланади.

Мазкур вазифаларнинг муваффақиятли ҳал этилишида яна бир омилнинг мавжудлиги, яъни, узлуксиз таълим тизими ходимлари, педагог – ўқитувчилар томонидан замонавий таълим технологияларининг моҳиятидан хабардорликлари ҳамда уларни таълим жараёнида самарали қўллай олишлари, шунингдек, таълим жараёнини ташкил этишга нисбатан ижодий ёндашувнинг қарор топиши муҳим аҳамият касб этади. Булардан кўринадики, ҳозирги пайтда таълимга ахборот технологияларини жадал татбиқ этиш, таълим жараёнини компьютерлаштириш етакчи педагогик-услубий ғояга айланган. Навбатдаги асосий вазифа ахборот технологиялари ва компьютерлаштириш бўйича эришилган натижаларни умумлаштириш йўли билан яхлит педагогик-услубий назарияни асослашдан иборат. Бу борада барча фанлар бўйича ўтиладиган дарс жараёнида ахборот технология ва компютер хизматидан фойдаланиш, шу орқали талаба - ёшларга фаннинг сермазмун қирраларини очиб бериш ҳамда улар онгида кимё соҳасига тегишли бўлган маълумотларни тўлалигича, бутунлигича қабул қилиши, мустақил мушоҳида юритишига келажакда олган билимларини ҳаётга татбиқ

қила оладиган мутахассислар тайёрлашга имкон яратиш фан ўқитувчиларнинг зиммасига улкан вазифаларни юклайди.

Кимё йўналиши 3 курс талабаларига Кимё ўқитиш методикаси фани ўтилади. Бу фаннинг ўқув режасида 30 соат маъруза, 22 соат амалий машғулот ва 20 соат лабортория машғулотларини ўтиш режалаштирилган бўлиб, бу фанни ўтишда давр талабига биноан электрон дарслик асосида модул системасида ташкил этиш мақсадга мувофиқдир. Шундай экан, электрон дарслик таркибий тузилишини модулли тизим асосида қуриш мақсадга эришишни осонлаштиради.

Қуйида кимё йўналиши 3 курс талабаларига Кимё ўқитиш методикаси фанидан модул яратилди ва талабаларнинг фойдаланишига топширилди.




Ўқув материаллари алоҳида ажратилган модулларда берилади. Электрон дарсликнинг модулли тузилмаси анъанавий ўқитиш тизимида қўлланиладиган модулли технологияга, дарслик ва ўқув қўлланмаларнинг модулли тузилишига асосланади. Модуллар автоном кўринишдаги ўқув материали бўлиб, у мазмуний ва метамаълумотлар қисмларидан тузилган. Модулли дарсликни бошқарув тизимини ҳосил қилиш учун модуллар орасида ўзаро боғланишлар таъминланиши керак. Модулли тузилма асосида дарслик ва ўқув қўлланмаларнинг ҳамда таълим жараёнида модулли ўқитиш технологиянинг қўлланилиши ўқитиш даражасини 30-60 %га, вақтини 20-

40% га камайтиришга ҳамда ўзлаштириш самарадорлигини оширишга эришиш мумкин. Мавжуд электрон дарслик модулли ва турли таркибий тузилишлари асосида электрон дарслик таркибий тузилмаси қуйидагича (1-расм).




*1-расм. Электрон дарслик тузилмаси*

Модулли тузилма асосида электрон дарслик яратиш талабаларнинг Кимё ўқитиш методикаси фан бўйича олган билимларини мустаҳкамлашга ёрдам беришини таъминлайди.

Талабалар дарс жараёнида ўқитувчининг маърузаси орқали кимё ўқитиш методикаси бўйича назарий билимларни олгач, шу мавзуга доир яратилган электрон дарслик ёрдамида маърузани қайта ўқиши, ўз билимини синаш мақсадида маъруза охирида берилган тест саволларига жавоб бериши ҳам мумкин. Агар етарли натижага эриша олмаса, маъруза матнни яна бир маротаба ўқиши ва тест саволларига жавоб бериши билан фанни ўзлаштиради. Маълумки, кимё йўналишлари учун назарий билимларни мустаҳкамлаш, олинган билимларнинг асоси сифатида лаборатория машғулотлари мухим ўринга эга. Кимё фанидан айни кунда лаборатория машғулотларини бажариш кўпчилик ҳолларда моддий-техник жиҳатдан анча қийинчилик туғдиради. Мавжуд муаммонинг ечими сифатида фанга доир электрон дарсликда амалий ва лаборатория машғулотларнинг ўтказилиш методикаси берилганлигидан фойдаланиб, ўз устида ишлаш имкониятига эга бўлишади. Шу билан бирга қизиқарли тажрибаларнинг бажарилиши бўйича ведиолар ҳам киритилган. Талабалар бу ведиоларни кўриб ўрганишлари ва дарс жараёнида бажариб кўришлари мумкин. Талабалар компютердан бажарадиган лаборатория машғулотини такрорий равишда кўриши ва амалий

кўникмаларини ривожлантириши, шу билан бир қаторда лаборатория машғулотнинг бориш жараёни бўйича тўлиқ тассавурга эга бўлиш имкониятларини қўлга киритади, бу эса лаборатория ишини тушунган ҳолда амалга ошириб юқори натижаларга эришади.

Демак, яратилган модулли тузилма асосида электрон дарслик талабаларнинг олган билимларини янада мустаҳкамлашга, умумлаштиришга, кимё фанини ўқитиш услубиёти тўғрисида мантиқий фикрлаш қобилиятини ривожлантиришга ҳамда назарий билимларни амалиётда педагог сифатида қўллай олиш имкониятларига пухта замин тайёрлайди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ўзбекистон Республикасининг Президенти Мирзиёев Ш.М. 2017 йил 7 феврал 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси. Тошкент. 2017 й. 7 февраль, ПФ-4947-сон
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 488 б.
3. Sh.Miziyoyev. Oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning tamoyillarini joriy etish chora – tadbirlari to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ma’rifat gazetasi, 2019 yil 13-iyul, №54
4. «2001-2005 йилларда компьютер ва ахборот технологияларини ривожлантириш», шунингдек, «Интернет»нинг халқаро ахборот тизимларига кенг кириб боришини таъминлаш дастурини ишлаб чиқишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарорлари. Халқ сўзи. 2001 йил, 24 май. № 101 (2663). 1-саҳифа.
5. 2002 йил 30 майда Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Компьютерлаштиришни янада ривожлантириш ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш тўғрисида»ги Фармони ва унинг ижросини амалга ошириш юзасидан Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 6 июндаги «2002-2010 йилларда компьютерлаштириш ва ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш дастури» тўғрисидаги Қарори. Халқ сўзи. 2002 йил, 1 июнь. № 116 (2944). 1-2-саҳифа


## САЛИЦИЛ АЛЬДЕГИДДИКАРБОН КИСЛОТА ДИГИДРАЗОНЛАРИНИНГ МОЛЕКУЛЯР МЕХАНИК ХОССАЛАРИНИ КВАНТ-КИМЁВИЙ ҲИСОБЛАШ


**С.Ф.Абдурахмонов**
*докторант,*
**Б.Ш.Ганиев**
*ўқитувчи,*

**Г.Қ.Холиқова**
*. магистрант,*
**Қ.Ғ.Авезов**
*доцент,*
**Б.Б.Умаров**
*профессор*

Бухоро давлат университети

Гидразидлар ва гидразонлар (ацил-, тиоацилгидразонлар, семи- ва тиосемикарьазонлар бошқалар) ҳамда улар асосида олинган комплекс бирикмалар гербицидлар, биологик фаол моддалар, катализаторлар, биостимуляторлар ишлаб чиқаришда қўлланилади. Шунингдек, дигидразидларнинг кўпчилиги металларни ажратишда ва уларни ўта тоза ҳолда олишда ҳам ишлатилади.[1-5]

Ушбу маълумотлар асосида биз илмий ишимизда ароматик о-оксикарбонил бирикмалар дигидразонларининг ҳосил бўлишидаги муҳим омиллардан бири боғларнинг ҳолати ва улар энергиясининг ўзгаришини ўз олдимизга мақсад қилиб қўйдик. Дигидразонлар ҳосил бўлиш жараёнида реакция дастлаб қайси элемент атомига кимёвий ҳужум билан бошланишини назарий жиҳатдан квант-кимёвий ҳисоблашлар натижасида ўргандик. Квант-кимёвий ҳисоблашларнинг Молекуляр Механика (ММ) воситалари ёрдамида молекулаларнинг тузилишини ва хоссаларини ҳисоблаш эмпирик усулларга киради. Молекулаларнинг параметрларини аниқлаш ва уларнинг хоссаларини олдиндан айтиш эмпирик маълумотлар асосида бажарилади, яъни кўп сондаги хар ҳил тажрибаларнинг натижаларини статистик қайта ишланади.

Молекулаларнинг геометрик ва физик-кимёвий параметрлари тўғрисида ҳулоса уларни ўхшаш кимёвий тузилишлар билан солиштириш асосида чиқарилади. Бундай ёндашиш молекулаларнинг кўпчилик хоссаларини (геометрия, стерик кучланиш, хар ҳил турдаги ичкимолекуляр таъсир турлари – кимёвий боғларнинг дипол-дипол таъсирлашуви, молекуланинг хар ҳил гуруҳларининг ўзаро ичкимолекуляр Ван дер Ваальс таъсирлашуви, молекуланинг ҳосил бўлиш иссиқлигини аниқлаш ва бошқа термодинамик параметрлар) анча тез ва аниқ баҳолашга имкон беради.

Мақолада келтирилган маълумотлар қуйидаги кетма-кетликда бажарилди:

- ММ воситалари ёрдамида молекула тузилишини тузиш ваоптимал-лаштириш.

- Молекула геометриясини таърифлаш: боғ узунлиги, молекула асосининг валентбурчаклари, молекула қисмларининг ўзаро жойлашишини аниқловчи икки қирра бурчаклар.

- Стерик кучланишга ва ичкимолекуляр таъсирга асосий ҳиссаларни ўрганиш. Сон турида келтириш ва бу ҳиссаларнинг энг аҳамиятлиларини тавсифлаш.

-Молекуланинг график 3 ўлчамли кўринишини келтириш [6-7].

Дастлаб квант-кимёвий ҳисоблашларнинг компьютердаги натижавий таҳлиллари Chem3D Pro 12.0 дастурининг меню сатридаги Calculations пункт менюсининг ММ2 параметрида Minimize Energy панелида молекуляр системанинг геометрияси ва Molecular Dynamics панелида молекуланинг динамик характерлари ҳисобланди.

Бунда Chem3D Pro 12.0 дастурида салицил альдегиднинг дикарбон кислота дигидразонлари молекулалари геометрияси оптимизацияланди ва эмпирик усулда молекуляр механикавий геометрик параметрлари ҳисобланди (*Calculations → MM2 → Minimize Energy →Run*). Квант-кимёвий ҳисоблашлар натижаси 1-жадвал асосида қуйидаги кўринишда шакллантирилди.

*1-жадвал*

**Chem3D Pro 12.0 дастурининг** Minimize Energy амали орқали олинган натижалар кўрсаткичлари

| Параметрлар | n=0 | n=1 | n=2 | n=3 | n=4 |
|---|---|---|---|---|---|
| Кенгайувчанлик | 1.2497 | 1.1661 | 1.2450 | 1.1803 | 1.3641 |
| Бурилувчанлиги | 7.1586 | 4.8520 | 5.8075 | 7.5116 | 6.0180 |
| Стерик-Бурилувчанлиги | -0.0424 | 0.0202 | 0.0563 | 0.0662 | 0.0906 |
| Торсион қиймати | -10.1939 | -12.7469 | -11.2126 | -8.1191 | -10.6144 |
| Non-1,4 VDW | -3.5622 | -5.2430 | -5.5395 | -13.3425 | -12.5981 |
| 1,4 VDW | 11.5860 | 11.2818 | 12.0231 | 13.0762 | 13.5514 |
| Диполь / Диполь | -8.1093 | -11.3825 | -10.1648 | -9.8120 | -12.1841 |
| Умумий энергияси | -1.9136 kcal/mol | -12.0523 kcal/mol | -7.7849 kcal/mol | -9.4393 kcal/mol | -14.3725 kcal/mol |

Салицил альдегиди ва о-оксиацетофеноннинг дикарбон кислота дигидразидлари билан конденсатланиш маҳсулотларини илгари олимлар таҳлил қилган [8] ва кўрсатилганидек оддий чизиқли гидразон шаклли лигандларнинг иккиланган ҳосиласи деб қараш мумкин:




А – дикетоншакл, В – кетон-енолшакл, С – бис-енолшакл.

n = 0 ($H_4L^1$); n = 1 ($H_4L^2$); n = 2 ($H_4L^3$); n = 3 ($H_4L^4$); n = 4 ($H_4L^5$);

Синтезқилинганлиганддаиккитагидразонфрагментиметиленкўприкчаларибиланбоғланган. Эритувчинингтабиативареакционмуҳит (pH) габоғлиқҳолдабундайлигандлардикетон – А, кетоенол – В ваенол – С шакллардабўлишимумкин[8].

Модда таркибидаги ҳар бир элемент атоми атрофидаги электрон зичлик қийматлариниҳисоблаш бу Хюккел методида Chem Office 2016 дастурида амалга оширилади. ароматик о-оксикарбонил бирикмалар дигидразонларинин реакцияда кимёвий ҳужум кетиши мумкин бўлган эҳтимоллиги ўрганилди [9]. Салицил альдегиднинг малон кислота дигидразонида қуйидаги атомлар C(8)-O(28), N(25)-H(34), O(28)-H(34) орасида тасодифий электрон ўтишлар содир бўлиши аниқланди.



а



б

| | |
|---|---|
| <br>с | <br>д |
| <br>е | Молекулаларнинг график<br>3 ўлчамли кўриниши:<br>а)0<br>б)1<br>с)2<br>д)3<br>е)4 |

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, биз ўрганаётган гидразонлар асосан 3d металлари билан гомо- ва гетероядроли комплекслар ҳосил қилиш хоссалари ҳам айнан уларнинг молекуласидаги боғлар бурчаги ва торцион қийматига боғлиқлиги, дикарбон кислоталарда -$CH_2$- гуруҳининг сони ортиши билан улардаги боғларкенгайувчанлиги ва бурилувчанлигига боғлиқлиги аниқланди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Умаров Б.Б .,Парпиев Н.А., Убайдуллаева М.А., Новые хелатируюшиелиганди на основе дигидразонов салицилового альдегида// Тез.дакл .Международного симпозиума по аналитической химии-5-9 июня 1995-Термиз-Самарканд-Ташкент.-С.477.
2. Луков В.В., Богатырева Е.В., Коган В.А . и др. Гомо и гетеробиядерныеметоллхелатыекомплеасы меди и никеля с арилгидразонами салицилового альдегида и его замещенных производных // журн. неорг. химии. -1991. –Т. 36. –N9. –С. 2310-2316.
3. Луков В.В., Коган В.А., Левченков* С.И. и др.Кристаллические структуры и особенности физико –химическах свойств новых метало хелато в меди (II) с ацилгидразонами замещенных производних салицилового альдегида //журн.неорг. химии. -1998. –Т. 3. –N3. –С. 421-426.
4. Шульгин В.Ф., Сарнит Е.А., Ларин С.М. Координационные соединения меди (II) с бис-(салициледен) гидразонами дикарбоновых кислот // Коорд.химия.- 1998 - Т.24.- N3. – С.222-227.

5. Левченков С.И., Луков В.В., Коган В.А. Физико- химическое исследование новых гомо- и гетерометаллическыхбиядерных комплексов меди (II) с ацилгидразонамидикарбонильных соединений // Корд.химия.- 1996 - Т.22.- N7. – С.557-560.
6. Соловьев, М.Е. Компьютерная химия / М. Е. Соловьев, М. М. Соловьев. – М. : Солон-Пресс, 2005. – 536 с.
7. Цирельсон, В. Г. Квантовая химия: молекулы, молекулярные системы и твердые тела : учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по хим.-технолог. направлениям и специальностям. – М. : БИНОМ. Лаборатория знаний, 2010. – 496 с. Режим доступа : http://www.biblioclub.ru/book/95498/
8. Якимович С.И. Таутомерные превращения в ряду азотистых производных β-дикарбонильных соединений. Дис. … докт. хим. наук.- Ленинград.- ЛГУ.- 1988.- 415 с.
9. ЭгамбердиевТ.Р., ЕшимбетовА.Г. Айрим хиназолин алкалоидларининг электрон ва энергетик дескрипторларини DFT усулида ҳисоблаш. Современное состояние и перспективы наукио функциональных полимерах. Материалы научно-практической конференции профессорско-преподовательскогосостова и молодых ученых. 2020 йил. 403 б.

## КОМПЛЕКС БИРИКМАЛАРНИНГ БИОЛОГИК ФАОЛЛИГИ

**С.Ё.Мардонов, Г.Г.Садуллаева**
*БухДУ I босқич магистранти*
**М.А.Турсунов**
*БухДУ доценти*

Ўсимликларни ҳимоя қилиш ташкилотининг ҳозирги замон талабларига жавоб берувчи экинларни касалликлари билан курашиш тадбирларини амалга ошириш бўйича қилинаётган тадқиқот ишланмалари ҳосилнинг нобудгарчиликка йўл қўйилмаслигини, минимал моддий харажатларда маҳсулот сифатининг яхшиланишини таъминлаши зарур. Бу мақсадга турли замбуруғ, бактериал ва вирусли касалликларнинг йўқотилишини таъминловчи рационал усуллар ва ҳимоя воситаларининг интеграцияси асосида эришиш мумкин.

Охирги йилларда ўзбек олимлари турли касалликларга қарши микроэлемент сақлаган барқарор комплекс бирикмалар кўринишдаги стимуляторларни синтез қилдилар [1-5]. Улар уруғларнинг унувчанлиги, ўсимликлар мевасини эрта пишарлиги ва ҳосилдорлигини оширишда катта аҳамият касб этади ва кучли таъсир кўрсатувчи пестицидлар ҳам ҳисобланди. Бу йўналишда ўтказилган бир қатор илмий тадқиқотлар асосида аниқландики, координацион бирикмаларнинг стимуляторлик хоссаси металл табиатига, лиганднинг координацияланиш усулига, шунингдек комплекслар-

нинг кимёвий таркиби ва геометрик тузилишига боғлиқ бўлади [3-5]. β-Дикарбонил бирикмалар ҳосилаларининг кенг таъсир доираси ва юқори биологик фаоллиги уларга бўлган қизиқишни оширади. Бу бирикмалар таркибидаги турли металл ионлари ва биофаол элементлар ҳисобига улар ўсимликларнинг баъзи касалликларга бўлган чидамлилигини беради [3-6].

Биз томондан Ni(II), Zn(II) ва Cu(II) ацетатларнинг аммиакли сув эритмаси билан эквимоляр нисбадаги $H_2L^1$-$H_2L^5$ лигандларнинг спиртдаги эритмаларининг ўзаро таъсирлашувидан ML·A ($M^{2+}$=Ni, Zn ва Cu; A=$NH_3$, Py) (L-икки карра депротонланган лиганд қолдиғи) таркибли металл комплекс бирикмалар синтез қилинди. Элемент таҳлил, бирикмаларнинг олинган IQ- ва ЯМР-$^1$H спектроскопияси параметрлари ҳамда PCA маълумотларига мувофиқ, ясси-квадратли полиэдр тузилишда ёзишимиз мумкин [8-10]:




R=n-$CH_3OC_6H_5$, $R^1$=*o*-$OHC_6H_5$, ($NiL^1·NH_3$); КА-1 препарат.
R=$R^1$=$C_6H_5$, ($ZnL^2·NH_3$); КА-2 препарат.
R=$R^1$=$C_6H_5$,($CuL^2·NH_3$); КА-3 препарат.




R=$C_2H_5$, $R^1$=$C_6H_4X$-*n*, X=$NO_2$ ($NiL^3·3Py$; КЭ-1 препарат.
R=$CH_3$, $R^1$=$C_6H_5$ ($ZnL^4·NH_3$); КЭ-2 препарат.
R=$C_2H_5$, $R^1$=$C_6H_4X$-*n*, X=$OCH_3$ ($CuL^5·NH_3$); КЭ-3 препарат.

Аммиакли комплекс бирикмалар сувда ёмон органик эритувчиларда яхши эрийди. Никел(II) нинг аммиакли комплекс бирикмаларидан $NiL^3·NH_3$ минимал миқдордаги пиридинда эритилганда $NiL^3·3Py$ таркибли комплекс бирикма олинди [10-13].

Бугунги кунда Республикамизда ғўзанинг ўсиши ва ривожланиши учун стимуляторлар сифатида Г-13, ТЖ-85, Т-86, П-4 каби препаратлар кенг қўлланилади. Уларнинг қўлланилиши натижасида ўсимликнинг замбуруғ, бактериал ва вирусли касалликларга бўлган чидамлилигини оширади, шунингдек бир вақтнинг ўзида ҳосилнинг етилишини тезлаштиради, тола сифатини яхшилайди ва ҳосилдорликни оширади [6-7].

Таъкидлаш жоизки, кетоальдегидлар ва кетоэфирларнинг баъзи ҳосилалари фунгицидлик хоссаларини намоён қилади. Биз ўсимликлар стимуляторлари сифатида металларнинг ацилгидразонлари билан баъзи комплексларини тадқиқ қилдик. Биз томондан синтез қилинган КА-1 ($NiL^1·NH_3$), КА-2 ($ZnL^2·Py$), КА-3 ($CuL^2·NH_3$), КЭ-1 ($NiL^3·3Py$), КЭ-2 ($ZnL^4·NH_3$) ва КЭ-3 ($CuL^5·NH_3$) препаратларнинг эритмалари биологик фаолликни намоён қилиши аниқланди.

Синтез қилинган препаратларнинг биологик фаоллигини аниқлаш мақсадида Жондор туман “Хатича буви Жондорий” фермер хўжалиги далаларида тажрибалар ўтказилди.

Назорат ва тажриба майдонларида бир хилда агротехник чора-тадбирлар олиб борилди. Кузатувлар натижаларига кўра, чигитларнинг унувчанлиги

таҳлил қилинганда, назорат майдонига ва эталон П-4 билан ишлов берилган майдонлардаги чигитларнинг унувчанлигига нисбатан препаратлар билан ишлов берилган чигитларнинг униб чиқиши (1- жадвал) юқори эканлиги қайд этилди.

*1-жадвал.*

Олинган препаратларни чигитнинг униб чиқишига таъсири ва натижалари

| Майдон | Чигитининг унувчанлик динамикаси | | | | | | Унувчанликни ошиши, % | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 8-кун | | 10-кун | | 12-кун | | Назорат вариантига нисбатан, % | Эталон П-4 га нисбатан, % |
| | шт. | % | шт. | % | шт. | % | | |
| Назорат | 8 | 15,5 | 31 | 53,4 | 48 | 82,8 | | |
| Эталон П-4 | 15 | 25,9 | 38 | 65,5 | 51 | 87,9 | | |
| КА-1 | 17 | 29,3 | 43 | 74,1 | 54 | 93,2 | 10,4 | 5,3 |
| КА-2 | 18 | 31,0 | 44 | 75,9 | 55 | 94,7 | 11,9 | 6,8 |
| КА-3 | 19 | 32,8 | 46 | 79,3 | 56 | 96,3 | 13,5 | 8,4 |
| КЭ-1 | 18 | 31,0 | 44 | 75,9 | 54 | 94,0 | 11,2 | 6,1 |
| КЭ-2 | 19 | 32,8 | 45 | 77,6 | 55 | 95,1 | 12,3 | 7,2 |
| КЭ-3 | 20 | 34,5 | 47 | 81,0 | 56 | 96,6 | 13,8 | 8,7 |

Тажриба майдонида чигитларни униб чиқиши, биомассанинг ўзгариши, илдиз системасининг кучли ривожланиши натижасида ғўза ниҳоллари жадал ўсиб, шохланиши ҳамда ҳосил элементларининг шаклланиши назорат майдонидаги ўсимликларга нисбатан юқори эканлиги тасдиқланди (1-жадвал).

Ҳисобга олинадиган кўсакларнинг энг кичиги 20-25 кунлик бўлиши лозим. Буни нормал етилган кўсакка таққослаб тахминан айтиш мумкин. Кўсаклар морфологик жиҳатдан одатда 30 кунлик бўлганда тўлиқ етилади. Тажриба майдонида чигитларнинг униб чиқиши, биомассасининг ўзгариши, илдиз системасининг кучли ривожланиши аниқланди. Ғўза ниҳоллари жадал ўсиб, шохланиши ҳамда ҳосил элементларининг шаклланиши назорат майдонидаги ўсимликларга нисбатан юқори эканлиги кузатилди.

Фенологик кузатувлар назорат вариантига нисбатан тажриба майдонида (ўртача ҳисобда) 9 июнь куни ўсимликнинг бўйи 2,9 см; чин барглар сони 0,45 тага; 9 июль куни ўсимликларни бўйи 3,1 см; ҳосил шохлар сони 0,85 тага; 9 август куни ўсимликларнинг бўйи 3,9 см, ҳосил шохлар сони 1,63 тага, кўсаклар сони 1,15 тага, кўсакларнинг очилиши 1,22 тага ортганлиги кузатилди. Мавсум якунида ҳосилдорликни аниқлаш мақсадида ўтказилган ҳисоб-китоб натижалари 3,6 ц/га ошганлигини кўрсатди (2-жадвал).

Препаратлар таркибида ўсишни тезлаштирувчи микроэлементлардан $Ni^{2+}$, $Cu^{2+}$ ва $Zn^{2+}$ ионлари борлиги сабабли чигитни униши ва ғўза ниҳол-лари илдиз ва тана тизимларининг ривожланишига ижобий таъсир этиб, стимуляторлик хоссасини намоён этди.

*2-жадвал.*

Ғўза ўсимлигини фенологик кузатувлар назорат вариантига нисбатан тажриба майдонида (ўртача ҳисобда)

| Препа-ратлар | Кунлик фенологик кузатувлар | | | | | | | | | | Ҳосил-дор-лик (ц/га) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 9-июнь | | 9-июль | | 9-август | | | 9-сентябрь | | | |
| | Ўсимлик бўйи, см | Чин барглар сони, дона | Ўсимлик бўйи, см | ҳосил шохлар сони | Ўсимлик бўйи, см | ҳосил шохлар сони | Кўсаклар сони, дона | Кўсаклар сони, дона | Кўсаклар-нинг очилиши, дона | Чаноқда-ги пахта толасининг массаси, г | |
| Назорат | 11,8 | 3,2 | 41,1 | 6,7 | 81,8 | 10,3 | 7,1 | 8 | 4,3 | 6,7 | 31,2 |
| П-4 | 13,4 | 3,4 | 43,1 | 7,1 | 84,2 | 10,5 | 7,5 | 8,4 | 4,8 | 6,9 | 32,4 |
| КА-1 | 13,8 | 3,4 | 43,7 | 7,3 | 84,8 | 10,9 | 7,9 | 9,0 | 5,3 | 7,0 | 34,6 |
| КА-2 | 14,6 | 3,7 | 43,9 | 7,4 | 85,7 | 11,8 | 8,2 | 9,13 | 5,5 | 7,0 | 35,1 |
| КА-3 | 15,3 | 3,8 | 44,4 | 7,7 | 86,2 | 12,1 | 8,5 | 9,29 | 5,7 | 7,1 | 34,7 |
| КЭ-1 | 13,9 | 3,5 | 43,8 | 7,5 | 84,9 | 11,9 | 8,3 | 8,98 | 5,4 | 6,9 | 33,8 |
| КЭ-2 | 14,9 | 3,6 | 44,3 | 7,6 | 85,8 | 12,3 | 8,4 | 9,18 | 5,5 | 7,1 | 35,2 |
| КЭ-3 | 15,7 | 3,9 | 44,9 | 7,8 | 86,3 | 12,6 | 8,7 | 9,33 | 5,7 | 7,2 | 35,6 |

Тажриба кучсиз шўрланган, сурункали пахта экилиб, тупроқда вильт касаллигининг споралари кенг тарқалган 803-контурнинг 1 гектар майдонида ҳам ўтказилди. Ғўзанинг шоналаш босқичида ҳар гектар майдонга 200 г ҳисобидан $Ni^{2+}$, $Cu^{2+}$ ва $Zn^{2+}$ микроэлементлар тутган препаратлар азотли ўғитлар билан бирга 10-12 см чуқурликда тупроққа солинади. Бу металл ионлари илдизларнинг физиологик фаоллигини ошириб, ғўзага илдиз орқали озиқ моддаларнинг киришини ва уларнинг ривожланишини кучайтиради. Ғўза 3-4 та барг чиқарганда ва шоналаш босқичида иккинчи марта ҳам бу препарат эритмалари пуркалди ва ишончли натижалар олинди. Ғўзага озиқ моддалар бундай усулда пуркалганда, унинг гуллаши, кўсак тугиши тезлашиб, ҳосил элементларининг тўпланишига ижобий таъсир этди. Кузатув ва таҳлиллар ЎзР ПИТИ нинг услубий қўлланмаси асосида олиб борилди.

Назорат вариантида ўртача 18 % ғўза ниҳоллари вильт билан касалланган бўлса, препаратлар қўлланилган майдонда эса чигитни униши тезлашиб, илдиз системасининг кучли ривожланиши натижасида мос равишда: 7,8; 6,4; 4,8; 7,1; 5,9 ва 4,4 % ни ташкил этди (касалликни 10,2; 11,6; 13,2; 10,9; 12,1 ва 13,6 % га камайтиришга эришилди) ва ҳосилдорлик назорат вариантига нисбатан мос равишда 2,44; 2,77; 3,16; 2,41; 2,89 ва 3,25 центнер гектар ҳисобида ортиши кузатилди.

Натижада чигитнинг унувчанлигини, ғўза ўсимлигининг ўсишини тезлаштирувчи ва фузариоз вильт касалликларидан ҳимояловчи препаратлар яратиш имконини берди.

## Фойдаланилган адабиётлар:

1. А.С. № 1460957. МКИ$^2$ С 07 Г3/06, Ф01 № 55/02. Тартратадиаква-цинкгидрат, проявляющий свойства стимулятора роста хлопчатника

// Азизов Т.А., Исмаилова Г.Х., Тохри Б.А., Рахматов И., Якубов Х.Г., Алиев А.Т., Парпиев Н.А., Белоусов М.А.

2. Абдугафуров И.А. Производные 1,2,3-триазолов на основе пропаргиловых соединений. Синтез, химические свойства и биологическая активность: Дис–я… докт. хим. наук.– Ташкент: НУУ имени Мирзо Улугбека.- 2006.- 281 с.
3. Азизов О.Т. Комплексные соединения пальмитатов, олеатов, стеаратов ряда 3d-металлов с некоторыми амидами: Дис-я ... канд. хим. наук.– Ташкент: НУУ имени Мирзо Улугбека. 2006.- 131 с.
4. Джуманазарова З.К. Синтез, строение и свойства однородных и смешаннолигандных координационных соединений нитратов магния и кальция: Дисс….доктора философии (PhD) по химическим наукам.- Т.: НУУз.- 2018.- 113 с.
5. Авезов К.Г. Синтез, строение и свойства комплексных соединений Ni(II) и Cu(II) на основе производных фторированных β-дикетонов: Дисс…. доктора философии (PhD) по химическим наукам - Т.: НУУз.- 2018.- 120 с.
6. Абдуалимов Ш.Ҳ., Абдуллаев Ф., Қулмуротов Б., Гаппаров Б. Узгуми стимуляторини чигитлар униб чиқиши ва пахта ҳосилига таъсири // “ЎзР агросаноат мажмуаси тармоқларида инновацион бошқарув фаолиятини модернизациялаш ва ривожлантириш муаммолари” илмий-амалий конферен-цияси материаллари.- Т.: ТДАУ.-2013.- 111-114 бетлар.
7. Список химических и биологических средств защиты растений, разрешенных для применения в РУз.- Т.- 2003.- С.184-186.

## YER OSTI SUVLARIDAGI IONLAR MIQDORINI SUVNING ISTEMOLGA YAROQLILIGA TA’SIR DARAJASINI TADQIQOTI

**H.Ataullayev**
*BuxDU I bosqich magistrtanti,*
**M.S.Sharipov**
*BuxDU Kimyo kafedrasi dotsenti*

Qadim qadimdansuvni o`rganib, u bilan turli tajribalar olib borilgan. U haqida turli ertak va hikoyalar, ilmiy ishlar yozilgan. Hattoki muqaddas’’Qur`oni karim”da ham bir necha oyatlarda suv haqida aytib o`tilgan. O`rta osiyo xalqlari xususan Buxoro mintaqasida yashagan odamlar asosan daryo va quduq suvlaridan foydalanib kelishgan. Har bir tarixiy me`moriy obida, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar yaqida quduq va hovuzlarning bo`lishi buni tasdiqlaydi.

Iste`mol va xo`jalik ishlarida turli usullar bilan suv xususiyatlari yaxshilangan. Masalan xalq orasida cho`l o`simliklari kulidan ko’p foydalanilgan. Kulni bo`z matodan tikilgan xaltachaga solib, suvda qaynatishgan va qaynagan

suvdan kir kiyimlarni yuvishda, idish tovoq tozalashda ishlatilgan. Keyinchalik go`za o`simligi poyasi kulidan foydalanishgan. Bu usuldan hozirda ham foydalanib kelinadi.

Ilmiy o`rganishlar shuni ko`rsatdiki, kul tarkibidagi ishqor suvni yumshatgan va sifatli kir va idish tovoq yuvilgan. Bugungi kunga kelib kir yuvish vositalari , sovun , sodalar va turli xil gellar “ xaltachaga solingan kul “o`rnini egalladi. Ammo bu narsalar yuqoridagi muammolarga yetarlicha yechim bo`la olmadi .

Dunyoning 1/3 qismi suvliklardan iborat . Ammo uning ma`lum bir qismigina foydalanishga yaroqli . Bu suvlarning katta qismini okean va dengiz suvlari tashkil etadi .Hozirda yurtimizda asosan daryo va yer osti suvlaridan foydalaniladi . Suvga bo`lgan talabni hisobga olib biz yerosti suvlarinidan foydalanish texnologiyalarini , tozalash va analiz usullarini yaratib muammoga bir muncha yechim topa olamiz .

**Yer osti suvlari nima ? Oddiy suvlardan qanday farqi bor ?** Ushbu savollarga yechim topishga harakat qilib ko`ramiz . **Yer osti suvlari** - Yer po‘stining yuqori qismidagi tog‘ jinslari qatlamlarining g‘ovak bo‘shlikdarida joylashgan suyuq, qattiq (muz), bug‘simon holatdagi suvlar. Yer osti suvlari umumiy suv resurslaring bir qismi bo‘lib , suv ta’minoti va sug‘orish manbai sifatida xalq xo‘jaligi uchun katta ahamiyatga ega. Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ ahvoli grunt suvlarining holati bilan belgilanadi. Yer osti suvlarini **gidrogeologiya** fani o‘rganadi. Suv molekulyar kuchlar tutib turadigan bog‘langan hamda og‘irlik kuchi yoki bosim farqi ta’sirida harakatda bo‘ladigan gravitatsion yoki erkin holatda bo‘lishi mumkin.

**Tabiiy suv**- tarkibida erigan tuzlarga bog`liq . Bu minerallanganlik darajasi deyiladi. Mineralizatsiya suvning zichligibilan bog`liq o`zgaradi . Suvning zichligi oshib borgan sari mineralizatsiya ham oshib boradi. Minerallanganlik darajasiga qarab suvlar quyidagi turlarga bo`linadi.

*1-jadval.*

Suvlar minerallanganlik darajalari

| | | |
|---|---|---|
| 1 | Chuchuk suvlar | 1g/l gacha |
| 2 | Sho`rroq suvlar | 1-25 g/l gacha |
| 3 | Sho`r suvlar | 25 g/l dan ortiq |

Tabiiy suvlarning tarkibidagi tuzlarning umumiy miqdori **$Na^+$ ,$K^+$, $Ca^{2+}$,$Mg^{2+}$**kationlari **va $HCO_3^{2-}$, $SO_4^{2-}$, $Cl^-$ ,$CO_3^{2-}$**anionlariga bog`liq. Har bir ionning miqdori suvning xususiyatlarini o`zgartiradi . Bu ionlar suvning mineral tarkibining asosiy qismini tashkil etadi. Asosiy ionlar suvning kimyoviy turini aniqlab beradi yoki uning makrokomponentlari deyiladi.Quyida ular bilan tanishamiz.

**Xlorid ionlari ($Cl^-$)-** kuchli migrasiyaga moyil bo'lib u harakatlantiruvchi harakterga egadir. Xlorid ionlari qiyin eruvchi minerallar hosil qilmaydi, kolloid sistemalari bilan adsorbsiyalanmayli (tropik hududdagi qizil tuproqli erdan bo'lak) biogen yo'li bilan to'planmaydi. Natriy, magniy va kalsiyning xlorli tuzlarini eruvchanligi juda yuqoridir. Shu sababli xlorid ionlari hech qanday

to'siqsiz suv orqali migrasiyalanadi. U barcha suvlarda uchraydi. Suv mineralizasiyasining oshishi xlorid ionlarining absolyut va nisbiy oshishini ta'minlaydi. Agar o'ta minerallashgan suv bo'lsa undagi xlor ionlari boshqa ionlarga nisbatanbirinchi o'rinni egallaydi. Tabiiy suvlarga xlor ionlarining kelib tushishi manbai quyidagilardir:

- Tog' dinslarining xlorli minerallari (galit, NaCl silvin KCl va boshq.)- vulqonlardan chiqadigan chiqindi.
- Yog'ingarchiliklar - sanoat korxonalar va xo'jalikdan chiqadigan chiqindi suvlar. Asosan Gazli gaz konlari quduqlaridan chiquvchi suvlar tarkibida xlorid ionlari ko`p bo`ladi .

**Sulfat ionlari ($SO_4^{2-}$)**-ham harakatlanuvchi bo'lib ammo xlorid ionlariga nisbatan biroz passivroqdir. Tabiiy suvlarda sulfat ionlarining bo'lishi suvdagi kalsiy (Ca 2+ ) ionlarining qatnashishi bilan limitlanadi va nisbatan kam eruvchi $CaSO_4$ hosil qiladi. Bunga asosiy sababi sulfat hosil qiluvchi bakteriyalardir va ularning faoliyati organik moddalar bor joyda rivojlanadi.

Yer usti va er osti suvlari uncha chuqur qoplamga ega bo'lmasa ularda albatta sulfat ionlari bo'ladi. Bu suvlarning juda chuqur qatlamlarida kislorod bo'lmaganligi sababli sulfatsiz suv bo'ladi. Suvda sulfatning bo'lishida cho'kindi jinslar sababchidir. Bu jinslarning tarkibini gips va angidridlar tashkil etadi. Unda tashqari sulfat ionlarining hosil bo'lishida vodorod sulfidining ($H_2S$) oksidlanishi ham katta rol o'ynaydi. Cho'l sharoitlarida esa yuza va er osti suvlarining sulfat ionlari bilan boyishida tarkibida galitdan tashqari gips ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$) ning ishqorlanishi asosiy rol o'ynaydi.

**Gidrokarbonat ( $HCO_3^{2-}$) va karbonat ionlari ($CO_3^{2-}$)**- tabiiy suvlarning kimyoviy tarkibini tashkil etuvchi qismidir. Bu ikkala ionlar, asosan ko'mir kislotasidan ajralib chiqadi.

$H_2CO_3 \leftrightarrow H^+ + HCO_3 \leftrightarrow 2H^+ + CO_3^{2-}$

Bu ionlar karbonat sistemasining kimyoviy muvozanatini hosil qilib tabiiy suvlar uchun katta ahamiyatga egadir. Karbonat ($CO_2$ ) gidrokarbonat ($HCO^-_3$ ) va karbonat ($CO^{2-}_3$ ) ionlarining eritmada taqsimlanishi pH qiymatibilanbelgilanadi. Agar tahlil qilsak suvdagi pH<5 da gidrokarbonat ionlari ($HCO_3^-$ ). ning bo'lishi nolga intiladi. Neytral va ishqoriy suvlarda gidrokarbonat ionlarining ko'pligi kuzatiladi. Agar pH>8 bo'lsa karbonat ($CO_2^{-3}$ ) ionlari hosil bo'lishi kuzatiladi va ular ishqoriysuvlarda hukmronlik qiladilar. Gidrokarbonat ionlari barcha suvlarda uchraydi. Mineralizasiyasi kam bo'lgan suvlarda ko'proq uchraydi.

Gidrokarbonatning to'planishi kalsiyning qatnashishi bilan limitlanadi. Agar tabiiy suvlarda Ca + (kalsiy) ioni ko'proq bo'lsa gidrokarbonat $HCO^-_3$ miqdori uncha ko'p bo'lmaydi. Yer osti suvlarida uglerod ikki oksidi ($CO_2$ ) ko'proq bo'lsa gidrokarbonat konsentrasiyasi o'ta yuqori bo'ladi. Karbonat ioni ($CO_3^{2-}$ ) tabiiy suvlarda juda kam bo'ladi. Vodoprovod va uncha chuqur bo`lmagan quduq suvlarida gidrokarbonat ionlari ko`p bo`ladi .

**Natriy ionlari ($Na^+$ )** kationlar orasida tarqalishi bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. Natriyning barcha tuzlari yuqori darajada erish qobiliyatiga ega bo'lib uning ionlari ham yuqori migrasiya xususiyatiga ega bo'lib xlordan so'ng ikkinchi

o'rinni egallaydi. Juda past mineralli suvlarda natriy ioni qatnashishi bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. Yuqori darajali minerallashgan suvda natriy ionining miqdori oshib boradi. Dengiz suvlarida kationlarning 84% ni tashkil qiladi.

Yer qa'rida $Na^{+}$ ning miqdori uni massasining 2,5% tashkil etadi. Asosiy manba sifatida yerdan otilib chiqqan tog' jinslarining emirilishidan hosil bo'ladi (granit va boshqalar).

**Kaliy ioni (K + )** o'zining kimyoviy tarkibi va miqdori bo'yicha natriy ioniga juda yaqin. Kaliy ham natriy ioni kabi asosiy anionlar bilan oson eruvchi birikmalar (KCl, $K_2SO_4$, $KCO_3$, $KHCO_3$ ) hosil qiladi. Ammo kaliy ionlari atmosfera yog'in suvlaridan tashqari barcha tabiiy suvlarda qatnashadi. Odatda kaliy ionlari natriy ionining 4-10% ni tashkil qiladi. Sababi u juda past migrasiya xususiyatiga egadir.

**Kalsiy ($Ca^{2+}$ ) - ionlari** ohaktosh, megrel va boshqa jinslarda 10% (ba'zan 40%) tashkil etadi. Kalsiyning tirik moddalardagi miqdori 0,5% dan iboratdir. Bu element biologik jarayonlarda juda faol qatnashadi. Organizmlarning hayot faoliyati to'xtashi bilan kalsiy mineral shakliga o'tib tuproqqa o'tadi. Shuning uchun ham tuproq qorishmalari kalsiy ionlaridan iboratdir. Kuchsiz minerallashgan suvlarda asosan kalsiy hukmronlik qiladi. Suvning mineral tarkibi oshishikalsiyni kamayishiga olib keladi. Kalsiyni tabiiy suvlarda hosil bo'lishi manbai sifatida ohaktosh, dolomit va ohaktosh sementi tog' jinslari bo'lib ular suvda quyidagi sxema bo'yicha eriydilar.

$$CaCO_3 + CO_2 + H_2O \leftrightarrow Ca(HCO_3)_2 \leftrightarrow Ca^{2+} + 2HCO_3^{2-}$$

Suvdagi kalsiyning juda ko'p qismi gipsning erishidan hosil bo'ladi va yer qa'rida keng tarqalgandir. Barcha holatlarda kalsiy ioni suvda $HCO_3^{2-}$ va $SO_4^{2-}$ – anionlari bilan birgalikda uchraydi.

**Magniy ionlari** - o'zining kimyoviy xossasi bo'yicha kalsiyga juda yaqin va o'xshashdir. Ammo migratsiya bo'yicha bir biridan farq qiladi. Biologik aktivligi kalsiyga nisbatan ancha pastdir. Magniy ionlari deyarli barcha tabiiy suvlarda uchraydi. Biroq hukmron bo'lib qatnashmaydi. Odatda past mineralli suvda kalsiy ko'p bo'lsa yuqori mineralli suvda natriy ko'p bo'ladi.

Magniyning tabiiy suvlardagi konsentrasiyalashuviga asosiy sabab magniyning sulfat va biokarbonatlarning ($MgSO_4$ , $Mg(HCO_3)_2$ ) kalsiynikiga nisbatan ($CaSO_4$ $Ca(HCO_3)_2$ ) tez eruvchanligidir. Magniyning suvda bo'lish manbai asosan dolomit, mergel, gabbro, dunit, peridodit va boshqa jinslarning erishi va emirilishi natijasidir.

Yuqorida keltirilgan ionlar laboratoriyalarda maxsus ishlab chiqilgan analiz usullari yordamida aniqlanadi va miqdoran hisoblanadi. Ana shu analiz usullari yordamida hududimizdagi (Buxoro viloyat Kogon tumani) ariq va quduq suvlarini tekshirib solishtirganimizda quyidagicha ma`lumotlarga ega bo`ldik.

*2-jadval.*

Ariqlar suvlari tarkibida ba’zi ionlar miqdori (qattiqligi – 12-14 mg/l)

| $Cl^-$ | $HCO_3^-$ | $CO_3^{2-}$ | $SO_4^{2-}$ | $Ca^{2+}$ | $Mg^{2+}$ | $Na^+$ | M/d |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| mg/l | mg/l | mg/l | mg/l | mg/l | mg/l | mg/l | mg/l |
| 200-220 | 590-610 | 48-60 | 340-360 | 150-170 | 30-45 | 290-310 | 1650-1900 |

3-jadval.

Quduq suvlari tarkibida ba’zi ionlar miqdori (6 metr chuqurlikdan olingan )

| $Cl^-$ | $HCO_3^-$ | $CO_3^{2-}$ | $SO_4^{2-}$ | $Ca^{2+}$ | $Mg^{2+}$ | $Na^+$ | M/d |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| mg/l | mg/l | mg/l | mg/l | mg/l | mg/l | mg/l | mg/l |
| 260-287.2 | 730-744.4 | 102-106 | 470-485.1 | 250-260 | 127-130 | 245-260 | 2200-2400 |

Izoh eslatma- suvning o’rtacha umumiy qattiqligi 18-23 g/l.

Demak quduq suvlari ariq va daryo suvlaridan bir muncha sho`rroq va ishlatish uchun yaroqsizroq ekan . Ariq suvlarida ham sho`rlanish yuqoriroq darajada . Bu muammolar o`rganilmasa aholi o`rtasida turli xil buyrak tosh kasalliklari , ekin yerlarining sho`rlanishi va hosildorlikning pasayishiga olib keladi . Ishlab chiqrishda ishlatiladigan texnik suvlarni sifatini yaxshilasak texnik qurilmalar zanglashi va turli quyqalarni hosil bo`lishi kamayar edi .

Keying yillarda aholi sonining oshishi , suvga bo`lgan talabni oshishiga olib keldi. Toza ichimlik suvi global va ekologik muammo. Yuqoridagi ma`lumotlar asosida suvni tozalash va analiz qilish usullarni kashf etsak ,kelajakdaxalq uchun foydali bo`lgan ichimlik suvi va sanoat muammolariga yechim topishda qo`yildan muhim qadam bo`lar edi.

*5А140103 - Ихтиология ва гидробиология*

# РЯСКАЛАР – ҚИММАТЛИ ОЗУҚА ЎСИМЛИКЛАРИ.

**С.Б. Бўриев**
*БухДУ Биология кафедраси профессори, б.ф.д*
**Шахло Давронова**
*БухДУ Ихтиология ва гидробиология йўналиши*
*I босқич магистранти*

*Охирги 50 йилликда ряскалар морфогенетик, физиологик ва биохимиктадқиқотлар учун жуда муҳим бўлган экспериментал объект сифатида қаралмоқда. Ўз ишимизда биз рясканинг муҳим ва қизиқарли бўлган хусусиятига – унинг қимматли озуқа сифатида ишлатилишига эътиборни қаратмоқчимиз.*

Ряскалар (Lemnaceae) – унча катта бўлмаган сувда сузиб юрувчи ўсимликлар бўлиб, чучук сув ҳавзаларида учрайди. Хусусан Ўзбекистонда уларнинг 3 тури учрайди: кичкина ряска (Lemna minorL.), букри ряска (Lemna gibba L.), уч бўлакли ряска (Lemna trisulca L.). Ушбу турлар қишлоқ хўжалиги ҳайвонлари, қушлар ва ўтхўр балиқлар учун қимматли озуқа ўсимликлари бўлиб ҳисоланади.

Шу кунгача ряскалар озуқа ўсимлиги сифатида кам ишлатилган. Бу уларнинг биология ва экологиясининг кам ўрганилганлиги, табиий захираларининг кам миқдорлиги, шунингдек уларни табиий ва сунъий сув ҳавзаларида илмий асосланган культивация методларининг йўқлиги билан изоҳланар эди. Уларнинг биохимик хоссалари ҳам тўлиқ ўрганилмаган.
Ряскалар озуқа моддаларига жуда бой бўлиб, уларда 21-30% протеин, бу кўрсатгич бедага (19,5%) ва йўнғичқага (18%) нисбатан кўпроқ; 4% дан 20% гача мой, 20% дан 35% гача крахмал бўлади.

Улар витаминларга ҳам бой ҳисобланади: 85-103 мг/кг қуруқ модда каротин, 35-36,8 витаминлар, 2,0-2,1 $B_1$, 2,1-2,6 $B_6$ миқдорларда бўлади.Ряскалар оиласидан бўлган вольфияда каротиноидлар ва аскорбин кислотасидан ташқари, $B_2$, $B_6$, PP ва бошқа витаминлар аниқланган.

Ряскаларнинг қимматли озуқа аҳамияти фақатгина протеинлар, мойлар, углеводлар, витаминларнинг кўплиги билангина эмас, балки бой минерал таркибга эгалигига ҳам боғлиқ. Кузатишлар шуни кўрсатадики, улар 1,1-6% кальций, 0,48-2,28%фосфор, 0,35-2,11% магний сақлайди. Олтингугурт ряскаларда маданий ем-хашак ўсимликларига нисбатан 5-6 марта кўпдир. Олтингугурт муҳим аҳамиятга эга бўлган алмаштириб бўлмайдиган аминокислоталар: метионин, цистин, цистеин таркибига кириши маълум.



Ряскалар биомассасида турли хилдаги микроэлементлар кўп. 1 кг қуруқ ряскада 0,48 мг кобальт, 0,18 мг бром, 0,32 мг мис, 0,7 мг никель, 4,8 мг титан сақланади. Шунингдек, марганец, йод, рух, ванадий, цирконий, церий ва ҳаттоки олтин каби элементлар борлиги аниқланган.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Абдуллаев Д.А. Использование ряски малой в качестве зеленого корма для цыплят. “Узб. биол.ж.”, 1969. № 2.
2. Таубаев Т., Абдиев М. Ряски водоемов Узбекистана и их использование в народном хозяйстве. Ташкент. 1973.
3. Музафаров А.М., Таубаев Т.Т., Абдиев М. Ряски и методы их массового культивирования. Ташкент. 1970.
4. Цедрик Л.В. Использование зеленой растительности в кормовых рационах карпа. Труды УНИПРХ, т.II. 1958.
5. Суховерхов Ф.Н. Ряска – дешевый и питательный корм. “Рыболовство и рыбоводство”, 1964. № 2.

## БУХОРО НЕФТНИ ҚАЙТА ИШЛАШ ЗАВОД ТОЗАЛАШ ИНШООТИНИНГ АТРОФ МУҲИТГА ТАЪСИРИ

**Б.Ҳусенов**
*Ихтиология ва гидробиология мутахассисли*
*I босқич магистри*
*Илмий раҳбар*. **М.М.Тўраев**

Бухоро нефтни қайта ишлаш заводи 1997 йилда ишга туширилган бўлиб, ҳар йили 2,5 млн тонна нефтни қайта ишлашга ихтисослашган.

Бухоро вилоят экология бошқармаси мутахассислари завод ходимлари билан ҳамкорликда олиб борилган лабаратория таҳлил натижаларига кўра завод тозалаш иншооти чуқур тозалаш технологиясига ихтисослашган. Тозалаш иншоотига икки юналишда: маиший хизмат кўрсатиш тизимида ҳосил булган 15-20% оқова сувлар ва технологик жараёнида вужудга келадиган 80-85% оқова сувлар келиб тушади. Сутка давомида ҳосил бўлган оқава сувларнинг умумий миқдори 2900-3000 куб/метрдан ортиқ ёки бир йилда 1 млн $м^3$дан ортиқ оқава сув тозаланади. Иккала йўналишда келаётган оқава сувлар қўшилиб бирламчи тиндиргичларда муаллақ моддалардан тозаланиш жараёни бошланади. Мураккаб аралашмалардан (нефт маҳсулотлари) тозалаш, уларни ушлаб қолиш мақсадида турли хил коагулянтлардан фойдаланилади. Масалан: алюминий сулъфат тузи ва бошқалар. Кам миқдорда оқовага аралашиб келган нефт маҳсулотлар бирламчи тиндиргичда ушлаб олинади ва тозаланади. Қолган ифлослантирувчи моддалардан технологик регламент босқичларида тўлиқ тозаланади. Завод тозалаш иншоотининг асосий ифлослантирувчи моддалардан муаллақ моддалардан, аммоний тузлар, биоген моддалар ва биологик, кимёвий моддалардан тозаланиш иш самарадорлиги натижалари диаграммаларда ўз аксини топган.

Тозалаш иншоотининг иш самарадорлигини 5 та асосий ифлослантирувчи ингредиентлар: муаллақ моддалар, аммоний тузлари, нефт маҳсулотлари, нитритлар, органик моддаларнинг оксидланиши ($БПК_5$) белгилайди. Шу боис юқорида қайд қилинган ифлослантирувчи моддалар завод таҳлилхонаси ва бошқарма мутахассислари томонидан доимий назорат қилиниб борилди.




Графикда келтирилган маълумотлар натижалари таҳлил қилинганда 2018-2019 йилллар биоген моддалардан тозаланиш йилларга мос равишда 84-86 фоизни ташкил килади. Қиш-баҳор фаслларида аммоний тузлардан умумий тозаланиш йилларга мос равишда 88,5-93,7 фоизни, БПК дан

тозаланиш 77,8-87,0 фоизни, нефт махсулотлари 98,2-97,3% ни, муаллақ моддалардан тозаланиш 85,5-86,3 фоизни, умумий самарадорлик 87,0-90,1 фоизни ташкил қилади.




**Ҳадича кўлининг сув таъминот манбалари.**

Тозалаш иншооатида тозаланган оқова сувлар 6 та биопрудларда босқичма-босқич юқори сув ўтлари қамиш, лух, пистя эхорниялар ёрдамида биологик усулда қайта тозаланиб Хадича зовури орқали Ҳадича ва Қум султон кўлларига оқизилади. Завод тозалаш иншоотидан оқизилаётган оқова сувлар кўлларнинг биоэкологик ҳолатига салбий таъсири кузатилмаган.

## MIKROORGANIZMLAR VA ULARNING YASHASH MUHITINI TABIATDA TARQALISHI

**[1]K.B.Saylauova, [2]P.B.Allamuratova, [3]T.Dj.Ubbiniyazov.**
*Qoraqalpog'iston Respulikasi, [1]Qoraqalpoq Tibbiyot Instituti talabasi.*
*Kegayli tumani. [2]10-maktab, [3]13-maktab o'qituvchilari*

Bakteriyalar (novdalar) - bu tabiatdagi eng keng tarqalgan mikroorganizmlar guruhiga kiradigan va ayni paytda dunyodagi eng katta va eng xilma-xil mikroskopik tirik organizmlarga tegishli bo'lgan daraxtlar. Eng kichik turlarga kelsak, ularning tanalari sharsimon bo'lib, hajmi kamida 0,1 mikrondan iborat [2]. Bakteriyalarning eng keng tarqalgan turlari bu rod shaklidagi organizmlar bo'lib, ularning o'lchami quyidagicha: o'rtacha 0,5-1 mikron qalinlikda, 2-3 mikron uzunlikda; Shu bilan birga, odatdagi "gigant" turlari bo'lishi mumkin, ularning o'rtacha diametri 5,0-10 mikron; uzunligi 30-100 mikron. Hatto eng kam miqdordagi bakteriyalar ham eng xarakterli xususiyatlardan biridir. Ko'pgina bakteriyalarda yadro bo'lmaydi (ular yadro membranasi bilan izolyatsiya qilingan yadroga ega emas) [1,3].

Bu bakteriya yadrosining analogi sifatida nukleoiddir. U DNK ni o'z ichiga olgan plazma shaklida bo'ladi va sitoplazmadan membrana bilan ajratilmaydi. Bundan tashqari, bakterial hujayralarda mitoxondriya va xloroplastlar topilmaydi. Oddiy yadro bo'lmagan organizmlarga prokaryotlar (yadrosiz hujayralar) yoki prototsitlar (ya'ni oddiy hujayrali organizmlar) deyiladi [7].

Bakteriyalar aslida prokaryotik organizmlardir. Prokaryotlar mikroblarning quyidagi guruhlarini oʻz ichiga oladi: eubakteriyalar, spiroxetalar, mikoplazmalar, mikobakteriyalar, aktinometsetalar, koʻk-yashil bakteriyalar. Bakteriyalar novda shaklida (dumaloq) yoki sharsimon (kokki), spirallar (vibrios, spiroshetlar).

Aktinomitsetalar va ular bilan bogʻliq boʻlgan organizmlarga tegishli daraxtlarda uzun va tarvaqaylab ketgan hujayralar mitsel filamentlari yoki hyphaning kengayishini hosil qiluvchi gifalarni hosil qiladi.

Mikoplazma hujayralarida zich membrana yoʻq, shuning uchun ularning shakli har qanday turga oʻzgarishi mumkin.

Mikroblar dunyosini birinchi marta kashf etgan gollandiyalik tabiatshunos A. Levenguk edi. U kattalashtirish oynasini bir necha bor takomillashtirish va kattalashtirishni 160-270 marta oshirish orqali kattalashtiruvchi shisha mikroskopini yaratdi. Levenguk davridan beri mikrobiologik metodlar mikroblar dunyosini oʻrganish uchun bir qator qadamlarni qoʻydi[5,6].

Yorugʻlik mikroskoplari ostidagi ob'ektlarning kattalashishi juda kichik ob'ektlarni oʻrganishga imkon beradigan 200,000-500,000 marta koʻpaydi[3].

Rus mikrobiologi S.N.Vinogradskiy tomonidan laboratoriyada ishlatiladigan bir nechta sun'iy ozuqalardan foydalangan holda mikroblarni oʻrganish usuli joriy etildi [6,7].

Ushbu usul yordamida olimlar tuproq shagʻalida va toza suvning havo namunalarida mikroblarni topdilar [4].

Mikroblar shuningdek Frants-Iosif orollaridagi qoyalarda, qutbli mintaqalarda qor, okean va Shimoliy qutbda joylashgan. Sahro choʻlining okean tubidagi tuproqlarida turli xil bakteriyalar isbotlangan. Bakteriyalar taxminan $80^{o}$ daraja haroratga ega buloq suvlarida yashashi isbotlangan [7].

Bakteriyalar juda kichikdir va ularning oʻlchamiga qarab yoriqlar, teshiklar va yoriqlardan osonlikcha oʻtishi mumkin. Bakteriyalar juda chidamli, noqulay sharoitlarda yashashga moslashgan: ular quritishga, oʻta sovuqqa va issiqqa bardosh bera oladi. Va bakterial sporlar hatto kundalik hayotda zarur boʻlgan juda muhim funktsiyalarni bajaradi [1,5].

Bakteriyalar oʻsimlikchilik va chorvachilikda, shuningdek oziq-ovqat sanoatining turli sohalarida keng qoʻllaniladi. Mikrobiologiya toʻqimachilik va charm sanoatida keng qoʻllaniladi [2,4].

Toʻgʻri, hozirgi zamonda, masalan, zigʻir tolalari va bronzlash bakteriyalarini yumshatish, xamirturushsiz mahsulotlarni ishlab chiqarmasdan ham mumkin emas.

Bakteriyalarning ahamiyati yanada hayratlanarli, ayniqsa ularning odam, hayvon va oʻsimlik patogenezi.

Tuproqdagi bakteriyalar oʻsimliklarning oʻsishi va rivojlanishiga katta ta'sir koʻrsatadi. Koʻpgina bakteriyalar oʻsimliklar ildizlarida toʻplangan. Bunday mikroflora oʻsimlik muhitiga nisbatan foydali yoki zararli boʻlishi mumkin. Bakteriyalar odamlar hayoti davomida foydalanadigan moddalarni ajratib oladilar [4]. Ushbu roʻyxatga antibiotiklar, aminokislotalar, vitaminlar, fermentlar va boshqa qoʻshimchalar kiradi. Ushbu elementlarning roʻyxati har yili davom etadi; Mikroblar dunyosi juda muhim moddalarning bitmas-tuganmas manbaidir [2].

Ma'lumki, bakteriyalarning geologik faolligi juda katta. Bakteriyalar hatto tabiatning metabolizmida ham faol ishtirok etadilar. Hozirgi vaqtda barcha organik moddalar va bir qator noorganik moddalar sezilarli oʻzgarishlarga uchraydi. Bunday metabolik tsikl erdagi asosiy hayot bilan bogʻliq [1.2].

Ilgari, bakterial organizmlar oʻsimlik shohligi deb atalgan, ammo bugungi kunda bakteriyalar prokaryotlar sifatida tirik mavjudotlarga tegishli boʻlib, bu oʻsimliklar va hayvonlar olamidan farq qilishi isbotlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.A.B.Gʻanixoʻjaeva, H.A.Nazarova. «Mikrobiologiya». Tibbiyot kolljlari uchun oʻquvchilari uchun oʻquv adabiyoti. Toshkent – 2002.

2.Қ.Х.Ғлмағамбетов, Ғ.Ө.Байдүйсенова, Қ.М.Мухамеджанов. Микро-организмдер биотехнологиясы. Асиана-2008.

3. Шығаева М. Х., Канаев А. Т. Микробиология және вирусология. Аль-Фараби атындағы ҰҚУ. 2008.

4. Мақажанова Х. Х., Лесова Ж. Т, С. А. Надирова. Тағам биотех-нологиясы. – Алматы: ЖШС РПБК «Дәуір», 2012.

5.Шоқанова Н. К. «Микробиология» Алматы - 1997.

6. Л.Б.Борисов. «Медицинская микробиология вирусология, иммунология» учебная литература для студентов медицинских вузов. Москва 2005.

## BIOLOGIYA FANINI OʻQITISHDA QOʻLLANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR

**A.B.Allamuratova, M.K.Aytbaeva, M.Q.Qurbaniyazova.**

*Qoraqalpogʻiston Respulikasi, Nukus tumani*

*[2]17-maktab, [1]22-maktab, [3]32-maktab oʻqituvchilari*

Ta'lim-bu mamlakatning boyligi, xalqimizning ta'limi - bu davlat boyligidir. Vaqt oʻtishi bilan oʻquv jarayonini takomillashtirish usullari doimiy ravishda oʻzgarib turadi. Barchamizga yaxshi ma'lumki, oʻqituvchilarning asosiy vazifasi oquvchilarga zamon talablariga muvofiq talim berish va tarbiyalashdir. Shuning uchun biz ushbu masalaga alohida e'tibor berishimiz kerak [1]. Shundagina sifatli ta'lim oʻz samarasini koʻrsatishi mumkin. Oʻqituvchilar faoliyatida oʻqituvchilik mahoratiga, metod va usullardan foydalanish qobiliyatiga talab kuchaytirilishi kerak.

Oʻzbekiston Respublikasining "Ta'lim toʻgʻrisida" gi qonunida shaxsning shakllanishi, rivojlanishi va kasbiy rivojlanishiga qaratilgan ta'lim tizimining roli quyidagicha belgilangan: «rivojlanish uchun sharoit yaratish».

Har qanday sohada boʻlgani kabi, biologiya fanining ham ta'lim sohasidagi ma'lumotlar miqdori kundan-kunga oʻsib bormoqda. Yangi pedagogik texnologiya oʻquvchilarga ta'lim sifatini oshirish, fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. Har

doim o‘zgarib turadigan dunyo insonning qobiliyatlari va ehtiyojlarini doimiy ravishda rivojlantirishni talab qiladi [3,5].

O‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri har bir o‘quvchiga o‘z qobiliyatlari va moslashuvchanliklarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratishdir. Bugungi yangi avlod darsliklari, o‘qitishning yangi usullari o‘quvchilarning mustaqil o‘qishi va rivojlanishiga e'tibor beradi. Bu turli yoshdagi va qobiliyatli o‘quvchilarga o‘zlarining qobiliyatlarini aniqlashga imkon beradi [6].

Bugungi kunda o‘quv jarayonini rejalashtirish, qo‘llash va baholashning samarali usullarini taklif qiladigan yangi pedagogik texnologiyalarning ko‘plab turlari mavjud. Ularning asosiy maqsadi mustaqil ravishda rivojlana oladigan shaxsni shakllantirishdir [6]. Jamiyatdagi chuqur ijtimoiy o‘zgarishlar hayotda o‘z o‘rnini topa oladigan, qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan va ularni hal qilishning samarali usullarini topadigan malakali, ishbilarmon odamlarni talab qiladi. Buning uchun o‘quvchi mustaqil ravishda bilim olishi va ijodiy ishlashi mumkin bo‘lgan o‘quv jarayoni talab qilinadi [8].

Maktabning zamon talablariga muvofiq rivojlanishi - innovatsion jarayonlarni joriy etish bilan belgilanadi. Vaqtga rioya qilish - bu katta orzu. Zamonaviy pedagogik fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu bolaning shaxsini rivojlantirishga qaratilgan yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Agar iste'dodning asosiy xususiyatlaridan biri kognitiv qiziqishning erta uyg‘onishi deb hisoblasak, kelajakda u ijodiy shaxsga aylanishi muqarrar. Bunday odamlarga jamiyatda talab katta va uning rivojlanishining asosiy yutug‘i bo‘ladi. Shu sababli, o‘zining tabiiy qobiliyatlari noyob deb hisoblaydigan bola bilan ishlash o‘qituvchidan katta mas'uliyat talab qiladi [8]. O‘qituvchi o‘quvchilar ijodini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. "Inson uchun fan" deganda biz birgalikdagi ijodiy kuch ko‘plab insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantiramiz. Ko‘rinib turibdiki, innovatsion o‘qituvchi jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi [5].

Bugungi kunda pedagogika fani bolani individual, barkamol, ijodkor, mehnat bozorida ijtimoiy raqobatga bardosh bera oladigan, madaniy muhitga moslashgan, faol, barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan, shuning uchun ta'limda yangi texnologiyalardan foydalanish zamon talabdir.

Respublikamiz ilmiy, texnik, iqtisodiy, resurs va ma'naviy rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tmoqda. Albatta, Respublika hayotidagi bu o‘zgarishlar ta'lim sohasiga, shu jumladan maktab o‘quvchilarining shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladi. Shu sababli maktab o‘quvchilariga ijtimoiy zarur ilmiy bilimlarni berish, ularni ichki, milliy va jahon adabiyotining kanallari bilan ta'minlash asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Mustaqil davlatning kelajagi bilimlarning chuqurligi va o‘zgaruvchan dunyo bilan o‘lchanadi, bu inson qobiliyatlari va ehtiyojlarini doimiy ravishda rivojlantirishni talab qiladi. Shu munosabat bilan maktabda o‘quvchilarni shaxs sifatida tarbiyalash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarning maqsadi quyidagicha bo‘lishi kerak.

O‘quvchilarga o‘zgaruvchan hayotda qo‘rquvsiz erkin yashashga yordam berish.

Bilim va ko‘nikmalarga mos keladigan darajada o‘z yo‘nalishini tanlay olishiga o‘rgatish.

Mustaqil ish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Analitik fikrlashni rivojlantirish.

Barcha ishlab chiqilgan va hozirda ishlatiladigan texnologiyalarni ikki (sanoat va ijtimoiy) turga bo‘lish mumkin. Ishlab chiqarish texnologiyasi misolida tabiiy xom ashyoni qayta ishlash texnologiyasi hisoblanadi. Bunday holda, texnologiya mahsulotning "chiqishi" da oldindan belgilangan ehtiyojlarni ajratish uchun xom ashyoni qayta ishlash jarayoni deb nomlanadi [5].

Ijtimoiy texnologiyalar - bu juda yuqori darajadagi uyushgan texnologiya, chunki inson ijtimoiy texnologiyalarning ob'ekti bo‘lib, juda ko‘p qirrali tizimdir. Unga turli xil kuchli va yo‘nalishli tashqi ta'sirlarning ko‘pligi ta'sir qiladi va ba'zan ular bir-biriga ziddir, shuning uchun ko‘pincha ta'sirning qanchalik samarali bo‘lishini oldindan aytish qiyin. Shu sababli, ijtimoiy texnologiyalarni ishlab chiqarish texnologiyasini aniqlashda mumkin bo‘lgan aniq tanlangan jarayonlar majmui deyish mumkin emas [6].

XX asrni ortda qoldirib, XXI asrga qadam qo‘yar ekanmiz yurtimizning o‘rta maktablari o‘zlarining tarixiy missiyasini bajarib bo‘ldi. Shuning uchun o‘rta maktabni isloh qilish zarurati tug‘ildi. Qadimgi mutafakkirlarning so‘zlariga ko‘ra, ma'lum miqdordagi "bilim" olish tizimi eskirganligi sababli, kelajak mutafakkirlarning so‘zlariga nazar solsak, «shogird kuchaytiradigan idish emas, balki uni yoqish kerak bo‘lgan shamdir». Maktab esa – konveyer emas, balki keng fikr yuritadigan shaxsni shakllantiradigan muxitdir. Shuning uchun maktabda ta'limning asosiy ustuvor yo‘nalishi o‘quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning haqiqiy hayotda shaxs sifatida rivojlanishidir.

Pedagogik texnologiya - bola va o‘qituvchi o‘rtasidagi doimiy o‘zgarib turadigan munosabatlarning asosi, tarkibning tashkiliy tuzilmasi [6].

Pedagogik texnologiyani amalga oshirish mexanizmi ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish faoliyati, o‘zligini anglash, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini rivojlantirishdir. Kasbiy maxoratning eng yuqori darajasi bu ijod, mexnat, o‘quv jarayonini innovatsion o‘zgarishlar bilan shakillantirish, ya'ni innovatsion faoliyat bilan amalga oshirish qobiliyati hisoblanadi [5,6].

Keling, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ayrimlarini ko‘rib chiqaylik. Rivojlanish o‘quv texnologiyasi - bu murakkab, integratsiyalashgan pedagogik tizim. V.V.Davidovning rivojlanishni o‘rganish texnologiyasining asosiy maqsadi o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi, nazariy tafakkur va ongni shakllantirish, ularni nazariy fikrlash darajasiga etkazishdir. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va intellektual faoliyatni rivojlantirish orqali ilmiy bilish mantiqining chegaralariga erishish, ularni ijodiy izlanishlarga jalb qilish deb takidlab o‘tgan edi [7]. O‘qitish jarayonida rivojlanish texnologiyasining asosiy yo‘nalishlaridan foydalanish o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi, o‘quvchilarning ushbu mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Natijada, har bir o‘quvchining o‘z-o‘zini o‘zgartiradigan fan darajasiga ko‘tarilishi kutilmoqda va mashg‘ulotlar davomida tegishli sharoitlar yaratiladi [8].

Pedagogika fanining tadqiqotchilari o‘quv jarayonining asosiy maqsadi o‘quvchilarning shaxsiyatini rivojlantirish ekanligini tan olishadi.

Ammo shaxsning rivojlanishi haqidagi arizachining psixologiyasiga ko‘ra, u har bir kishining qo‘lida, uni tashqi kuchlar tomonidan ishlab chiqilishi mumkin emas, faqat ijobiy ta'sir etish deb hisoblaydi. Ushbu fikrdan kelib chiqadigan ta'lim maqsadining yana bir ifodasi mavjud. O‘quvchi shaxsini rivojlantirish, bu uning to‘liq o‘zini-o‘zi rivojlantirishiga imkon beradi.

Tadqiqot darsi yangi texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, laboratoriya ishi orqali xulosa chiqarishga, to‘g‘ri yozishga, reaktsiya tenglamalarini tekislashga, o‘quvchilarning intellektual ishlarini rivojlantirishga qaratilgan.
Bizning asosiy maqsadimiz o‘quvchilarni mehnatga mehr qo‘yishga, iqtisodiy va ekologik ta'lim, kasbga yo‘naltirish, xavfsizlik qoidalariga amal qilishga qodir bo‘lishga o‘rgatish.

Shu sababli, maktabning maqsadi - bolaning tabiiy kuch va qobiliyatlarini kashf qilishi uchun qulay sharoitlarni yaratish. Buning uchun shaxsni rivojlantirishni, tashkilotga turli xil usullar va yondashuvlarni o‘z ichiga olgan o‘quv jarayonini aniqlash va amalga oshirish kerak.

Darajali o‘qitishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘quvchilar sinfda bir nechta narsalarni qilishlari mumkin va zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘rganish jarayonida kompyuterlar va ularni boshqarish algoritmlari jamiyatimizning muhim qismiga aylandi. Aytgancha, bugungi kunda yangi elektron darsliklar yangi tarkibni talab qiladi.

Ta'limning yangi texnologiyalaridan biri maktablarda biologiya fanini darajaviy topshiriqlar orqali o‘qitishdir.

Turli darajadagi o‘quvchilarga dars berish uchun darslar yangi usulda rejalashtirilgan. O‘quvchilarga darajadagi topshiriqlar berish orqali turli xil ishlar amalga oshiriladi. O‘quvchi olgan bilimlarini amalda qo‘llash qobiliyati sinovdan o‘tkaziladi, mustaqil ishlashga yaroqliligi nazorat qilinadi [9]. Natijada darajadagi topshiriqlar orqali ishlash samaradorligi kuzatiladi. O‘quvchi yanada faol bo‘lib, ijodga intiladi. Darajali o‘qitish jarayonida malaka yutuqlariga erishiladi.

Darajali o‘qishga o‘qilgan ma'lumotlarning qisqarishi hisobiga erishilmaydi, lekin o‘quvchilar uchun turli xil talablar qo‘yiladi.

Ushbu texnologiya o‘quvchining bilim darajasiga qarab osondan qiyingacha o‘qitiladi. Darajali o‘qitish to‘rt qismdan iborat [9]:

**1. Amaliy mashg‘ulot darajasi.** Bu majburiy daraja bo‘lganligi uchun barcha o‘quvchilar topshiriqni bajarishlari kerak.

**2. Algoritmik daraja.** Ushbu bosqichda o‘quvchi o‘tgan materialni tahlil qiladi va oldingi vazifalarga o‘xshash vazifalarni bajaradi. Ammo buni amalga oshirish uchun olingan bilimlarni o‘zgartirish va ulardan foydalanish kerak.

**3. Evristik darajasi.** Mustaqil ishni shakllantirish uchun o‘quvchilar yangi mavzu bo‘yicha asosiy bilimlarini yaxshilaydilar va chuqurlashtiradilar. U yangi bilimlarni egallaydi va o‘zi uchun yangi narsalarni kashf etadi. Evrika. Tahlil va

sintez, taqqoslash, umumlashtirish. Ushbu darajada rebus, krossvord, jumboqlar, laboratoriya ishi, evristik savollar bo‘lishi kerak.

**4. Ijodiy daraja.** Ushbu darajada mustaqil ravishda biron bir mavzu bo‘yicha referat, hisobot, insho, she'r, topishmoq, jumboq yoza olish kerak.

Bosqichli o‘qitish texnologiyasining maqsadi har bir o‘quvchi o‘quv materialini o‘z rivojlanish darajasida egallashini ta'minlashidur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Niyozov Q. Biologik ta’lim jarayonida o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari.-Namangan. 2017 yil.
2. G‘ofurov A.T., Tolipova J.O. va boshqalar. Biologiya o‘qitish metodikasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 2013.
3. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov. Biologiya ta'limi texnologiyalari. Toshkent-2002.
4. J.O.Tolipova, A. T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent. Bilim. 2004.
5. J.O.Tolipova. Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2011.
6. Yo‘ldoshev J. G. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent «O‘qituvchi». 2004

***5А140602 - География ( ўргатиш объекти бўйича ) мутахассислиги***

# ЧЎЛ – ВОҲА ГЕОТИЗИМЛАРИ МУНОСАБАТЛАРИНИ ЎРГАНИШНИНГ НАЗАРИЙ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ (БУХОРО ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

**Х.Р.Тошов**.
*БухДУ доценти, г.ф.н,*
**Г.Ҳ.Гулмуҳамматова**
*БухДУ география I босқич магистранти*

*Мақолада Ўзбекистон Республикасининг Ҳаракатлар стратегияси шу асосда қабул қилинган Давлат дастури ҳамда “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури, география фанида яратилган назариялар чўл – воҳа геотизимларини ўрганишда методологик асос бўлиши ёритилган.*

Бухоро вилояти 1938 йилнинг 15 январида ташкил этилган бўлиб, унинг майдони 40,3 минг км$^2$. Аҳолиси 1980,4 минг киши (2019 й.).

Географик жиҳатдан вилоят ҳудуди берк ҳавзада, Тинч океандан 5500 км, Атлантикадан - 4000 км, Шимолий Муз океанидан 2500 км, Ҳинд океанидан 2000 км узоқда, Ўбекистон Республикасининг жануби-ғарбида, Зарафшон дарёсининг қуйи қисмида, жануби-ғарбий Қизилқум чўлида жойлашган. Вилоят ҳудуди 2 та геотизимдан – чўл (88,6 %) ва воҳа (11,4 %) дан иборат. Демак, чўл – воҳа геотизимлари муносабатлари вилоят ҳаётида катта аҳамият касб этади. Унинг имкониятидан самарали фойдаланиш бугуннинг долзарб вазифаларидан саналади.

Чўл – воҳа геотизимларининг муносабатлари Бухоро вилояти мисолида яққол ўз аксини топган. Чунки вилоят ҳудуди тўлиғича чўл зонасида жойлашган. Бугунги кунда Бухоро, Қоракўл ва Қоравулбозор воҳалари чўлда ўзига хос геотизимларни ҳосил қилган ёки улар чўл зонасидаги “воҳалар гулдастаси” ҳисобланади.

Чўл – воҳа геотизимлари муносабатларига ойдинлик киритиш учун аввало тадқиқот учун зарур бўлган тамойиллар ва методларни танлаш ҳамда вазифаларни белгилаб олиш зарур. Акс ҳолда тадқиқотнинг бориши бир томонликка бориб, оқибатда кўзланган мақсадларга эришиш жуда мураккаб бўлади. Шуларни инобатга олиб қуйидаги тамойиллардан фойдаланиш зарур деб ҳисоблайман.

Биринчи навбатда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси (2017-2021 й.) ва шу асосда қабул қилинган Давлат дастури ҳамда “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастурлари мазкур тадқиқотнинг методологик асослари бўлади [2; 3].

Иккинчи навбатда география фанидаги қуйидаги тамойиллар чўл – воҳа геотизимларидаги муносабатларни ўрганишда пойдевор бўлади:

1. Хўжалик юритишни айни жой табиатининг "хулқи" ва ривожланиши йўналишига мос ҳолда ташкил қилишни кўзда тутиш тамойили.

2. Табиатни муҳофаза қилиш тадбирларини ҳамма жойдалиги ва мажмуали бўлишини таъминлаш тамойили.

3. Биохилма-хилликни ва генофондни сақлаш тамойили.

4. Антропоэкологик тамойил. Бу тамойилда инсон ва унинг жамоасини яшаши ва ривожланиши учун соғлом экологик муҳитни яратишни кўзда тутади.

Чўл – воҳа геотизимларининг муносабатларини ўрганишда А.Гумбольдт (Табиатнинг бирбутунлиги), Л.С.Берг (ландшафт), И.В.Вернадский (биосфера, "ноосфера"), В.Б.Сочава ("ўзаро ҳамкорлик" (сотворчество)), И.Қ.Назаров ("ҳавза назарияси"), Л.Алибеков ("геопара") каби олимларнинг назарияларида мужассам бўлган илмий ғояларга таяниш лозим бўлади. Бошқача қилиб айтганда, табиат ва жамиятнинг ўзаро экологик уйғунлиги, вобасталиги тамойили асосида иш тутиш демакдир[4; 5].

Чўл – воҳа геотизимларидаги геоэкологик шароитларда чўллар "етакчи", воҳалар эса уларга "қарам" бўлади. Ҳозир ҳам ушбу жараён давом этиб келмоқда. Чўл табиатига хос бўлган бундай алоқадорликни ўрганиш изланувчилардан катта тажриба талаб этади. Ўрганишга хос ва мос методларни танлаш керак.

Маълумки, чўл – воҳа геотизимлари муносабатларини ўрганишда методларнинг аҳамияти катта. Жумладан, дала-тадқиқот, таянч-экспериментал тадқиқот, картографик, тарихий-географик (палеогеографик), географик-таққослаш, тиббий географик, статистик, математик моделлаштириш, экспедиция, экстраполяция, тизим-таркиб, геоиндикация, башоратлаш усулларидан фойдаланиш катта самара бериши маҳаллий олимлар томонидан қайд этилган ҳамда уларнинг илмий ишларида ўз ифодасини топган.

Чўл – воҳа геотизимлари муносабатларини ўрганишда қуйидаги вазифалар устувор саналади:

- вилоят чўл - воҳа геотизимларининг ўрганилиш тарихини таҳлил қилиш, улар фойдаланиш борасидаги илмий ва амалий тажрибаларни ўрганиш;
- вилоят чўл - воҳа геотизимларининг табиий ресурсларидан фойдаланишнинг илмий, назарий, методологик асосларини таҳлил қилиш ва устувор тамойилларини белгилаб олиш;
- вилоят чўл - воҳа геотизимларининг ривожланиш тарихини палеогеографик таҳлил қилиш асосида геотизимларнинг палеогеографик ўтмиши, литоген асослари, ёши ва кўламини аниқлаш;
- вилоят чўл - воҳа геотизимларини типологик таснифлаш, уларнинг табиий ресурс имкониятларини ўрганиш, баҳолаш ва харитаграфик тасвирини яратиш;

- вилоят чўл - воҳа геотизимларининг ресурс имкониятларидан самарали фойдаланиш ҳамда муҳофаза қилиш бўйича илмий тавсиялар ишлаб чиқиш;
- вилоят чўл - воҳа геотизимлари муносабатлари натижасида вужудга келадиган муаммоларни ўрганиш, тизимлаштириш ва уларни юмшатишнинг илмий тавсияларини ишлаб чиқиш.

Вилоят чўл - воҳа геотизимларининг ривожланиш тарихини палеогеографик таҳлил қилиш муҳимлиги юқорида қайд этилган эди.

Бухоро вилояти Қуйи Зарафшоннинг қадимги дельталарида жойлашган. Бугун Зарафшон дарёси, унинг қадимги ўзанлари ва дельталари бетакрор табиий объектлардан саналади. Палео - Зарафшоннинг қадимги дельтаси Нурота тоғининг ғарбий этакларидан Амударёгача кенглик йўналишида 260 км масофада чўзилган, майдони 34 минг км$^2$.

Жумладан, Қадимги Зарафшон (Палео-Зарафшон) дарёси серсув бўлган даврларида Амударёгача етиб борган. Дарёнинг Конимех, Эчкилисой, Дарёсой, Моҳондарё, Қуйимозор, Вобкентдарё, Гурдуш, Тойқир тармоқлари мавж уриб оққан. Улар Палео-Зарафшоннинг шимолий ва жанубий тармоқлар тизимини ҳосил қилган. Палео-Зарафшон Кармана йўлагидан ўтгач, асосий ўзанидан шимолий тармоқлар тизимига мансуб Конимех тармоғи ажралиб чиққан ва у Оёқоғитма пастқамлиги томон оққан. Кейинчалик Шўркўл тектоник кўтарилмаси туфайли Конимех тармоғининг табиий оқим йўли тўсилган. Палео-Зарафшондан Обтобачи платосининг Тошработ қишлоғи яқинида яна шимолий тармоқлардан бири Эчкилисой тармоғи ажралган. У Оёқоғитма чўкмасига етмасдан ўзан Қулжуқтоғ этаги бўйлаб ғарб ва шимоли-ғарб йўналишида Дарёсой тармоғини ҳосил қилган. Эчкиликсой ва Дарёсой тармоқларининг ажралиш жойида Ғарбий Оёқоғитма ва Шарқий Оёқоғитма дельталари шаклланган. Қадимги бухороликларнинг илк маскани Дарёсой водийси бўлган. Дарёсой водийсида 200 дан ортиқ неолит даврига, Эчкиликсойда 30 та тош даврига ва 5 та палеолит даврига мансуб археологик ёдгорликлар топилган. Ғарбий Оёқоғитмада топилган қадимги ашёлар милоддан аввалги IV-III минг йилликларга ва Шарқий Оёқоғитмадаги ашёлар эса милоддан аввалги III - II минг йилликларга тегишли эканлиги қайд этилган.

Чўл – воҳа геотизимларининг муносабатлари ижобий ёки салбий натижалари вилоят ҳудудининг қуйидаги геоэкологик хусусиятларига боғлиқ.

1. Бухоро вилоятининг рельефи чўл – воҳа геотизимларининг муносабатларининг ижобий ёки салбий натижалари катта таъсир кўрсатади. Рельефдаги бўйлама кескинлик 133-785 метрли мутлоқ баландликлар билан фарқланади. Унинг умумий нишаблиги жануби-ғарбий томонга, яъни Амударё ўзанига томон, ўртача 1 м/км га пасайиб боради. Геоморфологик жиҳатдан вилоят рельефини бир неча қисмларга бўлинади.

2. Вилоят чўл – воҳа геотизимлари муносабатларининг ижобий ёки салбий натижалари ҳудуднинг иқлимига ҳам боғлиқ. Вилоят учун Ўрта

Осиёнинг жанубий чўлларига хос, яъни субтропик белгиларга эга бўлган кескин континентал чўл иқлими хос.

Шунингдек, Бухоро вилоятида намликнинг тақсимланиши, шамоллар, тупроқ, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳам чўл – воҳа геотизимлари муносабатларида ўз ифодасини топади.

Хулоса ўрнида қайд этиш жоизки, Бухоро вилояти чўл – воҳа геотизимлари муносабатлари ҳудудда шамол, сув эрозияси, иккиламчи шўрланиш, кимёвий ифлосланиш, шўрланиши каби геоэкологик салбий жараёнларга сабаб бўлади. Уларни илмий ўрганиш Бухоро вилоятининг иқтисодий- ижтимоий ривожланишида муҳим ўрин тутади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш- юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон. 2017. 48 б.
2. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси. “Халқ сўзи”, № 28, 8.02.2017 йил
3. Ўзбекистон Президентининг «Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида»ги Фармони. “Халқ сўзи”, 2020 йил 2 март.
4. Зокиров Ш.С., Тошов Х.Р. География тарихи. Б.2018. Дурдона. – 217 б.
5. Назаров И.Қ. География фанинг асосоий муаммолари. Тошкент, “Муҳаррир” 2013.- 212 б.

*5A120102 - Лингвистика (инглиз тили)*

# РЕДУКЦИЯ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ЯЗЫКОВОЙ ЭКОНОМИИ

**З.И.Расулов,**
*кандидат филологических наук, доцент БухГУ,*
**Н.Мавлянова**
*магистрант II курса БухГУ*

Язык является динамичной и постоянно развивающейся системой, которой присущи изменчивость и динамизм. При этом не следует игнорировать неравномерности в историческом развитии отдельных языковых уровней, неодновременности и неоднородности, происходящих в них изменений, которые обусловлены действием как внешних, так и внутренних факторов. Одним из таких внутренних факторов, способствующих развитию и совершенствованию языка, выступает тенденция к экономии языковых средств, носящая, по мнению многих лингвистов, универсальный характер и затрагивающая все уровни языковой системы. История вопроса языковой экономии имеет давнюю традицию.

К ней обращались разные мыслители, начиная с Аристотеля. Системное изучение принципа экономии в языке следует связывать с исследованиями в области фонетики и, прежде всего, с именами таких лингвистов, как Г. Суит, П. Пасси, В. Уитней, которые указали на наличие в языке двух противоположных тенденций: тенденции к облегчению произношения и ее противоположности — тенденции к избыточности.

А. Мартине положил начало рассмотрению экономии в области фонологии, расширив рамки действия данного принципа и придав экономии универсальный характер, считая ее причиной фонетических изменений. В современном языкознании наметились два подхода к пониманию принципа экономии: широкий (экономно любое явление в синхронии и диахронии, ведущее к исчезновению новых форм и способствующее совершенствованию языка как средства общения) и узкий (количественный, базирующийся на вариативности языковых средств, то есть замене их более экономными единицами). Широкое понимание характерно для языка как системы, а узкое — для речи.

Разговорная речь является основной сферой реализации языковой экономии. Разговорная речь получает свое отражение и в художественной литературе для более реалистического описания быта определенной среды, для создания словесного портрета того или иного персонажа. Языку публицистики и науки также не чужды элементы разговорной речи.

Принцип экономии в языке и речи носит универсальный характер, что обусловлено его проникновением во все уровни языковой экономии: на фонетическом уровне (стяжение и опущение фонем), на лексическом

(замещение словосочетаний отдельным словом, усечение слов, слияние слов в одну лексическую единицу), на морфологическом (употребление синтетических форм вместо аналитических; конверсия существительных, прилагательных и причастий; опущение или сокращение аффиксов) и на синтаксическом уровнях (использование неполных предложений)

В речи произносятся не отдельные звуки, а взаимосвязанные звуковые последовательности, и артикуляция любого звука в речевом потоке находится под влиянием артикуляции соседних звуков. В связной речи нет пауз, которые соответствовали бы интервалам письменной речи. Как правило, паузы в речи используются не между двумя словами, следующими друг за другом, а между группами слов, которые могут считаться одним фонетическим словом.

---

1.Соколова М.А. и др. Практическая фонетика английского языка, центр ВЛАДОС, 2008. — 382 с.

[14]Соколова М.А. и др. Практическая фонетика английского языка, центр ВЛАДОС, 2008. — 382 с.

Рассмотрим наиболее типичных случаев взаимодействия звуков в речевом потоке, к которым относят процессы *ассимиляции*, *редукции* и *элизии*.

Модификации звуков вызваны тем, что при соединении фонем в цепочки органы речи приспосабливаются к быстрой смене артикуляций, обеспечивая более удобный переход от одной артикуляции к другой, при этом меняя качество звуков.

***Ассимиляция*** может быть частичной, когда возникают различные варианты фонем, и полной, когда имеет место полное уподобление артикуляций.

Есть несколько видов ассимиляции:
- ассимиляция по направлению;
- ассимиляция в соответствии с местом появления препятствия;
- ассимиляция по работе губ;
- ассимиляция по функционированию голосовых связок;
- ассимиляция по способу возникновения шума.

Ассимиляцию по направлению разделяют на три подвида:
- регрессивная;
- прогрессивная;
- двойная ассимиляция.

Когда направление ассимиляции прогрессивное, то предыдущий звук воздействует на последующий. К примеру, в слове "style" звук [t] потерял свою аспирацию под воздействием предыдущего щелевого звука [s] и другой пример :*sto**pped**, sto**cks***.

Регрессивная ассимиляция возникает тогда, когда последующий звук воздействует на предшествующий (*new**sp**aper*). К примеру, в слове seventh звук [n] стал дентальным под влиянием согласного звука [T].

В ходе взаимной ассимиляции оба звука, которые находятся рядом, обоюдно воздействуют один на другого, передавая некоторые особенности своей артикуляции. К примеру, в слове "twin" согласный [t] несколько огубляется, а звук [w] - оглушается.

Прогрессивная ассимиляция встречается значительно реже, чем регрессивная. Существуют также необязательные или случайные ассимиляции в результате быстрого темпа речи (*giveme – gimme; goingto - gonna*).

Причины возникновения ассимиляции объясняются взаимодействием звуков в речевом потоке. Необходимо отметить, что ассимиляция и прочие случаи модификации звуков в спонтанной речи присутствуют постоянно и имеют большое значение, т.к. фактически происходит слияние в одно слово нескольких и образуется фонетическое слово, о чем уже говорилось выше. Такая смесь из звуков, произносимая носителями, поддается расшифровке через ситуацию и с помощью типовых фраз.

Язык как саморегулирующаяся система стремится к устранению избыточности. Он движется от более сложных способов выражения одной и той же информации к более простым, не утрачивая при этом своюструктуру, и располагает для этого целым арсеналом средств.

## FONETIK TERMINLAR USTIDA LEKSIKOGRAFIK-QIYOSIY TAHLILLAR

**D.I. Xodjayeva**
*BuxDU TYCHT kafedrasi mudiri, (Ph.D),*
**M.O'. Xusenova**
*BuxDU II bosqich magistranti*

Fonetika deganda eng quyi lisoniy sath ham, tilshunoslikning shu sathni o`rganadigan sohasi ham tushuniladi. Fonetika yunoncha so`z bo`lib. "*phone*"- "*tovush", "tika" – "quti"* degan manolarni anglatadi. U tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqli o`laroq, nafaqat o`rganish manbaining funktsional tomonini, balki nutq tovushlarini hosil qiluvchi talaffuz apparatini, shuningdek, ularning akustik xossalarini va til egalari tomonidan qabul qilinish jihatlarini ham tekshiradi. Fonetikada tilshunoslikning boshqa fan sohalari, adabiyotshunoslik, fiziologiya, fizika, psixologiya kabi fanlar bilan aloqasi yanada yaqqol namoyon bo`ladi. Bu fanlardan farqli o`laroq, fonetika tovushlarga so`z, qo`shimcha va gaplarga moddiy qiyofa beruvchi til tizimi unsuri sifatida qaraydi. Fonetika bo`limi quyidagilarni o`rganadi:

a) Og`zaki nutqning tovushlar tizimi;
b) Tovushlartizimining tuzilishi;
c) Nutq apparati va nutq a'zolari;
d) Bo'g`in va uning turlari;
e) Urg'uva uning turlari;
f) Ohang (intonatsiya)

Fonetikani o`rganish imlo (orfografiya), to`g`ri talaffuz (orfoepiya) me`yorlarini yaxshi o`zlashtirib olishda, adabiy va dialektal talaffuz farqlarini aniqlashda, logopediya va surdopedogogikada nutqiy nuqsonlar diagnostikasi va ularni bartaraf etishda katta ahamiyatga ega.

Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma'lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus Terminologiya vujudga keladi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim fammatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa Bugungi kunda o'zbek Terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda.

Fonetik terminologiya , o’z nomidan ma’lum bo’lib turganidek, tilshunoslikning eng quyi sathi bo’lmish Fonetikadagi terminlarning majmui bo’lib unda fonetik terminlarning umumiy izohi, qo’llanilishini o’rganib tahlil qiladi. Quyida biz o’zbek hamda ingliz tilidagi fonetik terminlarning qiyosiy tahlili haqida fikr yuritamiz. Eng avvalo shuni aytib o`tish kerakki, barcha tillarda fonetik terminlar bir xil emas. Chunki tillardagi tovushlar tizimi, til birliklari, bo`g`in va urg’uning qo’llanilishi turlicha. Jumladan, o’zbek va ingliz tillaridagi fonetik terminlar orasida ham farq sezilari bo’lib, bunga birinchi sabab bu ikki tilning alohida til guruhlariga mansubligidadir. O’zbek tili analitik til bo’lsa, ingliz tili sintetik tilguruhiga mansubdir. Aniqroq aytadigan bo’lsak, birida uchragan fonetik hodisa ikkinchisida uchramaydi yoinki boshqacha tahlil etiladi. To`g`ri, ikki tilda ham umumiy bir xil ma`no ifodalab, bir o’rinda qo’llaniladigan terminlar ham aksariyat o’rinlarda uchraydi. Quyida shunday, ya’ni birxil ma’no kasb etadigan ingliz va o’zbek tilida qo’llaniladigan asosiy fonetik terminlar hamda ularning izohlariga na’munalar keltiramiz:

1. ***Fonetika*** (ingiz. *Phonetics)* – tilshunoslikning nutqtovushlarining hosil bo’lish usullari akustik xususiyatlari va tarkibini o’rganadigan bo`lim;
2. ***Fonema*** *(*ingliz. *Phoneme)* – tilning fonologik sath birligi bo’lib, ma`no farqlash vazifasini bajaruvchi, o’z o`rnida boshqa tarkibiy qismlarga ajralmaydigan eng kichik til birligi;
3. ***Tovush*** *(*ingliz. *Sound)* – fonemaning real talaffuz qilingan, quloq bilan eshitilgan, boshqa mayda bo’laklarga bo’linmaydigan nutq parchasi;
4. ***Unli*** (ingliz.. *Vowel )* – – og`iz va bo`g`iz bo`shlig`ida hech qanday to`siqqa uchramaydigan, tarkibi ovoz iborat bo`ladigan (shovqin deyarli uchramaydigan) tovush. (O’zbek tilida 6 ta, ingliz tilida 20 ta unli tovush mavjud). Masalan, har ikkala tilde mavjud bo’lgan, [a], [o], [u], [e]; ingliz tilida mavjud o’zbek tilida uchramaydigan: [ai], [э], [ou] va boshqalar;
5. ***Undosh(ingliz. Consonant )*** – og`iz va bo`g`iz bo`shlig`ida turli to`siqqa uchrab hosil bo’ladigan, tarkibi faqat shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat bo`ladigan tovush. (O’zbek tilida 23 ta ingliz tilida 24 undosh tovush mavjud). Masalan, o`zbek va inglizda ham mavjud bo`lgan: [s], [k], [t], [d], [b].

Terminlarni izohlash uchun turli xil metod va usullardan foydalanilidi. Ba`zan fonetik terminlar chetdan aynan so`zma-so`z olingan holda kiritilgan bo`lsa, ba`zan tarjima, ba`zan o`zbek tilidagi muqobili bilan izohlandi. Ayrim o`rinlarda kalkalash orqali ham terminlar qabul qilindi. Shuni aytib o`tishimiz joizki, “O`zbek tilining izohli lug`at” larida ham asosiy fonetik terminlarning ilmiy izohlari misollar orqali berilgan. To`g`ri, tillardagi fonetik hodisalar, tovushlar tizimi, klassifikatsiyasi turlicha va shuning uchun terminlar va ularning izohlariham bir-biridan farq qiladi. Biroq barcha tillar uchun umumiy bo`lgan, ularni birlashtiruvchiayrim til universiyalari ham mavjud. Jumladan, deyarli, barcha tillardan fonemalar 2 xil ya`ni unli va undoshga bo`linadi. Unli fonemalarning miqdori, sifati turlicha bo`lsada umumiylik jihatlari mavjud bo`lib ular quyidagilar: a) sof undan iborat; b) og`iz bo`shlig`ida to`siqqa uchramaydi; c)

cho`ziluvchanlik va musiqiylikka ega; d)urg`u qabul qila oladi; e) bo`g`in hosil qilishda asosiy rol o`ynaydi.

Umumiy hisobda fonetik trerminlar miqdorini solishtiradigan bo`lsak, Oxfordda bu miqdor O`TILga nisbatan ko`p. Biroq bu sathning ichki bo`linish turlari ya`ni Orfografiya bo`limiga oid terminlar miqdori O`TILda ko`proq ekanligini ko`rishimiz mumkin. Og`zaki nutq va yozma nutq orasida ayrim tafovutlar mavjud. Og`zaki nutqni yozma shakldа yozib olish jarayonida maxsus belgi va shartli belgilar ishlatiladi. Quyida biz shu yo`nalish va u bilan bog`liq terminlar izohiga nazar tashlaymiz. O`TILda ushbu yo`nalish vazifasi, xususiyatlari keng qamrovda aytib o`tilgan. Dastlab so`zning asosiy o`zagiga ta`rif bilan boshlangan. СТЕНО - *[юн.* stenos - тор, сиқиқ, қисқа] Байналмилал ўзлашма қўшма сўзларнинг биринчи қисми бўлиб, «тор, сиқиқ, тиғиз, қисқа » маъноларини ифодалайди . Undan keyin og`zaki nutqni yozma nutqga aylantirilgan mazmuni ya`ni matnning ilmiy atamasi izohi ketadi. СТЕНОГРАММА [стено.. + *юн.* gramma — ёзув, ёзув белгиси ] Оғзаки нутқни қоғозга сўзма-сўз ёзиб олиш; стенографик усул билан ёзиб олинган матн. *Маъруза стенограммаси.* Alifbo tartibida ketganligi sababli, avval “Stenografiya” ga oid so`zning sifat shakli va keyin shu so`zning izohi beilgan. СТЕНОГРАФИК **1** Стенографияга оид. *Стенографик усул. Стенографик алифбо. 2* Стенография усули билан ёзиб олинган. *Стенографик ҳисобот. Стенографик материаллар.* С Т Е Н О Г Р А Ф И Я [стено.. + *юн.* g r a p h o ё з а м а н ] О ғ з а к и н у т қ н и турли ш а р т л и б е л г и л а р ва қ и с қ а р т м а л а р б и л а н тез ё з и б о л и ш усули ва ш у н д а й ё з у в н и н г ўзи. *Стенография курси. Маърузаларни стенографияда ёзиб бормоқ.* Shundan so`ng ushbu soha bilan shug`ullanuvchi kishilar va sohaning o`ziga ta`rif berilgan: СТЕНОГРАФИСТ Оғзаки нутқни стенография усули билан ёзиб олувчи мутахассис. СТЕНОГРАФИСТКА Стенографист аёл. *Агар стенографистка қиз ушлаб қолмаганида, дераза тагидаги гули куриб колган тувакка боши билан уриларди.* С. Аҳмад, Ю л д у з . СТЕНОГРАФИСТЛИК Стенографист касби, стенографиячи. СТЕНОГРАФЧ И *айн.* Стенографист .

Oxford lug`atida ham ushbu sohaga doir terminlar va ularning izohi berilgan, biroq O`TILga nisbatan kamroq. Ushbu izohli lug`atda quyidagi terminlar uchraydi: **Sten·og·raph·er** /stəˈnɒgrəfə(r), NAme stəˈnɑːgrəfər/ noun. (also informal steno) a person whose job is to write down what sb else says,using a quick systems of signs of abbreviations [p.1448]. Ushbu izoh shu ish bilan shug`ullanuvchi kasbni ifodalaydi. Ushbu sohaning o`ziga quyidagicha ta`rif beriladi: **Sten·og·raphy** /stəˈnɒgrəfi/ NAme stəˈnɑːgrəfi/ noun [U] (also informal steno) = SHORTHAND [P.1448 ] **Short·hand** – a quick way of writing using special signs or abbreviations, used especially to record what sb is saying: *typing and shorthand* [p.1355]. Berilgan izoh shuni ko`rsatadiki, Stenography so`zi xalqaro termin, ingliz tilida esa uning xuddi shu mazmunini ifodalovchi so`z mavjud. Bu so`z “Shorthand” so`zi hisoblanadi. Izohda bu so`zlar sinonim bo`lib ayni bir xil ma`no ifodalshi aytib o`tilgan. Demak, shuni ayta olamizki, o`zbek tilida so`zlar asosan morfologik yozuv asosida ya`ni talaffuz o`zgarishlarini inobatga olmay,

shakl to`g`riligi asosida yoziladi. Ingliz tilidagi so`zlarda esa asosan talaffuz birlamchi hisoblanadi. Terminlar va ularning izohi ham tilning ushbu xususiyatlari asosida shakllanib o`z izohini topadi. Qilingan terminlar tahlilimiz ham shuni ko`rsatib turibdi.

E`tiboringizga yana ikkita lug`atda ham uchraydigan yana bir termin va uning izohiga e`tiboringizni qaratmoqchimiz. Bizga ma`lumki tovushlarning 3 tomonlama belgisi bor: 1) fiziologik (talffuz belgisi)- nutq aparati, nutq aa`zolarining harakati xususiyatlari bilan bog`liq; 2) akustik- tovush havoning tebranishi natijasida hosil bo`lish xususiyatlri; 3) vazifaviy (lingvistik) belgi – tovushlarning ma`lum maqsadda talaffuz qilinish xusussiyati. Tovushlar balandlik, kuch (yoki tezlik), miqdor (yoki uzunlik) va tembr kabi sifat belgilariga ega. Bu xususiyatlarning aniqlik darajasini “diksiya” so`zi bilan ifodalaymiz. O`zbek tili izohli lug`atida ushbu so`z quyidagicha izohlangan: **Д И К Ц И Я** *[лот.* dictio — талаффуз қилиш] Нутқ, қўшиқ ва декламацияда сўз, бўғин ва товушларни талаффуз этишнинг аниқлик даражаси. *Унинг дикцияси яхши. Юмористик образ яратишда ижрочилар мимика, диалог, дикция, грим, костюм, бутафория каби театр элементларидан усталик билан фойдаланадилар.* М. Қодиров, Халқ рақслари ҳақида. Endi Oxford izohli lug`atiga nazar tashlasak: **Diction** /ˈdɪkʃ(ə)n/ *noun.* 1. The way that smb. pronounces the words [p.404]. Berilgan izohlarni taqqoslar ekanmiz, ulardagi umumiy ma`no bir, ammo xususiy ma`no farqi ham bor. O`TILda izoh aniqroq, kenroq, ilmiyroq berilgan. Oxfordda esa tovushlar talaffuzining bir yo`li sifatida qaralgan. O`tilda ta`rifdan so`ng gap shaklidagi misol manbasi bilan berilgan. Ikkala ta`rifdan diksiya so`zlovchilarda turlicha bo`lishi mumkinligini anglashimiz mumkin. Demak, orfoepik terminlar miqdori va izohi Oxfordda ko`proq berilgan. Chunki, ingliz tilida tovushlar tizimi murakkab bo`lib, fonetik hodisalar, kombinator o`zgarishlar, talaffuz qilish qoida-me`yorlari murakkabroq. Ta`riflarda ayrim farqli jihatlar ham uchraydi. Bunga sabab yuqoridagi talaffuz xususiyatlari ikki tilda turlicha ifodalanadi, talaffuz me`zonlari bir-biridan farq qiladi. Zero, tovushlar miqdori, ularning ifoda maqsadiga ko`ra bo`linishi ham turlicha va bu, albatta, talaffuzga o`z ta`sirini ko`rsatgan holda bu orqali talaffuz qilish bilan bog`liq terminlar miqdori va sifatiga bevosita ta`sir qiladi.

Undosh tovushlar asosan 3 tomonlama, qo`shimcha tarzida 2 tomonlama tasnif qilinadi: 1. Hosil bo`lish o`rniga ko`ra; 2.Hosil bo`lish usuliga ko`ra; 3. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko`ra; 4. Tovush paychalarining ishtirokiga ko`ra; 5.Tarkibiga ko`ra; Hosil bo`lish usuliga ko`ra 2ga : a)portlovchi; b)sirg`aluvchiga bo`linadi. O`zbek tilida “sirg`aluvchi” atamasi undoshga nisbatan ishlatiladi. Bu so`z o`z qatlam ya`ni sof o`zbekcha so`z sanaladi. Bundan tashqari dastlab ushbu mazmunni ifodalovchi so`z chetdan olingan ya ni “frikativ” termini hisoblanadi. Bunibiz O`TILda berilgan izohda ham ko`rishimiz mumkin: **ФРИКАТИВ** *[лот.* fricatio — ишқаланиш]: **фрикатив ундошлар** *тлш.* Нутқ аъзолари бир-бирига яқинлашиб, ҳаво тор оралиқдан сирғалиб чиқиши натижасида ҳосил бўладиган **в, ф, з, с, ж, ш, х** ундошлари (**Сирғалувчи ундошлар** *тлш.* Ф р и к а т и в товушлар ) [4j., 365 b.] Izohli lug`atda izoh

aniq, ilmiy asoslangan holda, so`zning etimologiyasi va o`shandagi ma`nosi, na`muna misollar bilan berilgan. Izoh oxirida ushbu terminning sinonimi sifatida “Sirg`aluvchi” so`zi ham berib o`tilgan.

Oxforda ham undosh fonemalarning hosil bo`lish xususiyatlarini ifodalovchi termin o`zining aniq va ixcham ta`rifi bilan izohlangan: **Fricative** /ˈfrɪkətɪv / *noun***.** a speech sound made by forcing breath out through a narrow space in a mouth with the lips, teeth or tongue in a particular position, for example, /f/ and /ʃ/ in *fee* and *she* – compare PLOSIVE [p.596]. Izohdan ko`rishimiz mumkinki, izoh so`zning so`z turkumi, o`qilishi va aynan so`zdagi fonemalar na`munasi bila PLOSIVE (ya`ni Portlovchi) so`zi bilan qiyoslangan holda berilgan. Berilgan ta`riflar izohini qiyoslar ekanmiz ularning mazmunida 80% lik bir xillikni , faqatgina ba`zi jihatlarda, tovush organi o`rnidagi ta`rifda, farqli jihatini ko`rishimiz mumkin.

Endigi navbatda ikkinchi tur undoshlar ya`ni Portlovchi undoshlar izohiga nazar tashlasak: **ПОРТЛОВЧИ 2.** *тлш.* Нутқ аъзоларининг жипслашуви ва ҳаво оқими босимининг шу аъзоларни ёриб ўтиши натижасида ҳосил бўладиган (ундош). *[Б ундоши] Ўзбек тшида жарангли портловчи ундошлар орасида максимум жаранглилик касб этади.* «ЎТА» [3j., 299 b.] Berilgan izohdan shuni ko`rishimiz mumkinki, ushbu so`z ko`p ma`noli bo`lib lug`atda keltirilgan ma`no bevosita tilshunoslik, fonetika bilan aloqador. Ta`rif ilmiy asosda, aniq misol, na`muna manbasi bilan aytib o`tilgan

Oxfordda ushbu termin quyidagicha o`z izohini topgan: **Plosive** /ˈpləʊsɪv/ NAmE /ˈploʊsɪv/ *n./adj.* a speech sound made by stopping the flow of air coming out of the mouth and then suddenly releasing it, for example, /t/ and /p/ in *top* [p.1114]. Keltirilgan izohdan shuni ko`rishimiz mumkinki, ushbu so`z ingliz tilida ham ot ham sifat so`z turkumi sifatida qaralib bevosita bir-biriga bog`liqdir. Ikkala lug`atda berilgan ta`rif bir xil mazmunni ifodalaydi. Shunday qilib, Sof fonetik lug`atlar ikkala tilda deyarli bir xil mazmunni ifodalaydi. Miqdor jihatidan Oxfordda O`TILga nisbatan ko`proq berilgan. Har ikkala lug`atda berilgan ta`riflar misollar bilan berilgan. Ta`riflar aniq , ixcham, ilmiy asoslangan holda izohlangan.

Xullas, qiyoslar natijasi ikki tildagi terminlar va ularning izohlarida ham o`xshashlik va farqli jihatlar borligini ko`rsatdi. Bu ingliz va o`zbek tilidagi tovushlar tizimi, nutq va yozuvdagi ayrim o`xshash birliklar va tafovutlar borligini tasdiqlaydi. Lug`at ishora ishlatish amaliyoti nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Ular ustida ishlash jarayonida ishora berishning ikkiturini kuzatdik: Birinchi turida fanning umumiy nomini bildiruvchi ishora qo`yilib, uning sohalari nomi ko`rsatilmaydi. Masalan, “Oxford” (Oxford Advanced Learners Dictionary, New 7 th edition, 2006)da “lingv” ishorasi ham uning sohalari ishorasi ham (grammatika, fonetika) alohida-alohida berilgan. Mazkur holat o`zbek tilining izohli lug`atlarida ham uchraydi. Bizningcha, bu holat termini aniqroq izohlashga uni anglab olishga yordam beradi.

Alohida ta`kidlash lozimki, biz tahlil qilgan lug`atlar keng omma uchun mo`ljallanganligi uchun o`zining maxsus vazifalaridan kelib chiqib termin tanlshda

ma`lum erkinlikka ega bo`lgan. Shu bois lug`atlarda berilgan terminlar son jihatidan, ba`zi bir izohlar o`ziga xosligi bilan bir-biridan farqlanadi. Bunday keng akademik izohli lug`atlar u yoki bu fan terminlarini to`liq, keng qamrab olish vazifasini o`z oldiga maqsad qilib qo`ymaydi. Bunday vazifa maxsus terminologik lug`atlar zimmasiga yuklatiladi. Olib borilgan ushbu tadqiqot doirasida amalga oshirilgan ilk qiyosiy-leksikografik tahlil tillaridagi nafaqat izohli lug`atlar tuzish jarayonida, balki ingliz va o`zbek tillarining fonetik terminlari lug`atlarini tuzishda hamda kelgusida shu yo`nalishda olib boriladigan ilmiy kuzatishlar uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**:


1. Abduazizov, A.A. (1986). *A Theoretical Phonetics of Modern English*. (p.34). Tashkent.
2. Crystal, D. (1997). *The Linguistic Identity of English-language Dictionaries of Linguistics*. Lexicographic 13, 1997.
3. Xodjayeva, D.I. (2018). *Tilshunoslik terminlarining leksikografik tahlili* (ingliz, rus va o`zbek tillari izohli lug`atlari materiallari misolida). Ph.Diss. Toshkent.
4. Xodjayeva, D.I. (2019). Lexicographic codification of terms connected with nouns in explanatory dictionaries. *Mezhdunarodnyj akademicheskij vestnik//Nauchnij zhurnal* № 1(33), pp. 82-84.
5. (2010). Oxford Advanced learner's dictionary, Oxfort university.
6. Hayward, K. (2000). *Experimental Phonetics*, Harlow, UK: Pearson.
7. (2006). O`zbek tili izohli lug`ati. T. - Ўzbekiston millij jenciklopedijasi" Davlat ilmij nashrijoti.
8. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: вопросы теории и методики. – М.: Наука, 1961...
9. Axmedov O.S. Ingliz va o`zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari.Filol.fanlari dokt.dis…avtoref. – Toshkent, 2016.
10. Рахматуллаева Л.Н. Терминологическая лексикография как основа обучения искусствоведческой лексики. Автореф. дис. ... канд. педаг. наук. – Т., 1989. – 23 с.
11. (n.d.). Retrieved 2019, from www.google
12. (n.d.). Retrieved 2019, from www.ziyonet.uz

# INGLIZ, RUS VA O’ZBEK TILLARIDA TURIZM TERMINLAR TIZIMIDA LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLAR

**Y.Z.Rayimalieva**
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O`zDJTU)*

***Anotatsiya:*** *Ushbu maqola Ingliz, rus va o’zbek tillarida turizm terminlar tizimida leksik- semantik munosabatlarini farqli va o’xshash jihatlarini o’rganishga qaratilgan. U turizmga oid atamalarni o’zlashtirish va yasashning sermahsul usullarini tadqiq etishga etiborini qaratadi.*

Tilning lug'at tarkibi yangi so'zlar hisobiga doim boyib boradi, bu bilan til ham taraqqiy etadi. Yangi so'zlarning asosiy qismini terminlar tashkil etadi. Fan va texnika taraqqiyoti yangi terminlarni vujudga keltiradi, ayni zamonda, terminlar fan va texnika taraqqiyotiga zamin yaratib kelmoqda. Jamiyatdagi har qanday o'zgarish, birinchi navbatda, tilda o'z aksini topadi. Jamiyat taraqqiyotidagi ma’lum bir davrlarda u yoki bu soha terminologiyasining muayyan bir tor doira ko'lamidan chiqib, umumxalq nutqida ham keng foydalanish holatlari kuzatiladi. Xususan, O’zbekiston mustaqilligi yillarida ijtimoiy-iqtisodiy terminologiyaga oid ko'plab terminlaming o'zbek adabiy tilining chegaralanmagan qatlamiga singib borib, ommaviy nutda keng ko'lamda qo'llanilishini kuzatish mumkin. Turizm terminlar tizimining shakllanishi o’zbek rus va ingliz tillarida turlicha kechgan. Ingliz tilidagi turizm terminologiyasi deyarli mustahkam shakllangan, rus, o’zbek tilidagi esa rivojlanayotgan tizimlardir. Har ikki til turizm terminlar tizimidagi maksimal yaqinlik termin hosil bo`lishida qatnashuvchi morfemik asosda kuzatiladi. Termin hosil bo`lishining sermahsul usuli har ikki til uchun ham suffiksatsiya va qo`shma so`z hosil qilishdir. Terminologik birikmadagi asos so`z har ikki til modellarida ham ot turkumiga mansubdir. Biroq rus va o’zbek tilida asos so`z atrofida birlashuvchi leksik birlik sifat turkumiga mansub bo`lsa, ingliz tilida ot turkumiga mansubdir. Rus va o’zbek tilidagi eng samarali model tili "Adj + N" (charter reysi, qo'l yuklari, kurort jamg'armasi), ingliz tilida - "N + N". Ikki tilning oddiy atamalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki ularning lingvistik o'xshashligi darajasi juda yuqori. Ma'lumki, asosiy terminologik birlik - bu ism ot. Turistik atamalar tizimida ingliz va rus tillari otlar mos ravishda 97,1% va 96,8% ni tashkil qiladi.

Masalan:
*tourist class – туристический класс – turistik klass*
(ot+ot) (sifat + ot) (sifat + ot)
*wine tourism – винный туризм – vino turizmi*
(ot+ot) (sifat + ot) (ot+ot)
*business tour – деловой туризм – xizmat turizmi*
(ot+ot) (sifat + ot) (ot+ot)

Turizmga oid terminologiyaning tarkibiy tuzilishi xususiyatlarini o‘rganish maqsadida leksikaning formal-tarkibiy tahlili o‘tkazilgan, uning natijalari ingliz va

rus tilidagi turistik terminologiyasida bir qator oʻxshash va farqli xususiyatlarini aniqlangan. Tadqiqotda qayd etilishicha, ingliz tilidagi turistik terminologiyasida, rus tilidagi turistik terminologiyasi kabi, semantik, morfologik, morfologik-sintaktik usullar va chet tillardan oʻzlashuvi kabi soʻz yasalishi usullari yordamida hosil qilingan leksemalar aniqlangan. Tahlil shuni koʻrsatdiki, ingliz va rus tillarida turistik terminlarning koʻpchiligi polileksemali tuzilmalardan iborat, Leksik nuqtai nazaridan, ham ingliz, ham rus tilidagi turistik bir soʻzli terminlarning koʻpchiligi  sodda leksemalar guruhiga kiradi. Terminlarning kamroq soni esa aniq seziladigan affiksal xususiyatiga ega. Har ikki tilda ham semantik derevatsiyani kuzatish mumkin. Bu holatda terminologizatsiya, determinoligizatsiya va transterminologizatsiya hodisalari sodir bo`lgan va terminologik fond mundarijasi kengaygan [ Виноградова Л., 2011. 62- bet]. Ingliz, rus va o’zbek tillari turizm terminologiyasidagi katta farq so`z o`zlashtirish darajasida ko`rinadi. Rus tilida termin o`zlashtirish 60,3 foizni, ingliz tilida esa 6,3 foizni tashkil qiladi. Demak, termin hosil qilishda o`zlashtirish rus tilida sermahsul usuldir.  Inglizcha o`zlashmalarning ko`pligi ikki tildagi terminlar tizimi o`zaro yaqinlashish tendensiyaga ega ekanligidan dalolat beradi.  Ingliz tilida qo`shimcha qo`shish bilan termin yasash eng ko`p uchraydigan holat ekanligi qayd etilgan. Bunda asosiy inglizcha bo`lgan so`zlardan yasalgan terminlar salmoqli o`rinni tashkil qiladi:[15]

*hiker – турист – turist (sayyoh);*
*tourist –турист – turist;*
*landing –посадка – qo`nish;*
*transportation – перевозка – tashish;*

Asosi ruscha bo`lgan so`zlardan termin hosil bo`lishi asosan prefiks va suffikslar ishtirokida bo`lishi kuzatilgan: *напитки, перевозка, приземление, разговорник.*

Ingliz tilida ham, rus tilida ham *tur* (rus. тур; ingl. tour) asosli terminlar uchraydi: *“tour”, “tourist”, “tourism”; “тур”, “турист”, “туризм”. Tur* termini yakka o`zi ham umumiy terminologiyada faol qo`llanib, sayohat semasini o`zida birlashtiradi. Ushbu termin rus tiliga ham, ingliz tiliga ham fransuz tilidan o`zlashgan leksik birlik hisoblanadi. Biroq ingliz tilidagi lug`atlarda rus tilidan farqli ravishda *tur* asosli terminlar 200 yil oldin qayd etilgan. Terminlarning ixcham,aniq, bir ma’noli, bir shaklda bo`lishi lozimligi haqidagi talablarning muhimligi bugungi kun tadqiqotchilari tomonidan ham muntazam ta’kidlanadi. Turistik terminlar uchun ham yuqoridagi talablar amal qiladi. Terminologiyadagi doimiy masalalardan biri terminlar sinonimiyasi, omoniyasi , ko`p ma’noligi va antonimligidir. Turizm terminologiyasida sinonim yoki dublet termin juftliklar uchraydi. An’anaviy qarashga ko`ra, terminosistemada sinonimlarning mavjud bo`lishi terminologik sistemaning nuqsoni, ya’ni salbiy holat sifatida baholanadi.

---

[15] Виноградова Л. Терминология туризма английского и русского языков в синхронном и диахронном аспектах: Автореф. дисс. …канд.филол.наук. – Великий Новгород, 2011.

Rus va ingliz tillari omonimiya va antonimiya kabi leksik-semantik munosablarda bir xillikka ega. Termin-omonim va termin-sinonimlar o`rtasidagi foizlar nisbati bir xil ko`rsatkichga yaqin. Ular o`rtasidagi asosiy farq ingliz tilida modellashtirilgan omonimlarning mavjudligidir. Rus tilida esa bunday holat mavjud emas. Ingliz tilida polisemiya hodisasi ko`p kuzatilsa, rus tilida katta miqdordagi variantlarda sinonimiya hodisasi kuzatiladi. Bu holat ingliz tili turizm terminologiyasi rus tilidan ancha rivojlangan, me'yorlashganligini ko`rsatadi.

O`zbek tilida esa turizm terminologiyasi ilk shakllanish bosqichida bo`lib, soha rivoji natijasida uning tarkibi yangi maxsus birliklar bilan boyib bormoqda. Turizm iqtisodiy faoliyat natijasida dastlab Angliyada vujudga kelganligi uchun uning vatani sifatida shu hudud e'tirof etiladi. Shuningdek, xalqaro turizm terminologiyasida ingliz tilining yetakchi mavqeda ekanligini inobatga olsak, o`zbek tilidagi o`zlashmalarning asosiy qismi shu tildan o`zlashganligi tabiiy holdir.  Professor U.Tursunovasarlarida o'zbek tili terminologik tizimining ichki va tashqi manbalar hisobiga rivojlanishi haqida ma'lumot beradi. Har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham u yoki bu tushunchani ifodalash uchun birqancha usullardan foydalanadilar. Ular quyidagilardan iborat:

1. Terminlarning semantik yo'l hisobiga boyishi.
2. Terminlarning morfologik usul bilan yasalishi.
3. Terminlarning sintaktik yo'l bilan yasalishi.

Qator terminologik sistemalarda semantik yo'l bilan termin yasashdan unumli foydalanib keladilar. Chunki semantik so'z yasash terminologiyada amal qilinadigan doimiy va an`anaviy yo'ldir. O`zbek tili materiallari asosida to`plangan turistik terminlar tahlil qilinganga quyidagi holatlar kuzatildi. O`zbek tili materiallari asosida to`plangan turistik terminlar tahlil qilinganga quyidagi holatlar kuzatildi. Sodda terminlar genetik xususiyatiga ko`ra ikki turga bo`linadi:

1. o`zbek tilida avvaldan mavjud bo`lgan sodda turistik terminlar;
2. xalqaro tillardan kalkalash orqali bevosita o`zlashtirilgan sodda turistik terminlar

O`zbek tilida avvaldan qo`llab kelingan qo`shma so`zlarning ko`pgina qismi tilimizning asosiy lug`at fondi bazasidagi so`zlardan, qisman, o`zbek tiliga singishib ketgan arab va fors so`zlaridan yasalgandir. Keyingi davrda rus tilining, ingliz tilining o`zbek tiliga, uning leksikasiga ta'siri natijasida qo`shma so`zlarning yangi tip va modellari yuzaga keldi. Bular, asosan, yangi tushunchalarni ifodalovchi qo`shma terminlardir. Qo`shma terminlarning komponentlari genetik materialiga ko`ra turlichadir. O`zbek tili turizm terminologiyasida mavjud qo`shma terminlar komponentlari turli tillarga mansub terminlardir. Terminologiyadagi doimiy masalalardan biri terminlar sinonimiyasi,omoniyasi , ko`p ma'noligi va antonimligidir. Ingliz va rus tillaridan farqli ravishda o`zbek tili turizm terminologiyasida polisemiya va antonimlik hodisalari uchramaydi. Rus terminologiyasi tarixi bilan maxsus shug`ullangan L.L.Kutina shunday deb yozadi: "Ilmiy terminologiya sohasida keng tarqalgan sinonimiya hodisasi terminologik sistemalar amal qilishining ilk davri, ularning shakllanish davri uchun xarakterlidir". Biroq sinonimlik faqat terminologik sistemalarning dastlabki

rivojlanish bosqichigagina xos bo`lib, hozirda bu holat terminologiyada yo`q deb o`ylamaslik kerak. Demak, terminlar sinonimiyasi barcha tillarda uchraydigan hodisa hisoblanar ekan. O`zbek tili turizm terminologiyasida sinonim yoki dublet termin juftliklar uchraydi. [16] O`zbek tili turizm terminologiyasida *"otel" – "mehmonxona", "nomer" –"xona", "marshrut" – "yo`nalish", "reception", "adminstratsiya" –"ma'muriyat", "turist" – "sayyoh", "turizm" – "sayohat", "agentlik" –"tashkilot", "piknik" – "sayr", "ikkinchi klass –ekonom klass", "bronlamoq – bandlash"* kabi dublet terminlar uchraydi. Bu juftliklardagi birinchi birliklar xalqaro termino elementlardan tashkil topganligi uchun umumiylik kasb etsa, ikkinchilari o`z qatlamga mansubligi uchun ularda milliy-madaniy unsur yorqinroq ifodalanadi. Turistik terminlar boshqa soha terminlaridan qo`llanishi va iste'mol darajasia ko`ra jiddiy farqlanadi. O`zbek tili turstik terminalogiyasi ilmiy shakllanayotgan, muttasil boyib,takomillashib borayotgan terminalogik sistemadir. Buni O`zbekistonda turizimni rivojlantirishga jiddiy e'tibor berilayotgani, hatto davlat siyosati darajasiga aylangani va mamlakatimizda turizimning yangi-yangi turlari yuzaga kelayotgani hamda istiqboli bilan izohlashimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Collins P. H. Dictionary of Hotels, Tourism and Catering Management. Teddington: Peter Collin Publishing, 1994.
2. Виноградова Л. Терминология туризма английского и русского языков в синхронном и диахронном аспектах: Автореф. дисс. …канд.филол.наук. – Великий Новгород, 2011.
3. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.

## LINGUISTIC PECULIARITIES OF QURANIC LANGUAGE

**Sh.A.Yodgorov**
*Educational establishment: Uzbekistan state university of world languages*
*Department: Masters, linguistic (English)*
*Scientific supervisor:* **M.R.Galiyeva**

Many prominent orientalists and linguists deeply aware with Arabic appreciatively state about Qur'an'slinguistic and literary excellence. There are volumes of worksdone by numerous of orientalists, translators and linguists

[16] Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.

devoted to the investigation of Quran, its linguistic and stylistic peculiarities, literary language, etc.

According to Schact (1960), British-German professor of Arabic language and literature at Columbia University, the Qur'an could be a good example of divine linguistic phenomenon of incomparable importance. It is always expedited as a source of Arabic conceptual grammar, stylistics and semantics." (1964: 34). [17] Famous Lebanese – American linguist Phillip Hitti also stated that "The collected version of written Qur'an during Rashidun Caliphate's period was the primary book, from which classic Arabic grammar was mainly structured in Arabic linguistics (Islam: the way of life, 1970: 34).

A British orientalist, scholar of Arabic, Persian, and Islamic studies, Arberry writes the following statements in his translation «The Koran Interpreted" as follows: "Briefly, the rhetoric and rhythm of the Arabic of the Koran are so characteristic, so powerful, and so highly emotive, that any version whatsoever is bound in the nature of things to be but a poor copy of the glittering splendor of the original." (The Koran Interpreted, 1955: 13)

Moreover, the Qur'anic usage of oratorical and eloquent style is possibly beyond in comparison to the Classic Arabic language, which is very precise and accurate in both meaning and expression. Dawood, an Iraqi Jewish Scholar in his translation of the Qur'an asserts that:"The Koran is the fundamental source basis from where the Modern Arabian linguists took the shape of Arabic Grammar in order to structure Classical Arabic poetic style… It is acknowledged that the Koran is not only one of the most influential source of prophetic teachings but also a divine literary masterpiece in its own genre., which translations has, in my opinion, practically been failed into convey equally to the meaning and the rhetorical grandeur of the original."

Stylistic peculiarities of the Qur'an are composed of many stylistic devices such as imagery, symbolism, allegory, intertextuality, the use of rhythm, figures of speech like similes, metaphors, and rhetorical questions. Additionally, the use of irony and the repetition of words are a just a small part of the Qur'an's repertoire of rhetorical devices. Its cohesiveness includes various methods such as parallel structures, phrasal ties, substitution, reference and lexical cohesion.

These features providedthe uniqueness of Qur'an's language and style. These elements combine with each other in the Qur'anin myriad ways that produce the Qur'an's unique character.

- **LughatulFus'ha (Classical Arabic language – The language of Quran)**

The history of development of a language is as ancient as human civilization. Following each stage ofhuman life and societies, language has always been under the cultural and religious (theological) influences. Since ancient

[17] **Philip KhuriHitti** (Shimlan 22 June 1886 – Princeton 24 December 1978) was a Lebanese-American professor and scholar at Princeton and Harvard University, and authority on Arab and Middle Eastern history, Islam, and Semitic languages. He almost single-handedly created the discipline of Arabic studies in the United States.

timesthe role and nature of human languages was perceivedthrough the world views preached by various religions (Donovan, P; 1996:34).

For example, Greeks believed that their language was superior to all otherlanguages. It was thelanguage spoken the Olympian gods. Theirs was the only language with regularity, rules,and meaning; all other languages were arbitrary and meaningless (barbaroi) (KhaleedSayeed1984:541).

In India, Sanskrit was believed to be best divine language of their gods and goddesses worthy to be studiedand used by the high caste of Brahmans only. In Judeo-Christian world, the sacred language has been associated with Old Hebrew which was in common use during the time of Jewish prophets of Abrahamic origin. They considered that Old Hebrew is God’s own language, the language spoken in the heavens, the first languagespoken on the earth and therefore the mother of all languages in the world. (Encyclopedia Britannica; 1973: Vol. 15, p. 341)

In Islam, Arabicis considered to be one of such divine language among the Adherents of Islam that is highly appreciatedasan eternal linguistic miracle and the speech which was revealed through it as a truly word of God.[18]

Actually, Modern Arabic language that is common in use in writing and speakingamong the Arabs isdiffer from “Al Lughat al-Fus’hâ”, (**اللغة الفصحة** ) the classic form of Arabic language which is highly recognized as the language of revelation of the Qur’an and the language used by prophet Muhammad.

Well-known translator and editor of the International Encyclopedia of Islam, Abdulmannan Omar (2010) states that unlike other sacred languages which were abandoned as dead in the past, Classic Arabic still existsin communication and daily usage among the Arabs in the form of whichThe Holy Qur’an was revealed and written about fifteen hundred years ago. Themeanings of its words at the time of revelation are also easily known today. In the chapter twelve (surah Yusuf) on the second verse the Quran says:

إِنَّا أَنزَلْنَٰهُ قُرْءَٰنًا عَرَبِيًّا لَّعَلَّكُمْ تَعْقِلُونَ ﴿٢﴾

***(Abdulmannan Omar’s translation)****We have, indeed, revealed this Qur’an in a language which explains its object eloquently wellso that you may understand (12; 2);* ***(Muhammad Mohsen Khan’s translation)*** *Verily, we sent down the Quran in Arabic that you may understand*

The expressiveness and eloquent style of this language was perfectly attributed in both two versions of one context of the Quran as above-mentioned verse from the chapter 12th, surah Yusuf Both translators gave their option to the word phrase “qur’ananarabiyan”, but the most surprising truth is that both versions are true.

Let’s do comparative analysis:

[18]Rydin, Karin C. (2005). A reference grammar of Modern Standard Arabic. New York: Cambridge University Press.

Abdulmannan Omar considers the name of the language *"Arabiyan"* عَرَبِياًit selfisderived from the verb*"ariba"* عَرِبَwhich means *to give the stylist icsenseoffullness and clearness*. He thinks that there is a difference between the word phrases رَجُلٌ عَرَبِيandعَرَبَ رَجُلٌ**.** The expression عَرَبَ رَجُلٌ"Arabarajulu" means the man spokeclearly, plainly and distinctively and that what he spoke was livelyand brisk.

The Qur'an calls the Arabic language by the name ofالعربي المبين"Al'arabi Almubiyn" (See Qur'an chapters; 16:103 and 26:195) which mean sanall-embracing and clearly expressive and precise language. It could also refertoany of avariety ofregional vernacular Arabic dialects, which are commonly under standable by its similar phonologic structure with 28 letters in the alphabet as follows: ***(SeeFigure 1)***

- **Phonetic structure*(Figure 1)***

| | | labial | dental | Dental - alveolar: plain | Dental - alveolar: emphatic | Palatal | Velar | Uvular | Pharyngeal | Glottal |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Nasal | | **m** م | | **n** ن | | | | | | |
| Plosive | **voiceless** | | | **ta** ت | **to** ط | | **ka** ك | **qa** ق | | **ayn** ء |
| | **voiced** | **b** ب | | **d** د | | **jim** ج | | | | |
| Fricative | **voiceless** | **f** ف | **θ** ث | **sin** س | **sod** ص | **sh** ش | | **xo** خ | **ħo** ح | **ha** ه |
| | **voiced** | | **ð** ذ | **z** ز | **ðo** ظ | | | **G'** غ | **'yn** ع | |
| Lateral fricative | | | | | ض**sod** | | | | | |
| Approximant | | | | | | **yoy** ي | **w** و | | | |
| Lateral | | | | **l** ل | | | | | | |
| Tap | | | | $r^{o}$ ر | | | | | | |

- ***Morphological structure of Classic Arabic***

The overwhelming majority of Arabic words have a root, that generally consists of three consonants interlinked with vowels. This rootprovides the basic lexical meaning of the word. Moreover, unlike other Semitic languages, Arabic has a complex and unusual morphology with non-concatenated ***"three – lettered root system"*** which plays like a linguistic puzzle of deriving words relating to different parts of speech from a basic root.

A trilateral is a very economical word. It is a golden means between a long and a short word and is easy to pronounce, hear, write and conjugate. These

trilateral patterns are the foundation of quadrilaterals and the combination of the words.In Arabic it is called (‘IlmulIshtiqoq) علم الاشتقاق“The science of word derivation” whicharoot consisting of a set of bare consonants (usually three or four) fit together intoa discontinuous pattern to form new words.

E.g. look at the word derivation using these three Arabic letters ك/ت/ب (**k/t/b**) turning the word root into different parts of speech in the root context. This is done by adding some letters to the word root with changing the vowel signs.Derivationof words in Arabic ishighly capableof transmitting human thinking into words in such a manner thatwhen a person desires to make a detailed exposition. ***(See Figure 2)***

***(Figure 2)***

| **Adjective** | **Noun (Modifier of place)** | **Past participle (Attribute)** | **Noun (Object)** | **Noun (Subject)** | **Verb (predicate)** |
|---|---|---|---|---|---|
| كِتابي | مَكْتَبَة | مَكتُوب | كِتاب | كاتِب | كَتَبَ |
| ***Literal*** | ***Library*** | ***Written thing*** | ***Collection of written papers*** | ***The person who writes*** | ***To write*** |

To sum up, the wealth of meaning contained in the Quran, which is derived from numerous cultural and religious terms and names, can be translated only by sound knowledge of the history, culture, and geography of the Arab regions as well as the science of the Holy Quran.

Naturally, English is supposed as the most important language for the Muslim purpose, because of its “lingua franco” standard among the different nations of the world. Consequently, these kinds of diverse expansions of the language usage greatly requested to form totally new linguistic field, which is able to get functioned to investigate interrelatedness of concepts of language and religion.

## References


1. Aziz, Y. (1996). *Topics on Translation*. Garyounis: University of Garyounis.
2. Baker, M. ( 1992). *In Other Words: A Course Book on Translation*. London and New:
3. Routledge.Beaugrande, R. &Dresslar, W. (1981). *Introduction to Text Linguistics*. London:Longman.
4. Biber, D., Conrad, S. & Leech, G. (2002). *Student Grammar of Spoken and Written English*. London: Longman.
5. Bloor, Th. & Bloor, M. (2004). *The Functional Analysis of English*, Great Britain: HodderArnold.
6. Cook, G. (2001). *The Discourse of Advertising*. London and New York: Routledge.

   Fairclough, N. (2010). *Media Discourse*. New York: Bloomsberry Academics.

# ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ ҲОСИЛ БЎЛИШ МЕХАНИЗМИ ВА ТАСНИФИ

**M.G'. Rabiyeva**
*Candidate for a Master's degree atEnglish linguistics department, Bukhara state university*

*Мақолада эвфемизмларнинг жаҳон тилшунослигида ҳосил бўлиш механизми ( ҳодисаси, сабаблари ) ҳамда уларнинг таснифи масалалари ёритилган.*

Жаҳон тилшунослиги тилда халқ тасаввурлари ва дунёқарашининг акс этиши масаласига ҳамиша қизиқиб келган. Шу боисдан кейинги вақтларда олим ва сиёсатшунослар халклар орасидаги маданий-цивилизацион фарқларқийматининг ўзига хослигига қаратишмоқда. Этномаданий қадриятларнингасосий ташувчиларидан бўлган тил бирликларини социопрагматик валингвокультурологик жиҳатдан тадқиқ қилиш замонавий тилшуносликфанининг асосий йўналишларидан бўлиб қолди.Жаҳон тилшунослигида, умуман олганда, тил ва маданият, тил вамаънавият, тил ва мулоқот муносабати тадқиқига эътибор кучайганлигиуларни ўзида яққол акс эттирувчи метафорик эвфемизация тадқиқинингҳам муҳим масала эканлигини кўрсатади. Тилнинг ўзига хосхусусиятларидан бири унинг бирликларининг эвфемик қўлланишларидир. Эвфемизм лексик бирлик деб қаралганлигидан бўлса керак у лексикология бўлимидан ўрин олган. Тилда табу ва эвфемизмларни ўрганиш нафақат тилшунослик учун балки тил тарихи ва этнография учун ҳам аҳамиятлидир.Эвфемик ходисалар ўзида тил ва маданият муштараклигини акс эттиради.Одамнинг нутқ фаолияти ахлоқий нормаларга риоя қилади. Мулоқот маданияти даражасини, нутқий маданият савиясиникўрсатувчи муҳим воситалардан бири эвфемистик ифодалардир.

Б.А. Лариннингфикрича: " Эвфемизмлар муваққат. Унинг ишлатилиши учун нутқий вазият керак, яъни дағал сўзлар эквиваленти мавжуд бўлиши керак. Ишлатилиши ноқулай бўлган сўзлар истеъмолдан чиқиши билан эвфемизмлар ҳам ўз қийматини йўқотиб, оддий лексема сифатида воқеланади", -деб таъкидлаб ўтган[19].

Ж.Вандриеснингэътироф этишича: " Эвфемизм - бу маън этилган луғатнинг мулойимроқ ва маданийроқ формасигина, холос", - дейди[20].

Л.А.Булаховскийэса: " Эвфемизмлар ёмон фикр уйғотадиган нарса ёки ҳодисанинг асл номини алмаштириш ва улар ҳақида сўз орқали ёвуз кучларни чақириш " хавфи" ни туғдирмай туриб гапириш, ҳаммадан олдин "хавфнинг олдини олиш" формуласидир", - деб ёзади[21].

---

[19] Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Ученые записки ЛГУ. – Л., 1961.
[20] Вандриес Ж. Язык. – М.: Учпедгиз, 1937. 19
[21] БулаховскийЛ.А.Введение в языкознание.Букинист.1954.– С.174.

Эвфемизмкўллаш кўп ҳолдарда табу ҳодисаси билан боғланади. Табу - инсониятнинг ёзилмаган энг қадимги қонуни сифатида таъқиқлар воситасида пайдо бўлган. Полинезия тилидаги маъноси асли "тапу", та:(ишоратламоқ, белгиламоқ ) ва пу:( диққатни тортувчи, инсонни чалғитувчи) деганидир. Турли хил шарт-шароитдан келиб чиққан ҳолда, табу таъқиқни, жамият ривожланишининг турли босқичларида юзага келадиган муҳитни билдиради. Полинезия этник муҳитида бу этник қонуниятнинг бузилиши шахс учун оғир оқибатларни келтириб чиқарган.Тилдаги табу ва эвфемизм нутқда бирор бир ҳурматни билдирувчи ёки аксинча, салбий тушунча, ҳодисани билдирувчи сўзларни таъқиқлаш асосида вужудга келади. Маданият ривожланишининг илк даврларига хос бўлган предмет ва унинг номи ўртасидаги табиий боғлиқлик ҳақидаги тасаввур, сўз сеҳру жодуси ва табу ,яъни маълум предмет ва ҳодисаларнинг номлари ( Худо номлари, руҳ, шайтон, ўлим, касаллик, баъзи ҳайвонлар, одам тана аъзолари номлари )ни таъқиқлашни келтириб чиқаради. Табу ва эвфемизмларнинг бойлиги нафақат уларнинг кенг миқдорий таркибга эга эканлигида, балки уларнинг семантикасининг кенглиги ва услубий сифатининг хилма-хил эканлигидадир. Табунинг мақсади жамиятга зарур бўлган тушунчани эмас, балки сўз-номни истеъмолдан чиқаришдир. Шу тариқа, табу механизми, яъни сўзни бошқа бир сўз билан алмаштириш ёки номланишини ўзгартириш билан аниқланади. Табулашган сўзни алмаштирувчи сўз ёки ибора эса эвфемизм ҳисобланади. Шундай қилиб, жамият ҳаётининг тилга таъсирини амалга оширувчи каналлардан бири сифатида,табу:сўзларнинг йўқ бўлиб кетиши, синонимиянинг ривожланиши, сўзларнинг ўзгариши каби тилдаги муҳим ўзгаришларга сабаб бўлади:

Эвфемизмларнинг маълум қисми табу билан боғлиқ бўлади. Эвфемизмларнинг кўпчилик қисми ахлоқий ва маданий жиҳатдан айтилиши ноқулай деб топилган сўзлар ўрнида қўлланувчи сўз ва ибoралардир. Масалан:қизамиқ ўрнида ойнома (Самарқанд вилоятининг айрим туманларида); чечак ўрнида гул;сил (туберкулёз) ўрнида узун оғриқ;пес ўрнида оқ; кал ўрнида сийқабош; хотин ўрнида умр йўлдош, рафиқа, қаллиқ;хотин олмоқ ўрнида уйланмоқ каби сўз ва ибораларнинг қўлланиши эвфемизмдир.

Тилдаги ушбу ҳодиса тадқиқида социолингвистик йўналтирилганик устуворлик қилади. Шундай қилиб, эвфемизмни кўпаспектли лингвистик ҳодиса сифатида 3 ўзаро боғлиқ омиллар нуктаи назаридан ўрганиш лозим: 1) ижтимоий омил, унинг асосини морал этник ва диний қадриятларни ўзида мужассам қилган ижтимоий эвфемизмлар ташкил қилади. 2) психик омил, унинг асосини эҳтиёткор муносабатда бўлиш, яъни баъзи предмет ва ҳодисаларни тўғридан тўғри номлаш салбий ҳис-туйғуларни, уят ва нохушликни келтириб чиқариши мумкин. Уларни алмаштирувчи сўзлар эса

салбий муносабатни юмшатади. 3) лингвистик омил, дисфемистик бирликларнинг кўпайиши, нохуш ибора ва сўзларни тилнинг стилистик потенциалини кенгайтирувчи эмоционал бўёқдор сўзлар, яъни эвфемизмлар билан алмаштириш заруратидан келиб чиққан.

| **Семантик маъно** | **Таржима** | **Эвфемик маъно** | **Таржима** |
|---|---|---|---|
| died | ўлди | passed away | вафот этди |
| abortion | бола олдирмоқ | pregnancy termination | ҳомиладорликни тўхтатмоқ |
| unemployed | бекорчи | between jobs | ишсиз |
| got fired | ишдан бўша-тилмоқ, ҳай-далмоқ | taking an early retirement | эрта нафақага чиқмоқ |
| fat or overweight | семиз | big-boned | тўларoқ |
| bald | кал | moon landing | сийқабош |
| prostitute | фоҳиша | comfort woman | енгил табиатли аёл |
| short | пакана | vertically challenged | калта бўйли |
| blind | кўр | sight-deprived | кўзи ожиз |
| handicapped | мажруҳ | Special | меҳнатга лаёқатсиз |

Эвфемизм - салбий воқеликни аташдан қочиш, шундай воқеликнинг салбий таъсирини юмшатиш учун хизмат қилиб, кишининг иззат-нафсига тегадиган, унга малол келадиган, ҳурматсизлик ифодалайдиган, ахлоқий меъёрларга зид келадиган ҳолатларнинг ёки тўғридан-тўғри айтиш мумкин бўлмаган махфий воқеликнинг салбий таъсирини камайтириш, уларни яшириш, беркитиш;

-нохуш хабарларни беозорроқ, юмшоқроқ шаклда етказиш, ифодалаш учун ишлатилади. Эвфемистик ибораларнинг ишлатилиши таъқиқлаш натижаси эмас, балки “экспрессив-стилистик ва ижтимоий омиллар” туфайлидир. Шундай омиллардан бири этика ва хушмуомалаликка оид эвфемизмларнинг пайдо бўлиши билан боғлиқ.

Масалан: ўлди сўзи ўрнига вафот этди, қазо қилди, дунёдан ўтди, дунёдан кетди, жонини эгасига топширди, кўзи юмилди каби сўз ва сўз бирикмалари ишлатилади.

Ўлим ва касаллик билан боғлиқ эвфемизмлар ≪қўрқув≫ умумий семаси билан бирлашадиган эвфемизмлар бўлиб, мутахассислар уларнинг тури жуда кўплигини таъкидлашади. Абдулла Қодирий ижодидаги эвфемизмларни тадқиқ қилган тилшунос Х.Қодированинг фикрича, ≪адиб асарларида қўлланган ≪ўлмоқ≫ тушунчасини ифодаловчи 22 та эвфемик ва дисфемик воситадан 16 таси эвфемизм ҳисобланади *(бу дунёи фонийдан ўтмоқ, дунё билан видолашмоқ, дунёдан кетмоқ, дунёдан кўчмоқ,дунёдан ўтган, жойи*

Индивидуал метафоралар шеъриятда муҳим ўринга эга, чунки асил бадиий маъно индивидуалликнинг кўриниши, унинг туб асоси ҳисобланади, назаримизда. Бунинг исботи сифатида истеъдодли шоир У.Азимнинг биргина дунё сўзига нисбатан 80га яқин эпитет (сифатловчи сўз) қўллагани, уларнинг катта қисми индивидуал метафоралар эканлигини айтиш мумкин. Мисолларни кузатамиз: *азиз дунё, айёр дунё, арзимас дунё, бағри кенг дунё, бедор дунё, беҳадик дунё, боришсиз дунё, гулкор чолғу дунё, гул хор ёҳу дунё, гунг дунё, гўзал дунё, денгизли дунё, ёлғон дунё, ёлғончи дунё, ёруғ дунё, йўлларсиз дунё, кам дунё, кекса дунё, келишсиз дунё, кенг дунё, кимсасиз дунё, кўзи кўр дунё, кўлмак дунё, кунсиз дунё, лол дунё, майхона дунё, мард дунё, маст дунё, маст-аласт дунё, нафис дунё, нотўкис дунё, оғир дунё, она дунё, осмонсиз дунё, паришон дунё, пулдунё дунё, сағир дунё, саратон дунё, сарғайган дунё, сеҳрли дунё, совуқ дунё, соғинган дунё, содда дунё, темир дунё, тинч дунё, тоза дунё, тор дунё, тош дунё, тошдил дунё, тошли дунё, тўрт бурчак дунё, узун садо дунё, хазонрез дунё, хўрланган дунё, чин дунё, шеърсиз дунё, шўрлик дунё, эзгу дунё, эртакли дунё, юраксиз дунё, яшил дунё, ўйинчоқ дунё, ўтар дунё, қават-қават дунё, қон жиға дунё, қонуний дунё, қўшиқчи дунё, ғазабкор дунё, ғалва дунё, ғалвир дунё, ғариб дунё, ғурбат дунё, ғуссали дунё* каби[25]. Мазкур мисоллардан *азиз дунё, арзимас дунё*, *бағри кенг дунё, гўзал дунё, ёлғон дунё, ёлғончи дунё, ёруғ дунё, тор дунё* кабилар сўзнинг семантик структурасига кирадиган, анъанавий ўхшатиш (ингерент коннотация) ҳисобланса, *гунг дунё, йўлларсиз дунё, кам дунё, келишсиз дунё, кўзи кўр дунё, кўлмак дунё, осмонсиз дунё, паришон дунё, пулдунё дунё, сағир дунё, саратон дунё, сарғайган дунё, сеҳрли дунё, совуқ дунё, темир дунё, тўрт бурчак дунё, узун садо дунё, эртакли дунё, юраксиз дунё, қават-қават дунё, қон жиға дунё , ғариб дунё, ғурбат дунё, ғуссали дунё* кабилар У.Азимнинг индивидуал метафоралар, нутқий метафоралар (адгерент коннотация) саналади. Кўринадики, нутқий коннатация оригинал, “оҳорли” бўлиб, бадиийликни таъминлайди, бир ўқишдаёқ таъсир этади, диққатни тортади ва ўқувчини чорлашда характерли ҳисобланади.

Юқорида келтирилган мисоллардаги янги эпитетлар (нутқий коннатация) окказионал бўлиб, ўқувчида ижодкор жимжимадорликка берилгандек таассурот уйғотиши мумкиндир. Аммо илҳомланган ижодкор доим ҳам луғат қатламидаги мавжуд кўчимларга кўна қолмайди. Ёки истеъдодли шоир О.Матжон Ўзбекистоннинг эпитети сифатида *асал сандиқ* бирикмасини ва *асалистон* нутқий ясама сўзини қўллайди: *О, Ўзбекистон, асал сандиғим менинг, асалистоним менинг.* (О.Матжон) Ҳар иккала тасвир ифодаси оҳорли, бетакрор дея оламиз. Ваҳоланки, “чинакам, асил бадиий

[25] Мисол олинган манба: Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (У.Азим шеърияти мисолида). НД. – С., 2019.

маъно учун энг муҳим ўлчов унинг янгилиги, оҳорлилиги” эканлиги тадқиқотчилар томонидан кўп бор таъкидланган.

Индивидуал метафораларнинг шеъриятдаги ифодаларидан мисоллар кузатамиз: 1. *Тилим – гулзор, дилим – дуозор*. (И.Мирзо) 2. *Ёзда чангистону, қишда балчиғистон кўчамен.*(Э.Воҳидов) 3. *Барчага баробар бир офтобсимон/ Тошўтмас қўрғонга ўхшайди ўзбек.* (М.Юсуф) 4. *Шамоллар от солар Қўштегирмонга, / Осмонни супурар нуқратан терак.* (И.Мирзо) 5. *Чақмоқтуёқ тойимдан/ Айирмоқчи бўлишди.* (М.Юсуф) 6.*Қор – биллуртан фаришта*. (У.Азим).

Мазкур мисолларда *“тилим – гулзор, дилим - дузор”, “балчиғистон кўча”, “ўзбек – тошўтмас қўрғон”, “нуқратан терак”, “чақмоқтуёқ той”* кабиларни индивидуал метафоралар сифатида баҳолаш мумкин.

Айни вақтда *дуозор*, *балчиғистон* аффиксация усулидаги индивидуал нутқ неологизмлари ҳам саналади. Ҳар иккала нутқий ясама сўз аффиксация усулида сўз ясалиши меъёрларига ҳам шаклан, ҳам мазмунан жавоб бера олади (*дуозор* сўзи [от+зор], *балчиғистон* сўзи [от+истон] сўз ясаш қолипи маҳсули саналади).

Мисоллардаги *нуқратан, тошўтмас, чақмоқтуёқ* кабилар композиция усулидаги индивидуал нутқ неологизмлари бўлиб, [от+от] қолипи тарзидаги нутқий ясамалардир.

Индивидуал нутқ метафоралари, одатда, ижодкорлар томонидан фавқулодда яратилган нутқий ҳосилалар ҳисобланиб, окказионал характерда бўлади. Бу каби мисоллар давр ўтиши билан умумистеъмолдаги сўзга айланиши ёки шу асар (шеър) доирасида қолиб кетиши мумкин.

Жадид адабиётининг ёрқин намоёндларидан бири А.Фитрат шеърларининг лингвопоэтик таҳлили жараёнида гувоҳ бўлдикки, адиб ижодида сўз ва унинг коннотатив маъноларига эътибор алоҳида ўринга эга. Шоир ижодида индивидуал метафораларнинг кўриниши сифатида *қимматли армон, умидсизлик ханжари, титроқ булутлар, қонли оловлар, қизғин олов, нур денгизи, эрка ёғду, инжиқ ёғду, ўксизлик бойқуши, қон ҳидли ел, армон гули, нозли япроқ, жаҳл уйи, махфират армонлари, илм эрлари* каби гўзал, бетакрор, йиллар ўтса-да “оҳори тўкилмаган” кўчимларга гувоҳ бўламиз. Мисолларни кузатамиз: 1.*Эрка малак, аччиқланма сенга, учирсанг-да кўкка юрак кулин.* (“Аччиқланма”, деган эдинг”) 2. *Ҳақсизлик шаҳрининг қон ҳидли ели, Армонли гулидан бир япроқ узуб, Баҳорсиз чўлларга совуриб қўйди.* (“Беҳбудийнинг соғонасини изладим”) 3. *Юрагимнинг энг қимматли армони, Нечун менга марҳаматинг озайди.* (“Бир оз кул”)

Муаллиф ёрга мурожаат қилар экан, янги-янги индивидуал нутқ метафораларидан ҳам фойдаланади: *Қип-қизил гулим, ёп-ёруғ ойим, Кетма, тур бир оз, мен кўрай сени.* (“Ким деяй сени?”) *Ёвуз ёрим, юзингга ҳеч боқолмам, кўнгил дардин оёғингга тўкўлмам.* (“Бир оз кул”)

Кўринадики, А.Фитрат ижодидаги янги кўчимлар нутқнинг ифода имкониятларини кенгайтиришга қўл келган.

Ш.Рашидовнинг “Кашмир қўшиғи” қиссаси ҳам кўпгина асарлар каби халқимизнинг севимли китобига айланиб улгурган. Мазкур асар ёшларимизнинг маънавий дунёсини кенгайтиришда зарурий адабиётлардан бири бўла олади.

Сўзнинг матний қўлланилиш имкониятлари кенг бўлиб, бунда полисемантик сўзлар асосий ўрин эгаллайди. “Кашмир қўшиғи” асарида полисемантик сўзлар салмоқли ўрингa эга. Асарда *муҳаббат қўшиғи, кўклам либоси, тонг латофати, муштоқлик ўти, ипак киприк, ипак соч, олижаноб севги, ҳаётбахш тонг, ширин қўшиқ, қора шамол, қайсар чечак, ажал тўфони, яланғочлик тимсоли, қўпол ашула, нозик жаранг, қора куч, оташин қалб, улуғ куч, ширин орзу, садоқат таронаси, севги ўти, қўнғироқ овоз, ҳаётбахш куй, эркатой чечак, турна кўзли булоқ, олтин нур, қора куч, олтин ер, ёқут лаб* каби кўчимлар мавжуд.

Бу каби бой мисоллар Ш.Рашидов ижодида полисемантик сўзлар ўзига хос ўринга эгалиги ҳақида хулоса чиқаришимизга имкон беради. Ш.Рашидов полисемантик сўзлардан самарали фойдаланиб, улар маъносининг кенгайишига ҳам маълум даражада ҳисса қўшди. Яна бир далил аҳамиятлики, тилнинг луғат бойлигида мавжуд сўзларнинг янги маъно қирраларини ва уларнинг ишлатилиш имкониятларини ахтариш, унинг индивидуал ўзига хослигини ҳамда ижодий услубини тўлиқ характерлайди. Ш.Рашидов ижодидаги *ипак киприк, олижаноб севги, қайсар чечак, нозик жаранг, эркатой чечак, турна кўзли булоқ, олтин нур* кабиларни “оҳори тўкилмаган” индивидуал метафоралар дейиш мумкин. Бу каби ўхшатишлар бошқа асарларда учрамайди. Мазкур кўчимлар матнга бетакрор жарангдорлик ва мусиқийлик, гўзаллик ва халқчиллик бахш этган. Масалан: *1) ...эркатой чечаклар, гўзал бинафшалар, зангори бахмал майсалар – ҳаммаси офатга йўлиқиб, хас-хашакка айланган эди.*

С.Зуннунова ижодида ҳам индивидуал метафораларнинг ранг-баранг кўринишларига дуч келамиз: *Асал мевалардан эгилган шохлар, / Эгилган, боғбондан гўё миннатдор.* (“Қишлоқ”) Мазкур мисраларда *асал мева* эпитетини учратамиз. Ижодкор маъно даражаси учун асал сўзини сифатловчи тарзида қўллайди.

Ҳар бир бадиий матнда бўлгани каби Саида Зуннунова шеъриятида ҳам индивидуал метафораларнинг ўз ўрни бор. Улар шеърдаги туйғулар таъсирчанлигини ва образлар теранлигини таъминлашда қўл келади. Шоира ижодидаги ўзига хос нутқий метафоралар сирасига *тотли ўтмиш, даққи юрак, қиров соч, олов дақиқа, тошбағир сийна, мармар сийна, изсиз бахт, ипак нур, яноғи куйган япроқ* ва ҳ.к.лар мансуб. Бу кабилар образлилик, ифодавийлик, бир сўз билан айтганда, бадиийликни таъминловчи муҳим воситалар ҳисобланади.

Хуллас, сўз сеҳри, жозибасини теран ҳис қила оладиган истеъдодли шоирлар ўз ижод намуналарининг жарангдор, бетакрор бўлишига эришишлари учун индивидуал метафораларнинг турли-туман кўринишларидан мақсадли фойдаланганликлари тез-тез кузатилади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Асадов Т., Мардонова С. Индивидуал нутқ неологизмлари, уларнинг юзага келиш асослари хусусида. Сўз санъати халқаро журнали. 2-махсус сон. –Т.2020, 74-81-бет.

2.Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Darslik. –T.:“Fan va texnologiyalar”, 2010. - 404 b.

3.Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1992. –339 б.

4.Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (У.Азим шеърияти мисолида). Филол. фан. номз. …дис. автореф. – С., 2019. -25 б.

# TIBBIY METAFORALAR

(publitsistik matnlar misolida)

**N.O‘.Boltayeva**
*BuxDU Lingvistika (o‘zbek tili) II bosqich magistranti*
**D.A.Axmadova**
*BuxDU Lingvistika (o‘zbek tili) I bosqich magistranti*
**M. Q. Abuzalova**
*f.f.d., prof.*

***Annotatsiya:*** *Maqolada tibbiyot sohasiga oid ommabop nashrlardagi metaforalar tahlilga tortilgan. Publitsistik matnlarning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *tibbiyot, ko‘chim, ko‘chma ma’no, ma’no ko‘chishi, metafora, publitsistika, publitsistik uslub.*

Ma’lumki, “tibbiyot [arabcha – tabobat, davolash; meditsina] kishilar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash haqidagi bilimlar va shu sohadagi amaliy tadbirlar majmui”[26]dir.

“Uzoq umr ko‘rish uchun organizmni muntazam ravishda chiniqtirish, vaqtida to‘g‘ri ovqatlanish, mehnat qilish, dam olish va ayniqsa, bekordan-bekorga asabiy bo‘lmaslik darkor”, - degan edi ulug‘ alloma Abu Ali ibn Sino. Zero, salomatlik tabiat in’om etgan eng bebaho boylik hisoblanadi.

***Hozirgi pandemiya davrida*** mana shu bebaho boyligini xavf ostiga qo‘yib tun-u kun mehnat qilayotgan “bugungi kun qahramonlari” bo‘lmish tibbiyot xodimlarining buyuk xizmatlari alohida e’tiborga loyiq, albatta.

Bu borada Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan “Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishga jalb qilingan tibbiyot va sanitariya epidemiologiya xizmati xodimlarini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-

[26] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 4-том. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. 82-бет.

tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorning imzolanishi ham bu kasb egalariga bo‘lgan yuksak ehtiromdan dalolatdir.

Mana shu qarorni qo‘llab-quvvatlagan holda biz ham ushbu ***kichik ilmiy tadqiqotimizni aynan tibbiyot sohasiga bag‘ishladik*** va shu sohaga oid publitsistik matnlardagi metaforalarni tahlilga tortishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Darhaqiqat, publitsistikaning asosiy vazifasi xalqning barcha masalalardagi ongi, ilmi, huquqi, madaniyatini o‘stirish, kamchiliklarni aniqlab, undan forig‘ bo‘lish yo‘llari va usullarini ko‘rsatishdir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotida katta o‘zgarishlar bo‘lganidek OAV tizimida ham tubdan yangilanishlar bo‘ldi. Mazmun va shakl jihatidan o‘zgarishlarga uchradi. Matbuotda xususiy nashrlarning yuzaga kelishi, televideniye va radioda xususiy kanallarning ochilishi va boshqa yangiliklar yuzaga keldi. Shu bilan birga, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng jurnalistika sohasida ham o‘ziga xos o‘zgarishlar kuzatildi. Natijada publitsistikada tibbiyot sohasiga oid ko‘rsatuvlar bilan bir qatorda, OAV nashrlariga ham keng o‘rin berila boshlandi: *“Salomatlik”, “Oydin hayot”, “O‘zingni angla”, “Plus 1141”; “DOKTOR PRESS”, “SHIFO-info”, “Tashxis”, “Salomatlik sirlari” va b. .*

Til taraqqiyotida muhim omil sanaladigan publitsistika o‘z navbatida tilning imkoniyatlaridan keng foydalanadi, shu bilan birga, yangi so‘z va iboralar hisobiga tilimizning boyib borishiga ko‘maklashadi.

Publitsistik uslubda shakllangan matnlardagi aniqlik, qisqalik, lo‘ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar barchaning e’tiborini tortsa, bunday matnlar obrazliligi, ta’sirchanlikni oshiruvchi vositalarning mahsuldor qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, turli metaforik birikmalarni faol qo‘llash ham ommabop uslub tabiatiga xosdir.

Bilamizki, ko‘chma ma’nolar so‘zlarga xos bo‘lib, faqat nutqda voqelanadi. Shuning uchun ular nutqiy ko‘chma ma’nolar deb yuritiladi. Semema tarkibidagi semalar asosida nutqda ko‘chma ma’no hosil qilish atamalardan boshqa deyarli barcha so‘zlar uchun xosdir. So‘zlardagi ko‘chma ma’noning bu turi tilshunoslikda metafora - o‘xshatish asosida hosil qilingan ko‘chma ma’no deyiladi.

Biz metafora xususida fikr bildirar ekanmiz, avvalo, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” hamda “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”ga murojaat qildik. **Metafora** [yun. metaphora – ko‘chirish , ko‘chim] - so‘z yoki iborani o‘xshashlik yoki o‘xshatishga asoslangan ko‘chma ma’noda ishlatish va shunday ma’noda ishlatilgan so‘z yoki ibora; istiora, majoz ( mas, *quloq* so‘zining *dutorning qulog‘i* birikmasidagi ma’nosi metafora asosida yuzaga kelgan).[27] **Metafora -** bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomondan o‘xshashligini e’tiborga olib ko‘chirish. U so‘zning yangi ma’nolari hosil bo‘lishida qatnashadigan

[27] Ўзбек тилининиг изоҳли луғати. 5 томлик. 2-том. “Ўзбекистон Миллий Энсиклопедияси”. – Т.: 2006. 582-бет.

omillardan biri hisoblanadi. Masalan, *qanot, kosa, arafa* soʻzlarining *samolyot qanoti, tarvuzning kosasi, bayram arafasi* birikmalaridagi ma'nosi metafora asosida hosil boʻlgan.[28] Demak, metafora koʻchirish, koʻchirma demakdir.

Ba'zi mutaxassislar "metafora – oʻxshatishning qisqargan shakli", - degan fikrni ilgari suradilar.[29] Biroq tilshunos olim A.Mamatovning ta'kidlashicha, "Metafora oʻxshatishga asoslanadi. Oʻxshatish metafora uchun birinchi bosqichdir. Oʻxshatish bilan metafora orasidagi farq ular komponentlarining qoʻllanish xususiyatidadir. Oʻxshatishda soʻzlar toʻgʻri ma'noda, ya'ni oʻz ma'nosida, metaforada esa koʻchma ma'noda qoʻllanadi"[30].

Metaforalarni tahlilga tortar ekanmiz, ularni quyidagicha guruhlashga harakat qildik:

**1. Inson a'zolari ishtirok etgan tibbiy metaforalar:**

*"**Miya qancha boy boʻlsa**, tana shuncha sogʻ boʻladi" (SHIFO-info, 06.02.2020, 4-bet).* Aslida *boy* soʻzi mol-dunyosi, davlati koʻp, badavlat odamga nisbatan qoʻllaniladi.

***"Kasal sochlar** uchun. Turli soch turmaklarida kimyoviy vositalarning ishlatilishi yoki kimyoviy boʻyoqlar bilan sochni boʻyagandan keyin **sochlar kasallanadi**. Ularni tiklash uchun haftada kamida ikki marta quyidagi niqobdan foydalansangiz yaxshi natijaga erishasiz" ("SHIFO-info" gazetasi. 31.10.2019, 26-bet).*

**2. Shakliy oʻxshashlik asosidagi tibbiy metaforalar:**

*"**Bronxlar** - oʻpkaga havo olib boruvchi **naylar**. Ular orqali odam nafas oladi".* *Nay* – uzun, ichi teshik narsa. Bronxlar ham xuddi shu shaklda boʻlganligi sababli bu metafora yuzaga kelgan.

*"Nerv - miyadan organizmning hamma joylariga tarqalgan kichik **organik tolalar**. Ular odamga sezgi va harakatlar haqidagi ma'lumotni yetkazadilar".*

*"Ninalogʻich (govmichcha) - kiprik oldidagi qizil, shishgan infeksiya tufayli kelib chiqqan tuguncha, u koʻpincha **koʻz qirgʻogʻiga** yaqin joyda boʻladi" (Hammabop tibbiyot qoʻllanmasi. 2013).*

**3. Belgi oʻxshashlik asosidagi tibbiy metaforalar:**

*"Mikroblar - tanada yashovchi juda kichik organizmlar boʻlib, ular ba'zi infeksiyalarga olib keladi, ular juda **ayyor** boʻladi".*

*"Qayt qilish ba'zan **yengil, ba'zan ogʻir kasalliklar** belgisi hisoblanadi, shuning uchun bunday kishilar yaxshilab tekshirib koʻrilishi kerak. Ba'zan ovqatdan zaharlanish, tomoq bezlarining shamollashi, oʻt pufagi ogʻrishi yoki bosh ogʻrishi ham qayt qilish sababchisi boʻlishi mumkin" ("SHIFO-info". 20.04.2017, 3-bet).*

***"Eng yumshoq va nafis a'zo**, uni avaylang! Koʻpchilik odamlar miyaning nechogʻlik yumshoq va himoyasiz ekanligini bilishmaydi. Unutmang,*

---

[28] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: - 2001. 63-bet.

[29] Расулов Т. Истиора // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1967. 1-сон. 18-б.; Қобулжонова Г. К. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т.: 2000. 5-б.

[30] Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Фил. фан. док. диссер. Т., 1999. 140-б.

*uning 80%i suvdan iborat, o'zi yumshoq yog' ko'rinishida bo'ladi" ("SHIFO-info" . 06.02.2020, 4-bet).*

**4. Harakat o'xshashligi asosidagi tibbiy metaforalar:**

*"Albatta, turmush qurish va oilali bo'lish har bir fuqaroning huquqi, ehtiyoji. Agar o'g'lingizni uylantirmoqchi bo'lsangiz, undagi **kasallikni chekintirish, jilovlash** choralarini ko'rish kerak" ("SHIFO-info". 20.04.2017, 3-bet).*

***"Harakat umrni uzaytiradi"** ("SHIFO-info". 20.04.2017, 1-bet).*

*"Tibbiyotda ishlatiladigan dori-darmonlar o'z xususiyatlariga ko'ra bebahodir. Lekin eng zo'r deb hisoblanadigan har qanday dori ham bir a'zoning ishini yaxshilar ekan, boshqa birining faoliyatini buzadi. Zamonaviy tibbiyot ilmi sun'iy dori-darmonlarni iloji boricha kamroq qo'llashni tavsiya etadi. Og'riqni qoldirish uchun ichiladigan dorilar og'riqni bosadi, ammo **jigarga qattiq hujum qiladi**" ("SHIFO-info". 12.12.2019, 13-bet).*

*"Xotira susayishi, asabiylashish miyada qon maromida aylanmasligidan ham kelib chiqadi. Xalq tabobatida bir necha usullar yordamida **miyani tozalash** mumkin" ("SHIFO-info". 12.12.2019, 19-bet).*

*"Semizlikni dori-darmon bilan davolash bu alohida masala. Asosan bu **ishtahani bo'g'uvchi**, yoki qondirish hissini kuchaytiruvchi va ichakda oziq moddalar so'rilishini kamaytiruvchi dorilar bo'ladi" ("SHIFO-info". 31.10.2019, 3-bet).*

Metaforalar nafaqat matnlarda, balki matn sarlavhalarida ham o'ziga xos ko'rinishlarga ega *("SHIFO-info" (01.11.2018. №44):*

***Hamrohi tabassum** bo'lgan insonga **kasallik yaqin yo'lamaydi** (3-bet)*

***Qovoq uchishi**ning xalqona davolari (18-bet)*

*Tibbiyot san'atlar ichida eng **oliyjanobidir** (34-bet)*

*Daykon – dardlarni **quvar** begumon (34-bet)*

*G'ozpanja ajinlar eng **quvnoq ajinlardir** (36-bet)*

*Sog' yurak – **tog' yurak** (37-bet)*

*She'r qalbni **davolaydi** (40-bet)*

*Kitob aqlni **charxlaydi** (42-bet)*

Publitsistik matn sarlavhalari tarkibida metaforalarning qo'llanilishi shunchaki maqolaning nomi bo'libgina qolmasdan, matnning mazmunini yoritib berish uchun xizmat qiladi. Zero, maqolaning umumiy mazmuni uning sarlavhasida o'z aksini topadi va shunga ko'ra sarlavha ham maqola matnining tarkibiy qismi sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, publitsistikada asosan hayotiy muammolar yoritiladi va hayotiy o'xshatishlar – metaforalar keng qo'llaniladi, shuning uchun ham bu uslubda shakllangan matnlar insonlarning qalbiga tez yo'l topa oladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, yangilikni yoritishga bo'lgan intilish ommabop uslubning asosiy xususiyati sanalib, bu xususiyat tilning yangi so'z va iboralar bilan boyib borishiga sabab bo'ladi.

**Adabiyotlar:**

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: - 2001. 63-bet.
2. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Фил. фан. док. диссер. Т., 1999. 140-б.
3. Қобулжонова Г. К. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т.: 2000. 5-б.
4. Расулов Т. Истиора // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1967. 1-сон. 18-б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 2-4-том. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006.

"SHIFO-info" gazetasi. 20.04.2017.

## O'RTA ASR SHARQ QOMUSIY OLIMLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI XUSUSIDA

**M.Bo'ronova**
*BuxDU filologiya fakulteti IV kurs talabasi,*
**T.H.Asadov**
*BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti.*

Qadimdan ta-lim-tarbiya asosida xalq donoligi, donishmand ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li – hayot falsafasi eng asosiy "o'quv darsligi" bo'lib xizmat qilgan. Ota-bobolarimiz yosh avlodni mehnatsevar, imon-e'tiqodli, halol, or-nomusli, oqil va dono bo'lib voyaga yetishlariga alohida e'tibor qaratganlar. O'zbek pedagogikasi tarixiga bag'ishlab yozilgan asarlarda mazkur masalalarga alohida e'tibor qaratilgan[4;5]. Ota-bobolarimizning ta'lim-tarbiya borasidagi e'tiroflari go'zal "guldasta" sifatida yig'ilib[1;2;3], xalqqa havola qilinayotganligi ham o'zbek pedagogikasining yutuqlaridan biri sanaladi.

Pand-nasihat, ta'lim-tarbiya ota-bobolarimiz so'zlari va ular yaratgan asarlarining qat-qatiga singib, ularning asl mag'zini tashkil qilishi ayni haqiqat. Bu qatorda dastlab xalq og'zaki ijodi namunalari tursa, so'ng "Kalila va Dimna", "To'tinoma", "Ming bir kecha", "Chor darvesh", "Qutadg'u bilig", "Qobusnoma", "Al-adab al-mufrad", "Mukoshafatul qulub" ("Qalblar kashfiyoti") "Guliston", "Boston", "Bahoriston", "Zarbulmasal", "Ilohiynoma", "Masnaviyi ma'naviy", "Mahbub ul-qulub" va boshqa bir qancha asarlar sanaladi. Bulardan ma'lum bo'ladiki, Sharq xalqlari hikmat, pand-nasihat bilan butun dunyo ilm-adab ahlini hayratga solib kelgan.

Ma'lumki, o'rta asrlarda O'rta Osiyoda ma'naviy-ma'rifiy hayot anchagina ildamlagan edi. Bu vaqtda kasb-hunar, ilm-fan bir qadar rivojlangan, ko'pgina ilmiy, tarixiy asarlar dunyoga kelgan edi. Shulardan biri – Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridir. Asar lug'at deb atalsa-da, lekin bu asarda o'sha davrdagi va ungacha bo'lgan ilmiy-adabiy asarlar, xalq ijodi, maqollar, hikmatli so'zlardan parchalar keltirilgan. Asar XI asr turkiy xalqlar tili, adabiyoti, madaniyati, tarixi, ilm-fan, urf-odatlari, hayot tarzi haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Asarda ilm-fan, ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar ham bor. Ular yoshlarga nasihat tarzida berilgan. Shunday parchalarning biri: “Ilm-hikmat o’rgan, o’rganishda havoyilik qilma, hech narsa o’rganmasdan o’zini bilimdon ko’rsatib maqtangan kishi – imtihon vaqtida uyaladi, achinadi”.

Adib yoshlarni bilim, hunar egallash uchun sa’y-harakat qilishi lozimligini uqtiradi. Asarning yana bir o’rnida kelajak avlodga qarata: “Ilmli, aqlli kishilarga yaxshilik qilib, so’zlarini tingla, ilmlarini, hunarlarini o’rganib, amalga oshir… O’g’lim, o’git-kengashimni qulog’ingga ol, bilimsizlikni tashla. Kimning talqoni bo’lsa, shinniga qoradi. Shuningdek, aqlli odam nasihatni qabul qiladi”.

Hikmatlardan ko’rinadiki, M.Koshg’ariy yosh avlodning asosiy burchi – ilm olish va hunar o’rganish deb biladi. Donishmand bobomiz yoshlarga murojaat qilib: “O’g’lim, men sening uchun odob ham nasihat qoldiraman, olim bir odam topsang, shunga tomon qara, har kuni yoniga bor, uning bilimlarini o’rgan, kattalikni qo’ygin, …odobli va tarbiyali bo’lishga tirish, toki el ichida zo’r olim bo’lib tanil va ular orasiga odob, ilm tarqat”, – deya ta’kid etadi.

Asarda keltirilgan nasihat va o’gitlarda ilm olishga, olimlarni hurmatlashga, ulardan olingan bilimlarni amalda qo’llashga da’vatlar bor.

Abu Nasr al-Farobiy o’rta asrlar mashhur mutafakkiri sanaladi. Mutafakkir so’zi barcha olimlarga nisbatan ham qo’llanavermaydi. Mazkur so’z lug’atlarda “chuqur falsafiy fikrlash iste’dodiga ega bo’lgan kishi” tarzida izohlanadi. Yana shuni aytish mumkinki, mutafakkir so’zi barcha ilmlar, fanlar bo’yicha fikr yurita oladigan, fikrlash qobiliyati yuqori, qomusiy bilim egasiga nisbatan qo’llanadi.

Farobiy o’z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, bir so’z bilan aytganda, qomusiy olimi sifatida shuhrat qozonib, “Aql haqidagi risola“, “Falsafadan oldin nimani o’rganish kerak?”, “Falsafa manbalari”, “Baxt-saodatga erishuv haqida” kabi 160 dan ortiq asar yaratdi.

Farobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammali va yetugi deb biladi. Shunga ko’ra, u asarlarida insonga tarbiya va ta’lim berish zarurligini aytadi va bunda ta’lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad masalalari asosiy o’rinni egallashini qayd etadi. Insonning kamolotida, uning odamiyligida xayr-ehsonli ishlar, go’zal insoniy fazilatlar yuqori o’rin tutishini ta’kidlaydi. Farobiy aytishicha, bir kishining yolg’iz o’zi (birovning yoki ko’pchilikning yordamisiz) kamolotga erisha olmaydi. Farobiy ta’lim-tarbiya ishiga kirishish, uni boshlashdan avval odamlarning shaxsiy xislatlarini bilish lozimligini aytadi. Uning fikricha, insonning xohish, ixtiyor, iroda, yaxshilk va yomonlik kabi xislatlarini, nimaga qobiliyati borligini aniqlamay turib, ishga kirishish kutilgan natija bermaydi.

Farobiy “Ideal shahar aholisining fikrlari”, “Baxt-saodatga erishuv haqida” nomli risolalarida insonning ikki tomoni, ya’ni uning aql-ongi va axloqiga alohida ahamiyat beradi. Ta’lim-tarbiya kishini ham aqlan, ham axloqan yetuk qilib yetishtirishga qaratilmog’i lozim. Demak, ta’lim-tarbiyaning birdan-bir vazifasi jamiyat talablariga to’la javob bera oladigan komil inson tayyorlashdir. Buning uchun u kishini, xususan, yoshlarnini ham jisman, ham ma’nan yetuk bo’lib yetishishi uchun tarbiya turlari sifatida jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, estetik tarbiyaga to’xtaladi. U yozadi: “Ta’lim faqat so’z va o’rgatish bilangina bo’ladi.

Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning dunyoviy qarashlari, hayotga munosabati, hayot falsafasi asosida amalga oshiriladi.

Olim fikriga ko'ra, yoshlarga tarbiya berishning ikki usuli mavjud. Birinchisi – san'atni (fanlarni) o'z rag'batlari bilan o'rganadiganlarga nisbatan ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul esa majburiy ravishda yoshlarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul.

Farobiy ta'kidlashicha, muallim shogirdga nisbatan o'ta hokimlikka ham, bo'shlikka ham yo'l qo'ymasligi lozim, chunki o'ta hokimlik shogirdda muallimga nisbatan nafrat uyg'otadi. Agar shogird muallimning bo'shligini sezsa, muallimga va uning o'qitayotgan faniga nisbatan sovish, mensimaslik paydo bo'ladi.

O'rta asrda Yevropada Aliborona nomi bilan mashhur bo'lgan qomusiy alloma, xorazmlik olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy o'z davrida 150 dan ortiq asar yozib qoldirgan. Mazkur asarlar matematika, fonetika, kimyo, astronomiya, geografiya, tibbiyot, adabiyot, musiqa, tilshunoslik kabi qator fanlarga oid bo'lib, jahon ilm-fanining durdonalari sifatida qaralgan. Beruniy insonning o'ziga o'zi ishonishini, boshqalarga suyanmasligini uqtirib shunday deydi: "Kimki o'zining qarindoshlari, o'lib ketgan ota-bobolari bilan maqtanadigan bo'lsa, uning o'zi o'likdir, ular esa tirikdirlar".

Beruniyning "Hindiston", "Mineralogiya", "Saydana", "O'tmish davridan qolgan yodgorliklar" kabi asarlari mashhurdir. Beruniy butun umrini ilm-ma'rifat egallashga bag'ishladi. Shu bois bo'lsa kerak, XIII asr tarixchisi Yoqut uni "Aql va ma'rifatda hali unga o'xshash biror kishini davron yarata olgan emas", deya ta'riflaydi.

Beruniy "Hindiston" asarida kishilarda kuzatiladigan yomonlik illatini qoralaydi, yomonlikni yo'qotish uchun uning ildizlarini topish kerakligini ta'kidlaydi. Yomonlikning asosi uch narsada, ya'ni tama, g'azab va ilmsizlikda deb biladi. Nafs va g'azabni eng halokatli dushman sifatida biladi, u kishiga ranj va gunohlar olib kelishini aytadi. Bularning ta'siriga berilib ketgan kishilar insonlik qiyofasini yo'qotadi. Beruniy bunday kishilarni yirtqich va to'rt oyoqli hayvon, hattoki shayton va iblis hisoblaydi.

Beruniy "Hindiston" asarining yettinchi bobida ma'rifat, insonning fikrlash qobiliyati, bilimdonlik darajasi, umuman, kishilarning turli fazilatlari haqida fikr yuritadi.

Beruniy muruvvat va shavqatni eng yaxshi insoniy fazilat hisoblaydi. Muruvvatli va shavqatli kishi o'z yaxshiligi, xushmuomaligi, fazilat va kamtarlik xislatlari bilan ajralib turadi.

Olim boylikka berilmaslikni uqtiradi. Oltin va kumushning kishi uchun ba'zida hech qanday qimmati bo'la olmasligini yozadi. U yozadi: "Chunki ularning har ikkalasi toshdirki, ular na to'ydiradi, na tashnalikdan saqlay oladi".

Beruniy baxt-saodat, faravonlik, tinch-totuvlikni, obodonchilikni bilim egallash va ma'rifatli bo'lishda deb biladi.

Abu Ali ibn Sino yoshligidanoq o'z davri ilmlarini o'rganishga ishtiyoqmand bo'lgan, xususan, tibbiyot ilmiga qiziqdi, falsafa, astronomiya, kimyo, fizika, she'riyat va boshqa fanlarga doir 300 dan ortiq asar yaratdi. Uning

“Tib qonunlari”, “Donishnoma”, “Hayy ibn Yaqzon”, “Hidoyat”, “Risolat-ul tayr”, “Tadbiri manozil” kabi asarlarida pedagogikaga tegishli qarash va ta’limotlar bayon qilinadi.

Ibn Sinoning barcha asarlari asosida inson, uning kamoloti, tarbiyasi masalasi alohida o’rin egallaydi. Uning bola ta’lim-tarbiyasiga doir fikrlari yuqori ahamiyatga ega. U tarbiya jarayonini aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat (hunar o’rganish) bilan uzviylikda ko’radi. U maktabda o’qish, tarbiya ishlarini jamoa tarzida tashkil etishni oqlab chiqadi. Olim o’qitish jarayonining didaktik asoslarini yaratadi. Uning fikricha, bolani birdan kitobga band qilib qo’ymaslik lozim, o’qish-o’qitish ishlari asta-sekinlik bilan, yengildan og’irga qarab borishi kerak. O’quvchilar bilan olib boriladigan mashqlar ularning yoshiga mos bo’lishi, o’quvchilarning mayil va qobiliyatlari hisobga olinishi kerak.

Ulug’ pedagog ta’kidlashicha, bola voyaga yetgunga qadar ota o’z vazifalarini, farzand va oila oldidagi burchini bajara borishi kerak, uning eng avvalgi burchi bolaga yaxshi nom qo’yishidir. Mustaqil ovqatlanish davri boshlanishi bilan ota uning axloqiy tarbiyasiga kirishishi kerak. U yozadi: “Bola baquvvat bo’lib, so’zlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlagandan so’ng u savod o’rganishga qobil bo’ladi, so’ngra savodga o’rgata borish mumkin. Bunda, avvalo, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan, irodali, dono, g’amxo’r, dinga ishongan o’qituvchi va tarbiyachini tanlash kerak bo’ladi. U sog’lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo’la oladigan tarbiyachi bo’lishi kerak”.

Ibn Sino bolalarga bilim berganda, asosan, quyidagilarga rioya qilishni tavsiya etadi:

1) bilimni muayyan bir tartibda, izchillik bilan singdirish;
2) bilimlarni kitob orqaligina emas, balki hayot bilan ham bog’lab berish;
3) xilma-xil bilimlar berish, bolalarga turli ilmlar sirini ochib berish;
4) bilim berish bilan birga, tarbiya ham berish, ayniqsa, jismoniy tarbiya berish.

Odamzod uchun eng muhimi, olimning ta’kidicha, adolat sanaladi. Axloqiy tushunchalar aqlga, aqliy bilimga asoslanishi lozim. Kishi bilimdon, o’qimishli bo’lsa-yu, axloqan barkamol bo’lmasa, odobsizlik va yomonliklarga yo’l qo’yadigan bo’ladi. U ikkiyuzlamachilik, yolg’onchilik, xoinlik, zo’ravonlikni qoralaydi.

Korinadiki, ulug’ donishmandlarimizning ta’lim-tarbiya haqidagi e’tiroflari, shuningdek, ularning hayot yo’li yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega bo’lib, Sharq xalqlarining, xususan, o’zbek pedagogikasining uzviy tarkibi sanaladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Донолар бисотидан. Тузувчи ва таржимон Ш.Шомуҳамедов. –Т.:“Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”. 1976, 307 б.

2. Тафаккур гулшани. Ш.Абдураззоқова таржимаси. . –Т.:“Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”. 1989, 463 б.

3. Шарқ тафаккури хазинасидан. Нашрга тайёрловчи А.Шаропов. –Т.: “Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”. 1986, 125 б.

4. Ўзбек педагогикаси тарихи. А.Зуннунов таҳрири остида. –Т.:“Ўқитувчи”. 1997, 271 б.

5. Ҳасанбоева О. Педагогика тарихидан хрестоматия. –Т.:“Ўқитувчи”. 1993, 205 б.

## O’ZBEK XALQINING ENG QADIMGI MA’RIFIY QARASHLARI HAQIDA

**Sh. To’xtayev**
*BuxDU o’zbek tilshunosligi kafedrasi II bosqich magistranti,*
**T.H.Asadov**
*BuxDU O’zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti.*

Insoniyat uchun ta’lim-tarbiya har bir zamon va har bir makonda o’ta dolzarb masalalardan biri bo’lib kelgan. Turli millat va xalq singari ota-bobolarimiz ham yosh avlodni hayotga tayyorlashda o’z tajriba va bilimlariga, o’zlariga mos urf-odat, an’analariga tayanishgan. Xalqimiz muayyan bir ta’lim-tarbiya mezonlari, o’quv adabiyotlari yaratilib ulgurilmagan bir davrda yoshlarni insoniy fazilarlarga – mehnatsevarlik, jangovorlik, mardlik, halollik, insonparvarlik, mehribonlik, do’stlik, mehr-shafqat, oliyjanoblik, aqi-idrok, sadoqat va vafoga o’rgatishga bosh-qosh bo’lishgan. Bu kabi fazilatlar insoniylikning bosh belgisi bo’lib, Sharq xalqlarida juda qadimdan shakllangan va rivoj topgan.

Xalqimiz teran ma’noli hikmatli so’zlar, ibratli hikoyat va rivoyatlarga moyilligi bilan ajralib turadi. Ular har bir hikmatli so’zni bir tilloga teng ko’rishgan. Rivoyat qilishlaricha, Olloh taolo Luqmoni hakimdan: “Payg’ambarlik beraymi yoki hikmatmi?”, – deb so’raganida Luqmoni hakim hikmatga esh kishining o’zi to’g’ri, so’zi ma’noli, ishi puxta bo’ladi deb hikmatni tanlagan ekan. Shundan keyin Xudovandi Karim unga shunchalik ko’p hikmat ato etibdiki, barcha payg’ambarlar ham uning pand-nasihatlariga muhtoj bo’libdi[2,3].

Pand-nasihat, ta’lim-tarbiya ota-bobolarimiz asarlarining qat-qatiga singib, ularning asl mag’zini tashkil qilishi ayni haqiqat. Bu qatordan “Kalila va Dimna”, “To’tinoma”, “Ming bir kecha”, “Chor darvesh”, “Qutadg’u bilig”, “Qobusnoma”, “Al-adab al-mufrad”, “Mukoshafatul qulub” (“Qalblar kashfiyoti”) “Guliston”, “Boston”, “Bahoriston”, “Zarbulmasal”, “Ilohiynoma”, “Masnaviyi ma’naviy”, “Mahbub ul-qulub” va boshqa bir qancha asarlar o’rin oladi. Bulardan ma’lum bo’ladiki, Sharq xalqlari hikmat, ibrat, pand-nasihat bilan butun dunyo ilm-adab ahlini hayratga solib kelgan.

Donishmand xalqimiz bola tarbiyasida kezi kelganda nasihat qilish, tushuntirish, rag’batlantirish, namuna ko’rsatish, tanbeh berish, maqtash, taqiqlash, qo’rqitish, po’pisa qilish kabi usullardan o’rinli foydalanishgan. Bunda yoshi ulug’lar o’quvchi-yoshlarga ibrat bo’lishi alohida ahamiyatga ega bo’lgan.

O’rni kelganda kattalar jam bo’lishib, bolasi axloqsizlik qilgan oilada suhbat o’tkazishgan, bolaning noto’g’ri xatti-harakati ko’rsatilib, ota-onasiga tegishli maslahatlar berishib, yo’l-yo’riqlar ko’rsatishgan. Tarbiyada rag’batlantirish, taqdirlash, tanbeh berish, man etish usullaridan keng foydalanilgan[1,11].

Xalqimiz ma’naviyati va ma’rifatiga qadimdan beqiyos hissa qo’shgan manbalardan biri “Avesto” asaridir. “Avesto” (ma’nosi – “o’rnatilgan, muqarrar qilingan asosiy yo’riqnoma”) zardushtiylik[31] dinining muqaddas kitobi bo’lib, ushbu kitobdan O’rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining eng qadimgi marosimlarida: urf-odat, e’tiqod, ibodat paytida qiroat qilinadigan, diniy marosimlarda ijro etiladigan qo’shiqlar, ohanglari haqida ma’lumot olamiz. “Avesto”dagi ma’lumotlarning qadimgi qismlari eramizdan avvalgi 3000-2000 yillarga taalluqli. Bu asardan o’z davrining ijtimoiy tuzumi, fan va madaniyati haqidagi ma’lumot o’rin olgan.

“Avesto”dan turli masalalarda, jumladan, ilm-fan, ta’lim-tarbiya haqida ham ma’lumot olishimiz mumkin. Mazkur yodgorlikda Xuroson, Movarounnahr, Eron xalqlarining ijtimoiy hayoti, mehnatsevarlik va mehmondo’stligi haqida fikrlar ham mavjud. Zardusht o’z nasihatlari, she’rlarida adolatni targ’ib etadi, yaxshi xulq va fazilatlarni ulug’laydi. Uning ta’limoti uch ifodada – Humatta (yaxshilik ramzi), Nuhta (to’g’ri so’z), Xvarshita (yaxshi xulqlar)da mujassamlashgan.

Zardusht dunyo tarixida dinni mahzab, sehr-u jodudan, zohiriy udum va marosimlarni ko’r-ko’rona bajarishdan xalos qilgan. U axloq me’yorlarini hayot mezoni deb biladi va bashariyatga *yaxshi ish, yaxshi xulq va yaxshi amal* olamni ham, odamni ham bezaydi deb uqtiradi.

“Avesto”da “inson fikri, so’zi va ishi bilan go’zaldir” degan g’oya asosiy shior bo’lib gavdalanadi. Zardusht nazarida “so’z yaxshi fikr va ezgu amal ifodasidir”.

“Avesto” ta’lim-tarbiya manbasi hamdir. Zardushtiylik ta’limoti bo’yicha tinch mehnat, insonning yaratuvchanlik va bunyodkorligi barcha nopok kuchlarni quvadi, faqat mehnat, oliyjanob amallar orqali nur va shodlik olamini ko’paytirish, faqat mehnat tufayli haqiqat, tinchlik, davlatga erishish mumkin. Unda ko’plab afsonafiy qahramonlarning – hayotni saqlab qolishga intiluvchi kuchlar, ya’ni mardlik, jasorat, matonat, insonparvarlik kuchlarining razolat, qabohat, zulmat, halokat kuchlari bilan kurashi tasvirlanadi. “Avesto”da shahar-u qishloqlarni obod qilishga, bog’-u rog’larni, yaylovlarni ko’paytirishga undash va oila mustahkamligi, farzand tarbiyasi borasida qimmatli fikrlar bor. Bu kabi fikrlar, asosan, Zardushtning Axuramazda bilan savol-javobida yaqqol ko’rinadi. Masalan, Zardusht so’raydi: - Ey jismoniy olam parvardigori Axuramazda, rosti bilan menga ayt-chi, yer yuzining ko’rki va shodligi bo’lmish makon qayerda? Axuramazda aytdi: - U shunday bir yurtki, u yerda bandalarim o’zlariga maskan, ibodat uchun

[31] Zardusht Sharq faylasuflaridan biri bo’lib, er. av. VII asrda Xorazmda yashab o’tgan. O’z davri chorvador xalqlarning dini, urf-odatlari, an’analarini o’rgangan, din peshvolari suhbatida ishtirok etgan. Ko’p xudolilikdan yakka xudolilik (Axuramazda) ni targ’ib qilgan.

otashkadalar, hayvonlarga qo'ralar qurib, oilali, bola-chaqali, kuchli, qurolli bo'ladilar. Ana shu taqdirda ularning yurtida hayvonlar ko'payadi. Xayr-u baraka oshadi, yaylovlar ko'payadi, oila bunyod bo'ladi, turli-tuman noz-u ne'matlar serob bo'ladi. Korinadiki, "Avesto" insonlarni, xususan, o'sib kelayotgan yosh avlodni ezgu ishlarga chorlovchi, yaxshiliklarni qilishga undaydigan mohiyatan pand-nasihat ruhida bitilgan asar sanaladi.

Asardan parcha: Biz Mitraga topinamiz,
U so'zida sobitlarni,
Lavzi halol kimsalarni
Falokatdan saqlagaydir,
Halokatdan saqlagaydir...
Shafqatsizdir kimda-kim,
Yolg'ochidir, subutsizdir,
Ularni antarib yuborar Mitra.

Demak, Mitra (Quyosh xudosining nomi, kuch-qudrat, baxt-saodat ramzi) so'ziga sobit, lavzli halol kimsalarni xush ko'radi, yolg'ochi, subutsizlarni yoqtirmaydi. Asarning yana bir o'rnida quyidagilarni o'qiymiz:

So'zga xoin odamlar
Qo'lin ortidan tutar.
Ko'zlarin ko'rmas qilar,
Quloqlarin qilar kar...
Jazosin shunday berar
Yaylovi cheksiz Mitra.

"Avesto"da yer, suv, kiyim-kechak, uy, oziq-ovqat, jismni toza tutishga alohida e'tibor berilgan. Yerni iflos qilgan, uni to'g'ri saqlash qonun-qoidalarini buzgan kishi qirq qamchi urish bilan jazolangan.

Unda doimiy badantarbiya bilan shugu'llanish, kunda bir necha bor yuz-qo'lni yuvish, soch va tirnoqlarni tez-tez olib turish tavsiya etiladi. "Avesto"da qarindoshlarning o'zaro oila qurishi man etilgan. Ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash, oilada egizak dunyoga kelsa, shu oilaga davlat tomonidan sog'in sigir hadya etilishi lozimligi qayd etilgan.

Asarda yozilishicha, "O't-o'lanlar va mevali daraxtlar ekilgan, suvlari ravon bo'lgan zamin eng yaxshi yerdir. Ayol va farzandlari sarson va sargardon yuradigan yer eng yomon yerdir"

"Avesto"da issiqlik, sovuq havo, ochlik va purxo'rlik, ruhiy iztirob, buzilgan taomni yeyish, tozalikka rioya qilmaslik, Axruman yuborgan qurt, pashsha va boshqa hasharotlar, yomon havo kasalliklarning asosiy manbasi ekanligi, unda 9999 kasallikni Axruman paydo qilganligi aytiladi[3,92].

"Avesto"da tibbiy fikrlar quyidagicha tasnif etiladi:

1. Tashreh (anatomiya) va mijoz (fiziologiya).
2. Bemorliklarning oldini olish vositasi.
3. Kasalliklar haqidagi ma'lumotlar.
4. Tabiblarning axloqi va tabobatga oid ba'zi qonun-qoidalar.

“Avesto”da tabiblarning maxsus qasamnomasi keltirilgan; tabobat ramzi – ilon zahar sochayotgan idish – jom tasviri ham ilk bor shu kitobda tasvirlangan. Unda qadimgi kishilarning o’rtacha umri 800-900 yil bo’lishi, ayrim odamlar yashash sharoiti, muhitiga qarab 1400 yilgacha umr ko’rishi mumkinligi aytiladi.

Xullas, qadimgi ajdodlarimiz yaratgan mazkur asar eng qadimgi, noyob bilmlar xazinasi sanaladi. “Avesto” ijtimoiy hayot, turmushning turli masalalari, shuningdek, ta’lim va tarbiyaga alohida ahamiyat qaratilgan asardir. Zardusht ta’limoti – “Avesto”da ilgari surilgan ezgu fikr, ezgu kalom, va ezgu amal qadimdan hozirga qadar insoniyatni ezgulikka chorlab, ularni ruhan poklab, ma’nan kamol toptirishga xizmat qilib kelyapti.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. –T.:”O’qituvchi”, 1997. 11-b.
2. Sharq hikoyat va rivoyatlari. Tuzuvchi va so’z boshi muallifi E.Ochilov.– T.:”Sharq”, 2018. 3-b.
3. Homidov H. Bilimlar xazinasi. “Shohnoma” ning shuhrati“ kitobidan. – T.: “O’qituvchi”, 1991, 93-bet.

## NISORIYNING “MUZAKKIR AHBOB” TAZKIRASIDA SO’Z SAN’ATIGA MUNOSABAT

**M.Muhammadova,**
*Buxdu magistranti*
**Sh.N.Ahmedova**
*f.f.d.prof.*

Sharq xalqlari adabiyotida so’z san’ati har qaysi zamonda ham muhim va e’tiborga molik san’at turlaridan biri sanalgan.Ammo uning paydo bo’lish ildizlari xususida so’z borganda,olimlar turlicha fikr yuritadilar.Jumladan qadimshunos olim Melitenskiy so’z san’ati boshqa san’at turlaridan nisbatan kech paydo bo’lganligi , buning sababi uning asosiy materiali so’z va nutq ekanligini ta’kidlaydi.Ammo Qur’oni Karimda aytilgan yaralmishlar ichida **SO’Z** birinchi bo’lib kelgani haqidagi ta’limotni eslasak, unga ko’ra birgina “Yaral!” so’zidan inson va dunyo yaralgan.Bu kabi fikrlar Injilda ham mavjud bo’lib , KALOM azaldan borligi , u xudoda ekanligi va muqaddasligi ta’kidlanadi va bunga shubha qilinmaydi.Lekin so’z san'at darajasiga ko’tarilishi uchun estetik tafakkur va badiiyat bilan bog’liq bo’lmog’i lozim edi.Tasviriy san’at va raqsdan farqli o’laroq so’z san’ati inson o’zligini anglagach vujudga keldi, degan ilmiy asoslarni ham rad etolmaymiz.

O’rta asrlar o’zbek adabiyotida inson ruhiy olamida so’zning benazir ekanligini asoslash va so’zga nisbatan ma’suliyat bilan yondashish masalalari kuchaydi.Ulug’ so’z ustasi Alisher Navoiy o’zining “Hayrat-ul abror” dostonida I

bobni to'liq so'z ta'rifiga bag'ishlaydi.U so'zni gavharga qiyoslaydi va insonni hayvondan ajratib turishini , qolaversa, qalb go'zalligini belgilovchi ne'mat ekanligini aytadi:

*Tengriki insonni qilib ganji roz,*
*So'z bila hayvondin anga imtiyoz.*

Navoiy so'z ta'rifida nasr hamda nazmni bir-biriga qiyoslab, nazmni ancha ustun qo'yadi.Nazmni bog'da o'sgan tartibli gul va daraxtga o'xshatadi.Nazm va nasrga ta'rif berish , umuman adabiyotshunoslikdagi dastlabki bunday qarashlar keyinchalik an'ana tusiga kirdi.Buxorolik taniqli shoir va davlat arbobi Hasanxoja Nisoriy o'zining "Muzakkiri ahbob" tazkirasining boshlanmasida she'r ta'rifida shunday deydi: *" ...agar har bir so'z totli til orqali yo'qlik qa'ridan borliq maydoniga oyoq bossa va so'zlovchisi uni Surayyo yulduzlari turkumi kabi bir yerga yig'ib nazm (tartib) ipiga injudek tizsa, hamda she'r vaznlaridan biriga mos tushirsa uni nazm deydilar,Agar o'sha nazm tizmasini uzib , so'z javohirlarini varaqlar bo'ylab tevarak-atrofga sadaf sochmasi kabi ochib nasr (sochiqlik )yuzaga keltirsa , buni nasr deydilar... "*

U nazm va nasrni teng qo'yadi, ammo biri tartib bilan terilgan so'zlar qatoridan , ikkinchisi shu so'z sochmasidan tashkil topganini aytadi. "Muzakkiri ahbob" da Nisoriy har bir adabiy tur va unda ijod etgan ma'lum muvafaqqiyatga erishgan shoirlar haqida ancha qiziqarli ma'lumotlar beradi.U o'z ijodida ham asosan yetakchi omilni shakl yetukligi deb hisoblaydi .Shu bois tazkirada masnu she'rlar va "mushkila" ko'rinishidagi namunalarni misol keltirib , ularning muallifini maqtaydi.Ammo Nisoriy har doim mazmunni shakldan ajratib qo'ymaydi va bu haqida shunday deydi:

Ba lafzi ma'ni darj kun, varna che hosil zon
Ki Yusufro bar kashy az choh , andozi ba zindonash.

(Mazmuni: Yaxshi so'z bilan ma'nolarni yoz, bo'lmasa undan ne foyda , bu xuddi Yusufni quduqdan chiqarib , zindonga tashlaganday gap.)

Bilamizki, Sharq ijodkorlariga oid asarlarda nasr va nazmda qo'llangan badiiy san'atlarning 120 xili mavjud:

1.Lafziy
2.Ma'naviy
3.Mushtarak

Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahbob" tazkirasida mana shunday so'z san'atlaridan keng foydalangan.U biror shoir yoki adabiyotga ixlosmand shaxs haqida qisqacha ma'lumot berarkan shoir kimga , nimaga tatabbu etganligi , u zamonda mavjud bo'lgan qaysi adabiy navga ko'proq qiziqqanligi va mahorati qayd etiladi.G'azal , qasida , muammo, tarix, masnaviy, ruboiy singari janrlar

o’sha davrda keng tarqalgandi va tazkirada Naxliy, , Farqiy, Mushfiqiy, Safoiy, Mavlono Husayn , Mavlono Kepak, Mashhadiy , Mir Tabib, Sabriylar bu janlarda barakali ijod etganliklari qayd etiladi.Nisoriy Lutfullo Nishoburiy ixtiro qilgan ruboiyni maqtab uning iste’dodi va mahoratiga tan beradi.Uning ajoyibligi shundaki, ruboiyning har misrasida gullardan biri, o’tgan kun, kecha va bugun so’zlari , tabiat unsurlari , javohirot , rayxon va qurollardan birining nomini o’z ichiga olgan.Ruboiy:

Gul dod parer diri feruza ba bod,
Dey javshani la’li lola bar xok o’ftod
Dod obi simin xanjari mino imro’z,
Yoqut sinoni otash nilufar dod.

Bu ruboiyda parir –o’tgan kun, dey-kecha, imruz-bugun; otash –olov, xok-tuproq, bod-havo, ob-suv; sim –kumush ,mino-ko’k tosh, Javshan – temirsovut,senon-nayza,deri-temir kiyim; feruza, la’l, yoqut singari so’zlar ishtirok etgan.Va bunday she’r yozish oson bo’lmagani uchun Nisoriy ularni so’z ustasi deya ta’riflaydi.

Bundan tashqari Nisoriy Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun Mirzo, Komron Mirzo , Shayx Zaynuddin, Shayx Abu al-Vajd, Lohijoniy,Najmiddin Kavkabiy, Mavlono Umidiy Iroqiy, Mavlono Hajriy, Xojazodai Kobiliy Sharif Tabriziy , Hofizi Kalon, Ibrohim Kunda singarilarning ijodiy mahoratlariga yuqori baho berib qasida , muammo, hajv, ta’rixnavislikdagi ixtrolari va ta’sirchan so’z qurollarini maqtaydi.

Nisoriy tazkira davomida so’z va san’atiga alohida e’tibor qaratgan, hatto kimning ijodi juda ta’sir qilgan bo’lsa, unga ta’tabbu ham bog’lagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Hasanxoja Nisoriy.Muzakkiri ahbob.Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1993.

2.Vohidov R.XV sarning ikkinchi yarmi XVI asrning boshlarida o’zbek va tojik she’riyati.Adabiy aloqa va o’zaro ta’sir masalalari. -Toshkent: “Fan”,1983

## O‘ZBEK TILIDA “BOSH” KOMPONENTLI FRAZEMALARNING SEMANTIK TAHLILI

**X.Ubaydullayeva**
*BuxDU magistranti,*
**B.Qilichev**
*BuxDU dotsenti*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada jahon va o‘zbek tilshunosligida somatik frazemalar va ularning tilshunoslikdagi tarixi,o‘rganilishi, o‘rni, ahamiyati*

*haqida fikr boradi.Somatik iboralarning turlari va ularning zoonim iboralardan farqi izohlangan. Inson tana a'zolaridan bo'lgan "bosh" so'zi ishtirokidagi iboralar tahlil etilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются соматические фраземы в мировой и узбекской лингвистике и их история в языкознании, изучение, место и значение. Рассмотрены типы соматических выражений и их отличия от зоонимических выражений.*

***Annotation:*** *This article discusses somatic phrases in world and Uzbek linguistics and their history, study, place and importance in linguistics.It explains the types of somatic expressions and their differences from zoonymic expressions.*

***Kalit so'zlar:*** *so'z, ma'no, so'z ma'nosi, lug'at, izohli lug'at, polisemiya, ibora, somatik ibora, frazeologiya, frazeologizm, semantik, etimologiya, somatizm, somatik frazema, "bosh" komponentli iboralar;*

***Ключевые слова:*** *слово, значение, значение слова, словарь, толковый словарь, полисемия, выражение, соматическое выражение, фрезология, фразеологизм, семантической, этимология, соматизм, соматическая фразема, выражения с компонентом "голова".*

***Keywords:*** *word, meaning, word meaning, dictionary, explanatory dictionary, polysemy, phrase, somatic phrase, phraseology, semantics, etymology, somatism, somatic phrase, compound phrases with " head "*

O'zbek tili juda qadimiy va boy til.Undagi iboralar, maqol va matallar avloddan- avlodga meros bo'lib, sayqallanib kelmoqda.Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, " ...ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro aloqalari kengaymoqda. Natijada hayotimizga chetdan ko'plab yangi tushuncha , so'z va iboralar kirib kelmoqda.

Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi".[1]

Biz ham ana shu maqsad yo'lida o'zbek tilida somatik iboralarni "bosh" va "oyoq" komponentli turini o'rganishga bel bog'ladik.

Frazemalarning bir guruhini kishi tana azolari ishtirokidagi iboralar tashkil etadi.Bular somatik frazemalar deb yuritiladi. Somatik frazemalarni tadqiq etish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan.

Somatik frazeologizmlarga murojaat etishdan oldin, biz "somatizm" atamasiga to'xtalib o'tmoqchimiz. "Somatizm" grekcha "soma" "tana" ma'nosini anglatuvchi so'zdir. Somatizmlarda nafaqat inson tanasi bilan bog'liq bo'lgan so'zlar balki insoniyat va hayvonot organizmlari bilan bog'liq bo'lgan so'zlar ham tushuniladi.

Somatik frazemalarni o'rganish borasida alohida tadqiqot sifatida U.Rashidovaning " O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (*ko'z, qo'l* va *yurak* komponentli iboralar misolida) nomli dissertatsiyasini qayd

etish mumkin. Mazkur tadqiqotda oʻzbek tilidagi “koʻz”, “qoʻl” ,“yurak” soʻzlari ishtirok etgan frazemalar tahlil etilgan.

U.Rashidovaning mazkur ishi oʻzbek tili frazeologiyasida kishi tana a’zolarini alohida qayd etgan holda oʻrganish yoʻnalishini ochib berdi. Xususan, U.Rashidova boshlab bergan yoʻnalish sababli oʻzbek tili lugʻat fondidagi soʻzlar ishtirokidagi somatik frazemalarning salmogʻi ancha katta ekanligi ayon boʻldi. Jumladan, ishda “koʻz” komponentli somatik frazemalarning paradigmatik va sintagmatik xususiyatlari bayon etilib, bunday frazemalarning eng qadimgi umumturkiy frazeologik qatlamga mansubligini takidlagan hamda mavjud ishlarda *koʻz qismoq* iborasining ikki (“ Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da) yoki toʻrt ma’nosi “ Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati”da) sharhlangan boʻlsa, ushbu ishda bu iboraning *tasdiq, tinchlantirish, hazillashish,” hammasi joyida” “gapirmang”* , ma’qullamoq kabi olti ma’nosi qoʻllanishi isbotlangan.

Tadqiqotchi ishda “qoʻl” soʻzi ishtirokidagi iboralarning grammatik shakllanishi haqida fikr yuritib, bu soʻz bilan bogʻliq iboralarning aksariyati fe’l va sifat komponentli ekanligi, ot va ravish komponent iboralar esa ozchilikni tashkil etilishiga e’tibor qaratgan.Shuningdek, “qoʻl” soʻzi qatnashgan baʻzi iboralarning ayrimlari (*qoʻli siniq, qoʻli shirin)* lugʻatlarda oʻz aksini topmaganligini ham qayd etib oʻtgan.[6]

Bu holat oʻzbek tili somatik frazemalarini oʻrganish borasida izlanish olib boruvchi tadqiqotchilar kishi tana a’zolarini ifodalovchi “ bosh”, “yuz”, “peshona”, “til”, “tish”, “burun” ,“boʻyin”, “yelka”,”koʻkrak”, “qorin”, “bel”, “tizza”, “oyoq” va boshqa soʻzlar ishtirokidagi somatik frazemalarni oʻrganishlari , ularning lisoniy, uslubiy jihatlarini, shuningdek, lingvomadaniy qirralarini ochib berishlari uchun yangi bir bosqich boʻldi.

Jahon tilshunosligida somatik frazelogizmlarni oʻrganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Somatik frazeologizmlar bir til (F.Vakk, G.A.Bagautdinova, A.V.Dibo, S.G.Alekseyeva, R.M.Vayntraub, T.I.Yegorova, N.A.Sedova,) ikki til (T.Chete, L.I.Xarchenko, va Yu.A.Shashkov, R.Yu.Mugu, Ye.V.Nikolina, Ye.F.Arsenteva, P.M.Arkadev, O.A.Kononova, N.J.Gumerova, Choy Yun Xi) uch til (J.X.,Gerkovo Yu.A.,Dolgopolov) doirasida qiyosiy oʻrganilganligi ma’lum.[6]

Oʻzbek tilshunosligida somatik frazemalarning shakllanishi va ularning matn tarkibida funksional-semantik xususiyatlarini oʻrganish Ya.Pinxasov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, B.Yoʻldoshev, A.Mamatov, A.Isayev, Sh.Abdullayev , Sh.Usmonova kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.[7]

B.Yoʻldoshevning koʻrsatishicha “ somatik leksemalarning ibora hosil qilish faoliyati quyidagicha : bosh-158 ibora; koʻz- 144 ibora; qoʻl- 92 ibora; ogʻiz-89 ibora; yurak- 77 ibora; oyogʻ-63 ibora; quloq- 52 ibora; til-51 ibora; yuz-41 ibora; bet-32 ibora; boʻyin-31 ibora; miya-29 ibora; dil-28 ibora; tomoq-11 ibora; jigar - 10 ibora va hokazo” [9]

A.Isayev “Oʻzbek tilidagi somatik frazeologizmlar” nomli nomzodlik dissertatsiyasida somatik iboralarni atroflicha tadqiqi amalga oshirgan.[ 2] Mazkur nomzodlik dissertatsiyasi somatik frazemalarni diaxron va sinxron aspektlarda oʻrganishga bagʻishlanganligi bilan diqqatga sazovordir. Oʻzbek tili somatik

frazemalarini qirg'iz, tatar, turk hamda turkman tillaridagi somatizmlar bilan qiyoslashga e'tibor qaratgan olim ular o'rtasidagi umumiylik va farqli jihatlarni aniqlagan. Ammo dissertatsiyada somatik frazemalarning badiiy va publitsistik matnda bajaradigan pragmatik stilistik imkoniyatlari masalasi tadqiqotchining e'tiboridan chetda qolgan.[6]

Obyektdan kelib chiqib ma'no anglatishiga ko'ra somatik frazeologizmlarni quyidagicha tasnif qilinishiga ham guvoh bo'ldik: [13]

**Somonimik**- ya'ni inson tana a'zolari bilan ifodalanuvchi (qo'l, bo'yin) . Masalan: **boshidan- oyog'igacha , yelkama – yelka ;**

**Osteonimik -** ya'ni inson organizmning skelet sistemalari bilan ifodalanuvchi frazeologizmlar: **qoq suyak ;**

**Angionimik** – ya'ni inson organizmining qon aylanish sistemasi bilan bog'liq so'zlar bilan ifodalanuvchi frazeologizmlar: **oq qon;**

**Splanchnonimik-** ya'ni inson organizmining ichki organlari bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlar: **chin qalbdan;**

**Sensonimik –** inson organizmining sezish a'zolari bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlar: **butun tanasi quloqqa aylanib;**

**Umumiy tana a'zolari bilan bog'liq frazeologizmlar : butun tanada ;**

O'zbek tilidagi somatik frazeologizmlar juda ko'p va muhim ma'no kasb etadi.Ular inson fe'l- atvori bilan bog'liq xususiyatlarni, his-tuyg'u va o'y-kechinmalarni ifodalashi bilan ham ahamiyatli. Inson tana a'zolari bilan bog'liq leksemalar bilan ifodalanuvchi frazeologizmlar ham pozitiv, ham negativ semantik ma'no munosabatlarni ifodalaydi. Shunga ko'ra ularni quyidagicha tematik ma'no guruhlariga ajratish mumkin:

**Inson ruhiy-kechinmalarini va his-tuyg'ularini ifodalovchi somatik frazeologizmlar.** Bu turdagi frazeologizmlar baxtlilik, xursandchilik, kulgi, mamnunlik kabi his- tuyg'ularni ifodalash bilan bir qatorda charchoq, horg'inlik, umidsizlik kabi ma'nolarni ham bildiradi:*og'zi qulog'ida bo'lmoq,boshi osmonga yetmoq,boshiga savdo tushmoq...*

**Inson xarakter xususiyatini ifodalovchi frazeologizmlar.** Bu turdagi inson tana a'zolari bilan ifodalanuvchi frazeologizmlar ham ham pozitiv ham negativ ma'nolarda ishlatiladi. Erinchoqlik, qo'rqoqlik, mardlik kabi bir qator frazeologizmlar bilan ifodlanishi mumkin: *quyon yurak bo'lmoq,bosh ko'tarmoq, qo'l qovushtirib o'tirmoq...*

**Turli xil hodisalarning xususiyatlari bilan ifodalanuvchi frazeologizmlar.** Bu turdagi somatik frazeologizmlar hayotning turli jabhalaridagi holatlar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, birdamlik va tinchlik ma'no munosabatini ifodalovchi, da'vat etish va yon berish ma'no munosabatlarini aks ettiruvchi, kuch-quvvatni ifodalovchi va boshqalar: *bir yoqadan bosh chiqarmoq,bosh-qosh bo'lmoq...*

O'zbek tilshunosligida somatik frazeologizmlarni semantik guruhlarga ajratgan olimlardan biri A.Isayevdir. Olim o'z tadqiqot ishida "bosh" komponentli frazemalarni ma'noviy xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlagan: **inson ruhiy**

**holatini ifodalovchi frazemalar:** *boshi osmonga yetmoq, boshi g'ovlab ketmoq, hushi boshidan uchmoq kabi;*

**Inson aqliy faoliyatini ifodalovchi frazemalar:** *boshini qotirmoq, boshidan kechirmoq kabi;*

**Insonning aqlini, xayolini, xotirasini, ifodalovchi frazemalar:** *boshi ishlaydi, boshidan o'tgan, boshi bilan kabi;*

**"jazolash" tushunchasini ifodalovchi frazemalar:** *boshida danak (yong'oq) chaqmoq, boshida tegirmon toshi aylantirmoq, boshiga kufat solmoq kabi;*

**Kasallik tushunchasini ifodalovchi frazemalar:** *boshi yostiqqa tegmoq, boshi yorilay deyapti kabi;*

**"o'lmoq, yemirilmoq" ma'nolarini ifodalovchi frazemalar:** *boshini yemoq, bosh olmoq, boshiga suv quymoq kabilar.*

O'zbek tilidagi "bosh" so'zi asli umumturkiy so'z hisoblanadi. Bu so'zning kelib chiqishi borasida atoqli tilshunos Shavkat Rahmatullayev quyidagilarni bayon etgan: " *tananing bo'yindan yuqori (old) qismida joylashgan a'zo".Ukam suvga boshi bilan sho'ng'idi.*

Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot aslida **ba:sh** tarzida talaffuz qilingan (Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркский языков. Т.1-4. М.: 1974-1989 ) , keyinroq **a** unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan ( Малов С. Е. Памятники древнетюрской письменности. М.Л. 1951); o'zbek tilida **a** unlisi **â**unlisiga almashgan.: **ba:sh,> bash>b âsh**[ 5, 60-61].

1981-yilda nashr etilgan " O'zbek tilining izohli lug'ati"ning 1-jildida **bosh** so'zining umumturkiy ekanligi ta'kidlanib, unga quyidagicha ta'rif berilgan: *tananing bo'yindan yuqorigi (odamda) yoki oldingi (hayvonda) qismi; kalla*[10,136].

Shavkat Raxmatullayevning lug'atida **bosh** so'zi ishtirokidagi **to'qson ikkita** ibora mavjudligi haqida ma'lumot berilgan [4, 45-57]. Ushbu iboralar orasida egalik yoki kelishik shakllari bilan farqlanadigan variantlar mavjudligini ham qayd etish lozim. " O'zbek tilining izohli lug'ati"da **bosh** so'zi ishtirokidagi **ellik uchta** ibora mavjudligi misollar asosida sharhlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.Mirziyoyev Sh.M.O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan bo'lgan tantanadagi nutqidan.Ma'rifat.2019. №82, 2-3-b.

2.Исаев А. Соматические фразеологизмы узбексково языка: Дис…канд. Филол.наук. -Тошкент, 1976.-С.196.

3.Маматов А. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг шаклланиш масалалари, ДДА. –Тошкент, 2000. -49 б.4.

4.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар ) Тошкент, " Университет", 2000, 60-61- б.

6.Рашидова У. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (*кўз, қўл* ва *юрак* компонентли иборалар мисолида)

Филол.фанл.бўйича фалс.докт (PhD) диссер. авторефер. –Самарқанд, 2018, -Б.135.
7. Сатторов М. Ўзбекнинг гапи қизиқ. –Тошкент: Фан, 1994.
8.Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик иборалар. Филол.фан.ном.дисс. …- Тошкент, 1998.- Б.162.
9. Йўлдошев Б., Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функсионал-услубий хусусиятлари. Филол.фан.док.дисс.-Тошкент,1993.
10.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 1-том. Москва. “Рус тили” , 1981.136-б.
11..Ғаниева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.
12..Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi.roman.- Toshkent,“Sharq”,2018.
13.Stoyanova, Inga. “Semantic Aspects of English Body Idioms.” Diss. IRIM Chisinau, 2009. – 201 p.

## REKLAMA MATNIDA SOTSIAL VA PRAGMATIK BELGILAR

**G.Hikmatova**
*BuxDU Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi I bosqich magistranti*

«Marketing», «reklama» so‘zlari jamiyat hayotiga shiddat bilan kirib keldi, ayniqsa, bu tushunchalar XXI asrga kelib jadal rivojlandi. Aslida, «marketing» ingliz tilida «bozor» ma’nosini bildirsa, «reklama» so‘zi lotincha bo‘lib, «reclamare» chaqiriq, baqiriq, jalb qilish ma’nolarini anglatadi. Reklama axborot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har qanday reklamada axborot yoki ma’lumot aks etadi.

Hozirgi vaqtda jahon ishlab chiqarish amaliyotida reklamadan keng miqyosda foydalanilishi barchaga ayon. Ammo hozirgi va o‘tmishdagi reklamalar qiyoslanadigan bo‘lsa, ular orasida keskin tafovut borligi anglashiladi. Reklama hozirgi rivojlanish bosqichiga yetgunga qadar dastlab og‘zaki tarzda bo‘lganligini qayd etish lozim. Reklamaning paydo bo‘lishi va ijtimoiy xarakterini o‘rgangan mutaxassislar fikricha, reklama og‘zaki shaklda, ya’ni chaqiriq, baqiriq, jalb qilish ko‘rinishlarida bo‘lgan. Chunonchi, Sharq bozorlari turli ma’lumotlar, farmon-u e’lonlar aholiga yetkaziladigan qulay joy ekanligi hamda jarchilar axborotni «eshitmadim demanglar» deb boshlashi yoki sotuvchilar nutqida «ob qoling, keb qoling», «olganlar darmonda, olmaganlar armonda» kabi qoliplashgan gaplar qayta-qayta aytilganligi alohida isbot talab etmaydi. Bu sharqona reklamaning ilk ko‘rinishlari bo‘lsa ham, axborot va hisoblash texnologiyalari rivolanmagan davrda ham reklamaga ehtiyoj mavjudligi va undan foydalanish imkoni haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, reklama aksariyat bozor munosabatlariga uzviy aloqadorligini tasdiqlaydi. Hunarmandlar mahsulotlarini sotish maqsadida xaridorlarni jalb qilishi, mehnat mahsulining ta’rifi, sifati, narxini tavsiflashi

og‘zaki nutq vositasida amalga oshirilgan.Demak, ilk reklamalar og‘zaki nutq ko‘rinishida shakllangan.

Ko‘pchilik dastlabki yozma reklama matni Londondagi muzeyda saqlanishi haqida ma’lumotga ega. Bu Misr papirusiga qul savdosi to‘g‘risida yozilgan matndir. Reklama matnida: «U yaxshi ko‘radi, eshitadi, sog‘lom, buyurgan ishlaringizni itoat bilan bajaradi...» deb yozilgan. Umuman, reklama jamiyat a’zolarini ularning manfaatlariga qaratilgan muayyan vazifalarni amalga oshirishga, ijtimoiy va shaxsiy hayoti, faoliyati bilan bog‘liq amallarni tanlash va bajarishga undaydi. Eng asosiysi, har qanday reklama matnida muayyan harakatlarni bajarishga chaqiriq va da’vat yotadi.

Reklama matnining sotsial va pragmatik belgilarini turli ommaviy axborot vositalarida hamda badiiy asarda kuzatish mumkin. Masalan, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida kuzatilgan quyidagi matn reklamaning asosiy belgilari va qahramon xarakterini aniqlashga yordam beradi.

Mendan boshqa ham bozorga olma keltirganlar ko‘p edi.

− Kep qoling, op qoling, armonda qolasiz, sotaman-u ketaman! Buni yeganlar non yemaydi, shinavandaga sotaman,- deb javrab, maqtab peshinda arang sotib tugatdim. G‘aladonni hisoblab ko‘rsam, olti tanga bir miri bo‘libdi. Keyingi bir necha oy mobaynida belbog‘ga tugilgan naqdina shundan iborat edi.

Ko‘rinadiki, Qoravoy (asar qahramoni) o‘z savdosi yaxshi bo‘lishi uchun odamlarni olmani sotib olishga da’vat qiladi. Garchi olmalar qurtlagan bo‘lsa-da, ularni “armonda qolasiz”, “yeganlar darmonda”, “shinavandaga sotaman” deb, maqtab-maqtab pullaydi. Bu o‘rinda Qoravoy yosh bo‘lishiga qaramay, sifatsiz molning ta’rifini keltira olish, xaridorlarni jalb qilish qobiliyatiga egaligi ma’lum bo‘ladi. Reklama qilinayotganda, albatta, taklif qilayotgan tomon o‘z molining sifatini, uning afzalligi va kamchiliklarini bilib ish yuritishi kerak. Ammo kezi kelganda, kamchiliklarni yashirishga to‘g‘ri keladi. Buni shum bola misolida kuzatdik. Qoravoy ham sotayotgan molining nuqsonli ekanligini bilib tursa ham, o‘z foydasini ko‘zlab ish tutadi. Shaxs manfaatlari savdo qonunlariga mos kelmagan vaziyatda tilning vazifasi va imkoniyatlari yo‘l ochadi. Reklama matnidagi til vositalarining qimmati da’vat qilinayotgan harakatning amalga oshishi bilan belgilanadi.

Barchaga ayonki, hozirgi vaqtda dunyo bo‘ylab tarqalgan koronavirus infeksiyasidan kasallanish haqidagi axborot ommaviy axborot vositalari orqali tezkorlik bilan yetkazilmoqda. E’tiborli tomoni, kasallik pandemiyaga aylanganligi, uning har bir mamlakat va hududda tarqalishi, kasallikni davolash va undan himoyalanish bilan bog‘liq ma’lumotlar reklamalar mazmunini yangilab yubordi. Dunyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqini ham bu xavfli kasallikdan himoyalanishga da’vat etuvchi minglab xilma-xil reklamalar tayyorlandi. Aksariyat, reklama matnlari quyidagi gaplardan iborat:

− Kasallikka chalinmaslik uchun qo‘lingizni har yarim soatda sovunlab yuving!

− Gripp alomatlari yoki shamollash belgilari bo‘lgan bemorlarga yaqinlashmang!

− Bemorlardan o‘zingizni 2 m uzoqlikda saqlang!
− Hayvonlarga yaqinlashmang!
− Doim niqobda yuring!
− Iltimos, uyda qoling!

Mazkur matn mazmunidan anglashiladiki, har bir gapda jamiyat a’zolarining salomatligi va xavfsizligi uchun muhim tavsiyalar berilgan, asosiysi, kasallikka chalinmaslikka da’vat mazmuni aks etgan.

Shuningdek, «Shamollash va isitma alomatlarini sezsangiz, darhol 1003ga qo‘ng‘iroq qiling. Xizmat mutlaqo bepul» kabi mobil aloqa vositalariga kelib turgan ma’lumotlar ham reklama xarakteriga ega. Bu matn orqali kasallikni yuqtirmaslik, o‘zi va yaqinlarini himoya qilish, kasallikdan saqlanish uchun belgilangan choralarga amal qilish zarurligi uqtirilgan. Shu bilan birga, matnda axborotni qabul qiluvchilarni ogohlantirish, ularni muayyan xatti-harakatni bajarishga chaqirish va da’vat etish qirralari mavjudki, bu aynan reklama matnlariga xosdir.

Reklamaning inson hayotidagi o‘rni beqiyos, ammo uning lingvistik tadqiqida lisoniy va nolisoniy omillarning ta’siri va tutgan o‘rni haqida yetarli xulosalarga kelish uchun mavjud qarashlar va nazariy asoslarni rivojlantirish zarur. Zero, bu fanning zamonaviy innovatsion texnologiyalar va jahon iqtisodiyoti rivojlanayotgan davrdagi taraqqiyotini belgilaydi.

## VOBKENT TUMANIDAGI JOY NOMLARI BILAN BOG‘LIQ ATAMALAR TASNIFI

**M.Xayrullayeva**
*BuxDU magistranti,*
**B.Qilichev**
*BuxDU dotsenti*

***Tayanch so‘zlar:*** *so‘z, ma’no, tuman, toponim, tasnif, atama, formant, topoformant, yasalish, indikator.*

***Ключевые слова:*** *слово, смысл, район, топоним, классификация, термин, формант, топоформант, словообразование, индикатор.*

***Keywords:*** *word, meaning, region, toponym, classification, term, formant, topoformant, word formation, indicator.*

***Annotatsiya**:* *maqoladaBuxoroviloyatiVobkenttumanihududidanmavjudbo‘lgantoponimlartarkibidauchraydiganayrimtoponimikatamalartasnifiberilgan*

***Annotatsiya:****встатьерасмотрены вопросы классификации некоторых терминов топонимии Вабкентского района.*

***Summary:*** *The article classifies some toponymic terms that occur in the structure toponyms existing in terrritory of Vobkent district of Bukhara region.*

Toponimlar va ular lug‘aviy asoslari etimologik tadqiqi yo‘sinlari sifatida taqdim etilayotgan tamoyil, usul, omil va motivlanish masalalari boshqa fanlardagi

shunday masalalardan mazmun jihatdan farq qiladi. Har bir fan yoki sohaning o‘rganish obyekti, predmeti, tushunchaviy bazasi bo‘lgani kabi onomastikaning, shu jumladan, toponimikaning ham o‘ziga xos xususiyatlari bor. Muayyan bir fandagi tamoyil, usul, omil va motivlanish xususiyatlarini ikkinchi bir fanga to‘g‘ridan- to‘g‘ri tadbiq qilish o‘zini oqlamaydi. O‘rganilayotgan sohaning talablaridan kelib chiqib, ularga nimanidir qo‘shish kerak yoki ulardan nimanidir olish kerak.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ishda qayd etilayotgan toponimlar lug‘aviy asoslari va etimologik tadqiqining nazariy negizi bo‘lgan tamoyil hamda usullar, shuningdek, bunday tadqiqda ko‘rilgan masalalar onomastik, toponimik tadqiqotlar olib borish uchun yopiq tizim emas, balki ochiq tizimlar majmui sanaladi. Fandagi mavjud usul va tamoyillarni qatorlashtirib sanab o‘tishdan ko‘ra, to‘plangan toponimlarga tayanib, tadqiqot mavzuimiz doirasida zarur bo‘lgan yondosh masalalar, omil, tamoyil va usullar haqida to‘xtalish o‘rinli. Qo‘yilayotgan muammolar toponimlarni etimologik tadqiq qilish jihatdan o‘rganishning nazariy, amaliy qimmatga ega bo‘lgan masalalari jumlasiga kiradi. Shuning uchun ular bu ilmiy tadqiqotning alohida – alohida boblari sifatida tadqiq etiladi.

Tadqiqotimiz oldida Vobkent tumani toponimlari bo‘yicha umumiy tadqiq olib borishning yo‘sinlari sifatida omil, tamoyil va usullarni, shuningdek, shunday tadqiqqa oid masalalarni o‘rganib, ularni qo‘llash muammosini hal qilish masalasi turibdi. Ishimizning tadqiq obyektini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishda amalga oshirilgan tadqiqotlar ma’lum ma’noda ham ilmiy, ham amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur ish Vobkent tuman toponimlari tadqiq yo‘sinlarini monografik planda o‘rganish bo‘yicha bajarilgan dastlabki ilmiy tadqiqotlardan biri sanaladi.

Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant va indikatorlar, odatda, u yoki bu darajada qo‘llanadi. Ularsiz joy nomlarining etimologik tadqiqi haqida gapirib bo‘lmaydi. Chunki bir toponim faqat topoasosdan iborat bo‘lsa, boshqa biri topoasos va topoformant ko‘rinishida, uchinchi toponimda esa topoasos va topoformant yoki topoasos, topoformant hamda indikator ko‘rinishlarida uchraydi. Mana shularning ma’nolari birikishidan joy nomining ma’nosi shakllanadi. Topoasos toponimlarning yuzaga kelishi uchun asos bo‘ladi. Ular turli tillarning so‘zligidan (asosan, turkiy, fors – tojik, arab) tashkil topgan: *Rohkent, Pirmast, Xarg‘sh, Xayrobodcha, Chuqurko‘cha, Halvogaron, Murdasho‘ylar, Usuniko‘l, Xo‘jarabot, Boboshayx, Beshrabot, Sariosiyi, Toqido‘z, Rabotobod, Asbobsoz, G‘aribshoh, Yangimasjid, Qumrabot, Sarikor, So‘fidehqon, Cho‘rikalon, Chorrabot, Talligandum, Mirsulaymon, Ko‘lxatib, Astarbof* va boshqalar.

Topoformant va toponimning shakllanishi jarayonida ishtirok etgan qo‘shimchalar jumlasiga kiradi. Ular asosan sodda qo‘shimchalardan iborat topoformantlar sanaladi: *-chi, -lik, -on (-yon), -cha, -lar*va boshqalar: *Arobasozlar, Asbobsozlar, Baqqolon, Baxshiyon, Dukchilar, Arablar, Xo‘jalar, Kurton, Mavrilar, Maxsumlar, Nonvoylar, Sartaroshlar, Qirg‘izon, Qo‘qincha, Teraklik, Xayrobodcha, Eshonlar, So‘filar* kabi.

Tuman hududida –kent, -obod, -rabot, -tepa –xona topoformantli: *Kumushkent, Rohkent, Yangikent, Bahrinobod, Mo'minobod, Kaltarabot, Oqrabot, Pirmastobod, Rabotobod, Xayrobodcha, Beshrabot, Qumrabot, Xosrabot, Xo'jarabot, Teshektepa, Arabxona* toponimlar uchraydi.

Kuzatishlarimizcha, topoformantlar nafaqat toponim tarkibida keladigan formant, shu bilan birga toponim yasashda ham xizmat qiladi. Mana shu holga ko'ra topoformantlarni ikki guruhga bo'lib o'rganish lozim:

1. Asl topoformantlar. Ular toponim tarkibida qo'llanadi, ammo yasovchilik xususiyati yo'q. *Dukchi* kabilardagi qo'shimchalar shunday topoformantlar sanaladi.

2. Yasovchi topoformantlar. Bular toponimning shakllanishida yasovchilik xususiyatiga ega bo'ladi: *Asbobsozlar, Arobasozlar, Gulzor*va boshqalar.

M.Murzayev "Очерки топонимии" kitobida indikatorning toponimga xos belgi – xususiyat va holatlarni ifodalaydigan so'z hisoblanishini ta'kidlagan [1].

Z.Do'simov va X.Egamovlar"Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati" kitobida esa bu terminni: «Indikator – toponimlar tarkibida kelib, obyektning xarakteri, xususiyati, soni va boshqalarni ko'rsatuvchi so'z. Masalan, toponimik indikatorlar: *qishloq, daha, dasht, cho'l.* Gidronomik indikatorlar *ko'l, daryo, ariq*kabilar. Lotincha "indikos"*«ko'rsatmoq»* so'zidan yasalgan [2], deb ikkita guruhga bo'lib ta'riflashgan. Indikatorli toponimlar toponim – kompozitlar deb ham o'rganilgan va ular toponimik, gidronimik, funkstional indikatorlar deb uchga bo'lingan.

T.Nafasov: «Indikator joy nomi yasashda qatnashib, uning tarkibida obyekt turini bildiradigan so'z: *buloq(Toshbuloq)*, *qishloq* (*Kattaqishloq)*», deb uni lingvistik jihatdan izohlagan [3].

P.G'ulomov"Jug'rofiyaatamalari va tushunchalari izohli lug'ati"da ushbu termin haqida «Indikator (toponimikada) toponimlarni hosil qiluvchi mahalliy geografik terminlar: *qum, tepa, daryo, suv , kent* va boshqalar», degan ta'rifni geografik jihatdan bergan [4].

Bizningcha, bu terminni toponimlar tarkibidagi xususiyatlaridan kelib chiqib, *toponimik aniqlagich* ham deyish mumkin. Biroq bu birikmali terminni qo'llashdan ko'ra, *indikator* terminini ishlatish har jihatdan o'rinli. Demak, maskur termin haqidagi aytilgan fikrlar lingvistik va geografik jihatlardan bir – birini to'ldiradi. Sababi, ular indikatorning obyektning belgi – xususiyati, xarakteri, soni, turi kabilarni ko'rsatuvchi so'zligi va mahalliy geografik terminligini ko'rsatib turibdi. Indikatorlar toponimlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, *G'uddim tog'i, Molguzar tog'i* toponimlarida *tog'* lug'aviy asosi indikator vazifasini bajargan. Ular quyidagicha tarzda qo'llanadi:

1. Indikator(lar) toponim tarkibida keladi: *Odoq**ariq**, **Mahalla**i Imomqozixon, Teshik**tepa**, Kumush**kent**, Roh**kent**, Yangi**kent**, Bahrin**obod**, Besh**rabot**,Mo'min**obod**, Kalta**rabot**, Oq**rabot**, Pirmast**obod**, Rabot**obod**, Xayr**obod**cha, Qum**rabot**, Xos**rabot**, Xo'ja**rabot**, Arab**xona*** kabilar.

2. Indikator(lar)ning o‘zi toponim bo‘lib keladi: Rabotobod (toponimning har ikkala qismi ham indikator sanaladi). Shunday toponimlarning mavjudligini toponimik misollar vositasida Z. Do‘simov va M. Tillaeva ham tasdiqlashgan [9].

Ular to‘plab o‘rganilgan besh mingdan ortiqroq toponimlar misolida kuzatilib, qo‘llanish darajasiga ko‘ra uchta guruhga bo‘lindi:

1. Ko‘p qo‘llanadigan indikatorlar: *kent, obod, rabot, xona, tepa, ariq*kabilar.

2. Nisbatan kam ishlatiladigan indikatorlar: *shahar, ko‘cha, bozor, bog‘, adir, mahalla, guzar* va boshqalar:

3. Kam qo‘llanadigan indikatorlar: *qabriston, mozor, cho‘l, cho‘qqi, tog‘, tosh, ko‘l, qoya.*

Bulardan bilinib turibdiki, mamlakatimiz toponimlaridagi indikatorlar fors – tojik , arab va turkiy tillarga oid so‘zlardan tashkil topgan. Demak, toponimlar tarkibidagi topoasos, topoformant va indikatorlar ularni etimologik tahlil hamda tadqiq qilishga yordam beruvchi vositalar jumlasiga kiradi.

**Adabiyotlar:**


1. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. –М., Мысль, 1974, -382 с.
2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1977.
3. Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари. Филол.фанл. канд. диссер. −Т., 1968, 301 б.
4. Ғуломов П. Жуғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли луғати. –Т., Ўқитувчи, 1994. -140 б.


## ALISHER NAVOIY IJODIDA ANTONOMAZIYALAR LINGVOPOETIKASI


**Y.S.Saidov**

*f.f.n., professor,*

**Salimova D.F.,**

*magistrant, BuxDU*


Alisher Navoiy ijodi nafaqat o’zbek, balki turkiy  adabiyotning eng yuksak cho’qqisi hisoblanadi. Navoiy nazmiga diqqat bilan qaralsa, uning o’zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, badiiy adabiyotda yetuk asarlarni yaratganligining guvohi bo’lasiz. Allomaning asarlari o’zbek mumtoz adabiyotining bitmas- tuganmas xazinasidir. Navoiy so’zlarni ko’chma ma’noda ishlatishda ham alohida mahorat maktabini yaratgan. Ayniqsa, badiiy san’atlar tizimi, xususan,  talmih san’atini har tomonlama boyitdi va takomillashtirdi.

Mazkur badiiy san’at Yevropa tilshunosligida antonomaziya termini bilan ataladi. Jahon, xususan, o’zbek tilshunosligi uchun antonomaziyalarning leksik-semantik jihatlarini yoritish, matndagi badiiylikni ta’minlashdagi o’rnini ko’rsatish, yondosh ko’chim turlariga munosabatini  aniqlashtirish, ko’chimlar tizimidagi o’rni va ahamiyatini ochib berish, leksik-semantik tabiati va structural-kompozitsion xususiyatlarini tadqiq etish, falsafiy, mantiqiy, lisoniy, semantic

hamda badiiy-estetik, poetik xususiyatlarini yaxlit tahlil qilish muhim vazifalardan biridir.

Sharq adabiyotshunosligida antonomaziyalar talmeh badiiy sa'ati nomi bilan qisman o'rganilgan. Ilmiy manbalarda qayq etilishicha, talmih boshqa badiiy san'atlar, xususan, tashbeh, tamsil, irsol ul-masal, laff va nashr kabilar bilan birga o'xshatish asosidagi san'atlar turkumiga kiradi. U she'rda oz so'z bilan ko'p ma'noni ifodalash san'ati bo'lib, unda ma'lum, mashhur adabiy va tarixiy asarlarga murojaat etiladi.

Talmeh xususida Atoulloh Husayniy, Y. Is'hoqov, T.Boboyev, A. Hojiahmedov kabi olimlarning tadqiqotlarida, shuningdek, adabiyotshunoslik terminlari lug'atlarida, adabiyot nazariyasiga oid bir qator qo'llanmalarda ma'lumot va tavsiflar mavjud. O'zbek adabiyotshunosligiga oid tadqiqot va darsliklarning ayrimlarida mazkur badiiy san'at nomi talmih, ba'zilarida talmeh sifatida keltiriladi. Ushbu so'zning yozilish shakli bo'yicha o'zbek tilshunosligida aniq to'xtamli fikr mavjud emas.

Talmeh san'atining asosiy shartlaridan biri shundaki, unda ishora qilinayotgan tarixiy yoki badiiy faktning mashhur, ya'ni ko'pchilikka tanish bo'lishi muhimdir. Hozirgi davr nuqtai nazaridan Alisher Navoiy qo'llagan talmehlarning ko'pchiligini o'qiganda yoki eshitganda fahmlash, qaysi faktga ishora, murojaat etilayotganini tezda anglash mumkin.

Alisher Navoiyning ijodida antonomaziyalarning o'rni beqiyos. Buni birgina

"G'aroyib us-sig'ar" devonida keltirilgan yetmishga yaqin antonomaziyalar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Alisher Navoiyning adabiy-badiiy asarlarida qo'llangan antonomaziyalar, shubhasiz, o'zbek xalqining madniyatini to'liq o'zida aks ettiradi. Shunga ko'ra uning asarlaridagi mazkur ko'chim turini aniqlash, mazmun-mohiyatini ochib berish va ularning vazifalarini belgilash katta ahamiyatga ega. Shoirning badiiy asarlaridagi antonomaziyalarning umumiy xususiatiga e'tibor berilsa, ular ikki jihatga ko'ra farqlanadi. Asarlarida qo'llangan antonomaziyalarning bir qismi adabiy faktlarga ishora etilgan bo'lsa, qolgan bir qismi esa ijtimoiy-tarixiy voqealarga ishora qilingan.

Talmih shunday badiiy san'atki, unda aytish lozim bo'lgan fikr boshidan oxirigacha to'liq aytilmaydi, voqea-hodisa, holat batafsil tasvirlanmaydi, o'sha fikr yoki voqea-hodisaga mos keladigan boshqa biror badiiy yoki tarixiy faktga ishora qilish orqali katta natijaga erishish, bir so'z bilan ko'p tushuncha ifodalash imkoni yuzaga keladi. Masalan, "Farhod va Shirin"dan o'qiymiz:

Agar topsa Iskandar mulkin zoting,
Gar o'lsa Nuh umricha hayoting.
Chu ketmaklik keraktur bot, agar kech,
Hamul davlat bila bu umr erur hech.

Tavsifi: agar senga aslan Iskandar mulki nasib bo'lganda ham, hayoting Nuh payg'ambar umricha bo'lganda ham, ertadir, kechdir, bu dunyodan ketish turgan gap. Shuncha davlating va umring esa hech narsa bo'lmay qoladi. Baytda ikkita

shaxs nomi: Iskandar va Nuh tilga olingan. Ma’lumki Iskandar buyuk yunon hukmdori. U juda ko’plab mamlakatlarni fath etib, benihoya darajada qimmatli boyliklarni qo’lga kiritgan. Ammo yetti iqlimni zabt etgan, quruqlikda va yerda bo’lgan barcha la’l-u gavharlarni to’plagan Iskandar o’ttiz uch yoshida orttirgan mol-mulki unga vafo qilmagani holda bu dunyodan ko’z yumadi. Qur’onda nomi keltirilgan Nuh payg’ambar esa, eng uzoq umr ko’rgan payg’ambar hisoblanadi. Alisher Navoiy ushbu bayti orqali Iskandarning boyligiga, Nuh payg’ambarning uzoq umriga ishora qiladi. Mazkur misralardagi antonomaziyalar shoirning xilma-xil, takrorlanmas badiiy niyatlarini namoyon etuvchi muhim uslubiy vosita sifatida namoyon bo’ladi.

Alisher Navoiy badiiy asarlaridagi antonomaziyalarning lingvistik mohiyatini ochib berish, ilmiy-nazariy tasnifini berish, izohlash, lingvopoetik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish, shoir qo’llagan ko’chma ma’noli so’zlar tizimida antonomaziyalarning o’rnini belgilash, ularning falsafiy, mantiqiy, lisoniy, semantik va poetik xususiyatlarini yaxlit tahlil qilish o’zbek tilshunosligi uchun muhim vazifalardan bo’lib qolmoqda.

**Adabiyotlar:**


1. Анданиёзова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: филол. фан. б. фалс. док. дисс. автор. –Т.: 2017. -27 б.
2. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. -Т.: Зарқалам, 2006. -125
3. Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. –Т.: Фан, 1988. VIII том. -121 б.
4. Талмиҳ. –Т.:Ўз. МЭ, 2006. VIII жилд. –Б. 68.
5. Ҳусайний. А. Бадойиъ-ус-санойиъ. -Т.: Ғ. Ғулом номли адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. - 400 б.


## ONA TILI TA’LIMI MAZMUNINI KOGNITIV-PRAGMATIK USULDA YANGILASH TARIXIDAN


**A.R.Ahmedov,**
*fil.f.n.,dots,*
**Sh.Y.Yoqubova,**
*magistrant, BuxDU*


Mustaqil O’zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy sohalardagi keng ko’lamli ishlar, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat Umummilliy dasturi” ta’limning barcha bo’g’inlarida ona tili o’qitishni tashkiliy va mazmuniy jihatdan yanada takomillashtirishini taqozo etadi.

Bugungi ta’lim tizimimiz bilimli shaxsni emas, balki bilimlaridan jamiyat talablariga mos foydalana oladigan, mustaqil fikrlaydigan, madaniyatli, ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan. Bu maqsadni amalga oshirishda ona tili ta’limining o’rni beqiyosdir. Ona tili darslarining boshqa o’quv fanlaridan farqi shundaki, u boshqa barcha sohalarga oid bilimlarni o’zlashtirilishi uchun kerakli kognitiv tasavvurlarni hosil qilishga xizmat qiladi.

Ya’ni ona tili darslarida o’quvchilar og’zaki va yozma savodxonlikka o’rgatiladi. Shu bilan birga ona tiliga oid nazariy bilimlar ham egallanadi.

Shu asosda DTSlar ona tili ta’limi oldiga quyidagi maqsadni qo’yadi: “Ta’lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyati, so’zlovchi maqsadi va tinglovchi saviyasiga mos ravishda og’zaki va yozma shakllarda to’g’ri, ravon va lo’nda ifodalash, o’zgalar fikrini to’g’ri anglash ko’nikmalarini shakllantirishi lozim.”

Shuningdek, davr, ijtimoiy hayotdagi tub-inqilobiy burilishlar, shubhasiz, ta’lim maqsadiga ham tub o’zgarishlar olib kelishi shart edi. Mustaqillik davrida ta’limning tub islohoti darsliklarning mazmunini takmillashtirishdan boshlandi. Ta’lim mazmuni ta’lim maqsadiga mos ravishda o’zgartirildi. A.G’ulomov va H.Ne’matov “Ona tili ta’limi mazmuni” metodik qo’llanmalarida ta’lim mazmunining to’rt tarkibiy qismini alohida sanab o’tadilar:

1)o’quvchilar egallashi zarur bo’lgan bilimlar tizimi;

2)ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan ko’nikma va malakalar tizimi;

3)ijodiy faoliyat usullari;

4)o’quvchi va o’qituvchi o’rtasidagi munosabatlar tizimi.

Bundan anglashiladiki, ta’lim mazmuni deganda ta’lim oluvchilarga qanday bilimlar berish, bu bilimlarni qanday usullar bilan berish lozimligi, o’qituvchi o’quvchiga, o’quvchi o’qituvchiga qanday yondashishi, ta’lim natijasida tarbiyalanuvchi nimalarni qila olishi va hatto o’z faoliyatiga ichki baho bera olishi tushuniladi. Ta’lim mazmuni tarkibiga kiritilgan bilimlar silsilasi umumiy bilimning ta’lim maqsadi nuqtayi nazardan tanlangan, ta’lim oluvchining yoshi, aqliy, jismoniy, kasbiy (faoliyat) xususiyatlari va ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiqlashtirilgan bo’lagidir. U, albatta, pragmatik ahamiyatli –tatbiq etiladigan va uning asosida ijod qilish mumkin bo’lgan xususiyatlarga ega bo’lmog’i lozim. Ta’lim maqsadini amalga oshirish uchun ta’lim mazmunini kognitiv-pragmatik usulda yangilash ehtiyoji tug’ildi. Kognitiv-pragmatik (induktiv) usul deganda kuzatish-u tahlildan qonuniyatga, xususiylikdan umumiylikka qarab intilish – bilim hosil qilish usuli tushuniladi. Bu yo’nalish ta’lim oluvchiga o’rganish jarayonining boshqaruvchisi, tashkilotchisi sifatida yondashadi. Shuning uchun ta’lim jarayonida izlanishlarni, asosan, ta’lim oluvchi bajaradi.

Ta’limga bunday kognitiv-pragmatik usulda yondashish jahon tajribasida xiyla avvalroq sinovdan o’tgan. Aniqrog’I, XX asrning 50-yillarida g’arbda va AQShda, 60-yillarida esa sovet didaktikasi va psixologiyasida bixeovoristik nazariyaga asoslangan hamda XIX asr oxiri XX asrning boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy talablarga javob beradigan retroskopik-retseptiv usulda bilimdon ijrochini yetishtirishga qaratilgan ta’lim tizimi o’z vazifasini o’tab bo’lganligi, yangi davr – tugal bozor iqtisodi davri tamoman boshqa – mustaqil ijodiy tafakkurga qodir tadbirkor - shaxsga muhtoj ekanligi masalasi muhokama etila boshlandi. Ta’lim nazariyasi verballik, izlanuvchanlik, onglilik, amaliy tatbiq (kognitiv va pragmatik) psixologik asos tomon siljiy boshladi. Xususan, D.P.Ozbelning “Pedagogik psixologiya. Kognitiv yondashuv” (1968) asaridan so’ng ta’limda retseptiv usuldan ko’ra kashfiyot usuli muvofiq ekanligi oydinlashdi. Induksiya/induktiv ta’lim usuli

sifatida ilk marotaba o'zbek didaktikasida H.Ne'matov va A.G'ulomovlar tomonidan ilk muhokamalar uchun nashr etilgan ona tilidan dasturda qo'llanilgan.

2000-2003-yillarda V-IX sinflar uchun darsliklarning birinchi avlodi – mustaqil O'zbekiston Respublikasining ona tilidan bilim hosil qilishning induktiv usuliga tayangan, ongli (kognitiv), verbal-pragmatik ta'lim metodiga asoslangan va ijodiy tafakkur sohibini tayyorlashga qaratilgan ilk darsliklar e'lon qilinib, amaliyotga tatbiq etildi. Bu orada Mels Mahmudov, Rohatoy Safarova, Askar G'ulomov, Shoira Yusupovalarning doktorlik, Muhammadjon Saidov, Nazira Qosimova, Anora Bobomurodova , Isroil Toshevlarning nomzodlik disertatsiyalarida ta'lim maqsadi, mazmuni, usuli va vositalarining nazariy hamda amaliy tomonlari tahlil etildi. Mazkur tadqiqotlar ona tilidan yangi ta'lim maqsadini to'la-to'kis amalga oshirish ta'lim vositalari, jumladan, ona tili imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan hamda o'quvchilar ona tili darslarida amaliy foydalanishlari uchun zarur axborot banklari – turli maqsadlqrni ko'zlab tuzilgan lug'atlar, ma'lumotnoma-qomus – ularning elektron variantlari, kompyuter dasturlarini yaratish ishlariga kirishildi. Chunki bunday vositalarsiz ongli, kognitiv-pragmatik ta'lim usuli ko'zlangan samarasini bera olmaydi. Bu ta'lim usulining bosh omili o'quvchining darslikda berilgan o'quv materiali bilan mutlaqo chagaralanmasligi, darslik topshiriqlari asosida axborot bankidan material topib uning ustida mustaqil izlanishdir. Darslikda o'quv materiali to'liq berilmay o'quvchini mustaqil izlanishga da'vat etadi.

Hozirgi kunda amalda bo'lgan umumta'lim maktablarining V-XI sinflari(2017-2019-yillarda) uchun nashr etilgan ona tili darsliklari ijodiy tafakkur sohibini yetishtirishga xizmat qiladi.

I-IVsinf o'quvchilarda eslab qolish qobiliyati kuchli bo'lganligi bois ta'lim usulida boshlang'ich bo'g'inda retroskopik-reproduktiv (ko'rgazmali bayon) usul yetakchilik qiladi. V-XI sinf o'quvchilarida ijodkorlik, qiziquvchanlik kabi xususiyatlarning ustunligi sabab tayanch bo'g'inda ona tili ta'limi asosan, kognitiv-pragmatik usulda olib boriladi. Darlikdagi mashq va topshiriqlar tizimini bajarishda o'qituvchilar induktiv usuldan foydalangan holda dars jarayonini tashkil etish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim maqsadining amalga oshishiga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar:**

1.Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – J.:Sangzor, 2006
2.Yo'ldosheva D. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. T.:O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019
3.Ғуломов А. Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. – Т.:Ўқитувчи, 1995

**5A120101 - Адабиётшунослик (инглиз адабиёти)**

# ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТЬ И ЕЁ ЭЛЕМЕНТЫ В ЛИТЕРАТУРЕ

***Ф.М.Хажиева***
*БухГУ, PhD доктор философии по филологическим наукам,*
*доцент кафедры английской литературы*
***А.Ш.Мирзаева***
*Магистрант кафедры Английской литературы*

*В статье даётся подробное описание общих вопросов интертекстуальности а также, дана классификация основных интертекстуальных форм, разграничение «собственно интертекстуальных элементов» таких как «цитата», «аллюзия» и «реминисценция».*

Мировая литература конца 20 – начала 21 века имеет свои изменения, потому что испытала на себе сильнейшее влияние постмодернизма. Вместо реализма и модернизма, которые имели идейную определённость, пришло отрицание всякого рода идей. Это выражалось в том, что авторы отказались от поиска смысла бытия. Этим самым они предпочли пародировать жизнь, ставя под сомнение свой собственный авторитет. То, что в европейском обществе отрицали принятые идеи и традиции, разрушили привычный уклад жизни, пародирование, совсем другой взгляд на теорию текста. Всё это привело к структурной и смысловой деформации литературного произведения. Теперь читатель в произведении видит игру, которая проявляется на уровне смысла, языка, взаимодействия автора и самого читателя. Одним из приёмов этой игры является интертекстуальность.

Известно, что термин “интертекстуальность” введён в 1967 году теоретиком литературы французским исследователем Юлией Кристевой: «Интертекстуальность – социальное целое, рассмотренное как текстуальное целое» [1,27] для обозначения общего свойства текстов, выражающегося в наличии между ними связей, благодаря которым тексты могут многими разнообразными способами явно или не явно ссылаться друг на друга. Этот приём – играреализуется как в научных, так и в художественный текстах.

Среди многочисленных статьей стоит выделить работу Н.Фатеевой “Интертекстуальность и её функции в художественном дискурсе”, в которой она утверждает: «интертекстуальность – это способ генезиса собственного текста и постулирования собственного авторского «Я» через сложную систему отношений оппозиций, идентификации и маскировки с текстами других авторов». [2, 30]

Исходя из вышеуказанного, очевидно, что в подходе к проблеме определения понятия интертекстуальности важным является историческая преемственность между текстами и выразительная функция.

На сегодняшний день актуальной научной проблемой становятся не только общие вопросы интертекстуальности, но и вопрос типологии основных интертекстуальных форм в литературе. Например, И.В.Арнольд в своей статье пишет: «При внешней интертекстуальности смена субъекта речи – реальная: цитата действительно принадлежит перу другого автора. А внутренняя интертекстуальность (письма, дневники, литературные герои) – по существу фиктивная». [3,22] Более развернутая типология интертекстуальности принадлежит одному из основателей теории интертекстуальностиЖ.Жаннетт. По этой классификации интертекстуальные формы подразделяются на «собственно интертекстуальные, паратекстуальные, метатекстуальные, гипертекстуалные, архитекстуальные. Архитекстуальность носит самый общий характер, это отношение текста и рода, к которому он принадлежит. Паратекстуальность включает предисловия, иллюстрации и т.д. Метатекстуальность носит отношение комменирования и выполняет критическую функцию. А собственно интертекстуальные элементы включают в себя цитаты, аллюзии, реминисценции». [2,27]

Рассмотрим каждый из этих элементов. Самая очевидная форма в литературе - цитата. Осип Мандельштам писал: «Цитата не есть выписка. Цитата есть цикада –неумолкаемостьей свойственна». [5, 50]. Руднев отмечает, что цитата перестаёт в ключе интертекста играть роль простой дополнительной информации, отсылки к другому тексту, «цитата становится залогом самовозрастания смысла текста».[6]Это даёт понять нам, что именно цитата позволяет наблюдать, каким образом один текст включается в другой.

Следующая, более сложная форма интертекстуальности – аллюзия. «Большая советская энциклопедия» даёт такое определение: «Аллюзия (от лат. allusio – шутка, намёк), в художественной литературе, ораторской и разговорной речи одна из стилистических фигур: намёк на реальный политический, исторический или литературный факт, который предполагается общеизвестно».[7, 215]

Аллюзию нельзя назвать тропом или фигурой. По мнению Л.К.Граудиной и Е.Н. Ширяева «Аллюзия – это намёк на известное обстоятельство или тексты».[8, 1320] Они подразделяют аллюзии по содержанию на исторические и литературные. Первые строятся на упоминании исторического события или лица. Литературные аллюзии «основаны на включении цитат из прецедентных текстов (часто в изменённом виде), а также в упоминании названия, персонажа какого-либо литературного произведения либо эпизода из него».[8, 135]

Аллюзия и реминисценция схожи по своим функциям и отличительным признакам, однако первая представляет отсылку к реальному историческому или литературному факту, который является общеизвестным, а вторая – абстрактнымобразом или воспоминанием, которое нашло своё отражение в творчестве писателя вообще или в конкретном литературном произведении. Таким образом, цитата, аллюзия и реминисценция как

элементы текста имеют единую цель, дополняющую смысл авторского произведения и воплощающую преемственность литературной традиции.

В заключение обзора вышеуказанных работ становится ясно, что интертекстуальность не утрачивает своей популярности в современной литературе. Большинство учёных считают цитату, аллюзию и ременисценцию основными интертекстуальными формами. При этом отличительными чертами цитаты признаны – уместность, ясность и точность, а аллюзия и ременисценция схожи по своим функциям, хотя первая отсылает нас к реальному историческому, которое является общеизвестным, а вторая- абстрактный образ либо воспоминание в творчестве писателя вообще или в конкретном его литературном произведении. Но все эти элементы имеют одну цель- введение дополнительного смысла в произведении и показать преемственность литературной традиции.

**Библиография:**

1. Кристева Ю. Бахтин, слова, диалог и роман// Французская семиотика: От структурализма к поструктурализму/ пер.с франц., сост., вступ.ст. Г.К.Косикова М :ИГ Прогресс , 2000. С. 27.
2. Фатеева Н.А Типология интертекстуальных элементов и связей в художественной речи \\ Известия академии наук СССР. Серия литературы и языка. М. : Наука, 1998. Т.57. С. 30
3. Баринова Е.Е Метатекс в постмодернистком литературном пространстве: автореф. дис. … канд. фил. Наук. Тверь, 2008. С.22
4. 4.Мандельштам О. Слово и культура. М: Сов.писатель, 1987. С. 50
5. Руднев В. Словарь культуры 20 века // Электронная библиотека «Грамотей». URL: http//lib.rus.ec (дата обращения: 12.02.2012).
6. Прохоров А.М Аллюзия // Большая советская энциклопедия: в 30 т. М. : Сов.энциклопедия, 1960. Т. 1. С.215.
7. Граудина Л.К., Ширяев Е.Н. Культура русской речи. Средства речевой выразительности. М. : Наука, 2005. С. 132.

## JOZEF EPSHTEYNNING “UKAGINAM ILAY” HIKOYASINING O`ZBEKCHA TARJIMASIDA GRAMMATIK TRANSFORMATSIYALAR

**M.Radjabova**
*BuxDu Xorijiy tillar fakulteti Adabiyotshunoslik(ingliz)I bosqich magistranti*

*Ushbu maqolamizda Jozef Epshteynning “Ukaginam Ilay” hikoyasining o`zbekcha tarjimasi va ingliz tilidagi asliyati kuzatilib, tahlil qilindi. Mazkur maqolamizda xuddi shu asar tarjimasidagi grammatik transformatsiyalar tahlil qilindi.*

Tilning grammatik tuzilishi uning sistemasidagi umumiy muhim jihatidir. Affikslar, grammatik qo`shimchalar va so`z yasalishi, sintaktik modellar, so`z

tartibi, yordamchi so`zlar va h.k. kabi tilning grammatik tuzilish elementlari grammatik yoki shakliy ma’noni, leksik ma’nolarning aniq shaklini ko`rsatishga xizmat qiladi. Tarjima qilish jarayonida bu ma’nolarni ifodalash muhim muammodir. Turli xil tillarning grammatik shakllari juda kam hollarda ularning ma’no va vazifasiga mos keladi. Ushbu jarayonda grammatik transformatsiyalardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Tarjima qilishda grammatik transformatsiyadan keng foydalanishning sababi rus yoki ingliz tilidagi gap ingliz tilining grammatik tuzilishi bilan mos kelmasligida deb izohlanadi Jozef Epshteynning “Ukaginam Ilay” hikoyasining o`zbek tili tarjimasida grammatik transformatsiya turlaridan keng foydalanilganligi namoyon bo`ldi. Grammatik transformatsiyalar morfologik va sintaktik turlarga bo`linadi[32]. Quyida biz ularning turlarini Jozef Epshteynning “Ukaginam Ilay”(“My brother Eli”) hikoyasi tarjimasi misolida ko`rib chiqamiz.

**Asliyatda:**An immigrant, unable to read English, he came to this country at sixteen from Bialystok, and, contrary to the standard American success story, never really made it.[33]

**Tarjimada:**U o`n olti yasharligida ingliz tilida o`qishni bilmagan musofir Bialstokdan bu yurtga ko`chib kelgan edi.Amerikada hammaga kulgan omad unga tishining oqini ham ko`rsatmadi.[34]

Bu gapda biz grammatik transformatsiyaning sintaktik o`rin almashtirish usulini kuzatishimiz mumkin. Ya’ni inglizcha gapdagi gap bo`laklarining tartibi o`zbekcha gapdagi gap bo`laklarining tartibi bilan mos kelmaganligi sababli ularning o`rni almashgan. Ingliz tilidagi gapda 1,2,3,4-qismlar – aniqlovchi, ega, kesim, hol kelgan bo`lsa,o`zbek tilidagi gapda ega, hol, aniqlovchi, hol va kesim kelganligini ko`rishimiz mumkin. Shuningdek, Zoya Proshina“Theory of translation” kitobida ta’kidlanishicha, grammatik transformatsiyalar qo`shma gaplar tarjimasida ham uchraydi. Unga ko`ra bitta qo`shma gapning ikkita sodda gap bilan ifodalanishi va, aksincha, sodda gaplarning qo`shma gap sifatida tarjima qilinishi ham aytib o`tilgan va ular transformatsiyaning gap bo`linishi va gap birlashuvi turi deb aytilgan. Shunga ko`ra, yuqoridagi badiiy parchadagi asliyatdagi qo`shma gapning tarjimada ikkita sodda gap bilan berilishi esa gap birlashuviga misol bo`la oladi.

**Asliyatda:**I call him “the old man” because I can’t remember him young.[35]

**Tarjimada:** Yoshlik chog`larimni eslay olmaganim uchun “boboy” deb atayman.[36]

Yuqoridagi inlizcha gapdagi so`zlar tartibi bilan o`zbek tilidagi gap bo`laklarining o`rni almashganini kuzatishimiz mumkin va ingliz tilidagi qo`shma gap o`zbek tilida bitta sodda gap shaklida o`girilgan.

**Asliyatda:**He left for work at 3:00 a.m., took **two different streetcars** to Fulton street, returned at 4:00 p.m., ate, and went to bed early.[37]

---

[32]Zoya Proshina. Theory of translation.-Vladivostok:Far Eastern University Press. 2008.-B.149.
[2]http://www.jstor.<org>stable_Jozeph_Epstein_My_Brother _Eli
[34]Arapov A.Amerika hikoyalari. – Toshkent: ,2011.-B.18.
[35]http://www.jstor.<org>stable_Jozeph_Epstein_My_Brother _Eli
[36]Arapov A.Amerika hikoyalari. – Toshkent: ,2011.-B.18.

**Tarjimada:** U saharlab soat 3 dan ishga jo`nar, **ikkita tramvayga** o`tirib, Fulton ko`chasiga yetib olar, kechqurun soat 4da ishdan qaytib, ovqat yer-yemas uxlagani yotar edi.[38]

Yuqoridagi gapda esa ingliz va o`zbek tillaridagi otning shaxs-son kategoriyasi bir-biriga mos kelmasligini kuzatishimiz mumkin, ya'ni inglizcha matndagi "two streetcars" so`zi o`zbekcha matnda "ikkita tramvay"shaklida kelyapti. Bunda ingliz tilidagi ko`plik shakli o`zbek tilida birlik bilan ifodalangan, chunki o`zbek tilida son shakllari otdan oldin kelsa, ot birlik shaklda ifodalanadi. Shu sababli ham "ikkita tramvaylar" deb tarjima qilish grammatik jihatdan xato bo`ladi. Shuningdek, ko`cha transporti avtobus, mashina, troleybus, tramvay va hokazolar bo`lishi mumkin. Biroq tarjimon konkretlashtirib, tramvay so`zini qo`llagan.

**Asliyatda:**Our mother was the hero of the family. She was from Kiev. [39]

**Tarjimada:** Asli kiyevlik bo`lgan onamiz oilamizning suyanchig`i edi.[40]

Ushbu gaplardabir nechta grammatik transformatsiya ishlatilganini ko`rish mumkin.Jumladan,Zoya Proshinaning fikriga asosan,ikkita sodda gapning birlashuvi, ya'ni ingliz tilidagi ikkita sodda gap o`zbek tiliga bitta qo`shma gap shaklida o`girilgan. Ikkinchidan, bu yerda morfologik nomuvofiqlikni kuzatishimiz mumkin, bunda ingliz tilidagi gapda "our mother" egalik olmoshi orqali ifodalanayotgan bo`lsa, o`zbek tilida egalik qo`shimchasi bilan "onamiz" shaklida o`girilgan. Shuningdek, gap bo`laklarining o`rni ham almashganini ko`rishimiz mumkin. Bundan tashqari gapdagi "Oilamiz qahramoni""oilamiz suyanchig`i" deb tarjima qilingan."Qahramon" so`zi "suyanchiq" bilan almashtirilgan.

**Asliyatda:** She worked a sixteen-hour day: cooking and washing and cleaning for her family, then after supper taking out her Singer sewing machine, which she set up on the kitchen table, doing piecework for Hart, Shaffner&Marx, the men's clothier, then on Franklin Street.[41]

**Tarjimada:** U kuniga o`n olti soatlab ishlar, ovqat pishirar, kir yuvar, uy tozalar, kechki ovqatdan so`ng esa oshxonadagi stolga o`rnatilgan "Zinger" tikish mashinasini chiqarib, o`sha paytlari Franklin ko`chasida joylashgan, erkaklarga ko`ylak tikadigan "Hart, Shaffner va Marks" shirkatining ishini qilar edi.[42]

Yuqoridagi gapda ham tarjimada gap bo`laklarining o`rni almashganini kuzatamiz. Shuningdek, bir so`z turkumining o`rnida boshqaso`z turkumi qo`llanilganini ham ko`rishimiz mumkin, ya'ni inglizcha matndagi "sixteen-hour" sifat bo`lib kelgan bo`lsa, u o`zbekcha matnda u "o`n olti soatlab" ravish sifatida tarjima qilingan. Bunda ingliz tilidagi sifat so`z turkumi o`zbek tiliga ravish so`z turkumi bo`lib kelgan.

**Asliyatda:** At twenty I was making more money than my old man.[43]

---

[37]http://www.jstor.<org>stable_Jozeph_Epstein_My_Brother _Eli
[38]Arapov A.Amerika hikoyalari. – Toshkent: ,2011.-B.19.
[39]http://www.jstor.<org>stable_Jozeph_Epstein_My_Brother _Eli
[40]Arapov A.Amerika hikoyalari. – Toshkent: ,2011.-B.19.
[41]http://www.jstor.<org>stable_Jozeph_Epstein_My_Brother _Eli
[42]Arapov A.Amerika hikoyalari. – Toshkent: ,2011.-B.19.
[43]http://www.jstor.<org>stable_Jozeph_Epstein_My_Brother _Eli

**Tarjimada:**Yigirma yasharligimda boboydan ko`proq pul topa boshladim.[44]

Ingliz tilidagi gapda so`z tartibida dastlab bosh bo`laklar: ega va kesim, so`ngra esa 2-darajali bo`laklari keladi. O`zbek tilida esa ega, ikkinchi darajali bo`laklar va kesim keladi. Yuqoridagi gapda ham gap bo`laklarining o`rni ingliz va o`zbek tillarida bir-biriga o`xshamaydi.

Avvalambor, iboralarni hosil qilishda metaforalarning qo`llanilishi gapning ta`sirchanligini va ko`chma ma`noni kuchaytirishda juda qo`l keldi. Metafora va metonimiya ishimizning diqqat markazida bo`lmasada, ularni qisqacha izohlab o`tish o`rinlidir. Metaforalar so`z yoki so`z birikmasidan iborat bo`lib o`xshashlik ma`nosida tuziladi, lekin buni ochiq-oydin ko`rish sal mushkul, masalan *as thin as rake* so`z birikmasidagidek.

Metonimiya esa o`ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Uning qiziqarli tomoni shundaki, so`z o`rni almashtirishda u o`sha so`zga a`zo yoki qarashli o`xshash turkumni topishdan iborat: qism va butunlik, baland va quyi kategoriya, jism va uning o`rni, sabab va natija[68].

Yuqoridagi izohlar metafora va metonimiyalarning frazeologik so`z birikmalardan o`ziga xos jihatdan ajralib turishiga qaysidir darajada oydinlik kiritdi. Metafora va metonimiyalar iboralarning shakllanishida muhim rol o`ynashining guvohi ham bo`ldik.

Iboralarni badiiy asarda izohlab o`tarkanmiz, ularnining o`ziga xos jihatlarini ham aytib o`tishimiz maqsadga muvofiqdir. Asarda uning badiiyligi oddiy matnlardan shu jihatdan farq qilishini ko`ramiz, chunki maqola kabi matnlarda jamiyat yo kishi bilan bevosita aloqa yo`qligi ma`lum bo`lib qoladi.

*Changing Places* asari yumoristik janrdagi roman bo`lib ikkita o`ylab topilgan (xayoliy) universitetning akademik almashuvi haqida, biri AQShda va ikkinchisi Angliyada ekanligi ma`lum bo`ladi[69]. Asar qahramonlaridan biri qirq yoshar britaniyalik Filip Suolou bo`lib u odatiy, dunyo qarashi tor va jim turuvchi inson sifatida tasvirlanadi. Ikkinchi qahramonimiz Moris Zep, aksincha, o`ziga ishongan, xudbin kabi alomatlar borligi asar davomida yaqqol ma`lum bo`ladi. Biroq, akademik almashuv jarayonida atrof-muhitning ta`siri ikkala qahramonning xulq-atvori va fikrlashida o`zgarishlar sodir bo`layotgani ifodalanadi. Asarda ikkala qahramon ham bir-birining rafiqasi bilan ishqiy munosabatda bo`ladi,

[66] Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English (2005)
[67] Longman Dictionary of Idioms (1979)
[68] (Hladsky, 1996, 51-52 b.).
[69] Lodge, D. (1975). Changing Places

Suolou hatto Zepning qizi Melani bilan ham o`zi bilmagan holda aloqada bo`ladi. Asar qahramonlari hatto uylarini almashtirib doimiy asosda turishni masalasini ko`rib chiqishdi. Kitob ikki oilaning mehmonxonada uchrashuvi bilan yakunlanadi; unda oila a`zolari kelajaklarini muhokama qilishga ahd qilganlari, lekin biror bir natijaga erishmay qolib ketishi bilan yakun topadi.

**Grinding one`s teeth** – (*to make a determined effort to reamin calm and not express one`s true feelings of anger, disappoinment or fear*)
*Before you start grinding your teeth and fingering your hosewhip, let me finish.*

Ushbu gap Deziri (Zeppning rafiqasi) ning Zeppga yozgan xatidan lavha. Bu maktub Zeppning so`rovnomasiga javoban yozilgan. Zepp bundan oldin noma`lum shaxs tomonidan xat qabul qilgan va unda Zeppning birinchi turmushidan qolgan qizi Melanining janob Suollou bilan birga istiqomat qilishi xabar qilingan edi. Bu paytga kelib Zepp Suollouni yoqtirmay qolgan, chunki uning nashrdan chiqqan sharhi Zeppning obro`siga putur yetkazgandi. Shu boisdan ham, Zepp rafiqasidan muallifi noma`lum maktubdagi dalillar qanchalik to`g`ri ekanligini aniqlab berishini so`ragan edi

Dezirining maktubi yuqoridagi gap bilan boshlanadi. Undagi ishlatilgan so`z birikmasi orqali qanday ma`lumot borligini tushunish mumkin. Frazeologik so`z birikmasida ko`chma ma`no bo`lsada, xatni o`qiyotgan paytda Zeppning haqiqatan ham tishini g`ijirlatish ehtimoli juda katta. Lekin so`z birikmasining asosiy vazifasi unda Zeppning juda noqulay vaziyatda ekanligidan iboratdir. Gapda qo`llanilgan ifoda orqali asarni o`qiyotgan shaxsga maktub davomi qanday tus olishi sir emas.

**With one`s tail between one`s legs** – (*in a sad or unhappy manner*)
*He`ll be back with his tail between his legs.*

Ushbu so`z birikmasi Hillari va Zep o`rtasida suhbat chog`ida uchraydi. Ular Suollouning qadrdon shahri Rumijga qaytib kelish ehtimolini suhbatlashyaptilar. Zepp Sullouning AQShda qolib ketishini bildirsa, Hillari uning qaytib kelishiga ishonchi komil.

So`z birikmasining ko`chma ma`noda ishlatilgani gapda yaqqol ma`lum. Iboraning ma`nosi shundaki, u itning dumi ikki oyoq orasida yurib kelishi, ya`ni mag`lub bo`lgan holatini tasvirlagan. Iboraning ma`nosi ketekstdan ham kelib chiqqan. Ma`lum bo`lishicha, Suollou ikkita shaxs bilan ishqiy munosabatda bo`lgan va hozirda Zepning rafiqasi Deziri bilan birga istiqomat qilib kelmoqda. Biroq, Hillari uchun ularning munosabati turg`un bo`lishiga ko`zi yetmayapti. Shuning uchun ham Suollouning uyga *dumi ikki oyoq orasida* qaytib kelishiga asosi bor.

Itlarning odatda vaziyatga qarab qay tarzda o`zini tutishini inobatga olgan holda biz konseptual bilimimizdan kelib chiqamiz. Va shu asosda, so`z birikmasining ko`chma ma`noda, ya`ni ibora sifatida ishlatilganiga ishonch hosil qildik.

**Be in the driver`s seat** – (*to be the person in control of a situation*)
*Once in the driver`s seat, you could do whatever you liked.*

Zepga Rumig universitetida dekanlik lavozimi taklif qilindi va u shu taklifning afzallik va kamchilik tomonlarini ko`rib chiqyapti. Agar rozi bo`lsa,

unga boshliq vazifasida bo`lish fikri ko`proq ma`qulligini yuqoridagi ibora aniqroq ifodalagan.

Yuqoridagi vaziyatni baholash oralig`ida Zep mashinani albatta boshqarmayapti. Bundan kelib chiqadigan bo`lsak, so`z birikmasi ibora sifatida ishlatilgan. Shu boisdan ham uning ko`chma ma`nosini anglash ko`p qiyinchiliklarga olib kelmaydi. Keling, yuqorida so`z birikmasini tahlil qilgan taqdirda ham, uning tub ma`nosi avtomobilni boshqarish deganini bildiradi. Shundan kelib chiqsak, yuqoridagi gap ham Zepning hammasi o`z qo`lida ekanligini takidlaydi, boshqacha aytganda, asar qahramonimiz xohlaganini qilishi mumkinligi gapning ikkinchi qismidagidek izohlangan.

**Bite something back** – (*to stop yourself from saying something or from showing your feelings*)

*The word "Sorry" rises to Morris lips, but he bites it back.*

Yuqoridagi lavha orqali muallif Zepning boshidan ne xayollar kechayotganini ifodalagan. Ushbu gap Zep va uning yo`ldoshi Meri Meikpis bilan bo`lgan suhbatdan keyin ishlatilgan. Suhbatda Meri o`zining Angliyadagi rejalari to`grisida gapirar ekan, unda buvisining qabrini ziyorat qilishini eslatadi. Zep o`zi payqamagan holda qo`pol ravishda suhbatdoshidan tug`ilmagan bolasini ham o`sha yerda ko`mishga borayotganini so`raydi. Bunday noo`rin savoldan keyin Merining kayfiyati buzilgani va suhbatni davom ettirishni noma`qul ko`rgani ma`lum bo`ladi.

Iboraning ma`nosini tushunish qiyinchilik keltirmaydi, chunki Zep aytgan gapidan xijolatdadir, biroq u buni yo`ldoshiga ma`lum qilmaslikka harakat qiladi va shu boisdan ham tilini tiyib o`tirishiga to`g`ri keladi. So`z birikmasining ko`chma ma`noda qo`llanilgani sir emas. Zepning e`tiborsiz va qo`pol obraz ekanligi asar muallifining tasvirlashi orqali ajablanarli tomoni qolmagan, chunki Zep xudbin, o`ta o`ziga ishonchli va xatosini mutlaq tan olmaydigan shaxs sifatida ifodalangan. Shuning uchun ham, o`zini saqlagan holda uzr so`ramaydi va suhbatni boshqa gap bilan davom ettirishga harakat qiladi.

**Get the hang of it** – (*to learn how to do or to use something; to understand something*)

*But when they finally get the hang of it, they began to play with almost frightening intensity...*

Ushbu gap Sullouning rafiqasi Hilariga yozgan xatidan lavha. Unda Suollou bir o`yinni o`ylab topgani va bazmlarning birida o`sha o`yinni Amerikalik hamkasblari bilan o`ynaganini tasvirlagan. Avvalida o`rtoqlari o`yinni tushunmagani uchun uni boshqacha noto`g`ri o`ynaganlarini maktubida aytib beryapti.

Kontekstual vaziyatga asoslanib xulosa qilsak, yuqoridagi so`z birikmasi ibora sifatida ishlatilganligini tushunish mushkul vazifa emas. Gapda *but* so`zi kontrastni kuchaytirgan holda ikki voqeani mantiqan biriktirishga ko`maklashgan. Shu orqali xulosaga kelsak bo`ladiki, muallif gapning birinchi qismida hamkasblarning o`yinni tushunmagani, lekin keyingisida uni eplab rosa qiziqib

ketganini ibora orqali oqilona ifodalagan. Boshqacha qilib yozganda, gapning ikkinchi qismi shu holat tusini olar edi: *when they finally understood the rules...*

**Get into one`s head** – (*to make someone understand*)
*"Can`t you get it into your head that I don`t care where you keep your big, fat circumcised prick?"*

Bu lavha Zep va uning rafiqasi Deziri orasidagi tortishuvdan olingan. Unda turmush o`rtoqlar ajrashish masalasini muhokama qilishyapti va Deziri erining ishqiy munosabatlar olib borayotganini ham unga eslatib qo`ydi. Zep bo`lsa bundan tashqari ajrashishning boshqa sabablari yo`qligini xotiniga tushuntirib urinmoqda. Biroq, ajralishning asosi Zepning boshqa ayollar bilan olib borgan ishqiy munosabatda ham emasligi, balkim uning fe`l-atvori ekanligini Dezirining javobida ko`rsa bo`ladi.

Kontekstdan kelib chiqsak, so`z birikmasi ko`chma ma`noda qo`llanilgan. Gapning boshida salbiy ma`nonig ishlatilishi so`zlashuvchining jahlini tasvirlash uchun ishlatilgan. Kontekstda yetarlicha yordamchi vositalar orqali shuni ham xulosa qilish mumkinki, so`zlashuvchi uning asabiylashishiga sherigining ishqiy munosabatlari sabab emasligini tushuntirishga urinyapti. Bundan kelib chiqqan holda, *get into your head* so`z birikmasini *realise, understand* yoki *see* (tushunmoq, anglamoq) fe`llari bilan almashtirsak bo`ladi.

**Put one`s finger on** – (*not to be able to identify what is wrong or different about a particular situation*)
*But if there were no children in the picture he couldn`t put his finger on any reason why he should be in need of a wife.*

Ushbu gapda Suollouning rafiqasi Hilari bilan bo`lgan munosabati aks ettirilgan bo`lib, unda Suollou xotinini faqat bolalariga qaraydigan inson sifatida kerak ekanligini tushunib yetadi.

Yuqoridagi misolda so`z birikmasini topish qiyin bo`lmasada, uning mazmuni ko`chma ma`noda ekanligini ham payqash qiyinmas. Unda Suollou uylanganligi sabablaridan birontasini ham ko`rsata olmasligi iborali so`z birikmasi orqali mohirona ifodalangan.

**Rack one`s brain** – (*to think very hard or faor a long time about something*)
*"Well..." Phillip racks his brains.*

Yuqoridagi so`z birikmasi Bun va Suollou o`rtasidagi so`zlashuvda kuzatiladi. Unda Bun suhbatdoshi Suolloudan uning, ya`ni Bunning kimligini so`raganida, yuqoridagi gap javob sifatida ishlatilgan. Qo`llanilgan so`z birikmasi ko`chma ma`noda bo`lib, uning o`z ma`nosi ham qaysidir darajada ishtailgan frazeologizmning mazmun-mohiyatini tushunishga yordam beradi. Frazeologik birikmaning tub ma`nosi *to torture his brain* ya`ni miyani azobga qo`yish tushunchasini bildirsa, kontekstual vaziyatdan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, bu kabi ibora *chuqur fikrlash*, *o`ylovga qolish* ma`nolarini anglatadi. Bundan tashqari, *well* so`zi orqali javob beruvchi shaxs miyasini o`ylovga solib ikkilanishi bois vaqtdan yutish alomatlarining ishlatgani guvohi bo`lamiz.

Badiiy asardagi bir nechta frazeologik so`z birikmalarni tahlil qilib chiqdik. Ko`pgina holatlarda ularning ma`nosini lug`atdan foydalanmay talqin qilish muvaffaqiyat bilan yakunlandi. Boshqacha qilib aytganda, diqqat markazimizda bo`lgan iboralar ma`nosini kontektdan kelib chiqqan holda tahlil qila oldik. Ayrim holatlarda, berilgan vaziyatda ishlatilgan metaforalar haqidagi kontseptual bilimimiz asosida har bir iborada o`rganib chiqdik desak ham bo`ladi.

Biroq yuqorida eslatib o`tilgan yondashuvlar o`ziga xos kamchiliklarga ega. Unda xorijiy tilni o`rganuvchi sifatida o`sha til va madaniyati haqidagi bilimi qanchalik chuqur ekanligi, kontesktdan kelib chiqqan holdagi informatsiyaga ega bo`lishi, iboralarning qanchalik darajada ma`nosi tushunarli ekanligi va ularning tez-tez uchrashi kabi xususiyatlarni inobatga olish juda muhimdir.

Odatiy va his-tuyg`uga asoslangan iboralarni ishlatganda kontekstdan, ya`ni vaziyatdan kelib chiqqan holda ularni qo`llash juda muhim element hisoblanadi. Bunday yondashuv asosida bir necha sabablar bor; birinchidan, iboralar o`zida metaforalardan iborat bo`lib, ularning ma`nosini ochiqdan-ochiq bilish doim ham oson bo`lmaydi; ikkinchidan esa, ularning qo`llanilishi og`zaki nutqda uchraydigan iboralardan ko`ra kamroqdir.

Aksincha, luqma, taqlid va maqollarni tahlil qilishda konseptual bilimning o`rinli ekanligiga ishonchimiz komil bo`ldi, chunki ularda uchraydigan metaforalarni tushunish osonroqdir. Biroq, metaforalar har bir iboraning ma`nosini ochiq-oydin izohlab beradi deb fikrlash ham xato hisoblanadi, lekin ularning kontekstdagi o`rni gap mazmuniga yechim topadi desak mubolag`a bo`lmaydi.

Ba`zi holatlarda esa, yuqorida sanab o`tilgan barcha yondashuvlar bilan ham iboraning ma`nosini bilsa bo`ladi, ammo bu kabi vaziyatlar kamdan-kam uchraydi. Badiiy asarni o`qiydigan kishi iboralarni tushunishda o`ziga qulay yo`lni tanlashi mumkin, albatta. Bu xoxish uning iboralar haqidagi bilimlar va kontekst hamda konseptual bilimi qanchalik chuqur ekanligidan bog`liq ekanligi faqat o`zigagina ma`lumdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**


1. Lodge, D. (1975). Changing Places. London: Penguin Books.
2. Hladský, J. (1995). A Functional Onomatology of English. Brno: Masarykova Univerzita.
3. Verdonk, P. (2002). Stylistics. Oxford: Oxford University Press.
4. Leech, G. & Short, M. (1981) Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. London: Longman.
5. Oxford Advanced Learner`s Dictionary of Current English (2005)
6. Longman Dictionary of Idioms (1979)

# AYZEK AZIMOVNING "KOINOT OQIMLARI" ASARIDA ILMIY-FANTASTIKA TASVIRI

**R.R.Kasimova**
*BDU Ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti f.f.f.d. (PhD)*
**U.A.Tohirova**
*BDU I bosqich magistranti*

Ilm-fanni ommalashtirish, ilmni olimlardan tashqarida, oddiy xalq orasida ham keng yoyishga intilish masalasi juda dolzarbdir. Chunki jamiyat hayotining ajralmas va eng ustivor qismi bo'lgan ilm-fan sohasiga taaluqli ma'lumotlar, ham qiziqarli hamda kundalik turmushda asqotadigan foydali ahamiyatga ega bo'ladi. Ayniqsa, ommobop-ma'rifiy ilmiy asarlar vositasida, yosh avlodni ilmiy sohalarga qiziqtirish, iste'dodli yoshlarni tegishli ilm yo'nalishlariga jalb etish borasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Bunday muddaoga amalda erishmoq uchun esa, ilmiy masalalar mohiyatini ommaga tushunarli va qiziq tilda bayon qiluvchi malakali yozuvchilar maydonga chiqishadi. Bunday yozuvchilarni jahon va yurtimiz adabiyotidan juda ko'plab misollar orqali keltirishimiz mumkin. Ilmiy-ommabop va fantastik asarlar yozuvchilari orasida eng mashhuri va ta'bir joiz bo'lsa, janr Shekspiri - atoqli amerika yozuvchisi, biokimyogar mutaxassis, fan doktori - Ayzek Azimov sanaladi.

"Koinot oqimlari" asari 1952-yilda yozuvchining ayni qizg'in ijod pallasida yaratilgan bo'lib, kitobxonlar e'tiboriga tushgan bebaho fantastik asardir. "Koinot oqimlari" da eng yaxshi ilmiy-fantastik janrdagi asarning barcha komponentlarini ko'rish mumkin. Matnning asosiy nuqtasi shundaki, asar muallif tomonidan hikoya qilinadi, matn ko'chirma gaplardan va qisqa dialoglardan tashkil topadi.

Asar A. Azimovning "Empire" turkumidagi ikkinchi kitobi bo'lib, voqea Trantor galaktik imperiyaga aylanadigan sayyoralar konfederatsiyasini qurish paytida sodir bo'ladi. Asar boshida hikoya qilinganidek, 34500-yilda Yer sayyorasidan bo'lgan koinot tadqiqotchisi Florina sayyorasi xavf ostida ekanligini aniqlaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra koinotdan uglerod oqimlari Florina tomon yopirilib keladi va natijada Florina quyoshi portlab galaktikadagi mavjudligi o'z yakuniga yetadi. Bu xabarni tadqiqotchi "Yulduzlar Koinot Tadqiqot Byurosi" (YuKTB) ga va Sark sayyorasiga yetkazmoqchi bo'ladi, ammo shu vaqtda u noma'lum shaxs tomonidan ruhiyat zondi ta'siriga tushiriladi va natijada tadqiqotchi butunlay xotirasidan ayriladi. Yozuvchi asar boshida tadqiqotchining xotirasi sekin asta qaytayotganini, bu esa uning yagona do'sti Valonani tashvishga solishini tasvirlaydi.

*"Rik put down his feeder and jumped to his feet. He was trembling so hard he had to lean against the bare milk-whitewall. He shouted, "I remember!"... They left the highway for the winding, dustless, packed-sand roads half an hour later. There was a heavy silence between them and Valona felt a familiar fear clutching at her. She had no words to express her feelings for him, so she had never tried.*

*What if he should leave her?*[70] *He was a little fellow, no taller than himself and weighing somewhat less, in fact. He was still like a helpless child in many ways. But before they had turned his mind off him must have been an educated man. He was a very important educated man."*

Tadqiqotchi ruhiyat zondi ta'siriga tushirilgandan keyin Florina sayyorasidagi qishloqlardan biriga tashlab ketiladi. U yerda florinalik fermer qiz Valona Mart unga g'amxo'rlik qila boshlaydi. Qishloq hokimi bo'lgan Merlin Terens Rikning xotirasi qaytayotganligini eshitgach unga yordam berishga harakat qilib ko'radi. Uni Rikning bir gapi qattiq tashvishga solib qo'yadi: "Florina xavf ostida".

Ayzek Azimovning ilmiy-fantastik janr uslubida yaratilgan "Koinot oqimlari" asari shunday uslubga egaki, kitobxonlarni asar voqealari hayotiyligiga ishontira oladi. Asardagi matnlar ishonchli hujjatlarga va rasmiy uslubdagi atamalarga boydir. Shuningdek, muallif to'qima bo'lmagan shaxslar, joylar va narsalarga qayta-qayta yuzlanadi. Asar qahramonlari bo'lgan olimlarning martaba va malakasi ular olib borgan haqiqiy izlanishlar mohirlik bilan bog'liqlikda berilgan.

*Terens took her hands and said gravely, "You must be a grown woman, Valona. He will have to come with me for just a short while but I'll bring him back". "And after that?" "I don't know. You must understand, Valona. Right now it is the most important thing in all worlds that we find out more about Bik's memories". Valona said suddenly, "You mean everybody on Florina might die, the way he says?"Terens' grip tightened. "Don't ever say that to anyone, Valona, or the patrollers may take Rik away forever. I mean that."*[71]

Bu paytda Libeyrdan kelgan (galaktikadagi qora tanli odamlar yashaydigan sayyora) Doktor Selim Junz yo'qolgan yerlik koinot tadqiqochisini topishga harakat qilib ko'radi. Chunki tadqiqotchi ularga yuborgan xabar hamma YuKTB xodimlarini qiziqtirib qo'yadi.

*"It went: Please keep direct coded line open to I.S.B. Central HQ for detailed message involving matter of utmost importance. All Galaxy affected. Am landing by minimum trajectory. The agent was amused. His jaws had gone back to their rhythmic champing and he said, "Imagine, sir.'All Galaxy affected.' That's pretty good, even for a field man. I called him after I got this to see if I could make any sense out of him, but that flopped. He just kept saying that the life of every human being on Florina was in danger. You know, half a billion lives at stake. He sounded very psychopathic. So, frankly, I don't want to try to handle him when he lands."*

Doktor Selim Junzni bir narsa tashvishga solardi. Tadqiqotchi xabarni jo'natishga jo'natgan-u keyin izsiz g'oyib bo'lgan edi. U Sarkka qo'nishi haqida xabarni yuborgan, biroq kema qo'nmagan. Doktor Trantor vakili Lyudigan Ebl bilan uchrashishga qaror qiladi va tadqiqotchi haqidagi o'zini qiynab yurgan savollar bilan unga murojaat qiladi:

---

[70] I. Asimov., "The current of space"., Garland Publishing.,1976. – P. 9

[71] I. Asimov., "The current of space"., Garland Publishing.,1976. – P. 15

*Junz was speaking rapidly now, caught up in a trembling cloud of fury, "I am certain that our man landed at Sark City spaceport exactly as he planned and, sane or psychotic, was then possibly imprisoned but probably killed by the Sarkite authorities."Abel put down his nearly empty glass. "Are you joking?" "Do I look as if I were? What did you tell me just half an hour ago about Sark? Their lives, prosperity and power depend upon their control of Florina. What has all my own reading in this past twenty-four hours shown me? That the kyrt fields of Florina are the wealth of Sark. And here comes a man, sane or psychotic, it doesn't matter, who claims that something of Galactic importance has put the life of every man and woman on Florina in danger. Look at this transcript of our man's last known conversation."*[72]

Asardagi voqea 34500-yilda sodir bo'ladi, unda Trantor imperiyasi galaktikaning deyarli yarmini qamrab oladi. Muallif bu imperiyani "Trantor Respublikasi Trantor Ittifoqiga aylanish yo'li tog'-tog' halok bo'lgan odamlar, kuli fazoga sovurilgan kemalar, yo'q qilingan olamlar ustidan o'tgandi va bularning barchasi Trantorga kuch berardi" deya ta'riflaydi.

*"As the Trantorian Republic became the Trantorian Confederation and then the Trantorian Empire, its advance had lain through a tangled forest of gutted men, gutted ships, and gutted worlds".*

Asar Sark va unga qo'shni sayyora (shu qadar yaqinki,to'qqiz soat ichida giperspace orqali o'tish mumkin) Florina haqida. Sark va Skvayrlarning zodagonlarni Florinani bir necha o'n yillar ilgari zabt etgandilar va buning asosiy sababi shundaki, u  kirt – porloq matolarga aylana oladigan yuqori darajadagi qimmatli o'simlik yetishtiriladigan galaktikadagi yagona sayyora hisoblangan.

Mustaqil sayyora Sark Florinasayyorasini ekspluatatsiya qiladi va katta boyligini faqat shu sayyoradagina yetishtiriladigan Kirt (ko'p qirrali mato) dan oladi. Sarkning monopoliyasini buzish va kirtni boshqa sayyoralarda ham yetishtirishga urinishlar shu paytgacha muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Chunki Florinaning quyoshidan chiqadigan nurning maxsus energiya to'lqin uzunligi u yerda yuqori sifatli kirt tolasi yetishtirishga sabab bo'ladi.

*"They might have it, because it turned out that kyrt grown anywhere in the Galaxy but on Florina was simply cellulose. White, flat, weak and useless. Not even honest cotton.Was it something in the soil? Something in the characteristics of the radiation of Florina's sun? Something about the bacteria make-up of Florinian life? It had all been tried. Samples of Florinian soil had been taken. Artificial arc lights duplicating the known spectrum of Florina's sun had been constructed. Foreign soil had been infected with Florinian bacteria. And always the kyrt grew white, flat, weak and useless".*[73]

Sarkning eng birinchi kishisi Skvayr Fayf ismli shaxs. Bu odamning tashqi ko'rinishi A. Azimov tomonidan mahorat bilan tasvirlangan:

---

[72] I. Asimov., "The current of space"., Garland Publishing.,1976. – P. 19

[73] I. Asimov., "The current of space"., Garland Publishing.,1976. – P. 27

*"Squire of Fife was the most important individual on Sark and for that reason did not like to be seen standing. Like his daughter, he was short, but unlike her, he was not perfectly proportioned, since most of the shortness lay in his legs. His torso was even beefy, and his head was undoubtedly majestic, but his body was fixed upon stubby legs that were forced into a ponderous waddle to carry their load". So he sat behind a desk and except for his daughter and personal servants and, when she had been alive, his wife none saw him in any other position.*

*There he looked the man he was. His large head, with its wide, nearly lipless mouth, broad, large-nostril nose, and pointed, cleft chin, could look benign and inflexible in turn, with equal ease. His hair, brushed rigidly back and, in careless disregard for fashion, falling nearly to his shoulders, was blue-black, untouched by gray.*

*The true body of the Squire of Rune was sitting in the antipodes, his continent the only one upon which, at the moment, night prevailed. The cubic area immediately surrounding his image in Fife's office had the cold, white gleam of artificial light, dimmed by the brighter daylight about it. Gathered in the one room, in body or in image, was Sark itself. It was a queer and not altogether heroic personification of the planet. Rune was bald and pinkly fat, while Balle was gray and dryly wrinkled. Steen was powdered and rouged, wearing the desperate smile of a worn-out man pretending to a life force he no longer had, and Bort carried indifference to creature comforts to the unpleasant point of a two-day growth of beard and dirty fingernails. Yet they were the five Great Squires.*[74]

Buyuk Skvayrlar Florina ustidan o'z hukmronliklarini davom ettirayotgan kunlarning birida Skvayr Fayf noma'lum shaxs tomonidan yuborilgan xat oladi. Bu xatda yozilishicha, Skvayrlarning Florina ustidan hukmronligi ortiq uzoqqa cho'zilmaydi, chunki Florina halokatga yuz buradi. Agar Fayf mulkining katta qismini unga bermasa u butun galaktikaga bu haqida xabar qilishini ayniqsa, Florina xalqiga uning halokati yaqinligi to'g'risidagi haqiqatni yetkazishini yozadi:

*Steen drove on. "Only who is X? It isn't I. Really! I know it isn't I! And I'll admit it could only have been a Great Squire. But what Great Squire knew most about it, anyway? What Great Squire has been trying to use the story of the Spatio-analyst for a year now to frighten the others into some sort of what he calls united effort and what I call surrender to a Fife dictatorship? "I'll tell you who X is." Steen stood up, the top of his head brushing the edge of the receptor-cube and flattening as the uppermost inch sliced off into nothingness. He pointed a trembling finger. "He's X. The Squire of Fife. He found this Spatio-analyst. He put him out of the way, when he saw the rest of us weren't impressed with his silly remarks at our first conference, and then he brought him out again after he had already arranged a military coup."*[75]

---

[74] I. Asimov., "The current of space"., Garland Publishing.,1976. – P. 33

[75] I. Asimov., "The current of space"., Garland Publishing.,1976. – P. 105

Endi asarning kulminatsion nuqtasiga yetib keldik. Bu nuqtada koinot tadqiqitchisi kim tomonidan va nima sababdan ruhiyat zondi ta'siriga uchratilganligi haqida bilib olamiz. Bu shaxs Melin Terens edi. Voqea bunday bo'lgan: bir yil avval Merlin Terens vaqtinchalik fazo bekatida harakat boshlig'I bo'lgan. Koinot tadqiqotchisi YuKTBga xabar yuborganida bu xabar uning qo'liga tushib qoladi. U tadqiqotchi bilan shahar tashqarisidagi bekatda ko'rishishga kelishib oladi. U hamma axborotni bilib olgach, uni Sarkka qarshi ishlatmoqchi bo'ladi. Hammasi oydinlashgach butun boshli sayyora Florina aholisini evakuatsiya qilish boshlanib ketadi. Rik va Valona yerga qaytib ketishadi. Faqat biro dam Florinaning yolg'iz o'zi halok bo'lishiga yol qo'ymaydi – *Merlin Terens: "When will the last person leave?"*
*"Never, really."*
*"I don't understand."*
*"The Townman has applied unofficially for permission to remain. It's been granted, also unofficially. It won't be a matter of public record."*
*"Remain?" Rik was shocked. "But for the sake of all the Galaxy, why?"*
*"I didn't know," said Junz, "but I think you explained it when you talked of Earth. He feels as you do. He says he can't bear the thought of leaving Florina to die alone."*[76]

Romanni o'qib bo'lgach anglash mumkinki, bu roman adibning boshqa asarlaridan tubdan farq qiladi. Asardagi qahramonlar, voqealarning keskin tus olishi asarning yana orqaga qaytishi orqali mahoratli tarzda ko'rsatib berilgan.

Ayzek Azimovning ijodiga mansub asarlar har qaysi davrda ham o'zining yuksak o'rniga ega bo'lib qoladi. Azimovning asarlarida texnologiyaning qanday yaratilishi, uning insoniyat uchun qanday foyda keltira olishi to`g`risidagi g`oyalar ilgari surilgan. Uning fikricha, robotlar yoki texnologiyalar insoniyatni falokatga olib bormasligi, balki odamzot uchun eng yaxshi yordamchi bo`lishi kerak deb hisoblaydi. Uning asl kasbi bioximik bo`lganligi uchun, hikoyalarida o`z kasbidan kelib chiqqan holda, kimyoviy moddalar va ularning reaksiyalari haqida yozgan. Shuningdek astronomiya sohasiga murojaat qilib, hikoyalari orqali o`zining ilmiy qarashlarini bayon etgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. I. Asimov. "The current of space":. Garland Publishing., 1976, P 19-260.
2. Amis, Kingsley. New Maps of Hell: "A Survey of Science Fiction", -P.: Westport, 1958. –P. 102-104.
3. Asimov Isaac., "The Foundations of Science Fiction". –P.: 1982. –P.201
4. Goldman, Stephen H., "Isaac Asimov", in Dictionary of Literary Biography, Vol. 8, P.: Cowart and Wymer eds, 1981.-P. 15–2
5. http://www.wsu.edu/-campbelld/amlit/earamnov.htm/Science fiction


[76] I. Asimov., "The current of space"., Garland Publishing.,1976. – P. 160

*5A120101 - Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти)*

# EPOPEYA JANRIDA O`Q VA YOY TASVIRI DO`STLIK RAMZI SIFATIDA

**G`.Murodov**
*BuxDU O`zbek adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d.,*
**S. Shamsiddinova**
*Adabiyotshunoslik yo`nalishi I bosqich magistranti*

*Maqolada jahon xalqlari hayotida tarixan muhim detal hisoblangan o`q va yoyning epopeyalardagi badiiyati yoritilgan. O`q va yoyning etimologiyasi tadqiq etilib, eposlarda do`stlik ramzi sifatida qo`llanilish mohiyati tahlil qilingan.*

Eposlar hozirgi davrgacha jahon xalqlarining diqqat markazida. Ayniqsa, ulardagi madaniyatlararo mushtaraklik hali hanuz bahslarga sabab bo`ladi. Qadimgi Yunon, Hind va O`rta Osiyo xalq eposlarining o`xshash syujetlari barobarida o`xshash motivlari, detallari ham adabiyotshunoslar tomonidan atroflicha o`rganilgan. Bugun biz e'tibor qaratgan detal qadimgi xalqlarning yakdil jihatlarini o`rganishda muhim manba bo`la oladi.

O`q va yoy. Insoniyat tarixidagi ulkan yutuq. Etimologiyasiga nazar tashlasak, tarixchilarning aytishicha, mezolit davrida – mil.avv 10-5 ming yilliklarda ibtidoiy ovchilar tomonidan ixtiro qilingan. Deyarli barcha xaql va qabilalarda qo`llanilgan.[77] Arxeologlarning ma'lumotiga ko`ra, kamon va o`q Afrikada paydo bo`lgan. Mil.avv 4000 yilga kelib misrliklar Nil daryosi bo`ylab sherlarni ov qilish uchun qamish o`qlaridan foydalanishgan.[78] Kamonning paydo bo`lishi, ibtidoiy odamlarning oziq g`amini yengillashtirgan. Ilgari faqat buguni bilan yashashgan bo`lsa, endi ovqat g`amlash imkoniga kamon tufayli ega bo`lganlar.

O`q va yoy hayotiy zarurat bo`lishi barobarida erkakning ziynati sanalgan. Ibrohim alayhissalomning o`g`li Ismoil alayhissalom Makkada jurhumiylarning farzandlari bilan birga ulg`ayib, ulardan kamondan o`q otishni o`rgangan edi. Mohir kamondoz bo`lgan jurhumiylar ov qilib kun kechirishar edi. Ismoil alayhissalomning o`g`li Kaydarning ham otasiga o`xshab jangovar, kurashchi, mohir o`q otuvchi, ovchi hamda chavandoz ekanligi aytiladi.[79] Yaqub alayhissalom vafot kuni yaqinlashganida o`zining eng sevimli farzandi Yusuf alayhissalomga qilichi va yoyini meros qoldiradi. Boisi, O`q va yoy – qudrat, iftixor hamda do`stlik ramzi. Ota-bobolarning orzu-istaklari, mardliklari tajassumidir. O`q va

[77] Qomus.info
[78] Factmonster.com

[79] Иброҳим Нуруллоҳ, Аббос Турсунов, Дилфуза Шойзоқова. Пайғамбарлар тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. 202-бет.

yoyi bor erkak yaqin do`st-u birodarga, hamkorga ega bo`lgan kabi o`zini yaxshi his qilgan.

Tirandozlik sharaf bo`lgan davrlarda biror insonga ta'rif berilganda uning kamonbozligi alohida qayd etilgan. Masalan, Alisher Navoiyning "Majolis-un nafois" asarida Husayn Boyqaroning o`g`li Faridun Husayn Mirzo haqida Bobur yozadi: "Yoyni yaxshi tortib, o`qni yaxshi otar edi. Kamon guruhasin derlarkim, qirq botmon ekandur." [80]

Hazrat Alisher Navoiyning maxsus omma uchun bag`ishlagan, bayon tili sodda va ravon asari bo`lgan "Risolayi tiyr andoxtan"da kamondan o`q otishning nechog`lik muborak amal ekanligi alohida dalillar bilan tilga olingan. Navoiyning keltirishicha, Hazrat Odam Ato alayhissalom shayton hiylasi bilan jannatdan yerga tushirilgach, Allohning amri bilan dehqonchilik qiladi, bug`doy ekadi. Ammo qarg`alar ekilgan bug`doyni kavlab yeb qo`ya boshlagach, Xudoga munojot qiladi. Shunda Xudo kamon va o`q yuboradi. Yoydan o`q otishni farishta Jabroil (alayhissalom) Odam alayhissalomga o`rgatadi. Odam Ato alayhissalom qarg`alarga otgan birinchi o`qi tegmaydi, farishta Jabroil alayhissalom tabassum qiladi, ikkinchi bor otilgan o`q nishonga tegadi, shunda Jabroil alayhissalom o`z tabassumini quyidagicha izohlaydi: "Agar ilk o`qing nishonga tekkanida qiyomatgacha hech narsa bolalaring qo`lidan qutulmas edi".

Shundan so`ng, hazrat Navoiy o`q otishni Xudoning lutfi, Odam Safiy alayhissalomning mo`jizasi deb xulosa qiladi. [81]

Mavlono Yaqiniy ham bu juftlikga majoziy ma'noda e'tibor qaratib, "O`q va yoy" munozarasini yaratdi. Asarning boshlanishida o`q otish musobaqasi maydoniga kirgan otliq yigitning qo`lidagi o`q va yoyni ko`rib, asar yozishga kirishganini aytadi. O`q ya'ni yigit to`g`rilik, rostgo`ylik ramzi bo`lsa, yoy esa qari chol hamda egrilik, xushomadgo`ylik ramzi sifatida ko`rsatilgan. [82]

Epopeyalarni ham mazkur detalsiz tasavvur qilish qiyin. Muhimi, dostonlardagi o`q va yoy qahramonlar orzu qilgan va jon-jahdi bilan intilgan hayotga erishishning vositasi, do`stlik timsoli hisoblanib, hamisha er yigitning yo`ldoshi sifatida rol o`ynaydi. Do`stlik fazilati faqat insonga xos xususiyat emas, o`q va yoy ham qadim insoniyatga adabiyot va san'at kabi hamisha yo`ldosh hisoblangan.

Ezgulik va yovuzlik o`rtasidagi kurashning yorqin namunasi hisoblangan "Ramayana"da asar qahramoni Jonak tirnoqqa zor edi, kuni bola tilab, xudolarga yolvorish bilan o`tardi. U qurbonlikka mos mehrob tiklash maqsadida omoch bilan yer haydar edi, nogahon egat ichidan bir mohpaykar, hurliqo qiz chiqib keldi. Jonak uni o`ziga qiz qilib oldi va unga Sita, ya'ni "egat" deb nom berdi. Sita balog`at yoshiga yetganda, Jonak butun dunyoga jar soldirdi: "Kimki Shivaning sehrli kamalagiga tor bog`lay olsa, Sitani o`shanga beraman!" Biroq hali hanuz birov tor bog`lash u yoqda tursin, kamalakning o`zini yerdan qo`zg`ata olgani yo`q. Endi Jonak podsho:

---

[80] Alisher Navoiy. Majolis un-Nafois. (II qism). Library.ziyonet.uz. 109-bet.
[81] D. Yusupova. Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari. Kh-davron.uz
[82] Яқиний. Ўқ ва ёй. www.ziyouz.com

"Sen ham kuchingni bir sinab ko`rmaysanmi?" – dedi vallamat Ramaga.

Shu o`rinda bir gap. Turkiy tilda yoy istilohini kamon, kamalak (Quyosh nurining yomg`ir tomchilarida sinishi natijasida osmonda yarim doira shaklida rang barang tusda ko`rinadigan yo`l) hamda qavs belgisiga nisbatan ishlatishgan. O`z navbatida tashqi o`xshashlik asnosida yoyni kamalak deb ham atashgan. Masalan, "Ramayana" eposida momaqaldirog`-u yomg`irlar hokimi va yazdonlar sultoni Indraga yetti rangli kamalak kamon o`rnida o`tar edi, deyiladi.

Shivaning kamalagi ta'rif etilar ekan, bu yoyni Devrotga Rudra in'om etganini, bag`oyat og`irligidan 500 nafar er mashaqqat bilan arobaga ortgani aytiladi.

Bahaybat arobadan ulkan sandiq olmish joy,
Sandiq ichra bir zamon – Shiva tutgan sirli yoy.
Jonak dedi;
"Bu kamalak ko`hnadir, avlodimiz ko`rki ul,
Gerdayib ne rojalar aylabon turli usul,
Tor bog`lamoqqa bekor unnab kelishar nuqul.

Vishmavitraning iltimosiga ko`ra, Rama ortiqcha chiranishlarsiz yoyni qo`lga oladi.

Dast ko`tarar bosh uzra o`yinchoqdek bamisol,
So`ng tor bog`lab murvadan tarang tortadi darhol!
Nogoh tutar atrofni zo`r sadoi qaldiroq:
Qarsillab sinmish edi Rama ilgida yaroq! [83]

Mahodevaning yarog`ini yaroqsiz holga keltirgan Ramaga Jonak gul qizi Sitani berishga qaror qiladi. Bu birlashuv orqali bashariyat turgunicha naslini shonga burkalishini niyat qiladi.

O`q va yoy deganda, ko`z oldimizda yengil, qulay, tez va bexato urishga mo`ljallangan ov va harbiy qurol gavdalanadi. Ilgari kamon inson uchun do`stdan yaqinroq bo`lib, ibtidoiy ovchilikning taraqqiyotiga hissa qo`shgan ixtiro sanalsa, bora-bora insoniyat tafakkuri takomillashgan sari harbiy qurolga aylandi. Bugungi kunda esa kamon o`qiga vazifadosh shaklda, uning yo`qotuvchanlik qolibiliyati yuzaga chiqqan holda o`q-dori istilohini ishlatamiz. O`q-dori deyilganda, otish, yo`qotish uchun mo`ljallangan patron, snaryad, mina, granata singari jang buyumlari majmuini tushunamiz.[84] Eng qizig`i, voqealari eramizdan oldingi XIV – XII asrlarda bo`lib o`tgan hind adabiyotidagi ilk doston "Ramayana"da "Ravananing o`limi ta'rifida" bobida vazifasi bugungi kundagi o`q-doriga o`xshash o`q haqida so`z boradi. Hind fantaziyasi ilohiy o`q tasvirini 14 misrada keltiradi:

Buyukshukuh bahodir sodoqqa qo`lni solur,
Vishillagan ilonday yog`duvash o`qni olur.
O`q kenglikdan yaralmish, vahshatlidir, serbar, keng,
Qo`ysa naq Meru ila Mondaraga kelar teng.

---

[83] Рамаяна. Муҳаммад Али таржимаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. 17-бет.

[84] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 30-бет.

Boqsa, ko`z chiday olmas taratgan yog`dusiga,
Bor modda, ibtidolar kuchin olmish o`ziga.

Garchi o`q tashqi o`xshashlik jihatidan kamon o`qini eslatsa-da, kuch-qudrati jihatidan bugungi kundagi atom bombasini yodga soladi. Chunki, ramzan shayton bo`lgan Ravanani yo`qotish uchun juda kuchli qurol zarur edi. Natijada o`q Ravananing yuragini teshib, yerga botadi-yu, sodoqqa qaytadi.

Insoniyat tarixidagi kuchli va foydali mexanizm sanalgan kamon yaratilishiga ko`ra, ikki qismdan iborat bo`lgan. Sariq tol, sambit, yovvoyi jiyda va shing`il shoxidan yasalgan egma cho`p hamda asosan paydan qilingan tirkash. Egma cho`pning ikki uchiga ba'zan suyak yoki qimmatli metal qoplangan. Kamonning ikki xili turi bor. Oddiy ya'ni yarim doira shaklidagi yoy va murakkab – yoyilgan qo`sh qanot shaklidagi kamon. Ilohiy qudratdan bahra olgan Rama ham, Odissey-u Alpomish ham aynan murakkab turdagi kamondan foydalanishgan.

"Alpomish" eposida barchamizga tanish lavha bor. "Qirq kunlik uzlatda tilab olingan farzand Hakimbek yetti yoshga kirar-kirmas savodxon, burro bo`ldi. Xat o`qib-yozadigan mulla bo`ldi. Otasi endi unga shohlik, sipohilik ilmini o`rgatayin, deb, maktabdan chiqarib oldi."

Asar bosh qahramoni Alpomishning favqulodda bahodirligi yetti yosh bo`lishiga qaramay, ota-bobolaridan qolgan o`n to`rt botmonlik birichdan (bronza) bo`lgan parli yoyni ko`tarishida namoyon bo`ladi.

"Hakimbek shul o`n to`rt botmon yoyni qo`liga ushlab ko`tarib tortdi, tortib qo`yib yubordi. Yoyning o`qi yashinday bo`lib ketdi. Asqar tog`ining katta cho`qqilarini yulib o`tdi, ovozasi olamga ketdi." [85]

Manbalarga ko`ra, o`rta asrlarda kamon o`qi otilganda 500-600 metr masofaga yetgan. Hakimbek otgan o`q Asqar tog`ining bir cho`qqisini yulib o`tgani garchi aqlga sig`mas mubolag`a bo`lsa-da, bronzadan bo`lgan taxminan bir tonnadan ortiq og`irlikdagi yoyning natijasiga ishonging keladi.

Kamon "Alpomish" dostonida qabilaning qadimgi shon-shavkatini nasldan naslga olib o`tayotgan (yoy Alpinbiyniki) detal sifatida bo`y ko`rsatgan. Bu yoy Hakimbekka mardlik va g`oliblik nashidasi bo`lib umr bo`yi hamrohlik qiladi. Doston yakunida taqdiridagi adolat, haqiqatni yuzaga chiqarishda, Alloh birlashtirgan jufti haloliga yetishishida ham aynan kamon yordam berganini ko`rishimiz mumkin.

Ultontozning to`yi. Alpomish cho`pon Qultoy qiyofasida davraga kirib keladi. Mardlarni piching gaplar bilan "qitiqlar ekan", o`g`li Yodgorni bobomeros yoyni ko`tarishga majburlashlariga zamin yaratadi.

Shu o`rinda Barchinning nutqi e'tiborni tortadi:

"Norimning yukini norcham keltirar,
Nor yuki har qanday otni o`ldirar,
Er bolasi sher-da, sag`ir Yodigor,
Otasining yoyin Yodgor keltirar."

---

[85] Алпомиш. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985, 16-бет.

Darhaqiqat, Barchin ushbu kamonni faqat o`g`ligina ko`tara olishiga astoydil ishonadi. O`tgan yetti yil mobaynida, yorining tirik yoki o`likligini bilmasa ham, o`g`lini sulola davomchisi sifatida tarbiyalaydi. Alpomish ham oilaviy an'anani mardlarcha davom etar ekan, yetti yoshli Yodgorning o`n to`rt botmonlik yoyni ko`tarishiga ilohiy kuchdan madad so`rab unga ma'nan ko`makchi bo`ladi.

"Pirim, dedi Yodgor tortdi chirpanib,
O`n to`rt botmon yoyi bunda qo`zg`aldi,
Parli yoydan ajiriqlar uzildi,
Qarab turgan mo`min ko`ngli buzildi."

"Alpomish" dostonida kamon – to`g`rilik, mardlik, bosqinchilarga shafqatsizlik, haqiqat qoshida egilmaslik barobarida adolat tantanasi, ota-bobolarning avlodlarga qoldirgan do`stligi ramzidir.

Bunday ramziy ma'no tashuvchi detallarni Gomer epopeyalarida ham uchratamiz. "Iliada"da takomillashtirilgan temir qurollari, temirchilar bosqoni, tegirmon, kulolchilik charxi, jang aravalari, kema yasashda ishlatiladigan anjomlar tilga olingan lavhalarni uchratsak, "Odissey" eposida aynan kamon bilan bog`liq syujetga duch kelamiz.

Penelopa qalandar niqobidagi Odisseyga agar oshufta kuyovlardan qaysi biri Odisseyning kamonidan o`q uzib, o`n ikki xalqadan o`tkaza olsa, shunga turmushga chiqishga rozilik berishini aytadi. [86]

Xalq orasida "Otolmagan yoy tanlar. Otolmagan ovchi yoyidan ko`rar", degan maqol bor. Odisseyning o`q va yoyini berar ekan, xushtorlarning birortasi hatto kamonning o`qini tortolmaydi. Ammo otdan tushsa ham, egardan tushmaydigan kuyovlar Odissey kamondan o`q otish uchun ruxsat so`raganda rozi bo`lmaydilar. Telemax esa qat'iyat bilan kamonni otasining qo`liga beradi. Odissey Penelopa qo`ygan shartlarni bajaradi. So`ngra o`qlarni sevgilisini ko`zlagan nomardlarga qaratadi. Avval Antinoyni, so`ng Yevrimaxni qulatadi. Oqibat Penelopa va Odissey Alpomish va Barchin kabi topishib, diydorlashishadi. Sadoqat va adolat g`alaba qozonadi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, har uchchala eposda kamondan o`q otish voqeasi qahramonlar taqdirida hal qiluvchi, do`st kabi yordam beruvchi detaldir. Ayni paytda bu detal qahramonlarning xudoydod qobiliyat egasi ekanliklari, iste'dodlari esa yaxshilikka, taqdirning xayrixohligini yuzaga chiqishiga sabab bo`lganini e'tirof etish kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. Иброҳим Нуруллоҳ, Аббос Турсунов, Дилфуза Шойзоқова. Пайғамбарлар тарихи. – Т.: Ғафур Ғулом нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. 202-бет.


[86] Одиссей. Қодир Мирмуҳаммедов таржимаси. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи. – Тошкент: 2012. Ўн тўққизинчи қўшиқ.

2. Рамаяна. Муҳаммад Али таржимаси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. 17-бет.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 30-бет.
4. Алпомиш. –Т.:Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1985. – 16 б.
5. Одиссей. Қодир Мирмуҳаммедов таржимаси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2012. Ўн тўққизинчи қўшиқ.
6. Alisher Navoiy. Majolis un-Nafois. (II qism). Library.ziyonet.uz. 109-bet.
7. D. Yusupova. Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari. Kh-davron.uz.
8. Яқиний. Ўқ ва ёй. www.ziyouz.com
9. Qomus.info
10. Factmonster.com

## OBZOR MAQOLADA NASR VA NAZM TAHLILI

**F.Murodova**
*II kurs masitranti (adabiyotshunoslik o'zbek)*
*prof.* **Sh.N.Axmedova**

O`zbek tanqidchiligi taraqqiyotida obzor maqolalarning o`rni alohida ahamiyat kasb etadi. "Adabiy tanqidiy obzor maqolada alohida bir adib yoki bir necha adibning muayyan bosqichdagi ijodi; ma`lum bir adabiy tamoyillar shakllanishi, takomillashuvi, uning sabab-oqibatlari, bu jarayonda muhim rol o`ynagan adiblarning asarlaridagi oziga xosliklarni ko`rsatish; adabiy jarayonning o`ziga xosliklarini ochish;maqsadning amalga oshirilish natijasidagi xulosalarni umumlashtirish; shular asosida muayyan takliflarni o`rtaga tashlash muhim o`rin tutadi"[87].

Filologiya fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo`ldoshevning "Dastlabki dovon belgilari" nomli maqolasida ("Sharq yulduzi" , 2001-yil, 1-son) o`zbek adabiyotidamustaqillik yillarida yaratilgan nasr va nazmdagi nodir asarlar tahlili bayon etilgan. Istiqlol davri adabiyoti shakllanishi 90-yillari o'rtalariga to'g'ri keladi.Maqolada adabiyotimizdagi nasr va nazmdagi yutuq va kamchiliklarning murakkab manzaralarni aks ettirishga e'tibor kuchaydi.Jumladan, mustaqillik davrida adabiyoti oddiy xronologik bosqich emas balki, bir qator jiddiy o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan bosqich sifatida o'rin egallashi tanqidchi tomonidan inkor etib bo'lmaydigan dalillar orqali yoritib berilgan.Bu davrdagi adabiyot endilikda davlat adabiyoti bo'lmay qoldi.Adabiyot ijodkorining ko'ngil ishi ekanligi,endilikda ijodkor uchun fikr erkinligi uchun imkon yaratib berildi.Maqolada she'riyat haqida fikr yuritar ekan,poeziyaning asl manbasiga qaytganligi,nozik ishoralar,ruhiy tovlanishlarni,nazokatli obrazli tasvirlashga o'tilganligi istiqlol davri o'zbek she'riyatiga xos xususiyatlardan biri ekanligi

[87]Nazarov B., Rasulov A., Ahmedova SH.Qahramonov Q. O`zbek adabiy tanqidi tarixi.T.: Tafakkur qanoti'' 2012 ,- B.357 .

bayon etilgan.Mustaqillik davrida yaratilgan asarlar hayotning oq va qora tomonlarini boricha aks ettiriladi.Lirik qahramonning ichki ruhiyati bevosita ochib beriladi. Shu o'rinda aytish kerakki,mustaqilik davri she'riyati xalq uchun emas,balki faqatgina ijodkorning o'zi uchun yaratilayotgandek. Endilikda she'riyat hordiq chiqarish ,ma'naviy zavq olish uchun emas,ko'pgina she'rlarni oddiy xalq tushunmaydi,bunday she'rlar alohida adabiyotshunoslar uchun go'yo.Mening fikri ojizimcha, she'r keng omma uchun tushunarli,sodda,ravon bo'lishi kerak.She'rda qofiya, ohangdorlik musiqiylik bo'lsa ,o'quvchini o'ziga jalb qiladi va esda qoladi.

Munaqqid Faxriyorning ikkitagina so'zdan iborat butun boshli she'rini (oy bolta)

she'rining bosh harf bilan yozilmaganligi,unda hech qanday tinish belgilar ishlatilmaganligini ajdodlarimizning asrlar davomida yaratilgan nodir nazm na'munalari bilan qiyoslab asoslaydi. Bunda shoir she'riyatning odatiytartibini inkor qiladigan uslubga murojaat etgan. Unda ijodkorning chigal kayfiyati bor.

Qozoqboy Yo'ldoshev maqolasida Abdulla Oripov,Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva,Tilak Jo'ra, Shavkat Rahmon,Azim Suyun,Usmon Azim,Iqbol Mirzo,Faxriyor va boshqa shoirlarning she'rlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilgani namoyon bo'lishini aytib o'tgan.

Mustaqillik davriga kelib, o`zbek nasri taraqqiyotida ham sezilarli o`zgarishlar bo`ldi. Bu davrda nasrda ijodiy uzviylik,davomiylik ustuvorligi namoyon bo`ladi.Munaqqid maqolada XXasrning keying o`n yilligida SH. Xolmirzayev, O`.Hoshomov, O.Muxtor, T. Malik, N.Eshonqul, T.Murod, N.Norqobilov,M.Muhammad Do`st, X.Sultonov, A.Yo`ldoshev singari turli avlodga mansub ijodkorlarning o`ziga xos yo`sinda qalam tebratib, milliy proza taraqqiyotini ta`minlaganligini ko`rsatib bergan. Shu o`rinda shuni ta`kidlash kerakki, Omon Muxtorning yangicha ifoda usullarida yaratilgan "Ming bir qiyofa", "Ko`zgu oldidagi odam", "Ffu","Ayollar mamlakati va saltanati", "Maydon" romanlari; Nazar Eshonqulning jahon prozasining eng ilg`or tajribalari asosida sof milliy obraz yarata olgan "Qora kitob"qissasi, "Shamolni tutib bo`lmaydi", "Tobut shahar" , "Quyun" hikoyalari ; Xurshid Do`stmuhammadning "Bozor" romani, "Oromkursi" qissasi, "Jajman","Qorachiqdagi uy" hikoyalari kabi mustaqillik davri nasrining yorqin namunalarini tahlil qilish orqali,bu asarlardagi milliy ong tushunchasi, mentalitet tushunchasi hamda bosh qahramonlarning ichki kechinmalaridagi tushkunlik kayfiyatini ko`rsatib berar ekan, inson ruhiyati qatlamlarining aks ettirish miqiyosining kengligi va ifoda tarzining favqulotdaligiga ko`ra milliy adabiyotimiz uchun yangi badiiy hodisalar bo`lganligini bayon etadi.

Jumladan, NazarEshonqulning ,"Shamolni tutib bo`lmaydi", "Qora kitob'' asarlari, Ulug`bek Abduvahobning "Yolg`izlik" qissasi va qator hikoyalarida qahramonlar ruhiy olamini tadqiq etish ko`lami va yo`sinlari jihatidan adabiyotimiz uchun tamomila yangilik bo`lganligi asarlar tahlili orqali ochib berilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Q.Yo'ldoshev o'n yillik davr mobaynida yaratilgan nazm va nasr na'munalari haqida fikr yuritar ekan, asarlardagi yutuq va

kamchiliklari haqida asosli dalillar orqali yoritib,umumiy fikrlar keltiradi.Mustaqillik davridagi she’rlardan ,ko’pgina nasr na’munalaridan misol keltirib, ularning ma’nolarini,asardagi lirik qahramon ruhiy qatlamlarini,obrazlar tashiydigan ma’no-mohiyatlarni ochib bergan.She’riyat va nasr borasida mustaqillikkacha bo’lgan yaqin o’tmishdagi estetik yuksakliklarga va undan ham balandroq cho’qqilarga erishish imkoniyati paydo bo’lganligi ta’kidlangan.

## “LISON UT-TAYR” DOSTONIDA PIR VA MURID MUNOSABATI MASALASI XUSUSIDA

**Sh.A.Sa’dullayeva,**
*Buxoro davlat universiteti magistranti*

Tasavvuf tariqatlarida maqsadga, murodga yo’nalgan odam murid deb ataladi. Murod esa Tangri vasliga yetish demakdir. Muridlikning asosiy belgisi - sidqidildan talabgor bo’lish va komil pir (murshid) etagidan tutish. Inson zotining to’g’ri yo’lga qadam bosishida va komillik sari ildamlashida to’g’ri tanlangan ustozning o’rni mislsiz. Murid murshid ta’limi, yo’l-yo’rig’i va tarbiyasisiz maqsadga, Alloh bilan tavhid hosil qilishga erisha olmaydi. Agar murid keng dengizda yo’lga chiqqan qayiq bo’lsa, murshid eshkak kabidir, ya’ni uningsiz qayiq o’z-o’zini nazorat qila olmaydi. Natijada u g’arq bo’lishi yoki butunlay yo’ldan adashishi mumkin. Ma’lumki, tariqat yo’l demak, murid yo’lovchi bo’lsa, murshid yo’lboshlovchidir. Tariqatga, yo’lga tushgan yo’lovchi to’g’ri, halol, komil yo’lboshlovchi tanlabgina qolmay, yo’lboshlovchining aytganlariga so’zsiz itoat qilishi, boshqacha aytganda, murid o’z irodasini pirga topshirishi kerak. Iroda - bu xohish-istak; pir etagidan tutgan murid maqsadga yetishi uchun o’z istaklaridan voz kechib komil pir rayiga ko’nmog’i talab etiladi. Murid bir pirga ergashar ekan, u ergashgan pir har jihatdan shogirdga o’rnak bo’lishi, tariqat maqomlaridan o’tgan bo’lishi kerak. Ko’pgina mutasavvif shayxlar hayotidan ma’lumki, ular to ustoz roziligini olmaguncha ma’lum bir maqomga yetgan deb hisoblanmagan, ustoz roziligini olib, qaysidir tariqat maqomiga yetgan shogirdga pir chuqurroq ta’lim bera boshlagan yoki o’zidan ko’ra kuchliroq va bilimi kengroq boshqa ustoz huzuriga yuborgan [3, 22-28].

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida pir va murid munosabatlari masalasi qushlar vositasida ba’zan majoziy uslubda, ba’zan esa ulug` shayxlar bilan bog`liq tamsiliy hikoyatlarda ancha kengbadiiy talqin etilgan. Bu adabiy parchalarni ilmiy tahlil etish Navoiy dunyoqarashiga yaqinlashish nuqtayi nazaridan ham, undagi komil inson haqidagi muhim qarashlarini o`rganish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Qushlarning uzrxohligiga javoban Hudhudning nutqi badiiy talqinida pirga xos bo’lgan sifatlarni ko’rish mumkin. Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, qushlar dunyo savdolari bilan band bo`lgan insonlarning majoziy obrazi sanaladi, ularga Semurg’ haqidagi xabarni yetkazgan Hudhudning so’zlari qushlarda Simurg’ visoli uchun talab hosil qiladi. Demak, inson haq yo’liga kirishi uchun unda dastlab kuchli istak paydo bo’lishi kerak. So’ng ular o’zlariga rahnamo etib Hudhudni tanlashdi, chunki u boshqa qushlardan yuqoriroq

darajada edi, bu uzoq yo'l – nafsning ustidan g`olib kelish yo`li haqida boshqa qushlar uning kabi bilimga ega emas edilar. Navoiy asar sujetini bir tizmaga solish bilan bir qatorda, haqiqiy pir va sobit murid qanday bo'lishi kerakligini ham Hudhud tilidan bayon etadi. Chunonchi, qushlardan birining yo'l boshida Hudhudga "Sen va biz barchamiz bir jinsdanmiz, patlarimiz ham bir xil, ammo sen nima uchun yashirin sirdan xabardorsan?" – degan savoli Hudhud o`ziga ham payg'ambar, ham toj egasi bo'lgan Sulaymonning nazariga tushganligi sabab ekanini aytadi:

*Kimgakim aylar nazar ahli safo,*
*Ul nazar tufrog'ni aylar kimyo* [1,128].

Shu so'zlar isboti uchun Shayx Najmiddin Kubroning so'zi va itga tushgan ko'zi haqidagi hikoyat keltiriladi. Demak, kimgaki xos kishilarning nazari tushsa, ularning ulug' martaba erishlari it obrazi misolida nihoyatda ta'sirli badiiylashtiriladi. Bu yerda pir, avvalo, tangiri yoki tangrining nazari tushgan xos kishining marhamatiga sazovor bo'lgan inson bo'lishi kerakligi nazarda tutilgan. Qushlardan yana biri Hudhudga umri davomida ko'p gunoh ish qilgani, hayoti jirkanch ishlar bilan o'tgani bayon etib, o'zining shu holi bilan Simurg'day pok zotga erishishga noloyiq ekanidan noliydi. Ko`rinadiki, unda o`z qilmishlaridan pushaymonlik holi kuzatiladi. Shunda Hudhud (pir) bu qushga har bir inson gunohdan xoli emasligini, ammo ko'ngilni umidsizlikka duchor etmaslik lozimligidan xabar beradi va barcha gunohlardan qutulishning yagona yo'li tavba ekanligi ulug` shoir tomonidan Hudhud timsolida quyidagicha badiiy ifodalanadi:

*Jurmdin ulkim yuzi bo'lg'ay sarig',*
*Tavba aylar ul sarig'lig'ni orig',*
*Bahri rahmat mavjga kirgan zamon,*
*Pok o'lursan men kibi yuz ming ravon* [1,133].

"Agar kimning yuzi gunohdan sariq bo'lsa, tavba uni bu sariqlikdan xalos etadi. Rahmat dengizi mavjlangan paytda sen ham xuddi men kabi ming marta pok bo'lasan",- deydi Hudhud. Bundan tushuniladiki, pir o'z murining ko'nglidagi umidsizlikni yo'q yilib, uni tavbaga undashi va tavbada najot borligiga ishontirishi kerak, zero, uning o'zi ham qachonlardir tavba eshigini qoqqan. Tasavvufda tariqatlaridagi dastlabki qadam kuchli xohish va avvalgi gunohlardan poklanib tavba qilish bo'lsa, pir bu tamoyilga rivoya etib, o'z muridining kamoloti uchun uni tavba sari undamog'i kerak.

Yana bir qush (tolib, murid) shunday shikoyat qiladi: "Tabiatimda o'zgaruvchanlik mavjud. Bir kun taqvodor bo'lsam, bir kuni aksiman, barqaror emasman". Hudhud (pir) bu sifat barchaning zotida borligini aytadi. Buning sababi esa nafs va ruhdir, ulardan biri tizginni olsa, ikkinchisining zaiflashishini ma'lum qiladi. Kishidagi bunday o'zgaruvchanlikka chorani murshid, ya'ni pir topadi, deydi. Chunki:

*Bo'yla illatlatg'a murshiddur tabib,*
*Kim xaloyiq pir derlar, ey labib...*
*Pir har biriga qilur nav'e davo,*
*Kim borib illat, topar tolib shifo* [1,136].

Pir muridning bu nuqsaniga riyozat chekishni davo qilib qo'yadi. Natijada shogird nafsi sinadi va ruhoniyat baland keadi. Asarning shu qismidan so'ng fikr dalili sifatida Shayx Abu Turob Naxshabiy haqidagi tamsiliy hikoyat keltiriladi. Shayx Naxshabiy bir muridining holiga nazar solib, uning qimmatbaho kiyimlarga o'ch ekanini ko'radi. Pir ko'p bora bu muridga nasihat qilsa-da, so'zlari kor qilmaydi. Oxir-oqibat pir muridning yomon nafsi daf bo'lgunga qadar uni mol so'yiladigan kushxonaga olib borib tashlashni buyuradi. Shundan so'ng bir savat qo'yning ichki a'zolari va axlatlarini boshi uzra mahkam ushlab turishini talab etadi. Muridning ust-boshi iflos bo'lgach, Nasaf bozorini shu holatda kezib chiqishni buyuradi. Bir necha kun davom etgan ushbu sinovdan so'ng muridning oliftaligidan asar ham qolmaydi, undagi kibr tamoman halok etiladi. Shundan so`ng, pir Naxshabiy muridiga g'usl qilishga ruxsat beradi. Nafs qutqusidan xalos bo`lish uchun najot istab kelgan tolib riyozat chekib davo topdi.

Shayxning sifatlari haqida Najmiddin Komilov o'zining "Tasavvuf" kitobida Koshifiyning "Futuvvatnomayi sultoniy" asariga tayanib ma'lumot berar ekan, haqiqiy pirning yetti sifatga ega bo'lishi lozimligini sanaydi. Bular: pirning komil ma'rifat egasi bo'lishi, o'tkir zehnli odamshunos bo'lib, muridning qobiliyatini ko'zidan bilib olashi, uchinchidan, yetuk ruhiy-ma'naviy quvvatga ega bo'lib, yo'ldan adashishi mumkin bo'lgan muridni to'g'ri yo'lga boshlab, unga ma'naviy ko'mak berishi, to'rtinchidan, dunyodagi hech bir moddiyatga ehtiyojmand bo'lmasligi, beshinchidan, ixlosi mustahkam bo'lib, riyo va tamadan yiroq yurishi, oltinchidan, rostgo'y bo'la olishi, doimo haqiqatni so'zlay bilishi, yettinchidan, qalbi shafqat nuriga to'la bo'lib, o'z manfaatidan muridlari va omma manfaatini ustun qo'yishi kabilardan iborat [2, 24-25]. "Lison ut-tayr" dostonida Navoiy Hudhudni yuqoridagi sifatlarning barchasida komil sifatida tasvirlagan deyish mumkin. Asarda Hudhudning alohida portret yoki ta'rif-tavsiflariga o`rin berilgani holda, uning boshqa qushlarning savol va shikoyatlariga bergan javoblari va topgan yechimlari misolida uning piri komil ekanidan dalildir.

**Adabiyotlar:**

1. А. Навоий. Лисонут тайр. Тошкент: Ғ.Ғ улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти ,1991.
2.Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. Тошкент: Ёзувчи, 1996.
3.Кошифий Ҳусайн Воиз .Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати.- Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,1994.

## СОЗ ВА СОЗАНДА СЕҲРИ

**Ш.А.Ҳайитов**
*филология фанлари номзоди*
*БухДУ ўзбек филологияси кафедраси доценти,*
**Д.Отаниёзова,**
*Ўзбек адабиёти кафедраси I босқич магистранти.*

’’Хамса’’нинг тўртинчи достони – ’’Сабъаи сайёр’’да Ҳазрат Навоий беназир санъаткор тимсолини тақдим этганлар. Улуғ адиб талқинича, Дилором – ақлли ва иффатли, оқила ва гўзал қиз. Аммо бу мафтункор ҳусну-жамол соҳибасида зоҳирий ва ботиний гўзалликданда устун бир ҳунар бор. У – моҳир созанда. Дилором ҳуснини кўрган киши жон бермай омон қолиши мумкин, аммо у чанг чалиб куйлаганида минг жондан бир жон ҳам тирик қолмаслиги аниқ:

Ҳуснича одами нишон бермай,
Киши кўрмай аники, жон бермай.

Кўрган ўлмакка қилмаса оҳанг,
Вой, ул дамки, олса илгига чанг.

Чанги чун жонфизо садо чекса,
Ўзи ул савт ила наво чекса.

Кўрса ёхуд эшитса ким они,
Қолмагай бир, гар ўлса минг жони (2,76)

Маъшуқанинг бениҳоя гўзаллиги, ширали овози ва қўлидаги соз сеҳри таъсирида жон таслим қилиш ҳаётда юз бермайдиган ҳолат. Бироқ муболағанинг энг юқори даражаси – ғулувга мурожаат қилган ижодкор ўз қаҳрамонининг ҳусну жамолда яккаю-ягоналигига ҳамда унинг санъаткорлик маҳоратининг юксаклигига ўқувчини ишонтпра олади. Ақл бовар қилмайдиган ҳодиса китобхон тасаввурида ҳақиқатга айланади.

Дилором фақат ҳусни билан эмас, балки маънавий гўзаллиги ва санъаткорлик истеъдоди билан Баҳром қалбини ром этади, шоҳ муҳаббатини қозонади. Чунки шоҳ Баҳром Дилором хабарини эшитмасдан олдин ҳам мусиқий куйларни тинглашни хуш кўрар эди. Унинг руҳу шуурида мусиқийга интиқлик, ташналик яшар, кўп вақтини санъат аҳлининг сеҳрли куй, мафтункор оҳанглари оғушида ўтказар эди:

Шаҳғаким,ишрати мудом эрди,
Соз бирла суруд ком эрди.

Кўп эди хизматида руд аҳли,
Базмида жонфизо суруд аҳли (2,70).

Достондаги айни сатрлар Ҳазрат Алишер Навоийнинг тарихий асари ’’ Тарихи мулуки ажам’’даги қуйидаги маълумотлар билан янада қувватланади:

’’ Баҳром... Синд қирғоғидан Ажам сориға вилоятларни олиб, Ройнинг қизи била ниҳоятсиз яроғ ясаб, мулкига келди. Ва тўрт минг уйлук созанда ва гўянда ва раққос ва ахли тараб Ҳиндистондан кўчуруб олиб, келди...’’(3,237). Ушбу қайдлардан кейин Ҳазрат Алишер Навоий айни тарихий ҳақиқатлардан ўз ’’Хамса’’ларининг тўртинчи достони – ’’Сабъаи сайёр’’да фойдаланганликларини маълум қиладилар: ’’Ва Дилором жанги ва етти қаср ва Ҳаварнақ ва сойир ҳолотин билай деган киши бу фақир ’’Хамса’’сида ’’Сабъаи сайёр’’ни ўқуб, маълум қилсун’’ (3,237).

’’Сабъаи сайёр’’даги фикр ва образлар ғоятда ҳаётий. Шоҳ Баҳромнинг Дилоромга муҳаббати ҳам унинг табиати, қизиқиши, туйғулари мантиғидан келиб чиқади. Дилором ҳусну малоҳати ҳамда санъаткорлик маҳорати билан мусиқий куйлар шайдоси шоҳ дидига мос келади.

Достоннинг кейинги бобларида ҳам ишқ оловида ўртанган ошиқнинг маъшуқа ҳусни ва истеъдодидан баробар баҳра олиб, дили ором топганлигига урғу берилади. Дилором малоҳати, сози, нафис мусиқий товуши билан шоҳнинг борлиқ вужудига ҳаёт бағишлайди. Баҳром ҳусн ва санъат қудратига асир бўлади:

Кўзин олмай лиқосидин бир дам,
Қулоғин ҳам навосидин бир дам.

Кўз юзида, кулоқ навосинда,
Жон ғамида, кўнгул ҳавосинда(2,89).

Хоразм – қадимул айёмдан с анъат диёри. Тарихий манбаларнинг гувоҳлигига кўра, Хоразмшоҳлар саройида етти иқлимдан келган созандаю хонандалар фаолият кўрсатган. Бу анъана кейинги асрларда ҳам давом этган.

XIX асрнинг иккинчи ярмидан XX аср бошларига қадар 37 йил давомида мамлакатни адолат билан бошқарган Хива хони Муҳаммад Раҳимхон Ферузнинг ўз даврининг илғор зиёлиси эканлиги илм аҳлига маълум. ’’Ишқий ғазаллар пири’’ дея эътироф этилган Феруз мусиқашунос, бастакор, мусиқий илмидан мукаммал хабардор аллома бўлган. Хоразм мақомларини асраб-авайлаб, авлодларга етказиш йўлида буюк хизматлар қилган. Бастакор сифатида ’’Шашмақом’’ йўлларида ўндан ортиқ куй яратган. Улуғ Навоий теран моҳият ва бадиий назокат билан гўзал ва истеъдодли Дилоромнинг кейинги тақдирини шу қадимий санъат диёри билан боғлаган. Шоҳнинг мерганлик маҳоратига машуқанинг ’’бу доимий машқ натижасидур’’, деб берган баҳоси Баҳромни ғазаблантиради. Подшоҳ

фармонига кўра, Дилоромнинг сочларини бир улкан тошга боғлаб, уни сувсиз чўлга ёлғиз ташлаб кетадилар:

Ики гисусидин каманд айлаб,
Ташладилар ғулула банд айлаб.

Гисусиким, улусқа эрди каманд ,
Оқибат бўлди ўз ҳалокига банд(2,98).

Дилоромни фарзанд сифатида кўрган хожа савдогар қизни соғиниб кўриш учун келаётганида иттифоқо саҳрода бу вазиятнинг устидан чиқиб қолади ва уни Хоразмга олиб кетади. Дилором санъаткорлик маҳорати билан Хоразм диёрида ном таратади.

Хоразм – азалдан санъатга талабчан маскан. Шунинг учун ҳам санъаткорлари кўп бу юртнинг барчадан устун машҳур бир мусиқачиси бор эди. Дилоромнинг созандалик маҳорати, чолғуга жўр бўлиб наво қилишлари донгдор машшоқ шухратига соя солади. Санъат – мардлар майдони. Юртнинг машҳур мусиқийчиси Дилоромнинг санъатдаги маҳоратига тан бериб, унинг хизматига ўтади, унга шогирд тушади, у билан сирдош дўст бўлиб қолади.

Ҳазрат Алишер Навоий талқинларича, Дилоромнинг чалаётган сози ва нафис овози шундай таъсирчанки, уни эшитган эл диндан чиқишга, ақлдан озишга бориб етади. Созанданинг чолғуга жўр бўлиб янграётган навоси олам аҳлини ўртаганидек, ўз соҳибасининг дарди, ички сирларини ҳам соз тилидан сўзлар эди. ’’Қуш тилини қуш билади’’, - дейди доно халқимиз. Сознинг нозик садосидан, муғаннийнинг тилсимли юрагидан чиққан навонинг ноласини тушунгувчи бу ўша Дилоромга шогирд тушган Хоразмнинг машҳур машшоғи Кофур эди. У сирдан воқиф қилишни Дилоромдан илтимос қилиб сўрайди. Кофур бу сирдан хабардор бўлгач, Хоразмни тарк этишга ваъда берсагина айтишини маълум қилади. Кофур бу шартни қабул қилади. Шундан кейин Дилором ўз қалбидаги махфий дардни ошкор қилади. Шартга мувофиқ Кофур Хоразм диёрини тарк қилади. Жума куни оппоқ – кофурий кийимдаги Баҳромга оппоқ – кофурий қаср ичида ҳикоя айтиб, ’’мушкбўй оҳуси’’ – Дилоромдан дарак берган еттинчи мусофир ана шу Кофур эди.

Олий даражадаги созанда Дилором тақдирининг азалий санъат маскани Хоразм билан боғланиши, узоқ муддат номаълум бўлиб қолган гўзаллик ва санъат маъбудасининг хоразмлик машҳур машшоқ - еттинчи мусофир

ҳикояси туфайли достон тизмасида пайдо бўлиши воқеалар ривожига аниқлик бағишлайди, унинг бадиий ишонарлилигини кучайтиради...

Хоразмга келиб, гўзаллиги, малоҳату латофати билан барчани мафтун этган Дилоромга  Хоразм хони ҳам ошиқ бўлади. Дилором хоннинг таклифини рад этади. Маъсума аёл зўрлик билан саройга келтирилади. У фақат санъаткорлик истеъдоди ёрдамидагина иффати ва номусини пок сақлаб қолишга эришади:

Чангини қўлга олиб айлади соз,
Чанг ила нағма айлади оғоз.

Нағма ул нав ошкор этти,
Ким эшитгач, шоҳ ўзидан кетди.

Етса ҳар кимсанинг қулоғига бу,
Йиқилиб элтибон они уйқу(2,292).

Дилором чолғуга жўр бўлиб наво қилса, эшитган одам ё ўзидан кетар, ёки уни уйқу элтар эди. Хон ҳам шундай ҳолатга бир неча бор тушгач, Дилором васлига етмоқ орзусидан кечиб, у билан ака-сингил тутинади.

Дилоромнинг ташқи кўриниши не чоғлик гўзал бўлса, маънавий олами, хулқ-атвори, одоби ҳам шунчалик гўзал ва латиф. Бу Шарқ гўзалининг фаҳму идроки, самимияти ва олижаноблиги мислсиздир. Аммо Дилоромга боғлиқ воқеалар замирида унинг гўзаллиги эмас, санъати ва истеъдоди марказий ўрин тутади.

**Адабиётлар:**

1. Навоий А. Фарҳод ваШирин. - Мукаммал асарлар тўплами, 20 жилдлик, 8- жилд. Тошкент: ’’Фан’’, 1991. - 544б.
2. Навоий А. Сабъаи сайёр. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 542б.
3. Навоий А.  Тарихи мулуки ажам  - Мукаммал асарлар тўплами, 20 жилдлик,  16- жилд. Тошкент: ’’Фан’’, 2000. - 336б.

## SH.RAHMON SHE’RIYATIDA TOG` OBRAZI

**L.F.Sharipova**
*BuxDU o`zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.d.,*
**A.D.Shirinova**
*Adabiyotshunoslik yo`nalishi I bosqich magistranti.*

***Annotatsiya:*** *Tog` obrazi dunyo she'riyatida ko`p qo`llangan. Asli tog` atrofida tug`ilib-o`sgan iste'dodli shoir Shavkat Rahmon she'riyatida tog` obrazi alohida o`rin tutadi. Maqolada shoirning tog` bilan bog`liq o`tkir ijtimoiylik kasb etgan she'rlari tahlilga tortilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *she'riyat, tog` obrazi, majoziy ma'no, g`oya, tashbeh, tashxis, mubolag`a, g`uluv.*

Dunyo she'riyatida tog`obraziga ko`p bor murojaat qilinadi. Tadqiqotchi D.Mingboyeva tog` obrazining badiiy adabiyotdagi mazmun-mohiyatiga berilgan tavsiflarni keltiradi. Uch jihatiga e'tiboringizni tortishni istadik:"…Tog` yuksalish g`oyasining mujassamidir", "Tog`larga sig`inishning ruhiy ildizlari ularning osmonga yaqinligi", "She'riyatda tog` ba'zan mag`rur va sabotli odam obrazi bo`lib keladi".[88]Darhaqiqat, dunyo she'riyati tog` obraziga ko`proq shu uch jihatdan kelib chiqib yondashadi. O`zbek folklorida ham, yozma she'riyatida ham tog` obrazi alohida o`rin tutadi. Bu borada Shavkat Rahmon she'riyati misolida fikr yuritishni maqsad qildik.

Shavkat Rahmon she'riyati betakrorligi, o`ziga xosligi bilan o`zbek she'riyatida alohida o`rin tutadi.Adabiyotshunos Bahodir Karim shoir she'riyatini tadqiq qilar ekan, shunday yozadi: "Nazarimda, shoir esini taniganidanoq tog`ga nazari tushgan, tog` bilan yurgan, tog` bilan nafas olgan… Shu ruhiy asos uning she'rlariga ko`chib, badiiy libos kiygan va jonli tog`lar obrazi tug`ilgan".[89]She'riyatimizda cho`ng qoyaga monand shoir tog` obrazini yaratganda qaysi jihatlarni ifodaladi, degan savol muhim:

Ammo sezar har bir sharpani
Bo`lsa hamki xoblari hadsiz.
O`z tinchini buzgan yovlarni
O`ldiradi tog`lar shafqatsiz[90].

Shoir tog` obrazini yaratadi. Majoziy ma'no kasb etmaganday go`yo, go`yohaqiqiy tog`, tabiat qo`ynida saltanat to`kib turgan tog` obrazini yaratadi. Tog`lardagi ulug`vorlik,salobatni aks ettirib turgan bu misralardagi har bir fikr o`z asosiga ega. Tog` obraziga salbiylik ma'nosini yuklab, tog`larning shafqatsizligini, mag`rur, fe'li yomonligini ta'kidlab turib, tabiiy hodisadan foydalanib, maqsadini anglatadi. Tog`da noo`rin baqirsang, u ham shoir aytganidek, "bo`kiradi". Aks-sado kuchidan tog` ko`chishi mumkin. Bu tabiiy hodisa. Ammo shoir tabiiy hodisadan foydalanib, ijtimoiy voqelikni beradi:

Ishonmasang,o`q otib ko`rgin –
Bo`kirvorar sanoqsiz qoya,
O`ta mag`rur,fe'li ko`p yomon,

[88]Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 54-55.

[89]Bahodir Karim. Shoirning o`tkir so`zi / Kitobda: Shavkat Rahmonni xotirlab. – Toshkent: Sharq NMAK, 2012. – B.125-130.

[90]Shavkat Rahmon. Uyg`oq tog`lar. – Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1986. – B. 47.

Tog`laro`zin sevar bag`oyat.
Ehtiyot bo`l bunda yurganda,
Buyukman deb xomxayol surma.
Miltiq otish u yoqda tursin,
Ovozingni ko`tara ko`rma.[91]

Shoirning maqsadi tog` misol ulug` xalqini bezovta qilmoqchi bo`ladiganlarga "miltiq otish tugul, ovozingni ko`tara ko`rma", – deb ta'kidlash, xalq tinchini buzgan yovlarni o`lim kutishini baralla aytishdir.Shavkat Rahmon pastgina tovush ham aks-sado sababli juda baland eshitilishini ajoyib tasvirlaydi. Lekin ijodkor bu holni "o`ta mag`rur,fe'li ko`p yomon" tog`larning o`zini bag`oyat sevishi natijasi deb ko`rsatadi.  Bu misralar tagzaminida insoniy fazilatlarga da'vat,chaqiriq yotadi. Manmanlik,kibr faqat tog`larga xos,tog`largagina yarashadi demoqchi shoir. Inson esa asli tuproqdan yaratilgan. Shuning uchun ham insonning bezagi – kamtarlik. Kibr hech qachon unga bezak bo`lolmaydi,degan fikr ushbu misralar mag`ziga singdirilgan.

Shavkat Rahmon she'rlarida tog` tabiat hodisasi ekani, goh insonlarga qudratini namoyish qilishi, g`oh tog`day odamlar borligini,  ijtimoiy masalalarni ham jonsiz tabiat orqali ochib berish mahorati  kuzatiladi. Shoir bevosita tabiat hodisalari orqali ham insoniyat yuragining tub-tubidagi yaralarni ochib tashlaydi.Shoirning "Tog` o`tirar vodiyda tanho"deya boshlangan she'rida  ham aynan shu holatning guvohi bo`lishimiz mumkin:

Uzoq yurdim keksa tog` sari,
Goh odimlab, gohida chopdim.
Nuragan tosh, qoya tagidan
Go`yoki tog` ko`zlarin topdim[92].

Shoir tog`ni jonlantiradi. Tashxis shoirga nafaqat she'r badiyatini oshirish imkonini beradi, balki  dardini oshkor qilishga ko`maklashadi:

Suylaganday bo`lar edi tog`,
Tushunmasdim ammo so`zlarin.
Qanday g`amgin edi bu ko`zlar,
Qanday yig`lar edi ko`zlari!..

1980-yilda yozilgan bu she'r jasoratli shoir qalamiga mansub edi. She'rxon ko`z o`ngida tog`ning ko`z yoshlari – tog`dan erib oqayotgan qorli suvlar namoyon bo`ladi. Shoirning mahorati hayratli. Ham tabiat tasvirini mohirlik bilan bermoqda, ham kitobxonni o`ylashga majbur qilmoqda: nega tog`ning ko`zlari g`amgin?!  Javob she'rning o`zida yashirin: "qovjiragan sariq adirlar", "yurtim deb o`lgan pahlavonlar yotgan qabrlar", "nuragan tosh, qoya" satrlari tog`ning nega yig`layotganini izohlaydi.

Haqiqiy nazm nafaqat ruhiy zavqni,balki keng dunyoqarash va  kuchli bilimni ham talab etadi. Aks holda  bunday she'riyat mukammallik sifatidan yiroq bo`ladi. Ijodkor o`z tashbehlarining tabiiyligini,hayotiyligini ta'minlamoqchi bo`lsa,kuzatuvchan,tafakkur doirasi keng bo`lishi lozim. Shundagina u yaratgan

[91]Shavkat  Rahmon. Shu  manba.  – B. 47.
[92]Shavkat  Rahmon.Abadiyat oralab.  – Toshkent: Movarounnahr,  2012. – B.140.

misralar yolg`ondan yiroq,o`qiganda o`quvchining ensasini qotirmaydigan bo`ladi.Yuqoridagi “Tog` o`tirar vodiyda tanho”deya boshlanganshe’ridan olingan misralarda ham xuddi shunaqa bilimdonlikni,keng tafakkur mahsulini sezish qiyin emas.Shoir tabiat hodisalari mohiyatini o`xshatishlarida ustalik bilan qo`llaydiki,sherxon har bir misrada mantiqiy asos borligiga guvoh bo`lishi tayin.E’tibor qiling,tog`lar tepasidagi qorlarning erishi – tog`larning ko`z yoshlariga monand. Tashbeh va tashxis shoir maqsadi ifodasi uchun libos bo`lgan.

Shoirning Sulaymontog` bilan bog`liq “Sulaymontog`da o`ylaganlarim”,

“Sulaymontog` etagida o`ylaganlarim”she’rlarida o`tkir ijtimoiy dard, turkiylar iztiroblari oshkor berilgan. Shoirning hajv tig`i juda keskir. Sulaymon tog` qullasida Sutlon Mahmudxon qurdirgan hujrani buzdirganlar o`tkir konyak ichib, qazi yegan to`ralar ekaniga ishora qilib, ta’kidlaydi:

“E, afsus, shular ham xalqmi?”demadim.
O`yladim
yuksakka chiqqan chog`imda
o`z zotin, o`z otin unutganlarni,
qadimiy buloqlar ko`zini ko`mib,
azim daryolarni quritganlarni.
O`lsam-da yodimdan chiqmaydi biri:
Kibr-u havo bilan pastni kuzatib,
buzdirib tashladi yarim kechasi
to`rt yuz-u oltmish yil turgan hujrani[93].

Shoir hujrao`zga xalqning buyru`gi, o`z to`ralarimiz ijrosi bilan buzilganini o`ksib, g`azabga to`lib ayta bilgan. Bunday kirdikorlar tunda bo`lishini, ijrochilar xalq g`azabidan qo`rqishlarini ifodalash orqali xalqni g`aflatdan uyg`onishga unday olgan. Shavkat Rahmon – hujra voqeasi ko`magida manqurtlarga qarshi keskin jangga chiqa olgan shoir. She’rning 1983-yilda yozilgani shunday deyishimizga asosdir. Shoir mubolag`aning g`uluv ko`rinishidan foydalanib, shoirlik qudratini eslatadi:

Agar men baqirsam, yorilar osmon –
har damim olamning damin to`zitar.

Shunday qudratli shoirning boshi egik, chunki u hujrani qutqarib qololmadi, elning qadriyatini toptaganlarni o`z vaqtida to`xtatib qolishga ulgurmadi:

Ammo Baroko`hda boshim egildi,
qarashga or qildim
elning ko`ziga.
Ey mirzo,
boshimni qandoq ko`taray?!
Ey mirzo,
egikdir mirzolar boshi –
ko`tarib bo`lmaydi
oyoq tagida

---

[93]Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. – Toshkent: Movarounnahr, 2012. – B.82.

bo`lsa-da bahaybat tog`larning toshi.

She'r yakuni juda zarbli.Nido san'ati orqali mirzolarga – temuriylarga murojaat qilayotgan shoir bugunning mirzolari boshi o`z ma'nosida ham, ko`chma ma'noda ham egik ekanini ayta olgan. "Oyoq tagidagi bahaybat tog`larning toshi" o`z va ko`chma ma'nosida ham o`zini oqlay olgan.Inson bahaybat toshlar ustida tursa, o`zini qudratli his qiladi, bahaybat toshlar savlati uning ruhiyatiga ta'sir qiladi.Ayni damda, bizning xalq misoli tog`, uning cho`ng qoya misol allomalari bor, ular marhum bo`lsalar-da, tarix oldida haybatlidirlar.She'r tahlilidan shu narsa oydinlashadiki,shoir insoniyat muammolarini tog` obrazi vositasida ochib beradi.Bu hol kutilgandan-da a'lo natija bergan. She'rning badiiyati esa shoirdagi tafakkur olamining naqadar cheksiz ekanligidan nishona.She'rda har bir fikr yakunlanmas ekan, jumlalar kichik harf bilan berilaveradi.Yangi fikr bosh harf bilan boshlanadi. Shoir til qoidalarini fikr yaxlitligiga moslab, she'r shaklida o`ziga xoslikni yuzaga keltiradi. Shakldа betakrorlik bu bilan tugamaydi.Barmoq vaznidagi she'rni shoir erkin vazn shakliga keltiradi. Bundan muddao – zarur fikrlarni, xulosalarni ta'kidlash, ajratib ko`rsatish.Shakl ko`magida mohiyat chuqurlashgani shoirning mahorati demakdir.

"Sulaymontog` etagida o`ylaganlarim"she'rida ikki davr, ikki xil toifa qiyosi bor. Shoirning fikricha, diyonatli, orli ajdodlar, allomalar, jahongirlar, shoirlarSulaymontog` poyida ko`milishni orzu qilganlar. Bugun:

Sulaymontog` yuksalib turar
bir elatning buyuk yodiday,
hayron bo`lib poyiga bugun
kelguvchilar e'tiqodidan[94].

Ajdodlarimiz tog`ni ziyorat qilgan bo`lsalar, bugunning takabbur ziyoratchilari toshlarga nomlarini yo`zib, go`yo otlarini abadiylashtirmoqdalar. Shoir e'tiqodsizlikni qoralaydi va bu manzara orqali davron fojialarini ko`rsatadi:

Sulaymontog`,
muqaddas yodim,
ko`rsam yurak-bag`rimni dog`lar.
Betayinlar nomin ko`tarib
soat sayin o`sar qoyalar.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, Shavkat Rahmon she'riyatida tog` obrazi tabiatning mahobatli in'ikosi, ulug` va og`riqli tariximiz guvohi, ajdodlar yodi timsoli, or-nomusimizposbonisifatida o`z yelkasida zalvorli yuk, adabiy ma'nolarni tashiydi.

## OYDIN HOJIYEVA IJODIDA FOLKLORIZMLAR

**G.E.Egamberdiyeva**
*BuxDU magistranti*

[94]Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. – Toshkent: Movarounnahr, 2012. – B.191.

Sodda va xalqona ohanglarda kuylash Oydin Hojiyeva she'riyatida tutgan o`ziga xos yo`lidir. Shu boisdan ham uning she'rlari xalq qalbidan chuqur joy olgan. Biz quyida Oydin Hojiyevani xalq ijodiyoti bilimdoni sifatida xalq qo`shiq, aytim, yor-yor, o`lan, maqol, ertak, rivoyat va boshqa janrlarini badiiy ijodga omixta qilganini ko`ramiz.

Shoira "Ba'zan" deb sarlavha qo`ygan she'rlarining birida tanganing ham ikki tomoni bo`lganidek, hayotda inson olqish, maqtov ham olishi, tanbeh, dashnom ham eshitishi mumkin, shunday kunlarda inson o`ylab, fikrlab xulosa va hukm chiqarishi, ilqishga ham, tanbehga ham munosib javob qaytarishi, o`zini munosib tuta olishi kerakligini ta'kidlab, "Yetti o`lchab, bir kes" degan xalq maqolidan o`z fikrlarini asoslashda foydalanadi:

"Yetti o`lchab, bir kesgin" degan
Maqol tushar shunda esimga.
O`ylab ko`rsam goh yoqmas ekan
To`g`ri dashnom hatto o`zimga.

Muharrama oyi xotirasiga bag`ishlangan "Armon" she'rida inson borki, uning bu dunyoda orzu qilib erisholmagan va yoxud taqdir nasib etmagan armonlari bo`lishi muqarrarligi xususida so`z boradi.shoira mana shu armonni aslida yashashga undovchi kuch deydi. Boisi biriga yetmadimi demak boshqasiga erishish uchun harakat qiladi, qandaydir umid bilan yashaydi. Ona uchun farzandning o`zibir baxt bo`lsa, uning baxtini ko`rish ikki karra baxtdir.

Yelkalari tog`day-tog`day deng,
Yigit bo`lib ulg`aysa omon.
Ona deydi: baxti kulib o`ng
Uylantirsam yo`q menda armon.
To`y ham o`tar. Yil adog`ida
Shirinliklar sochar beshikdan.
Der: munkillab qolgan chog`imda
Kuyov bo`lib kirsin eshikdan.

She'rda ona o`g`lini uylantirib, undan nevara ko`rgach, o`zbek xalqi urf-odatiga ko`ra chaqaloqning hayoti ham shirin va totli, mazmunli va baxtli bo`lsin degan ezgu niyatda beshik ustidan shirinliklar sochish baxtiga ko`z tikadi.

O.Hojiyeva onasini eslab yozgan bir she'rida onasi tilidan aytilgan qo`shiqlarni eslab, o`zi ham shu qo`shiq ohangiga mos xalqona she'r yozadi:

"Oftob bilan so`ylashib turgin,
Gullar bilan bo`ylashib turgin,
Yellar bilan quvlashib turgin,
Oylar bilan sirlashib turgin!.."
Ovunardimqolar edim hovlida yolg`iz
Bugun nechun ovutguvchi so`zlar aytmaysiz?

Yoki:

"Qizil gul bandiday boylanayin men,
Senga balogardon saylanayin men.

Unib-o`s ko`zimning qorachug`ida
Atrofingda kunday aylanayin men!..”
Siz kuylagan bu qo`shiqning qadri buncha bilindi,
Kiprigimga sog`inch mezon uqdasidek ilindi.

Ulg`aygach yoshligida eshitgan bobo-buvilar pandini teran nigoh bilan anglab, hayot haqiqatini tushuna boshlagan shoira xalq maqollarining naqadar to`g`ri ekanligiga yana bir bor amin bo`ladi:

Go`dak edim, ko`p narsaga yetmasdi aqlim,
Bilganlarim bekinmachoq va to`ptosh o`yin.
Qulog`imga chalinardi keksalar naqli:
“Falonchimi, puch yong`oqqa to`ldirar qo`yin!”
Boshdan o`tgan tabib derlar. Ulg`aydim bukun,
Hikmatlarning mag`zin chaqib bo`lmasman hayron.
Keksalarning aytganlari ekan chippa- chin:
Boshda yong`oq chaqar ekan ba’zi bir inson!

She’rda “odamning qo`ynini puch yong`oqqa to`ldirmoq” hamda “boshda yong`oq chaqmoq” iboralari keksalar naqli, keksalarning aytganlari tarzida aytilsa-da ular lug`atda tayyor birlik sifatida qaralgani uchun xalq maqollari emas,shuning uchun ularni folklorizm namunalari deb ayta olmaymiz. Bu she’rda faqatgina “Tabib tabib emas, boshidan o`tgan tabib” maqolining bir qismi “Boshidan o`tgan tabib” tarzida qo`llangan va bu folklorizm bo`la oladi.

Shoira bir she’rida mehr elchisi bo`lib kelgan xatni o`qish asnosida qalbida kurashgan hislar jangini tasvirlar ekab, “Elchiga o`lim yo`q” degan xalq maqolini ishlatadi. Bunda o`zga bir kishiga bo`lgan ishonchsizlik uchun xatni ayblash o`rinsiz, ammo bu xat elchi ham bo`lolmadi ko`nglimni ololmadi deya nadomat chekadi:

O`lim yo`qdir elchiga azal,
Kim qo`ymabdi hikmatga ixlos?
Olomadi ko`nglimni bu xat,
Elchimas bu! Shunchaki qog`oz.

Yana bir she’rida insonning issiqdan ham, sovuqdan ham yaxshiga ham, yomonga ham qanoat qila olmasligi,ba’zan o`z yaqinlarimiz, o`zimizning xatolarimizni ko`rmay birovdan ayb axtaraveramiz degan savol bilan murojaat qilar ekan, bunga “Qo`l sinsa – yeng ichra”, ya’ni qo`l sinsa yeng ichiga bukiladi maqoli bilan javob ham beradi:

Birovni shu alfoz ko`rsak mabodo
Pisandaga yuz xil so`zlar topamiz.
“Qo`l sinsa – yeng ichra” deganday dono
Aybu xatomizni nega yopamiz?

Qishning achchiq izg`irinlari zahri butun tabiatni, xususan, insonlarni ham undan bezdirib qo`yadi xalq tili bilan aytganda zimiston(qorong`ulik)dan so`ng bahor(yorug`lik)ka intiq qalblar uni o`zgacha bir sevinch bilan qarshi olishadi. Uning ilk darakchilaridan bo`lmish boychechakni ko`rib “omonliq, esonliq…”

shukronasini aytishadi. Shoira ham bir she'rida boychechakka bag`ishlangan xalq qo`shig`ini eslaydi:

“Boychechagim boylandi” deb
Aytib o`tsa bolalar.
Ko`zlariga surtsin seni
Hamalga o`ch dalalar.

Shoiraning Saida Zunnunovaga bag`ishlangan she'rida xalqning xosiyatsz tushni suvga ayt, suv oqizibsendan yiroqlarga olib ketsin degan e'tiqodiy qarashlar bilan bog`liq, shuningdek, xalqning oyni farzand ramzi sifatida e'zozlashi, kelinsalom-u chaqaloqqa aytiladigan alla kabi xalq an'analari tilga olinadi:

Tushlarini suvga aytib majnuntollar egilsa,
To`lin oyning chashmasidan oq xayollar to`kilsa,
Kelinchaklar salomidan surur, visol o`qilsa,
Onalarning allasidan nur istiqbol o`qilsa,
Shu hayotning Saidasi jonon so`zli sozi shu!

Yana bir she'rida ila hakkaning qag`illashi bir kulfat yo shum xabar alomati deb qaragan xalqning unga qarata “xushxabar aytgin” degan so`zlari bilan bog`liq e'tiqodiy qarashlardan tabiat tasvirini chizishda foydalanadi:

Tong bilan qora mayna
In talashib chag`illar.
Olcha shoxida o`ynab
Ola hakka qag`illar.
“Xushxabar” deb qo`yadi
Poliz oralab bog`bon.
Suvda tumshuq chayadi
Musichalar qadrdon.

2-jahon urushi yillarini iztirob-u mashaqqatini bir ota hayoti misolida ochib berganida bu kunlar hali unutilib ketadi. Qish ortidan bahor kelganidek, qayg`u va sabr ortidan ham yorug` va yaxshi kunlar kelishi muqarrarligini “Oyning o`nbeshi qorong`u, o`n beshi yorug`” degan xalq maqoli bilan asoslaydi:

Oyning ham o`n beshi bo`larku yorug`,
Yaxshi kunlargacha yetolsak omon.
Hali to`ylar bo`lar elda xushdovrug`
Jujuqlar baxtiga kelar bir zamon!

Oydin Hojiyevaning deyarli har bir she'ri xalqona ohang, xalqona ifodaning ruhi bor. Xalq yo`lida aytilgan, haq yo`lida aytilgan maqollarni she'riyatda hech bir ijodkor O.Hojiyevachalik sermahsul qo`llamagan desak, hech mubolag`a bo`lmaydi. Xalqona ruhning ustuvorligi Oydin Hojiyevaning chinakam Xalq shoiri ekanligidan dalolatdir.

## NAVOIYNING “AYNUL HAYOT” QASIDASIDA ILOHIYOT TASVIRI

**M. Ibroimova**

*BuxDU magistranti*

"Aynul hayot" qasidasida asosan, Me`roj tuni tasvirlangan va alohida yo`l tanlangan. Qasida 106 baytdan iborat, ammo shundan 40 bayti bevosita Payg`ambar(SAV)ning Arsh tomon ko`tarilishlariga bag`ishlangan xolos. 66 bayt esa ana shu Me`roj kechasining tasviri, yani Rasululloh yo`lga chiqqunlarigacha bo`lgan osmon holati, sobit va sayyora yulduzlar, yer ashyolari bir-bir yasvirlanadi. Go`yo butun Koinot, falak, Muhammad Mustafo(SAV)ning Me`rojiga tayyorgarlik ko`rayotgani, rostlanib, bezanib, shukuhlanib, intizorlik bilan kutayotgani bayon etilgan. Zero, bu alohida Tun, Parvardigor o`z Rasuli, habibi bilan diydor ko`rishgan fayzli, jozibali Tun edi. Buni asarning birinchi baytidayoq sezish mumkin:

Hojiboni shab chu shodurvoni savdo afganand,
Jilva dar xayli butoni mohsiymo afganand

(Tun hojib—pardadorlari savdo chodirlarini ko`rganda, oy yuzli go`zallar xayliga jilva—nur tushiradilar)

Tashbih va tasvirning go`zalligini qarang! Bu o`rinda savdo tayyorgarlik, faol harakat ma`nosini anglatadi. Hojib so`zi pardadordan tashqari, qo`riqchi farishtalar ma`nosini ham ifodalaydi. Oy yuzli go`zallar—sayyoralar. Demak, tun farishtalari taraddudga tushib, shohona chodirlar qurib sayyoralarni bezatdilar, demoqchi shoir.

Keyingi bayt:

Sad hazoron kirmi shabtob az shabistoni sipehr,
Lam`aho bar pardai shabguni g`abro afganand.

(Osmonning toqidan yuz minglab yaltiroq qurtlar—yulduzlar yerning qorong`i pardasiga yog`dular to`kadilar.)

Shu tariqa, tasvir boya "Ruhul quds" qasidasida bo`lganidek, ikkiyoqlama davom etadi: bir tomondan, g`oyat original tashbih va istiora, eyhomlar bilan osmon jismlarini ta`rif etish; ikkinchi tarafdan, osmon jismlari yerdagi ashyolarni inson idrokiga, hayotga yaqinlashtirib, jonlantirib baytlar tuzish. Go`yo samoviy jismlar ham obraz va ham moddiy mavjud ashyoday taassurot qoldiradi o`quvchida. Bilamizki, qadimda osmon jismlari—sayyoralar, yulduz turkumlari, burjlar turli xislat va xususiyatlarga ega deb qaralgan. Ular inson taqdiri hamda hayot hodisalari bilan vobasta qilib tushuntirilgan va ko`pining nomlanishi hayvonlarning nomi (qisqichbaqa, ho`kiz, chayon, baliq kabi) yoki insonga kerak ashy ova asboblar (dalv, tarozi) yoinki inson kasb-kori (komon otuvchi kabi) bilan bog`liqdir. 0navoiyda osmon jismlari ruhlar makoni, farishtalar joyi ular go`yo tirikday tasvirlanadi. Ushbu qasidaning umumiy ruhi bir xushnudlik, farahbaxshlik bo`lgani uchun har bir bayt mazmunida ham bu seziladi. Koinot, borliqni Alloh yaratgan, jamiki hammasi Allohga tasbeh eytadi. Biroq Me`roj kechasida ular Alloh habibining tashrifidan junbishga kelgan va xuddi jonli olamday bu hodisadan sarafrozdirlar.

Mana bu tasvirga diqqat qiling:

Ashkrezon na`sh bar do`shi banot az so`gi mehr,
Jumla bar sahro parandi anbaroso afganand.

(Yetti og`ayni yulduzlarning har biri mehr-u muhabbat yig`isidan bir-birining quchog`iga bosh qo`yib, ko`z yoshi to`kadilar; hammasining boshida anbar hidli harir yopilgan.)

adimgi ilmi nujumda Yetti og`aynini Dubbi akbar (Katta ayiq) yoki Banotunna`sh deganlar. Banotunna`sh—o`lik birodarlar degani aslida. Ammo ana shu o`lik jismlar ham Me`roj tuni jon hosil qilib, shodlikdan mehr yoshi oqizib, anbar hidli harirga o`ranib, Rasulullohni kutmoqdalar, deydi Navoiy.

Yoki mana bu baytni olaylik:

Qutb chun pire batamkin v-axtaru anjum samo`,
Chun muridon girdi pire poybarjo afkanand.

(Qutb yulduzi xuddi vazmin pir kabi, yulduzlar esa uni eshitish uchun muridlarday o`rtadagi pirni o`rab olganlar.

Bu tasvir tariqat ahli xonaqohlaridagi majlislarga ishoradir: pir vazmin va tamkin bilan o`rtada o`tiradi, muridlar uning atrofida tavoze` bilan o`tirib suhbatini tinglaydilar yoxud raqs-u samo` uyushtirib ilohiy jazba nasibasini topadilar.

Shunaqa chiroyli tashbihlar bilan osmon jismlaridan Mirrix, Mushtariy, Oy, Zuxra, Nasri voqe` (Burgut), Savr(Ho`kiz), Surayyo, Qavs(O`q otar)larning xususiyatlari qalamga olinadi.zuxraning cholg`uvchiligi mutrib va mug`anniylarni atrofida jamlagani, kamonchining nayza bilan Echki(burj nomi)ni sahroga quvgani va boshqa jonli tasvirlar, shu kabi yulduzlar, falak posboni sifatida Yerda odamlar orom olib uxlasin uchun uyg`oq turishi haqida so`z boradi, ammo odamlar orasida shundaylari ham bo`rki, tunlarni bedor o`tkazadilar:

G`ayri ushshoqi balokash, k-az g`ami hijron chu man,
Na`rai "vohasrato"bar charxi mino afganand.

(faqat men kabi oshiqlar bundan mustasno, chunki ular hijron g`amidan "vohasrato" na`rasini charxning nilgun gumbazidan o`tkazadilar.)

Ha, iloh oshiqlari tunlarni nola chekib o`tkazadilar, ma`shuqa—Xudovand yodida yonadilar. Navoiy o`zini mana shu balokash oshiqlar zumrasiga qo`shgan, zero, shunday bo`lmaganida, Navoiy bunday otashin hislar og`ushida qaynab, o`lmas asrlar bitmagan bo`lardi.

Alisher Navoiy bunday "ishq-u vafo" ahli bo`lgan oshiqlar tavsifini davom ettiradi:

Z-obi chashmi hasrat avvl doda zohirro vuzu,
Otash az botin ba joni noshikebo afganand.
Z-ohi hasrat parda bar ruxsorai axtar kashand,
Z-ashki maxjuri xalal dar toqi hazro afganand.
Chun ba tavfi ravzai xilvatgahi dil ro` nixand,
Burqai nomahrami bar ro`yi huro afganand.

(Zohir tanani avval hasrat ko`z yoshlari bilan tahorat qilib, poklaydilar, sabrsiz jonga botin olovini yuboradilar. Oh-u hasrat bilan yulduz yuziga parda tortadilar, ayriliq azobi yoshlari bilan osmon oynalari gumbazini teshadilar;agar

ko`ngilning xilvatxonasi tavofiga yuz bursalar, hurler yuziga nomahramlik pardasini soladilar.)

Demak, soir tungi osmon tasviridan yerga ko`char ekan, gapni tunlari bedor oshiqlar ahvolini bayon etishdan boshlaydi. Oshiq soliklar ahvoli yana bir necha baytda davom etib, so`ngra tong saharda shoh mulozimlarining nog`ora chalishi, g`aflat yotgan ulus, nasroniylarning kalisolarga ibodat uchun borishi, rohiblarning monastir—dayrda uyg`onib, butparastlikka mashg`ul bo`lishi, muazzinlarning “Allohu akbar” deb bong urishi tilga olinadi. Ya`ni yerdagi turli e`tiqoddagi odamlar hayotining boshlanishi ko`z oldimizga kelaveradi. Shoir hatto mayparast rindlar, yorini kutgan yigit-qizlar holatini ham chiroyli qilib chizadi.

El uyg`onganda, har biri o`z maqsad yo`lida ishga kirishib ketadi. Ammo shu o`rinda ham Navoiy ikki toifa odamlar—haqparast solihlar va shahvatparastlarni ajratib ko`rsatishni lozim topadi: shahvat va gunoh ahli ojiz, ular gunohlarini yashirish uchun o`zlarini suvga uradilar, shoshib yuvinadilar, holbuki, haqparast poklar masjidga yo`l olib, joynamoz ustida toat qiladilar. Qozi-yu mufti va boshqa isbot-u isnotga o`rgangan zohirbin olimlar harifni mot qilish uchun yuzni yuvmasdan kitob juzvlariga tashlanadilar. Qozilar dargohidagi kofir hodimlar bir qism kumush uchun yuz musulmonning uyini buzishga fatvo chiaradilar.

Shu tariqa har xil toifadagi odamlarning nomunosib va nodurust xatti-harakatlari bayon etiladi. Savdogarlarni A.Navoiy “devmardum”(devsifat odamlar) deb ta`riflaydi. Chunki, deydi u, bu toifa qaroqchilar guruhidan qolishmaydi, ular bozorga firib va aldov uchun uya qurib olganlar. Savdogarlar:

Dar zamoni bay` chun tug`yon kunat “insofashon”
Buryoro tuhmati zarbaft kolo afganand.

(Savdo vaqtida “insoflari” tug`yon etganda, bo`yrani zarbof mato deb pullaydilar.)

Qanchalik zaharxanda, kinoyali kesatiq bor bu baytda!

Qasidaning yana pok tiynatli taqvodor insonlarning ajz-u niyozi, yolg`iz Allohga pok dil bilan intilishlari bayon etilib, shundan so`ng Payg`ambar Me`roji tasviriga o`tiladi:

Xojai kafnaynu faxri anbiyo, k-azhobi o`,
Soya bar xurshid, bal arshi muallo afganand.
Gardi rohash axtaron dar didayi ravshan kashand,
Xoki poyash ravshanon dar chashmi bino afganand.

(Ikki dunyo xojasi, anbiyolar faxrikim, uning suhbatdoshlari Quyoshga, balki baland Arshga soya soladilar. Uning yo`lining g`uborining yulduzlar ravshan ko`zga surtadilar, oyog`i tuprog`ini ravshan ko`zlilar ko`ruvchi ko`zga qo`yadilar.)

Jannat hurlari peshvoz chiqib, bihisht eshigini supuradilar va mushki anbar sepadilar, bezanib qarshi oladilar. Me`roj kechasi Arsh ahli Payg`ambar otining poyandozi qilib yulduz durlarini sochadilar. Falakni kezuvchi Buroqini yetaklab borarkanlar, egarini javzou, egarpo`shini mehr(quyosh)dan qilganlar. Bir emas, yuz ming quyosh uning quyoshi oldida so`nadi, chunki u ham risolat(rasullik), ham nubuvvat (payg`ambarlik) sohibidir.

Osmon jismlari yana tilga olinadi. Endi ular Me`roj bilan Muhammad Mustafo (SAV)ning sayri bilan bog`lab tasvirlanadi.

Mana bu bayt xarakterli:

Az ahodisat "sahihe"ro ravot andar raqam,
Bo rubob az haddi Batho to Buxoro afganand.

(Agar hadislaring sahih yo`l bilan raqam qilinsa, durust yo`ldan Makkadan Buxorogacha yetib keladi.)

Bunda Imom Buxoriy va uning shoh kitobi "Jome`us sahih"ga ishora bor. Imom Buxoriy kabi Buxoro Makka kabi sharif bo`ldi, Payg`ambar hadislari makoniga aylandi, demoqchi Navoiy.

"Aynul hayot" qasidasida Payg`ambar sifatlari madh etilib, oxirida Navoiy o`zining sodda ummatlardan ekanligini aytib, u kishidan shafoat etishlarini so`raydi va qasida 106 baytdan iborat ekanligini so`z orqali ishora qiladi. Ya`ni "obi baqo" so`zining harflari abjad hisobida bir yuz olti bo`ladi.

Qasidada Navoiyning san`atkorligi, keng qamrovli shoirona nigoh bilan qalam surishi kishini lol qoldiradi va u qalbga huzur bag`ishlaydi.

"Aynul hayot" qasidasi "Ruhul quds" qasidasining davomiday yangraydi. "Ruhul quds"dagi vahdatul vujud g`oyasi, koinotni keng olib tasvirlash bunda ham mavjud. Faqat bunda sayyora va yulduzlarning xossalarini qo`shib tasvirlash, yerdagi va insonlarga tanqidiy munosabat alohidalik kasb etgan. Navoiy Komil inson Muhammad rasululloh(SAV)ni otashin muhabbat bilan alqaydi, shoirning Xudoga bo`lgan muhabbati Payg`ambarga bo`lgan muhabbatida davom etadi. So`fiyona tuyg`ular, qarashlar nabi na`tining ichiga singdirilib, shu nigoh mavqeidan "gunohkor" Yer bandalarining nojoiz xulq-u atvori tanqid qilingan.

Qasida shu uchun ham o`quvchiga kuchli ta`sir etadi.

## DAVOLASH MAGIYASIGA ISHONCHDAN SHAKLLANGAN XALQ AYTIMLARI POETIKASI

**D.O'rayeva**
*BuxDU O'zbek adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d.,*
**O'.Fozilova**
*Adabiyotshunoslik yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

*Maqolada xalqimizning davolash magiyasiga ishonchi bilan bog`liq poetik aytimlarning ayrim badiiy-kompozitsion hamda lokal xususiyatlari yoritilgan. Ularning genezisi, janriy tarkibi, mazmuniy rang-barangligi haqida fikr yuritilgan.*

Tibbiyot shakllanguncha odamlar kasalliklarni u yoki bu ko'rinishdagi mifik mavjudot, inson tanasi va ruhiyatiga zarar yetkazuvchi yovuz kuch sifatida tasavvur qilishgan. Mana shunday mifologik tasavvur-tushunchalar tufayli ularga murojaatdan iborat turli aytimlar paydo bo'lgan va og`izdan-og`izga, avloddan-avlodga o'tib, asrlar davomida badiiy-kompozitsion jihatdan sayqallanib kelgan.

Qizig`i shundaki, hozirgi paytda tibbiyot yuqori darajada rivojlangan bo'lishiga qaramay, xalq orasida davolash magiyasiga ishonch asosida yaratilgan poetik aytimlarning, urf-odat va magik marosimlarning saqlanib kelayotgani e'tiborni tortadi.

O'zbek folklori tizimida insonning turli kasalliklarga hissiy munosabatini o'zida badiiy ifoda etgan davolash magiyasiga ishonch bilan bog`liq bunday poetik aytimlar, birinchidan, odamzod badiiy tafakkurining yorqin namunalari sifatida, ikkinchidan, hanuzgacha xalq hayotida amalda ekanligi bilan, uchinchidan, hozirgi shiddat bilan kechayotgan voqeliklarga daxldorligi bilan muhim hisoblanadi. Zotan, ular insonlarni hushyorlikka, ehtiyotkorlikka, sog`lom turmushga va poklikka da'vat etishi bilan ham ahamiyat kasb etadi.

Davolash magiyasiga ishonch bilan bog`liq poetik aytimlar ijtimoiy hayotda aniq maishiy ehtiyoj munosabati bilan yaratilgan. Ma'lum hissiy sharoitdagina ularga tayaniladi.

Davolash magiyasiga ishonch bilan bog`liq poetik aytimlarni tadqiq etish orqali qadimgi insonlarning turmush tarziga oid maishiy detallarni, magik marosimlar hamda poetik tafakkur taraqqiyotining ilk qatlamlariga mansub mifologik ishonchlar bilan tutash obrazlarni, totemistik, animistik, shomonlik, magiya bilan bog`liq tasavvurlarning izlarini aniqlash mumkin. Ular o'zida xalqning turli e'tiqodiy qarashlarini, ishonch-tasavvurlarini badiiy talqin etganligi jihatidan poetik fikr tadrijiy taraqqiyotini o'rganish imkonini yuzaga keltiradi.

Xalqimiz orasida davolash magik marosimlari har xil rasm-rusmlar asosida turlicha tashkil etiladi va ularning mazmuniga muvofiq keladigan rang-barang irim-sirim qo'shiqlari bilan bog`liqlikda o'tkaziladi. Bunday aytimlar juda ko'p bo'lib, joyiga qarab lokal xususiyat kasb etadi.

E'tiborli jihati shundaki, davolash magiyasiga ishonch bilan bog`liq poetik aytimlarning har biri o'z kelib chiqish tarixiga, qo'llanish o'rniga va paytiga ega bo'lib, bir-biridan farqlanib turadi. Masalan, kishi biror voqea-hodisadan qattiq qo'rqsa yoki uyqusida dahshatli tush ko'rib, qattiq bosinqirab uyg`onsa, bunday holatlarda xalq orasida "yurak ko'tarish" yoki "yurak solish" marosimi o'tkaziladi. Bu marosimni tashkil qilib o'tkazuvchini dilbardor, yurak ko'taruvchi, yurak soluvchi deb ataydilar. Tibbiyot nuqtai nazaridan ham inson to'satdan qo'rqishi natijasida turli kasalliklarga uchrashi asoslangan.

Marosimni o'tkazish uchun dilbardorga chavut yoki uvada paxta (yostiq yoki ko'rpa-ko'rpacha ichiga solinganiga ancha vaqt bo'lgan eski paxta), muzlatgichda saqlanmagan va inkubatsiya tovug`i tug`magan, ya'ni uy tovug`i tuqqan xonaki tuxum, qozonqora (qozonkuya) kabi bir necha predmetlar kerak bo'ladi.

Yurak solish marosimi jarayonida dilbardor, avvalo, tuxumning sarig`ini oqidan alohida ajratib oladi. So'ngra yuzini tepaga qaratib uzala yotgan bemor yuragi ustiga paxtani ikkiga ajratib, ya'ni o'rtasini ochib yopib qo'yadi va ustidan tuxumni soladi. Tuxumni solgach, ko'rsatkich barmog`i bilan uni birpas aylantirib turadi. Keyin uning ustidan qozonqorani sepadi. (Ba'zilar yurakka asal ham boylaydi). Yurak soluvchi kishi bemor ko'ksini qo'li bilan bosib, ishqab balandga

ko'taradi, bu bilan joyidan sal pastga siljigan yurakni go'yo joyiga tushiradi. So'ng yurak ustini katta ro'mol bilan bog`laydi. Bu ishni duch kelgan kishi bajara olmaydi. Qo'li em sanalgan, ustoz ko'rgan kishi bo'lishi zarur. Yurak soluvchi marosimni yakunlagach, quyidagi olqishni aytadi: "Ilohi omin, qilgan emimiz em bo'lsin, pirlar madadkor bo'lsin. Qilgan emimizni xudo qabul qilib, bemorimiz sog`ayib ketsin. Otday bo'lsin! Tog`larda yugurib yurgan kiyikday bo'lsin! Toshdan toshga sakraydigan ohuday bo'lsin!" Marosim davomida aytilgan bunday olqishlar orqali bemor ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish nazarda tutilgan.

Odatda, afsunxon marosimning har bir jarayonini olqishlar bilan boshlaydi va nihoyalaydi. Olqishlarda Olloh va pirlardan madad so'raladi. Davolash magiyasi bilan bog`liq marosimlarda afsonaviy tabib Luqmoni Hakim nomi ko'p bora tilga olinadi. Uning qo'llab-quvvatlashidan umid qilinib, shunday deyiladi: "Dard bergan xudo, davosini ham bersin. Oloh yor, pirlar madadkor bo'lsin. Luqmoni Hakim qo'llasin. Mani qo'limmas, pirlarimning qo'li. …" .

Quyidagi aytim quloq og`riganda aytiladi:

Bulbuli go'yo,
Bulbuli go'yo,
Xat keladi-yu,
Ko'z tegadi.

Quloq og`riganda ushbu to'rtlik uch marta takror-takror aytilsa, quloq og`rig`i asta-sekin pasayishiga ishonilgan. To'rtlikdagi o'ziga xos she'riy shakl va ohang ritm bilan ta'sirchanlikni uyg`unlashtirishga xizmat qiladi. O'z-o'zidan ma'lumki, she'riy shakl muayyan vazn va qofiyaga tayanadi. Shu jihatidan bunday aytimlar xalq og`zaki ijodining o'ziga xos namunasi bo'lib ulgurgan.

Davolash va so'z magiyasiga ishonch asosida yaratilgan aytimlar orasida "temiratki" kasalligi bilan bog`liq poetik namunalarni ham uchratish mumkin. Masalan:

Temiratki ag`o keldi,
Shamning qarosi
Uni quritgani keldi,
Gar bandigar gar gujon
Pishdi xari lo'lujon
Hamrokanat ko'chkaras,
Tuyam ko'chkin, suff!
Temiratki yetti qara,
Yetti kunda ketmasang,
Beting qora!

Kogon tumani Tun-iroq QFYda yashovchi 76-yoshli Qodirova Matlab buvidan yozib olingan ushbu aytimda kasallikni "ag`o" deya yaqin olish orqali uning tilini topish, yaxshi so'z bilan bemor tanasidan chiqib ketishi, ko'chishi uchun ko'ndirish ko'zda tutilgan. Ushbu kasallikning belgisi shuki, inson tanasining teri sohasida yiringli yaralar paydo bo'ladi. Shuning uchun unga davo tilash maqsadida aytiladigan aytimning ikkinchi misrasida shamning qorasi uni quritgani kelgani bildiriladi. Keyingi qatorlarda esa kasallik "hamrohlarining

ko'chganligidan ogoh etiladi. Endi u ham ketishi zarurligi, agar yetti kun ichida ketmasa, beti qora bo'lishidan ogohlantiriladi.

Xalq tabobatiga aloqador kinna, badik, avrov, ko'chiriq, burey-burey singari aytimlarning folklorga aloqador alohida, mustaqil janr sifatida qaralishiga asos shuki, ular o'ziga xos ma'no-mazmunga, ijro xususiyatiga egaligidan tashqari, muayyan badiiy-tasviriy, ifodaviy vositalar, usullarga ham egadir.

Davolash magiyasiga ishonch bilan bog`liq poetik aytimlar qatorida "Shifo bergin" aytimi alohida o'rin tutadi. Uning ijrosi marosimning estetik ta'sirchanligini yanada oshirishda ahamiyat kasb etadi.

Bergin shifoyi komil, Yo Rab o'zing opama,
Kengdur karaming Alloh, bergin shifo opama.
Bu keng yorug` jahonda yolg`iz bitta opam bor,
Sendek qodir Xudodan so'rdim shifo opama.
Bizdek ozchil g`ariblarga qilgin o'zing muruvvat,
Yig`lab tangrim, so'rayman bergin shifo opama.
Norasida go'dakka kelsin, Xudoyo rahming,
Shu go'dak tufaylidan bergin shifo opama.
Oltin bilan kumush-zar, mol-u dunyo so'ramayman,
Salomatlik so'rayman, bergin shifo opama.
Borliq, hayot-mamotning egasi o'zingdursan,
Senga oson, ilohim, bergin shifo opama.
Haqsan o'zing ilohim, har yerda hozir-nozir,
Rahm ayla, Xudoyim, bergin shifo opama.
Fozil bandang ilohim, jigarim deb yig`laydi,
Jigarimga ilohim, bergin shifo opama.

"Shifo bergin" aytimi Ollohga munojot tarzida bo'lib, Ollohning sifatlarini ta'riflash orqali uning madadiga umid qilib aytilgan. Yaratgandan bemor tanasidagi barcha ziyon-zahmatlarni, kasalliklarni daf qilish uchun yordam so'ralgan.

Ko'zga govmijja (Qorako'l va Olot tumanlari aholisi o'rtasida "ittirsak" ham deyiladi) chiqqanda bir necha irim-emlar amalga oshiriladi. Shunday emlardan biri Bozorova Iqlima buvidan yozib olindi. Unda aytilishicha, ko'zga govmijja chiqqanda tol daraxtiga bitta mixni qoqib, orqaga qaramay yugurib ketish kerak. Shundan keyin govmijja o'sha kishidan butunlay ketadi. Ba'zi joylarda esa govmijja bilan og`rigan bemor ertalab turib, itga salom beradi yoki ko'ziga itning tirsagini tekkizib oladi.

Xullas, qadimgi kishilar hali kasalliklarning kelib chiqish va tarqalish sabablarini bilmagan davrlarda unga yomon ruhlarning zarar yetkazi deb qaragan. Davolashning aniq usul va choralarini bilmagan kishilar najot izlab Yaratganga va aziz avliyolarga murojaat qilishgan. Shu murojaat aytimlari orqali turli kasalliklarning oldini olishga, ularni davolashga harakat qilishgan. Hatto bunda ayrim jonzotlarning madad berishidan ham umid qilishgan. Xalq tabobatiga aloqador aytimlar xalq maishiy va ma'naviy hayotining barcha jabhalarini qamrab

olgan. Xalq ulardan “ruhiy terapiya” vositasi sifatida asrlar davomida ruhiy davolash yo’lida foylanib kelgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**


1. Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуоларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. – Т.: Истиқлол, 2006. – 95 б.
2. Фрезер Д.Д. Золотая ветвь. – М.: Политиздат, 1983. – С.250.


# O’ZBEK ADABIYOTIDA TARIXIY INVERSIYA VA FOLKLOR XRONOTOPIDAN FOYDALANISH AN’ANAVIYLIGI


**D.O’rayeva**
*BuxDU O’zbek adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d.,*
**N.Xudoyberdiyeva**
*Adabiyotshunoslik yo’nalishi II bosqich magistranti*



*Maqolada o’zbek adabiyotida tarixiy inversiya va folklor xronotopining nazariy mohiyati hamda undan poetik maqsadlarda foydalanishning an’anaviyligi yozuvchi mahorati bilan bog`likda yoritilgan.*


**Inversiya termini** *lotincha “*inversio” – o’rin almashtirish degani bo’lib, ham tilshunoslikda, ham adabiyotshunoslikda qo’llanadi. Tilshunoslikda gap tarkibidagi so’zlarning to’g`ri, odatdagi tartibini o’zgartirish; gap bo’laklarini teskari tartibda qo’llash orqali *n*utq ta’sirchanligini oshirish, adabiyotshunoslikda esa zamon tartibini o’zgartirish bilan o’ziga xos badiiy tasvir yaratish maqsadida inversiyadan foydalaniladi.

Adabiyotda tarixiy inversiya va folklor xronotopidan poetik maqsadlarda foydalanish antik davr romanlaridan boshlangan bo’lib, hozirgi romanchilikda ham davom ettirib kelinmoqda. Bu esa uning muayyan an’anaviylikka egaligidan dalolat beradi.

Xronotopda zamon harakati o’z aksini topadi. Uning harakati o’tmishdan kelajak sari yo’nalganligi bilan xarakterlanadi. Ammo ba’zan badiiy asarlarda zamon harakati teskarisiga, o’tmishdan kelajak sari emas, balki kelajakdan o’tmish sari yo’naltirilgan ko’rinishda aks ettirilganligi kuzatiladi. Xuddi mana shu holat adabiyotshunoslikda “tarixiy inversiya” nomi bilan yuritiladi.

Ma’lumki, real voqeliklarning barchasi zamon harakati va zamon holati bilan bog`liq bo’ladi. Ular o’tmish va kelajakka daxldorligi anglashilib turadi.

Aytish kerakki, folklor xronotopining ildizlari xalqona-mifologik qarashlarga borib taqaladi. Uning jannat va do’zax kabi zamon va makon shakllari tushunchalari hali keskin ijtimoiy-siyosiy tabaqalashuv yuz bermagan davrlarda shakllangani uchun ular faqat insonning ezgu amallariga qarab taqsimlangani ayonlashadi.

Ijtimoiy ziddiyatlar qachon, qaerda, qaysi shaklda davom etmasin, vaqt o’taveradi va zamon yo’nalishi kelajakka tomon boraveradi. Badiiy asarlarda esa

shu ijtimoiy ziddiyatlar qanchalik chuqur, izchil, mukammal, keng va jiddiy yoritilsa, zamon ham shuncha chuqur his qilinadi. U, o'z navbatida, badiiy shakl va obraz taraqqiyotiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan omilga aylanadi.

M.Baxtin ta'kidlaganiday: "Bunday o'ziga xoslik, birinchi navbatda, "tarixiy inversiya" atalmish hodisada namoyon bo'ladi".[95] M.Baxtin "tarixiy inversiya va folklor xronotopi" nazariyasini adabiyotshunoslikda ilk marta romanlar misolida ilmiy-nazariy jihatdan alohida o'rganib, uning o'ziga xos xususiyatlari, belgilari, vosita va badiiy mezonlarini ochib bergan.

Tarixiy inversiya deganda, mohiyatan insonning o'tmishdagi mifologik va badiiy tafakkuri doirasida kelajak hayot va jamiyat haqidagi orzu-maqsadi, adolat va barkamollik to'g`risidagi ideali asosida yaratilgan jannat va do'zax, Oltin asr borasidagi miflar – tabiiy holatlar ifodasi tushuniladi. Yanada aniqroq aytganda, tarixiy inversiya o'tmish voqeligi emas, kelajak maqsadi va voqeligi hisoblanadi. U orqali badiiy asarda nimaiki o'tmishda bo'lib o'tgan deya tasvirlansa, aslida kelajakda ro'y berishi mumkinligi bildiriladi.

Badiiy asarda tarixiy inversiya ifodasi uchun bir necha badiiy-kompozitsion vositalar xizmat qiladi. Ular orasida eng keng tarqalgani tushdir. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Otabek tush ko'radi. Tushida sariq sigir gulzorga kirib, gullarni toptayotgan emish". Bu tush aslida oldingi va keyingi voqeliklarni bog`lovchi halqa bo'lib, uning vositasida Zaynab tomonidan Kumushning zaharlab o'ldirishiga oldindan ishora qilinadi. Bunda gulzor oila, uni toptagan sigir esa Zaynab, toptalgan gul Kumush obrazining timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Ko'rinadiki, bunda kelajak voqeligi tush vositasida oldindan ayonlashtirilmoqda. Zamonning bu tarzda inversiyalashtirilishi, o'rin almashinuvi insoniyat badiiy tafakkurining ilk taraqqiyot bosqichlariga xos mifologik va poetik fikrlash tarziga mos xarakterda ifoda etilgan. Bunda tush Kumush, Otabek va Zaynab yashagan ijtimoiy davr, zamon voqeliklarining qahramonlar hayotiga ta'siri, ularning kelajagi haqidagi tasavvur-tushunchalarni belgilashga xizmat qilgan. Tush voqeligi "bor" hamda o'tgan ("bo'lgan") zamonga tegishli bo'lsa-da, kelajakka tegishli ekanligi bilan e'tiborni tortadi. U reallikni o'ziga xos ramzlar orqali ifodalashi, ko'pincha kelajak voqelariga ishora qilishi bilan ahamiyat kasb etadi.

Davr kishisi uchun o'tmishning chegarasi hozirgacha deb belgilanishi aniq, ammo unga kelajak chegarasi noma'lumdir. Insonga, odatda, o'tmish va kelajak uzun bo'lib tuyuladi, hozir esa go'yo qisqadek. Kishi o'tmish haqida o'z ajdodlari qoldirgan moddiy va ma'naviy meros ob'ektlari orqali bilib olsa, hozirni ko'rgan-kechirganlari vositasida anglaydi, biroq kelajak uning uchun mazmun aniqligidan xoli bo'lganligi bois u haqda turli tasavvurlarga boradi. Baxtin fikricha, shu tariqa barcha ijobiy, ideal, kerakli, kutilgan narsalar inversiya yo'li bilan o'tmishga, ba'zi hollarda hozirga tegishli hisoblanadi".[96]

---

[95] Бахтин Михаил. Романда замон ва хронотоп шакллари. Тарихий поэтикадан очерклар. Рус тилидан Узоқ Жўрақулов таржимаси. – Тошкент: "Академнашр", 2015. – Б.121.

[96] Бахтин Михаил. Романда замон ва хронотоп шакллари. Тарихий поэтикадан очерклар. Рус тилидан Узоқ Жўрақулов таржимаси. – Тошкент: "Академнашр", 2015. – Б.123.

Qiyomat yoki oxirat, sud kuni kabilar ham kelajakka daxldor shakllardan biridir. Kelajak bunda barcha mavjudot, butun borliqning intiho topishi, tugashi, halokatga uchrashi sifatida tushuniladi. Romanchilikda tarixiy inversiya va folklor xronotopidan taniqli qirg`iz adibi Ch.Aytmatov “Qiyomat”, “Oxirizamon nishonalari” yoki “Kasandra tamg`asi” singari romanlarida mahorat bilan foydalana olgan. Bu romanlarda real kelajakning vayron qilinayotganligi tasvirlab berilgan. ulardagi har bir voqelikning natijasi real kelajakka borib tutashadi. Xususan, odamlar o’rtasida mehr-oqibat, iymon-e’tiqodning yo’qolishi nafaqat inson genenini aynitishi, balki dunyoning halokatini tezlashtirishi bayon qilingan.

Tarixiy inversiya asosida qurilgan romanlarda kelajak obrazlari muqarrar tarzda o’tmishga borib taqaladi. Masalan, Ch.Aytmatovning “Oxirizamon nishonalari” romanida Andrey Krilsov (rohib Filofey) tashlandiq bola edi. Shuning uchun u kassandra, ya’ni tug`ilajak homila (gumona)lar borasida maxsus, sirli laboratoriyalarda tajriba olib borib, buyuk kashfiyotini yaratadi. Olim homila – embrion yomon xususiyatlarga ega shaxs bo’lib dunyoga kelgandan ko’ra, tug`ilmaslikni afzal bilishi, o’zini nobud qilishlarini o’tinib so’rashini aniqlaydi. Ya’ni olim shu zamondan turib, kelajakka nazar soladi. Unga xos voqeliklarni o’rganadi. Lekin uning aniqlaganlari shu zamondan tashqariga chiqmaydi, reallikdan uzilmaydi. Aksincha, kelajakka xos voqelik, kelajak kishisi obrazini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ba’zi asarlarda inson (folklordagi kabi) zamon va makon metamorfozasini boshidan kechiradi. Bunga mahoratli ijodkor A.Fitratning “Qiyomat” asari qahramoni Pochamirni misol qilish mumkin. U tushida vafot etib, o’z maqomidan o’zga maqomga o’tib, yer usti dunyosidan yer osti dunyosi – jannatga tushadi va ma’lum bir muddat ideallashtirilgan zamon va makonda yashaydi. Biroq u ko’knori bo’lganligi sababli jannatda bu matohni uzoq vaqt topolmay ranjiydi. Endi topdim deganda, uyg`onadi. Uyg`ongach, o’zini yana real makon-zamonda ko’radi.

Ko’knori Pochamirning jannatda o’zini yaxshi his qilolmasligi yozuvchi tomonidan qahramonning xarakter-xususiyatini kinoyali yoritish uchun atayin uyushtirilgan qarshilantirish bo’lib, aslida insonlarning har doim butun boshli makon-zamonni o’ziga bo’ysundirishga intilish maqsadini ochishga qaratilgan.

A.Fitratning “Qiyomat” asarida atayin uyushtirilgan jannat folkloriy tasvir va talqinlarga muvofiq xuddi moddiy reallik shaklida chizilganligi bilan e’tiborni tortadi. Jumladan, Pochamir (Ro’ziqul) to jannatga etguncha Qil ko’prikdan o’tadi, savob-gunohlari tarozida tortiladi, Munkar-Nakir savol-javobidan o’tadi.

Asarda uchmoh (jannat) shunday tavsiflanadi: “Shahar emas – bog`, bog` emas – shahar edi. Gullar, daraxt (og`och)lar, qushlar, saroylar... Og`ochlarning tanasi oltin bilan kumushdan, yaprog`i zumrad toshdan, uylarning har biri bir bo’lak yoqutdan: og`ochlar orasidan, devorlar tagidan kichkina ariqchalar oqib turardi....Bog`chadagi daraxtlarning tagida to’rt kichkina ariqcha yonma-yon oqib turar edi, Pochamir egilib qarasa, ariqchalarning bittasidan oppoq sut, bittasidan tiniq suv, bittasidan bol, bittasidan chog`ir (may) oqmoqda edi. Pochamir chog`irni

ko'rib shod bo'ladi. Ammo g`ilmondan buning ichganni mast qilmaydigan "oxirat mayi" ekanini eshitgach, dimog`i kuyadi".[97]

Xulosa qilib aytganda, badiiy zamon obrazidan foydalanish estetik tajribasi aslida folklor bag`rida shakllanib, keyinchalik yozma adabiyotda ham o'zlashtirilgan va o'ziga xos poetik an'anaviylik kasb etgan.

## "NAMUNAYI ADABIYOTI TOJIK" - NODIR MANBA

**Z.K.Maxmudova**
*Buxoro davlat universiteti magistranti*
**I.Ch.Haqqulov,**
*Buxoro davlat universiteti professori f. f. d.*

XIX asrning so`nggi choragida tug`ilib, XX asrning o`rtalariga qadar yashab ijod etgan Sadriddin Ayniy o`zbek va tojik adabiyotlari taraqqiyotiga muayyan hissa qo`shgan zullisonayn yozuvchi, Vatani uchun jasorat ko`rsatgan inson. Zero, ko`plab adiblar millatchilik tamg`asi bilan qatag`on qilinayotgan bir davrda u o`z Vatanining, Buxoroning buyuk daholari, ularning ijodi haqida bebaho asar yozdi. Lohutiy Ayniyni shunday yodga oladi: "1925-yil avgust oyida Samarqandga muhtaram do`stimning oldiga ziyoratga bordim. U uyning ichida yuzlab kitoblarga g`arq bo`lib, bir qo`lyozmaga allanimalar yozardi. Shu "Namunayi adabiyoti tojik" edi.

Dunyo azoblari, zanjirlar, tayoq zarblari, og`riqlar u kishini qaritib, ko`zlarini xiralashtirgan edi, shunga qaramay Ayniy bir yil davomida ushbu kitobni tartib berdi…Ba`zi shoirlarning she`rlari uchun eshikma-eshik, ko`chama-ko`cha yurib, to`pladi", - deya eslaydi Lohutiy. (I, 6-b.)

Adibning "Namunayi adabiyoti tojik" asari ko`plab ijodkorlar, buxorolik adiblar haqida ma`lumot beradi. 1925-yilda yozilgan bu asar Buxoro adabiy muhitini o`rganishda muhim manbadir. Asar 3 qismdan iborat bo`lib, I qismda 300-1200-yil hijriyda yashab, ijod qilgan ijodkorlardan 80 nafari haqida ma`lumot beradi. Sadriddin Ayniy II qismda XVIII asr oxiri va XX asrning boshida yashagan 132 nafar ijodkor xususida ma`lumot berishni lozim ko`radi. III qism o`z navbatida ikkiga bo`linadi: 1) 1905-1917- yillarda ijod qilgan shoirlar; 2) 1917-1925-yillarda faoliyat yuritgan adiblar va ularning ijodidan namunalar keltirilgan.

Asarda nomlari zikr qilingan ayrim ijodkorlar bilan tanishsak, jumladan, fors-tojik adabiyotining asoschisi **Ustod Abulhasan Rudakiy Buxoriy.** U haqda ma`lumot berish uchun Mirzo Muhsin Ibrohimiyning "Namunayi adabiyoti Eron", Lutfalibeki Ozarning "Otashkada", G`ulomalixoni Ozarning "Xizonayi omira", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Davlatshoh Samarqandiyning tazkirasi, Bartoldning "Turkiston" asarlaridan foydalanadi.Qarilikdan shikoyat qasidasi asarni boshlab beradi. Aynan shu bilan asarni boshlashi ham bejiz emas, bu she`r

[97] Фитрат А. Қиёмат // Танланган асарлар. 5 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 177-179.

orqali yoshlikning o`tkinchiligiga, ko`z ochib-yumguncha o`tib ketuvchi bevafo hayotga ishora etadi.

"Namunayi adabiyoti tojik"ning o`ziga xos jihatlaridan biri shuki, ko`pincha avval shoir, yozuvchining ijod namunalarini, so`ng ijodkor shaxsi haqidagi ma`lumotni keltiradi. Zero, chin shoirning asarlariyoq uning mahorati, uslubi, saviyasi haqida axborot beradi. Rudakiyning "Shod zi bo siyohchashmon shod" qit`asini, Nasr ibn Ahmad Somoniyning Hirotdan Buxoroga kelishini tashviq qilib yozilgan qasidasini, "Kalila va Dimna"ning fors tilidagi she`riy tarjimasidan bayt va boshqa she`rlarini keltiradi. "Bahoriston"da keltirilishicha, Ustod Rudakiy onalaridan ko`zlari ojiz bo`lib tug`ilgan va 7 yoshligida Qur`onni hifz qilgan. Jomiyning "Bahoriston"ida ("Sharhi Yaminiy" ) Rudakiyning she`rlari ming, bir ming uch yuz misraga yetar edi, deyiladi. Tazkiranavislar va tarjimayi hol yozuvchilar Ustod Rudakiy birinchilardan bo`lib, forsiyda g`azal, qit`a, ruboiy yozganlar, deb aytishadi. Rudakiydan oldin Bahromi go`r, Hakim Abu Hifzi Sug`diy va Xoja Abulabbos Marvaziy forsiyda she`r yozgan bo`lsalar ham, ammo sohibdevon bo`lmaganlaridan, Rudakiy "Namunayi adabiyoti tojik"ning avvalida berildi, deb yozadi, Ayniy. (I, 16-b.)

Davlatshoh Samarqandiy Rudakiyni ustoz sifatida yod olgan bo`lsa ham, she`rlariga alohida e`tibor bermaydi, deya, o`zi Rudakiyning shoirlikdagi kamolini yuksak baholaydi. "Kalila va Dimna"ni nazmda tarjima etganini dalolat qilib ko`rsatadi. (I, 17-b.)

Ayniy Rudakiyning asl Vatani masalasida turli qarashlarni bayon etadi va bir xulosaga keladi: "Davlatshoh Samarqandiy va "Otashkada" tazkirasi sohibi Lutfalibek Ozar Rudakiyni Buxorodan deya yozadilar. Lekin "Xizonayi omira"ning muallifi uni Samarqandiy deya qayd etadi.

Sharqshunos Bartold "Turkiston" asarida Ro`dak – Samarqandda yashovchi qariya nomi va Rudakiy shu yerga mansub, deb yozadi. Lekin Bartold uning ismini Abuabdulloh deydi. Ammo biz nazarda tutgan Rudakiyning ismini Davlatshoh Samarqandiy va "Otashkada" muallifi Abulhasan deya yozganlar. Ehtimolki, Rudak ismli qariya ham Buxoroda ham Samarqandda bo`lsa. Chunonchi, "Qavola", "Mo`liyoni nav", "Qasr" Buxoroda ham Samarqandda ham bor". (I, 17-b.)

Har holda ustoz Rudakiy Movarounnahrdan va tojiklarning faxridir, deya fikrini yakunlaydi. "Namunayi adabiyoti tojik" mundarijasida Ustod Abulhasan Rudakiy **Buxoriy**, deya berilgani Ayniy Rudakiyning buxorolik ekaniga ishonganidan dalolat beradi.

Yana ulkan shoirlardan biri, **Shayx Abulabbos** – ismi Fazl ibni Abbos, buxorolik, Rudakiyning zamondoshi. Nasr ibn Ahmadning vafoti va Nuh ibn Mansurning hokimiyatga kelishi munosabati bilan yozilgan she`rini keltiradi:

Podshohe guzasht xubnajot,
Podshohe nishast farruxzod.
Z-on guzashta jahoniyon g`amgin,
Z-on nishasta zamoniyon dilshod.
Bingar aknun ba chashmi aql nako`,

Harchi az mo girift Ezid, dod.
Gar charog`e zi peshi mo bardosht,
Boz sha`me ba joyi o` binhod. (I, 17-b.)

Bir podshohning vafoti va ikkinchi hukmdorning taxtga o`tirishi, ta`ziya izhori va qutlov bir-biriga zid tushuncha. Bu ikkisini birlashtirib, she`r yozish shoirdan ulkan mahorat talab etadi. Birgina noo`rin so`z halokatga sabab bo`lishi mumkin.

Bir xo`b najot podshoh o`tdi, uning o`rniga farruxzod podshoh keldi. U ketganida jahon g`amga botdi, bu kelganida zamonaning ko`ngli shodlikka to`ldi. Endi aql ko`zi bilan bu ezgulikni ko`rki, har narsani olgan bo`lsa Ezid, berdi. Gar chirog`ni oldimizdan ko`targan bo`lsa, uning o`rniga sha`mni qo`ydi, deydi shoir.

Ayniy buxorolik ijodkorlar haqida to`xtalar ekan, Daqiqiyni ham qayd etib o`tadi. **Daqiqiy** – Ustod Mansur ibn Ahmad, vatani Tus, Buxoro yo Samarqand bo`lishi mumkin, Somoniylar zamoni shoiri. "Namunayi adabiyoti Eron"da yozilishicha, ismi Abu Mansur Muhammad, 317-366-yillarda yashagan.

Go`yand sabr kun, ki turo sabr bar dihad,
Ore, dihad, valek ba umri digar dihad.
Man umri xeshro ba saburi guzoshtam,
Umre digar biboyad, to sabr bar dihad. (I, 18-b.)

Hayot sinovlarga to`la, har bir inson dunyoga sabr bilan kelsin ekan, aks holda bu mashaqqatlarga dosh berish juda qiyin. Sabr bersin, yanagi hayotimda ham sabr bersin, men butun umrimni sabr qilib o`tkazdim, deya sabrning inson zotiga nechog`lik zarurligini ta`kidlaydi shoir.

Ayniy ijodkor asarlariga ham tarixshunos, tilshunos, adabiyotshunos sifatida ziyraklik bilan baho beradi. Ayniy "Darafkand, ey sanam, abri bihishti" g`azalining oxirgi misrasidan (Labi yoqutrangu, nolayi chang, Sharobi la`lu keshi zarduhishti) ko`rinadiki, Daqiqiy rasman musulmon bo`lsa ham, zardushtiylikdan voz kechgani yo`q, "Koshki andar jahon shab nesti" g`azalidan Daqiqiy zamonida "nabudi", "namebudi" so`zlari o`rniga "nesti" ishlatilgan degan xulosaga keladi. (I, 18-b.)

Sadriddin Ayniyni Buxorosiz tasavvur etib bo`lmaganidek, Buxoroni ham Ayniysiz tasavvur etib bo`lmaydi. Uning adabiyotimiz oldidagi xizmatlari beqiyos. Yo`qolib ketish arafasida turgan yuzlab qo`lyozmalardan shoir, yozuvchilarning asarlarini topib, to`plab, ularni avlodlarga yetkazishdek muqaddas vazifani bajargani uning buyuk ma`naviy jasoratidir. "Namunayi adabiyoti tojik" esa Buxoro minglab daholar, avliyolarning beshigi ekanligiga dalolat beruvchi nodir manba. Adiblar asarlari yuzasidan bildirgan fikrlari hali ko`plab ilmiy tadqiqotlar uchun zamin bo`lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

II. Садриддин, Айни. Намунаи адабиёти тожик. – Душанбе: "Матбуот", 2010. – 420 с.

# KITOBXONLIK MADANIYATINING IJOD JARAYONIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

**N.Karimova**
*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Adabiyotshunoslik yo‘nalishi magistranti*

Mutolaga ishtiyoqmand kishilarni odatda kitobxon deb ataymiz. Ijodkorlar esa kitobxonlik targ‘ibotchilaridir. Aslida ular dastlab kitobxonlikning eng yuqori cho‘qqisini zabt etib, so‘ngra o‘zlarining ijtimoiy vazifalarini bajarishga kirishadilar. Ijodkorlik asli kitobxonlikdan boshlanadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Fikr mutolaa bilan tirik. Mutolaa ijodkorga oddiy insonga qaraganda, ko‘p karra ta’sir o‘tkazadi. Yangi g‘oyalarning onasi –mutoladir. Ilhom manbai-kitobdir. Maqolamizda, yosh ijodkorga kitobxonlikning ta’siri,atoqli adiblarning kitobga munosabati, kitobxonlik madaniyatining shaxs tarbiyasidagi o‘rni haqida atroflicha mulohazalarni berib o‘tishga harakat qilamiz. Kitobxonlik garchi mashg‘ulot turi sifatida qaralsa-da, aslida, aqliy mashq hisoblanadi.

Yosh qalamkash qachonki, mutolaa jarayoni bilan jiddiy shug‘ullansa, nafaqat, o‘zbek, balki jahon adabiyoti bilan ham yuzlashsa yozuvchilik kasb emas, balki oliy san’at turiekanini tushunib yetadi. Mutolaa ijodkorlarga keng dunyoqarash, fikr teranligi, falsafaga yaqinlashuvdan tashqari o‘zgalar qoralamasiga munosabat bildirish istagini uyg‘otuvchi yagona vosita sanaladi. Mutolaa uchun material asosan matnni kim yozganligi va nima mavzuda yozilganiga qarab tanlanadi. Yosh qalamkashning yetuk ijodkorlarning ijodidan bahramand bo‘lishi, unda bora -bora o‘z qoralamalaridagi nuqsonlarni ko‘ra bilish salohiyatini shakllantiradi. Shuning uchun yosh ijodkorlarga o‘z yozganlaringni professional yozuvchiniki bilan solishtirma, balki sening yoshingda yozgan dastlabki mashqlari bilan o‘zingniki qiyosla, deb ko‘rsatma berish lozim bo‘lar. Bir guruh yoshlar taniqli yozuvchimiz Nazar Eshonqul bilan uchrashuv bo‘lib o‘tganda, “Yosh ijodkorlarga qanday yo‘l –yo‘riq ko‘rsatasiz”, deb so‘rashibdi. Nazar Eshonqul esa “O‘qinglar va yozinglar!”, deb aytgan, boshqa hech gap aytmagan.Tajribali adiblarning asarlarini o‘qigandan keyin tabiiyki, iste’dod zotidagi yozishga bo‘lgan moyillik ishga tushadi. Biroq mutolaasiz hech nimaga erishib bo‘lmaydi. Mutolaaga qisqacha qilib, yozishga tayyorgarlik jarayoni deyish mumkin. Fundamental asarlar har qanday sharoitda o‘z vazifasini, ya’nikim, kitobxon kim bo‘lishidan qat’iy nazar ta’sirlantirish funksiyasini bajaradi. Ijodkor shaxsiga xos xususiyatlardan biri shundaki, har qanday fikrni nazardan qochirmaydi, hayotni bor butunicha ko‘rish uchun uni ulkan lavhalaridan tortib, elementar unsurlari –yu, hatto bir og‘iz so‘zni ham fikr analizidan o‘tkazadi. O‘qilgan asar ham aql chig‘irig‘idan o‘tadi. Asl iste’dodning yozgan asari ikkinchi bir iste’dod egasiga ta’sir o‘tkazmay qolmaydi, albatta. Jamiyatning loqaydlikdan yiroq qatlami –bu qalamkashlar qatlamidir. Shuning uchun har qanday ma’rifiy- ma’naviy masalada xalq yozuvchi adiblarning fikri bilan qiziqadi, ulargatayanadi va qo‘llab –quvvatlaydi. Xalq tayangan kishilar

hayotiy tajriba bilan cheklanmasliklari lozim, nazariy tajribalar kitoblarda mujassam. O‘zbek xalqining sevimli adibi Shukur Xolmirzayev kattaroq asarga qo‘l urishdan oldin Lev Tolstoyni o‘qib, quvvat olishini aytgan[98] . Bir iste’dodning ikkinchi bir iste’dodga mutolaa orqali ta’siri, ba’zida shunchaki ta’sir bo‘lmay, asardan olingan taassurot, ilhom bag‘ishlovchi manba bo‘lib ham xizmat qiladi. Bu bir hudud doirasidagi jarayon emas, kishilar yer yuziga qay darajada tarqalgan bo‘lsa, kitobxonlik masalasining dolzarblik darajasi ham shunchalikdir. Fikrimizni Elfrida Yelinekni intervyusi bilan tasdiqlashimiz mumkin. U: “Robert Muzil meni o‘z kinoyali tili bilan maftun etgan, turli dolzarb mavzularda fikr yuritganidan ilhomlanaman”, degan edi[99]. Qay bir yozuvchi o‘zga bir yozuvchining dunyoqarashi bilan tanishgan pallada, ijodiy ta’sirlanish, ilhomlanish hodisasi ro‘y beradi, albatta. Ikkinchi bir adibning dunyosiga esa uning kitoblari, mualliflik asarlarini mutolaa qilish orqali kirib boriladi. Chinakam iste’dod egalari o‘zlariga yuqori baho bermaydilar. Kimdan nimani o‘rganganini ochiq tan oladilar. Argentinalik yozuvchi Xorxe Luis Borxes: “ Rostini aytsam, men yozgan hech qaysi asar o‘zimniki emas. Ular kamina o‘qigan asarlardan olgan badiiy taassurotlarim xolos”[100]. Borxesning bu gaplaridan so‘ng, asar yozishiga sababchi bo‘lgan omil boy taassurot va dunyoqarash ekanini ko‘rishimiz mumkin. Katta taassurotga ega bo‘lish ham, aynan mutolaa orqali erishiladigan ma’naviy muvaffaqiyatning bir turidir. Shu o‘rinda, asar yozilishiga turtki bo‘luvchi boshqa omillarni ham sanab o‘tsak. Jumladan, shaxsan yozuvchi boshidan o‘tkazgan hayotiy voqealar, sayohatlar, yozuvchi duch kelgan oddiy va g‘ayrioddiy insonlar bilan birga hayotni jamiyatning shunchaki, oddiy kishisi sifatida emas, balki, ijodkorona nazar bilan kuzatilgan jihatlari jam bo‘lgan maktublar, tanqidiy bitiklar. Urush yillarida yashagan kishilar ko‘rgan –kechirganlarini boricha yozadilar. Shuhratning “Shinelli yillar”asari, urush taassurotlarining mahsulidir. Urush butun xalqqa ham ma’navy, ham moddiy jihatdan o‘ta kuchli darajada ta’sir o‘tkazgandi. Ijodkor butun millatni larzaga solgan unutilmas tarixiy voqeani taassurotlarga boy, jozibali, badiiy shaklda yozib qoldirish ham aynan yozuvchining vazifasi edi. Tarixiylik tamoyiliga asoslanish kitobxonni o‘tmishga hayolan qaytaradi, qaysidir ma’noda moziy o‘rganishga yordam beradi. Tarixiylik, ya’nikim, reallik bilan kitobxon o‘rtasida munosabatning yuzaga kelishi ijodkor mahoratiga bog‘liq. Agar yozuvchi chin kitobxon bo‘lsa, tarixiy faktlarni badiiylashtira oladi.

Odatda, g‘ayrioddiy kishilar oddiy insonlarga qaraganda, ko‘proq prototiplik maqomiga erishadilar. Chunki g‘ayrioddiy xarakter jamiyatga qay darajada singishi, kun kechirishi, odatlari sinchkov yozuvchilarning e’tiboridan chetda qolmaydi. Buni ham mutolaa natijalaridan biri, deb qarash mumkin. Chexov “G‘ilof bandasi” odamovi obraz bo‘lishiga qaramay, ham yozuvchining, ham kitobxonning e’tibor markazidagi obraz. Bu kabi o‘rinlarda, kitobxon va obraz

---

[98] Shodmon Otabek. “Yozuvchi kitobo‘qimaydi…mi?”, “Kitobdunyosi” gazetasi 2016 –yil, 23 –son.

[99] ElfridaYeline.k “Meningasarlarim ham adabiyotdunyosiningbirbo‘lagidir ”. Suhbat; “Kitobdunyosi” gazetasi, 2018 –yil, 21 –son.

[100] X.L.Borxes “Jaholatgaqarshiochilganurush”, “Kitobdunyosi” gazzetasi, 2019 –yil, 2 -soni

munosabatiga duch kelamiz. Kitobxonning obraz odamoviligiga qiziqishi, kitobxon va obraz munosabati kelib chiqqanini ko‘rsatadi. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asaridagi komissarning esa nima sababdandir qay millatga mansubligi kitobxonga noma’lum bo‘lib qolgandi. Bu o‘rinda, esa kitobxon va mavhumlik munosabati yuzaga kelgan. Balki, bu bilan yozuvchi barcha millatlarda mana shunday xarakter albatta, topiladi, demoqchidir. Nima bo‘lganda ham mavhumlik kitobxonni yechim izlashga majbur qiladi. Bu esa kitobxonning yanada mushohadali va mulohazali bo‘lishiga yordam beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yosh ijodkorlarning kamol topishida, o‘z iste’dodi ustida jiddiy ishlashi va rivojlanishida mutolaa asosiy ahamiyatini namoyon etadi. Kitob fikrni harakatlantiruvchi kuch ekani ko‘plab, mutafakkirlar tomonidan e’tirof etilgan. Har bir iste’dod egasi o‘z yo‘nalishi va uslubi mutolaa yordamida yaratadi.

Kitobxonning fikrlash tezligi har doim amaliy-aqliy mashq,ya’ni mutolaa orqali mustahkamlanib boraveradi. Yozuvchilarning iqrori misolida bu masalalar o‘rganilib, kitobxon va ijodkor munosabatida yangi sahifa ochib boraveradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Shodmon Otabek. “Yozuvchi kitob o‘qimaydmi?”, “Kitob dunyosi” gazetasi 2016 –yil, 23 – son.
2. ElfridaYeline.k “Meningasarlarim ham adabiyotdunyosiningbirbo‘lagidir ”. Suhbat; “Kitobdunyosi” gazetasi, 2018 –yil, 21 – son.
3. X.L.Borxes “Jaholatgaqarshiochilganurush”, “Kitobdunyosi” gazzetasi, 2019 – yil, 2 – soni
4. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva “Adabiyotshunosliklug`ati”, Akademnashr, Toshkent:2010.
5. Hotam Umurov. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.


## NAVOIYNING «RUH UL-QUDS» QASIDASIDA BURJLAR TASVIRI


**J.Sharopov**

*BuxDU magistranti*


Burjlar haqida “Qur’oni karimda”: “Albatta Parvardigoringiz osmonlar va Erni olti kunda yaratib, so’ngra o’z arshini egallagan Ollohdir. U (Olloh) quyoshni ziyo sochuvchi, oyni yorug’lik qilgan va sizlar yillarning sanog’ini hamda (vaqtlarning) hisobini bilishlaringiz uchun uni (ya’ni oyni bir qancha) manzil-burjlarga bo’lib qo’ygan zotdir. Hech shak-shubhasiz, Olloh bu (borliqni) Haq (qonun va maqsad) bilan yaratdi”,-deyiladi Yunus surasining 5-oyatida. Shoir ham ularning har birida Ollohning bir hikmati aks etganligini burjlar shaklini izohlash orqali badiiy gavdalantirib beradi.

Zi bahri on ki hame kaxravist shevai charx,
Chu charx rutbai xarchang soxti volo .

Charxning hamma qilmishlari kajravlikdan iborat bo'lgani uchun falakda qisqichbaqa (burjlardan to'rtinchisi) maqomini baland yasading. Hayotda, inson taqdirida ham shunday hodisa kuzatiladi, turmushda kajrav insonlar qo'lining baland kelishi mumkin..

Mazkur qismda tashxis san'ati vositasida ajoyib lavhalar chiziladi va burjlarning o'ziga xos noyob xususiyatlarini tasvirlash bilan qasidaning badiiy qimmati yanada oshadi.

Agar dunyodagi har bir narsaning mohiyatini tashkil etuvchi Ollohning yagonaligini nazarda tutsak, ilohiy mohiyatdan iborat bo'lgan butun olamning tub mazmuni uning birligida va butunligida ekan. Bunday o'zaro bog'liqlik va uyg'unlikni quyidagi misralarda ko'rish mumkin.

Libosi barg chu ashxori bog'ro po'shid,
Shud az namoishi har yak chu gunbadi mino.
Shamol chun ba taharruk fikandashon omad,
Va chashmi aql namudor sayru davri samo.
Tayur har yak az on charxro chu anxum shud,
Zi shox bar shox oyanda burch-burjoso (20-bet).

Barglar libosi bog' daraxtlari ustini yopdi, har birining tovlanishida feruza osmon (qubba) shakli namoyon bO'ldi. Shamol shunday kuchli harakatga tushib keldiki, Eru osmonda vujudga kelgan manzarani aql ko'zi bilan tasavvur qilish qiyin edi. Bunday o'zgarishlar har bir daraxtdan yulduzga qadar yuz berdiki, daraxt shoxlarining silkinishi yulduzlarning burjdan-burjga kO'chishini eslatardi. Ko'rinadiki, misralarda ko'm-ko'k yaproq bilan qoplangan ilgarigi yalang'och daraxtlarning har biri bir osmon kengligiga, uning shoxlari esa burjlarga, bu shox-burjlardagi mevalar "sobit"–ya'ni turg'un yulduzlarga, shoxdan-shoxga sakrab yuruvchi qushlar esa "suho"–harakatidagi yulduzlarga o'xshatiladi.

Shoir tabiat bilan osmon jismlari haqidagi tushunchani shu tarzda bog'lab ko'rsatgan. Osmon va undagi jismlar butun olamning o'zaro bog'lanishidagi yana bir zanjirni tashkil etishini, bu zanjirlarning har bir xalqasi o'ziga xos, ma'lum o'ringa ega ekani va katta ahamiyati borligini ko'rsatishga harakat qiladi.

Borliqdagi barcha narsalar bir-biri bilan chambarchas aloqadorlikda harakat qiladi. Demak, olam ma'lum qonuniyat asosida vujudga kelgan va o'sha nizom asosida "Biz osmonlar va erni hamda ularning o'rtasidagi narsalarni faqat Haq qonun-qoida bilan yaratdik". Olamning "haq qonun bilan" bunyod etilishi undagi mukammallikka sabab bo'lgan. Samoda ulkan ummonlaru dashtlar, tog'larni bag'riga olgan Erimizdan bir necha barobar katta bo'lgan sayyoralar muallaq turadi va Yaratuvchining amri bilan doimo harakatda bo'ladi. Mazkur fikrimizni "Yosin" surasining 40-oyati bilan tasdiqlay olamiz: «Lash-shamsu yanbag'iy laha

an tudrikal-qamara va lal-laylu sabiqul nahar. Va kullun fi falakin yasbahun»[101].(«Na quyosh uchun Oyga etish mumkin bo'lur va na kecha–kunduzdan o'zguvchidir, barchalari falakda suzib yurur»).

Alisher Navoiy quyosh, samodagi barcha sayyoralar va boshqa osmon jismlarining ma'lum yo'nalish asosida fazoda muallaq holda doimiy harakatdaligini tasvirlash orqali Haqning mo''jizaviy qudratining mislsiz, beqiyos ekanligini madh etadi. qasida satrlarida Ollohning barcha yaratiqlari, hatto Arsh, Kursi, maloikalar ham uning xizmatida, burjlarning ko'pchiligi ham o'ziga tezroq Ollohning rasuli yaqinlashishini istashi mahorat bilan ulug'lanadi. Shundan so'ng ulug' shoir Me'roj voqeasi tasviriga o'tadi va islom dinining insonparvarlik mohiyati tasviriga alohida urg'u beradi, Muhammad payg'ambarga "shariati g'arro" ("yorqin islomiy shariat")ni "ravshan qilgan" Ollohga behad hamdu sano aytiladi.

Shoir o'z davrining sidqidil musulmoni sifatida Ollohdan qiyomat kunida gunohlarini maxfirat qilishini so'rab, qasidaning so'nggi–xotima qismini (xuddi nasib qismidagi singari) diniy mazmundagi an'anaviy hamd, munojot bilan tugatadi. Ma'lumki, XV asr ijtimoiy siyosiy sharoitida yashagan Navoiyning tasavvufiy qarashlari diniy tushunchalar (aslida din irfon uchun begona emas) bilan bog'liqdir. U o'z davrining eng peshqadam ilohiy-irfoniy arbobi sifatida ilg'or tasavvufiy qarashlarni qanchalik qadrlasa, komil musulmon bo'lgani uchun shariat qonun-qoidalarini ham so'zsiz ado etardi. Shuning uchun ham «Sittai zaruriya»ning birinchi qasidasi ilg'or islomiy-irfoniy g'oyalar talqinidan iboratdir.
Sharq mumtoz adabiyotida Alloh va olam aloqadorligi, bog'liqligi talqiniga bag'ishlangan juda ko'p asarlarda yuqorida sanab o'tilgan mavzular uzviy ketma-ketlikda (yil fasllari, to'rt unsur, 9 falak, 12 burj) tasvirlanadi. Bu "Sittai zaruriya"ning boy ilohiy va adabiy sarchashmalar zaminida yuzaga kelganidan dalolat beradi.

## KARAM VA SAXOVAT TIMSOLI

**X. Barotova**,
*BuxDU o'zbek adabiyoti kafedrasi I bosqich magistranti.*
**Sh.Hayitov,**
*BuxDU o'zbek adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

Azaldan sharq xalqlari madaniyati Ҳасанхўжа Нисорий. va tarixida hamisha saxovat, ochiqqo'llik insonning eng yaxshi xususiyati sifatida qadrlanib kelingan. "Boburning "Boburnoma" asarida ham muallif o'zining ijod dunyosidagi

oddiy olamdan boshlab otasi Umarshayx, Temuriy shaxzodalar va beklar xususiyatidagi karam, xayr-u saxovatni olqishlagan. Bu xususiyat ularning ijobiy jihatlarini to'ldirgan" (5, 9). O'zining umr kitobida qisqa bir davrni tasvirlashda butun bir fan olamiga; hayvonot, nabotot, o'simliklar dunyosi, tarixiy geografik hududlar, harb ishiga, har bir yurtning milliy madaniyatiga, urf-odatlariga alohida to'xtalib, adabiyotning nodir namunasini yaratdi. Bobur uzoq umr ko'rmadi. Ba'zi podshohlardek hayoti sermazmun va mas'ud kunlarga boy bo'lmadi. Juda qisqa bir davrda misli ko'rilmagan ilmiy yangiliklarning, kashfiyotchisiga aylandi.

Umr bobida Mirzo Boburni buyuk ne’mat hayot atalmish chashmadan “qisgan” Tangri Taollo unga ulkan yurak va saxiy va ozurda qalb ato etgan edi. Barcha darveshlarga lutf eshigini ochib, niyozmandlik yumushini bajo keltirardi. Tangrining inoyati bilan Hindiston zabt etilgach, qo`lga kiritilgan xazina va o`ljalar oxirigacha taqsimlanadi. Lo`diylar sulolasi tomonidan to`plangan bu ulkan boylikning bu tarzda taqsimlanishi va bunda Boburshohning o`ziga hech narsa qoldirmagani chindan ham Hazratning saxiy qalb egasi ekanligidan dalolat beradi. Mirzo Bobur bu ishidan so`ng sharq xalqlari orasida keng tarqalgan o`z boyligini hammaga ulashib beradigan kishilar toifasi bo`lmish “Qalandar” nomi bilan atalishiga sabab bo`ladi. Bobur o`z “Vaqoe”sida shunday xotirlaydi: “Rajab oyining yigirma to`qqizinchisida, dushanba kuni xazinani ko`rib chiqdik va uni ulasha boshladik. Xumoyunga xazinadan yatmish lak berildi. Hali ro`xatga olinmagan va tekshirib ko`rilmagan yana bir xazinani ham bor budicha in’om qildim. Lashkardagi afg`onlar, hazoralar, arablar va balujlarga hamda har bir askarga mavqeiga qarab pul in’omlar bo`ldi. Har bir savdogar, har bir tolibi ilm va umuman lashkarga hamrohlik qilgan har bir kishi in’om, hadyadan juda ko’p bahra va komil nasiba olib ketdilar.

Lashkarda bo`lganlarga ham bu xazinadan ko`p in’om va hadyalar yuborildi. Masalam, Komronga 17 lak, Muhammad Zamon Mirzoga 15 lak, Askariyga, Hindolga va, umuman, barcha urug’-aymoqqa, o`gillar va yosh bolalargacha juda ko`p tilla, kumush, kiyimlik, qimmatbaho toshlar va qullardan sovg’alar yuborildi. U tomonda qolgan bek va sipohiylarga juda ko’p in’omlar jo’natildi. Samarqand, Xuroson, Qoshg`ar, Iroqqa qarindosh-urug`lar uchun sovg`alar jo`natildi. U tomonda qolgan bek va sipohilarga juda ko`p in`omlar jo`natildi. Samarqand va Xurosondagi shayxlarga nazirlar yuborildi. Makka va Madinaga ham nazrlar jo`natildi. Kobul viloyati bilan Varsak sadasi (lashkarning yuz kishilik bo`linmasi) atrofida yashaydigan har bir kishiga – erkakmi, ayolmi, qulmi, ozodmi, katta kishimi, yosh bolami – bundan qat`iy nazar, hammasiga bir shohruxiydan in`om qilindi. (1, 182). Zero, so’z mulkining sultoni – Mir Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda: “Oltin-u kumushlar-u turliq bezaklarni boylik deb hisoblamag`il, chinakam boylik oliyjanobliq saxovat ganjidir” ( 3, 35 ). Mirzo Bobur ham Tangri mol-u davlat nasib etgan ekan ularni o’z xazinasini boyitish uchun baxillikka yuz tutmadi. Balki, shu yig’ilgan mulkni barchaga birdek ulashdi. Shubhasiz, adolatpesha shoh "baxillik barcha sifatlarning eng xasisi, saxovat hayot javhari" ( 3, 35 ) ekanligini qalban his etdi.

Bir narsaga e`tibor qaratmoq joizki, hatto Makka va Madinadagi muqaddas qadamjolar ham Boburning saxovatidan benasib qolmadilar. Zero, Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, “Saxovat – insoniyat bog`ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir, balki u to`lqinli dengizning bebaho gavharidir.” (7, 61).

Karim ul-axloqli bo`lish, ya’ni karamli bo`lish insonni bezab turgan fazilatlarning eng chiroylisi va noyobidir. Hazrat Navoiyning zikr etishlaricha, karam – inson tabiatidan noyob va balki yo`qdir; shu sababdan karam ahlini ko`z ilg`amas, hatto nomavjuddir. Karam – bir jafokashning og`ir yukini ko`tarmoq va yukining mashaqqatidan uni qutqarmoqdir. Karam –birovning tikanli mashaqqat yukini ko`tarmoq va tikan sanchilishidan guldek ochilmoq va shu qilgan ishi haqida qayta og`iz ochmaslik, hech minnat qilmaslik, aslo yuziga solmaslikdir…(7, 62).

Hazrat Boburning oliyhimmat va saxovatpeshaligini buyuk tarixnavis Hasanxo’ja Nisoriy quyidagicha izohlaydi. “G`arazgo`y bek va amaldorlar Boburga qarshi fitna uyushtirib isyon ko`targanlarida ham, agar ular aybini tan olib avf so`rasalar, atrofdagi hukmdorlardan farqli o`laroq, ularni avf etibgina qolmay, o`rtada gina ham saqlamas edi" (8, 4). Demak bu jumladan shul haqiqat a’yonki, Bobur haqiqiy odamoxun. U vazir-u vuzarolar, faqir-u miskinlarga ham birdek muomala qiladi. Tanti ko’ngli ila hammaga bir xil munosabatda bo’ladi. Zulm qilguvchilarni o’z ayblarini bo’yniga olib avf so’rashganda kechirib, mazlumlarga saxovat eshiklarini ochar edi.

Mirzo Bobur o’zidagi bu nekbin xususiyatlarni farzandlariga ham ko’chirmoqni diliga maqsad qilib tugadi. ”Boburnoma” sahifalarini sinchiklab o’qish jarayonida bir necha bor otaning farzandlari bilan qilgan suhbatlari jarayonida ularga odamoxunlik xislatlarini uqtirganligining, farzand tarbiyasi va o‘z oila a’zolariga bo‘lgan shaxsiy munosabatlarida Boburning nechog’lik nozik qalb hamda oliyhimmat inson ekanligining guvohi bo’lamiz. Masalan:

Bobur Humoyunning nafaqat o‘z ukalariga bo‘lgan munosabatiga, balki uning savodxonligiga, odamlar bilan o‘zaro muloqotlarigacha e’tibor beradi. Humoyun nafaqat oiladagi bosh farzand, balki taxt vorisi ham edi. Shundan bo‘lsa kerakki, Bobur uning komil inson bo‘lishi borasida kuyunib, pandu nasihat qiladi: «Ajdodlarimizning ko‘pchiligi fidoyilikni unutib, yo‘q bo‘lib ketdi. O‘g‘il otani o‘ldirardi. Og‘a iniga xiyonat qildi. Oqibatda bari razolatning qurboni bo‘ldi. Undan ko‘ra, yaxshilikning fidoyisi bo‘lgan afzal emasmi? Sen ham endi inilaringu avlodlaringni mardlikka, fidoyilikka o‘rgatgin» (1, 242). Oiladagi to’ng’ich farzandga qilinayotgan ushbu nasihat, shu nasihatga sidqidildan qilinadigan amal keyingi avlodlar o`rtasidagi mehr rishtalarining ildizi te’ran bo’lishining yorqin ifodasi emasmi!?

Ammo, ming afsuslar bo`lsinkim, mol-u dunyoga hirs qo`yish, manfaatlarning bir joyda o`zaro to`qnash kelishi, o`z nafsiga qul bo`lish ayrim kimsalarni odamiylik izidan chiqaradi. Yuqorida qayd etilgan xuddi shunday illatlarga ba`zida chalinib turgan Boburning o‘g‘illari Humoyun, Komron, Askariylarning tarbiyasidan, tojgirlik-mulkgirlik borasidagi intilishlaridan otaning

ko‘ngli to‘lmagan. Ular orasidagi nifoq, ayrim paytlarda dushmanlikkacha yetib borgan. Og‘a-inilar o‘rtasidagi mulk talashish, ular xulqidagi salbiy jihatlar ota sifatida uni hamisha tashvishga solgan. Bu borada Boburning o‘g‘li Humoyunga yozgan maktubi muhim ahamiyatga ega. Mazkur maktub Boburning vafotidan ikki yil oldin Humoyunga jo‘natilgan. Bu davrda Bobur Hindistonning shimoli-sharqiy qismini ham zabt etib, o‘z davlatini to‘la ma’noda mustahkamlab olgan edi. Ammo Humoyun va Komronning bir-birlari bilan munosabati borgan sari chigallashib Bobur saltanati tahdid darajasiga yetib boradi: «Sizlarning jon tortib, qilich chopmoq mahallaringizdir. Qopuda kelgan ishni taqsir qilmangiz. Garonjoliq bila kohilliq podsholiq bila rost kelmas... Yana sen o‘zung (Humoyun) bilur edungkim, doim bu qoida mar’iy edi: besh hissa Komrong‘a bo‘lur edi. Hamisha bu qoidani mar’iy tutub, mundin tajovuz qilmang. Yana ining bila yaxshi maosh qilg‘aysen. Aning ham mutasharri’ va yaxshi yigit qo‘pubtur, ul ham mulozamat va yakjihatliqqa taqsir qilmagay» (4, 426). Farzandlari orasidagi nifoq otani hamisha tahlikaga solib turgani, hatto uning farzandlar ulushini ham teng taqsimlaganidan ko’rinib turadi. Humoyunga bosh farzand sifatida qarab, unga mol-mulk borasida ham adl o`rnatmoqlikni uqtiradi. Bu borada doimiy yig`iladigan mulkning Komron Mirzog’a beriladigan besh hissasi yuqorida keltirilgan fikrimizning ayni tasdig`i emasmi?

Farzandlari tarbiyasi, yurish-turishi, ularning sog’ligi uchun o`zini mas`ul deb bilgan Mirzo Bobur har jabhada o’g’illari, qizlari taqdirining kuyinchak otasi sifatida ko’z oldimizda namoyon bo’ladi. “Boburnoma” sahifalarini sinchiklab o’qir ekanmiz, beixtiyor falakning dard chekkan o’g’il oldida ilojsiz qolgan hamda kerak bo’lsa farzandi arjumandi uchun jonini fido qilmoqqa tayyor otaning iztiroblarga cho’mgan ko’z yoshlarining guvohi bo’lamiz. Zahiriddin Bobur ushbu asarda sevimli to’ng’ich o’g’lining og’ir xastalikka chalinib qolganini alohida bayon qiladi. “Muhammad Humoyun sanbalg’akim, aning joygiri erdi. Ruxsat berildi. Olti oygacha anda erdi. Zohiran ani yer va suyi xush yoqmadi, Isitma tutar ekandur, bora- bora uzoqqa tortar, Toniki biz eshuttuk, farmon berildikim, dehlig’a keltirub. Dehlidan kemag’a solib keltirsinlarkim, hakimi hoziqlar ko’rub, dardig’a davo qilsunlar. Bir necha kun daryo yo’li bilan kelturdular va tabiblar har necha doru darmon berdilar. Yaxshi bo’lmadi. Mir Abulqosimkim, ulug’ kishi erdi. Arzg’a yetkurdikim, ushmundoq dardlarg’a darmon budurkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak. Toinki tengri taolo sihhat bergay. Mening ko’nglimga keldikim, Muhammad Humoyun (ning) mendin o’zga yaxshi nimarsasi yo’q. Men o’zim tasadduq bo’layin, xudoy qabul qilsun. Xoja halifa o’zga muqarrablardin arzg’a tegurdilarkim, Muhammad Humoyun shifo topar, siz bu so’zzi nechun tilingizga keltirasiz. G’araz budurkim, dunyo molidin yaxshisini tasadduq qilmoq kerak. Bas o’shal olmoskim, Ibrohimni urushida tushub erdi. Muhamad Humoyung’a inyat qilib erdingiz, tasadduq qilmoq kerak. Tilga keldikim, dunyo moli aning evaziga nechuk bo’lg’ay. Men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkul bo’libtur... Va andin o’tubturkim, men aning betoqatlig’ini toqat kelturg’ayman,. O’shal holatda kirib, uch qatla boshidan o’rgulib dedimkim, Men ko’tardim, har ne darding bor, O’shal

zamon men og'ir bo'ldim. Ul yengil bo'ldi. Ul sihat bo'lib qo'pti. Men noxush bo'lib yiqildim. A'yoni davlat va arkoni mamlakatni charlab, bay'at qo'llarini Humoyunning qo'lig'a berib, joynishinlig'ig'a va valiahdlig'ig'a nasib qildim va taxtni anga topshurdim. Va Xo'ja Xalifa va Qanbar Alibek va Turdibek va Hindubek va o'zga xaloyiq ham bu nasoyixda bor erdilar. Borisi qabul qilib, band bo'ldilar. Musavvidi avroq aytadurkim, to'qquz yuz o'ttiz yettida mujodil avval oyining oltisida chahor bog'idakim, O'shul podshoh o'z qo'li bilan obod qilib erdi. Holi mutag'g'ayir bo'lib bu olami bevafoni padrud qildi" (1, 415).

Uning yozishiga ko'ra, Humoyun Badaxshonda og'ir betob bo'lib qoladi. Ukasi Hindol Uni Dehliga Kemada uzoq yo'l bosib keltiradi. O'zi esa akasining vazifalarini ado etadi. Bu o'rinda aka- ukalar o'rtasidagi samimiy munosabat ham yaqqol namoyon bo'ladi. Humoyun mirzo Dehli shahriga keltirilgandan so'ng otasi uning huzuriga jamiki tabiblarni chorlaydi. Eng bilimli tabiblar uning xastaligini aniqlay olmaydilar. Biroq Mir Abulqosim ismli mashhur shayx Boburga so'nggi yo'lni ko'rsatadi. Uning aytishicha Otasi Humoyun uchun Dunyodagi eng sevimli narsasidan katta boyligidan, dunyoning boyligidan voz kechsa, farzandi albatta oyoqqa turishini aytadi. Bobur shoh farzandi uchun jonini ham berishga tayyor ekanligini aytadi. Ibrohim bilan bo'lgan jangda qo'lga kiritgan olmosni sadaqa qiladi, Humoyunning boshidan uch marta aylanib, "har ne darding bo'lsa men olay, olloh meni shu dardga giriftor etsin" (2, 551) qabilidagi gaplarni aytib o'g'lining sog'ayib ketishini xudodan yolvorib so'raydi va shu ondayoq u o'zin nohush sezib yerga yiqiladi. Farzandi Muhammad Humoyun esa oyoqqa turadi.

Davlat arboblari, barcha ulamolar Boburning oldiga yig'iladilar. O'zaro maslahatlashib Humoyunni taxt vorisi etib unga tojni topshiradilar. Bu voqea barchaga birgek ma'qul tushadi. Bobur shu o'rinda noma'lum xattot Mavlono Shuhob haqida yozib uning Humoyun haqidagi bir og'iz jumlasini keltiradi. "Humoyun mulkning merosxo'ridur" (1, 422) va kundan kunga mehribon otaning hayot giyohlari so'na boshlaydi.

Bobur "Boburnoma"da taxt vorisi deya tilga olinayotgan Humoyunning sakkizta xislatini sanab o'tadi, bu bilan u haqiqiy taxt vorisi tog'ri tanlanganiga ham ishora qiladi: birinchisi, xusnixati go'zal edi; ikinchisi, himmati baland edi; uchinchisi, jang qilish bobida unga hech kim teng kelmas edi; to'rtinchisi, viloyat saqlamoq ya'ni davlatni boshqarishni yaxshi uddalar edi; beshinchisi, ma'muriy ishlarda ustasifarang edi; oltinchisi, ollohning bandalariga rahmli, himmatli edi; yettinchisi, o'zgalarning qanday ko'nglini xushlashni bilar edi, hech kimning ko'nglini qoldirmas edi,; sakkizinchisi adolatli edi (2, 559).

U yana Humoyun haqida quyidagi fikrlarni eslatib o'tadi: " Va fazilat bobida kamligi yo'q erdikim, nazm va nasr va turkiy va forsiyni bebadal aytur edi. Alal husus turkiy devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib aytibdur va masnaviy kitobi ham borkim, oti Mubayyundur. Til bilur dono xalq orasida aningdek latoyif yoqtur. Va Xoja Ahror aytgan risolakim aning oti "Volidiya"dur. O'shal podshoh nazm qilibdur. Ushbu kitobkim"Boburiya"dur. Bayramxonning o'g'li Mirzoxong'a buyurdilarkim, turkiydin forsiyg'a kelturdikim, turkey bimog'on xaloyiqqa oson bo'lg'ay. Ul podshoh musiqiy ilmidin ham xabari bor erdi" (1, 467).

Qolaversa, sulola tarixnavisi Gulbadanbegim o‘zining «Humoyunnoma» asarida karam va saxovat egasi Boburning oliyhimmatliligi, nozik xilqat egalari ayollarga ko`rsatayotgan izzat-ikromi, qarindosh ayollarga bo‘lgan ehtiromi borasida ham quyidagilarni yozadi: «Podshoh hazratlari Agra shahrida to‘rt yil turdilar. Har juma kuni ammalarini ko‘rgani borar edilar. Bir kun havo nihoyatda issiq edi, onam hazratlari: «Bugun havo nihoyatda issiq, agar juma kuni ko‘rgani bormasangiz, nima bo‘ladi, begimlar bundan xafa bo‘lmasalar kerak», deb so‘radilar. Podshoh onamga mana bunday javob berdilar: «Mohim, Sizdan bu gapning chiqishi taajjubdir. Hazrat Abu Said Mirzoning qizlari o‘z ota va birodarlaridan judo bo‘lib, bu yerga kelgan, agar men ularning ko‘nglini olmasam, unda nima bo‘ladi» (6, 28). Bundan ko'rinadiki, Mirzo Bobur haqiqiy mard, tanti, odamoxun. U har qanday vaziyatda yaxshilikka yaxshilik bilan, kerak bo'lsa yomonlikka ham yaxshilik bilan javob qaytaradigan javonmarddir.

Haqiqatdan, Bobur Mirzodagi bu oliyhimmatlilik uning haqiqiy musulmon farzandi ekanligidan hamda undagi barcha insoniy va irfoniy tuyg'ularning mujassamligi va yuksakligida namoyon bo’ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2015. – 699 bet.
2. Bobur. Z.M. Boburnoma (V. Rahmonov, K. Mullaxo`jayeva tabdili ) . – Toshkent: "O`qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 366 bet.
2. Navoiy A. Хамsa. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 493 bet.
3. Qudratullayev H. "Bobur shaxsiyatining yorqin jihatlari" // O'zbek adabiyoti va san'ati. – 2012, 10-fevral, № 6
4. Xolmonova Z. "Boburnoma" matnida madaniy munosabatlar ifodasi" // Ma’rifat. – 2017, 15-fevral. 13-son, 8-9-bet
5. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет.
6. Навоий А. Асарлар. 15 томлик, 13-том. Маҳбубул-қулуб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – 242 бет.

## O`ZBEK SHE’RIYATIDAGI MUSALLAS VA UCHLIK JANRLARI HAQIDA

**M.Jo`rayeva,**
*BuxDU magistranti*

Ma’lumki, o’zbek she’riyatida uchlik bandlardan tashkil topgan musammat zanjiridagi musallas mavjud. Adabiyotshunos D.Quronovning yozishicha: “Musallas arabcha so’z bo’lib, uchlik) – musammat turlaridan biri, uch misrali bandlardan tarkib topuvchi she’r shakli; uch misrali band. M. she’r shaklida dastlabki band misralari o’zaro qofiyalanadi (a-a-a), keyingi bandlarning dastlabki ikki misrasi o’zaro, uchinchi misrasi esa birinchi band bilan qofiyalanadi. Xuddi shu shakl M.ning kanonik shakli sanaladi. Adabiyotimizda M. she’r shaklining har

bir bandidagi misralari o’zaro (a-a-a, b-b-b, v-v-v...), har bir bandi o’rama (a-b-a, v-g-v, d-e-d...) tarzida mustaqil qofiyalanuvchi, shuningdek, bandlararo kesishgan (a-b-a, b-v-b, v-g-v...) qofiyalanish tartibidagi ko’rinishlari ham uchraydi”[102]. E’tibor berilsa, adabiyotshunos olim musallasning janriy belgilarini to’g`ri va aniq ochib bergan. Mumtoz adabiyotda bu janrdagi asarlar, asosan, Uvaysiy, Hamza kabi shoirlar ijodida mavjud bo’lib, aruz vaznida yozilganligi bilan alohidalik kasb etadi. Zamonaviy o’zbek adabiyotida esa badiiy shakl sifatida Oybek, Mirmuhsin, A.Muxtor, Shuhrat, G`.G`ulom, R.Parfi, O.Matjon, O.Hojiyeva, A.Obidjon kabi shoirlar ijodida ko’zga tashlanadi va barmoq vaznida bitilishi bilan xarakterlanadi. Musallas va bugungi she’riyatimizdagi uchlik shakli orasida bir qator mushtarak va farqli jihatlar mavjud. Aytish kerakki, so’nggi yillar she’riyatida yuz ko’rsatgan uchlik yana ikki xil ko’rinish kasb etgan: 1. Mumtoz she’riyatdagi kabi uchlik bandlardan tashkil topgan she’rlar. O.Hojiyeva, R.Parfi, E.Shukur ijodiy izlanishlari bunga misol bo’la oladi. 2. Uch misradan iborat yaxlit she’r. Bu mohiyatan mumtoz adabiyotdagi ruboiy, zamonaviy she’riyatdagi to’rtlik janrlariga hamohanglik qiladi. A.Obidjon, F.Afro’z she’rlari bunga yorqin misoldir. 1. Uchlik bandlardan tashkil topgan poetik shakl bilan musallas o’rtasida mushtaraklik she’r tuzilishida va qofiyalanish tartibida kuzatiladi. Tafovut esa vaznda ko’zga tashlanadi. Uch misradan iborat yaxlit she’r esa axloqiy ma’rifiy mazmuni jihatidan ruboiy va bugungi to’rtliklarga mos keladi. Farqi esa, avvalo, vaznida va qofiyalanishida ko’rinadi.

Adabiyotshunos Q. Yo`lchiyev uchliklar haqida fikr yuritar ekan, yozadi: “Farida Afro’zning uchlik(tasbeh)lari esa lirik, hissiy-falsafiy mazmuni va erkin vazni bilan ko’zga tashlansa, Abdulla Sher “xokku”lari yapon she’riyatiga yaqinligi va badiiy-estetik jihatdan boshqalardan farq qiladi. Ulug`bek Hamdamning uchliklari esa kam sonliligi hamda sarlavhaga egaligi va turli vaznlarda ekanligi bilan o’ziga xosdir. O’zbek she’riyatidagi kichik lirik janrlarning bunday rang-barangligi, shubhasiz, she’rdagi qator shakliy-uslubiy izlanishlarning mahsulidir”[103].

Farida Afro’z uchliklarini “tasbeh” deya nomlaydi. Bu bejiz emas. Adabiyotshunos H.Umurov uchliklarning kelib chiqishini, genezisini diniy sarchashmalarimizga, aniqrog`i, muqaddas kalima “Bismillohir rohmanir rohiym”ga bog`lab talqin etadi: “Bu qudsiy kalimaning ma’nosini, barakotini, muhofazasini anglab, so’ngra ishlatsak, uning azizligini, foydaligini qalbimizga singdiramiz, mo’’jizakorligini tushunamiz. Uchta so’zdan iborat “uchlikning” qudratini, nurini qalbimizga singdiramiz. Qalbimiz yonib, ishga kirishamiz”[104]. Shu tarzda olim uchlik asosini “Qur’oni karim” va muqaddas hadislarga bog`laydi va mumtoz adabiyotdagi musallas, jahon she’riyatidagi terstet bilan qiyoslaydi.

Farida Afro’z uchliklari hayotiy-axloqiy mazmunga ega:

Odamzod hech narsaga begona emas,
Ishqqa ham,

[102] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. 117 б.
[103] Юлчиев Қ. Ўзбек шеъриятида бирлик ва учлик поэтикаси. PhD диссертацияси. Тошкент, 2017. Б. 96.
[104] Umurov H. “Ushlik”larning sizga atalgan saboqlari. –Toshkent, 2018. –B.6.

Qotillikka ham [105].

Haqiqatan, inson murakkab xilqat. U muhabbat, ishqqa ham qodir, ayni zamonda qotillik ham qiladi. Bu uning tiynatidan kelib chiqadi. Shoira ana shu achchiq haqiqatni badiiy ifoda etmoqda.

Qashshoqlik –

Davlatdir,
Nodonlikdan ko'ra.

Mazkur uchlik maqol xarakteriga ega. Nodon bo'lib, odamlarga ozor bergandan ko'ra qashshoq kambag`al bo'lib yashash afzal, deydi shoira.

Sen unchalar badbaxt emassan,
Tanimaysan,
Baxtingni xolos!

Ko'p hollarda inson o'zini baxtsiz deb hisoblaydi. Baxt boylik, hashamat bilan o'lchanmaydi. U qalb boyligi bilan o'lchanadi. Inson salomat yurishi, yaqinlari qurshovida ularning mehridan bahramand bo'lib yashashi, aslida baxtdir. Shu bois shoira "Baxt sening yoningda, faqat sen uni tanimaysan" deya Baxtni insonlashtiradi.

Quyushqonga sig'mas ijodkor,
Sarhad uning o'limi demak,
Chegaradir unga qabriston.

Bu uchlikda haqiqiy ijodkor siyrati aks etgan. Ya'ni hamisha qalbi yonib turgan ijodkor uchun sarhad yo'q. Bu uning uchun o'lim, to'xtab qolish demak. To'xtab qolish chegarasi esa qabristondir. Chunki bu maskan sokinlikka burkangan. Shoira qanchalik qayg`uli va mahzun bo'lmasin, ijodkorning ijoddan to'xtab qolishi sokinlik hukm suruvchi mangulik maskaniga qiyoslaydi

Mening juda tarixim uzun,
Ildizim ham naqadar, chuqur,
Faqat paxta ekib o'tmagan otam.

Mazkur uchlikda xalq obrazi aks etgan. Unda ko'p asrlik xalqning ko'hna tarixiga ishora mavjud. Ayni paytda bunda kinoya ham bor. "Faqat paxta ekib o'tmagan otam" misrasida xuddi shu ifoda va mazmun aks etgan.

Aytganingni hammasini qil,
Ammo,
Qilganingni yarmini ayt.

Bu uchlik ham xalq maqollariga hamohang. Ya'ni xalqimizda "Yaxshilik qil, suvga sol, suv bilmasa, baliq bilar, Baliq bilmasa, xoliq bilar" degan hikmatli so'z bor. Shoira aytmoqchi bo'lgan poetik fikr ham shuning davomidir. Ayrim insonlar "unday qilaman, bunday qilaman" deya og`izda jar soladi. Amalda esa hech narsa qilmaydi.

Xiyonat qildi u
O'ldirdilar, suvga otdilar,

---
[105] WWW.ziyo.uz

Tupirib tashladi dengiz ham.

Bunda xiyonatga badiiy ta'rif berilgan. Xiyonatni hatto dengiz ham qabul qilmadi, tupurib tashladi, deyapti shoir. Bunda dengiz insonlashtirilgan. Hayotga kechirilmaydigan holatlar bor. Xiyonat shulardan biri va eng muhimidir. Chuqur mazmundagi bu uchlikda ana shu holat badiiy ifoda etilgan.

Rayhon! Ismingni kim qo'ygan,
Kim hidlagan seni birinchi bo'lib,
Ollohdan keyin?!.

Mazkur uchlikdagi lirik obraz rayhondir. Rayhon jannat guli hisoblanadi. Shunga ishora tarzida rayhon obrazi yaratilgan.

Anvar Obidjonning "Uch chanoqlar" nomi ostida berilgan uchliklari . Adabiyotshunos N.Jumaxo'janing yozishicha: "Anvar Obidjonning kitobida "Uchchanoqlar" deb nomlangan turkum ham bor... Uchliklar yapon she`riyatida mustaqil janr hisoblanadi"[2]. Olimning aytishicha, yapon uchliklarida yo oniy mavzuda, yo lahzalik ruhiy holatni, yo teran falsafani ifodalashi lozim. Anvar Obidjon uchliklari ixcham, tabiy, aniq falsafiy xulosalarga xayotiy kuzatishlarga boy she`rlardir:

Ko`pdir amalning turi
Amaldorning eng zo`ri
Faqat ochiq oladi.

Shoirning uchliklarga qaytsak, avvalo, "Uchchanoq so`ziga to`xtalsak. Chanoq ko`sakda bo`ladi, paxta ko`saklarida uchchanoq uchraydi. Xalq uni alohida e`zozlaydi. Bolalar orasida uchchanoqni olgan o`rtog`iga berish o`yini bor. Uchchanoqni olgan bola asrab yurishi lozim. Bergan kishi "Uchchanoq" deganda topib bera olsa, yutqazmaydi, yutqazmaydi, topib bera olmasa uchchanoqni bergan bolaning shartlarini bajarishga majbur. Shoir halq mashhur uchchaniq so`zini olib, janrning nomi sifatida qo`llagan. Negaki, she`r uch misradan iborat, chanoqning uch qirrasi bo`lgani kabi she`rning uch qirrasi mavjud.

Ko'rinadiki, zamonaviy o'zbek she'riyatida uchlik shakli alohida o'rin tutadi. Uchliklarda bugunning axloqiy muammolarini ifodalash ustuvordir. Bunday shakldagi she'rlarda Sharq adabiyotiga xos mazmun – didaktika va jahon she'riyatiga xos shakl uyg`unlashib, she'riyatimizda adabiy sintezni vujudga keltirdi. Shu asosda uchlik-musallas(o'zbek)-xokku(yapon)-triolet (fransuz) tarzidagi tipologik tizim vujudga keldi.

[2] Jumaxo`jayev N. Anvar Obidjonning "Bezgak shamol" kitobiga taqriz. Yoshlik, 1986 , № 11. – B.202 -204.

**5A120102 – Лингвистика (француз тили)**

# ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЕ ПО АСТРОНОМИИ

**Р.Р.Бобокалонов**
*БухГУ, факультет иностранной филологии, доцент;*
**Ф.И.Рустамова**
*БухГУ факультет иностранной филологии, магистр I курса*

***Аннотация:*** *В этой статье Астрономия раскрывается как предмет дающий понятие о том, где мы живём и как устроена наша Вселенная.*

***Ключевые слова:*** *вселенная, галактика, солнечная система, планета, млечный путь, кометы, метеориты, астероиды.*

***Annotation:*** *In this article, Astronomy is revealed as an object that gives a concept of where we live and how our universe is arranged.*

***Keywords:*** *universe, galaxy, solar system, planet, milky way, comets, meteorites, asteroids.*

*В современном мире всё большую роль играют наукоёмкие области знания, обладающие определёнными языковыми особенностями. В различных отраслях существуют свои системы терминов, являющихся точным обозначением определённого понятия.*

Астрономия (L'astronomie) – одна из древнейших наук. Астрономия это предмет, который дает реальное, полноценное представление о том, где вообще мы живем и как устроена Вселенная. Ведь, глядя на небо, мы должны хоть немного понимать, кто мы, и какое место хотя бы примерно мы занимаем среди окружающих нас звёзд...

Для меня астрономия, как и биология с экологией, — это неисчерпаемая книга о доме, в котором я живу. Все равно что знать, где у тебя что лежит в квартире и что с чем связано. Это необходимо для жизни, а иначе человек становится глухим слепцом, который постоянно натыкается на стены... и на острые предметы. Человек, не увлекающийся астрономией, подобен слепоглухонемому бомжу - тот тоже не имеет понятия о мире, в котором живет. (Овсянников Владимир, ОО "Тэрион")

Великий французский философ, один из основоположников позитивизма и социологии Огюст Кант (1798-1857) отмечал, что «невозможно глубоко познать ни одну науку, не изучив её историю». Астрономия, наука о Вселенной, одна из самых древних наук, которая изучает положение и движение небесных тел в пространстве, физическое строение, происхождение и развитие небесных тел, их систем и вселенной в целом. Объектами её исследований являются планеты и их спутники, кометы и метеоры, солнце и звёзды, туманности и материя, заполняющая космическое пространство, галактика и внегалактические объекты.

Вселенная (l'Univers) - это пространство, включающее в себя абсолютно все:

Солнце, планеты, нашу Галактику, миллиарды других галактик. Во Вселенную, которая продолжает расширяться, входит множество Галактик - то есть, групп Звёзд с их планетами, а также кометы, метеориты, астероиды (это уже осколки и фрагменты взорвавшихся звёзд или блуждающие во Вселенной объекты). Галактика - огромное скопление звезд, удерживаемых силой тяготения. Солнце - лишь одна из 200 млрд. звезд галактики Млечный Путь, в которую входит Земля. Вероятно, галактик во Вселенной более миллиарда. По структуре они делятся на 3 основных типа: спиральные, эллиптические и неправильные.

Наша Галактика представляет собой скопление звёзд, которые удерживаются в определённом состоянии из-за силы тяготения. В нашей Галактике, которая называется «Млечный Путь» - есть примерно 200 млрд. звёзд, подобных нашему Солнцу.

В Солнечную систему (то есть, вокруг нашего Солнца вращаются по овальной, эллиптической траектории - 9 планет различной величины и состава, создающих эту систему) входит и наша Земля.

Млечный Путь (Voie lactée) - большая спиральная галактика диаметром около 100 тыс. световых лет (световой год равен 9,46 трлн км). Ее возраст - около 14 млрд лет, а один оборот она совершает за 225 млн лет. Как и все спиральные галактики, она содержит газ и пыль, из которых образуются новые звезды. Плотное ядро - старейшая часть галактики, где уже не осталось газа для формирования новых звезд.

Планета (la Planète )- природное небесное тело, которое достаточно массивно, чтобы стать округлым под силами собственной гравитации, но недостаточно массивно для старта термоядерной реакции. Вращается по определенной траектории вокруг своей звёзды. Наша планета Земля входит к планетам Солнечной системы.

Планеты земной группы имеют высокую плотность и состоят преимущественно из камня и металла. Они, как правило, обладают небольшими размерами и вращаются вокруг своей оси с низкой скоростью. В нашей солнечной системе к планетам земной группы относятся:

- Меркурий - Первая планета от Солнца;
- Венера - Вторая планета от Солнца;
- Земля - Третья планета от Солнца;
- Марс - Четвертая планета от Солнца.

Планеты земной группы имеют небольшое количество спутников, то есть, лун. Из вышеприведенного списка только две планеты имеют спутники — Земля и Марс. Все планеты Солнечной системы вращаются по своим

орбитам в том направлении, в каком вращается Солнце. Солнце вращается против часовой стрелки, если смотреть с его «северного полюса». Большинство планет Солнечной системы вращаются вокруг своей оси в том же направлении, в каком движутся по орбите, то есть против часовой стрелки, за исключением Венеры и Урана, которые вертятся в противоположном направлении.

Центральную часть галактики называют ядром. Здесь звезды расположены плотнее друг к другу, чем на окраинах. Современные учёные считают, что в центре крупных галактик находятся большие черные дыры. Вероятно, черная дыра есть и в центре нашей галактики.

Все космические объекты называются небесными телами и их делят на 4 группы: звезды, планеты, астероиды, кометы.

Астрономия, подобно многим другим современным наукам, переживает период стремительного развития, обусловленного техническим прогрессом. Появились и появляются новые отрасли и методы исследований, такие как радиоастрономия, инфракрасная и ультрафиолетовая, рентгеновская астрономия, гамма-астрономия, космохимия, ракетная и спутниковая астрономия и другие. В странах средневекового Востока астрономия считалась одной из развитых естественных наук. Календарь, время определения религиозных обрядов, продолжительность суток, в том числе время наступления религиозного акта (намаза) были основаны на астрономических наблюдениях. Астрономические явления смены дня и ночи регулируют жизнь человека и животных. Первобытные племена часто с большой точностью определяли время дня по высоте Солнца. Это необходимо им для того, чтобы регулировать дневную работу. Другое важное явление, определяющее человеческую деятельность – смена времён года, в высоких широтах это – чередования мёртвой зимы и изобильного лета; вблизи экватора – сухих и дождливых сезонов. Внимание к небесным явлениям стало необходимым, когда труд принял более сложные формы и начали ощущаться новые потребности.

Когда кочевники или рыбаки превратились в торговцев, путешественников, им понадобилось ориентироваться в пространстве, для этой цели они использовали небесные тела: днём—Солнце, ночью—звёзды. Таким образом, пробудился их интерес к звёздам. В самой ранней литературе арабов звёзды уже имели особые названия. Полинезийцы и микронезийцы, которые были опытными моряками, при плавании по Тихому океану пользовались звёздами для определения часа ночи, точки восхода и захода звёзд служили небесным компасом, по которому они управляли ночью своими судами.

Вторым побудительным мотивом, приведшим к тщательному наблюдению небесных явлений, была потребность измерять интервалы времени. Старейшим практическим применением астрономии был счёт времени, из которого позднее развилась наука. Периоды Солнца и Луны (т.е.

год и месяц) являются естественными единицами счёта времени. Годичный период Солнца проявляется в сезонных изменениях, но период лунных фаз более заметен и вследствие своей краткости более практичен. Поэтому лунный календарь преобладал везде, за исключением тех мест, где климатические и сельскохозяйственные сезоны выступали особенно явно.

Лунный период является самой древней календарной единицей. Но даже при чисто лунном счёте такой важный период природы, как год, проявляется уже в самом факте существования двенадцати месяцев и двенадцати последовательных названий месяцев, указывающих на их сезонный характер: месяц дождей, месяц молодых животных, месяц сева или жатвы. Постепенно развивается тенденция к более близкому согласованию лунного и солнечного счёта.

Необходимость разделить и регулировать время разными путями приводила различные первобытные народы и племена к наблюдению небесных тел, и следовательно, к началу астрономического знания.

Использование астрономических наблюдений в целях астрологических предсказаний также дало сильный толчок развитию астрономии.

В средние века и даже позднее каждый астроном наряду с астрономическими наблюдениями занимался также астрологическими предсказаниями, так как верховных богослужителей прежде всего интересовали не астрономические наблюдения, а астрологические предсказания. В результате чего дальнейшие развития получила и наблюдательская астрономия.

В связи с развитием её методов появилось большое число новых терминов. Астрономия в Средней Азии достигла значительного развития уже в средние века, её термины получили самое широкое распространение не только среди учёных, но и поэтов и писателей на протяжении ряда веков— как в классической, так и в советской литературе.

Астрономическое произведение Абу Райхона Беруни «Тафхим» является одним из ценнейших источников научной терминологии персидского и таджикского языков, написанное автором на двух языках, сначала на фарси (таджикском), а потом на арабском. Астрономии посвящено около 70 сочинений этого великого хорезмского учёного. П.Г.Булгалов, известный советский берунивед, писал: «Есть все основания считать Беруни не только одним из блестящих знатоков арабского языка X-X1 вв., но и учёным, пытавшимся посвоему смело воздействовать на него, особенно в области астрономической терминологии».

Имя Улугбека прославлено в веках его звёздными таблицами, в которых он определил положение 1018 неподвижных звёзд с поразительной для того времени точностью. Кроме того, весьма ценны данные наблюдений Улугбека над планетами.

Ученые утверждают, что человечество за всю историю своего существования от рождения до гибели нашей цивилизации не сможет постичь и 5% всего,что нас окружает во вселенной. Изучая и вникая в научные и видимые космические миры – изумляешься и восхищаешься их величием и таинственностью, красотой и безграничием.

Астрономия полезна потому, что она возвышает нас над нами самими; она полезна потому, что она величественна; она полезна потому, что она прекрасна. Именно она являет нам, как ничтожен человек телом и как он велик духом.

Вид Земли из Космоса полностью меняет отношение человека к действительности. Астронавты возвращаются домой с новым видением того, что все мы являемся частью единого целого, с ощущением бессмысленности любых культурных границ, с трепетным отношением ко всему живому и желанием беречь окружающий нас мир.

**Список используемой литературы:**

1. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. М.: Высшая школа, 1987. С. 76-85.
2. Гринев-Гриневич С. В. Терминоведение учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / С. В. Гринев-Гриневич. – М. Издательский центр «Академия», 2008. 304 с.
3. Муртазов А. К. Русско-английский астрономический словарь. – Рязань.: 2010, 188 с.
4. Сурдин В. Г. Большая энциклопедия астрономии / Владимир Сурдин. – М.: Эксмо, 2012. – 480 с.: ил. – (Большая современная энциклопедия).
5. Англо-русско-английский астрономический словарь [Электронный ресурс] // Астронет. URL: http://www.astronet.ru/ db/dict/

## ONOMASTIKA VA NEYROPSIXOLINGVISTIKANING TO‘QNASHUVI

**R.R. Bobokalonov,**
*BuxDU dotsenti,*
**K.D. Oripova,**
*BuxDU I kurs magistranti*

*Mazkur maqola tilshunoslikning alohida yo‘nalishi onomastika va uning neyropsixolingvistika bilan aloqador yangi tadqiqot yo‘nalishi xususiyati haqida ma’lumot beradi.*

Onomastika tushunchasi tilshunoslikning eng qiziq va dolzarb mavzusi hisoblanadi106. Ayrim tadqiqotlarda onomastika termini antroponimika ma’nosida ham qo‘llangan. Onomastika mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi.

Onomastika atoqli nomlarni olgan ob’yektlarning toifalariga muvofiq quyidagi bo‘limlardan iborat: a) antroponimika-kishilarning atoqli nomlarini; b) toponimika-geografik ob’yektlarning atoqli nomlarini; c) teonimika -turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlarini; d) zoonimika-hayvonlarga qo‘yilgan (shartli) atoqli nomlarni; e) kosmonimika -fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarlarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlarini; f) astronimika-ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar)ning nomlarini o‘rganadi (2;7).

Onomastikaning yuqoridagilardan tashqari yana bir qancha bo‘limlari bor. Onomastika atoqli nomlarni realionimlar (avval yoki hozir mavjud bo‘lgan ob’yektlarning nomlari) va mifonimlar (xayoliy-to‘qima ob’yektlarning nomlari)ga bo‘ladi. Atoqli nomlarning lisoniy xususiyatlariga qarab onomastika adabiy va dialektal, odatdagi (amaliy) va poetik, zamonaviy va tarixiy, nazariy va amaliy turlarga bo‘linadi.

Tilshunoslik asosiga ko‘ra, onomastika tarkibiga tarixiy, jug‘rofiy, etnografik, madaniy, sotsiologik, adabiy tarkibiy qismlar kiradi, ular nomlangan ob'ektlar va urf-odatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu atama tegishli nomlar to‘plami deb ham ataladi, bu onimiya atamasi bilan ham belgilanadi.

1. Nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalardagi atoqli nomlarning paydo bo‘lishi, nominatsiya (nomlash) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o‘zgarishlari, nutqda qo‘llanishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda tarkibiy tuzilishini o‘rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli (poetik onomastika) nomlarni tadqiq etish alohida soha hisoblanadi. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo‘llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, so‘z yasalishi, semantik, etimologik va boshqa jihatlarini o‘rganadi.

2. Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi va transliteratsiyasi, an’anaviy (talaffuz va yozilishiga ko‘ra), tarjima kilinadigan va qilinmaydigan nomlarni aniqlash, "begona" nomlarni o‘z tilda kanday yozish bo‘yicha yo‘riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o‘zlashgan nomlardan yangi so‘zlar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o‘zgartirish masalalari bilan shugullanadi (1; 2; 3; 4; 5; 6).

Nazariy onomastika onimik tizimlarning rivojlanishi va ishlashining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Bu umumiy nomlarni va maxsus lug‘atning boshqa sinflaridan to‘g‘ri nomlarni ajratib turadigan o‘ziga xos onomastik

---

[106]Yunoncha, onomastike — nomlash, nom qo‘yish san’ati, ikki ma’noda: 1) tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, 2) muayyan tilda mavjud bo‘lgan barcha atoqli nomlar majmui qo’llanib kelingan .

xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi. Tasviriy onomastika ma'lum bir tarixiy davrda ma'lum bir hudud, til, lahjaning onomastik holatini tahlil qiladi. Bu nomlash har doim jiddiy oʻzgarishlar va uzoq tarixiy taraqqiyotning natijasidir. Amaliy onomastika onomastik tadqiqotning alohida sohasidir. Bu nomlash amaliyoti, shuningdek ularning jonli nutqda ishlashi bilan chambarchas bogʻliq.

Onomastika tarix, etnika, arxeologiya, genealogiya, geraldika, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, geologiya, demografiya kabi fanlar bilan oʻzaro aloqadordir.107

Onomastika tarixshunoslar, geograflar, etnograflar, adabiyotshunoslar uchun zarur boʻlgan amaliy fan sifatida paydo boʻldi. Tilshunoslar lingvistik materialni oʻrganishga lingvistik metodlarni qoʻllagan boʻlsa, tarixshunoslar tarixning asosiy qonunlarini oʻrgandilar. Onomastik tadqiqotchilar yana bir tarafdan arxeologiya, moddiy va ma'naviy madaniyat tarixi, biologiya, falsafa, mantiq, psixologiya va boshqa ma'lumotlardan ham foydalandilar. Ayniqsa, onomastik materialga qiziqadigan bir qator fanlar mavjud (3; 4; 5; 6; 7). Tarixchilar va geograflar uchun asosiy boʻlgan ushbu tadqiqotlarning barchasi onomastika uchun yordamchi hisoblanadi, chunki ismlarning paydo boʻlishi va oʻzgarishi sabablarini, ismlarning berilishi bilan bogʻliq nomlar va urf-odatlarni tushuntirishga yordam beradi. Ismning nomi har bir millat uchun oʻziga xosdir. Jonli soʻzlashuvdagi nomlar ma'lum bir odamga xos boʻlgan voqelik, urf-odatlar bilan chambarchas bogʻliq. Bir xalq madaniyati qanchalik ibtidoiy boʻlsa, u oʻziga xos etnografik xususiyatlarni saqlab qoladi (2; 5; 7).

Har bir xalqning onomastik tizimining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish uning tarixi, etnografiyasi, geografiyasi va boshqalar bilan bogʻliq qiziqarli dalillarni ochib beradi va kelgusidagi tadqiqotlar uchun ajoyib materialdir. Onomastik ishning yoʻnalishlari bir qator izlanishlarda keltirilgan.

Onamastika terminologiya rivoji ucnun ham yoʻl ochib berdi. Toponimika hozirgi kunga qadar onomastikaning eng rivojlangan sohasi hisoblanadi. Terminologiyaning rivojlanishi va takomillashuvi uzluksiz davom etmoqda. 1965 yilga kelib, gidronimika, mikrotoponimiya, oronimika, komonimiya, urbonimiya kabi atamalar belgilandi, bugungi kunda ularga bir qator yangi atamalar qoʻshildi, ya'ni ierarxik tizimda atamalarni aniqlashtirish yanada kuchaydi.

- Biz quyida nomlangan geografik voqelikni aks ettiruvchi toponimiyaning asosiy atamalari bilan tanishishib chiqamiz.
- Hagiotonim - har qanday hagionimdan hosil boʻlgan toponim (hagionim - avliyoning ismi).
- Agroonim - toponimiyaning bir turi. Yer-joylarining nomi, hudud, haydaladigan yerlar, dalalar.
- Astionim - oikonimning bir shakli. Shaharning toʻgʻri nomi.
- Geolonim - gidronimning bir turi. Har qanday murvatning toʻgʻri nomi, botqoqli gidronim toponimiyaning bir turi. Tabiiy yoki inson tomonidan

107 Abduvahob Madvaliyev/ OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

yaratilgan har qanday okeanonim, pelagonim, limnonim, potamonim, helonim kabi suv havzasining nomi.

- Dromonim - toponimiyaning bir turi. Har qanday aloqa yo‘lining to‘g‘ri nomi: quruqlik, suv, yer osti, havo.
- Limnonim - gidronimiyaning bir turi. Har qanday ko‘l, hovuzning to‘g‘ri nomi.
- Oikonim - toponimiyaning bir turi. Har qanday aholi punktining tegishli nomi, shu jumladan shahar.
- Oronim - toponimlarning sinfi. Yer yuzasi relefining har qanday elementining tegishli nomi (ijobiy yoki salbiy.
- Pelagonim - okeanonimiyaning bir turi. Har qanday dengiz yoki uning bir qismining tegishli nomi.
- Potamonim - bu gidronimiyaning bir turi. Har qanday daryoning to‘g‘ri nomi.

Urbanonim - toponimiyaning bir turi. Har qanday ichki makon topografik obyektining tegishli nomi, shu jumladan agronim, godonim, alohida binoning nomi. Boshqa toponimik va onomastik atamalar bilan tanishish uchun "Geografik atamalar lug‘ati: Semiologik tadqiqotlar" kabi nashrlarga murojaat qilishingiz mumkin (2 ; 7).

Shuinday qilib, onomastika zamonaviy tilshunoslikning juda qimmatli bo‘limi, uning terminologik apparati, muammolari doirasi, tadqiqot tarixi va o‘ziga xos tadqiqot usullari bilan jihozlangan keng qamrovli ilmiy tilshunoslikdir. Onomastika - bu barcha turdagi (odamlar, hayvonlar, afsonaviy mavjudotlar, qabilalar va xalqlarning nomlari, mamlakatlar, daryolar, tog‘lar, inson manzilgohlari) tegishli nomlari, ularning tilda ishlatilishi natijasida paydo bo‘lishi va o‘zgarishi tarixi to‘g‘risida fandir. Nomlarning rivojlanishi va ishlash qonuniyatlari to‘g‘risida ilmiy nazariyalar majmuidir. Chunonchi, odamlarning, hayvonlarning, afsonaviy mavjudotlarning, qabilalar, xalqlar va mamlakatlarning, daryolar va tog‘larning, aholi punktlari va boshqalarning nomlarini o‘rganishga vositachi fandir.

Onomastika ob'ektining murakkabligi va xilma-xilligi asosan ushbu predmetning mohiyatini belgilaydi. Ba'zi olimlar (O.N. Trubachev, V. Tashitskiy) tilshunoslikdan tashqari onomastikani qabul qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblashadi va uni asosan til metodlaridan foydalanadigan, ammo gumanitar fanlar majmuasi bilan bir qatorda Yer va Olam fanlari bilan chambarchas bog‘liqlikda o‘rganishni ma’qul topishadi. Shuni ta'kidlash kerakki, onomastika fanlararo bilim sohasidir, ushbu fan tarix, madaniyatshunoslik, o‘lkashunoslik, filologiya, arxeologiya va tilshunoslik fanlari - semantika va semiotika bilan uzviy aloqadordir.

Shuni ta’kidlash kerakki, chet eldagi olimlar ham onomastikani intensiv o‘rganish bilan shug‘ullanishadi. Shaxsni shakllantirish jarayonini o‘rganuvchi mutaxassislarning ta'kidlashicha, bu nom belgi va hatto inson salomatligiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri. Masalan, Chikagoda (AQSh) olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kulgili yoki g‘ayrioddiy

nomga ega boʻlgan odamlar turli xil aqliy kompleks (nuqson)larga koʻproq moyil boʻlishadi. Tadqiqotchi doktor Robert Nikolas ana shunday qiziq xulosa beradi: « Bolaga masxara qilishga sabab boʻladigan ism berilsa, u tengdoshlari orasida birinchi bosqichdan boshlab oʻzini himoya mavqeiga qoʻyadi. U oʻziga nisbatan normal munosabat uchun kurashishga majbur. Xususan, agar bola oʻgʻil va qizga nom berish uchun ishlatilishi mumkin boʻlgan ismni oladigan boʻlsa, masalan, Marion, Mishel, Nikol ismli bola gʻazablangan boʻlishi mumkin. Tadqiqotga koʻra, Villiam ismli katta yoshli amerikaliklar ham ularni Billi yoki Uilli deb atashganda oʻzlarini xoʻrlangan his qilishadi. Ism nafaqat insonning xarakteriga ta'sir qiladi, balki koʻpincha uning taqdirini belgilaydi. Shunday qilib, Melvin, Nigel yoki Yuliya ismli amerikaliklar, odatda, gumanitar fanlar bilan shugʻullanishadi, ammo Rori, Rokki, Chak ismlari bokschilar va futbolchilar orasida eng keng tarqalgan. Tadqiqot natijalariga koʻra, ayollarning ismlaridan Kristin, Cheril, Melaniya, Jennifer va Syuzan ismlari Amerikalik erkaklar uchun eng jozibali nomlardir. Ammo Etal, Alma, Florensiya, Mildred va Edna kabi nomlar Amerikaning kuchli jinsi vakillari orasida yoqimsiz birlashmalarga sabab boʻladi. Jozibali ismlarga ega boʻlgan qizlar yaxshi ishlamasligi kuzatiladi. Ular faqat shou-biznesda muvaffaqiyatga umid qilishlari mumkin. San-Diyego va Jorjiya universitetlari mutaxassislari tomonidan olib borilgan qoʻshma tadqiqot shuni koʻrsatdiki, Maktab oʻqituvchilari Maykl va Deviddan farqli oʻlaroq Elmera va Xubertga past baho berishdi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, ota-onalar ehtiyotkorlik bilan va ehtiyotkorlik bilan farzandlariga ism tanlashlari kerak. Axir, ism - bu birinchi sovgʻadir, ota-onalar bolaga taqdim etadigan hayotdan tashqari. Biroq, ularning xayoliga kelsak, bu sovgʻa insonning hayotiga putur etkazishi mumkin.»

Psixolog Jon Tren ba'zi amerikaliklar aziyat chekadigan eng noqulay nomlar haqida butun bir kitobni toʻpladi. Masalan, Nyu-Orleandagi May oilasi uchta qizlari uchun shunday "ajoyib" ismlarni tanladilar: My, By, Gu. Chikagolik Jekson besh farzandiga Meningit, Laringit, Appenditsit, Peritonit va Tonsillit deb nom berdi. Shu tarzda bolalar ota-onadan ham nafratlanishi mumkin. Bunday bema'ni ismlar barcha tillarda uchraydi. Ruslarda Vladlen nomi Vladimir Ilich Lenindan olingan. Shuningdek, Mels ismining kelib chiqishini koʻpchiliq bilmaydi.

Xulosa shuki, nom qoʻyish me’yorlariga amal qilmaslikning oqibatlariga va bu ijtimoiy-psixologik holatiga e’tibor beriladigan boʻlsa yoki xato nom qoʻyish inson ruhiyati uchun xavf tugʻdirishini inobatga olsak, onomastika neyropsixolingvistika uchun ham ahamiyatli yangi tadqiqot sohasi boʻlishi tabiiydir.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 95.
2. Бўриева Х.А. Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси (Х1Х аср охири – ХХ аср бошлари). НДА. – Тошкент, 2007. – 25 б.

3. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 36-37.
4. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С. 48.
5. Снесарёв Г.П. К истории некоторых категорий теонимов у народов Средней Азии и Казахстана // Ономастика Средней Азии. – Фрунзе: Илим, 1980. – С. 272-282.
6. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 192 б.
7. Турабов А.М. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг таҳлили. НДА.– Тошкент, 1999. – 22 б.

## LEXICAL MEANS OF REPRESENTING THE CONCEPT OF TOURISM IN THE FRENCH TOURISM TEXTS

**M.M. Juraeva,**
*BSU Dean of the Faculty of Philology,*
**M.F. Norova,**
*BSU Student of master degree*

*In this article the characteristic of the tourism sector in France and the features of its terminology are presented, the main results of linguistic studies of the tourism sector in the field of terminology, lexicography and tourist discourse are analyzed.*

The tourism industry, as well as its conceptual framework, is one of the most prone to external influences due to its international character.

The scope of concepts denoted by terms related to tourist terminology is primarily associated with a person, therefore, it is of great interest for research from the point of view of the anthropocentric approach to the language as a whole. Tourism as a branch of scientific knowledge has stood out relatively recently. As a result, the study of tourism terminology causes difficulties that arise already at the stage of selecting sources of special vocabulary and determining its boundaries. Explanatory terminological dictionaries, definitions of French encyclopedic dictionaries, as well as contexts (tourist guides, brochures and videos, etc.) in which this area of activity is reflected are a natural tool in the field of inventory and vocabulary streamlining. Based on such sources, it can be judged that the French terminological vocabulary related to the tourism industry is heterogeneous, it has a number of specific features compared to other terminological systems. It is characterized by the presence of such types of lexical units, as tourism terms themselves, the terms of other professional areas, as well as term words.

Actually tourism terms include terms from the field of tourism technology, tourism economics or tourism geography; For example, - hotel industry: accueil, rapport qualité-prix, 363ome style rustique, confort standard.

According to the reference feature among the French tourist terms, we can distinguish:

1) terms related to the tourism industry as a whole and meaning:

- types of travel: *le Circuit en individuel;*
- types of legal regulation of the industry: *l'Annulation de voyage, l'Assurance;*
- types of tourism: *le Tourisme balnéaire, le Tourisme de montagne, le Tourisme familial, le Tourisme d'affaires;*
- Features of tourism management and marketing: *le Forfait, la Réservation, Basse saison, Haute saison;*

2) terms related to hotel business and meaning:

- hotel industry: *hotellerie, restauration, reservation hoteliere;*
- hotel staff: *réceptionniste, standardiste, employé du hall;*
- types of rooms in the hotel: *Deluxe Suite (Excellence Suite), Double, Family Room, Single, Suite, Twin;*
- types of hotels; *hôtel de charme, hôtel 3 étoiles;*
- types of meals: *Bed & Breakfast (BB), la Demi-pension / (Half Board - HB), la Pension complète / (Full Board - FB), Tout inclu (All inclusive);*
- accommodation options: *l'Auberge de jeunesse, l'Hôtel, le Camping, le Bungalow.*

Among the tourist terms identified in the guidebooks on the basis of a categorical attribute, two large groups can be distinguished: national and international terms. The first group consists of national terms specific to the French tourist terminology system. For instance:

*Les premiers vols de parapente sont apparus dans les années 1980 à Mieussy dans les Alpes (…)*

In the analyzed example, the French term *parapente* – a paraglider was created in the late 1970s on the basis of a productive derivational model of the French language (para- and pente – slope).

*Le gîte L'AIGLON ** Chambre double de 50 E à 69 E; 363ome363ra triple de 65 E à 85 E. Demi-pension: 68 E (pour une personne). Petit déjeuner buffet: 9 E. Lit supplémentaire: 5 E. Parking: 5 E. Soirée VRP 65 E. Chèque Vacances ...*

The French term *le gîte*, according to the dictionary "Larousse", means

"A place where you can live permanently or temporarily "(Littéraire Lieu où l'on trouve à se loger, où l'on couche habituellement ou temporairement) [http://www.larousse.fr/dictionnaires/francais]. The Wikipedia website clarifies the meaning of the term that is characteristic of the tourism industry: "a place for temporary residence, today the term has a narrower meaning, meaning furnished accommodation for tourists" (un lieu où se loger, qui aujourd'hui désigne plus spécifiquement un hébergement meublé touristique) [108].

[108] https://fr.wikipedia.org/wiki

Other terms have the following correspondences:
*chambre double – double room,*
*chambre triple – triple room,*
*demi-pension – half board,*
*petit déjeuner buffet – breakfast buffet.*

The international terms of the tourism sector are represented by borrowings, for example, borrowings from other languages, calling borrowed objects and concepts:

*… ville touristique dispose de plus de 300 km de sentiers de randonnée pédestre ou VTT balisés et d'une via ferrata sur la commune et d'un plan d'eau.*

**„HÔTEL SPA LES COLONNES **** *Hammam, bain bouillonnant, sauna.* However, the most significant amount of borrowing is represented by Englishisms. For instance:

*Les Alpes du Sud réunissent toutes les conditions pour satisfaire l'ensemble des usagers de la neige, qu'ils skient sur les pistes ou en dehors, qu'ils aient la passion du snow-board ou celle du skating.*

In the given example, Englishism is called winter sports:
*snow-board – snowboarding*
*skating – ice skating.*

Note that the original French term patinage exists for ice skating, while the Englishism used in the guide is not fixed by French dictionaries.

The French tourist terminology reflects the complex influence of linguistic and extralinguistic factors and demonstrates a number of trends. On the one hand, the internationalization of tourism leads to the intensification of the processes of borrowing English terms, which demonstrate a different degree of frequency of use and language assimilation. They can also be part of the so-called hybrid bilingual neoplasms. On the other hand, the French tourism system, which has developed over the past two centuries, demonstrates a high degree of national orientation. This is manifested, firstly, in the formation of new terms on the basis of productive models of the French language and, secondly, in the replacement of Englishisms with neologism terms thanks to the work of terminological commissions.

## References:

1. Béjoint H. Le sens des termes / H. Béjoint, P. Thoiron // Le sens en terminologie. Travaux du C.R.T.T. Sous la direction de H. Béjoint et P. Thoiron. – Presses Universitaires Lyon, 2000. – P. 5-19.
2. Моисеева С.А. Концепт дом/жилище во французской и румынской лингвокультурах / С.А. Моисеева // Проблемы лингвистики и лингводидактики. Международный сборник научных статей. – Белгород, 2016. – С. 100-107.
3. Pergnier. M. Les anglicismes: Danger ou enrichissement pour la langue française? / M. Pergnier. - P. : Presses univ. de France, 1989. - 214 p.

4. Rey-DeboveJ, Debove A. Préface du Nouveau Petit Robert. – P : Le Robert, 1993. – p. 23.
5. Тайави Я.М. Англицизмы, относящиеся к сфере туризма, во французских толковых словарях / Я.М. Тайави // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2016. - №1. – С. 113-116.
6. Centre National de Ressources Textuelles et Lexicales. – Электронный ресурс. Режим доступа: www.cnrtl.fr.
7. Comprende le tourisme: Glossaire de base – Электронный ресурс. Режим доступа: http://media.unwto.org/fr/content/comprende-le-tourisme-glossaire-de-base.

## АДАБИЁТШУНОСЛИКДА БИОГРАФИК МЕТОДНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА УНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

**О.И. Адизова,**
*БухДУ, доценти*
**М.С. Содиқов,**
*БухДУ, II курс магистранти*

Дунё адабиётшунослик илмига илк бор француз танқидчиси Ш.О.Сент-Бёв томонидан ўзига хос илмий янгилик сифатида тақдим этилган биографик тадқиқ йўналишининг илдизлари аслида антик дунё ижтимоий тафаккурига, Уйғониш давридаги шахс концепциясига, ундан сўнг XIX аср ижтимоий-сиёсий, маданий-тарихий, илмий-адабий муҳитига хос фалсафий-психологик қарашлар, ўша даврда яшаб қалам тебратган ижодкорлар шахсияти, турмуш тарзи, илмий-ижодий фаолияти, адабий-эстетик дунёқарашига бориб тақалади. Шундан келиб чиқиб, мазкур методнинг Ғарб ва Шарқ адабиётшунослигидаги тараққиёт босқичлари ва хусусиятларини, унинг етакчи намояндалари фаолиятини ўрганиш муҳим ҳисобланади.

Жаҳоннинг йирик адабиётшунослари томонидан тан олинган биографик методнинг ўз илмий-назарий йўналиши, қатъий тамойиллари, муайян даражада турғунлашган сифат ва хоссалари, концептуал жиҳатлари, бошқа тадқиқ методлари ва фан соҳалари билан алоқадор, муштарак ҳамда фарқли қирралари баробарида умумий томонлари мавжуд. Бу метод йилдан-йилга ўзбек адабиётшунослигига ҳам сингишиб бормоқда. Шундай бўлса-да, адабиётшунослигимизда ҳали унинг аниқ илмий таърифи, ўзига хос жиҳатлари, ундан ўзбек олимларининг фойдаланиш маҳорати етарли ёритилмаган. Миллий адабиётшунослигимизда шу пайтгача амалга оширилган илмий-биографик тадқиқотларда, тадқиқотчилик методологиясига доир назарий асарларда, терминологик луғатларда биографик методнинг пайдо бўлиши, шаклланиш босқичлари, ривожланиш тамойиллари, хусусиятлари, мақсад ва вазифалари аниқ белгилаб

кўрсатилмаган. У ҳақда турли даврларда, турли тадқиқотларда сочилиб ётган мавжуд концептуал фикрларни бир жойга тўплаб ўрганиш, сўнгра уларни умумлаштирган ҳолда яхлит хулосаларга келиш, ўзига хос методологик принципларини кўрсатиб бериш эса долзарб вазифалардан бирига айланган.

Ўзбек адабиётшунослигида аксарият тадқиқотлари шоир ва олимларнинг ижодий портретини яратиш характерида бўлган таниқли адабиётшунос Азиз Пўлатович Қаюмовнинг ёндашувларида биографик методга кўпроқ таянилгани кузатилади. Биографик метод кўпроқ тарихийлик асосига қурилишини инобатга олиб, тадқиқотчи олим Азиз Қаюмов айнан адабиёт тарихида ўчмас из қолдирган ижодкорлар ҳақида ёзар экан, бу методга устуворлик бахш этган. Олим ўз тадқиқотларида бу муаллифлар томонидан яратилган бадиий матнларнинг ғоявий-эстетик мазмунини очиб беришдан олдин уларнинг яратувчилари ҳаёти ҳақида маълумот беришни кўзда тутади. Негаки, бундай маълумотга эга бўлмай туриб, ўша асар нима учун, нима мақсадда яратилганини англаш қийин бўлиши табиий. Шу сабабли матндан мазмун қидириш учун, уни яратган муаллиф мақсадини илғаш учун муаллифни биографик жиҳатдан таҳлил қилиш ўзига хос самара беради.

Биографик метод билан тадқиқотчи ишлар экан, у матн муаллифи ички дунёсига кириб боради. Муаллифнинг бадиий-эстетик қарашларини туғдирган, унинг кечинмаларига, изтиробларига сабаб бўлган омилларни аниқлайди ва бу ҳақда ўқувчиларга тушунча етказади. Азиз Қаюмов тадқиқотларида ёзувчи-шоирларнинг психологияси ва ижтимоий-табиий воқеликлар узвийликда ўрганилган. Олимнинг илмий изланишларида биографик метод орқали асарлардаги бадиий образларнинг биографик қирралари ҳам чуқур ёритилган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 25 августдаги ПҚ-451-сон «Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги қарори, 2016 йил 13 майдаги ПФ-4797-сон «Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида»ги, 2017 йил 12 январдаги «Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида»ги Фармони ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, 2017 йил 17 февралдаги ПҚ-2789-сонли «Фанлар академияси фаолияти, илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги, 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорида белгиланган вазифаларни амалга оширишда олимлар тадқиқотлари муайян даражада хизмат қилади.

Жаҳонда ижтимоий фанлар оламида муҳим саналган биографик метод илк бор немис олими В.Дильтей томонидан таклиф қилинган. 1804-1869 йилларда яшаб ўтган француз танқидчиси ва шоири Шарль Огюстен Сент-

Бёв унинг назарий моҳиятини, ўзига хос тамойилларию имкониятларини илмий жиҳатдан биринчилардан бўлиб изоҳлаб берган олимдир. Унинг биографик методдан фойдаланиш маҳорати ҳақида эса Луис Арнольд алоҳида китоб яратган. Биографик метод тўғрисидаги айрим муҳим назарий қарашлар Андре Моруа, Ф.Наркирьер, Ю.Борев, Ю.М.Лотман асарларида учрайди. Шунингдек бу адабиётшунослар биографик метод – адабиётшуносликдаги алоҳида илмий тадқиқот, бадиий асарга ижодкор шахси орқали назарий-амалий жиҳатдан ёндашув усулларидан бири эканлиги ҳақида ўз фикр-мулоҳазаларини билдиришган.

Адабиётшунослик илмида биографик, тарихий-қиёсий, қиёсий-типологик, тарихий-маданий, социологик, структурал-анализ, семиотик, лингвистик, психологик, психоаналитик, формал, герменевтик каби ва бошқа бир қатор методлар воситасида тадқиқот объекти ва предметига ёндашилади. Шу тадқиқ усуллари орасида биографик методнинг ўз ўрни бор бўлиб, адабиётшунослар томонидан бирмунча кўпроқ қўлланиши жиҳатидан алоҳида эътиборни тортади.

Юқорида номи зикр этилган адабиётшунослик методларидан ҳеч бири аслида универсал эмас. Бироқ улар орасида биографик метод мазмун-моҳиятида инсон шахсияти турганлиги билан кишилик тафаккури орқали шакллантирилган барча фанларга оид билимларга, мавжуд оқимлар ва қарашларга таяниб иш кўрадики, шу жиҳатига кўра, у маълум маънода универсиаллик касб этади ва ўзига хос яхлит тизим шаклида намоён бўлади. қолаверса, бугунгача мавжуд барча тафаккур шаклларининг инсоншунослик кесимида марказлашуви биографик методнинг универсаллик даражасини янада оширади.

“Биография” лотинча сўз бўлиб, bios – ҳаёт, grapho – ёзмоқ, “метод” эса йўл, усул тушунчаларини англатади. Демак, “биографик метод” бирикмаси моҳиятан “бировнинг ҳаёти ҳақида ёзмоқ йўли” маъносини билдиради. Дарҳақиқат, биографик метод тадқиқот учун олинган манбани “муаллиф + асар” муносабати йўналишида илмий жиҳатдан ўрганишга қаратилган йўлдир. Адабиётшунос Юрий Борев уни ҳақли равишда “бадиий асарни ёзувчи шахси орқали ўқиш услуби”, дея таърифлайди.

Англашиладики, биографик метод ёзувчининг ҳаёт йўлини ҳамда унинг томонидан яратилган бадиий асарни ўзаро жуфтликда, бирини иккинчисидан ажратмаган ҳолда, диалектик боғлиқликда, ижодкор ва ижод маҳсулини синтезда олиб текширади. Шунинг учун биографик методни ижодкор таржимаи ҳолини ўрганишдан иборат, деб қараб бўлмайди.

Биографик методда муаллиф, яъни ёзувчи-ижодкор, аввало, инсон сифатида ўрганилади. Унинг асарларида ёзувчининг ҳаёти билан боғлиқ нуқталар акс этгани далилланади. Ижодкорнинг биографиясига кириб борилиб, шу орқали унинг шахсидаги энг муҳим қирралар очиб берилади. Ёзувчи ҳаётидаги айрим эътиборли ҳолатлар ижодида ҳам акс этгани асосланади.

Олимлар айтганидек, у орқали ижодкорнинг шахсий ҳаётига, яшаган муҳитига, руҳий-психологик ҳолатига, шахсий қизиқишларига, асарни ёзишга туртки берган илҳом факторларига, ижодкор лабораториясига ва шу каби қатор тарихий-индивидуал масалаларга жиддий эътибор берилади. Биографик метод воситасида, асосан, ёзувчининг ижодий лобараторияси ўрганилади. Ижодкор ҳаётидаги маълум бир воқеа-ҳодисалар унинг ёзган асарларида қайсидир тарзда ўз аксини топгани айнан биографик метод воситасида далилланади. Биографик метод бу жиҳатдан ўзига хос имкониятларга эгадир.

Бу методнинг энг муҳим қирраси шундаки, унда муаллиф-шахс билан муаллиф-ижодкор фарқланмайди. Муаллиф характер-хусусияти у яратган образда мужассамланган бўлади, деб қаралади. Ижодкор биографиясига таяниб, у яратган асар ва асар қаҳрамонлари тушунтирилади. Шунинг учун биографик метод адабий портрет яратишда энг қўл келадиган метод саналади.

Биографик метод ҳужжатларга таяниб иш кўради. Тарихийлик, аниқлик, ҳужжатлилик унга хос принципиал талаблардан ҳисобланади. Биографик методнинг тўла самара билан ишлаши учун аниқ бир ижодкор ҳаёти ва фаолияти ҳақидаги ҳужжатларга эга бўлиш лозим. Афсуски, кўплаб ижодкорларимиз ҳақида маълумот берувчи ҳужжатлар ҳали тўла йиғилган эмас.

Биографик методда битиклар, хатлар, автобиографик матнлар, кундаликлар, мемуарлар, қўлёзмалар – умуман, аниқ далиллар муҳим ўрин тутади.

Биографик метод тадқиқотчини муаллифнинг индивидуал ҳаёт тарзи, шахсий турмуши, ҳаёт йўли, кечмиши, ички кечинмалари, характер-хусусияти, бир сўз билан айтганда, биографияси (ёки автобиографияси)га қизиқтиради. Автобиография инсоннинг ўз-ўзини англашидан иборат ёзма матнни ифода этса, биография бир инсонни бошқа бир инсоннинг англаши натижасида пайдо бўлган ёзма матндир. Бундай матнларда, албатта, ижодкорнинг туғилиши ва вафоти, оилавий шароити, оила аъзолари, фарзандлари, ёру биродарлари, ижтимоий келиб чиқиши, насл-насаби, яшаш жойи, маълумоти, фаолияти, диний эътиқоди ва бошқалар эътиборга олинади. Адабиётшунос Баҳодир Каримов биографик метод хусусида тўхталар экан, шуни назарда тутиб, уни автобиографиядан фарқлаш муҳимлигини алоҳида эслатиб ўтади: “Бу методни таржимаи ҳолдан иборат тарзида содда тушунмаслик керак. Зотан, биографик метод ижодкор таржимаи ҳолининг оддий хронологик тавсиф ва таснифи эмас; ёзувчининг туғилган йили, яшаган жойи ёки муҳити, асарларининг ёзилган йили ва, ниҳоят, ижодкорнинг вафот этган йили – уларнинг бари биографик маълумотлар ҳисобланади... Бунда биографик воқеликнинг изи асарларда колишини ҳеч ким инкор килмайди”.

Таъкидланганидек: “Биографик метод адабиётни шундай ўрганиш усулики, бунда ёзувчи биографияси ва шахсиятига бадиий ижодининг асосий белгиловчи моменти тарзида қаралади”.

Б.Каримов фикрича, бадиий ижод моҳиятини, ижодкор психологиясини, бадиий асар илдизларини очишда биографик метод муҳим аҳамият касб этади.

Ижодкор меросини тўлақонли тушуниш ва холис баҳолаш учун унинг ҳаёт йўли ҳақида тўлиқ тасаввурга эга бўлиш талаб этилади. Бунда биографик методга таяниб иш юритиш эса муҳим самара беради. Шу маънода адабиётшунос Б.Каримовнинг “Биографик методга ўзбек адабиётшунослиги тарихида жиддий эътибор берилмади”, – деган фикрига қўшилиш бироз қийин. Чунки миллий адабиётшунослигимиз тарихида ҳозиргача қанчадан-қанча ном қолдирган ижодкорлар мероси муайян даражада тадқиқ қилинган. Албатта, уларни тўлақонли тушуниш ва холис баҳолаш мақсадида бу ижодкорларнинг ҳаёт йўли билан боғлиқ маълумотларга ҳам имкон қадар таянилганини инкор қилиб бўлмайди.

Б.Каримовнинг бу борада яна айтган “биографик метод айнан «психобиография», яъни ёзувчининг психологик биографияси тарзида адабиётшуносликка татбиқ этилмади”, – деган фикрида эса жон бор. Негаки, биографик метод бадиий асарни унинг муаллифи ҳаёт йўли контекстида ўрганишни назарда тутар экан, табиийки, ўша асарда ижодкорнинг ички руҳий кечинмалари, ўй-фикрлари, орзу-истаклари, алам-изтироблари, армон-интилишлари, кўрган-билганлари, бошидан ўтказган яхши-ёмонликлар, орттирган ҳаётий тажрибалари ва билимлари акс этишини эътибордан четда қолдира олмайди. Ижодкорнинг бундай психобиографияси эса маълум маънода, унинг бадиий асарларидаги вокеа-ҳодисалар баёнида, яратган образлари тизимида ўз ифодасини топади. Мана шундан ижодкорнинг индивидуал маҳорати, яратган асарининг оригиналлиги юзага чиқади.
Адабиётнинг бош тасвир предмети инсон бўлганлигидан, у инсон манфаатларини кўзлаб яратилиши аён ҳақиқат. Мана шу маънода ҳар бир ёзувчи яратган асарида, аввало, инсон манфаатини кўзлаши табиий. Аниқроғи, муаллиф ўз бошидан кечирганларини ҳикоя қилиш орқали, аввало, ўз ўқувчисини кутилмаган ҳаётий ўзгаришлардан, турли руҳий эврилишлардан, қалб тўлғанишларидан, бесаранжомлик, безовталик, оғир ёки енгил ҳиссий кечинмалардан огоҳ этишни истайди. Бундай ҳолатларда инсон ўзини қандай тутиши, йўлини йўқотиб қўймаслиги зарурлиги, ўзини қўлга олиши лозимлигини ўргатишни хоҳлайди. Асосий вазифаси “одоб бериш”га асосланган адабиётнинг роли ҳам шу орқали яна бир карра равшанлашади. Биографик методда бадиий асарнинг жамиятдаги тарбиявий вазифасига катта эътибор каратилади. У орқали адабиётнинг инсонларни огоҳлантирувчи, ҳушёрлантирувчи вази фаси ёрқин намоён бўлади.

## Фойдаланилган адабиётлар

1. Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки. – М., 1981. – С.56.

2. Каримов Б. Биографик метод / Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 166-176.
3. Қуронов Д. Биографик метод / Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 2002.
4. Каримов Б. Биографик метод / Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 166-176
5. Литературный энциклопедический словарь. – М. 1987. – С.54.

## L'ANALYSE CRITIQUE LITTÉRAIRE SERVE À DÉVELOPPER LA THÉORIE DE MÉTHODOLOGIE

**O.I. Adizova,**
*BuxDU dotsenti,*
**R.O. Bobokalonov,**
*BuxDU I kurs magistranti*

L' histoire de la critique littéraire se met progressivement en place dans la seconde moitié du XIX e siècle ne se déroule pas selon un mouvement linéaire, continu, qui irait d' une pratique relativement homogène etap proximative à un approfondissement toujours croissant de sa rigueur et à une complex fication de ses enjeux. La critique littéraire n'est soumise qu'aux seuls diktats de l'histoire littéraire positive, elle est en effet tout entière parcourue de ruptures qui marquent tantôt l'apparition de configurations discursives nouvelles nouveaux objets;nouvelles méthodes de la critique nouveaux modes d'énonciation, etc., tantôt le resurgissement de modèles interprétatifs anciens critique normative, bien séance, bon goût hérité des classiques. Les rapports qu'entretient un auteur avec son oeuvre constituent un des éléments conflictuels les plus importants au sein du vaste débat qui parcout l' histoire de la critique littéraire savante. Rendu possible par une conception romantique de la création qui pose l'existence d'une individualité géniale- et par l'essor du positivisme qui, instaurant une recherche des «grandes causes», amène à envisager l'auteur en tant que causalité première de l'oeuvre, le débat sur les rapports entre l'auteur et son oeuvre oppose d'abord entre eux les premiers défenseurs d'une «science de la littérature » c'est-à-dire ceux par qui,justement, cette critique savante se met en place. Chez un Sainte-Beuve, l'analyse d'une oeuvre ne saurait être conduite indépendamment de la connaissance de son auteur, doitmener précisément à la connaissance de l'homme lui-même .La littérature, la production littéraire, n'est point pour moi distincte ou du moins séparable du reste de l'homme et de l'organisation ; je puis goûter une oeuvre, maisil m'est difficile de la juger indépendamment de la connaissance de l'hommemême; et je dirais volontiers: tel arbre, tel fruit. L'étude littéraire me mène ainsi tout naturellement à l'étude morale

À travers une méthode souple qu' il n'a jamais cherché à ériger en système, ce queSainte-Beuve a surtout en vue, c'est l'é lucidation du génie. Selon lui, c' est ce qui a permis àun chef-d'oeuvre de voir le jour -l'éducation, le milieu, etc.- qui, avec

l'analyse globale desindividualités, doit conduire non pas simplement à une science de la littérature, mais à une science de la vie littéraire

« Un jour viendra, que je crois avoir entrevu dans le cours de mes observations, écrit Sainte-Beuve dans le constitutionnel en juillet 1862, un jour où la sciencemutations qui affecteront non seulement sa manière de juger et d'interpréter les oeuvres, mais également les objets et les méthodes qu’elle s'était donnée jusque-là voir Jean-Thomas Nordmann . La critique littéraire française au XIX' siècle où les grandes familles d'esprit et leurs principales divisions serontdéterminées et connues. » Cette façon d'articuler les rapports entre l'auteur et l'oeuvre, voire entre la vie et l'oeuvre-car Sainte-Beuve s' intéresse davantage à l'homme qu’à l'auteur, c' est-à-dire, de son pointde vue, à ce qui a rendu possible ce dernier, ne fait pas unanimité parmi les critiques del' époque. En 1895, dans la préface à son ouvrage Hommes et livres, Lanson dénonce le fait que Sainte-Beuve en est venu à faire de la biographie presque le tout de la critiqué .

Au lieu d'employer les biographies à expliquer les oeuvres, reproche-t-il à sonprédécesseur, il a employé les oeuvres à constituer des biographies. C'est précis émentéliminer la qualité littéraireTaine, qui pour sa part développera tout un système critiqueautour des trois facteurs déterminants que sont la race, le milieu et le moment, précise que laméthode critique par excellence, loin de se contenter de déduire l'homme à partir de sonoeuvre, doit plutôt chercher à le situer . Vous poursuiviez les détails délicats, dit-il à SainteBeuveau suj et de sa méthode, elle recherche les grandes causes, soutient-il au suj et de lasienne. Au confluent de l' hi stoire naturelle et de la psychologie, la méthode de Taine met àprofit les avancées récentes des autres di sciplines scientifiques. Car ce que cherche lecritique, c' est à rendre intelligibles les relations qui rattachent l'oeuvre à son environnement.

Cette recherche des causes et des lois de la création vient s' inscrire chez lui dans la perspective d'une science de l'homme et de ses produits -le produit étant tout ce qui procèdede l'esprit de l'homme (sentiment, idée, état d'âme).Loin d'être interrompu avec l' ouvrage que Proust consacre à cette question- et dont le titre a donné son nom moderne au problème de l' intention en France-, le bal critique sepour suit au XXe siècle, mais de manière plus animée cette fois. Dans son Contre SainteBeuve, Proust, comme on le sait, reproche à Sainte-Beuve de « ne pas avoir vu l’abîme qui sépare l'écrivain de l'homme du monde», de ne pas avoir compris « que le moi del'écrivain ne se montre que dans ses livres, et qu'il ne montre aux hommes du monde qu’un homme du monde comme eux. Parallèlement au Contre Sainte-Beuve, Albert Thibaudet remet aussi en cause les voies ouvertes par la critique positiviste, et se demande dans quelle mesure la recherche des sources et la connaissance des faits successifs peuvent conduire à une véritable compréhension des oeuvres. Dès ouvrages qu'il consacre à Mallarmé, Thibaudet tâche de développer une méthode attentive au style et qui lui permettra de saisir 1'élan créateur continu qui caractérise chaque écrivain, et de retrouver le courant profond de l'histoire littéraire dans une durée faite d'une suite d'oeuvres imprévisibles.

Au tournant du XXe siècle, la biographie intègre de plus en plus ouvertement les savoir parallèles. De sa plus proche voisine, la critique littéraire, elle se rapproche

non seulementpar ses méthodes psychanalyse et sémiologie notamment, mais également par son objet,voire ses modalités énonciatives. En effet, observe Madelénat, la biographie d'écrivain, àpartir du xxe siècle, dit, discute et disserte, là où s'attendrait une convergence de moyensnarratifs et stylistiques au service de la représentation d'une vie . La biographie serapproche également de la critique par la nature de ses ambitions la concurrence de la critique littéraire accroît la place des oeuvres de fiction comme sources et finalité d' une Madelénat.Archétype de la biographie dix-neuvièmiste en tant qu' il se fonde sur des emprunts divers histoire, critique, essai, taxinomie littéraire, le portrait est abandonné par Sainte-Beuve qui, en 1850,ambitionne une analyse plus rigoureuse : « J' ai cru qu'il y avait moyen d'oser plus, sans manqueraux convenances, et de dire enfin nettement ce qui me semblait la vérité sur les ouvrages et sur lesauteurs. » biographie désormais ouverte sur l'activité créatrice et non cantonnée à un événementiel parallèle.

Nous avons utilisé pour notre article les méthodes l'analyse critique des approches scientifiques, l'étude comparative et typologique des données linguistiques, ainsi que l'analyse componentiel. La réflexion sur les méthodes d'apprentissage des langues étrangères, et sur le développement de ces méthodes reste un sujet de recherche chez les didacticiens, depuis la méthode tradionnelle jusqu'a les nouvelles méthodes. Donc, chaque méthode contient des supports audio-visuels, audio, et parmi les support audio,nous avons choisi de travailler sur «la method» qui est un lien avec la litterature de l'autre dans sa diversité,elle offre une entrée dans la langue française la method est un utilisable de différentes façons. La litterature explique l'importance de la method dans notre vie, et dans l'appropriation des langues, fait partie de l'histoire et du patrimoine d'un peuple témoignant du ton et de l'atmosphère d'une époque de tous les grands événements historiques. Le problème a été étudié a plusieurs reprises par les chercheurs, nous avons consulté plusieurs ouvrages dédiés à ce problème de Charles Augustin Sainte-Beuve dans son article, décrit les questions conceernant l'utilisation des textes authentiques destiné a enrichir les connaissances de civilisation des étudiants et la personnalité des apprenants. Elle estime que tout document doit d'abord servir a développer les capacités mentales des apprenants. L'analyse critiques des différentes approches dans le domaine des nouvelles méthodes servent à développer la théorie de méthodologie de l'enseignement des langues étrangères. Finalement,Nous avons étudié pour la première fois les methods comme les sources authentiques qui servent de supports essentiels lors des cours pratiques de la langue étrangères dans l'établissement . Nous avons essayé de démontrer l'importance de ces sources et de montrer leur rôle dans l'enseignement des langues.

## La litterature:

1. Sainte-Beuve. Au seuil de la modernité. – Paris., 2002 – P.221-236.
2. Charles-Augustin Sainte-Beuve. Chateaubriand jugé par un ami – Paris, 1865. – P.15.
3. Sainte-Beuve,Causeries du lundi, vol. I, Paris, Garnierfrères, s.d., p. 3.49 Madelénat, op. cil., p. 58.50 Ibid. , p. 170.13

4. Antoine Compagnon, Le démon de la théorie, Paris, Seuil, coll.
**5.** « Points/Essais », 1998,p. 53.

***5A120104 - Матншунослик ва адабий манбашунослик***

# "ARBA'IN"DA TERMIZIY HADISLARINING BADIIY IFODASI

**I.Ch. Haqqulov,**
*BuxDU professori, f.f.d.*
**M.R. Jambilov,**
*BuxDU I kurs magistranti*

Alisher Navoiy asarlarining mavzu mundarijasi nihoyatda rang- barang. Ular orasida diniy-tasavvufiy mavzularga bag'ishlangan asarlar salmoqli o'rin egallaydi. Shunday asarlardan biri "Arba'in"dir. Mazkur asar Muhammad (s.a.v) hadislarining she'riy holdagi ifodasidir. Bir to'rtlikka ma'lum bir sahih hadis mazmunini she'riy ifodalab arba'in yaratish Sharq mumtoz adabiyotida an'ana darajasiga ko'tarilgan. Bunda asosan, rasulloh hadislarining xalqqa tez va oson tushunishi nazarda tutilgan. Navoiy ham o'z "Arba'in" asari bilan shu an'anani davom ettiradi. Shoir asarini turkiy tilda yaratib, mazkur tilda gaplashuvchi xalqlar uchun tushunarli bo'lishini nazarda tutadi. Bu haqida hazrat Navoiy shunday yozadi:

Forsiydonlar aylabon idrok,
Oriy erdi bu nafdin atrok.
Istadim, bu xalq ham bori
Bo'lmag'aylar bu nafdin oriy.[109]

Navoiy va ustozi Jomiy hadislarni tanlashda, shubhasizki, 9-10 asr boshlarida islom olamida eng ishonchli deb hisoblangan 6 ta sahih hadislar to'plami: "Sahihi Buxoriy", "Sahihi muslim", "Sunani Termiziy", "Sunani Abu Dovud", "Sunani Ibn Moja", "Sunani Nasoiy" dan foydalangan. Xususan, Termiziy va Buxoriy hadislari asar mazmunining boyishida asosiy manbalardan bo'lib xizmat qilgan. Misol tariqasida quyidagi hadisda ifodalangan she'rga e'tibor bersak:

**4. Xislat a'ni lo yajtami'ani fi mo'minin al-buxlu va su'ul-xulqi.**

Mo'min ersang qilib durringni nisor,
El bila ravshan o'l nechukkim sham.
Negakim, Tengri hech mo'minda,
Buxlu badxo'yliqni qilmadi jam.

Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Ikki xislat mo'minda jamlanmaydi: baxillik va yomon xulq", dedilar. (manba)

Chindan, baxillik va yomon xulq kishini xarob qiluvchi xislatlardir.Yaxshi xulqli farzand ota-onasiga ehson singaridir, yomon xulqlisi esa misli jazo. Baxil

109 Alisher Navoiy "Arba'in" asari. Nashrga tayyorlovchi Suyima G`aniyeva.Toshkent "Fan".2000

inson birovdan narsasini qizg‘anib, o‘zi ham olov kabi yonadi. Aslida esa o‘ziga jannat eshiklarni yopib qo‘yganidan bexabar. Shu ikki xislat mo‘min kishida mujassam bo‘lmaydi. Yuqoridagi to‘rtlikda ham shu hadis mazmuni aks etgan.Shuningdek, quyidagi hadis mazmuni Sunani Termiziy”(3-juz.511-bet.”) da “Baxillik haqida”gi” bobining 1962-hadisi, “Musnadi Abu Dovud Toyalisiyning 2308-hadisida ham zikr etilgan.

Hazrat Navoiy Arba`inning 8-hadis sharhida shunday deydi:

**8. Ad dunyo mal`unatun va mal`unun fiyha illa zikrallohu taolo.**

Dunyovu har ne andadur mavjud
Bo‘ldi haq la`nati giriftori.
G‘ayri haq zikrikim, erur zokir
Tengrining rahmati sazovori.

Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: “Ogoh bo‘ling dunyo va undagi barcha narsalar la’natlangan. (ya’ni Alloh tarafidan g‘azabga yuz tutilgan.Chunki barchasi Allohni zikridan uzoqlashtiradi.) Magaram Allohni zikri, unga yaqin ma’nolar, olim hamda ta’lim olguvchi bundan mustasno, dedilar.
Ya’nikim, bu dunyodagi ko‘p narsalar o‘tkinchi, ularga mehr qo‘yish ham nomunosib ishdir.Alloh zikridan bo‘lak bu dunyodagi har narsa la’natlangan.Zeroki, ta’lim oluvchilar hamda olimlar buyuk kishilar sifatida bundan mustasno qilingan. Quyidagi hadis mazmuni Termiziyning “Sunani Termiziy” (4-juz.151-bet)da “Rasulimiz alayhissalomning zuhdlari” bobida 2322-hadis, “Sunani Ibn Mojja” (5-juz.558-bet.”Zuhd” kitobi) da “Dunyo misoli” bobi 4212-hadis, “Sunani Dorimiy’ (1-juz.350-bet.”Muqaddima”)da “Ilm va olimning fazli bobida” 331-hadisda ham o‘z ifodasini topgan.
Navbatdagi hadisda biz Navoiyning o‘tkir qalam egasi ekanligi bilan birga kuchli e’tiqodli insonligiga ham yana bir karra ishonch hosil qilamiz.

**13.Al majolisu bil –amonati.**

Qaysi majlisdakim eshitsang so‘z,
Bilgil ul so‘z sanga omonatdur.
Gar ani o‘zga yerda naql etsang,
Ul amonatg‘a bu xiyonatdur.

Rasululloh sallallohu alayhi vasallam aytdilar: “Majlisni sharafi uni omonatli ekanligi bilan ( ya’ni majlis sohibi u yerda ko‘rgan va eshitgan narsalarida omonatdor bo‘lishi shart) magaram uch majlis bundan mustasno.Bular nohaq qon to‘kilgan majlis, zino majlisi, nohaq birovni nonini yeyuvchi majlis.(ya’ni bu majlisdan xabardor bo‘lganlar uni oshkora qilishi joiz.).”, dedilar”.
Ko‘rib o‘tganimizdek insonning sir saqlashi, biror majlis yoki yig‘ilishda bo‘lib o‘tgan gaplar unga omonat ekanligini A. Navoiy bu hadisni sharhlash orqali kishi

har qanday holatda ham uning ishtirokida bo‘lib o‘tgan gaplarni birovga aytib qo‘yishdan saqlanish kerakligini eslatyapti.Bu hadis “ Sunani Termiziy ” (3-juz.509-bet.) da “Majlislar omonatdir” bobida 2322-hadis, “Sunani Abu Dovud” (5-juz.121-bet.”Odob” kitobi) da “Gap ko‘tarish yurish” bobida 4869-hadis, “Musnadi Ahmad” (23-juz.45-bet.Musnadi Jobir ibn Abdullo) da 14693-hadis, “Musnadi Ahmad” (23-juz.105-bet.Musnadi Jobir ibn Abdullo) da 14792-hadis, “Musnadi Ahmad” (23-juz.297-bet.Musnadi Jobir ibn Abdullo) da 15062-hadisda ham zikr etilgan.

Tanlangan hadislarning deyarli barchasida kishini yaxshilikka undash , uni komillikka yetaklash g‘oyalari ilgari suriladi.Quyidagi sharh ham fikrimizning yaqqol misolidir.

**36. Kasrat uz –zihki yumiyt ul-qalba.**

Asru ko‘p kulmakim, o‘lar ermish,
Zinda dil ko‘ngli kulgu kasratidin.
Muni har kimki bildi ko‘ngli bila,
Kulmagay o‘lsa ko‘ngli hasratidin.

Rasululloh sallallohu alayhi vasallam aytdilar: “Kulguni ko‘paytirmanglar, chunki ko‘p kulgi qalbni o‘ldiradi”.

Haddidan oshgan kulgi xunuk va besababdek ko‘rinadi.Har narsada me’yor bo‘lganidek kulgi ham me’yoridan o‘tsa qalbni o‘ldiradi.Islomda har narsada haddan oshish yaratganga xush kelmasligi aytiladi. Navoiy hazratlari ham ushbu hadis mazmunini juda chiroyli va ta’sirchan qilib tasvirlaydilar. Ushbu baytlarda mazmuni ifodalangan hadis bir necha manbalarda zikr etilgan.Jumladan, “Sunnani Termiziy” (4-juz.140-bet) da “Kim haromlardan tiyilsa insonlarning eng obididir” bobida 2305-hadisida, “Sunani ibn Mojja” (5-juz. 606-bet.”Zuhd” kitobi) da “Hazinlik va yig‘i” bobida 4193-hadisida, “Sunani ibn Mojja” (5-juz. 620-bet.”Zuhd” kitobi) da “Taqvo” bobida 4217-hadisida keltirilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Arba`in” singari axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlarni mutolaa qilish, Termiziy, Buxoriy singari ulug‘ insonlar hadislaridan bahramand bo‘lish va unga amal qilish bugungi kun yoshlari uchun har tomonlama ma’naviy zaruratdir. Hazrat Navoiy ham shuni anglab o‘z davri maэnaviyati rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Chunki mazkur asar komil inson tarbiyasi uchun beminnat xizmat qilishi, shubhasizdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisher Navoiy “Arba’in” asari. Nashrga tayyorlovchi Suyima G‘aniyeva. Toshkent “Fan”.2000
2. جامع الكتب التسعة. الدار العربية لتقنية المعلومات. 2017.
(“Jome' kutubut tis'a”. Dorul Arabiya shirkati. 2017.)

# SADRIDDIN AYNIYNING NAVOIY “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI TANLANMA MATNI XUSUSIDA

**N.U.Umarova,**
*Buxoro davlat universiteti magistranti*

Ulug` o`zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy “Xamsa”si buyuk shoirlar Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Hoji Kirmoniy, Ashraf Marog`iy, Abdurahmon Jomiy “Xamsa”lari kabi jahon adabiyotining nodir durdonalaridan hisoblanadi.

Sadriddin Ayniy birinchi bo`lib besh dostondan iborat 51230 misralik Navoiy “Xamsa”sini ilmiy jihatdan o`rganib va nashr etishni boshlab berdi. 1940-yilda Sadriddin Ayniy “Xamsa” nusxasini tuzib chiqdi.[110] Adib bu kitobni tanlanma nusxa deb ataydi va nashr xususida shunday fikrlarni bildiradi: “Alisher Navoiyning “Xamsa”sida 50 ming misradan ortiq she’r bor. Keng o‘quvchilar ommasi uchun uni bir butun holda tezda egallab olish ancha og‘ir bo‘ladi. Shuning uchun men bu qiyinchiliklarni nazarga olib, Navoiy Yubiley komitetining topshirig‘i bilan qo‘lingizdagi bu tanlanma nusxani vujudga keltirdim. Bu nusxani tartibga solishda har bir doston va bo‘limlardan xarakterli bo‘lgan parcha va misralarni terib oldim. Ammo har bir doston va boblarning ayrim tashlangan parcha va misralarning mazmunini bayon qildim. San’atkorona ishlangan, lekin u san’at oddiy o‘quvchilarning ko‘ziga ilinmay qoladigan, tushunishi qiyinroq bo‘lgan misra va baytlarni va, shuningdek, Navoiyning shaxsiy hayotiga yoki zamondoshlariga oid bo‘lgan joylarni izohlab o‘tdim. Ba’zi parcha va hikoyalarning tuzilishlari va ulardagi qahramonlar to‘g‘risidagi o‘z fikrimni ham bet ostida bayon qildim”[111].

Ayniy “Xamsa”ning qisqartirilgan o`rinlar va buning sababini o`rganish ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur holat Ayniyning tanlanma matn yaratish prinsiplarini ko`rsatib beradi. Olimning tanlanma matni dastlab 1940-yili lotin alifbosida chop etilgan bo`lib, 1947-yilda esa Solih Mutallibov, Sobirjon Ibrohimov va Porso Shamsiyev kabi olimlar tomonidan asarning nasriy qismlari va sahifalar ostidagi sharhlar qisqartirilgan va ixchamlashtirilgan holda krill alifbosida nashr etilgan. Tahlil davomida 1947-yildagi nashrga tayandik. Bu nashrni “Mukammal asarlar to`plami” sakkizinchi jilddagi “Farhod va Shirin” dostoni bilan qiyoslab o`rganishga harakat qildik. Barchamizga ma’lumki, Navoiyning “Xamsa”sining har bir dostoni muqaddimaviy an’anaviy boblar – hamd, na’t, munojot bilan boshlanadi va har bir bobning boshlanishidan asriy tazrda izohlar qayd etiladi. Sadriddin Ayniy esa muqaddimaviy boblarni qisqartirgan. Ya’ni dostonning dastlabki besh bobi tanlanma matnga kiritilmagan. Tanlanma nashr VI bobdan boshlangan. Buning asosiy sababi sifatida Ayniy yashagan davr mafkura

[110] Навоий Алишер. Хамса. Қисқартириб нашрга тайёрловчи Садриддин Айний. Масъул муҳаррир П. Шамсиев. –Т.: Ўқувпеднашр, 1940.

[111] Садриддин Айний. Алишер Навоий. Хамса.Қисқартириб нашрга тайёрловчи Садриддин Айний. Масъул муҳаррир П. Шамсиев. –Т.: Ўқувпеднашр, 1940. – Б.10 – 11.

va siyosatini ko`rsatishimiz mumkin. Dostonning boshlanishi quyidagicha "Navoiy "Farhod va Shirin" dostoni muqaddimasida qalamni mahi bilan boshlangan:

*... Tanig`aza'fg`olib, ko`rmayinranj,*
*Vale javfiaroko`pma'naviyganj*

Misralaridan keyin Nizomiyni maqtab shunday deydi:

*Aningbuganjidintopmaykishikom,*
*Nechukkim, ganjposhi Ganja orom.*"[112]

Ayniyning tanlanma matn yaratish mahoratidagi yana bir e'tiborli va muhim jihatlaridan biri shuki, matnga qaysi o`rindan boshlab qisqartirish kiritgan bo`lsa, o`sha o`rinni alohida belgilash uchun ko`p nuqtadan foydalanadi. Bu esa tadqiqotichilarning ishilarini ancha osonlashtiradi, ya'ni qaysi o`rinlarga e'tibor qaratish lozimligini bilish mumkin.

Endi qisqartirilgan baytlarni ko`rib o`tamiz:

Vale memori hikmat sozi oning,
Burundin qildi sangandozi oning.

Angakim o`g`riliq rasmin qilib fosh,
Yetib aflok sangandozidin tosh.[113]

Dostonda Hindiston shoiri Xusrav haqida so`z yuritilgan bo`lib, unda ham qisqartirilgan o`rinlarni uchratamiz:

*Bo`yig`anazmsolg`onhullaaxzar,*
*Demato`ti, degilXizripayambar.*

*AningzulmotiHindustonioxir,*
*Ravonso`zchashmaihayvonioxir.*[114]

Olimning bu o`rindagi qisqartirishiga asosiy sabab baytda Xizr payg`ambarning nomi va "chashmayi hayvon" birikasining keltirilganligidadir. Chunki davr mafkurasi shuni talab qilar edi.

*Sarosarulbulutgavhararodur*
*Ki, naysoniybulutyanglig`qarodur.*

*Savodidemakim, mushkinsahobi,*
*Bo`lubharqatraandadurrinobi.*[115]

Bu baytlar ham Ayniy matnida keltirilmagan bo`lib, asarning ixcham bo`lishini ta'min etgan. Qisqartirishlarning aksariyati shu maqsadni amalga oshirishga xizmat qilgan. Jumladan, quyidagi baytlarga diqqatimizni qaratsak:

*Emas gar tog`, bas shiddat qilib big`,*
*Netib gardung`a har dam yetkurub tig`.*[116]

---

[112]Садриддин Айний. Алишер Навоий. Хамса. –Т.: Ўздавнашр, 1947. – Б.73.
[113]Алишер Навоий. Мукаммаласарлартўплами. 8-жилд–Т.:Фан, 1991. – Б. 25.
[114]Алишер Навоий. Мукаммаласарлартўплами. 8-жилд–Т.:Фан, 1991. – Б. 25.
[115]Osha asar. 26-bet.
[116]Osha asar. 27-bet.

*Tutaykimqildio`zchanginiranja,*
*Nekimurdianingchangigapanja.*[117]

Navoiy dostonining VII bobi ustozi va do`sti bo`lgan Nuriddin Abdurahmon Jomiy haqida bo`lib, Ayniy bu o`rinlarda ham qisqartirishlar qiladi, uning izohlarini oddiy kitobxon tushunadigan tilda bayon etadi:

*Ko`rubsarmastijomivahdatoni,*
*DemishlarZindapilihazratoni.*

*Chu ul may durdidinbo`lmishxuro`shi,*
*Safoahliduroningdurdno`shi.*[118]

Yana shunday baytlarni ko`ramizki, boshdan oxir fano timsoli keltirilgan bo`lib bunda tasavvuf g`oyalari ilgari surilgan:

*Bo`lubzohirfanotimsoliandin,*
*Tutubolamniolamxoliandin.*

*Fano ul nav'yetibnaf'yivujudi*
*Ki, yertopibnabudo`rnidabudi…*

*…Fano mulkidajismio`ylafoni*
*Ki, fahmaylabsavodia'zamoni.*

*Jahonnikimqilaolg`aytavahhum*
*Ki, bo`lg`aynuqtaimavhumaro Kim*[119]

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, Ayniy qisqartirgan o`rinlar oddiy kitobxon uchun murakkabroq, tushunilishi qiyinroq bo`lgan baytlardir:

*Alo, tokim, guharserobbo`lg`ay,*
*Shakarningshirasijullobbo`lg`ay.*

*So`zin tut gavharikonimaoni,*
*Shakarjalloblig`dinasraoni.*[120]

Tahlillarimiz shuni ko`rsatadiki, Navoiy dostonining tanlanma matnini yaratgan Sadriddin Ayniy dostonning muqaddima qismidan besh bobni, boblarning nasriy izohlarini va VIII bobgacha bo`lgan baytlardan, aniqrog`i VI va VII boblardan jami 31 baytni tushirib qoldiradi. Bu qisqartirishlarning barchasini bitta maqolada keltirish imkoniyati mavjud emasligi sababli ayrim nuqtalarga to`xtalib o`tishga harakat qildik.

[117]Osha asar. 27-bet.
[118]Osha asar. 29-bet.
[119]Алишер Навоий. Мукаммаласарлартўплами. 8-жилд–Т.:Фан, 1991. – Б. 29.
[120]Osha asar. 31-bet..

Sadriddin Ayniyning tanlanma nashrini "Mukammal asarlar to`plami" sakkizinchi jilddagi "Farhod va Shirin" dostoni bilan qiyoslab o`rganish jarayonida shunday xulosalarga keldik:

1.Ayniyning o`zi aytganidek: "Navoiy Yubiley komitetining topshirig`i bilan qo`lingizdagi bu tanlanma nusxani vujudga keltirdim…"[121] Demak, 1939-yil Sadriddin Ayniyga Navoiy tavalludining 500 yilligini o`tkazish Yubiley qo`mitasining rejasi bo`yicha topshirilgan va bir yil ichida olim bu ishni amalga oshirgan. Bu esa, albatta, juda qisqa muddat. Bunday vaqt davomida shunday katta mas'uliyatni sharaf bilan bajargan Sadriddin Ayniy Navoiyni tushunadigan yuqori salohiyat egasi ekanligidan darak beradi.

2. Tanlanma nashrda "Farhod va Shirin" dostonidagi hamd, na't, munojotlar, tasavvuf va din bilan bog`liq o`rinlar tushirib qodirilgan. Bu, albatta, davr siyosati, mafkurasi bilan bog`liq holatdir.

3. "Alisher Navoiyning "Xamsa"sida 50 ming misradan ortiq she'r bor. Keng o'quvchilar ommasi uchun uni bir butun holda tezda egallab olish ancha qiyin."…San'atkorona ishlangan, lekin u san'at oddiy o'quvchilarning ko'ziga ilinmay qoladigan, tushunishi qiyinroq bo'lgan misra va baytlarni va shuningdek, Navoiyning shaxsiy hayotiga yoki zamondoshlariga oid bo'lgan joylarni izohlab o'tdim…"[122] Olimning bu fikrlari asosli. Haqiqatdan ham, keng xalq ommasi uchun oson va tez tushuniladigan, Navoiyni tezroq anglab yetadigan va shu asosida millatning buyuk adibga hurmat va e'tibori oshishiga, xalqning ma'naviyatini shakllantirishga hissa qo`shish edi.

Shulardan kelib chiqqan holda Sadriddin Ayniy yaratgan tanlanma matn o`z davri kitobxonlari uchun zarurat sanalgan. Chunki kitobni tezroq tayyorlash, nashr etish muhim jihatlardan biri bo`lsa, ikkinchi tomondan xalqni Navoiy ijodi bilan imkoni boricha tezroq tanishtirish vazifasini bajargan. Shu nuqtayi nazardan Ayniy faoliyatini Navoiyga hurmat-ehtirom va xalq ma'naviyatiga yuksak e'tiborlilik mahsulidir, deya baholash mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 8-жилд –Т.:Фан, 1991.

2. Валихўжаев Б., Воҳидов Р. Навоий ижоди – илҳомманбаи. – Т. : Фан, 1981.

3. Садриддин Айний. Алишер Навоий. Хамса. Қисқартириб нашрга тайёрловчи Садриддин Айний. Масъул муҳаррир П. Шамсиев. –Т.: Ўқувпеднашр, 1940.

4. Садриддин Айний. Алишер Навоий. Хамса. –Т.: Ўздавнашр, 1947.

5. Ҳайитметов А. Забардаст навоийшунос//Ўзбек тили ва адабиёти, 2003.

[121]Садриддин Айний. Алишер Навоий. Хамса.Қисқартириб нашрга тайёрловчи Садриддин Айний. Масъул муҳаррир П. Шамсиев. –Т.: Ўқувпеднашр, 1940. – Б.10 – 11.

[122]Садриддин Айний. Алишер Навоий. Хамса.Қисқартириб нашрга тайёрловчи Садриддин Айний. Масъул муҳаррир П. Шамсиев. –Т.: Ўқувпеднашр, 1940. – Б.10 – 11.

# “NAZMUL JAVOHIR”DA SO‘Z TA’RIFI

**Z.Q. Amonova,**
*BuxDU dotsenti,*
**G.A. Murodova,**
*BuxDU I kurs magistranti*

O‘zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiy she’riyati nihoyatda muhim o‘rin egallaydi. Shoir lirikasi mavzular olami keng ko‘lamliligi bilan ajralib turadi. Navoiy she’riyati nazm olamining eng noyob durdona va nazm ichra mo‘jizalarning mo‘jizasi hisoblanadi. U hayot tomirlaridagi ichki harakatni, davr yuragidagi murakkab ritmni chuqur his eta oladigan zukko olim va siyosat arbobidir. Shuningdek, u yaratgan adabiy merosi o‘zining ko‘pqirraligi, ya’ni turli masalalardan bahs yuritganligi va har xil navlarda she’r yozganligi bilan o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘ringa ega. Alisher Navoiy ijodiyotida qo‘llangan so‘z, tushuncha va badiiy timsollar maxsus o‘rganishga zarurat tug‘diradigan alohida bir olam deb qarash mumkin. Navoiy she’riyatida qo‘llanilgan har bir so‘z kitobxonda o‘zgacha bir ishtiyoq, she’riyatga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Ma’lumki, Sharq mumtoz adabiyotida so‘z ta’rifi va uning qudratini madh etish an’ana darajasiga ko‘tarilgan. Jumladan, Alisher Navoiy ham o‘zining deyarli barcha asarlarida so‘z haqidagi qimmatli fikrlarni bayon etadi. Xususan, shoir “Nazmul javohir”da so‘z qudrati, uning ulug‘ligi, martabasining darajalari kabi bir qator masalalar yuzasidan mulohazalar badiiy aks ettirilgan. Muallif “Nazm ul-javohir” asarida so‘zga falsafiy jihatdan yondashadi va talmeh vositasida insonni hayvondan ajratib turguvchi eng asosiy omil so‘z ekanligini ko‘rsatadi: “Har oyina bu javhari jonbaxsh bashar xilqati konidin va bu lului ravonbaxsh inson vujudi ummonidin zohir bo‘lmasa erdi Iso bila markabi arosida ne tafovud va solih bila noqasi o‘rtasida ne mug‘oyarat bo‘lg‘ay erdi” [1] . Demak, inson so‘z durlari bilan ziynatlanmas ekan, Iso payg‘ambar bilan ulovi orasida va solih payg‘ambar bilan tuyasi o‘rtasida qanday farq qoladi? Garchi ular payg‘ambar bo‘lsalar ham. Shundan so‘ng, Navoiy yuqoridagi fikrlarning poetik ta’sirini oshirish va ularning davomiyligini ta’minlash, qolaversa, umumlashma fikrni bayon etish maqsadida quyidagi ruboiyni keltiradi:

So‘zdurki nishon berur o‘lukka jondin,
So‘zdurki berur jong‘a xabar jonondin,
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhare sharifroq yo‘q ondin.

Mumtoz adabiyotda so‘zning muqaddas sanalishi va uning asosida mukarram bir san’at vujudga kelishi so‘zga Yaratganning buyuk mo‘jizasi degan munosabatdir. Hazrat Navoiyning yuqoridagi ruboiysida so‘zning shunday talqiniga yana bir bora guvoh bo‘lamiz. Birinchi misrada ijodkor so‘zga ta’rif berar

ekan , uni oʻlgan kishiga tiriklik baxsh etuvchi, uni hayotga qaytaruvchi yaratiq sifatida e’tirof etadi. Keyingi misrada ijodkor oʻz qarashlarini tadrijiy rivojlantirib, soʻz oshiqqa oʻz ma’shuqasidan xabar beruvchi, ma’shuqaning yoriga boʻlgan munosabati soʻz orqali ifoda etilishini ta’kidlaydi. Oshiq jononning kalomiga shunchalik mushtoqki, bu kalom yorga oʻz jononi holidan xabar beruvchi sifatida ulugʻlanadi. Ushbu misrada muallif “jon”, “jonon” singari soʻzlarni qoʻllash orqali tanosub san’atining goʻzal namunasini yaratgan. Uchinchi misra nihoyatda ohoriy: insonni hayvondan farqlovchi asosiy xususiyat ham soʻz bilan aks etadi. Inson mavjudotlar orasida eng onglisi ekanligiga shubha yoʻq. Hazrat Alisher Navoiy xuddi shu fikrga qoʻshimcha tarzda soʻzda ham shunday xususiyat borligini ta’kidlaydi. Soʻnggi misrada shoir soʻzga yuksak baho berar ekan, soʻzdan sharifroq, soʻzdan buyukroq gavhar yer yuzida topilmasligiga ishora qiladi. Yuqoridagi barcha fikrlar oxirgi misraga kelib umumlashtiriladi. Shoir soʻzni shunday goʻzal ta’riflar ekan, bu ham shoir mahoratidan dalolat beradi.

Demak, insonlar va hayvonlar oʻrtasidagi tafovut soʻz sababidan ekan, biroq soʻz bilan soʻz oʻrtasida ham cheksiz tafovut va farq mavjudki, hazrat Navoiy ushbu fikrni “insonlar aqllariga yarasha gapiradilar” oyati karimasi bilan izohlaydi va soʻzning ham oʻz tadrijiy martabasi borligi xususida qimmatli fikrlarni bayon qiladi: “Bu soʻzkim, soyiri hayvonot bilan inson orasida dagʻi tafovut aning sababidindur. Turfa bukim, aning orasidagʻa tavofut behaddu farq beadad durki, “Kalamu an-nosu ala qadri uqulihim” andin xabar berur. Ma’lum boʻldikim, soʻzga marotib bor va har martabada hunar ma’yib va ul marotib ijmoli yuzidin idrok va diqqatoyinlari va uqul xurdabinlari qoshida uch qism birla munqasimdurur”.

Shu oʻrinda aytish kerakki, Navoiy ushbu asarda hazrat Ali hikmatlarini ta’riflar ekan, ana shu hikmatlarning zamon ahliga tarqalishida vosita sanalgan qalamni ham koʻzdan qochirmaydi. Ya’ni Navoiy hazrat Ali qalamini oʻz qilichidan nishona deydi va uning tezligini bulbuliga oʻxshatadi: “Mundin soʻngra hidoyat gulistonining bulbuli xushilhoni va valoyat shakaristonining toʻtiyi shirin zaboni, karomat sarpanjasi bila balogʻat Xaybari eshikin ochqon va karam zoʻrdasti bila karomat bahrilaolisin zamona ahli boshigʻa sochqon: ikki zabonliq kilki zulfiqoridin nishona va ul kilki zabonlari sur’atda duldulidek ravona bu barguzidaning nazmi gavhar nishoni va nasri lu’lufishonidur. Andin soʻngra mashoyih va avliyo (“Razi allohu anhu”) soʻzi boʻla olur”.

Navoiy soʻz martabasini darajalarga boʻlib tasniflar ekan, uning naqadar mushkul va nozik ish ekanidan ajablanadi va shundan soʻng fikriy umumiylikni ta’minlovchi va uning ta’sirchanligini oshiruvchi ruboiyni keltiradi:

Rifa’t aro favqi arshi a’zam soʻz emish,
Jonbaxsh dami Masihi Maryam soʻz emish,
Ma’ni durri anda barcha mudgʻam soʻz emish,
Ulkim, anga ma’ni oʻlmagʻay ham soʻz emish.

Ko‘rinadiki, keltirilgan ruboiyning birinchi misrasida so‘z buyuklikda arshi a’loga, ikkinchi misrasida esa jonbaxshlikda Iso masihga tenglashtirilmoqda. Xuddi shu fikrga yaqin fikrni biz “Hayrat ul-abror” dostonida ham uchratamiz:

Tirguzub o‘lganni kalomi fasih,
O‘ziga jonbaxsh laqab deb Masih [3].

Ushbu fikrlardan so‘ng Navoiy so‘z bog‘ini ajab gulistonga o‘xshatadi. Bog‘ning xushbo‘y va go‘zal gullari bo‘lsada, biroq zararli tikonlari va foydasiz xasu xoshoklari ham borki, so‘z gulshani ham xuddi shunday: uning go‘zal va foydalilari bo‘lgani kabi xas-u xoshok va tikan misol foydasiz va zararlilari ham bor. Biroq bulbul tikonga emas, gulga qo‘nadi, zog‘ esa tikonga.

Lekin bu bahor jilva og‘oz qilur,
Bo‘ston aro gulsho‘xlari noz qilur,
Gar zog‘ tikan aro vatansoz qilur,
Bulbul bori gul bargiga parvoz qilur.

Asarni tahlil qilish jarayonida shunga amin bo‘lamizki, Navoiy ushbu ruboiyni bejiz keltirmaydi, chunki u o‘z tab’ini bulbulga mengzaydi. Hamda uning so‘z gulistonini vatan tutganini, tutganda ham xas-u xoshok misol so‘zlarni emas, balki eng go‘zal va ma’noli so‘zlarni tanlaganini ta’kidlaydi. Bundan ko‘rinadiki, Navoiy hazrat Ali hikmatlarini nafaqat duru javohirlarga, balki bog‘ning eng nafis va go‘zal gullariga o‘xshatayotgani ma’lum bo‘ladi.

Demak, so‘z ilohiy qudrat ekan, Sharq mumtoz adabiyotida o‘ziga xos badiiy ta’riflarga ega. Mumtoz adabiyotda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Alisher Navoiy ijodida so‘zni ta’riflash esa haddi a’losiga ko‘tarildi. “Xamsa” dostonlarida maxsus bob bo‘lib kelishi bilan birga ruboiylarida so‘z talqiniga alohida o‘rin ajratdi. Ayniqsa, “Nazmul javohir”da so‘zga yuksak e’tibor bilan qarab va uni butun borliq yaratilishining ekanligini takidladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Nazm ul javohir. Mukammal asarlar to‘plami, 20 jildlik. 15jild.- Toshkent: Fan, 1999.
2. Alisher Navoiy . Hayratul –abror.Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2006.

# ЗИЁВУДДИН НАХШАБИЙ ВА ТЎТИНОМА АСАРИ МУНДАРИЖАСИ

**А.Аҳмедов**
*Бухоро давлат университети магистранти*

Бизгача етиб келган кўпгина ёзма манбаларда бой маънавиятимиз тарихи ривоятлар асосида қизиқарли қилиб баён этилган. Шундай тарихий-афсонавий сюжет заминига эга бўлган асарлар қаторига “Тўтинома” асарини ҳам киритиш мумкин. Тасаввуфий, ҳинд эртак ва эпослари асосида шаклланган бу асар сюжети замонлар оша китобхонларга яқиндан таниш бўлиб, Шарқ халқлари орасида кенг тарқалиб келган. Аввал Санскрит тилидаги “Шукасаптати”, яъни “Тўтининг етмиш ҳикояси” дея атаб келинган ҳикоялар тўплами асрлар ўтиши билан “Тўтинома” номи билан шуҳрат топган ва уни XIV асрга яшаб ижод қилган Зиёвуддин Нахшабий биринчи бор қайта ишлаб, ўзига хос асар яратган эди.[123]

Шарқ ва Ғарбда шуҳрати таралган Зиёвуддин Нахшабийнинг “Тўтинома” асарини яратилишидан мақсад қизиқарли, ибратомуз ҳикоялар орқали инсонларнинг диний-ахлоқий ва тасаввуфий ғоя руҳида тарбиялашга қаратилган.

Қуръон сураларидан оятлар ва ҳадислар келтирилганлигининг ўзиёқ панду ҳикматга тўла сўзлар, матал ва масалларни ўз ичига олган асардан кўзланган асосий мақсад китобхоннинг эътиборини аллегорик дидактик ҳикоялар орқали диний-ахлоқий тарбиянинг муҳимлигига қаратиш эди.

Таниқли шоир, адиб ва мутасаввиф Зиёуддин Нахшабий XIV асрда Нахшаб (Қарши) шаҳрида туғилган. Ёшлик йилларида оиласи билан Ҳиндистонга кўчиб кетган. Умрининг кўп қисми Бадоунда ўтгани учун “Бадоуний”, “Ҳиндий-Бадоуний” нисбалари билан ҳам номланади. Зиёуддин Нахшабий ўз она тилидан ташқари форс, араб, санскрит тилларини пухта билган. Ўз замонасининг тафсир, ҳадис, фалсафа, ахлоқ, тиббиёт, мусиқа, аруз, тасаввуф, фиқҳ сингари илмларини пухта ўрганган. Турмуш қийинчиликларига қарамасдан ҳокимлар ва султонларнинг даъватларини қабул қилмаган. Умрининг охирларида аҳлиуллоҳлар билан қўшилиб, гўшанишинликни ихтиёр этган.

Мавлавий Ғулом Сарвар ўзининг “Хазийнат-ул асфиё” асарида бир қатор шайхлар билан бирга Зиёуддин Нахшабий ҳақида ҳам қуйидагиларни маъум қилган: Зиёвуддин Нахшабий қаддаса сирруҳу Шайх Фаридуддиннинг етакчи халифаларидан, катташайхлардан ва Султон-утторикийн Ҳамидуддин Сўфийнинг невараси эди. Зиёвуддин Ҳиндистоннинг машҳур авлиёларидан эди. У киши Бадоун шаҳрининг бир четки қисмида ўз ишлари билан машғул

[123] Ҳасанова Шафоат Саидбековна. “Тўтинома” ва “Қуш тили” туркумидаги асарларнинг қиёсий-типологик ва текстологик тадқиқи. Докторлик диссертацияси автореферати. Тошкент. 2016.

бўлиб яшар эди. Халқ билан суҳбатлашишни унчалик ҳам хушкўрмас эди ва кишиларнинг эътиқоди ва фикрлари билан ҳам иши йўқ эди.[124]

Зиёвуддин Нахшабий умри давомида бир қанча асарлар муаллифи бўлгани тарихий-адабий манбаларда акс этган. Шулардан “Силкус-сулук”, “Куллиёт ва жузъийот” (Чил номус ёки Номуси Акбар номи билан ҳам маълум), “Қасидаи Рубубия”(ёки Шарҳи қасидаи Сурёний), “Достони гулрез”, “Ашараи мубашшира”, “Лаззатун-нисо” ва “Тўтинома” асарлари шулар жумласидандир.

Зиёвуддин Нахшабийнинг энг машҳур асарларидан бири “Тўтинома” асаридир. Ушбу асар ёзма манбаларда кўрсатилишича ҳижрий 730 ҳижрий(1329-30 милодий) санада ёзиб тугатилган. Ҳинд фольклори намуналарининг қайта ишланган варианти бўлган бу асар асрлар давомида қўлма-қўл бўлиб ўқилган ва турли тилларга таржима қилинган.

Шарқнинг машҳур асари ҳисобланган “Тўтинома” асрлар давомида кўплаб тилларга, жумладан Ҳиндистоннинг шимолида жуда кенг тарқалган урду тилига ҳам таржима қилинган. Ана шундай таржималардан бири Ҳиндистон шаҳаншоҳи Буюк Акбарнинг бош вазири, “Акбарнома” асарининг муаллифи Абу Фазл Алломий томонидан тахминан 1580 йили амалга оширилган. Кейинги даврларда форс тилидаги “Тўтинома” асари Малайз тилида ҳам ўгирлди. Унинг туркча варианти 1858йилларда Немис тилига таржима қилинган. Нахшабийнинг “Тўтинома”си бир қанча форсча ва туркча қисқартирилган вариантлари ҳам мавжуд. Масалан “Чил тўти” номи билан маълум асар “Тўтинома”нинг форс тилидаги қисқартирилган шакли бўлса, Муҳаммад Қодирий томонидан XVIII асрнинг охирида қисқартириб ёзгани туркийдадир. Муҳаммад Қодирий Зиё Нахшабийнинг 52 ҳикоясини ўз ичига олган “Тўтинома” асарини қисқартириб, ундан 35 ҳикояни ўз китобига киритган. Муҳаммад Қодирийнинг қисқартирилган “Тўтинома”си Гладвинга 1801йилда ингилиз тилида таржима қилиб кўчирган. 1822йилда Икен томонидан немис тилида таржима қилиб кўчирилган[125].

Юқорида зикр қилинган асарларнинг аксарияти бизнинг давримизгача етиб келган. Нахшабий шеърлар ҳам самарали ижод қилган. Назмий асарлари таркибидаги фард, байт, рубоий, қитъа, ғазал ва маснавийлар унинг юксакистеъдодидан далолат беради. Атоқли рус олими А.Кримский биринчилардан бўлиб Нахшабий ҳаёти ва фаолиятига оид баъзи маълумотларни тўплаган. Кейинроқ Е. Бертельс “Ислом қомуси” асарида Нахшабий ва унинг асарлари ҳақида маълумот берган. 1979 йилда эса “Тўтинома”ни таржима қилиб, рус тилида нашр эттирган. Ўзбекистон Фанлар Академиясининг Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида “Тўтинома”нинг турли даврларда кўчирилган 9та нусхаси мавжуд. Шунингдек, 159/XIX рақами остида шоирнинг шеърий асарларини ўз ичига

[124] Дуктур Фатҳуллоҳ Мужтабоий, Дуктур Ғуломали Ориё Устодони донишгоҳ. Чопхонаи Гулшан. Ношир: Интишороти Манучеҳри. Хиёбони жумҳури ислом муқобили синемо Уврупо. Эрон. 1372ҳ. Б. 12. PDF

[125] Дуктур Фатҳуллоҳ Мужтабоий, Дуктур Ғуломали Ориё Устодони донишгоҳ. “Тўтинома”. Чопхонаи Гулшан. Ношир: Интишороти Манучеҳри. Хиёбони жумҳури ислом муқобили синемо Уврупо. Эрон. 1372ҳ. Б. 21. PDF

олган “Девони Зиёи Нахшабий” сақланмоқда. У 1850 йилда Муҳаммад Ҳусайн Булғорий томонидан кўчирилган. Жаҳондаги бир қатор кутубхоналарда, жумладан, Санкт-Петербургдаги М.Е.Салтиков-Щчедрин номидаги давлат халқ кутубхонаси жамғармасида, Эрон Университетининг марказий кутубхонасида 2447 рақам остида 1130ҳ/1718 йилда кўчирилган нусхаси, Париж (Франсия) да мазкур асарни 1331ашёвий рақам остида сақланаётган микрофилми ҳам мавжуд. Шунингдек, Бухоро давлат музей-қўриқхонаси “Ҳужжатлар” фондида №23496/11 ашёвий рақам остида сақланаётган 1110 ҳ/1698йилда Муҳаммад котиб томонидан кўчирилган нусхаси[126], Абу Али Ибн Сино номидаги Бухоро вилоят кутубхонанинг “Шарқ қўлёзмалари” фондида №192 ашёвий рақам остида сақланаётган 1286ҳ/1869йилда Мулло Миркомил Мирзо бин Мир Исмоил томонидан Чуст вилоятида кўчирилган нусхалари каби бир қанча нусхалари борлиги маълум[127].

Нахшабийдан кейинроқ яратилган Қодирий ва Латифийнинг “Тўтинома”лари анча ихчам ва ўзига хослиги жиҳатидан ўқувчиларнинг диққат эътиборини қозонган.Уларнинг асарларида бу машҳур сюжет билан боғлиқ бўлган аксарият манзаралар тўлиқ ифодасини топгмаган. Юксак даражадаги асарлар талабига жавоб бериши учун улар ўзига хос сюжет ва композицияга, образлар тизими, мазмун билан шакл мутаносиблиги ва ниҳоят ижодкор тили билан бадиий ўзига хос бўёқлар орқали ёритилиши ва ҳеч бўлмаганда анъана қоидаларига риоя қилинмоғи шарт эди. Лекин мазкур асарларнинг ҳаммасида ҳам юқоридаги талабларга риоя қилинган, деб бўлмайди. Бизнинг қўлимиздаги “Тўтинома”нинг мундарижаси қуйидагичадир:

1. Достони Маймун ва Хужаста ва насиҳат гуфтани тўти. Шаби аввал.
2. Достони шоҳи Табаристон ва марди ятоқий ва фидо кардани ў писари худро пешсурати умри подшоҳ. Шаби дувум.
3. Достони заргар ва нажжор ва овардани батони заррин аз шаҳри дигар ва дуздидан заргар ва ҳийла кардани нажжор. Шаби севум .
4. Достони марди лашкари ва маликзода ва зани солеҳ ва додани даста гули тоза ва мондани ҳама тоза. Шаби чаҳорум .
5. Достони Рой Камруд ва илож кардани тўти ва нимкора мондани заҳмати ў. Шаби панжум.
6. Достони заргар ва нажжор ва хаёт ва бар пайкари чуб мубтало шудани ҳар ҳафт ошиқ ва рафтани пеши дарахт. Шаби шашум.
7. Достони Ройи Роён бархостани ў аз сари духтари малики Жин ва дигар рўйи пири ошиқ. Шаби ҳафтум.

---

[126]Бухоро давлат музей-қўриқхонаси “Ҳужжатлар” фондида №23496/11 ашёвий рақам остида сақланаётган 1110 ҳ/1698йилда Муҳаммад котиб томонидан кўчирилган нусхаси

[127]Абу Али Ибн Сино номидаги Бухоро вилоят кутубхонанинг “Шарқ қўлёзмалари” фондида №192 ашёвий рақам остида сақланаётган 1286ҳ/1869йилда Мулло Миркомил Мирзо бин Мир Исмоил томонидан Чуст вилоятида кўчирилган нусхалари

8. Достони шаҳзода ва ҳафт вазир ва офати, ки аз сабаби канизак баду расид ва халос ёфтани ў. Шаби ҳаштум.

9. Достони шоҳи Шом ва озод кардани тўти ва овардани ў меваи ҳаёт аз чашмаи зулумот. Шаби нўҳум.

10. Достони писари вазир ва тожир ва роҳиб ва занони эшон ва сухан гуфтани тўти чўб.

11. Достони кори хайри писари Ройи Банорасва омадани дарё базиёфат ва номзодкардани бараҳманро бажиҳати овардани дарё ва машварати ў бафарзандон ва боздилун.

12. Достони марди хокбиз ва ёфтани ў дур қиймати ва дуздидан яке ҳамроҳон ва берун овардан духтари Рой бафаросат ва қиёсати хуяш (بفراست و کیاست خویش) Шаби дувоздаҳум.

13. Достони фароҳам омадан(жам шудани) ҳаштод ҳаким ва шинохтани табъи маликзода ва навохтани мазомир. Шаби сездаҳум

14. Достони баёни илми мусиқий ва кайфияти мазомир ва ихтиро ва истимзоҳи он. Шаби чаҳордаҳум.

15. Достони шеър ва ҳижоб гирифтани гурба ва кушта шудан мушон аз дасти панжаи гурба ва пушаймон шудани гурба. Шаби понздаҳум.

16. Достони Рой қабоҳати писари Рой Банорас ва латофати зани ў ва ошиқ шудани ў бар жувони шўху тирор. Шаби шонздаҳум.

17. Достони Мансур тожир ва мусофирати ў ва омадани шахси бар ҳайъати Мансур дар хонаи Мансур ва расво шудани хўжа фаръий бадаст хўжа аслй. Шаби ҳафдаҳум.

18. Достони амирзода зовул ва харидани фоли нек ва халоси додани ғук (-غوكғавк) ро аз мор ва ихлос намудани эшон боамирзода. Шаби ҳаждаҳум.

19. Достони товуси Рой ва уашта шудани ў бадасти зани бараҳман ва ғаммози кардан хоҳар хондаи худ ва ҳийла сохтан зани бараҳман. Шаби нуздаҳум.

20. Достони духтари зоҳид се шўйи ў ва дар гўр кардани зоҳиди он духтар ва берун овардан шавҳарон ва зинда шудани ў. Шаби бист.

21. Достони шер ва чаҳор вазир ва бараҳман, ки аз муомалати ду вазир осуда шуд ва аз мунoқашати ду вазир фарсуда монд. Шаби бисти якум.

22. Достони Камжуй ва хандаи моҳи ва фатонати кўдаки бепадар ва кушта шудани ҳаштод одами сабаби кулли одами. Шаби бисту дувум.

23. Достони Амир ва дидани гули наргис ва хандидани мурғи бурён ва табассуми Надим. Шаби бисту севум.

24. Достони Башир ва ошиқ шудани ў барҲабзан валат (برحبزا ولت) хўрдани аъробий ва хилват кардани бохоҳари Ҳабзан. Шаби бисту чаҳорум.

25. Достони Жомос ва зани маъсумаи ӯ ва мақолаи тӯти ва шорик дар мадойиҳ ва қабойиҳи нисо ва рижол. Шаби бисту панжум.

26. Достони Шопури амирғавкон ва истийлои хорусор ва интиқоми мор ва пушаймон шудани Шопур ва афтодан аз хушовандони давр. Шаби бисту шашум.

27. Достони Зарир шаърий ва рафтани ӯ батаҳсили молу хойибу хосир мондани шағол аз асп. Шаби бисту ҳафтум.

28. Достони кулол ва зоҳир шудани насаби зани ӯ ва манфи мондани тарбияти подшоҳ. Шаби бисту ҳаштум.

29. Достони шер ва сиёҳгӯш ва бузна бамакр грифтан сиёҳгуш ва халоси додан худро ба латойифи ҳийла. Шаби бисту нӯҳум.

30. Достони заний ва атфоли ӯ ва ҳийла кардани паланг ва халос додани занийа худро аз дасти паланг. Шаби сиюм.

31. Достони шағоли нийли ва амир куштани ӯ бар сибоъ ва вуҳуш ва фазиҳат шудани ӯ аз феъли худ. Шаби сию якум.

32. Достони хуршид, зани аторид (عطارد)ва се жувони дигар ва офати, ки аз сабаби жамолу-камол хуршид ба хуршид расид. Шаби сию дувум.

33. Достони се вазир ва як писар ва ду духтари эшон ва маваддати-муҳаббати ҳар як ва расидани ҳар ҳама ба мақсуду-матлуби худ. Шаби сию сеюм.

34. Достони духтари бозаргони Кобил ва се котиби ӯ ва бурдани пари он духтарро ва боз овардани хотибон дар шаби сию чаҳорум.

35.Достони ишқбозии бараҳманд бодухтари Рой ва ба мақсуд расидани ҳар ду басаъйи марди жодугар. Шаби сию панжум.

36. Достони подшоҳ Зовал ва духтари бозаргон ва Кутвол он шаҳар ва ошиқ шудани подшоҳ ва дарзидани иффат. Шаби сию шашум.

37.Достони амирзодаи Сийистон ва пили Сапед ва мори сиёҳ ва хидмат кардани амирзода ва самараи он Ҳазрат. Шаби сию ҳафтум.

38.Достони интиқом кашидан Саъва (صعوه) аз Пил бамаъувнат ва иъонати асҳоби худ. Шаби сию ҳаштум.

39.Достони Бозгони аҳмақ ва зани ӯ ки, “Шаҳри орой” и ном буд ва ниҳон гардонидан аз бим шавҳар дар ҳузури маъшуқ. Шаби сию нӯҳум.

40.Достони Фағфур подшоҳи Чин ва нақшбанди вазир дар айвони маликаи Рум ва ризо додан малика бакардани шӯй. Шаби чеҳлум.

41. Достони сарвадгуфтани дароз гӯш ва пой гуфтан ҳезмфуруш. Шаби чеҳли якум.

42.Достони бозаргони Тармад ва машғул шудани ӯ бо зани худ ва тарк додани тижорат ва насиҳат кардани тӯти ва шорик ва бозомадан бар сарвқати хуяш (худаш) . Шаби чеҳли дувум.

43.Достони Рой ва буридани дами мор сатҳидани зан ва рафтани Рой бар азиймат бурдан ва шунидан гуспанд. Шаби чеҳли сеюм.

44.Достони Ройи пир ва узр кардан писару - духтари ў ва сухан шунидан аз мутриба ва нажот ёфтани Рой аз узр. Шаби чеҳли чаҳорум.

45.Достони Бозаргони Хоразмий ва Ҳажжом ва дидани бозаргон бахти худро барсуврати роҳиб ва иқтидо кардани Ҳажжом. Шаби чеҳлу панжум.

46.Достони хоби Хужаста ва таъбири тўти ва ҳикояти Ройи Роён Ройи Ужин. Шаби чеҳли шашум.

47.Достони чаҳорёри мувофиқ, ки бар ҳакими рафтан ва ҳаким ҳар чаҳорро муҳре тилсим дод ва ҳар яки бар ганжи вуқуф ёфтанд ва яки беғараз бозгашт. Шаби чеҳлу ҳафтум.

48. Достони жувони Боғдоди, ки бар канизаки мутриба ошиқ буд, пас бажувони Ҳошими бифурухт ва пушаймон шудани ва оқибат бамақсуд расид. Шаби чеҳлу ҳаштум.

49.Достони подшоҳ ва дидани ў хушҳои (хушаҳои) гандум ва се бародар, яки хурад خورد буд пир шуд ва дувум кўҳни гашта (бошқа манбада кўҳли гашта) ва бузург жувон монда. Шаби чеҳлу нўҳум.

50.Достони подшоҳ, ки ғам мебарад ва духтари Қайсар ва хостакори фурустод ва ў надод, ожизикор зўрдаст овар. Шаби панжоҳум.

51.Достони Баҳром ва ду вазири ў хосса ва хулоса ва боинсоф расидани духтари хосса. Шаби панжоҳи якум.

52. Достони Зоҳид ва мурғи ҳафтранг ва зани ў бар сарроф ошиқ шудан ва куштани мурғи ҳафтранг ва аз сари бистар бархостан ва подшоҳ шудани писари зоҳид. Шаби панжоҳи дувум[128].

Хулоса сифатида шуни айтиш керакки, Асар мундарижасидаги мавзуларнинг бош ғояси вафо ва садоқат, ҳаё ва андишалилик, адолат ва ҳалоллик, одоб-ахлоқ меъёрларига риоя қилиш. Шу фазилатларнинг акси бўлган бевафолик, оила,юрт ва динга хиёнат, ҳаёсизлик, адолатсизлик, нопок ишларга чалғиш ва умуман одоб-ахлоқ нормаларига зид ҳар бир ҳаракатдан сақланишга чақиради. Тўтининг барча ҳикоя ва қиссалари шу ғояларни асослаш, исботлашга қаратилган. “Тўтинома”ни ўқиган ҳар бир китобхонўзига керакли хулосаларни олиб, ижобий томонга интилиб, ўзига яхши фазилатларни орттириш билан бирга, асрдаги баъзи салбий образларга ўхшамасликка ва ҳаётда ёмон хулқли кишилар борлигини ҳис этиб, доимо ҳушёр тортиб юришларига замин яратади. Ҳар қандай бадиий асарнинг яратишдан мақсад, инсонларни эзгулик, яхшилик ва ўзликни англашга чорлашдир. Бундай асарлар ибратхона вазифасини ўтади десак муболаға эмас, балки ижод оламининг ҳақиқатидир.

---

[128]Бухоро давлат музей-қўриқхонаси “Ҳужжатлар” фондида №23496/11 ашёвий рақам остида сақланаётган 1110 х/1698йилда Муҳаммад котиб томонидан кўчирилган нусхаси

# A. NAVOIY "NAZM UL – JAVOHIR"NING NASHRLARIGA DOIR MULOHAZALAR

**N.U.Baxshilloyeva**
*Buxoro davlat universiteti magistranti*

Istiqlolning mayin shabadalari esishni boshlagan dastlabki kunlardanoq boy ma'naviy merosimiz, asrlar osha e'zozlanib kelingan milliy an'ana va qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Har bir sohada qilinayotgan mislsiz o'zgarishlar samarasi bo`y ko'rsata boshladi. Ayniqsa, ma`naviy qadriyatlar asosi bo'lgan adabiyotimizni yangicha mafkura asosida o`rganishga e`tibor qaratildi.

Istiqlol adabiyotshunosligimizning ajralmas qismi bo'lgan navoiyshunosligimizga istiqbolli yo'lni ochib berdi. Bu davrda ulug' shoir Alisher Navoiy asarlarini ilohiy-irfoniy manbalar bilan qiyosiy o'rganishga e'tibor qaratildi. Eng quvonarlisi, shoirning sobiq sho'ro mafkurasi ta'siri ostida qisqartirilib nashr qilingan asarlari qayta nashr yuzini ko'rdi. Ayniqsa, A.Navoiyning pandnoma-didaktik ruhdagi "Arbain", "Mahbub ul-qulub", "Nazm ul-javohir" kabi asarlarining qayta-qayta nashr etilishi, ilmiy-tanqidiy matnlarining yaratilishini navoiyshunosligimizning muhim yutuqlari sifatida e'tirof qilish mumkin. Ayniqsa, XX jildlik "Mukammal asarlar to'plami"ning nashrdan chiqishini butun ilm ahli quvonch bilan kutib oldi.

Biroq amalga oshirilgan nashr ishlarida yo'l qo'yilgan kamchiliklar shoir asarlarining mazmun mohiyatiga, albatta, salbiy ta'sir ko'rsatganligini bugun hech birimiz inkor qila olmaymiz. Shuning uchun bugun navoiyshunos va matnshunos olimlarimiz oldida ulkan vazifalar "bo'y ko'rsatib" turibdi. Ya'ni, A. Navoiy asarlarining nuqsonsiz nashrlarini amalga oshirish bu ulug' shoir shaxsi oldidagi buyuk vazifalarimizdan biridir.

"Nazm ul-javohir" ulug' shoirning 268 ta ruboiysidan tashkil topgan asaridir. Mazkur asar shu paytgacha uch marotaba (1968,1999,2014y) nashr yuzini ko'rdi. Mazkur asarning ilmiy – tanqidiy matni M. Rashidova tomonidan amalga oshirilgan.

Avvalo, biz nashrlar o'rtasidagi tafovvutli jihatlarni uchga bo'lib o'rganishni lozim topdik:

1.Harf almashinishi bilan bog'liq tafovvutlar.
2.Bo'g'in almashinishi bilan bog'liq tafovvutlar.
3.So'z almashinishi bilan bog'liq tafovvutlar.

**1.Harf almashinishi bilan bog'liq tafovvutlar.**

Etiboringizga, dastlab, asarning 2014-yil nashrdagi quyidagi ruboiyni taqdim etamiz.

Uqbo g'ami ul er ani dono bil,
Egonni jahonning g'amini **qono** bil.
Kim bo'lsa said aning g'amin uqbo bil.

Bo‘lg‘ong‘a shaqi g‘amin **boziyi** dunyo bil.[129]

Mazkur ruboiy 1968[130] hamda 1999-yil[131] nashrlarida mavjud va ikkisida ham aynan bir xil holatda. Ya’ni, ruboiyning 2-misrasidagi **qono - dono** tarzida, to‘rtinchi misradagi **bozi - boza** tarzida berilgan. Nashrlardan qay biri to‘g‘ri ekanligini aniqlash uchun ruboiyning mazmuniga e’tibor qaratdik. Uning nasriy mazmuni quyidagicha: Uqbo (oxirat) g‘ami bu shunday joyki, uni dono (yaxshilik va yomonlikni ajratuvchi) deb bil, jahonning g‘amini yegan kishini esa qono (qon bilan bulg‘angan) deb bil. Kim said (baxtli, baxtiyor) bo‘lsa, uning g‘ami oxirat deb bil va shaqi (yaramas, buzuq) bo‘lgan kishining g‘ami aldovchi dunyo deb bil. Ko‘rinib turibdiki, ushbu ruboiyda ikki kuch-yaxshilik va yomonlik haqida gap ketmoqda va bu ikki narsa bir biriga qarshi qo‘yilganda, 2-misradagi **dono** so‘zi mazmunga muvofiq kelmaydi. Tasavvuf ta’limoti bo‘yicha jahonning g‘amini yegan kishini dono deb bo‘ladimi? Aslo! Shu sabab asarning 2014 yildagi nashrida **qono** so‘zi o‘rinli qo‘llangan va muallifning maqsad va muddaosini aniq yetkazish uchun xizmat qilgan. Shuningdek, to‘rtinchi misradagi **bozi** so‘zi haqida ham shunday fikr yuritish mumkin. “Navoiy asarlari lug‘ati”da[132] bunday so‘zni uchratmadik. **Boza** - “aldovchi”, “ o‘ynovchi” degan ma’noni bildiradi. Bu so‘z dunyo so‘zining aniqlovchisi bo‘lib kelgan. Demak, birgina ruboiyda ikkita so‘zning nashrda xato berilishi kuzatiladi, bu ruboiyning mazmun mohiyatini anglashga, albatta, xalaqit bergan.

Har kimki seni ravo ko‘rar shiddatig‘a,
Sen ko‘prak ishtig‘ol et aning xizmatig‘a.
Gar tutmas ul harif o‘z xislatig‘a,
Sen lek **madoro** qil aning xijlatig‘a.

Diqqatingizga yana bir javohirdan misol keltiramiz. Asarning 2014 yilgi nashridan keltirilgan ushbu ruboiyning to‘rtinchi misrsagi **madoro** so‘zi 1968-yil nashrida xuddi shu holatda, 1999-yil nashrda esa **madori** tarzida beriladi. Mazkur ruboiy asarning 1968 va 2014-yil nashrida bir xil bo‘lgani holda, 1999-yil nashrida bu so‘z xato ekanligi kundek ravshan. Sababi, birinchidan, **madori** so‘zini “Navoiy asarlari lug‘ati”da uchratmadik. Ikkinchidan, ruboiy mazmuni **madoro** (chiqishmoq, kelishmoq) so‘zining lug‘aviy ma’nosini qabul qila oladi.

**2. Bo‘g‘in almashinishi bilan bog‘liq tafovvutlar**

Judeki xirad buyursa tobe’ bo‘lg‘il,
Nafs aylasa buxl **amrig‘a** mone’ bo‘lg‘il.
Oz-u ko‘p aro bir so‘zumga some’ bo‘lg‘il,
Ko‘p bergilu ozg‘a lek qone’ bo‘lg‘il.

Mazkur ruboiy 1968 hamda 2014 yil nashrida xuddi shu holatda berilgan. Ammo ikkinchi misradagi **amrig‘a** so‘zi 1999-yil nashrida **marig‘a** tarzida berilgan. Muqobil variantni aniqlash maqsadida avvalo lug‘atga murojaat

[129] Maqolada keltirilgan ruboiylar “Nazm ul-javohir”ning A.Navoiy “Tanlanma asarlar to`plami” 10 jildlikning 10-jildidan olindi. “O`qituvchi”, - T.: 2014 .
[130] Navoiy A. Asarlar. 15 tomlik, 15-tom. “G`afur G`ulom nomidagi badiiy adabiyot nahriyoti”, - T.: 1968.
[131] Navoiy A. Mukammal asarlar to`plami. 20 tomlik, 15-tom. “Fan”, - T.:1999
[132] Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug`ati. “G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti”, - T.:1972

qildik. Lug‘atlarda esa bunday so‘z uchratmadik. Demak, bu yerda so‘z yanglish qo‘llangan. Xo‘sh, buni qaerdan aniqlash mumkin? Albatta, ruboiyning ma’nosiga e’tibor qaratdik. Uning mazmuni esa quyidagicha: Aqling agar saxovatlilikni, qo‘li ochiqlikni buyursa, bo‘ysun. Nafs baxillik ishini tutsa, sen unga mone’ (to‘sqinlik qilmoq) bo‘l. Ozu ko‘p ichra bir so‘zimni eshit, Ko‘p bergil, lekin ozga ham qone’ (qanoatli) bo‘l. Demak, ruboiy mazmuniga **amr-buyurish, undash** ma’nosidagi so‘z to‘g‘ri keladi.

Ta’kidlash kerakki, matn tahririda mazmun birlamchi rol o‘ynaydi. Chunki qo‘lingizda undan boshqa manba bo‘maganda ham, albatta, matn mazmuni sizga dastlabki ko‘makchi vazifasini o‘taydi. Shu sababdan ham matn mazmunini anglagan holda qilingan tahrir ko‘p hollarda o‘zini oqlaydi.

**3. So‘z almashinishi bilan bog‘liq tafovvutlar.**

To‘g‘risini aytganda, izlanishimiz davomida biz eng ko‘p uchratgan jihat - so‘z almashinishi bilan bog‘liq jihat bo‘ldi. Quyida ulardan ayrim namunalar keltiramiz:

Himmat eli ko‘zda qurutib namlarini,
Necha qilur oshom falak samlarini.
Har kimki urar himmat ila damlarini,
Himmatlarining **xo‘rdidadur** g‘amlarini.

Mazkur ruboiyning so‘nggi misrasidagi **xo‘rdida** so‘zi 1968 hamda 1999-yil nashrlarida **xurida** tarzida noto‘g‘ri taqdim etiladi. **Xur – “oftob”, “quyosh”** ma’nosini bersa, **xo‘r** – “yeyish” ma’nosini beradi. Bu erda yana bir jihat ham borki, 2014-yil nashrida berilgan **xo‘rdida** uchun **xo‘r** asosmi yoki **xo‘rd** asosmi? Lug‘atda har ikkisi ham mavjud bo‘lib, ma’nolari o‘zaro farqlanadi. **Xo‘rd** – “yarasha”, “loyiq” demakdir. Dastlab, qaysi nashrdagi so‘z to‘g‘ri ekanligini aniqlash uchun matn mazmuniga diqqat qilamiz: Himmat ahli namlarini ko‘zida qurutib, bu falak sam (zahar)larini necha bor ichadi. Agar har kim vaqtini himmat bilan o‘tkazsa, qilgan himmatlari g‘amlarini yegusidir.

Ko‘rib turganingizdek, bu ruboiyda quyosh yoki oftobning mutlaqo aloqasi yo‘q. Demak, endi ikkilangan ikki so‘zimiz – *xo‘r* va *xo‘rd* so‘zlari borasida ham yagona xulosaga kelish mumkin. Ya`ni, *xo`r* – “yemoq” ma`nosi ruboiy mazmuniga to`la mos. Chunki ruboiyning tub mohiyatida “Saxovat - g‘amni ketkazar” hikmatining g‘oyasi ilgari surilgan.

Tavrungda gunah kechurmoqin mavjud et,
**Savdo** qilibon bu nav’ behad sud et.
El g‘ussasini singurmoqin maqsud et,
Bu sheva bila oqibating mahmud et.

E’tiboringizga havola etilgan ushbu ruboiyda ham so‘z almashinishi bilan bog‘liq tafovut mavjud bo‘lib, u ikkinchi misra tarkibidagi **savdo** so‘zidir. Mazkur so‘z 1968,1999-yil nashrlarida **sud** shaklida berilgan. 2014-yil nashr hamda asar ilmiy-tanqidiy matnida esa **savdo** tarzida beriladi. **Sud –** “foyda, naf**”, savdo –** “oldi-sotdi”. Endi uning qay biri to‘g‘ri ekanligini aniqlash uchun matn mazmuniga diqqat qilamiz: Tavrung (yurish-turish, tarz)da gunohni kechirishni vujudga keltir. Bu oldi-sotding (kechirish va kechirim so‘rash) bilan o‘zingga

behad foyda orttir. Xalq g‘am-g‘ussasini vujudingga singdirishni maqsading etib belgila va bu ishing bilan oqibatingni yaxshila, maqta.

Qayd qilish kerakki, A. Navoiydek zukko, nozik fahm ijodkor bir misraning o‘zida ikki o‘rinda bir ma’noni anglatuvchi so‘zni ishlatishi ham mumkin emas. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda, uni “savdo”ga almashgani o‘rinli va ruboiy ma’nosiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi.

Quyidagi ruboiyda ham so‘z almashishi bilan bog‘liq xatolik kuzatiladi:

Necha yummay ko‘zingni har zevar aro,
G‘aflat bila kirmak necha bahru bar aro.
Emin uyubon bu olami pur **shar** aro,
Qil xobgahingni yaxshiroq bistar aro.

Asarning 2014 yilgi nashridan olingan ushbu ruboiyning uchinchi misrasidagi **shar** so‘zi 1968 va 1999-yil nashrlarida **sharar** tarzida beriladi. **Sharar** so‘zining lug‘aviy ma’nosi - “uchqun”, “yolqin” bo‘lsa, **shar** so‘zining ma’nosi - “yomonlik”, “gunoh”dir. Xo‘sh, qay biri to‘g‘ri aslida? Biz yana bevosita matn mazmuniga murojaat qilamiz: Ko‘zingni ziynat, bezak ichra necha bor yumsangda, Necha bor beparvoliq ila dengiz-u quruqliklarga kirsangda, Yomonlik va gunohlar to‘la bu dunyoda xotirjam, xavfsiz uxlashing uchun, yotar joyingning ko‘rpa-yostig‘ini yaxshiroq qil.

Demak, matn mazmunidan uzoqlashmagan holda, **sharar** (“yolqin”, “uchqun”) so‘zining dunyoga aloqasi yo‘qligi ayonlashadi. Binobarin, ruboiyda sharar so‘ziga mutanosib bo‘lgan biror so‘z uchramaydi. Shubhasizki, 2014-yil nashridagi **shar** matn mazmuniga mos va to‘g‘ri qo`llangan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan har bir so‘z ulug‘ shoirning buyuk zakosi va nozik didli she’rshunos ekanligini ko‘rsatib turadi. Shoir asarlarining nashrlarida yo‘l qo‘yilgan har qanday nuqsonlar asarlarining mazmun-mohiyatiga salbiy ta’sir o‘tkazishini inkor qilib bo‘lmaydi. Bugungi kunda navoiyshunosligimizdagi bunday kamchiliklarni tuzatish navoiyshunos olimlarimiz, matnshunos mutaxasislarning oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Navoiy A. Tanlanma asarlar to‘plami. 10 tomlik, 10-tom. “O‘qituvchi”, - T.: 2014.
2. Navoiy A. Asarlar. 15 tomlik, 15-tom. “G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nahriyoti”, - T.: 1968.
3. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik, 15-tom. “Fan”, - T.:1999.
4. Shamsiev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti”, - T.:1972.

# ALISHER NAVOIYNING "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI MUNOJOT BOBI NASHRLARINING QIYOSIY TAHLILI

**Z.Q. Amonova,**
*BuxDU dotsenti,*
**M.S. Temirova,**
*BuxDU I kurs magistranti*

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni sof, samimiy va ilohiy ishq sifatida tahlil qilinadi. Navoiyning ijodiga qiziqish har bir davr va zamon uchun xosdir. Ana shu davr va zamonlarda shoir ijodiga tegishli asarlar kitob shakliga keltirilib, kitobxonlar ommasiga topshirilgan. Albatta bu kitoblarda zamon, davr nafasi ham ufurib turadi. Shu sabab nashrdan chiqqan kitoblarda ayrim farqlar seziladi. Biz ushbu farqlarni birma-bir koʻrib chiqib, eng maqbul nashrlarni saralashga harakat qildik.

Sharq mumtoz adabiyotida oʻziga xos an'ana mavjuddir. Unga koʻra har qanday asar Ollohning madhi – hamd, unga iltijo – munojot, Muhammad paygʻambar ta'rifi – na't kabi maxsus boblar bilan boshlanadi. Munojot bobining nashrlarini qiyoslashda 1990-yilda Botirbek Hasanov muharrirligida chop etilgan "Oʻzbek adabiyoti boʻstoni" seriyasida chop etilgan "Layli va Majnun" kitobi, 1992-yilda Suyma Gʻaniyeva muharrirligi ostida nashrdan chiqqan 20 tomlik "Mukammal asarlar toʻplami"ning 9-tomi, 2013-yilda Sayfiddin Rafiddinov muharrirligida chop etilgan 10 tomlik "Alisher Navoiy asarlari" kitobining 7-tomi kabi manbalarni tanladik. Ushbu kitob nashrlarning munojot bobida soʻz qoʻllash bilan bogʻliq tafovut deyarli yoʻq. Faqatgina imloviy xatoliklar koʻplab uchraydi. Ma'lumki, mazkur bobda shoir xudoga munojot qilib, Ollohni borliqni yaratgan yagona va oliy zot deya madh etadi. Shoir barcha bandalarni, qolaversa, oʻz gunohlarini kechirishini Ollohdan iltijo qilib soʻraydi. Shuningdek, dostonning munojot bobida iymon va e'tiqod sofligi inson komilligi uchun hayotiy zarurat ekanligi ham ta'kidlanadi.

Yuqorida koʻrsatilgan manbalardagi ayrim kamchiliklarni koʻrib oʻtamiz. 1990-yilda Botirbek Hasanov muharrirligida chop etilgan "Oʻzbek adabiyoti boʻstoni" seriyasida chop etilgan "Layli va Majnun" kitobida ushbu bayt berilgan:

Ulkim, "ana afsah" etti da'vo
Fosh etti bu da'vi ichra ma'no.
Ya'ni: U menga soʻzga chechanlikni ato etdi,
Bu bilan dunyo ichra ma'nolarni fosh etti.

Ushbu bayt 1992-yilda Suyma Gʻaniyeva muharrirligi ostida chop etilgan 20 tomlik "Mukammal asarlar toʻplami"ning 9-tomida quyidagicha oʻzgargan:

Ulkim, "ana afsah" etti da'vo
Fosh etti bu dav'vi ichra ma'no

xuddi shu baytlar 2013-yilda Sayfiddin Rafiddinov muharrirligida chop etilgan 10 tomlik "Alisher Navoiy asarlari" kitobining 7-tomida P. Shamsiyev ilmiy-tanqidiy teksti asosida chop etilgan "Mukammal asarlar toʻplami" dagi kabi nashr etilgan.

Shunga oʻxshash farqlarni koʻrish mumkin. Ammo bizning e'tiborimizni quyidagi misra tortdi. Undagi farq nafaqat misra mazmuni,balki shoirning gʻoyalarini ham tubdan oʻzgartirib yuborgan.

Joʻlida sochim bor charx aro tun,
Yoʻqkim, boshima kelib qaro kun.
Bu nav qaro kun ichra qorib,
Ya'niki, qaro kunim oqorib.

Ushbu misra 1990-yildagi Botirbek Hasanov muharrirligida chop etilgan "Oʻzbek adabiyoti boʻstoni" seriyasida chop etilgan "Layli va Majnun" kitobida berilgan. Mazmuni: **Parishon sochim bor osmon aro tun,**
**Yoʻqkim, boshimga kelib qaro kun.**
**Bu yangi kun ichra qolib,**
**Ya'niki, qaro kunim oqarib.**

Ushbu bayt 1992-yilda Suyma Gʻaniyeva muharrirligi ostida chop etilgan 20 tomlik "Mukammal asarlar toʻplami"ning 9-tomida quyidagicha oʻzgargan:

Bu nav qaro kun ichra qorib,
Ya'niki, qaro tunim oqorib.

Yuqoridagi misrada shoirning qaro kuni oqargan edi. Endi esa, qaro tun oqaryapti.

2013-yilda Sayfiddin Rafiddinov muharrirligida chop etilgan 10 tomlik "Alisher Navoiy asarlari" kitobining 7-tomida esa "tun" soʻzi oʻrniga "kun" soʻzi berilgan.

Bu nav qaro kun ichra qorib,
Ya'niki, qaro kunim oqorib.

Alisher Navoiyning soʻzlarni oʻz oʻrnida qoʻllagani, hamda bir soʻzni bitta misraning oʻzida qayta-qayta qoʻllamaganini hisobga olsak, "tun" degan fikr toʻgʻri degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ammo yana bir narsani e'tibordan qoldirmasligimiz lozim. "Ya'ni" aniqlov bogʻlovchisi oʻzidan oldin kelgan soʻzni aniqlab, ta'kidlab keladi. Shu bois "kun" soʻzi toʻgʻriroq boʻladi. Ya'ni shoirning parishon sochlari qaro kundek qora boʻlgan-u, soʻng shu sochlar oqargan. Bunga yana ham aniqlik kiritish uchun ilmiy-tanqidiy matn zarur.

Navoiydek buyuk mutafakkirning gʻoyalari, fikrlari juda salmoqli. Shu bois oʻsib kelayotgan yosh avlodga uning yetuk, qimmatli merosini yetkazmoq sharaf hisoblanadi. Bunday sharafli ish esa har birimizning sharafli burchimiz. Ushbu mas'uliyatni his qilgan holda Navoiyning merosini oʻrganishga jiddiy yondashish lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Oʻzbek adabiyoti boʻstoni" – Toshkent 1990.
2. "Mukammal asarlar toʻplami" 9-tom – Toshkent 1992.
3. "Toʻla asarlar toʻplami" 7-jild – Toshkent 2013.

# ALISHER NAVOIYNING "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDA INSONIY FAZILATLAR TALQINI

**M.T. Ismatova**
*BuxDU I kurs magistranti*

*Hazrat Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni qahramonlaridagi insoniy fazilatlarning tarannumi, bugungi kunda o'rnak olish mumkin bo'lgan sof insoniy xislatlar,shuningdek, Mehinboni saroyidagi olima qizlar va ayollarga bo'lgan munosabatlar haqida so'z yuritiladi.*

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni insonni mehnatkash, xalq uchun fidoyi, umuman olganda, komil inson bo'lishga da'vat etadi. Farhod favqulodda yaratuvchi timsol sifatida ulug'lanadi. Navoiy fikricha har bir inson Farhod kabi mehnatkash,, fidoyi oshiq va umrini el xizmatiga baxshida eta oladigan odam bo'lsin.

Farhod o'z hayotiy sarguzashtlari davomida boqiy dunyo saodati talabi bo'lgan tasavvuf bosqichlarini ham bosib o'tgan desak xato bo'lmaydi. Zero Hazrat Navoiyning kichik janr bo'lgan fard, tuyuqlaridan tortib yirik masnaviy dostonlarigacha ikki xil: zohiriy va botiniy ma'no- mazmun aks etgan . Shu bois Farhod yengib o'tgan sinovlar mashaqqatli ishq safari davomida bosib o'tgan tasavvufning yetti bosqichidir.

Yoshlikdan Farhod kuchli xotira , tirishqoqlik, uquvlilik, rahm-shafqatlilik kabi fazilatlar bilan birga ulg'ayadi. O'n yoshidayoq barcha ilmlarni egallab bo'ladi. O'n bir yoshda harbiy mashqlarni egallaydi. Navoiy shahzoda Farhoddagi insoniy fazilatlardan kamtarlik , til, dil pokligini alohida ta'kidlaydi.

Demonkim, ko'ngli pok-u ham ko'zi pok,
Tili pok-u so'zi pok-u o'zi pok [1].

Farhodning kasb- hunarga ishtiyoqi va ularni mukammal o'rganishi uning eng yuksak fazilatlaridan biri. Bu hamisha hamma davr yoshlariga ham o'rnak bo'la oladigan fazilatlardir.

O'sha davr saroy muhitidan, shoh va shahzodalarning xarakter-xususiytlaridan xabardor bo'lgan shoir Farhodning boshqalarga g'amxo'rligi, mehribonligini, o'zgalar g'amiga sherikligini oliyjanob fazilatlar sifatida alohida ulug'laydi. Bu bilan insonlarni, ayniqsa, hukmdor-u shahzodalarni ana shunday fazilatlar egasi bo'lishga da'vat etadi.

Kim etsa dardin oz-oz rivoyat,
Qilib ul dard anga ko'p-ko'p siroyat.
Kishi ko'nglin bilib afgor yig'lab,
Ne ko'zda ashk ko'rgach zor yig'lab [1].

Adib temuriy shahzodalar orasidagi toj-u taxt talashishlar guvohi bo‘lgan, ular bilan zamondosh ijodkor edi. “Shahzoda podshoh bo‘lmasada haqiqiy el uchun xizmat qiladigan inson bo‘lmog‘i lozim”, - degan qarashlarini ham aynan Farhod timsolida mujassam etgan. Shuning uchun ham adib “Farhod va Shirin “ dostonida oldingi “Xamsa” dostonlaridan farqli ravishda bosh timsol sifatida Farhod obrazini tanlagan. Chunki adib Farhod obrazida oliyjanob , el g‘amini o‘ylaydigan , faqat toj-u taxt sohibi bo‘lish uchun emas, xalq manfaati yo‘lida fidoyi shahzoda timsolini o‘z davrining qahramoni sifatida gavdalantirdi. Farhod timsoli nafaqat o‘sha davr , hatto bugungi kun yoshlari uchun ham o‘rnak bo‘la oladi.

Asardagi faqat Farhod obrazi emas Shirin, Mehinbonu, Shopur, Bahrom obrazlari ham o‘rnak olsa arzigulik. Navoiy doston qahramonlarini shunday tasvirlaydi-ki, ular faqat shoir yashagan davr emas bugungi kun kishilari bilan ham zamondosh. Shuning uchun ham shoir asarlari asrlar osha na mazmun, na badiiyligini yo‘qotgan emas.

Dostondagi Shopur obrazi do‘stga sadoqatni tarannum etsa, Bahrom o‘z yaqiniga- emikdoshiga mehribonligi, ezgulik va adolat yo‘lidagi kurashchanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu obrazlarning har birida bugungi yoshlarning qaysidir jihatlarini ko‘rishimiz mumkin.

Asardagi Mehinbonu va Shirin bugun biz bilan zamondosh ayollarga xos fazilatlar sohibasi desak yanglishmaymiz. Mehinbonu saroyidagi qirqin qizlarning orasida o‘n mislsiz olima qizlarning har biri bir ilmning sohibasi bo‘lib, zehni o‘tkir qizlar Shirinning xos xizmatchilari edi. Biri mantiq ilmining qonun – qoidallarini o‘ziga kasb qilib olgan bo‘lsa, yana biri hay’at ilmi bo‘yicha qalam tebratardi . Tag‘in bittasining hunari haqiqat ilmlari bo‘lsa, boshqasi chiroyli so‘zlashning nozik tomonlarini yechib berardi. Yana birisi tarixdan afsonalar so‘zlasa, ikkinchisi hikmat fanida yagona edi. Tag‘in birining zehni hisobda o‘tkir bo‘lsa, boshqa birisi muammolar yechishda nom chiqargan edi. Bu fanlarda bularning har biri o‘z yo‘liga usta, shu fandagi yuzlab kishilarga bittasi tatir edi. Ularning ismlari Dilorom, Diloro, Diloso, Gulandom, Sumanbo‘, Sumanso, Parichehr, Parizod, Parivash, Paripaykarlar bo‘lib o‘n ism ham juda yoqimli edi. Bularning so‘zlarini diqqat bilan tinglagan Farhod o‘zi ham ko‘p yodidan ko‘tarilgan ilmiy gaplarni qaytadan esladi. [2] Xuddi mana shu o‘n olima qizlar singari bugun ham o‘zbek olima ayollari dunyoning nufuzli oliygohlarida dars beradilar. Ilm-fan rivojiga hissa qo‘shib kelmoqdalar. Navoiy o‘z davrida ana shunday olima ayollarning bo‘lishi yurt rivojiga munosib hissa qo‘shishini “Farhod va Shirin “ dostonida aytib o‘tgan.

Olima qizlar bilan suhbat davomida Mehinbonu Farhodning oddiy yigit emas shahzoda ekanligini anglab undan o‘z taxtiga o‘ltirishini so‘radi. Ammo Farhod “Bizdek gadoga tuproqqa o‘ltirishdan yaxshisi yo‘q “ deya javob qaytargach, Mehinbonu shahzodaning ibo va odobini ko‘rib, uning ko‘ngli nimani tilasa shuni qilmoqchi bo‘ldi. Mehinbonu buyrug‘i bilan taxtni olib qo‘ydilar.Yerga bir ipak gilam soldilar. Bu yerga Farhodni o‘ltirg‘izib , o‘zi ham

o‘ltirdi.[2] Ayni shu o‘rinda ham doston qahramonlari hukmdor bo‘lsalarda, kamtarlik ulardagi eng yuksak fazilat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Mehinbonu hukmdor ayol . Uning mamlakatida adolat ustuvor .Atrofida o‘z davrining olim-u fozillari, bilan birga ilm-u fanda erkaklardan qolishmaydigan olima qizlar bor. Alisher Navoiy ayollarni ham yurt rivojiga hissa qo‘sha oladigan , erkaklardan kam bo‘lmagan zehn va salohiyat sohibalari sifatida tasvirlaganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayni ana shu jihat bugungi zamonaviy ayollar qiyofasida o‘z aksini ko‘rsatmoqda.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin “ dostoni va undagi qahramonlar zamonlar osha insoniylikdan saboq berib kelmoqda. Bu qadimdan ajdodlarimizning o‘tkir zehn sohib va sohibalari bo‘lganliklarini va ular barcha ilmlarning yetuk bilimdoni ekanliklaridan darak beradi. Shu bilan birga asar qahramonlaridagi ezgu fazilatlar insonlarni komillik sifatlari egasi bo‘lishga da’vat etadi.

“Farhod va Shirin” dostoni ezgu timsollarning oliyjanobliklari tufayli olti asrdirki kitobxonlar mehr-muhabbatini qozonib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Alisher Navoiy .To‘la asarlar to‘plami . “Xamsa” 6-jild. “ Farhod va Shirin “ Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti ,2012.
2. Alisher Navoiy .“Xamsa”. Nasriy bayon. Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti,2019.


## А. НАВОИЙНИНГ «ҲАЙРАТ УЛ-АБРОР» ДОСТОНИДА ҲАДИСЛАРНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ


**А.М. Мутафоев,**

*БухДУ I курс магистранти*


Ислом оламида Ҳадислар Қуръони каримдан кейинги мўътабар манба ҳисобланади. Ҳадис араб тилида “гап”, “сўз” маъносини англатади. Ҳадиси набавий деганда, пайғамбарнинг айтган гап-сўзлари тушунилади. Ҳадис илми билан шуғулланувчи олим муҳаддис дейилади.

Баъзи муҳаддис уламолар “ҳадис” тушунчасида “янгилик” деган маъно бор дейишган. Бу сўзни “қадим” сўзининг муқобили сифатида ишлатишган.

“Қадим” деганда Аллоҳнинг китоби Қуръони каримни, “ҳадис” деганда эса Муҳаммад с.а.в.нинг сўзларини назарда тутишган. Шу сабабдан уламоларнинг кўпчилиги Аллоҳнинг каломини ҳадис деб номлашдан сақланишган.

Мумтоз адабиёт вакиллари ижодини исломий манбалардан ташқарида ўрганиб бўлмайди Боиси, Қуръони карим ва Ҳадиси шарифлар мумтоз адабиётимизнинг асосий сарчашмаси ҳисобланади. Улардаги ўлмас ғоялар, умуминсоний фазилатлар ижодкорлар томонидан асрлар давомида тарғиб

қилиб келинган. Ана шундай асарлардан бири ҳазрат Алишер Навоийнинг “Ҳайрат ул-аброр” асаридир.

Маълумки, мумтоз асарларнинг муқаддимавий бобларида Аллоҳга ҳамд, муножот ҳамда пайғамбар с.а.в.га бағишланган наът қисмлардан иборат бўлган. Асарларнинг шу тартибда берилишининг ўзиёқ уларда Қуръоний оят ва Ҳадиси шарифларга мурожаат қилинишига асос бўлган.

“Ҳайрат ул-аброр” Алишер Навоийнинг илоҳий – ирофний, диний-маърифий, ахлоқий-фалсафий ғоялари акс этган асари бўлиб, дидактик адабиётнинг гўзал намунасидир. Шарқ адабиётида эса дидактиканинг ўзаги Қуръни карим ва Ҳадиси шарифлар ҳисобланади. Шунинг учун А. Навоий асарнинг жуда кўп ўринларида мўътабар манбаларга мурожаат қилади.

Маълумки, Қуръон оятлари ва Ҳадисларга мурожаат асарда турли шаклларда берилгани кузатилади. Биргина Ҳадисларнинг асар таркибида келишини кузатадиган бўлсак, улар иқтибос келтириш ёки бир сўз орқали ҳадисга ишора бериш, ҳадис мазмунини сатрлар мағзига сингдириб бериш шаклларида берилгани кузатилади. Жумладан,

Тийр илигида не қалам, не рақам,
Балки рақам ояти “жаффал-қалам”. [133]

Байтдаги “жафф ал-қалам” ибораси ҳадисининг бир қисмидир. “Жаффал-қалам” – қалам қуриди. Ҳадиснинг тўлиқ тўлиқ матни қуйидагича: Жаффал қаламу бима анта лақин[134]. Маъноси: Сен йўлиққан нарсага (тақдир) қалам қуриди.

Байтда тақдир тўғрисида мулоҳаза юритилмоқда. Хўш, тақдир нима? Бу ҳақда Абдулғафур Раззоқ Бухорийнинг “Тариқатга йўлланма” рисолаларида шундай мулоҳаза билдирилган: “Аллоҳнинг барча бўлажак нарсаларнинг яратилишидан олдин қачон бўлишини, қаерда бўлишини ва бошқа энг нозик томонларини азалдан билиб, бўлажак шаклларига кўра тайин этиши ва белгилашига тақдир дейилади. Тақдирдаги яхшилик ва ёмонликка ишониш фарздир. Аллоҳ таоло айтади: “Албатта, Биз ҳар бир нарсани ўлчов билан яратдик” (“Қамар”, 49).

Аллоҳ таоло ҳар бир инсоннинг тақдирига яхшилик йўлини танласа, унинг мукофоти жаннат, ёмонлик йўлини танласа, унинг жазоси дўзах эканлигини ёзиб қўйган.

Ҳақ таоло инсонга жузъи ихтиёр ва фикр юритиши учун ақл берди. Инсон ўз ихтиёри ва ақли билан ё яхшилик йўлини, ёхуд ёмонлик йўлини танлайди: инсонга танлаш ҳуқуқи берилган[135]”.

---

[133] Навоий Алишер. Ҳайрат ул-аброр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, VII жилд. – Тошкент: Фан, 1991. 23-бет.
[134] Муҳаммад ибн Абдуллоҳ ал-Хатиб ат-Табризий. “Мишкот ул-масобиҳ”. Байрут, 1983 й, I жилд, 32-бет.
[135] Абдулғафур Раззоқ Бухорий. “Тариқатга йўлланма”. Тошкент: “Моварауннаҳр”, 11-12-бетлар.

“Ҳайрат ул- аброр”нинг X боби Пайғамбаримиз с.а.в.га бағишланган наът бўлиб, бобнинг икки ўрнида Ҳадиси шарифга ишора қилувчи иқтибос келтирилган.

Нукта фасоҳатда мунаққаҳ санга,
Шоҳиди даъво: “ана афсаҳ” санга.[136]

Маълумки, Пайғамбар а.с. гўзал ва фасоҳатли нутқ соҳиби бўлганлар. Қачонки сўзласалар (жавомиул-калим) лафзлари қисқа, аммо сермазмун бўлган. Байтда келтирилган “ана афсаҳ” (мен фасоҳатли сўзловчиман) ибораси орқали Расули Акрамга берилган ана шу сифатга ишора қилинган. Ушбу ҳадиснинг тўлиқ матни қуйидагича: Ана афсаҳ ман натақа биз зод – Мен зод (з) ҳарфини фасиҳ (чиройли ва тўғри) сўзловчидирман.

Маълумки, араб алифбосида йигирма тўққизта ҳарф бор. Шулардан бири “зе” товушини тўрт ҳарф ифодалайди. Булар ичидан “зе” товушининг энг қийин талаффузи бу, албатта, зод ҳарфидир. Бу ҳарф талаффузи кўпроқ “де” ва “зе” товушларининг уйғунлиги асосида бўлиб, “де”нинг устунлиги юқорироқ бўлади. Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, “зод” ҳарфи араблардан бошқа бирор миллатнинг алифбосида йўқ. Шунинг учун бу ҳарфнинг талаффузи ҳам фақатгина арабларга хос.

Мазкур бобнинг охирида Тангри таолонинг Қиёмат кунида инсониятга қилган раҳмати ҳақида фикр юритилади. Унинг раҳмати юз туҳфа шаклида берилишига ишора мавжуд:

Тенгри таоло карамидин қарин,
Юз туҳафи раҳмат ило явми дин.[137]

Байтдаги “раҳмат ило явми дин – қиёмат кунида раҳмат қилмоқ” маъносини англатади. Пайғамбар а.с. айтадилар: “Албатта, Аллоҳнинг юз раҳмати бор. Шундан бир раҳматини инсу жинлар ва ҳайвонлар орасига ташлади. Мана шу раҳмат билан улар боғланадилар ва бир-бирларига раҳм қиладилар. Мана шу раҳмат билан ваҳший ҳайвон боласига боғланади. Аллоҳ қолган тўқсон тўққизта раҳматни қиёмат куни бандаларни раҳмат қилиш учун олиб қўйди[138]”.

Дарҳақиқат, Аллоҳ бандаларига жуда меҳрибон. Унинг ҳар бир раҳмати туфайли инсонлар, ҳайвонлар бир-бирларига меҳрибон, мурувватли. Қолган тўқсон тўққиз раҳмат бандаларга қиёматда туҳфа, деб таъкидланади Ҳадиси шарифда. Алишер Навоий Аллоҳнинг улуғлиги, марҳаматни баён қилиш учун Ҳадисдан ўринли фойдаланади.

Аллоҳнинг раҳмати тушган қалб Ҳақдан адашмайди, дунёнинг зеб-зийнатлари-ю орзу ҳавасларига алданмайди, ҳақиқатга хиёнат қилмайди. Аллоҳнинг раҳмати тушган оила баракотли, файзли бўлади, унда меҳр-муҳаббат, вафо ҳукмронлик қилади. Шунингдек, Аллоҳнинг раҳмати тушган

[136] Навоий Алишер. Ҳайрат ул-аброр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, VII жилд. – Тошкент: Фан, 1991. 40-бет.
[137] Навоий Алишер. Ҳайрат ул-аброр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, VII жилд. – Тошкент: Фан, 1991. 44-бет.
[138] Муҳаммад ибн Абдуллоҳ ал-Хатиб ат-Табризий. “Мишкот ул-масобиҳ”. Байрут, 1983 й, II жилд, 731-бет.

юрт ҳам обод бўлади, Унинг раҳмати тушган заминда тинчлик-тотувлик, саодат, адолат, ўзаро биродарлик ҳукм суради.

XXX бобдан келтирилган байтда ҳам Ҳадисдан иқтибос келтиради. Келтирилган иқтибос “Ҳар ким экканин ўрар” халқ мақолига ўхшаб кетади:

Дунё эрур мазраъаи фохира,
“Ад-дунё мазраъатул-охира”. [139]

Байтда шоир дунёни икки экинзорга ташбеҳ этаяпти:

Дунё – фахр, кибр экинзори; Дунё – охират экинзори.

Умуман олганда, дунёга таърифу тавсиф ҳамда унинг бевафолигини, ўткинчи эканлигини айтмаган шоир бўлмаса керак. Исломий таълимот бўйича, дунёни сўкиш мумкин эмас. Инчунин, дунё бевафо эмас, унда яшайдиган баъзи бир нопок инсонлар бевафо. Зеро, дунёнинг холиқи Аллоҳ.

Бу дунёда ҳар ким яхши уруғ сепса, албатта, унинг мевасини шу дунёда ҳам, удунёда ҳам кўради. Агар ёмонлик уруғини сепса, икки дунёда ҳам жазоланиши муқаррар.

Хулоса қилиб айтганда, Ҳазрат Алишер Навоий исломий сарчашмаларга мурожаат қилиш орқали назм табарруклигини оширди. Ўзининг фалсафий, илоҳий-ирофоний, дидактик қарашаларини асослаш учун диний манбалардан унумли фойдланди.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Навоий Алишер. Ҳайрат ул-аброр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, VII жилд. – Тошкент: Фан, 1991. 23-бет.
2. Муҳаммад ибн Абдуллоҳ ал-Хатиб ат-Табризий. “Мишкот ул-масобиҳ”. Байрут, 1983 й, I жилд, 32-бет.

[139] Навоий Алишер. Ҳайрат ул-аброр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, VII жилд. – Тошкент: Фан, 1991. 151-бет.

**5A110901 - Педагогика назарияси ва тарихи (фаолият турлари бўйича)**

# IJTIMOIY FANLARNI O‘QITILISH JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH

**Sh.Sh. Olimov,**
*BuxDU “Pedagogika” kafedrasi professori,*
**O.R. Ortiqov,**
*BuxDU, I kurs magistranti*

Yoshlarimizni turli g‘oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog‘lom, insonparvar g‘oya va mafkura bilan qurollantirish kerak. O‘zligimizni, odob – axloqimizni, merosimiz, qadriyatlarimiz va milliy ruhimizni zararli g‘oyalar va mafkuralar ta’siridan avaylab-asrash, ularga qarshi yoshlarimiz qalbida va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish orqaligina millatni asrash mumkin. Yoshlarimizda turli xil yot va zararli g‘oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Binobarin, bu jarayon jamiyat, davlat, xalq va millat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ma’rifiy, ta’lim-tarbiya va mafkuraviy jarayonlarning uzviy birligi asosida amalga oshadi. “Immunitet so‘zining ma’nosi (lot.Immunitos – ozod bo‘lish, qutulish) tibbiy tushuncha bo‘lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o‘zini turli ta’sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo‘lgan reaksiyalar majmui tushuniladi”. [1, 10]

Xalqimizda “ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi” degan hikmatli bir so‘z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi printsipiga asoslanishi, ya'ni, ta'lim bog‘chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim.[2 2] Hozirgi kunda yoshlar ongiga milliy g‘oyani singdirishda, ta’lim va tarbiya, fan, madaniyat va madaniy-ma’rifiy muassasalar, adabiyot va san’at, din, jismoniy tarbiya va sport, urf-odat, marosim va bayramlar, oila, mahalla, mehnat jamoalari, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari orqali milliy g‘oyani va milliy mafkuraviy immunitetni xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongiga singdirishda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda bugung yoshlar haqida prezidentmizning fikrlarini keltirish bilan o‘zimizning fikrimizni avom ettiramiz. Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga ega. Shu bois, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o‘ta sharafli vazifa. [3, 3]

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, shuni aytish joiski yoshlarda mafkuraviy immunitetni hsakllantirish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Ushbu vazifani

amalga oshirishda ijtimoiy fanlar, ayniqsa, tarix faning oʻrni beqiyosdir. Tarix fani — insoniyatning butun oʻtmishi davomida jamiyat hayotida sodir boʻlgan voqea-hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda oʻrganadi. Tarix fani ijtimoiy gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san’atshunoslik va boshqalar) tizimining tarkibiy qismi. Tarix fanining bu guruhdagi oʻrni uning tadqiqot predmeti va usullari bilan belgilanadi. Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar jamiyat hayotining alohida jihatlarini oʻrgansa, tarix fanining tadqiqot ob’yekti — aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining oʻtmishi va hoziri haqidagi faktlarni yigʻish, taxlil qilish, toʻplangan bilimlarni ma’lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishdir. Tarix fani oʻtmishda sodir boʻlgan jarayon va hodisalar orasidagi oʻzaro bogʻliqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantigʻi va ma’nosini koʻrish imkonini beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tarix tadqiqotlari natijalariga tayanadi. Fanlararo yondoshuv jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirib, oʻtmishni va hozirni anglash orqali jamiyat rivoji istiqbolini koʻra bilishdek muhim vazifani hal qiladi.
Insoniyat yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar bilan bogʻlab turadigan, uning ongi va kundalik amaliy faoliyatiga ruhiy-ma’naviy ozuqa beradigan qudrat tarixiy xotiradir. Shuningdek, adabiyotlarda «tarixiy ong ijtimoiy xotiraning tarkibiy qismi, uning elementlaridan biridir», degan fikr ham mavjud. Tajribada koʻrinishicha, «tarixiy ong» tushunchasi oʻz mazmuniga koʻra, «ijtimoiy xotira» tushunchasi bilan qiyoslanadi, unga nisbatan ancha keng tushuncha hisoblanib, «xotira» tushunchasi oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlgan va birgalikda tizim sifatidagi «ong»ni tarkib toptiradigan oʻzaro bogʻlangan koʻplab elementlardan, shu jumladan xotiradan ham iborat boʻlgan ancha kengroq tushuncha.

Shu oʻrinda tarix darslarining oʻqitilishi tarixiy ong va xotirani ozuqlantiruvchi bilimlar manbai ekanligi alohida ta’kidlash lozim. Tarix oʻtmish voqealar haqida axborot ochish, yigʻish, tartiblashtirish va namoyish etish bilan shugʻullanuvchi fandir. Tarix bilan shugʻullanuvchi olimlar tarixchilar, deb ataladi. Tarix fani voqealar ketma-ketligini tahlil etadi va ularning sabab va samaralarini tizimlashtiradi. [4, 10] Tarixiy ong, uning oʻzagi tarixiy xotira milliy gʻoyaninig tarixiy va zamonaviy ildizlaridan biridir. Mustaqillik nafaqat milliy gʻoyaninig maqsad-mohiyatini anglashga, balki uning tarixiy ildizlari, jumladan tarixiy ong, tarixiy xotirani oʻrganishga imkon yaratdi. Xalq, mamlakat kelajagi tarixiy ongining teranligi, tarixiy xotiraning uygʻoqligi, tarixdan xulosa va saboqlarning puxta va mukammal egallanganligiga ham bogʻliq albatta. Bu uchun oʻshlarimiz maktabda, oʻtra ta’limda va oily ta’limda tarix fanini yaxshi oʻzlashtirishlari lozim.
Biz buyuk davlat qurishni oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻygan ekanmiz zamonaviy siyosiy, iqtisodiy, ilmiy – texnikaviy, ma’naviy imkonlarimiz bilan bir qatorda tarixiy bilim, koʻnikma, malakalarimizni ham mustahkamlashimiz darkor.
Maktab partasida oʻtirgan har oʻquvchi yoshlar tarixiy saboqlarini ustozlaridan oʻrganishlari va zamonaviy texnologiyalar hamda metodlar bilan yondashib oʻzlashtirishlari kerak. Tarix milliy mafkura va gʻoyani ozuqlantiruvchi eng asosiy manbadir. Tarixiy ong va tarixiy xotira inson, jamiyat ma’naviyatining ajralmas qismi boʻlib, u qanchalik boy mazmunli boʻlsa, insonda oʻtmishdan faxrlanish

tuygusini uyg‘otadi, xalqni uyushtiradi, uni tarixdan saboq chiqarib, ulug‘vor, bunyodkor ishlarni bajarishga chorlaydi. Shuning uchun ham tarixiy ong va tarixiy xotira, milliy g‘oyaninig ham tarixiy, ham zamonaviy asoslaridan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash zarurki, tarix fanini puxta o‘zlashtirishga va tarixiy xotirani ilmiy tahlil qilishga Respublikamizda katta e’tibor berilmoqda. Tarixiy ong va tarixiy xotiraning mazmun – mohiyatini milliy g‘oyaninig tarixiy ildizi sifatidagi ahamiyati, uni shaxs faoliyati va jamiyat hayotidagi, ijtimoiy, jumladan milliy ong tizimidagi, dunyoqarashni shakllantirishdagi o‘rni haqida ko‘plab fikrlar bildirilgan.

Mafkura fikr va g‘oyalar jamlanmasidir. Mafkurani oziqlantiruvchi nuqtasi bu mafkuraviy immunitet bo‘lib, uning vujudga kelishida, mavjud bo‘lishida, sog‘lom mafkuraga aylanishida tarbiyachiga birinchi galda ota-ona, oila, bog‘cha, maktab, o‘quv yurti, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlarining roli katta. Jahonda bo‘layotgan turli yangiliklarni, turli xabarlarni, turli-tuman g‘oyalarni rost yolg‘onligini, foydali yoki ziyonligini bilish uchun har bir bo‘lajak mutaxassis pedagoglarda avvalo mafkuraviy immunitet bo‘lishi talab qilinadi. Mafkuraviy immunitetning boshlang‘ich nuqtasi oila tarbiyasidir. Bo‘lajak tarbiyachi va o‘qituvchi mutaxassislarni oilada bola tarbiyasi muammolarni hal qilish masalalari haqida bilim va malakalarini shakllantiradi. “Vatanimiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim”, - degan edi Birinchi Prezidentimiz, I. Karimov [5, 6].

Asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy bo‘yligi va shu bilan birgalikda ularning ilmiy merosi bu biz avlodlarga o‘tmishimizni bilishga va undan ozuqlanishga zamin yaratadi. Har qanday ijtimoiy mushtaraklik o‘zining kelib chiqishi, o‘z tarixidagi eng muhim voqealar, o‘tmishdagi buyuk (ba’zan unchalik buyuk bo‘lmagan) arboblar to‘g‘risida, o‘z tarixining insoniyat tarixidagi o‘rni haqida, o‘z tarixining boshqa xalqlar tarixi bilan nisbati to‘g‘risida muayan tasavvurlar tizimiga taqqoslash orqali mafkuraviy immunitet shakllanadi, taraqqiy etadi va kamol topadi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbuskorligida turli tashqi kuchlar hamda markazlar tomonidan tarqatilgan yot g‘oyalarga qarshi ma’naviy immunitet shakllantirish va bu yo‘lda, milliy g‘oya, milliy mafkura tushunchalarini yoshlar ongiga singdirish yuzasidan bir qator ishlar olib borildi. Bugungi kunda bu boradagi ishlar yanada takomillashtirilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning tashbbusi bilan yuzaga kelgan “besh tashabbus” doirasida qator ishlar amalga oshirimoqdakim, yoshlarimizning ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qilib kelmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 28 iyuldagi Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3160 sonli qarori e’lon qilinganligi muhim qadam bo‘ldi. Shu asosida Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, milliy g‘oyani amalga oshirishning istiqlol yillarida shakllangan mexanizmi, o‘ziga xos

tizimi mavjud. Bu ham ta'lim, ham tarbiya jarayoni orqali amalga oshiriladi. Ta'lim muassasalarda yaratilgan oʻquv qoʻllanmalardan tortib, sinflar va auditoriyalargacha mafkuraviy ta'lim beruvchi ijtimoiy reklamalar bilan qurollantirish va milliy gʻoyani oʻquvchi yoshlar ongiga singdirishda darsliklardagi mavzular yuzasidan interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish oʻzining ijobiy samarasini beradi.

Milliy mafkuraning maqsad va vazifalaridan biri gʻoya orqali kishilarni ma'naviy-ruhiy ragʻbatlantirish, tarbiyalash va gʻoyaviy immunitetni shakllantirishdir. Bu vazifani bajarish tarixiy xotirasi mustahkam, tarixiy ongining ilmiy-nazariy darajasi rivojlangan kishilarda yengil kechadi. Demak, tarixiy ongning nazariy-mafkuraviy darajasini shakllantirish va rivojlantirishda milliy mafkura gʻoyaviy asos boʻlib xizmat qiladi. Mustaqillikning buyuk ne'matligi shundaki, oʻzlikni anglash shart-sharoitlarni yaratib, milliy gʻoya orqali moziyga murojaat qilib, tarixiy haqiqatni tiklashga imkon berdi. Milliy mafkura oʻtmishni kelajak bilan bogʻlaydi, tarixiy xotirani obyektivlik, xolislik asosida tiklash jarayoniga ijobiy ta'sir koʻrsatadi.

Xulosa ornida aytishimiz mumkinki, ijtimoiy fanlar aniq va tabiiy fanlarga nisbatan goya, mafkura, mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va ozuqlantiruvchi fanlar majmui boʻlib, ayniqsa tarix fani bu sohada yetakchi sanaladi. Tarix har bir yosh avlodning oʻngi, qalbi, xotirasida shunday joy oladiki, bu uni vatanparvarlikka, insoniylikka, ezgulikka, komil boʻlishida xizmat qiladi. Bunday insonlar faqat ezgulikka intilib yashaydilar.

## Adabiyotlar:


1. 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantish boʻyicha harakatlar strategiyasi. www.Lex.uz
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2018 yil Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 www.Lex.uz
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoevning parlamantga 2020 yil Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan. www.Lex.uz
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va Oʻzbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qoʻllab-quvvatlash toʻgʻrisida"gi 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 son Farmoni. Xalq soʻzi.uz
5. Mirziyoyev SH Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: Oʻzbekiston, 2017 - 488 b
6. Karimov I.Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.176 b
7. Karimov I.A "Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoillar" risolasiga soʻz boshi. T.9. T.: "Oʻzbekiston", 2001
8. Karmov.I Oʻz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan qurmoqdamiz. "Turkiston" gazetasi muxbirining savollariga javoblar. T.: Oʻzbekiston,1999, 4-bet
9. Ziyonet.uz

# ПЕДАГОГИК МАҲОРАТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ТАВАККАЛЧИЛИК (РИСКОЛОГИЯ)НИНГ ЎРНИ

**Г.В. Избуллаева,**
*Илмий рахбар: доцент,*
**М. Амонов**,
*БухДУ, I курс магитранти*

*Бу мақоланинг мазмунида педагогик маҳоартнинг шаклланишида таваккалчиликнинг ўрни, умумий чегаралари ва хусусиятларини белгилаб олиш ётади.*

Технология замонида маҳорат ва риск (таваккал) инсоннинг ҳаётини ҳар жиҳатдан қамраб олган. Таълим тизими ҳам бундан мустасно эмас. Бир тарафдан қараганда педагогик фаолиятдаги риск (таваккалчилик) иқтисод соҳасига қараганда анча паст ҳисобланса, лекин унинг шахс ва жамиятдаги юзага келадиган ижтимоий оқибатларга кўра иқтисод соҳасига қараганда катта талофат келтириши мумкин. Маҳорат ва таваккалчилик муаммосини тушуниб, аниқлаб олиш учун "таваккалчилик" калит сўзининг тушунчасини аниқлаб олиш керак. Маҳорат (арабча) – моҳирлик, усталик ва эпчиллик деган сўздан олинган бўлиб, бирор иш касб учун зарур ёки шу соҳада орттирилган усталик, санъат. Таваккалчилик (арабча) – ваколат олиш, умид боғлаш, суяниш, ишониш деган сўздан олинган бўлиб, оқибат-натижа қандай бўлишидан қатий назар бирор ишга жазм қилиш маъносини англатади. Риск (таваккал) сўзнинг манбаи чет (юнонча) тилидан кириб келган "riza" – қоянинг пасти, "rizikon" – қоя. XV асрда шу сўздан испанлар ва италянлар денгизда сузиш пайти фойдаланишган. XVII асрда "риск" француз тилида савдо соҳасида ишлатилган. Аста-секин "таваккалчилик" сўзи профессионал соҳадан (денгизда сузиш, авиация, савдо) оддий умумий мулоқотга киради. Бу жараён динни жамият ҳаётидан четга сиқиб чиқариш билан боғлиқ бўлиб, таваккалчилик сўзи "гуноҳ" ва "жазо" тушунчаларини ўрнини эгаллайди. Ушбу тушунча қабул қилинган ечим учун шахсий жавобгарлик тушунчасининг пайдо бўлиши каби шаклланади.

Педагогик маҳоратнинг шаклланишида таваккалнинг пайдо бўлиши учун энг муҳим шарт – ижтимоий ривожланишнинг ижобий мантиқийлигини (энг яхши томонга эришишга ҳаракат қиладиган) салбий (энг ёмонни ҳимоя қилиш ва олдини олиш тенденциясига асосланган ҳолда), ўзидан-ўзини чеклашга қаратилган эҳтиёжни қондиришга йўналтирилган ўтишдир.

Рискология – таваккалчилик ҳақидаги фан бўлиб, хавфнинг моҳияти, унинг сабаблари, намоён бўлиш шакллари ва унинг инсон ҳаётидаги ўрнини ўрганади. Рискнинг асосий предмети ноаниқликнинг бир томони ва муайян натижага (карорга) эга бўлмаган вазиятларнинг намоён бўлиш эҳтимоли сифатида пайдо бўлади. Бу ерда барча сабаблар, механизмлар, таваккалчилик хусусиятлари, унда иштирок этувчи субъектлар, рискни назорат қилиш ва

уни бошқариш (ноаниқликдан қочиш йўллари; мумкин бўлган натижаларнинг сифатли ва миқдорий ҳисобланиши; хатолар шаклида салбий ва мақсадлардан четга чиқиш; ижобий мақсадларга эришиш шакли ва бошқалар) назарга тутилади. Риск турлари уларнинг манбаи ва тарқатиш соҳаларидан келиб чиқиб, қуйидагича тавсифланади: 1) муҳит; 2) геосиёсий; 3) социоген (жамият фаолияти жараёнлари натижасида); 4) мафкуравий (мафкуранинг тамойиллари маданиятга нисбатан, тизимлар эса инсонга нисбатан устунлиги).

Риск манбалари илм-фан томонидан кенг тарқалиб, кашф этилиши мумкин (саноат қобилиятсизлиги, бахтсиз ҳодисалар, ҳаво ифлосланиши ва ҳ. к), ҳамда оммавий онгда (оммавий қирғин қуроллари йўқ қилинишида ва бошқалардаги таҳдидлар ва ҳ.к) яққол кўзга ташланмаган.

Рисклар институционал тузилмаларга таъсир қилади; сиёсий тизим, масса қийматлари; жамоавий иштирок этиш шакллари; шахсий тушунча ва хатти-ҳаракатлар хусусан, узоқ давом этган инқирозлар ва такрорланаётган офатлар кучга муҳтож бўлган фикрни ёқиб юбориши мумкин.

Педагогик маҳорат - бу ўқитувчи – тарбиячининг шундай шахсий (болажонлиги, хайриҳоҳлиги, инсонпарварлиги, меҳрибонлиги ва ҳ.к.) ва касбий (билимдонлиги, зукколиги, фидойилиги, ижодкорлиги, ерудицияси ва ҳ.к.) фазилатларини белгилайдиган хусусиятки, у ўз ўқув фанини чуқур ва атрофлича билишида, педагогик – психологик ва методик тайёргарлигида, талаба – ёшларни ўқитиш, тарбиялаш ва ривожлантиришнинг оптимал йўлларини излаб топиб, амалий фаолиятга қўллашида намоён бўлади.

Педагогик рискология – педагогиканинг янги йўналиши бўлиб, педагогнинг касбий лаёқатидаги ўзини бошқариш жиҳатларини ўрганади, педагогик риск(таваккал)нинг моҳияти ижтимоий-иқтисодий ва психолог ик ҳодисалар сифатида, педагогик фаолиятнинг муқаррар танлов ҳолатининг умумий қонуниятлари ва ўзига хос хусусиятлари ўрганишдан иборат. Педагогик рискология – бу янги интегратив фан, касбий муайян касбий фанларга оид биламлар, педагогика, психология ва фалсафа, социология ва маданият каби умумтаълим фанларидан янги контент даражасига кўтарилган. Педагогик рискология ҳақидаги билимлар таълимни бошқариш соҳасининг муҳим қисми саналади. Фаннинг йўналишлари: педагоглик касби ва таълим жараёни қарама-қаршиликлар ва хатарлар ҳақида муҳим тасаввурларни шакллантириш; мураккаб ва зиддиятли воқеликни педагогик воқелик сифатида тушуниш; мураккаб ва зиддиятли педагогик жараёнда ўқитувчининг муҳим ролини тушунишдир. Жумладан, педагогикада риск ўзига хос хусусиятларга эга: Биринчидан, педагогик риск ўқитувчининг ўз касбий фаолиятларини бажаришда ўқувчилар олдида масулиятидир; Иккинчи, риск – қарор қабул қилиш шароитида ноаниқликни бартараф этишга қаратилган; Учинчидан, ўқув жараёнида иштирокчилар ўртасидаги муносабатларни тартибга солиш; Тўртинчидан, педагогик таваккалчилик жараённинг барча иштирокчилар ҳарактларининг уйғунлгини акс эттиради.

Педагогик маҳорат яхлит тизим сифатида қуйидаги таркибий қисмлардан иборат бўлади: - педагог шахсини инсонпарварлик йўналишига эга бўлиши, унинг қизиқишлари, қадрият йўналишалри ва идеалларининг олий мақсад-баркамол авлод тарбиялаб етиштиришга йўналтирилганлиги; - мутахассислик фанлари, ўқитиш методикаси, педагогикапсихологиядан мукаммал билимга эга бўлиш; - педагогик қобилиятга эга бўлиш (мулоқотга мойиллик, ишчанлик, келажакни тасаввур қила олиш, касбий мустақиллик, сенсор ахборотларни тезлик билан англаш (юзидан ўқиб олиш); - педагогик техникани эгаллаш, яъни ўз-ўзини бошқара олиш, ўзаро таъсир этиш ва ҳамкорликда ишлашни уддалаш.

Педагогик маҳоратнинг ўзига хос хусусиятларидан яна бири, унинг ўқитувчи шахси ва касби тўғрисида мукаммал маълумот ва тушунчаларга эга эканлигидадир. Ўқитувчи инсон сифатида шахсий фазилатларга эга бўлиши билан бирга, касбий, яъни ихтисослик фазилатларига ҳам эга бўлиши лозимлигини тажриба кўрсатмокда [8]. Педагогик риск (таваккал, хавф, таҳлика) - оддий чоралар самарасиз бўлганда ижобий натижа учун аниқ ишонч бўлмаса, ноодатий усулни қўллаш ёки муайян педагогик вазифа учун интилиш, ҳаракат қилиш, рухсат олиш кабилардир. Хронологик ва баҳолаш фарқларидан (“муаммо” тушунчасига солиштирган ҳолда) ташқари рискга нисбатан “риск объекти” ва “риск субъекти”ни ажратиб кўрсатиш мумкин. Риск субъекти тушунчаси деганда қарор қабул қилувчи ва уни ҳаётга тадбиқ этувчи жамият ҳаётининг якка ёки гуруҳ шаклидаги фаол иштирокчиси тушунилади. Лекин рискнинг алоҳида субъектларига фақатгина қарор қабул қилиш вазифаси юклатилган (масалан, қонунчилик органлари). Риск объектлари эса бошқалар томонидан қабул қилинган қарорларнинг натижасини бошларидан кечирадиган индивид ёки ижтимоий гуруҳлардир. Риск субъектлари айни вақтда риск объектлари билан бирга жараёнда иштирок этиб, ўзларининг шахсий қарорлари натижаларини ҳам бошларидан кечирадилар. Маълум таълим даргоҳи аъзоси яъни, ўкувчи, педагог ва раҳбар ҳам риск объекти ҳисобланади. Субъектив ҳолат ўз йўлини топиш учун хизмат қилувчи омил кучлари ва ҳокимият ваколатлари мавжудлигига боғлиқ.

Ҳар қандай онгли равишда бажарилган ҳаракат тахмин қилиш ва режалаштириш босқичлари билан бирга олдиндан диагностика қилиш, тадбирларни амалга ошириш ва унинг сўнгги натижасини баҳолашни ўз ичига олади. Педагогнинг фаолияти бундан мустасно эмас. Айниқса, таълим сифатининг маҳоратни ривожлантириш босқичига алоҳида эътибор қаратилади, демак риск-проблематикаси долзарблаштирилади. Уни ўрганиш учун, аллақачон рискологиянинг ишлаб чиқилган риск классификацияларидан фойдаланиш лозим. Мисол тариқасида, умумлаштирилган классификацияларни оламиз: одатий(ижтимоий рисклари), саноат (технологик рисклари) ва янги (ахборот рисклари).

Таълим муассасаларида долзарб риск зоналарини тушунган ҳолда, қуйидаги М.А.Беляева [4; 16-23] педагогик таваккалчиликлар таснифини таклиф қилади:

1. Кадр рисклари («оқим», «эскириш», «авлодлар низолари» ва бошқалар) – бу рисклар, инсон ресурслари ҳолати билан боғлиқ, яъни педагог ишчиларнинг барча мутахассисликларда профессионаллик даражаси ва шахсий характеристикаси қай даражада меъёрий талабларга жавоб беради.
2. Контингент-рисклар – таълим олаётганларнинг барча миқдорий ва сифатий хусусиятларининг ўзгариши билан боғлиқ рисклар (ижтимоий соҳа ва маданият муассасаларида «мижозлар риски» деб кўрсатилиши мумкин).
3. Процессуал ёки ўқув-услубий таваккалчилик бу таълим-тарбия жараёнини биргаликда олиб борадиган хавфлардир. Ушбу гуруҳ жорий ўқув жараёни билан боғлиқ бўлган хатарларни, шунингдек, янги стандартлар ва технологияларни жорий этишни ўз ичига олади. Замонавий педагогиканинг енг долзарб муаммолари – таълим сифатининг пасайиши. Республикамиз таълим тизимида жамиятнинг жадал ривожланиши муносабати билан, инновациялар ва псевдо (ёлғон)инновацияларнинг тошқини пасаймоқда. Инновацияларнинг бош мақсади таълим сифатини яхшилашдир, лекин аслида у қарама-қарши, мавҳум ёки кутилмаган таъсирга эга бўлиши мумкин. Таълим муассасаларида процессуал, ўқув-методик рискларга янги таълим стандартларини қабул қилиш ва амалга ошириш, янги ва анъанавий технологиялар, моддий ва методик базанинг ҳолати ва бошқалар билан боғлиқ рисклар киради. Интегратив процессуал риск деб таълим сифатининг пасайишига айтилади. Ҳозирда «таълим сифати» категорияси педагогикада турли хил предметлар нуқтаи назаридан инсонпарварлик тамойилларига асосланади, кўпинча миқдорий баҳога тегишли бўлган таълим сифати мезонлари фаол тарзда ўрганилади. Бундай мезонларга боғланиш расмийлашишга олиб келади.
4. Имидж риски – бу таълим муассасаси ҳақида жамоачилик фикри билан боғлиқ хавф. Ушбу хатарларнинг таснифловчи бир неча жиҳатлари мавжуд. Биринчидан жамоачилик фикри – пуллик хизматлар асосида таълим хизматларини амалга оширувчи институтнинг иқтисодий самарадорлиги учун шароитлардан бири. Иккинчидан, ўқувчиларни тайёрлашга сарфланган маблағ қандайдир натижа берган. Мисол учун, университет учун – битирувчиларнинг касби бўйича ишга жойлашиш кўрсаткичи. Ушбу кўрсаткични битирурчиларнинг бандлигини мониторинг ўтказиш натижалари асосида аниқлаштирилади. Учинчидан, таълимнинг асосий мақсади – маданиятнинг намойиши, авлодларнинг маданий узлуксизлигини таъминлаш.

У.Бекнинг концепциясига мувофиқ ахборот жамияти, “риск жамияти” бўла туриб, хавфсизлик атрофида тузилади. Уни ҳаракатга келтирувчи куч –

қўрқув, идеали эса хавфсизликдир. Ҳозирча ушбу “хавфсизлик” тушунчаси фақатгина маҳаллик ўқув фани (Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги) доирасида марказий бўлиб турмоқда, бироқ, биз яқин орада “хавфсиз таълим”га интилиш кўрсатмасини унинг ажралмас қисмига айланган тавсифи сифатида қарайдиган вақтлар келиши мумкин бўлиб қолмоқда. Шу ердан рискнинг педагогика ва таълимдаги илмий таҳлил предмети сифатидаги эвристик салоҳияти келиб чиқади [3; 120].

Шундай қилиб, педагогик риск – педагоглар маҳоратини шакллантиришда ижобий натижаларига таъсир кўрсатадиган жуда кўп шартлар ва далилларга боғлиқ бўлган жуда мураккаб ҳодиса. Таълим соҳасидаги муваффақиятли фаолитни амалга ошириш учун ўқитувчи эҳтимолий хавфларни тахмин қилиши, уларни минималлаштириш бўйича чора-тадбирлар кўриши ва мақсаддан келиб чиққан ҳолда юзага келадиган муаммоларни бартараф этишга қодир бўлиши керак.

Хулоса. Педагогик маҳоратни шакллантиришда рискларни қарама-қарши ҳодиса сифатида кўриб чиқиш лозим бўлиб, у ўзида ҳам хавф-хатарлар, ҳам янги имкониятларни қамраб олади. Риск-менежментни тайинлашдан кўзланган мақсад рискларни оптималлаштириш, яъни салбий оқибатларнинг олдини олиш ҳамда кутиладиган ижобий оқибатларни рағбатлантиришдир. Педагогик фан туркумлари ҳамда тадқиқотларда рискологик фан ракурси бугунги кундаги аҳамияти муҳим бўлиб, таълим тизимида мавжуд риск зоналари, асослаб берилган бошқарув қарорларини қабул қилишда уларни ўрганишни талаб қилади. Бу, бир томондан, кадрлар билан боғлиқ, процессуал, имидж ва контингент рисклар бўлса, бошқа томондан – педагогик, иқтисодий, ижтимоий-маданий, психологик ва бошқа риск зоналари (функционал таснифдан фойдаланган ҳолда) саналади.

**Фойдаланган адабиётлар рўйхати:**


1. Абрамова И.Г. Педагогическая рискология: Монография. М., 1995.
2. Агацци Э. Моральное измерение науки и техники / науч. ред. В. А. Лекторский. М. : МФФ, 1998. Ст. 250
3. Бек У. Общество риска. На пути к другому модерну. М., 2000. Ст. 240
4. Беляева М.А. Риск как предмет научного анализа в педагогике и образовании. /Педагогическое образование в России №11 с.16-23. 2014
5. Зубков В. И. Социологическая теория риска : учеб. пособие. М. : Академ Проект, 2009. Ст. 250
6. Ожегов С. И. Словарь русского языка. М. : Рус. яз., 1984. Ст. 700
7. Шомақсуд Ш. Маънолар махзани. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б. 328-329
8. Холиқов А. Педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. Т.: «IQTISOD MOLIYA» нашриёти, 2010,-312 бет.

# TEXNOLOGIK TA‘LIM YO‘NALISHI O‘QUV JARAYONLARIDA MASOFAVIY TA‘LIMNI TASHKIL ETISH

**Z.D. Rasulova**
*BuxDU tayanch doktoranti*

*Mazkur maqolada masofaviy ta‘lim asosida so‘z yuritilgan. Oliy ta‘lim Texnologik ta‘lim yo‘nalishi ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarini masofaviy t‘lim asosida tashkil etishning ahamiyati yoritilgan.*

Internet global kompyuter tarmog‘ini rivojlanishi butun dunyo ta‘lim tizimini takomillashtirishning yangi yo‘nalishlarini ochilishiga sabab bo‘ldi. Birinchidan, o‘quv muassasalarining texnik ta‘minotini keskin o‘zgarishi, dunyoviy axborot resurslarga keng yo‘l ochilishi o‘qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqardi.

Hozirgi zamon ta‘lim tizimida masofaviy o‘qitish ta‘limning qulay turi sifatida kirib keldi.

Masofaviy o‘qitish barcha ta‘lim olishh istagi bo‘lganlarga o‘z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunda o‘qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, nazoratdan o‘tadi, o‘qituvchining bevosita rahbarligidan nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa “vertikal o‘quv guruhi” talabalari bilan muloqotda bo‘ladi.

Masofaviy ta‘lim ma‘lumot olishning shunday shaklidirki unda kunduzgi va sirtqi ta‘lim bilan bir qatorda ma‘lumot jarayonida ta‘limning kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan afzal an‘anaviy va innovatsion metod, vosita va shakllaridan keng foydalaniladi.

Masofaviy ta‘limning tarkibiy qisimlari quyidagilar:

O‘qituvchi , talaba va kommunikatsiya.

Masofaviy ta‘limda ma‘lum maqsad asosida ta‘lim sub‘yekti va ob‘yektining ta‘lim vositalari yordamidagi o‘zaro ta‘siri amalga oshadi. [1]

Ma‘lumot jarayoni o‘ziga xos pedagogik tizim elementlarini o‘z ichiga oladi, bular: ta‘lim maqsadi, ta‘lim mazmuni, ta‘lim metodlari va vositalari ta‘limning tashkiliy shakllari, nazorat qilish, o‘quv-moddiy, normativ-huquqiy asoslar, kabilar.

Texnologik ta‘lim yo‘nalishi ma‘ruza, amaliy mashg‘ulotlarini ham masofaviy tashkil qilish, talabalarni faollikka chorlash bilan bir qatorda ularda fanga bo‘lgan qiziqish, kreativ fikrlash, tafakkur qilish kabi yangi tushunchalar hosil bo‘ladi. Masofaviy o‘qitishda o‘qituvchi talabaga o‘quv materialini internet‖ tizimi orqali yuboradi. Ushbu kurs bo‘yicha ta‘lim olishni istagan talabalar veb saytga murojaat qilib, nazariy bilimlarni oladilar, amaliy topshiriqlarni bajaradilar va o‘qituvchiga javobni elektron pochta (e-mail) orqali jo‘natadilar.

Texnologik ta‘lim yo‘nalishi ixtisoslik fanlarida amaliy mashg‘ulotlarni bajarishda moddiy texnik bazalarning ish jarayonlarini kuzatish, texnik bilimlarga

ega bo‘lishda masofaviy ta‘limning ahamiyati katta. Bunda texnik jarayonlarning ish strukturasi taqdimot slaydlar asosida to‘liq amaliy tadbiq qilinadi. Talabalar nazariy bilimlar bilan birga amaliy ish jarayonlarini ham mukammal o‘zlashtirish darajasiga ega bo‘ladilar.

Masofadan o‘qitishning uslubiy vositalari quyidagilar:
- darslik,
- audio va vidiodarsliklar,
- veb-saytlar,
- elektron kutubhonalar,
- matnlar,
- elektron darsliklar.

Ushbu kurs tizimi apparatli, dasturli va uslubiy vositalarning murakkab kompleksi bo‘lib, o‘z ichiga server va ishchi stansiyalar, shaxsiy kompyuterlar, kommunikatsiya vositalari, umum tizimli va tarmoqli dasturlar ta‘minotiga, lokal va markazlashgan bilim va axborot banklarini boshqaruv tizimlari, o‘rgatuvchi dasturlari va shu dasturlarni yaratish uchun instrumental vositalariga ega bo‘lgan audio va video texnikalarni oladi. [2]

Texnologik ta‘lim yo‘nalishida masofaviy o‘qitish tizimi vositalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:
1. Darsliklar (an‘anaviy darsliklar, elektron darsliklar, qo‘llanmalar, spravochniklar va boshqalar).
2. (Kompyuter) tarmoqdagi o‘quv-metodik qo‘llanmalar;
3. Odatdagi va multimediya variantlaridagi kompyuterli o‘qituv tizimlari;
4. Audio va o‘quv axborot materiallari;
5. Video o‘quv-axborot materiallari;
6. Masofaviy laboratoriya praktikumlari;
7. Masofaviy trenajyorlar;
8. Masofaviy axborot va bilimlar bazasi;
9. Masofaviy elektron kutubhonalar;
10. O‘rgatuvchi ekspert tizimlariga asoslangan o‘qitish vositalari;
11. Virtual reallikka asoslangan o‘qitish vositalari.

Bundan tashqari masofaviy ta‘limda ko‘p tugmali videoserverlar hamda maxsus videokameralar mavjud bo‘lib, ular o‘quv jarayonlarini puxta o‘zlashtirishga juda qulay hisoblanadi.




*Ko'p tugunli videoserverlar*

Videoserverlar asosan ikki holatda ishlaydi:
a) ovoz aktivligi bo'yicha bunda barcha ishtirokchilar bir vaqtda faqat gapirayotgan tomon bilan muloqotda bo'la oladilar;
b) ekran mayda bo'laklarga bo'lingan holda barcha ishtirokchilar bir-birlari bilan muloqotda bo'ladilar.
2. Maxsus videokameralar. Bu qurilmalar tasvirni uzatish vositasi hisoblanadi. Hozirgi paytda Canon, Genius, Axis, Sony kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan kameralar sifati va imkoniyati jihatidan alohida ajralib turadi.

Ixtisoslik fanlarining amaliy mashg'ulotlarini quyidagi bosqichlar asosida masofaviy tashkil qilish mumkin:

- **1-bosqich:** Tahlil
- **2-bosqich:** Loyihalashtirish
- **3-bosqich:** Joriy qilish
- **4-bosqich:** O'quv kontentlarini yaratish
- **5-bosqich:** Ishga tushirish
- **6-bosqich:** Rivojlantirish

Xulosa o'rnida shuni aytish munkinki, ta'lim jarayonlarini masofaviy tashkil etish, ma'lumot olishning shunday shaklidirki unda kunduzgi va sirtqi ta'lim bilan bir qatorda ma'lumot jarayonida ta'limning kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan afzal an'anaviy vangi innovatsion metod, vosita va shakllaridan keng foydalaniladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. A. Abduqodirov., A. X. Pardayev "Masofadan o'qitish nazariyasi va amaliyoti" Toshkent 2009 yil.
2. E. Polat. Masofadan o'qitish / o'quv qo'llanmasi, tahriri. - M.: Insoniyat. tahrirlangan VLADOS markazi, 2008 yil.
3. http://www.pedagog.uz/
4. http://www.infoCom.uz/

# АНДРАГОГИКА:КАТТА ЁШДАГИЛАР ТАЪЛИМИ ПРИНЦИПЛАРИ

**М.Р Баҳрамова.**
*БухДУ магистранти*

***Аннотация:*** *мазкур мақолада катта ёшдагилар таълимининг ўзига хослиги, асосий хусусиятлари ва принциплари моҳияти ёритилган.*

***Калит сўзлар:*** *андрогогика, ёш даври, таълим, шахс, принцип, ўзига хослик, ривожланиш, мустақил фаолият.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается суть основных принципов и особенности образования взрослых.*

***Ключевые слова:*** *андрогогика, образование, возрастной период, особенность, личность, принцип, развитие, самостоятельное действие*

***Resume:*** *This article discusses the essence of the basic principles and characteristics of adult education.*

***Keywords:*** *androgogy, education, age, feature, personality, principle, development, independent action*

Андрогогика принципларига асосан таълим олаётган катта ёшдаги кишилар таълим жараёнида етакчи сифатида намоён бўлади. Шахс сифатида шаклланган катта ёшдагилар ўз олдига аниқ мақсад қўйиган ҳолда мустақил равишда ўз иқтидори, мустақиллиги ва ўз-ўзини бошқариш фаолиятини намоён қилишга ҳаракат қилади. Андрагогика қадимги таълим формуласи: “non scholae, sedvitae discimus — мактаб учун эмас, ҳаёт учун ўқиймиз” га амал қилади.

Инсоният ривожланиши ва тараққиётини белгиловчи таълим-тарбия жараёнининг мустақил соҳа сифатида юзага келиши унинг узлуксиз ва жамият қонуниятларига мослашувчанлигини талаб қилган. Шу нуқтаи назардан катталар таълими уларнинг физиологик, ижтимоий-психологик ҳамда индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши лозим.

**Андрагогика** (юнонча *aner, andros* — катта ёшдаги, вояга етган эркак, + *ago* — етаклайман): педагогика фанининг мустақил соҳаси сифатида катта ёшдаги кишиларнинг бутун ҳаёти давомида таълим-тарбияси ҳамда уларни ўқитиш муаммоларини ўрганади. Кенг маънода андрогогикани инсоннинг бутун ҳаёти давомида шахс сифатида ўзлигини намоён қила олиш фани сифатида эътироф этиш мумкин.

Бизга маълумки, инсонларнинг аксарияти ўз иқтидори ва шахсий хусусиятларини ёшлик чоғидан бошлаб намоён қила бошлайди. Аммо кўпчилик инсонлар ҳаёти давомида эгалланган тажрибасига суянган ҳолда, аста-секинлик билан билим, кўникма ва малакаларга эга бўладилар.Андрогогика инсон шахсияти қирраларини намоён қилиш билан биргаликда уларнинг ҳаётда ўз ўрнини топишга кўмаклашади.

Фанга биринча марта андрогогика атамасини 1833 йилда уйғониш даври мутафаккири немис тарихчиси А.Кап киритган. 1970 йилда М.Ш.Ноулс андрогогика бўйича фундаментал “Катталар таълимининг замонавий амалиёти. Андрогогика педагогикага қарши” асарини ёзди. Бу асарда у андрогогика фанининг асосий қоидалари ва мазмунини ифодалаб берди. Бу қоидалар қуйидаги мазмунда талқин этилди:

- Таълим жараёнида етакчилик хусусияти таълим берувчига эмас, балки таҳсил олаётган катта ёшдаги кишиларга тегишлидир;
- У шаклланган шахс сифатида ўз олдига аниқ мақсад қўйган ҳолда мустақиллик ҳамда ўз-ўзини намоён қилишга интилади;
- Катта ёшдаги кишилар касбий ҳамда бой ҳаётий тажрибага эга бўлган ҳолда, таълим жараёнида фойдаланиладиган билим, кўникма ва малакларга эга бўлади.
- Катталар таълим жараёнида эгаллаган билимларини тез вақт ичида қўллаш имкониятларини излайди;
- катталар таълимида ўқитиш жараёни вақтинчалик, касбий, ижтимоий факторлар асосида ташкил этилади;

Таҳсил берувчининг асосий функцияси таълим олувчиларнинг олдиндан эгалланган тажрибасини тизимлаштириш, шакллантириш ва рўёбга чиқариш, коррекциялаш ҳамда тўлдиришдан иборатдир. Бу ҳолатда таълим методларини қўллаш кетма-кетлиги ва тизимида ўзгариш юз беради.

Анъанавий маърузалар ўрнига амалий, асосан тажриба-синов шаклидаги, баҳс-мунозара, ишчан ўйинлар, кейслар, муаммоли вазиятлар ечимига қаратилган машғулотлар етакчи ўринни эгаллайди. Шунингдек, турли фан соҳаларини ўзаро боғлайдиган, интеграция асосидаги маълумотларни етказиш йўналишида назарий билимлар берилади.

Ўз навбатида шуни таъкидлаш лозимки, катта ёшдаги кишиларда ҳис қилиш, хотирада сақлаш ва тафаккур қилиш жараёнлари ёшларникига қараганда секин кечади. Шу сабабли ўқитиш методологияси, методлари, усулларини йўналтирилган ҳолда, эслаш қобилиятини шакллантириш ва такомиллаштириш биринчи ўринга чиқади.

Замонавий фан андрогогиканинг қуйидаги асосий принципларини фарқлайди.

**1. Мустақил таълимнинг етакчилик принципи.** Бу принципни амалий жиҳатдан қўллаш учун дастлабки тайёргарлик кўриш талаб этилади. Бу тайёргарлик дастурлар тузиш, ўқув материалларини танлаш ва кўпайтириш, ўргатувчи дастурларни тайёрлашда намоён бўлади. Бу принцип катта ёшдаги кишилар учун ўқув материали билан бамайлихотир танишиш, атамалар, тушунчалар моҳиятини англаш, жараёнлар ва технологиялар мазмунини тушуниш ва уларни қўллаш имкониятини беради. Принципни қўллашда замонавий масофавий таълим кўмаклашади.

**2. Таълим олувчининг гуруҳдошлари ва ўқитувчи билан таълим жараёнини ташкил этишдаги ҳамкорлик принципи.**

**3. Ижобий ҳаётий тажрибани қўллаш принципи.**Ўрганувчи томониданамалий билимлар, ҳосил қилинган кўникма ва малакаларни қўллаш имкониятини беради. Бу принцип ўқитишнинг ижодий ишни рағбатлантирувчи фаол методларига асосланади. Иккинчи томондан индивидуал иш яъни реферат типидаги ишларни ёзиш, кейслар ва турли схемалар ҳамда жадваллар тузишга эътибор қаратилиши лозим. Индивидуал иш ўқитувчи ва ўрганувчи ўртасидаги ахборот ва билимларни бир-бирига етказиш шаклида намоён бўлади.

**4. Янги билимларни эгаллашга тўсқинлик қилувчи эскирган тажрибани янгилаш принципи.** Масалан юқори малакали мутахассис янги келажаги бор мутахассисларни "ўсиш"га қўймаслиги ҳолатлари кузатилади. Бундай ҳолларда улар билан ишонтиришга асосланган самимий суҳбатлар ўтказиш лозим.

**5. Ўқитишнинг элективликпринципи.**Бу таҳсил олувчига мақсад, мазмун, шакл ва воситалар, манбалар, ўқиш вақти, жойи ва таълим натижаларини баҳолаш имкониятини бериш маъносини билдиради.

**6. Рефлективлик принципи.** Бу принцип таҳсил олувчининг онгли равишда мотивация асосида таълим олиши ғоясини асослайди.

**7. Ўқитишнинг тизимлилик принципи.** Ўқитиш мақсади ва мазмунининг шакл, усул ва воситаларига мослигини англатади.

**8. Таҳсил олувчини ривожлантириш принципи.** Ўқитиш шахснинг такомиллашуви ва амалий фаолиятида янги чўққиларни забт этишига қаратилиши лозим.

Андрогогика самарали мақсадига эришиши учун катта ёшдаги кишиларни турли ёш даврлари 25 ёшгача, 25 ёшдан 45 ёшгача , 45 ёшдан катталарга бўлиш тавсия этилади.

**Биринчи категория** иккита гуруҳга бўлиниб, булар касбий маълумотга эга ва эга бўлмаганлар ҳисобланади. Шу сабабли биринчи гуруҳдагиларнинг касбий фаолиятга киришиб кетишлари учун таълим олишларига имконият яратиш талаб қилинади. Иккинчи гуруҳдагилар учун касбий маҳоратини такомиллаштириш талаб этилади.

**Иккинчи категория** вакиллари иш тажрибаси ва касбий маълумотга эга бўлиб, улар учун касбий етуклик ва ўз имконият даражаларини такомиллаштириш зарур ҳисобланади.

**Учинчикатегория** вакиллари бой ҳаётий ҳамда иш тажрибасига эга бўлишлари билан бир қаторда ривожланиб бораётган замонавий шароитда ўз

билимларини янада такомиллаштириш учун доимий янги ахборотларга эга бўлишлари талаб қилинади.

Учалла категория учун ҳам аниқ мақсадлар қўйилиши ўқитиш методлари, шаклларини танлаш ва ўзаро фаолиятни самарали йўлга қўйиш талаб қилинади.

**Фойдаланилган адабиётлар руйхати:**

1.Змеев С. И. Андрагогика: Становление и пути развития // Педагогика. — 1995.-№2.
2.Змеев СИ. Технология обучения взрослых. — М., 2002.
3.Российская педагогическая энциклопедия: В 2 т. / Под ред. В. В. Давыдова. — М., 1993 — 1999.
4.Онушкин В. Г., Огарев Е.И. Образование взрослых: Междисциплинарный словарь терминологии. — СПб.; Воронеж, 1995.
5.knowls M. The Modern Practice of Adult Education: from Pedagogy to Andragogy. — N. Y., 1970.

## БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА МАЪНАВИЙ-МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

**Д.Қ. Жомардова,**
*БухДУ, II курс магистри*

*Мазкур мақолада бўлажак ўқитувчилар маънавий-маданиятини ривожлантиришнинг долзарб методологик масалалари мазмуни ёритилган.*

Мамлакатимизда ҳуқуқий демократик, фуқаролик жамияти барпо этишни узоқ муддатли стратегик вазифа қилиб олган эканмиз, бу мақсадлар: замонавий ривожланган демократик давлатлар қаторига кириш, иқтисодиётимизнинг барқарор ўсишини таъминлаш, ҳаёт сифатини яхшилаш ва жаҳон ҳамжамиятида муносиб ўрин эгаллашдан иборатдир.

Бу улкан вазифаларни амалга оширишда келажак авлодга таълим ва тарбия берувчи бўлажак ўқитувчилар касбий компетентлигини шакллантириш ҳамда педагогик маҳоратини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Миллий ва диний қадриятларни тиклаш, уларни ўрганиш ва тарғиб қилиш, шахс маънавий маданияти ривожига қандай йўллар билан таъсир этишни тадқиқ этиш бугунги муҳим вазифалардан биридир. Шу нуктаи назардан мазкур мавзунинг долзарблиги қуйидагиларда намоён бўлади: Биринчидан, Ўзбекистонда мустақиллик йилларида амалга оширилаётган ислоҳотлар халқимиз маънавий маданияти ривожига кенг йўл очди ва бундан, айниқса, ёшлар баҳраманд бўлмоқдалар. Зеро, жамиятимизнинг

келажаги бўлган ёш авлодни, хусусан, шахсни маънавий-ахлоқий жиҳатдан вояга етказиш мазкур йўналишда илмий изланишлар олиб боришни талаб этади; иккинчидан, халқимиз босиб ўтган тарихий йўлда шаклланган миллий ва диний қадриятларга нисбатан жамиятимиз аъзоларида ҳурмат ва эътиқод туйғуларини камол топтириш мақсадида миллий-маънавий ва диний-руҳий меросимизнинг тарихий илдизларини ўрганиш ҳамда таҳлил этиш ва уларнинг шахс дунёқарашига таъсири даражасини кўрсатиш зарур; учинчидан, шахс маънавий маданияти шаклланишининг «биринчи ғишти» оилада қўйилишини ҳисобга олиб, бу жараёндаги объектив ва субъектив омилларни, янги ва ёш оилаларда миллий ҳамда исломий қадриятлардан фойдаланиш даражасининг мустақиллик шароитидаги талабларга мос келиши механизмини аниқлаш илмий изланишни тақозо этмоқда; тўртинчидан, тараққиётнинг асосий босқичларида шахс маънавий маданияти шаклланишининг турли қирралари олимларимиз томонидан тадқиқ қилинган.

Ҳозирги кунда бўлажак ўқитувчиларда маънавий маданиятни ривожлантиришда қуйидаги долзарб методологик масалаларга эътибор қаратиш талаб этади:

1) ҳозирги замон глобаллашуви шароитида турли маданий анъаналарга эга халқларнинг ўзаро яқинлашуви бир-бирига боғлиқ ҳолда долзарблик касб этиб, ҳар бир халқнинг миллий ўзига хослигини муҳофаза қилиш ва сақлаб қолиш йўналишини изчил давом эттириш, шу билан бирга дунёвий маданият ва умуминсоний қадриятларнинг илғор жиҳатларини ўзлаштириб боришни талаб этмоқда. Бу масалалар жамиятда бўлажак ўқитувчиларнинг маънавий маданиятни шакллантириш муаммосини тўғри ҳал қилиб олиш билан бевосита боғлиқ;
2) инсоннинг ўзи, унинг дунёқараши каби маънавий маданият ҳам ҳеч қачон бир маъноли қатъий ечимга эга бўлмаганлиги, унинг шахс, миллат, жамият маънавий маданияти каби хилма-хил кўринишлари мавжудлиги, уни ўрганишга янгича ёндашиш, масалани янгича талқин этишни кун тартибига қўймоқда;
3) фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёни маънавий маданият доирасидаги маънавий-ахлоқий онг, маънавий-ахлоқий хатти-ҳаракат, маънавий фаолият, маънавийахлоқий муносабат ҳамда ўзини ўзи англаши билан боғлиқликда амалга оширилади, зеро, ватанимиз келажаги, халқимиз олдида турган улкан мақсадларга эришиш аввало маънавийахлоқий жиҳатдан етук шахсларга, уларнинг ахлоқий камолотига боғлиқдир;
4) миллий мустақилликни мустаҳкамлаш унинг иқтисодий асосларини, миллий маънавий маданият билан боғлиқ томонларини тадқиқ этиш, жамият ҳаётининг янгиланиши унда юзага келаётган демократик ўзгариш ларни, дунёдаги глобаллашув ҳодисалари билан боғлиқ ҳолда

қараб, бу жараёнларнинг ўқувчи шахси маънавиятига таъсирини илмий асослаш муҳимдир;

5) маънавий маданиятни ривожлантиришнинг замонавий омилларини таҳлил этиш жамият тараққиётини кафолатловчи мустақил тафаккур юритишга қодир ўқувчи шахсини шакллантиришга хизмат қилади.

Бугунги мураккаб даврда огоҳлик, сезгирлик, ҳушёрлик ҳар қачонгидан муҳим эканлиги, жамият маънавий-ахлоқий муҳитини соғломлаштириш ва барқарорлаштириш борасида бир қатор амалий ишларнинг самарадорлигини кучайтириш миллий тараққиёт моделимизнинг маъно-мазмунига сингдирилган миллати, тили ва динидан қатъий назар, давлатимизда яшовчи барча кишилар учун муносиб тинч, осуда ҳаёт шароитини яратиш каби эзгу ишларимизни изчил давом эттириш, ҳар бир инсон учун ижтимоий кафолатланган турмуш даражаси ва эркинликларини таъминлаш, халқимизнинг қадриятлари ва менталитети, миллий давлатчилик анъаналарига таяниш, дунё тажрибасининг илғор ютуқларига асосланиш, миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлигига эришиш каби соғлом маънавий-ахлоқий муҳит мезонларига асосланишни талаб этади;

6) маънавий маданият бир томондан, бўлажак ўқитувчиларнинг ахлоқий камолотида асосий мезон ҳисобланади, иккинчи томондан, бўлажак ўқитувчиларнинг маънавий фаолияти натижасида такомиллашиб боради. Бунда улуғ аждодларимиз томонидан маънавий-ахлоқий етукликка эришишга хизмат қилган ва тажрибадан ўтган, асрлар давомида шаклланиб, сайқал топган ор-номус, уят, андиша, шарму ҳаё, ибо, иффат каби юксак ахлоқий тушунчалар, ахлоқий қадриятлар миллий ахлоқий мезонлар мажмуи – шарқона ахлоқ кодекси келажак авлод тарбиясида муҳим манба вазифасини бажаради;

7) оила ва оилавий муносабатлар, баркамол авлод маънавий-ахлоқий фазилатлари, шахс, миллат маънавиятининг шаклланиши ҳамда истиқболини белгиловчи ижтимоий асос эканлигини, оиланинг маънавий маданиятни шакллантириш билан боғлиқ функционал вазифаларини очиб бериш, оила муҳити ва таълим жараёнларининг ўзаро таъсири, миллий тарбия хусусиятлари, шахс маънавияти, миллат ҳамжиҳатлиги, ундаги бағрикенгликни белгилашдаги ўрни каби масалаларини тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этади.

Ҳар қандай шахсда маънавиятнинг шаклланиши моддий ва маънавий эҳтиёжлари билан боғлиқ ҳолда амалга ошади. Ўз навбатида шахснинг маънавий эҳтиёжлари унинг миллий, диний, ғоявий-мафкуравий жиҳатдан тарбияланганлиги билан узвий боғлиқ. Шу билан биргаликда моддий эҳтиёж эса кишиларнинг турмуш тарзи учун зарур бўлган моддий неъматлар билан боғлиқ.

Шу маънода инсон маънавий маданиятининг шаклланиш жараёни моддий ва маънавий эҳтиёжларнинг уйғунлашиб боришида яққол намоён бўлади. Маънавиятнинг шаклланиш жараёни инсоният бутун тарихи

давомида қўлга киритган фан, маданият, таълим, ахлоқий, эстетик, сиёсий, ҳуқуқий муносабатлар ва бойликларга асосланади.

**Адабиётлар:**


- Алимасов В. ва б. Маданиятшунослик. – Т.: Янги аср авлоди, 2001.
- Давронов З. Маънавият асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000;
- Хўжамуродов И., Саъдуллаев Н. Маънавий баркамоллик зийнатдир. – Т.: “Меҳнат”, 2001


## MAXSUS MAKTAB INTERNATLARIDA MUSIQA MADANIYATI FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI


**M.Yo.Umurova,**
*BuxDU, II kurs magistranti*


Umumta`lim maktablari “musiqa madaniyati” darslarida musiqa ta`limi va tarbiyasini amalga oshira borar ekanmiz,o‘qituvchi oldida o‘quvchilarni eng avvalo musiqa san`atiga, o‘zi o‘tayotgan darsga, berilayotgan bilimlar, o‘rganilayotgan kuy – qo‘shiqlarga qiziqish va havas uyg‘otish vazifasi turmog‘i lozim. Maktabda, ayniqsa boshlang‘ich sinflarda qo‘shiq aytish,musiqa tinglashga bo‘lgan qiziqish va moyillik, asta – sekin yoshlarning musiqa san`atiga bo‘lgan ijobiy munosabatlari, qolaversa ehtiyojlarining rivojlanib, shakllanib borishida muhim o‘rin tutadi.

Musiqa darsi o‘z tabiatiga ko‘ra ham san`at, ham tarbiya darsidir. Uni rang – barang, sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o‘qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab qiladai . “Bolalarni san`atga o‘rgatish nihoyatda murakkab” – deb ta`kidlaydi taniqli kompozitor – pedagog D.B.Kabalevskiy, - hamma murakkabligi shundaki, ularni emotsional tarzda qiziqtirmay turib chinakam san`atga o‘rgatish mutlaqo mumkin emas. Bu o‘rinda musiqiy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faolligini ta`minlash alohida ahamiyatga molik. Musiqani tushunish, uning hissiy - emotsional ta`siridan bahramand bo‘lish bilim, malaka va ko‘nikmalar qatori emotsional his – tuyg‘ularning ishtirokiga ham bog‘liq. Asarni ijro va idrok etishda his – tuyg‘ular qanchalik faol va chuqur bo‘lsa, ularni tushunish va o‘zlashtirish, ta`sirlanish shuncha ongli va samarali bo‘ladi. Bu holatlar esa o‘z o‘rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo‘ladigan jarayondir. Zero, zerikarli va bir xillik sinfda jonli hissiyot holatini vujudga keltira olmaydi. O‘quvchilarni darsga qiziqtirish birinchi navbatda tinglash va ijro etish uchun tanlanadigan repertuar va uslublarga (an`anaviy yoki interfaol metodlar) bog‘liq.Boshlang‘ich sinflar uchun tanlanadigan asarlar repertuarining asosiy mezoni ularning yoshi, qiziqishi, bilim va malakalari, ko‘nikmalari darajasiga bog‘liq. Shunga muvofiq qo‘llaniladigan metodlar ham ko‘proq o‘yin xarakterida bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sho‘x, o‘yinbop, raqs ishtirokida turli musobaqa tarzida uyushtiriladigan va tematikasi bolalar dunyosiga mos ertak qahramonlari, hayvonlar, parrandalar, o‘simliklar, tabiat manzaralari, qushlar obrazlari bilan bog‘liq asarlar o‘quvchilarda darsga nisbatan qiziqish va havas uyg‘ota oladi, estetik hissiyotlarini, musiqiy qobilyatlarini o‘stirib boradi. Bu o‘rinda zamonaviy qo‘shiqlar qatori xalq qo‘shiqlaridan, qardosh xalqlar va kompozitorlari asarlaridan foydalanish darslarni yanada sermazmun va faol bo‘lishini ta`minlaydi, yoshlarda xalq musiqa merosiga bo‘lgan mehr va muhabbat tuyg‘ularini shakllanishiga kuchli ta’sir etadi. Har bir darsda ijodiy faollik yuzaga keladi.

Zamonaviy musiqa madaniyati darslarini badiiy – pedagogik asar deb hisoblash mumkin. Chunki uni o‘qituvchi o‘z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi. Darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi, uning badiiy – pedagogik g‘oyasi, maqsad va vazifalari, shakllari, metodik usullari va texnologiyalari ham o‘quvchilarda musiqaga, o‘quv materiallariga qiziqishni o‘stirish, ularga musiqa san`ati va madaniyatining ma`naviy mazmunini singdirish, zamonaviy musiqali ijodiy faoliyatni anglashi – bularning hammasi o‘qituvchining ijodiy yondashuvchanligining mahsuli hisoblanadi. O‘qituvchi musiqa darsini (bir soatlik) rejasini tuzganda maqsad, vazifasini, mavzusini, turini va o‘qitish shakllarini, musiqiy faoliyatlarni va ular mazmunida o‘quvchilarga beriladigan bilimlar, qo‘llaniladigan uslublar, texnologiyalarni aniqlab, so‘ng darsning senariysini yaratadi. Darsning har bir faoliyati: musiqa tinglash, jamoa bo‘lib kuylash, musiqa savodi, ritmik harakatlar, musiqa cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish, o‘yinlar – bir – biri bilan bog‘lanib , uzviylashtirilgan bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchilarni darsga faol qatnashtirish uchun turli xil texnologiyalar, vositalar, metod va usullar qo‘llaniladi.

Ma`lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta`limning yangi loyihasini rivojlantiruvchi ta`lim tamoillariga asoslangan bo‘lib, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi va o‘quvchi, o‘quvchilar va o‘qituvchining hamkorligi o‘zaro muloqot, bir – biriga ko‘rsatadigan ta`siri zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozim. Bunday jarayonda o‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlash malakalari shakllanadi. O‘quvchilarning faol, samarali faoliyat ko‘rsatishiga yo‘naltirilgan ta`lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta`limning pedagogik texnologiyasi ta`lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek,ularning shaxsiy va o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o‘quv materialini o‘zlashtirishiga sharoit yaratadi.

Pedagogik texnologiya turini tanlash dars va mashg‘ulotlarda qaysi darajadagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish nazarda tutilganligiga bog‘liqdir.
O‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar juda ko‘p. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning yosh xususiyatiga, ko‘pchilikni o‘qitishga yoki individual mashg‘ulotlarga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Hozirgai kunda yangi pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tadbiq etishga bo‘lgan qiziqish kundan – kunga kuchayib bormoqda. Chunki, pedagogik texnologiya va interfaol metodlar o‘quvchi yoshlarni puxta bilim va malakalarni

egallashlarini yengillashtiradi, qulaylik tug‘diradi. Shu o‘rinda biz o‘zimizning amaliy tajribamizda qo‘llagan ayrim texnologiyalarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.
Interfaol metodlar – o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi asosida darsda ijodiy muhit yaratish, dars samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash mulohaza yuritish, o‘z munosabatini bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish omilidir. Bunday metodlarda o‘quvchi o‘zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda, jamoa bo‘lib muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baho beradi, yozadi, so‘zlaydi, dalil hamda asoslar keltirish bilan qo‘yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o‘quvchilarning xotirasida mustahkam o‘rnashadi. Yangi mavzu (axborotni) ni o‘zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondashishga o‘rgatadi. O‘qituvchi faqat yo‘l – yo‘riq ko‘rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi, baholovchi vazifalarini bajaradi.
Interfaol metodlarni juda ko‘p turlari mavjud. Biz ulardan o‘z faoliyatimizda foydalangan ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tamiz:

**“Aqliy hujum” metodi.** “Aqliy hujum” – sinfdagi har bir o‘quvchiga o‘qituvchi qo‘ygan savol yoki muammo yuzasidan o‘z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o‘quv uslubidir. Uslub mohiyati o‘qituvchi tomonidan belgilangan muammo yoki savol yuzasidan ehtimol tutiladigan hamma fikrlar variantlarini bir yerga jamlashistisno tariqasida ta`lim oluvchilarning barcha fikrlarini, shu jumladan aytarli to‘g‘ri bo‘lmaganlarini ham inobatga olishdan iborat. Bunda yaxshi ishtirok etish uchun ana shu fikrlarning barchasini doskaga yoki maxsus yozuv qog‘oziga yozib borish kerak. Bu narsa bayon etilgan fikrlarning keyingi tahlilida o‘quvchilarni qo‘yilgan savol yoki muammoni to‘g‘ri tushunishiga imkoniyat beradi.

**“Aqliy hujum”ni o‘tazish uslublari.** O‘qituvchi sinfga savol, topshiriq yoki muammo tashlaydi va o‘quvchilarga o‘z fikrlarini bildirishni taklif qiladi.
Istisno tariqasida barcha fikrlar (qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi) doskada yoki filipchartga yozib boriladi. Barcha fikrlar yozib olingandan keyin o‘qituvchi o‘quvchilar bilan barcha g‘oyalarni shakllantiradi, aytilgan fikrlarga tuzatishlar kiritiladi. Keyinchalik undan foydalanish maqsadida eng muhimlari ajratib ko‘rsatiladi.

**“Aqliy hujum”ni o‘tkazish qoidalari.**

- “Aqly hujum” o‘tkazish uchun belgilangan vaqt reglamentiga rioya etish;
- Belgilangan vaqt doirasida barcha hohlovchilarga o‘z fikrini bayon etish imkoniyatini berish;
- O‘quvchilar tomonidan aytilgan fikrlar tanqid va muhokama qilinmasligi, baholanmasligi lozim;
- Zarurat bo‘lgan holatda bayon etilgan fikrga tuzatishlar kiritish kerak. Lekin bu g‘oya yoki fikrni aniq va qisqacha ifodalash maqsadida bo‘lishi.

Aqliy hujum. Darsning qiziqarli bo‘lishini ta`minlash maqsadida noan`anaviy ta`lim metodlarining turli xil usullaridan foydalanish mumkin.
Nima uchun xalq cholg‘u asboblari deyiladi?
Xalq cholg‘u asboblariga qaysi cholg‘ular kiradi?
O‘lchov nima? U qanday vazifani bajaradi?

Savol – javob:
Ajam kuyi xarakteri qanaqa?
Ajam kuyi qaysi cholg‘ular jo‘rligida ijro qilingan?
Ajam so‘zining lug‘aviy ma`nosi nima?
Doira, nog‘ora qaysi cholg‘ular guruhiga kiradi?
Tanbur, dutor va ruboblar qaysi cholg‘u asboblari guruhiga mansub?
Nay, surnay va qo‘shnay qaysi cholg‘ular guruhiga kiraddi?
Kichik guruhlarda ishlash.
Topshiriq, savolasosida muammo tanlab olinadi. Topshiriqda bahsli jihatlar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Kichik guruhlar shakllantiriladi. Kichik guruhdagi o‘quvchilarning soni 3 – 5 tadan oshmasligi kerak, ammo topshiriq, sinf xususiyatlariga bog‘liq tarzda guruh soni o‘zgarishi mumkin.
Kichik guruhlarda ishlayotganda guruh ishtirokchilari o‘rtasida vazifalarni taqsimlagan ma`qul. Masalan, bir o‘quvchi munozarani yuritadi, ikkinchisi qabul qiluvchi qarorni yozib boradi, uchinchisi ajratilgan vaqtni nazorat qiladi. To‘rtinchisi esa guruh qarorini taqdim etadi va h. k. Odatda ikki asosiy usuldan foydalangan holda sinf guruhlarga ajratiladi. Birinchisida o‘quvchilar hohishiga ko‘ra, ikkinchisida esa hisoblash uslubi bilan ajratliadi. (1 – 3, 2 - 4)

- O‘qituvchi vaqt hajmini ko‘rsatgan holda guruhlarga yo‘l – yo‘riq beradi.
- Guruhda ishlash yakunlanganidan keyin qaror taqdimoti bo‘lib o‘tadi. Uni spiker taqdim etishi kerak. Vaqt imkoniyati bo‘lsa guruhlar bir – biriga savollar berishi mumkin.
- Taqdimot natijalari yuzasidan muhokama va baholash o‘tkaziladi. Bunda quyidagicha savollar berish mumkin:
- Kichik guruhlarda ishlashda qanday natijalarga erishildi?
- Qaysi muammo tanlandi? U yechim topdimi? va ho kazoo.
- Kichik guruhlarda ishlashni o‘tkazish qoidalari.
- Kichik guruhlarda ishlash uchun belgilangan vaqt reglamentiga aniq rioya qilish;
- Guruhlarga yordam berayotganda o‘qituvchi tazyiq o‘tkazmasligi;
- O‘quvchilar aytgan fikrlar boshqacha nuqtai nazarda bo‘lgan ta`lim oluvchilar tomonidan nazarda tutilgan reglament doirasida asoslangan tanqidga yoki muhokamaga tortilishi mumkin.
- Zarurat taqozo etganda, bayon etilgan fikrga tuzatishlar kiritish, aniq va qisqa ifodalashga imkon beradi.

**Tarmoqlar (Klaster) metodi.** Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchilarni biror bir mavzuni o‘rganishlariga yordam berib, mavzu haqida aniq fikr, tushunchani erkin va ochiq ravishda ketma – ketlik bilan tarmoqlashga o‘rgatadi. Bu biron bir mavzuni chuqur o‘rganish, o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun yordam beradi. Mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Bu usulni qo‘llaganda “O‘zbek xalq cholg‘ulari” “kalit” so‘z hisoblanadi va doskaga yoziladi. Klaster usulida o‘zbek xalq cholg‘u asboblari to‘g‘risidagi

ma`lumotlar keltiriladi va guruhlar bo'yicha tartibga solib boriladi. Dars oxirida o'tilgan mavzu yuzasidan uyga vazifa topshiriladi. Bu usul o'quvchilarni o'z nuqtai nazarini asoslash, boshqalarning g'oyalariga kirib bora olish, guruh bo'lib ishlash malakasini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Muxammedov G'.I. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ilmiy nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. Jizzax 2004.
2. Yo'ldoshev J. Yo'ldosheva F. Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim) Toshkent - 2008
3. Ishmuhammedov R. Abduqodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog – o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar) Toshkent – 2008
4. Dangalov S. Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati. Tavsiyanoma. T - 2010
5.Земцова М.И. Учителю о детях с нарушениями зрения. Москва,1978 г.
6.Коневский Г., Шкрабов А.В. Помощь организатору досуга слепых. Москва,1961г.

## БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНТЛИК СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

**Н. Ҳакимова,**
*БухДУ, I курс магистранти*

Республикамизда таълим-тарбия масалаларига қаратилаётган эътибор, педагогларни тайёрлаш ва уларнинг касбий компетентлигини ошириш масаласининг долзарб аҳамият касб этиши янада яққол намоён бўлмоқда. Шу ўринда, бўлажак педагог келгусида узлуксиз таълим тизимининг муҳим босқичларида таълимни ташкил этишда асосий субъект сифатида фаолият юритишлари эътиборга олинса, уларнинг педагогик компетентлигини шакллантириш ва бу борада самарадорликка эришиш зарурий чора-тадбирлардан ҳисобланади. Маълумки, бўлажак педагогларнинг касбий фаолиятда эркин ва мустақил амалий фаолият кўрсатишини таъминловчи зарурий омиллардан бири бу улардаги касбий-педагогик компетентликнинг шаклланганлиги билан асосланади. Бунда педагогик компетентликнинг ўзига хос тузилмаси, шаклланиш босқичлари ва бу жараёнда ўқитишнинг замонавий шакл ва методлардан фойдаланишнинг самарали механизмларини ишлаб чиқиш, амалиётга тадбиқ этиш муҳим аҳамият касб этади.

"Компетентлик" тушунчаси таълим соҳасига педагогик-психологик изланишлар натижасида кириб келган тушунча ҳисобланади. Шу сабабли компетентлик "ноанъанавий вазиятлар, кутилмаган ҳолларда мутахассиснинг

ўзини қандай тутиши, мулоқотга киришиши, рақиблар билан ўзаро муносабатларда янги йўл тутиши, ноаниқ вазифаларни бажаришда, зиддиятларга тўла маълумотлардан фойдаланишда, изчил ривожланиб борувчи ва мураккаб жараёнларда ҳаракатланиш режасига эгалик”ни англатади. Компетентлик қуйидаги турларга бўлинади:

Касбий компетентлик – мутахассис томонидан касбий фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ва уларни амалда юқори даражада қўллай олинишидир.

Ижтимоий компетентлик – ижтимоий муносабатларда фаоллик кўрсатиш кўникма, малакаларига эгалик, касбий фаолиятда субъектлар билан мулоқотга кириша олиш.

Махсус компетентлик–касбий-педагогик фаолиятни ташкил этишга тайёрланиш, касбий-педагогик вазифаларни оқилона ҳал қилиш, фаолияти натижаларини реал баҳолаш, БКМни изчил ривожлантириб бориш бўлиб, ушбу компетентлик негизида психологик, методик, информацион, креатив, инновацион ва коммуникатив компетентлик кўзга ташланади.

Психологик компетентлик – педагогик жараёнда соғлом психологик муҳитни ярата олиш, талабалар ва таълим жараёнининг бошқа иштирокчилари билан ижобий мулоқотни ташкил этиш, турли салбий психологик зиддиятларни ўз вақтида англай олиш ва бартараф эта олишни назарда тутади.

Методик компетентлик – педагогик жараённи методик жиҳатдан оқилона ташкил этиш, таълим ёки тарбиявий фаолият шаклларини тўғри белгилаш, метод ва воситаларни мақсадга мувофиқ танлай олиш, методларни самарали қўллай олиш, воситаларни муваффақиятли қўллашга асосланади.

Информацион (ахборот) компетентлик – ахборот муҳитида зарур, муҳим, керакли, фойдали маълумотларни излаш, йиғиш, саралаш, қайта ишлаш ва улардан мақсадли, ўринли, самарали фойдаланиш имконини беради.

Креатив компетентлик – педагогик фаолиятга танқидий, ижодий ёндашиш, ўзининг ижодкорлик малакаларига эгалигини намойиш эта олишни назарда тутади.

Инновацион компетентлик – педагогик жараённи такомиллаштириш, таълим сифатини яхшилаш, тарбия жараёнининг самарадорлигини оширишга доир янги ғояларни илгари суриш, уларни амалиётга самарали татбиқ этиш ҳисобланади.

Коммуникатив компетентлик – таълим жараёнининг барча иштирокчилари, жумладан, талабалар билан самимий мулоқотда бўлиш, уларни тинглай билиш, уларга ижобий таъсир кўрсата олишга асосланади.
Шахсий компетентлик – изчил равишда касбий ўсишга эришиш, малака даражасини ошириб бориш, касбий фаолиятда ўз ички имкониятларини намоён қилишга қаратилган.

Технологик компетентлик – касбий-педагогик билим, кўникма ва малакаларни бойитадиган илғор технологияларни ўзлаштириш, замонавий восита, техника ва технологиялардан фойдалана олиш имкониятини беради.

Эктремал компетентлик – фавқулотда вазиятлар (табиий офатлар, технологик жараён ишдан чиққан)да, педагогик низолар юзага келганда оқилона қарор қабул қилиш, тўғри ҳаракатланиш малакасига эгаликни ўз ичига олади.

Касбий-педагогик компетентликка эга бўлишда ўз устида ишлаш, ўз-ўзини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Ўз-ўзини ривожлантириш вазифалари ўзини ўзи таҳлил қилиш ва ўзини ўзи баҳолаш орқали аниқланади.

Ўз устида ишлаш – бўлажак педагогнинг изчил равишда ўзининг касбий билим, кўникма ва малакалар ва шахсий сифатларини ривожлантириб бориш йўлида амалий ҳаракатларни ташкил этиши ҳисобланади. Ўз устида ишлаш қуйидагиларда кўринади:

- касбий билим, кўникма ва малакаларни такомиллаштириб бориш;
- фаолиятга танқидий ва ижодий ёндашиш;
- касбий ва ижодий ҳамкорликка эришиш;
- ишчанлик қобилиятини ривожлантириш;
- салбий одатларни бартараф этиб бориш; ижобий сифатларни ўзлаштириш.

Бўлажак педагогнинг мутахассис сифатида:

- аниқ мақсад, интилиш асосида педагогик жараённи такомиллаштириш;
- педагогик жараён самарадорлигини, ўзининг ишчанлик фаоллигини ошириш;
- изчил равишда янгиланиб бораётган педагогик билимларни ўзлаштириш;
- илғор технология, метод ҳамда воситалардан хабардор бўлиш;
- фаолиятига фан-техниканинг сўнгги янгиликларини самарали татбиқ этиш;
- касбий билим, кўникма ва малакаларларини такомиллаштириш;
- салбий педагогик низоларнинг олдини олиш, бартараф этиш чораларини излаш йўлида олиб борадиган амалий ҳаракати унинг ўз устида ишлашини ифодалайди.

Педагогларнинг ўз устиларида изчил, самарали ишлашларида фаолиятга лойиҳали ёндаша олишлари қўл келади. Уларнинг лойиҳали ёндашув асосида ўз фаолиятларини ташкил қилсалар мақсадга мувофиқдир.

Педагогнинг касбий компетентликка эга бўлишида ўзини таҳлил қила олиши ҳам аҳамиятли саналади. Ўзини ўзи таҳлил қилиш педагог томонидан касбий фаолиятда ташкил этаётган ўз амалий ҳаракатлари моҳиятининг ўрганилишидир. Ўзини ўзи таҳлил қилиш орқали педагог ўзини ўзи объектив баҳолаш имкониятига эга бўлади. Зеро, педагогларнинг касбий компетентлилик сифатларига эга бўлишида уларнинг ўз-ўзини баҳолаш

малакаларига эгалиги ҳам жуда муҳимдир. Ўзини ўзи баҳолаш (ЎЎБ) – шахснинг ўз-ўзини таҳлил қилиши орқали ўзига баҳо бериши. Ўзини ўзи баҳолаш субъект учун шахсий имкониятларини ҳисоб-китоб қилиш, ўзига объектив баҳо бериш, ўзидан қониқишни таъминлайди. Ўз-ўзини баҳолаш шахснинг қобилиятини ўз кучи билан юзага чиқишига ёрдамлашиши зарур. Ўз-ўзини баҳолаш қийин, лекин шахсни бунга бевосита тайёрлаш мумкин. Ҳар қандай мутахассисда бўлгани каби педагогнинг ҳам ўзини ўзи самарали баҳолай олишига бир қатор омиллар таъсир кўрсатади.

Педагог-олимларнинг ишларида компетентликни педагогик нуқтаи-назардан янада кенгроқ ва синчиклаб ўрганиш имконини берадиган турли жиҳатлари ва таркибий қисмлари ажратиб олинган ва ўрганиб чиқилган.

С.Е. Шишов томонидан компетентликнинг мазмун моҳиятини очиб беришда қуйидаги фикрлар келтирилган:

- ўқиш-ўрганиш туфайли эгалланган билимлар, тажриба, қадриятлар ва мойилликларга асосланган умумий лаёқатлилик;
- билим ва вазиятлар ўртасидаги алоқани ўрната билиш қобилияти, муаммога мос келадиган ҳал этиш йўлини топиш (компетентлик деб айтиш учун бирор-бир вазиятда намоён этиладиган тақдирдагина жоиз бўлади, намоён этилмаган компетентлик – компетентлик эмас, яширин имкониятлар бўлиб қолса ҳам катта гап).

Л.М. Долгова, П.В. Симонов ва бошқаларнинг фикрича, компетентлик − олинган билимларга асосланган ҳолда ҳаракат қила олишлик демакдир. Намуналарга ўхшаш ҳаракатларни кўзда тутадиган “билим, кўникма ва малакалардан” фарқли ўлароқ, компетентлик универсал билимларга асосланган ҳолда мустақил фаолият тажрибасини назарда тутади. “Компетентлик – ижтимоий амалиёт кўринишидаги билим ва кўникмаларнинг мавжудлиги бўлиб, у таълим жараёни натижаларига ижтимоий-маданий талаблар ва жамият томонидан талаблар қўйиладиган ҳолларда намоён бўлади”, − деб таъкидлайди Л.М. Долгова.

В.В. Башевнинг таъкидлашича, компетентлик – инсоннинг индивидуал қобилияти бўлиб, улар шарт-шароитлар ўзгарган пайтда ушбу қобилиятнинг бошқа шарт-шароитларга кўча олишида намоён бўладиган хусусиятлардир. Қўллаш соҳалари уларнинг махсуслиги ва аниқлигини белгилайди (математик, тиллар бўйича, сиёсий ва бошқа компетентликлар). Жамиятни ўрганиш соҳасида самарали фаолият кўрсатувчи одам қуйидагиларга қодир бўлиши керак, яъни компетентли одам:

1) ўзи тушиб қолган вазиятни тадқиқ эта олиши;
2) бошқа одамлар билан мулоқот ўрната олиши;
3) қарорлар қабул қила олиши;
4) қабул қилинган қарорларни амалга ошириш бўйича индивидуал ва жамоавий ҳаракатларни ташкиллаштира олиши;
5) фаолиятнинг янги усулларини эгаллай олиши.

Шундай қилиб, компетентликни лаёқатлилик, тайёрлик, имкониятга эгалик ва шу билан бирга, маълим бир ҳаракатлар натижаси сифатида талқин этиш мумкин. Бошқача қилиб айтганда, компетентлик – фаолиятга доир категория бўлиб, субъектнинг қўйилган вазифаларни бажаришга қаратилган касбий, ижтимоий ва бошқа фаолияти жараёнида намоён бўлади.

Компетентлик – индивиднинг умуман жамиятда ва хусусан касбий соҳасида муваффақиятли фаолият олиб бориши учун зарур бўлган, атрофидаги объектлар ва субъектлар билан ўзаро ҳамкорлиги бўйича маълум бир малакалари ва касбий тажрибалари шаклланганлигининг муайян даражаси деб таърифласак мақсадга мувофиқ бўлади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони.
2) Иноятов У.И., Муслимов Н.А., ва бошқ. Педагогика: 1000 та саволга
3) 1000 та жавоб:- Тошкент, “Илм-Зиё” нашриёти. 2012.
4) Ишмуҳамедов Р. Таълимда инновация. – Т.: “Фан ва технологиялар”
5) нашриёти, 2010.
6) Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий
7) компетентлигини шакллантириш технологияси/ Монография. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2013.


# МУАММОЛИ ТАЪЛИМ ВА УНИ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИГА ҚЎЛЛАШНИНГ АЙРИМ ЙЎЛЛАРИ


**Б.К. Ходжаев,**
БухДУ, доценти,
**С.Н. Шарипова,**
*БухДУ,I курс магистранти*



*Мақолада муаммоли таълимнинг илмий-назарий асослари, моҳияти, уни майдонга келишида хисса қўшган буюк педагогларнинг таълимотлари қисқа таҳлил қилиниб, муаммоли таълимнинг ўқувчилар ўқув-билув фаолиятини жадаллаштиришдаги ўрни қўйиб чиқилган.*


Бугунги кунда, умумий ўрта таълим мактаблари олдида давлат аҳамиятига молик бўлган вазифалар турибди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-ҳунар таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонида таъкидланганидек, “Ёшларни ҳар томонлама баркамол шахс қилиб, ватапарварлик ва миллий мустақиллик ғояларига содиқлик руҳида

тарбиялашга, шунингдек, ўқувчиларда бой илмий- маданий ва маънавий меросимизга миллий ва умуинсоний қадриятларга асосланган маънавий ва аҳлоқий сифатларни ривожлантиришга йўналтирилган педагогик жараённи янги педагогик шакл ва усуллар асосида ташкил этиш”(1, 2) , долзарб вазифа сифатида белгиланган.

Таълим жараёнида бу вазифани ҳал этиш педагогик жараённинг ўқувчиларни ижодий фикрлаш, мустақкил қарор қабул қилиш, янги билимларни жаддал ўзлаштиришнинг таълимий ва тарбиявий шакл , метод ва усулларини ишлаб чиқиб, амалда қўллаш орқали ҳил этилади. Педагогик жараённинг ҳозирги тараққиёт босқичидаги бундай шаклларидан бири муаммоли таълим технологияси хисобланади . Чунончи, муаммоли ўқитиш таълим мазмунинг – билим, кўникма, малака, ижодий фаолият каби компонентларининг ижодий ташкил этиб, ўқувчиларда мустақил фикрлаш, ижодий қобилиятлари ва билиш имкониятларини ривожлантиришга ёрдам беради.

“Муаммоли таълим” тушунчаси илмий-педагогик матбуотда гарчанд кейинги йилларда пайдо бўлган бўлсада, мантиқий тафаккурни, ижодий фаолиятни, мустаққил билим олишни таъминловчи ғоя сифатида ўтмишга бориб тақалади. Шарқ мутафаккирларининг билиш-изланиш тўғрисидаги фикрлари нуқтаи назардан ўрта асрнинг буюк алломаси Абу Али ибн Сино(980-1037), Ума Хайём (1042-1112), Ал Тусий (1201-1274) кабиларнинг фалсафий асарларида мустаққил изланиш, мустаққил билим олиш, ижодий фикрлашнинг асоси сифатида талқин этилган. Х1Х асрнинг иккинчи ярмида америкалик философ, психолог ва педагог Дж.Дьюининг назарий таълимотида,ХХ аср бошларида поляк педагоги Винценти Оконь, 70-йилларда татар М.И.Махмутов, 90-йилларда ўзбек методист-педагоги А.Қ. Ғуломовнинг методикага доир рисолаларида инвестик таълим назариясининг иустаққил билим олиш йўналишида ўқувчиларни фаоллаштириш, фикрлаш қобилиятини ривожлантириш нуқтаи – назаридан асослаб берилганлигининг гувоҳи бўламиз.

Хозирги даврда, муаммоли таълим ўқитишнинг шахсга йўналтирилган технологияси сифатида талқин қилиниб таълим марказида ўққувчи шахсини қўйиш, уни таълимнинг субъекти сифатида кўриб, ўқитишни оптималлаштириш, жадаллаштирш , ҳамда ўқувчиларда ижодий тафаккур, мустаққил билим олиш омили даражасида кўришга йўналтирилган таълим деб қаралади

Дарҳақиқат, бугунги кунда, қайсиким ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш, ижодий фаолият кўрсатишларига эътибор кучайганда ўқувчи таълим субъектига айланган бир даврда муаммоли ўқитишнинг аҳамияти янада кучайди. Чунки, муаммоли таълим илмий билиш, педагог томонидан яратилган муаммоли вазиятлар ва уларни ечишга қаратилган ўқувчининг мустақил фаолияти, ижодий қобилиятини ўстириш орқали ўқув натижаларини мақсадли ўзлаштиришга қаратилган таълимдир. Муаммоли таълимни ташкил қилиш ёрдамида ўқувчининг тадқиқот, ўқув-билув

фаолиятини йўлга қўйиш ва шу асосда ўқув предметидаги маълумотларни, хулосаларни мустақил таҳлил қилиб, янги билимлар тўғрисида ижодий мушоҳада юритиш, хулоса чиқариш операциялари амалага ошириш каби таълим ишларини амалга ошириш тутилган. Муаммоли ўқитишда ўқитувчи фаолиятининг мазмуни шундан иборат бўладики, у энг мураккаб тушунчаларни, фактларни тушунтира бориб зарур дақиқаларда муаммоли вазиятни вужудга келтиради ва муаммони ҳал қилишга ўқувчининг ўзини йўллайди. Оқибат-натижада ўқувчилар фаолияти шундай ташкил қилинадики, бунда улар фактларни таҳлил қилиш орқали мустақил равишда хулоса чиқарадилар, умумлашмалар ҳосил қиладилар. Тушунча, қоида, теоремалар, қонуниятларнинг ифодаланишини айтиб беришдан, ўқувчиларда янги вазиятларда режалаштириш, конструкциялаш, ихтиро қилиш ёки иншо ёзиш, матн тузиш, шеър ёзиш, расм чизиш каби таълимий ишлар мустақил равишда ҳосил бўлади ва диққат, ирода, ижодий тасаввур, фараз қилиш, таҳлил қилиш ривожланади. Шундай қилиб, муаммоли ўқитиш ижрочиликдан, ижодийликка қараб борувчи таълим технологиясидир.

Методист олим А. Қ. Ғуломовнинг таъкидлашича муаммоли таълим қуйидаги ҳолларда юзага келади:

- янги маълумотлар ўқувчиларга номаълум бўлиб, уни изоҳлаш учун мавжуд билимлар етишмай, маълум қийинчиликларни бартараф этишга тўғри келса:
- билимларни янги вазиятда қўллаш зарурияти туғилса:
- муаммоли топшириқ билан уни бажариш усули ўртасида номунофиқлик пайдо бўлса (2,81).

Таълим янгиланиш жараёнида педагогик технология муаммоларини тўла амалга оширишга қодир бўлган муаммоли таълим қуйидаги вазифаларни ҳал этишда амалий ёрдам кўрсатади:

а) ўқувчиларни мустақил фикрлаш ва ижодий қобилиятларини ўстиради;

б) илмий билимларни қўлга киритиш ва амалда қўллаш усулларини ўзлаштиришнинг имконини яратади;

в) эгалланган билимлар орқали ўқувчиларда илмий дунёқараш асосларини шакллантиради;

г) билимларни ижодий ўзлаштириш, амалда қўллаш ва ўқув муаммоларини еча олиш кўникмаларини ҳосил қилади;

д) ижодий фаолияти тажрибасини таркиб топтиради.

Мактаб амалий тажрибаси шундан далолат берадики, ўқувчиларда ижодий тафаккур мустақил ва фаол бўлади. Фаоллик эса ўқувчини мустақил фикрлашга олиб келади. Ўқувчининг фаоллигини, мустақиллигини ошириш муаммоли вазият яратиш орқали амалга ошади. Муаммоли вазият яратишнинг йўллари хилма хилдир. Биз илмий педагогик таълим ва илғор ўқитувчилар тажрибаларига асосланиб, муаммоли вазият яратишнинг қуйидаги хусусиятлари ҳамда йўллари хусусида айрим мулоҳазаларимизни баён этамиз. Жумладан :

1-йўл: ўқувчиларга мазмунан маълум бўлган тушунча ва ўрганилган билимларга асосланиб ташкил этиладиган муаммоли взият (бу ҳақда ўқинг: Б.Қ.Ходжаев, Ш.Ш.Олимов. Янги педагогик технологиялар: назария ва амалиёт.- “Бухоро” нашриёти,2004. 74-76бетлар).

2-йўл: Янги тушунча (қоида, қонун, таъриф ва ҳ.к.)ларнинг моҳиятини англатиш мақсадида яратиладиган муаммоли вазият. Бунда ўқитувчи янги тушунча моҳиятини тўғридан тўғри ўқувчиларга баён қилмай, олдинги ўрганилган маълумотларни эсга хотирлаб, янги билимларнинг айрим тушунчаларини болаларга баён этиб борилди муаммоли вазиятни яратади. Масалан. 5-синфда сўз туркумларидан «Сифат сўз туркуми» ўрганилади. Ўқитувчи ўқувчиларни ушбу мавзу билан таништирар экан, ўқувчиларга «От» сўз туркумининг ўрганиш жараёнида таниш бўлган доска, хона, дераза, кўча. қалам ва ҳ.к. каби сўзларни доскага ёзишни таклиф қилади ва бу сўзларга қора, кенг, баланд, катта, қизил сўзларни қўшиб «сўз бирикмаси» тузишни буюради. Ўқувчилар доска, хона, дераза, кўча, қалам сўзлари «От» сўз туркумига таалуқли эканлиги ва улар ким нима? Сўроқларига жавоб беришини айтиб берадилар ва кейин катта доска, кенг хона, баланд дераза, тор кўча, қора қалам сўзларига сўроқлар қўйиш орқали бу сўзлар предметнинг белгисини билдириб, қандай? қанақа? Сўроқларига жавоб бериши ва улар «Сифат» сўз туркумига мансуб эканлигини билиб оладилар.

3-йўл: Ўқувчиларни мантиқий фикрлашга ундашга, тадқиқотчиликка йўналтиришга, яъни фактларни қарама-қарши қўйиб, таққослаш орқали янги билимларни ўзлаштириш учун яратиладиган муаммоли вазият. Масалан, 10-синфда «Инсон ва жамият» фанидан «Марказий Осиё мутаффаккирларининг инсон ва жамиятга қарашлари» мавзуси ўрганилади. Бу мавзуни чуққурроқ ўрганиш учун қўшимча маълумот сифатида «Буюк дарбадар Ибн Сино» матни мустақил ўрганиш учун тавсия этилади. Матнни ўрганишдан олдин ўқувчиларга қуйидаги муаммоли саволларга жавоб топиш тавсия этилади:

«Ҳеч бир гуноҳсиз кишилар», тинчлик ахтариб ўз уйларни тарк этишга мажбурлар» иборасини сиз қандай тушунасиз?

Қандай сабабларга кўра кишилар ватанларини ташлаб кэтишлари мумкин?

Қочоқлар муаммосини давлатни қанчалик даражада ташвишга солади, дея оласиз?

Ватанни ташлаб кетганларнинг барчасини ватангадо дейиш мумкинми? Ва ҳ.к.

Юқорида қайд қилиб ўтилган муаммоли вазиятни яратиш йўлларидан ташқари ҳар бир ўқув фанининг хусусиятларидан келиб чиқиб, маълумотларни синтез қилиш; символлик тасвирлардан фойдаланиш; бир-бирига чоғиштириш; фанларда ўхшашлик топиш каби муаммоли вазият яратишнинг йўллари ҳам мавжуд.

Кўриниб турибдики, муаммоли ўқитиш, замонавий таълим технологиясининг энг самарали турларидан бири бўлиб, у илмий билимлар мантиғини ўзида муаммоли вазиятлар мантиғини намойиш этиш орқали

билимларни ўзлаштиришга йўллайди. Бу ўқувчиларда фаол мустақкил таълимни йўлга қўйиш, ақлий харакатларни босқичма-босқич шакллантириш, ижодий фаолиятни йўлга қўйиб уни ўқувчиларда мантиқий тафаккурни ривожлантиришга ундайди. Бу албатта ўқувчиларнинг илмий билимлар билан қуролланишлари, ўқув-билув фаолиятларини жадаллашиши учун катта таълимий имкониятлар яратади.

Шундай қилиб ўқиш, ўқитиш, ўргатиш, ўрганиш, тушуниш, англаш, хулоса қилиш жараёнини ташкил этилишида ўқув маълумотларининг тузилишида, таълим методлари ва воситаларининг қўлланилишидаги ўзига хос хусусиятлар ҳамда улар таъсирида қўлга киритилган натижалар, ўқитувчи-ўқувчи фаолиятининг тузилмасига қараб шахсга йўналтирилган педагогик технологияни биз муаммоли таълим техналогияси деб атадик ва унинг айрим йўлларини таҳлил қиилдик.

**Файдаланилган адабиётлар:**

1. “Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-ҳунар таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – “Халқ сўзи” рўзномаси 2018 ,3 феврал
2. Ғуломоав А.Қ. Она тили дарсларида ўқувчиларнинг ўқув-билув фаолиятини активлаштириш. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 1987.
3. Ходжаев Б.Қ., Олимов Ш.Ш. Янги педагогик технологиялар: назария ва амалиёт.- “Бухоро” нашриёти,2004.

## ПРОБЛЕМНОЕ ОБУЧЕНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ЭТАПЫ ЕГО ПРИМЕНЕНИЯ НА ПРАКТИКЕ

**Б.К. Ходжаев,**
*доцент БухГУ, К.п.н.Научный руководитель,*
**С.Н.Шарипова**
*Бух.ДУ, магистр 1-курса*

*В статье, с точки зрения научно-теоретической проблемы педагогики анализируется сущность и содержание проблемного обучения. А также, на примере курса “Введение в археологии показывается этапы применения проблемного обучения в процессе проведения уроков.*

За годы независимости Узбекистан перешёл на путь построения нового правового демократического государства и гражданского общества. В связи с этим, во всех сферах жизни республика добилась значительных результатов в укреплении независимости и успела заложить прочный фундамент построения названного строя. В центре всех этих преобразований стоит человек и его глубокое, научное знание. В преобретении научных знаний

важное место пренадлежит проблемному обучению, цель которого является развитие творческого, самостоятельного мышления. По этому поводу Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев сказал: “ В целях последовательного продолжения и выведения на новый, современный уровень начатой нами работы по развитию сферы науки и просвещения, воспитания нашей молодёжи личностями, высокой культурой и духовностью, формирования конкурентно –способной экономики предлагаю объявить 2020год в нашей стране Годом развития науки, просвещения и цифровой экономики” (1, 2).

Педагогическая теория утверждает, что проблемное обучение, как важный компонент умственных сил и мыслительной деятельности учащихся уходит в корни древней педагогики. Основателем проблемного обучения был американский философ, психолог и педагог Дж.Дьюи, он в работе “Как мы мыслим” (1909) пишет, что проблемное обучение развивает мышление , ум и способности. Поэтому является важным отраслям дидактики.

Как, утверждает академик В.С.Кукушин, что в развитии теории проблемного обучения сыграла большую роль концепция американского психолога Дж.Брунера, основанная на идеи структурирования учебного материала и доминирующей роли интуитивного мышления в процессе усвоения новых знаний. Исходя из этого Дж.Брунер утверждает, что в проблемном обучении особое внимание необходимо уделять – структуре знаний в организации обучения; готовность ученика учиться; состояние и развитие умственных деятельностей учащихся и матевации учения. (.....132)
В русской педагогической науке, вопросами проблемного обучения занимались такие видные учённые, как М.И.Махмутов, А.М.Матюшкин, А.В.Брушлинский, Т.В.Кудрявцев, И.Я.Лернер и другие.

По мнению Т.В.Кудрявцева, проблемное обучение это такая форма дидактической системы, которая путем выдвижения перед учащимися теоретических проблем и включая учащихся в решения этих задач, выполняется вопрос обучения и воспитания . (2,135). М.И.Махмутов сущность проблемного обучеия видит в том, что учащиеся под руководством учителя систематически ведут самостоятельную, поисковую деятельность, для усвоения новых знаний и готовятся самостоятельно прийти к выводам науки. С помощью устойчивых мативов учения, познавательных деятельностей, учащиеся систематически обучаются решать проблемные ситуации, что является важнейшим стимулом в жизни человека – самоятоятельность. В отечественной (узбекской ) педагогической литературе вопросами проблемного обучения занимались такие ученные-педагоги, как Н.Н.Азизходжаева, Х.Н.Авлиякулов, К.Зарипов, А.К.Гулямов и др. А.К.Гулямов пишет, что - проблемное обучение основывается на проблемных ситуациях, это значит учитель создавая проблемную ситуацию раскрывает перед учащимися часть неизвестного, учебного материала, в дальнейшем на поиск направляет самого ученика. Это создаётся с помощью активизирующих действий и неизвестных, а также малоизвестных вопросов

для ученика. Что является новизной в педагогическом обучении, который повышает качество познания ученика. Ученик самостоятельно решивший заданную проблему, хорошо запоминает данную тему, понимает о чём идёт речь и как решить данную проблему.

Как мы видим, представленные выше высказывания учёных-педагогов отражают основные стороны проблемного обучения и раскрывают важные моменты проблемности деятельности педагога. Значит, проблемное обучение основываясь на умственную деятельность обучаемых организует самостоятельную, творческую работу, которую развивает мышление. Таким образом, проблемное обучение – это такая организация учебных занятий, при котором ученики под руководством учителя включаясь в проблемную ситуацию, самостоятельно и творчески решают учебную проблему, в результате чего, он развивает свою мыслительную деятельность, способность и вооружается знаниями , навыками и умениями. Это требует от учителя тщательной подготовки, набор для решения проблем на основе существующей методологии. Именно по этой причине, важным является внедрение проблемного обучения в учебно-воспитательных процессов.

Рассмотрим эту возможность на примере дисциплины «Введение в археологии» («Археологияга кириш»), которая предназначена для студентов I-курса. Основной целью данной дисциплины является общий обзор различных аспектов археологической науки, этапов в истории формирования дисциплины, методов исследования, а также реалий археологических раскопок. Для цели нашего примера можно выбрать тему №5: «Археология и вспомогательные исторические дисциплины» («Археология ва тарих тармоқ фанлари»). В рамках этой темы проводится ознакомление с различными вспомогательными историческими дисциплинами (к примеру, нумизматика, эпиграфика, этнография и т.д.) и их роль в процессе археологических исследований либо их вклад в развитие археологической науки. Ниже мы приведем сценарий, по которому можно организовать данное занятие с использованием проблемного метода обучения.

Этап 1. Ознакомление с базовой информацией по теме. Данная часть предусматривает краткий обзор функций и методов вспомогательных исторических дисциплин и проводиться в форме короткой лекции со стороны преподавателя.

Этап 2. Разделение студентов на четыре группы, каждая из которых представляется как отдельный археологический отряд. У каждого отряда имеется объект исследования (археологический памятник): Группа 1: Пещерная стоянка эпохи палеолита; Группа 2: Античное городище с дворцом правителя; Группа 3: средневековое городище с большим количеством монетных находок; Группа 4: Позднесредневековый храм с большим количеством надписей. Важно, чтобы студенты понимали специфику каждого объекта исследования, а также имели представление об их различиях на данном этапе.

Этап 3.Студентам в каждой группепредлагается решить проблему следующего содержания: «По причине ограниченного бюджета на данный полевой сезон, у отряда не имеется достаточных финансовых возможностей для привлечения всех видов специалистов узкого профиля. По этой причине, исследовательский институт либо ВУЗ, отвечающий за полевые работы, сообщает начальнику отряда, что он может взять с собой только трех специалистов. Принимая во внимание ограниченность выбора перед студентами в каждой группе стоит проблема выбора соответствующих специалистов исходя из специфики объекта исследования».

Этап 4. Студенты в каждой группе проводят дискуссию для решения данной проблемы. Преподаватель в свою очередь поощряет участников дискуссии к тому, чтобы они пришли к консенсусу, даже если это подразумевает «согласие на несогласие» с различными точками зрения. Также преподаватель может использовать дополнительные вопросы, как «триггеры», целью которых является указать на комплексность проблемы и поставленной перед студентами задачи.

Этап 5. Далее студентам предлагается определить наличие пробелов, которые не дали им возможность полноценно решить поставленную перед ними проблему. Важно, чтобы студенты задавались вопросами следующего содержания: почему они не знают этого? Что требуется сделать, чтобы они заполнили эти пробелы? Какие предположения у них появились о связях между идеями и концептами в процессе дискуссии?

Этап 6. На данном этапе, перед студентами ставятся вопросы следующего содержания: Какие источники (письменные либо материальные) им потребуются для обоснования собственной точки зрения по поставленному вопросу? К примеру, если участники первой группы выбрали специалиста по физической антропологии как одного из участников отряда, это может быть обосновано большим количеством находок человеческих останков на объекте исследования.

Этап 7: Определив, что требуется для обоснования своего аргумента, участники каждой группы создают план действий, направленный на решения поставленной проблемы, и готовятся к формальной презентации (защите) собственной точки зрения. Это заключительный этап, в рамках которого студенты могут представить собственное решение в форме краткой речи одного из участников, либо в форме текста.

В самом конце участникам предлагается оценить эффективность процесса, их роль в решении проблемы и вклад использованного метода проблемного обучения в контексте их направления обучения. Важно отметить, что поставленная задача даёт студентам возможность почувствовать себя частью «реальных» археологических исследований. Знания и навыки, требуемые для решения задачи формируются как из краткого введения, осуществленного преподавателем, так и в процессе дискуссий и попыток ответить на дополнительные вопросы. Самое главное,

что поставленная проблема является не однозначной и подразумевает наличие нескольких направлений решения.

## Используемая литература


1. Мирзиёев Ш.М. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису. – Народное слово, 2020, 25января.
2. Кудрявцев Т.В. Проблемное обучение- истоки, сущность перспективы. – М.: Знание , 1991.
3. Педагогические технологии / : Учебное пособие для студентов педагогических специальностей / Под общей ред.В.С.Кукушина.- Москва, ИКЦ»МарТ».-2004.

*5А210201 – Психология (фаолият турлари бўйича)*

# TAKE INTO CONSIDERATION PRIMARY SCHOOL PUPILS' WAY OF THINKING WHEN CREATING A TEXTBOOK FOR THEM

**Sh.R. Barotov,**
*BuxDU, Psixologiya ta'lim yo'nalishi kafedra professori,*
**H.N. Jalilov,**
*BuxDU, I kurs magistranti*

Primary school age is called the peak of childhood. In the modern periodization of mental development covers the period from 6-7 to 9-11 years. At this age, there is a change in the image and lifestyle: new requirements, a new social role of the student, a fundamentally new type of activity — educational activity. At school, they acquire not only new knowledge and skills, but also a certain social status. The perception of one's place in the system of relations is changing. The child's interests, values, and whole way of life change; active processes of comprehensive mental development begin, which is reflected in the formation of individual components of all personal spheres, including the cognitive one. A special role is assigned to thinking, since it is during this period that it provides the basis for further development. The question of the development of thinking has been studied by many psychologists, including foreign ones, such as Jean Piaget, Henri Wallon, Barbel Inelder, A. K. Dusavitsky, A. K. Markova, Yu. a. Poluyanov, V. V. Repkin, V. V. Rubtsov, G. A. Zukerman, L. S. Vygotsky, A. N. Leontiev, S. L, Rubenstein, P. Ya. Galperin, A. A. Smirnov and others.

There are many definitions of the concept of "thinking". For example, S. Rubinstein wrote: "Thinking is a socially determined, inextricably linked with speech mental process of independent search and discovery of essentially new things by a person, the process of indirect and generalized reflection of reality in the course of its analysis and synthesis, arising on the basis of practical activity from sensory knowledge and far beyond its limits".

Generalizing the definitions of different authors, we can conclude that thinking is a process associated with the search for something new, thus constituting the highest stage of the development of knowledge. The development of thinking in early school age occupies an important place among other mental functions.The thinking of the younger schoolchild is characterized by high rates of its development; structural and qualitative transformations occur in intellectual processes. The transition from visual-imaginative to verbal-logical thinking, which began at preschool age, is coming to an end. The child has logical correct reasoning: he uses operations. But this is not a formal logical operation, since the younger student can not yet reason. In primary school age, there are such neoplasms as intellectual reflection, arbitrariness, an internal plan of action, scientific concepts and specific operations are formed. At this age, all three forms

of thinking develop: concept, judgment, and inference. The acquisition of scientific concepts is made in children during the learning process; in the development of the child's judgments, an essential role is played by the expansion of knowledge and the development of a thinking attitude to truth; the judgment turns into a conclusion as the child, dissecting the thought from the actual, begins to consider his thought as a hypothesis, a position that still needs to be verified. But in addition to these features of thinking, it is important to identify the impact of educational activities on the development of thinking. This influence is manifested in the development of forms of thinking that will further ensure the assimilation of the system of scientific knowledge, the development of scientific and theoretical thinking, conditions for independent orientation in teaching and everyday life. Within the framework of the research, we had the task not only to consider the features of the development of thinking in primary school age, but also to identify the level of development of visual-figurative and verbal-logical thinking. For this purpose, an empirical study was conducted, the relevance of which is that the younger school age is the most productive in the development of thinking and in a short period of time it passes from visual-imaginative and visual-effective to a new, higher level, verbal-logical, conceptual thinking.

An empirical study of the features of thinking was conducted on the Secondary school № 17. 20 people of class 4 "A" took part in the experiment, including 11 boys and 9 girls. The following methods were used in the study: the Raven matrix and the method of studying verbal and logical thinking by E. F. Zambatsevichene. To determine the level of visual-imaginative thinking, 10 gradually complicated Raven matrices were detailed. The child is offered a series of ten increasingly complex tasks of the same type: search for patterns in the arrangement of parts on the matrix and select one of the eight figures below for the missing part of the matrix. For each correct answer, 1 point is given. Time is unlimited, the maximum score is 10, which indicates a high level of development of visual and imaginative thinking. Using this method, the following results were obtained: there is no very high level of development in this group, and only three students received the maximum score. The average level of development was found in twelve subjects. This means that they can use images and visual representations in their minds to solve problems. The rest of the students have a low or very low level of development, and special attention should be paid to them, since they cannot use visual representations and images to solve situations and problems. The results of this method have generally shown satisfactory results, and to correct visual-imaginative thinking, the teacher should conduct classes aimed at its development.

Features of the verbal-logical thinking were studied by us using methods E. F. Zambacevičienė. This method is constructed on the basis of some methods of testing the structure of intelligence by R. Amthauer and was published in 1984. It can be used to study the level of development and features of conceptual thinking, the formation of the most important logical operations. 4 subtests were developed for the younger schoolchild:

-the first one is aimed at identifying awareness;
-the second one is aimed at studying the ability to generalize, abstract, and highlight essential features of objects and phenomena;
-the third-tasks for reasoning by analogy;
-the fourth-is aimed at the study of the most important operation of generalization for this stage of intellectual development.

The study proved that 60% of students have high level of thinking, 35% have a medium level, therefore, 95 % of students his age are well developed, 5 % of the total number is below average, this suggests that parents and teachers should pay special attention, as the child of his age, has a low level of development of verbal-logical thinking. Thus, based on the results of an empirical study based on the fact that by the end of primary school age, visual-imaginative thinking should be well formed and verbal-logical thinking begins to form, we see that the average and high level of development of visual-imaginative thinking, studied with the help of Raven matrices, indicates that students can successfully operate in the mind with images and visual representations when solving problems. This is typical for this age. Research data showed that 60 % have an average level of visual-imaginative thinking. And all the others are low.

If we generalize the results of the entire group, we can say that visual-imaginative thinking in the test group is developed to the limit of the norm. For the successful development of visual-imaginative thinking, the teacher must build the lesson in such a way as to stimulate its development. The results of the analysis of data on the methodology of E. F. Zambacevičienė show that more than half of the students have successfully mastered mental operations, which is typical for their age. But there is one girl among them, because of some circumstances, she is behind in development compared to her classmates. In our opinion, we need to pay special attention to her, because if this is not corrected now, the consequences may be negative: in subsequent classes, she may have poor academic performance. The teacher should conduct remedial classes with such students, and parents should also work with the child at home or in special educational institutions. Summarizing the results of the study, we can conclude that in the group of subjects the level of development of visual-figurative and verbal-logical thinking is normal, corresponding to the psychological characteristics of this age stage.

**Literature:**

1. Kozubovsky V. M. General psychology: cognitive processes: textbook / V. M. Kozubovsky. - 3rd ed. - Minsk: Amalfeya, 2008. - 368 p.
2. Kulagina I. Yu, Kolutsky V. N. Age psychology: the Complete life cycle of human development. Textbook for students of higher educational institutions. - M.: shopping center "Sphere", 2001. - 464c. ISBN 5-89144-162-4.
3. Leontiev A. N. Psychology of thinking. Reader./under the editorship of Yu. b. Gippenreiter, V. V. Petukhov. — M: MSU, 1982.

# ЎСМИРЛАРДАГИ СУИЦИДИАЛ ҲУЛҚ-АТВОРНИ ЎРГАНИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

**А.А. Ҳусейнова,**
*БухДУ, Психология кафедраси доценти,*
**Н.Р. Ахмадов,**
*БухДУ, I курс магитранти*

Бугунги психологик хизмат амалиёти ҳар бир шахснинг ўзига хос бўлган имкониятларини ўрганишни, таҳлил қилишни ва шу шахсга нисбатан тегишли психокоррекцион тадбирларни қўллашни тақозо этади. Ҳар бир шахс ўзига ҳос ҳиссий зўриқиш ҳолатларига учраши ва бу ҳолатлардан чиқиб кетишда жуда кўплаб куч сарфлаши табиий. Шу нуқтаи назардан шахсдаги эмоционал ҳолатларга тўғри баҳо бериш муҳим аҳамият касб этади. Шахсдаги суицидиал ҳолатларни ўрганиш эса хар бир шахс учун характерли бўлган психологик муҳофаза имкониятларини очиб беришга хизмат қилади. Кейинги пайтларда жуда кўплаб учраётган суицид ҳолатлари жамиятимизда ижтимоий зарарларни келтириб чиқармокда. Бу зарарлар шахс ва унинг тараққиётига салбий таъсир қилмоқда. Ушбу таъсирлардан огоҳ бўлиш учун эса суицид ҳолатлари ва унинг оқибатлари ҳақида тегишли илмий-амалий билимларга эга бўлиш талаб қилинади. Жумладан, Суицид – лотинча сўздан олиган бўлиб, ўз жонига қасд қилиш – бу онгли равишда ўзини ҳаётдан маҳрум қилишдир. Суицидал хулқ – атвор – суициддан кенгроқ тушунча бўлиб, ўзида суицидал хатти – харакат, ўз жонига қасд қилиш ходисаларини қамраб олади.

Тадқиқотчилар суицид феноменини кўпинча психологик инқироз ҳақидаги тасаввурлар билан боғлайдилар. Ушбу вазиятда инқироз, шахснинг ҳаётий ўта зарур эхтиёжларини қондириш йўлидаги тўсиқларга дуч келиши вазиятида келиб чиқадиган эмоционал ҳолат сифатида тушунилади, яъни шундай тўсиқларки, одам уни ўзини олдинги ҳаётий тажрибасидаги муаммоларни ҳал қилиш усуллари билан бартараф эта олмайди.

Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг маълумотига кўра ўлим сабабларига кўра суицид юрак қон томир, онкологик ва травматизмдан кейин 4–ўринни эгаллаши ташвишли ҳолатдир. Ҳар йили дунё аҳолисиинг миллионга яқин кишиси ўз жонига қасд қилади. Натижада буларнинг 80% ўлим билан якунланади.140

Суицид келиб чиқишининг дастлабки сабаблари

1. Шахсий ҳаётдаги зиддият;
2. Ёлғизлик;
3. Ночорлик;
4. Англанилмаган туйғулар;

[140] *Shekhar Saxena,Etienne Krug,Oleg Chestnov. ВОЗ: Предотвращение самоубийств. Глобальный императив. (рус.). ВОЗ. Всемирная организация здравоохранения (2014). Проверено 12 апреля 2015.*

5. Бошқалар томонидан тан олинмаганлик;
6. Этник анъаналарнинг бузилиши;
7. Ирсий мойиллик;
8. Сурункали наркотик моддалар ва токсик препаратларни истеъмол қилиш;
9. Аффектив ҳолат, хафагарчиликлар,депрессия;
10. Оғир йўқотишларни бошдан кечиш;
11. Оиладаги носоғлом шахслараро муносабат;
12. Ўзига ва ўзгаларга нисбатан адолатсизликни ҳис этиш ва ҳоказо.

Суицидал хулқ-атворга мойил шахслар гуруҳи
Отасиз тарбияланаётганлар; оилада онасининг устун туриш холатлари.
Жисмоний нуқсонга эга бўлганлар.
Алкогол кўп истеъмол қилина-диган оилада тарбияланаётганлар
Яккаланиш ва камситиш холатларида бўлганлар
Наслида суицидни амалга оширганлар бўлса
Ички (соматик)касалликлар билан оғриганлар
Руҳий тушкунликка тушганлар

Ўз жонига қасд килишнинг олдини олишда педагогларга алоҳида маслаҳатлар:

Ўсмирнинг яшашга қизиқишини кучайтириш - педагогнинг бевосита бурчидир.

Агарда сизнинг фикрингизча, инсонда ўз жонига қасд килишга мойиллик бўлса ёки аввал бунга ҳаракат қилган бўлса ундан ўзингизни олиб кочманг.

Ўсмир ўз муаммоларини сизга айтишга қарор қилган бўлса ва сиз мавжуд вазиятдан даҳшатга тушганингизда ҳам, уни ўзингиздан итарманг. Ёдингизда тутинг, ўз жонига қасд килишга мойил бўлганлар камдан кам ҳолатда малакали мутахассисларга мурожаат этишади.

Агарда ушбу ўсмирда ўз жонига қасд килишга мойиллик сезсангиз, ички туйғуларингизга ишонинг. Огоҳлантирувчи белгиларни рад этманг.

Кафолатини бера олмайдиган ваъдалар берманг. Мисол учун, “албатта севган йигитинг қайтиб келади”.

1. Унга ёрдам бермоқчи эканингизни айтинг, мабодо, ўсмирнинг хавфсизлигига таъсир этувчи сабабларни кўрсангиз, вазиятни сир сақлашга ҳожат йўқлигини тушунтиринг.
2. Ўзингизни хотиржам тутинг, нимани гапиришингиздан қатьий назар танкид қилманг.
3. Самимий гапиринг. Хавф канчалик жиддийлигини тушунишга ҳаракат килинг. Билиб қўйинг, ўз жонига қасд қилиш ҳақидаги фикрлар доим ҳам ўзини ўлдиришга олиб келавермайди. Аслида, ўсмир ўзини қийнаётган муаммо ҳакида айтиб, анча енгил тортиши мумкин.
4. Ўсмир бундай вазиятда мурожаат қилса, албатга, унга кўмак бера оладиган одам борлигига ишонтиришга ҳаракат қилинг.
5. Қарорларни (мисол учун, бизга ҳозир энг кераклиги тўйиб ухлаб олиш, эрталаб эса ўзингни анча яхши ҳис этасан) каби соддалаштирманг.

6. Ўсмирга ҳиссиётлар ҳақида гапирмоқчи эканлигингизни кўрсатинг, бундай ҳис-туйғулар учун уни айбламанг.
7. Ўсмирга можароли вазиятни тўла таҳлил қилишида ёрдам беринг, кучли стресс унга вазиятнинг асл ҳолатини кўришига халақит бераётганлигини тушунтиринг. Унга билдирмаган ҳолда бирор ечимни ўртага ташлаб, шу ечимни топишига йуналтиринг.
8. Стрессни ечишида ёрдам берадиган инсонлар ёки жойларни топишига ёрдам беринг. Имкон кадар босимни сусайтиришга ҳаракат қилинг.
9. Ўсмирга тушунтиринг, мавжуд ҳиссиёти бутун умр давом этмайди.

Кучли руҳий изтиробларни бошидан кечираётган ўсмирга унинг учун аҳамиятли бўлган инсонлар томонидан ўз вақтида кўрсатилган психологик ёрдам 90 фоиз ҳолатда вазиятнинг ижобий томонга ўзгаришига олиб келади!

Суициддек мудҳиш ҳодисанинг юзага келиши ва профилактикаси кўпроқ психологик омилларга, яъни шу суицидогеннинг ўзига, унинг индивидул психологик, шахсий хусусиятларига, психологик тайёрлигига боғлиқ экан, айтиш жоизки, бу муаммони биргина тадқиқот билан ҳал этиб бўлмайди. Бунда асосан, қуйидаги омилларга алоҳида эътибор қаратиш зарур эканлигини таъкидлаш жоиз: биологик, социологик, психологик, тиббий ва бошқ. Ушбу муаммони ҳар хил маданий муҳитда, турли хил суицид ҳолати ва даражаси билан боғлаб ўрганиш эса янги илмий маълумотларни тақдим этишни таъминлашга хизмат қилади.

**Адабиётлар:**

1. Амбрумова А. Г. Научные и организационные проблемы суицидологии. - М., 1983
2. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд / Изд. подг. В. А. Луков. СПб., 1998
3. Психологик хизмат: Магистрлар учун дарслик.- Т.: “Наврўз” нашриёти, 2018. – 344 б.

## ЭКСТРЕМАЛ ВАЗИЯТЛАРДА ШАХСНИ БАҲОЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

**Л.Я. Олимов,**
*БухДУ, Психология кафедраси доценти,*
**З.М. Махмудова,**
*БухДУ, I курс магистранти*

Экстремал ҳолат бу экстремал факторлар ва экстремал механизмлар таъсири остида инсон онгнинг ўзгариши ва уларнинг босим остидаги таъсиритушунилади.У физиологик таъсирланиш мослашишининг (бундай вазият жисмоний ёки кимёвий характернинг экстремал омилларининг таъсирида аввало пайдо бўлади) ёки психологик ва аҳлоқий таъсирланишни

бузилиши билан тавсифланади (бу ахборотли-семантик характернинг экстремал омилларининг таъсирида кўпроқ характерлидир). Кўпроқ физиологик тизимнинг дастлабки аҳлоққа оид таъсирланиш динамикасига сабаб бўлиб хизмат қилган, ёки аксинча, психологик тавсифларнинг ўзгариши физиологик силжишнинг пайдо бўлишига олиб келганда таъсирланишнинг аралаштирган типи бўлиб ҳисобланади.

"Экстремал вазиятларда шахс организмнинг таъсирланиши икки типда бўлиши мумкин: таъсирланиш шаклининг бир хилги ва ташвиш таъсирланиши. Таъсирланишни у ёки бу турга тегишлилигини билиш учун белгиси бўлиб бу таъсирланишнинг йўналтирилиши ҳисобланади."

Жавобнинг бир хил шаклларнинг асосий мазмуни бўлиб экстремал омилларни йўқ қилиш ёки енгиб ўтишга ва қўйилган аҳлоқий масалаларини ечишга йўналтирилган организмнинг ўзига хос таъсирланиши ҳисобланади. Шунда аҳлоқий даражада жавобнинг хусусияти бўлиб етарлича онгли мақсадга йўналтирилган характер ҳисобланади. Бу эса экстремал шароитларни умуман олганда бутун мавжуд бўлган вазиятнинг сифатли таҳлилига, баъзида эса сонли тавсифларига асосланган инсон ҳаракатнинг аниқ режасини шакллантиришни таъминлайди.

Ташвиш таъсирчанлиги билан боғлиқ жавоб шакли экстремал омилнинг ўзига хос алоқаси билан тавсифланади. У аввало организмнинг ишлашини сақлаб қолишда ва амалга ошаётган фаолиятнинг тузилишини сақлаб қолишга йўналтирилган. Аҳлоқий таъсирланишнинг онгли назорати сусайтирилган вазиятларда онгсиз аҳлоқий актлар кузатилади, масалан ваҳима. Агар жавобнинг бир хил шаклида экстремал омил таъсирининг бошланишигача мавжуд бўлган фаолият ўзгаришсиз қолса, унда иккинчи вазиятда бу сабабларнинг субъектив зарурлиги пасайиши, ва сабаблаштириш типининг алмашуви кузатилади. Ташвиш таъсирчанлиги, қоида бўйича кучли экстремал вазиятларда пайдо бўлади (субъективли ва объективли қабул қилиб олинадиган).

Таъсирчанликнингбир хил шакли. Жавобнинг бир хилли шаклининг ўзига хос хусусияти бўлиб экстремал шароитларнинг таъсирларини йўқ қилиш ёки минимизацияга (камайтиришга) йўналтирилган ҳаракат режасини шакллантириш билан унинг мақсадга йўналтирилган характери ҳисобланади. Диққат концентрацияси қанча юқори бўлса, шунча сезгирликнинг пасайиши кўпроқдир. Шунда экстремал омиллар ҳаракатида диққат концентрациясининг кучайиши фаолият муносабатига эга бўлмаган бегона сигнални эътиборга олмасликдан иборатдир. Ўзига хос ўзгаришлар хотира жараёнлари учун характерлидир, айни вақтда оператив хотира учун. Инсон учун семантик маънонийликка эса фақат ўша материални эсда тутиш яхшиланади. Бу ҳақиқат, ҳатто бир хиллик жавобнинг характерли белгиларидан бири каби ажралади. У учун характерли бўлиб тафаккур унумдорлигини кўпайтириш ҳисобланади – қидириш тезлиги ва яратилган вазиятнинг мумкин бўлган шаблонли қабулларда қайд қилишдан қайтариш ва тафаккурнинг эгилувчилиги ҳақида гапириш мумкин.

Аҳлоқий даражада фаолият тузилишида ўзгаришлар кузатилади. Стереотипли, қаттиқ регламентация қилинган таъсирчанлик вазият ўзгаришнинг эҳтимолликка оид ҳисобга олишга асосланган ҳаракатлар билан тўлдирилади, бу эса фаолият алгоритмининг турланишига олиб келади. Шунда хатолар сонини кўпайтириш мумкин, улардан баъзилари онгли қилинадилар, Бир хил таъсирланиш шунингдек, шахснинг иродасига оид сифатлар ролининг ўсиши билан, кузатилади, жавобнинг шаклланишида иштирок этаётган ҳаяжонли компонентнинг кучайиши билан кузатилади. Социал маъноли ва юқори фуқароли сабабларнинг роли кучаяди. Бироқ янги сабаблар, қоида бўйича шундай пайдо бўлмайди. Ваҳима таъсирчанлиги, унинг хиллари. Ваҳима таъсири шароит ўзига хос хусусияти билан кам боғланган ва жуда хилма-хил вазиятлар учун тегишли бир типли. Таъсирчанликнинг ифодалаш даражаси унинг сифатли таркиби бир неча марта алмашиши мумкин: алоҳида компонентлар ҳар хил тақдим этилиши мумкин ёки умуман бўлмаслиги мумкин. Бироқ жавобнинг умумий тузилиши доимийдир. Ваҳима таъсирчанлиги шароитларида жавобнинг учта асосий шаклини фарқлашмумкин: кичик, ўрта ва охирги даража. Кичик даражадаги психологик ҳолат ваҳимаси яхшиўрганилган таъсирчанлиги билан кўп умумийликка эгадир. У ташқи таъсир қилувчини таҳлил қилиш ва унинг маънога эгалигини баҳолашдан иборат. Бироқ йўналтирилган таъсирланишдан фарқи шуки, ваҳима таъсирланиши заиф экстремал омилнинг таъсирида кўпроқ чидамлилигидир ва унда психологик ахлоққа оид компонентлар кучлироқ ифодаланган. Кўпроқ идрок доирасининг ўзгариши ҳисобланади. Ахлоқий даражада эса профессионал кўникмаларни бажариш бузилади. Ишнинг секинлашувида бу янада ёрқинроқ ифодаланган.Умуман айтганда эса кичик даражадаги ваҳима таъсирланишнинг пайдо бўлиши сезиларли ҳис-ҳаяжонни чақирмайди. Шу билан бирга, ҳаракатнинг умумий йўналиши ва фаолият сабабларининг нисбати ҳам ўзгармайди.

Экстремал вазиятнинг ўсишида ўрта даражадаги ваҳима таъсирчанлиги ривожланади. Бу таъсирланишнинг характерли хусусиятга эга фазилати бўлиб кузатилаётган ўзгаришларни бир томонга йўналтириш ҳисобланади. Агар аввалги вазиятда ўзгариш манзараси етарлича хилма-хил бўлиши мумкин бўлса унда энди ҳар хил функсияларнинг эмоционаллигини ифодалаш кузатилади. Ҳис-туйғулар системаси маълум даражада ошади. Хотира ҳажмининг маҳорати кузатилади, диққатнинг мустаҳкамлиги ва жойлашиш масалаларини бажариш ёмонлашади. Диққат ва хотиранинг бузилиши фаолият хатоликларининг ошишига олиб келади. Уларнинг тезлиги ошади, хатоларнинг пайдо бўлиши ва тузатилиши устидан онгли назорат бузилади, бу эса ҳатоларнинг “боғлам”и пайдо бўлишига олиб келади – стереотипли фаолиятда улар бир-биридан кейин биринчи хатолар пайдо бўлади. Бу эса фаолият сифати учун назоратни пасайиши билан шартланади ва инсон унинг нотўғрилигига қарамай, бир хил хатоли ҳаракатини кунт-матонат билан такрорлайди. Ҳам унумдорликка ҳам

репродуктивлика оид зукко оператсияларнинг тузилиши моҳиятли ўзгаради. Аҳлоқий даражада моҳиятли белгилардан бири бўлиб фаолият сабабларининг ўзгаришлари ҳисобланади. Биринчи ўринга қўрқувни бошдан кечириш, экстремал вазиятдан чиқиб кетиш сабаблари олдинга қўйилади. Доминантли (асосий) шароитларда инсон фаолиятини аниқловчи кўпгина сабаблардан биринчиси бўлади.Аниқ ифодаланган ҳаяжонли таранглик пайдо бўлади.

Ваҳимада таъсирлашнинг охирги даражаси иккита шаклда бўлиши мумкин: суст ва фаол. Бироқ, иккала вазиятда ҳам хулқ устидан онгли назоратнинг йўқотиши ифодаланади. Суст шаклда ўзига хос донг қотиб қолишлик, фаол фаолиятнинг тўхташига олиб келади.Шахс ҳаракатлари давом этиши мумкин, лекин улар онгли мақсад характерини йўқотадилар. Келиб тушадиган туйғуларга оид сигналларни деярли қабул қила олмайдилар. Инсон унга нисбатан мурожаатни кўпинча тушунмайди. Экстремал вазиятнинг фаол ҳаракатига қаршилик бўлмайди, ҳатто ундан кетишга уриниш характери ҳақида гапириши қийин бўлади. Ўтмишга қаратилган таҳлилда одатда тўлиқ ёки қисман амнезия намоён бўлади. Хотирада катта бўлмаган деталлар ҳисобга олинади, зарур деталлар эса онгдан тушиб кетади. Онгнинг иккиланишсиндроми шунингдек шахсий бошдан кечиришнинг ҳаяжонли рангини суғуришга олиб келади. Шундай қилиб, табиий офатни бошдан кечирган шахсларни сўров қилганда, ўз бошдан кечирганларнинг шундай тавсифини эшитишга тез-тез тўғри келади: Худди бу мен ва бу мен эмасдай, четдан бу кимдир бошқа: бу суст таъсирланиш назоратининг йўқотиши билан тавсифланади. Бу вазиятда идрок сақланиб қолади, ҳатто тўғри ҳаракатларнинг алгоритми топилиши мумкин, бироқ ирода уларни амалга оширишга имкон бермайди.

Аҳлоқий даражада ваҳима таъсирланишининг фаол шакли учун тузилган вазиятдан кетиш сабаби характерлидир. У ҳам аниқ шаклда (қочиш, чопиш, кетиш) амалга ошириши ва аниқ вазиятларда зарур бўлган фаолият шаклини қабул қилиши мумкин бироқ, бу фаолиятнинг ташкил этилиши хулқ мантиқининг йўқлиги билан тавсифланади. Бу аниқроғи, алоҳида ўзаро боғланмаган ҳаракатларнинг тўплами. Бу ҳаракатларнинг элементларини охирига етказмайдилар, ҳаракатнинг оддий такрорлашлари ёки бир ҳаракатнинг алмашуви йўналтирилганларга қарама-қаршидир. Бу ҳолатда бўлган шахсларнинг ишончларини белгилаб ўтиш керак. Бироқ, бир хилли гуруҳ идрокининг имконияти хоҳлаган натижага келтирилмаслиги ҳам мумкин, балки бундан олдин учрамаган қарама-қарши бўлган чалкашли ҳаракатларнинг янги турларини чаққиртириши мумкин.

Ваҳима таъсирланишининг фаол шаклида юқорида кўрсатиб берилган онгнинг иккиланиш синдроми учрамайди. Ишонтириш билан бирга бу таҳлид таъсирланишнинг пайдо бўлишига олиб боради. Уларнинг охирги шакли ваҳима ҳисобланади. Чунончи, таъсирчанликнинг бу шакли учун ҳукмрон ғоя характерли хусусиятга эга экан, хулқ кўпроқ ҳаракатли-фаол шахс билан берилади.

Таъсирланишларда стрессли вазиятда катта шахсий фарқлар кузатилади. Баъзи одамлар стрессга мослашган, бошқалар уларга бунчалик ҳам мойил эмас. Бироқ, ҳар қандай вазиятда ҳам доимий босим соғликка таъсир қилмай қўймайди. Агар позитив ва негатив стресслар бир бирларини тез-тез алмаштирсалар, босим доимий ўсади; ва иммунал тартибининг кескин сусайиши натижасида соғликка зарар етади. Шу учун стрессогенли вазиятлар билан боғланган мутахассисликка шахсларни танлаб олишда стрессомустаҳкамликка қунт билан ўтказилган текшириш керак.

Экстремал ҳолатлар тури ниҳоятда кўп. Улардан баъзилари аниқ вазиятларга қўлланилган ҳолда кўриб чиқилган эди. Бироқ улардан ташқари шундай ҳолатлар инсоннинг фаолиятини бузадиганэкстремал ҳолатларнинг ўзига хос турлари мавжуддир. Бундай ҳолатлар таркибига аввал кўриб чиқилган стрессдан ташқари аффект, фрустратсия, қўрқувни ва психологик кризисни киритсак бўлади.

Юқоридагилардан хулоса чиқариб шуни таъкидлашжоизки, психологларнинг нуқтаи назарида инсон ҳаётида кризислар муқаррардир, улардан ҳар бири негативли ва позитивли компонентларга эгадирлар. Кризиснинг муваффақиятли рухсати – бу шахсийликнинг ривожланишида тараққиёт, мумкин бўлган шахсийликка оид ўсиш. Конфликтни ҳал этилмаслик – бу шахс учун хавфлидир.

## ЎСМИР ШАХСИДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

**Л.Я. Олимов,**
*БухДУ, Психология кафедраси доценти,*
**З.М. Махмудова,**
*БухДУ, I курс магистранти*

Психологик ҳимоя қилиш муаммоси ҳамиша инсоният олдида турган энг долзарб муаммолардан бири бўлиб келган. Зеро, инсоннинг ҳар жиҳатдан ижтимоий тараққиёти, шахс сифатидаги фаоллиги ва ўзини ўзи ривожлантира бориши кўп жиҳатдан ушбу жараёнга боғлиқдир.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, шахслар ўзларининг маълум доирадаги психологик имкониятлари, ютуқлари, камчиликлари ҳақида етарли маълумотга эга бўлсалар, бу уларнинг ҳаётда учрайдиган ҳар қандай муваффақиятсизликларни осонлик билан бартараф этишга, ўз имкониятларидан янада кенгроқ фойдалана олишга, бир сўз билан айтганда, ўзлари ҳақида янада теран, ижобий ва ўзига хос ижтимоий қийматга эга бўлган тасаввурларнинг шаклланишига кенг имкониятлар яратади.

Зеро, бу жараёнда энг аввало таълим-тарбия тизими, унинг мазмун-моҳияти, таълим тизимини такомиллаштиришга хизмат қилувчи экстремал

вазиятларда шахс психологик ҳимояси тамойиллар муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистонда ўзига хос изчиллик билан амалга оширилаётган барча ислоҳотларнинг туб марказида шахс ва унинг ижтимоий тараққиётини таъминлашга қаратилган қатор чора-тадбирлар ётадики, бу жараёнда психологик ёндашувлар муҳим аҳамият касб этади. Зеро, ҳар бир шахс тезкор вазият муҳит билан боғлиқ ўзига хос психологик имкониятларига етарлича баҳо бермай туриб шахснинг тараққиётига ҳозирги замон талабларига мос натижа кўрсатиш жуда мушкулдир.

Экстремал вазиятларда психологик ҳимоя методологиясини талқин этишда инсоннинг ҳиссий ҳолатини тушуниш ва унинг ўз меҳнати маъсулларидан ижтимоий маъсулият жараёнини таҳлил қилиш ва ривожлантиришга бағишланган айрим тадқиқотларнинг ўрни ва истиқболига ҳам алоҳида эътиборни қаратиш лозим, деб ўйлаймиз. Масалан, Ф.Херстберг ва унинг издошлари томонидан меҳнат фаолиятини ташкил этишдаги эмоциоген фарқланиш механизмлари тадқиқ қилишди. Мазкур изланиш маъсулига кўра, меҳнат фаолиятини ташкил этишда ижодийлик, мустақиллик, ўзини ўзи билиш, ривожлантиришга қаратилган тадбирларга эътибор берилса, шахс фаолияти унумдорлигига ижобий таъсир этувчи ҳиссий кечинмаларни ва аксинча, фақат техник жараёндангина иборат бўлган меҳнат шароити яратилса, шахс фаоллигига салбий таъсир этувчи ҳиссий кечинмаларнинг намоён этилиши кузатилади. Дарҳақиқат, фаолиятнинг бажарилишига нисбатан ижобий-ҳиссий кечинмалар шакллантирилмас экан, фаолият маъсули ҳам инсоннинг ўз фаолиятидан ижтимоий маънодаги қониқиши ҳам ниҳоятда паст савияда бўлади. Экстремал вазиятларда психологик ҳимоя жараёни эса худди ана шу эрда ўз таъсирини, яъни фаолиятдан ижтимоий қониқиш жараёнини маълум даражада юқори савияга кўтара олиш санъатини кўрсатиши лозим.

Шахснинг психологик ҳимоя механизмлари айрим низоларнинг субъектив сабабларига бевосита таъсир этиши мумкин. Шахснинг шахсий ёки гуруҳий эҳтиёжларини амалга оширишга йўл қўймаслик ва шахсий ёки гуруҳий қизиқишларини поймол қилиш каби сабаблар низоли вазиятларни вужудга келтиради. Кўпинча жамоада инкор қилинган хулқ-атвор формалари, ижтимоий шаклланиб бориши билан индивид реакцияси аниқланади. Бундан ташқари, индивиднинг низоларга иштироки, унинг олдига қўйган мақсадини амалга ошириш учун юзага келган тўсиқ қай даражада халақит бериши билан аниқланади. Субъект олдига қўйган мақсади қанчалик муҳим бўлса ва унга эришишни жуда хоҳласа, у шунчалик даражада қатъийлик билан ўзаро низоли вазиятларга ва унга халақит берувчи шахсга қаршилик кўрсатади.

Экстремал ҳолат бу экстремал факторлар ва экстремал механизмлар таъсири остида инсон онгнинг ўзгариши ва уларнинг босим остидаги таъсири тушунилади. У физиологик таъсирланиш мослашишининг (бундай вазият жисмоний ёки кимёвий характернинг экстремал омилларининг таъсирида

биринчи навбатда пайдо бўлади) ёки психологик ва аҳлоқий таъсирланишни бузилиши билан тавсифланади (бу ахборотли-семантик характернинг экстремал омилларининг таъсирида кўпроқ характерлидир). Кўпроқ физиологик тизимнинг дастлабки аҳлоққа оид таъсирланиш динамикасига сабаб бўлиб хизмат қилган, ёки аксинча, психологик тавсифларнинг ўзгариши физиологик силжишнинг пайдо бўлишига олиб келганда таъсирланишнинг аралаштирилган типи бўлиб ҳисобланади.

Экстремал вазиятларда "психологик ҳимоя механизмлари" ва "енга олиш хулқ-атвори" муаммолари тўғрисидаги баҳслар анча олдин юзага келган бўлсада, ҳозирги кунга қадар давом этмоқда. Бу шуни англатадики, ҳимоя механизмлари ва енга олиш чегараларини белгилашда амалий ва назарий мураккабликлар юзага келади. Кўпинча мазкур жараёнлар мақсадли тарзда намоён бўлади. Шунингдек, психологик ҳимоя ва енга олиш фел-атвори экстремал вазиятларда юзага келиб "ички низони ечиш" функциясини амалга оширади ҳамда, онглилик ва онгсизлик ўртасидаги зиддиятда воситачи сифатида иштирок этади. Экстремал вазиятларда психологик ҳимоя ўзида: инкор этиш, ўрин алмашиш, рационаллик, тушкунлик, идентификация, катарсис ва бошқа кўплаб формаларни акс эттиради. Ҳимоя механизмлари хавотирни тугатиш ва қўрқувдан ҳалос бўлишдаги кучли мезонлари орқали ўз ишини самарали олиб боради. Психик ҳимояни функционал вазифаси ва ёш босқичларидаги мураккабликларига кўра учга ажратиш мумкин. Улар қуйидагилардан иборат:

- Сенсор психологик ҳимоя – хулқ-атвордаги психосенсор бошқарувни амалга ошириш орқали организмда ҳимоя вужудга келади.
- Перцептив психологик ҳимоя – перцептив психологик бошқарув йўлидан фойдаланиши натижасида индивидда ҳимоя пайдо бўлади.
- Шахснинг психологик ҳимояси – шахснинг хулқ-атвор, фаолият ва англанган хатти-ҳаракатлар натижасида шахсда ҳимоя вужудга келади.

Шахсдаги перцептив ва сенсор ҳимоялари инсондаги биологик этиёжлари алоқаси орқали туташади. Маълумки, юқорида келтирилган ҳимоя турлари барча тирик организмлар учун характерли ҳисобланиб шахсдаги ҳимоя механизмлари инсоннинг ўзига хос ҳимоя структурасининг юқори кўринишидир. Унинг мақсади инсондаги шахс онтогинезда психологик ривожланиши давридаги зиддиятлар, шахслараро муносабатлардаги ўзаро алоқани сақлашга, ҳимоялашга йўналтирилган. Ушбу зиддиятларда инсон организм ёки индивид сифатида эмас балки шахс сифатида иштирок этади.

Шахсдаги перцептив ва сенсор ҳимоялари инсондаги биологик этиёжлари алоқаси орқали туташади (индивидликни сақлаган ҳолда ўзини мавжудлигини давом эттириш). Юқорида келтирилган ҳимоя турлари барча тирик организмлар учун характерли ҳисобланиб, шахсдаги ҳимоя механизмлари инсоннинг ўзига хос ҳимоя структурасининг юқори кўринишидир. Унинг мақсади инсондаги шахс онтогенезда психологик ривожланиши давридаги зиддиятлар, шахслараро муносабатлардаги ўзаро

алоқани сақлашга, ҳимоялашга йўналтирилган. Ушбу зиддиятларда инсон организм ёки индивид сифатида эмас, балки шахс сифатида иштирок этади. “Копинг” сўзини кенгроқ талқин қилганда, ўзига субъектнинг барча ўзаро таъсирини акс эттириб, у ички ёки ташқи вазифалари билан характерлидир. Муаммоли вазият талабидан ишғол этиш ёки юмшатишга уриниш ўрнини четга олиш ёки мослашиш орқали амалга оширилади. Қўшимча шароитда эса ташқи ва ички вазифалар ўзида копинг тузулмасини ўзлаштириб шу орқали субъектга психологик характеристика берилади ва ундан фарқли ўлароқ унга мослашади.

Психологик ҳимоя ҳамда копинг хулқ-атвор ҳусусиятларини қиёсий ўрганиш баъзи бир муаллифлар томонидан тўғридан-тўғри ёндашилиб, копинг хулқ-атвор англанмаган ҳимоянинг англанган варианти сифатида баҳоланади. Бошқа муаллифларнинг фикрига кўра, ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор ўртасидаги алоқа анчайин мураккаб. Копинг хулқ-атвор анчайин кенг маънодаги туғма ҳусусият бўлиб у ўзида англанган ва англанмаган ҳимоя техникаларини акс эттиради.

Шахснинг ўзини ўзи ҳиссий баҳолаш жараёни ўзини ўзи турли хил кўнгилсизликлардан, муваффақиятсизликлардан ва эктремал вазиятлардан маълум даражада ҳимоя қилиш учун муҳим аҳамият касб этади. Айниқса ўсмирлик даврида бу жараёнга жиддий қараш керак бўлади. Шуни ҳисобга олиб ўсмирларда ўзини-ўзи ҳиссий баҳолаш ва психологик ҳимоя имкониятлари ўртасидаги мутаносиблик билан боғлиқ ижтимоий психологик омилларни эмпирик жиҳатдан ўрганиш ва шартли равишда қабул қилинган мезонлар асосида унинг натижаларини таҳлил қилиш кўзда тутилган эди.

Яна шуни таъкидлаш жоизки, баъзан ҳар бир ўсмир, ўз ҳиссий табиати ва унинг фаолият самарадорлигига хизмат қилувчи психологик ҳимоя имкониятларига адекват баҳо бера олишга маълум маънода “ожизлик” қилиши мумкин. Бизнингча, бундай “ожизлик” замирида ҳиссий қониқмаслик, ҳиссий безовталик, ўз-ўзига нисбатан ноадекват ҳиссий тасаввурлар шаклланади.

Демак, таълим муассасаларининг раҳбарлари, мактаб ўқитувчилари, психологлари, синф раҳбарлари ва ота-оналар бу ҳолатни инобатга олган ҳолда таълим-тарбия ишларини тўғри йўлга қўйишлари талаб қилинади. Акс ҳолда экстремал вазиятларда шахснинг психологик ҳимоя имкониятлари пасайиб кетиши мумкинлигини қайд қилиш лозим.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Додонов Б.И. Эмоции как ценность. Москва. Наука, 1978. – 360 с.
2. Дубровина И.В. Общие вопросы организации и деятельности школьной психологической службы // Рабочая книга школьного психолога.-М.: Просвещение, 1991. Ч. 1. – С. 6-64.
3. Лупьян Я.А. Барьеры общения, конфликты, стресс. – Минск: Вишэйшая школа, 1986. – 206с.

4. Фрейд З. Психология бессознательного: Сборник. Произведние /Сост.и науч.ред. М. Т. Ярошевского.-М.: Просвешение, 1990.-448 с.

## СПОРТЧИЛАРДА ПСИХОЛОГИК МУҲОФАЗАНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

**Д.А. Собирова**
*БухДУ, Психология кафедраси доценти,*
**М.Б. Нусратова,**
*БухДУ, I курс магитранти*

Мамлакатимизда спортчиларнинг жисмоний ва руҳий уйғунликда камолотини, уларда психик барқарорлик ва иродавий сифатларни таркиб топтиришда спорт ва жисмоний тарбия, спорт мактаблари ва тўгараклари фаолиятини ошириш орқали таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Шахснинг психологик муҳофаза қилиш муаммоси ҳамиша инсоният олдида турган энг долзарб муаммолардан бири бўлиб келган. Спротчиларнинг ҳар жихатдан ижтимоий-психологик тараққиёти, шахс сифатидаги фаоллиги ва ўзини ривожлантира бориши жуда кўплаб омилларга боғлиқдир. Шу боис мамлакатимизда спортчиларнинг жисмоний-руҳий имкониятлари ривожлантиришган алоҳида эътибор берилмоқда. Спортчилар ўзларининг психологик имкониятлари, ютуқлари, камчилиликлари ҳақида етарли маълумотга эга бўлсалар, бу уларнинг мусобақага тайёргарлик кўриш ва мусобақа жараёнида учрайдиган ҳар қандай муваффақиятсизликларни бартараф этишга, ўз имкониятларидан кўпроқ фойдаланиш имконини беради.

Бугунги кунда бошқа мутахассислар қаторида психологлар ҳам спорт соҳасидаги мавжуд муаммоларни ўрганиб келмоқда. Спортчиларнинг психологик хусусиятини ўрганиш, мураббийларнинг бу борадаги қобилиятини ошириш, спортчини ёки жамоани руҳан қўллаб-қувватлаш, машғулотлар жараёнидаги қийинчиликларни енгиб ўтишга ёрдам берадиган психологик муносабатни ривожлантириш, стрессни енгиллаштирувчи воситалар ишлаб чиқилмоқда ва амалга қўланилиб келинмоқда. Бу ўз навбатида, мусобақаларда иштирок этишда, захирадан катта спортга ўтишда юзага келадиган жиддий психологик муаммоларни бартараф этишга ёрдам беради. Мазкур муаммони ўрганишга бағишланган адабиётларни таҳлил қилар эканмиз, улардаги психологик мухофаза методологиясига тааллуқли айрим умумий жихатларни ижтимоий-психологик нуктаи назаридан тадқиқ қилишимизга тўғри келади. Олиб борилган тадқиқотлар таҳлили шуни кўрсатадики, шахснинг психологик мухофазаси учун мухим бўлган назарий-илмий айрим жихатлари ўрганилган.

Машҳур спортчи А.П.Пунинниг олиб борилган тадқиқотларига кўра, тайёргарликни спортчининг психик ҳолати сифатида аниқлайди, ўз навбатига

ўзига ишонч, охиригача курашишга интилиш ва ғалаба қозонишни хоҳлаш, сезиларли даражада эмоционал барқарорлик, ўзининг ҳаракатларини, кайфияти ва ҳисларини бошқаришни билиш, мақсадга эришиш учун бор куч ва имкониятини қўллай олиш жараёнидир.

Спортчини мусобақага психологик тайёрлашда қуйидагиларга амал қилиш лозим.

Рақиблар ва келгуси мусобақаларнинг ижтимоий шарт-шароитлари тўғрисида етарли ва аниқ маълумотларни йиғиш муҳим аҳамият касб этади.
Спортчининг имкониятлари, уларнинг қай даражада машқ қилганлиги тўғрисидаги маълумотларни ўрганиш, таҳлил қилиш ва мусобақа бошлангунга қадар уларни ўзлаштириш талаб қилинади.

Спортчиларнинг мусобақада қатнашишдан мақсадини аниқлаш ҳам муҳим омил ҳисобланади.

Спортчиларда ўз-ўзига ишонч ҳосил қилиш учун машғулот жараёнларида руҳий ва жисмоний жиҳатдан тайёргалик кўриш муҳим вазифа саналади. Қатъиятсиз, ташаббуссиз ва ўз кучига ишонмаган спортчи учун кучсизроқ ёки озгина кучлироқ ва моҳир шерик билан ёки ўқув беллашувида яхши тайёрланган ва юқори малакали, мураббий томонидан ўз шериги учун “ишлаш”вазифаси берилган спортчи билан машғулот олиб бориш фойдалидир. Шунингдек, баъзида шартли беллашувларда шериклари учун бир нечта тенг аҳамиятга эга бўлмаган шароитлар яратиш керак. Бунда кучли спортчи бошқа спортчига кўпроқ вазифа олади. Руҳий ва жисмоний тарбия шахсни шакллантириш тизимининг узвий қисмидир. Ўсиб келаётган ёш авлоднинг руҳий ва жисмоний соғлиги ҳақида ғамхўрлик, уларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш, жисмоний маданият ва спорт билан мунтазам, мустақил шуғулланиш кўникмаларини сингдириш тарбиявий жараённинг ажралмас қисми ҳисобланади.

Кузатишлар ва тажрибалар шуни кўрсатадики, кўпчилик спорт мураббийлари спортчиларга чалғиш, ўз диққатини бошқариш, ўзини қўзғатиш, қийин ҳаракатни бажариш учун иродавий зўр бериш, хотиржамлик, бўшаши ҳисларини ва ўзини бошқаришни ўргатмайдилар. Ҳар бир шахсни спорт фаолиятдаги муваффақиятсизликларга нисбатан муҳофазаланиш (химояланиш) механизми сифатида ҳар бир шахс учун характерли бўлган индивидуал услуб мезонларини ишлаб чиқиш ва ундан психологик хизмат жараёнида қўллаш муҳим ҳисобланади.

Психологик муҳофазанинг муҳим компоненти ҳисобланган шахс индивидуал фарқланиш муаммоси рус психологи К.К.Платонов тадқиқотларида илмий жиҳатдан ўрганилган. К.К.Платоновнинг психологик мухофаза ўз-ўзини адекват баҳолаши ва ўзини ривожлантиришга асосланган шарт-шароитларни яратиш билан камол топтириш муқаррарлигини илмий жиҳатдан асослаб берган.

Спортчиларда ўз-ўзини ҳимоя қилиш қоидалари:

1. Ҳар қандай фаолият учун психологик ҳимоя жуда муҳим ҳисобланади.

Шахсни ҳимоя қилувчи психологик механизм муваффақиятсизлик

ҳақидаги фикрлар, мусобақа жараёнида кутилмаган вазиятларда фаоллаштирилган инсоннинг "Мен"лигини намоён этиш;
2. Психологик муҳофазанинг индивидуал хусусиятларининг намоён бўлиши малакали спортчиларнинг жинсига, ёшига ижтимоий-психологик фазилатлари ва уларнинг когнитив жараёнларига боғлиқ тарзда шаклланади;
3. Шаклланиш даражаси, барқарорлик, мослашувчанлик, ўзгарувчанлик ва спортчиларда психологик ҳимоянинг самарадорлиги уларга боғлиқ спорт маҳоратининг даражаси ва тактик фикрлаш қобилияти муваффақиятга интилиш ёки рақобатда муваффақиятсизликка йўл қўймаслик.

Спортчиларнинг жисмоний фаоллигини чеклайдиган омилларни ўз вақтида аниқлаш, ушбу омилларни бартараф этиш ва тузатиш усулларидан тўғри фойдаланиш спортда юқори натижаларга эришишга ва спортчининг соғлиғини сақлашга ёрдам беради. Спортчиларга турли хил машғулотлар тайинлашда ҳар доим индивидуал хусусиятларни, интеллектуал қайта ишлаш даражасини ва асаб барқарорлигинг типологик хусусиятларини ҳисобга олиш керак. Бу эса, спротчиларда психологик мухофаза жараёнининг бугунги кундаги айрим долзарб жихатлари, муаммолари ва унинг ечимлари ҳақида уйлашга, фикр мулоҳаза юритишга ва келажакдаги муҳим вазифаларини белгилаб олишга ёрдам беради.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Фетискин Н.П., Козлов В.В., Мануйлов Г.М. Социально-психологическая диагностика развития личности и малых групп.– М.: Изд-во Института Психотерапии, 2002.
2. Мухторов Э.М. Ўсмирларда ўз-ўзини психологик муҳофаза қилиш ҳақидаги тасаввурларни шакллантиришнинг илмий-амалий асослари: Психол. ф.н......дис.- Б.: 2008.
3. Хьелл, Л. Теории личности / Л.Хьелл, Д.Зиглер. – Питер: Санкт-Петербург. 1997.

## БОЛА ШАХСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ

**Ш.Р. Баротов,**
*Психология фанлари доктори, профессор,*
**Ф.Х. Ҳакимова,**
*БухДУ, I курс магистранти*

Маълумки, оила – ижтимоий-тарихий белгига эга бўлган муайян тузилишли ижтимоий гуруҳнинг кўриниши. Чунончи, унинг аъзоларини

қариндош-уруғчилик, никоҳ, турмуш шароити бирлиги, одоб-ахлоқ умумийлиги, маънавий эҳтиёж мослиги каби алоқалар боғлаб туради.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Биз учун муқаддас бўлган оила асосларини янада мустаҳкамлаш, хонадонларда тинчлик-хотиржамлик, аҳиллик ва ўзаро ҳурмат муҳитини яратиш, маънавий-маърифий ишларни аниқ мазмун билан тўлдиришдан иборат бўлмоғи зарур”.

Дарҳақиқат, асрлар давомида ўз эътирофини топган ва диний-ахлоқий қадриятлар даражасига кўтарилган оилавий муносабатларда ҳалол яшаш, меҳнат қилиш, фарзанд тарбияси ижтимоий ҳаёт тарзини ривожлантириш манбаидир. Шарқона тарбияда шахснинг умуммаданий дунёқарашининг шаклланиши асоси оиладан бошланади.

Инсон фарзанди ота-онадан генетик мерос олади. Унга аждодлари генофонидан ҳам улуш тегади, албатта. Буни ҳаётшунослар ирсият, дейишади. Ёруғ оламга кўз очган дилбандлар дастлаб олий даражадаги моддий қадриятлар ҳисобланмиш ҳаво, она сути, сувдан баҳраманд бўладилар. Сўнгра шахс камолотини рўёбга чиқишига асос бўладиган ҳамда уни таъминлайдиган муҳим омиллардан бири оилавий тарбия омили бошланади.

Доно халқимиз “Бола азиз одоби ундан азиз ” деган нақлни бежиз айтишмаган. Модомики шундай экан, ёш авлодни таркиб топтириш, тарбиялаш ишини ёшликдан, оилада бошлаш керак. Таниқли маърифатпарвар бобомиз Абдулла Авлонийнинг “Тарбия биз учун ё ҳаёт - ё мамот, ё нажот - ё ҳалокат, ё саодат - ё фалокат масаласидир” деган чуқур маъноли сўзлари нақадар ҳақиқат эканини яхши англаймиз. Тарбия масалаларига эътиборсиз қаралган вазиятда юзага келадиган кўнгилсизликлар ҳам, у келтириб чиқарадиган зарарли оқибатлар ҳам барчамизга аён.

Бинобарин, оиладаги тарбия жараёнида ҳар дақиқа ва фурсатни қўлдан бой мериш орқали ота-оналар кейинчалик кўпгина қийинчиликларга дуч келадилар. Ахир, нотўғри тарбия туфайли нафс балосига гирифтор бўлган, ўн гулидан бири гули ҳам очилмай туриб умри хазон бўлган ва бўлаётган ёшлар камми?

Исломда бола тарбияси ота-онанинг энг масъулиятли ва узоқ давом этадиган бурчларидан бўлиб ҳисобланади. Бошқа бурчлар баъзи ишларни қилиш ёки мулкни сарфлаш билан охирига етади. Аммо тарбия масъулияти бардавом бўлади. Тарбия бир нарсани аста-секин камолига етказишдир. Зотан, ота-онанинг фарзанд неъматига ҳақиқий шукрлари ҳам айнан тарбия масъулиятини шараф билан адо этиш орқали юзага чиқади ва бунда болага одоб ўргатиш, таълим ва жисмоний тарбия бериш кабиларга эътибор қаратиш лозимдир.

Ёш авлод шахсини шакллантиришда оилавий муносабатларнинг, яъни оиланинг маънавий дунёсини такомиллаштириш учун унга зарур руҳий хотиржамлик, ибратли руҳий муносабат, ўзаро тотувлик яратилган бўлиши

зарур. Оилавий муносабат – яъни ота-оналар ўртасида ўзаро муносабатда ҳамжиҳатлик, меҳр-оқибат, ўзаро ҳурмат, ширинсуханлик, бир-бирига ғамхўрлик бўлса бундай муоамала-муносабат бола тарбиясига ижобий таъсир қилади. Улар ўз фарзандларига чинакам ва қувонч ҳадя этадилар.

Оила аъзоларининг дид-фаросати, қизиқиши, майллари, эҳтиёжлари, интилишлари ўзаро бир-бирига муносиб бўлса, оиланинг иноқ, аҳил турмуш кечиришларига, оилавий муносабатларнинг мустаҳкам бўлишига пухта замин тайёрлайди.

Муайян даражада шарт-шароитларнинг мавжудлиги, ота-оналарнинг бир-бирларини тушуниб турмуш кечиришлари, мақсад ва вазифалардаги бирлик, юзага келган зиддиятларни биргаликда бартараф эта олишлари мустаҳкам оила муҳитини шакллантиради. Натижада эса, ёш авлоднинг мукаммал шахс – комил инсон бўлиб шаклланишида ижобий роль ўйнайди.

Дарҳақиқат, инсон шахсини шакллантириш оиладан бошланади. Хусусан болада ирода, одатлар, феъл-атвор, атрофга муносабат, эътиқод ва қарашлар вужудга келади.

Ана шулардан келиб чиққан ҳолда инсонни камол топтириш шароитлари, таъсир кўрсатиш имкониятларини изчил ўрганмай туриб, боланинг ёш хусусиятлари, ижтимоий ва табиий омиллар тўғрисида фикр юритиш мумкин эмас.

Ота-оналар болаларнинг ёш психологик хусусиятларни яхши билишлари керак. Масалан: 4-6 ёшида болада ташқи муҳит таъсирида қандай ўзгариш рўй беради?! Ёки 11-12 ёшли болаларнинг хатти-ҳаракатида кескин ўзгаришни кузатамиз, баъзи ота-оналар “Фалончи билан уришиб келди”, “Қайсар бўлиб қолди”, “Бир гап гапирсангиз, унта қайтаради” каби ҳакоза гаплар қулоҳимизга чалинади.

Бу ёшдаги аксарият болалар улғайишганини, мустақил бўлишганини, қўлларидан кўп нарса келишини кўрсатишга ҳаракат қилишади. Шундай экан, ҳар бир болани ёш хусусиятларига эътибор олган ҳолда тарбияламоғимиз лозимдир.

Оила “миллат шарафини” юқори мартабага кўтарадиган замину восита ҳисобланади. Оилада фарзандлар туғилади, ўзига хос хусусиятлари, инсоний фазилатлари вужудга келади, шахс шаклланади. Оила ва оилавий муносабатлар маданияти ҳам шахснинг, ёш авлоднинг умуммаданий-маънавий дунёқарашининг шаклланиши ҳам ривожланишига таъсири муаммосини илмий таҳлил қилиш қатор фанларнинг ўрганиш объекти бўлиб келмоқда. Ўз навбатида оилавий муносабатлар маданияти шахс камолотига таъсир этувчи биринчи омил бўлиб, оилавий муҳитнинг ҳам жисмонан ҳам маънан соғлом бўлиши жамият тараққиётига, ундаги мавжуд муаммоларни ҳал этишга ижобий ёки салбий таъсир этмасдан қолмайди.

Одамзот учун бир умр зарур бўладиган табиий кўникма ва хусусиятлар, масалан, ҳар қайси боланинг ўзига хос ва ўзига мос қобилияти, атрофидаги одамлар билан муомаласи, тенгдошлари орасида ўзини қандай ҳис қилиши, етакчилик хислатларига эга бўлиши ёки эга бўлмаслиги, керак

бўлса, дунёқараши – буларнинг барчаси, аввало унинг туғма табиати, шу билан бирга оилада оладиган тарбиясига узвий боғлиқ эканини ҳаёт тажрибаси кўп мисолларда тасдиқлаб беради. Оила ана шундай бебаҳо тарбия маскани, инсонни шакллантирадиган, уни улғайтириб, келажакда ким бўлишини таъминлаб берадиган институт десак, асло муболаға бўлмайди. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, ота-боболаримиз, момоларимиз ўзларидан кичикларга ҳам, ҳатто жажжи болакайларга ҳам сен деб эмас, Сиз деб мурожаат қилишган.

Ёш фарзандларга нисбатан алоҳида иззат-эътибор намуналарини кўрсатишган. Болажонларнинг кўнглини чўктириш ёки уларни тез-тез хафа қилиш кабиларга қарши каттиқ курашган. Ҳатто, бир ёш боланинг кўнглига тегиш, сазасини, хоҳишини ўлдиришни бир шаҳарни вайрон қилиш каторида қўйишган. Ўсиб-униб келаѐтган ёш, навниҳол фарзандларга нисбатан бундай иззат-икром аждодларимизнинг оила маънавиятига, болалар тарбиясига қанчалик катта эътибор қаратганлигидан далолат беради. Ҳаммамизга яхши маълумки, фарзанд тарбияси масаласи азал-азалдан долзарб аҳамиятга молик иш бўлиб келган. Негаки, фарзанд – авлод давомчиси, айни пайтда, ота-онанинг қувонч-у ташвиши, агарда яхши бўлса, фахри ва бахтидир. Агарда ёмон бўлса, ота-онанинг кўргулиги ва фожеасидир. Шу нуқтаи назардан қараганда, фарзанд тарбияси ҳар бир ота-онага муҳим ва ҳал қилувчи вазифалар юклайди.

Демак, ота-она фарзандни моддий таъминлабгина қолмай, уни ҳар томонлама етук, соғлом, ақлли ва баркамол қилиб тарбиялаши ҳам керак. Бунинг учун ота-оналар педагогика-психология фани, тарбия усуллари ва болалар психологиясини ҳам яхши билишлари лозим.Чунки тарбия мураккаб жараён бўлиб, у одамдан чуқур билим, тажриба ва айни пайтда, ҳар бир индивидга нисбатан турли-туман ёндашувларни талаб этади. Сабабики, ҳарбир бола ўзига хос қобилият, характер, лаёқат ва сифатларга эга бўлади. Уларнинг ҳар бири бир олам бўлиб, ота-онадан ўзига хос тарбия усулларини талаб қилади.

Хулоса қилиб айтганда, оиланинг зиммасига улкан ва зарур ижтимоий вазифа юклангандир. Бола тарбияси энг оғир ижтимоий вазифа эканлиги аёндир. Ота ва онанинг шахсий ва ижобий намунаси солиҳ ва солиҳа фарзандларнинг камолга етиши учун гаровдир. Остона ҳатлаб ташқи дунёга қадам қўйилганида эса болага атроф-муҳит ва жамоатчиликнинг таъсири сезиларли бўлади. Таълим муассасалари ва маҳалла-куй, умуман, ижтимоий сфера муҳити инсон фарзандини то ҳаётининг сўнги дақиқасигача таъқиб қилиб боради. Шу боисдан, оилавий муносабатларда шахснинг умуммаданий дунёқарашини шакллантиришга эришиш, нафақат шахсий ҳаётда, балки, мамлакатимизда юз бераётган ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар ва уларнинг тараққиёти жамиятнинг руҳий ва маънавий такомилида ҳам муҳим ўрин тутади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. А.Авлоний Туркий гулистон ёхуд ахлоқ (тошкент 1992й )

2. Ш.М.Мирамонович “Миллий Тарақиёт йўлимизни қатият билан давом эттириб,янги босқичга кўтарамиз ”(Тошкент Узбекистон 2019й).
3. Ш.М.Мирамонович “Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир”(Тошкент Узбекистон 2018й)
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф “Бахтиёр оила”(Ҳилол нашр тошкент 2019й)
5. Э.Ғозиев Ёш даврлар психологиси (Тошкент 2010 й)

## YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

**D.A. Sobirova,**
*BuxDU, Psixologiya kafedrasi dotsenti,*
**M.M. Nazarova,**
*BuxDU, II bosqich magistranti*

Bugungi kunda yosh avlodga zamonaviy ta’lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongi va qalbini mafkuraviy, ma’naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g‘oyaviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasi davlatimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori, avvalo, yoshlarimizning qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalangan, ma’naviyati yuksak, odobli, barkamol insonni voyaga yetkazish har bir ota-ona, tarbiyachi va jamoatchilikning muqaddas burchidir. Bu vazifani to‘laqonli ado etishda milliy qadriyatlarimizning o‘rni beqiyosdir.

Dastavval “qadriyatning o‘zi nima?” degan savolga e’tibor qaratsak. Bunga birdaniga bir so‘z bilan javob berib bo‘lmaydi. “Qadriyat” atamasi bizga arabcha “qadr” so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, bugungi kunda bu tushuncha borliq va jamiyatdagi biror-bir narsa va hodisaning kishilar o‘rtasidagi, o‘zaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatini ifoda etishi uchun qo‘llanilmoqda. Qadriyat deganda ehtiyoj va manfaatlarini qondiruvchi jamiki moddiy hamda ma’naviy ne’matlar tushuniladi. Qadriyat–voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Barcha holatlarda qadriyat o‘zida ezgu niyatlar, maqsadlar va intilishlarni namoyon etadigan, millatning ma’naviy yetukligini ko‘rsatib turadigan mezonlardan sanaladi141. Insoniyat tamadduni taraqqiyot bosqichlari tajribalarini

[141] M.M.Mamatov. “Etnopsixologiya”. – T.:1999

oʻzida mujassam etgan, eng ezgu tuygʻularga yoʻgʻrilgan va komillik sari daʼvat etuvchi maʼnaviy-ruhiy tushunchalar qadriyatlar darajasiga koʻtariladi. Mana shu hayotda yashashimiz, tinch va osuda hayotimiz, bayramlarimiz, udumlarimiz, mehrliligimiz, folklorimiz, oʻyinlarimizning barchasi ezgu va azaliy qadriyatlar sanaladi. Ularda bizning oʻzligimiz, xalqimizga xos eng muhim xususiyatlar boʻrtib turadi. Bu qadriyatlarni asrab-avaylashimiz, rivojlantirishimiz, yangi ijtimoiy mazmun bilan boyitib borishimiz, kelajak avlodlarga yetkazishimiz zarur. Qadriyatlar har doim insonlarni mehr-oqibatga, oʻzaro hamjihatlikka chorlovchi, asrlardan-asrlarga oʻtib xalq turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan moddiy va maʼnaviy jarayonlarning sara namunalaridir. Zero, qadriyat bu–millatning oʻtmishi, buguni va kelajagini belgilab beruvchi muhim omildir. U muayyan bir xalq turmush tarzi, ijtimoiy taraqqiyotida asrlar davomida shakllanadi va sayqal topadi. Mana shunday takomil topgan oliy qadriyatlar millatning oʻziga xosligini, mentalitetini namoyon etadi. Oʻz milliy qadriyati boʻlmagan millat yoki elat yoʻq. Milliy qadriyatlar millatning yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, maʼnaviyat hamda madaniyat bilan uzviy bogʻliq holda namoyon boʻladi. Demak, ular muayyan bir millat, elat va xalq hayoti, turmush tarzi, ularning oʻtmishi, kelajagi va yashayotgan ijtimoiy muhiti bilan bogʻliqdir. Milliy davlatchiligimiz poydevori barpo etilayotgan hozirgi sharoitda milliy qadriyatlarning oʻrni har qachongidan ham ortib bormoqda. Koʻp asrlik tarixga ega oʻzbek xalqining shunday qadriyatlari borki, ularni boshqa biror xalqniki bilan qiyoslab boʻlmaydi. Milliy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlarinikiga oʻxshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va anʼanalardagi oʻziga xoslikni koʻrish mumkin. Mana shu qadriyatlar necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, toʻfon va boʻronlardan sogʻ-omon asrab kelmoqda.

Komil insonni tarbiyalashda qadriyatlarning oʻrni beqiyosdir. Jamiyatning asosiy negizi boʻlgan milliy qadriyatlar inson ongida axloqiy tarbiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan vijdoni pok, iymoni butun, sofdil, vatanparvar, xalqsevar, mard, har tomonlama sogʻlom, intellektual salohiyatli, bir soʻz bilan aytganda, sogʻlom avlodni tarbiyalash davr talabi ekan, bu ishni amalga oshirishda yoshlarimiz tarbiyasiga boʻlgan eʼtiborni kuchaytirish va bu jarayonda milliy qadriyatlarning taʼsirini yanada oshirmoq lozimdir. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va anʼanalar xalq maʼnaviyatini boyituvchi muhim omil ekanligi haqida gapirib, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildirib oʻtgan edilar: “Har qaysi xalq yoki millatning maʼnaviyatini uning tarixi, oʻziga xos urf-odat va anʼanalari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib boʻlmaydi142”. Oʻz milliy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini teran anglagan, uni eʼzozlagan, asrab-avaylagan, undan faxrlana oladigan kishi chinakam xalqparvar, millatparvar sanaladi. Oʻzbekiston Respublikasining istiqbolli taraqqiyoti bugungi kunda yosh avlodning har tomonlama mukammal darajada shakllanishiga bogʻliqdir. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash

[142] I.A.Karimov.”Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch”-T.:2008

muammosi psixologiyada eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalani ilmiy-amaliy jihatlarini oʻquvchilarda oʻrganish va tarbiyalash yoshlarda huquqiy-psixologik bilimlarni zamon talablari asosida rivojlantirish imkonini beradi. Bugun yoshlarimiz qanday qadriyatlar sari intilmoqda, qanday niyat, orzu, oʻy–xayollar bilan yashamoqda, biz bunga aslo loqayd va befarq qaramasligimiz kerak. Ota-ona, ustoz, murabbiy, yetakchi-rahbar sifatida bu jarayonni chetdan turib kuzatib turishga haqqimiz yoʻq. Oʻzini haqiqiy pedagog, murabbiy–ustoz deb bilgan har bir ziyoli kishi ta’lim-tarbiya maskanida faoliyat yuritar ekan, demakki, shu yerda tahsil olayotgan har bir bolaning tarbiyasida, ma’naviy olamining shakllanishida bevosita mas’uldir. Odob-axloq, ta’lim-tarbiya sohasidagi qadriyatlarimiz bizlar uchun faqat milliy merosgina emas, balki, insoniyat ma’naviy hayoti borasida katta oʻrin olishi mumkin boʻlgan ma’naviy boylik hamdir. Ana shu milliy qadriyatlarimizni tiklash, ulardan toʻla bahramand boʻlish, yosh avlodni ular bilan tanishtirish mustaqilligimizni mustahkamlashda, odamlarda insonparvarlik, vatanparvarlik singari fazilatlarni qaror toptirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv zamonida milliy oʻzligimizni saqlash, farzandlarimizga milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiya berish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotganiga e’tibor qaratsak, har bir yosh avlod taqdiriga befarq boʻlmasdan, bu jarayonga oʻzimizning faol hissamizni qoʻshsak, kelajakda ularning yurt koriga yaraydigan, mard, jasur, oliyjanob, mehr-oqibatli, har tomonlama mukammal farzandlar boʻlib voyaga yetishiga guvoh boʻlamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov.”Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”-Toshkent:2008 yil.
2. M.M.Mamatov. “Etnopsixologiya”. – Toshkent:1999 yil.
3. Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbayeva, D.X.Umirzoqov- “Oʻquvchilarning milliy xususiyatlarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari”-Toshkent:2018 yil.

## SPORTCHILARDA HISSIY-IRODAVIY SIFATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSSIYATLARI

**Sh.R. Barotov,**
*Psixologiya fanlari doktori, professor*,
**Sh. Salixov,**
*Psixologiya mutahassisligi II bosqich magistranti*

Insonni hayotga yoki biror faoliyat sohasiga tayyorlash hayotining oʻzi kabi rang-barang, keng qamrovli, murakkab, koʻp bosqichli jarayon boʻlib, turli usullar, vositalari yordamida amalga oshiriladi. Masalan, oʻquvchini oʻqishga va mehnatga tayorlash, harbiy askarni texnik, taktik va irodaviy tayorgarlik sifatlarini rivojlantira borib, jismoniy, ruhiy, siyosiy jihatdan ogʻir sharoitlarda jongovar mashqlarga, ona-Vatanni himoya qilishga tayorlash koʻp bosqichli, turli xil usullar vositasida amalga oshiriladigan qiyin va qizgʻin ijodiy-tarbiyaviy jarayondir.

Shuningdek, o‘quv, tarbiyaviy va amaliy faoliyatda sportchilarni jismoniy mashqlarga hamda sport musobaqalariga ruhan tayyorlash, musobaqaga g‘alaba qilishga, yangi rekordlar o‘rnatishga yo‘llash usullari ham rang-barangdir. Sportchi yoki komanda a’zolarinng sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishi, birinchi navbatda, ularning ma’naviy, mafkuraviy, irodaviy, jismoniy, texnik, taktik tayyorgarligiga bog‘liq. Sport amaliyotida bo‘lajak musobaqalarga psixologik jihatdan alohida tayyorgarlik ko‘rgan sportchilarning ko‘pincha g‘alaba qozonishi ilmiy isbotlangan. Demak, sport mutaxassislari va murabbiylar sportchilarni musobaqaga psixologik jihatdan tayyorlashga alohida e’tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ulardan sportchining musobaqaga ruhan tayyorlash bosqislarini nazariy va amaliy jihatdan puxta bilishlari talab qilinadi. Sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib. Sportchilarni musobaqaga psixologik tayyorlashni quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

- sportchilarga raqibi va bo‘lajak musobaqalarning shart-sharoitlari haqida yetarlicha ma’lumotlar berib borish;
- sport mashg‘ulotlari va musobaqalar haqida olingan ma’lumotlarni tekshirib ko‘rish, ishonchlilik darajasini aniqlash, musobaqaning boshlanish vaqti yoki kutilmagan o‘zgarishlarning alohida sportchilar yoki komandaga g‘alaba keltirish imkoniyatlarini o‘rganish;
- sportchilarga musobaqada qatnashishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalarni aniq belgilab olishlari haqida ko‘rsatmalar berish;
- sportchining musobaqaga ishtirok etish sababi, mohiyati va aniq maqsadini aniqlash, g‘alabaga erishishning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish;
- sportchining bo‘lajak musobaqa jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, aqliy sifatlarini oshirishga e’tibor berish, musobaqaga taktik va texnik jihatdan ruhiy tayyorgarligini takomillashtirish;
- sportchini musobaqaga ruhan tayyorlash maqsadida kutilmagan maxsus to‘siqlar vujudga keltirish, ularda bu to‘siqlar va qiyinchiliklarni yenga oladigan malaka va ko‘nikmalar hosil qilish uchun qo‘shimcha mashg‘ulotlar uyushtirish;
- sportchiga musobaqa jarayonida paydo bo‘ladigan ichki ruhiy holatni boshqarish uslublaridan foydalanishni o‘rganish;
- sportchini musobaqaga boshlanishida ruhiy ko‘tarinkilikka, asab tizimi faoliyatini boshqarishga, ruhan charchamaslikka odatlantirish hamda musobaqa jarayonida yanada faol harakat qilishga erishishga undash.

So‘nggi yillarda respublikamiz sportchilari erishayotgan natijalar yuqorilab bormoqda. Shundan ko‘rinib turibdiki, inson imkoniyatlari cheksiz. Sportchi faqat ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘zining ruhiy, jismoniy imkoniyatlarini safarbar qilish yo‘llarini bilishi lozim. Sportchilarda bunday bilib, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, mutaxassislar, o‘qituvchilar va murabbiylarning doimo diqqat markazida bo‘lishi shart. Ular sportchilarni jismoniy mashq va sport musobaqalariga psixologik tayyorlashning tavsiya etilayotgan quyidagi uslublaridan foydalansa, shogirdlari yanada yuqoriroq natijalarga erishishlari mumkin.

Sportchi diqqatini boshqarish. Sport kuchli hayojonda bo‘lganligi bois, musobaqa jarayonida sodir bo‘layotgan ko‘pgina voqyea va hodisalarning kelib chiqish sabablarini diqqat bilan aqlan hal qilishga kutilmagan qiyinchiliklarga uchraydi. Masalan, ayrim sportchilar balandlikka sakrashda langarcho‘p orqali balandlikka ko‘tarilishi natijasida hayajonlanish, bezovtalanish, tashvishlanish holatini oshirib yuboradi. Natijada ularda fikrini bir nuqtada to‘plab, uni aniq bir obektga yo‘naltirishda ishonchsizlik bilan harakatlanish holati sodir bo‘ladi. Shuningdek, bokschi ketma-ket zarbani qo‘yib yuborishi sababli, hujumdan ko‘ra ko‘proq himoyaga o‘tadi va unda diqqat bilan turli xil jangovar usullardan yaxshiroq foydalanish holatlari pasayib ketadi, jang olib borishda raqibining zaif himoya usullarini aniqlash harakatlari susaydi, raqib imkoniyatlari, harakatlari to‘g‘risida vaqtida yetarli ma’lumot ololmaydi, aniq vaziyatni hisobga olib fikran jang rejasini tuzishda, mustaqil bir qarorga kelishda qiynaladi. Shuning uchun sportchilar bilan diqqatni murakkab vaziyatlarda ham aniq zaruriy obyektga to‘plash va yo‘naltirishga yordam beradigan har xil mashqlar o‘tkazish orqali ularda o‘z diqqatini boshqarish malakalarini rivojlantirish zarur.

Hissiy obrazlar vositasida fikrlash. Sportchi bu uslub yordamida bo‘lajak musobaqada o‘z harakatini xayolan obrazlar vositasida tafakkurida mushohada etib, fikran tasavvur etadi, mashq qiladi. Natijada sportchi xayolan mashq qilgan harakatlarini musobaqa jarayonida (amalda) tez, shiddatli, yuqori darajada aniq bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘z harakatlarining boshlanish, o‘rta va keyingi qismlari izchilligini saqlagan holda bir necha obrazlarda xayolan takror va takror ishlab chiqadi. Sportchi fikran oddiy hissiy obrazlardan murakkab obrazlarga o‘tadi. Bu obrazlar real hayotda, sport amaliyotida (jismoniy mashqlar va musobaqa jarayonida) kuzatilgan, orttirilgan tajribalarga ko‘ra mushohadalar natijasida yuzaga keladi. Jumladan, qachondir qozonilgan g‘alaba, o‘rnatilgan yangi rekord yoki muddatidan oldin o‘z raqibi ustidan qozonilgan g‘alaba to‘g‘risidagi turli aniq-tiniq obrazlar yordamida fikran mashq qilish ham sportchining musobaqalarda g‘oyat aniqlik bilan harakat qilishini ta’minlaydi.

Ta’sirli so‘zlar orqali o‘zini ishontirish. Sport mashg‘uloti va musobaqa jarayonida murabbiy va boshqa kishilarning ta’siri so‘zlari yordamida ham sportchilarda dadil harakatlanish holati vujudga keladi. Sportchi sha’nini ulug‘laydigan, olqishlaydigan, faol harakatga undaydigan ta’sirli so‘zlar uning ruhini ko‘taradi, tetiklashtiradi. Natijada sportchi o‘zini bardam tutib, raqibiga bo‘sh kelmay, qat’iy harakat qiladi, g‘alaba qilishga intiladi. Chunki ta’sirli so‘z asab tizimiga ijobiy ta’sir etib, organizmida psixofiziologik o‘zgarishlarni vujudga keltiradi. Bu holat miyaning tormozlanish va qo‘zg‘alish qonuniyatlarga muvofiq miya katta yarim sharlar po‘stlog‘idagi to‘qimalarda bo‘ladigan muayyan o‘zgarishlar natijasida sodir bo‘ladi. Shuningdek, sport jismoniy mashg‘ulotlar va sport musobaqalari jarayonida faol qo‘llaydigan zarur harakatlarni xayolida fikran takrorlaganida ham uning miyasida funksional o‘zgarishlar vujudga keladi. Sportchi so‘zlar yordamida o‘zini-o‘zi ishontirish paytida uning organizmida birmuncha o‘zgarishlar paydo bo‘lgani seziladi: o‘zini tetik his qiladi, harakatlarni yengil bajaradi, muskullari bo‘shashadi, unda ishchanlik darajasi qaytadan

tiklanadi. Akademik I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, so'z ikkinchi signal tizimidagi eng muhim unsur hisoblanib, insonning yurish-turishi va xulq-atvorining oliy boshqaruvchisi hamdir. Chunki inson o'z faoliyati, muayyan holati yoki xulqini tashkil etishida, qiyin sharoitlarda o'ziga-o'zi buyruq berganida, gapirganida asab tizimida bo'ladigan fiziologik o'zgarishlar pasayishi yoki ko'tarilishi mumkin. Sportchi o'ziga-o'zi fikran gapirganida so'zlar qisqa va oddiy bo'lishi lozim. Masalan, nafas olinayotgand birorta so'z talaffuz qilinsa, nafas chiqarganda boshqa sekin aytiladi. Shu tartibda talaffuz qilinadigan har bir so'z zarurligiga qarab, 2-3 marta yoki undan ko'proq tarorlanishi mumkin.

Sportchi tana-muskul harakati yoki birorta a'zosining jismoniy faollik darajasini oshirishda yoki nafas olishni to'g'ri boshqarishda o'ziga-o'zi gapirib va buyruq berish uslublaridan foydalanishi mumkin.

Muskullarning faollik darajasini boshqarish. Sport faoliyati jarayonida sportchining o'z muskullari faolligini boshqarishi hozirgi zamon «autogen» mashg'ulotining asosiy vazifasidir. Tana muskullarining harakatchanligini oshirish sportchidan maxsus malaka va ko'nikmalarni talab etadi. Sportchi barcha mushak, tana muskullarini bo'shashtirishda autotrenong uslubidan foydalanadi.

Sportchi muskullarini bo'shashtirganida, taranglikni zaiflashtirganida, organizmida ruhiy va jismoniy ishchanlik holati tiklanadi. Ayrim sportchilar yugurganida yoki jismoniy mashqlar bajarganida muskullarini tarang ushlashga odatlanib qoladi. Agar sportchida bunday holat uzluksiz takrorlanaversa, u hyech qachon maromiga yetkazib dam ololmaydi. Hatto, sportchi uxlaganida ham uning muskullari tarang holatda bo'ladi. Bunda sportchilarda asabiy zo'riqish holati tezlashadi, bu holat ular organizmida funksional kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun murabbiylar shogirdlariga yugurganida, jismoniy mashqlar bajarganida, dam olganida, uxlashga yotayotganida, tana mustakullarini bo'shashtirish mexanizmlarini o'rganishlari zarur.

Nafas olish ritmi (marosi)ni boshqarish. Sport faoliyatida sportchilarga to'g'ri nafas olish mashqlarini bajarishni o'rgatish yordamida ulardagi ruhiy tayyorgarlik darajasini o'stirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Sportchining nafas olish ritmi (marosi)ni quyidagi 3 davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq: 1) nafas olish; 2) nafas chiqarish; 3) to'xtab nafas olish.

Sportchi nafas olganida ruhiy faolligi o'sadi, nafas chiqarganida muskullari bo'shashadi, ya'ni organizmi tinchlanadi. Sport mashg'uloti va musobaqalarda tez-tez nafas olish, nafasi cho'zib chiqarish, nafas olish jarayonida sportchining asab tizimida va butun organizmida ishchanlik va ruhiy faollik darajasi o'sadi, sportchida ruhan faol harakat qilish imkoniyatlari oshadi.

I.G.Shuls «autogen» mashg'ulotiga 6 ta standart mashqlarni kiritgan edi. Biz bu mashqlarni sport mashg'ulotlari va musobaqalar jarayonida foydalanishga moslashtirdik. Mashqlarni yotgan holda (yelkada yotgan holatda qo'llar tirsakdan bukiladi, oyoqlar bir-biriga tegmasdan ochiq va erkin tinch holatda bo'ladi) yoki qulay vaziyatda o'tirgan holatda ham bajarish mumkin. Mashq qilib yurgan odam tashqi taassurotlarga berilmasdan «autogen» mashqlarini xotirjam holatda bajarishga tez va oson moslashadi. Mashg'ulotning dastlabki boshlang'ich davrda

mashqlarni oʻrganish tezroq va osonroq boʻladi. Mashgʻulotlarda sportchi magnitofon tasmasiga koʻchirilgan matni oʻrganish va eshitish orqali, zarur boʻlsa, tana muskullarini taranglashtirmasdan talab qilingan jismoniy harakatlar obrazini fikran tasavvurida bajarishni davom ettiradi. Mashqlarni bosqichma-bosqis bajarishda tashqaridan ikkinchi bir shaxs tomonidan yoʻl-yoʻriq koʻrsatish yoki oʻrganish taqiqlanadi. Sportchilarda obrazli bajariladigan mashqlarning ta'sir etish kuchi har xil boʻladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, hozirgi zamonaviy sportning barcha turlarini qamrab olgan boʻlib, undagi barcha muammolar markazida sportchi va uning faoliyati turadi. Sportchi shaxsining jamiyat ijtimoiy hayotidagi roli oshib borgani sayin bu fanning ijtimoiy-pedagogik fanlar tizimidagi ahamiyati ham ortib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2009.
2. Volkova I.P. Praktikum po sportivnoy psixologii. Piter.Sankt-Peterburg-2002.
3. Davlatshin M.G. «Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya». «Oʻqituvchi» nashriyoti. Toshkent-2002.
4. V.A.Marshiuk. Metodiki psixo-diagnostiki v sporte. Maskva «Proveshyeniye». 2001.
5. www.google.uz
6. www.psy.ru
7. www.ziyonet.uz
8. www.doc.uz


## SPORT FAOLIYATINI MUVAFFAQIYATLI TASHKIL ETISHDA SHAXS INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING ROLI


**E.M. Muxtorov,**
*BuxDU, Psixologiya kafedrasi dotsenti,*
**T. Salixov,**
*BuxDU, II bosqich magistranti*


Sport faoliyatini psixologik tahlil qilish masalalari ichida psixologlar diqqatini koʻproq sport faoliyatining motivlari masalasi jalb etadi. Bir qator tadqiqotlarda bevosita motivlar mavjudligi va ularning ahamiyatli ekanligi aniqlangan. Masalan, jismoniy Mashqlarda mushaklar harakatlaridan rohatlanish, estetik zavqlanish, musobaqalarga qatnashish ishtiyoqi va h.k. shuningdek, sport faoliyatining oʻz motivlari ham aniqlangan. Boʻlar sogʻlom, baquvvat boʻlish, oʻzini himoya qila olish istagi, oʻzini mehnatga, jangovor harakatlarga tayyorlash, kelishgan, chiroyli qaddi-qomatga erishish va h.k.

Insonni sport bilan shug‘ullanishga qiziqtirishning asosiy ruhiy xossasi - ushbu sport turi bilan shug‘ullanish orqali erishiladigan qoniqish xissini hosil qilish tuyg‘usidir.

Bu murakkab xarakterdagi motivlar bo‘lib, ular quyidagilar:

Sport faoliyatiga oid motivlar:

Muskul aktivligining namoyon bo‘lishidan sportchining qoniqish his etishi.

O‘z harakatlarining epchilligi va go‘zalligidan zavq olishi.

Murakkab va xavfli mashqlarni bajarishda qat'iyatli va jasurlikni namoyon qilishga intilish.

Musobaqalarda qatnishishdan zavq olish.

Qanchalik qiyin bo‘lmasin galabaga erishish, uzining maxoratini kursatish, rekord natijalarga erishishga intilish.

Sport faoliyatiga yondashgan motivlar:

1. Sport bilan shug‘ullanish orqali kuchli, soglom bo‘lishga intilish.
2. Sport orqali o‘zini amaliy faoliyatiga tayyorlashga intilish.
3. Sport faoliyatini muhimligini anglab etish.

A.Puni (1977) maxsus tajribalar va kuzatishlar asosida maktab yoshidan boshlab yetuk mohirlik darajasiga erishish davridagi sport faoliyati motivlarining rivojlanish dinamikasini quyidagicha aniqlab berdi:

Sport bilan shug‘ullanishning boshlanqich bosqichi:

Bu sport faoliyatiga kirishning birinchi urinishlari davri. Buni qo‘zg‘atuvchi motivlar, birinchidan o‘smirlar sportning bir necha turi bilan shug‘ullanishni boshlaydilar, o‘zlarining qaysi sport turida o‘z mahoratlarini namoyon qilishlari muhimligini yaxshi bilmagan holda, ikkinchidan fizkulturani sevaman, shuning uchun shug‘ullanyapman, uchinchidan aynan shu sport turi bilan shug‘ullanish uchun yaxshi sharoitlarning borligi bilan bog‘liq, to‘rtinchidan o‘ziga qarzdorlik elementlarini oladi.

Tanlagan sport turida ixtisoslashish bosqichi:

Bu bosqichda sport faoliyatining motivlari:

1. Sportning bir aniq turiga qiziqish uyg‘otish va rivojlantirish.
2. Shu sport turiga nisbatan qobiliyatlarini topa olish va yuksaltirish.
3. Maxsus bilimlarni kengaytirish, sport texnikasini yuksaltirish, shug‘ullanishning yukori darajasiga erishish.

Sport mahorati bosqichi:

Bu bosqichda sport faoliyatining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O‘zini sport mahoratini yuksak darajada saqlab turish va undan ham ko‘p yuqori muvaffaqiyatlarga erishishga intilish.
2. O‘zining sportdagi erishilgan g‘alabalari bilan Vatanga xizmat qilish, xalqaro musobaqalarda Vatanning shon-sharafini ko‘tarish, yangi dunyo rekordlarini o‘rnitishga intilish.

O‘zi tanlagan sport turiga o‘z xissasini qo‘shishga intilish, uning texnika va taktikasini boyitish va yuksaltirish, o‘z tajribasini, bilimini yosh sportchilarga o‘rgatishga intilish.

Bu motivlar yorqin ijtimoiy yoʻnalganlik xaraktriga ega boʻladi, ya'ni sportchining shaxsiy motivlari ijtimoiy motivlarga boʻysundiriladi. Bu esa sportning tarbiyaviy ahamiyatini, shaxsning paydo boʻlishidagi rolini koʻrsatadi.

Sportchi musobaqa davomida ogʻir ahvvolga tushib qolsa, koʻz oldiga butun hayoti, oilasi, murabbiysi, unga ishonch bilan qaragan jamoadoshlari, el-yurti keladi. Shunda unga yangi kuch-quvvat kelib, gʻalabani ta'minlaydi.

Sporchini texnik jihatdan tayyorlash - pedagogik jarayon boʻlib, ayni sportga xos harakatlarni bajarish usullarini egallash va ularni takomillashtirishdan iboratdir. Har xil sport turlarida sport harakatlarini texnik priyomlari har xil psixologik tuzulishga egadir. Sportchi texnikani oʻzlashtirishi xilma xil harakat malakalarni oʻzlashtirish bilan bogʻlikdir, chunki har qanday sport faoliyatida texnikani asosi boʻlib malaka hisoblanadai.

Har bir sport turidagi mashqning texnikasini egallash - harakat malakasini egallashdan iboratdir. Odam faoliyatidagi harakatlar shartlari ikki turga ajratiladi - koʻnikma va malakadir.

Harakat malakasi deb sportchilarda bir xil shaklda juda koʻp marta takrorlanish natijasida avtomatlashib ketgan harakatlarga aytiladi. Koʻnikma - shunday xarakatlardirki odam ularni ilgari egallagan bilimlarini tadbiq etgan holda bajaradi( professor A.Ts. Puni aytishicha harakat malakalar - odamning yodlab olgan harakatidir). Harakat malakalari bosh miyada differentsiyalashish (ajrata bilish) va vaqtli asab bogʻlanishlar asosida shakllanadi.

Har bir harakat malakasi oʻz fiziologik asosiga koʻra shartli reflekslar aloqalari tizimlaridan iborat. Malakalar hosil boʻlishning dastlabki bosqichlari, ularni har bir qismi oʻylagan holda diqqat bilan bajariladi. Malakalar shakllangan sari harakatlar aniq, tez, tejamli, engil bajariladigan boʻlib qoladi.

Sport taktikasi deb, sport musobaqasida eng yuksak sport natija va gʻalabalarga erishish uchun ishlatiladigan priemlar yigʻindisiga aytiladi. Musobaqa gʻalabaga erishish uchun ma'lum sport turida jismoniy jihatdan chiniqish va xatto mazkur sport texnikasini тыla egalashning oʻzi kifoya qilmaydi. Shu bilan birga oʻzining jismoniy kuchi va texnik koʻnikmalaridan toʻgʻri foydalana bilishni ham talab qiladi. Taktikada komanda yoki yakka sportchining harakat yoʻli namoyon boʻladi. Har bir sport turida taktik reja tuziladi. Lekin sport taktikasi sport turi va uning spetsifikasiga karab har xil boʻladi. Taktik jihatdan tayyorlashning umumiy muammo bilan psixologik muammo bogʻlangan boʻlib, quyidagilardan taxminiy (shartli) taktik reja tuzish muammosidan iborat. Ushbu taxminiy tuzilgan taktik rejani musobaqa paytida roʻyobga chiqarish muommosi.

Yaxshi taktikaga ega boʻlish uchun sportchi yaxshi kuzatuvchanlik xusussiyatiga ega boʻlishi lozim. Bundan tashqari tashabbuskorlik, maqsadga intilishda irodaviy sifatlarga ega boʻlishi ham muhimdir. Taxminiy taktik reja tuzish va uni musobaqa paytida roʻyobga chiqarish uchun umumiy va konkret shart-sharoitlar tugʻdirilgan boʻlishi kerak.

Umumiy xarakterga ega boʻlgan shartlar qoʻyidagilardir:

Jamoa yoki sportchi musobaqadagi kurashning sport turiga doir texnik priyomlarini egallashi; jismoniy jihatdan umumiy va maxsus tayyorgarlik; sportchida psixologik tayyorgarlikning yuksakligi.

Konkret (spetsifik) shartlarga: maxsus bilim, malaka va koʻnikmalarni oʻzlashtirish kiradi. Eng muhim bilimlar kuyidagilar: sportchida sportning har bir turi boʻyicha tarixiy taraqqiyoti jarayonida yuzaga keladigan taktika asoslari haqidagi nazariy bilimlar. Sportchi musobaqa oʻtkaziladigan joyidagi shart-sharoitlarni bilishi kerak. Sportchilar boshqa shaharga musobaqaga borganlarida koʻpincha bu sharoitlar bilan tanishmaydilar. Bu albatta notoʻgʻri. Ushbu shart-sharoitlarga: musobaqa oʻtkaziladigan joyning muhiti, musobahaning profili, xarakteri, tabiiy va sun'iy toʻsiqlari. Yыllarning soni va ularning sifati, zallarning yorugʻligi, sport qurollarning sifati. Hakamlar гыyxati va hokazo kiradi. Shartli tuzilgan rejaning musobaqa paytida ishlata bilish koʻnikmalari ham toʻrlicha boʻladi, bular quyidagicha: 1) musobaqa va trenirovka paytlarida tustaqil fikr yurita bilish; 2) ishtirok etgan musobaqalarni tahlil qilish; 3) umumlashtira bilish; 4) texnik priyomlarni musobaqadagi kurash paytida maqsadga muvofiq ravishda tanlab, ulardan foydalana bilish; 5) priyomlarga ijodiy oʻzgartirishlar kirita bilish.

Musobaqaning borish holatini kuzatishda oʻz holatini, hatti- harakatini kuzata bilish. Raqib yoki sheriklarning oʻylagan taktik rejasini payqay olish va nazarda tutish kыnikmasi eng muhimdir.

Sportchi yuksak emotsional qoʻzgʻalgan holatda, hamda ruxiy tushkinlik holatida oʻzini tuta bilish.

Sportchi yaxshi taktikaga ega boʻlishi uchun quyidagi xususiyatlarga ega boʻlishi kerak: kuzatuvchanlik, tashabbuskorlik, oldindan koʻra bilish yaxshi anglash qobiltiyatiga ega boʻlish.

Sportchining musobaqaga qatnashishdan maqsadi, rekord qoʻyish hamda shaxsiy sport natijasini yaxshilashdan iboratdir. Bu reja maqsadga erishish uchun musobaqa oldidan sportchi tomonidan tuzilgan shartli (taxminiy) taktik reja javob bera oladi. Bu reja maqsadga erishish vositalari va usullari, yыllarini anglash, hamda duch kelishi mumkin bыlgan qarshilik, qiyinchilik va kutilmagan hodisalarni oldindan sezish, tasavvur qilish kabilarni ыz ichiga oladi. Koʻpincha bunday reja tuzish kыrsatmali bыlmay fikran bыladi. Shu sababli ham taxminiy taktik reja tuzish ijodiy jarayonidir. Bu jarayonda taffakur va ijodiy xayol qilish muhim ahamiyatga ega. Taktik reja muvaffaqiyatli tuzilsa, sportchida ishonch va mamnunlik hosil boʻladi. Aksincha esa, unda shubxa, xavotiralanishi, ranjishni, ba'zida esa oʻzini yoʻqotishini paydo qiladi. Taktik rejani echish asosan sportchini tafakkuriga bogʻlikdir. Chunki ilmiy tekshirishlardan hamda har bir sportchining tajribasidan ma'lumki sportchi oʻylab harakat qiladi, harakat qilib oʻylaydi. Sportda tafakkur jarayoni qisqa vaqtda ызgarib turish xususiyatiga xosdir. Aytish mumkinki, rejani aniq va maqsadga muvofiq bajarishning manbai aniq tafakkur qilishning oqibatidir. Lekin, taffakur qilish uchun musobaqaning vaziyati raqibning harakati asosiy materialdir. Bu material oldingi tafakkur boʻlmaydi, fikrlangan reja tasavvur asosida ijodiylashadi. Sportchining musobaqa oldidan ishlab chiqilgan taktik rejani musobaqa jarayonida real sharoitda tafakkur, tasavvur va diqqatini

faol ishtirokida qayta koʻrilib turishi, hamda sharoitni tez tahlil va sintez qilib tadbirlash natijasida hal qilinadi.

Psixologik tadqiqotlarda, shuningdek, sport musobaqasi davrida vujudga keladigan taktik muammolarni yechin bilan bogʻliq sportchining tafakkur faoliyati kam oʻrganilgan. Bunda shu narsa aniqlanganki, fikrlash jarayonlarining tezligi, sport kurashining (musobaqasining) tezkorligi bilan vujudga kelib, hissiy vairodaviy zoʻriqishlar bilan uzviy ravishda bogʻlanib ketadi. Musobaqa davrida sportchi tomonidan qabul qilingan qaror tezkorlik bilan ma'lum harakatlarga koʻchadi va shu harakat jarayonida ham yangi qarorlar qabul qilinishi mumkin. Bu dalillar sportchining tafakkur xususiyati qandaydir mavhum faoliyat va ish-harakatlar bilan bevosita bogʻliq boʻlishligini koʻrsatadi. Bu esa sportchilarni mashqlantirishda trenerlar tomonidan hisobga olinishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak qayd etilgan barcha vazifalar bir-biri bilan dialektik ravishda chambarchas bogʻliqdir. Sport musobaqalarida qatnashish esa sportchidan nafaqat maxsus texnik va taktik tayyorgarlikni balki har tomonlama psixologik tayyorgarlik koʻrishni talab etadi. Sport turlari turli-tuman, lekin ular hammasi ham sport musobaqalarida qatnashish va doimiy mashgʻulot bilan shugʻullanishni talab qiladi. Sport mashgʻulotlarining samarali usullarini ishlab chiqish Sport faoliyatining qatnashchisi – sportchi – shaxsini oʻrganmay mumkin emas. Boshqa fanlar qatori Sport psixologiyasi sport faoliyatinig turli tomonlarini tahlil qiladi va ular bilan bogʻlik muammolarni echishga koʻmak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Lesgaft P.F. Psixologicheskaya podgotovka k sorevnovaniyu v sporte. «Fizkultura i sport» Maskva-2012.
2. Masharipov Y. Umumiy va sport psixologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. Samarqand-2012. 24-31 betlar.
3. Melnikova. Psixologiya. Maskva «Fizkulturai sporti», 2002..
4. Puni A.S. O sostoyanii psixicheskoy gotovnosti sportsmena K. Sorevnovaniyu. «Teor. Iprakt.fizich.kult.»
5. www.koob.ru
6. www.lex.uz
7. www.gov.uz


## DEZADAPTATSIYALASHGAN OʻSMIRLARDA SIFATLI TA`LIMNI TASHKIL QILISH VA ZAMONAVIY USULLARNI ISHLAB CHIQISHNING AHAMIYATI


**D. Baratova,**
*BuxDU, Psixologiya kafedrasi dotsenti,*
**Sh. Turobova,**
*BuxDU, II kurs magistranti*

*Yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga faqat tarbiya va ilm orqasidan erishamiz.*

***Sh.M.Mirziyoyev***

Ta`lim jarayonida pedagog bilan o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik faoliyatiga xos ijtimoiy psixologik uyg‘unlikni tashkil etish, ta`lim sub`ektlarining mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ulardagi psixologik kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, ontogenetik rivojlanishning o‘smirlik davri eng murakkab hamda psixologik inqirozlar bilan uyg‘unlashib ketgan, quvvati yuqori, shijoatli, yangilikka chanqoq, olamni o‘zlashtirishga intiluvchan, mustaqillikka moyil, egiluvchan, xulq-atvorida ijtimoiy me`yorlarning shakllanishi jadal sur`atlar bilan kechadigan davr bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda o‘ziga xos “tarbiyasi qiyin o‘smirlar” kategoriyasini belgilashda tamoman o‘zgacha psixologik-pedagogik yondashuvlarga asoslanishning muqarrarligi yaqqol sezilmoqda. Ayni paytda pedagoglar tomonidan mazkur toifa o‘quvchilarning individual xususiyatlarini adekvat tushunish va ular xulqini korreksiya qilishga bo‘lgan zaruratning tobora ortib borayotganligini alohida qayd etish mumkin. Qolaversa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ham “Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit-qizlarini zamon talabiga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish… ”143 kerakligi alohida qayd etiladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda o‘ziga xos xulq-atvori, “Men”ligi nomoyon etilishida shaxslararo munosabat, identifikasiya va refleksivlik jarayonlarining yaqqol ta`siri ko‘rinib turgan har bir o‘smirlar guruhida me`yordan ortiq bezovtalik, hissiy zo‘riqish, ruhiy tushkunlik va asabiylik holatlarini o‘z vaqtida payqash va bartaraf etish uchun tegishli chora-tadbirlarni qo‘llamay turib, ta`lim-tarbiya samaradorligiga erishib bo‘lmaydi. Ta`lim- tarbiya samaradorligi zaiflashgan joyda esa shaxs yetarli darajada rivojlanmaydi.

Shu boisdan o‘smirlik davri o‘zining o‘ta murakkabligi shaxs taraqqiyoti uchun “o‘tish” yoki “tub burilish” davri ekanligi bilan unga nisbatan jiddiy yondashuv muqarrarligini taqazo etadi.

Bugungi kunda talaygina o‘smirlar o‘quv faoliyatida juda ko‘plab muvaffaqiyatsizliklarga uchrayotganliklarini kuyunib gapirmoqdalar, shuningdek, kattalar tomonidan ularga bildirayotgan muomala jarayonidan qoniqmay

[143] “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. 2017.-6(766)-son-B.38

kelayotganliklari va buning oqibatida qattiq asabiylashgan holda faoliyat yuritayotganliklarini qayta- qayta ta`kidlaydilar. Bularning barchasi o‘smirlarni alohida o‘rganish doirasidagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 1993 йил 20 сентябрдаги ялпи йиғилишида 1994 йилдан бошлаб 15 майни “Халқаро оила куни” сифатида нишонлашга келишилганлигини ўзи ҳам бу масалани халқаро миқиёсида қанчалик долзарб еканлигидан далолат бериб турибди. Барча даврларда ҳам давлат ва жамият ғамхўрлиги оилаларнинг мустаҳкамлиги ва тинчлигига асос бўлган. Шу боис мамлакатимизда 1998 йил “Оила йили”, 2012 йил “Мустаҳкам оила йили”, 2016 йил “Соғлом бола ва она йили” деб эълон қилинганлиги ҳамда Республикамизда оила институтини мустаҳкамлаш консепсияси қабул қилиниши, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.06.2018 йилдаги ПҚ-3808-сон қарори билан унинг устувор вазифалари ва амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар тасдиқланиши, шунингдек, 2019 йилдан бошлаб ҳар йили 15 майда мамлакатимизда Халқаро оила куни нишонланиши давлатимиздаги оилавий муҳит ва уни мустаҳкамлаш учун қилинаётган амалдаги саъй-ҳаракатларнинг яққол наъмунасидир.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёйев таъкидлаганларидек, “Биз учун муқаддас бўлган оила асосларини янада мустаҳкамлаш, хонадонларда тинчлик – хотиржамлик, аҳиллик ва ўзаро ҳурмат муҳитини яратиш, маънавий – маърифий ишларни аниқ мазмун билан тўлдиришдан иборат бўлмоғи зарур”. Дарҳақиқат, асрлар давомида ўз эътирофини топган ва диний-ахлоқий қадриятлар даражасига кўтарилган оилавий муносабатларда ҳалол яшаш, меҳнат қилиш, фарзанд тарбияси ижтимоий ҳаёт тарзини ривожлантириш манбаидир.

Марказий Осиё мутафаккирлари ва маърифатпарварлари Фаробий, Беруний, Ибн Сино, Юсуф хос Хожиб, Кайковус, Девоний, Алишер Навоий, Бобур, Мунис Хоразмий, Бедил, Беҳбудий, Абдулла Авлоний, Қори Ниёзий, Чўлпон, Фитрат ва бошқаларнинг асарларида оила ва оилавий муносабатлар ҳақида қимматли фикрлар мавжуд. Уларнинг кўпларида мазкур масалага оид қарашлар муайян тартибга туширилган ва таълимот даражасига кўтарилган. Хусусан, Абу Али ибн Синонинг “Ахлоқ”, “Оила хўжалиги”, Алишер Навоий “Ҳайрат-ул аброр” ва “Маҳбуб-ул қулуб” асарларида оилага алоҳида еътибор билан қараб, уни инсон камолга еришувида асосий макон деб билганлар.

XX аср бошларидаги маърифатпарварлик ҳаракатининг асосчиларидан бири Фитратнинг “Оила” асарида оила асосини тўғри қуриш, оилада ёш авлодга жисмоний, ақлий ва ахлоқий тарбия бериш орқали мана шу турғунликдан қутилиш, жамиятни ислоҳ қилиш мумкинлигини баён қилган. “Миллат тақдири мана шу миллат вакиллари яшаган оиланинг ҳолатига боғлиқдир. Қаерда оила муносабати кучли интизомга таянса, мамлакат ва миллат ҳам шунча кучли ва тартибли бўлади.” деб ёзади.

Оиладаги ўзаро муносабатлар маданияти малакаси тасаввуф фалсафасида ҳам алоҳида ўрин тутади. Бу фалсафанинг йирик вакиллари бўлган Аҳмад Яссавий, Баҳовуддин Нақшбанд, Нажмиддин Кубро тариқатларида ота ва оналар ўзаро муносабатларининг фарзандлар камолотидаги роли, фарзандларнинг ота-оналарга бўлган муносабати мавзуи алоҳида таъкидлаб ўтилганлигини кўрамиз. Шунингдек, улуғ уламолар бўлмиш Ал-Бухорий, Ат-Термизийларнинг ҳадис тўпламларида, асарларида ҳам мазкур мавзуга катта эътибор берилган. Қуръондан кейинги диний манба – ҳадисларда Пайғамбаримиз Мухаммад (с.а.в.) айтдилар: “Аллоҳ таолонинг рози бўлиши ота-онанинг рози бўлишига ва Аллоҳнинг ғазаби ҳам ота-онанинг ғазабига боғлиқдир” (Имом Бухорий ривояти).Ҳақиқатдан ҳам ота-онага озор бермаслик, уларнинг дилини вайрон қилмаслик, мулойимлик билан суҳбатда бўлиш, кўнглини кўтариш айтганларини вақтида бажариш, фарзанднинг ота-она олдидаги бурчидир.

Мустақиллик даврида оила-никоҳ муносабатларининг ҳуқуқий тартибга солиниши масалаларини Ф. Отахўжайев, ўзбек оилалари маънавиятининг тарихий асослари, маънавий руҳияти, анъаналари, фарзандлар тарбияси муаммоларини истиқлол мафкураси нуқтаи назаридан О. Сафаров, М. Маҳмудовлар таҳлил ецалар, оиланинг жамиятда тутган ўрни, оилавий тарбия, оила аъзоларининг оиладаги ўрни, оилада миллий ва умуминсоний тарбия масалаларининг педагогик нуқтаи назардан О. Мусурманова, оиланинг моҳияти, ота-оналарнинг бола тарбиясидаги масъулияти, фарзандлик бурчига оид баъзи миллий диний анъаналаримизни Е. Юсупов, ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашга оид масалаларни М. Халматовалар таҳлил қилганлар. Оила турларининг демографик, ижтимоий тузилишларига қараб бўлинишининг ўзига хос хусусиятлари ҳамда унинг оилавий муносабатлар маданиятига таъсири мавжуд. Мамлакатимизда мавжуд оилаларнинг аксарияти тўлиқ оилалардир. Тўлиқ оила деганда ота-она ва

фарзандлардан иборат оила тушунилади. Бу типик оилага хос хусусиятдир. Бундай оилалар, ўз навбатида, патриархал, нуклеар, мезалянсларга бўлинади. Ўзбекистоннинг ўзига хос хусусияти яна шундаки, ҳозирда ўзбек оилалардаги катта патриархал оила хўжалиги ҳам сақланиб қолинган. Бунда 2-3 авлод хўжалиги умумий бўлиб, уларнинг иқтисодий бирлигининг асоси ҳисобланган оила мулки фақат оила бошлиғи қўлида бўлади ва ҳамма унга бўйсинади. Мана шу сабабли ҳам қариндош – уруғларнинг қуда-андачилик муносабатлари давом қилиб келаяпти. Яқин қариндошларнинг никоҳи ҳам шу жумладандир.

Замонавий оилаларга хос хусусият уларнинг нуклеарлигидир (Нуклеар – лотинча сўздан олинган бўлиб, луғавий маъноси “ядро” демакдир. Ер-хотин ва болалардан иборат). Ҳозирда Ғарб сивилизацияси таъсирида оиланинг бу хили кўпайиб бормоқда. Бундай оилаларда қайнона ва келин ёки келинлар алоҳида яшаганликлари учун улар орасидаги низоли муносабатларнинг олди олинади, турмуш тарзида улар бир-бирлари билан қадрлироқ, меҳр-шафқатлироқ маданий муносабатда бўлишади

Замонавий оилаларга хос яна бир хусусият – мезалянсларнинг ошишидир. (“Мезалянс” – француэча сўз бўлиб ер-хотиннинг ижтимоий, маданий ва иқтисодий мавқйелари орасида катта тафовут бўлган оилалар тушунилади). “Мезалянс” деб, масалан шаҳарликлар билан қишлоқликлар, зиёлилар билан ишчи-деҳқон, чорвадорлар ҳамда турли миллат кишилари орасидаги никоҳларни тушуниш мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий тахлил қатиий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятини кундалик қоидаси бўлиши керак Ўзбекистон Республикаси Вазирлар махкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи //Халқ сўзи газетаси 2017 йил 16 январ №11.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. “Ўзбекистон” 2016.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб ҳалқимиз билан бирга қўрамиз. “Ўзбекистон” 2017

## DEZADAPTATSIYALASHGAN O‘SMIRLARDA SIFATLI TA`LIMNI TASHKIL QILISH VA ZAMONAVIY USULLARNI ISHLAB CHIQISHNING AHAMIYATI

**D. Baratova,**
*BuxDU, Psixologiya kafedrasi dotsenti,*
**Sh. Turobova,**
*BuxDU II kurs magistranti*

*Yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga faqat tarbiya va ilm orqasidan erishamiz.*

***Sh.M. Mirziyoyev***

Ta`lim jarayonida pedagog bilan o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik faoliyatiga xos ijtimoiy psixologik uyg‘unlikni tashkil etish, ta`lim sub`ektlarining mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ulardagi psixologik kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, ontogenetik rivojlanishning o‘smirlik davri eng murakkab hamda psixologik inqirozlar bilan uyg‘unlashib ketgan, quvvati yuqori, shijoatli, yangilikka chanqoq, olamni o‘zlashtirishga intiluvchan, mustaqillikka moyil, egiluvchan, xulq-atvorida ijtimoiy me`yorlarning shakllanishi jadal sur`atlar bilan kechadigan davr bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda o‘ziga xos “tarbiyasi qiyin o‘smirlar” kategoriyasini belgilashda tamoman o‘zgacha psixologik-pedagogik yondashuvlarga asoslanishning muqarrarligi yaqqol sezilmoqda. Ayni paytda pedagoglar tomonidan mazkur toifa o‘quvchilarning individual xususiyatlarini adekvat tushunish va ular xulqini korreksiya qilishga bo‘lgan zaruratning tobora ortib borayotganligini alohida qayd etish mumkin. Qolaversa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ham “Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit-qizlarini zamon talabiga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish… ”144 kerakligi alohida qayd etiladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda o‘ziga xos xulq-atvori, “Men”ligi nomoyon etilishida shaxslararo munosabat, identifikasiya va refleksivlik jarayonlarining yaqqol ta`siri ko‘rinib turgan har bir o‘smirlar guruhida me`yordan ortiq bezovtalik, hissiy zo‘riqish, ruhiy tushkunlik va asabiylik holatlarini o‘z vaqtida payqash va bartaraf etish uchun tegishli chora-tadbirlarni qo‘llamay turib, ta`lim-tarbiya samaradorligiga erishib bo‘lmaydi. Ta`lim- tarbiya samaradorligi zaiflashgan joyda esa shaxs yetarli darajada rivojlanmaydi.

Shu boisdan o‘smirlik davri o‘zining o‘ta murakkabligi shaxs taraqqiyoti uchun “o‘tish” yoki “tub burilish” davri ekanligi bilan unga nisbatan jiddiy yondashuv muqarrarligini taqazo etadi.

Bugungi kunda talaygina o‘smirlar o‘quv faoliyatida juda ko‘plab muvaffaqiyatsizliklarga uchrayotganliklarini kuyunib gapirmoqdalar, shuningdek, kattalar tomonidan ularga bildirayotgan muomala jarayonidan qoniqmay

[144] “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017.-6(766)-son-B.38

kelayotganliklari va buning oqibatida qattiq asabiylashgan holda faoliyat yuritayotganliklarini qayta- qayta ta`kidlaydilar. Bularning barchasi oʻsmirlarni alohida oʻrganish doirasidagi tadqiqotlarga boʻlgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini koʻrsatadi.

Tahlillar natijasi shuni koʻrsatadiki, har qanday pedagog faoliyatining psixologik kompetentligi eng avvalo oʻsmirlarni adekvat tushunish, ulardagi oʻziga xos psixologik imkoniyatlar koʻlamiga toʻgʻri baho berish va har bir oʻsmirni ta`lim faoliyatiga faol ishtirokchi sifatida olib kira olish bilan belgilanadi. Chunki oʻsmir faoliyatidagi turli xil murakkabliklar zamirida uning mustaqil shaxs sifatida shakllanishi oʻziga xos injiqliklari, dunyoqarashidagi oʻzgarishlar, hayotiy voqeiliklarni sub`ektiv hal qilishga boʻlgan ehtiyojning yuqoriligi kabi holatlar yotadiki, bu holatni toʻgʻri baholay olish uchun esa undagi “Men” timsolini talqin qilish va bu talqinlar asosida tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish talab qilinadi. Pedagogning dezadaptatsiyalashgan oʻsmirlardagi “Men” timsolini korreksiya qilish boʻyicha samarali kasbiy faoliyati koʻp ma`noda uning kasbiy pozitsiyasi bilan aniqlanadi. Yangi psixologik konsepsiyalarning yuzaga kelishi soʻzsiz pedagogning oʻz pozitsiyasini oʻzgartirishini koʻzda tutadi. Pedagog mazkur jarayonda amaliy psixolog sifatida qatnashadi va boshqa muhim vazifalar bilan bir qatorda oʻquvchilarni psixologik qoʻllab-quvvatlash vazifasini amalga oshiradi. Pedagog tomonidan dezadaptasiyalashgan oʻsmirlardagi “Men” timsoli korreksiyasi haqidagi qaror qabul qilish jarayonida oʻsmirlik davrining xususiyatlari haqidagi bilimlar kasbiy ta`sirning konkret usullarini amalga oshirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Ijtimoiy muhitning koʻp omilliligi oʻsmir uchun ijtimoiy jihatdan ahamiyatli boʻlib, unda hayotiy ehtiyojlar, avtoritet, mavqeli-rolli oʻzaro munosabatlar, pozitsiya, xulq-atvorni shakllantirishga yoʻnaltirilgandir. Biroq bugungi oʻsmirlarning rivojlanishidagi ijtimoiy vaziyat ularni tarbiyalovchi shaxslarning kamolga yetishini belgilab bergan xususiyatlardan tamomila farq qiladi. Bu oʻz novbatida ularning oʻzini oʻzi baholash, oʻzlari haqidagi tasavvurlari psixologik mazmunining oʻzgarishiga olib keladi.

Oʻsmir holatidagi ichki motivatsion ziddiyatlarning mavjudligi uning ijtimoiy rollari va ehtiyojlari darajasi tuzilmasining oʻzgarishi bugungi oʻsmirlar faolligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. “Men” timsolini talqin qilish muammosi oʻzini-oʻzi aniqlash bilan bevosita bogʻliqdir. Binobarin, oʻzini-oʻzi aniqlash muammosi psixologik yondashishning metodologik asoslari S.L.Rubinshteyn tomonidan ifodalab berilgan edi. Unga koʻra tashqi sabablar ichki sharoitlarga singan holda harakat qildi. Tashqi sabablar ichki sharoitlar orqali shunday ta`sir qiladiki, bunda ta`sir samarasi ob`ektning ichki xossalariga bogʻliq boʻladi- bu tezis har qanday determinasiya boshqa tashqi determinasiya sifatida va oʻzini oʻzi aniqlash sifatida zarurligini bildiradi.

Yuqorida keltirilganidek, “Men” konsepsiyasining tarkibi faqat shartli konseptual chegaralanishga beriladi, chunki psixologik nuqtai nazardan ular chambarchas bir- biri bilan bogʻliqdir. Shuning uchun oʻzini oʻzi anglashning kognitiv komponenti, “Men” timsoli, uning oʻsmirlik davrida shakllanishi

to‘g‘ridan-to‘g‘ri Men-konsepsiyasining emosional-baholovchi tarkibi, o‘zini-o‘zi baholash bilan, shuningdek xulq-atvor va boshqaruvchi tomoni bilan bog‘liq. Xususiy o‘zini o‘zi baholashdan umumiy, bir butun baholashga o‘tish tom ma`noda o‘ziga munosabatni shakllantirish uchun sharoit yaratdi. Bu munosabat atrofdagilar munosabati va baholashidan, xususiy muvaffaqiyatlar va mag‘lubiyatlar , har qanday vaziyatli ta`sirlardan yetarli darajada mustaqil hisoblanadi.

Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlardagi “Men” timsolini korreksiya qilish bo‘yicha samarali kasbiy faoliyat pedagogdan ijobiy va salbiy jabhalardagi o‘smirlik xususiyatlarini bilishni talab etadi. Pedagoglar tomonidan konkret ta`sir ko‘rsatish haqida qaror qabul qilish jarayonida ular psixik va shaxslilik rivojlanishi me`yorlari haqidagi tasavvurlarga asoslanadilar, o‘zlarining kasbiy va shaxslilik pozitsiyalari bilan taqqoslab ko‘radilar. Taqqoslash asosida pedagogik ta`sirning konkret vositalari tanlanadi. Yuqoridagi tahlilarga asoslanib, pedagoglar tomonidan o‘smirlardagi deviant xulq-atvorni boshqarish shartlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

-o‘smirlardagi ijobiy sifatlarga tayanish;

-affiliasiya va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini shakllantirish;

-o‘smirda o‘z istiqbolini baholash, o‘ziga o‘zi baho berish, intellektual qobiliyatlari va ularga baho berishni rivojlantirish;

-o‘smirda kasbiy yo‘nalganlik, keljakdagi kasbini tanlashi va o‘zlashtirishi, o‘zini o‘zi tasdiqlash ehtiyojini amalga oshirish bilan bog‘liq hayotiy intilishlarni shakllantirish.

Shunday qilib pedagogning deviant o‘smirlar korreksiyasi borasidagi kasbiy faoliyatida ta`lim jarayonining yuqoridagi psixologik tamoyillariga asoslanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, o‘smirlardagi “Men ” timsolini korreksiya qilish borasidagi kasbiy faoliyat samaradorligi ko‘p hollarda pedagogning ta`lim muassasalardagi o‘rni, uning kasbiy pozitsiyasi bilan belgilanadi. Shuning uchun pedagogning kasbiy faoliyatida psixologik yondashuv muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dezadaptatsiyalashgan o‘smirlarda “Men” timsolini korreksiya qilishning bugungi pedagogik- psixologik muammo sifatida qaralishi va bu jarayonni nazariy hamda amaliy tahlil qilish orqali tegishli talablarga amal qilgan holda ta`lim jarayonida har bir pedagog korreksion faoliyatni o‘rganishning o‘ziga xos imkoniyatlarini ochib berishi mumkin. Buning uchun esa ta`lim jarayonida pedagog psixokorreksion faoliyatini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlarini atroflicha tahlil qilish va shular asosida tegishli ilmiy mushohadalar yuritish talab qilinadi.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017.-6(766)-son-B.38
2. Абрамова Г.С. Возрастная психология.-М: Академия;1999.-672с.

3. Barotov Sh.R. Ta`limda psixologik xizmat asoslari. Monografiya. Toshkent, 1999. 96b.
4. Дубровина И.В. Об индивидуальных особенностях школьников.- М.:Знание,1992.-64с
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. –T.:O‘qituvchi, 1994.-98-b.
6. To‘laganova G.Q. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar .-Toshkent. Universitet, 2005.-120b.

***5A111801 - Таълим ва тарбия назарияси ва методикаси (мактабгача таълим)***

# DIAGNOSTIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

**G.Q. Hasanova,**
*BuxDU, Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti,*
**O.S. Turayeva,**
*BuxDU, I kurs magistranti*

*Maqolada maktabgacha ta'limi tizimini modernizatsiya qilish, mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, o‘quv amaliyoti yordamida kelajakdagi mutaxassisning nazariy va amaliy tayyorgarligi, pedagogik mahoratini rivojlantirish va diagnostik ko‘nikmalarini shakllantirish usullari bayon qilingan.*

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o‘tkazilmoqda, ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlari yo‘lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan.

O‘qituvchi ta'limi tarkibidagi psixologik tarkibiy qismning ortib borayotgan o‘rni uning amaliy yo‘nalishini, o‘qituvchining ijtimoiy va pedagogik mahoratini, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida bolalarning kognitiv jarayonlari va o‘zini o‘zi bilish jarayonlarining rolini oshishini ta'minlaydi.

Ushbu yondashuvni amalga oshirish uchun o‘qituvchi imkon qadar bolalarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Ushbu muammoni ko‘p jihatdan zamonaviy psixologik diagnostika vositalari yordamida muvaffaqiyatli hal qilish mumkin, ulardan samarali foydalanish maktabgacha ta'lim muassasasi o‘qituvchisi tomonidan maxsus ko‘nikmalarga ega bo‘lishni o‘z ichiga oladi.

So‘nggi paytlarda psixologik diagnostika pedagogik fanning jadal rivojlanayotgan sohasi - pedagogik diagnostika bilan keng qamrovga ega bo‘ldi.
Biroq, mahalliy va xorijiy mutaxassislar ta'kidlashicha, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari tomonidan psixologik va pedagogik diagnostika qo‘llanilishida jiddiy muammolar mavjud, bu sohada yetarlicha tayyorgarlik yo‘q, diagnostikani amalda qo‘llash ko‘nikmalariga maxsus tayyorgarlik zarur.

Pedagogik amaliyotda qarama-qarshilik mavjud: bir tomondan, zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida maxsus diagnostika ko‘nikmalaridan foydalangan holda individual yondoshishga qodir bo‘lgan tarbiyachilar kerak, boshqa tomondan talabalarda bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun yetarli sharoitlar psixologik va pedagogik tayyorgarlik tizimida yaratilmagan.
Bugungi kunga qadar ilmiy adabiyotlarda universitetda o‘qish paytida pedagogik mahorat, ularning shakllanish parametrlarini aniqlashga yagona yondashuv mavjud emas.

Diagnostika koʻnikmalarining tuzilishi, ularning maktabgacha yoshdagi oʻqituvchida rivojlanish xususiyatlari hali ham yaxshi tushunilmaydi. Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi oʻqituvchining diagnostika qobiliyatlari oʻqituvchining boshqa qobiliyatlariga qaraganda kamroq oʻrganiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari oʻqituvchilarining psixologik-pedagogik tayyorgarligi sifatini oshirish maqsadlarni, oʻqituvchi ta'limi mazmunini, qoʻllaniladigan usul va texnologiyalarni aniqlash uchun yangi yondashuvlarni aniqlash va ishlab chiqishni talab qiladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun maktabgacha ta'lim muassasasida amaliyotni tashkil qilish va mazmuniga yondashuvlar jiddiy ravishda qayta koʻrib chiqilmoqda.

Biroq, maktabgacha ta'lim boʻlimlari oʻquvchilarining diagnostika koʻnikmalarini rivojlantirishda kasbiy tayyorgarlik shakli sifatida pedagogik amaliyotning imkoniyatlari yaqin vaqtgacha maxsus oʻrganilmagan.

An'anaviy oliy ma’lumot kelajakda oʻqituvchilarda diagnostika koʻnikmalarini rivojlantirishga hali ham yetarli darajada hissa qoʻshmaydi. Shuning uchun talabalar oʻrtasida ushbu koʻnikmalarning umumiyligini rivojlantirish muammosini nazariy jihatdan rivojlantirish zarurati pedagogik universitetlarning muhim vazifalaridan biridir.Yuqoridagi qarama-qarshiliklar "Maktabgacha ta'lim fakulteti talabalarining diagnostika koʻnikmalarini pedagogik amaliyot yordamida rivojlantirish" mavzusining dolzarbligini koʻrsatadi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun maqsad qoʻyildi – oʻquv amaliyotida maktabgacha ta’lim muassasasining kelajakdagi oʻqituvchilarining diagnostika koʻnikmalarini rivojlantirish strategiyasini aniqlash.

Ilmiy va nazariy qidiruv shuni koʻrsatdiki, diagnostika usulidan foydalanish va zarur pedagogik mahoratni rivojlantirish muammolariga bagʻishlangan asarlarda asosan umumta'lim maktablari oʻqituvchilarini tayyorlash tizimi koʻrib chiqiladi. Boʻlajak maktabgacha ta'lim muassasalari oʻqituvchilarini tayyorlash tuzilishida diagnostika faoliyatining oʻziga xos xususiyatlari va diagnostika koʻnikmalari kamroq darajada qamrab olingan.

Maktabgacha ta'lim muassasasi oʻqituvchisining pedagogik mahorati, mavjud bilim va koʻnikmalarga asoslanib, harakatlarning maqsadlari va shartlarini hisobga olgan holda, pedagogik muammolarni hal qilishga tayyorlikdir.

Ayrim mutaxassislar diagnostika koʻnikmalarini mustaqil pedagogik mahorat guruhida farqlamasliklariga va pedagogik faoliyatning boshqa tarkibiy qismlariga (Gnostik, analitik, aks ettiruvchi - pertseptual, tadqiqot qobiliyatlari va boshqalar) kiritilganligiga qaramasdan, diagnostika koʻnikmalaridan foydalanish fikrlarni olish, baholash va boshqarish imkonini beradi.

Umumiy pedagogik mahorat tarkibiga kiradigan diagnostika koʻnikmalari maktabgacha ta'lim muassasasi oʻqituvchisining maxsus tayyorgarligini talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi oʻqituvchisi faoliyatida psixologik tashxisning oʻziga xos xususiyatlari bor, uni amalga oshirish uchun bir qator maxsus talablar, shu jumladan maktabgacha yoshdagi aqliy rivojlanish xususiyatlari va maktabgacha yoshdagi bolalik hodisasining ijtimoiy

xususiyatlarini hisobga olgan holda; shaxsga yoʻnaltirilgan ta'limning asosiy gʻoyalaridan foydalanish (maqsad bolaning rivojlanishiga yordam berish); oʻqituvchining kasbiy va pedagogik funktsiyalarini hisobga olish.

Umuman olganda, diagnostika maxsus, kognitiv jarayon sifatida koʻrib chiqilishi mumkin, jumladan ma'lumot toʻplash, uni tizimlashtirish va tahlil qilish, oʻrganilayotgan ob'ektning haqiqiy holatining sabablarini aniqlash va kelajakda uning rivojlanishi haqida taxminlar qilish (tashxisning eng yuqori darajasi) , unga ta'sir qilish shakllari va usullarini aniqlash. Ushbu tuzilma ijtimoiy amaliyotning har qanday sohasida diagnostika usullarini qoʻllash uchun xosdir.

Diagnostika jarayonining bosqichlariga muvofiq, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining diagnostika qobiliyatlari tarkibi toʻrt qismdan iborat: dizayn (tashxis qoʻyish uchun soʻrovni tahlil qilish qobiliyati); mazmunli va tashkiliy (ob'ekt haqida ma'lumot toʻplash qobiliyati); analitik jihatdan samarali (ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va sharhlash qobiliyati); prognostik (prognoz qilish va tavsiyalar berish qobiliyati), bu oʻz navbatida maktabgacha yoshdagi aqliy rivojlanish jarayonining oʻziga xos xususiyatlari va bolalar bogʻchasidagi oʻquv jarayonining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Nazariy oʻrganish shuni koʻrsatdiki, maktabgacha ta'lim fakultetida mavjud boʻlgan pedagogik amaliyotlarni tashkil etish va oʻtkazish tizimi talabalarning bolalarning individual va yoshga bogʻliq xususiyatlarini diagnostika qilish koʻnikmalarini rivojlantirishga toʻliq yordam bermaydi, bu esa diagnostika sohasida faqat ma'lum koʻnikmalarni namoyish etish imkonini beradi. Amaliyotni amalga oshirishdagi qiyinchiliklarning asosiy sabablari bu maktabgacha tarbiyachi diagnostika mahoratining rivojlangan toʻplamining yoʻqligi, oʻqituvchi tomonidan maktabgacha diagnostika xususiyatlari toʻgʻrisida fikrlarning yetarlicha keng emasligi, oʻquvchilarning bolalar bilan pedagogik ishlarida diagnostikadan foydalanish zarurligiga qarama-qarshi munosabatidir.

Diagnostika koʻnikmalarini rivojlantirish boʻyicha taklif etilayotgan strategiya diagnostik koʻnikmalarning butun tuzilishini amalga oshirish uchun amaliy harakatlar ishlab chiqishga qaratilgan va koʻnikmalarning rivojlanish mantigʻiga mos keladigan ketma-ket va oʻzaro bogʻliq bosqichlardan iborat boʻlgan pedagogik amaliyot shaklida pedagogik jarayonni tashkil etishdir. Strategiya tarkibni tanlash, pedagogik rahbarlik va talabalar faolligi, talabalar faoliyati bosqichlari va amaliyot rahbarlari tamoyillariga asoslangan va diagnostik yordamga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллина, О. А. Педагогическая практика студентов
2. Аетдинова, Р. Р. Педагогическая диагностика уровней обученности как условие выбора технологий обучения: Автореф. дис.канд. пед. наук / Р. Р. Аетдинова. -М., 2016. 21 с.
3. Акимова, А. П. Формирование у студентов творческих умений решать педагогические задачи в области воспитания: Дис. канд. пед. наук /А. П. Акимова. JL, 2019. - 203 с.

# МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР РИВОЖЛАНИШИДА ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯНИНГ ЎРНИ

**Г.Қ. Ҳасанова,**
*БухДУ, Мактабгача таълим кафедраси доценти,*
**З.И. Қурбонова**
*БухДУ, I курс магистранти*

*“Мактабгача таълим тизими узлуксиз таълимнинг бирламчи, энг асосий бўғини ҳисобланади.”*

***Ш.М.Мирзиёев.***

Боланинг ўсиши, унинг жамиятимизга керакли бўлган етук шахс сифатида вояга етиши муайян қонунларга бўйсунади ва қонунлар президентимиз бошчилигида ишлаб чиқилиб изчил таърифлаб берилган. Психологлар боланинг ривожланиши назариясини, уларнинг фикрича , бола ирсий табиий мойиллик қобилиятига, туғма қобилиятнинг дастлабки куртакларига эгадир, бу туғма қобилият куртаклари бола туғилмасданоқ унинг организмига жойлашган бўлади. Бу табиий қобилиятларини ўзгартириш анча мураккаб, унга фақат тарбиявий омиллар юзасидан ёндашиб туриш лозим бўлади.

Боланинг психологик хусусиятлари тез ёки секин намоён бўлиб боради. Болани табиатини ўзгартириш қийин, бу сохада муваффақият қозониш мушкулдир. Туғма биологик имкониятлар бола шахсининг таркиб топишида асосий хал қилувчи ахамиятга эгадир ва психик хусусиятларининг ривожланиши, бу имкониятларнинг пишиб етилиши ўз-ўзига такомиллашуви демакдир. Бунинг учун тегишли ташқи шарт-шароитлар бўлса бас. Чунончи , таълим тарбия туғма имкониятларни намоён қилиш ва амалга оширишнинг зарурий шартларидан ҳисобланади. Шунинг учун болаларнинг психик хусусиятларидан фарқ тарбиянинг турлича таъсир қилиши кучига боғлиқ.

Бинобарин, таълим ва тарбия, жамият талабларига жавоб берадиган муайян шахсий сифатларни таркиб топтириш мақсадида катта авлоднинг ёш авлодга онгли мақсадга мувофиқ таъсир кўрсатиш жараёни сифатида ҳал этилувчи муҳим омил ҳисобланади.

Ривожланиш деганда одатда бир-бирига боғлиқ икки фактор:

1. Миянинг ўз биологик, органик етилиш, унинг анатомик-биологик тузилишининг такомиллашуви,
2. Психик (ақлий) ривожланишнинг маълум динамик даражаларининг ортиб бориши тушунилади.

Ўз-ўзидан маълумки , ақлий ривожланиш мия тузилишиниинг биологик тузилишиниинг биологик етилиши билан боғлиқ. Таълим миянинг органик тузилишини инкор эта олмайди. Таълим билан ривожланиш ўзаро

боғлиқдир. Ривожланиш билан таълим бир-бирига мустаҳкам боғлиқ бир бутун жараёндир. Чунки таълимсиз тўла ақлий ривожланиш бўлмайди. Мактабгача тарбия ёшдаги болалар шахсининг камол топишида болаларга маълум даражада таълим бериш катта аҳамиятга эгадир. Болаларга таълим бериш боғча ёшиданоқ ва ундан олдинроқ бошланади, чунки одам ижтимоий фойдали меҳнатга тайёрланиши учун жуда кўп ва мураккаб билимга эга бўлиши керак.

Бундан ташқари, таълим болаларни ҳар томонлама ривожлантиришнинг энг зарурий шартларидандир.

Болалар қисқа давр ичида инсоният жамият томонидан яратилган жуда кўп билимларни ўзлаштиришлари керак бўлади. Шунинг учун бизнинг Республикамиз тарбиянинг мақсадларига кўра болаларга уларнинг ҳар бир ёш даврида, яъни оилада, яслида, боғчада, мактаб ва олийгоҳларда таълим берилади. Болаларга бериладиган таълимнинг мазмуни хар бир ёш даврида бир-биридан фарқ қилади. Масалан:оилада ва яслида ясли ёшдаги болаларга мажбурий (билим) таълим берилмайди. Улар учун кунлик ҳаётнинг ўзи таълимдан иборат бўлиб,бу ёшдаги болалар кунлик ҳаётларида атрофмуҳитдаги нарса ва ҳодисалар билан танишадилар, хилма-хил нарсаларни қўллари билан ушлаб кўриб синчиклаб текширадилар. Бу ёшдаги болалар кучли ҳиссиётли ва жуда қизиқувчан бўладилар. Уларнинг ана шу қизиқувчанлигидан кенг фойдаланиш лозим, таълим беришда уларни атроф-муҳитдаги нарсалар билан бевосита таништиришдан кўрсатма материал яхши натижа беради.

Боғча ёшидаги болаларга бериладиган таълим характери эса тубдан фарқли ўзгариб, таълим жараёнини махсус тузилган программа асосида олиб борилади. Бу ёшдаги болаларга бериладиган билим даражаси ясли ёшдаги болаларга бериладиган билимга нисбатан жуда кенгайтириб борилади. Бу билимларни ўзлаштириш тарбиячи томонидан махсус ташкил этилган машғулотлар орқали амалга оширилади. Масалан элементар математика машғулоти, она тили машғулоти, жисмоний тарбия машғулоти, расм, лой, апликатция конструктивлаш, комьпютер машғулоти ва бошқа шунга ўхшаш машғулотлар жумласидандир. МТТдаги таълим процесси мумкин қадар аниқ, конкерт ҳолда ва кўрсатмали воситалар билан ўтказилиши керак. Мумтазам равишда ўтказиладиган ана шундай машғулотлар натижасида боғча ёшидаги болаларда билимларни ўзлаштиришга иштиёқ, қизиқиш, билимларга ҳавас ортиб боради. Бироқ иаълимий машғулотларда болалар ишини доим кузатиб турилса, улар олдига аниқ мақсад ва вазифалар белгилаб берилса, бу машғулотлар ҳам ўйин фаолияатари каби ғоят қизиқарли ва жозибали ўтади, болалар машғулотларда зерикмай, диққат билан иштирок этадилар.

Боғча ёшидаги болалар шахсий хислатларининг камол топишида тасвирлаш фаолиятининг роли каттадир. Маълумки боғча ёшидаги болалар расм солиш, лойдан турли нарсалар ясаш, кубиклардан уйчалакўприклар қуриш сингари машғулотлар жуда ёқади. Улар ўз тасвирий фаолиятларида ташқи мухитни, ундаги нарсаларни табиатни хайвонлар дунёсини, акс

эттиришни жуда хохлайдилар ва шунга интиладилар.Боғча ёшидаги болалар тасвирлаш фаолиятининг психологик афзаллиги мазкур фаолиятида ижодкорлик, яратувчанлик элементларининг мавжудлигидан иборатдир. Болалар ўзлари истак , хохиш, интилишлари ана шундай тасвирлаш , расм солиш, лой, гулдан бирор нарса ясаш, апликация ишлари орқали ифодалашга интиладилар.

Шунинг учун боғча ёшидаги болаларнинг тасвирлаш фаолиятлари жуда содда бўлса ҳам улар ўзларининг бундай фаолиятларида атрофдаги нарса ходисаларни шунчаки тасвирлаб қолмай қиладилар. Болалардаги айрим қобилиятлар уларнинг тасвирлаш фаолиятида жуда эрта намоён бўла бошлайди. Боғча ёшидаги болаларнинг тасвирлаш фаолияти жуда содда бўлиб, улар ўзлари тушунганига ва ўз фикри бўйича иш олиб боради , чунки уларҳали ёши катта кишилар каби кузатиш қобилияти ўз тасаввурлари асосида амалга ошади. Бу ёшдаги болалар тасвирлаш фаолияти реал воқелик эмас балки ўйин тарзида ўтказилади. Агар тарбиячи болаларнинг тасвирлаш фаолиятини мунтазамравишда педагогик жихатдан тўғри йўлга қўйса ва ташкил этиб борса болаларнинг тасвирлаш фаолиятига муносабатлари ўзгаради. Боғча ёшидаги болаларнинг тасвирлаш фаолиятларини такомиллаштиришда нарсалардан нусха кўчириш жуда катта ахамиятга эгадир. Нусха кўчириш орқали боларнинг кузатув қобилиятлари, фантазияси, фикрлаш қобилияти ривожланади.

Боғча ёшидаги болалар шахсини шаклланиши уларнинг мехнат жараёни катта ахамиятга эгадир. Бу ёшдаги болаларнинг мехнатлари жуда содда ва элементар бўлсада , уларнинг психик тараққиётига жуда катта ижобий таъсир кўрсатади. Болалар тарбиячининг сухбатлари орқали мехнатнинг инсон хаётидаги ахамиятини тушуниб оладилар. Болалар тарбиячининг саволлари ва тушунтиришлари орқали ўз ота-оналари ва яқинларини ким бўлиб ишлашларини билиб оладлар. Катталарнинг мехнат жойларига болалар билан ўтказиладиган экскурсиялар болаларга кишилар мехнатини бевосита кузатиш имкониятини беради. Болалар катталар мехнат фаолиятини ўзларининг ўйинларида тақлидан такрорлашбилан чекланиб қолмай улар катталар мехнатларида бевосита қатнашишига ҳаракат қила бошлайдилар. Психологик жихатдан шу нарса характерлики,бу ёшдаги болалар тасвирлаш қобилияти сингари мехнатнинг натижасига эмас, меҳнат жараёнининг ўзига қизиқарлидир. Боғча ёшидаги болаларнинг мехнатларига баҳо бериб бориш уларга мехнатга нисбатан ижобий муносабатни тарбиялашда мухим рол ўйнайди. Тўғри болалар ўзларинингкучларига яраша қиладиган мехнатларида кўп хатоларга йўл қўйадилар., лекин бундай болаларни мехнатга жалб қилмаслик керак, деган хулоса чиқмайди. Боғча ёшидаги болаларни мехнатсеварлик рухда тарбиялашда уларни иноқ гурухга уюштириш энг зарур омилидир.

Гурух бўлиб мехнат қилишда тарбиячи ҳар бир болага маълум бир вазифани бажаришни буюради, шу тариқа болалар мустахкам гурух бўлиб мехнат фаолияти билан шуғулланадилар. Боғча ёшидаги болалар жалб

қилинадиган мехнат фаолиятининг тури жуда кўпдир.. Масалан, табиат бурчакларидаги жониворларни боқиш, гулларни парвариш қилиш боғча ҳовлисидаги ер майдончаларига ишлаш, навбатчилик қилиш, кичкинтойларни кийинишига ёрдамлашиши ва бошқалар. Педагогик – психологик жихатдан тўғри ташкил қилинган мехнат фаолияти болаларнинг жисмоний , психик , эстетик ва ахлоқий томонидан гармоник ривожланишига ктта таъсир кўрсатади. Болаларда мехнатсеварлик хиссини уйғота боради.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. “Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз” Ш.Мирзиёев Ўзбекистон 2017 йил
2. Болалар психологияси ва уни ўқитиш методикаси. З.Нишанова, Г.Алимова; Тошкент 2006й
3. Содиқова.Ш.А.“Мактабгача педагогика”.“Тафаккур сарчашмалар”Т:2013 й

## ОИЛАДА БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ВОСИТАСИДА АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШ ЙЎЛЛАРИ

**Б.Ж. Умаров,**
*БухДУ доценти, п.ф.н,*
**С.З. Жабборова,**
*БухДУ II курс магистранти*

Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш келажагимиз гаровидир. Шунинг учун ҳам болаларда ёшлигиданоқ миллий урф-одатлар, удумлар, анъаналар ва ахлоқий маданияти ҳақидаги тушунчаларни шакллантириш оилага боғлиқ. Оиланинг жамият ҳаётидаги аҳамиятини ўзбек халқи қадимданоқ авлодддан-авлодга ўз ривоят ва ҳикоятлари билан етказиб келмоқдалар.

Халқнинг асрлар давомида таркиб топган тажрибасида тарбиянинг моҳияти, унинг шакл ва методларидан ёшларга ақлий, ахлоқий, меҳнат, эстетик ва жисмоний тарбияда қандай фойдалангани, улар ёшларни оилавий ҳаётга тарбиялашда қандай амалга оширилгани каби масалалар бугунги кунда алоҳида долзарблик касб этмоқда.

Халқ ҳамма вақт инсонни шакллантиришда тарбиянинг моҳиятини тушуниб етган. Шунинг учун ҳам тарбия асосан қуйидаги йўналишларда олиб борилган:

1. Оилада фарзанд тарбияси.
2. Фарзанд тарбиясида ота-онанинг ибрати.

Оилада ақлий, ахлоқий, меҳнат тарбияси ва ҳунар ўргатиш, эстетик ва жисмоний тарбияни амалга ошириш шакл ва методлари. Қуйида биз мазкур йўналишларда оилада тарбиянинг шакл ва методларини қараб чиқамиз. Халқнинг тажрибасидан маълумки, тарбия жараёни мураккаб ва кўп

қирралидир. Зеро, инсон тарбияси билан у туғилган кундан бошлаб шуғулланилади. Шунинг учун ҳам халқ «Сув билан экин ўсар, тарбия билан одам» деб бежиз айтмаган. Қадимги юнон файласуфи Сукротдан сўрадилар:

- Сиз катталардан кўра ёшлар тарбиясига кўпроқ аҳамият берасиз. Бунинг сабаби нима?

Суқрот шундай деб жавоб берди:

- Ёшлар дарахт ниҳолига ўхшайдилар, қандай эгсанг шундай эгиладилар, менинг ваъз-насиҳатларимни тошга муҳр ўйгандек кўнгилларига жойлаштириб оладилар. Шунинг учун мен уларнинг тарбиясига кўпроқ эътибор бераман.

Агар бола бошидан тарбия қилинмай, тарбиянинг вақти ўтган бўлса, бунда уларни қайта тарбиялаш зарур бўлади. Лекин халқ тарбиянинг бир кунлик эмас, балки бир умрлик эканлигини доимо таъкидлаб келган ва бу ҳақда ҳикматли фикрлар билдирган:

Етти ёшга етгунча,
Ер тўқмоғин ерсан.
Етмиш ёшга етгунча,
Эл тўқмоғин ерсан.

Лекин болалар тарбиясида пайдо бўлган кусурлар ота-онанинг вақтида унинг олдини олмаганлигидандир. Бу ҳақда халқ томонидан жуда кўп ҳикматлар яратилган:

«Бешикда теккан кафанда кетар», «Бола туққанники эмас, тарбиялаганники», «Дарахтига кўра меваси, ота-онасига кўра боласи», «Катта арава қайси йўлдан юрса, кичик арава шу йўлдан юрар», «Тоғ ердан ўсиб чиқар, одам ота-онадан», «Эркалатса онаси, талтаяди боласи» кабилар шулар жумласидандир. Чунки ота-она фарзандининг тарбиясида йўл қўйиган камчиликларга ўзи айбдор эканлигини сезмайди. Шунинг учун халқ «Чархни бузган парраси, қизни бузган онаси», «Ўғлингни севсанг, қулдек ишлат» каби ҳикматларни яратган. Халқ фарзанд тарбиясида энг катта камчилик тарбияда талабчанликнинг етарли бўлмаганлигидан деб таъкидлайди. «Ота ғайратли бўлса, бола ибратли бўлади», «Сув бошидан лойқаланади», «Қизини тиймаган, тизини қучоқлар», «Сўнгги пушаймон-ўзингга душман» кабилар юқоридаги фикрнинг далилидир.

Болалар тарбиясидаги нуқсонларни халқ фақат улар инжиқлигининг сабаби эмас, балки тарбиясининг нотўғри олиб борилганида деб билган. Бунда қайта тарбиялашни тавсия этган. Ёш болаларни тарбиялашда ота-оналар ва тарбиячиларда катта маҳорат лозимлигини таъкидлаган. Бунда шахсий ибрат кўрсатиш муҳим ўрин тутади. «Қовун-қовунни кўриб ранг олади», «Игна қаёққа юрса, ип ҳам шу ёққа юрар» каби ва бошқа мақоллар бунинг исботидир. Шу билан бирга халқ ҳар бир боланинг яхши инсон бўлиб шаклланишида тўғри тарбия билан бирга насл-насаб ҳам муҳим аҳамият касб этишини англаб етган.

Болалар тарбиясида тарихий тажрибалардан келиб чиққан ҳолда халқ тарбиянинг бир бутун, яхлит тизимини яратди. Бунда ўгит-насиҳатнинг

аҳамияти катталиги таъкидланган. Бу метод асосида тарбиялашда халқ мақолларидан ўринли фойдаланилган. Қадр-қиммат, бурч ва маъсулиятни ҳис этиш ҳалоллик ва ростгўйлик, яхшилик каби хислатларга эга бўлиш лозимлиги панд-насиҳат воситасида уқтирилган. Масалан: «Бир кун туз ичган жойга қирқ кун салом бер», «Бировга кесак отсанг, у сенга тош отади», «Бировга чоҳ қазима, ўзинг тушарсан», «Айтган ердан қолма, айтмаган ерга борма», «Йўқолган бисот топилар, йўқолган бахт топилмас», «Ёшликда эксанг, қариганда ўрасан», «Ҳосилинг кам бўлса, ҳаводан кўрма», «Ёмоннинг яхшиси бўлгунча, яхшининг ёмони бўл», «Қадрласанг қадринг ошар, қадрсиздан ҳамма қочар» кабилар.

Ўгит-насиҳат эртакларда ҳам кўп қўлланилган. Чунки эртаклар ҳаёт мактаби бўлиб, уларда панд-насиҳатнинг натижаси, ечими ўзини намоён этади. «Уч оға-ини ботирлар» эртаги бунга мисол бўла олади. Ўзбек халқининг миллий қадриятларида намуна кўрсатиш методи ҳам кўп қўлланилади. «Равшанхон» достонида ҳам ота, кампир, ака-укаларда барча ижобий хислатлар мавжуд бўлиб, инсонпарварлик намунасини кўришимиз мумкин.

Аммо дастлаб биз халқ ҳикматлари бўлган мақол ва ибораларда ота-она ва оиланинг бошқа аъзолари намунасини кўриб ўтамиз.

Масалан, «Олти кун оч қолсанг ҳам, отанг одатини қўйма».

«Ота ғайратли бўлса, бола ибратли бўлар».

Ушбу ҳикматли сўзларда болаларнинг қандай инсон бўлиб вояга етиши ва қай даражада турмуш кечириши – ота-онанинг ўзи қандай одам бўлиши, ўзини қандай тутиши, қандай мураббийлик қилишига бевосита боғлиқ эканлиги уқтирилади.

Минг йиллар давомида доно фикр, ўткир ҳақиқат, теран мазмун, сўз хазинасининг бойликларини ўзида мужассамлаштирган сон-саноқсиз ва ранг-баранг мақолларнинг тарбиявий аҳамияти беқиёсдир. «Оғани кўриб ини ўсар, опани кўриб-сингил», «Тегирмонни сув бузар, одамни одам бузар» каби мақоллар ибрат-намунага мисол бўла олади. Чунки ҳар бир оилада укалар акаларга, қиз она, опаларига қараб тарбия олади, вояга етади. Лекин яхши одамлар яхшиларни кўпайтирса, ёмонлар оз бўлса-да ёш авлод тарбиясига салбий таъсир этади.

Демак, ота-она ва катталарнинг ибратли феъл-атвор ва хатти-ҳаракатлари шу оиладаги болаларга ижобий таъсир қилгани каби уларнинг ножўя хатти-ҳаракатлари болаларга салбий таъсир кўрсатади. Оиладаги ёш болалар, ўз табиатларига кўра, кўпинча катталарга тақлид қиладилар. Шунинг учун ҳам ўз оилаларидаги катталар мисолида ижобий ва салбий феъл-атворга эга бўлишлари мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, ўзбек халқининг миллий қадриятларида ёш авлодни оилавий ҳаётга тайёрлашда таълим-тарбия методлари, усуллари кенг қўлланилганки, ўзининг амалийлиги, авлоддан-авлодга ўтиб, тажрибада синалганлиги ва ҳаётийлиги билан тарбия тизимида катта аҳамиятга эгадир. Биз бу борада ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда қўлланилган метод ва

усуллар, фарзанд тарбиясида ота-она ибрати, оилада болаларни ақлий, ахлоқий, меҳнат ва ҳунар, эстетик ва жисмоний тарбиясида халқ ҳикматлари, мақол ва иборалар, ҳикоятлар, ривоятлар, эртаклар, достонларда халқ фойдаланган метод ва усулларни ҳозирги даврда ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда қўллаш муҳим ҳисобланади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**


1. Бобомирзаев Х. Халқ оғзаки ижоди ва унинг таълим-тарбиядаги самараси. - Т.: Ўқитувчи, 1991. - 173 б.
2. Воҳидов М. Бола шахси ва унинг шаклланиши. -Т.: Ўқитувчи, 1972. - 32 б.
3. Иномова М. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси.-Т.: ТДПУ, 1999-152 б.
4. Каримов Ш.М. Оилада баркамол инсонни шакллантириш. -Т.: 1995.- 56б.
5. Маҳкамов У. Ўқитувчиларнинг ахлоқий маданиятини шакллантириш муаммолари. -Т.: Фан. 1995. - 200 б.


## МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ОИЛАДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ


**Б.Ж. Умаров,**
*БухДУ доценти, п.ф.н,*
**Г.Р. Курбонова**
*БухДУ II курс магистранти*


Болалар дунёқарашини шакллантиришда турли омиллар турлича таъсир этади. Бу омиллар ичида оила энг асосийси ҳисобланади. Зеро, болада тасаввур тушунчаларнинг шаклланиш жараёни айнан оилада бошланади ва бу давр дунёқарашни шаклланишнинг мазмунини ҳажм жиҳатидан энг салмоқли босқичдир. Шунинг учун ҳам тушунча ва тасаввурларни шакллантиришда мактабгача ёшидаги даври асосий давр ҳисобланади. Дунёдаги машҳур, комил кишилар (Форобий, Ибн Сино, Амир Темур, Жомий, Навоий, Бобур) айнан маданият ва санъат соҳасида ҳам ўзига хос салоҳиятга эга бўлганлар. Бизнинг тарихий ўтмишимизда бунга ибратли мисоллар кўп. Шунинг учун ҳам болаларда оиладан бошлаб дастлабки тасаввур ва тушунчаларни шакллантириш, унда ибратли намуналардан ҳам оқилона фойдаланиш бўлажак маънавиятли, маданиятли, интеллектуал салоҳияти юқори инсонни тарбиялашнинг дастлабки, айни пайтда энг муҳим жабҳасидир.

Мактабгача ёшдаги болаларни оилада соғлом турмуш тарзини шакллантиришда мактабгача таълим ташкилотлари, оила ва жамоатчилик ҳамкорлиги муҳим аҳамиятга эга. Мазкур ҳамкорлик негизида МТТ, оила, маҳалла, мактабгача ёшдаги болаларни оилада соғлом турмуш тарзини

шакллантиришдаги фаолияти мазмунан такомиллашади, иш шакл ва методлари бойитилади, ўзаро тажриба алмашилади, иш фаолиятида танқидий ва тақлидий ёндошув пайдо бўлади, тарбиявий ишларда такрорлаш, қайтаришларга йўл қўйилмайди, тарбия жараёни сифат кўрсаткичлари ўсади, ўзаро ҳамкорликнинг яхлит механизми яратилади, мактабгача ёшдаги болаларни оилада соғлом турмуш тарзини тарбиялашдаги давр талаби, таълим-тарбиявий ишларни илмий, амалий, юқори савияда ўтказиш имконияти вужудга келади.

Таълим тизимини ислоҳ қилишнинг энг муҳим жиҳатларидан бири - бу мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиларнинг профессионаллик даражасини ошириш ва замонавий талабларга жавоб бера оладиган, соғлом турмуш тарзига эга тарбиячиларни тайёрлашдан иборат. Тарбиячининг соғлом турмуш тарзига эга бўлиши унинг ҳаётий принципи ҳисобланмоғи лозим.

Зеро, мактабгача ёшдаги болалар саломатлигини муҳофаза қилиш, уларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш масалаларини ҳал этишга имкон берувчи самарали педагогик технологияларни ишлаб чиқиш, оилада мактабгача ёшдаги болаларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш жараёнига ушбу муаммонинг дидактик ва илмий-методик асосларини яратиш бугунги кунда долзарб педагогик муаммо ҳисобланади.

Оилада мактабгача ёшдаги болаларни соғлом турмуш тарзини шакллантириш таълим-тарбия жараёнида ишлатилаётган педагогик усул, шакл ва воситаларнинг даражаси ва салмоғига боғлиқ. Таълим-тарбия жараёнининг мақсадли ташкил қилиниши унинг шакл, усул ва воситаларининг аниқ ва тўғри танлашига боғлиқ бўлади. Тадқиқотлар жараёнида таълим-тарбиявий ишларни, шакл, услуб воситаларининг танлашига доир қуйидаги бош тамойиллар ишлаб чиқилди: шакл, услуб ва воситаларнинг маънавий-ахлоқий нормалар асосида танланганлиги; мазмундорлик асосида танланганлиги; илғор педагогик технологиялар асосида танланганлиги; ижодкорлик асосида танланганлиги.

Тадқиқотларда оилада мактабгача ёшдаги болаларни соғлом турмуш тарзини шакллантириш жараёнида бир қанча таълимий ва тарбиявий воситалардан ўринли, мақсадга мувофиқ, эркин ва ижодий, замонавий ва самарали фойданишга алоҳида эътибор қаратилди. Тадқиқот доирасида ўтказилган барча педагогик тадбирлар қуйидаги воситаларнинг самарали эканлигини тасдиқлади:

- таълим жараёнининг техник қурилмалар (видео, магнитофон, аудио, мульти-медиа воситалари) билан таъминланганлиги;
- мавзуга оид махсус оммабоп ва илмий манбаларнинг мавжудлиги, улардан фойдаланишнинг қулайлиги, ҳаммабоп эканлиги;
- миллий қадриятлар ва миллий маданият омиллардан унумли фойдаланиш имкониятининг мавжудлиги (суҳбатлар, учрашувлар, музей, кино, театрга бориш);

- ҳаётий воқеаларни турли соҳа вакиллари билан бўлган мулоқотлар орқали муҳокама қилиш имкониятининг яратилиши.

Мазкур педагогик жараёнда индивидуал ёш хусусиятлари, уларнинг ўз фикрига эга бўлишга интилиши, уларнинг мулоқот олиб бориш, баҳс қилиш, ўз фикрини бировларга етказиб бера олиш маданияти даражаларини ҳам инобатга олиш зарурлиги тасдиқланди. Зеро, соглом турмуш тарзи инсоннинг умумий маданият даражасини белгиловчи бош қадрият ҳисобланади. Оила бошка тарбиявий муассасалардан фаркли равишда одамнинг бутун ҳаёти давомида унинг барча томонларига, кирраларига таъсир курсатишга кодирдир ва одатда таъсир курсатади. Оила тарбия вазифасининг бу улкап микёси унинг мафкуравий ва психологик таъсир курсатиишнинг чуқур узига ҳослиги билан уйгунлашиб кетади. Бу эса уни олий даражада таъсирчан килибгина колмай, шу билан бирга шахсни шакллантириш жараёнининг зарур бугинига ҳам айлантиради.

Оиланинг юксак тарбиявий имконияти шахслар ва ота-оналарнинг узига ҳос ҳусусиятлари: кон-кариндошлиги, муҳаббати, якинлиги, ишончи, бурч ҳисси, обрулилиги ва ҳоказолар билан таъминланади. Уз фарзандининг барча заиф ва кучли томонларини йургакдаги чогидан биладиган, унинг калбидаги энг кичик ҳаракатни ҳам сезадиган ва тушунадиган, унга таъсир этишни биладиган онадан ва отадан я ҳширок. ким ҳам уларни эзгуликка, меҳнатсеварликка, дустликка, муҳаббатга ургата олади!

Маълумки, хилма- ҳил фаолият шароитида шахснинг кобилиятлари энг самарали ривожланади, унинг ижодий имкониятлари очилади, шахсни оиладан бошка каерда ҳам фаолиятнинг ҳилма- ҳил турларига жалб этиш мумкин. Оилавий тарбиянипг кимматлилиги ва а ҳамияти яна шундаки, кичик шахслик пайтида оилада эгалланган нарсалар бир умр сакланиб колади. Худди шунинг учун ота-оналарнинг шахсларни ҳар томонлама тарбиялаш мажбурияти конуний тарзда белгилаб куйилган.

Оила бошка тарбиявий муассасалардан фаркли равишда одамнинг бутун ҳаёти давомида унинг барча томонларига, кирраларига таъсир курсатишга кодирдир ва одатда таъсир курсатади. Оила тарбия вазифасининг бу улкан микёси унинг мафкуравий ва пси ҳологик таъсир курсатиишнинг чукур узига ҳослиги билан уйгунлашиб кетади. Бу эса уни олий даражада таъсирчан килибгина колмай, шу билан бирга шаҳсни шакллантириш жараёнининг зарур бугинига ҳам айлантиради.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: 1997, 30-61-бетлар.
2. Абдураҳмонова Д.А. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ахлоқий руҳда тарбиялашда халқ эртакларидан фойдаланиш: Пед. фанл. ном. дисс … – , 1998. – 171 б.
3. Иномова М. Оилада болаларнинг-маънавий аҳлоқий тарбияси. –Т.: 1999

4.О.Сафаров, М.Ҳ.Маҳмудов "Оила маънавияти". Т.: 2010
5. P.Yusupova. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi", Toshkent, 1993
6. Иномова М. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси.-Т.: ТДПУ, 1999-152 б.
7. Каримов Ш.М. Оилада баркамол инсонни шакллантириш. -Т.: 1995.-56б.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA ESTETIK TARBIYANING O'RNI

**S. Avezov,**
*BuxDU f.f.n dots,*
**U. Muxsinov,**
*BuxDU, II kurs magistranti*

O'zbekiston Respublikasining bundan keyin rivojlanishi bevosita ta'lim-tarbiya natijasiga bog'liqligi barchaga ayon. Ta'lim-tarbiyani takomillashtirmay ma'naviy boy barkamol insonni tarbiyalash mushkul. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi belgilab berilgan ijtimoiy vazifalardan kelib chiqib yosh avlod ta'lim-tarbiyasini tashkil etishi kundalik hayotning o'zi talab qilmoqda. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning : "Yashashdan maqsadim nima? degan savolga javob ham shu tarzda idrok etiladi. Yaxshi tarbiya topib, hunar va ilm egallab, Vatanga, xalqiga xizmat qilishdan ham ortiq baxt yo'q inson farzandi uchun" –degan dono fikrlarida yosh avlodni erta yoshlik davridan har tomonlama barkamol, jismonan baquvvat va keng dunyoqarashlilik ruhida tarbiyalash nazarda tutganlari tabiiydir. O'zbekiston istiqlolini mutastahkamlashda va uni rivojlantirishda ma'naviy sog'lom avlodni oilada estetik tarbiyali qilib voyaga yetkazish va ularni milliy urf - odatlarimizni shakllantirishimiz zarur.

Estetik tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, oilaning bola bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir. Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari oila tarbiyachisi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi:

a) bolaning qaysi hislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.
b) shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalarni izlab topiladi.
c) belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlashni rejalashtiriladi.

Zero, xalqimiz qadim-qadimdan amal qilib kelayotgan odob-axloq fazilatlari ma'naviyatimizning asosidir. Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo'lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabati tarbiyalash kiradi.

Estetik tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim tashkilotlarida musiqa va tasviriy san'at darslari, adabiyot kabi fanlarning o'qitilishi estetik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish vositasi hisoblanadi. Estetik tarbiya axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liqdir. Estetik tarbiya quyidagi vazifalardan iborat:

- shaxsga ijtimoiy voqelik, ekologik , jismoniy, iqtisodiy va mehnat munosabatlari hamda turmush go'zalliklari va ularni anglash to'g'risidagi bilimlarni berish;
- shaxsda ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go'zalliklarini anglash va idrok qilish qobiliyatini tarbiyalash,
- unda mavjud go'zalliklarni qadrlash hissi hamda estetik didni shakllantirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish;
- go'zallikni yaratish ehtiyojini qaror toptirish, bu boradagi qobiliyat va estetik madaniyatni shakllantirish.

Estetik tarbiya bola tug'ilgandan, boshlab umrining oxirigacha amalga oshiriladi. Shu sababli, u nafaqat oilada, maktabda, balki sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriluvchi tadbirlarda, turli anjumalarda yosh avlodni go'zallik va nafosatni his etishga undovchi vositadir.

Nafosat tarbiyasining asosi oiladan boshlanadi, go'daklik vaqtida ovqatlanish, uxlash tartibiga rioya etish, uyda ozodalik, saranjom-sarishtalik, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, qadr-qimmat bola qalbida o'chmas iz qoldiradi. Nafosat tarbiyasi orqali ovqat pishirish, dasturxon atrofida o'tirib ovqatlanish jarayonidagi azaliy sharqona odat, odob qoidalariga amal qilish o'rgatiladi. Oila go'zallik tarbiyasining birinchi o'chog'i bo'lsa, undan keyin maktab, o'qituvchi-tarbiyachi o'giti, jamoatchilik, kattalar ta'siri ta'lim - tarbiyada muhim o'rin tutadi. Mana shu jarayonda bolaning bar bir xatti-harakati kuzatib borilishi, xatolarini sabr, chidam, o'rni, yotig'i bilan tuzatib turilishi lozim.

“Assalomu alaykum" dan boshlab, chehra tabassumi, kattalar oldida bosh egib turish, har bir nasihati uchun minnatdorchilik bildirish, ketishga ruxsat so'rash - bular birinchi o'rindagi talablarga kiradi. Ayniqsa, so'zlash odobiga jiddiy e'tibor berish darkor. So'zlaganda tinglayotgan kishi ko'ziga qarab turish, so'zlab turib u yoq- bu yoqqa alanglash yoki teskari qarab to'ng'illash odobsizlik ekanligini yaxshi anglab yetish, og'izdagi luqmani yutgandan keyin ohista gap boshlash, shoshilmay, dona-dona qilib, maqsadni aniq, dangal, ravshan, eshitarli ovoz bilan tushuntirish kerakligi o'rgatiladi. Bular - odob go'zalligidir. Nafosat tarbiyasi orqali o'z-o'zini boshqarish shakllanadi. Bu o'z-o'ziga asta-sekin talabchanlikni keltirib chiqaradi. O'z-o'zini tergash, o'zini mustaqil, ongli, oqilona boshqarish o'z xulq-atvori, xatti-harakatiga baho bera bilish ko'nikmalarini egallash demakdir. Nafosat tarbiyasi maktabda o'qitiladigan barcha darslar jarayonida olib boriladi. Lekin, xar bir predmetning xususiyatiga qarab estetik tarbiya vositalari usul va metodlari o'ziga xos bo'ladi. Masalan, tasviriy san'at darslari narsaning o'ziga qarab rasm chizish, dekorativ rasm chizish, tema asosida rasm chizish, tasviriy san'atdan suxbatlar kabi turlarga bo'linib, har bir rasm chizish darslarida nafosat

tarbiyasining o‘ziga xosligi mavjud. Tasviriy san’at darslarining asosiy vazifalari: o‘quvchilarning san’at bilan muloqatda bo‘lishi, rassomlik xaykaltaroshlik, arxitektura, grafika, xalq amaliy bezak san’ati soxasida faoliyat, ko‘nikma va malakalarni egallash, tasviriy san’at tarixi haqida ma’lumot berish, atrofdagi xayot va san’atni estetik idrok qila bilishdir. o‘z xayotini go‘zallik sonunlari bo‘yicha tashkil qilish va hokazo hisoblanadi.

Estetik tarbiya insonning estetik ongini shakllantirish jarayonida uni axloqiy, mehnatsevarlik, ekologik jihatlardan ham tarbiyalash vazifalarini qamrab oladi.Estetik tarbiyaning axloqiy tarbiyaga ta`siri shundaki, nafosat olami ezgulik va yaxshilikdan, beg‘arazlikdan ajralmagan holda amal qiladi. Estetik tarbiyaning mehnat tarbiyasi bilan birlashib ketishi, mehnat qilish shaxsning tabiiy ehtiyojiga aylanib borishida o‘z ifodasini topadi. Estetik tarbiya insonning estetik ongini shakllantirish jarayonida uni axloqiy, mehnatsevarlik, ekologik jihatlardan ham tarbiyalash vazifalarini qamrab oladi. Estetik tarbiyaning axloqiy tarbiyaga ta`siri shundaki, nafosat olami ezgulik va yaxshilikdan, beg‘arazlikdan ajralmas holda amal qiladi. Estetik tarbiyaning mehnat tarbiyasi bilan birlashib ketishi, mehnat qilish shaxsning tabiiy ehtiyojiga aylanib borishida o‘z ifodasini topadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida estetik tarbiyaning o‘rni beqiyos. Bolada ma`naviy ongning shakllanishida, estetik tarbiya berishda ota-ona bilan tarbiyachi hamkorligi bolada estetik tarbiyani berishda yaxshi natija beradi.. Oilada bolalarni estetik ruhni tarbiyalash, estetik tarbiya berish uning nazariy ahamiyatidir. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, unda keltirilgan metodik tavsiyalar amaliy vositalardan kelgusida bolalani oilada estetik ruhda tarbiyalashda ota-onalar, shu soha pedagoglariga, mutaxassislariga muhim manbaa sifatida xizmat qiladi degan umiddamiz. Estetik taraqqiyot shaxsning estetik ongi, munosabati va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida o‘zaro talab etadigan jarayondir. Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o‘zlashtirish natijasida yuzaga keladi. Bu har xil yo‘llar va shakllar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning estetik jihatdan rivojlanishida ma’lum maqsadga qaratilgan ta’lim va tarbiya hal etuvchi rol o‘ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.M.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. T; 2016 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998. –20-29 b.
3. Bola ma`naviyatini shakllantirish (Yo‘ldoshev J.tahriri ostida) – Toshkent: Sharq, 2000.-301 bet.
4. P.Yusupova. “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi”, Toshkent, 1993
5. http://www.uzedu.uz
6. http://pedagog.uz
7. http://www.ziyonet.uz

# MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNI AQLIY RIVOJLANTIRISH OMILLARI

**G. Kamilova,**
*BuxDU, Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti,*
**N. Jabborova,**
*BuxDu, I kurs magistranti*

*Maqolada maktabgacha ta'limda bolalarni aqliy rivojlantirishning omillari, usullari va yo'llari haqidagi fikrlar ilgari surilgan.*

2020 yilni Prezidentimiz tomonidan ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e'lon qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilm-fan va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratdi. «Sharq donishmandlari aytganidek, eng katta boylik - aql- zakovat va ilm, eng katta meros bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu bilimsizlikdir». Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish chinakkam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzliksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishishimiz uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnalogiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi, zero bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Yurtimiz axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo'yicha 2019 yil 8 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsada, hali juda orqadamiz. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalaridan yiroq desak, bu ham haqiqat. Shunday ekan «raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma ko'p mablag' va mehnat resurslarni talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq qanchalik qiyin bo'lmasin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu ishga bugun kirishmasak qachon kirishamiz, ertaga juda kech bo'lishi mumkin. Shu bois «Raqamli iqtisodiyot»ga faol o'tish kelgusi besh yildagi eng ustivor vazifalarimizdan biri bo'ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni ham kamaytiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimida ham raqamli texnologiyani keng joriy etib natijadorlikni oshirish bir so'z bilan aytganda bolalarga bilim berish sifatini oshirish, samaradorlikka erishish mumkin.

Mamlakatimizda ilm fanni yanada ravnaq toptirish yoshlarimizni chuqur bilim yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo'lib, barcha sohamiz mutaxassislari oldiga bir qancha vazifalarni qo'yadi. Shu sababli barchamiz ushbu yilni mamnuniyat bilan qarshi oldik va o'zimiz uchun bir qancha maqsadlarni belgiladik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli, 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni, 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli qarori, shuningdek

Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh sonli "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturini amalda joriy etish, shu asosda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi.

"Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuvlar" maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. Hozirgi davrda bolalarimiz texnikaga planshet, telefon, kompyuter va televizor kabi axborot texnika vositalariga juda ham qiziqish bilan qarashadi, buni mashg'ulot jarayonida ham kuzatib guvohi bo'lganmiz Shunday ekan biz tarbiyachilar o'z mashg'ulotlarimizda axborot texnologiyalaridan foydalanib, qiziqarli qilib multimediya, audio, video va multfilm disklari tayyor ertaklar asosida ishlangan animatsiyalardan foydalanib zamonaviy yondashgan holda ijodiy fikrlab mashg'ulotlarimizni olib borsak samarali natijalarga erishamiz va ta'limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib bergan bo'lamiz.

Bunda bolalar o'zlashtirishi ham yuqori bo'ladi. Hozirgi davrda ham ota-onalar va bolalar bilan «onlayn bog'cha », «onlayn mashg'ulot» lar uzluksiz ravishda olib borilmoqda va bolalarning bilim-ko'nikmalari oshirilmoqda. Bu biz ustozlarning ham ortiqcha sarf -xarajatlar va vaqtimizni ham tejaydi. Inson tafakkuri nihoyatda kuchli bo'lib, bu kuchning beqiyosligi uning yoshligidan bilimlarni qanday va qancha o'zlashtirishga juda bog'liqdir. Pedagog va psixologlarimiz fikricha bola 7 yoshgacha insoniyat tajribasining 70% ni o'zlashtirar ekan. Demak mana shu yoshgacha bolaga eng kerakli bilimlarni yoshiga mos ravishda berish bolaning kelajakda qanday inson bo'lishiga juda katta turtki bo'ladi. Maktabgacha yoshdan bolalarda matematik bilimlarning yetarli bo'lishiga katta axamiyat berish muhimdir. Chunki, inson hayoti davomida matematik hisob-kitoblarga tez-tez duch keladi, ya'ni matematik bilimlar har qadamda kerak bo'ladi. Agar biz maktabgacha yoshdan bolalarni matematika olamiga turli qiziqarli usullardan fodalangan holda olib kira olsak, matematik bilimlar bilan yetarli darajada qurollantirsak, ular maktabda a'lo baholarga o'qib, yuqori natijalarga erishadilar, hayoti davomida xalqimiz uchun foydali kasbni tanlash va chuqur egallashda qiynalmaydilar. Chunki qaysi kasbni olmaylik uni mahorat bilan bajarishga albatta matematik bilimlar kerak bo'ladi.

Shunday ekan zamonaviy, hozirgi davrda rivojlanib borayotgan «Mental arifmetika» iborasi yaqin kunlardagina ko'pchilikning og'zida paydo bo'la boshladi. Xo'sh «Mental arifmetika» nima? Nega uni turli xil tayorlov kurslarida tinmay namoyish (reklama) qilishayaptilar. Agar «Mental arifmetika»ga ta'rif beradigan bo'lsak – bu maxsus hisoblar-abakus (sarobani) vositasida arifmetik hisoblashlar yordamida aqliy qobiliyatlarni va ijodiy salohiyatni rivojlantirish dasturi deyishimiz mumkin. Ushbu san'at va aql-idrokni rivojlantirish dasturini oladigan bo'lsak, biz uni MTM larida 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda bemalol qo'llashimiz mumkin va matematik amallarni bir necha soniyada bola uni

xayolda hech qanday vositalarsiz jihoz-buyumlarsiz yoddan yecha oladi. Bizning hayotdagi omadimiz ko‘p holda aql idrokimizga bog‘liq. Mental arifmetika-bu san’at, aql idrokni rivojlantiruvchi dasturdir. Ushbu dasturni Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolajonlarga qo‘llasak nafaqat o‘qishda muvaffaqiyatga uchraydi balki hayot motivatsiyasi (ichki turtkiga)ega bo‘lib maqsadga intiluvchan bo‘ladi. Ushbu dasturni egallagan o‘quvchilar bir qancha davlatlarda yuqori natijalarga erishmoqda. Bunda ham albatta bolalarning qiziqish va iqtidori hisobga olinadi. Mental arifmetika bu yuqori sifatli dastur bo‘lib matematik amalni miyada kankulyatordan ham tezroq hisoblashni o‘rgatadi. Mental arifmetika bolalarga quyidagi malakalarni rivojlantirishga yordam beradi. Diqqatni jamlash, tasviriy xotira, ijodiy fikrlash, tinglash va kuzatuvchanlik, tasavvur qilish, mantiq , analitik fikrlash. Ushbu dastur bo‘yicha ta’lim olayotgan bolalar nafaqat matematikadan balki boshqa fan sohalarida ham muvaffaqiyatga erisha oladilar bu dasturda ular o‘ziga ishonuvchanlikka va qiyinchilikni yenga olishga ega bo‘ladilar. Hozirgi paytda atrofda chalg‘ituvchi omillar ko‘p bo‘lganligi sababli bolalarning ustivor yo‘nalish tanlash va o‘qishga qiziqishi qiyin bo‘lib bormoqda. Aynan shu muammoda mental arifmetika ota-onalarimiz va tarbiyachilarga yordam beradi. Bu dastur bilan shug‘ullangan bolalarda:

1) Bir necha soniya ichida har qanday sonni amalda qo‘shish ayirishga qodir bo‘ladilar;
2) Mustaqil ravishda rasm chizish xotira va ijodiy fikrlash qobilyatini rivojlantiradilar;
3) Mashg‘ulotlarda yuqori darajada dikkat e’tiborni jamlay oladilar;
4) mantiqiy masalalarni yechishda tasavvurdan foydalanadilar;
5) Amaliyotda yetakchilik sifatlarini samarali qo‘llaydilar;

Bu bilimlar yordamida bolalar idrok qilinadigan ob’ektlarning xususiyatlarining analiz va sintez qilish taqqoslash va umumlashtirishning eng sodda bog‘lanishlarini hamda ular orasidagi munosabatlarini tushunib oladilar. Ilk matematik tushunchalarning qanchalik aniq va mukammal bo‘lishi bolalar tafakkurining analiz va sintez, mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish jarayonlarining kuchli bo‘lishini ta’minlaydi, ya’ni matematika bolalarni mantiqiy fikrlashga – to‘g‘ri fikrlash, to‘g‘ri fikrlardan xulosalar chiqarishga o‘rgatadi, shu bilan birga nutqning takominlashuviga katta yordam beradi.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarni matematika olamiga olib kirar ekan, turmushdagi barcha jarayonlarda matematikaga duch kelishimiz va xayotda matematik bilimlar har qadamda kerak bo‘lishi haqida bolalarda tasavvur hosil qilishi muhimdir. Ilk matematik tushunchalar bolalarning yoshiga mos tarzda qiziqarli qilib o‘rgatilsa, samarali natijalarga erishiladi. Bolalarda umumiy bilimlar bilan birgalikda o‘ziga bo‘lgan ishonch, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini chiroyli ifoda eta olish kabi fazilatlar shakllanadi.

**Adabiyotlar:**
1. Z.Raxmonqulova, U. Raxmonqulov, N.Qurbonova «Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini shakillantirish»,"Bekinmachoq-pluys" 2012 yil.
2. G.I. Ualiyeva, N.I. Rejametova «Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondoshuvlar moduli bo'yicha o'quv- uslubiy majmua» Toshkent-2018
Elektron ta'lim resurslari:
1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: www.uzedu.uz.
2. Xalq ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi: www.multimedia.uz
3. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: www.giu.uz
4. Ijtimoiy axborot ta'lim portali: www.ziyonet.uz.
5. Maktabgacha ta'lim vazirligi: www.mtv.uz.
6. Respublika bolalar kutubxonasi: www.kitob.uz.
7. «Maktabgacha ta'lim» jurnali: www.jlmt.uz.

## МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА ИННОВАЦИОН МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНШ

**Г. Камилова,**
*БухДУ, Мактабгача таълим кафедраси доценти,*
**Н. Насимова,**
*БухДу, I курс магистранти*

Мақолада мактабгача таълимнинг долзарб муаммолари ва таълим бериш жараёнида инновацион методлардан фойдаланиш тўғрисидаги фикрлар илгари сурилган.

Мактабгача таълим муассасасидаги тўғри ташкил этилган педагогик-психологик жараён тарбияланувчиларни замонавий билимлар билан қуроллантиришни, ахлоқий воқеаларнинг умумий маъносини англаб олишларида ёрдам беради. Бугунги кунда мактабгача таълим тизимига оид чиқарилаётган қарор ва фармонлар, мактабгача таълими тизимига тубдан замонавий ёндошувни талаб этади. Бу ўз-ўзидан мактабгача таълим муассасаларида ўтилаётган машғулотлар сифати ва самарадорлигини баҳолашни замон талаби даражасига етказишни тақозо этади. Замонавий таълим олдида турган энг муҳим вазифа бола шахсининг илм олишга бўлган қизиқишини, эҳтиёжини қондиришга қаратилган.

«Педагогик технология бу бутун ўқитиш ва билимларни самарадорлаштириш вазифасини қуювчи техник ҳамда шахс ресурслари ва уларнинг узаро алоқасини ҳисобга олиб яратиш, қўллаш ва белгилашнинг тизимли методидир ». Ушбу таърифида бу тушунча « тизимли метод »

эканлиги асос бўлиб қолган сўзлар педагогик технологияларнинг тизимли таркибий қисмларини ифодалайди. Таълим жараёнида интерфаол методлардан фойдаланиш, таълим самарадорлигини оширадиган инновацион усулдир.

Мактабгача таълимда машғулотларни ташкил этиш ва уни жаҳон талаби даражасида ташкил этиш муҳим саналади. Машғулотлар мактабгача ёшдаги болаларни мактаб таълимига тайёрлашнинг асосий воситаси ҳисобланади. Машғулотлар боланинг ҳар томонлама гармоник ривожланган шахс сифатида камол топишида алоҳида рол ўйнайди. Таълим-тарбия жараёнида қўлланиладиган метод ва усуллар давлат талабларида кўрсатилган вазифаларни ҳал этишда муҳим ҳисобланади. Мактабгача таълимда бугунги кун талабидан келиб , энг самарали илгор педагогик технологиялар асосида ташкил этиш муҳим вазифалардан биридир. Бунинг учун аввало, педагогик технологияларнинг моҳиятини билиш ва англаш зарур.

Янги педагогик технологиянинг афзаллиги замон синовидан ўтиб, интерфаол машғулотларнинг сифат ва самарадорлигини оширишда муҳим омил эканлиги ўзининг ижобий натижасини бермоқда. Айниқса хорижий давлатлар тажрибасига асосланиб, таълим-тарбия ишларини ташкил этиш ва улардан фойдалаинш яхши самара беради. Чунки илк мактабгача давридан бошлаб тўгри берилган таълим, келажакда мактаб таълимига тайёрлашда муҳим туртки ҳисобланади. Бизнинг фикримизча, кундалик ҳаётдаги ижтимоий муносабатларни, табиат ва табиий ҳодисаларнинг объектлари ўртасидаги алоқаларни бадиий кўриниш тарзида ёритиш асосида вужудга келтирилган муаммоларни ўқувчиларнинг ўзлариларидаги билим захираларига таянган ҳолда ҳамкорликда, босқичма-босқич ҳал этиш жараёнида янги билимларни эгаллашга қаратилган дидактик ўйинларни сюжетли-ролли ўйинлар деб аташ лозим. Бунда ўйин сюжети жамиятдан ёки табиатдан олинади. Баъзан жамият ва табиатдаги муаммолар уйғунлаштирилади. Биология курсини ўқитишда «Аъзоларнинг мослашганлиги ва нисбийлиги », «Турлардан оқилона фойдаланиш ва уларнинг хилма-хиллигини сақлаш», «Орол дарди-олам дарди», «Табиатни муофаза қилиш муаммолари» мавзуларни сюжетли-ролли ўйинлар тарзида ўтказиш мақсадга мувофиқ.

Замонавий таълимни ташкил этишда ролли ҳамда ишбоп ўйинлардан самарали фойдаланишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Болаларда муайян фаолият юзасидан эгалланган назарий билимларни амалий кўникма ва малакаларга айлантириш, уларда таълимий фаолликни юзага келтириш, уларни ижтимоий муносабатлар жараёнига кенг жалб этишда ролли ҳамда ишбоп ўйинлар ўзига хос ўрин тутади. Бугунги кунда таълим жараёнида қўллаш ниҳоятда кулай бўлган бир қатор ўйинли технологиялар яратилгандир.

Таълимнинг ишбилармонлик ёки ролли мусиқали ўйинлар усули муаммоли вазифани, тарбияланувчилар томонидан ролларга бўлиниб

ўйналадиган ҳаётий вазиятларни саҳналаштириш орқали ҳал этадилар. Таълимнинг бу усули қуйидаги вазифаларни бажаради:

- ўргатувчи-тарбияланувчиларда билим олиш маҳоратини шакллантиришни аниқлаш ва тахлил этиш;
- мантиқий тафаккурни, нутқни, атроф-муҳит шароитига ўргатиш қобилиятини ўстириш;
- мотивацион-тарбияланувчиларни ўқув фаолиятига ундаш, мустақил хулосага келишга ўргатиш;

тарбиявий маъсулият, коммуникацияликни шакллантириш.

Ўйин усуллари ва вазиятни машғулотнинг белгиланган шаклида амалга ошириш қуйидаги асосий йўналишлар бўйича амалга оширилади :

-таълим-тарбия фаолияти ўйин фаолиятига бўйсунади

-ўйиндан восита сифатида ўқув материалида фойдаланилади

-таълим-тарбия беришда ўйин дидактик вазифани бажаради.

Дидактик вазифанинг муваффакиятли бажарилиши ўйин натижаси билан белгиланади.

Жамиятдаги ижтимоий-иқтисодий муносабатларни акс эттиришга, болаларнинг муайян билим, кўникма ва малакаларини шакллантиришга қаратилган ҳамда касбий сифатларини таркиб топтириш, уларни онгли равишда касбга йўллаш, илмий дунёарашини кенгайтиришга мўлжалланган дидактик ўйинларни ишбилармонлар ўйини дейилади. Ишбилармонлар ўйини ҳам бошқа ўйинлар каби тарбиячи ва болалардан пухта тайёргарлик кўришни талаб этади. Бу эса таълим сифатини янада яхшилаб, болаларнинг мактаб таълимига сифатли тайёр бўлишлари учун мустахкам замин яратади.

## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TA'LIM BERISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

**G. Kamilova,**
*BuxDU, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti,*
**N.B. Jabborova,**
*BuxDU, I kurs magistranti*

*Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yaxshilash pedagogik fan va amaliyot oldida turgan ijtimoiy ahamiyatga ega muammolardan biridir. Faqat o‘qituvchining faol hayotiy pozitsiyasi, uning kasbiy mahoratini oshirish talabalarning eng muhim huquqlaridan biri - sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga yordam beradi.*

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim

sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo‘lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta’lim tizimni yaratish ko‘zda tutilgan. Jamiyat taraqqiyotida o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma’naviy barkamolligi, ta’lim-tarbiya sohasi vakillarining mas’ulligi ham muhim o‘rin tutadi. Bu jihatning maqsadga muvofiqligi shu jamiyatning har tomonlama ravnaqini belgilovchi o‘zak nuqta sanaladi. Ushbu ijtimoiy-tabiiy qonuniyat insoniyat tarixining hamma davrlarida ham dolzarb o‘rinni egallab kelgan. Bu borada maktabgacha ta’lim sohasi ustuvor mavqeni egallaydi. Zero, inson umri davomida oladigan axborotlarning asosiy qismi maktabgacha ta’lim davriga to‘g‘ri kelishi boisidan, bu davrda bolaning kelajagi, shaxs sifatidagi takomilida tamal vazifasini o‘tovchi muhim va munosib ma’lumotlarni taqdim qilib borish ijtimoiy-pedagogik zaruratdir.

Tarbiyani maktabgacha ta’lim davridan boshlab, ya’ni bola dunyoga kelishi va uning o‘sib-unib borishi jarayonida tizimli olib borish inson kamolotida muhim o‘rin tutadi. Bu borada davlatimiz rahbarining 2018 yil 14 fevralda maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish chora tadbirlari natijalarining tahlili bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda “Bolalarimizning go‘dakligidan ongi va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviyali, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin kechadi”,- deya ta’kidlagani ham bejiz emas.

Bolalar bog‘chasida ta'lim va tarbiyaning umumiy asosi nutq mahoratidir. Ona tilini aloqa va bilim vositasi va usuli sifatida o‘zlashtirish - bu bolani maktabgacha yoshdagi eng muhim yutuqlaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning og‘zaki muloqot qilish imkoniyatlarini shakllantirish bolalar bog‘chasiga maxsus ishlab chiqilgan aloqa vaziyatlarini (individual va jamoaviy) kiritishni o‘z ichiga oladi, unda o‘qituvchi nutqni rivojlantirish uchun muayyan vazifalarni qo‘yadi va bola erkin muloqotda ishtirok etadi. Bunday vaziyatlarda lug‘at kengayadi, niyatni ifoda etish usullari to‘planadi va nutqni tushunishni yaxshilash uchun sharoitlar yaratiladi. Birgalikda maxsus o‘yinlarni tashkil qilishda bolaga umumiy vositani hal qilishda til vositalarini, individual "nutq hissasini" tanlash imkoniyati beriladi - bunday o‘yinlarda bolalar doimiy ravishda o‘zgarib turadigan aloqa vaziyatlarida o‘z fikrlari, niyatlari va hissiyotlarini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Bolalarning ona tili nutqini rivojlantirish, ona tilining boyligini egallash shaxsiyatni shakllantirishning asosiy elementlaridan biri, milliy madaniyatning rivojlangan qadriyatlarini rivojlantirish, aqliy, axloqiy, estetik rivojlanish bilan chambarchas bog‘liqdir va maktabgacha yoshdagi bolalarni tilda o‘qitishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. San'at bolaning ma'naviy dunyosini boyitish, hayotini yorqin, g‘ayrioddiy, qiziqarli voqealar bilan to‘ldirishda katta rol o‘ynaydi. San'at - bu aqliy hayotning muhim jihatlarini - hissiy sohani, xayoliy fikrlashni, badiiy va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning o‘ziga xos vositasidir. Aynan maktabgacha yoshda estetik ong va badiiy madaniyatning poydevori qo‘yilib, badiiy faoliyatga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Shu munosabat bilan, bolaning

hayotini san'at bilan to‘ldirish, uni musiqa, ertak, teatr, raqs dunyosi bilan tanishtirish kerak. Bolalarni san'at bilan tanishtirish shakllarini boyitish, uni kundalik hayotga kiritish, bolalarning estetik ijodiga sharoit yaratish juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodi hali rivojlanmagan shaklda ko‘rinsa ham, unda bolalar uchun kattalardan olingan bilim va ko‘nikmalardan mustaqil ravishda chiqib ketish, yangi mahsulot - original rasm, yangi ertak va h.k.larni yaratishga imkon beradigan muhim fazilatlar mavjud.

Ijodiy jarayon - bu allaqachon ma'lum bo‘lgan va noma'lum bo‘lgan narsadan sifatli o‘tish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu vizual faoliyatda ranglar va shakllarning yana bir kombinatsiyasini, dizayn jarayonidagi yangi usullarni, hikoya va ertakni yozishda hikoyalar chizig‘ini, musiqiy faoliyatdagi ohanglarni izlashdir. Bolalarning qidiruv faoliyatidagi yuqori dinamizm va moslashuvchanlik turli xil faoliyat turlarini bajarishda asl natijalariga hissa qo‘shadi. Ijodiy faoliyat jarayonida bolalarning xato qilish, "noto‘g‘ri" qilish qo‘rquvi yengib o‘tiladi, bu jasorat va bolalarni idrok etish va fikrlash erkinligini rivojlantirish uchun zarurdir. O‘zini faol shaxs sifatida his qilish zarurati bolada boshqalardan ajralib turishni xohlash, hatti-harakatlarning mustaqilligini ochib berish, uni o‘z xohishi bilan qilish va boshqa odamlar uchun ahamiyatli bo‘lish istagi bilan namoyon bo‘ladi.

Bolalarni o‘qitishning eng samarali usullaridan biri bu didaktik o‘yin. O‘yin qoidalarida pedagogik vazifalar qo‘yiladi, didaktik materialda bola o‘rganadigan harakatlarning o‘yin usullari mavjud. Shunday qilib, qoidaga rioya qilish zarurligiga bo‘ysungan holda, bola xatti-harakatlarni o‘zboshimchalik bilan tartibga solishni, kommunikativ qobiliyatlarni egallaydi, o‘z harakatlarini sheriklarning harakatlari bilan muvofiqlashtirishni o‘rganadi. O‘yin materiallari bilan ishlash jarayonida bola kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiradi. Didaktik o‘yinlarning eng to‘liq tizimini yaratish, mavjud bo‘lgan o‘yinlarni moslashuvchan o‘zgartirish va yangilarini yaratish orqali yo‘qolgan aloqalarni bajarish kerak. Shunday qilib, o‘yin kattalar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta'sir qilish shaklida zarur tushuntirishlar bilan birgalikda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus mashg‘ulot shaklini - o‘yin va faoliyatni sintez qilishning bir turini shakllantiradi va shu bilan ushbu ikki ta'lim shakllari o‘rtasidagi an'anaviy kontrastni yo‘q qiladi. Darslarning mazmunini belgilaydigan dastur bolalarning shaxsiy madaniyat asosini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan g‘oyalar, vositalar va faoliyat usullarini o‘zlashtirishlariga yo‘naltirilishi kerak.

Bolalarning o‘quv-amaliy faoliyatini tashkil etishda tor yo‘naltirilgan yo‘nalishni yengib o‘tish, bolalarni ushbu faoliyatga jalb qilish usullari va ularni kattalar ishi bilan tanishtirish shakllarini tubdan o‘zgartirish kerak. Bolani boshqalarga nisbatan sun'iy ravishda ixtiro qilinmagan real sohaga kiritish orqali amaliy ishlar doirasini kengaytirish, kattalarning harakatlariga taqlid qilish uchun bolalarning tabiiy ehtiyojlarini rivojlantirish; bolalar faoliyatining mustaqil shakllarini rag‘batlantirish kerak. Bolalar bog‘chasida mehnat ta'limi va o‘qitish mazmunini tashkil etuvchi mehnat ko‘nikmalari emas, balki amaliy faoliyatda o‘z

xohishlariga ko‘ra narsalar va vositalardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir.

Maktabgacha ta'limning zamonaviy amaliyotida yoshga qarab aniq tushunilgan yondashuv ustunlik qiladi. O‘zining mohiyatiga ko‘ra, ushbu yo‘nalishni faqatgina yosh tamoyiliga va guruhga bog‘liq bo‘lgan uslubiy hujjatlarga muvofiq guruhlarni yollash g‘oyasi bilan qisqartirish mumkin. Bularning barchasi o‘qituvchini ma'lum bir bolaning yosh xususiyatlariga emas, balki individual yondashuvning har qanday namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan ma'lum mavhum birlashtirilgan standartga yo‘naltiradi. Bola go‘yo akvariumda yashaydi - hayotning barcha lahzalari kattalar yoki tengdoshlar bilan o‘ralgan holda sodir bo‘ladi. O‘qituvchi bolalarning vaqtini sun'iy ravishda cheklashi kerak, hatto eng asosiy ehtiyojlarga ham. Rejim o‘z-o‘zidan oxiriga aylanadi. Bolalarning ijtimoiy muhiti sezilarli darajada qashshoqlashgan. Bola doimo "burchakka" qo‘yilgan - "o‘yin burchagi", "tabiat burchagi" kabi jihozlar bilan qolmasligi lozim. "Dars" va "o‘quv darsi" atamalarida farqlar bormi? Ushbu tushunchalar o‘rtasida farq bor: "mashg‘ulot" - bu bolaning mustaqil ravishda yoki o‘qituvchining yoki tengdoshlarining yordami bilan tashkil etadigan har qanday ko‘ngilochar faoliyati, "o‘quv mashg‘uloti" bu dastur tomonidan aytilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta'lim faoliyati.

Bolalar bog‘chasi o‘qituvchisini tayyorlash oliy pedagogik ta'lim tizimida ustuvorlik huquqiga ega: bu talabalar tomonidan psixologiya, pedagogika, falsafa, psixiatriya, bolalar psixoterapiyasi va defektologiya kurslarini majburiy ravishda chuqur o‘rganish bilan amalga oshirilishi kerak. O‘qituvchilar ishbilarmonlik o‘yinlarida, o‘quv guruhlarida ishtirok etishlari, ularni aktyorlik asoslari bilan tanishtirishlari kerak. Kelgusida maktabgacha yoshdagi bolalarning har bir guruhida bittasi yuqori darajadagi o‘qituvchi-psixolog, boshqasi esa o‘qituvchi malakasiga ega bo‘lishi uchun tarbiyachilarning differentsial tayyorgarligini joriy etish tavsiya etiladi. O‘qituvchi-psixolog bolalar bilan o‘quv mashg‘ulotlarini erkin tanlash huquqiga ega bo‘lgan o‘quv mashg‘ulotlarini olib boradi; bir yosh toifasidan boshqasiga o‘tish davrida bolaning holati va rivojlanish darajasini belgilaydi; oilaviy munosabatlardagi bolaning ahvolini aniqlashda ishtirok etadi. Psixologdan farqli o‘laroq, o‘qituvchi bolalar bilan turli xil o‘yinlar, yurishlar, ekskursiyalar va boshqalarni tashkil qiladi.

Kelgusi yillarda ushbu ish uchun turli mutaxassislarni jalb qilgan holda, bolalar bog‘chalari o‘qituvchilari va ota-onalarida psixologik-pedagogik maslahat markazlarini kengaytirish kerak. Bolalarni tarbiyalash va o‘qitish dasturlari bo‘yicha muntazam ravishda yangilanib turadigan, dunyo ilm-fani va amaliyoti yutuqlari asosida, mamlakatdagi ijtimoiy hayotning holatini hisobga olgan holda, turli xil, mintaqaviy xususiyatlarga, maktabgacha ta'lim muassasalari turiga qarab turli xil ko‘rsatmalar yaratilishi kerak. Har bir o‘qituvchi texnologiya yaratuvchisidir. Texnologiyani ijodkorliksiz amalga oshirish mumkin emas. Texnologik darajada ishlashni o‘rgangan o‘qituvchi uchun uning rivojlanayotgan holatidagi kognitiv jarayon doimo asosiy qo‘llanma bo‘lib qoladi.

Bolalar bog‘chasida bolalarning maktabgacha tarbiyasi bolalarning maktabdagi keyingi ta'limidan juda katta farqlarga ega. Darhaqiqat, har bir yoshning o‘z qonunlari bor, unga ko‘ra bola rivojlanadi. Bolalar bog‘chasidagi o‘qituvchilarning yelkasiga juda qiyin va jiddiy vazifa qo‘yilgan: kelajakda tarqatilishi mumkin bo‘lmagan barcha zarur ko‘nikmalarni bolalarga berish, bolalarda rivojlanishda keyingi bosqichlarida hayotda foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha qobiliyatlarni rivojlantirish. Ushbu muammoni hal qilish uchun har bir bola uchun "kalit" ni tanlash, o‘qitish va unga yangi ma'lumotlarni taqdim etishning eng mos usullarini topish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash o‘qituvchining malakali tushuntirishlari, amaliy topshiriqlari yoki rolli o‘yinlar tufayli juda yaxshi natijalarni berishi mumkin, asosiysi, o‘quv jarayonida bola mustaqil faoliyatni namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘qituvchining ko‘rsatmalariga amal qiladi. Zamonaviy o‘qituvchilar guruhdagi har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kerakli natijaga erishish uchun turli usullardan foydalanadilar.

**Adabiyotlar:**


1) O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2018 yil 18 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi 1-mh-sonli buyrug‘i.
2) Baxtli bola ma’naviyati. \\3-7 yoshli bolalarni ma’aviy tarbiyalash bo‘yicha metodik qo‘llanma.\\RMMM. –T.: “Muharrir”, 2019.
3) Рыжова Н.А, Развивающая среда дошкольных учреждений. М.: Линка – Пресс, 2003.


## МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРНИНГ КОМПЬЮТЕР САВОДХОНЛИКЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЗАРУРИЯТИ


**Г.Қ. Ҳасанова,**
*БухДУ, Мактабгача таълим кафедраси доценти,*
**М.М. Мамедова,**
*БухДУ, I курс магистранти*


Мактабгача таълим узлуксиз таълимнинг биринчи тури бўлибгина қолмай, балки ижодкор, ижтимоий фаол, маънавий жиҳатдан бой шахсни шакллантирувчи биринчи поғона ҳамдир. Мактабгача таълим ташкилот (МТТ)ларида таълим ва тарбия жараёнини қанчалик юқори савияда ташкил этилса, тарбияланувчи болалар, шунчалик таълимнинг кейинги турларида қийналмасдан мувваффақият қозона олишларига имконият яратилади. Боланинг онги асосан 5-7 ёшда шаклланишини инобатга оладиган бўлсак,

айнан ана шу даврда унинг қалбида оиладаги муҳит таъсирида маънавиятнинг илк куртаклари намоён бўла бошлайди.

Ушбу фикрлар мактабгача таълим муассасаларига ҳам тааллуқлидир. Чунки МТТларнинг ўрта, катта ва мактабга тайёрлов гуруҳларида 5-7 ёшли болалар тарбияланадилар. Болаларнинг интеллектуал салоҳиятларини шакллантиришнинг бошланғич даври ҳам худди ана шу ёшдан бошланади.

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонунининг 10-моддасида таълим турлари санаб ўтилиб, унинг биринчи тури – “Мактабгача таълим” эканлиги таъкидланган. Шунингдек, 11-моддасида “Мактабгача таълим бола шахсини соғлом ва етук, мактабда ўқишга тайёрланган тарзда шакллантириш мақсадини кўзлайди. Бу таълим олти-етти ёшгача оилада, болалар боғчасида ва мулк шаклидан қатъий назар бошқа таълим муассасаларида олиб борилади ”,- дейилган.

Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»ида ҳам мактабгача таълим – узлуксиз таълим тизимининг биринчи тури эканлиги ва “мактабгача таълимнинг самарали психологик усулларини излаш ва жорий этиш” зарурлиги таъкидланган.

Шунингдек, Давлат дастурида “Таълим жараёнига янги ахборот-коммуникация ва педагогик технологияларни, электрон дарсликлар” ва мультимедиа воситаларини кенг жорий этиш орқали мамлакатимиз мактабларида, лицейлари ва олий ўқув юртларида ўқитиш сифатини тубдан яхшилаш” ва ҳар бир мактабгача таълим ташкилотни ўйинли ва билиш билан боғлиқ мультимедиа дастури” билан таъминлаш кўзда тутилган.

“Мактабгача таълим” атамаси 1997 йилда ЮНЕСКО қарори билан киритилган бўлиб, узлуксиз таълим тизимининг биринчи босқичини ташкил этади. Ўзбекистон Республикаси «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»да таъкидланишича, ”Узлуксиз таълим - кадрлар тайёрлаш тизимининг асоси бўлиб, Ўзбекистон Республикаси ижтимоий–иқтисодий тараққиётини таъминловчи шахс, давлат ва жамиятнинг иқтисодий, ижтимоий, илмий-техникавий ва маданий эҳтиёжларни қондирувчи устувор соҳадир”.

Мактабгача таълим, болаларни соғлом ва ҳар томонлама етук шахс бўлиб шаклланишига, ўқишга бўлган ҳавасларини уйғотишга мунтазам равишда таълим олишларига имкон яратади ва мактабгача таълим муаассасаларида амалга оширилади. Мактабгача ёшдаги болалар таълим-тарбиясига Давлат талаблари ва мактабгача таълим концепциясида ҳам, “экспиментал мактабгача муассасалар асосида янги педагогик технологиялар апробациясини ўтказиш ва уларни оммавий амалиётга татбиқ этиш”, “Янги техник воситалардан фойдаланиш”ларга эътибор қаратилган.

Ушбу талабларни қисман амалга ошириш мақсадида МТТларнинг таълим–тарбия жараёнига татбиқ этиш учун самарали мультимедиа технологияси ишлаб чиқилди. МТТларда мультимедиа технологиясининг туб мазмуни-мультимедиали компьютер таълимни амалга оширишдан иборат.

МТТларда таълим жараёнига татбиқ этиладиган мультимедиа технологияси анъанавий услубларга нисбатан маьлум бир афзалликларга эга. Жумладан:

- болаларнинг фикрлаш қобилиятини оширади;
- бола бир вақтнинг ўзида ҳам кўради, ҳам эшитади (миянинг ўнг ва чап ярим шарлари бир вақтда фаоллик кўрсатади);
- анъанавий усулга нисбатан болаларга ўргатиладиган материалларнинг ҳажми ортади;
- машғулотларнинг самарадорлиги ошади;
- МТТ болаларининг компьютер саводхонликларини шакллантиришга ёрдам беради;
- дидактик материалларни анимациялар орқали кўрсатиш имконияти мавжуд;
-турли хил жангарилик, қўпорувчи ўйинлар ўрнига таълимий-ривожлантирувчи ўйинлардан фойдаланиш мумкин.

МТТларда мультимедиа технологиясидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд, бу хусусиятларни ўрганиш технологияларни жорий этиш жараёнида болаларнинг ёшларини ҳисобга олиш ва дидактик материалларни уларга мос танлаш, таълим жараёнида педагогик ва психологик таъсир этиш усулларини ўрганиш ва жорий этиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

Мультимедиа технологиясидан ва унинг асосий воситаси бўлган компьютерлардан МТТларнинг таълим-тарбия жараёнига фойдаланиш бўйича хорижий мамлакатлар (масалан, Россия)нинг олимларидан С.В.Гурьев, Н.З.Фролова, Н.И.Клифцова, В.П.Кустова, Л.А.Савина, Н.М.Климешова, М.В.Осмаковалар, АҚШда мультимедиа технологиясидан таълим жараёнида фойдаланиш бўйича D.Jonassen, R.Grabindger, S.Carver, R.Lehrer, D.Davidson, A.Mullon ва бошқалар илмий тадқиқот ишларни амалга оширганлар.

Ўзбекистонда мультимедиа технологияси ва унинг асосий техник таъминоти ҳисобланган компьютерлардан фойдаланиш 1985-1990 йилларда бошланган. Биринчилар қаторида А.А.Абдуқодиров ўзининг “Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин (аспект использования компьютерных средств в учебно-воспитательном процессе)” мавзусидаги докторлик ишида олий ўқув юртларида физика-математика предметлари бўйича ўқитувчилар тайёрлашда, уларнинг компьютер саводхонликларини шакллантириш муаммосига оид илмий- тадқиқот ишларни амалга оширди ва шу йўналиш бўйича мактаб яратган, Мактаб аъзолари қаторига Атабаев А., Билолов И.Ў., Мизрапов Ў.Ҳ., Исаков И., Хайитов А., Саипназаров Ж.А., Эсонбоева Д., Джанпеисова Г.Э., Алиев И., Ашурова А. ва бошқаларни киритиш мумкин. Г.Э. Джанпеисова ўзининг «Формирование элементарных геометрических представлений у детей старшего дошкольного возраста» номли диссертация

ишида турли технологиялардан фойдаланган ҳолда катта ёшдаги боғча болаларида математик билимлар шакллантириш усулубиётини берган.

Ҳозирги кунда МТТларда мультимедиа технологиясидан фойдаланиш бўйича ишларни тўлақонли амалга оширишда айрим муаммолар мавжуд. Маълумки, мультимедиа технологияси, асосан, компьютерлар ёрдамида амалга оширилади. Аммо, ҳозирги кунда республикамиз МТТларининг кўпчилиги компьютерлар билан тўла таъминланмаган. Биринчи муаммодан вақтинчалик чиқиш учун, айрим МТТларда компьютерли машғулотларининг биринчи босқичини телевизор ва DVD қурилмалари орқали амалга оширилишининг имконияти мавжуд. Бунинг учун, дастурли ёки ролли (ижроли) мультимедиа таълим воситалари тайёрлаб дискка кўчирилади.

Иккинчи муаммо шундан иборатки, мультимедиали машғулотлар асосан компьютер ёрдамида амалга оширилиши туфайли тарбияланувчилар улар билан элементар ишлаш даражасига эга бўлишлари лозим. Бу ўз навбатида тарбияланувчиларда компьютер саводхонликни шакллантирилишни тақозо этади. Тарбияланувчиларнинг компьютер саводхонлигини шакллантириш учун МТТ камида битта шахсий компьютер билан жиҳозланган бўлиши керак. Учинчи муаммо, МТТ педагог-тарбиячиларининг ўзлари ҳам компьютер саводхонлигига эга бўлишлари лозим ва шу билан бирга мультимедиа технологиясини ўзлаштиришлари зарур.

Мактабгача таълим ташкилотларида ҳам янги ахборот технологиясидан жумладан, мультимедиали компьютер технологиясидан фойдаланиб машғулотларни самарадорлигини ошириш, таълим-тарбия жараёнини жадаллаштириш, болаларда компьютер саводхонлигини шакллантириш давр талабидир.

Яқин келажакда республика МТТларида компьютерли таълим ривожланиб кетишига шубха йўқ. Ҳозирги кунда республикамиз бўйича телевизори бўлмаган биронта оила бўлмагани каби, секин-асталик билан барча таълим муассасалари ва оилаларнинг ҳар бири замонавий компьютерларига эга бўладилар. Шунинг учун, ҳозирданоқ болаларимиз янги мультимедиа технологияси,компьютер технологияси ва телекоммуникация технологияларига мослашиб боришларини ташкил этиш зарур. Шуни таъкидлаш керакки, бу технологиялар аънанавий услубларни рад этмайди.Ушбу технологияларни анъанавий технологиялар билан биргаликда олиб бориш лозим деб ҳисоблаймиз.

## Адабиётлар рўйхати

1. Абдуқодиров А.А., Пардаев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. Монография. – Т.: Фан, 2009. -145 б.
2. Бегматова Н.Х. Боғча болаларининг билимини баҳолашда мультимедиа технологиясидан фойдаланиш. Қарши ДУахборотномаси.2009.-№2.–Б. 63-10.
3. Мактабгача тарбия педагогикаси. II қисм. Логинова В.И., Саморукова П.Г лар таҳрири остида. – Т.: Ўқитувчи, 1992. 294 б.

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA YAXLIT DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY YO‘LLARI VA VOSITALARI

**G.Q. Hasanova,**
*BuxDU, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsent*
***G.N. Davranova,***
*BuxDU, I kurs magistranti*
***N.A. Ikramova,***
*BuxDU, I kurs magistranti*

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolaning dunyoqarashini kengaytirishda o‘yin faoliyati, sayohat mashg‘ulotlari, multimediya texnologiyalaridan foydalanish, atrof-muhit va o‘zi haqidagi fikrlarini boyitish, tizimlashtirish, ularda Vatanni sevish, ota-onani hurmat qilish, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, xushmuomalalik kabi oliy tuyg‘ularni singdirish, jismoniy va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish haqidagi fikrlar keng yoritib berildi.

Dunyo hamjamiyatida har bir soha jadal sur’atlar bilan ravnaq topib borayotgan bugungi kunda yurtimiz ham o‘ziga xos rivojlanish, yangilanish, yuksalish davriga o‘tdi. Bu yuksalishning zamirida esa inson va uning baxt saodati, manfaatlari yotadi. Ya’ni mamlakatimiz fuqarolarining tinch-totuv yashashi uchun keng va qulay imkoniyatlarni yaratish, uning baxtli kelajagini ta’minlash masalasi turadi. Davlatimiz va hukumatimiz, chunonchi O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev yurtimiz fuqarolari, ayniqsa yosh avlodning bunday baxtli hayot va kelajakka yuz tutishida keng dunyoqarash va yuksak ma’naviyatga ega bo‘lishlari lozim deb hisoblamoqdalar.

"Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta’kidlaydi Prezidentimiz. Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Bu esa uzluksiz ta’lim tizimining ilk bosqichi bo‘lgan maktabgacha ta’lim sohasida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolaning yashaydigan va rivojlanayotgan dunyosi bilimga mazmun bilan to‘ldiriladi. Bu insonlar va ular bilan munosabatlarning tabiati, ularning faoliyati mazmuni, turmush tarzi, tabiiy dunyo bilimi kabilarni o‘zlashtirishdir.

Ijtimoiy dunyo ko‘p qirrali va xilma – xildir, u ziddiyatli va noaniq-bularning barchasi bolaning bilim va tushunish jarayonida faolligini

rivojlantirishga asos bo‘ladi. Bola o‘zining qobiliyatlari, aqli, kuchi, xarakter-xususiyatlari, maqsadiga tayanib shaxsiy dunyoqarashini shakllantiradi. Dunyoqarashi shakllangan inson o‘z davrining ilg‘or yutuqlari darajasida madaniy jarayonda ishtirok etish va ayni paytda madaniyatni boyitish, insoniyatning yanada taraqqiyotiga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun bugungi kunda bolalarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirish shartlari masalasi juda dolzarb hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi darajasi yuqori bo‘ladi, bolalar buyumlar va hodisalarning nafaqat tashqi ko‘rgazmali belgilarini, balki ularning mazmunini, ichki tuzilishi, mavjud aloqalari haqidagi bilimlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtiradilar. Bolalar dunyoqarishini shakllantirishda estetik tasavvur elementlaridan foydalanish muhim. Bu psixologik jihatdan bir qator qulayliklarga ega. Birinchidan estetik mazmunidagi mashg‘ulotlar ularning qiziqishlariga mos tushadi. Ikkinchidan ular obyektlar, jarayonlar va hodisalarni anglashning nisbatan oson shaklidir. Masalan ranglar, buyumlarning rangi, nima uchun aynan shu rangga bo‘yalgani, tabiat estetikasi, har bir faslning o‘ziga xos estetikasi, rangi, fasllarning almashinishi, buyumlar, mahsulotning shakl jihatdan go‘zalligi, uning funksional xususiyatiga ko‘ra shunday shaklga ega bo‘lishi haqidagi tasavvurlar estetik hislarni shakllantirishning samarali usulidir.

Dunyoqarash - g‘oyalar, haqiqat nuqtai nazarlari tizimi bo‘lib, bu tajriba, bilim va o‘z-o‘zini anglashning, insonning hayotiy yo‘nalishini, haqiqatga va o‘ziga bo‘lgan munosabatini belgilaydigan dunyodagi integratsiyalashuvdir. Bu haqiqat turli hodisalar va faktlarni tushunish va baholashda, insonning ijtimoiy xulq-atvorida, uning harakatlarida, faoliyatida namoyon bo‘ladi, his-tuyg‘ular, iroda, motivlarda iz qoldiradi.

Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o‘zini anglashi ham shakllanib boraveradi. Shu tariqa dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyoqarash hosil bo‘ladi. Bolaning dunyoqarashi uning hayoti davomida asta-sekin kengayib boradi. Shu bilan birga, dunyoqarashning shakllanishida odamlar bilan muloqot, barcha olingan bilimlar, ko‘nikma va malakalar, atrof-muhitdagi munosabatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Eng qulay holatda, bola yashagan davrning ijtimoiy-tarixiy imkoniyatlariga mos keladigan ilmiy dunyoqarashni o‘rganadi, ayni paytda uni o‘z hissasi bilan boyitadi. Ikkinchi muhim jihat shundaki, dunyoqarashning rivojlanishi yillar o‘tib, dunyoqarashga aylanadigan yaxlitlikning dastlabki eskizini bosqichma-bosqich farqlash va murakkablashtirish orqali amalga oshiriladi.

Jamiyatni modernizatsiya qilish bevosita bolalarning maktabgacha ta'lim darajasiga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda, ta'lim-tarbiyada, o‘z-o‘zini anglash qobiliyatiga ega bo‘lgan ijodiy shaxsni tarbiyalash muammolarini o‘rganish, natijaga erishish uchun mustaqil qaror qabul qilish va mas'uliyatni o‘z zimmasiga olish katta o‘rin tutadi. U shaxsiyatning o‘ziga xosligini, ijodiy tasavvurning yangi kombinatsiyalarida, o‘yin tasvirlari va harakatlarida namoyon bo‘ladigan ijodiy qobiliyatlarini ifodalaydi. Ushbu muammolar ilm-fanning turli sohalari mutaxassislari e'tiborini tortadi. Mazkur yoshdagi bolalarda dunyoqarashni

shakllantirishning asosiy vositasi o‘yin hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘yin bolalar bog‘chasidan maktabga o‘tishda ajoyib vositachidir, chunki bu uning hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Faylasuflar, psixologlar, fiziologlar asarlarida bayon etilgan o‘yinning ko‘plab nazariyalari o‘yin hodisasini o‘z ichiga olgan katta salohiyatga ishora qiladi. Ta'lim va tarbiyalashning an'anaviy o‘quv-intizomiy modeli bolaning ijodiy qobiliyatlarini sun'iy ravishda shakllanishiga olib keladi. O‘yin faoliyatiga asoslangan yosh bolalarni tarbiyalash texnologiyasi, majoziy-ramziy fikrlash, ijodiy tasavvurni qayta tiklash, atrof-muhitning yaxlit idrokini rivojlantirishga turtki bo‘ladi. O‘yinni ta'lim vositasi sifatida ishlatish, birinchi navbatda, bolaning o‘z faoliyati ekanligini, unda mustaqillik va havaskorlikni targ‘ib qilish va rag‘batlantirish kerakligini hisobga olsak, muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Bolalarning ijodiy o‘yinlar orqali dunyoqarashini shakllantirish o‘tkaziladigan mashg‘ulot jarayoni, darsdan tashqari ta'lim faoliyati bilan to‘liq bog‘liq bo‘lishi va bolalarni, ota-onalarni va o‘qituvchilarni birlashtiradigan teng asosda muvofiqlashtirilishi kerak. Bolaning yoshiga nisbatan asoslangan ijodiy o‘yin tizimi turli xil o‘yinlar yordamida yosh bolalarda dunyoqarash tushunchalarini shakllantirishga samarali ta'sir ko‘rsatadigan asosiy pedagogik sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Bolalar dunyoqarashini o‘stirishda asosiy e’tiborni ular bilan tashkil etiladigan sayohat mashg‘ulotlariga qaratish lozim. Chunki, aynan sayohat mashg‘ulotlarida bolalarning tevarak-atrofga bo‘lgan qiziqishi va munosabati shakllantirib boriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishning yana bir vositasi bolalar uchun sevimli bo‘lgan predmetlar – bu o‘yinchoqlar hisoblanadi. Bolalar o‘yinchoqlari – ular uchun nafaqat dunyoqarashni shakllantiruvchi vosita balki, bitmas tuganmas quvonch manbai hamdir. Hayotda o‘yinchoqlarni ko‘rganda, o‘ynaganda quvonmaydigan bolaning o‘zi bo‘lmasa kerak. Shu bois ota-onalar va kattalar har doim bolalarga o‘yinchoqlar sovg‘a qilishni, ularning ana shu quvonchlariga sherik bo‘lishni yoqtirishadi. Dastlab bola o‘yinchoqlar orqali tovush, rang va boshqa xususiyatlarni anglay boshlaydi. Ular orqali bolaning eshitish, ko‘rish, teri kabi sezgilari rivojlanadi, rang va shakllarni ajrata boshlaydi. Bolaning dunyo bilan muloqot jarayoni ham o‘yinchoqlar orqali shakllantirib boriladi. Kishilar o‘rtasidagi insoniy munosabatlar: o‘zaro hurmat, e’tibor, takalluf, mehmondo‘stlik, saxiylik, mehnatsevarlik, do‘stlik kabi fazilatlarni ham bolalar o‘yinchoqlar orqali egallaydi. Nima yaxshi-yu, nima yomon, axloqli bola qanday bo‘lishi kerak?- degan savollarga ham javobni bolalar o‘yinchoqlar o‘ynash orqali tushunib boradilar. Demak, o‘yinchoq - bolaning uynashi uchun mo‘ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi. Ayrim holatlarda o‘yinchoqqa o‘yinning material asosi sifatida ham qaraladi, biroq o‘yinchoq o‘yinni yaratishda ishtirok ham etadi, u bolaning o‘ziga xos sherigi sifatida namoyon bo‘ladi, uning shaxsiga ta’sir ko‘rsatadi.

Dunyoqarash ongning asosi bo‘lib, o‘sib borayotgan shaxsning odatiy, mifologik, ilmiy yoki diniy yo‘nalishini belgilaydi; uning xarakterini oldindan

belgilab beradi. U shaxsiyatni boshqaradi, uning xatti-harakatlarini tartibga soladi, uning subyektiv qarashlarini hayotiy haqiqatlar bilan bogʻlashga imkon beradi, dunyoni idrok etish chegaralarini belgilaydi.
Bizga maʼlumki, shaxsning dunyoqarashi ilk bolalik yillaridan boshlab shakllana boshlaydi. Bola borliq va duyoni his etar ekan, dastlab barcha voqea-hodisalarni oʻz ongida aks ettiradi, analiz va sintez qiladi. Unga yangi nom berib, mohiyati va ahamiyatini baholab boradi. Bu esa uning olam, kishilar, narsa va jismlar haqidagi bir butun tasavvur va kechinmalari, orzu-umidlari, qadr-qimmatga ega boʻlgan voqea-hodisalari, qolaversa, gʻoyalarini oʻz milliy tilida ifoda etish imkoniyatini yaratadi. Bolaning dunyoqarashini oʻstirish qanchalik erta boshlansa, uning intellekti, tafakkuri shunchalik yuksak boʻladi. Bunday bolalardan kelajakda buyuk kashfiyot egalari, notiqlar, siyosat va davlat arboblari yetishib chiqadi.

Kelajak avlod tarbiyasi uning dunyoqarashini oʻstirish bilan bogʻliq ekan, bu borada albatta bolaning yosh va ruhiy holatini hisobga olish talab etiladi. Shu boisdan taʼlim-tarbiya jarayonida bola dunyoqarashini oʻstirishda bir qator pedagogik talablarga rioya qilish lozim boʻladi:

1. Bola dunyoqarashini oʻstirish va boyitish uchun dastlab oilada sogʻlom muhit boʻlishi: uning oʻynashi, dam olishi, ovqatlanishi uchun yetarli shart-sharoitlar boʻlmogʻi;
2. Muntazam ota-ona bolani psixolog va boshqa shifokorlar koʻrigidan oʻtkazib borishi;
3. Bola nutqini oʻstirishga alohida eʼtibor qaratishi, rangli va tasvirli kitoblar sovgʻa qilishi;
4. Ota-onalar farzandlari bilan uning dunyoqarashini oʻstirishga moʻljallangan oʻyinlar oʻynashi;
5. Bolaning tiniqib uxlashi uchun sharoit yaratishi va boshqalar.

Inson tafakkurining oliy jarayoni esa nutq hisoblanadi. Dunyoqarashni esa aslo nutqsiz tasavvur etib boʻlmaydi, hoh u ogʻzaki boʻlsin, hoh yozma. Inson ana shu nutqi orqali dunyoga va kishilarga boʻlgan munosabatini ifodalaydi. Aynan bolalar ham nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini va ularga boʻlgan munosabatini nutqi orqali yoshi, psixik rivojlanishiga koʻra taʼriflab beradi. Shuningdek, bolalar tevarak-atrofga boʻlgan qiziqishi, munosabati, goʻzallikni ham tili, nutqida ifoda qiladi.

Axborot oqimi shiddat bilan tarqalayotgan hozirgi davrda bolalarning nutqini, dunyoqarashini oʻstirishda mashgʻulotlarda multimediya texnologiyalaridan foydalanish ham zamon talabi boʻlib qoldi. Multimediya hozirda juda tez gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi boʻlib, mavzularni toʻliq yoritish, hozirgi kungacha foydalanilayotgan koʻrgazmali vositalarni bir butun yaxlit, tizimli holatda namoyish etishga xizmat qiladi. Unda ba'zi maʼlumotlarning tabiiy, rangli va harakatdagi tasvirlarining ovoz, musiqa bilan mutanosib holatda taqdim etilishi bolalarning oʻzlashtirish koʻrsatkichlarini qisqa muddatda oshib borishi bilan xarakterlanadi.

Mashgʻulotlarda multimedia vositalaridan foydalanish dunyodagi va insonlar oʻrtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglashga, egallangan tushuncha va

tasavvurlarni tizimlashtirishga, tabiat va atrofdagi hodisalarni ilmiy tushunib yetishga, bolalarda dunyoni bilishga bo‘lgan motivasiyatsini shakllantirish va kuchaytirishga yordam beradi.
Umumiy qilib aytganda, multimediali taqdimot tarbiyalanuvchilar nutqi, tafakkuri va xotirasini rivojlantirish bilan birga ularning dunyoqarashini boyishiga olib keladi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolaning dunyoqarashini kengaytirishda atrof-muhit va o‘zi haqidagi fikrlarini boyitish, tizimlashtirish, ularda Vatanni sevish, ota-onani hurmat qilish, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, xushmuomalalik kabi oliy tuyg‘ularni singdirish, jismoniy va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish lozim ekan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, har tomonlama yetuk, barkamol, sog‘lom, dunyoqarashi keng bolajonlar yurtimizning ertasi, tayanchi va suyanchi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998. –20-29 b.
2. Mirziyoyev Sh. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2017-yil 30-sentyabr, 5198 sonli farmoni.
3.Леонтьев А. Н. Психическое развитие ребенка в дошкольном возрасте / Возрастная и педагогическая психология: М.: Изд-во Моск. ун-та, 1992. С. 42-50.
4. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘zMU OPI, 2003. – 68 b.
5. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.

## МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

**З.Б.Жалилов,**
*БухДУ, Мактабгача таълим кафедраси ўқитувчиси,*
**С.М. Рахмонова,**
*БухДУ, I курс магистранти,*
**Н.Х. Азимова,**
*БухДУ, I курс магистранти*

*Ушбу мақолада мактабгача ёшдаги болаларга инклюзив таълим беришнинг илмий назарий асослари очиб берилган.*

Узбекистон Республикаси мустакилликка эришгандан сунг мамлакатимизнинг иктисодий, ижтимоий, маънавий маърифий ривожланиш

жараёнида кескин узгаришлар содир булди.Келажак авлод хаккида кайгуриш соглом баркамол наслни тарбиялаб етиштириш бизнинг миллий вазифамизга айланди.

Бизнинг мамлакатимизда асосий эътибор имконияти чекланган болаларни табакалаштирилган махсус таълим ташкилотларида укитишга каратилган булиб, ушбу таълим тизими тубдан ислох килинди ва ривожлантирилди. Инклюзив таълим стратегияси таълимга жалб килингмаган болаларни умумтаълим ташкилотларга тулаконли махсус ёки инклюзив таълим тизимига интеграция килиш, коррекцион таълим ташкилоти болаларнинг турар жойидан узоклиги сабабли узи яшаб турган худудлардаги таълим ташкилотларига киритиб укитишдан иборат булиб, бу инклюзив таълимнинг долзарблиги хисобланади.

Мактабгача таълим ташкилотларида шахсни хар томонлама ривожлантириш учун барча шарт шароитлар яратилган. Биз хар бир болани багри кенг булишга ургатиш билан бирга инсон кадриятлари унинг имкониятига боглик эмаслиги хакидаги фикрни сингдирмокчимиз, -деди мактабгача таълим вазири.

Инклюзив таълим технологияси жисмоний ривожланишида турли нуксонлари булган тарбияланучилар учун МТТ га катнаш, мулокот килиш куникмаларига эга булиш имкониятини яратиб бериб, уларнинг кейинги ижтимоий мослашувини осонлаштиради.

Инклюзия- бу кишилар жамиат хаётида иштирок этиш жараёндаг шарт шароитни яхшилаш ва айни пайтда натижага эришишдир. Инклюзив таълим жараёнида ва жамиятда имконияти чекланган болаларнинг тусикларга дуч келмасликлари учун чоралар кабул килишни англатади. Инклюзив таълим бу барча укувчилар, шу жумладан имконияти чекланганлар хам уз умумтаълим мактабларда оддий синифларда ёшлрига мувофик билим олиш учун керак булган ёрдамни олганларри ва мактаб хаётидаги барча жабхаларида иштирок этишлари хамда уз хиссаларини кушишлари лозим. Инклюзив таълим барча укувчиларга – таълимда асосий эхтиёжга мухтож булган ва булмаганларга хам ижобий тарзда тарбиявий ва ижтимоий таъсир килади. Инклюзив таълим шунингдек, таълим ташкилотлари мактаб дастури барча болалар мактаб ва мактабгача таълим ташкилотларидаги тадбирларда иштирок этишларини таъминлайдиган тарзда ишлаб чикилган лойиха асосида бажарилади.

Инклюзив таълим тенглик, ижтимоий хакконийлик, демократия ва иштирок этишлик билан боглик. Мактабдаги узлаштирмасликнинг пасайиши хамда нохакликнинг камайиши нафакат иктисодий усиш ва ракаботбардошликда, балки социал интеграцияни кучайиишида хам хал этувчи мазмунга эгадир. Инклюзив таълимда имконияти чекланганликда соглигига зарар етган кишиларнинг жамият хаётида бошкалар катори тулик ва самарали катнашларида атрофдагилар билан муносабати орасидаги тусиклар алоканинг натижаси сифатида намоён булади.

Инклюзив таълимда бола ёки ёшларнинг асосий таълим эхтиёжлари куйидагиларни англатади:

- ижтимоий ёки хиссий муаммолар, согликдаги рухий бузилиш
- сезиш ёки жисмоний эхтиёжлар
- мулокот ва нуткдаги муаммолар
- эрта ва бошлангич таълимнинг етишмаслиги
- маданият ва тилдаги тафавутлар

Асосий тълим эхтиёжлари бор шахслар- бу узок муддатли жимоний, аклий, интелектуал ёки сезиш бузилишларига эга болалар хисобланади.

Хулоса килиб шуни айтамизки бола дунёга келар экан, унинг ривожланиши психологик холатини шакллланиши тафаккури, онги рухий холатларининг усиши, уни урб турган оламни ташкил килган борликка мослашуви, инклюзив таълимнинг самарадорлигидир. Инклюзив таълим махсус методика асосида ташкил килинса, унинг самарадорлиги юкори даражада булади. Таълим-тарбия беришнинг коррекцион усулларидан фойдаланилади, болаларни рухий холат кечинмалари тахлил килинади.

**Фойдаланилган адабиётлар**


1. Узбекистон Республикасини Кардлар тайёрлаш миллий дастури: ”Баркамол авлод-Узбекистон тараккиётининг пойдевори”.- Т.. “Шарк” 1997.
2. Ш.М.Мирзиёевнинг “2017- 2021- йилларда мактабгача таълим тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тугрисидаги карор .Т..- 2016.
3. Гозиев Э.Г. – Укувчиларда умумлаштириш усулларини шакллантириш ва уларнинг аклий тараккиёти. - Т.. 2001.
4. Каххорова Д.С. – Инклюзив таълим технологияси (Монография).- Т..2014.
5. Шомахмудова Ш.Р.- Махсус ва инклюзив таълим (Халкаро ва миллий тажрибалар Услубий кулланма)-Т.. 2011.


## МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ОИЛА ВА ТАРБИЯ МУАССАСАСИ ҲАМКОРЛИГИНИНГ МАЗМУН, ШАКЛ ВА МЕТОДЛАРИ


**З.Б. Жалилов,**
*БухДУ доценти, (PhD),*
**У.Т. Жумаев,**
*БухДУ I курс магистранти,*
**Ф.Ф. Нуруллаев,**

*БухДУ ўқитувчиси*

*Ушбу мақола болалар тарбиясида МТТ ва оиланинг ўрни, оила билан ҳамкорликда қилинадиган ишларб ота-оаналар билан ўтказиладиган суҳбатлар ҳақида маълумот берилган.*

Ҳаётимизда ҳал қилувчи аҳамиятга ега бўлган таълим-тарбия тизими ҳақида гапирганда, Абдулла Авлоний бобомизнинг доно фикрларини такрор ва такрор айтишга тўғри келади: таълим-тарбия – биз учун ҳаёт-мамот масаласидир[145]

Қайси соҳани олмайлик, биз замонавий етук кадрларни тарбияламасдан туриб бирон-бир ўзгаришга, фаровон ҳаётга эриша олмаймиз. Бундай кадрларни, миллатнинг соғлом генофондини тайёрлаш, аввало, мактабгача таълим ташкилотигача таълим тизимидан бошланади.

Мактабгача таълим ташкилотигача таълим тизими узлуксиз таълимнинг бирламчи, энг асосий бўғини ҳисобланади. Мутахассис ва педагогларнинг илмий хулосаларига кўра, инсон ўз умри давомида оладиган барча ахборот ва маълумотнинг 70 фоизини 5 ёшгача бўлган даврда олади. Ана шу далилнинг ўзи болаларимизнинг етук ва баркамол шахс бўлиб вояга етишида боғча тарбияси қанчалик катта аҳамиятга эга эканини яққол кўрсатиб турибди.

Давлатимиз раҳбари ёш авлод тарбиясининг биринчи ва муҳим бўғини бўлган мактабгача таълим ташкилотигача таълим тизимини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратмоқда. 2017-йил 30-сентябрда Президентимиз томонидан “Мактабгача таълим ташкилотигача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармон ҳамда “Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим ташкилотигача таълим вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги қарор қабул қилинди.

Инсон аввало оила бағрида униб-ўсади, шахс сифатида шаклланади. Оиладаги таълим-тарбия, маънавий-ахлоқий қадриятлар кейинчалик одамлар орасида — маҳалла-кўйда, таълим муассасаларида сайқал топади. Шундай экан, ватанимиз ва халқимизнинг эртанги кунини, жаҳон ҳамжамиятидаги обрў-эътиборини белгиловчи баркамол авлодни вояга етказишдек улуғ вазифани оила-маҳалла-таълим муассасаси ҳамкорлигисиз ҳал этиб бўлмайди десак, айни ҳақиқатни айтган бўламиз.

Мамлакатимизда болалар тўғрисида, оналар ҳақида ғамхўрлик қилиш чинакам давлат аҳамиятига молик ишдир. “Жамики яхши нарсалар – болаларга” шиори янада баралла жарангламоқда. Кейинги йилларда мазкур масала юзасидан қабул қилинган қарорлар фикримизнинг исботидир.

Маълумки, бола мактабгача таълим ташкилотига келгунга қадар ҳам, мактабгача таълим ташкилотида ўқиш даврида ҳам, асосан оилада

[145] Ш.М.Мирзиёев. Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш масалаларига бағишланган йиғилишдаги нутқидан. 19.10.2017

тарбияланади. Оила давлатнинг асосий куртаги сифатида болаларнинг дунёқараши, хулқи ва дидига таъсир кўрсатиши таббий ҳолдир. Оила аъзоларининг маънавий бирлиги ёшларни ҳар томонлама камол топтиришнинг дастлабки ва асосий омилларидан бири ҳисобланади.

Болаларни баркамол инсон қилиб ётиштиришда мактабгача таълим ташкилотини оила билан мустаҳкам боғламай туриб, тарбия соҳасидаги бутун ишларни муваффақиятли амалга ошириш бўлмайди. Шу мақсадда ота-оналар ўртасида таълим-тарбияга оид ташвиқот ишларини кенгайтириш уларни мактабгача таълим ташкилотининг фаол ёрдамчиларига, болаларнинг синфдан ва мактабгача таълим ташкилотидан ташқаридаги ишларида ҳар томонлама фойдали ташкилотчиларига айлантириш зарур.

Жамиятнинг жадал ривожланиши, фаолият турларининг тобора мураккаблашиб бориши шахс онгига кўрсатаётган кўринмас таъсирларнинг кучайишига олиб келмоқда. Мана шундай шароитда кишининг мавжуд билими, касб-ҳунари, малакалари камлик қилиб қолмоқда. Энг аввало, инсонларда оилада таркиб топган дид, фаросат, ақл, одоб, эмотсионал маданиятга муҳтожлик сезилмоқда. Эстетик, ахлоқий ва бошқа тарбия сифатлари кундалик ҳаёт еҳтиёжга айланиб бормоқда. Табиийки, бундай сифатларга оилавий тарбия орқали асос солинади, камол топтирилади. Тўғри, бунда ижтимоий тарбиянинг ўрнини инкор этиб бўлмайди. Ана шу нуқтаи назардан уларнинг бирлигига, ўзаро ҳамкорликларига асослансак, баркамол инсон тарбиясида муваффақиятларга эришиш мумкин. Оилавий тарбия педагогика фанида мураккаб муаммолардан биридир. Унинг мураккаблиги шундаки, ҳар бир оила ўзига хос ибтидоий гуруҳ бўлиб, тарбияда фақат мазкур гуруҳга хос хусусиятларга асосланади.

Таъкидлаганимиздек, оилавий тарбияни ижтимоий тарбия билан алмаштириш болалар камолотига салбий таъсир кўрсатади. Масалан, боғчаларга бормай, фақат оилада ўсган ва вояга ётган болалар мактабга борганларида ўз тенгқурлари ичида кўп жиҳатлари билан ажралиб туради. Оиланинг болаларга моддий ва маънавий ғамхўрлигини, кўрсатаётган тарбиясини боғча тарбияси билан ёки, аксинча, боғча тарбиясини оилавий тарбия билан алмаштириб бўлмайди. Фақат ўзаро ҳамкорлик масалани ижобий ҳал этиш имкониятини беради.

Лекин ўзининг хусусиятлари ва такрорланмас таъсири билан оила бола тарбиясида муҳим омиллигича қолади. Амалиётда кузатганимиздек, болада ота-онасининг меҳри, эркалашлари асосида ота-оналарига, қариндош-уруғларига бўлган ҳиссиётлари шаклланади. Боланинг отасига бўлган ҳурмати онанинг ҳурматини жойига қўйишда асос бўлади. Онага бўлган меҳр-муҳаббат оқибат натижада ўз оиласига, хотини, фарзандларига бўлган муносабатларда ўз аксини топади.

Иккинчи томондан болалар ҳам ўз ота-оналарига таъсир кўрсатадилар. Оилавий алоқаларни оилавий қизиқиш, маънавий қониқиш ҳислатларини такомиллашига сабаб бўладилар.

Ота-оналарнинг ўзига ва болаларига бўлган талабчанлиги, катта ва кичикларнинг ўзаро муносабатлари, дўстона муҳит, ишонч ва ўзаро бир-бирларини тушуниш оила, мактабгача таълим ташкилоти ва жамоатчиликнинг болалар тарбияси юзасидан олиб бориладиган муҳим омилларидан биридир. Бундай бирликнинг рўёбга чиқишида, энг аввало, ота-оналарнинг сиёсий онглилиги муҳим рол ўйнайди. Чунки ота-оналарнинг фаоллиги оилавий ҳаётда ўз ифодасини топади. Шу маънода болалар ўз ота-оналарининг сиёсий ва фуқаролик қиёфаларига қараб ўз хулқ-атворларини тартибга соладилар, ҳурматларини жойига қўядилар.

Болалар улғая бошлаши биланоқ ўз ота-оналарининг қаерда ишлашлари, жамиятда тутган ўринлари, уларнинг билимига қизиқа бошлайдилар. Шунинг учун ҳам ота-оналарнинг нималарга қизиқишларини, кимлар билан сафдош эканликларини болалар мумкин қадар эртароқ билганлари маъқул. Ота-она қандай ишда бўлмасин уни жиддий, эл ҳурматига лойиқ бир иш деб биладиган бўлиши керак. Бу борада оиладаги тарбиянинг мақсадга мувофиқ ташкил этилиши юзасидан жавобгарлик маълум даражада мактабгача таълим ташкилотига юкланади. Оиладаги ҳукмронликнинг тарбиявий жиҳатдан тўғри бўлишини таъминлаш мактабгача таълим ташкилотининг муҳим вазифаларидан биридир. Оилавий тарбиянинг мазмунли ташкил этилишига дастлабки таъсирни мактабгача таълим ташкилоти белгилайди. Мактабгача таълим ташкилотигина оилавий тарбия самарадорлигини ошириш юзасидан раҳбарлик қила олади. Бу вазифаларнинг муваффақиятли бажарилишида, ижобий ҳал этилишида ота-оналар ўртасида олиб бориладиган тарбияга оид тарғиботнинг роли бениҳоядир. Чунки ота-оналарни ҳозирги замон руҳий-таълим-тарбиявий билимлар билан қуроллантирмай туриб, оилавий тарбияни йўлга қўйиб бўлмайди. Оммавий-тарбиявий тарғиботда энг яхши оилалар намунасида таъсир кўрсатиш энг мақбул йўлдир. Бола тарбияси юзасидан оила, мактабгача таълим ташкилоти ва жамоатчилик ҳамкорлиги ҳозирги кунимизнинг долзарб масалалиги ҳам мана шундадир. Чунки, биринчидан, бола тарбиясида оила, мактабгача таълим ташкилоти ва жамоатчилик ҳамкорлигининг ўзи мураккаб жараён бўлиб, бунда муаллимлардан ташқари ишлаб чиқариш жамоалари вакиллари, ёшлар, касаба уюшмалари иштирок этадилар. Иккинчидан, ота-оналар ва қариндош-уруғлар турли меҳнат жамоаларининг вакиллари бўлиб, ишлаб чиқариш ва ёру дўстларининг маънавий хаётларидаги омилларни муҳокама қиладилар, уларнинг ҳаётга, санъатга, оилавий мажбуриятларга бўлган муносабатлари ҳақида гапирадилар. Шу сабабли ҳам мана шундай тоифа оилаларида тарбия топаётган болалар бошқа ота-оналарнинг кўчада, жамоат жойларидаги ҳаёт фаолиятларига қараб ўз ота-оналарига баҳо берадилар. Тўпланган тажрибаларни ясли, боғча, мактабгача таълим ташкилотидаги ўртоқлари билан муҳокама қиладилар ва ҳоказо.

Кўплаб қишлоқ оилаларида маълум даражада болалар тарбияси юзасидан жамоатчилик ёрдами мавжудлигига қарамасдан тарбиявий кучларнинг бир бутунлигига эришилмаган, ўзаро ҳамкорликни қандай

ташкил этиш мумкинлиги ҳақида маълумот етарли эмас. Ўқитувчилар ҳам синф ота-оналар мажлисининг ўтказилиши мактабгача таълим ташкилоти ва оила ҳамкорлигини таъминлайди, деб ўйлашади. Тўғри, ота-оналар мажлиси ҳам ҳамкорликни таъминлашнинг энг муҳим омилларидан ҳисобланади, лекин оила, мактабгача таълим ташкилоти, жамоатчилик ҳамкорлиги учун, уларни бирлаштириш учун махсус ташкил этилган марказ бўлиши лозим.

Мактабгача таълим ташкилотини оила билан боғловчи восита – бу болалардир. Болалар билан ишлаш, уларнинг илмий дунёқарашларини шакллантириш, ижтимоий фаолликларини таъминлаш орқали ота-оналарга таъсир кўрсатиш усулларини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Бу борада мактабгача таълим ташкилоти ва оила алоқасини таъминловчи ота-оналар мажлислари, болалар тарбиясига алоқадор муаммоларни жамоа бўлиб ҳал етиш кабиларнинг ролини инкор етиб бўлмайди. Жумладан, ”Болангизнинг нимани яхши кўришини биласизми?”, “Болаларимиз одоби ҳақида суҳбатлашайлик”, “Болангиз мактаб бўсағасида” каби мавзуларда олиб бориладиган суҳбатлар ота-оналарни ўз болалари ҳақида, уларнинг келажаги ҳақида қайғуришларига сабаб бўлди.

Кўриниб турибдики, фарзанд нафақат оила тарбияси орқали камол топади, балки унга Давлатимиз томонидан берилган имкониятлар асосида ташкил етилган МТТ орқали ҳам камол топади. Чунки, бўлажак катталар ана шу кичиклар негизида тайёр бўлади. Бундан ташқари халқимиз болапарвар ва ўз зурриёдини жонидан ҳам азиз кўрувчи халқ. Улар фарзандларини оиласининг қувончи, ота – онасининг меҳр нуридан яралган, яъни Аллоҳ ато этган олий неъмат, жамиятнинг ҳаётбахш ҳамда ҳаракатлантирувчи кучи, деб биладилар. Шунингдек, фарзанд умр меваси, оила фахри ва қувончи ҳамда давомчиси бўлганлиги учун ҳам у оиланинг келажаги бахтидир.

Биз оилани давлат ичра кичик давлат деб атаймиз. Унда янги инсон, яъни давлатнинг янги бир вакили дунёга келади. Кичик давлат – оила эса бу инсон учун дастлабки ҳаёт дорилфунуни бўлади. Шу сабабли ота – оналар фарзанднинг биринчи ўқитувчиси ва тарбиячисидир.

Фарзандни баркамол ва маънавий етук қилиб ўстириш учун, энг аввало ота – онанинг ўзи юксак ахлоқий фазилатларга ега бўлиши керак. Бундай муҳим ва истиқболли муаммоларни ҳал қилишда мамлакатимизда ота – оналарга ёрдам кўрсатиш мақсадида МТТ ташкил этилган. Бу борада МТТ билан ота – оналар ҳамкорлигининг аҳамияти каттадир.

**Адабиётлар рўйхати:**

1. Ш.Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон мафаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь. Т. “Ўзбекистон” 2017 й, -48 б.
2. Ш.Мирзиёев Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. /Т.: „ Ўзбекистон “, 2017. — 488 б.

3. О.Хасанбоева Тарбиявий ишлар методикаси Т. 1996 й
4. Р.Мавлонова, Б.Нормурадова, Р.Рахманкулова Тарбиявий ишлар методикаси Т. "Фан" нашриёти, 2007 й
5. Ш.Шодмонова, М.Хошимова, Н.Файзуллаева Тарбиявий ишлар услубиёти, Т. "Фан ва технология" нашриёти, 2008 й

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING MOHIYATI

**G.Q. Hasanova,**
*BuxDU, Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsent*
**Z.M. Ashurova,**
*BuxDU, I kurs magistranti*

*Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadi, innovatsion pedagogik texnologiyalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi faoliyat turlari oldidagi roli, eksperimental – tajriba faoliyatlarining bola rivojlanishidagi o'rni, va ularning mohiyati haqida bayon etilgan.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadi: dunyo rivojlangan davlatlari ta'lim darajasiga javob beradigan yosh avlodni tarbiyalash. Shunday ekan endigi vazifamiz - rivojlangan davlatlarning mentalitetimizga mos keladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash va yangilarini ishlab chiqishdan iboratdir.

So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotarida yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi ta'lim sohasida sezilarli darajada o'zgarishlarga olib keldi. Yangi pedagogik texnologiyalarni tarbiyalanuvchilarga qo'llashdan oldin tarbiyachi ijodkor bo'lishi lozim. Ijodkor tarbiyachi har bir bola ko'ngliga alohida, indivual tarzda yo'l topmog'i, ularning xarakteriga, temperamentiga mos ravishda faoliyat turlariga qiziqtirish uchun yangi metodlardan, pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi shart va zarurdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash:

- Ta'lim samaradorligini oshirish;
- Tarbiyachilarning malakasini oshirish;
- Pedagogik tajribani qo'llash;
- Pedagogik tajribalarning tizimliligi;
- Kompyuter texnolgiyalarini qo'llash;
- Bolalar sog'ligini saqlash;
- Bolalar sog'ligini mustahkamlash;
- Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda o'z hissasini qo'shadi.

Zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarning bari maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hozirgi davrda maktabgacha

ta’lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatlarini tashkil etish davr talablaridan biridir. Bu kabi mashg‘ulotlar barcha rivojlangan davlatlar: Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Germaniya singari davlatlarda qo‘llaniladi.

Bolalar maktabgacha ta’lim tashkiltlarida eksperimental-tajriba faoliyatlarini qo‘llashdan maqsad:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy kompetensiyalarini shakllantirish;
- Maktabgacha yoshdan boshlab tadqiqotchi, ixtirochi sifatida fikrlashni bolalarga o‘rgatish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik, tadqiqotchilik qobiliyatlarni shakllantirish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhit, borliqqa nisbatan qiziqish uyg‘otishdan iboratdir.

Faoliyat turi davomida rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni qimmatbaho, murakkab o‘yinchoqlarsiz qanday qilib bolalarga qiziqarli qilib ko‘rsata berish mumkin? Bolalarning bo‘sh vaqtini qanday qilib samarali tashkil etish mumkin? Eksperimental-tajriba faoliyat turini qay tarzda tashkil etish kerak? Bu tajribalarning amaliy jihatdan bajarilishining bolaga nafi bormi? Bu savollarga quyida javob olamiz.

Eksperimental-tajriba faoliyatini boshlagan vaqtda tarbiyachi birinchi navbatda tarbiyalanuvchilarga mashg‘ulotdagi asosiy muammoni bayon qilishi kerak. Muammo bayon qilingandan keyin esa bolalardan mustaqil ravishda bu muammoni qay tarzda yecha olishini, qanday qilib buni bajarishini har bir boladan so‘rab-surishtirishi lozim. Bu har bir bolada mustaqillik, erkin fikrlilik qobiliyatlarini shakllantiradi. Keyin esa ushbu muammoni tarbiyachi eksperimental-tajriba usuli yordamida bolalarga yechimini ko‘rsatib berishi lozim. Maktabgacha ta’lim muassasalari guruhlarida har bir bola mustaqil ishlashi, o‘zini ko‘rsata olishi, tajribalarda amaliy jihatdan ishtirok etishi uchun shart sharoitlar yaratib berilishi kerak. Chunki bola bu kabi faoliyat orqali aniq fikrlashni o‘rganadi.

Eksperimental-tajriba faoliyat turlarini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘llash davomida tarbiyachi quyidagi metod turlaridan foydalanishi mumkin:

- Suhbat;
- Kuzatish;
- Modellashtirish;

Suhbat davomida bolalarga tajribaning hayotimiz davomida keltiradigan foydasini, afzalliklarini va albatta salbiy tomonlarini ham tushuntira borish shart. Bola ushbu hodisani nihoyatda sinchkovlik bilan kuzatadi. Miyasida analiz qiladi. Xotirasida zudlik bilan saqlab olib, uy sharoitida oila a’zolariga bajarib ko‘rsatadi. Eksperimental-tajriba faoliyatlarining afzalligi shundaki, bolalarga o‘rgatilayotgan obyektning turli jihatlarini, jumladan hajmi, rangi, shakli, xossalari haqida real tushuncha hosil bo‘ladi. Bir faoliyatning o‘zidayoq bolaning olgan bilimi mustahkamlanadi. Eksperimental-tajriba faoliyat turi davomida bolalarning xotirasini boyitish, rivojlantirish, diqqatini jamlash, faolligini oshirish,

ishchanligini rivojlantirish kabi psixik va fiziologik xususiyatlarga ijobiy ta'sir qilish mumkin.

Eksperimental-tajriba faoliyat turi davomida bolalarning miyasi quyidagi psixik operatsiyalarni bajaradi:

- Analiz qiladi;
- Sintez jarayonini bajaradi;
- Ma'lum bir hodisani yoki predmetni boshqa bir hodisa yoki predmet bilan taqqoslaydi;
- Oldingi faoliyatlarda olingan bilimlar jamlanmasini umumlashtiradi;
- Bolalarning xotira faoliyati bevosita rivojlanadi;
- Bolalar tajribalarni yaxshi koʻrishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Белкина Валентина Николаевна – психология раннего и дошкольного возраста. Учебное пособие. Гриф УМО по педагогическому образованию. – "Феникс", 2015. (17п.л.)
2. Белкина Валентина Николаевна – детская психология взаимодействие со сверстниками. Учебное пособие. Гриф УМО по педагогическому образованию. – "Феникс", 2012. (17п.л.)
3. Белкина Валентина Николаевна – методика преподавания. Учебное пособие.
4. Социальная сеть работников образования – nsportal.ru


## РУҲИЙ АСАБ БАРҚАРОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БАРКАМОЛ ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШ ОМИЛИ


**Ж.Ш. Остонов,**
*БухДУ, Психология кафедраси ўқитувчиси,*
**З.И. Қурбонова,**
*БухДУ I курс магистранти*


Таълим ва тарбияни талаб даражасида ташкил этиш учун ёшдарнинг психологиясини янада теранроқ англаш, улар руҳиятида кечаётган жаларни, кечинма ва кайфиятларини адекватн баҳолаш орқали таълимни оқилона ташкил этиш муҳимдир.

Талабаларда руҳий асаб барқарорлиги масаласи ҳозирги шароитда педагогика ва психологиядаги долзарб масалалардан бирига айланди. Зеро, ўқув фаолиятини самарали ташкил этиш, шунингдек, ёшларнинг ижтимоийлашувида муҳим ўрин тутадиган ўз-ўзини англаш билан боғлиқ жараёнлар айнан улардаги руҳий асаб мутаносиблиги натижаси сифатида намоён бўлиши мумкин.

Ҳар бир талаба шахсига индивидуал ёндашув таълим самарадорлигини таъминлашга хизмат қилади. Бу эса маълум манода талаба-ёшларнинг руҳий асаб барқарорлигини таъминлаш, уларнинг ўз-ўзини ривожлантиришга, ўз-ўзини тўғри баҳолай олишга ва ўз-ўзини турли хил муваффақиятсизликлардан ҳимоя қилишга қанчалик тайёрлигига боғлиқдир. Мазкур таъкидлаб ўтилган сифатларнинг оқилона тасарруф этилиши тўғридан-тўғри ёшлардамунтазам тарзда тарбиялаб бориладиган руҳий асаб барқарорлиги даражаси билан боғлиқдир. Бошқа кишиларга муносабат нафақат талаба- ёшларда намоён этиладиган руҳий асаб барқарорлигининг муҳим қисми, балки онг шаклланишининг асосини ташки л этади. Фаолият ўзгарганда бу фаолиятнинг нафақат предмети, методи ва оператциялари, балки шу билан бирга кишининг ўз-ўзига нисбатан муносабати ҳам қайта қурилади. Айтиш мумкинки, ҳозирги шароитда ёшларни юксак билимли, маънавиятли ва ватанпарвар этиб тайёрлаш уларда руҳий асаб барқарорлигини алоҳида тарбиялаш билан чамбарчас боғлиқдир.

Руҳий асаб барқарорлиги талаба-ёшларнинг ўз кучига, ўз ҳаракатларининг тўғрилигига нисбатан ишонч мавжуд бўлганда намоён бўлади. Руҳий мувозанатнинг зарурлиги талабаларнинг ташқи муҳитдамаълум қийинчиликлар пайдо бўлганда, ички қарама-қаршилик мавжуд бўлганда кучаяди. Руҳий асаб барқарорлиги ёшлар томонидан ички ва ташқи тўсиқларни енгиш билан боғлиқ ўз ҳатти-ҳаракати ва фаолиятни онгли бошқариш имкониятидир, зеро у инсон психикасининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади.

Талабаларда руҳий асаб барқарорлигини ривожлантиришда ирода тарбияси муҳим ўрин тутади. Ирода шахсни фақат бирон-бир айрим жиҳатдан эмас, балки уни ҳамма жиҳатдан, ҳар томонлама тарбиялашдир. Иродали киши пухта ақл, ёрқин ижодий хаёл ва икучли ахлоқий ҳиссиётларига эга бўлган ғоявий кишидир. Ушбу тарбия айрим ҳоллардагина ирода кучини кўрсатиш қобилиятини ҳосил қилиш билан чекланмаслиги лозим. Иродани тарбиялаш-иродавий сифатларни мустаҳкамлаш ва уларни ҳар бир шахснинг доимий лаёқати сифатларига айлантириш демакдир. Шахснинг ана шундай мустаҳкам, доимий сифатлари характернинг айрим томонларига айлана боради. Шунинг учун ирода тарбияси айни вақтда характеринг иродавий томонларин тарбиялашҳамдир.

Инсоният тароққиётининг алоҳида даврларида янгича муносабатларнинг шаклланиши одамларнинг бевосита шу жамиятда руҳий асаб барқарорлигини шакллантиришнинг усул ва босқичларини ишлаб чиқишда намоён бўлади, яъни:

- педагогик ўқув тизимида руҳий асаб барқарорлиги сифатларини шакллантиришни алоҳида категория сифатида ажратиш, унинг объекти ва предметини аниқлаш;
- руҳий асаб барқарорлигини ривожлантиришни бошқа ахлоқий сифатлар билан ёнма-ён олиб боришга аҳамият бериш;

- руҳий асаб барқарорлигини ривожлантиришда касб-ҳунар ва олий укув юртлари босқичларини ажратиб кўрсатиш мумкин. Бундай босқичлараро бўлинишда ижтимоий ва майл-истаклар мажмуаси асосий мезон бўлиб қолади;
- руҳий асаб барқарорлигини ривожлантиришда тарбиянинг жамоалашган ва якка тартибдаги услублардан кенг фойдаланиш зарур. Бунда қўрқитиш, мажбурлаш услубларига йўл қўймаслик, балки ҳақиқат, сабр-қаноат, ижтимоий адолат ва ватанпарварлик ғоялари асосий мезон бўлиши мақсадга мувофиқ.

Талаба ёшларда руҳий асаб барқарорлигини таъминлашнинг муҳим шартларидан бири, кун тартибига қатий риоя қилиш ҳамда ижтимоий ҳаётнинг маълум тартиб асосида ташкил қилинишидир.Руҳий асаби беқарор бўлган кишиларни кузатиш шуни кўрсатадики, улар ўзларининг ишларини ҳам, дам олишларини ҳам тўғри ташкил қила олишмайди.

Руҳан тинч, хотиржам инсон ўз вақтиинг ҳукмронидир. Шахснинг шошмасдан белгиланган вазифани бажариши, ҳатти-ҳаракатлари маълум объектга ва аниқ бир мақсадга йўналтирилганлиги унинг ўз фаолиятини оқилона ташкил этганлигидан далолат беради. Руҳий асаб барқарорлигини таъминлаш учун кундалик турмушда, меҳнатда учрайдиган тарқоқлик ва тартибсизлик билан доимий курашиб бориш талаб этилади.

Муҳтасар қилиб айтганда, ёшларнинг руҳий асаб барқарорлигини ривожлантириш унинг ҳаётда ўз ўрнини топиши, ҳар томонлама етук, комил инсон бўбил етишиши учун мустаҳкам пойдевор вазифасини бажаради.

***5A 120304 - Тарихшунослик, манба-шунослик ва тарихий тадқиқот усуллари***

# ВЫСТАВОЧНЫЙ ПОКАЗ И ПРОПАГАНДЫ РУКОПИСЕЙ ИЗ СОБРАНИЯ БУХАРСКОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА

**Х.Х. Тураев,**
*профессор, БухГУ*
**Ш.Г. Джураев,**
*магистрант, БухГУ*

*В данной статье представляется информация о выставочных показ и пропаганде сокровищницы рукописей Бухарского музея. А также подробно рассказывается об организованных выставках в музее в течение многих лет, и о книгах, представленных в разных экспозиций.*

Бухарский государственный музей-заповедник – центр древней культуры нашей страны, занимает большое место как сокровищница рукописных книг. Фонд музея разнообразен по составу. Сохранившиеся в музейном фонде рукописные и литографические произведения арабской письменности, образцы работ каллиграфов и другие экспонируются не только в фонде музее-заповеднике, но и на экспозициях и выставках музея, демонстрируются местным и зарубежным туристам. Одной из таких выставок является экспозиция “Письменные памятники Бухары” в составе научного отдела “Истории”. Эта постоянная выставка начала свою деятельность в 90-е годы прошлого века, в экспозиции музея представлено более 60 экспонатов. [146] На протяжении многих лет экспозиция пополнялась дополнительными экспонатами, хранящимися в фонде. После реконструкции 2011 года выставка приобрела новый вид. [147] В настоящее время в экспозиции представлены произведения таких писателей, как Алишер Навои, Абдурахман Джами, Абдукодир Бедиль. В экспозициях музея демонстрируются не только рукописные и литографические произведения, но и предметы, используемые в каллиграфии, [148] являющиеся образцами надписей различной формы, специальная бумага для обучения арабскому правописанию – мистар, [149] муфридот, [150] жузгир[151]

В 1992-93 году в музее "Истории водоснабжения Бухары" была создана временная выставка, причём, здесь было представлено рукописные книги, [152]

---

[146] Ахмедова С. Реэкспозиция завершена: Исторический ракурс. // Бухарский вестник, 2002 г, 25.09. -с.3
[147] Отчёт музея-заповедника за 2011 г.
[148] Китъа – перевод с арабского языка часть.
[149] араб. “Мистарун” – линейка, образец. Количество строк в рукописи.
[150] Муфрадот – “Раздельно написанные буквы”.
[151] жузгир - обложки книг из кожи
[152] Акт №10 24.04.1993 г. Внутримузейной передачи Бухарского государственного музея-заповедника.

книга “Китоби Муллазода” потом передана в музей Арк, чтоб представиться на выставке организованной в отделе Истории.

В марте-декабре 2001 года в здании мечети Джоми в Арке в честь 560-летия Алишера Наваи создана выставка рукописных книг поэта. [153] Совместно с областным центром «Маънавият ва маърифат» к 560 - летию Наваи в здании центра была создана передвижная выставка «Алишер Наваи – основатель узбекского литературного и султан поэзии Востока», выставлены рукописные книги великого поэта и миниатюры к его произведениям[154]

Экспозиция отдела Нумизматики имел экспозицию – музей "Тарикати Накшбандия", открытый в сентябре 1993 г. На экспозиционной площади 800 м$^2$ выставлено 75 экспоната, из них 60 основного фонда. Данная экспозиция то же содержит ценные артефакты. Среди книг Корана имеется крупная книга с деревянной обложкой, в настоящее время выставляется в музее “Тарикати Накшбандия” Бухарского государственного музея-заповедника, которая изначально была принята в фонд музея-заповедника. Эта книга является самой большой по размеру среди рукописных книг, его размер составляет 90х48х16 см. Книга хранится под инвентарным номером № 934. [155] Кроме того, эта книга является одной из первых рукописей, принятых в музейный фонд. Его приём примерно подходит к 20-х годам прошлого века. [156] До этого она хранилась в библиотеке Бухарских правителей. После пересоздания музея Накшбандия в 2003 году книга была представлена на экспозицию [157] этого музея и сейчас представлена вниманию зрителей. Каждая его страница содержит жёлтую рамку.

Мемориальный комплекс памяти Имама аль-Бухари построен в городе Бухаре по решению хакима области и передан на пользование музею-заповеднику 28 августа 2001 года и в конце 2002 года выделился как самостоятельный филиал. В экспозициях музея демонстрируются не только рукописные и литографические произведения, но и предметы, используемые в каллиграфии, являющиеся образцами надписей различной формы. Естественно, здесь существует и копии книги, хадисы имама аль-Бухари.[158]

Самым ценным из произведений, хранящихся в музейном фонде, является копия “Канон” великого учёного Ибн Сины, которая была переведена в 1523 году. Эта копия представлена вниманию туристов в Мемориальном музее Абу Али ибн Сины. [159]

Музей-худжра С. Айни и Джалала Икрами (нынешний филиал История литературы Бухары) в медресе Кукельдаш, впервые открылся в 1988 году. В данном музее выставлено 72 экспонатов. В экспозициях музея

---

[153] Отчёт музея-заповедника за 2001 г.
[154] На том же месте
[155] КП музея-заповедника
[156] Тураев Х. Шарипов Ю. Бухоро музейида сақланаётган Қуръоннинг қўлёзма нусхаси. //Имом аль-Бухарий сабоклари. 4/2004. -с.249
[157] 2003 йил Сектор учёта Акти
[158] Отчет музея-заповедника за 2005 г.
[159] Қадимий Бухоро музейлари. -Бухоро: “Бухоро”, 2015. Б-53

демонстрируются не только рукописные и литографические произведения, но и предметы, используемые в каллиграфии, [160] являющиеся образцами надписей различной формы.[161]

Бухарский Музей-заповедник в своей деятельности уделяет значительное место научно-исследовательской работе, участию на международных конференциях с докладами и научными сообщениями. Так, 26 – 27 сентября 2003 года в краеведческом музее Арк прошла международная конференция «Бухарский оазис. Древность и средневековье», учреждённая Бухарским музеем–заповедником, институтом истории АН Уз., институтом Востоковедения Римского университета «Ла Сапиенца» (Италия) .

В 7 февраля 2017 года в в филиале музее изобразительных искусств Бухарского музея-заповедника организована художественная выставка на тему "Общечеловеческие интересы в взглядах великого поэта Навои", посвященная 576-летию Алишера Навои. На выставке были представлены произведения Навои и великих мастеров того времени, хранящиеся в фонде научного центра по различным темам, отражающим творчество Навои. Кроме этого на выставке были представлены ряд произведений А.Навои, написанные его современниками, переведенные различными каллиграфиями, таких как «Хамса», “Чор девон”, “Хазоин аль-Маоний”(“Сокровище смыслов”), Тарихи мулки ажам», «Мухокамат-ал лугатайн», «Вақфийа», «Муншаот», а также 8 миниатюр из пяти поэм великого мыслителя «Хамса», миниатюры, известного художника Садриддина Поччаева и миниатюриста Даврона Тошева, посвященные творчеству Алишера Навои.

В связи с 681-й годовщиной со дня рождения Амира Темура, 623-й годовщины со дня рождения Мирза Улугбека, 13 апреля 2017 года в выставочных залах “История древнего и средневекового Бухарского оазиса” был проведён научно-практический семинар на тему: “Наука, Культура и архитектура в эпоху Амира Темура и Темуридов”. состоялась просветительская встреча и выставка, из фонда “научный центр по изучение рукописей арабской письменности” были выделены экспонаты основного фонда под номером 32175/11, 32174/11, а также 6874, 6877, 6887, 68902, 6869 научно-вспомогательного фонда были приобретены и представлены для демонстрации на выставке.

В 2018 году в отделе Истории областного краеведческого музея было создана выставка "Историография и источниковедения в периода Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабура". Были выделены экспонаты из фонда научного центра «По изучению восточных арабографических рукописей». В ней участвовали преподаватели из Университета и научные сотрудники музея.

В январе 2019 года была организована выставка, посвящённая книгам Корана хранящимся в фонде музея “Толкование Священного Корана”, а

---

[160]Акты Сектора учета.

161 Отчет музея-заповедника за 2005 г

научные сотрудники музея-заповедника также опубликовали брошюру [162]с этим названием. В конференции преподавателем факультета истории и культурного наследия Бухарского государственного университета, доктор исторических наук, профессором Х.Тураевым была предоставлена ценная информация об истории появления книг Священного Корана в Бухаре и их распространении в других местах.

Рукопись не только экспонируется в научном отделе “История”, но и широко представлена в других отделах и филиалах музея-заповедника, в том числе в музее “Карикати Накшбандия”, музее памяти Имама аль-Бухари, выставке “История Бухарской каллиграфии” и других. В частности, большинство работ, выставляемых в музее "Тарикати Накшбандия", представляют собой произведения, рассказывающие о суфизме.

19 сентября текущего года в областном краеведческом музее “Арк” при Бухарского государственного музея-заповедника состоялось мероприятие под названием "Ахмад Дониш – последний ученый Бухары", посвященное жизни и творчеству великого ученого-философа, математика, астронома, искусного каллиграфа, архитектора Ахмада Дониша. В следующей части мероприятия в зале краеведческого музея " Арк " была представлена выставка рукописных книг ученого-мыслителя, миниатюр и астрономических календарей, хранящихся в документальном фонде Бухарского государственного музея-заповедника, а также в частных коллекциях. В музее хранится черновик и оригинал (т. е. первая книга 1880 г.) произведения” Наводир-ул вакое". Эти работы, поставленные на показ, вызвали большой интерес у посетителей.

## Список использованной литературы


1. Ахмедов А. Равшанов У. Мукаддас китоб талкини. Бухоро: Дурдона, 2019 г.
2. Ахмедова С. Реэкспозиция завершена: Исторический ракурс. // Бухарский вестник, 2002 г, 25.09. -с.3
3. КП музея-заповедника
4. Отчёт музея-заповедника за 2001 г.
5. Тураев Х. Шарипов Ю. Бухоро музейида сақланаётган Қуръоннинг қўлёзма нусхаси. //Имом аль-Бухарий сабоклари. 4/2004. -с.249


[162] Ахмедов А. Равшанов У. Мукаддас китоб талкини. Бухоро: Дурдона, 2019 г.

# BERUNIY "YODGORLIKLAR"INING AHAMIYATI

**M.K. Beshimov**
*BuxDU, II kurs magistranti*

*Maqolada Abu Rayhon Beruniyning "Osor al-boqiya" asari haqida so'z yuritilgan. Beruniyning asarda keltirilgan O'rta Osiyo, yunon, eron, hind, nasroniy, yahudiy va boshqa xalqlarning islomgacha bo'lgan tarixi, urf-odatlari, bayramlari va, asosan, vaqtni aniqlash to'g'risidagi ma'lumotlar va ularning ahamiyati ochib berilgan.*

O'lkamiz tarixida o'tgan juda katta davr mobaynida nafaqat mahalliy, balki mamlakat tashqarisida ham qo'lyozma asarlarning saqlanishi, namoyish etilishi va o'rganilishi jiddiy tus olib bormoqda. Tariximizni yoritishda katta ahamiyatga ega bo'lgan qo'lyozma manbalarni saqlash va o'rganish borasida bugungi kunda hukumatimiz tomonidan ham yetarlicha e'tibor qaratib kelinmoqda, chunonchi, 2017 yil 24 may kuni "Qadimiy qo'lyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qaror imzolandi. Yurtimizda asrlar davomida Markaziy Osiyo bo'yicha eng boy qo'lyozma meros jamlanganinie'tirof etish o'rinli.Ushbu qaror asosida turli maskanlarda saqlanayotgan noyob osori-atiqalar o'rganilishi davom ettirilishiga zamin tayyorlandi.Bu kabi noyob osori-atiqalar qatoriga shubhasiz Beruniyning "Osor al-boqiya" asarini ham kiritishimiz mumkin.

Abu Rayhon Beruniyning birinchi yirik asari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobidir. Asarning arabcha nomi "Al-osor al-boqiya an al-quron al-xoliya" bo'lib, Yevropada "Xronologiya", o'zbek sharqshunosligida "Osor al-boqiya" nomi bilan mashhurdir. Beruniy bu kitobni Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000-yili yozib tamomlagan. Bu vaqtda olim endi 27 yoshga to'lgan edi. "Osor al-boqiya" asari unga juda katta shuhrat keltirdi. Beruniy fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko'rsatadi.Akademik I.Yu.Krachkovskiyham buni qayd qilib o'tgan edi.

Beruniy qunt va matonat bilan turli xalqlar tarixi, madaniyati va tillarini o'rganadi. U yahudiy, yunon, fors, arab, sug'diy, qibtiy va boshqa tillarni mukammal egallaydi. yahudiy va xristian dinlari tarixi, Tavrot va Injil singari muqaddas kitoblar bilan chuqur tanishadi. Ayrim asarlarida Tavrotning aslidan parchalar keltiradi. Arab tilini o'z ona tilidek o'rgangan olim arablarning islomgacha bo'lgan va undan keyingi tarixini sinchiklab va har tomonlama o'rganib chiqadi. Qur'on va shariatga oid boshqa kitoblarni qunt bilan mutoala qiladi. Ilm-fanga oid asarlar juda kam nusxada va qo'lyozma shaklda ayrim shaxsiy kishilar qo'lida bo'lgan bir davrda yosh olimning bunday asar yozishi uning nihoyatda zo'r va buyuk qobiliyat egasi bo'lganidan dalolat beradi.

"Osor al-boqiya" asari Beruniyning deyarli boshqa asarlari kabi arab tilida yozilgan. Bu kitobni birinchi marta Yevropa olimlariga tanishtirgan kishi mashhur nemis sharqshunos va beruniyshunos olimi Eduard Zaxau (1845-1930)bo'ldi. U

1876-1878 yillarda Leypsigda “Osor al-boqiya”ning arabcha nusxasini birinchi marta nashr etdi. Zaxau arabcha nusxani nashrga tayyorlash jarayonida oʻsha vaqtda mavjud boʻlgan toʻrtta qoʻlyozmadan foydalangan.1879-yil Zaxau “Osor al-boqiya”ning ingliz tilidagi tarjimasini nashrdan chiqardi. Tarjimaga Beruniyning mufassal tarjimai holi va izohlar ham ilova qilingan.

Zaxau tomonidan tayyorlangan arabcha nusxa asosida 1321quyosh yili (1943-yil) Tehronda “Osor al-boqiya”ning fors tilidagi tarjimasi Akbar Dono Sirisht Sayrafiy tomonidan nashr etildi.

“Osor al-boqiya”ni 1957-yilda marhum arabshunos olim M.A.Sale birinchi marta rus tiliga tarjima qildi. Tarjima jarayonida u Zaxau nashr etgan arabcha va inglizcha nusxadan, Leningrad qoʻlyozmasi va qisman Istanbul qoʻlyozmasidan foydalangan. Shuni ham aytib oʻtish kerakki, rus tiliga qilingan tarjima ayrim nuqson va kamchiliklardan xoli emas. Ba’zi oʻrinlarda butun jumlalar tushib qolgan, ba’zan esa chalkashtirib yuborilgan. Tarjimon qoʻlida Istanbul qoʻlyozmasining fotonusxasi mavjud boʻlishiga qaramay undan toʻla foydalanmagan.

Ruscha tarjima S.P.Tolstov va V.P.Sheglovlarning soʻzboshisi bilan boshlanadi. Tarjimaga M.A.Sale tuzgan ilmiy izohlar ham ilova qilingan.Rossiyada bu qimmatbaho asar bilan oʻz vaqtida akademik I.Yu.Krachkovskiy qiziqqan edi. U oʻzining “Arab qoʻlyozmalari ustida”nomli mashhur asasrida 1910-yillarda Petrograd Osiyo muzeyida sotib olingan XIII asrga oid qoʻlyozma bilan qiziqqan, bundan Zaxau nusxasini toʻldiradigan oʻrinlarini koʻchirib olgani va bularni nashrga tayyorlashni moʻljal qilib qoʻyganini eslatib oʻtadi. Lekin buni amalga oshirish I.Yu.Krachkovskiyga nasib etmaydi. U oʻzining “Al-Beruniy va Sharqning XI asrdagi geograflari” nomli asarida “Yodgorliklar”ga juda yuksak baho beradi va bu kitob haqida qimmatli fikrlarni aytib oʻtgan.

Sharqshunos olim S.P.Tolstov “Osor al-boqiya”ning ruscha tarjimasiga yozgan soʻzboshisida bu asarning qadimgi Xorazm tarixini oʻrganish va umuman ijtimoiy tarix va tabiiyot fani tarixidagi ahamiyati haqida mufassal toʻxtab, unga juda yuksak baho beradi va Beruniy “Yodgorliklari’da keltirgan Xorazm haqidagi ma’lumot-larning koʻpchiligi arxeologik qazishlar natijasida isbot etilganini aytib oʻtadi. Asarning astronomiya fani uchun qanchalik katta ahamiyatga ega ekani haqida V.P.Sheglov “Osor al-boqiya”ning ruscha tarjimasiga yozgan “Beruniyning astronomik nazariyasi” nomli soʻzboshisida muhim fikrlar aytadi. “Yodgorliklar”ning hozirgi zamon uchun ahamiyati haqida sovet olimlari tomonidan Beruniyga bagʻishlab yozilgan ilmiy asarlarning hammasida to;xtab oʻtilgan va bu asarga yuksak baho berilgan.

“Yodgorliklar”da Beruniy oʻziga ma’lum boʻlgan xalqlarning: yunonlar, rumliklar, eroniylar, sugʻdiylar, xorazmliklar, harroniylar, qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha boʻlgan arablar va musulmonlarning yil hisoblari, hayitlari va mashhur kunlarini mufassal tasvirlab beradi. Asarda astronomiya va matematikaning koʻp masalalari yoritib berilgan. Beruniy musulmon olimlari ichida birinchi martayahudiylar kalendari haqida sistemali ma’lumot beradi.”Osor al-boqiya “chulgʻab olgan masalalar bular bilan chegaralanib qolmaydi. Unda juda

ko‘p tarixiy voqealar, turli millat va dinlarga oid muhim ma’lumotlar, payg‘ambarlar va soxta payg‘ambarlar, podshohlar, mashhur tarixiy shaxslar va olimlar haqida ham axborot berilgan. Kitobning O‘rta Osiyo xalqlari, ularning madaniyati va tarixiga doir ma’lumotlari juda muhim ahamiyatga egadir. Asarga bir qancha she’riy parchalar ham kiritilgan, so‘g‘d va xorazm tillaridan parchalar ham keltirilgan. Afsuski, til namunalari bo‘lgan bu yodgorliklar keyingi qo‘lyozmalarga buzib ko‘chirilgan, shuning uchun ularning asl shaklini tiklash imkoni yo‘q.

Beruniy bu asarni nima uchun yozganligi haqida shunday deydi: “Adiblardan biri mendan turli xalqlar haqidagi tarixlar, ularning boshlanishlari va shaxobchalari, ya’ni oylar va yillari ustida u tarix egalarining ixtiloflari va bu ixtilof sabablari, mashhur bayramlar, vaqtlar va yumushlar uchun belgilangan kunlar, millatlarning ba’zisiamal qilib, ba’zisi amal qilmaydigan boshqa marosimlar haqida so‘radi va men imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o‘quvchi fahmlaydigan, turli kitoblarni axtarish va u kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qolmaydigan bir asar yozishga da’vat etdi”[163]

Buyuk olim o‘z asarini yozishga kirishar ekan, bu ishning oson emasligini, qadimgi xalqlar, ularning yil hisoblari haqidagi rivoyatlar nihoyatda chalkashib ketgani, yolg‘on afsonalar va asossiz ma’lumotlarga to‘lib-toshib ketganligini ta’kidlaydi. Bunday yolg‘on-yashiqlardan xoli bo‘lish uchun rivoyatlarning o‘z davrimizga eng yaqin va eng mashhurini, so‘ngra yaqinroq va mashhurrog‘ini birin-ketin olib borishimiz lozim, ularni o‘z arboblaridan qabul qilib, tuzatish mumkin bo‘lganini tuzatamiz, boshqalarini o‘z holicha qoldiramiz.Shunda biz keltirgan rivoyatlar haqiqatni qidiruvchi va hikmatni sezuvchining ulardan boshqa rivoyatlar ustida ish yurgizishiga yordamchi va bizga muyassar bo‘lmagan narsalarga erishish uchun yo‘lovchi bo‘ladi”, - deydi.

Qomusiy olim manbalarga tanqidiy nuqtai-nazardan yondashadi, o‘zidan ilgari o‘tgan olimlarning tarixiy asarlarini dadil va qo‘rqmasdan tanqid qiladi. S.P.Tolstov Beruniyning mana shunday haqqoniyligi uning ko‘pchilik tarixiy asarlarining yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qiladi[164].

Dastlab haqiqat singari ko‘ringan, lekin tajriba bilan isbotlanmagan ma’lumotlarga Beruniy shubha bilan qaraydi va o‘zi amalda tekshirib ko‘rmaguncha bunday rivoyatlarga ishonmaydi. “Qarama-qarshiligi ravshan bo‘lgan narsaga qanday ishonib bo‘ladi”[165] – deb yozadi olim.U asarga kiritilgan ma’lumotlarni o‘quvchiga imkon qadar oson yo‘llar bilan tushuntirishga va ularni turli kitoblarni axtarish mashaqqatidan xalos etishga harakat qiladi.

“Yodgorliklar” podshohlar va mashhur shaxslarning tarixinigina yoritib beruvchi kompilyatsionasarlardan emas, balki xalqlar madaniyati, tarixi, ularning urf-odat va e’tiqodlari tarixi aks ettirilgan tarixiy-etnografik asardir. Beruniy o‘z asarida turli xalqlardagi yil hisoblari, ularning urf-odatlari ustida to‘xtalar ekan, O‘rta Osiyo va Eron xalqlarining madaniyatini yuqori darajaga ko‘taradi. Olim

[163]Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” 40-bet
[164]Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” 44-bet
[165]Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” 44-bet

islomgacha boʻlgan arablarni madaniyatsiz deb ataydi, arab bosqinchisi Qutayba ibn Muslimni Xorazm madaniyatini oyoq osti qilgani uchun qattiq qoralab, "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini oʻrgangan va bilimini boshqalarga oʻrgatadigan kishilarni halok etib, butkul yoʻq qilib yuborgan edi"[166] – deb yozadi. "Xorazmliklar oylaridagi hayitlar" toʻgʻrisidagi bobda arablarning yulduzlar va oy manzillari haqidagi fikrlarini qattiq tanqid qiladi, ularni astronomiyani bilmaslikda ayblaydi. Arablarning astronomiya sohasidagi ilmlari dehqonlarning oʻz qishloqlaridagi bilgan narsalari bilan barobar ekanligini koʻrsatadi. Oʻz xalqini eronliklardan yuqori qoʻyib, eronliklarni kamsitgan IX asrdagi arabiynavis yozuvchi Abu Muhammad ibn Qutayba al-Jabaliy ustidan kuladi va uning fikrlari asossiz ekanligini ilmiy yoʻl bilan isbotlab beradi. Beruniy haqiqatga ishonmagan kishilar bilan munozara qilib, ularni skeptisizmda ayblaydi va "bular qat'iy hujjatlarni qabul etishdan xuddi sherdan qoʻrqib qochgan eshaklardek qochadilar", deydi.

S.P.Tolstovning Xorazmda olib brogan juda muhim arxeologik ishlari bu oʻlkaning eramizdan ilgarigi IV-III mingyillardayoq qadimgi madaniyat markazlari Sharq va Shimol oʻrtasida vositachilik rolini oʻynaganini koʻrsatdi. Arab istilosi arafasida esa Xorazm irrigatsiya, qurilish va savdoda rivoj topgan mamlakat edi. Bular Beruniyning Xorazm madaniyatining arab madaniyatidan ustunligi haqidagi fikrlarining yaqqol isbotidir

"Osor al-boqiya" da har xil davrda hukm surgan turli podshohliklar va sulolalarning juda koʻp jadvallari kiritilgan: makedoniyaliklar, batlimuslar[167], rum, xristian, qadimgi eron, sosoniylar sulolasi podshohlari, arab xalifalari (Ummaviylar va Abbosiylar) kabi. Mazkur jadvallar shunday aniq manbalardan olinganki, podshohlarning hukmronlik qilgan davrlari deyarli toʻgʻri koʻrsatilib, ular boshqa tarixiy kitoblar bilan solishtirish natijasida toʻla isbot etildi. Beruniy tuzgan bu jadvallar tarix va etnografiya ilmi bilan shugʻullanuvchilar uchun juda katta ahamiyatga egadir.

Olim uzoq umr koʻrish masalalari haqida gapirar ekan, buni nasl-nasabga bogʻliq deb taxmin qiladi va Fargʻonani uzoq umr koʻruvchilar joyi deb koʻrsatadi. Beruniy odamlarning tana tuzilishi va tillarning turlicha boʻlishi haqidagi afsonalar va asossiz rivoyatlarni qoralaydi va buni ilmiy asosda isbotlab, shunday deydi: "Chunki odamlar tuzilishlarining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha boʻlishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning odam yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir. Tillarning turlicha boʻlishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur boʻlgan soʻzlarga ehtiyoj tugʻilishidir. Uzoq zamonlar oʻtishi bilan haligi iboralar koʻpayib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan"[168].

---

[166]Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" 72-bet
[167]Ptolomeylar
[168]Abu RayhonBeruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" 231-bet

Beruniy buloq va quduq suvlarining yuqoriga koʻtarilishi va favvora boʻlib otilishi fizikaviy hodisa ekanligini misollar bilan isbotlab beradi va bu masaladagi uydirma gaplarni inkor etadi.

Beruniy quyosh yili uzunligini aniq hisoblar bilan koʻrsatadi, Quyosh turishi va kecha-kunduz barobarligi haqida maʼlumotlar keltiradi. Keyin quyosh avji masalasiga toʻxtalib uni izohlaydi. Oʻzidan oldingi astronomlarning quyosh yili uzunligini aniqlashdagi xatolarini koʻrasatib, ularni tanqid qiladi. Quyosh avjidan to bahorgi kecha-kunduz barobarligi nuqtasigacha boʻlgan masofani aniqlashda Beruniy qadimgi olimlardan Gipparx va Sharqning IX-X asr astronomlari va oʻz ustozi Abu Nasr ibn Iroq usullarini sinchiklab oʻrganadi va bu masalada yangi metod ishlab chiqadi. Bu yoʻl bilan Quyosh avji uzunligini hisoblab chiqadi va buni doiralarda koʻrsatadi.

Oʻsha vaqtda soxta fan – astrologiyaga ishonish juda kuchli edi. Munajjimlar (astrologlar) boʻlajak hodisalar va kishilar hayotidagi yuz berishi mumkin boʻlgan turli voqealarni osmondagi yulduzlarga qarab oldindan aytib beradilar. Podshohlar saroylarida munajjimlar boʻlib, ular katta mavqega ega edilar. Shuning uchun oʻsha vaqtda astrologiyaga toʻgʻridan-toʻgʻri qarshi chiqish mumkin emas edi. Deyarli hamma astronomlar ozmi-koʻpmi munajjimlik bilan shugʻullanardilar. Beruniy ham atrofdagi muhit bilan murosa qilish uchungina astrologiyaga yon bosadi. Yerdagi hodisalarni yulduzlarning chiqish va botishiga qarab aniqlab boʻlmasligi, chunki yulduzlar doimo birday chiqib, birday botishlarini taʼkidlaydi. Uning Ray shahrida shuhrat qozongan bir munajjim bilan bahsi haqida yuqorida aytib oʻtgan edik. Bu odam: “Oy manzillariga qarashli yulduzlarning oy bilan uchrashuvlarini hisob bilan aniqlab, manzillarning ribotlari va jafrlaridan turli hukmlar chiqarar va boʻshliqdagi hodisalarni oldindan bilishni istardi”, - deydi Beruniy va u munajjimni bunday soxta yoʻldan qaytarmoqchi hamda toʻgʻri yoʻlga solmoqchi boʻlganini, lekin u oʻzining notoʻgʻri fikrlarini roʻkach qilib turib olganini aytadi. Ana shunday haqiqatga ishonmovchilar haqidagi fikrini davom ettirib, ulardan dalil isbot talab qilsang, “masxara qilib kuladilar, kibrlanib lablarini choʻchchaytiradilar, oʻz tushunchalariga xursand boʻlib va oʻzlarini boshqalardan ortiq va avom xalqdan tashqari eʼtiqod qilib burunlarini yuqori koʻtaradilar”, - deydi.

Beruniy oʻz oʻquvchilarini zeriktirmaslik maqsadida asarga tabiatda juda kam uchraydigan hodisalar, qiziq afsonalar va turli sarguzashtlarni ham kiritgan. Masalan, besh oyoqli sigir, qorinlari bilan bir-birlariga yopishgan egizaklar, tanasi bitta-yu boshi ikkita bola, echkining odamsimon bolasi kabilar[169]. Lekin olim koʻpincha afsonalarga ishonmaydi. U eronliklarning olamning paydo boʻlishi va birinchi odam haqidagi afsonalarini keltirib, bular ustidan qattiq kuladi. Bunday afsonalarni eshitishdan dillar nafratlanib, quloqlar tortinadi va buni aql qabul etmaydi, deydi. Lekin u ayrim uydirmalarga eʼtiroz bildirmaydi. Masalan, Abu Usmon al-Johizning Ukbaroda yarmi kalamushga aylangan, yarmi kesakligicha

[169]Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” 114-bet

qolgan bir kesak haqidagi hikoyasini keltirib, bularga e’tiroz bildirmaydi. Bunday chekinishlarni asarning boshqa ba’zi bir o‘rinlarida ham uchratish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Beruniyning bu qimmatli asari o‘rta asrlar O‘rta Osiyo, shuningdek, asarda keltirilgan yana bir qancha xalqlarning tarixi, madaniyatini o‘rganishda noyob manba hisoblanadi. Bizning vazifamiz ularni asrab-avaylash, ulardan foydalanish, ilmiy o‘rganish va keyingi avlodga yetkazishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” -Toshkent: “Fan” 1968
2. И.Ю.Крачковский. Избранное сочинения т. IV,
3. Abu-l Fazl Bayhaqiy “Tarixi Ma’sudiy” -Toshkent: “Fan” 1952
4. www.Lex.uz
5. Ziyonet.uz


## TASAVVUFNING IRFON NURI

**Z.Sh. Ahmadova**
*BuxDU, I kurs magistranti*

Har bir xalqning buguni va ertasi uning o‘tmishi bilan chambarchas bog‘liq. Sharq mamalakatlari tarixida o‘chmas iz qoldirgan Hazrat Alisher Navoiy asarlari sal kam VI asrdan beri Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa mutafakkirning tasavvufiy qarashlari ilm-irfon nurlarining ma’naviy ozuqasi har bir inson qalbiga yoqimli kuydek kirib singib ketgan.

Tasavvuf - sabr-qanoat, zahmat, riyozat bilan poklangan ruh va vujudni olloh ishqiga bag‘ishlab, yurakni mosivodan butunlay xalos aylab, faqru-fano zavq-shavqi bilan yashash demak. Tusavvufning tub asosida inson zotiga marhamat, muhabbat va xizmat yotadi. Tasavvuf ahli har qadam, har nafasda insonni jo‘n, sayoz tushunchalarni botindan supurib tashlash, ruhni nafs tanballigidan, makr, riyo, kibr va har turli maydakashliklardan qutqazish chora-tadbirlarini ko‘rsatadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari o‘zlarining g‘oyaviy badiiy talqinlarini yaratish orqali butun bashariyatga xizmat qilishni ko‘zlaganlar. Xususan, Hazrat Navoiy ham rasman naqshbandiya tariqatiga kirgan bo‘lsalarda-da, hayotda ham, ijodda ham tasavvufning ilm va irfon jihatiga tayanganlar. Ulug‘ mutafakkir axloq tarbiyasida alohida natijalarni qo‘lga kiritish, tafakkurni mahdudlik, qoloqlik, yovuzlik iskanjalaridan ozod qilish, ruh va ko‘ngil sir-asrorini kashf etishda haqiqiy ishq va ma’rifatdan shu qadar mohirlik bilan foydalanganki, uning har bir baytida insoniyat manfaatlari yoqlangan170.

[170] Qayumov A. Alisher Navoiy (Mashhur siymolar hayoti). -T.: Kamalak,1991. 78-bet

Hazrat Navoiy asarlarida tasavvuf falsafasidagi axloq, xulq-odob qoidalari, insonparvarlik va odamiylik, nafsni tiyish, adolat va ma’rifat, tabiat va insonni sevish, ularni e’zozlash, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi g‘oyalardan unumli foydalandi.

Insonni kamolotga yetaklovchi fazilatlarni nihoyatda qadrlagan va o‘z asarlari bilan targ‘ib va tashviq qilishdan charchamagan ulug‘ Navoiy har tomonlama kamolotga intilgan yoshlarning, shogirdlarining harakatidan cheksiz quvongan. Ularning hayotda, ijodda yaxshilikka olib boruvchi fazilatlarini, intilishlarini o‘z asarlarida birma-bir sanab, urg‘u berib, zamondoshlariga va kelajak avlodga ibrat uchun yozib qoldirgan.

Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ta’lim-tarbiya, o‘qish- o‘qitish, o‘rganish, ustoz-murabbiylar mehnati, haqi, shogirdlar, ota-onalar,ma’rifat, ma’naviyat haqidagi ijtimoiy, falsafiy, siyosiy, badiiy fikrlari, umuminsoniy g‘oyalar mujassamlashgan.

Alisher Navoiy imonni insonlikning bosh belgisi deya ta’kidlaydi. U iymon deganda taqlidiy emas, haqiqiy imonni nazarda tutadi. Riyokorlik, soxtakorlik va ikkiyuzlamachiliklar bilan aslo kelisholmaydi. Bunga “shayx” radifli g‘azali va “Mahbub ul qulub”dagi “riyokor shayxlar haqida”gi qarashlarini misol qilish mumkin.

Ibn Arabiy “Futuzot”da yozishicha, hamdning haqiqati ham “muqaddas va munazzah bir qul bo‘lishidir”[171]. Shu qullik bandalik sharofati tufayli insonning o‘zini ruhan yangidan anglaydi, tasavvur va taxayyulidagi mavhumlik, murakkabliklardan oson voz kechadi. Navoiy esa komillikni haqqa bandalik bilan uyg‘unlashtirib, uni kamolotning nihoyasi degan xulosani ilgari suradi. Hazrat Navoiy nazmiy va nasriy asarlaridagi murojaatlarida, ayniqsa, “Munojot” asarida Tangrining komil sifatlarini ta’riflash barobarida o‘zining ojizligini, unga bo‘lgan ehtiyojlarini izhor qiladi[172].

Alisher Navoiy komil inson to‘g‘risida butun bir ta’limot yaratdi. Uning nasriy va nazmiy asarlari, g‘azallari, “Xamsa”ga kirgan dostonlari, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Mahbub ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Lison ut-tayr” va boshqalarda komil inson qanday bo‘lishi kerakligi, qaysi fazilatlarni egallashi lozimligi haqidagi fikrlar har tomonlama yoritib berilgan.

Navoiyning komil inson ta’limoti negizini tabiat, inson va Allohga bo‘lgan muhabbat belgilaydi. U payg‘ambarlar, aziz avliyolar, piru komillar, orifu so‘fiylar to‘g‘risida so‘z yuritganda, g‘azal va ruboiylarida tabarruk zotlarning xislatu fazilatlari haqida ishq-muhabbat bilan yozgan.

Mutafakkir payg‘ambarlar, avliyo va oriflarni, yirik karomat sohiblarini komil insonlar qatoriga qo‘shadi. Bunday zotlar doimo xalq g‘amida yashaydilar, atrofdagilarga mehr-muruvvat ko‘rsatib, beva-bechoralarga yordam beradilar. Barkamol zotlar insonlarning eng a’losi bo‘lib, butun umr poklanish va haq yo‘lini ixtiyor qilgan kishilardir.

---

[171] Najmiddin Komilov.Tasavvuf. T.1996. 28-bet

[172] Alisher Navoiy. 20 tomlik.7-11-tomlar.Toshkent, 1990-1993. 63-bet.

Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" kitobida Muhammaddan oldin yashab oʻtgan paygʻambarlarga maxsus toʻxtaladi[173]. Nabiylarning birini ikkinchisidan yuqori qoʻymay, ularning faoliyatini xolisona yoritadi. Paygʻambarlarning hayoti, turmush tarzi, qilgan xayrli ishlari, fuqarolarga munosabati, tinch va osoyishta yashashi uchun sa'y-harakatlarini ta'riflab, ularni komil insonlar deb hisoblaydi, biroq shuni qayd qilish lozimki, Navoiy oʻtmishdagi barcha musulmon Sharqi mutafakkirlari, ulugʻ donishmandlari singari Muhammad Paygʻambarni boshqa oʻtgan paygʻambarlar ichida eng a'losi, komillarning komili, mukammal inson sifatida talqin qiladi. Shuning uchun ham, uning koʻplab asarlarida, xususan, "Xamsa"ga kirgan dostonlari, "Munojot", "Lison ut-tayr", "Siroj-ul- muslimiyn", "Nasoyimul-muhabbat", "Nazmul-javohir" va boshqalarda paygʻambarning fazilatlari madh qilingan joylar koʻp. Ulugʻ mutafakkir Muhammad paygʻambar haqida shunday deydi: "Va chun ul hazrat anbiyoning xotami erdi va andin soʻngra nubuvvat eshigi bogʻlandi, har oyinakim noqislar takmiligʻa ummatining komil va olimlarini ma'mur ettiki, burungʻi anbiyo oʻrnigʻa ahdo qilgʻaylar va yoʻldin chiqgʻonlargʻa yoʻl koʻrguzgaylar...[174].

Mutafakkir nabiylar, ya'ni paygʻambarlardan soʻng valiylarni komil insonlar deb talqin qilgan. Alloma avliyolar amal qiladigan tavba, halol rizq bilan oziqlanish, tariqat odobini saqlash, kamtarlik, muloyimlik, saxiylik, sabrlilik singari xislatlarga toʻxtab oʻtadi, xususan, u halol luqma deganda, valiyning biror kasb bilan mashgʻul boʻlib, oʻz mehnati bilan kun koʻrishini tushunadi. Darhaqiqat, tasavvufning yirik vakillari, valiylar muayyan bir kasb-hunar bilan shugʻullanganliklari tarixdan ma'lum.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, birinchidan, Navoiy nazarida komil inson xayoliy bir timsol emas, balki oʻzida butunzohiriy va botiniy bilimlarni, insoniy fazilatlarni mujassam etgan real hayotda borkishi. Ikkinchidan, Navoiy uchun Muhammad Paygʻambar boshqa nabiylarga nisbatan yuksak darajada kamolga yetganulugʻ zot. Uchinchidan, axloqiy poklik, nafsni tiyish, jabr-zulm, adolatsizlik, haqsizlik singari hayot qiyinchiliklariga qarshi kurashish Farhod insonparvarligining oʻzagini tashkil qiladi va komil inson sifatida shakllanishining asosi boʻlib xizmat qiladi. Unda naqshbandiylik tariqatining, futuvvat, ya'ni javonmardlik oqimining ta'siri seziladi. Toʻrtinchidan, shoʻrolar davrida Navoiy dostonlaridagi ikkiyoshning bir-biriga muhabbati faqat dunyoviy, zohiriy nuqtai nazardan talqin qilindi, vaholanki, komil inson gʻoyasini tahlil qilganda, uning dunyoviy va ilohiy, zohiriy va botiniy jihatlari, ularning bir-biri bilan chambarchas bogʻliqligini yoritish zarur masalalardan biridir.

Alisher Navoiyning komil inson gʻoyasi davlatni boshqarishda, uning tasavvuridagi ideal, mukammal jamiyat toʻgʻrisidagi qarashlarida, odil shoh haqidagi fikr-oʻylarida, hukmdorning raiyatga munosabatida, diniy-huquqiy qoidalarga rioya qilishida oʻz in'ikosini topadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

[173] Qayumov A. Alisher Navoiy (Mashhur siymolar hayoti). -T.: Kamalak, 1991. 49-bet

[174] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom. Nasoyim ul- muhabbat. T.: "Fan". 2002, 35-bet

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 17-tom. Nasoyim ul-muhabbat. T.: “Fan”, 2002.- 420-bet.
2. Qayumov A. Alisher Navoiy (Mashhur siymolar hayoti). -T.: Kamalak,1991.- 243-bet.
3. Alisher Navoiy. 20 tomlik.7-11-tomlar.T.1990-1993.-304-bet.
4. Najmiddin Komilov.Tasavvuf. T.1996.-109-bet.
5. Navoiyga armug‘on. 3-4 kitob. T.2003.-87-bet.

## ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХ ФАНИ СОҲАСИНИНГ БИРИНЧИ ПРОФЕССОРИ

**С. Ражабов**
*БухДУ, Тарихшунослик, манбашунослик ва тарихий тадқиқот усуллари йўналиши I босқич магистранти*

Араб, форс, рус ва туркий тилларни мукаммал эгаллаган, шарқ ҳуқуқи, фалсафаси, ахлоқи ва тарихи, айниқса, Туркистон халқлари тарихининг чуқур билимдонит Пўлат Солиев (1882-1937) XX асрда Ўзбекистонда тарих фани соҳасида биринчи бўлиб профессор унвонига сазовор бўлган, илмий тарихнависликнинг шаклланишига асос қўйган олимдир.

Пўлат (Бекбулат) Мажидович Солиев 1882 йил 22 мартда Астраханда ўзига тўқ деҳқон оиласида туғилган. Отасининг авлодлари “Қуббат ул-ислом”бўлмиш Бухородан бўлган. Оилавий ҳикоялар П.Солиевнинг эътиборини ёшлигиданоқ ўз тарихий ватанига қайтиб боришга ундаган эди. У Қозондаги Мадрасаи Муҳаммадия ва Уфадаги Мадрасаи Ғолияни тугатади. Ёш ўқитувчи ўз касбини давом эттириш билан бирга рус ҳамда бошқа тиллар - турк, форс, тожик тилларини ўрганади ва улар билан мунтазам шуғулланади. 1913 йилда Тошкентда биринчи рус-татар мактабини очади.

П. Солиев 1914 йилда Тошкентда Аҳмад Закий Валидий Тўғон (1890-1970) билан танишади. Иккинчи марта П. Солиев Аҳмад Закий Валидий билан 1917 йил Тошкентда бўлиб ўтган Бутун Туркистон мусулмонлари қурултойида учрашади. Валидий кейинчалик - 1925 йил 9 мартда Берлиндан Самарқандга икки мактуб юборди. Мазкур мактубларнинг бири таниқли тарихчи олим Пўлат Солиев номига юборилган.

Пўлат Солиев 1917 йил ноябрда Қўқонда Туркистон Мухториятини ташкил этишда фаол иштирок этди.

1922 йилдан Туркистон Компартияси Марказий Комитетинйнг органи – “Инқилоб” журнали муҳаррири ўринбосари, “Тонг” журнали муҳаррири бўлиб ишлайди. “Агитпром” журналида ўз мақолалари билан тез-тез чиқиб туради.

1927 йил январида Самарқанд олий педагогика институти ташкил этилди. В. Вяткин ва П. Солиев саъй-ҳаракати билан институтда Шарқ

тарихи кафедраси ташкил этилди ва Пўлат Солиев унинг мудири этиб тайинланди.

1930 йилда Самарқанд Олий педагогика институти Ўзбекистон педагогика академиясига айлантирилди. 1930 йил 28 сентябрда П. Солиев ана шу академия профессори бўлди. 1932-1933 йилларда у Тошкентга жўнатилади. Республика ҳукумати Ўзбекистоннинг қадимги давридан то ўша кунларгача бўлган тарихини марксча-ленинча нуқтаи-назардан ёзишга қарор қилади ва Пўлат Солиевга бу ишда бош вазифа юклатилади.

Пўлат Солиев 1937 йилда совет ҳокимияти томонидан қамоққа олиниб, ўша йили 13 октябрда Тошкент шаҳрида отиб ташланди. П. Солиев миллатчиликда айбланган эди. У вафотидан сўнг 1956 йилда оқланган.

Пўлат Солиевнинг рафиқаси К.Е.Ворошиловга йўллаган аризасида “Ички Ишлар Халқ Комиссарлиги тарафидан хибсга олинган эрим Пўлат Солиевнинг 10 йилга ахлоқ тузатиш лагерларига ҳукм этилганидан хабар топган эдик.Эрим қамоққа олингач, қарамоғимда тўрт бола билан қолдим, боғчада ишладим. Эримнинг номига қора тортилганлиги учун менга ва болаларимга тазйиқ кўпайиб кетди. Эрим қамалгач мен яшайдиган 4 хонали уйнинг бир хонасига эримнинг шогирди Муслим Хўжаевич Алиев кўчиб кириб олди...”, дея бошига тушган савдоларни ёзади.

Бу аризанинг мазмунидан маълум бўладики, 1955 йилнинг 15 июлигача эри профессор Пўлат Солиевнинг фожиали қисматидан СССР Ички Ишлар Халқ Комиссарлиги Алоҳида Мажлисининг 1938 йил 7 феврал қарорига кўра олий жазо – отувга ҳукм этилганидан бехабар бўлган.[175]

Самарқанд шаҳридаги кўчалардан бири бугунги кунда Пўлат Солиевнинг номи билан аталади.

П.Солиев қадимги тарихий манбалар асосида ўлка тарихини ўрганди. Шарқшунос олим сифатида шарқ қўлёзмаларини тўплаш мақсадида Ўзбекистоннинг турли вилоятларига уюштирилган илмий экспедициялар (масалан, Бухоро, Фарғона, шунингдек, Қозоғистон ва Қирғизистон) таркибида сафар қилди.

Олим XX асрнинг 20-30-йилларида айниқса, сермаҳсул меҳнат қилиб, Ўрта Осиё тарихининг турли масалаларига бағишланган қатор тадқиқотларни эълон қилишга муваффақ бўлади. Жумладан, “Ўзбеклар ҳам темур болалари”, “Ўрта Осиё тарихи”, “Хоразм тўғрисида бир мулоҳаза”, “Сарбадорлар”, “Оврўпо империалистлари ва шарқ масаласи”, “Эронда рус ва инглиз империалистлари”, “Ислом дунёсида” номли мақолалари “Тонг”, “Инқилоб”, “Маориф ва ўқитувчи” журналларида чоп этилиб, тадқиқотларда турли тарихий даврлардаги ижтимоий-сиёсий ва этник ҳаёт ифода этилган. П.Солиевнинг илмий фаолиятидаги муҳим ҳодисалардан бири умумлашган асар - «Ўзбекистон тарихи»ни яратиш бўлди. Бу ўзбек халқининг кўп асрлик тарихидаги биринчи уриниш бўлиб, қадимги, ўрта аср ва замонавий

[175] Ҳ.Аҳророва. Биринчи тарих фанлари доктори // “Маърифат”газетаси, 2002 йил 5 октябрь

тарихчиларнинг турли хил асарларидан ва бошқа манбалардан олинган маълумотларни жамлаш, умумлаш- тиришни тақозо қилар эди.

Пўлат Солиев бу асарни тахминан 1935 йилда ёзиб тугатди ва қўлёзма Ўзбекистон Компартияси МК биринчи котиби Акмал Мкромов раислигидаги комиссия томонидан муҳокама этилди. Афсуски, бу қўлёзма нусхаси 1937 йилда П. Солиев ҳибсга олингач, йўқолди.

Профессор Ҳ.Тўраев олимнинг "Хоразм тўғрисида бир мулоҳаза"номли мақоласини қуйидагича баҳолайди. "*Зеро, мақола ёзилган пайтда Хоразм воҳаси ҳали археологик жиҳатдан ўрганилмаган эди. Пўлат Солиевнинг хизматлари шундаки, тадқиқот манбалари чекланган шароитда у П.Толстовдан анча йиллар илгари Хоразм воҳасининг тарихий географияси ва тарихий этнографияси тўғрисидаги муҳим илмий қарашларини илгари суради*"[176].

Пўлат Солиев Бухоро амирларининг бой кутубхонаси ва архивида биринчилар қаторида ишлаш имконига эга бўлади. Кейинчалик унга Абдурауф Фитрат ва Лутфулла Алавий билан биргаликда бу архив ва кутубхонани саралаб, илмий тадқиқот институтига топшириш учун тайёр-лаш вазифаси юклатилади. «Инқилоб» журналининг бир сонида бу қадимий архив ва кутубхонадаги саралаш ишлари ҳақида ҳисобот ҳам чоп этилган. П. Солиев Бухоро тарихига оид қўлёзма асарлар фондини тузишни ҳам режалаштирган эди, лекин бу амалга ошмади. Олим Бухоро амирларининг қароргоҳи бўлган Арк ва бошқа жойларда бўлиб, Бухоронинг ўтмишини, бу ерда умргузаронлик қилган хонлар, амирларнинг шахсий ҳаётини ўрганиб, қимматли тарихий маълумотлар тўплаб, ўзининг «Бухоро тарихи» (1923) ва «Манғитлар салтанати даврида Бухоро ўлкаси» (1925) каби асарларини яратди. Бу асарларнинг илмий қиймати шундаки, асарда Бухоро амирларининг ички ва ташқи сиёсати, амирлик таркибига кирган бекликлар ва ҳудудлар, шунингдек, халқнинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи аниқ фактларга асосланган ҳолда баён қилинади.[177]

Олимнинг «Бухоро тарихи» номли биринчи асари ўзининг илмий қимматга эга эканлиги билан ажралиб туради. Асарнинг хронологик чегараси Бухоронинг милоддан аввалги VI–V асрларидан то Сомонийлар давлати бошқарувигача бўлган даврни ўз ичига олади. Тарихчи олим ушбу тарихий тадқиқотини ёзишда бир қанча шарқ қўлёзма манбаларига мурожаат қилган. Масалан, олим ўз даврида маълум ва машҳур бўлган муаррихлар - Наршахий, Мирхонд, Хондамир, араб тарихчиси Ибн ал-Асир, шунингдек, Ҳерман Вамбери, таниқли рус шарқшунослари В.В. Бартольд, В.А.Жуковский ва бошқаларнинг асарларидан ҳам фойдаланган.

П. Солиевнинг «Манғитлар салтанати даврида Бухоро ўлкаси» асари айниқса диққатга сазовор бўлиб, тарихчи ушбу асарини Бухорода

---

[176] Ҳ.Тўраев. Хоразм тарихига оид нодир тадқиқот // "Бухоро мавжлари" журнали

[177] Пўлат Солиевнинг таржимаи ҳоли, ижтимоий-маърифий фаолияти В.А.Германов ва Ф.Темиров томонидан атрофлича очиб берилган. Қаранг Германов В.А. Профессор Пулат Салиев и его время. –Т.: ―Фан, 2002; Темиров Ф. Пўлат Солиев. –Т.: ―ABU MATBUOT KONSALT, 2011.

ҳукмрондик қилган сўнгги манғитдар сулоласи даври тарихига бағишлайди. Олим ўз асарида асосан манғит амирларининг ички ва ташқи сиёсатини ёритиш билан бирга, Бухоро амирлигининг Ҳиндистон, Афғонистон ва Россия билан иқтисодий ва сиёсий муносабатларини ҳам акс эттирган. Асарда амир Насруллоҳхон (ҳукмронлик даври: 1827-1860), амир Музаффархон (ҳукмронлик даври: 1860-1885) ва амир Абдулаҳадхон (ҳукмронлик даври: 1885-1910) даври тарихи қисқача баён қилинган.

Шунингдек, асарда Англия ва Россиянинг Ўрта Осиё масаласидаги зиддиятлари, элчилик алоқалари, Россия империяси томонидан Ўрта Осиёнинг истило қилиниши, савдо-сотиқ муносабатлари ва бошқа масалалар ҳақида маълумотлар келтириб ўтилган.

Тарихчм олим Пўлат Солиев Ўзбекистон ва Ўрта Осиё халқлари тарихига доир қимматли манбаларни ҳам тўплаган. Уларнинг асосий қисми ҳозирги кунда Абу Райҳон Беруний номидаги Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланмоқда.

2002 йил Тошкент ва Самарқандда профессор Пўлат Солиев таваллудининг 120 йиллиги муносабати билан илмий конфренциялар ташкил этилди.

Бунги кунга қадар Пўлат Солиевнинг илмий меъросини В.Германов, Д.Алимова, Анке Фон Кюгельген ва бошқалар ўргандилар.

## BUXORO AMIRLIGIDA XIX ASR OXIRI- XX ASR BOSHLARIDA TA’LIM TIZIMI

**Sh.S.Tilavova**
*Buxoro davlat universiteti magistranti*
**D. M. Jamolova**
*ilmiy rahbar t. f. f. d.*

Har bir davlatning taraqqiyotga erishishi eng avvalo, davlat boshlig’ining olib borgan oqilona siyosati, hamda ilm- fanning rivoj topishiga munosib hissasini qo’shishi bilan belgilanadi. Buxoroda 1756- 1920 yillarda hukmronlik qilgan mang’it hukmdorlari ilm- fan va shuningdek, maorif sohasiga alohida e’tibor qaratib, bu sohalarda muhim tadbirlarni amalga oshirdilar.

Ushbu maqolada, Buxoro amirligidagi ilm- fanning ahvoli, uning o’ziga xos jihatlari hamda ta’lim tizimi mahalliy tarixchilarning asarlari asosida tahlil qilinadi. Biz o’rganayotgan davrda, amirlikda fanning qaysi sohalari taraqqiy etgani, amirlarning ilm- fanga nisbattan munosabatlari qay darajada bo’lgani, ta’lim jarayonining qanday olib borilganligi xususida haqli savol tug’iladi. Ushbu muammoga yechim izlash maqsadida, Buxoro amirligida ijtimoiy- siyosiy jarayonlarning bevosita guvohi bo’lgan mahalliy tarixchilar asarlariga murojaat qilish mumkin. Ular o’z asarlarida amirlikdagi ilm-fanning ahvoli, ta’lim tizimi xususida yetarlicha ma’lumot berganlar. Jumladan, Ahmad Donish, Mirzo

Abdulazim Somiy Bo'stoniy, Mirza Salimbek, Muhammad Ali Baljuvoniy, Mirzo Olim Maxdum hoji [178] kabilar bu masalaga alohida to'xtalib o'tganlar.

Mahalliy tarixchilardan biri Muhammad Ali Baljuvoniy bo'lib, u 1923-1927 yillar oralig'ida „Tarixi Nofeiy " (Foydali tarix) asarini yozadi. Muallifning „Tarixi Nofeiy" (Foydali tarix) asari qisqa kirish, 15 bob va xotimadan iborat bo'lib, Buxoro amirligining XIX asr oxiri- XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini yoritadi. Asarda asosan ijtimoiy- siyosiy voqealar bayon qilingan bo'lsada, ilm-fan, maorifning ahvoli, madrasalar faoliyati xususida ham muhim ma'lumotlar keltiriladi: „Bilginki, Buxoro Turkiston va Movarounnahrdagi davlatlar orasida ilm-u madaniyat, shariat fanlarining taraqqiy etganligi bilan afzal. Tafsir, hadis, fiqh, kalom, usul, sarfu nahv ilmlaridan iborat bo'lgan shariat ilmlari shu muazzam diyorda rivojlangan, hikmat ilmini ham madrasalarda zarurat yuzasidan o'qitadilar.

Bu ilmi hikmat mantiq, qismati ilohilardan iborat bo'lgan, biroq riyoziy va siyosiy ilmlar azaldan ham bu shaharda keng tarqalmagan. Shuning uchun Buxoro davlatining siyosati boshqa Islomiy davlatlar singari orqada qolgandir " [179] . Ushbu ma'lumotlardan shuni anglash mumkinki, amirlikda asosan diniy fanlarni o'qitishga katta e'tibor qaratilgan. Buxoro amirligini diniy davlat ekanligini hisobga olsak, bu tabiiy hol edi albatta. Davlat idoralarida faoliyat yurituvchi ulamolar dunyoviy fan sohalarining rivojlanishiga imkon bermaganlar.

Muallif asaridan ta'lim tizimi haqida ham quyidagi ma'lumotlarni o'qiymiz: „Bu davlatda taxminan uch- to'rt ming talabalar o'qiydilar. Dars beruvchi mudarrislarning soni taxminan 800 nafar.

Buxoroyi Sharifning a'lo darajali mudarrislariga eshon- qozi ul- quzzot, eshon- raisi- kalon, eshon- shayxul- islom, eshon- oxun, eshon- a'lam va eshon- muftiy askar kiradilar. Bundan tashqari , shariat fatvolari sohasidan dars beruvchi muftiylar ham bor. Ularning soni 22 nafar. Bular a'lo va avsatlar bo'lib, o'rta darajali mudarrislarga bo'linadilar. Bu muftiylar o'roqlik mansabiga erishishi mumkin bo'lganki, u eshik oqoboshi amali darajasiga teng kelgan, shu bilan birga sudurlik, sadrlik, shayx ul- islom, naqiblik, miri asadlik mansablariga ham yetishganlar. Bu jamoaga umumiy imtihondan so'ng, „Hidoyayi sharif " ni o'qib tugatishlari bilan amir buyrug'iga ko'ra dahyak (ushr) berilgan. Agar tolibi ilm tahsili ilmda peshrav (oldinda) bo'lsa yoki bundan ham ko'p bilimlarga ega bo'lgan bo'lsa, „Hidoyayi sharif " dan o'qitib imtihon qilib, dahyak berganlar, mansabdor qilganlar. Dahyaklar mansabiga ega bo'lish Buxoroning islomiy

---

[178] Ahmad Donish.Risola yoxud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi.Tarjima, izohlar va kirish so'zi muallifi Qiyomiddin Yo'ldoshev. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014. Mirzo Abdulazim Somiy. Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi. Fors-tojik tilidan I.Sultonov tarjimasi // „Sharq yulduzi'', 1993. № 3-4,129-143 betlar, № 5-6, 178-183-betlar. Mirza Salimbek. Kashkuli Salimiy. Tavorixi muttaqadimin va mutaaxirin. Fors-tojik tilidan N.Yo'ldoshev tarjimasi. –Buxoro: „Buxoro'' nashriyoti, 2003. Muhammad Ali Baljuvoniy. Tarixi Nofeiy (Foydali tarix). Tojik tilidan tarjima, so'zboshi va ayrim izohlar mualliflari Shodmon Vohidov, Zoir Choriyev. -Toshkent: Akademiya, 2001. Mirzo Olim Maxdum hoji.Tarixi Turkiston.Arab yozuvidan Sh.Vohidov va R.Xoliqova tabdil etgan. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.

[179] Muhammad Ali Baljuvoniy. Tarixi Nofeiy (Foydali tarix). Tojik tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar mualliflari Shodmon Vohidov, Zoir Choriyev. –Toshkent: Akademiya, 2001, -B. 33-34.

qonunlardan biri bo'lgan" [180]. Muallifning ma'lumot berishicha, shaharda 400 ta madrasa, 13 ta kutubxona, 96 ta qorixona (qiroatxona) maktabxona faoliyat ko'rsatgan. Sayyid Mansur Olimiy esa o'z asarida amirlikda 100 dan ortiq madrasa va 11 ta kutubxona mavjudligini yozadi va nomma- nom keltiradi[181]. Shuningdek, Muhammad Ali Baljuvoniy asarida ta'kidlashicha, madrasa, masjid, maqbara va qorixonalarning har biriga vaqf tayinlangan[182]. Jumladan, Buxoro amirlaridan Amir Shohmurod (1785-1800) ning masjid- madrasalarni qayta ta'mirlab [183], ularga vaqf tayinlab, ilm ahlini e'zoz- ikrom qilgani, Buxoroning Gulobod deb atalgan ko'chasida o'zining nomi bilan ataluvchi kichikroq madrasa qurdirganini [184] mahalliy manbalardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Shuningdek, u masjidlarga imom va muazzin (azon aytuvchi)larni, xonaqohlarga shayx, madrasalarga mudarrislarni ham tayinlaydi [185]. Tarixda ayrim hukmdorlarning o'zi ham madrasada mudarrislik qilgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Amir Shohmurodning o'g'li Amir Haydar (1800-1826) o'z hukmronligi davrida ilm bilan shug'ullangan paytlarida, davlat ishlari bilan bandligiga qaramay, mudarrislik ham qilgan va talabalarining soni 1000 kishidan kam bo'lmagan[186]. Buxoro amirligida turli davlat lavozimlarida faoliyat yuritgan Mirza Salimbek o'z asarida Amir Haydarning raiyatparvar, saxiy olim ekanligini ta'kidlab, 400 ta talabaga dars berganligi xususida ma'lumot keltiradi[187].

Mahalliy tarixchilarimizdan biri, o'zining har qanday voqea –hodisalarga tanqidiy qarashlari bilan ajralib turadigan Ahmad Donish Amir Haydarning ilmiy faoliyatini asarida quyidagicha yoritadi: „Tinchlik hukm surgan vaqtlarda amir (Izoh: bu yerda Amir Haydar nazarda tutilmoqda) poytaxtda bo'lsa, ulamolarning ko'pchiligi uning oldiga borar, suhbatida bo'lardi. Buxoro akobirlarining farzandlari, maxdumzodalar g'uj- g'uj bo'lib, Buxoro arkiga chiqib, amir huzurida mashg'ulotlar va ilmiy munozaralar o'tkazar edilar. Tarixda bunday boshqaruv shakli bo'lganligi hech kimning yodida yo'q. Buning avozasi butun islom diyoriga tarqalib, turli maskanlardan odamlar ilm olish uchun kela boshladilar.

Buxoroda diniy ilmlar, shariat qoidalari shunchalik rivojlandiki, islomiyat davrida hech bir podsholikda olimlar bunchalik yutuqlarga erishmagan edilar…[188].

---

[180] Muhammad Ali Baljuvoniy. Tarixi Nofeiy (Foydali tarix). Tojik tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar mualliflari Shodmon Vohidov, Zoir Choriyev. –Toshkent: Akademiya, 2001, –B. 34.

[181] Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro- Turkiston beshigi. Fors tilidan tarjima, tarjimon nomidan so'zboshi va ayrim izohlar bilan Halim To'rayev. „Buxoro" 2004, -B. 14.

[182] Muhammad Ali Baljuvoniy. Tarixi Nofeiy (Foydali tarix). Tojik tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar mualliflari Shodmon Vohidov, Zoir Choriyev. Toshkent: –B. 35.

[183] Mirza Abdulazim Somiy. Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi. Fors- tojik tilidan I.Sultonov tarjimasi. //„Sharq yulduzi'' , № 3-4. –B. 31.

[184] Mirzo Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston. Arab yozuvidan Sh. Vohidov va R.Xoliqova tabdil etgan. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2009. –B. 173.

[185] Ahmad Donish. Risola yoxud Mang'itlar saltanatining qisqacha tarixi. Tarjima, izohlar va kirish so'zi muallifi Qiyomiddin Yo'ldoshev. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2014. –B. 25.

[186] Mirza Abdulazim Somiy. Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi. Fors- tojik tilidan I. Sultonov tarjimasi. // „Sharq yulduzi'' № 3-4 –B. 131.

[187] Mirza Salimbek. Kashkuli Salimiy. Tavorixi muttaqadimin va mutaaxirin. Fors- tojik tilidan N. Yo'ldoshev tarjimasi. –Buxoro, „Buxoro'' nashriyoti. –B. 296.

[188] Ahmad Donish. Risola yoxud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. Tarjima, izohlar va kirish so'zi muallifi Qiyomiddin Yo'ldoshev. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, –B. 29-30.

Shuningdek, Amir Haydar hukmronligi davrida, Mahmud G'aniy, Abdulaziz ibn Abdulg'aniy, Mullo Hojiboy ibn Safar al- Muhammadiy, Mo'minxo'ja Vobkandiy, Husniddin ibn Bashir Tuftoriy, Abdulg'affor ibn Said ash Shirvoniy va shularga o'xshash ilmlik dindorlar huzurida xalq yig'ilib ulardan ilm olgan [189]. Aytib o'tilgan ma'lumotlardan, Amir Haydar davrida o'zaro ichki kurashlarga barham berilmagan bo'lsada, ammo ilm-fan to'xtab qolmadi, balki aynan shu hukmdor boshqaruvi davrida ancha taraqqiy etdi degan xulosa kelib chiqadi. Chunki, amirning turli ilmlarni egallaganligini, anchayin salohiyatli shaxs bo'lganligini, ilm-fanni rivoj topdirish borasida madaniy qurilishlar qilganini mahalliy manbalardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Amir Haydar hayotlik chog'idayoq, kichikroq madrasa qurdiradi va u Madrasayi Amir va Oliycha nomi bilan mashhur bo'ladi. Savdogarlardan Tursunjon ismli kishi ham 1805-yilda Buxoroda katta madrasa qurdirishni boshlaydi. Ammo qurilish tugallamay turib, to'satdan vafot etgach, Amir Haydar qurilishni oxiriga yetkazadi [190].

Amir Haydarning o'g'illaridan biri Amir Nasrullo (1826-1860) ham otasi kabi shariat qonunlariga qattiq bo'ysunardi[191]. Ammo, aynan shu amirning boshqaruv davriga kelib ilm- fan, xususan, ta'lim tizimiga e'tibor susaydi. Bu fikrni quyidagi manbada keltirilgan ma'lumot tasdiqlaydi: ,,Buxorodagi madrasalarning aksarida avqofi mutafovit bo'lib, hujrada iste'qomat qilguvchi talabalarning darsi ,,Sharhi Mullo (,,Jomiy'') din ,,Adno'' va ,,Aqoid'' din ,,Mullo Jalol'' gacha avsat va andin yuqorisi a'lo e'tibor ila uch qismga taqsim qilinur edi. Bu amirning asrida hammasi barobar qilindi. Ilgari vaqtlarda shanba, yakshanba, dushanba, seshanba to'rt kun tahsil va uch kun ta'til bo'lur edi. Ammo choharshanba kuni ham tahsil qildi. Ammo mudarris mazkur kunni yo yarim soat darsxonada o'ltursalar ham talabalar dars o'qimoqg'a kelmas edilar va ko'p zamondin buyon Buxoro kitobxonlarida mahfuz muntafi' kutubi avqofning aksarini har xil majhul va noma'lum odamlarga besanad va behujjat berib, kitoblar atrof javonibga tarqalib tamom zoye bo'ldi " [192].

Buxoro amirlaridan Amir Abdulahad (1885-1910) davriga kelib, ta'lim jarayonida o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar jamiyatni yangilash va isloh qilishga qaratilgan jadidchilik harakati bilan bog'liq edi. Jadidchilik harakati tashabbuskorlari jamiyatni qoloqlikdan taraqqiyotga olib chiqishda ta'lim tizimining roli beqiyos ekanligini anglaganlar. Shu tufayli jadidlarning dastlabki faoliyati ta'lim tizimini isloh qilishdan boshlandi. Musulmon maktablaridagi o'quv jarayonini isloh qilish- jadidchilik harakatining asoschisi qrim- tatar ma'rifatparvari Ismoil G'aspirali (1851- 1914) nomi bilan bog'liqdir. U Qrimning Boqchasaroy shahrida 1884- yilda yangi usul maktabini tashkil etdi va

---

[189] Mirzo Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston. Arab yozuvidan Sh.Vohidov va R. Xoliqova tadbil etgan. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. –B. 178.

[190] Mirzo Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston. Arab yozuvidan Sh. Vohidov va R. Xoliqova tabdil etgan. -Toshkent: Yangi asr avlodi, –B. 178.

[191] Mirza Abdulazim Somiy. Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi. Fors –tojik tilidan I.Sultonov tarjimasi. //,,Sharq yulduzi.''№ 3-4. –B. 132.

[192] Mirzo Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston. Arab yozuvidan Sh. Vohidov va R. Xoliqova tadbil etgan. Toshkent: Yangi asr avlodi, –B. 188.

ushbu maktab usuli savtiya (tovush usuli), usuli jadid (yangi usul) nomlarini oldi. Buxoro amiri Abdulahad Boqchasaroyda Ismoil G'aspirali bilan tanishib, uzoq suhbatlashdi va uni Buxoroga taklif etdi. Bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilgan Ismoil G'aspirali 1893- yilning may oyida Buxoroga tashrif buyurdi. Shundan so'ng, Buxoroda birinchi jadid maktabi ochilib, unga Muzaffariya deb nom berildi[193]. Keyinchalik, bunday maktablar boshqa hududlarda ham keng tarqaldi. Dastlab, amirlikda 1900-1903 yillarda yangi usul maktablarini tatar o'qituvchilari ochib, dars o'tishgan. Bu maktablar Buxoro xalqining ilg'or qatlami vakillarini jalb etib, ular tomonidan ham 1903- 1906 yillarda jadid maktablari ochildi. Jumladan, mahalliy aholi vakillaridan biri Mirzo Abdulvohid kattalar uchun kechki maktab, kurslar ochib, yoshi 20-30 larga yetgan shaharliklarni yig'ib, har kuni ikki soatdan ta'lim bera boshlaydi. Natijada, ko'p yillar davomida an'anaviy maktabga qatnab xat-savodi chiqmagan kishilar 40- 50 kunda o'qish va yozishni o'rgandi [194]. Ayrim jadid maktablarida, xususan, Usmonxo'ja, Hamidxo'ja Mehriy maktablarida bir nechta o'qituvchilar ishlaganligi tufayli, pedagogika kengashi ham faoliyat ko'rsatgan, tanaffus paytida o'qituvchilar navbatchilik qilishgan. Bu maktablarda arifmetika, geografiya, tabiatshunoslik, shuningdek, mineralogiya, anatomiya, kimyo va fizika elementlari o'tilgan [195].

Ushbu ma'lumotlardan shuni anglash mumkinki, Buxoro amirligida necha asrlardan buyon davom etib kelayotgan an'anaviy ta'lim tizimida juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Amirlik hududida yangi usul maktablarining ochilishi aholi vakillarining dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, mahalliy aholi qisqa muddatda samarali ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ammo, Turkiston va Buxoro amirligida yangi usul maktablarining ochilishi hamda unda dunyoviy fanlarning o'qitilishi eskicha fikrlovchi ulamolarning noroziligiga sabab bo'ldi. 1914- yil 4-iyulda Amir Said Olimxon har qanday yangiliklarni rad etuvchi mutaassib ulamolarning talabi bilan amirlikdagi barcha yangi usul maktablarini yopish to'g'risida farmon chiqardi. Farmonga ko'ra, qo'shbegi Nasrullo va qozikalon Burhoniddinlar yangi usul maktablari tashkilotchilaridan, muallimlaridan bunday maktabni ochmasliklari to'g'risida tilxat oldilar. Viloyat va tumanlardagi maktablar ham yopib qo'yildi. Ushbu chorani Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agentligi ham qo'llab –quvvatladi [196].

Shuningdek, Amir Said Olimxon (1910-1920) o'z davrida yangi usul maktablarini yopgan bo'lsada, o'zi ham madaniy qurilishlarni amalga oshirgan edi. Jumladan, „Buxoro minorasinining past tomonida deb yozadi Amir Said Olimxonning o'zi, -o'z nomimdan Dorul-ulum bo'lgan bir madrasa qurdirdim; turli ilmlardan dars beruvchi muallimlar tayin etdim. Mazkur madrasada

---

[193] Bobojonova Feruza. Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) /F. Bobojonova; -Toshkent: „Adib'' nashriyoti, 2014. –B. 91-93.

[194] Bobojonova Feruza. Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri –XX asrning boshlari)/ F. Bobojonova; -Toshkent: „ Adib'' nashriyoti, 2014. –B. 94.

[195] Bobojonova Feruza. Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri –XX asrning boshlari) /F. Bobojonova; -Toshkent: „Adib'' nashriyoti, 2014. –B. 102-103.

[196] Bobojonova Feruza. Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX ar oxiri- XX asrning boshlari) /F. Bobojonova; -Toshkent: „Adib' nashriyoti, 2014. –B. 107.

istiqomat qiladigan talabalar sarf xarajati, maosh va kiyim –kechagi ham o'z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir ham tayin etdim; ularning yemak – ichmak, maosh va kiyim –kechaklarini muayyan bir vaqtda yetkazdirardim [197] . Amir qurdirgan bu madrasani hozirgi kundagi o'quv muassasasiga to'g'ri keladigan bir bilimgoh desa ham bo'ladi. Bu esa o'sha davr nuqtayi nazaridan olib qaralganda, albatta juda katta voqea bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, sovetlar boshqaruvi davomida, so'nggi o'rta asrlarda mintaqamiz xonliklari har tomonlama qoloqlikka yuz tutdi, ilm-fan tanazzulga uchradi degan qarashlar hukmronlik qilib keldi. Ayniqsa, bunday noxolis fikrlar sovet buyurtmasi asosida yaratilgan asarlarda o'z ifodasini topdi. Ammo, so'nggi o'rta asrlar ijtimoiy- siyosiy jarayonlari ichida yashagan mahalliy tarixchilarimiz bu qarashlarni to'laqonli tasdiqlamaydi. To'g'ri, so'nggi o'rta asrlarga kelib, Buxoro amirligi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan taraqqiyotdan orqada qola boshladi. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, ilm- fan sohalari butunlay to'xtab qolmadi. Jumladan, Buxoro amirlarining ilm-ma'rifatni rivojlantirish maqsadida, qurdirgan madrasalari, kutubxonalarning mavjudligi, talaba va mudarrislarga maosh tayinlanganligi, ta'lim tizimida ta'tillarning joriy qilingani, o'sha davr nuqtayi nazaridan olib qaraganda katta bir yangilik bo'lib hisoblanadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, amirlikdagi ilm-fan, o'quv tizimi isloh qilishga muhtoj edi. Ilm-fan, ta'lim tizimini isloh qilishni jadidlar boshlab bergan bo'lsalar, to'laqonli isloh qilish O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'nggina amalga oshirila boshlandi va bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda.

.

[197] Sayyid Amir Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi Forschadan tarjima muqaddima va izohlar bilan Abdusodiq Irisov . –Toshkent: O'zbekiston SSJ „ Fan'' nashriyoti, 1991 . –B. 8.

*5A120302 – Тарих (йўналишлар ва мамлакатлар бўйича)*

# YAQIN VA O‘RTA SHARQDA HOZIRGI BOSQICHDA NEFT SIYOSATI.

**Sh.A. Hayitov,**
*BuxDU, Jahon tarixi kafedrasi professori,*
**S.N. Kenjayev,**
*BuxDU, II kurs magistranti*

*Biz Yaqin va O‘rta Sharq davlatlari bilan o‘zaro manfaatli va keng qirrali munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashni davom ettiramiz198.*
***Sh.M. Mirziyoyev***

Zamonaviy dunyoda neft va gazning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Energiya resurslari zamonaviy iqtisodiyotda yetakchi rol o‘ynaydi. Har bir davlat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi “energiya iste'moli” miqyosida katta darajada belgilanadi. Energiya resurslarining asosiy turlari ko‘mir, neft, tabiiy gaz, gidroenergetika va yadroviy energiya hisoblanadi199. XX asrning 60-yillaridan boshlab neft va tabiiy gaz global energetika sohasida etakchi rol o‘ynashga kirishdi. Germaniya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda neft va tabiiy gaz ulushi jami energiya iste'molining 55-60 foizini, Qo‘shma Shtatlar va Yaponiyada esa 75-80 foizni tashkil etadi. Taxminan yuz yil mobaynida «neft omili» xalqaro munosabatlarga ta'sir etuvchi hal qiluvchi elementlardan biri bo‘lib qoldi. Bir vaqtning o‘zida «Standard Oyl», «Gollandiyalik», «British Petroleum» jahon siyosatida muhim o‘zgarishlarga yo‘l qo‘ydi. Ba'zan ular hatto yirik G‘arb davlatlarining hukumatlarini kutilmagan va radikal tashqi siyosat qarorlarini qabul qilishga undadilar.200 Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda neft narxi Xalqaro neft kartel tomonidan belgilandi, unda AQSh neft monopoliyalari hukmronlik qilmoqda. Kartel eksport qiluvchilardan – rivojlanayotgan mamlakatlardan monopolistik past narxlarda (1970 yilda 1 m3 uchun 22 dollar) neft sotib oldi va neft import qiluvchi mamlakatlarga nisbatan yuqori narxlarda sotildi.201 Xalqaro munosabatlarda neft omilining namoyon bo‘lishidan boshlab deyarli barcha manfaatdor davlatlarning tashqi siyosatni shakllantirishning asoslari o‘zgardi202. Rossiya neftni qazib chiqaruvchi mamlakat sifatida biroz noqulay sharoitdadir. Birinchidan, ishlab chiqarish qiymati yuqori. Eng istiqbolli konlar Shimoliy okeanning dengizida joylashgan. Ikkinchidan, neft quvurlarining uzunligi ming kilometrlarda hisoblab chiqilgan. Uchinchidan, neftni tranzit qilish uchinchi

[198] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б.18.
[199] http://old.russ.ru/journal/odna_8/98-02-11/vasil.htm
[200] https://e-him.ru/?article=107&page=dynamic&section=31
[201] http://old.russ.ru/journal/odna_8/98-02-11/vasil.htm
[202] https://e-him.ru/?article=107&page=dynamic&section=31

davlatlar orqali amalga oshiriladi, bu esa narxni oshirishga olib keladi203. Quvayt yer osti neftga boy, 1958-yili uning neft zaxirasi 8,1 mlrd tonnani tashkil qiladi. Butun kapitalistik olamda topilgan neft zaxirasining 1/4 qismini tashkil qiladi. 1958-yilda Quvaytda 70,1 million tonna neft chiqarilgan. Territoriya va aholi jihatdan uncha katta bo'lmagan bu hudud AQSH va Venesuladan keyin uchinchi o'rinda, butun Yaqin va O'rta Sharqda esa birinchi o'rinda turadi. 1958-yilda 300ga yaqin neft qudug'i mavjud edi. Taqqoslash uchun aytish joizki, Yaqin va O'rta Sharq rayonlaridagi hamma quduqlar 295tani tashkil qiladi. Quvayt neft konlari boshqa mamlakat konlariga nisbatan ancha qulaylikga ega. Chunki, neft birmuncha yuqoridan o'tadi. Masalan, AQSHda bir sutkasiga 1700 litr neft qazib olinsa, Quvaytda 800 ming litrgacha ya'ni qariyb 500 baravargacha neft qazib olinadi204. Qatar sohilida 1938-yilda mamlakatning g'arbida juda katta neft koni topiladi. Biroq, ularni ishlash faqat 1949-yilda boshlangan. 1958-yil topilgan neft zaxirasi 228 600 ming tonnaga mo'ljallangan edi. O'sha yili 8 milliard neft qazib olindi. Asosiy port Umm-Saidga o'tkaziladi205. Har bir Saudiya fuqarosi davlatdan uy sotib olayotganda uy qurish uchun pul oladi, farzand tug'ilganda uning hisobiga pul yoziladi va mashina sotib olayotganda uning yarmi davlat tomonidan to'lanadi. Shu bilan birga mamlakatda bepul ta'lim va tibbiyot mavjud, ijara va elektr to'lovi yo'q. Shuningdek, Birlashgan Arab Amirliklarining har bir fuqarosi har qanday ixtisos va dunyodagi biron bir universitetni tanlash huquqiga ega. 1973-1981 yillar oralig'idagi davrda arab mintaqasida neftdan kelgan 14 mlrd. dollarga yaqin mablag' xususiy investitsiya sifatida joylashtirildi206.

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari iqtisodiyotida neftning o'rni va roli benihoya kattadir. Jumladan, quyida davlatlar statiskasida ko'rib o'tishimiz mumkin. Quvaytning 2006-yilgi YaIM miqdori 43310 mln dollarni (aholi jon boshiga 17818 dol.) tashkil etgan. Iqtisodning asosini neft qazib olish va neftni qayta ishlash sanoati tashkil etadi. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, AQSh, Italiya, Yaponiya.

Hozirgi kunda dunyoda 600dan ortiq neft-gazli havzalar o'rganilgan. Ulardan 450tasida neft-gaz qazib olinadi. Konlarning umumiy soni 35 mingtaga yetadi. Ularning asosiy zahiralari Shimoliy yarim sharda bo'lib, mezozoy yotqiziqlari orasida joylashgan. Neft-gaz zahiralarning asosiy qismi uncha ko'p bo'lmagan yeng yirik havzalarda to'plangan. Neftning butun jahondagi zahirasi 300-400 mlrd tonna, tekshirilgan zaxirasi esa 60-70 mlrd tonna deb belgilangan. Ayniqsa, Rossiyada Yaqin va O'rta sharqda joylashgan. Dunyo neft qazib chiqarish sanoatining joylashuviga xos xususiyatlari shundan iboratki, butun qazib

[203] http://www.dissercat.com/content/neftyanaya-politika-rossii-na-blizhnem-i-srednem-vostoke#ixzz5VNjvnxyk

[204] Басистов Ю.В., Яновский И.И. Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатлари. – Т.: "Узбекистон ССР давлат нашриёти", - 1950. – Б.337.

[205] Басистов Ю.В., Яновский И.И. Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатлари. – Т.: "Узбекистон ССР давлат нашриёти", - 1950. – Б.332.

[206] Арабский мир. Три десятилетия независимого развития. Под ред. В.А. Исаева, В.В. Наумкина. – М., 1990. – С.123.

olinayotgan neftning deyarli 2/3 qismi rivojlanib kelayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan faqat AQSh va Kanadadagidan ko‘p miqdorda neft qazib chiqariladi. G‘arbiy Yevropa va Yaponiya neftni import qilishga ayniqsa qaram. Bu mamlakatlar o‘zlarida qazib chiqarilayotgan neft bilan o‘z ehtiyojlarining oz qisminigina qondira oladi.

Foydali qazilmalar ayrim turlarini umumjahon zahirasi:

| Foydali qazilmalar | O‘lchov birligi | Umumiy geologik zahirasi | Shu jumladan, tekshirilgan zahirasi |
|---|---|---|---|
| 1. Ko‘mir | mlrd t | 14800 | 1200 |
| 2. Neft | mlrd t | 400 | 150 |
| 3. Tabiiy gaz | trln m.kub | 320 | 185 |
| 4. Temir rudasi | mlrd t | 400 | 1500 |

Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari qazib chiqarilayotgan neftni g‘arbiy Yevropaga eksport qiladi. Rivojlangan mamlakatlar neft sanoatida Amerikaning “Standart oyl” va Angliya-Gollaniyaning “Royyal datch-chell” kabi yirik monopoliyalari hukmronlik qilmoqda. Amerika monopoliyalari kapitalistik dunyoda qazib chiqarilayotgan neftning deyarli 3/4 qismini nazorat qiladi.

Qatarda neft qazib olish iqtisodiyotning asosini tashkil etadi. Tabiiy gaz qazib olish va eksport qilish ham iqtisodda muhim o‘rin tutadi. 2006-yil YaIM miqdori 23640 mln. dollarni (aholi jon boshiga 26794 dollar) tashkil etgan. Birlashgan Arab Amirliklarida mamlakat iqtisodi neft va gaz eksportiga asoslangan. 1973-yilda dunyoda neft xarid narxining keskin ko‘tarilishi mamlakatdagi iqtisodiy ahvolning vaqtinchalik o‘zgarishiga olib keldi. Mamlakat o‘z ichki oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning chorak qisminigina ta'minlaydi. Ummon iqtisodi neftni qazib olish sanoatiga asoslangan. Neft yalpi milliy mahsulotining 40 foizga yaqin qismini, eksportdan tushadigan daromadlarning 20 foizdan ziyodrog‘ini tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligida, baliqchilikni kiritgan holda, mehnatga layoqatli aholining 60 foizi band. Asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlari: xurmo, banan, chorvachilik ham rivojlangan. Yiliga 100 ming tonnaga yaqin baliq ovlanadi. 2006-yil YaIM miqdori 35851 mln dollarni (aholi jon boshiga 11194 dollar) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: Yaponiya, Janubiy Korea, Buyuk Britaniya, Singapur, AQSH207.

Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi neftga va strategik xom ashyoga boy o‘lka.Mintaqada neft zaxiralarining mavjudligi rivojlangan mamlakatlarning diqqat etiborini tortadi.Najijada Yaqin va O‘rta Sharqda neft va neft zaxiralari uchun kurash boshlanadi.Rivojlangan mamlakatlarning olib borgan neft siyosati natijasida mintaqa aholisi ocharchilik, qochoqlar muammolari vujudga keldi.

[207] Boltayev M.J. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.

# MUHOJIRLIK: NA SHODLIK BA G`AM

**Sh.M.Mirzoyev**
*BuxDU Tarix yo`nalishlar va mamlakatlar bo`yicha mutaxassisligi I bosqich magstranti.*
*prof*. **Sh.A.Hayitov**

Istiqlol sharoitida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotdagi o'zgarishlar, ijtimoiy jarayonlarning ziddiyatli rivojlanishi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni anglash yo'lidagi amaliy siljishlar, mamlakatimizda yashovchi har bir millatning o'z – o'zini anglash, qadr – qimmati, urf – odati va an'analarni tiklash sari intilishining kuchayib borishi kabilar o'tmishga hamda bugungi tariximizga yangicha qarashlarni vujudga keltirish tabiiy holdir. Demokratik jamiyat barpo etish sobiq sho'ro davrida hozirgi kunimizda – o'zbek o'tmish tariximizga, kechgan tarixga hayotiy real faktlar asosida baho berishni taqozo qilmoqda. Ma'muriy buyruqbozlik siyosati hukm surgan, hamda turg'unlik yillarida sovet davri tarixi faqatgina bir yoqlama va tor doirada yoritilganligi ayon bo'lib qoldi.

Jumladan, "Xorijda istiqomat qiluvchi o'zbek vatandoshlar" mavzuida hatto fikr yuritish taqiqlangan edi. Chunki biz uzoq vaqtlar xorijdagi o'zbek vatandoshlarimizga bir yoqlama baho berib, ko'p hollarda "sinfiy muholif", "sotqin", "sostializm va xalq hokimiyati tuzumiga qarshi", "vatangado", "imperializm malayi", "bosmachi" degan terminlar bilan murojaat qildik. Inson omili jamiyatimizda barcha maqsad va vazifalarimiz asosi sifatida qaralar ekan, milliylik va baynalmilallik, yonma-yon bir-birisiz yashay olmasligi tobora ayon bo'lar ekan, bu yo'nalishlar xorijda yashovchi o'zbek vatandoshlar va ular bilan hamkorlik masalasiga har tomonlama, mukammal jiddiy kelajak manfaatlari nuqtai nazaridan qarashni taqazo qiladi. Mustaqillik tufayli o'zbek muhojirligi tarixini o'rganish, O'zbekiston tarixining hanuzgacha to'ldirilmagan sahifalarini to'ldirish sari hayrli ishlar qilindi. Bu sohada prezidentimizning sa'y-harakatlari tahsinga sazovordir. Prezidentimiz qaysi mamlakatga bormasinlar, bu erdagi millatdoshlarimiz bilan uchrashib, muloqotlarda Vatanga da'vat qildilar. Muhojirlik tarixi taraqqiyotning ob'ektiv jarayoni bo'lib, siyosiy burilishlar, tub burilishga molik voqealar jarayonida vujudga keladi. Muhojirlik na shodlik, na g'am deb ta'kidlaydi vatandoshlarimiz. Hozirgi bosqichda yuksak cho'qqilarga erishgan AQSh ham muhojirlar davlati. XVII-XVIII asrning eng muhim voqealari bo'lgan ingliz va franstuz burjua inqiloblari ham 100 minglab kishilarni o'z mamlakatini almashtirganligini eslash kifoya. Lekin so'nggi imperiya davlati hisoblangan SSSR mavjud bo'lgan yillarda muhojirlik tarixida yangi sahifa ochilgan edi. Noinsoniy siyosat ma'muriy buyruqbozlik tizimi tufayli 100 minglab yurtdoshlarimiz vatanjudolik dardiga mubtalo bo'lgan. Biz ushbu maxsus kursda material va manbalar asosida quyidagi maqsad va vazifalarni belgilab olamiz:

Xorijdagi o'zbek vatandoshlarning xorijga ketib qolishi bilan bog'liq tarixiy davrlar va ular yashayotgan mamlakatlar va ularning soni, shug'ullanayotgan sohalari haqida umumiy tavsif berish.

Xorijdagi o'zbek vatandoshlarining O'zbekistonga o'zbek milliy madaniyati an'analariga munosabatini yoritish. Xorijdagi o'zbek vatandoshlar bilan jumhuriyat jamoatchiligi o'rtasidagi ilk bor aloqalarning o'rnatilish tarixi ushbu qon-qardoshlik aloqalarining rivojlanishi jarayonidagi murakkablik va qiyinchiliklarni ko'rsatish. "Oydin", "Vatandosh" radioeshittirishining tashkil etilishi va faoliyatiga tavsif berish. O'zbekiston maxsuslashtirilgan jamoat tashkilotlari, eng avvalo sobiq "Vatan" jamiyati hamda uning viloyat bo'limlarini xorijdagi o'zbek vatandoshlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishdagi urinishlarini yoritish.

Hozirgi davrda xorijdagi vatandosh o'zbeklar bilan qon-qardoshlik hamda iqtisodiy, madaniy aloqalar sohasidagi ijobiy o'zgarishlarning sabab va maqsadlarini o'rganish. Muxojir o'zbeklar hayot yo'li, faoliyatini o'rganish.

Xorijdagi o'zbek vatandoshlar bilan kelajakda olib borilishi zarur bo'lgan yangicha ish yo'nalish va usullari haqida umumiy xulosalar chiqarib, tariximizni ma'naviy boyitishga harakat qilamiz. Jumhuriyatimiz hayotida yuz bergan so'nggi o'zgarishlar, real mustaqillik va uni qo'lga kiritishdagi amaliy qutlug' qadamlar biz o'rganayotgan sohaning istiqbollarini ochib berdi. 1991 yilning iyun oyida (19–24 iyun) Toshkentda ilk bor jahon ishbilarmonlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda o'nlab taniqli korporastiyalar va konsternlar, kompaniya va firmalar, bank rahbarlari, tadbirkor kishilar hamda o'zbek vatandoshlardan tijorat ishi bilan shug'ullanuvchilar qatnashdi. Ushbu anjumanda jumhuriyat prezidenti I.A.Karimov nutq so'zlab: "Biz chet ellardagi vatandoshlarimiz bilan hamkorlikni mumkin qadar keng yo'lga qo'yish, ularga tayanib ishlashning yangi imkoniyatlarini yaratish uchun hech narsani ayamaymiz. Biz bu yo'ldagi hozircha mavjud bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish kerakligini ham yaxshi tushunamiz",- dedi. Ushbu sohada jumhuriyatimizning 1991 yil sentyabrdan Mustaqil jumhuriyat deb e'lon qilinganligi, istiqlol munosabati bilan xorijdagi o'zbek vatandoshlarning O'zbekistonga munosabatining ijobiy o'zgarishi, hamda 24 sentyabrda AQSh lik vatandoshimiz Abdurauf Maqsudiy tashabbusi bilan tuzilgan "El" xalqaro uyushmasi tashkilotchiligida Jahon o'zbeklarining (turkistonliklarning) birinchi Toshkent xalqaro uchrashuvi kabilar xorijdagi o'zbek vatandoshlarni O'zbekiston o'zbeklari bilan yaqinlashtirishda muhim bo'ldi. Maxsus kursni o'tishda xalqaro anjumanlar, ularning natijalari asosida fikrlar bildirildi. Istiqlol yillarida minglab o'zbeklar O'zbekistonga tashrif buyurdi. Xorijdagi o'zbek vatandoshlar hayoti, turmushi va ular bilan jumhuriyatimizdagi o'zbeklarning aloqalari masalasi keyingi yillarda davriy matbuotda keng yoritila boshlandi. Jumhuriyat hududida nashr qilinadigan jurnal va gazetalarda bu haqda maxsus maqolalar, sayyohlar xotirasini yorituvchi xabarlar, muxbirlar bilan o'zbek vatandoshlari suhbatlari "sayohatnoma" xarakteridagi materiallar e'lon qilina boshlandi. Bu sohada O'zbekiston yoshlarining "Yoshlik" hamda yangidan nashr qilinayotgan "Muloqot" kabi jurnallarning roli katta bo'ldi. Sho'ro davrida boshlangan qayta qurish keyinchalik istiqlol tufayli bu mavzuga qiziqish kuchaydi. Davriy matbuotda ushbu sohada e'lon qilinayotgan maqola va xabarlar aynan xorijdagi

o'zbek vatandoshlar, ularning ayrim vakillari bilan shaxsiy suhbat, uchrashuvlar asosidadir.

Bu sohada "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" (Ushbu gazetada 1991 yildan "o'zbeklar va dunyo" degan maxsus rubrika bo'lib, unda xorijdagi o'zbeklar bilan munosabatlarga ham alohida o'rin beriladi). "Xalq so'zi" hamda jumhuriyatimizdagi va viloyatlardagi turli gazetalarning roli kattadir. Biz yuqorida qayd qilgan jurnal va gazeta manbalari orqali xorijdagi o'zbek vatandoshlar hayotini ayrim regionlarda yashayotgan o'zbeklarning kasb - korlari, etnik xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Xorijdagi o'zbek vatandoshlar, ular bilan jumhuriyat jamoatchiligi aloqalari masalalarini kengroq va to'laroq yoritishda O'zbekiston jumhuriyati Markaziy Davlat arxivi ham, shaxsiy suhbat materiallari ham muhim ahamiyatga ega. 1990 yillarda o'zbek – muhojirligi tarixi bilan bog'liq o'nlab maqola va kitoblar ham nashr qilindi. Ushbu materiallar ham maxsus kursni mazmunli o'tmishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda esa ayrim mamlakatlarda istiqomat qilayotgan o'zbeklar haqida kitoblar yaratilayapti

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov E. "Amerikalik o'zbeklar" (O'zbekiston SSR xalq shoiri Erkin Vohidov bilan suhbat) "Yoshlik" jurnali 1989 y. № 6, 2–6- betlarda. To'ra Mirzo. "Turkiya va Turkiston yo'llarida". 1989 y. №7. 44–45-betlar. Yusupov Abdulloh. "Xorijdagi o'zbeklar", 1990 y. №2, 7-30. № 3, 22-32. № 4, 16-32, 50-63-betlar. Ibrohimov A. "Mustaqil yoki mustamlaka". 1991 y. № 1, 4–13 – betlar.

2. Axmedov B. "O'zbeklar", "Muloqot", 1991 y. № 1, 53-56-bet. Usmonov I. "Vatanni qumsab", (Saudiya Arabistonlik Zuhuriddin Turkistoniy bilan suhbat) o'sha joyda 61–66–betlar, "Ruhim O'zbekistonda qoladi". (Temir Xo'ja bilan suhbat) № 2, 66–69– betlar. Orif Usmon "Xurosonlik o'zbeklar". № 3, 43–47– betlar. Zamonbek Farmonov. "Bo'htonning umri qisqa". "Guliston" 1987 y. №5, 19-bet va hokazo.

3. "Ona yurting – oltin beshiging". ("Vatan" jamiyati raisi R.Bobojon bilan suhbat). "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1984 yil 27 aprel. "Arab jurnalida O'zbekiston tasviriy san'ati", 1985 yil 22 noyabr, "Afg'on delegastiyasi O'zbekistonda", 1985 yil 31 dekabr. Mamadaliev F. "Vatan sog'inchi", 1988 yil 27 may. Yakvalxo'jaev Yo. "Yozig'imiz ne edi?", 1990 yil 13 aprel, "Toshkent – Vashington radioko'prigi", 1990 yil 21 dekabr. Nurali Qobul "Jahonga yuz burgin Vatan!", 1991 yil 4 yanvar. Yoqubov X. "Vatanning bir kaft tuprog'i", 1990 yil 27 aprel, "Sog'inch" (Saudiya Arabistonilik Abdullajon Ismoiljon o'g'li bilan suhbat) 1990 yil 17 avgust, "Rostgo'ylikka nima etsin" (O'zSSR televidenie va radioeshittirish komiteti raisi o'rinbosari Sh.G'ulomov bilan suhbat), 1990 yil 14 dekabr, Nodir Normat "Bizdan so'ng ham Vatan qolur", 1990 yil 9 noyabr va boshqalar. Xayrullev I. "Chikagodagi o'zbek oilalari", 1991 yil 1 fevral.

4. Filimanov E. "Myunxenlik Temir Xo'ja", "Xalq so'zi" 1991 yil 1 yanvar. Esirgan Boli o'g'li Jo'shqin. "Hojilar", 1991 yil 4 yanvar. Shuhrat To'lqin o'g'li. "Dard ko'p dardkash kam", 1991 yil 5 yanvar. Tojiddin Razzoq. "O'zi uchun ishlagan odam charchamaydi", 1991 yil 10 yanvar. Timurov N. "Nyu Yorkda uch

oy”. Rahimboboeva Z. “Vatan, Vatanparvar, vatanjudo”, 1991 yil 17 yanvar. Rajabboy Ota – Turk. “Vatan deya vatansiz o’tdik”, 1991 yil 25 yanvar. “Ajunda sochilib yoturmiz”, 1991 yil 23 mart va hokazo.

## BUYUK DAVLATLARNING YAQIN VA O‘RTA SHARQDAGI NEFT SIYOSATI

**Sh.A. Hayitov,**
*BuxDU, Jahon tarixi kafedrasi professori,*
**S.N. Kenjayev,**
*BuxDU, II kurs magistranti*

Jahon hamjamiyatini ko‘p yillardan beri tashvishga solib kelayotgan eng murakkab mintaqaviy muammolardan biri Yaqin Sharq muammosidir. Mazkur muammo muayyan tarixiy jarayonlar va shart-sharoitlar to‘fonida yuzaga kelib, deyarli yarim asrdan buyon hal etilmay kelmoqda.O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qoyish maqsadida diplomatik munosabatlar o‘rnatgan.Biz Yaqin va O‘rta Sharq davlatlari bilan o‘zaro manfaatli va keng qirrali munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashni davom ettiramiz.208.

1990-yillarning boshlarida xalqaro maydonda yuz began katta o‘zgarishlar – sobiq SSSRning parchalanishi, (sovuq urush) munosabatlarining barxam topishi, AQSH va uning ittifoqchilari tomonidan Iroqning harbiy jihatdan mag‘lub etilishi Yaqin Sharq muammosining hal etilishi yo‘lida ijobiy siljishlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Bir-biriga qarama qarshi turgan mafkuralar o‘rtasidagi kurashning tugashi Yaqin Sharq muammosiga aloqador barcha mamlakatlarni buyuk davlatlardan birining yordamida mazkur muammo yuzasidan “savdolashish” imkoniyatidan mahrum etdi.209 XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Fors ko‘rfazi mintaqasida, jumladan Arabiston yarim orolida yirik neft konlari aniqlangach, jahonning ko‘plab rivoj-langan mamlakatlar, asosan, AQSH va Buyuk Britaniya neft kompaniyalarining mazkur orolga bo‘lgan iqtisodiy siyosati va qiziqishi kuchaydi. Shu sababli ham, Buyuk Britaniyaning bir qator yirik neft kompaniyalari tomonidan ushbu hududda birinchilardan bo‘lib neft qidiruv ishlarini va mavjud neft konlaridan qazish faoliyatlarini tashkil etdi.210 Amerika Qo‘shma Shtatlari imperalistik doiralari Saudiya Arabistoni milliy boyligini talash va xalqni misli ko‘rilmagan darajada eksplutatsiya qilish bilan chegaralanmasdan, mamlakat teritoriyasida muhim harbiy bazalar qurmoqdalar, uni Yaqin va O‘rta Sharq blokiga tortish uchun urinmoqdalar211. Neft sohasi milliy iqtisodiyotda muhim

[208] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 18. **- 592 б.**

[209] Муҳаммадсидиқов М.М. Саудия Арабистонининг Қизил Денгиз минтақасида хавфсизликни таъминлаш сиёсатининг хусусиятлари. Автореф дисс... сиёсий фан номзод. – Т.: ЎзР.ФА, 2005. – Б.97.
[210] Иноғомов С. Саудия Арабистони Подшоҳлиги. - Т.: Фан, 1998. – Б.123.
[211] Мунавваров З.И. Арабистон ярим ороли мамлакатлари. – Т.: Фан, 1994. – Б.182.

ahamiyat kasb etsa-da, neft sohasidan tashqari Saudiya Arabistoni iqtisodiyotining rivojlanishiga sabab boʻlgan quyidagi xususiyatlar aniqlandi va ular quyidagilardan iborat.

1) Mamlakatning iqtisodiy-geografik jihatdan qulay imkoniyatga egaligi.
2) Neft-gaz mahsulotlarining koʻpligi va chetga eksport qilinishi.
3) Xizmat koʻrsatish sohalari va turizm sohasining rivojlanishi.
4) Saudiya Arabistoni milliy iqtisodiyotida tabiiy resurslarning, ya`ni neft va gaz xomashyosining ustuvor ahamiyati.212 Arabiston yarim orolida katta miqdorda neft zaxiralarining kashf etilishi Fors koʻrfazi taraqqiyotida muhim burulishga olib keldi. Buyuk Britaniya va boshqa rivojlangan davlatlar mintaqadagi harbiy va strategik mavqeini mustahkamlashga intildi. Ingliz hukumron doiralarida Fors koʻrfazi davlatlari bilan kelajakda olib borilajak aloqalar borasida koʻpgina munozaralaring yuzaga kelganligi ham shu bilan izohlanadi. Britaniyaning Qohiradagi harbiy shtabi tomonidan tuzulgan "Arab buyrosi" London nazorati ostidagi arab davlatlari yoki ularning xamjamiyatlarini tuzush bilan shugʻullangan213. Amerika va Angliyaning uzoq davom etgan muzokaralaridan soʻng yirik neft monopoliyalari oʻrtasida 1954-yilning 10-aprelida Londonda Eron neft konlarini qayta eksplutatsiya qilish qilish boʻyicha "Xalqaro konsorsium" tuzish haqida bitim imzolandi. Eron nefti "Xalqaro konsorsium" sostaviga kirgan 8 ta yirik neft kompaniyasi – beshta AQSH neft kompaniyasi ( 40% aksiyaga ega), Sobiq AINK (40% aksiyaga ega), Ingliz-golland neft kompaniyasi "Royal datch shell" 14% aksiyaga ega) va Fransiya kompaniyasi "Kompani fransez de petrol" (6% aksiyaga ega) oʻrtasida taqsimlandi214.

1959-yilning kuzida yangidan tuzilgan "Xalqaro konsorsium" Eronga majburan shartnomasini qabul qildirdi, bu shartnomaga muvofiq imperiya neft monopoliyalari sobiq ingliz-eron neft kompaniyasi ish koʻrgan teritoriyasida 40 yil davomida neft qidiruv, neft olish va qayta ishlashni konsessiyaga oldi. Xalqaro konsersum Janubiy Eron neftini iloji borocha koʻproq olishga intilib, 1955-yildagi 16,4 million tonna oʻrniga 1958-yil 39,8 million tonna neft oldi. Amerika ekonomistlarining fikriga koʻra Eron nefti "Xalqaro konsersum"ga 12,56 dollar sof foyda keltiradi215.

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi tarqoqlik va ichki bozorni himoya qilish siyosatining yuqori darajasi ichki mintaqaviy savdoning oʻsishiga halaqit berdi. Arab davlatlari oʻrtasidagi integratsion jarayonlar zaifligining iqtisodiy sabablari orasidan quyidagilarni belgilab chiqish joiz: iqtisodiy taraqqiyot darajalaridagi ma'lum tafovut, chegaralangan doiradagi xom ashyo tovarlarining eksporti va ishlab chiqarilishiga asoslangan xoʻjalik tizimining bir xilligi, deyarli

---

[212] www.opec.org - Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti rasmiy saytidan olingan maʻlumot.

[213] Абдулла Я.Ю. Обьединенные Арабские Эмирати. – М.: "Наука", 1978. – С.35.

[214] Басистов Ю.В., Яновский И.И. Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатлари. – Т.: "Узбекистон ССР давлат нашриёти", - 1950. – Б.230.

[215] Басистов Ю.В., Яновский И.И. Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатлари. – Т.: "Узбекистон ССР давлат нашриёти", - 1950. – Б.231.

Arab Sharqining barcha qismlarida iqtisodiy islohotlarning sekin borishi. 1990-yillar davomida mintaqadagi umumiy tashqi savdo hajmidagi umumarab savdo aylanmasi 10%dan past bo‘ldi. Xuddi shu davrda Osiyo ichki savdo ko‘rsatkichlari 40%ni, Lotin amerikasi mintaqasida esa taxminan 20%ni tashkil qildi216.

| | Davlat | Barrel (kunlik) |
|---|---|---|
| 1 | United States | 13,973,000 |
| 2 | Saudi Arabia (OPEC) | 11,624,000 |
| 3 | Russia | 10,853,000 |
| 4 | China | 4,572,000 |
| 5 | Canada | 4,383,000 |
| 6 | United Arab Emirates (OPEC) | 3,471,000 |
| 7 | Iran (OPEC) | 3,375,000 |
| 8 | Iraq (OPEC) | 3,371,000 |
| 9 | Brazil | 2,950,000 |
| 10 | Mexico | 2,812,000 |

1985-1995 yillarda neftdan boshqa mahsulotlar eksporti ikki barobarga oshdi va 11,1 mlrd. dollarga yetdi. Ishlab chiqarilishi malakali mehnatni talab qiladigan bir necha mahsulot turlari (masalan, organik kimyo, plastik material va uning mahsulotlari, elektr taqsimlovchi uskunalar) eksporti yuqori sur’atlarda yiliga 10 foizdan o‘sib bordi. Bir qator neft qazib chiqaruvchi davlatlarda (Jazoir, Liviya, Quvayt, Ummon, Saudiya Arabistoni, Suriya) bu ko‘rsatkich yaxshi tomonga sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatmadi. Ayni paytda neftdan boshqa mahsulotlar savdosi uchun mo‘jallangan eksport diversifikatsiyasi

[216] Free trade areas in the Arab region. U.N. – N.Y., 2001. – P.VI.

ko'rsatkichlaridan ma'lum bo'lishicha, ba'zi neft eksport qiluvchilar (Ummon, Qatar, BAA va Suriya) boshqa irlaridan ko'ra (Jazoir, Liviya, Saudiya Arabistoni, Baxrayn) takomillashgan neftdan boshqa mahsulotlar eksportiga ega217.

## MOXANDAS KARAMCHAND GANDINING HAYOT YO'LI

**S.Shodmonova**
*O'zRFA Tarix Instituti yetakchi mutaxassisi t.f.d., professor,*
**S.N.Farmonov**
*BuxDU Tarix fakulteti II kurs magistiri*

***Annotatsiya*** *Ushbu maqolada Moxandas Karamchand Gandining bosib o'tgan hayot yo'li haqida qisqacha ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar*** *Gandi, Hindiston, Angliya, aximsa, vatanparvarlik,kuch ishlatmaslik, HMK Janubiy Afrika.*

Moxandas Karamchand Gandi 1869 yil 2-oktabrida Hindistonning Purbandar knyazligida tug'ulgan. Yoshlik chog'lari Purbandarda o'tgan Moxandas birinchi marta maktabga borib, ko'paytirish jadvalini zo'rg'a yod olganini va boshqa bolalar bilan o'qituvchisiga turli-tuman laqablar qo'yganini eslarkan, shunday yozadi: «O'qituvchilarga yoki maktabdosh o'rtoqlarimga biron marta yolg'on so'zlaganimni eslay olmayman. Men o'lguday odamovi edim va bolalardan o'zimni tortar edim. Mening birdan bir do'stlarim kitoblar va darslar edi. Maktabga o'z vaqtida yetib kelish va dars tugashi hamon uyga qarab chopish menga odat bo'lib qolgan edi. Otamning musulmonlar va pars(zardushtiy)lardan do'stlari bo'lib. Ular otamga o'z dinlari haqida so'zlar, otam har doim ularning gaplarini hurmat va qiziqish bilan tinglar edi. Ularning xizmatida bo'lib, men ko'pincha shunday suhbatlarda ishtirok etardim. Bular hamasi bir bo'lib menda boshqa dinlarga nisbatan hurmat va murosani tarbiyaladi. Gujorat tilidagi axloq odobga oid bir dostondagi «yomonlikka yaxshilik bilan javob ber» ma'nosidagi she'rning hikmati yosh Gandining qalbida yo'lboshlovchilik ruxini tarbiyaladi[218]. 1889-1891-yillarda Londonda yashagan Moxandas avval Inner Templ advokatlik koorparatsiyasida huquqshunoslikni o'rgangan. U yerda ingliz, fransuz va lotin tillarini, huquqni o'rganadi. O'sha vaqtda Londonda Hindiston Milliy Kongressi birinchi boshlig'i va asoschisi D.Naoradjining ma'ruzalariga qatnashar ekan u chiqarayotgan "Hindiston" gazetasini berilib o'qir edi. 1890-yildan esa o'z faoliyatini London universitetida davom ettirgan va barrister (ing. barrister - Buyuk

[217] The Baghdad Observer. – Baghdad, 2012. – P.42.
[218] Ганди М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С. 43-44

Britaniyada advokatning oliy unvoni) diplomini olib 1891 yilda vataniga qaytad[219]. 1891-1893 yillarda Bombeyda muvaffaqiyatli bo'lmasada advokatlik faoliyati bilan shug'ullanadi va ko'p o'tmay Moxandas Gandi baxtini sinash maqsadida 1893-yilning aprelida Janubiy Afrikaga yo'l oladi ammo bu yerda hindlarga o'tkazilayotgan jabr zulm kamsitishlar Gandining qarashlarini tubdan o'zgartirdi. Inglizlar bu yerga ko'chib kelgan hindlarni «kuliy» (hammol)deb atar edilar, hindlarning katta qismi mehnatkashlar sinfiga mansub bo'lganidan barcha hindlarni «kuliy» yoki «samiy» deb atay boshlaganlar. Meni «oqlovchi kuliy» deb atay boshladilar savdogarlarni «savdogar kuliy» derdilar. Shunday qilib, kuliy so'zining dastlabki ma'nosi «hammol» unut bo'lib ketgan va u hindlarga nisbatan odatdagi murojaatga aylanib qolgan edi. Vaqt o'tishi bilan advakatlik amaliyotlari ikkinchi darajali bo'lib qolib Gandi o'zini ko'proq qashshoq odamlarga siyosiy, sotsial nohaqliklarga qarshi kurashda yordam berish istagi paydo bo'la boshlaydi. U ko'p bora Janubiy Afrika hukumatga hind ishchilarining qiyinchiliklari, mahalliy plantatsiya, shaxtalardagi og'ir vaziyat borasida petitsa–yozma murojaatlar bilan chiqishlar qiladi. Janubiy Afrikada o'n minglab hind ishchilari qullar singari og'ir sharoitda edi. Afrikaning yana bir davlati Transvaalda esa 1886 –yilda qabul qilingan qonunga ko'ra Transvaalda kirish chog'ida hindlar uch funt sterling miqdorida jon solig'i to'lashlari shart edi. Ular o'zlari uchun ajratilgan maxsus joylardagina yer olishlari mumkin edi, holbuki ular bu yerda ham mulkchilik huquqidan foydalanmaganlar. Hindlar yana saylash-saylanish huquqidan ham mahrum edilar. Bular bari «osiyoliklar» uchun maxsus qonunda ko'zda tutilar edi, bundan tashqari ular yana «ranglilar» uchun belgilangan boshqa qonunlarga ham bo'ysunishga majbur edilar. «ranglilar»uchun qonunlarga ko'ra, hindlar tratuarlarda yurish, kechki soat to'qqizdan keyin ruxsatsiz ko'chaga chiqish huquqiga ega emas edilar[220]. Bunday ahvolni ko'rib va boshdan kechirib, hind muxojirlari hayotini o'ylab Moxandas Gandi bu ahvolni qanday o'zgartirish to'g'risida juda ko'p o'ylagan va bu masalar bilan shug'ullanishga intildi. Bu esa keyinchalik advokatlik ishi Moxandas Gandi uchun ikkinchi darajali ishga aylanib, o'zini butunlay xalqi ozodligi, ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurashga bag'ishlashiga olib keldi. Maxatma Gandining 1885-yilda tashkil topgan Hindiston Milliy Kongressi (HMK) bilan birinchi bor tanishuvi Janubiy Afrikadagi hind aholini ko'tarib chiqish bilan bog'liq edi. Chet davlatlardagi hindlarning ahvolini yaxshilashda anchayin sezilarli yutuqlarga erishgan Moxandas Gandi vatani Hindistonga qaytgach bu yerdagi hind-musulmon munosabatlarini yaxshilashga e'tibor qaratdi. O'zi aytganidek:»hali Janubiy Afrikadayoq menga shu narsa mutlaqo ravshan ediki, musulmonlar bilan

[219] Век XX: политика люди судьбы. Под ред. Ш.Ергашева Ташкент 2007. С.76
[220] Ганди М.К. Моя жизнъ. М.,1959. С. 67-68

hindlar o'rtasida chinakkam do'stlik yo'q. Men hech qachon ularning birlashishi yo'lidagi to'siqni bartaraf etish imkoniyatini boy bermaganman. Biroq yaltoqlanib yoki o'z qadrimni yerga urish hisobiga biron bir odamni o'zimga qaratish odati menga butunlay yot narsa edi. Janubiy Afrikadagi ishimdan shu narsaga imonim komil bo'ldiki, aynan hind-musulmon birligi masalasida mening ahimsam eng jiddiy sinovga duch keladi va o'sha vaqtda ushbu masala ahimsa sohasidagi mening izlanishlarim uchun keng maydonga ochib beradi. Men bunga hozir ham ishonib turibman. Xudo meni sinovlarga duchor etajagini bir umr his qilib kelganman. Hindistonda o’z faoliyatini 1915-yilda boshlagan Maxatma Gandi o’z ishini dehqonlar va hunarmandlarni himoya qilishdan boshladi. 1915-yil 25-mayda Axmadobod shahrida Gandi “Satyagrax ashroli” ni tashkil etadi. Birinchi jahon urushi davrida Hindistonning ahvoli nihoyatda og’irlashdi. Turli kasalliklar epidimiyalar tarqalib 13 mln aholi qirilib ketdi. Hindiston iqtisodi inqirozga yuz tutish arafasiga kelib qoladi. Kalkutta, Bombey, Madras shaharlaridan politsiyachilar saharlab ko’chalarda to’lib ketgan murdalarni olib ketar edi. 1918-yil birinchi bor Gandi boshchiligida “ochlik” kompaniyasi boshlandi 1919-1920-yillarda yirik kongresslarining qarshiligiga qaramay Gandi o’zining ”hamkorlik qilmaslik” dasturini qabul qilishlariga erishdi va ingliz hukumatiga qarshi birinchi tashkil etilgan umumhind kompaniyasini boshqardi 1920-yil dekabrda esa Nagpurda bo’lgan HMK va hind milliy-ozodlik harakatining yetakchisiga aylanadi. Unga muholifatda bo’lgan rahnamolar ham endi mustaqillikni qo’lga kiritish uchun u taklif qilgan yo’l va usullardan foydalanishga qo’shila boshlaydilar. 1921-yilda Butun Hindistonni xalq harakatlari larzaga keltirdi. Hindiston bo’ylab davom etayotgan xalq harakatlarini bir markazdan boshqarish tobora qiyinlashib borardi. 1922-yil 4-fevralda Chauri Chaura degan joyda politsiya tinch namoyishchilarni tarqatishga urinadi. Namoyishchilar esa kaltaklarni qo’lga olib politsiyachilarni binoga yashirinishga majbur qiladilar. Shundan so’ng politsiya namoyishchilarga qarab o’t ochadi. G’azablangan namoyishchilar binoni ichidagi politsiyachilari bilan birga yoqib yuboradi[221]. Bu namoyishlarda oz vaqt o’tgach birin-ketin Gandining uch isyonkor maqolasi matbuotda e’lon qilinadi. Ularning birida Britaniya imperiyasini teng huquqli va ozod davlatlar federatsiyasiga aylantirishni qattiq talab qiladi. Aks holda ”yer yuzining eng jasur xalqining” butun kuchi Hindistondagi ozodlik ruhini bostirishga besamar ketishini dadil ta’kidlaydi. 1922-yilning 10-martida esa Maxatma Gandi qamoqqa olinadi. Uni kasalligi tufayli 1924-yilda ozodlikka chiqaradilar Hindistondagi vaziyat inglizlar uchun kundan-kunga yomonlashib borardi. Hukumat nimalardir qilishga majbur bo’lmoqda edi, chunki repressiyalar, qamoqlar bilan harakatga ta’sir ko’rsatish mumkin emasligini

[221] Горев А.В. Махатма Ганди. М., 1984, С.23.

ular anglardi. 1942-yil 14-iyulda HMK ishchi qo'mitasining Vard shahridagi majlisida Maxatma Gandi taklif etgan "Hindistondan yo'qol" rezalyutsiyasi qabul qilinadi. Unga ko'ra, Hindiston mustaqilligini zudlik bilan tan olish talab etilgan edi. Bunga javoban HMK ta'qiqlanib rahnamolari qamaldi. Ular qatori Maxatma Gandi ham 9-avgustda qamoqqa olinadi. U bilan birga qamalgan xotini Kasturbay 1944-yil 22- fevralda vafot etadi. O'zi esa sog'ligi yomonlashgani uchun 6-mayda ozod qilinadi. 1946-yilda ish boshlagan Hindiston ta'sis majlisi 1949-yilning 26-noyabrida Hindiston Konstitutsiyasini qabul qilinishi bilan o'z ishini yakunladi. Daxlsizlikni bekor qilinishi haqidagi qonun qabul qilinganda butun zalni "Yashasin Gandi" hayqiriqlari to'ldirib yubordi. Maxatma Gandi bu majlisda ishtirok etmagan, lekin uning g'oyalari Hindistonning asosiy qonunida o'z ifodasini topgan edi. "Men Hindistonni har qanday qullikdan ozod qiluvchi konstitutsiya uchun kurashaman. Men shunday Hindiston uchun kurashamanki, unda eng nochor kishilar ham o'zlarining o'rni va ovozi borligini his qiladilar. Unda yuqori va quyi tabaqa kishilari bo'lmaydi. Bunday Hindistonda daxlsizlikka ham o'rin qolmaydi". Maxatma Gandi har qanday ta'qib va azoblarga chidagan holda, ularga qaramay o'z usulini doimiy qo'llashi natijasida Hindistonni 1947-yilda mustaqillikka olib keldi. 1947-yilning 15-avgustida Hindiston mustaqil deb e'lon qilindi. Ammo Maxatma Gandi ta'kidlaganidek hali iqtisodiy, ijtimoiy, axloqiy mustaqillikka erishishdek ulkan maqsadlar, vazifalar oldinda edi[222]. 1948 yilning 30 yanvarida ibodatxonaga ketayotganida Maxatma Gandi hind fanati, shovunistik "Rashtriya svayam sevak sangx" tashkiloti vakili yomonidan o'ldirilgan bo'lsada uning hayot yo'li barcha uchun ibratdir. Ingliz mustamlakachilarini Hindistonday katta mamlakatdan haydab chiqarish oson ish emasdi, buning uchun sermillat hind xalqining vatanparvar kuchlarini bir yoqadan bosh chiqarib kurashga boshlash zarur edi. Bu vazifani o'z hind diniga sodiq Maxatma Gandi uddaladi. Hind xalqining asriy mustamlakachilik zulmidan abadiy xolos bo'lishi aynan manashu g'oyaviy rahbar, davlat va siyosiy arbobning fidokorona va jangovor hatti-harakatlari bilan bevosita bog'liq edi. Ayniqsa uning "aximsa" – kuch ishlatmaslik siyosati jahondagi ozodlik harakatlari uchun ibrat hisoblanadi. U Hindiston mustaqilligi uchun ulkan xalqni yig'a oldi va kurashga otlantirdi. Har bir millatning shakllanishi birinchi navbatda uning farzandlari qalbidagi vatanparvarlik tuyg'usiga tayanadi. Maxatma Gandining hayoti va faoliyati bunga yaqqol misoldir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ганди М.К. Моя жизнъ. М.,1959.

[222] Датта Д. Философия Махатма Ганди. М., 1959. С.21.

2.Век XX: политика люди судьбы. Под ред. Ш.Ергашева Ташкент 2007.
3. Горев А.В. Махатма Ганди. М., 1984.
4. Камаров Е.Н, Литман А.Д. Мировоззрение Махандаса Карамчанда Ганди. М., 1969.
5. Датта Д. Философия Махатма Ганди. М., 1959.

## А.З.ВАЛИДИЙ ТЎҒОННИНГ ТУРКИЯДА ТУРКИСТОН ТАРИХИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРИ

**Н.З.Ражабова**
*БухДУ Тарих (йўналишлар ва мамлакатлар бўйича) мутахассислиги 1-босқич магистранти*
*доц.* **О.Рашидов**

1927 йилдан А. 3. Валидий Тўғон, расмий олий маълумоти бўлмаса ҳам, Истамбул университети профессори сифатида фаолиятини бошлаган. У 1935 йилга келибгина фан доктори илмий даражасини олган ва 1939 йилнинг сентябрида Истамбул университетининг турк адабиёти тарихи факультети профессори бўлиб тайинланган.

А. 3. Валидий Тўғоннинг[223] илмий дунёқарашини шаклланишига йирик шарқшунослар — Н. И. Ашмарин ва Н. Ф. Катанов катта таъсир ўтказганлар. 1913-1914 йилларда А. 3. Валидий Тўғон Фарғона вилояти ва Бухорога уюштирилган археографик экспедицияларда иштирок этган. Бу экспедициялар натижаси жуда самарали бўлиб, қўлга киритилган Марказий Осиё тарихига оид кўплаб қадимги ёзма манбалардаги маълумотлар илмий нашрларда ўз аксиии топган. Улар орасидаги Амир Темур ва Темурийлар даври тарихига оид қимматли қўлёзмалар олимнинг кейинги илмий изланишлари учун асос бўлиб хизмат қилган.

А. 3. Валидий Тўғон фаолиятининг биринчи даври 1909-1916 йилларни ташкил этади. “Турк ва татар тарихи”[224] олимнинг биринчи муҳим асаридир. У методологик жиҳатдан катта аҳамиятга эга бўлиб, асарда Амир Темур ва Темурийлар даври шунчаки эслатилади. Шу билан бир қаторда, бу асарда айрим маҳаллий муаллифларнинг таъсири аниқ кўринади. Малумки, бу пайтда тор маҳаллий манфаатларнинг устун қўйилиши ва тарихнинг сиёсийлаштирилганлиги сабабли айрим туркий республикаларда Амир Темур фаолияти салбий баҳоланган.

А. 3. Валидий Тўғон фаолиятининг иккинчи даври 1923-1948 йилларни ўз ичига олади. 1932 йилда олим Истамбулдаги “Атсыз маджмуа”

---

[223] Олимнинг асарлари ҳақида қаранг: Материалы к библиографии Ахмет-Заки Валидий Тогана / Составитель Булгаков *Р.* М. В Уфа. 1996; Байкара Тунджер. Заки Валидий Тоган / Составление, перевод на русский язык, *дополнения,* указатель Булгакова Р М., Юлдашбаева А. М. -Уфа: «Китеп», 1998 (далее – Байкара *Тунджер Заки* Валидий Тоган), Абдурахманов М. Научная I деятельность А. 3. Валидова в Туркистане-Ташкент. Фан, 2004 (далее - Абдурахманов М. Научная деятельность… ) и др.

[224] Валидий З. Турк ва татар тарихи (История тюрков и татар). - Казань, 1912, Ч 1 –С. 280; Шу муаллиф. История Башкир. История тюрков и татар / Перевод Юлдашбаева А, Вильданова А. Предисловие Кузеева Р. Г. *–Уфа, 1994. –С.* 352.

тўпламида “Темурбекнинг исломга муносабати” номли мақоласини нашр этган.

А. З. Валидий Тўғон тадқиқотларида “Ислом энциклопедияси”да чоп этилган “Алишер”, “Алишер Навоий тўғрисида савол: доктор Ризо Нурга жавоб”, “Буюк туркий шоир Алишер Навоий”, “Темур мақбараси”, “Бойсунғур мирзо: ҳаёти ва унинг ижоди” мақолалари ёритилган.

1946 йилда А. З. Валидий Тўғон “Умумий турк тарихига кириш” монографиясининг биринчи қисмини эълон килган. Олимнинг XVI асргача бўлган тарихий даврни қамраб олган бу асари собиқ Иттифоқдаги олимлар га етиб бормаган.

1948-1970 йиллар А. З. Валидий Тўғон фаолиятининг учинчи даврини ташкил қилади. Бу даврда унинг “Хондамир”, “Хоразм”, “Ҳайдар Мирзо” ва “Ҳирот” мақолалари энциклопедияда, “Темур ва Йилдирим Боязид” мақоласи “Тасвир” журналида нашр этилган. 1949 йилда олимнинг “Буюк туркий подшоҳ Шохрух” номли мақоласи чоп этилган. А. З. Валидий Тўғоннинг машҳур мақолаларидан бири “Амир Темур шажараси тадқиқоти”дир. Унда Амир Темур аждодлари номлари келтирилган. Шажара матни О. Бўриев томонидан ҳам нашр этилган, араб ёзуви хусусияти туфайли номлар ёзилишида баъзи фарқлар учрайди. А. З. Валидий Тўғон Амир Темурнинг оилавий шароитини тадқиқ этиб шундай хулосага келганки, Амир Тарағай оиласи фақат шарқий ва ғарбий Туркистонда эмас, балки Хуросон, Афғонистоннинг нуфузли шахслари билан ҳам қариндошлик муносабатида бўлган экан.

1958 йили А. З. Валидий Тўғоннинг “Темурнинг шарқий Европага нисбатан сиёсати” ва “Темурнинг Украина ва Шимолий Кавказга 1395 йилги юриши”[225] номли икки мақоласи нашр этилган. Уларда олим ўша даврни жиддий тадқиқ қилиб, турли сиёсий кучлар муносабатини аниқлаган. У тарихни чуқур ўрганиб: “Ҳеч нарсага қарамасдан, Амир Темурнинг Султон Боязидни Тўхтамишхон уларнинг рақиби фаранглар иттифоқчиси эканлигига ишонтиришга қилган ҳаракати бутунлай эътиборсиз колдирилмаган. Шунинг учун, тарихчи Бадриддин ал-Айни асарида Тўхтамишхон ва Боязид аскарлари орасида бўлиб ўтган ҳижрий 801 йилдаги (1398 йил 13 сентябрдан 1399 йил 3 ноябригача) тўқнашувлар тўғрисида қисқа маълумотни топамиз”, - деган хулосага келган. Ушбу тадқиқотлар – икки жиҳати билан қимматлидир: биринчидан, уларда муҳим ёзма манба илмий муомалага киритилган; иккинчидан, улар шарқий Европа тарихида бўлиб ўтган муҳим воқеаларни чуқур ўрганишга асос бўлиб хизмат қилади. Шубҳасиз, ушбу тадқиқотлар А. З. Валидий Тўғоннинг Амир Темур ташқи сиёсатини ўрганишга қўшган муҳим ҳиссаси бўлган[226].

1960 йили А. З. Валидий Тўғон “Теҳрон кутубхоналаридаги Ҳиндистон

---

[225] Байкара Тунджер. Заки Валидий Тоган. - С. 107.

[226] Togan Z. V .Timurs Octeuropapolitic // Zeitichhft der Deutschen Morgenlandischen Gesellschafl. Bd. 108. 1958. –S. 279-298.

қўлёзмаларида ўзбек тили ва Темурийлар миниатюралари намуналари" номли муҳим илмий ахборотни эълон қилган. Ушбу масалани ўрганишга олимнинг қўшган ҳиссаси шундаки, у Истамбулдаги Топқопу музей кутубхонасида (Хазина, 2153, л. 98а) Бойсунғур Мирзонинг (1397-1433 й.) китобдори Жаъфар Бойсунғурий ёзган *арзадашт* қўлёзмасини топиб, эълон қилган.

А 3. Валидий Тўғон Амир Темур ва Темурийлар даври тарихи бўйича чоп этилган ма?ола ва асарларидан ташқари, бой қўлёзма ва нашрга тайёрланган материалларни мерос қолдирган.

А. 3. Валидий Тўғонннинг илмий меросини ўрганиш ва таҳлил қилишни даврий жиҳатдан иккига бўлиш мумкин. Булар - олимнинг сиёсий фаолияти бошлангунга қадар (1916 й.) ва сиёсий муҳожирликкача (1923 й.) бўлган даврга оид асарлардир. А. 3. Валидий Тўғон ижодининг биринчи даври тўғрисида асосан турли тақриз, мақола ва илмий нашрлардаги тадқиқотлар эълон қилинган.

Иккинчи давр А. 3. Валидий Тўғоннинг сиёсий муҳожирлик йилларини қамраб олади. Собиқ Иттифоқда олимнинг илмий мероси ғоявий нуқтаи назардан, фақат танқидий руҳда ўрганилган чунки, совет олимлари мустабид тузум шароитида А. 3. Валидий Тўғон фаолиятини холис ёки ижобий баҳолаш имкониятидан маҳрум эдилар.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**:

1. Валидий З. Турк ва татар тарихи (История тюрков и татар). - Казань, 1912.
2. Togan Z. V. Timurs Octeuropapolitic // Zeitichhft der Deutschen Morgenlandischen Gesellschafl. Bd. 108. 1958.
3. Олимжон Шараф. Турк ва татар тарихи Заки Валиди афанди хизматлари (История тюрков и татар Заслуга господина Заки Валиди) //Шура. — 1916.
4. Salinov A Ahmet Zeki Velidi Togan Bibliografyasi (Библиография Алмет Заки Валиди Тогана)// *Tirk* Dinyasi Aras'tirmalari-Istanbul, 1994.

## AFG'ON AMIRI DO'STMUHAMMADXON BUXORO AMIRI NASRULLAXON HUZURIDA (TARIXI SHAHRUXIY ASARI MISOLIDA)

**Sh.A. Hayitov,**
*BuxDU, Jahon tarixi kafedrasi professori,*
**A.A. Ahmadov,**
*BuxDU, II kurs magistranti*

*Ushbu maqolada Niyoz Muhammad Xo'qandiyning "Tarixi Shahruxiy" asari orqali Buxoro va Afg'oniston davlati hukmdorlari Amir Nasrulloh va Amir*

*Do‘stmuhammadxonlarning o‘zaro siyosiy munosabatlari ochib berigan. Buxoro va Afg‘on davlati hukmdorning siyosiy faoliyati tahlil qilingan.*

Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning “Tarixi Shahruxiy” asari orqali Buxoro va Afg‘oniston davlatlarining o‘zaro siyosiy munosabatlari haqida ham ma’lumot olishimiz mumkin. Asarda keltirilishicha Toshkent bekligi (1784-1809-yy) tuzilgan davrda uning hukmdori (voliysi) Yunusxo‘ja Farg‘ona bilan bo‘lgan jangda yengilib, zo‘rg‘a Toshkentga yetib keladi. Yangi hujmga kirish oldida o‘ziga ittifoqchi izlab, Buxoro amiriga elchi yuborib, unda ikki o‘rtada ittifoq tuzish, yarashish shartlarini qo‘yadi227. Bundan tashqari amirdan to‘p va to‘fang yasovchi ustalar yuborishini ham iltimos qiladi. Amir iltimosga javoban to‘p quyish va miltiqsozlik fanidan xabardor bir necha afg‘on va eronlik ustalarni Toshkentga yuboradi228. Bundan ko‘rinadiki, Buxoro amirligida bu soha bilan afg‘on ustalari shug‘ullanib kelganligidan dalolat beradi.

Buxoroda Amir Nasrulloh (1826-1860-yy) hokimiyatga kelishi bilan ko‘pgina hududlarga istilochilik yurushlarini amalga oshiradi. Shulardan Shaxrisabz ustiga qilgan yurishi muvaffaqiyatsiz kechadi. Amir Nasrulloh bunga sabab sifatida Qarshi hokimi Ayozbiy va Samarqand hokimi Shukurbiylarning tajribasizligi deb topib, ularni qatl ettiradi. Va bu vazifani o‘zining vaziri (qo‘shbegi) Rahmonberdi turkmanga topshiradi.

Bu davrda Eron shohi Abbos huzuridan qochib, Hindistonga borgan va u yerdan Afg‘oniston hukmdori amir Do‘stmuhammadxon oldiga kelib, uning qo‘shinida lashkari sardor bo‘lgan Abdusamad sardor Do‘stmuhammad xizmatidan ham voz kechib, Buxoroga kelgan edi. Buxoro qo‘shbegisi (vaziri) Rahmonberdi turkman uni oldiga chaqirib, Amir Nasrulloh xizmatiga oladi. 1837-yilda Amir Nasrulloh sarbozlar qo‘shinni tuzadi. Unga to‘pchiboshi229 qilib Abdusamad noib tayinlanadi. Sarbozlar qo‘shini afg‘on, eronlik va badaxshoniylardan iborat qilib tuziladi. Afg‘on amiri Do‘stmuhammadxon xizmatida bo‘lgan davrlarda Abdusamad afg‘onlardan to‘p va miltiq tayyorlash sirlaridan ham voqif bo‘lgan edi. Shu tufayli u Buxoro amirligi qo‘shinining harbiy qurollarini xuddi afg‘on va eronliklarnikidek qilib yasatdi va zamonaviy qurollangan harbiy qo‘shinni yaratdi.
Bu paytga kelib qo‘shni Afg‘onistonda vaziyat keskinlashib, Amir Do‘stmuhmmadxon (1826-1838-yy) taxtga da’vo qilib yurgan Shuja al-mulk (1839-1842-yy) bilan qarshilikda band bo‘lishidan foydalanib, Buxoro amiri Amir Nasrulloh 1838-yilda Afg‘oniston Turkistoni va Balxni egallash uchun Jayhun (Amudaryo-A.A) dan kechib o‘tadi. Balx hukmdori Solihxo‘ja, Mozori Sharif

[227] Toshkentning Buxoro amirligi bilan munosabatlari yaxshi bo’lgan. Bunga yana bir sabab sifatida 1803-yilda Qo’qon xonligi bilan Buxoro amirligi o’rtasida O’ratepa uchun bo’lgan jangda Toshkent Buxoro tomonda turib qatnashgan. Qarang: Shosh.uz

[228] Niyoz Muhammad Xo’qandiy. Ibratul xavoqin (Tarixi Shahruxiy) tojik tilidan tarjimon, o’zbek tilidan tabdil, kirish va izohlar muallifi tarix fanlar doktori, professor Sh.Vohidov.T., “Turon Zamon Ziyo”, 2014.-B. 386.

[229] To’pchiboshi-amir qo’shinlarining bosh qo’mondoni bo’lgan. Qarang: Tillaboyev S., Zamonov A. O’zbekiston tarixi. T., “Sharq”, 2014.-B.8.

hukmdori Zulfiqor va Shibirg‘on hukmdori Shujo ad-din amir (Nasrulloh) tomonga o‘tib ketadilar230.

Afg‘onistondagi taxt uchun kurashlar amir Nasrullohga qarshi chiqish uchun yo‘l bermay bu hududlar Buxoro amirligi tarkibiga o‘tib ketadi.

Hijriy 1254-yil Afg‘onistondagi ittifoqsizlikdan va taxt uchun kuchayib ketgan urushlar bunga ingliz hukumatining ham aralashuvi Amir Do‘stmuhammadni afg‘on Turkistonidan chiqib ketishiga majbur etadi. U Xulm va Qunduz viloyatlarida ham qo‘nim topadi. Bu paytda Xulm beki Muhammadaminbek va Qunduz beki Muhammad Murodbek qatag‘an Amir Do‘stmuhammadni yaxshi kutub olib unga izzat ikrom ko‘rsatgani “Tarixi Shoxruxiya” asarida keltiriladi.

Amir Do‘st Muhammadxon Afg‘oniston tarixida sezilarli iz qoldirgan hukmdor bo‘lib, uning hukmronligi davrida davlat boshqaruvida anchagina yangi tartiblar joriy etiladi. Amir Do‘stmuhammadxon 1826-yilda Afg‘onistonda Barakzoylar sulolasiga asos solgan. Uning davrida:

- Davlat boshqaruvida faqat Sadozoy urug‘iga mansub kishilargina hukmdor bo‘lish tartibiga butkul barham berdi;231
- Afg‘on hukmdorlardan birinchi bo‘lib “amir” titulini oladi;
- Davlat boshqaruvida o‘z yaqinlari, qarindosh-urug‘ va aka-ukalari xizmatidan voz kechib, bu vazifalarga o‘z o‘g‘illarini mas’ul etib belgilaydi;
- Mamlakatda qo‘shin tuzishga alohida e’tibor beradi232;

Tarixi Shaxruxiy asarda keltirilishicha Amir Do‘stmuhammadning tashrifini eshitgan Buxoro amiri Amir Nasrulloh unga elchi yuborib, o‘zining huzuriga mehmondorchilikka dav’at qiladi. Amir saroyiga kelgan Do‘stmuhammadni nazar pisand qilmay, unga hurmat ko‘rsatmaydi. Bu Do‘stmuhammadga og‘ir botgan bo‘lsada amirga turli tuhfalar va bir otni amirga sovg‘a qiladi. Oradan bir necha kundan so‘ng Buxoro amiri Do‘stmuhammadxondan o‘zi bilan olib kelgan barcha xizmatchilar, mulozimlarni amirga topshirishini so‘rab xabar yubordi. Do‘stmuhammadxon bundan ranjib, rad javobini berib, amirdan qaytib ketish uchun ruxsat so‘rashi, bunga javoban Buxoro amiri Do‘stmuhammadxon sovg‘a qilgan otni ham qaytarib berib yuborgani, Amir Do‘stmuhammadxon Balx sari ravona bo‘lib, uni kuzatgani amirning ishonchi kishilari va sarxanglari yuborilganligi, Do‘stmuhammadxonni ketishga qo‘ymay Amudaryodan o‘tishga

[230] Niyoz Muhammad Ho’qandiy. Ibratul xavoqin (Tarixi Shohruxiy) tojik tilidan tarjimon, o’zbek tilidan tabdil, kirish va izohlar muallifi tarix fanlar doktori, professor Sh.Vohidov.T., “Turon Zamon Ziyo”, 2014.-B. 435.

[231] Noelle, Ch State and tribe in nineteenth century Afghanistan: The reign of Amir Do’st Muhammad Khan (1826-1863). – Richmond, UK: Curzon, 1997.-P.12.

[232] Mannonov A.M., Abdullayev N.A., Rashidov R.R Afg’oniston tarixi. T.: “Barkamol fayz media”, 2018.-B. 126-127.

teshik qayiqlar qo‘yilganligi va Amir Do‘st Do‘stmuhammadxon noiloj ortga (Buxoroga) qaytgani bilan bog‘liq jihatlarni ko‘ramiz.233

Buxoroga qaytga amir Do‘stmuhammadxon To‘raxo‘ja naqib hovlisiga kelib tushadi. Buxoro amiridan yana xabar keladi amir Do‘stmuhammadxon ikki uch xizmatkoridan boshqa barcha xizmatkorlarini tarqatib yuborsin. Do‘stmuhammadxonning bundan ortiq chorasi qolmay, barcha xizmatkorlari tarqatib yuborib amirdan Shaxrisabzga ketish uchun ijozat so‘raydi, lekin bunga ham amir rozilik bermaydi.

Asarda keltirilishicha Amir Do‘stmuhammadxonning tarqatib yurilgan 50 nafar mulozimlari, farzandlari, kuyovlari, aka-ukalari Buxoroda mardikorlik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanganliklar keltiriladi.

Asardan shuni anglash mumkinki, Buxoroga kelgan afg‘on amiri Do‘stmuhammadxon ko‘p azob uqubat ko‘rib, hiyla ishlatib darvesh qiyofasida zo‘rg‘a Buxorodan Shaxrisabz tarafga qochadi234. U yerda tijoratchi Kabirxon afg‘on uyida bir necha kun turadi. Shaxrisabz hokimi Doniyolbek bilan aloqa bog‘lab, undan Turkiston va Xulmga o‘tib ketishi uchun yordam so‘raydi. Shaxrisabz hokimi Doniyolbek unga yordam berib, o‘z mulozimlari sulton Mahmudxon, Xo‘jaquli parvonachi, sayyid Hakimxo‘jalarni ham amir Do‘stmuhammadxonni kuzatish uchun yubordi. Amir Do‘stmuhammadxon Buxoroda bo‘lgan farzandlari amirzodalar Akbarxon va Sardor Ahmadxonlarga yordam berishini Doniyolbekdan iltimos qiladi. Amir Do‘stmuhammadxon Xulmga yetganida uning hokimi Muhammadaminbek uning hurmatini joyiga qo‘yib kutib oladi. Tez orada Shaxrisabzga qochib kelgan Amir Do‘stmuhammadxonning farzadlari Akbarxon va Sardor Ahmadxon ham Xulmga jo‘natiladi, u yerdan amir Do‘stmuhammadxon hamrohligida Kobul tarafga o‘tib ketadilar235.

Xulosa qilib aytganda Afg‘onistonning XIX asrning o‘rtalarida Buxoro amirligi bilan munosabatlarning ziddiyatli kechganligi, unda ikki davlat hukmdorlari o‘rtasidagi munosabatda yaqqol namoyon bo‘lganligi bilan bog‘liq jihatlar Tarixi Shahruxiy asarida imkon qadar ma’lumotlar berib borilgan. Lekin bu ikki davlat o‘rtasidagi to‘liq munosabatlari o‘rganish uchun muhim manba emas. Amir Nasrulloh va Amir Do‘stmuhammadxonlarning o‘zaro ziddiyatli munosabatlari bu davrdagi Buxoro va Afg‘oniston siyosiy munosabatlarining ham keskinlashuvini anglatadi. Bunda ayrim hududlarlarning yo Buxoroga, yoinkim Afg‘onistonga o‘tib ketishi bilan ham bog‘liq. Shunday bo‘lsada ikki qo‘shni

[233] Niyoz Muhammad Xo’qandiy. Ibratul xavoqin (Tarixi Shahruxiy) tojik tilidan tarjimon, o’zbek tilidan tabdil, kirish va izohlar muallifi tarix fanlar doktori, professor Sh.Vohidov.T., “Turon Zamon Ziyo”, 2014.-B. 436.

[234] Niyoz Muhammad Xo’qandiy. Ibratul xavoqin (Tarixi Shahruxiy) tojik tilidan tarjimon, o’zbek tilidan tabdil, kirish va izohlar muallifi tarix fanlar doktori, professor Sh.Vohidov.T., “Turon Zamon Ziyo”, 2014.-B. B.437.

[235] Niyoz Muhammad Xo’qandiy. Ibratul xavoqin (Tarixi Shahruxiy) tojik tilidan tarjimon, o’zbek tilidan tabdil, kirish va izohlar muallifi tarix fanlar doktori, professor Sh.Vohidov.T., “Turon Zamon Ziyo”, 2014.-B. 438-439.

davlat o‘rtasidagi aloqalar butkul uzulib qolmay savdo-sotiq munosabatlari davom etib turgan.

## KORONAVIRUS VA UNING YAQIN VA O‘RTA SHARQ MUAMMOLARIGA TA`SIRI

**K.J. Rahmonov,**
*BuxDU, Jahon tarixi kafedrasi dotsenti,*
**Sh.F.Sharipov,**
*BuxDU, II kurs magistranti*

2019-yil dekabrda Xitoyning Uxan shahrida boshlangan va 2020-yilda butun dunyo bo‘ylab tarqalgan COVID-2019 virusi insoniyat hayotining barcha jabhasida o‘z ta`sirini ko‘rsatdi. Tibbiyot, ta`lim, iqtisodiyot bilan birgalikda uning ta`sirini siyosat ham sezdi. Koronavirusning shiddat bilan tarqalishi ortidan dunyo siyosiy hayotida ayniqsa Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida ko‘plab o‘zgarishlar bo‘ldi. Buni avvalo Amerika va Eron munosabatlarida ko‘rish mumkin. Qosim Sulaymoniyning o‘ldirilgaanidan so‘ng Amerika va Eron munosabatlari yanada yomonlashgandi. Iroqdagi Amerika harbiy bazalariga Eronning, 13-mart kuni AQSh Iroqdagi XMK (Xalq mobilizatsiyasi kuchlari) joylashgan bir nechta harbiy bazalarga aviazarbalar berishi ahvol yanada og‘ir ekanligidan dalolatdir. Eronda koronavirus tarqalishi oqibatida Eronda ahvol juda og‘irlashdi. Negaki, iqtisodiy sanksiyalar tufayli Eron xorijiy davlatlar bilan aloqa qila olmayapti. Birinchi marotaba Eronda 2020-yilning 19-fevralida COVID-2019 bilan kassalngan bemor aniqlangan bo‘lib, bu holat Qum shahrida aniqlangan236. Qum shahri Eron shialari uchun muqaddas qadamjo joylashgan shahar hisoblanib, keyinchalik butun Eron, Afg‘oniston va Yaqin Sharq mintaqasining ko‘plab joylariga aynan shu yerdan kasallik tarqalgandi237. Eronda kasalanganlar umumiy sonining jadal sur`atlarda oshib borishi (umumiy 30 ming kishi kasallangan, shundan 2234 kishi vafot etgan238) dunyo hamjamiyati Eronga tibbiy va gumanitar yordam berishga shoshiltirmoqda, ammo AQSh sanksiyalari tufayli buni iloji yo‘q. Eron hukumati va Yevropa Ittifoqi rahbariyati esa AQSh - Eron munosabatlarini yaxshilash va iqtisodiy sanksiyalarni olib tashlash kerakligi haqida bong uryapti. Agar shunday holat yuz bersa bu O‘rta Sharqda yaqin kelajakda juda katta o‘zgarishlar mumkinligi dalolatdir.

O‘rta Sharq siyosatiga ta`sir o‘tkazgan Afg‘oniston masalasi ham koronavirus tufayli yanada jiddiy tus oldi. Chunki 40 –yillik urush natijasida Afg‘oniston sog‘liqni saqlash tizimi abgor ahvolga tushib qolgandi. Dastlab,

---

[236] https://www.washingtonpost.com/world/middle_east/the-middle-east-is-already-wracked-by-war-now-it-must-confront-coronavirus-too/2020/03/16/a233d2b0-62f8-11ea-8a8e-5c5336b32760_story.html
[237] https://www.aljazeera.com/news/2020/02/coronavirus-middle-east-200225124248535.html
[238] https://en.wikipedia.orgwikiCOVID-19_pandemic_in_Asia

Afg‘oniston muammosiga yechim topilganday edi. Bunga dalil sifatida shuni ko‘rsatish joizki, 2020-yil fevral oyida AQSh va “Tolibon”lar o‘rtasidagi tuzilgan shartnomadan so‘ng vaziyat yaxshilanishiga umid paydo bo‘lgandi. Hattoki, bir necha kun mobaynida o‘zaro shartnoma shartlariga muvofiq Tolibonlar o‘t ochmay ham qo‘yishgandi. Ammo, 2020-yilning mart oyida bir nechta qo‘poruvchilik harakatlaridan so‘ng Afg‘oniston hukumati “Tolibon”larni shartnoma shartlarni bajarmaslikda aybladi vba tinchlik sulhiga amal qilmayganligini ta`kidladi. 2020-yilning mart –aprel oylarida Afg‘onistonda koronavirus shiddat bilan o‘sib borishi Afg‘on masalsiga o‘zgacha nigoh b ilan qarashga da`vat etdi. Koronavirusning shiddat bilan tarqalishi ortidan dunyo hamjamiyati Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish va tinchlik sulhi tuzish borasida da`vatlari oshib bordi. 2020-yilning 17-aprel kuni BMT tomonidan Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish mazmunidagi online majlis bo‘lib o‘tdi. Majlisda Xitoy, Eron, Pokiston, Rossiya, AQSh, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston vakillari qatnashgan. Majlisda ishtirok etgan Afg‘oniston Prezidenti Ashraf G‘ani fikricha ham Tolibon sulhga ko‘nishi lozim, toki gumanitar tashkilotlar xodimlari epidemiyani jilovlash bo‘yicha ishini bajara olsin(17-aprel holatiga ko‘ra, mamlakatda virusni yuqtirlanlar 900 dan oshdi, o‘lganlar 30 nafarni tshkil etgan). Uning ta’kidlashicha, mamlakatda epidemiologik ahvol yomonlashib bormoqda. Mahalliy kuzatuvchilar fikriga ko‘ra, agar koronavirus Tolibon nazoratidagi hududlarga tarqalsa, guruh sulhga ko‘nishi mumkin. Parlament a’zosi Nilufar Ibrohimiyning aytishicha, sulhsiz tinchlik muzokaralari ham oldinga siljimaydi. Ammo hali hanuz o‘zaro sulhga kelingani yo‘q. Buning natijasi o‘laroq, koronavirus bilan kasallanganlar soni 2020-yilning 1-may holatiga ko‘ra Afg‘onistonda 2894 kishi kasallangan, shundan 397 kishi tuzalgan bo‘lsa, 90 kishi vafot etgan239. Ahvol shunday davom etaversa yaqin kelajakda Afg‘oniston kasallik tarqalish episentrigi bo‘lib qolishi, beundan esa ko‘plab insonlar jabr ko‘rishi mumkin. Shunday ekan yaqin vaqtlar ichida ikki tomon ham tinchlik erishuviga erishadi degan umiddamiz.

Koronavirusning shiddat bilan tarqalishi Yaqin Sharq mamlakatlarida ham tahlikali vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda. Avvalo, Yaqin Sharq mintaqasidagi fuqarolar urushi natijasida, bu yerlarda pandemiyaning tarqalishi bu hududda mavjud bo‘lgan mamlakatlarda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy mu`mmolarni yuzaga keltirishi mumkin. Jahon hamjamiyatining ta`kidlashicha avvalo kasallik qochqinlar orasida tarqalishi va ular orqali boshqa mamlakatlarga ham yoyilishi ehtimoli kuchlidir. Negaki Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida sodir bo‘lib turgan urushlar va nizolar tufayli qochqinlar soni juda katta miqdorda o‘sib ketgan (ba`zi ma`lumotlarga ko‘ra 80 million odam).Ommaviy axborot vositlarini xabar berishicha kasallik allaqachon Isroil-Falastin chegarasigacha yetib borib, Iordan daryosining g‘arbiy qirg‘oqdagi qochqinlar lagerida tarqala boshlagan. Bu holat esa Isroil va Falastin muammosiga o‘z tasirini o‘tkazmay qolmayapti. 2020-yilda Isroilda prezidentlik saylovlari bo‘lib o‘tadi. Hozirda Prezident bo‘lib turgan Netanhayu esa agar kasallik tarqalishini jilovlay olmasa (Isroilda hozirgi kunda

[239] https://tolonews.com/covid-19-tracker

umumiy hisobda 16237 kishi kasallangan, shundan 9858 kishi tuzalgan va 234 kishi vafot etgan240) saylovda g‘alaba qozonishi qiyin bo‘ladi, bu holat esa Falastin bilan munosabatlarni yangi muzokaralar stoli atrofida olib borishini anglatadi.

Dunyo hamjimatini jiddiy avotirga solayotgan yana bir masala bu – Arab davlatlari orasida 2011-yilda yuz bergan va butun arab mintaqasiga o‘z ta`sirini o‘tkazgan “Arab bahori”ning yana qayta boshlanishidan xavfsirashdir. Negaki, hozirgi iqtisodiy va siyosiy ahvol arab davlatlari uchun unchalik yaxshi emas. Dastlab Suriyadagi urush va uning Rossiya va Turkiya munosabatlariga ta`siri va buning ortidan Turkiya sayyohlik sanoatini keskin pasayishi (Turkiyadagi asosiy daromad manbalaridan biri bu -turizmdir), Liviyadagi fuqarolik urushi, Yamandagi ikki lager o‘rtasidagi urush ham arab davlatlarining asosiy “bosh o‘g‘rig‘i” edi. Ammo buning ketidan COVID-2019ning arab davlatlari orasida tarqalishi vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Quyidagi xaritada Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida kasallik tarqalish geografiyasini ko‘rishimiz mumkin.




Arab davlatlarining asosiy eksport mahsuloti –neftdir. Neft narxining keskin pasayib ketishi ortidan iqtisodiy ahvol tobora yomonlashmoqda. Masalan, bu holatni Liviya davlati misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Neft narxining tushib ketishi, neft terminallarining Xaftar armiyasi tomonidan qamalga olinishi va dushmanlashayotgan elitaning o‘z jangarilariga haq to‘lashdan bosh tortayotgani kabi holatlar koronavirusga qarshi tadbirlarni samarasiz qilmoqda. Mamlakatda siyosiy hokimiyat qurolli guruhlarga tobe ekan, mazkur guruhlar sog‘liqni saqlashdagi inqirozdan o‘z nufuz va ta’sirlarini yoyishda foydalanishi ham mumkin. Xaftar nazoratidagi jangarilar shimoliy Liviyadagi shifokorlarga koronavirus bilan bog‘liq vaziyat borasida haqiqatni aytgani uchun tahdidga

[240] https://en.wikipedia.org/wiki/Template:COVID-19_pandemic_data#cite_note-66

uchramoqda. Liviyaning bir tumanida koronavirus aniqlanadigan bo‘lsa, u holda mazkur tumanning aholisi jangarilarning shafqatsizligiga ham duchor bo‘lishi mumkin. Liviya bilan solishtirganda Yamandagi vaziyat anchayin dahshatli tus oldi. Yamanda urush va kasalliklar simbioz holatda yashamoqda. Hozirgi zamonda Yamanda yuzaga kelgan vabo kasalligini tarqalishi Saudiya Arabistoni boshchiligidagi koalitsiyaning Yamandagi shifoxonalarni, suv ta’minoti markazlarini havo hujumi nishoniga aylanishi natijasi hisoblanadi. Harbiy amaliyotlar natijasida bugunda yamanliklar ocharchilikni boshidan kechirib, yamanliklarning hayoti bugunda xorijdan keladigan yordam va yoqilg‘i importiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bugun Yamanda koronavirus bilan bog‘liq holat qayd etilmaganini, avvalo, mamlakatda virusni aniqlashga yordam beradigan testlarning mavjud emasligi bilan izohlash mumkin. Koronavirus pandemiyasi kuchayadigan bo‘lsa, yamanliklar koronavirus va ocharchilik o‘rtasida qolib ketadi. Harbiy amaliyotlar Yamandagi sog‘liqni saqlash tizimini parokanda qildi, shifokorlar mamlakatdan qochib chiqmoqda. Virus tarqaladigan bo‘lsa, aholi zich yashaydigan mamlakatda yanada ko‘proq qurbonlar bo‘lishi, mamlakatda jangari guruhlar hokimiyatni o‘z qo‘liga olishi mumkin241.

Xulosa o‘rnida shuni ta`kidlash lozimki, koronavirusning dunyo bo‘ylab tarqalishi juda katta muammolarni tug‘dirmoqda. Agar yaqin vaqtlar ichida uni bartaraf etish choralari topilmasa, Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi davlatlari va ularning hayot tarziga juda katta o‘nglab bo‘lmas ta`sir ko‘rsatishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. https://www.washingtonpost.com/world/middle_east/the-middle-east-is-already-wracked-by-war-now-it-must-confront-coronavirus-too/2020/03/16/a233d2b0-62f8-11ea-8a8e-5c5336b32760_story.html
2. https://www.aljazeera.com/news/2020/02/coronavirus-middle-east-200225124248535.html
3. https://en.wikipedia.orgwikiCOVID-19_pandemic_in_Asia
4. https://tolonews.com/covid-19-tracker
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Template:COVID 19_pandemic_data#cite_note-66
6. https://daryo.uz/2020/04/11/koronavirus-arab-dunyosini-yana-tolqinlantirib-yuboradimi-covid-19ning-immun-tizimiga-tasiri-qanday-jahon-matbuoti-koronavirus-haqida.


## МЎҒУЛЛАР ИМПЕРИЯСИДАГИ ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИК СИЁСАТИНИНГ ҲОЗИРГИ АҲАМИЯТИ


**К.Ж. Раҳмонов,**

*БухДУ, Жаҳон тарихи кафедраси доценти,*


[241] https://daryo.uz/2020/04/11/koronavirus-arab-dunyosini-yana-tolqinlantirib-yuboradimi-covid-19ning-immun-tizimiga-tasiri-qanday-jahon-matbuoti-koronavirus-haqida/

**Ж.Л. Латипов,**
*БухДУ магистранти*

Ҳар бир давлатда дин сиёсатини тўғри ташкил этиш бошқарувнинг энг нозик жиҳати бўлиб ҳисобланади. Ортодоксал диний тамойиллар ва демократик анъаналар диний ақидапарастликни рад этади. Аслини олганда эса, бу барча даврлар учун ҳам оқилона қарордир. Бугунги кунда ер юзининг турли минтақаларида диний мутаассиблик авж олиб, динлараро муносабатлар кескинлашишидан фойдаланган ҳолда ўз манфаатлари учун минглаб инсонларни қирғин қилишга тайёр турган қарама-қарши гуруҳлар шаклланганлиги ҳеч кимга сир бўлмай қолди. Жамиятдаги турли диний низоларнинг олдини олиш, аҳолининг диний можароларга аралашиб қолмаслиги учун ҳар бир индивид, айниқса, ёшларни тарбиялашда диний бағрикенглик тамойилларига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Бу жараёнда эса тарих фанининг алоҳида ўрни бор.

Толерантлик тамойилларига содиқликнинг тарихдаги энг ёрқин намунасини Соҳибқирон Амир Темур даврида ўрнатилган дин сиёсатида кузатиш мумкин. Ушбу диний бағрикенглик сиёсатининг асосларига, шубҳасиз, асрлар давомида шаклланган Шарқ халқларининг анъаналари таъсир ўтказган бўлиб, бу каби оқилона сиёсат ўрта аср йирик давлатларининг ҳукмдорлари амалга оширган ислоҳотларда ҳам баъзи ҳолларда кўзга ташланади. Масалан, XIII асрнинг бошларида Узоқ Шарқдан Сурияга қадар ҳудудда ўз давлатларини тузган мўғулларнинг дин сиёсати бу борадаги энг типик ҳолат ҳисобланади.

Мўғуллар давлатидаги диний эркинлик сиёсатини, энг аввало, Чингизхон бошлаб берган эди. У ўрнатган қонунларига кўра, ҳеч бир диний эътиқодга жамиятда ҳукмрон мақомга эга бўлиш ваколати берилмайди. Чингизий хонзодалар ҳам дастлабки даврларда бу қоидага қатъий амал қилганлар. Натижада ҳар бир диннинг ўз фаолиятини эркин ташкил этиши учун замин яратилган. Шунингдек, бу даврда исломнинг бир неча юз йиллик устунлик мавқеи пасайиб, марказий ҳокимият вакиллари қаторига бошқа дин вакиллари ҳам кўтарила бошладилар. Уларнинг аксариятини христиан дини вакиллари ташкил этган бўлиб, ҳатто, улар ҳукмдорларга таъсир ўтказиш даражасигача етиб боргандилар. Масалан, Эрондаги мўғул Элхонийлар сулоласи (1256-1357 йй)дан Хулагухон (1256-1265 йй), Абақахон (1265-1282 йй), Арғунхон (1284-1291 йй) христианлик динига эътиқод қилган аёлларга уйланган ва салтанатларида бу дин ривожи учун кенг йўл очган эдилар. Бундан ташқари, Жўжи авлодидан бўлган Олтин Ўрда хонлиги (1236-1481 йй) саркардаси Нўғай христианликка эътиқод қилганлиги билан боғлиқ далиллар мавжуд. Аммо, бу жараён ислом дини ривожига халақит бермаган. Элхонийлардан бўлган Ўлжойтухон (1304-1316 йй) дастлаб христианлик

динига эътиқод қилган бўлса-да, кейинчалик ислом динига ўтиб, Муҳаммад номини олади242.

Мўғул ҳукмдорларининг диний эркинлик сиёсати Марказий Осиёда христиан динининг мелькитлик, арман черкови, яковитлар черкови каби бир вақтлар Византия империясидан еретикликда айбланиб, қувғин қилинган секталарнинг кенг тарқалишига йўл очган. Тарихий адабиётлардаги маълумотлар XIV аср бошларида хоразмлик христианларнинг аксарияти Антиохия патриархига бўйсунганлигини тасдиқлаб турибди243. Бу эса уларни мелькит ёки яковит мазҳабларига эътиқод қилган, дея хулоса беришимизга асос бўла олади.

Мўғуллар ҳукмронлиги даврида Ўрта Осиёда бўлган Марко Поло Самарқандда ҳам христиан дини мазҳабларидагиларнинг анчагина салмоққа эга эканлигини ёзиб қолдирган. Шунингдек, унинг маълумотларида Чиғатойхоннинг христианлик динига ўтиши ва Самарқанддаги христианлар бундан хурсанд бўлиб, авлиё Иоанн номидаги черков қуриишлари ҳақида ёзилган244.

Мўғул ҳукмдорлари, жумладан, Чиғатой улуси хонларининг айни шу даврдаги фаолияти католик миссионерлари фаолиятининг ҳам кенгайишига йўл очган. Чангшихон (1335-1338 йй), асосан, буддавийликка ҳомийлик қилган бўлса-да, католик мазҳаби тарғиботи ҳам миссионерлар томонидан эркин давом эттирилган. Жумладан, Чангши католик тарғиботи учун Хитойга йўл олган францискан ордени руҳонийси Николайни Олмалиқда қабул қилади. Унинг вазирлари, несториан мазҳабига эътиқод қилувчи Карасман ва Юхононлар папа тайинлаган Олмалиқ епископига шаҳар атрофидан катта ер-мулк ҳадя этадилар ҳамда бу ердаги черков қурилишига ҳомийлик қиладилар245.

Чингизхон ўз империясига асос солган вақтларда мўғулларнинг асосий қисми шомонлик (қам) динига эътиқод қилар эди. Тарихий манба ва адабиётларнинг гувоҳлик беришича, Темучиннинг отаси билан яқин алоқада бўлган, уряут қабиласидан Мунглик исмли жангчининг ўғли Кўкчу башоратчи ва руҳлар билан мулоқотга кириша оладиган қудратга эга эди. Мўғуллар уни Тэб-Тангри, яъни “тангри бути” деб атаганлар. Айнан Кўкчу Темучиннинг улуғ жаҳонгир бўлишини башорат қилиб, унга улкан империя тузиш ғоясини берган ҳамда 1206 йили Онон дарёси бўйидаги қурултойда

---

[242] Орзиев М.З., Латипов Ж.Л. Мўғуллар истилоси ва темурийлар даврида динлараро муносабат. – Бухоро: Дурдона, 2018. – Б.6-7.

[243] Бартольд В.В. О христианстве в Туркестане в домонгольский период (По поводу семиреченских надписей) // Сочинения. Том II, часть 2. – М.: Наука, 1964. – С.286.

[244] Книга Марко Поло. Серия: Путешествия. Открытия. Приключения. – Алма-Ата: Наука, 1990. – С.70.

[245] Груссэ Р. Империя степей. Атилла, Чингиз-хан, Тамерлан. Перевод Х.Хамраева. – Алматы, 2006. – С.380., Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья // Сочинения. Том II, часть 1. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – С.76.

Темучинга “Чингизхон” номини берган246. Мўғуллар ҳукмронлиги даврида ўлкамизга шомонлик эътиқоди билан бир қаторда Хитой эътиқодий анъаналари ҳам кириб келган эди. Жумладан, турк-мўғул анъаналаридаги йил ва ойларнинг қандайдир жониворлар номи билан аталишида ҳам Хитой анъаналарининг таъсири бор. Расман ҳайвонларга эътиқод қилинмаса-да, уларга қадимги даврларда сиғинилган ҳамда бунинг диний қарашлардаги таъсири сезилиб турар эди.

Шомонлик динида мўғулларнинг бошқа дин вакилларига нисбатан диний бағрикенглик нуқтаи-назаридан муносабатда бўлишларига ҳеч қандай тўсиқ ва чекловлар йўқ эди. Улуғ юрт ҳоқонлардан бири Мункэ қоон (1251-1259 йй) турли дин вакилларининг мушоҳадаларини тинглагандан сўнг: “Биз Тангрига, унинг амри билан яшаётганимизга ва ўлажагимизга ишонамиз. Тангри сизга берган китобларига муқобил бизга коҳинлар (қомлар – шомонлар) берган. Биз уларнинг айтганини адо этамиз ва осуда ҳаёт кечирамиз247”, – деб таъкидлайди. Бу эса дастлабки даврда мўғулларнинг бошқа динлар таъсирига тушмаганликларини кўрсатади.

Буддавийлик дини ҳам мўғуллар истилоси даврида бошқа динлар билан бир қаторда ўзининг эркин тараққиётига эришди. Бунинг сабаби шуки, дастлабки даврларда мўғул ҳукмдорларининг кўпчилиги буддавийликка эътиқод қилардилар. Масалан, элхоний Хулагухон, Абақахон ва Арғунхонлар христиан динига эътиқод қилган аёлларга уйланган бўлсалар-да, уларнинг ўзлари буддавийлик динига эътиқод қилишни лозим топганлар248. Кўриниб турибдики, дин масаласидаги номувофиқлик мўғул ҳукмдорларининг оила қуришига халал берувчи восита ҳисобланмас эди.

Ўрта Осиёда яҳудийлик дини ислом кириб келмасидан анча илгарироқ ёйилган бўлиб, унга эътиқод қилувчилар кейинги даврларда ҳам сақланиб қолган. Мўғуллар салтанатида яҳудийларнинг мансаб ва амалларни эгаллашлари енгиллашиб, турли улусларда уларнинг вакиллари қудратли амалдорларга айлана бошлайди. Тарихий адабиётлардаги маълумотлар асосида XIII-XIV асрларда яҳудийлик дини ривож топиб борган, дея хулоса қилиш мумкин. Манбаларнинг бирида ёзилишича, Эрон хулагуийлар сулоласидан бўлган ҳукмдор Арғунхон саройида яҳудийликка эътиқод қилувчи Саъд уд-давла ҳукмдорнинг бош вазири, шахсий врачи лавозимларини эгаллаган249. Бу эса яҳудийлар ва ушбу диннинг тарқалиши

[246] Кычанов Е.И. Жизнь Темучжина, думавшего покорить мир: Чингис-хан. Личность и эпоха. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН; Школа-Пресс, 1995. – С.29.

[247] Басилов В.Н. Шаманство у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1982. – С.10.

[248] Bausani A. Religion under the Mongols // The Cambridge History of Iran, vol.5: The Saljuq and Mongol periods, ed. by J.A. Boyle. – Cambridge: Cambridge University Press, 1968. – P.540-541.

[249] Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Том III. Пер. с персидского А.К. Арендса, под ред. А.А. Ромаскевича, Е.Э. Бертельса и А.Ю. Якубовского. – М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1946. – С.118.

учун мўғул империясида кенг йўл очилганлигини англатади. Шунингдек, мўғуллар ҳукмронлиги даврида халқаро савдодаги яҳудий динига эътиқод қилувчиларнинг роли ошиб боради.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб бемалол айта оламизки, мўғулларнинг диний эътиқодда эркинлик бериш сиёсати барча динлар тараққиётига йўл очади. Мўғуллар истилоси даврида христианликнинг турли мазҳаблари, шомонлик (қам), буддавийлик ва бошқа динларнинг ривожланиши ва ўз мухлисларининг эркин эътиқод қилишлари учун кенг имконият яратилди. Айни пайтда, кўпгина мўғул хукмдорларининг исломдан бошқа динларни рағбатлантириши мусулмон тарихий адабиётларида уларнинг ислом динига зуғум қилувчи, таъқиб ўтказувчилар сифатида баҳоланишига ҳам сабаб бўлган эди.

Чингизхон давридан бошлаб амалга оширилган диний бағрикенглик сиёсатини дастлаб мўғул ҳукмдорлари, сўнгра Амир Темур ва темурийлар давом эттирганликлари ушбу давлатларда марказий ҳокимият қудрати кучайишининг асосий омилларидан бири эди. Ушбу омил турли миллат ва дин вакилларининг тинч-тотув ҳаёт кечиришлари учун шароит ҳозирлаган. Мўғуллар империяси ва Амир Темур империясида ҳукмдорлар фаолиятининг кенг халқ оммаси томонидан қуллаб-қувватданиши эса фуқароларнинг эътиқод эркинлигига бўлган жавоби эди. Биз эса Чингизхон ва Амир Темурнинг диний бағрикенглик сиёсати давлатнинг мустаҳамлиги кафолати бўлганлигини инобатга олган ҳолда бу сиёсат уларнинг улуғворлик сифатларидан бири эканлигини бемалол эътироф эта оламиз ҳамда ўрнак сифатида тан оламиз.

## TURKISTON LEGIONI VA  URUSHNING ACHCHIQ SAHIFALARI

**O.Alimov**
*BuxDU Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha)*
*mutaxasisligi I bosqich magistranti*
**SH.A.Hayitov**
*t.d.professori*

Tarixiy voqelik bizdan qancha uzoqlashsa, uning hamon noma'lum qirralari shunchalik namoyon bo'lib, jamiyatlar gumanitarlashib borgan sari o'tmish fojialari har bir vijdonli va iymonli insonni larzaga keltiradi. Fashistlar Germaniyasining insoniyat sivilizatsiyasiga nisbatan vahshiyona munosabati va uni harbiy harakatlar orqali yo'q qilishga urinishlari, millionlab kishilarni ko'z ko'rib, quloq eshitmagan azoblarga duchor qildi. Nemis-fashistlarining konslagerlarida ming-minglab kishilar hayvonlarcha munosabatning qurboni bo'ldilar. Hayotda yashab qolganlar esa, "Vatan xoini", "sotqin" tamg'asi ostida uzoq vaqt yashirinib yurishga majbur bo'ldilar, ayrimlari esa abadul-abad vatanjudolikka mahkum qilindilar. Ikkinchi jahon urushi yillarida asirga tushgan sovet fuqarolari, ular taqdirlari masalasi hamon to'la o'rganilmagan sohalardan biri

bo‘lib qolmoqda.[250]Bundaylar orasida o‘zbek (turkistonlik) lar ham oz sonli emasdi. Sovetlar davrida yozilgan O’zbekiston tarixi darsliklari, qo’llanmalari va xatto tor doiradagi ziyolilar uchun mo’ljallab chop etilgan monografik ilmiy asarlar va risolalarda ham «Turkiston legioni» haqida hech narsa yozilmagan. Chunki u haqida yozish kommunistik firqa mafkurasi va sovetlar siyosatiga to’g’ri kelmas edi. Holbuki, «Turkiston legioni» ham Vatanimiz tarixi ikkinchi jahon urush davrining ajralmas tarikibiy bir qismidir. Shunday ekan O’zbekiston fuqarolari, xususan kelajagi buyuk O’zbekistonni barpo etadigan yosh avlod Vatanimiz tarixining ikkinchi jahon urushi davridagi to’la qonli tafsilotini, shu jumladan «Turkiston legioni» haqida ham bor haqiqatni bilmog’i va unga o’zining shaxsiy munosabatini bildirmog’i kerak.

Turkiston legioni» 1941 yilning oxiri 1942 yilning boshlarida shakllandi. Uning asosini urushda asir olingan Turkistonliklar tashkil qildilar. Yozma manbalarning guvohlik berishicha Sovet Ittifoqi bilan Germaniya o’rtasidagi urushning ilk yillari (1941-1942)da sovetlarning G`arbiy jabhasida taxminan 2 millionga yaqin turkistonlik askar bo’lgan. Urush davrida to’plangan ma'lumotlarga qaraganda, 1943 yilda Qizil Armiyaning faqat 6 harbiy qismida, ya'ni Minsk, Kiev, Moskva, Leningrad, Uzoq Sharq va Shimoliy Kavkazda 1.179.802 turkistonlik askar bo’lgan. Faqat Kiev va Minsk qismlarida 997.892 nafar edi[251]. Ana shu turkistonlik Qizil Armiya askarlarining kattagina qismi nemislar tomonidan asir olindi. To’rg’ay shahrida joylashgan Germaniya harbiy asirlari Boshqarmasining 1943 yilda bergan ma'lumotlariga qaraganda urushning dastlabki yillaridayoq (1941-1942) sovetlar armiyasidan 1.700.00 ga yaqin turkistonlik asir olindi. 1942 yilning yoziga qadar bulardan faqat 400 ming kishi eson qoldi[252], qolganlari ochlik, kasallik, sovuq tufayli qirilib ketdi, bir qismi otib tashlandi. «Turkiston legioni»ning asosini ana shu asirlar tashkil etdi.

Turkiston legioni 1942 yil bahorida bevosita harbiy harakatlarga kirgan bo‘lsa, ko‘p o‘tmay MTBK(Milliy Turkiston Birligi Komiteti ) ham tashkil topgan. MTBKda boshqaruv ishlarini 1920 yillarda Turkistondan Germaniyaga o‘qish uchun yuborilgan 74 nafar o‘quvchi va talabalardan biri Vali Qayumxon (1904-1993 yy.) o‘z qo‘liga olgandi[253]. Vali Qayumxon urush yillarida Germaniyada muqim yashab qolgan birdan bir turkistonlik sobiq talaba hisoblanadi.

Urushning boshidayoq bunchalik ko’p sonlik turkistonlikning nemislarga asir tushganligining boisi, sababi nimada? Albatta sabablar ko’p. Ana shu sabablardan **Birinchisi**, turkistonliklar sovetlar hokimiyati yillarida muntazam armiyada xizmat qilish malakasidan mahrum etilgan edilar, aniqrog’i urush boshlangan davrda O’rta Osiyo respublikalarining birontasida muntazam milliy armiya bo’lmagan. Chunki

---

[250] **SH.Hayitov .2-jahon urushi: Asirlarning taqdiri va fojiali hayot lavhalari.Buxoro 2015y 3-bet**
[251] **«Sharq yulduzi», 1992 yil, 3-son, 152-bet**
[252] **«Muloqot», 1992 yil, 3,4-son, 43-bet.**
[253] **SH.Hayitov .2-jahon urushi: Asirlarning taqdiri va fojiali hayot lavhalari Buxoro 2015y 17-bet**

sovetlar turkiy xalqlariga ishonmas, ularni ikkinchi toifa xalq hisoblar, eng muhimi ulardan qo'rqar edi. Shu bois turkiy xalqlarning milliy armiyasini yo'q qildi. 1935 yil oxirlariga qadar Turkiston turklari sovetlar armiyasiga safarbar qilinmas edi. 1935 yilda qabul qilingan *«Sovetlar armiyasiga safarbarlik» qonuniga* asosan 1935-1938 yillar ichida turkistonliklar Qizil Armiya xizmatlariga bir oz bo'lsa olingan edi. 1939 yilning oxirlariga kelganda turkistonliklardan armiyaga olish ancha ortdi. Chunki Sovet Ittifoqi bilan Finlyandiya o'rtasida urush boshlangan edi-da. 1941 yil iyunda Germaniya bilan Sovet Ittifoqi o'rtasida urush boshlangandan so'ng esa, Turkiston turklarini 18 yoshdan 65 yoshgacha hammasini yoppasiga urushga safarbar qilindi. Ma'lumotlarga qaraganda 1941-1943 yillar davomida taxminan 4.847.775 turkistonlik sovetlar armiyasiga safarbar qilingan edi. Ularning aksariyati hech qanday tayyorgarliksiz front jabhasining oldingi chizig'iga tashlangan edilar. Toshkent, Samarqand, Qarshi, Termiz, va boshqa shaharlarida milliy gvardiya va diviziyalar tashkil qilinib, ularga hech qanday harb ilmidan saboq bermasdan va maxsus tayyorgarlikdan o'tkazmasdan armiyaga jo'natildi. Bu ishda ham «buyuk rus» mustamlakachiligining o'ziga xos shovinistik va jirkanch maqsadlari o'z ifodasini topdi. Bu avvalo urush vositasi bilan turkiy musulmonlarni qirib tashlash va jismonan yo'q qilish bo'lsa, ikkinchidan, turkiylarni urush olib borishga «yaroqsiz xalq», «ikkinchi sort millat» ekanligini amalda isbotlash va shu asosda turkiy millatlar davlatchiligining asoslaridan biri bo'lgan muntazam o'z armiyasiga ega bo'lishini abadul-abad barbod qilish edi. Konstitutsiyada teng huquqli «suveren respublika» hisoblangan O'zbekiston sovetlar davrida o'zining milliy armiyasidan mahrum bo'ldi. Buning uchun turkiy xalqlarning Germaniya qo'shinlariga qarshi mustaqil «jang qilishga qodir emasliklari» eng «ishonchli» asos bo'ldi. Chunki tish-tirnog'iga qadar zamonaviy qurollar bilan qurollangan nemis qo'shinlariga qarshi turgan turkistonlik qizil qo'shinlar urushning dastlabki bosqichlarida dushmanga deyarlik qarshilik ko'rsata olmadilar. Nega deganda ular maxsus tayyorgarlikdan o'tmaganliklaridan tashqari umuman, qurolsiz bir holatda jangga tashlangan edilar. *General Sobir Rahimov qo'mondonligidagi mashhur 37-diviziyada xizmat qilgan, generalning tutingan o'g'li, jasur razvedkachi, vatandoshimiz, urush va mehnat faxriysi, Toshkent shahar Sergeli tumani urush va mehnat faxriylari kengashining raisi polkovnik Xurram Ashurov bergan ma'lumotlarga qaraganda urushning dastlabki bosqichlarida Turkistondan borgan jangchilarning har uchtasidan bittasiga haqiqiy jangovar miltiq, qolgan ikkitasiga esa yog'ochdan tayyorlangan «miltiq» va 15 donadan patron berilgan ekan. Natijada ular dushmanning yopirilib qilgan hujumiga bardosh berolmay gangib qoldilar va yoppasiga asir tusha boshladilar.*

Ikkinchisi, urushning dastlabki bosqichlarida turkistonlik Qizil askarlarning ma'naviy ruhiy holatlari ham tushkun holatda bo'lgan. Chunki kompartiya Markziy Qo'mitasi qabul qilgan qaror bo'yicha 1937-1939 yillarda O'rta Osiyo respublikalaridan taxminan 2 millionga yaqin kishi qamoqqa olingan edi[254].

[254] **«Sharq yulduzi», 1992 yil, 3-son, 152-bet**

Albatta bu hol armiya safiga chaqirilgan askarlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qilgan edi.

Uchinchisi, fashistlar Germaniyasining tashviqot-targ’ibot mashinasi ham barcha rus bo’lmagan millatlar vakillariga, jumladan turkistonliklarga qarata ham faol ish olib bordi. Mahkamasi Minsk shahrida bo’lgan general Mirshakar boshchiligidagi turkistonliklarning ma'lum bir qismi ko’r-ko’rona shu targ’ibotga ishonib o’z ixtiyori bilan nemislarga asir tushgan vatandoshlar ham bo’ldi. Fashistlar qo’mondonligi asirga olingan turkistonliklarni yoppasiga qirib tashlay boshladi.

Ikkinchi jahon urushining to‘la o‘rganilmagan sahifalaridan biri – harbiy asirlar masalasidir. 1940 yilda O‘zbekiston SSR aholisi 6,6 mln. kishini tashkil etgan. Urush tugagan birinchi yilda respublika aholisining soni 5,2 mln. kishiga kamaygan. Turkiston mintaqasidan 4,5mln kishi frontga jalb kilingan bo‘lsa, shundan 1mln. 700 ming kishi asir tushdi. Nemis - fashistlari tomonidan sovet xarbiy asirlariga bir kunda ko‘pgina konslagerlarda 300-350g miqdorda non berishgan. Sovet asirlari yarim och, yupun holda alohida rejim asosida saqlangan[255]. Gitlerchilar Germaniyasi tomonidan sovet harbiy asirlarini qat’iy rejim asosida ushlab turilishining sababi, SSSR 1907 yildagi Gaaga konferensiyasi deklaratsiyasi xamda 1929 yildagi Jeneva konferensiyasiga a’zo bo‘lib kirmaganligi, deb ko‘rsatdi. 1941yil 16 avgustda SSSR Davlat Mudofaa Komitetining 270-Buyruqda sovet kishisi asir tushmasligi, mabodo harbiy asirga tushsa, bundaylarning oilasi Vatanni sotgan qo‘poruvchining oilasi sifatida qamoqqa olinishi,davlat yordami va taksimotidan mahrum etilishi kayd etilgan edi.Shuningdek ”xalqlar otasi” I.V. Stalin 1943 yilning bahorida ”Rus (sovet) asirlari yo‘q va bo‘lmaydi ham, rus askari o‘lguncha kurashadi, agar asirga tushsa, u sovet jamiyatidan o‘chiriladi”,-tarzida qat’iy fikr bildirgandi. Sovet asirlari Konslagerlarda ularga vahshiy hayvonlardek munosabatda bo‘lishar, och ahvolda 15-16 soatlab ishlatishar, sovuqda tik turg‘izib qo‘yishar, qochmoqchi bo‘lganlarni itlarga talatishar va o‘sha zahotiyoq otib tashlashar, ayrim asirlar ustida tajriba o‘tkazishardi.

Mustafo CHo‘qay (1890-1941) Sulutsk, CHnestaxov, Vustrau kabi fashistlarning konslagerlarida bo‘lib, sovet asirlarining ahvoli ayanchli va fojiali ekanligiga shaxsan guvoh bo‘lgan. M.CHo‘qayning ko‘z oldida fashist qo‘riqchilaridan biri sovet asirining ko‘ksiga pichoq urib uning yuragini qo‘riqchi itiga olib otgan. Sovet xarbiy asirlarini avval vaqtinchalik, lagerlarda to‘plashardi, so‘ngra tovar va mol yuklaydigan vagonlarda 50-100 tadan qilib joylashardi. Ustma-ust yuklangan, havosi bo‘lmagan vagonlarda harbiy asirlarning bir qismi

---

[255] **SH.Hayitov .2-jahon urushi: Asirlarning taqdiri va fojiali hayot lavhalari Buxoro 2015y 19-bet**

hayotdan ko‘z yumgan, bundaylarni ayrim stansiyalarda to‘xtab vagonlardan to‘g‘ri jarliklarga uloqtirishgan. Sovet harbiy asirlari uchun Vatandan oz bo‘lsada umid yo‘q edi.

Vali Qayumxonning ko’z o’ngida minglab turkistonliklar behuda o’lib ketayotgan edilar, ular Vali Qayumxonning vatandoshlari, jigargo’shalari edilar. Shunday vaziyatda u Parijda yashayotgan Mustafo Cho’qay bilan umumiy til topib, harbiy asirlarni bekordan bekorga qirib tashlaguncha ulardan foydalanish yo’lini taklif qildilar. Bu taklif nemis qo’mondonligiga ma'qul tushdi. Vali Qayumxon «Turkiston legioni»ni tuzish g’oyasini ko’tarib chiqdi va uning Prezidenti bo’ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak asir tushgan vatandoshlarimiz vatan xoinlari emas edi. Ular o’z oilasidan ya’ni ota-onasi, opa-singillari va farzandlaridan uzoqda azob uqubatlarga duchor etilgan vatanimizning asil farzandlari edi. Ularni unutishga va vatan xoini deyishga haqqimiz yo’q.«Turkiston legioni»ni tuzishda kim qanday maqsadni o’z oldiga qo’yganligidan qat'iy nazar, hayot bu qo’yilgan qadamning o’z vaqtida va to’g’ri qo’yilgan qadam bo’lganligini isbotladi. «Turkiston legioni» minglab turkistonliklarning hayotini saqlab qoldi.Ana shu jihatdan Vali Qayumxon singari turkistonliklarning urush yillaridagi bu boradagi xizmatlari katta albatta. Faqat Vali Qayumxon va «Turkiston legioni» boshqa fidoyilarning o’sha davrdagi faoliyatiga hozirgi mustaqil O’zbekiston fuqarosi g’oyalari va ko’z qarashlari asosida baho bermoq kerak bo’ladi. Shundagina biz vatandoshlarimiz ikki dahshatli o’t orasida qolib bekordan-bekorga qirilib ketmaslik uchun birdan-bir to’g’ri yo’lni tanlaganliklariga imonimiz komil bo’ladi. Shundagina biz vatandoshimiz Vali Qayumxonning xizmatlariga etarli baho beraolamiz. Chunki sovetlar davrida Vali Qayumxon singari vatanim, millatim deb jonini jabborga berganlar «vatan xoini», «vatan sotqini» singari asossiz qora tamg’alar bilan ayblandilar. Amalda esa ularning faoliyati va xarakatlarida «xoinlik» va «sotqinlik»dan zarracha bo’lsa asorat yo’q edi. Chunki Vali Qayumxon Turkiston va turkistonliklarga zarracha bo’lsada xiyonat va xoinlik qilgan emas. Aksincha u Turkiston va turkistonliklarni Qizil saltanat mustamlakachiligi zulmidan ozod qilish uchun kurashdi.

## ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ВА ОЧАРЧИЛИК –ИНСОНИЯТНИНГ ГЛОБАЛ МУАММОСИ

**О.Р. Рашидов,**
*т.ф.ф.д., доцент,*
**Д. Рахматова,**
*БухДУ, I kurs магистранти*

XX асрнинг иккинчи ярмида инсоният олдида жуда кўп ва мураккаб муаммолар вужудга келди, уларнинг асосий қисми таъсир доирасининг миқёси ва аҳамиятига кўра глобал муаммолар номини олди.

Бутун дунёни қамраб олган, инсониятнинг бугунги куни ва келажагига хавф солувчи, ечимини топишда барча давлатлар ва халқларнинг ҳамжиҳатлик билан биргаликда ҳаракатини талаб қилувчи муаммолар глобал муаммолар деб аталади. Глобал муаммолар аҳоли, иқтисодий-ижтимоий тараққиёт ва атроф- муҳит ўртасидаги ўзаро муносабатлар натижасидир.

Ҳозирги глобал муаммолар кўп жиҳатдан инсониятнинг аввалги бутун фаолияти, умуман, жамият ривожланишининг натижасидир. Глобал муаммоларнинг инсоният ҳаёти ва фаолиятининг барча томонларига салбий таъсирлари кучайиб бораётгани, уларни ҳозирги босқичда ва келажакда ҳал қилиш борасидаги қийинчиликлар фан-техника тараққиёти асосидаги иқтисодий ўсиш суръатларининг катталиги билан боғлиқ. Ҳозирги вақтда қирққа яқин глобал муаммолар мавжуд бўлиб, улар ичида асосийларини экологик, демографик, озиқ-овқат, қуролланиш, ядро қуролини тарқатмаслик ва ядро урушининг олдини олиш, халқаро хавфсизлик ташкил қилади.

Озиқ-овқат муаммоси қолганлари орасида энг узоқ тарихга эга. Даврий равишда у инсоният ривожининг барча босқичларида юзага келди. Бунда озиқ-овқат ишлаб чиқариш бўйича жаҳон ҳамжамиятининг имкониятлари ҳозирги вақтда бутун ер юзи аҳолисини боқиш учун етарли. Охирги ўн йилликларда бу муаммони фақат энг ривожланган мамлакатларда тўлиқ ҳал қилишнинг уддасидан чиқилди. Бироқ мамлакатлар ва минтақалар бўйича озиқ-овқат маҳсулотларининг нотекис тақсимланиши шунга олиб келадики, Ер юзида очарчилик ҳиссини ҳозирги вақтда 600 млн дан 700 млн гача аҳоли бошдан кечирмоқда256.

Ўзбекистон Миллий Энциклопедиясида очарчилик тушунчаси қуйидагича таърифланади: “Очарчилик — иқтисодий таназзул, инқироз ва танглик оқибатида жамият микёсида юзага келадиган кескин озиқ-овқат танқислиги. Очарчилик ижтимоий ҳодиса бўлиб, урушлар, қурғоқчиликлар, табиий офатлар, зилзилалар, ҳар хил экологик фалокатлар ва бошқа табиий ҳодисалар натижасида муайян мамлакатда оммавий тус олиши мумкин. Очарчилик 2 хил: очиқ (мутлақ очарчилик) ва яширин (нисбий очарчилик — тўйиб овқат емаслик, овқатланиш рационида ҳаётий зарур озиқ-овқат турларининг етишмаслиги) кўринишларда намоён бўлади. Ҳар икки шаклда ҳам очарчилик оғир оқибатларга — турли юқумли ва руҳий касалликларга, аклий ва жис-моний ривожланиш жараёнларининг издан чиқишига, ногиронларнинг кўпайишига, кўплаб бевақт ўлимга олиб келади”257.

Очликнинг бир кўрсаткичи - бу беш ёшгача бўлган болаларнинг вазни камлиги. Ривожланаётган ҳудудлар бўйича бу кўрсаткич ўртача пасайишда

---

[256] Захирова Г.М. Глобаллашув ва миллий иқтисодиётни модернизациялаш масалалари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2015, №5. –Б.33.
[257] ЎзМЭ. Биринчи жилд. О ҳарфи. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти –2000. –Б.293

давом этмоқда: 1990 йилда-33%, 2006 йилда-26%. Жанубий Осиё мамлакатларида бу 46 фоизни ташкил этади. 2006 йилга келиб бундай болалар сони 140 миллиондан ошди258. Тўйиб овқат емаслик ва очлик ривожланаётган ва иқтисодий қолоқ давлатларда аёллар бошқалардан кўпроқ азият чекади. Чунки, ушбу мамлакатларда ижтимоий тенгсизлик сақланиб қолган, қолаверса, оғир вазиятларда аёллар ўзларига тегишли овқатдан воз кечишади. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Бутунжаҳон озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (ФАО) нашрининг хабарига кўра, ривожланаётган мамлакатларда ҳомиладор аёлларнинг қарийб ярми анемиядан (темир танқислиги) азият чекмоқда. Бу ҳар йили тахминан 110,000 туғилиш ўлимига олиб келади259.

Kun.uz сайтида дунёда мунтазам очлик ҳукм сураётган қуйидаги 7 мамлакат тилга олинган: Эритрея, Судан, Замбия, Яман, Сьерра-Леоне республикаси, Марказий Африка Республикаси, Чад260. Айни пайт озиқ-овқат билан энг оғир вазият Яманда кузатилмоқда. Мамлакат риёли жуда қадрсизланиб кетган. Истеъмол маҳсулотларининг деярли барчаси импорт қилинади, инфляция эса бу маҳсулотларнинг нархини ошириб юборади. Мамлакатнинг айрим ҳудудларидаги очарчилик одамларни дарахт баргларини ейишга мажбур қилган. Яманда мунтазам овқатланмайдиганларнинг сони яқин-орада бир ярим бараварга ошиб 11,5 млн кишига етиши мумкин261.

БМТнинг хабарига кўра, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминламаса, дунёда 30 яқин мамлакат коронавирус пандемияси туфайли очарчиликка дуч келиши мумкин. Жаҳон озиқ-овқат дастури (WFP) маълумотларига кўра, 2020 йил якунидан бошлаб дунёда 265 миллион киши озиқ-овқат танқислигига дуч келиши мумкин. Бу ўтган йилгидан икки бробар кўп демакдир.

Апрель ойининг бошларида БМТ коронавирус туфайли араб давлатларида 8,3 миллион киши қашшоқликка дуч келишини, озиқ-овқат билан етарли таъминланмаганлар сони 2 миллионга кўпайишини маълум қилганди. Ҳозирги пайтдаёқ араб давлатларида 101 миллиондан ортиқ киши қашшоқлик ёқасида, 52 миллион киши эса тўйиб овқатланмайди262.

---

[258] Иванова С. В. Глобальная проблема голода и современное состояние сельского хозяйства развивающихся стран // Никоновские чтения. 2009. №14.//https://cyberleninka.ru/article/n/globalnaya-problema-goloda-i-sovremennoe-sostoyanie-selskogo-hozyaystva-razvivayuschihsya-stran

[259] Борьба с голодом Нашивка –С.33//http://www.fao.org/3/a-i3466r.pdf

[260]Қайси давлатларда очлик ҳукм сурмоқда?//https://kun.uz/news/2019/04/09/qaysi-davlatlarda-ochlik-hukm-surmoqda

[261]Яманда даҳшатли очлик ҳукм сурмоқда//https://sof.uz/post/yamanda-dahshatli-ochlik-hukm-surmoqda

[262] БМТ коронавирус пандемияси сабаб 30 га яқин давлатда очарчилик бўлиши мумкинлигини маълум қилди// https://daryo.uz/k/2020/04/22/bmt-koronavirus-pandemiyasi-sabab-30-ga-yaqin-davlatda-ocharchilik-bolishi-mumkinligini-malum-qildi/

Озиқ-овқат хавфсизлиги инсоният ривожланишининг муҳим бўғини сифатида БМТ Мингйиллик Саммити доирасида 2000 йилда кўрилган бўлиб, минг йиллик декларацияси ва БМТнинг Мингйиллик ривожланиш мақсадларида қайд этилган. Ушбу мақсадлар қуйидагиларни ўз ичига олади:

1-мақсад: Оғир қашшоқлик ва очликни тугатиш.

2-мақсад: Умумий бошланғич таълимни таъминлаш.Очлик ва етарли бўлмаган овқатланиш ақлий қобилиятни пасайтиради.

3-мақсад:Гендерлик соҳасида тенгликни таъминлаш, аёллар ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтириш. Қиз болаларнинг етарли ва тўлиқ озиқовқат таъминоти кейинги ҳаёти давомида ривожланиш йўлининг кенг имкониятларига, мактаб таълимини якунлаш имкониятига эга.

4-мақсад: Болалар ўлимини қисқартириш. 50 % дан ортиқ болалар етарли ва тўлиқ бўлмаган овқатланиш натижасида ҳалок бўладилар. Тўйиб овқат емаслик-ривожланаётган мамлакатлар касалланиши сабабларидан бири.

5-мақсад: Оналикни ҳимоя қилишни яхшилаш. Озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминланмаганлик, етарли ва тўлиқ бўлмаган овқатланиш оналар ҳаётига жиддий хавф туғдирувчи омилдир.

6-мақсад: ОИТС, малярия ва бошқа касалликларга қарши курашиш. Озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминланмаганлик, етарли ва тўлиқ бўлмаган овқатланиш организмнинг турли инфекцион касалликларга қаршилигини пасайтиради ва уларнинг касалланишини тезлаштиради.

7-мақсад:Экологик барқарорликни таъминлаш. Озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминланмаганлик ўрмон мавзелари ва ресурсларининг ишлатилиш барқарорлигини йўқотади263.

Республикамизда ҳам озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашга қаратилган ислоҳотлар жаҳон тажрибасига мос равишда амалга ошириб борилмоқда. 2015 йил сентябрь ойида БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадлари қабул қилинди. Унда 17 та БРМ ва уларга боғлиқ бо`лган 169 вазифаларнинг белгилаб олинди. Шу асосда 2018йил 20 октябрида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2030-йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори қабул қилинди264.

Қолаверса, ҳозирги пандемия ва карантин шароитида Ўзбекистонда фойдаланилмаётган ва ерости сувлари мавжуд бўлган ер майдонлари фойдаланишга киритилиб, аҳолига имтиёзли лизинг шартлари асосида берилиши кутилмоқда. Бу ҳақда Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Коронавирус пандемияси даврида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш,

---

[263] Д.Н.Саидова, И.Б.Рустамова, Ш.А.Турсунов. “Аграр сиёсат ва озиқ-овкат хавфсизлиги”. Ўкув қўлланма. Т.: “ЎзР Фанлар Академияси Асосий кутубхонаси” босмахонаси нашриёти, 2016. –Б.93-94

[264] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 октябрдаги 841-сонли Қарори: 2030-йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида // https://lex.uz/docs/-4013356

мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш, қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида265»ги қарори лойиҳасида кўзда тутилган.

## HOZIRGI BOSQICHDA SAUDIYA ARABISTONIDA HAJ ZIYORATI VA TURIZMNINING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O‘RNI

**X.Yu. Salomova,**
*falsafa fanlari doktori professor,*
**M. Sanoqulova,**
*BuxDU magistranti*

Haj ziyoratini bajarish uchum butun dunyo musulmonlari islom dinining yuragi bo‘lgan Saudiya Arabistoniga tashrif buyuradilar. Sababi shundaki, Saudiyadagi dunyoga mashhur bo‘lgan Makka shahrida islom dinining asoschisi Muhammad (s.a.v) tavallud topgan va Madina shahrida dafn etilgan. Dunyo bo‘ylab minglab ziyoratchilar shu ikki shaharga haj ziyorati amalllarini bajarish uchun tashrif buyurishadi. Haj amallarini bajarish uchun Saudiya Arabistoniga tashrif buyurish mamlakatda “Diniy turizmning” rivojlanishiga olib keladi. Dunyoning juda ko‘plab mamlakatlarida diniy turizm yo‘nalishi mavjud , ammo bu borada Saudiya birinchi o‘rinda turadi. Diniy turizm hozirgi vaqtda juda yuqori talabga ega bo‘lib, ommaviy tus olmoqda.266

Musulmonlarning haj ziyorati markazi. Qizil dengiz sohili bo‘ylab cho‘zilib yotgan Hijoz o‘lkasi o‘zining ikki shahri Makka va Madina bilan dunyoga dong taratgan. Bu yerga dunyoning to‘rt tomonidan musulmon diniga e’tiqod qiluvchilar Makka shahriga ziyoratga — Hajga keladilar. Bekaa vodiysida joylashgan Makka Muhammad payg‘ambarning tug‘ilib, o‘sgan shahridir. Shahar o‘zining “Ka’ba” deb atalmish qadimiy muqaddas imorati bilan mashhurdir. “Ka’ba” ya’ni “Xudoning uyi” deb ataladi.267 Rivoyatlarga qaraganda, uni Odam Ato bunyod etgan, ammo imorat bir necha marta vayron bo‘lgan va qaytadan tiklangan. Biir qancha asrlar o‘tgandan keyin, Ibrohim payg‘ambar (uni xristianlar Abraham deyishadi) Makka shahriga qadam qo‘yadi va o‘z qo‘li bilan “Ka’ba”ni qayta quradi. Uning ichki qismiga Tangri tomonidan osmon-u falakdan tashlangan meteorit toshni joylashtiradi. Bino to‘g‘ri to‘rtburchakli bo‘lib qad ko‘taradi. “Ka’ba” joylashganmaydon “Haram” yoki “Muqaddas makon” deb yuritiladi.

[265] Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори:Коронавирус пандемияси даврида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш, қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида.// https://regulation.gov.uz/uz/document/16917

[266] Буторова Н. В. Менеджмент и маркетинг иностранного туризма. - М: Советский спорт, 1999. - 43 с.

[267] https://journey-assists.com/uz/world/asia/saudi-arabia/kabaa/

Meteorit toshinii arablar “Hojar-al-Asvad” yoki “Muqaddas Qora Tosh” deb ataydilar. Makka shahriga tashrif buyurgan ziyoratchilar Ka’baning atrofida uning Qora Tosh qo‘yilgan burchagidan boshlab yetti marotaba aylanib o‘tishadi va tavob qilishadi. Ziyoratchilar so‘ngra yetti bor Safo tog‘iga, yeti bor Ma’vo tog‘iga chiqadilar. Undan so‘ng Arofat tog‘iga tashrif buyurib, haj amallarini bajarib qaytadilar. Muqaddas — «Ka’ba» joylashgan maydonda Saudiya Arabistoni podshohligi tomonidan qurilgan musulmon olamidagi eng katta mo‘jizakor “Al-Haram” masjidi qad ko‘targan. Har yili bu yerda Qurbon hayiti (bayrami) o‘tkaziladigan tantanalarda qatnashish uchun kelgan ziyoratchilarning umumiy soni 2 mln. kishidan oshib ketadi. Madina Muhammad payg‘ambarning dafn etilgan shahri bo‘lib, EI- Hamd vohasida joylashgan. Ziyoratchilar haj amallarini bajarib bo‘lganlaridan keyin payg‘ambar qabrini ziyorat qilish uchun Madina shahriga tashrif buyuradilar.268

Sayyohlik yo‘nalishlari va turlari: mamlakatning ma’muriy jihatdan to‘rt viloyatga bo‘linishi: Xijoz (markazi Makka shahri), Asir (markazi Abxa shahri), Najd (markazi Ar-Riyod shahri), Sharqiy viloyat (markazi Dammom shahri). Musulmon dunyosidagi muqaddas ziyoratgohlar: Макка, Madina, Jidda shaharlari. Shuningdek, Umra ziyorati. Makka shahrining Ka’basi, zamzam qudug‘i, masjidlari. Savdogarlik, hunarmandchilik. Hajga kelganlar uchun maxsus kiyimlar (ihrom), tasbeh, atirlar, zamzam suvi uchun idishlar, joynamozlar savdolari. Zamonaviy otellari, yuksak servis xizmatlari. Xalqaro aeroportlari. Makka avtomobii yoMlarining Ar- Riyod va Jidda shaharlari bilan bog‘lanishi. Madina shahridagi shahar aholisining Makka xalqi singari savdo-sotiq bilan shug‘ullanishi. Mamlakatning dunyodagi Haj va Umra ziyorati - turizmi rivojlangan yagona davlat ekanligi.269

Saudiya Arabistonida haj sanoati muhimlik bo‘yicha neft sektoridan keyingi o‘rinni egallaydi, biroq qirollik neft narxi tushishi munosabati bilan , uning tuzilmasini o‘zgartirib, uni yetakchi sektorga aylantirmoqchi.270Iqtisodchilar hajni qirollik iqtisodiyotining katta o‘sish potensialiga ega bo‘lgan muhim sektor deb hisoblamoqdalar. Uni rivojlantirish orqali yosh erkak va ayollarning ishga joylashuvi bo‘yicha katta imkoniyatlar yuzaga keladi. Sayyohlik milliy qo‘mitasi a’zosi Abdul G‘ani al-Ansoriy sector kelajakda milliy iqtisodiyotga asosiy hissa qo‘shishi uchun uni restrukturizatsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi. Sayyohlik sektori yiliga qarib 85 milliard Saudiya riali hajmidagi daromad keltiradi, shundan 45 milliardi haj hisasiga to‘g‘ri keladi. Har yili Saudiya Arabistoni 2 million ziyoratchini qabul qiladi, bu 100 mingga yaqin ish o‘rinlarini yaratilishiga imkon beradi. Ayni paytda Makkada masjidni kengaytirish ishlari olib borilayotganligi tufayli, hajdan keladigan daromadlar biroz pasaydi. Ammo qirollik hukumati rekonstruksiya yakunlangach, haj ziyorati 57 milliard rial daromad keltirishini ma’lum qilgan edi. Umuman yaqin bir necha yil ichida sayyohlik sektori 35 milliard rialga oshishi ko‘zda tutilgan. Shunga qaramay, Makka va Madinadagi

[268] Saudi Arabia. A Guide to the Hajj. P-3.
[269] Mirzayev.M. Turizm asoslari. T.,2011. B-223-224.
[270] www.saudigazette.com

ziyoratchilar soni oʻrtasidagi katta farq ham yana bir muammo hisoblanadi. Makka nir vaqtning oʻzida 12 milliondan ortiq kishini sigʻdira olsa, Madina atigi 230 ming kishini qabul qila oladi. 271 Saudiya Arabistoni Statistika va Axborot markaziy departamentining ma’lumotlariga koʻra , hajga keluvchilar soni 2012-yilda 3 million 200minggacha koʻratilgan.

Dunyoning qator mamlakatlari singari Oʻzbekiston ham har yili oʻz fuqorolarini islomdagi 5 farzni ado etishlari uchun muqaddas haj va umra safarlariga yuborib turilishni ta’minlaydi. Haj va Umra ziyorati Oʻzbekistonda Prezidentning “har yilgi Haj va Umra tadbirlarini tashkil etish va oʻtkazish masalalari boʻyicha jamoatchilik kengashining tashkil etish toʻgʻisida”gi 2006-yil 28-avgustdagi PF-3793 sonli Framoni bilan tashkil qilinadi. Oʻzbekistondan yiliga 7 mingga yaqin fuqaro haj safariga yuboriladi Ziyarat narxi 2019 yilda 33,5 million soʻmni tashkil etgandi. Talabgorlar oʻrtacha 3-5 yil navbat kutadilar. Haj ziyoratiga fuqarolarni yuborish mamlakatimizda Vaziralar Mahkamasi tasdiqlagan “Haj va Umra tadbirlarini tashkil etish va oʻtkazish tartibi ta’gʻrisida”gi Nizomga koʻra amalga oshiriladi. Ma’lumot oʻrnida aytish kerakki, 2016-yilda Oʻzbekistondan 5200 kishi Haj amallarini ado etib kelgan boʻlsa, 2017-2018-yillarda 7200 nafar atrofidagi oʻzbekistonlik islom dinining muqaddas arkonlaridan birini ado etish imkoniga ega boʻlgan. 2019-yilda esa respublika boʻyicha 6970 nafar fuqaro Hajga borish uchun tavsiya qilingan.272 Bu birgina Oʻzbekiston hududi boʻyicha statistik ma’lumotlar. Dunyoning juda koʻplab davlatlaridan musulmonlar Saudiya Arabistoniga Haj amalarini bajarish uchun boradilar. Bu esa oʻz navbatida podshohlikning haj turizmi va iqtisodiyotining rivojlarinishini ta’minlaydi.

Saudiya Arabistoniga Haj mavsumida dunyoning turli davlatlaridan koʻplab ziyoratchilar tashrif buyuradi. Buni quydagi jadval asosida koʻrishimiz mumkin.

---

[271] https://daryo.uz/2016/03/24/oav-saudiya-arabistoni-oz-yonalishini-neftdan-haj-sanoatiga-ozgartiradi/

[272] O'bekiston  Davlat Statistika Qo’mitasi ma’lumotlari.

شر سنوات من عام ١٤٣١ هـ إلى عام ١٤٤٠ هـ

Total number of pilgrims in Ten years 1

| عدد الحجاج Number of pilgrims | |
|---|---|
| 2,789,399 | |
| 2,927,717 | |
| 3,161,573 | |
| 1,980,249 | |
| 2,085,238 | |

Manba: Hajj Statistics 2019-1440. General authority for Statistics Kingdom of Saudi Arabia.

Bu jadvalda hijriy 1431-yildan 1440 yilgacha, ya’ni milodiy 2010-2019 yillar oralig‘idagi Saudiyaga haj qilgan ziyoratchilarning soni keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, haj qiluvchilar soni eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan davr 2012-yil hisoblanadi. 2015-2017 yillarda rekonstruktsiya ishlari natijasida ziyoratchilar soni biroz pasaygan.[273]2020-yildagi haj ziyoratlari haqida qirollik hukumati hali kutish pazitsiyasini qo‘llab turibdi. Sababi 2019-2020-yillardagi dunyo bo‘ylab avj olgan COVID-19 pandemiyasidir.

**Adabiyotlar:**


1. Буторова Н. В. Менеджмент и маркетинг иностранного туризма. - М: Советский спорт, 1999. - 43 с.
2. Saudi Arabia. A Guide to the Hajj. P-3.
3. Hajj Statistics 2019-1440. General authority for Statistics Kingdom of Saudi Arabia
4. Mirzayev.M. Turizm asoslari. T.,2011. B-223-224
5. O‘zbekiston Davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari.
6. https://journey-assists.com/uz/world/asia/saudi-arabia/kabaa/


[273] Hajj Statistics 2019-1440. General authority for Statistics Kingdom of Saudi Arabia.

*5А120402 Этногирафия, этнология антропология*

# ТРАДИЦИОННЫЕ ЖИЛИЩА БУХАРСКОГО ПОСЕЛЕНИЕ

**Ф. Бобожонова,**
*доцент БухГУ,*
**У.О. Рашидов,**
*магистрант, БухГУ*

Материальная культура является ключевым показателем традиций образа жизни и социального статуса любой этнической общности. По этой причине традиционная материальная культура народа может стать важным источником в изучении этнических, особенно межэтнических, процессов, происходящих в определенной области. В этнологии жилье и связанные с ним хозяйственные постройки являются одним из важнейших элементов материальной культуры. Веками история здания была необходимым элементом в архитектуре Центральной Азии. Его возникновение большое влияние оказали климатические условия в регионе.

Поселения в Бухаре разработали собственный метод местного строительства в средние века, в соответствии с природно-климатическими условиями (засуха, жаркий, сухой жаркий ветер) при местном строительстве. Уникальный климат Бухары, то есть его близость к пустыне, тот факт, что население относится к разным этническим группам, повлияли на развитие городов и форму населенных пунктов274. Заслуживает внимания уникальное строение бухарских домов, структурной основой населенных пунктов является наклонная стена, а перед комнатами, выполненными из необработанного кирпича и грязи, стоят навесы. и Фергана отличались в методах строительства.

В Бухаре жилища представляли собой один два и трех этажные дома с почти голыми стенами на улице275. Хотя не очень эффектно снаружи, но интерьеры домов отличались сценической объемной пространственной композицией и уникальным художественным оформлением.

Внешний вид и размеры городского жилья в Бухаре значительно отличались от сельского жилья, в зависимости от социального происхождения и статуса владельца. Как и в других регионах Центральной Азии, дворы богатых домохозяйств-это два смежных двора-крытый и открытый, а вокруг двора - хозяйственные и подсобные помещения276. Первый двор, который назывался Берун снаружи (мужская секция), использовался для встреч и развлечений посетителей, а второй, Дарун

[274] Бухоро шарқ дурдонаси. “Шарқ. Тошкент—1997.108-б.
[275] Воронина В. Л. Жилища народов Средней Азии и климат//Жилища народов Средней Азии и Казахстана. М., 1982 С 98.
[276] Сухарева О. А. Турсуяов Н. О. Из истории городских и сельских поселений Средней Азии второй половины XIX — начала XX в. /Жилища народов Средней Азии и Казахстана М., 1982. — С. 40

(женская секция), использовался для размещения членов семьи. Окна всех жилых и подсобных помещений разделены на открытый внутренний двор, который обращен внутрь, внутренний двор для детей и женщин, а также роскошные номера в виде отеля для мужчин и гостей, не являющихся махрамами277. В богатых домах Бухары есть третий двор-сайисхана (вместе с конюшней), который связан с внешним двором.

Дома бухарского народа тоже имели свои особенности. Жилые дома строятся без исключения в направлении солнечного света: летом-на север, зимой-на юг. И во внутреннем, дворах были летние отели, выходящие на юг. Это большие четырехэтажные комнаты той же высоты, что и двухэтажный дом, с прихожей впереди. Возможно, это было наверху, с невысоким окном с видом на холл. Перед отелем есть деревянные веранды со стороны двора.

Одним из наиболее распространенных типов жилья в Бухаре для простых людей был двухкомнатный дом с одним коридором и большой комнатой, а в некоторых случаях небольшой коридор и две большие комнаты. Фасад таких домов обычно строится с крыльца.

В Бухаре основное внимание уделяется постройке навесов, верхний и нижний столбы навеса красиво оформлены. Небольшие комнаты, построенные в угловых частях подъездов, не только служили домашними делами, но и обеспечивали долговечность подъездов. Крыльцо построено так, чтобы ветер мог лучше циркулировать во дворе278. Это позволяло ветру чередоваться снизу вверх и позволяло свету падать во внутренний двор.

Крыльцо не давало комнате быт слишком холодно зимой и слишком жарко летом. Поэтому мастера уделяли большое внимание расположению и размеру тента при строительстве дома. Крыльцо служило частью, соединяющей комнату с внешней средой. Тент широко использовался в домах в средние века и позже.

В жилой архитектуре Бухары тент был построен как фасадный тент, занимая весь фасад дома между двумя и четырьмя комнатами. Крыльцо было построено на передней или боковых сторонах здания как коридор (галерея), похожий на комнату, выступающую из уровня стены, как сарай, занимающий открытую часть второго этажа, и как отдельное четырех-, трехстороннее открытое укрытие.

В дополнение к своей функции, крыльцо художественно оформило общую композицию здания и обогатило его архитектурное решение. Ведущим стилем в жилищах города Бухары было возведение длинного тента в этом дворе. Это также относится и к сельским дворам. Иногда у входа во двор строили гостиницу, где ремесленник, который был хозяином, принимал клиентов. Проживание строго определяется количеством выпадающего света, зимние жилые комнаты расположены на юго-восточной стороне, а летние комнаты расположены на северной стороне. Терассы не только добавляют

[277] Ханыков Н В. Описание Бухарского ханства. СПб: Императорской Академии Наук, 1843. 345 С
[278] Сухарева О. А. Турсуяов Н. О. Из истории городских и сельских поселений Средней Азии второй половины XIX — начала XX в. /Жилища народов Средней Азии и Казахстана  М., 1982. — С. 41

комфорта интерьеру жилых зданий, но и придают неповторимый облик внешнему композиционному облику279. На северной стороне двора, напротив, расположены одноэтажные особняки, ориентированные на юг. Над ними были либо жилища, либо, чаще всего, террасы, сплющенные на общей верхней линии домов во дворе. С западной и восточной стороны двора расположены хозяйственные помещения. Полуподвальный этаж, расположенный под оживленной частью отеля или во дворе, предназначен для хранения и бытовых нужд. Интерьеры богатых жилых домов были выстланы тонкими полками для посуды. Подъезды богатых украшены резьбой по дереву и гипсу.

Поселения различных этнических общин в Бухарской области также сформировались в результате давних этнокультурных связей.

**Использование литературы:**

1. Бартолд В.В. “История культурний Туркстана” М.1951й.
2. Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIXв. М.,1965.
3. Ремпель Л. И. Далекое и близкое. Бухарские записи. Ташкент,1982.
4. Сухарева О. А. К истории городов Бухарского ханства. Историко-этнографические очерки. Ташкент, 1958
5. Сухарева О. А. Позднефеодальный город Бухара XIX- начала XX веков. Ташкент,1962
6. Ханыков Н В. Описание Бухарского ханства. СПб: Императорской Академии Наук, 1843

## БУХОРО АХОЛИСИ ТУРАР ЖОЙЛАРИНИНГ ШАҲАР КУРИНИШИГА ТАЬСИРИ МАСАЛАЛАРИ

**Ф. Бобожонова,**
*БухДУ доценти,*
**У.О. Рашидов,**
*БухДУ магистранти*

Халқларнинг аньанавий турар-жойлари қурилиши ва унинг билан боғлиқ масалалар илмий тадқиқи этнология фани долзарб мавзуларидан биридир. Ўзбекистон инсоният тарихидаги энг кадимги цивилизация ўчоқларидан бири ҳисобланади. Бу ерда яшаб ўтган ахоли азалдан деҳқончилик, чорвачилик, хунармандчилик ва савдо билан шуғулланиб келган.

Этнология фанида ахоли турар жойлари моддий маданиятнинг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Ҳар бир халқнинг турар-жой қуриш услуби ўзига хос жиҳатлари билан ажралиб туради ва мураккаб маданий-хўжалик

[279] Ремпель Л. И. Далекое и близкое. Бухарские записи. Ташкент,1982 С 45.

комплексини ташкил этади. Маьлумки, халқларни турар-жойларни қуриш жараёнида турмуш тарзининг қуйидаги жихатлари ҳисобга олинган:

- табиий шароитлар
- хўжалик юритиш шакли
- техниканинг ривожланиш даражаси
- оила ва оилавий хўжалик тизимининг ҳолати
- синфий муносабатлар, яьни мулкдорлик ҳолати
- ижтимоий урф-одатлар, хатто халқнинг эстетик диди ва диний-сеҳргарлик эътиқодлари.

Турар-жой курилиши тарихан чуқур илдизларга эга. Ушбу соҳа тарақиёт даврлари инсониятнинг ривожланиши чамбарчарс боғлиқ. Қадимда турар-жой сифатида одамзот табиий пана жойлардан фойдаланган бўлса, аста секи турли табиий материаллардан чайлалар қуришни ўрганган. Қурилиш материали сифатида ҳайвон териси ёғоч материаллар, тошлардан фойдаланишган. Кейинчалик эса инсонлар тупроқ, тошлар ҳамда дарахтлар уйғунлигида илк турар жой намуналарини яратиб, шу уйларда истиқомат қилишган. Дастлаб оддий тўртбурчак турар жой бинолари қурилган. Унда инсонлар билан бир қаторда уларнинг уй ҳайвонлари ҳам яшашган. Ушбу турар жой биносининг элементлари: ташқи деворлар, кириб чиқиш учун эшик, уйнинг марказида олов ёниш учун ўчоги ва унинг тепасида(ёпмасида), яьни томда туйнук бўлган. Маълум вақт ўтганидан кейин турмуш тарзида юз берган ривожланиш турар-жойларда ҳам ўз аксини топган. Натижада уйнинг ичкарисида қўшимча деворлар қуришган. Бу деворнинг вазифаси уйнинг ётадиган ва ўтирадиган худудларини ажратишдан иборат эди. Йиллар ўтгач бу деворларнинг сони ҳам ошиб, улар нафақат овқатланиш, яшаш, дам олиш ҳудудларини, балки оила азоларини уй ҳайвонларидан ажратган. Асрлар давомида жамиятнинг юксалиши натижасида шаҳарлар ва давлатлар вужудга кела бошлаши, аҳолининг шаҳарларга тўпланиши турар жойларнинг ривожлашига ва аҳоли яшаш мавзелари кўриниши ва шаклига таъсир этди280.

Шаҳарлар ва қишлоқларнинг асосий ҳудудини турар жой массивлари ташкил этаган шунинг учун турар-жой биноларининг сони архитектуравий жихатдан режалаштириш, амалга оширилади. Шунга мувофиқ шаҳар ва қишлоқларнинг ривожланиши кузатилади. Яшаш учун қулай ер майдони танлаб олинган ва шаҳар чегараларини белгилаш учун ташқи ҳимоя деворлари бунёд этилган. Шахарда қуриладиган турар-жой бинолари нафақат режалаш ва қурилиш конструктив услублари билан балки композицион ва меъморий декоратив пардози билан қишлоқ турар жойларидан фарқ қилган281. Шахарнинг ҳудуди қалъа деворлари билан қуршаб олишдан аввал пухта ва қатъий равишда қурилиш майдонларининг юзалари ҳисобга олинган. Шу сабабли шахар ҳудудидаги хар бир қарич ер майдони юқори

[280] Ремпель Л. И. Далекое и близкое. Страници жизни,быта, строительного дела ремесла и искусства Старой Бухари. Бухарские записи. Ташкент.1981.: изд. Гафур Гулям С-7.
[281] Сухарева О. А. Бухара XIX- начала XX в. изд Наука. М.1966 С.32

нарҳли баҳога эга бўлган. Бу жиҳат Марказий Осиёдаги барча шахарларга хосдир. Таниқли меьмор А.Буров фикрига кўра’’Архитектура турар-жойдан бошланади, шаҳар уйдан бошланади’’.

Юқори нарх ва аниқ чегарага эга бўлган қурилиш майдончаси турар-жой қурувчиларни уй-жой қуришда жуда жиддий ва етти ўлчаб бир кесиш қабилида пухта режали ёндашиш кераклигини тақозо этар эди. Демак, турар-жой қуришдан олдин талаб қилинадиган барча шарт-шароитларни ва қулайликларни ҳисобга олиб, пухта режа тузилгандан кейингина уй-жой қуришга киришилган. Бу тузилган режалардан энг мақбули яьни майдони кам минимум юза эгаллайдигани танлаб олинган ва шу асосида турар-жойлар тикланган. Кам юзали майдон эгаллаган турар–жой режалари иқтисодий тежамли ва мақсадга мувофиқ деб ҳисобланган ва тан олинган. Бундай режалаштиришнинг қабул қилиниши ва қурилишга қўлланилиши мавзеларнинг режалаштирилишига ҳам ўз таъсирини кўрсатган. Бошқа шахарларда Ўзбекистонимизнинг Тошкент, Фарғона, Хоразм сингари шахарларда кўчалар кўп сонли тупик (охири берк) ва ўтиш йўлакларга эга мавзелар бўлса, Бухоро мавзеларида аксинча бундай боши берк кўчалар, тупик ва ўтиш йўлаклари мутлоқо учрамайди, бу холат Бухорада ҳар бир қарич ер жуда юқори баҳоланганлигидан дарак беради282. Бухоро шахарларидаги мавзелар қурилишининг ўзига хослиги бу турар-жой ҳовлисига фақат кўча томондан кирилади, квартал ичида кўчалар, тупиклар жойлаштирилмайди. Шу сабабли кварталлар жуда узун тўғри тўртбурчак шаклидаги уйлар қурилишидан ташкил топади283. Турар-жойлар ўз майдонининг юзасига қараб, кўчага нисбатан бўйлама ёки кўндаланг тарзда тикланади. Шуни такидлаш жоизки, ҳеч ерда Бухородагидек ориентация қонунларига жуда хам пухталик билан риоя қилинмаган. Бундан фақатгина Хоразм ўлкаси мустаснодир. Турар жой участкаларининг (майдонларининг) аксарият қисми тўғри тўртбурчак шаклида, жуда кам ҳолларда эса квадрат шаклида қурилган284. Ҳатто қишлоқ турар-жой қурилишида ҳам асосий йўналиш сифатида жанубий ва шимолий томонлар танланган.

Она ватанимиз тарихи нақадар бой бўлса, унинг архитектураси ҳам шу қадар қадим ўтмишга эга эканлиги маьлум. Ҳар бир моддий ёдголикларнинг яратилиш тарихи бўлганидек, турар жой иншоотларнинг ҳам яратилиш ривожланиш, равнақ топиш ва тугатилиш даврлари мавжуд285. Турар жой биноларининг шаклланиши ва ривожланиши, худуддаги иқлим шароити, инсонларнинг турмуш тарзи, урф-одат ва аньаналарига боғлиқ.Турар жойлар қурулиши тарихини ўрганиш муҳим ахамиятга эга. Чунки халқларнинг

[282] Сухарева О. А. Кварталное обшина позднее феодального города Бухари (в связи истории кварталов) изд Наука М 1976 С34

[283] Сухарева О. А. Кварталное обшина позднее феодального города Бухари (в связи историе кварталов) изд Наука М 1976 С.40

[284] Сухарева О. А. К истории городов Бухарского ханства. (Историко-этнографические очерки) изд.Академии наук УзбекскойССР. Ташкент,1958 С.69

[285] Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIXв. М.,1965. С 323

ўтмиш тарихи, моддий маданияти ҳамда табиий географик шароити уй-жойлар қурилиши билан узвий боғлиқ. Кадимдан кишилар иклим ва табиий шароитни эьтиборга олиб уй-жойлар турларини, яни унинг тузулиши, жиҳозлари ва кулайлик томонларини ҳисобга олишган.

Ўзбекистон ҳудудида уй-жойлар қурулиши бир неча минг йиллик тарихга эга. Бугунги кунда Бухоро воҳаси ахолиси турар жойлари тарихига оид илмий изланишлар олиб боришни даврнинг ўзи талаб килмокда. Ўзбекистон шахарлари кўркига кўрк қўшиб турган аҳоли турар-жойлари қурулиши тарихи, этно-локал хусусиятлари улар билан боғлиқ аньаналарни илмий нуқтаи назардан ўрганиш ва бу маьлумотларни келажак авлодларга етказиш муҳимлиги равшан бўлмоқда.

**Фойдаланилган адабиётлар**


1. Ремпель Л. И. Далекое и близкое. Страници жизни,быта, строительного дела ремесла и искусства Старой Бухари. Бухарские записи. Ташкент.1981.: изд. Гафур Гулям
2. Сухарева О. А. Кварталное обшина позднее феодального города Бухари (в связи историе кварталов) изд Наука М 1976
3. Сухарева О. А. К истории городов Бухарского ханства. (Историко-этнографические очерки) изд.Академии наук УзбекскойССР. Ташкент,1958
4. Сухарева О. А.  Бухара XIX- начала XX в. изд Наука. М.1966
5. Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIXв. М.,1965


## ЎРТА ОСИЁДА ПАТРИАРХАЛ ОИЛА ТАДҚИҚИ МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА


**М.Б. Қурбонова,**
*БухДУ доценти,*
**Б.Б. Умаров,**
*БухДУ, I курс магистранти*


Оила ва оилавий муносабатлар кишилар ҳаёти ва турмуш кечиришининг таркибий қисмидар. Оиланинг энг муҳим ижтимой вазифалари – инсон зотини давом эттириш, болаларни тарбиялаш, оила аъзоларининг турмуш шароитини ва бўш вақтини самарали уюштиришдан иборатдир.

Маълумки, дунё халқларининг оила ва никоҳ тарихи ва унинг билан боғлиқ удум ва маросимлари этнология фанидаги энг устувор муаммолардан бири саналади. Бу масалада файласуф, ҳуқуқшунос, педагог, тарихчи олимлар самарали илмий изланишлар олиб боришган. Ўрта Осиёда

этнографик йўналишда эса бу мавзуда Н.А.Кисляков, К.Шониёзов, Т.Тошбоева каби олимларнинг хизматлари беқиёсдир286.

Ўзбекларнинг катта оиласини ўрганиш жараёнида этнографларнинг олиб борган тадқиқотлари бугинги кунда муҳим аҳамият касб этади. Шунга мувофиқ Ўрта Осиё халқлари катта, яъни патриархал оиласи тарихи масалаларининг баъзи жиҳатларини ушбу мўжаз тадқиқотимизда ёритишга ҳаракат қилдик.

Этнографлар оилани икки типга –оддий (“кичик”, “нуклеар”, “индивидуал” ва шу кабилар) –уйланмаган болаларни ёки болаларсиз никоҳдаги бир жуфт (ёки бир ота-она)дан иборат оилага ҳамда мураккаб (кенгайган типдаги оила, “катта оила”) –икки ёки уч оддий оиладан таркиб топувчи оилага ажратадилар.

Ўрта Осиё ўтроқ аҳолиси орасида катта патриархал оилалар қачон ташкил топган деган савол доимо этнограф олимларнинг диққат марказида бўлган.

Ўрта Осиё халқларининг оила тарихи муаммоси бўйича бир катор тадқиқотлар қилинган бўлиб, улар орасида Н.А.Кисляковнинг тадқиқотлари алоҳида ўринда туради.

Маълумки, Хоразм археологик-этнографик экспедицияси билан бир даврда 1957 йилда Н.А.Кисляков раҳбарлигида Ўрта Осиё этнографик экспедицияси ўз фаолиятини олиб боради. Ушбу экспедиция фаолияти маҳсули сифатида 1969 йил Н.А.Кисляковнинг фундаментал асари чоп этилади287. Олим ушбу асарда “патриархал оила” (“катта оила”) милоддан минг йиллар илгари шаклланган, унинг гуллаб яшнаган даври эрамизнинг дастлабки асрларига тўғри келади, сўнгра уни оиланинг янги шакли –кичик оила сиқиб чиқара бошлаган. Бундай ўрин алмашув шаҳарларда ва умумий ривожланган районларда эрамизнинг дастлабки минг йилликлари ўртадарида, кўчманчи ҳудудларда эса X-XII асрларда содир бўлган. Бироқ иқтисодий жиҳатдан қийин жойларда патриархал оиланинг парчаланиш жараёни XIX аср охирлари –XX аср бошларига қадар чўзилиб келган.

Йирик олим С.П.Толстов милоднинг бошларида Хоразмда катта патриархал оилалар жамоаси пайдо бўлганлигини қайд этган бўлса-да288, Н.А.Кисляков, эҳтимол, бундай оилалар олдинроқ ҳам пайдо бўлгандир, бироқ ушбу масала бўйича бизнинг қўлимизда ҳеч қандай далил мавжуд эмас деган фикрни илгари суради289.

Н.А.Кисляков биринчи минг йиллик ўрталарида Ўрта Осиёда катта патриархал оилалар кенгайган давр ҳисобланса, қўшни Эроннинг иқтисодий жиҳатдан илғор ҳудудларида катта патриархал оилалар емирилиб, улар ўрнини кичик оилаларга бўшатиб берганлигини қайд этади. Бундан ташқари, иқтисодий қолоқ ҳудудларда эса XX аср бошларига қадар катта патриархал

[286] Бўриев О.,Усмонов М. Ўзбек оиласи. Т.: “O`zbekiston”.2012, -Б.5.
[287] Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана, Л.: Наука. 1969.
[288] Толстов С.П. Древний Хорезм. М., 1948.С.132.
[289] Кисляков Н.А. Семья и брак у таджиков. — Л., 1959., С.239-240.

оилалар сақланганлигини Тожикистонниинг айрим тоғли вилоятларида амалга оширилган тадқиқотлардан ва жанубий Хоразм воҳаси ўзбекларига оид йиғилган материаллардан аниқланганлигини ҳам мазкур асарида таъкидлайди290.

Хоразм воҳаси бўйича катта патриархал оилани ўрганган М.В.Сазанованинг маълумот беришича, катта оилалар асосан аҳолининг икки хил ижтимоий гуруҳи таркибида сақланган: биринчиси, ўзига тўқ оилалар ва дин уламолари орасида бўлса, иккинчиси эса касодга учраш ва ерсиз қолиш арафасида турган аҳоли орасида. Оила аъзоларининг биргаликда яшаб, меҳнат қилганлари уларни бўлинишларига имкон бермаган. Хоразм воҳасида катта патриархал оилалар “оила” ёки “катта оила” атамалари билан юритилган291. Бундай катта оилаларнинг асосий машғулоти деҳқончилик бўлган. Оила бошида катта ёшли эмас, балки оила ичида энг юқори мавқега эга обрўли киши турган. Қишлоқ хўжалик ишлари асосан эркакларнинг зиммасида бўлиб, аёллар фақатгина ҳосилни йиғиштириб олишга ёрдам берганлар, қолган пайтларда эса уй хўжалиги билан банд бўлишган. Барча мулклар оила аъзолариники бўлиб, алоҳида бир кишига тегишли шахсий пул ёки даромад манбаи бўлмаган.

Н.А.Кисляковнинг таъкидлашича, оила бошлиғи барча ишларни тақсимлаган ва назорат қилиб турган; унинг хотини эса аёллар меҳнатини тақсимлаб берган. Меҳнатни тақсимлашда катъий тартиб ўрнатилган. Оиланинг ҳар бир аъзоси маълум ёш даврида меҳнатнинг оғир ва енгиллигига қараб ўз ишларини бажарганлар. Оила аъзолариниг бирортасида ҳам алоҳида даромад манбаи бўлмаган, ҳатто қалин пули ҳам қизнинг ота-онасига тегишли бўлмай катта оиланинг даромадига кирган292.

Хива хонлиги ўзбеклари орасида сақланган катта патриархал оила қолдиқларини ўрганган Г.П.Снесарев, худди шундай қариндош оилаларининг бирлашувидан –элатлар шаклланганлигини қайд этади293.

Академик К.Шониёзов ўзбек-қарлуқларининг турмушини ўрганар экан, XIX аср охирида улар учун энг характерли жиҳати оила асосий кўриниши – катта патриархал оила бўлганлигини айтади. Бундай оилалар 30 ва ундан ортиқ кишидан иборат бўлиб ота-она, унинг ўғиллари ва баъзида эса ака-ука ҳамда уларнинг оиласидан ташкил топган. Қашқадарё воҳасида истеъқомат қилувчи Косон қарлуқлари орасида ердан жамоа тарзида фойдаланишнинг “пайкал” шаклидан XIX аср охиригача катта оилалар ерларни тақсимлаб, биргаликда меҳнат қилганлари ва XX аср бошларидан эса ерларнинг кичик-кичик оила гуруҳлари томонидан бўлиб олиниши катта патриархал

---

290 Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана, Л.: Наука. 1969. С.14-15

291 Сазонова М.В. К этнографии узбеков Южного Хорезма. ТХАЭЭ. т. I. М.1952. –С.167

292 Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана - Л., 1969, С.19;

293 Снесарев Г.П. О некоторых причинах сохранения религиозно-бытовых пережитков у узбеков Хорезма. СЭ, 1957, №2, С.67.

оилаларнинг тўлиқ емирилишига олиб келганлигини тадқиқотида алоҳида таъкидлайди294.

С.М.Абрамзон ҳам Ўрта Осиё ва Қозоғистондаги бир қатор кўчманчи халқларда катта оиланинг мавжуд бўлганлигини қайд этади.

М.А.Бекжонова Фарғона водийсининг (Наманган вилояти) чекка жойларда тузилиши жиҳатдан катта патриархал оилага яқин 60-70, баъзан 100 кишидан иборат айрим оилалар бўлганлигини айтиб ўтади. Бундай оилалар никоҳдаги жуфтларнинг уч авлодини ота ва она, уларнинг уйланган уғиллари ва уйланган невараларини қамраб олган. М.А.Бекжонованиг таъкидлашича, Фарғона водийси ўзбекларида катта патриархал оиланинг парчаланиши ва унинг кичик бир никоҳли оилага айланиш жараёнида оиланинг ўтиш шакли юзага келган бўлиб, уни муаллиф бўлинмаган (ажралмаган) оила деб атайди295. Зеро, оиланинг бу кўриниши XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларидаги ўзбеклар учун характерли хусусиятдир. Ажралмаган оила патриархал оиладан шуниси билан фарқланадики, уч ёки ундан ортиқ авлод вакилларидан эмас, балки икки авлоддан иборат бўлганда –бунда катта авлод бир жуфт –ота ва онадан иборат бўлиб, баржа уйланган ўғиллар улар билан бирга яшайдилар. Невараларни уйлантириш янги оиланинг ажралиб қичишига сабаб бўлган.

Т.Файзиевнинг аниқлашича, Тошкент воҳасидаги ўзбек қурилмаларида XIX аср охири –XX аср бошларида оила шаклларидан бири –икки ёки ундан ортиқ никоҳдаги жуфтлар (ота-она ва уларнинг уйланган бола-чақали ўғиллари) дан иборат ажралмаган оила бўлган. Бундай оилаларда 20 нафаргача киши яшаган. Қурамаларда, ўзбек халқининг бошқа гуруҳларида бўлганидек, уйланган ўғилларни катта оила бошлиғи бўлгандан кейин ҳам ажратиш унчалик маъқулланмаган296.

XIX аср охири –XX аср бошларида катта оила кўпинча ўзига тўқ ва бойлар қатламида учрайди. Р.Я.Рассудованинг кўрсатишича, Зарафшон ва Фарғона водийсида, Қашқадарёнинг юқори оқимида яшайдиган ўзбекларда “қозон” атамаси (бир қозон) оилага нисбатан ҳам қўлланилган. Бу даврда катта оила Зарафшон водийси чорвадорларида, Самарқанд вилояти Пастдарғом тумани ўзбекларида, Жиззаҳ вилоятининг Ғаллаорол тумани ўзбекларида, Зарафшон ва Фарғона водийлари қипчоқларида мавжуд бўлган297.

XIX аср 80-йилларида товар-пул муносабатларининг кириб келиши, ёлланма меҳнат доирасининг кенгайиши катта оиланинг яхлит иқтисодий асосига аста-секин путур етказа бошлаган. XX аср бошларига келиб, катта оила ўзбекларда ижтимоий муносабатлар тизимида жиддий рол ўйнамай қўйган. Уйланган ўғилларнинг ажралиб чиқиб кетиши, кичик оиланинг ўзи

294 Шаниязов К. Узбеки-карлуки. –Т.:1964,-С.138.
295 Бикжанова М.А. Семья в колхозах Узбекистана. –Т.: 1959, -С.23-24.
296 Бўриев О.,Усмонов М. Ўзбек оиласи. Т.: “O`zbekiston”.2012, -Б.31.
297 Рассудова Р. Я. Семейные группы: одна из форм организации труда в орошаемых районах Средней Азии (XIX - первая половина XX в.) // Страны и народы Востока. Выпуск XXV. География. Этнография. История. М.: Наука, ГРВЛ, 1987. С. 68

бюджетига эгалик қилиб, алоҳида овқатланишини катта оила парчаланишининг бошланиши дейиш мумкин. Ерга алоҳида хусусий мулкнинг пайдо бўлиши, умумий фойдаланиладиган ер-сувнинг бўлиб олиниши катта оиланинг парчаланишида сўнгги босқич бўлди. Табиийки, бу жараён деҳқонлар ижтимоий табақалашувининг кучайишига, улар асосий қисмини хонавайрон бўлиб, қашшоқлашувига, ёлланма кучни кўпайтиришга олиб келди. Оила тараққиётининг диалектикасидан кўринадики, хусусий мулкнинг ривожланиши катта оиланинг парчаланишига туртки бўлди. Янги оиланинг таркиб топиши ва замонавий муносабатлар ривожланишининг ўрганилиши ҳозирги кунда ўзбек оиласининг асосий шакли эр, хотин ва уларнинг болалари, баъзан ер ёки хотин ота-онасининг ҳам қамраб олувчи кичик оила эканлигини кўрсатди. Социологик тадқиқотларнинг далолат беришича, ўзбеклар оиласининг 51,6 фоизи тузилмасига кўра кичик оиладир298.

Бугунги кунда мамлакатимизда ҳаёт абадийлиги, авлодлар давомийлигини таъминловчи маънавият қўрғони бўлган оила мавзусига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Оила –мафкуравий тарбиянинг энг муҳим ижтимоий омилларидан биридир. Чунки, оила жамият негизи бўлиб, кўп асрлик мустаҳкам маънавий таянчларга эга. Миллий мафкурамизга хос бўлган илк тушунчалар, аввало, оила муҳитида сингади. Бу жараён боболар ўгити, ота ибрати, она меҳри орқали амалга ошади.299

Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқларида катта патриархал оила ва унинг этнографик хусусиятларининг илмий тадқиқи бугунги кунда этнология фанининг оила ва никоҳ масалаларига тегишли муаммоларни ечишда муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Т.: 2000.
2. Бўриев О.,Усмонов М. Ўзбек оиласи. Т.: “O‘zbekiston”.2012
3. Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана, Л.: Наука. 1969.
4. Толстов С.П. Древний Хорезм. М., 1948.
5. Кисляков Н.А. Семья и брак у таджиков. — Л., 1959.
6. Сазонова М.В. К этнографии узбеков Южного Хорезма. ТХАЭЭ. т. I. М.1952.
7. Снесарев Г.П. О некоторых причинах сохранения религиозно-бытовых пережитков у узбеков Хорезма. СЭ, 1957.
8. Шаниязов К. Узбеки-карлуки. –Т.:1964.
9. Бикжанова М.А. Семья в колхозах Узбекистана. –Т.: 1959.
10. Рассудова Р. Я. Семейные группы: одна из форм организации труда в орошаемых районах Средней Азии (XIX - первая половина XX в.) //


[298] Бўриев О.,Усмонов М. Ўзбек оиласи. Т.: “O`zbekiston”.2012, -Б.35.
[299] Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Т.: 2000. –Б.66.

Страны и народы Востока. Выпуск XXV. География. Этнография. История. М.: Наука, ГРВЛ, 1987.

## МАНБАЛАР БУХОРО УРГАНЖИЙЛАРИ ХУСУСИДА

**М.Б. Қурбонова,**
*БухДУ, Бухоро тарихи кафедраси доценти,*
**З. Шамсиева**
*БухДУ, I курс магистранти*

Бугунги кунда Бухоро воҳаси этнографияси тадқиқот объекти сифатида тарихчи-этнографлар диққатини жалб қилмоқда.Хусусан, воҳа аҳолиси этник тарихи ва анъанавий маданиятига қизиқиш ҳануз долзарб муаммолар қаторида туради. Зеро, Президентимиз таъкидлаганларидек, Бухорони биз нафақат "Ислом динининг қуввати", балки, айни пайтда миллий маданиятимиз ва санъатимиз ноёб чашмаси сифатида ҳам яхши биламиз.300
Бухоро аҳолиси этник келиб чиқишини ўрганиш мураккаб муаммолардан биридир.Айниқса, воҳаси халқи этник ранг-баранглиги билан алоҳида ажралиб туради ва бу тарихий манбаларда ўз аксини топган. Этнография ва воҳанинг этник тарихини илмий ўрганишнинг бошланиши XIX асрнинг биринчи ярмида Бухоро амирлиги ҳудудига ташриф буюрган саёҳатчилар, дипломатик ваколатхоналар вакилларининг фаолияти билан боғлиқ эди. А. Вамбери301, Д. Н. Логофет302 Н. Хаников303 ва Н. А. Аристов304 кабилар Бухоро амирлигининг этник таркибига оид маълумотларни ўз асарларида қайд этиб ўтганлар.

Бухоро воҳасида истиқомат қилган этник гуруҳлар орасида урганжийлар қабиласи алоҳида ўрин эгаллайди. Бу қабиланинг воҳа аҳолиси этник шаклланишидаги ўзига хос ўрни хусусида фикр юритишни лозим топдик.

Бухоро этнографиясига салмоқли ҳисса қўшган олима О.А.Сухарева Бухоро гузарлари тарихига оид тадқиқотида урганжий қабила вакиллари яшаган Урганжиён гузари ҳақида батафсил маълумот беради.305

Тадқиқотчи А.М.Маликов О.А.Сухарева ўз асарида Бухоро вилояти аҳолисининг ўн фоиздан ортиғи ва баъзи жойларда эса йигирма фоизини

[300] Mirziyoyev.Sh.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T."O'zbekiston"-2017,-B.146.
[301] Вамбери.Ҳ.Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи .-Т.: 1990.
[302] Логофет Д.Н. В горах и на равнинах Бухары. – СПб., 1913; Его же:Страна без правия.Бухарское ханство и его современное состояние.-СПб.,1909.-240 с.
[303] Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург.-1843
[304] Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности. – Живая старина.Вып. 3-4.СПб,1896
[305] Сухарева О.А.Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи с историей кварталов).-М.:"Наука".-1976.-С.141

Хоразмнинг урганжий қабилалари ташкил этганини таъкидлайди. Уларнинг Хоразмдан кўчирилиши Чингизхон босқинидан кейин бошланган. Кўчишнинг иккинчи тўлқини эса XIV асрнинг иккинчи ярми, яъни Хоразмга Амир Темур юришлари билан боғлиқ эди. Кўчишнинг учинчи тўлқини Амир Шоҳмурод ҳукмронлиги даврига (1785-1800йй.)тўғри келади. Амир Шоҳмурод томонидан кўчирилган урганжийларнинг бир гуруҳи Бухоронинг ўзида, шу жумладан, Бўйробофон гузарида истиқомат қилган. Улар кўпинча Хидир-Эли қабиласи туркманлари билан бирга яшашган. 1924-йилги аҳоли рўйхатида урганжийлар ягона гуруҳ сифатида ҳеч қандай уруғ-қабила бўлинмаларисиз қайд этилган. Аммо баъзи урганжийлар ўзларининг қабилавий келиб чиқишидан хабардор бўлишган ва ўзларининг саидлар,қўнғиротлар,маҳдумлар авлодига мансубликларини билишган. А.М.Маликов дала тадқиқотлари шундан гувоҳлик берадики, бугунги кунда урганжийларнинг катта қисми ўз аждодларининг номларини билишмайди. Урганжийларнинг кўп қисми ўғуз лаҳжасидаги она тилидан ўзбек тилининг Бухоро лаҳжасида сўзлай бошлаган. Этнографик нуқтаи назардан, кўплаб урганжийлар Бухоро воҳаси аҳолиси маданиятини ўзлаштириб, хоразмлик аждодлари маданиятининг баъзи элементларинигина сақлаб қолганлар.306

О.А.Сухарева 1924-йилда Бухоро вилоятида урганжийларнинг умумий сони 26.715 кишига етганлигини келтиради.307 Шу жумладан, Вобкент-Дарёда - 11,705 киши, Шофирконда - 4,990 киши , Султон Работда - 1,030 киши, Пирмаст - 4.325 киши, Абу Муслим – 440 киши, Хархон-рудда – 1810 киши, Қоракўл воҳасида 390 нафар урганжийлар рўйхатга олинган 308.

Бухоро воҳасидаги Урганжиён гузари XVI асрда ташкил этилганлиги маълум.309 Ушбу гузар аҳолисининг асосий қисми Хивадан келган урганжийлар бўлиб,улар тўқувчилик касби билан шуғулланганлар. Улар ўз устахоналарида кўпинча адрас,беқасам тўқишарди. Бундан ташқари, гузарнинг ўз масжиди ва мактаби бор эди. Урганжийларнинг зиёратгоҳи Саид Тожиддин мозори бўлган.

1927-йилги ҳисоботларга кўра, ушбу гузарнинг 52 та хўжалигида 260 киши истиқомат қилган.1929-йилги гузар аҳолисини қайта рўйхатга олиш даврида номи ўзгартирилган, ҳужжатларда Хонақоҳи Жўйбор гузарлари билан бирлаштирилиб, Мирзо Маҳди номини олган. Истиқлол йилларида ушбу гузар академик Иброҳим Мўминов номи билан аталган.

Бухорога Урганчдан кўчиб келган аҳолининг бир қисми маҳаллий тожик тилини ўзлаштириб олганлиги ҳам манбаларда кайд этилган. Айнан Урганжийларнинг тожик тилида сўзлашувчи қисми Урганжиён, Чармгарон, Ҳожидорғо гузарларида истиқомат қилган. Бўйробофон гузарида истиқомат

---

[306] А.М. Маликов. К этнической истории узбеков Бухарского оазиса в XIX-начале XX вв.:shosh.uz./r-etnicheskoy-istorii-uzbekov-buharskogo-oazisa-v –xix-nachale-xx-vv/

[307] Сухарева О.А.Бухара XIX — начало XX в.(Позднефеодальный город и его население). М., 1966.-С.139

[308] Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1. Территория и население Бухары и Хорезма. Часть 1. Бухара. Ташкент, 1926. С.197

[309] Rahmatova.S,Qurbonov.H.B.Buxoro guzarlari tarixidan lavhalar.-Buxoro.-1995.B.32-34

қилган уржанжийлар ўзбек тилини сақлаб қолган бўлса, Олимхўжа гузаридаги урганжилар ҳам тожик, ҳам ўзбек тилида гаплаша олган.

Бухоро шаҳри аҳолиси этник тарихи ўзининг ранг-баранглиги билан тадқиқотчи олимлар диққатини жалб этишининг ўзига хос сабаблари мавжуд.Булар қуйидагилар:

-қадимдан воҳадаги туркийзабон ва тожикзабон этник гуруҳлар узоқ асрлар давомида тинч-тотув умргузаронлик қилганлар;

- ушбу жараён натижасида турли миллат ва элатлар орасида миллатлараро тотувлик яратилган;

- ҳозирга қадар турли этник гуруҳларнинг ўзига хослигининг сақланганлиги ва маданияти,урф-одати ,қадриятларининг асраб-авайланишидир;

- воҳа аҳолиси этник гуруҳлари орасида трансформациялашув жараёнининг жадал суръатлар билан боришидир.

Мазкур мақолада воҳада истиқомат қилган биргина урганжий қабиласининг этник таркиби,тили, хўжалик машғулоти, этник жойлашуви, умуман, ижтимоий муносабатларини манбалар асосида тарихий-этнографик нуқтаи назардан илмий таҳлил қилдик. Зеро, этнология фанининг муҳим муаммоларидан бири – халқнинг этногенези ва этник тарихини тадқиқ этиш долзарблиги ва муҳимлиги давр талабидир.

## АКАДЕМИК КАРИМ ШОНИЁЗОВ ИЖОДИДА БУХОРО ТАРИХИ

**Ф. Бобожонова**
*БухДУ доценти,*
**Н. Элмуродова,**
*БухДУ магистранти*

Заҳматкаш ва фидойи олим К. Шониёзов ижодида Бухоро тарихи алоҳида ўрин тутади. Карим Шониёзов “Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни” асарида Бухоро тарихи баёнига салмоқли ўрин ажратганди. Унинг асарларида IX—X асрларда Бухоро воҳасининг тарихи ёзма манбалар асосида тўлақонли акс эттирилган.

Этнология фани дарғаларидан бири академик Карим Шониёзов Сомонийлар давлатининг пойтахти сифатида Бухоро вилояти асосан Зарафшон дарёсининг қуйи оқимларини эгаллаган, IX—X асрларда иқтисодий ва маданий жиҳатдан тараққий этган Мовароуннаҳр минтақаларидан бири эди. Бу вилоятнинг шарқий чегараси Кармана шаҳридан бошлаб, ғарбда Амударё соҳилларигача борган. Нурота райони ҳам Бухоро вилояти таркибида бўлиб келганлиги юқорида тилга олинган асарда батафсил баён этилган.

Академик К.Шониёзов Бухоро тўғрисидаги маълумотларни Наршахий китоби ҳамда бошқа қўлёзма манбалар асосида ёзади. Араб географларининг

маълумотларини эътиборга олинса, Бухоро вилоятида катта ва кичик шаҳарларнинг сони 35 та бўлган310. Зарафшон воҳасининг қуйи оқимларидаги Бухоро, Бойканд (Пойканд), Ромитан, Товоис ва бошқалар воҳанинг нуфусли йирик шаҳарларидан бўлган. Бу шаҳарлар Буюк Ипак йулида жойлашган бўлиб, IX—X асрларда юқори иқтисодий ва маданий тараққиётга эришган ва Ўрта Осиё халқларининг тарихида маълум из қолдирган. Бу шаҳарлар ва Зарафшон дарёсининг қуйи оқимларидаги бир қанча бошқа катта-кичик шаҳарлар тарихий ва археологик илмий асарларда ёритилган[311].

Олимнинг бу тадқиқотида Бухоро шаҳри IX—X асрларда Зарафшон воҳасининг қуйи оқимларидаги шаҳарлар ичида энг йириги ва нуфусли эканлиги, Сомонийларнинг сиёсий маркази бўлиб келганлиги тўғрисида қимматли маълумотлар беради. Сомонийлар бу шаҳарнинг қурилиш ишларига, унинг маданий жиҳатидан тараққий этишига катта аҳамият бериб келганлар. Шаҳарда ҳунармандчиликнинг турли соҳалари ва тижорат ишлари бирмунча ривожланиб, шу асрларда бу шаҳар Ўрта Осиёдаги йирик иқтисодий марказлардан бири ҳам бўлиб қолган эди: унда ишлаб чиқариладиган айрим товарлар бир қанча мамлакатларда машҳур бўлган. Бухорода «бир корхона бор эди; унда палослар, дарпардалар, ёзги кийимлар, ёстиқ жилдлари, жойномозлар ва уст кийимларни халифа учун тўқир эдилар: битта дарпардага (бутун) Бухоро хирожи сарф бўларди. Бағдоддан хар йили алоҳида бир омил (амалдор, солиқ йиғувчи) келиб Бухоро хирожининг эвазига шу кийимлардан олиб кетар эди деб ёзган эди, Наршахий. Ҳунармандларнинг ишини юқори баҳолаб, тарихчи қуйидагиларни баён этади: «Бухоро шаҳрида шундай ишга тайин қилинган усталар бўлар эдилар; вилоятлардан савдогарлар келиб, одамлар зандонийчини олиб кетганларидек, у кийимлардан Шом ва Мисрга, Рум шаҳарларига олиб кетар эдилар. Хуросоннинг ҳеч бир шаҳрида бундай (мато) тўқий олмас эдилар».

Карим Шониёзовнинг тадқиқотида Бухоронинг этник тарихи ва унинг аҳолиси ҳақида ҳам маълумотлар мавжуд. О. Г. Большаковнинг тахминий ҳисобига кўра, Бухорода X асрда 40—50 минг киши бўлган. Унинг атрофларида ва работларида яна 48 минг киши яшаган. Демак, Бухоро ва унинг атрофларида яшовчи аҳоли сони 100 минг кишига яқинлашган. Шаҳарнинг этник таркиби ҳам бир хилда бўлмаган. Шаҳарнинг асосий аҳолисини сўғдийлар ва туркийзабон халқлар ташкил килган.

Милодий IV—VI асрлар давомида Мовароуннаҳр ҳудудида хионийлар ва эфталийлар яшаганлар: буларнинг асосини ҳам туркийзабон қабилалар ташкил қилган. Асрлар давомида туб ерли аҳоли билан аралашиб, маҳаллий туркийзабон аҳолининг сони жиҳатдан кўпайишига сезиларли ҳисса қўшган. VI аср Ўрталарида Турк хоконлиги вужудга келгач, Бухоро воҳасига туркий элатларнинг келиши ҳам яна кўпаяди. Турк хоқонлигида юз берган ички

---

[310] Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1966. – 20-25 бетлар.

[311] Наршахий. Бухоро тарихи.26-б.

низолар натижасида VI асрнинг иккинчи яримларида Еттисувдан Бухоро воҳасига, жумладан Бухоро ва Бойканд (Пойканд) шаҳарларига келиб ўрнашиб қолмаган турк қавмлари оз бўлмагандир, албатта. Бухоро вилоятида, жумладан Бухоро шаҳрида VII аср охирлари — VIII аср бошларида ҳам туркийзабон аҳоли мавжуд эди.

Наршахийнинг асарида кўрсатилган 14 та шаҳардан 11 таси қишлоқ деб тилга олинган, булар: Нур, Кармана, Тавовис; Искажкат, Зиндана, Вардона, Афшина, Ромтин (Ромитан), Варахша. Шу вақтда Наршахийнинг китобида уларнинг хар бири алоҳида таърифлаб ўтилади. Тарихчининг тавсифига ҳамда араб географларининг (Истахрий, Муқаддасий, Яқубий) асарларида келтирилган «қишлоқлар» IX—X асрлардаги иқтисодий ва маданий ҳаётнинг марказлари бўлган. Масалан, Тавовисни (унинг асли номи Арқуд) олайлик. Бунда шаҳристон бўлиб, ҳар йили куз фаслларида ўн кун бозор бўлган. Шу ўн кун ичида мазкур бозорга Фарғонадан, Чочдан (Тошкентдан) ва бошқа жойлардан кишилар келганлар. «Савдогарлар ва турли ҳожатмандлардан ўн мингдан ортиқ киши хозир бўлишар ва кўп манфаат топиб қайтар эдилар. Шу сабабли бу қишлоқнинг аҳолиси бой кишилар эдилар ва бойликлари деҳқончилик туфайли эмас эди» дейилади «Бухоро тарихида». Демак, Тавовис аҳолиси асосан савдо-сотиқ туфайли бойиган, Самарканддан Бухорога келишда чўл ерларидан воҳага кириш ерида бўлиб, илк Ўрта асрларда тараққий этган шаҳар ҳисобланган.

Бухоро воҳасидаги тўққизта кичик шаҳарда (аҳолиси оз-кўплигини ҳисобга олиб) 75 минг киши яшаган деб тахмин қилган. Шунда Бухоро воҳасидаги шаҳарларда 225 минг киши яшаган бўлиб чиқади. Бухоро вилоятларининг қишлоқлари ҳам оз бўлмаган. В. В. Бартольд, араб географларининг асарларидан, Бухоро воҳасидаги 122 қишлоқ, номини келтиради. Ибн Хавқал (X аср) ахборотида айтилишича, Самарқанддан келаётган киши Кармананадан ўтиб, воҳа атрофидаги девор ичкарисига кириш пайтидан то Бухоро шаҳригача 6 кунлик йул бўлиб; йўловчи жуда кўп қишлоқлардан ўтиб боради, деган эди. Ибн Хавқал сўзини давом қилиб, «Агар тоққа чиқиб, унинг устидан Суғд дарёси водийсига назар ташланса, муттасил кўкламзор-дарахтзорни кўради киши; улар орасида қўрғонлардан, ҳовли-қасрлардан бўлак хеч нарса кўринмайди» деган эди. Хақиқатда ҳам асрлар давомида Бухоро воҳаси дарахтзор-мевазорлари мўл бўлганлиги, хушманзарали билан саёҳатчиларнинг диққатини ўзига жалб килиб келган. Воҳа ичида қишлоқлар ҳам кўп бўлган.

Хулоса қилиб айтганда, академик Карим Шониёзов Бухоро шаҳрининг тарихий топографияси ва топонимикаси, қадимги шаҳристон дарвозалари тўғрисида қимматли маълумотлар беради.

***5А150204 – Музейшунослик, тарихий-маданий объектларни консервация қилиш, таъмирлаш ва сақлаш)***

# ДРЕВНЯЯ И ВЕЧНАЯ БУХАРА

**А.Л. Ширинов,**
*II курс магистрант, БухГУ*

Бухара – один из древнейших городов мира, вносивший на протяжении веков весомый вклад в материальную и духовную культуру всего человечества. Возраст Бухары, расположенной на Великом Шелковом пути, превышает две с половиной тысячи лет. Это – наиболее целостный образец средневекового города в Центральной Азии, с почти не измененной городской планировкой. Город стал сегодня поистине доступным для всех приезжающих сюда гостей, музеем под открытым небом.

В городе ныне более 400 сохранившихся исторических достопримечательностей материальной культуры: 11 крупных архитектурных ансамблей, 8 мавзолеев, 47 мечетей, 14 караван-сараев, 39 медресе, 8 археологических памятников, 5 торговых рядов, 19 бань (три из них сохранились до наших дней), 264 представляющих художественную ценность жилых домов. Включение в 1993 году решением ЮНЕСКО Бухары в список всемирного наследия стало подтверждением признания миром культурного вклада города. Поистине, бесценными являются и изделия бухарских ремесленников.

Священная земля Бухары на протяжении веков была колыбелью науки, знаний, духовности и культурой, стала родиной великого врачевателя Абу Али ибн Сион, видного историка своего времени Наршахи, выдающихся священнослужителей Имама аль-Бухари, Абдухолика Гиждувони, Бахоуддина Накшбанда, Ходжи Орифа Ревгари, Ходжи Махмуда Анжира Фагнави, Ходжи Али Ромитани, Бобои Самоси, Амира Кулола и других. Оставленное ими наследие стало важнейшим источником для науки, культуры, искусства. Бухара была предметом гордости и для таких выдающихся личностей, как Сахибкирон Амир Темур и Мирза Улугбек.

Представляемое читателю путеводитель составлено на узбекском, английском, немецком и русском языках. В нем предпринята попытка дать краткую информацию об известных отечественному и зарубежному читателю архитектурных памятниках древней и вечно молодой Бухары, особенно тех из них, которые благодаря неустанному вниманию Главы нашего государства были в годы независимости отреставрированы и получили свое рождение. Основная информация сопровождена иллюстрациями.

Бухара – один из самых древних городов Узбекистана, подлинное сокровище, созданное людьми на протяжении многих столетий. Наиболее ценную часть этого бесценного клада составляет архитектура города. Памятники старины отражают многовековую жизнь народа, историю местности, религию и культуру страны. Местная архитектура–яркое отражение огромного строительного опыта, научных достижений, уровня социального развития и общественной мысли, накопленных предыдущими поколениями.

Наверное, нет еще других таких уникальных и неповторимых городов в Центральной Азии, как Бухара. За всю свою долгую историю город переживал периоды развития и упадка. Каждый раз, когда он разрушался захватчиками, гений людей восстанавливал его, и он возрождался, словно легендарная птица Феникс из пепла, приобретая еще большую красоту и величие. Бухара, как известно, отпраздновала свой славный 2500-летний юбилей в 1997 г.

Существует ряд народных легенд, связанных с основанием города. Одна из них возводит городское начало к легендарному юному герою известного эпоса – Сиявушу. Спасаясь от вероломства своей мачехи, Сиявуш – сын иранского шаха и принцессы-турчанки, – прибывает в Туран. Шах Афрасиаб женит его на своей дочери и дает ему земли в низовьях реки Зарафшан, где Сиявуш и строит крепость. Вскоре Сиявуша ждет новый заговор, в результате которого он погибает. Как гласит легенда, Сиявуш похоронен у восточных ворот цитадели Арк основанного им города.

Город упоминается в согдийских источниках 6 века как Нумижкат, в китайских хрониках 7-8 веков, как Бухо, Пухо, Бугэ, Вихара (по индийский «буддийский монастырь»), Бихар (по иранский) Как значимая столица, Бухара начинает упоминаться, начиная уже с 6 века.

Тюркский принц Шери Кишвар сделал Бухару своей столицей после взятия и подавления восстания в одном из близлежащих городов.

Вскоре, в 7 веке, один из правителей удачно реконструирует городской замок, догадавшись придать его пространству, чтобы избежать постоянного разрушения, – область семи столбов, контуры созвездия Большой Медведицы. И имя инициатора такой догадки сегодня сохранилось на железной пластине, прикрепленной к воротам замка.

С самых древних времен, город вырастал, включая в себя крепость, непосредственно город и окраину, которые расширялись на протяжении веков. Крепость всегда была в центре города, состояла из шахского дворца, рабочих помещений, храма (мечети), тюрьмы… Перед крепостью был т.н. Регистан, покрытый песком, с сотнями павильонов, огороженных канавами. Город снабжался водой из ряда каналов. Шахристан имел прямоугольную форму – первоначально с четырьмя воротами. В связи с расширением столицы количество ворот возросло до семи.

В 13 веке город был окружен стеной из 11 ворот. Город разрушался и перестраивался и своего нынешнего вида достиг приблизительно в 16 веке.

Своим нынешним обликом Бухара обязана Абдуллахану: жилые, торговые, административные районы в его эпоху приобрели санитарные услуги, хорошо развитую сеть каналов и прудов, в город стала централизованно подаваться питьевая вода.

Величественный фон возвышавшихся мечетей стали дополнять украшенные порталы медресе, хонако, торговые купола, шумные перекрестки обустроенных улиц. Все это можно было видеть издалека – восточный город зазывал своей интригующей красотой и величественной грацией.

Арк – один из самых древних памятников Бухары, большое земляное фортификационное сооружение в северо-западной части современного города, символ величия, власти и неприступности. Он имел много наименований – такие, как Кухандиз, Гиссар, Калъа. В легендах его история связана с именами Сиявуша и Афрасиаба. Замок имел два выхода: один – на восточной стороне и другой–западной. Ворота восточной стороны назывались «Дари Гуриён», западной – «Дари Регистон». Цитадель разрушалась несколько раз, перестраивалась и приобрела нынешний вид в 16 веке. Она занимает площадь в 4,2 га и достраивалась до начала 20 века. Верх цитадели возвышается на 20 м над землей. Ее крутые стены были в свое время сделаны из глины и саманных кирпичей. В крепости располагались: дворец правителей, дворцовые службы чиновной знати и военачальников, ремесленные мастерские, казначейство, арсенал, жилища родственников и сановников двора, склады одежды, ковров, оружия, дворцовые сокровища. Почти все структуры, построенные в 16-20 веках, были разрушены и сожжены во время бомбардировки города Красной Армией. Только «западные ворота» и несколько других ветхих частей уцелели. После реставрационных работ в 20-х гг. XX в. здесь был создан музей.

Вход в цитадель состоит из ворот с двумя столбами в форме башни. Вход, покрытый деревянными балками, идет на север. На обеих сторонах коридора есть темные комнаты, которые служили тюремными камерами. Проход ведет наверх, в пятничную мечеть, которая стоит на высокой каменной платформе. Траектория поворота направо ведет к перекрестку, где есть тронный зал, окруженный галереями с деревянными колоннами. В зале находится трон эмира. В годы независимости цитадель Арк капитально реставрирована и получил, свой первоначальный облик.

Или к примеру архитектурный ансамбль Ляби-хауз Из всех монументальных достопримечательностей Бухары, комплекс Ляби-Хауз – самое любимое место отдыха для жителей города. Большой красивый пруд дал имя этому архитектурному ансамблю. Расположенный на одной из центральных площадей старой Бухары, этот ансамбль включает в себя Медресе Кукельдаш, Хонако Диванбеги и Медресе Диванбеги, сгруппировав вокруг хауза.

Крупнейшей составляющей комплекса является Медресе Кукельдаш, построенное в1568-69г и названное так в честь Кулбобо Кукельдаша.

Кукельдаш – видный государственный деятель, военачальник во время правления Абдуллахана. Вдохновение привело гений архитекторов к традиционной основе, и медресе Кукельдаш – одно из крупнейших сооружений подобного типа, которое имеет 160 худжр. Впервые в бухарской архитектуре были построены арочные окна с решетками из глазурованного кирпича на первом этаже и веранды – на втором этаже. Инновационные попытки в составе и дизайне медресе особенно заметны в стиле аудиторий и мечети. Оштукатуренные комнаты в лекционном зале дают максимум воздуха и света, создают впечатление общего купола. Входная дверь в медресе является прекрасным образцом искусства резьбы по дереву.

Комплекс Ляби-Хауз, состоящий из хонако, пруда и медресе, был построены по заказу Надира Диванбеги. Пожилые жители Бухары рассказывают следующую легенду о пруде. Намереваясь создать пруд перед хонако, Надир Диванбеги должен был выкупить дом, который существовал на месте водоема. Он попросил у его хозяина - это была вдова, но она отказала. Не теряя терпения, Надир Диванбеги прорыл канал в дом. Вода начала заливать дом, и бедная женщина была вынуждена уступить эту землю.

Пруд был построен в 1620 г. верхней площадью (36х46 м.). Ни в одном другом городе нет такого пруда. Пятиметровая глубина сочетается бережками, составленными из блоков желтого камня, ступенями, постепенно спускающимися в воду. Возраст старых тутовых деревьев, растущих вокруг пруда, обеспечивает приятную, прохладную тень.

На западной стороне пруда стоит Хонако Девонбеги, построенное в 1619-20 гг. Хонако является типичной структурой, состоящей из большого здания, покрытого куполом. Портал с видом на пруд – достаточно высокий. Лестница в углу башни ведет к комнатам на втором этаже. Основную часть хонако занимает просторный зал с алтарем. Украшения двух боковых стен не сохранились. Есть останки эпиграфики, красивого белого кафеля на синем фоне.

В 1622-23 гг., через два года после строительства пруда, Нодир Девонбеги построил на площади караван-сарай, отделенный от пруда. На церемонии открытия Имамкулихан как бы невзначай поздравил Диванбеги с еще одним «благочестивым деянием - строительством медресе». После такого «заявления» у Надира Диванбеги не было другого выбора, кроме как преобразовать караван-сарай в медресе. Легитимность этой истории поддерживается планировкой и составом медресе. В отличие от всех других медресе в зданиях нет мечети, лекционного зала или галерей. Кроме того, вход широкий и прямой, в него запросто могли войти нагруженные лошади и верблюды. Эти и другие различия указывают, что это медресе было изначально построено как караван-сарай, а позже преобразовано в медресе.

Спустя тысячелетия Бухара стала крупным промышленно-торговым центром в республике Узбекистан, хотя большую роль в жизни города играют многочисленные достопримечательности, которые привлекают туристов со

всего мира. И здесь есть на что посмотреть, священная Бухара стала центром Возрождения на Востоке в 10-11 веках. Именно тогда великим ученым Бухары удалось сделать свои первые открытия, благодаря которым научная мысль Востока того времени ушла далеко вперед от Запада. Вечно загадочная и прекрасная Бухара всегда рада открыть двери для всех гостей из разных уголков мира.



Цитадель Арк



Хонако Надир Диванбеги



Медресе Надир Диванбеги



Медресе Кукельдаш

**Список литератур:**


1. А. И. Ремпель. Бухара. Далёкие и близкие. (Бухарские записки). Т.,1982.
2. Г. А. Пугаченкова. Шедевры Средней Азии.Т.,1986.
3. В.Г. Сааков. История Бухары. Т., 1996.
4. Национальная энциклопедия Узбекистана. II том, Т.,2006.


## ХАЛҚ АМАЛИЙ САНЪАТИ ДУРДОНАЛАРИ МУЗЕЙ КЎРГАЗМАСИДА


**О.А. Кличев,**

*БухДУ доценти, т.т.ф.д (PhD),*

**Н.Н. Ҳасанова,**

*БухДУ, II курс магистранти,*

*Ушбу мақолада Ситораи мохи хоса мажмуасидаги XIX-XX аср Ўзбек халқ амалий ва безак санъати намуналари: зардўзлик, каштачилик, гиламбофлик, заргарлик, миллий либослари ва бошқа соҳалар ёритиб берилган.*

Музей-халқ тарихининг кўзгусидир. Унинг вазифаси осори-атиқаларни, санъат ва ҳунармандчилик асарларини йиғиш, сақлаш ва намойиш қилишдан иборат. Бухоро давлар музей қўриқхонаси таркибидаги “Халқ амалий безак санъати музейи” Манғитлар сулоласининг сўнгги вакили Саййид Олимхоннинг ёзги қароргоҳи Ситораи Мохи Хоса саройида жойлашган. У 1927-йил Файзулло Хўжаев ва Мусажон Саиджоновлар ташаббуси билан ташкил этилган. 1984-йилдан бошлаб шу ном билан атала бошланган. Музей кўргазмалари залларида халқ амалий санъатининг анъанавий турларидан гиламбофлик, заргарлик, зардозлик, тўқимачилик, миллий либослар, каштачилик, кулолчилик ва бошқаларнинг ноёб намуналари намойиш қилинган. Улар кўҳна воҳанинг маданий ҳаётидан қизиқарли ҳикоя қилади. Бухоро қадимдан ипак, шойи, адрас – ярим ипак, алоча, беқасам, банорас, баркут, ип газлама, бўз, чит, қалами, карбос ва бошқа матолар хонатлас, гул бахмал тайёрлаш буйича марказлардан бири саналган. Бухоронинг бой хонадон аёлларнинг XIX аср иккинчи ярми либослари ўз бичими, ўлчами, кўриниши ҳамда гўзаллиги орқали кишини лол қолдиради. Бу ерда миллий матолардан тикилган кийимларга зардўзлик билан безаклар берилганига гувоҳи бўламиз. Ситораи мохи хоса халқ амалий безак санъати музейининг “Бухороликларнинг миллий либослари” бўлимида XIX-XX аср бошларида Бухорода тайёрланган эркаклар, болалар ва аёллар кийимлари намойиш этилган. Кўргазмадаги XIX асрнинг иккинчи ярмига таълуқли аёллар кўйлаги Бухоро зардўзлари маҳоратини намоён қилади. Дастлаб зардўзлик билан эркаклар шуғулланган, кейинчалик эса аёллар ҳам бу касб билан шуғуллана бошлаганлар. 1920-йилгача Бухорода 300-350 нафар зардўзлар фаолият юритган.

Бухоро зардўзи ашёларнинг аксарият ҳаммаси амир саройининг эҳтиёжи учун ишлатилади, оз миқдори эса сотилар эди. Эркакларнинг зар билан тикилган тўн, камзул, чакмон, чалвор, пояфзал, белбоғ, салла, қулоҳ ва жул от доурилари фақат хонга ва унинг буюртмаси ёки яқинлари томонидан биронта тантана ёки байрам муносабати билан тайёрланган. Ҳеч ким ҳатто, энг катта амалдорлардан бирontаси ҳам юқорида айтиб ўтилган кийимлардан ҳеч бирини кийишга ҳаққи йўқ эди. Улар зарбоф кийимларни фақат амир совға қилсагина кийишган. Аёллар ва болаларнинг зардўзи кийимлари фақат бадавлат хонадонларнинг аъзоларигагина кийиш расм бўлган. Ўғил болаларга эса, суннат туйи муносабати билан зарбоф тўн ва дўппи кийдирилган.

Манғитларнинг биринчи сулоласи вакилларига мансуб бўлган зардўзи ашёлар бизгача етиб келмаган. Амир Ҳайдар замонидан ягона ёдгорлик сифатида зардўзи махси сақланиб қолган. Шу жиҳатдан Бухоро миллий

либосларининг таркиби ва тикилиш анъаналарига алоҳида тўхталиш жоиз. Аёллар ва болалар либослари музей кўргазмасида мажмуа шаклида берилган бўлиб, устки либослари адрас, беқасам шойи, ҳисори, беқасам, бахмал каби матолардан тайёрланган. Либослар шаклан кўриниш жиҳатдан бир-бирига яқин бўлиб, асосан иқлимга мослаштирилиб кенг ва тўғри бичимли қилиб тикилган. Кийимлар ёзги ва қишги турларга ажратилган. Қишки кийимлар пахтали чокли қилиб тикилган. Ёзги кийимлар эса енгил, кенг тўғри ёқали тикилиб атрофи зей-жияк ёки пешкурта билан безатилган. Эркаклар кийимларининг қадим замонлар энг кўп тарқалган тури халат-яктакдир. Шунингдек музейдаги витриналарда келин ва куёв либоси, паранжи, чачвонлар кишини бефарқ қолдирмайди. Музей кўргазмасида кийимлар билан бирга заргарлик санъати намуналарини кўришимиз мумкин. Хилма-хил туморлар, зираклар, билакузуклар, нозигардонлар, тиллақошлар, понча, тўр ва тилла найчалар, ҳафабандлар ва моҳитиллолар юксак маҳорат намуналари сифатида ҳар қандай кишини лол қолдиради. Бухоро заргарлари қўллаган заргарлик санъати усуллари ҳам хилма-хилдир.

Музейдаги бадиий каштачилик бўлимидаги намойиш қилинган экспонатлар ҳам ҳар бир кишини мафтун этади. Хох бой бўлсин, хох камбағал аҳолининг барча табақаси аёллари кашта тикишган. Оддий оила аёллари бўздан, бой оила аёллари ярим ипак адрас ва шойи матоларидан фойдаланганлар. Бухоро қизлари асосан 5-7 ёшдан кашта тикишга ўргатилган. Вояга етгач ўзлари учун ўнтагача сеп тайёрлашган. Сеп таркибига сўзанилар, жойпуш, жойнамоз, белбоғ, қўл рўмолча, ойна халта, чой халта, шонахалта, танпоккун каби буюмлар кирган. Кашталардаги ҳар бир нақш маълум бир маънони билдирган. Масалан: қуёш, ҳаётни, шох ва бутоқлар умр рамзини, бодом-узоқ умрни, анор-фарзанд кўплигини. қалампир ва қўчқорак хонадонни бало-қазодан сақлашини билдирган. Кашта иплари қўлда йигирилган, ипакдан тайёрланиб табиий бўёқлар билан бўялган. Бунинг учун анор пўсти, ёнғоқ, пиёз пўсти, исириқ, рўян, шафран, искандарпечон, хино каби табиий ўсимликлардан фойдаланилган. Кашталар билан фақат деворлар эмас балки, уст кийимлар, дўппилар ҳатто оёқ кийимлари, маҳси, этик ковушларни ҳам безатганлар. Музейда жами 173 дона каштачилик намуналари сақланмоқда.

Гилам бебаҳо миллий бойлигимиз, ноёб бадиий, тарихий ёдгорлик сифатида қадрли ва қимматли саналади. Ҳар бир ўзбек хонадонида ҳеч бўлмаганда икки дона гилам бўлади. Ситораи моҳи ҳосса музейида ҳам турли хил гиламларни кўриш мумкин. Бошқа экспонатлардан фарқли ўлароқ гилам сони оз, яъни умумий 8 дона гиламбофлик намуналарни кўрамиз. Даҳлисхонининг ғарб томон деворига катталиги 5х3 эрон қолин гилами осилган. Қолин XVIII асрда Эроннинг Шероз шаҳрида тайёрланган бўлиб, унда машҳур Ерон шоири Абулқосим Фирдавсийнинг шоҳ асари “Шоҳнома” га ишланган миниатюра билан безатилган. Баҳром Гўрнинг ов қилиш манзараси моҳирона тасвирланган.

1920-йилдаги қонли воқеалар гувоҳи бўлган бу гилам тасодиф туфайлигина саройда қолган. 1922-йил Кўкалдош мадрасасида ташкил қилинган музей ашёлари орасида ушбу ёдгорлик ҳам бор эди. Гилам паттининг боғлами майда ва пишиқ қилиб бажарилган. Унинг бўёқлари табиий бўлиб илиқ ва совуқ рангларнинг уйғунлигида бажарилган. Гиламдаги нақшлар асосан ўсимликсимон ва жонзот қуш ва отлиқ чавандоз овчилар ҳамда ҳандасавий медалионлар шаклидадир. Қарийб икки юз йил олдин яратилган гилам орқали кишилар тарбиявий, маънавий-марифий озиқ олиши билан бирга аждодларимиз кийган кийимлар, ишлатган ов қуроллари, ўқлари ва бошқа нарсалар ҳақида ҳам тарихий билимларга эга бўлади.

Хулоса. Ўзбек халқининг бой ўтмиш маданияти, санъати, халқ ҳунармандчилигининг ноёб дурдоналаридан ташкил топган музей экспозиция-кўргазмаларининг халқимизнинг юксак маънавиятини англашда ҳар бир томошабиннинг эстетик тарбиялашда ўрни ниҳоятда муҳимдир. Халқаро сайёҳликни янада ривожлантириш учун юртимизда олиб борилаётган улкан ишлар бизнинг қадимги тарихимиз, урф-одатларимиз, маданиятимиз ва санъатимизнинг бетакрор намуналари осориатиқаларимиз ёрдамида жонажон ўлкамизнинг дунёга танитишда музейлар муҳим аҳамиятга эгадир.

**Адабиётлар рўйхати**


1. Содиқова Н. “Ўзбек миллий кийимлари” Тошкент. 2003 й.
2. Ганчарова П.А. “Бухоро зардўзлик санъати” Тошкент. 1986 й.
3. Ахмад қизи Ҳ. “Хос саройнинг нохос аҳволи” Бухоро ҳақиқати. -1997. -1 ноябрь. – Б.2.
4. Жумаев Қ. “Ситораи мохи – хосса” Тошкент. 2010 й.
5. Жумаева Н. “Ситораи мохи – хосса бўйлаб” Тошкент. 2019 й.


## МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ЁШЛАРГА КАСБ-ХУНАР ЎРГАТИШ ХАҚИДАГИ МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ҚАРАШЛАРИДАН


**О.З.Норова**

*БухДУ Тасвирий санъат ва мухандислик графикаси кафедраси II босқич магистранти*

**Т.Р.Собиров**

*БухДУ Тасвирий санъат ва мухандислик графикаси кафедраси доценти*


Бугунги кунда Ўзбекистон жахон хамжамиятида ўзининг муносибўрнини эгаллаши учун маънавий, сиёсий, иқтисодии йўналишларда ғоят мухим ва мураккаб ишлар амалга оширилмокда.Юртбошимиз Ислом Каримов "Халқимизнинг маънавий бойликлари, жахон тараққиётининг энг яхши меросини ўзида мужассамлаштирган янги авлодни шакллантириш

бугуннинг энг мухим вазифасидир. Фақат шу асосдагина, олдимизга қўйилган юксак мақсадлар барчамиз учун хаётимизнинг мазмунига айланиб қолгандагина, миллатнинг онгли ватанпарварлик рухини юксалтириб, ривожланган илғор мамлакатлар каби тараққиёт йўлидан илдам қадам ташлаш имкони туғилади", деб таъкидлаган эдилар. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни, кадрлар тайёрлаш миллийдастури" мамлакатимиз ижтимоий-сиёсий хаётидаги улкан ходиса бўлиши билан бирга, таълимнинг янги модели асосида иш олиб боришни тақазо этади. Яъни янги таълим модели орқали ўқувчи кишларни муайян бир ихтисосга эга қилиб хаётга йўлланма беришга, жамиятда муносиб ўринни эгаллашга алохида ахамият берилмоқда.

Бугунги кунда узлуксиз таълимни ислох қилиш миллий ўзликни англаш, ватанпарварлик, миллий истиқлол ғоясини ёш авлод онгига сингдириш, миллий маданий-тарихий анъаналарга ва халқимизнинг интеллектуал меросига хурмат, республикамизнинг жахондаги мавқеи ва обрў-эътиборини мустахкамлаш каби мухим вазифаларни хал этишга сафарбар килинган.  Бу вазифаларни амалга оширишда аждодларимизш қолдирган маънавий хазиналаридан ўринли фойдаланиб, ёшларимизга касб-хунар ўргатиш мухим ахамиятга эгадир. Асрдан асрга, авлоддан авлодга ўтиб келаётган улуғ аждодларимизнинг миллий-махнавий мероси, жахон цивилизацияси дурдоналарини ташкил этар экан, унинг шахс камолотидаги ахамияти чексиздир.

Туркий халқларнинг қадимий маданиятининг жахон тараққиётидаги ўрни салмоқлидир. Хуросон, Мовароуннахр, Афросиёб, Суғдиёна, Мароқант, Турон, Тотаристон ва бошқа жойлар бутун дунёга машхур бўлиб, бу табаррук заминда Ахмад Яссавий, Беруний, Фаробий, Ибн Сино, Махмуд Қошғарий, Алишер Навоий сингари буюк алломалар; Спитамен, Широқ, Муқанна, Жалолиддин Мангуберди, Темур Малик ва Махмуд Торобий, Сохибқирон Амир Темур ва темурийзодалардек жасур ўғлонлар дунёга келдилар. Булар ўз халкларининг бахт-саодати учун курашдилар. Шунинг учун жахон уларнинг эзгу амалларини олқишлаб, табаррук номларини хануз ўз калбарида муқаддас тутмоқдалар.

Буюк фузалоларимиз ёшлар тарбиясига, хунар ва илм олишга чақирганлар. Масалан: Абдурахмон Жомий ёшларга мурожаат қилиб шундай ёзган эди:

Олтин топмагунча ўргангил хунар,
Хунарнинг олдида хасдир олтин-зар.

Ота-боболаримиз бежиз айтмаганлар: "Бир йигитга етмиш хунар оз. Эй, фарзанд, агар оқил ва доно бўлай десанг, хунарманд бўлишни ўйла, хунармадлик сабабидан иззат ва хурматга эришасан, агар хунардан бебахра бўлсанг, куруқ, соясиз дарахтга ўхшаб қоласан. Эй, фарзанд, ақлли, фаросатли ва илму хунарли кишилар билан дўст бўл. Хунарсиз кишидахосият бўлмайди. Мехнатдан, илму хунар ўрганишдан узоқлашма.

Хунар ўрганиб, илму одоб эгаси бўлган одам оламда ўз ўрнини топади. Мехнат қилиш ва уни элга манзур этишнинг хам ўзига яраша одоби бор. Хар бир ишни халол бажариб, охирига етказ. "Мендан кетгунча,,," тариқасида ишқилма, ишни қўл учида қилишдан сақдлан, чунки бундай одамларнинг халқ ўртасида обрў-эътибори бўлмайди.

Қўлингдан келмайдиган ишга асло киришма, бундай ишни охири хижолатчилик ва бебурдлик билан тугайди. Халқимизнинг чумчуқ сўйса хам, қассоб сўйсин" деган ўгитига амал қил. Кўпчилик билан мехнат килганда, ўзингни орқага ташлама, юкингдани бировга солма, ғирромлик ва муғомбирлик қилма".

Хунарсиз киши фойдасиз бўлиб, на ўзига на хеч кимга нафи тегмайдиган тиконли ўтга ўхшайди. Хунарсиз кишини худди тирик мурдага хам ўхшатиш мумкин. Агар сенга бирор хунарли киши учраса, уни махкам ушлагин, унинг хунарини яхшилаб ўргангин.

Хунардин яхширок нарса йўктур ва донишдан улуғрок нарса йўқдур, шармдан яхшироқ зеб йўкдур ва бадхуйликдин ёмонроқ душман йўкдур".

Хунарни ёшликда ўрганиш хамда хар бир дақиқани бекорга ўтказмаслик керак. Ёшликда олинган билим тошга ўйилган нақш кабидир.

"Эй фарзанд, сен хам хунарни донодан ўрганмасанг, нодондин ўргангил. Барча катта, кичикка хунар ўрганмок вожибдур, нединким киши хунар ўрганмок била ўз хамрокдаридан баланд мартабада бўлур. Чунки, ўзингдахунар кўриб, ўз тенгларингда ул фазилатни кўрмасанг, ўзингни улардан баланд кўрасан ва улар яна сени ўзларидан баланд мартабада билурлар. Хунарманд киши улдирким, фазли ва хунари сабаби била қадр ва мартабаси ўзгалардан баланд улгон эканини билиб, фазл ва хунарга аввалгидан зиёдрок харакат килғай ва бурунгидан зиёдрок фозил ва хунарманд бўлғай. Хар ишинибундоқ қилсатезда халқнинг орасида азиз ва улуғ булғай. Бас, буни билгон киши фазл ва хунар дин қўл тортса, бу ақлсизлик нишонасидир. Хунар ўрганмоқда мехнат қилмо баданни ялқовлик яъни бекорчиликдан қутармок фойдалидир. Нединким бекорчилик баданнинг фасад ва беморлигига сабаб бўлур".

Хунар адо бўлмас бойликдир. Халқ донишмандлари асрлар давомида хунар хақида тўплаган тажрибаларини, ахлоқий ва фалсафий фикрларини қисқа сатрларда бадиий ифода этганлар.

Қуйида халқимизнинг оқилу доноларининг хунар ўрганиш насихатларидан намуналар келтирамиз. Абдурахмон Жомий донолар хазинаси хақида шундай дейди:

"Кўксингни хазина қилолсанг агар,
Донолар лабидан тўкилур гавхар".

Бошқа бир донишманд фарзандларига шундай панду насихат килади: "Азиз ўғлонларим, хунар ўрганинглар, зероки, мол-дунёга эътимод ва олтин-кумуш сафарда хатарлидир. Қарокчи ўғирлаб кетади-ю, аммо хунар қайнар

булок, тугамас давлатдир, агар хунарманд молидан махрум булса, кайғуси йўкдир. Чунки хунарнинг ўзи давлатдир. "Хунарманд қаерга борса,қадрланади ва уйнинг тўридан жой олади. Хунарсиз одам эса, хамиша машаққат чекади, тиланчилик қилади" (Саъдий.Гулистон).

Олим, фозиллардан Хуррамий айтади: "Бир қари чол киши хар вақт ёшларга:

-Болаларим, ёшликни ғанимат билинг, фақат кейин-кулги, кайфу сафо билан ёшлик даврингизни зое этманг, ўқинг, ўрганинг, илмли, хунарли бўлинг. Агар ёшлик даврингизда ўзингизни тутиб қолмасангиз, кейин қаттик пушаймон қиласиз, лекин фойда бермайди - деб насихат қиларди. Шу хурматли чолнинг насихатларига амал қилган ёшлар бахт-саодатли бўлдилар" (Ш.Зуннун).

Ўзбекистон Республикасининг барча худудларида халқ хунармандчилиги турлари ривожланишининг сабаби уларнинг қулай географик ўрни, табиати ва у ердаги махаллий манбаларга боғлик бўлган. Масалан: Тошкент вилоятида ганчкорлик, мўъжаз рангтасвир, наққошлик ёғоч ўймакорлиги, кулолчилик суяк ўймакорлиги, заргарлик, каштачилик ва бошка халқ хунармандчилик санъатлари; Бухоро вилоятида зардўзлик, ганчкорлик,мисгарлик кулолчилик, дўппичилик кабилар; Фарғона вилоятида наққошлик, ганчкорлик, мисгарлик, ёғоч ўймакорлиги, сангтарошлик ва бощқалар; Андижон вилоятида наққошлик, кулолчилик, ганчкорлик, ёғоч ўймакорлиги; каштачилик, мўъжаз санъат кабилар; Хоразм вилоятида кулолчилик, наққошлик, гиламдўзлик, ёғоч ўймакорлиги, тош ўймакорлиги; Самарқанд вилоятида наққошлик, мисгарлик, кулолчилик, ёғоч ўймакорлиги, ганчкорлик, каштачилик, гиламдўзлик, тош ўймакорлиги; Наманганда ганчкорлик, каштачилик, ёғоч ўймакорлиги, пичоқчилик; Қорақалиоғистонда эса наққошлик, кигизчилик, гиламдўзлик, ёғоч ўймакорлиги кабилар ривож топган.

Қадимда хунар муқаддас саналган. Хар бир халқ келажак авлодларга ўзидаги қолдирган, такрорланмас хунарлари билан қадрланган.

Марказий Осиё да хам хунармандчилик қадимдан жуда яхши ривожланиб келган. Шу қаторда Ўзбекистон хам қадимдан хунармандчилик маркази бўлиб, бу ерда турли буюмлар ишлаб чиқарганлар. Шу марказлардан, масалан, Андижон, Шахрихон, Самарқанд вилоятида Ургат: Фарғона вилоятида Қўқон, Марғилон; Наманган вилоятида Чуст кабиларда хунармандлар махалла - махалла бўлиб яшаганлар. Махаллалар номи хунармандлик турлари билан боғлик, холда айтилган. Чунончи заргарлар махалласи, пичоқчилар махалласи, кулоллар махалласи каби номлар билан юритилган. Ўша вақтларда зардўзлар, тандирчилар, сандиқчилар, пичоқчилар, кулоллар, тоштарошлар, саватчилар, бешикчилар каби махаллалар мавжуд бўлган, Бунга бир мисол келтирайлик, XIX аср охири XX аср бошларида Бухорода бўйрачилар махалласи бўлиб, у ерда умуман Бухородаги хамма бўйра тўқийдиган усталар яшаган. Бўйрачи махалласида 120 та оила яшаган булса, 70 дан ортиқ оила бўйрачилик билан шуғулланган.

Устоз шогирдга қаттиқ талабчан бўлган. Чунки, хар бир хунар ўта нозик дидли, сабр-тоқатли бўлишни тақозо этган. Усталар шогирдлари учун махсус одоб талабларини ишлаб чиққанлар. Масалан, улар шогирддан покизаликни, иш вақтида чалғимасликни, эгри ва номаъқул ишларга яқин йўламасликни, устоз рухсатиз бирор ишга қўл урмасликни катъий туриб, талаб қилганлар. Устоз зардўзларнинг айтишича, яқин-яқингача "пирзода"лар бўлиб, уларни "рисолачи" дейишган. Хафтада икки марта, якшанба ва пайшанба кунлари рисолачи барча зардўзлик устахоналарини айланиб чиққан ва одмаларни тўплаб, рисола ўқиган, ўқиганларини тасвирлаб берган. Одатда, қироатхонлик дастурхон устида давом этган. Қироатдан кейин рисолачи тингловчилардан тушган унча-мунча назр-ниёзни белбоғига тугиб, фотиха ўқиб, навбатдаги устахонага йўл олган. ,

Уста шогирдга хунар сирларини ўргатишдан тащқари уй-рўзғор ишларини, одоб-ахлоқ ўргатган. Бу билан шогирднинг хар томонлама тарбия кўрган уста бўлиб етишишини таъминлаган.

Хунар ўрганиш муддати чекланмаган, тахминан 5-8 йил орасида бўлган. Ўта қобилиятли, хунар сирларини пухта эгаллаган шогирдларига тезроқ оқ фотиха берганлар. Шогирднинг уйига қайтиши бир байрам бўлган. Шогирд уйида устози, атрофдаги катта усталар йиғилиб. Маросим ўтказилган. Бу маросимда фотиха ўқиб, уста шогирднинг белига белбоғ боғлаб шу касбда мустақил ишлашга рухсат берган. Маросимда устозига шогирд бош-оёқ сарпо, тугун инъом этган. Баъзида устоз шогирди мустақил иш бошлашида. кийналмаслиги учун шу касбда ишлатиладиган асбоблар ва андозаларни тақдим этган. Агар фотиха олган шогирд мустақил ишлашни хохламаса устозникида колиб ишлайверган. Бундай холда устоз билан келишиб, иш хақи хам олган.

Уста Ширин Муродов уста Хаётдан қуйидагича фотиха олган. Абдуқодир Бухородаги хамма ганчкор усталарга ганч сотадиган ойлардан бири бўлиб, у бир куни уста Хаётни чақириб янги уй қуришни ва унда ганч ўймакорлик ишларини бажариш кераклигини айтади. Уста Хаёт бу ишни 22 ёшли Ширинга топширади. Бу иш Шириннинг илк мустақил иши эди. Ширин аввал уйнинг режасини тузади, кейин Бухородаги ўзи яхши кўрган меъморчилик ёдгорликларини томошо қилиб, уларни синчковлик билан яхшилаб ўрганибчиқади. Айниқса, бинонинг умумий кўриниши ва мехмонхона безакларини оддий, бежирим, нисбатларини сақлаган холда бир бутун кўриниш ва бощқаларини хисобга олади. Ширин мехмонхона ва айвонларни шарафа билан безайди. Ундаги ўйма ганчлар жуда, бежирим

чиққанлиги сабаб усталар орасида хурмат ва обрўси яна хам ошади. Уста Хаёт кунлардан бир кун Ширинни олдига чақириб мен сендан хурсандман,энди мустақил ишлайверсанг хам бўлади, дейди. Азалий одатга кўра 20-30 та уста, шогирдлар ўртасидаунга уста номини беришади. Ўртага чақириб белига энг яхши ганч ўймакорлик асбобларидан штургардонни қийиқчага қистириб қўйишади ва фотиха беришади. Ширин Муродов ана шундан сўнг халқ орасида уста деган шарафли номга эга бўлади.

Шунинг ўзиёк халқимиз қадимдан хунармандчиликни, хунар ахлини нечоғлик ардоқлаганини, хунарни факат энг муносиб ва фидойи кишиларгагина ишониб топширилганлигини кўрсатади.

Қадимдан хунармандлар ўзларини қандай тутиши лозимлиги хақидаўзига хос қонун - қоидалар бўлган. Алишер Навоийнинг замондоши олим мударрис Хусайн Воиз Кошифий "Ким билан дўстлашиш керак" деган рисоласида қуйидагиларни алохида таъкидлаб ўтади:

"Сендан - Хунармандлар ўртасида нечта одоб қоидаси бор?- деб сўрасалар, саккизта - деб жавоб бер:

Биринчи: ўз хунарини ифлос ва шубхали даромадлардан асрайдилар.

Иккинчи: хунарни бойлик тўплаш манбаи деб эмас, балки хаётда муносиб ўрин эгаллаш мақсадида ўрганадилар.

Учинчи: ўз ишининг усталарига доимо хурмат ва эхтиромда бўладилар.

Тўртинчи: нопок йўллар орқали бойлик тўпловчилар билан алоқа қилмайдилар.

Бешинчи: ишда камчиликка йўл қўймайдилар ва танланган касбларига бефарқ бўлмайдилар.

Олтинчи: махсулотнинг бахосини билмаганлар билан тўгри муомаладабўладилар.

Еттинчи: агар олди-берди тарзи билан боғлик бўлса, кам бермаслик ва кўп хак олмасликка интиладилар.

Саккизинчи: агар иш хисобчи билан битадиган бўлса, ўз хиссасини жамият хиссасидан юқори қўймаслик керак, чунки юрт фаровонлиги худди ана шу жамият жамғармаси туфайли юзага келади.

Қадимдан шогирдликнинг хам ўзига хос одоб-ахлоқ қоидалари бўлган: Чунончи, Хусайн Воиз Кошифий бундайдейди:

...Аввало, ўз ишига яхши муносабатда бўлиш, яъни ўз касбини севиш.

Иккинчи, ўз ишига эътиқод қўйиш ва унга ишониш.

Учинчи, устоз олдида хақсевар бўлиш, ўз ножўя одатларини тарк этиш.

Тўртинчи, кўриш лозим бўлмаган хамма нарсадан нигохини олиб қочиш.

Бешинчи, эшитиш мумкин бўлмаган нарсаларга қулоқ солмаслик.

Олтинчи, барча нолойиқ ишлардан қўл тортиш.

Еттинчи, устозига зид бўлган кишилар билан муомала қилмаслик.

"Агар шогирдликнинг асослари нечта? - деб сўрасалар, олтита дегин:

Фармонбардорлик ростгўйлик, вафодорликнасихатни қулоққа олиш:

озор бермаслик, сир сақлаш.

Шогирдликнинг энг яхши хислати нимадеб сўрасалар, шундай дегин: поклик. Шогирдликнинг ноёб гавхари нима деб сўрасалар, хамкасб дўстларини хушнуд этиш, деб жавоб бергин.

Ўзбекистонимизда тажрибали, *ўз* касбининг жонкуяри бўлган усталар жуда кўп. Уларнинг иш тажрибаларини ўрганиш, умумлаштириш ва ёшларга ўргатиш эса, бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидан биридир.

# МАҲАЛЛАДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТ КЎРСАТИШНИНГ АМАЛИЁТИ

**Д.Ш. Баротова,**
*БухДУ доценти,*
**М.А. Аъзамова,**
*БухДУ, I курс магистранти*

Психологик хизмат фани шаклланишининг назарий-илмий методологик асослари умумий психология фани шаклланиши билан боғлиқ узоқ тарихий илдизларга бориб тақалади. Албатта, психологик хизмат фани дастлабки психологик тушунчаларнинг пайдо бўлиш ва ривожланиш даврлари билан бевосита боғлиқдир.Психологик хизмат методологиясини яратишда инсоннинг ҳиссий ҳолатини тушуниш ва унинг ўз меҳнати маҳсулларидан ижтимоий қониқиш жараёнини таҳлил қилиш ва ривожлантиришга бағишланган айрим тадқиқотларнинг ўрни ва истиқболига ҳам алоҳида эътиборни қаратиш лозим, деб ўйлаймиз. Масалан, Ф.Херцберг ва унинг издошлари томонидан меҳнат фаолиятини ташкил этишдаги эмоциоген фарқланиш механизмлари тадқиқ қилинди. Мазкур изланиш маҳсулига кўра меҳнат фаолиятини ташкил этишда ижодийлик, мустақиллик, ўз-ўзини билиш, ривожлантиришга қаратилган тадбирларга эътибор берилса, шахс фаолияти унумдорлигига ижобий таъсир этувчи ҳиссий кечинмаларни ва аксинча, фақат техник жараёндангина иборат бўлган меҳнат шароити яратилса, шахс фаоллигига салбий таъсир этувчи ҳиссий кечинмаларнинг намоён этилиши кузатилади. Дарҳақиқат,фаолиятнинг бажарилишига нисбатан ижобий-ҳиссий кечинмалар шакллантирилмас экан, фаолият маҳсули ҳам, инсоннинг ўз фаолиятидан ижтимоий маънодаги қониқиши ҳам ниҳоятда паст савияда бўлади. Психологик хизмат эса, бизнингча, худди ана шу ерда ўз таъсирини, яъни фаолиятдан ижтимоий қониқиш жараёнини маълум даражада юқори савияга кўтара олиш санъатини кўрсатиши лозим.

Бугунги кунда психологик хизмат кўрсатиш амалиёти барча давлатларда турлича кўринишларда амалга оширилмоқда. Айнан маҳалла ҳаёти билан боғлиқ психологик тадбирларнинг олиб борилиши ушбу тизимда ўзига хос ижтимоий омилларнинг яққол намоён этилишини таъминлашга хизмат қилади. Зеро, маҳалла тизими ва бу тизимга ҳукумат томонидан юксак эътиборнинг қаратилиши фақатгина бизнинг мамлакатимизда ва бизнинг минг йиллик қадриятларимизга хос ва мосдир. Айни пайтда, маҳаллалар қадим-қадимдан эзгулик бешиги, тарбия ўчоғи бўлган, миллий урф-одат анъаналар шаклланган маскан ҳисобланган. У одамлар ўртасида ўзаро меҳр-оқибат, бағрикенглик ва ҳамжиҳатлик қарор топишида муҳим аҳамият касб этиб келган. Қолаверса, бугунги кунда ҳам биздаги маҳаллалар мамлакатимизда давлат бошқарувининг бирламчи бўғини, асосий устуни сифатида эътироф этилмоқда.

Ўзбекистон мустақилликка эришгач, маҳаллаларга бўлган муносабат тубдан ўзгарди. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 105-

моддасига ва 1993 йилда қабул қилинган “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги қонунига биноан маҳаллалар давлатнинг жойлардаги муҳим таянчи, юридик шахс сифатида фаолият кўрсатди. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида жами 9627та фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи фаолият кўрсатмоқда, шундан 6855 таси юридик шахс мақомига эгадир. Бу жараёнда эса психологик хизмат амалиёти муҳим аҳамият касб этади. Маҳаллада психологик хизмат амалиётини ташкил этиш учун қуйидаги йўналишларга алоҳида эътибор қаратиш зарур:

1. Маҳаллада истиқомат қилувчи ҳар бир шахснинг ўзига хос психологик хусусиятларини ўрганиш асосида шахс харитасини тузиш.
2. Маҳаллада шахслараро муносабатлар тизимига баҳо бериш (маҳалла фаоллари ва маҳаллада яшовчилар ўртасида).
3. Маҳаллада муаммоли оилалар ва муаммоли шахсларни ўрганиш асосида ушбу муаммонинг психологик ечимларини излаш ва бартараф этиш.
4. Маҳалла, мактаб, оила ва профилактика инспектори ҳамкорлигини самарали тарзда ташкил этишнинг психологик таъсир мезонларини ишлаб чиқиш ва уни амалиётда қўллаш.
5. Маҳаллада уч авлод учрашувини ташкил этиш асосида ёшларга психологик таъсир этиш доирасини кенгайтириш.
6. Маҳалладаги қадриятларни ўрганиш ва шу қадриятларнинг таъсирчанлигига таяниб шахслардаги у ёки бу муаммоларни бартараф этиш.
7. Маҳалладаги жиноятларнинг содир этилиши ва суицид ҳолатларига олиб келувчи омилларни муайян ижтимоий психологик тамойиллар асосида таҳлил қилиш. Ушбу ҳолатга мойиллиги бор ҳар бир шахс билан индивидуал шуғулланиш.
8. Маҳаллада ногиронлиги мавжуд шахсларга алоҳида психологик ёндашув йўлларини кўрсатиш.
9. Маҳалладаги маънавий-иқтисодий ва мафкуравий жиҳатдан муаммоси бор шахслар билан тизимли ишларнинг ташкил қилинишига кўмаклашиш.
10. Маҳаллани ҳар томонлама тизимли равишда ўрганиб, унда истиқомат қилувчи ҳар бир оила ва ҳар бир шахснинг ўзига хос индивидуал психологик харитасини тузиш ва шу асосда маҳаллага психологик хизмат кўрсатишнинг илмий амалий жиҳатдан истиқболли режаларини ишлаб чиқиш ва уни амалиётда қўллаш.

Дарҳақиқат, бугунги кунда республикамизда маҳалла институти тараққиёти учун жуда кўплаб ишлар қилинмоқда. Айни пайтда маҳаллада яшовчи фуқароларнинг ўзаро муносабати, мулоқоти, улардаги маънавий-психологик жиҳатларнинг тадқиқ қилиниши орқали ҳар бир маҳаллада психологик хизмат кўрсатиш бўлимлари очилмоқда. Айниқса, маҳалладаги уюшмаган ёшлар билан ишлаш, нотинч оилалар ва ногиронлар билан ишлашдаги психологик муаммолар аста-секин ечилиб бормоқда.

Маҳаллада психологик хизматни ташкил этиш учун қуйидаги тавсияларга амал қилиш талаб қилинади:

- Оммавий ахборот воситалари: телевидение, радио, матбуот, интернет орқали маҳаллада психологик хизмат кўрсатишга оид чиқишларини ташкил қилиш.
- Республикамиздаги барча маҳаллаларга, оилаларга, ота-оналарга ҳамда болаларга психологик хизмат кўрсатиш ишларини юқори даражада йўлга қўйиш. Ҳар бир маҳалладаги носоғлом муҳитнинг психологик илдизларини аниқлаш ва уни коррекциялашнинг муайян имкониятларини очиб бериш.
- Ота-оналар ўртасида боланинг мулоқот сифатларидаги психологик хусусиятларга оид билимларни кенг тарғиб қилиш.
- Хулқи оғишган болалар тўдасига қўшилишга мойиллиги бор бўлган ўсмирларнинг сонининг камайиши учун ота-оналар ва ўқитувчилар билан ҳамкорликда психопрофилактик ишлар ва психотренинглар ташкиллаштириш.
- Психологик хизматга муҳтож ўғил ва қизларнинг ўз оиласидаги ҳаётга интилишини кучайтиришга қаратиш ҳамда ўсмирларнинг ота-оналарини ўз фарзандларининг эртанги кунига бефарқ бўлмасликка, ўз ота-оналик масъулиятини ҳис қилишга чақириш.
- Ота-оналар ва педагоглар учун ўқувчиларда ижобий шахсий сифатларни ва шахслараро муносабатларни шакллантиришни тўғри йўлга қўйиш учун махсус методик тавсияномалар ишлаб чиқиш.

Демак, юқоридаги тавсиялар асосида маҳаллаларда психологик хизматнинг ташкил этилиши аҳолининг турли қатламларида психологик билимларни янада кўпроқ тарғиб қилинишида муҳим аҳамият касб этади.

**Адабиётлар рўйхати:**


1. Баротов.Ш.Р. Психологик хизмат: Магистрлар учун дарслик.- Т.: “Наврўз” нашриёти, 2018. – 344 б.
2. Баротов Ш.Р и др. Психологическая служба образования: от теории к практике.(Учебно - методическое пособие). – Бухара: Дурдона, 2017. – 172 с.
3. Мейер В., Чессер Э. Методы поведенческой терапии. СПб, 2001
4. Слюсарева Е.С., Козловская Г.Ю. Методы психологическое коорекцион учебно-методическое пособие. – Ставрополь, 2008.


## БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИДАГИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ УНВЕРСИТЕТ ФАОЛИЯТИДАГИ ЎРНИ


**М.М. Азимова,**

*БухДУ, II курс магистранти*


Юртимиз тарихи, халқимизнинг бой маънавий мероси ҳақида тушунчага эга бўлиш, ундан бугунги авлодни хабардор этишда музейларнинг

ўрни катта. Шу боис, мамлакатимизда мазкур муассасалар фаолиятини такомиллаштириш, уларнинг замон талаблари даражасида иш олиб бориши учун зарур шароит ва имкониятлар яратилмоқда. Ёш авлод қалбида маънавий меросимизга нисбатан ҳурмат туйғусини уйғотишда музейларнинг ўрни беқиёс,бинобарин, бугунги кунда музейлар нафақат халқимиз тарихидан ҳикоя қилувчи осори-атиқаларни сақлайдиган, намойиш қиладиган муқаддас маскан, балки таълим тизими ривожида, навқирон авлод тарбиясида муҳим аҳамиятга эга бўлган маънавият даргоҳиҳамдир.

1922-йилда Бухоро Халқ Жумҳурияти қарори билан Бухоро ва Чоржўйда халқ маорифи институти очилди. Бу – замонавий олий ўқув юрти ташкил этиш йўлидаги дастлабки ҳаракат эди. Ф.Хо`жаев ва А.Фитрат шу институт негизида дорилфунун ташкил этиш ғояси билан чиқдилар, аммо БХЖнинг тугатилиши билан бу ғоя амалга ошмай қолди. 1930-йилга келиб эса Бухоро педагогика институти очилди. Дастлаб унинг кимё-биология ва тарих-ижтимоиёт сингари икки бо`лимида 45 талаба таҳсил олган. 1935-йилда эса БухДПИ таркибида 2 йиллик ўқитувчилар институти ҳамда 5 бўлим фаолият кўрсатди, кейинчалик бу бўлимлар факултетларга айлантирилди. Институтнинг оёққа туришида А.Фитрат, Миёнбузрук Солиҳов, Мусо Саиджонов, Б.Чўпонзода, И.Кожин, Ф.Трудаков, П.Короленко, Н.Меркулович, В.Абдуллаев, Г.Юсупов каби олимларнинг хизматлари катта бўлди. Иккинчи жаҳон уруши йилларида бир қатор ўқитувчилар ва 47 талаба кўнгиллилар қаторида урушга кетди. Бу мураккаб даврда талабаларни ўқишга кўпроқ жалб этиш мақсадида Қарши, Ғиждувон ва Шофирконда филиаллар очилди. Ҳозирги пайтда мустақил Ўзбекистоннинг етакчи олий ўқув юртлари даражасига кўтарилган Хоразм, Қарши ва Термиз давлат университетлари илк бор филиал сифатида БухДПИ таркибида иш бошлаган эди.

БухДПИ урушдан кейинги йилларда республиканинг етакчи илм масканларидан бири сифатида шуҳрат топди: талабалар сони 1946–1960-йилларда 521 тадан 1575 тага, 1960–1980-йилларда 7531 тага етди; олийгоҳда турли йилларда М.Мирзаев, Ш.Балавадзе, С.Алиев, М.Абдуллаев, В.Мо`минов, Н.Жабборов, Ж.Намозов, Ҳ.Неъматов, Ф.Қосимов, Б.Очилов, Р.Воҳидов, О.Сафаров, А.Атоев, О.Ёриев, Р.Раҳмонов, К.Зарипов, С.Иноятов, О.Розиқов каби фан ва маориф фидойилари фаолият ко`рсатдилар; фаннинг кимё, физика, гелиотехника, ихтиология, фалсафа, тарих, адабиётшунослик, тилшунослик сингари йўналишлари ривож топди; 1989-йилда эса БухДПИ ҳузурида тилшунослик ва адабиётшунослик йўналишларида аспирантура очилди. Институт республиканинг замонавий илм-фан марказларидан бирига айланиб, 1981-йилда орден билан мукофотланди.

Тожикистон халқ шоираси, Рўдакий номидаги давлат мукофоти соҳибаси Г.Сулаймонова, халқ шоири Ж.Камол, халқ ёзувчиси Н.Аминов, Белоруссия ФА мухбир аъзоси А.Столяр, ЎзР ФА А.Навоий номидаги ТАИ директори, ф.ф.д. Т.Мирзаев, жаҳон чемпионлари С.Қурбонов ва Б.Хўжаев кабиларнинг БухПИ талабаси бўлганликларини ифтихор билан қайд этиш мумкин.

Институт 1992-йилда университетга айлантирилди. Ўзбекистон Республикаси 1992-йил 28-февралдаги Фармонига асосан Бухоро педагогика институтига Университет мақоми берилгач, имкониятлар янада кенгайди.Шу тариқа университет илмий имкониятлари йил сайин тўлишиб, мустаҳкамланиб борди. Бу ҳол университет ҳузурида махсус нашриёт ва илмий журнал ташкил этилишини тақозо эта бошлади. Шу ҳаётий эҳтиёжни таъминлаш мақсадида 2000-йилда университетда махсус нашриёт ташкил этилди. «БухДУ илмий ахбороти» журнали нафақат Бухоро, балки Республикамизнинг бошқа олий ўқув юртларида қизғин илмий изланишлар олиб бораётган барча тадқиқотчиларга ҳам беминнат хизмат қилиб келмоқда.

Бухоро Марказий Осиёдаги энг таниқли ва чиройли шаҳарлардан бири бўлиб, бу ажойиб шаҳарнинг ўзи музей ҳисобланади, унда турли даврларга оид кўплаб маданий ва архитектура ёдгорликлари жамланган бўлиб, фақат Ўрта асрнинг 140 дан ортиқ бино ва иншоотлари мавжуд. Бухоронинг тарихий маркази, унинг диққатга сазовор жойлари билан бир қаторда, ЮНЕСКО томонидан тайёрланган Жаҳон мероси рўйхатига киритилган.

Дарҳақиқат бизнинг Бухоро халқи ўзлиги билан фахрланса арзигулик тарихи ва маданиятига эга. Шу жумладан Бухоро давлат университети ҳам мақтанса арзигулик музейларига эга, буларга унверситет тарихини ўзида мужассам этган, Бухоро давлат университетининг 85 йиллик тўйи муносабати билан ташкил этилган “Илмий-амалий музей лабаратория” ҳамда 2018 йил 18май куни очилган Бухоро Давлат уриверситети тузилмасидаги “Қатағон қурбонлари хотираси” музейини мисол келтириш мумкин.

“Илмий-амалий музей лабаратория” музейининг таркибидаги экспонатлар ва жиҳозлар университетнинг олдинги музейи экспонатлари базасида шакллантирилган. Музей таркибини бойитиш ҳамда уни замон талаблари асосида ташкил қилиш мақсадида илмий база барча факултетлар билан ҳамкорликда замонавий база асосида янгиланган. Бундан ташқари музейда мавжуд бўлган экспонатларни асраб-авайлаш мақсадида уларни рўйхатдан ўтказиш учун бир гуруҳ профессор-ўқитувчилар билан ҳамкорликда инвентаризатсия ишлари амалга оширилган. Ушбу музейга ташриф буюрар экаксиз, музей экспонатлари ва суратларини кўрибоқ унверситет тарихи кўз олдингизда гавдаланади. Музей деворларида унверситет ташкил этилгандан буён то ҳозиргача унда фаолият кўрсатган ректорлар ҳамда унверситетимиз тарақиёти йўлида хизмат қилган профессор-ўқитувчилар яъни меҳнат фахрийларимизнинг суратлари ва улар эришган ютуқлар экспонад сифатида намойиш этилган. Бундан ташқари талабаларнинг халқаро ва жаҳон мусобақаларида иштирок этиб эришган ютуқлари экспонад тарзида намойиш этилган ва ҳо казо яна турли экспонадларни кўришингиз мумкин.

Бухоро Давлат уриверситети тузилмасидаги “Қатағон қурбонлари хотираси” музейи ташкил этилганлигига яқинда 18 майда икки йил тўлади, шу вақт мобайнида музейда кўплаб турли ташрифлар ва маънавий-маърифий ишлар бўлиб ўтди булар нафақат музей, балки унверситетимиз фаолияти

учун ҳам кўплаб имкониятларни яратиб берди, жумладан 2019 йил 21 январь бухоролик маърифатпарвар-жадид Мусожон Саиджонов таваллудининг 125 йиллигига бағишланган Республика илмий-амалий конференцияси ўтказилди.

2019 йил 25 май куни АҚШ даги Бостон санъат музейи ходимлари Ненси Берлинер ва Тамил Симон музейи директори А.Ҳамроев билан хамкорликда давра суҳбати ўтказилиб ўзаро фикр алмашишди. Шу йил 21 июнь куни БухДУ катта мажлислар залида, БухДУ тузилмасидаги Қатағон қурбонлари хотираси музейи билан биргаликда Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камолнинг 80 йиллик юбилейлари муносабати ва 6 жилдлик сайланмасининг тақдимотига бағишланган маънавий-маърифий тадбир бўлиб ўтди.

2019 йил 16 сентябрь Бухоро давлат университети Чехиянинг Либерец техника университети иқтисодий статистика департаменти масъул ходими Карина Татек Бенетти раҳбарлигидаги делегацияни қабул қилди. Чехиялик меҳмонлар Бухоро давлат университети тузилмасидаги "Қатағон қурбонлари хотираси" музейига ташриф буюриб, бу ерда жамланган экспонатлар билан танишдилар. Музей ходимлари ва меҳмонлар ўртасида кичик давра суҳбати бўлиб ўтди.

2019 йил 15 октябрь Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарорига кўра 2019-2020 йилларда Бухоро вилоятида ушбу концепциясини ижросини амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқилди. Ушбу чора-тадбирлар режаси асосида Бухоро давлат музей-қўриқхонаси «Кўчма кўргазмалар» бўлими ходимлари томонидан Бухоро давлат университетида «Мозий ва бугун» деб номланган кўчма кўргазма намойиш этилди. Кўргазма Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг 5 муҳим ташаббуслари доирасидаги тадбир бўлиб, БухДУ Санъатшунослик факультети, БухДУ тузилмасидаги «Қатағон қурбонлари хотираси музейи» ҳамкорлигида ташкил этилди.

Бундан ташқари кўплаб ташрифлар, маданий–маърифий тадбирлар ҳамда кўргазмалар бўлиб ўтган, шу ўринда савол туғилади, музейлар ва улардаги ташрифлар,маданий–маърифий тадбирлар ҳамда кўргазмаларнинг унверситет фаолиятидаги ўрни нимада? Уларнинг ўрни беқиёс жумладан “Илмий-амалий музей лабаратория”сига келадиган бўлсак бу музей унверситет тарихини ўзида мужассам этган бўлиб, зеро тарихий хотирасиз келажак йўқ яъни музей унверситет фаолияти учун пойдевор бўлиб хизмат қилади ва унверситетда таҳсил олаётган ҳар бир талаба қалбида фахр туйғусини уйғотади.

БухДУ тузилмасидаги “Қатағон қурбонлари хотираси” музейи қисқа фурсатларда кўплаб ютуқларга эришди ва униерситет фаолиятига катта ҳисса қўшди, жумладан музей бир қатор давлат музейлари билан ўзаро ҳамкорликни йўлга қўйди. Полша, АҚШ, Хитой, БАА, Австрия, Германия ва Россия давлатлари шулар жумласидандир. Ҳамкорликнинг амалий жиҳатларига то’хталадиган бўлсак, музей директори А. Ҳамроевнинг 2018

октябр ойида Полша давлатига, 2019 декабрда Хитой сафари ва музей ходими Б. Қурбоновнинг Германия музейида амалиёт ўтаб келганлигини алоҳида та’кидлаб ўтиш лозим. Жорий йилнинг 30 январ - 3 феврал кунлари Москва давлат халқаро муносабатлар (МГИМО) институти илмий ишлар бўйича проректори Евгений Михайлович Кожокин БухДУга ташриф буюриб, БухДУ тузилмасидаги “Қатағон қурбонлари хотираси” музейи фондлари ва экспозитсияси билан яқиндан танишди. Т.ф.д., профессор Евгений Михайлович Кожокин томонидан суратга олиниши режалаштирилаётган “Абдувоҳид Мунзим ва унинг авлодлари” номли филмда мазкур Музей экспозитсиясида сақланаётган ўта қимматли суратлардан фойдаланган ҳолда, ҳамкорликда ҳужжатли филм яратишга келишиб олинди.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак БухДУ тузилмасидаги “Қатағон қурбонлари хотираси” музейи бундан ташқари кўплаб ҳамкорликларни йўлга қўйиб унверситет фаолияти йўлида хизматда бўлиб, уни жаҳон мамлакатларига танитмоқда. Бундан ташқари ушбу музейлар унверситет талабаларининг амалиёт дарслари учун ҳам яқиндан кўмаклашиб келмоқда ва уларда катта таъсурот қолдирмоқда. Шуни ҳам алоҳида такидлаш жоизки музейларимиз нафақат унверситет талабарига балки бошқа институт талабалари , мактаб ўқувчилари ва турли ёшдаги қизиқувчан аҳоли қатламларига ўз фаолияти билан хизмат қилмоқда, бу эса унверситетимиз равнақи йўлида катта аҳамиятга эга.

**Фойдаланилган манбаларлар**

1. Бухоро давлат университети тарихи.//www.buxdu.uz
2. Бухоро давлат университети “Илмий-амалий музей лабаратория”си//buxdu.uz
3. БухДу “Қатағон қурбонлари хотираси” музей маълумотлари.

## МУЗЕЙ ЭКСПОЗИЦИЯЛАРИ ВА КЎРГАЗМАЛАРИ ТАРИХ, МАДАНИЯТ ВА МАЪРИФАТ КЎЗГУСИ СИФАТИДА

**М.Б. Сулаймонова,**
*БухДУ, II курс магистранти*

Юртимиз қадим-қадимдан бой тарихий, маданий ва бадиий асарларга эга. Аждодларимиз билимли, доно, зиёли кишилар бўлишлари билан бир қаторда, ўзлари яратган бу ноёб дурдоналарни келажак авлодларга авайлаб, асраб қолдирганлар ва шу юрт фарзанди эканликларидан фахрланганлар. Биз ҳам бу маданий, маънавий бойликларимизни асрашни ҳамда қайта таъмирлашни, улардан ғурурланишни инсонийлик бурчимиз деб биламиз.

Жаҳон музейшунослиги тажрибаси шуни кўрсатадики, қайси давлат, халқ, жамият тарихини, маданий ҳаётини, иқтисодий, ижтимоий ривожланишини, қайси вақт, маконда бўлмасин музей ўша давр ва маконни

ойнаси бўлиб хизмат қилади. Мутахассисларнинг баъзилари таъкидлашдан чор чашмасаларда, барибир, бизнинг фикримизча, ҳар қандай музей ўз ашёларини намоёишга қўяр экан, музей кўргазма заллари-экспозициясида давр ва замон нафаси сезилиб туради. Музейлар сиёсатдан четда туриши керак, сиёсат бошқа соҳа ва уни бошқа тизимлар олиб бориши керак деган тушунча ҳақиқатга ҳар доим ҳам тўғри келавермайди. Биз Бухоро музейининг қарийб юз йиллик фаолиятини таҳлил қилиб, шундай хулосага келдик.

Музейнинг илк ташкил этилишидан, то мустақиллик йилларигача олиб борган фаолиятида экспозициялар бир неча марта, тубдан ўзгартирилгач ёки батамом янгисига алмаштирилган.

1922 йилда Бухоро музейи очилиши билан, яна ёпилишида ҳам экспозиция ўша вақт талабига жавоб бермаганлигидандир. Ситораи Мохи Хосса музейи ҳаётида ҳам шундай кескин бурилишлар кўп бор кузатилади. Санъат ва Ҳунармандчиликка олдинлари ҳашаматли ҳаётини тараннум этувчи экспонатларни яқинлаштирилмаслиги, эски тузимни қораловчилар фалфасидан келиб чиқиб танланган йўл эди. Чунки ҳар қанча ўтмишни қоралаганингиз билан ўша даврни илғор, ижобий томонини кўрсатадиган ашё, ясама уйдирмани сохталигини даров кўрсатиб берар эди. Шунинг учун ҳам маҳаллий халқ маданиятини яшириб, босқинчи халқнинг жиноятини маҳаллий халқ ҳаёти учун улкан ижобий характерга эга воқеа сифатида талқин қилишга мослаштирилган экспозиция яратишни ўша давр талаб этарди. Мустақил давлат сифатида асрлар давомида тарих саҳнасида бўлиб келган маҳаллий давлатлар тарихи батамом бузиб кўрсатилар, ўтмишни салбий томонларга бир томонлама бўртириб кўрсатилар. Эрк учун курашганларни ватан ва халқ хоини сифатида таърифланиши натижасида миллий ғурурни ўлдиришга қаратилган мафкурага мослаштирилган экспозициялар қурилар эди.

Ташвиқот ва тарғибот учун музейлар хизмат қилиши лозим эди. Бундай талабларни бажаришга “сусткашлик” қилган музей раҳбарлари тезда саҳнадан йўқотилар эди. Бухоро музейининг тарих бўлимида давлат рамзлари умуман кўрсатилмас, тахт жойлашган “Тахт зали” хароба ҳамда (Арк) кўрсатилар, Мохи Хосса саройидаги тахт зали (Хонаи Сафед), “Оқ уйда қўғирчоқ ва турли лата-путталар” 1974 йилгача кўрсатилар, тахт эса Арк ер тўласида омма назаридан яшириб сақланар эди. Ҳукмдорлар суратлари кўрсатилмас,чопэтиш тақиқланган эди. “ Қайта қуриш” компанияси бошланган 80 йиллар охири 90 йилларда подвал-ертўладаги тахт ва амирлар портретлари экспозиция юзини кўрди.

Яратилганнинг иродаси билан собиқ мустамлака империя (СССР) нинг парчаланиб кетиши билан мустақилликка эришган юртимиз сиёсий, маданий ҳаётида мисли кўрилмаган тўнтариш содир бўлди. Аммо узоқ мустамлакачилик, қарийб 130 йил мобайнида исканжада бўлган юртимизда содир бўлган жаҳоншумул воқеа мустақиллик музейлар фаолиятини тубдан ислоҳ қилишни тақозо этарди. Эскилик ўрнини эгаллайдиган янгилик

бошида албатта зиддиятлар, иккиланишлар, қаршиликларга сабаб бўлгани бугун ҳамма учун сир эмас. Бу борада 1998 йил январида қабул қилинган “ПФ-19 13 сонли фармони ва Вазирлар маҳкамасининг қарори и Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги”Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони ва Вазирлар маҳкамасининг қарори музелар олдида аниқ мақсад ва вазифаларни қўйди. Ана шу тарихий ҳужжат эълон қилингандан бошлаб музей экспозицияларини мустақиллик мафкурасини тўлиқ акс эттирадиган, тарихий ҳақиқатни бутун бўйи-басти билан кўрсатишга киришилди.

Бухоро давлат музей қўриқхонасининг “Санъат музейи” жойлашган бинода Мустақил Ўзбекистон Республикасининг тарихини Бухоро вилояти мисолида очиб берадиган мустақиллик доимий кўргазмаси фаолият кўрсата бошлади. Унда Ўзбекистоннинг мустақилликни мустаҳкамлаш йўлида қўйган илк қадимлари, унинг жаҳон давлатлари томонидан эътироф этилиши, хорижий давлатлар билан ўзаро манфаатдорлик асосидаги алоқаларни акс эттирувчи ашёлар, фотосуратлар, ҳужжатлар ўрин олди. Маданият, санъат ва спорт соҳасида эришилган муваффақиятлар кўрсатилди.

Бугунги кунда музейда Ўзбекистон Республикасининг замонавий босқичдаги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ҳаётидаги тараққиётини умумий қонуниятлари ва ўзига хослиги, музей иши тарихига оид катта илмий тадқиқот ишлари олиб бориш учун имконият яратилди. Бухоро давлат музей қўриқхонаси нафақат Ўзбекистонда Ўрта Осиёдаги, балки дунёдаги моддий ва маънавий маданият осори-антиқалари сақланадиган энг йирик муассасалардан биридир. Унинг заҳирасида 120 мингдан ортиқ экспонатлар йиғилган: Музей бой археология нумизматика, этнография, бадиий буюмлардан ташқари, унинг ноёб қўлёзмалар ва ҳужжатлар фондида 40000 дан ортиқ ёдгорликлар сақланади. Уларни вақти-вақти билан музей экспозициясида намойиш этиб, томошабинлар эътиборига ҳавола этиш мақсадида доимий экспозицияда реэкспозиция ишларини, вақтинчалик ва кўчма кўргазмаларда намойиш қилиш билан боғлиқ илмий экспозиция тадбирлари ўтказилиб туради. Давлат эътибори, олим ва музейшунослик сайи ҳаракатлари натижасида кейинги йилларда музейнингноширлик фаолиятида хам сал жонланиш кузатилди. Аммо бу сўҳада қилинадиган ишлар кўп, жадал ривожланиб бораётган жамият ва ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий ўзгаришлар нафасини ҳис қилган ҳолда тадқиқот ва ташвиқот ишларини янада жонлантириш, музейга келувчилар сонини янада оширишга эришиш давр талаба эканлигини музей жамоаси унутмасликлари лозим. Мустақиллик даврда эришилган жаҳоншумул ўзгаришлар, фан, техника, қурилиш, саноат ва қишлоқ хўжалигида ўтказилган туб ислоҳотлар кўлами доимий ва вақтинчалик ташкил этиладиган кўргазма экспозицияларида кенг ёритиб борилиши музей илмий ходимлари саъи-ҳаракатлари натижасида бу даргоҳ музейшунослик соҳасида энг замонавий талабларга жавоб берадиган илмий –маърифий масканга айланиши керак. Музей фондларига ноёб экспонатлар йиғиш, харид комиссия фаолиятини жонлантириш,

хорижий мамлакатларга асрлар мобайнида олиб кетилган Бухоро воҳаси тарихига таълуқли ноёб осори-атиқаларни излаб топиш иложи бўлса, қайтариш ёки факсимал нусхаларини келтириш ишларида ҳам музей жонбозлик кўрсатиб, давлатга ёрдамчи бўлмоғи зарур.

1922 йилда ташкил этилган Бухоро давлат музей қўриқхонаси, ўлка тарихи, ватанимизнинг қадим ўтмишидан шу кунгача бўлган тарихий даврларни чуқур ўрганган ҳолда мустақиллик даврида янги ташкил этилган музей филиаллари ва доимий кўргазмаларида, юртимизда содир бўлаётган туб ислоҳотлар моҳиятини очиб бериши, халқимизнинг мустақиллик йилларидаги шижоатли бунёдкорлигини намоий этмоғи даркор.

Музей-тарих, халқ тарихининг кузгусидир. Зеро унда бор ҳақиқат акс этади. Аммо мавжуд ҳақиқатни,кўрган нарса ҳақида ким нимани хохласа шундай тушиниши ҳам ҳақиқат. Бир гапнинг турли “палласи”бўлади. Ҳар ким ўзининг тафаккури ва ақл доирасида уни тушунади. Лекин атайлаб бузиб кўрсатилган ҳақиқат, албатта, бир кун келиб ҳақлигини кўрсатади. Музей экспозициясига қўйилган ҳар бир ашёни ҳам ҳар хил маънода тушуниш мумкин. Масалан  пўлатдан ясалган олтин софли жанговор қилич. Биринчи навбатда курол аслоҳа сифатида қабул қилинади.ундан эрк учун, озодлик учун юрт ҳимояси учун фойдаланган жасур қаҳрамонлар қуроли сифатида тушунилади. Ихкинч томондан совуқ қурол,зулм, зўравонлик, бегуноҳ қон тўкиш учун ишлатилган, ҳукмдорларнинг зўравонлик қуроли сифатида ҳам талқин қилса бўлади. Ким қандай мақсадни кўзласа шундай тушунган. Энг ёмони уни ўзи тушунган хато,баъзан атайлаб ҳақиқатни бузиб кўрсатиш мақсадида ўзгаларга тушунтирганлар. Шунинг учун ҳам экспозицияга қўйилган ҳар бир ашёдан энг тўғри маълумотни олиб, уни томошабинга етказиш музей ходимлари зиммасидаги ватанпарварлик бурчлари бўлмоғи даркор. Ватанпарвар бўлиш учун, Ватанни севмоқ керак. Бу муқаддас юрт бизга ота мерос, аждодлардан қолган омонат, биз ҳам омонатга хиёнат қилмасдан, келгуси авлодларга етказишимиз-бизнинг муқаддас бурчимиздир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ш.М.Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундаликқоидаси  бўлиши керак.” Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳужжатлари
3. Ўзбекистон Республикаси вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 23 декабрда қабул қилинган "Республика музейлари фаолиятини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида қарори" Халқ сўзи. 1994 йил 24 декабрь
4. Ўзбекистон Президентининг 1998 йил 12 январда қабул қилинган “Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида” ги Фармони // Халқ сўзи, 1998 йил 13 январь.

***5A111701 - Таълим ва тарбия назарияси ва методикаси (бошланғич таълим)***

# BOSHLAHG'ICH SINF O'QUVCHILARINING JISMONIY RIVOJLANISHINING TADQIQ ETISH NATIJALARI

**D. Sadriddinova**
*BuxDU magistranti,*
**Sh.Dj.Abdullayev**
*BuxDU o'qituvchisi*

Davlatimizning hozirgi kuni va istiqboli yoshlarni sog'lom qilib tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Biz maorif xodimlari sog'lom avlodni shakllantirishda eng mas'uliyatli vazifani bajarishda kasb-korimiz bilan javobgarmiz. Chunki yoshlarni sog'lom qilib tarbiyalash eng avvalo asosan o'quv-tarbiyaviy jarayonning mukammalligiga bog'liq.

Maktabda o'qitiladigan barcha fanlarni tabiat va inson salomatligiga bog'liq ekani tushuntirib o'rgatilganda, uning bolalar ongiga ta'siri kuchli bo'ladi. Maktab faoliyatining bu sohadagi samaradorligi ota-onalar va keng jamoatchilik bilan birgalikda bamaslahat olib borishga bog'liq va maqsadga muvofiqdir.

Boshlahg'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rov varaqalari hamda Buxoro viloyati Galaosiyo, Kogon tumanidagi maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilaridan jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik bo'yicha olingan test natijalarining matematik-statistik tahlili keltiriladi.

Buxoro viloyati Kogon tumanidagi 1- va 48-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida tajriba-sinov o'tkazishdan oldin bolalarning dastlabki jismoniy rivojlanishi va tayyorgarlik ko'rsatkichlari aniqlandi.

Tajriba uchun Buxoro viloyati Kogon tumanidagi 1-, 48-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari tanlandi. 48-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi **tajriba** guruhi, 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi **nazorat** guruhi deb belgilandi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining gavda uzunligi bo'yicha tajriba va nazorat guruhidagilarni taqqoslaganimizda faqat 3-sinfda $t=2,49$ $P<0,05$ ga, gavda og'irligida 4-sinf qiz bolalari o'rtasida $t=2,23$ $P<0,05$ ga, ko'krak qafasi kengligi ko'rsatkichida faqat 3-sinf qizlari o'rtasida nafas olganda $t=2,15$ $P<0,05$ ga farq borligi aniqlandi. Ko'krak qafasining kengligi, qo'l kuchi hamda o'pkaning tiriklik sig'imi ko'rsatkichlari bo'yicha tajriba va nazorat guruhi o'quvchilari orasidagi farq bir-biriga yaqin $P>0,1$ ekanligini ko'rsatdi.

30 m. masofaga yugurishda tajriba va nazorat guruhlari orasida 1-sinf qiz bolalar o'rtasida $t=2,26$ $R<0,05$ ga, turgan joyidan uzunlikka sakrashda 3-sinflarning o'g'il bolalarida $t=2,18$ $R<0,05$ ga, qizlarida $t=2,09$ $R<0,05$ ga, tennis koptogini otishda 2-sinflarning qizlarida $t=2,51$ $R<0,05$ ga, oyoqlarni uzatib

o'tirgan holda tizzalarni bukmasdan oldinga engashishda 2-sinflarning qiz bolalari o'rtasida t=2,69 R<0,01 ga statistik jihatdan farq borligi aniqlandi. 4x10 m.ga mokkisimon yugurish, 1600 m.ga yugurish, o'tirgan holda gavdani 1 daqiqa davomida egish va yozish hamda turnikda tortilish (o'g'il bolalar), turnikda osilib turish (qiz bolalar) testlarida tajriba va nazorat guruhi o'quvchilarida statistik jihatdan farq bo'lmadi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlardan ma'lum bo'ldiki, tajriba va nazorat guruhlarining natijalari o'rtasidagi farq katta emas.

Tajriba-sinov maydoni qilib tanlangan 48-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darsi haftasiga 3 soat o'tkazilishi bilan birgalikda, o'quv kun tartibidagi jismoniy sog'lomlashtirish ishlari samarali vositalardan foydalangan holda muntazam olib borildi.

Nazorat maydoni qilib tanlangan 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quvchilarining haftalik jismoniy tarbiya darsiga hech qanday o'zgartirish kiritilmadi hamda jismoniy tarbiya dasturi asosida darslar o'tkazildi.

Tajriba-sinov maydonida o'quvchilarining kunlik harakat faolligini oshirish, jismoniy tarbiya bo'yicha nazariy bilimlar berish, jismoniy rivojlanish va tayyorgarligini oshirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etildi (1-rasm).

1-2-sinf o'quvchilarining gavda uzunligi R<0,05 ga, 3-sinf o'g'il va qizlarida, 4-sinf o'g'il bolalarida R<0,01 va R<0,001 ga teng bo'ldi, 4-sinf tajriba va nazorat guruhlarining qizlarida R>0,1 bo'lib, o'sish kuzatildi.

Gavda og'irligi 1-2-3-sinflarning qizlarida R<0,01 va R<0,001 ga, 4-sinf qizlarining tajriba guruhida R<0,05ga, nazorat guruhida t=1,81 R>0,1 ga, 1-3-sinf o'g'il bolalarida R<0,05, R<0,01ga, 2-sinf tajriba guruhida R<0,01ga statistik jihatdan farq qildi, boshqa sinflarda R>0,1 natija qayd etildi.

Qo'l panja kuchi tajriba guruhida R<0,05 ga, nazorat guruhining 1-sinf o'quvchilarida hamda 2-sinf o'g'il bolalar o'ng qo'l panja kuchida R<0,05 ga farq bo'ldi, qolgan sinflarda R>0,1 ga teng bo'lib o'sish kuzatildi.

Ko'krak qafasining kengligi tinch holatda 1-2-sinf o'quvchilarida, 3-sinf tajriba guruhi qizlarida va nazorat guruhi o'g'il bolalarida hamda 4-sinf tajriba guruhida R<0,05ga, nafas olganda tajriba guruhining 1-sinfidagi o'quvchilarda, 2-sinf tajriba va nazorat guruhidagi qizlarda R<0,05ga, 3-sinf tajriba guruhi qizlarida R<0,01ga, nazorat guruhi o'g'il bolalarida R<0,001ga, 4-sinf tajriba guruhining o'g'il bolalari va nazorat guruhi o'g'il va qizlarida R<0,05ga, nafas chiqarganda tajriba guruhining 1-sinfidagi o'quvchilarda, 2-sinf tajriba guruhi qizlari va nazorat guruhi o'g'il bolalarida R<0,05ga, 3-sinf tajriba guruhi o'g'il bolalari va nazorat guruhida R<0,01ga, 3-sinf tajriba guruhi qizlarida va 4-sinflarda R<0,05ga statistik farq qildi, boshqa sinflarda R>0,1ga teng bo'ldi.

O'pkaning tiriklik sig'imi ko'rsatkichida tajriba va nazorat guruhlari o'quvchilarining o'sish tezligi R>0,1 ga kuzatildi, lekin statistik jihatdan farqqa erishilmadi.

Natijalardan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinflarda haftalik jismoniy tarbiya darslari sonining ko'paytirilishi, o'quv kun tartibidagi jismoniy

sog'lomlashtirish tadbirlarining reja asosida tashkil qilinishi ularning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi ma'lum bo'ldi.

Rejalashtirish jarayonida o'quvchilarning o'quv yili xususiyatlarini hisobga olish kerak. Shunga va yosh xususiyatiga bog'liq holda sport mashg'ulotlarining davriyligi ham o'zgaradi. Eng kuchaytirilgan ish (nagruzka) ta'til vaqtiga to'g'ri kelishi kerak. O'tish davri esa imtihon paytiga (bahorga) to'g'ri kelishi kerak.

Sport bilan shug'ullanish tarbiyaviy xarakteriga ega bo'lishi lozim. Bolalarga sport bilan shug'ullanishning ahamiyatini tushuntirish, jamoat ishlariga jalb etish, jamoa oldida mas'uliyatni (otvetstvennost) sezishga, xushchaqchaq, faol yigit va qizlarni tarbiyalashga qaratilishi lozim. Sportdagi muvaffaqiyatlarni taqdirlashni keng qo'llash kerak. (yosh sportchi, sport bo'yicha yosh instruktor, yosh hakam va h.k.lar).

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bolalar uchun sport bilan shug'ullanishda asosiy talablar quyidagi bo'lishi kerak: turmushda, o'qishda va mehnatda, o'quv joylarida, sanitariya gigiyena talablariga rioya qilish, sog'liq jismoniy rivojlantirish va jismoniy tayyorgarlik ustidan tibbiy, pedagog nazoratini yaxshi tashkil etish. Ko'p yillik ishlar rejalashtirilayotganda yosh sportchilar bilan olib boriladigan trenirovka ishlarining bosqichlariga rioya qilish zarur.

**Adabiyotlar:**


1. Умумий ўрта таълимнинг ДТС ва ўқув дастури, Шарқ, Тошкент, 1999.
2. Абдуллаев Ш.Д. Тошев А.Т Хайруллаева О.Ш Баркамол авлодни тарбиялашда ҳаракатли ўйинларнинг ўрни. Ўқув – услубий қўлланма. Бухоро, х\к "Прмз", 2012. 108 бет.
3. Атоев А.К. Фарзандларингиз баркамол бўлсин. Тошкент. Ибн.Сино. 1990 йил.


# BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH STANDARTLARINING AHAMIYATI


**G.R. Akramova**

*BxDU Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi dosenti, p.f.n.*

**N.Sh. Xamroyeva**

*BuxDU, I bosqich magistranti*


Ta'lim bor joyda tarbiya bor bo'lganidek, ta'lim sifatli bo'lsa, mamlakat tayanchi–yoshlar har tomonlama bilimli, kuchli va tarbiyali bo'lib voyaga yetadi.

Ta'lim sifati ko'zgusi bo'lgan baholash tizimining isloh qilinishi, Respublikamiz umumta'lim hamda oliy ta'lim tizimida 5 ballik baholash tizimining joriy etilishi, monitoring jarayonlari, reyting va modulli tizim kabilarning sinab ko'rilayotganligi hali bu boradagi muammolarga keng qamrovli taklif va yechimlar kutilayotganini yana bir bor isbotlaydi. [1]

Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bir bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarini aniqlashdan va tahlil qilishdan iboratdir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini o'rganish, tajribada sinab ko'rish, ularni amaliyotga tatbiq qilish orqali ta'lim muassasalari sifati va samaradorligini yanada oshirish zarur. [2] Baholash jarayonini mazmunli, xilma-xil tashkil etish, o'quvchilarni baho olishga to'g'ri yo'naltirish, dunyo yoshlari bilan raqobatbardoshlikka xos kompetentlikni shakllantirish, ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalardan biridir.

Global o'zgarishlar davri, ta'lim tizimida ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda, shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Maktabda olingan bilim insonning kelgusi hayot yo'lini belgilaydi. Ko'pchilik bilimni baho bilan o'lchaydi. Ammo baho bilimni belgilovchi aniq mezon emas. U o'quvchilarni faollikka undovchi, rag'batlantiruvchi vosita, xolos.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2017 yil 16 sentyabrdagi "2017-2018 o'quv yilida ta'lim sifati monitoring tizimini yanada takomillashtirish va tashkil etish to'g'risida"gi 299-sonli buyrug'ining 3-band 2- xatboshida:

- monitoring jarayonini tashkil etish, nazorat materiallari va turlarini ishlab chiqishda ilg'or xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS va h.k.)ni o'rgangan holda milliy monitoring tizimini takomillashtirish va uning natijalari asosida o'quv-metodik jarayonni yanada rivojlantirish choralarini ko'rish;

4-bandida: - monitoring jarayoni uchun nazorat (testlar, yozma ishlar, so'rovnoma, og'zaki savollar, audio(video) materiallarini tayyorlashda ularning umumiy hajmiga nisbatan 20% gacha o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos keladigan, o'quv dasturi va darsliklardan tashqari, xalqaro tajribalarda (PISA, TIMSS va h.k.) qo'llanilgan materiallardan foydalanish mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bu kabi islohotlarning natijasi ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishishga olib keladi va bu holat malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan ehtiyojning yanada oshib borishiga turtki bo'layotganini guvohi bo'lyapmiz.

Ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'quv yili davomida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o'tkazib boriladi. Uning natijasiga ko'ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, o'qituvchilar salohiyati va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta'lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'lgani uchun Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari bilimini baholash bo'yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi. Ya'ni, o'quvchilar bilimini xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini o'rganib borish maqsadida xalqaro baholash dasturlarini keng qo'llash rejalashtirilmoqda. Bunday talabning qondirilishi, o'z navbatida, o'quvchilar

oʻrtasida kitobxonlik va darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va oʻqituvchilarning har tomonlama ta’lim tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishning zamonaviy ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalga oshirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda.

Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti mutaxassislari aynan mana shunday talablarning bugungi kun ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligini inobatga olgan holda aksariyat xorijiy davlatlarda ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilgʻor tajribalarni oʻrganib chiqdi.

Xususan, dunyoda ta’lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (Oʻquvchilarni ta’limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) PIRLS (matnni oʻqish va tushunish sifatini aniqlash xalqaro tadqiqoti), ISSS (fuqarolik ta’limi sifatini aniqlash xalqaro tadqiqoti) TALIS (oʻqituvchilar korpusi sifatini xalqaro taqqoslash tadqiqoti) ICILS (kompyuter va information savodxonlikni aniqlash xalqaro tadqiqoti) mavjud boʻlib, ular rivojlangan davlatlardagi ta’lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida qoʻllanilib kelinmoqda.

PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtrok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat boʻlgan davlatlardagi boshlangʻich maktab oʻquvchilarining matnni oʻqish va qabul qilish boʻyicha tayyorgarligi hamda oʻquvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab boʻluvchi ta’lim tizimidagi oʻziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Mazkur tadqiqot oʻquv yutuqlarini baholash xalqaro Assosatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Tadqiqotda ishtirok etadigan maktablar ikkita parallel sinfi boʻlgan umumiy maktablar orasidan maxsus metodologiya asosida kompyuter yordamida tasodifiy tanlanadi.

PIRLS tadqiqoti jarayonida ikki turdagi oʻqish baholanadi: - adabiy oʻqish tajribasini egallashga qaratilgan oʻqish; - ma’lumotlarni oʻzlashtirish va ulardan foydalanish maqsadiga qaratilgan oʻqish. Tadqiqotning konseptual gʻoyalariga asosan badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni oʻqish darajasini baholashda 4 turdagi oʻqish koʻnikmalari baholanadi:

- yaqqol koʻrinishda berilgan ma’lumotlarni toppish;
- oʻqilgan matn asosida xulosalarni shakllantirish;
- axborotlarni umumlashtirish va interpretatsiya qilish;
- matnning strukturasi, tilga xos xususiyatlarni mazmunini baholash va taxlil qilish. PIRLS doirasida bajarilgan ishlarni miqdor va sifat koʻrsatkichlari asosida baholash maqsadida quyidagi baholash tizimidan foydalaniladi:
- javobini tanlashga oid topshiriqlar 1 ball bilan;
- voqea xodisalarning ketma-ketligiga oid topshiriqlar va qarorlar 1 ball bilan;
- javobi yoziladigan ochiq turdagi konstruktive xarakterdagi topshiriqlar qiyinchilik darajasiga koʻra 1 balldan 3 ballgacha baholanadi. [4]

Albatta bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, oʻqituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

PIRLS va TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarga qoʻyilgan eng muhim talablardan biri qiyosiy tahlil qilish imkonini beradigan topshiriqlardan foydalanish hisoblanadi. [5]

Mamlakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta'lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtirokini ta'minlashdan maqsad DTS talablarini toʻliq bajarish, har tomonlama rivojlangan va mustaqil fikrlashga qodir shaxs, raqobatbardosh mutaxassislarni tarbiyalash uchun nazariy va amaliy tavsiyalarni aniq belgilashdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**


1. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta`minlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi PQ-3775-son. 2018.05.06
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari.– T.:Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.–B.71.
2. OECD PISA Strong Performes and Successful Reformers in Education. Paris 2014- 193-p
3. Vaxobov M. M. Umumiy oʻrta ta'lim tizimida oʻqitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish.T., 2016.–61b


## ПРОЕКТИРОВАНИЕ СОВРЕМЕННОГО УРОКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ


**М.Ж. Ярашов**

*магистрант БухГУ (Узбекистан)*

**Ф.М. Косимов**

*доцент БухГУ (Узбекистан)*



***Аннотация:*** *В данной статие преимущества и преимущества образовательных технологий. Преимущества педагогических технологий для младших классов. Есть правила оформления уроков с использованием этих технологий. Правильное планирование уроков - это успех учителя. В начальной школе учителям были даны рекомендации по оформлению уроков.*



***Ключевые слова:*** *Современный урок, педагогические тенденции, познавательных, коммуникативных, тематический план, анализ.*


Ведущая педагогика в Национальной программе подготовки кадров создание современных учебно-методических комплексов и технологий

дидактическое сопровождение процесса является основным для общего среднего образования одна из функций. Так оказываться основной формой обучения в школе сегодня остаётся урок. Урок, его планирование и проведение – это то, с чем имеет дело учитель ежедневно. Современный урок – стоящий на уровне своего века, отвечающий духу и требованиям своего времени.

В последние годы в школе обозначились новые педагогические тенденции;

-изменение целеполагания в направлении природосообразности обучения

-усиление личностной ориентации образования;

-индивидуализация образовательных траекторий учащихся;

-творческая и развивающая направленность базового обучения;

-технологизация и компьютеризация учебного процесса.

Учитель и ранее, и теперь, должен заранее спланировать урок, продумать его организацию, провести урок, осуществить коррекцию своих действий и действий учащихся с учётом анализа и контроля.

Технология деятельностного метода обучения (ТДМ) создаёт условия для выполнения каждым учеником в ходе уроков по разным учебным предметам всего комплекса УУД, входящих в целостную структуру учебной деятельности. Для формирования у учащихся целостного представления о мире введение нового знания должно пройти через все этапы формирования нового элемента системы.

10 шагов учебной деятельности: 1- шаг: повторение необходимого;

2- шаг: итог повторения; 3-шаг:пробное учебное действие;

4-шаг:фиксирование своего затруднения; 5- шаг: переход к обдумыванию; 6- шаг: выявление причины затруднения; 7- шаг: постановка цели;

8- шаг: построение нового способа действий; 9- шаг:усвоение нового знания; 10- шаг:самоконтроль усвоения нового знания.

Это шаги могут быть изменены или продолжаться в зависимости от процесса обучения. Всем учителям знакомы основные этапы, которые осуществлялись при проектировании урока традиционного типа:

- определение цели и задач;
- отбор содержания учебного материала;
- подбор методов и приёмов обучения;
- определение форм организации деятельности учащихся;
- подбор материала для домашней работы учащихся;
- определение способов контроля;
- продумывание места, времени на уроке для оценки деятельности учащихся;
- подбор вопросов для подведения итога урока.

Проектирование - это обучение студентов создание программы для управления деятельностью.

Воронцов А.Б. и другие авторы рекомендуют учителю соблюдать следующую последовательность проектирования урока:

- определить результат урока в виде формируемой детской способности;

- представить, с какого уровня этой способности у детей начинается этот урок;

- отобрать задания из УМК, используя описание заданий, программу и примерный тематический план;

- определить примерное время на выполнение заданий;

- предусмотреть основные логические моменты урока;

- продумать, что будут делать дети на протяжении логических отрезков урока;

- предусмотреть на каждом уроке рефлексивные моменты, подведение детьми итогов работы, планирование хода выполнения задания.[312]

Проектирование - завершающая подготовка это этап, на котором студенты управляют своей умственной деятельностью программа заканчивается.[313]

Структура уроков 1-го класса варьируется в зависимости от их учебного назначения, типа урока и характера изучаемых материалов. Кроме того, в конструкции классной комнаты нет жесткого шаблона, потому что единственное значение по умолчанию не допускает творчества, а во-вторых, ограничивает возможности учащихся. Вот примерный проект уроков 1 класса ниже:

Урок: чтения 1- классе

Тема урока: «Алфавит».

Цели урока:

Образовательная:

- Создать условия для формирования и усвоения знаний об алфавите. Способствовать осознанию детьми практической необходимости знания алфавита.
- Познакомить детей с историей Башкортостана, его достопримечательностями.

Развивающая:

- Формировать у детей универсальные учебные действия.
- Развивать устную речь учащихся, совершенствовать культуру речи, внимание, мыслительные способности.

Воспитательная:

- Формировать интерес к изучению родного края.
- Воспитывать чувство гордости за свою Родину.
- Воспитывать чувство взаимоуважения, дружбы.

Учебное оборудование: презентация, проектор, карточки с заданиями, орфографические словари.

Ход урока.

**I.** Организационная часть**.**

---

[312] Воронцов А.Б. и другие «Практика развивающего обучения». , Москва, Русская энциклопедия, 1998, 286 стр.

[313] Р.Мавлонова, Н.Х. , К.К.Матназарова, М.К.Ширинов, С.Хафизов. ОБЩИЕ СВЕДЕНИЯ Образования Ташкент - «Наука и технологии» - 2018. 530 стр.

Девиз урока: *Тот, кто хочет много знать, Должен сам все постигать!*

**II.** Укрепить прошлую тему**.**

1) Артикуляционная : «Лошадки», «Веселый маятник»

*2)* Чтение *(на доске): Уз-бе-кис-тан,* - рес-пуб-лика, друж-ба

3)Вставь гласные и прочитай слово: *ЛФ*В*Т | А А И (*алфавит*)

Р *Д*Н* |О И А (*Родина*)

4) Прочитай пословицу и объясни: Человек без книги, пчела без цветка.

**III.** Описание новой темы**.**

- Какие знания мы будем постигать на уроке, тему урока, определите по словам из фонетической зарядки (*Алфавит, наш край, дружба, трудолюбие).*

*Пословица: Пчела без цветка не наберет мед, а человек без книги не получит знания*

- Цель нашего урока - узнать об особенностях алфавита, как образовалось это слово, о его практическом использовании в жизни людей; узнаем новые сведения о нашем родном крае.

**IV.** Укрепление новых знаний

Разгадывание загадки.

Двадцать девять родных сестрицы,<br>
Писаных красавицы,<br>
На одной живут странице<br>
И повсюду славятся! (буквы)

- Где живут буквы? (В алфавите)

- Что такое алфавит? *(Если расположить буквы в определённом порядке, получится алфавит)*

- В алфавите каждая буква занимает своё постоянное место.

**V. Оценка знаний.**

1 Коллективная работа

2. Групповая работа, работа в парах (разноуровневая работа)

**VI. Домашнее задание.**

Чтобы запомнить алфавит, повторяя предыдущие темы

## Список литературы:

1. Воронцов А.Б. и другие «Практика развивающего обучения». , Москва, Русская энциклопедия, 1998, 286 с.

2. Махмудов М. Система дидактического оформления учебного материала. Педагогический мастерство », выпуск 3, 2002, с. 3-11.

3.Р.Мавлонова, Н.Х. , К.К.Матназарова, М.К.Ширинов, С.Хафизов. «ОБЩИЕ СВЕДЕНИЯ» Образования Ташкент - «Наука и технологии» - 2018. 530 с.

4. Волков Б.С. Психология урока, его подготовка, проведение и анализ. Учебное пособие.- М., Центр педагогического образования,2011год.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARINI BO'LIMLARARO INTEGRATSIYALASHDA "LOYIHALASH METOD"IDAN FOYDALANISH

**N.M.Toyirova**
*BuxDU magistranti*
**A.R.Hamroyev**
*BuxDU dotsenti*

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotda o'z o'rnini topishiga, yoshlardagi mavjud qobilyatni to'la ro'yobga chiqarishga, jamiyatda mustaqil fikrlovchi, erkin shaxsni shakllantirishga, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgandir. Bu sayi harakatlar esa, albatta, dastlab boshlang'ich sinflardan boshlab amalga oshirilishi kerak. Darhaqiqat, yosh avlodni kelajakda qanday inson bo'lib voyaga etishi, uning boshlang'ich sinflardan olgan puxta bilimi-yu, ta'lim-tarbiyasiga bog'liq. Shuning uchun ham yoshlarga mukammal bilim berishning turli yo'llarini, shakllarini izlab topmoq va amaliyotga qo'llamok zarur. O'quvchilarga xuddi shunday ta'lim-tarbiya berishda hozirgi davrda integratsiyalash hamda kompyuter texnologiyasi asosida dars o'tishning o'rni beqiyosdir. Xususan,boshlang'ich sinflarning o'qish darslari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati,mazmuni,maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin egallagan desak mubolag'a bo'lmaydi.Chunki uning zaminida savodxonlik;estetik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari birinchi o'rinda turadi. Aynan o'qish darslarida insonning,avvalo,o'zligini,qolaversa,olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda darsliklarda Vatan, vatanparvarlik,mehnatsevarlik,ona tabiat, milliy-ma'naviy qadriyatlar,xalq og'zaki ijodi,vatanimiz tarixi,ulug' siymolar,hayvonot olami,insoniylik fazilatlari,kasb va hunar o'rganmoq kabi turli mavzular bo'yicha lirik va epik asarlar,ilmiy ommabop matnlar kiritilib o'qish kitobi mazmuni yanada boyitilgan. Umuman olganda O'qish kitobidagi mavzular o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish bilan birga,lug'at boyligini oshirish va boyitishga,nutq madaniyati, og'zaki va yozma nutqini shakllantirishga ham qaratiladi. Darsliklardagi o'quv materiallari mavzu doirasiga qarab bir bo'lim ichida beriladi. Har bir bo'lim mavsumiy va muhim sanalar hisobiga mos ketma-ketlikda yozilgan bo'ladi.Boshlang'ich o'qish darsliklarining bo'limlar soni 1-4-sinfga qadar haftalik o'quv rejasi ortib borishi hisobiga ko'payib boradi.

1-sinf o'qish kitobi savod o'rgatish davridan keyin,2-yarim yillikdan o'qitilganligi hisobiga 7 bo'limdan, 2-sinfda o'qish darsligi 11 bo'limdan iborat bo'lsa, 3-sinf o'qish darsligida 12 bo'lim, 4-sinf o'qish darsligi esa 16 bo'limdan iborat. Demak, o'qish darsliklarida jami bo'limlar soni46 tani tashkil qiladi.

Endi bevosita darsliklardagi bo'limlarni nomlanishiga kelsak,darslikdagi bo'limlar mavzu doirasiga qarab tuziladi va nomlanadi.Bo'limlarning nomi boshqa fanlarga bog'lanish mohiyatini anglatib yuradi. 1-4-sinfga qarab darsliklardagi bo'limlar g'oyaviy -mazmuniy jihatdan bir-birini takrorlab kelishi mumkin,faqat mavzular ko'lami jihatidan ancha kengayadi.

Boshlang'ich sinf O'qish darsliklarini bo'limlararo integratsiyalashda nimalarga e'tibor berish kerak.Integratsiya mujassamlashtirish, umumlashtirish, yaxlit holga keltirish, chukur o'rganish ma'nolarini bildirar ekan, demak, ta'lim jarayonida bilimlar majmuasini kengaytirish va chuqurlashtirishga xizmat qilishi kerak.

Mujassamlashgan darslarni tashkil etishda ularni samaradorligini oshirish uchun turli strategiyalardan foydalanish, o'quvchilarni dars jarayonida kichik guruhlarga bo'lish, yakka tartibda mashg'ulotlar o'tkazish, ko'zlangan maqsadga erishishning yo'llaridan biri bo'lishi mumkin.

Albatta, bu jarayon bevosita o'qituvchining tashabbuskorligi bilan amalga oshiriladi. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchi uchun asosiy shakl hisoblanadi. Shu bois ham, o'qituvchi o'tiladigan har bir mashg'ulotni o'quvchi uchun samaradorligini doimo aniq qilib bormog'i muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, har bir darsning barcha mavzulari o'zaro bog'liqligini, har bir keyingi mavzu oldingisi asosida tuzilganligini hamisha e'tiborga olishi, shuningdek, ayni paytda o'tilayotgan dars mavzusi ma'lum bir ma'noda boshqa dars va boshqa fanlarga ham bog'liqligini unutmasligi kerak. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan mashg'ulotlar integratsion va fanlararo aloqadorlikka ega bo'lishi zarur. O'qituvchi o'z ishini shunday tuzishi kerakki, o'quvchilarda shakllangan tushunchalar, bilimlar keyinchalik rivojlanib, aniqlashtirilsin, ularni hayotda o'z ehtiyoji uchun ishlata olsin. Shuni alohida ta'kidlash joizki integratsiyalashgan texnologiya ta'lim jarayoniga kirgandan buyon o'qituvchilarimiz imkon qadar darslar jarayonida fanlararo bog'lanishga e'tibor qaratmoqdalar. Buning uchun o'qituvchi dastlab fanlar mavzularini ko'rib chiqishi va bir-biriga bog'liq bo'lgan mavzuni topishi zarur. Shuning bilan birga qaysi fanlarni uyg'unlashtirmoqchi bo'lsa, ularni DTS talablarini ham hisobga olmog'i zarur. Ya'ni integratsion dars shunday tashkil etilsinki, unda tanlangan fanlarni maqsad va vazifalari amalga oshirilsin.

O'qish darslarini bo'limlararo integratsiyalashda Loyihalash metodidan foydalanish . Loyihalash metodi ta'lim texnologiyasining muhim bo'g'iniga aylanyapti.Bu metod ta'lim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi.

Loyihalash (lot.projectus-olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), nomimi o'zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatini ochib beradi.

Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarini tahlil qilib chiqsak.

Boshlang'ich sinf o'qish darsliklaridagi Vatan mavzusidagi bo'limlar nomlanishini tahlil qilib chiqamiz.

1-sinf “Biz vatanning ertasi” bo’limida 7 ta mavzu,

2-sinf “Ona yurtim-oltin beshigim” bo’limida 14 ta mavzu,

3-sinf” Biz buyuk yurt farzandimiz” bo’limida 9 ta mavzu,

4-sinf ” O’zbekiston-vatanim manim” bo’limida esa 5ta mavzu berilgan.

Yil fasllariga oid Bahor,Yoz, Kuz, Qish mavzusida integratsiyalashgan bo’limlarga e’tibor qaratsak,

1-sinf “ Ko’klam-yashnaydi olam”bo’limida 7ta mavzu,

2-sinf ” Zumrad bahor- bahridiling ochar” bo’limida 13 ta mavzu,

3-sinf ” Zumrad bahor nafosati” bo’limida 10 ta mavzu,

4-sinf “ Zumrad bahor” bo’limida 11ta mavzu berilgan. Faqat farqli jihati 3-4-sinflardagi bo’limlarda o’quv materiallari hajm jihatidan kengroq berilgan.

Yoz mavzusiga oid bo’limlar:

1-sinf “Yoz-o’tadi soz” bo’limida 5ta mavzu,

2-sinf “ Yoz o’tadi-soz” bo’limida 5ta mavzu,

3-sinf “ Yoz o’tadi –soz” bo’limida 4 ta mavzu,

4-sinf” Yoz o’tadi soz “bo’limida 6ta mavzu berilgan. Bular lirik va epik turdagi asarlari bilan bir-biridan ajralib turadi.

Bo’limlari takrorlansada, ulardagi mavzular bir-biridan farq qiladi va bir-birini to’ldirib va boyitib boradi.

Kuz mavzusiga oid bo’limlar:

1-sinf 2-yarim yillikdan boshlanganligi sababli Kuz mavzusidagi bo’limlar berilmagan.

2-sinf “ Oltin kuz –hosiling yuz” bo’limida 4ta mavzu,

3-sinf “ Saxovatli kuz” bo’limida 11 ta mavzu,

4-sinf “ Saxovatli kuz” bo’limida 3ta mavzular kiritilgan.

3-4-sinflarda bo’limlar nomi aynan takrorlab berilgan, faqat mavzu ko’lami jihatidan ancha kengaygan.

Qish mavzusiga oid bo’limlar:

1-sinf “ Mo’jizaviy qish” bo’limida 5ta mavzu,

2-sinf “ Kumush qish-misoli oqqush” bo’limida 10ta mavzu,

3-sinf “Kumush qish manzarasi” bo’limida 13 ta mavzu,

4-sinf “ Kumush qish “ bo’limida 5ta mavzu berilgan.

Tinchlik mavzusiga oid bo’limlar:

1-sinf “Tinchlik va do’stlik” bo’limida 5ta mavzu,

3-sinf “ Tinchlik va do’stlik bo’lsin barqaror” bo’limida 9 ta mavzu,

4-sinf “ Yashasin tinchlik,bor bo’lsin do’stlik” bo’limidan 4ta mavzu joy olgan. Lekin aynan 2-sinf darsligida shu mavzularga oid asarlar alohida bo’limda berilmagan.

2019-2020 o`quv yili uchun chop etilgan darslikdagi o`zgarishlar.

Boshlang‘ich ta’lim ta’lim tizimining poydevori hisoblanadi, chunki bu bosqich o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, fan yo‘nalaishlari bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarini shakllantiradi. Boshlang‘ch ta’limda nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarini shakllantiruvchi ta’limni tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Xalqaro talablar asosida oʻquv dasturlarini takomillashtirish va darsliklarni yangi avlodini yaratish ta’lim mazmunini tubdan isloh qilishning asosiy omili hisoblanadi. Shunga muvofiq tarzda boshlangʻich ta’lim fanlari oʻquv dasturlari mazmun jihatdan takomillashtirilib, ular asosida 2019-2020- oʻquv yili uchun 1-3-sinf darsliklari qayta nashr qilindi.

Maktab ostonasiga ilk qadamlarini qoʻygan qalbi ilm zavqi bilan toʻlgan bolalarning 1 kitobi “Alifbe”ning mazmuni rasmlardan iborat, demak oʻquvchilarning ta’limga boʻlgan qiziqishlarini uygʻotish “Alifbe”dagi rasmlarning rang barangligi, mavzularga mosligi, shu bilan birgalikda zamonaviyligi katta ahamiyatga ega.

Bu manbalarga asosan darslikdagi barcha rasmlar qayta ishlanib chop etildi.

1-sinf Oʻqish fani oʻquv dasturidan 3 ta:

“Ilm-aql chirogʻi”,

“Goʻzal fazilat-insonga ziynat”,

“Mehnatning tagi rohat”

mavzusidagi boʻlimlar mazmun jihatidan odobnoma fani oʻquv dasturi mazmunini takrorlanganligi uchun oʻqish fani oʻquv dasturidan chiqazilib:

1-sinf odobnoma fani oʻquv dasturiga kiritildi.

Bu mavzudagi boʻlimlar oʻrniga oʻqish savodxonligini oshirishga xizmat qiladigan 4 ta yangi:

“Moʻjizaviy qish”, “Kitob bizning doʻstimiz”, “Tinchlik va doʻstlik”, “Yoz-oʻtadi soz” boʻlimlari

1-sinf oʻqish fani oʻquv dasturiga kiritildi.

3-sinf oʻqish fani oʻquv dasturidan 3 ta boʻlim:

“Tabiatni seving va asrang” mavzusidagi boʻlim tabiatshunoslik fani,

“Goʻzal fazilat-inson husni”mavzusidagi boʻlimi, odobnoma fani,

“Orzular qanotida” boʻlimi musiqa fani oʻquv dasturlarining mazmunini takrorlanganligi uchun oʻqish fani oʻquv dasturidan chiqazilib,

3 ta yangi boʻlim: “Maktabim - qutlugʻ makonim, Kitobim - buyuk imkonim”, “Jahon bolalar adabiyoti”, “Tinchlik va doʻstlik boʻlsin barqaror” mavzusidagi boʻlimlar kiritildi.

Natijada 2016 yilda nashr qilingan darslikka kiritilgan 136 soat mavzulardan 104 soat mavzu chiqarilib, 32 soat mavzu olib qolindi. Chiqarilgan mavzular oʻrniga 79 ta yangi mavzular kiritildi.

## 1-SINFLARDA FAZOVIY TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHDA METODIK YONDASHUV

**Z. Abdiyeva**
*BuxDU I bosqich magistranti*
**F.M.Qosimov**
*BuxDU dotsenti*

Hozirgi kunda kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda to’plam, miqdor, shakl, vaqt to’g’risidagi hamda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish dolzarb va ahamiyatga molik ish bo’lib, o’quvchilarning maktabda o’tiladigan fanlarni o’zlashtirishida samaradorlik uchun xizmat qiladi. Chunki bu tushunchalar fanlararo bog’liqlikni ta’minlash vositalaridan biridir.

Aslini olganda bu tushunchalar to’g’risidagi tasavvurlar bolalarda maktabgacha ta’lim davridan boshlab integrative tarzda shakllantiriladi.

Bolalar maktabgacha ta’lim davrida kub, silindr, konus, parallelepiped, piramida kabi fazoviy jismlarni qo’llari bilan ushlab, ulardan turli figuralar hosil qilishadi va bu shakllarning nomini qisman bilishadi. Maktabning 1-sinfida esa ushbu jismlar to’g’risidagi tasavvurlari yana ham kengaytiriladi. Bu davrda o’quvchilar bu shakllarning nominigina bilib qolmasdan, ularning tomonlari, qirralari, asoslari, bu jismlarni qanday yassi shakllardan hosil qilish mumkinligi va hayotimizdagi narsa-buyumlar yoki ularning qismlari qanday fazoviy shakllarga o’xshashligi to’g’risidagi bilimlarga ega bo’lishadi. Shuningdek, 1-sinf o’quvchilari yassi va fazoviy shakllarni alohida to’plamlarga ajrata olishadi, ularni farqlay olishadi. Ya’ni tekislikda to’laligicha yota oladigan shakl yassi shakl ekanligi amaliy tarzda tushuntiriladi. O’quvchilar yaxshiroq anglashlari uchun yassi shakllarni ham fazoviy shakllarni ham tekis joyga, ya’ni doska, devor, parta ustiga yoxud polga qo’yib ko’rsatish maqsadga muvofiq. Bu davrda o’quvchilarga to’g’ri chiziq(ikkala tomonini ham davom ettirish mumkinligi), kesma(ikki tomoni chegaralangan to’g’ri chiziq ekanligi), nur(bir tomoni chegaralangan, ikkinchi tomonini istagancha davom ettirish mumkinligi), burchak(to’g’ri, yoyiq, yig’iq burchalar) to’g’risida tushuncha hosil qilish yuqori sinflarda fazoviy jismlar bilan bog’liq murakkab mavzularni o’rganish uchun poydevor bo’lib xizmat qiladi.

1-sinf darsligida og’irlik o’lchov birligi sifatida kg, sig’im o’lchov birligi sifatida litr tushunchalari keltirilgan. O’quvchilarning og’irlik o’lchov birliklarini tushunishida qiyinchiliklar ko’zga tashlanmaydi. Chunki ular bu o’lchov birligidan hayotda bevosida foydalangan, bozor yoki savdo do’konlarida tarozilarning bir necha xilini ko’rgan. Sig’im o’lchov birligi hisoblangan litr atamasining ham sut yoki suv maxsulotlariga, umuman olganda suyuqlik hajmiga nisbatan ishlatilganini eshitishgan va bevosita bu atamadan o’zlari ham foydalangan bo’lishlari mumkin. Lekin ular bevosita sig’im atamasini deyarli eshitishmagan. Bu atamani mohiyatan tushunishmaydi. Biror qattiq maxsulotni necha kg ekanligini aniqlash uchun tarozidan foydalanamiz. Suyuq maxsulotlarni esa necha litr ekanini aniqlash uchun standart idishlardan foydalanamiz. Bunday idishlar esa fazoviy jismlardan tashkil topgan. Aynan mana shu mavzuda hajm tushunchasi uchun zamin hozirlanadi. Qirralari 10 sm dan bo’lgan kub shaklidagi idishni biror bir suyuqlik bilan to’ldirsangiz, idishdagi suyuqlik barobar 1 litrni tashkil qiladi. Suyuqlik sig’imini o’lchash uchun 1,2,3… litrlik bankalar ham mavjud. 1 litrlik banka va yuqorida aytilgan kubdan foydalanib tajriba ham qilish mumkin.

O’rta maktabning 7-sinfidan boshlab matematika algebra va geometriya bo’limlariga bo’lib o’rgatiladi. Ta’lim tizimidagi oqsoqliklardan biri ko’pchilik o’quvchilarning aynan shu bosqichda ushbu fanlarga nisbatan qiziqishi sustlashadi.

Mohiyatan olib qaraganda geometriya fazoviy jismlar, ularning tarkibini o’rganadi. Oddiy bir ta’rif: “to’g’ri chiziqning ikki nuqtasi orasidagi nuqtalar to’plami kesma deb aytiladi”ni chuqur tahlil qilsak, kesma bu to’g’ri chiziqning bir qismi, to’plam ostisi bo’lib, nuqtalar to’plamidan tashkil topgan. Bu ta’rifni o’quvchilar yuqori sinflarda o’rganishadi, ammo bu ta’rifning xulosasini o’quvchilarga sodda tilda 1-sinfdayoq yetkazish mumkin. Ya’ni, “Ikki tomoni chegaralangan to’g’ri chiziq-kesmadir”, va h.k.

O’quvchchilarning geometrik tushunchalarni o’rganish jarayonida fazoviy tasavvurlari shakllanadi. Fazoviy tasavvur esa bevosita tafakkur bilan bog’liqdir. Bundan ko’zlangan maqsad o’quvchilarda geometrik tushunchalar to’g’risida bilim, ko’nikmalar hosil qilish bilan bir qatorda, ularda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish hamda ularni rivojlantirishdan iborat. Zero o’quvchi tasavvurining kengayishi bevosita undagi fazoviy tasavvurning rivojlanishi bilan bog’liq. Geometriyani dastlabki poydevori boshlang’ich sinflardan boshlanadi. Shunday ekan, kichik maktab davrida geometrik materiallarni izchil o’rgatib borish nafaqat ushbu fanga zamin hozirlaydi, balki o’quvchilarning fazoviy tasavvurlari shu jarayonning o’zida shakllanib borishi uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Buning uchun fan o’qituvchisi darslarga metodik jihatdan to’g’ri yondashishi talab etiladi.

Yana bir muammolardan biri  yuqori sinf o’quvchilari va oliygoh talabalarining ko’pchiligi matematikaning  streometriya bo’limini o’rganishga qiynalishadi yoki umuman bilishmaydi. Buning asosiy sababi boshlang’ich asos sustligi yoxud fan o’qituvchisining boshlang’ich ta’lim davrida matematika darslarini o’tish jarayonida metodik jihatdan xato yondashganligidir. Bilimlar bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga o’tish tamoyiliga asoslanib, bolaning yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda berib borilishi joiz. Mana shundagina o’quvchi mavzuni yaxshi tushunadi va darsdan ko’zlangan maqsadga erishiladi.

O’quvchida fazoviy  tasavvur qanday shakllanishi mumkin? Ilk bosqichda o’quvchilarga geometrik tushunchalarga doir oddiy topshiriqlar berishdan boshlanadi. Masalan shakllarni taqqoslashga doir topshiriqlarni ko’rsak.

1. Shakllarni katta va kichikligi bo’yicha joylashtiring.



Bu topshiriqni bajarishda o’quvchilar shakllarni ko’z bilan chamalab taqqoslashlari mumkin.

2. Shakllarning qaysi biri katta?



Bu topshiriqda o’quvchilarga qaysi kattaroq joyni egallasa, o’sha shakl katta ekanligi tushuntiriladi. Bu topshiriqni bajarish uchun o’quvchilar shakllarni ustma-ust qo’yib ko’rishlari mumkin.



3. Shakllarni taqqoslang.



Bu topshiriqni bajarish shakllar yonma-yon qo'yilgani uchun o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirmaydi.

4. Shakllarni taqqoslang.



Ushbu shakllarni esa o'quvchilar o'lchov birligi orqali taqqoslashlari mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki, geometrik figuralarni taqqoslash bevosita fazoviy munosabatlar va akslantirishlarga borib tarqaladi. O'quvchilarda geometrik tushunchalarni o'rganish jarrayonida fazoviy tasavvurlar rivojlanib boradi.

Munosabatlar, akslantirish, o'zaro moslik o'rnatish kabi matematik tushunchalarni qo'llash jarayonida o'quvchilarda chapda, o'ngda, yonida, pastda, yuqorida, balandda, o'rtasida kabi fazoviy tasavvurlar shakllanib boradi.

Fazoviy tasavvurlarni shakllantirib borish jarayonida o'qituvchi fanlararo aloqadorlikni ham unutmasligi kerak. Tasviriy san'at, texnologiya, jismoniy tarbiya, ona tili, o'qish, darslarida ham o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirishga e'tibor qilish joiz.

Masalan 1-sinf tasviriy san'at darsligida geometrik shakllar uchun alohida mavzu ajratilgan. O'quvchilar uchburchak, to'rtburchak, doira, aylana, kub, silindr, konus, piramida kabi shakllar bilan ushbu darslarda ham tanishadilar. Tasviriy san'at darsi o'quvchi tasavvurini rivojlantiradi. O'quvchilar ushbu dars orqali taqqoslash, chamalash, tasavvur qilish, o'lchov olish, rejalashtirish, mo'ljallash ko'nikmalari shakllanadi. Asta-sekinlik bilan o'quvchilarda abstrakt tafakkur rivojlanib boradi.

Texnologiya darslarida esa o'quvchilar turli geometrik shakllar orqali applikatsiya usulidan foydalanib fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishi mumkin.

Jismoniy tarbiya darslarida ham o'ngga, chapga atamalarinining ishlatilishi o'quvchilarning abstrak tasavvurlari shakllanishiga o'z hissasini qo'shadi.

Ona tili, o'qish darslarida o'quvchilarning oldin, keyin, oldida, orqasida, o'rtasida, kecha, bugun, ertaga, avval, so'ng kabi atamalardan matematika darsi singari foydalanish fazoviy va vaqtga doir tasavvurlarning rivojlanishida o'z samarasini beradi.

Xulosa qilib aytganda , o'quvchilar fazoviy tasavvurining shakllanishi va kengayishi , bevosita ular tafakkurining rivojlanishiga ta'sir qiladi. Tafakkur esa insonning fikrlash layoqatining qay darajada takomillashganligini hal qiluvchi vositadir. O'quvchi tafakkuri qay darajada rivojlansa, uning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham shu darajada oshib boradi. Bu esa ta'lim tizimi oldidagi bosh vazifalardan biridir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Ahmedov , N. Abdurahmonova, M. Jumayev umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1- sinfi uchun darslik. «TURON-IQBOL» TOSHKENT – 2018
2. Rayxonov SH.R. Boshlang’ich sinflarda matematika o`qish usuliyoti (ma`ruzalar matni) 1-2-3 qismlar. Buxoro 2004 y
3. G’oziyev E. Ta`lim jarayonida o`quvchilar tafakkurining o`sishi – T.: O`qituvchi 1980-88 b.
4. Z.Abdiyeva. Bilmasvoy bilimdonlar mamlakatida (Matn): Bolalar uchun ertak-masalalar /.-Buxoro : Sadriddin Salim Buxoriy Durdona nashriyoti, 2018. – 84 b.

## BOSHLANG’ICH SINFLARDA TA’LIMNI LOYIHALASHNING XUSUSIYATLARI

**D. Sh. Sidiqova**
*BuxDU magistranti*

Hozirgi kunda juda ko’p sohalarda loyiha va loyihalash kabi so’zlarni eshitamiz.Keling, avvalambor “Loyihalash” so’zining ma’nolariga to’xtalib o’tsak.

Loyihalash (lot. projectus - olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), nomini o'ziaytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, proyektma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayonqilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi

Loyihalash- mo’ljallangan ob’yektlar (apparat va asboblar, bin ova inshootlar, yo’l va ko’priklar, mashina va jihozlar, samolyot va kosmik kemalar va hokazo boshqa mahsulotlarning yangi xillari va namunalri)ni qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish jarayoni. Fan va texnikaning barcha sohalrida qo’llaniladi.Hozir loyihalash jarayonini avtomatlashtirishga ayniqsa, keng e’tibor berilmoqda.

Ta’limda darslarni loyihalashda o’qituvchi har tomonlama o’ylab, uning natijasini oldindan ko’ra olishi kerak. Shuning uchun ham darslarni oldindan loyihalashtirish juda yaxshi samara beradi.

Loyihalar predmet va uning yo’nalishiga ko’ra bir-biridan farqlanadi.Loyihalarda pedagog tomonidan ketma-ket amalga oshiriluvchi va tashhisning qo’yilishi bilan yakunlanuvchi tahliliy faoliyat hisoblanadi. Oldindan ko’ra bilish va loyihalashkabi ijodiy faoliyatlar namoyon bo’ladi. Tashhis, oldindan ko’ra bilish valoyihalash har qanday pedagogik vazifani hal etishning ajralmas uchligihisoblanadi. Loyihaning maqsadi oldindan qog’ozda taqvim-reja, qisqacha yozmabayon sifatida aks ettiriladi. Strategik, taktik va operativ vazifalarning samarali haletilishi loyihalash texnologiyasining sifatiga bog’liq.

Pedagogik jarayonni loyihalashda pedagogning faoliyati, pedagogikvositalarni qo’llash mazmuni va imkoniyatigina hisobga olinmasligi

kerak. U asosan alohida o'quvchi va o'quvchilar guruhi tomonidan tashkil etiluvchi faoliyatmazmunini yoritishi zarur. Loyihalash ta'limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda,pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiy strategiya hisoblanadi. Loyihalashdao'quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o'quv qo'llanmalarmuhim manba bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik loyihalashda pedagogik vazifaning yaxlit holda mazmunan,tashkiliy-metodik, moddiy-texnik hamda ijtimoiy-psixologik (hissiy,kommunikativ va hokazo) jihatdan hal etilishini ta'minlash talab etiladi.

O'quv dasturi yoki o'quvchi shaxsi ta'lim mazmunini loyihalashningasosi bo'lib, bu vaziyatda o'qituvchi pedagogik faoliyat, maqsad va sharoitlargamuvofiq holda o'quvchilarga nimani taqdim etish xususida mustaqil qaror qabulqiladi. Qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish maqsadgamuvofiqdir:

1) o'quvchilar tavsiya etilayotgan ma'lumotdan nimani va qanday hajmda o'zlashtirishlari zarurligi;

2) o'quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, ularning o'quv ma'lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari;

3) o'qituvchining shaxsiy, shuningdek, ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda har bir holatning puxta bajarilishiga erishish amaliy faoliyat (o'quv jarayoni)ning muvaffaqiyatini ta'minlashga olib keladi. Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri ta'lim jarayoninitexnologiyalashtirishdan iborat. Ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlashda quyidagi shartlarning bajarilishi muhim ahamiyatgaega:

1) o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi;

2) rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotganzamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lish.

U quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- loyihani yaratish;
- o'quvchilar faoliyatini tashhislash;
- pedagogik jarayonni tashkil etish;
- pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash;
- o'quvchilar faoliyatini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik vazifaning hal etilishiga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlariningmazmuni, vositalarini loyihalash orqali erishadi. Zamonaviy sharoitda ta'limjarayonini texnologiyalashtirish uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv, ya'ni, ta'lim jarayonini texnologik strukturasiga muvofiq yoritish zaruratini taqozo etadi. O'qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etishda ta'lim jarayonini loyihalashalohida ahamiyatga ega. Har bir o'quv kursini o'rganish alohida mavzu va bo'limlarni loyihalash asosida amalga oshiriladi. Pedagogik amaliyot mohiyatini tahlil etish natijasida ta'lim jarayonini loyihalashning bir necha qonuniyatlari ajratildi.

Ta’lim jarayonini loyihalash doirasida o’quvchilar faoliyatini nazorat qilish muhim o’rin tutadi. Shu bois nazorat jarayonini loyihalash ham o’qituvchidanalohida malakali yondoshuvni talab etadi. Loyihalash pedagogik faoliyatning murakkab ko’rinishi bo’lib, uni amalga oshirishda ta’lim jarayonining muhim qonuniyatlari inobatga olinishi zarur.Loyihalash metodi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib,o'qituvchining talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi. O'qituvchi darsvaqtidan unumli foydalanib, talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi. Loyihalash ishlarinitashkil etishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi.

Loyihalash metodi ta'lim oluvchilarni quyidagilarga:

– fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va yechish, axborotlar oqimida mo'ljal olish;

– faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g'oyalami ilgari stjrish, tadqiqot o'tkazish, tahlil qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqliginianiqlash;

– o'z faoliyati natijasiga mas'ul bo'lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish vato'g'rilash;

– turli yechim. takliflaming natijalarini ilmiy taxmin qilish (prognozlash);

– jamoada ishlash, turli nuqtayi nazar, fikrlaming muhokamasida qatnashishga rag'batlantiradi.

Loyihalash metodini qo'llab, dars o'tish jarayonida o'quvchi, talabalarning vazifasi:

– iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq, ijtimoiy ahamiyatga ega ishni bajarish, mahsulot ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, iqtisodiy va boshqa muammonibelgilangan vaqt davomida yechish yoki yechish uchun takliflar ishlab chiqish.

Loyihalash metodini qo'llash uchun birinchi navbatda loyihalash ob’yektini aniqlaymiz. Qanday masala, muammo mavjudki, uni yechib loyihaning natijasiniqanday bo'lishini belgilaymiz.

1. Bu o'tilayotgan mavzu bo'yicha qo'yilgan savol yoki yechimini kutayotgan dolzarb masala bo'lishi mumkin. Loyiha talabalarning o'z xohishlari,qiziqishlariga ko'ra tanlagan ilmiy izlanishlari bo'lishi mumkin yoki o'qituvchi taklif qilishi mumkin. Har ikkala holda ham talabalar zarur axborotlarni to'plashlari, ularni tahlil qilishlari zarur. Tahlil asosida qaror qabul qilib, loyiha ishlab chiqishdan maqsad qo'yiladi va qanday natijaga erishilishi belgilanadi.

2. Maqsadni aniqlagach, loyihaning mazmunini belgilaymiz.

3. Reja asosida amalga oshirish uchun vazifalar belgilanadi, ya'ni faoliyat rejasi ishlab chiqiladi. Loyihaning umumiy tavsifi oy- dinlashadi. Aniq faoliyatgaasos yaratiladi. Loyihani amalga oshirish uchun tuzilgan reja aniq bo'lishi, haddantashqari murakkab bo'lmasligi kerak. Umumiy rejadan tashqari

haftalik va oylikrejalar tuziladiki, uning asosida talaba bajaradigan ishlarni yanada oydinlashtiradi.

4. Loyiha qatnashchilari belgilanadi. Loyiha qatnashchilari o'z qiziqishlari, fikr doiralari bilan bir- birlariga yaqin, yordam beruvchi o'quvchi, talabalar bo'lib, ularni loyihada qo'yilgan maqsad birlashtiradi.

Ularni yoniga keyinchalik boshqa qatnashchilar ham qo'shilishi mumkin.

Lekin qatnashchilar haddan tashqari ko'payib ketishi salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun loyihada har bir qatnashuvchining bajaradigan vazifasi aniq yozibqo'yiladi.

5. Loyihani amalga oshirish muddatlari belgilanadi. Agarda u bosqichlarga bo'linsa, uni har xil muddatlari bilan ko'rsatiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,o'quv dasturi yoki o'quvchi shaxsi ta'lim mazmunini loyihalashning asosi bo'lib, bu vaziyatda o'qituvchi pedagogik faoliyat, maqsad va sharoitlarga muvofiq holda o'quvchilarga nimani taqdim etish xususida mustaqil qaror qabulqiladi. Qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

1) o'quvchilar tavsiya etilayotgan ma'lumotdan nimani va qanday hajmda o'zlashtirishlari zarurligi;

2) o'quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, ularning o'quv ma'lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari;

3) o'qituvchining shaxsiy, shuningdek, ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Hasanboyev J., Hasanboyeva O.,.To'raqulov X.A, Haydarov M.. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T-2008y.
2. R.Mavlonova, N.Voxidova va N.Raxmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi" T.-2010
3. 3.B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" "Sano-standart" nashriyoti-T.2017-yil


# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ВОВЛЕЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ К ПРЕДМЕТУ МАТЕМАТИКА


**Ж.И.Нажиматдинова, А.Б.Айтмуратова,**
**С.Р.Ходжаниязова, Ж.М.Уркинбаева.**
*Республика Каракалпакстан. Учитель школы № 22 Нукусского района.*


Школа уже давно почитается как порог добра, дом знаний и мыслей. Действительно, глубокие знания, приобретенные в школе, в будущем определят смысл нашей мирной и процветающей жизни.

Чтобы наши дети приобрели глубокие знания, навыки и умения, необходимо заинтересовать их каждым предметом с раннего возраста. Навыки учителя очень важны. Учитель начальных классов должен постоянно изучать эффективность учебного процесса, тщательно изучать возрастные и психологические особенности детей и умело использовать все имеющиеся знания [1].

Turistik institutlar tuzilmasi (1-chizmaga qarang):

- *turistikfaoliyat institutlari va turistik infratuzilma* (turistik, kurort va mehmonxona-restoran faoliyati institutlari). Ta'kidlash joizki, yaqinda turistik faoliyat institutining rivojlanishi turistik bozor subyektlari va turizm infratuzilmasi hatti-harakatlaridagi noaniqlik darajasini, shu jumladan me'yoriy-huquqiy bazani




yangilash orqali kamaytirishga qaratilgan;

**1-chizma. Turizm sohasining institusional shakllari** (manba: muallif ishlanmasi).

- turistik resuslar (alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardan foydalanish institutlari, tabiiy va madaniy-tarixiy resurslarni turizm maqsadlarida ishlatish);
- turizmnirivojlantirish institutlari (istiqbolli hududlarni rivojlantirish instituti, rekreatsion infratuzilma va turizm loyihalari, turizm mahsulotini bozorlarda tirg'ibot qilish institutlari).
- turizmnidavlat tomonidan tartibga solish institutlari (huquqiy yordam, statistika hisobi va turizm sohasidagi davlat boshqaruvi institutlari).

Ko'plab olimlar va mutaxassislar tomonidan olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalari shuni tasdiqlaydiki, institutsional muhitning rivojlanish darajasi va turizmning rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini belgilaydigan alohida elementlarining o'zaro ta'siri bo’lib hisoblanadi.

Turizmni rivojlantirish uchun institutsional omillar qatoriga *axborot omili, kutish (noaniqlik) omili, jamoaviy harakatlar va institutlarning ta'sir darajasi omilihamda talab va taklif omillari* kiradi.

Institutsional rivojlanish bilan shug'ullanadigan olimlarning fikriga ko'ra, institutsionalizatsiya ba'zi bir real bozorda individual harakatlar tamoyilinijamoaviyharakatlar tamoyiliga aylantirishni taqazo etadi. Jamoaviy harakatlar, ko’pchilikning fikriga ko’ra, individual harakatlar uchun o'ziga xos mantiqiy asosni anglatadi.

Jamiyatning institutsional tuzilishi biron bir harakatni amalga oshirishga ruxsat berilganligi yoki taqiqning mavjud emasligida o’z aksini topadi.Ushbu tizimrasmiy (qonunlar) va norasmiy (urf-odatlar, an'analar) cheklovlar shaklida namoyon bo’ladi. Ular qonunlar va urf-odatlarga rioya qilinishini kutish, qonunlar va urf-odatlarga rioya qilmaslik oqibatlari (qo'pol munosabat yoki befarqlik) bilan bog'liq cheklovlarda ifodalanishi mumkin.

Turizmda **talab omili**, avvalambor, ikkita asosiy narsa bilan belgilanadi: aholi daromadlari va bo'sh vaqtning mavjudligi.Turizm sohasidagi takliflar rekreatsion infratuzilmaning tegishli sohalarida: savdo va xizmat ko'rsatish sohasi, dam olish sohasi, transport infratuzilmasi, axborot texnologiyalari sohasida katta daromad keltiradi.

**Kutish omili,** odatda, to'liq bo'lmagan ma'lumotlar va uchinchi shaxslar tomonidan qilinadigan harakatlardan kelib chiqadigan natijalarda o’z aksini topadi. Umuman olganda, ushbu omil noaniqlik omili sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

“Ideal bozor” qoidasi mavjud bo’lib, bozorning har bir ishtirokchisi bir xil tovarlarni (xizmatlarni) sotish uchun bir xil shartlarga ega bo’lganligi.Zamonaviy voqelikda bunday bozor mavjud emas, shuning uchun ma'lum ma'lumotlarning to'liq emasligi (nomukammalligi) haqidagi faraz mavjud. Turistik bozorda uning subyektlari xabardorlik darajasi sezilarli darajada farqlanadi: ba'zi ishtirokchilar ko'proq bilishadi va shuning uchun yutishadi, boshqalari kamroq va shuning uchun, odatda, yo'qotadilar.

Turizmni rivojlantirishning institutsional omillarini iqtisodiy va noiqtisodiy tarkibiy qism mavjudligi bilan ham tasniflash mumkin.

Turizmni rivojlantirish uchun institutsional muhitni tahlil qilish hozirgi bosqichda institutsional omillar turizmni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri ekanligi to'g'risida qat'iy ishonch bilan xulosa chiqarishga imkon beradi va ularning ta'siri ko'p jihatdan hududning rekreatsion salohiyatini va mintaqaviy turistik-rekreatsion tizimning raqobatbardoshligini aniqlash imkoniyatini beradi.

1992-1993 yillarda sovet ittifoqi parchalanganidan keyin, MDH mamlakatlarida turizm to'g'risidagi qonunlar mustaqil ravishda yaratildi vaqabul

qilindi. Bundan tashqari, qonunlarni ishlab chiqishda MDHga a'zo davlatlar qo'shni davlatlar qonunlarining ijobiy tomonlarivakamchiliklarini inobatga olgan, shuning uchun keyinchalik qabul qilingan hujjatlar odatda yanada mazmunli va to'liq ekanligini tan olish kerak.

MDH mamlakatlarida turizm to'g'risidagi qonunlar o'xshash tuzilishga ega.Ular odatda murakkab (tarmoqlararo) bo'lib, davlat va xususiy huquq normalarni qamrab oladi. Bunday qonunlar quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

a) jamoa huquqiy munosabatlari:turizm sohasidagi tushunchalar va ta'riflar;turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsad va vazifalari va turizmni davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari;barcha darajadagi hokimiyatlar o'rtasida vakolatlarning bo'linishi; turizmni davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiruvchi turizm sohasidagi ijro hokimiyati organlarining nomi va vakolatlari;davlat hokimiyati organlari huzuridagi jamoat tuzilmalarning huquqiy maqomi;turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning umumiy printsiplari, protektsionistik siyosat (turizmni qo'llab-quvvatlash fondlari, soliq imtiyozlari, eksport qilinadigan xizmatlarni aniqlash va boshqalar);turizm sohasidagi tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyatni jamoat tashkiloti (davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziyalash, sertifikatlash, standartlashtirish, turistik tashkilotlarni, mehmonxonalarni va boshqalarni tasniflash, turistik tashkilotlar va sohaga oid kasblarni toifalash , turizm sohasi ishchilarining malakasini tasdiqlash (turistik patent) va boshqalar);turizmning barqaror rivojlanishini hisobga olgan holda turizm manbalaridan foydalanishning huquqiy me’yorlarini belgilash;turizm sohasida moliyaviy nazorat va statistik hisobning umumiy tamoyillari (turistik paket, statistik hisobot va boshqalar);turistik rasmiyatchilik va turizm xavfsizligi; kadrlar malakasini oshirish; turizm sohasida davlatning xalqaro-huquqiy hamkorligi;

b) **xususiy huquqiy munosabatlar**: turistik tashkilotlarning huquqiy maqomi (asosiy tushunchalar);Turizm sohasidagi tashkilotlar va tadbirkorlarning sayyohlar bilan o'zaro munosabatlari, shuningdek ular o'rtasida turizm sohasidagi fuqarolik shartnomalari (shartnomalarni tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi, huquq va majburiyatlar, tomonlarning javobgarligi, javobgarlikni ta'minlash va boshqalar);turistik agentliklarning javobgarligini sug'urta va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Iqtisodiyot tarmog'i sifatida turistik va rekreatsion xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solish usullarining oltita guruhi mavjud [5].

Birinchi guruhga turizm va turistik faoliyat sohasidagi umumiy tartibga solish usullari kiradi: a) turistik faoliyatning har xil turlarini amalga oshirishning umumiy qoidalarini joriy etish (sayyohlik, mehmonxona, ekskursiya xizmati va boshqalar.); b)turizm subyektlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash; v)turizmni davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat organlari faoliyati tartibini belgilash.

Ikkinchi guruhga turizmni rivojlantirish uchun davlat dasturlarini amalga oshirish usullari kiradi: a) turizmni rivojlantirishning manzilli dasturlari, manzilli

investitsiya dasturlari va boshqalar..; b) turizmni rivojlantirish kontseptsiyalari, turizm sohasidagi davlat siyosati strategiyalari va boshqalar.

Uchinchi guruhga turizm sohasida tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyatni qonuniylashtirish vositalari kiradi: a) litsenziyalash; b) akkreditatsiya; v) sertifikatlashtirish.

To'rtinchi guruhga turizm sohasidagi me'yoriy va miqdoriy o'lchash usullari kiradi: a) turistik, mehmonxonalar, ekskursiya xizmatlari standartlari; b) turistik xizmatlar narxlari (masalan, ijtimoiy turizm sohasidagi); v) tariflar; g) standartlar; d) soliqlar (yig'imlar); e) to'lov; j) stavkalar (bojxona to'lovlari va boshqalar).

Beshinchi guruhga turizm sohasi tashkilotlari faolligini saqlash va ularni rag'batlantirish usullari kiradi: a) kreditlar; b) imtiyozlar; v) kredit yoki soliqqa oid ta’tillari; g) davlat buyurtmasi (masalan, ijtimoiy turizm sohasida va boshqalar); d) protektsionizm; e) monopoliyaga qarshi tartibga solish va raqobatni qo'llab-quvvatlash.

Oltinchi guruhga turizm sohasidagi nazorat va buxgalteriya hisobi hamda "taqiqlovchi" usullar kiradi:a) buxgalteriya hisobi; b) statistik hisobot; c) cheklovlar va boshqa nazorat shakllari; e) talablar; g) sanktsiyalar (jarimalar va boshqalar); z) qonuniylikdan mahrum qilish (bitimlar, harakatlar, harakatlar to'xtatib turilishi, haqiqiy emasligi).

Institutsional muhitni ko'rib chiqish jarayonida institutsional raqobat institutsional shakllar, normalar, iqtisodiy faoliyat qoidalari, institutsional cheklovlarga rioya qilishning mavjud mexanizmi, raqobat va raqobatdoshlikni saqlash va rivojlantirish uchun foydalaniladigan mulk huquqi tizimining yig'indisida ifodalanishi aniqlandi.

Xullas, institutsional muhit bilan institutsional raqobat o’rtasida o’zaro bog’liqlik mavjud bo’lib, unda sohaning barqaror o’sishi mavjud qonun va me’yoriy-huquqiy bazaning egiluvchanligi va moslanuvchanligi bilan belgilanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики.М.: Начала, 1997
2. Харламова А.Ю. Развитие институциональной туристской среды как основа реализациитуристского потенциала региона // Российское предпринимательство. 2010. №9(129).
3. Еремина И. А. Условия и инструменты развития институционального пространстварынка туристических услуг.- [Электронный ресурс] – Режим доступа:http://www.dissers.ru/avtoreferati-dissertatsii-ekonomika/1.
4. ХолматовН.Б.,Янги институционализмнинг микро ва макроиқтисодиёт соҳаларидаги фикрий силжишларларга таъсири.“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали.№ 6, ноябрь-декабрь, 2018 йил.
5. Тихомиров Ю. А.,Бошно С.В.Теория закона: общие закономерностии новые подходы. Право и современные государства 1/2018.

# TURIZM KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA KLASTER ISHTIROKCHILARINING MANFAATLAR TIZIMI

**Y.F.Dushanova**
*BuxDU, II bosqich magistranti,*
**B. N.Navro'z-Zoda**
*BuxDU professori, i.f.d*

Turizm sektorining raqobatbardoshligini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda samarali ishlashi va unga erishishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim sohasidir, chunki u bir qator ustuvor vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi: aholi turmush darajasi va bandlik darajasini oshirish, mehnat resurslarini ko'paytirishning samarali mexanizmini yaratish, xalqaro va mintaqalararo mehnat taqsimotida mintaqaning rolini oshirish, investitsiyalar, shu jumladan chet el investitsiyalarining kirib kelishini rag'batlantiruvchi byudjet daromadlari, yerlardan oqilona foydalanish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish va boshqalar. Hozirgi kunda butun dunyoda turizm sektorining raqobatdoshligini ta'minlaydigan yo'nalishlardan biri bu – tegishli tashkiliy-iqtisodiy klaster mexanizmdir.Shuning uchun hozirgi paytda O'zbekistonda mintaqaviy turistik klasterlarning rivojlanishi ichki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va xususiy-davlat sheriklik mexanizmlarini: fan, davlat, ta'lim va biznes o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish shartlaridan biridir.

**Turistik klaster** – bu ma'lum bir zarur va yetarli funksiyalar to'plamiga ega bo'lgan, masalan, geografik jihatdan markazlashgan korxonalar guruhining mavjudligi kabi, birinchi navbatda turistik sayyohlik klasteri; turizm va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar, umumiy madaniy va ijtimoiy muhit, maxsus sanoat ixtisosligi, davlat va xususiy muassasalar ishtirokchilari egalarituristik resurslar - iqtisodiy tovarlar, turizm mahsulotlarini iste'molchilari sifatida faoliyat yuritishidir.

Turistik klasterni yaratishdan maqsad turizm bozorida hududning raqobat bardoshligini oshirish, shu jumladan:

- klaster tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlarning samaradorligini oshirish;
- innovatsiyalarni rag'batlantirish;
- yangi yo'nalishlarni rivojlantirishni rag'batlantirish.

Turistik klasterini yaratish raqobat va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Turistik bozordagi hududning raqobatdosh ustunliklari innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi korxona va tashkilotlarni, sanoatni rivojlantirishning yangi yo'nalishlarini birlashtirish yo'li bilan yaratiladi, bu hududning joylashuviga hissa qo'shadi va mintaqaning obro'sini shakllantirishga, uning mintaqaviy va milliy miqyosda barqaror rivojlanishini belgilaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm klasterlarining raqobatbardoshligi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, mehnat va

investitsion salohiyat bilan shakllanadi. Raqobatbardosh munosabatlar klaster ichida ham tashqi muhitda ham shakllanadi.

*1-jadval*




Turistik klasterni shakllantirish jarayoni turli subyektlarning, jumladan, davlat boshqaruv tuzilmalari, tadbirkorlik tuzilmalari va mahalliy hamjamiyat vakillari tashabbuslarining paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Bu boshqaruv korxonasini tuzishni, ushbu hududda turizmni rivojlantirish bo'yicha strategik rejani ishlab chiqish hamda doimiy boshqaruvni, monitoringni va o'zini-o'zi boshqarish tamoyillari asosida yanada rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Boshqaruv korxonasi mustaqil yuridik shaxs bo'lib, uning faoliyati davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga asoslanadi. Boshqaruv korxonasi turizm klasteridagi turli ishtirokchilar - davlat, tadbirkorlik sub’ektlari va "uchinchi" sektor vakillarini jalb qilinishini taqozo etadi(2-jadval).

Hududning turistik va rekreatsion faoliyatini boshqarish amaliyotida klaster usulidan foydalanishda quyidagilar talab qilinadi:

- hudud statistikasi, shu jumladan turizm statistikasini axborot va uslubiy ta'minlash, tashkil etish va uning texnologiyasi.

- o'ganilayotgan mintaqa hududlari statistikasini tahlil qilish, natijada hudud o'zining innovatsion tizimi elementlarining mos keladigan asosiy qiymatlari bilan asos sifatida tanlangan.
- turizmning tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy kompleks dasturlar doirasida davlatning mintaqaviy va tarmoq boshqaruv tuzilmalari darajasida tasdiqlanishi.

*2-jadval*

**Turistik klaster ishtirokchilarining manfaatlar tizimi**

| Turistik klaster a'zosi | Kutiladigan natijalar |
|---|---|
| **Davlat** | - byudjet tizimiga soliq tushumlarining ko'payishi (soliq to'lovchilar soni va soliq bazasining ko'payishi);<br>- davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga asoslangan biznes bilan o'zaro munosabatlarning yangi shakllari paydo bo'lishi;<br>- mintaqada iqtisodiy o'sishni diversifikatsiya qilish uchun real sharoitlarning paydo bo'lishi;<br>- ijtimoiy-siyosiy ahamiyati: turizm klasteri aholining ijtimoiy majburiyatlari shakli sifatida;<br>- mintaqaning turizm sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish imkoniyati; |
| **Tadbirkorlik sub'ektlari** | - tadbirkorlik sohasining yangi tadbirkorlik subyektlarining paydo bo'lishi;<br>- biznes sektoridagi raqobat kuchlari va ishbilarmonlik faolligining o'sishi;<br>- mintaqadagi turizm sohasida biznes sektorining ijtimoiy mas'uliyatini oshirish |
| **"Uchinchi" sektor** | - Mintaqaning turizm sohasidagi ijtimoiy marketing ehtiyojlarining qondirilgan o'sishi |
| **Uy xo'jaliklari sektori** | - Mintaqada va undan tashqarida turistik xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishi |
| **Klasterning barcha a'zolari** | - Turizm industriyasi subyektlarining tashqi iqtisodiy faolligini rivojlantirish, turistik industriyaning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish, innovatsion, sarmoyaviy rag'batlantirish, sinergistik samarani, miqyosni tejashni ta'minlash |

Shu munosabat bilan sayyohlik klasterlarini yaratishda quyidagi afzalliklarni ta'kidlash taklif etiladi.

- klaster darajasidagi hamkorlik birinchi navbatda qo'shimcha raqobatbardosh ustunliklar va kooperatsion aloqalarni amalga oshirish potentsialining oshishi hisobiga bir xil hududda va mintaqalararo darajada turizm bozori subyektlarining ixtisoslashuv imkoniyatlarini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda;

- turizm va mehmondo'stlik sohasida biznes jarayonlarini yuritish xavfining ortishi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadigan raqobatdosh ustunliklarni amalga oshirishning yagona strategiyasini shakllantirish imkoniyati;
- turizm bozorida tijorat faoliyatini tashkil etishning klaster tuzilmasi uning har bir sub'yektining moliyalashtirish manbalaridan foydalanish va prognoz qilinayotgan daromadlarning o'sishi imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi;
- uzluksiz jarayon sifatida klasterlash turizmning turli sohalarida va tegishli sohalarda samaradorlikni oshirishi mumkin. Bular orasida umumiy turizm mahsulotlarini yaratish, transport infratuzilmasini takomillashtirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish uchun investorlarni izlash,amalga oshirilayotgan vakolatlar darajasini oshirish maqsadida turizm klasteri subyektlarining boshqaruv xodimlarini faollashtirish va boshqalar;
- klasterlar bilimlarni, innovatsiyalarni va eng yaxshi sayyohlik amaliyotini tarqatishga yordam beradi. Bularning barchasi turistik klaster sub'ektlarining har birining raqobatbardosh mavqeini mustahkamlanishiga olib keladi, bu individual kompaniya yoki korxona uchun juda qiyin bo'lib tuyuladi;
- ta'lim va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik, geografik joylashuvidan qat'i nazar, potentsial mijozlarning talablari va talablarining o'zgarishini hisobga olgan holda, turistik bozorni amaliy o'rganish natijalari va uning rivojlanish tendentsiyalariga kirish imkoniyatini yaratadi;
- klasterlash mavjud ishlab chiqarish omillaridan samaraliroq foydalanish imkoniyatini yaratadi, bu esa o'z navbatida mahsulotning umumiy tannarxini pasayishiga olib keladi va turistik bozor sharoitida miqyosli iqtisoddan foydalanish imkonini beradi;
- klaster ta'limining mavjudligi hududning iqtisodiy rivojlanishiga, qo'shimcha ish o'rinlarini ko'paytirish va ish beruvchilar tomonidan ijtimoiy kafolatlar tizimini takomillashtirish orqali mahalliy aholining yashash va yashash sharoitlarini yaxshilashga qo'shimcha turtki beradi;
- turizm klasterining subyektlari tashqi muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, o'z manfaatlarini birma-bir emas, balki birgalikdagi harakatlar orqali qo'llab-quvvatlaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:


1. Porter, M. E. Clusters and the new economics of competition. Harvard Business Review, 76(6), 77-90, 1998.
2. Carmen Iordache, Iuliana Ciochină, Mihaela Asandei., Clusters – tourism activity increase competitiveness support, Theoretical and Applied EconomicsVolume XVII (2010), No. 5(546), pp. 99-112
3. Саакян М.А. Зарубежный опыт формирования и управления туристскими кластерами

4. Багирян В.А., Туристический кластер как механизм привлечения инвестиций в экономикурегиона. Финансовые исследования № 4 (53) 2016
5. http://rreconomic.ru/journal/article/72/
6. Туристские кластеры понятие, цели, структура. http://www.stihi.ru/2015/05/20/1442

## TURISTIK OQIMNI OSHIRISHDA TURISTIK ANIMATSIYANING AHAMIYATI

**Sh.O.Alimova**
*BuxDU II bosqich magistranti*
**H.R.Hamroyev**
*BuxDU dotsenti, i.f.n.*

O`zbekistonda turizm sohasi jadal rivojlanmoqda: yangi mehmonxonalar, turistik majmualar, turoperator va turistik agentliklar, suvenirlar ishlab chiqarish korxonalari, axborot va reklama xizmatlari hamda turistik xizmatlarning yangi turlari paydo bo'lmoqda. Yurtboshimiz turizmni rivojlantirishda yangidan-yangi qaror, qonun, farmon va farmoyishlar bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2019 yil 5 yanvardagi PF 5611 sonli “O‘zbekiston Respublikasida Turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni Buxoroda bir qancha muammolar bartaraf etishga turtki bo`ldi. Jumladan, Buxoro viloyati Turizmni rivojlantirish departamentining
2019 yil sarhisobi bo`yicha viloyatga tashrif buyurgan sayyohlar soni 3,6 mln nafarga yetdi. Bunda, xorijiy turistlar soni 603,0 ming nafarni tashkil etib, bu esa 2018 yilga nisbatan 2,0 barobarga ko'payganini ko'rsatadi.

Viloyat miqyosida jami 100 ga yaqin, jumladan Buxoro shahrida 68 ta yangi mehmonxonalar qurilish ishlari boshlanib, hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar bilan olib borilgan muzokaralar natijasida Buxoro shahrida o'n yildan ortiq vaqt davomida ishlamay turgan 3 ta yirik 480 ta o'rinli “Buxoro-palas”, 390 ta o'rinli “Zarafshon” mehmonxonalari xorijiy va mahalliy investorlarga berilib, ularda rekonstruktsiya ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Shundan, “Orient Star Hotels” MChJga qarashli “Varaxsha” mehmonxonasi 2019 yilning may oyida o'z faoliyatini boshladi.

Bugungi kunda turistik majmualarda, mehmonxonalarda, va dam olish maskanlarida qiziqarli, to'laqonli dam olishni tashkil etish uchun bir qancha chora-tadbirlar butun dunyo bo`ylab ishlab chiqilmoqda. Eng maqbul yechim sifatida ko`pgina davlatlar turizmda animatsiyaga urg`u berishmoqda.

Turistik animatsiya bu xizmat turidir, uning maqsadi turistlarni turistik kompleksning turli xil hordiq chiqarish tadbirlariga jalb qilish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdan iborat. [3,4]Animatsiya tufayli sayyohlar ijobiy his-tuyg'ularni qabul qilishadi va aynan ular bor bo'lgan turistik korxonaga qayta-qayta tashrif buyurishga intilishadi. Shuning uchun biz haqli ravishda ayta olamizki, animatsiya

- bu turistik biznesning daromadliligi va rentabelligini oshirish uchun turistik mahsulotni bozorda ilgari surishga qaratilgan mehmonlar va ularning do'stlarini jalb qiladigan reklamaning o'ziga xos shaklidir [2].

Dunyo iqtisodiy forumi (World Economic Forum), 2017 yil turizm va sayohat raqobatbardoshligi to`plamida bir qancha olimlar tomonidan dunyo turizmi o`rganilib chiqildi. Unga ko`ra turizm va sayohatni quyidagi bo`limlarga bo`lib o`rganish va baholash mezoni ko`rsatilib, animatsion turizmni tabiiy va madaniy-ma`rifiy resurslar mezoniga kiritilgan.[5].

**1-chizma. Turizm va sayohat raqobatbardoshligi ko`rsatkichlari**




*Manba: 2017 yil turizm va sayohat raqobatbardoshligi to`plamidan*

Bu ko`rsatkichlar asosida har bir davlatning turizmdagi ulushi batafsil tahlil qilib o`tilgan. Tabiiy va madaniy-ma`rifiy resurslar ko`rsatkichida animatsion turizmni qanchalik rivojlanganini aniqlab beruvchi mezonlar bor. Unga ko`ra bu mezonlar sayohat qilish uchun motiv deb ta`kidlanib o`tiladi.

**1-jadval.Dunyoda tabiiy resurslari bilan mashhur davlatlar o`ntaligi**

| **O`rinlar** | **Davlatlar** | **Baholash mezoni (max.7 ball)** |
|---|---|---|
| 1 | Braziliya | 6.13 |
| 2 | Meksika | 5.63 |
| 3 | Kosta Rika | 5.43 |

| | | |
|---|---|---|
| 4 | Peru | 5.27 |
| 5 | Xitoy | 5.25 |
| 6 | Avstraliya | 5.21 |
| 7 | Tailand | 4.95 |
| 8 | Tanzaniya | 4.93 |
| 9 | Ispaniya | 4.91 |
| 10 | AQSH | 4.90 |

*Manba: 2017 yil turizm va sayohat raqobatbardoshligi to`plamidan*

Bu jadvalda ko`rib turibmizki, Braziliya (6.13), Meksika (5.63) va Kosta Rika (5.43) davlatlari eng yuqori ko`rsatkichlar asosida tabiiy resurslari: mamlakatdagi tarixiy obyektlar, tabiiy yer resurslari, hayvonot va o`simliklar dunyosi bilan dunyoga mashhur ekanligi tahlil etilgan.

**2-jadval. Dunyoda madaniy-ma`rifiy va biznes sayohat resurslari bilan mashhur davlatlar o`ntaligi**

| O`rinlar | Davlatlar | Baholash mezoni (max.7 ball) |
|---|---|---|
| 1 | Xitoy | 6.94 |
| 2 | Ispaniya | 6.85 |
| 3 | Fransiya | 6.75 |
| 4 | Yaponiya | 6.53 |
| 5 | Italiya | 6.46 |
| 6 | Germaniya | 6.28 |
| 7 | Buyuk Britaniya | 5.96 |
| 8 | Braziliya | 5.75 |
| 9 | Hindiston | 5.28 |
| 10 | Meksika | 5.26 |

*Manba: 2017 yil turizm va sayohat raqobatbardoshligi to`plamidan*

Jadvalda madaniy-ma`rifiy va biznes sayohat resurslari: madaniy obyektlar, xalqaro konferensiyalar, ko`ngilochar va madaniy sport stadionlar, madaniy - ma`rifiy meroslar bilan Xitoy (6.94), Ispaniya (6.85) va Fransiya (6.75) ko`rsatkichlar asosida 140 davlat orasida top uchtalikdan joy oldi [5].

Xitoy madaniy-ma`rifiy va biznes sayohat resurslari bilan dunyoda birinchi o`rinni (6.94) egallab turibdi. Buni tahlil qiladigan bo`lsak, haqiqatda ham Xitoy o`zining beqiyos madaniyatini bir qancha turistik animatsion tadbirlar orqali turizm sohasini jadal rivojlantirmoqda. Internet ma`lumotlariga qaraganda, Xitoyda har oyda kamida uchta turistik tadbirlar: yarmarka, ko`rgazmalar, shou-tomoshalar, milliy bayramlarni keng nishonlash kabi tadbirlarni amalga oshiradi. Bu tashkil etilayotgan turistik animatsiyalar esa hududdagi barcha infratuzilmalarni birdamlikda ishlashini ta`minlaydi. Misol tariqasida, 2005 yildan buyon har yili

aprel oxiri may boshlarida Xitoy xalqaro multfilm va animatsiyalar festivali (CICAF) tahlil qilamiz [6].

(CICAF) eng nufuzli festival sifatida nafaqat shaharga kelayotgan mutaxassislar sonining ko'payganini, balki sayyohlar soni ham ko'payib borayotganligini, sanoatni rivojlantirish va boyitganligini, mahalliy aholining madaniy hayotini ijobiy tomonga o`zgarishini ta`minlab bermoqda. Ushbu festivalda 45 dan ortiq tadbirlar bo'lib o'tadi va Xanchjou mehmonxonalarida ko'plab tanlovlar, ko'rgazmalar, forumlar va biznes muzokaralar bo'lib o'tadi. Statistik ma`lumotlarga qaraganda, 2019 yil XV Xitoy xalqaro multfilm va animatsiyalar festivalida(CICAF) 1.436 mln kishi tashrif buyurgan, 86 davlatdan 2.645 kompaniya va tashkilotlar qatnashgan, 1.368 ta loyiha taxminam umumiy 13.984 RMB mlrd (2.027 USD mlrd) mablag`ga imzolangan. Xanchjou mehmonxonalarida mehmonlar joylashtirilgan [7].

Umuman olganda, Xitoyda tashkil etilayotgan bunday animatsion turistik tadbirlar va marosimlar sayyohlar uchun motiv bo`lib, sayyohlik oqimini ko`payishiga olib keladi. Tashrif buyurgan sayyohlar ongida muhrlanib qoladi va kelajakda sayyohlik oqimini kuchaytiradi.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, har bir mamlakatda tashkil etilayotgan turistik animatsiyalar turizmga juda ijobiy ta`sir ko`rsatib, iqtisodiyotga ancha foyda keltiradi. O`zbekistonda ham turistik animatsiyalarni qo`llash orqali:

- mamlakatni jonli reklama qilish;
- tashkil etilgan animatsion tadbirlar hududda bo`sh ish o`rnini yaratish;
- aholi daromadini oshirish;
- mehmonxonalar zichligini ta`minlash;
- madaniy-ma`naviy hordiq bag`ishlaydi;
- turizm infratuzilmasini yaxshilash;
- mavsumiylikni yumshatish kabi bir qancha muammolarni bartaraf qilishimiz mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF 5611 sonli “O‘zbekiston Respublikasida Turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni (https://lex.uz/docs/-4143188).
2. Воронина Г.Б. «Анимация, анимационная деятельность: сущность понятий» (https://tourlib.net/statti_tourism/voronina.htm).
3. Zlatko jakovlev, cane koteski, nikola v. dimitrov, tanja angelkova ,kristijan dzambazoski “ cultural-amusement animation factor for tourizm development”. (https://www.researchgate.net/publication/269447812_CULTURAL-amusement_animation_factor_for_tourizm_development).

4. А. Б. Гончаренко “АНИМАЦИОННЫЙ СЕРВИС” Санкт-Петербург, 2016, 5-15 бб. (https://docplayer.ru/74979005-A-b-goncharenko-animacionnyy-servis.html).
5. https://www.weforum.org/reports/the-travel-tourism-competitiveness-report-2017.
6. http://en.cicaf.com/programme/25.
7. https://www.shine.cn/feature/lifestyle/1804263702/
8. http://www.caleidoscope.in/art-culture/the-potential-of-animation-for-tourism-industry.

## YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDAGEOAXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALAR O’RNI

**N.U. Axrorova**
*BuxDU I bosqich magistranti*
**B.N. Navro’z-zoda**
*BuxDU professori, i.f.d*

*Yoshlar turizmi uchun hukumat tomonidan yaratilib berilayotgan keng imkoniyatlar mazkur sohaning qisqa fursatlarda rivojlanishiga va yirik bozorga aylanishiga asosiy hissa qo’shadi. Bunda albatta mazkur segmentni izchil tadqiq qilish va o’rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada yosh sayyohlarning sayohat manzillari aniqlash, infra va infotuzilmani shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan mobil ilova xususiyatlari tafsilotlari keltirilgan.*

Bugungi kunda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda, sifat va miqdor kategoriyalariga ham alohida e’tibor berilmoqda. Shu bilan birgalikda mavjud turizm turlari va xizmatlardan tashqari yana boshqa yangi turlar shakllantirilishi uchun zaruriy shartlar ko’rib chiqilmoqda. Hukumat tomonidan yaratilgan so’nggi o’zgarishlar va imkoniyatlar asosida, O’zbekistonning turistik salohiyati va imkoniyatlari keng imkoniyatlar orqali butun dunyo sayyohlik sektori e’tiborini jalb qilmoqda. Raqamlar bilan ifodalaganda buni aniq ko’rish mumkin: yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni miqdori 2017-yilga nisbatan 2018-yilda 2,3 barobarga oshgan (2017-yilda 2847,9 ming nafar, 2018-yilda esa 6433 ming nafar)[1]. Bu bir vaqtning o'zida O’zbekistonda ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan islohotlar sayyohlikning ko’plab sohalarida o’z yutuqlarini namoyish qilayotganidan dalolat beradi. O’zbekistonga kiruvchi sayyohlarning aksariyat qismi madaniy turizm va ziyorat maqsadida tashrif buyurishadi, lekin bu mavjud turlardan tashqari mamlakatimizda yuqori potensiali bo’lgan gastronomik, etnografik, arxeologik, yoshlar va boshqa turizm turlarining ham ilg’orlashuvi borasida amaliy ishlar bajarilmoqda. Shular orasidan Yoshlar turizmi O’zbekiston uchun nisbatan yangi, biroq keng istiqbolli turizm turi hisoblanadi, negaki, O’zbekiston aholisining 60% dan ortig’ini yoshlar tashkil etar ekan, bu segment nihoyatda yuqori potensialga ega.

Yuqoriroqda keltirilgan raqamlarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, O'zbekistonda yoshlar turizmining barqaror rivojlanishi ko'plab sohalarda, masalan, iqtisodiyot va turizm, ta'lim, xorijiy va qo'shni davlatlar yoshlari o'rtasidagi hamkorlik bilan birgalikda taraqqiy etishiga olib kelinishi mumkin. Shubhasizki, bu o'z navbatida, mamlakatda barqaror turizmni rivojlantirish ustunlariga olib kela oladi. Yoshlar turizmining gullab-yashnashi uchun keng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan ko'plab vazifalarni amalga oshirish zarur.

Bugungi qadar yoshlar turizmi segmenti turli olimlar tomonidan turlicha yondashuvlarda o'rganilib kelingan, jumladan ularning motivlari, sayohatga chiqish maqsadlari, o'ziga xos xususiyatlari: daromadning cheklanganligi, lekin vaqtning cheklanmaganligi, yangichalikni his qilish singari xosliklari borasida amaliy izlanishlar amalga oshirilgan. Aksariyat hollarda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar sayohati uchun eng asosiy omil sifatida e'tirof etiladi va ijtimoiy tarmoqlar orqali sayyohlarning harakat yo'nalishlari kuzatiladi. Biroq biz geoaxborot tizimlarini qo'llagan holda yosh sayyohlarning sayohat trayektoriyasini tuzish va bu orqali potensial turistik destinatsiyani shakllantirishni maqsad qilib oldik. Avvalo geoaxborot tizimlari va yoshlar turizmining bir-biriga bog'liqligini ko'rib chiqamiz.

*Geografik axborot tizimlari ta'rifi.* Hozirgacha GATga berilgan ta'riflar 20dan ortiq bo'lib, uning turli xil xususiyatlarini bayon qilishga qaratilgan. Ular orasidan birini taqdim qilish maqsadga muvofiqdir. Lillecand P. quyidagicha ta'riflaydi: "GAT – bu ma'lumotlar bazasini kengaytirishga, ma'lumotga ishlov berishga, ularni karta va jadval ko'rinishida tasvirlashga, xo'jalik faoliyatining u yoki bu masalasi yechimi to'g'risida qaror qabul qilishga moslashgan ma'lumotlar bazasi, apparatura, ixtisoslashgan matematik ta'minot va dasturlar to'plamidan iborat bo'lgan tizimdir."

*Yoshlar turizmi ta'rifi.* Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) yoshlar tomonidan amalga oshiriladigan sayohatlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Yoshlar sayohati 16-29 yoshdagi odamlar tomonidan odatiy muhitdan tashqarida rasmiy va norasmiy o'rganish, boshqa madaniyatlarni boshdan kechirish, hayotiy tajriba va (yoki) foyda olish istagi bilan bir yildan kam bo'lgan barcha mustaqil sayohatlarni o'z ichiga oladi." [3]

Shuningdek, mazkur tashkilot tomonidan berilgan ma'lumotlariga ko'ra, faqatgina 2010-yilda yoshlar tomonidan 190 millionta xalqaro sayohatlar amalga oshirilgan, 2020-yildan keyin esa bu raqam har yili taxminan 300 millionni tashkil etadi. [4] Bundan tashqari, boshqa segmentlarga qaraganda kishi boshiga kam mablag' sarflanishi mumkinligiga qaramasdan, ommaviy sayohat qilinganda tushadigan tushumning yuqori ekanligi ham ko'rsatib o'tilgan. Prognozlar esa 2020-yilga qadar yosh sayohatchilar soni 370 millionga yetishi va sayohat uchun qilinadigan umumiy xarajatlari 400 milliard AQSh dollarni tashkil qilishini ko'rsatadi. [5] Bu esa turizm sohasida yoshlarning ahamiyati oshishiga olib kelmoqda.Aynan yoshlar sayohati harakatlanishini kuzatishda geoaxborot tizimlari juda qo'l keladi. Qisqacha qilib aytganda, GATning qo'llash orqali erishish mumkin bo'lgan potensial foydalarni qayd etib o'tishni lozim deb topdik:

- intelligent xaritalash;
- tahliliy imkoniyatlar;
- modellashtirish va prognozlash;
- daromadlar generatsiyasi. [6]

**Tadqiqot muhokamasi**

*Kuzatuv tadqiqotlari usullari.*Turistik tadqiqotlar doirasida tashrif buyuruvchilarning harakatini kuzatish uchun turli xil usullardan foydalanilgan. Kuzatish uchun asosan uchta variant mavjud:

- to'g'ridan-to'g'ri kuzatish;
- so'rov va intervyuga asoslangan usullar, masalan sayohatlar kundaligini ishlatish yoki xaritalarda chizish;
- maxsus qurilmalar yoki Wi-Fi yoki Bluetooth orqali yoki GPS-teglar orqali mobil ilovalarni kuzatish orqali GPS-kuzatuv orqali amalga oshiriladigan raqamli kuzatuv.

*To'g'ridan-to'g'ri kuzatish.* To'g'ridan-to'g'ri etnografik kuzatuvning afzalligi shuki, to'planishi mumkin bo'lgan aniq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, shu jumladan qarorlarni qabul qilish va guruhlar dinamikasini o'rganish mumkin bo'ladi. [7] Biroq, Makkerher va Lau yondashuv sayyohlar o'zlarining aldashlariga va ta'qib qilinishlari bog'liq ravishda turistik harakatni bu usulda kuzatishni "eng kam amaliy va eng axloqiy jihatdan shubhali usul" ekanligini ta'kidladilar. [8] Agar sayyoh bundan xabardor qilingan bo'lsa, unda ham ma'lumotlarning shaffofligiga zarar yetishi mumkin. Shuningdek, mazkur usul juda ko'p resurslarni talab qiladi, har bir sayyohni kuzatib borish uchun kuzatuvchini tayinlashni talab qiladi. Shu sabablarga ko'ra, bu usul kamdan kam ishlatilgan. [7]

*O'z-o'zidan to'ldirilgan qog'ozga asoslangan yondashuvlar.* Ko'p yillar davomida xaritalar va sayohatlar kundaliklari odatda sayyohlarning harakatlari to'g'risida ma'lumot to'plash uchun ishlatilgan. Ishtirokchilar xaritalarda o'zlarining marshrutlari va to'xtash joylarini ko'rsatishlari yoki kundalik sayohat kundaligiga yozishlari kerak. Ijobiy tomoni shundaki, bunday yondashuvlar sayyohlarni diqqat bilan kuzatib borishga imkon beradi. Biroq, ular harakatning mayda-chuyda tafsilotlarini olishiga imkon bermasligi, shuningdek, ular noto'g'ri bo'lishi mumkin, chunki ular sayyohlarning olingan marshrutlar, to'xtagan joylar, muayyan joylarda olingan vaqt kabi tafsilotlarni eslashlariga bog'liq bo'lishi mumkin. [9] Xususan, sayohat kundaliklari, ikkita nuqta o'rtasida o'tgan yo'nalishlarda tadqiqotchilar tomonidan taxminlarni talab qilishi kerak, chunki ular noto'g'ri bo'lish ehtimoli yuqoriroqdir. Xaritalar va sayohat kundaliklaridan olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda yana bir qiyinchilik yuzaga keladi, chunki bunday ma'lumotlarni tasniflash va undan olingan namunalarni aniqlash juda qiyinligini McKercher and Lau (2009) tomonidan isbotlangan.[7]

*GPS orqali kuzatish.* GPS loglari va GPS bilan ishlaydigan smart telefonlar sayyohlarning harakatlarini aniq kuzatishga imkon beradi. GPS birliklari tadqiqotchilarga doimiy ravishda vaqt va makonda harakatni ko'rsatadigan yuqori aniqlikdagi ma'lumotlarni doimiy ravishda to'plashga imkon beradi. Sayyohlikni tadqiq qilishda GPS-ga asoslangan izlanishlar turli xil darajalarda va turli xil

usullarda muvaffaqiyatli ishlatilgan. Mana shunday yirik tadqiqotlardan biri bu Avstraliyaning Tasmaniya orol shtatida o'tkazilgan tadqiqotdir, unda 4 kundan 14 kungacha tashrif buyurgan 472 mustaqil sayyohlarning harakatini mobil ilova orqali muvaffaqiyatli kuzatishga erishilgan.

*Ilova asosida GPS kuzatish.* GPS kuzatuv tadqiqotlarida GPS yordamida ishlaydigan soatlar, chiplar va boshqa jihozlar ishlatilgan bo'lsa, GPS bilan ishlaydigan smartfonlarning rivojlanishi va tez tarqalishi ma'lumot to'plash narxini kamaytirish va ishtirokchilarni o'rganish uchun noqulayliklarni minimallashtirish orqali sayyohlarni kuzatish bo'yicha tadqiqotlarni osonlashtirishi mumkin. Turistlar tomonidan ishlatiladigan ko'plab smartfon ilovalari makon va vaqt bo'ylab harakatlanishni avtomatik ravishda kuzatib boradi va kerakli joyga asoslangan xizmatlarni taqdim etadi. Smartfon ilovalari shuning uchun kuzatuvlarni o'rganish uchun oson va qulay vositadir. Joylashuvni biladigan ilovalarning afzalliklaridan foydalanish uchun iste'molchilar ko'pincha shaxsiy hayotdan mamnuniyat bilan savdo qiladilar yoki maxfiylik bilan bog'liq yo'qotishlardan bexabar.[10] Savdo korxonalar bunday ma'lumotlarni foydalanuvchi shartnomalari doirasida osongina ishlatishi mumkin, chunki ular evaziga qimmatbaho xizmatlarni taklif qiladilar. Xuddi shu yo'sinda sayyohlarning harakatlanishi, ularning to'xtash joylari, qayerda qancha vaqt sarflashlari singari ma'lumotlar olinishi juda osonlashadi deb hisoblaymiz.

O‘zbekistonga 2018-yil yakunlari bo‘yicha 5,3 million xorijiy turist tashrif buyurgan bo‘lsa, shundan 1,5 mln.dan ortig‘ini yoshlar tashkil etdi. Mamlakatimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarning o‘rtacha yoshi 2010-yilda 60 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib 45 yoshni tashkil etadi. Bu esa nafaqat mamlakatimizga tashrif buyuruvchi turistlar orasida yoshlar ko‘payib borayotganligini ko‘rsatadi va balki xalqaro yoshlar turizmini ham keng ko'lamda rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.[11]

2020-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlar turizmini rivojlantirish Konsepsiyasi va 2020 – 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlar turizmini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha 2020-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanishi turizm turlarini yanada xilma-xillashtirish, yurtimizga yosh turistlarni faol jalb qilish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, yosh turistlar oqimini yanada oshirish, ko‘rsatilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash hamda yosh turistlarga mo‘ljallangan turizm infratuzilmasini yaratilishini ta'minlashi shubhasizdir. Mazkur Konsepsiya asosida turizm mavsumi past bo‘lgan oylarda (dekabr-fevral va iyul-avgust oylarida) tashkil etiladigan xalqaro tadbirlarda o‘rnatilgan tartibda Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobi asosida xarajatlarning qoplanilishi ham turizmning bu turi rivojiga asosiy omil bo'la oladi.

Shuningdek, 2020-2025-yillarda mamlakatda yoshlar turizmini rivojlantirishga oid maqsadli ko‘rsatkichlar: xorijlik yosh sayyohlar sonini 1,3 milliondan 2020-yilda 2,2 millionga, 2023-yilga 3,3 millionga, ichki turizm bo‘yicha yosh sayyohlar sonini 8,1 milliondan 2020-yilda 10 millionga, 2023-yilda

esa 13,6 millionga yetkazish, 2020-yilda 20 ta, 2023-yilda 60 ta xalqaro darajadagi tadbir oʻtkazish rejalashtirilgan. [11] Respublika miqyosida birgina 2020-yilda asosan yoshlar uchun 122 ta tadbir oʻtkazilishi joriy yil boshida qayd qilingan edi. [12]

Yoshlar mehmonxonalari va oliy ta'lim muassasalarida 5 kunlik o'quv tizimining joriy etilishi ham mamlakatimiz bo'ylab ommaviy yoshlar sayohati uchun asosiy motiv bo'lsa, natijada esa mahalliy yoshlar turizmi bozori shakllanishiga olib keladi. Bunday yirik segment shakllanishi, katta miqdordagi yosh sayyohlarning respublikamiz bo'ylab sayohatlari esa mazkur doirani yanada chuqurroq va teranroq o'rganishni taqozo etadi.

Bugungi qadar O'zbekiston hududi ichida sayohatni amalga oshirishni yo'lboshchilik qiladigan (guiding apps) turli mobil ilovalar yaratilgan bo'lsa-da. Lekin biz taqdim etayotgan tavsiyalar shu kungacha yaratilgan ilovalar uchun yanada ko'p funksiyali xususiyatlarni taqdim etadi deb o'ylaymiz.

Avvalo, ilova user-friendly bo'lishi shart va uning asosiy maqsadi albatta sayyohlarni sayohatlari davomida yo'lboshchilik qilib, tashrif buyurilayotgan destinatsiya haqida kerakli ma'lumotlar (savdo do'konlari, restoranlar, muzeylar va teatrlar, chegirmalar va b.)ni beradi. Lekin sayohat davomida ikkilamchi maqsadlar, biroq yosh sayyohlarning sayohat harakatlarini, destinatsiyalarini tadqiq qilishda lozim bo'lgan natijalarga erishamiz:

- sayyohlar trayektoriyasini shakllantirish;
- sakon borasidagi kichik so'rovnomalar;
- GPS orqali ulanganlik va foydalanuvchining ayni damdagi geolokatsiyasi ma'lumotlari erishiluvi;
- saqt va zamon o'lchovlari (sayyohning ma'lum bir hududda qancha vaqt o'tkazganligi);
- ijtimoiy tarmoqlarga o'ta olishligi;
- ilovadan foydalanganlik uchun maxsus imtiyozlar (rag'batlantiruvchi vositalar).

Asosiy maqsad shuki, mobil ilova foydalanuvchiga sayohati davomida mehmonxona, restoran va kerakli destinatsiyalarni topishiga nafaqat yordam beradi, balki GPS orqali uning sayohat trayektoriyasini chizishga muvaffaq bo'ladi. Vaqt va makon o'lchamlari asosida qayerda qancha vaqt davomida to'xtalgani borasida ham ma'lumot to'planadi, bu esa ilgari qayd etilmagan, ammo potensial kuchga ega turistik servis yo xizmatlarning shakllanishiga, mavjud bo'lgani takomillashuviga olib keladi. GPS tizimining ham uzluksizligi ham muhim ahamiyatga ega, shuningdek, internet tarmog'idan ma'lum bir vaqt orada yangilanib olish orqali ma'lumotlarni sinxron ravishda ma'lumotlar bazasida qayd etib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, GPS orqali ulanganlik va foydalanuvchining ayni damdagi geolokatsiyasi ma'lumotlari erishiluvi, foydalanuvchi istagiga ko'ra hududni rasm va videoga olish, uni ijtimoiy tarmoqlarga o'tkazib yuborish funksiyasi orqali uni ijtimoiy tarmoqlarda oson ulashish – "share" yoki "поделиться" qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bunda ikki xil ma'lumotni olish mumkin: sayyoh turgan joyning

geolokatsiyasi va uning qaysi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ma'lumotlari. Ijtimoiy tarmoqlar axborot vositasida sayyohga kelajakdagi mazkur hududga oid turistik ma'lumotlarni xabardor qilish, uning bu hududga yana tashrifiga omil bo'la oladi.

Bu orqali biz quyidagi natijalarga erisha olamiz:

- ommaviy tarzda yoshlar sayohatini tashkil etish;
- ijtimoiy tarmoqlarda maxsus sahifalar shakllantirilishi;
- tashrif buyurishgan, borishgan joylaridagi taassurotlarni "share"/ "поделиться" – ulashish ;
- rasm va video kabilarni heshteglar orqali tashrif buyurilgan destination hududni promote qilish ;
- yoshlar uchun mavsumiy maxsus chegirmalar joriy etilishini xabardor qilib borish singari vazifalar;
- sayyohlar yo'nalishlari orqali potensial kuchga ega spot aniqlash;
- potensiallikka ega turistik servis va xizmatlar ;
- infratuzilmani shakllantirish yoki undagi kamchiliklarni bartaraf etish;
- asosiysi: sayyohlarning erkin harakatlanishini qo'llab quvvatlash;
- yosh sayyohlar oqimining uzluksizligini ta'minlash.

Albatta, mobil ilovadani avvalo yuklab olish uchun motiv bo'lishi zarur, bunda turizmga bevosita va bilvosita aloqador bo'lgan tashkilotlar tomonidan chegirmalar joriy qilinishi asosiy sabab bo'la oladi. Ushbu tashkilotlar uchun esa ularning mahsulotlari va xizmatlari borasida ma'lumotlar foydalanuvchiga yetkaziladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ayni to'plangan ma'lumotlar asosida mustaqil sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan spot-nuqtalar aniqlanadi, ular atrofida tegishli turizm infratuzilma shakllantiriladi yoki takomillashtiriladi, talab qilingan yangi turistik xizmat va mahsulotlar shakllantiriladi, ularning realizatsiyasi amalga oshiriladi. Eng ko'p tashrif buyuriladigan yo'nalishlar orqali turistik marshrut yaratishga erishiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. ТуризмвУзбекистане. To'plam. O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish qo'mitasi. 2018. – 19-22 b.
2. World Tourism Organisation (WTO, 2008). Youth Travel Matters-Understanding the global phenomenon of youth travel.
3. The power of youth travel, UNWTO and WYSE, Volume II. Global Edition. 2012. – 6 b
4. Global Report on The Power of Youth Travel, UNWTO, Volume thirteen. Global Edition. 2016. – 10 b.
5. Verka JOVANOVIĆ, Angelina NJEGUŠ. THE APPLICATION OF GIS AND ITS COMPONENTS IN TOURISM. Yugoslav Journal of Operations Research Vol 18 (2008), Number 2, 261-272

6. McKercher, B, Lau, G (2009) Methodological Considerations when Mapping Tourist Movements Within a Destination. *Tourism Analysis* 14 (4): 443-455
7. Thimm, T, Seepold, R (2016) Past, present and future of tourist tracking. *Journal of Tourism Futures*, 2(1): 43-55
8. Shoval, N, Ahas, R (2016) The use of tracking technologies in tourism research: the first decade. *Tourism Geographies*: 1-20
9. Anuar, F, Gretzel, U (2011) Privacy concerns in the context of location-based services for tourism. In: ENTER 2011 Conference, Innsbruck, Austria
10. https://daryo.uz/2020/01/21/ozbekistonda-xorijlik-yosh-sayyohlar-sonini-33-millionga-yetkazish-rejalashtirilmoqda/
11. https://www.pv.uz/en/news/shavkat-mirziyoyev-2020-will-be-a-turning-point-in-the-state-youth-policy

## TURPAKET NARXINING SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI VA USULLARI

***H.Hamroyev***
*BuxDU dotsenti,*
***S.A. Toyirova***
*BuxDU II bosqich magistranti*

*Maqolada turistik paketning qiymatini shakllantirish xususiyatlari va usullari muhokama qilinadi.*

2020-yil 25-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari - Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisining funksional vazifalari to‘g‘risida” 255 – sonli Vazirlar mahkamasining qarori qabul qilingan bo’lib, uning 2-bob 8-bandida turizm sohasini davlat tomonidan va bozor orqali tartibga solinishini maqbullashtirish, turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish, turizm turlarini jadal rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni, shuningdek, takliflarni ishlab chiqish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilgan.

Muallif turli xil kompaniya ichidagi va bozor jarayonlari va hodisalarini hisobga oladigan marketing narxlari strategiyasi kontekstida marketing nuqtai nazaridan turistik paketning qiymatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini taqdim etadi.

Turning narxini shakllantirish xususiyatlarini tizimli ravishda o'rganish uchun turistik paketning barcha tarkibiy qismlari, ularning xarakteristikalari, baholash mezonlari va xizmatning bozor qiymatiga ta'sir qilish xususiyatlari batafsil ko'rib chiqiladi.

Maqolada markaziy o'rin ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini pasaytirish maqsadida kompaniyaning asosiy va aylanma mablag'laridan maqbul foydalanish masalasidir, bu esa kompaniyaga uzoq muddatli rivojlanish

strategiyasida narxlarni belgilashda moslashuvchanlikni ta'minlashga imkon beradi.

Maqolada narxlarni tanlash usulini tanlash muammosiga ko'p e'tibor qaratilgan. Bugungi bozor sharoitida sayyohlik agentliklari turli xil narxlarni belgilash strategiyalariga ega. Dinamik raqobat muhitida strategiyaning muayyan turini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi bu bozor muhiti, resurslar cheklovlari va strategik maqsadlarni rivojlantirishning turli xil variantlarini hisobga olish kerak bo'lgan murakkab jarayondir. Shu nuqtai nazardan, turistik paket narxini shakllantirishning tegishli usulini tanlash kompaniyaning turizm sohasidagi marketing maqsadlarini amalga oshirish uchun asosdir.

Turizm sohasi zamonaviy iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Turizm bozorida sotib olish va sotish ob'ekti - bu xizmatlarning bitta turi yoki turistik xizmatlar va tovarlar majmui asosida tashkil etilishi mumkin bo'lgan turistik to'plam bo'lib, uni amalga oshirish safar davomida amalga oshiriladi.

Turmahsulot oxirgi iste'mol xizmatidir, shuning uchun turizm kompaniyasining narxlar strategiyasida paket tarkibiy qismlarini to'g'ridan-to'g'ri tavsiflovchi ko'plab omillarni hisobga olish kerak. Turpaketlarini narxlash bu o'ziga xos va murakkab jarayon bo'lib, bir tomondan kompaniyaning xarajatlari, brendi, imidji va maqsadlari, boshqa tomondan iste'molchilarning talablari va raqobatlari hisobga olinishi kerak.

Turistik kompaniyada narxlarni belgilashning vazifasi turistik paketlar uchun tariflarni shakllantirishning eng maqbul usulini ishlab chiqish bo'lib, bu uzoq istiqbolda bozor maqsadlarini amalga oshirishning kaliti bo'ladi.




*1-chizma. Turistik paket tarkibi*[314]

[314]www.naukovedenie.ru

Turizm sohasi - bu bozorning o'ziga xos turi bo'lib, u erda savdo predmeti murakkablashadi. Turistik mahsulot turli xil tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular bir-biriga bog'liq va bir-biridan mustaqil bo'lishi mumkin. Turistik mahsulot ko'pincha turistik paket tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, uning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sayohat paketi bu sayohatchining sayohat davomida amalga oshiradigan va ketma-ket xususiyatga ega bo'lgan turoperatorlari va sayyohlik agentliklari tomonidan oldindan rejalashtirilgan va tashkillashtirilgan xizmatlar sotuvga qo'yiladi[315]. Turistik to'plam 1-chizmada ko'rish mumkin bo'lgan majburiy elementlarni o'z ichiga oladi.

Turistik markaz - bu dam olish, ijtimoiy, infratuzilma va madaniy-tarixiy imkoniyatlar majmuasini o'z ichiga olgan turistik dam olish maskani.Turistik markaz - bu qiziqishning ajralmas belgisi, tabiiy resurslarga nisbatan odamning sabablarini birlashtiradi.

3. Суюнов Д. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. Т.: “Академия”, 2007.-Б.103.

*5А141001 – Тупроқшунослик (тадқиқот тури бўйича)*

# ROMITAN TUMAN TUPROQLARNING SHO‘RLANISHI VA ULARNI YAXSHILASHNING ILMIY ASOSLARI

**H.T. Artikova,**
*BuxDU, b.f.doctori,*
**N.M. To‘rayeva**
*BuxDU, II kurs magistranti*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, davlat hokimiyati organlarining qarorlari respublikamizda yer resurslaridan oqilona foydalanish ularni muhofaza qilish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzish va yer monitoringini tashkil qilish, tuproq unumdorligini oshirishga yo‘naltirilgan qonunchilik sohasidagi tajribalardan kelib chiqadigan muhim hujjat bo‘lib kelmoqda.

Respublikamizning yuqori darajadagi faolligini ta’minlovchi, shart-sharoitlarini yaratish imkonini beruvchi, mamlakatni isloh qilishning prinstipial maqsadli vazifalarini belgilaydigan tamoyillar :tabiiy resurslar, jumladan yer resurslarini boshqarish sohasidagi jiddiy muammolarning ilk sababchisi bo‘lib, yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi vodiy va vohalarda shu jumladan Buxoro vohasida tarqalgan qadimdan sug‘oriladigan tuproqlarning meliorativ va agroekologik holatini sho‘r tuproqlar meleoratsiyasi ishlari natijasida yaxshilash, tuproq sho‘rlanishi, sho‘rlantiruvchi omillar, sho‘rlanishni oldini olish tadbirlariga qaratilgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Buxoro dehqonlari qanday og‘ir va murakkab iqlim sharoitida mehnat qilishini barchamiz bilamiz. Ekin maydonlarining aksariyat qismi kuchli sho‘rlanganligi, yozning jazirama issig‘i, garmsel va qum bo‘ronlari-bunday sinovlarga hamma ham chiday olmaydi.

Bizga ma’lumki tuman Buxoro viloyatining g‘arbiy tomonida joylashgan bo‘lib, Peshko‘ tumanining janubiy g‘arbiy qismida, Zarafshon vodiysining g‘arb tomonida joylashgan. Tumanning umumiy maydoni 418234 ga dan iborat. Tuman hududi va chegara hududlari asosan cho‘l zonasi bilan xarakterlanadi, shu sababli iqlimi quruq, harorati keskin o‘zgarib turadi. Tumanda cho‘lning yaqinligi havoning issib kelishiga sabab bo‘ladi.

Romitan tuman qishloq xo‘jaligida iqlim, yer -suv va mehnat resurslaridan dehqonchilik va aholi tomarqasidan olinadigan mahsulot yetkazib berish yetakchi tarmoq sifatida shakllangan.

Tuman bo‘yicha ekin maydoni hajmi 23426ga shundan :

- Donli ekin maydoni - 7269 ga
- Texnik ekin maydoni - 12347 ga
- Paxta maydoni - 11958ga

- Kartoshka maydoni - 562ga
- Sabzavot maydoni - 1545 ga
- Poliz maydoni- 212 ga
- Ozuqabop ekin maydoni- 1490 ga ni tashkil etadi.

1. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga qaraganda, tumandagi qishloq xo‘jalik yerlarida tuproq hosil bo‘lish omillarini tahlilqilish.

2. Xo‘jalikda tarqalgan tuproqlarining asosiy xossalari va xususiyatlarini o‘rganish va aniqlash.

3.Romitan tumani tasarrufidagi qishloq xo‘jalik yerlarini sho‘r tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar.

Romitan tumanidagi sug‘oriladigan yerlarni sho‘rlanish darajasi quyidagicha :

1. Sho‘rlangan tuproqlar - 2845 ga
2. Kam sho‘rlangan tuproqlar -10748 ga
3. O‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar -748 ga
4. 4.Kuchli sho‘rlangan tuproqlar -1434 ga
5. Sho‘rlanmagan tuproqlar -140

Sug‘oriladigan dehqonchilikga ixtisoslashgan yer maydonlarining yildan yilga ortib borishi tuproq sho‘rlanishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib tuproq sho‘rlanishini pasaytirmay yuqori hosildorlikga erisha olmaymiz. Buning uchun beriladigan taklif va tavsiyalarimiz quyidagicha

- Ekinlarni tuproq sho‘rlanish darajasi kartogrammalarini hisobga olib joylashtirish.
- Yangi ochilgan yerlarda drenaj, zahkash va zovurlarning tashkil qilinishi.
- Qishloq xo‘jalik ekinlarini suv va tuproq sho‘rlanishiga qarab rayonlashtirish.

Chuchuk suvni tejash maqsadida viloyatning sizot suvi sathi yuqori bo‘lgan tumanlarida kam suv talab etadigan va sho‘rlanishga chidamli bo‘lgan donli ekinlar bilan almashtirish, vohalarda esa suvni bug‘latadigan tut plantatsiyalarini kengaytirishga yo‘naltirish orqali pillachilikni rivojlantirish zarur .
Sho‘rlangan yerlarga tut -ihota plantatsiyalarini ko‘paytirish orqali mana shu rayonlarda ipakchilikni rivojlantirish lozim. Bu ham bizga har tomonlama samara beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirzayev Sh. M "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". O‘zbekiston nashriyoti 2017 yil.
2. "Romitan tuman statistik axborotnomasi" 2019-2020 yil
3. Sattorov J.S "Antropogen sharoitda tuproq hosil bo‘lishi, unumdorligi, tuproqni muhofaza qilish va undan foydalanish muammolari". O‘zbekiston nashriyoti 1995yil
4. Bahodirov, Uzoqov. "Tuproqshunoslik "Toshkent Mehnat nashriyoti 1995 yil.
5. Pankov "Tuproqshunoslik "Toshkent 1965 yil.
6. Tursunov X.X. "Tuproq minerologiyasi "Toshkent 2000 yil

# БУХОРО ТУМАНИ ТУПРОҚЛАРИ МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИ

**Ф.Ҳ. Жумаев,**
*БухДУ, доцент, б.ф.н.,*
**З.Ҳ. Бафоева,**
*БухДУ, ўқитувчиси,*
**З.А. Атоева,**
*БухДУ, I курс магистранти*

*Мақолада Бухоро туманида тарқалган ўтлоқ аллювиал тупроқларнинг туз режими ва турли даражада шўрланган тупроқларнинг сувли сўрим таркиби, уларнинг шўрланиш даражасига қараб ўзгариши келтириган. Қуруқ қолдиқ бўйича шўрланишда сувда эрувчан тузлар катион ва анионларининг ролига баҳо берилган.*

Бухоро тумани тупроқлари Бухоро воҳаси тупроқ-иқлим шароитида шаклланган бўлиб кўпчилик ҳолларда турлича даражада шўрланган ҳисобланади. Турлича даражада шўрланган тупроқларнинг туз режимини ўрганиш улар мелиоратив ҳолатива ўсимлик ўсишини яхшилашда муҳим аҳамиятга эга[1.2.3]. Ушбу мақсадда Бухоро туманига тупроқ экспедицияси ташкил этилиб турлича шўрланган тупроқ тип ва типчаларидан кесмалар қилиниб генетик горизонтлар бўйича тупроқ намуналари олинди. Тупроқ намуналарида тупроқ сингдириш комплексидаги (ТСК) ва эритмасидаги катион ва анионлар, тузлар миқдори аниқланди. Сувли сўримдаги тузлар миқдори ва таркиби тупроқ туз тежимига баҳо беришда муҳим кўрсаткич ҳисобланади.

Бухоро туманида қуруқ қолдиқ бўйича турли хил шўрланганлик даражасидаги ва шўрланмаган ўтлоқ аллювиал тупроқлар учрайди. Шўрланмаган ўтлоқ тупроқлар сувли сўрими бўйича қуруқ қолдиқ 0,3 % дан сезиларли паст бўлди. Масалан,Р.Қалмоққудудидан олинган 1-кесмада сувли сўрим бўйича қуруқ қолдиқ 0 – 30 см қатламда 0,158 %, 30 – 70 см қатламда 0,138 %, 70 – 100 см қатламда 0,238 %, 100 – 150 см қатламда 0,144 % ва 150 – 200 см қатламда 0,148 % ни ташкил этди(жадвал). Гидрокарбонатлар ($HCO_3$) билан ифодаланадиган умумий ишқорийлик юқорида келтирилган тупроқ қатламларига мос равишда 0,004, 0,003, 0,004, 0,004, 0,003 % ни ёки 0,07, 0,05, 0,006, 0,006, 0,005 мг. экв/100 г тупроқдани ташкил этди. Бу эса фақат 0 – 30 см қатламдаги тупроқ умумий ишқорлийлик ($HCO_3^-$) бўйича жуда кучсиз шўрланганлигини кўрсатади. Қуруқ қолдиқнинг туз таркибида хлорид ионлари миқдори ҳам муҳим аҳамиятга эга. Чунки хлорид иони ўта токсик ҳисобланади. Шу билан бирга хлорид иони тупроқда жуда ҳаракатчан бўлиб сув билан қатламлардаги жойини тез ўзгартириши мумкин. 1-кесманинг 0 – 30 см қатламида хлорид ионининг тупроқ массасига нисбатан миқдори 0,023 %, 30 – 70 см қатламда қатламда 0,025 %, 70 – 100 см қатламда 0,032 %, 100 – 150 см қатламда 0,028 %, 150 – 200 см қатламда

0,025 % бўлган бўлса, бу кўрсаткичлар юқорида келтирилган қатламларда тегишлича 0,64; 0,69; 0,89; 0,79; 0,69 мг. экв/100 г тупроқдани ташкил этди(жадвал). Тупроқ қуруқ қолдиқнинг умумий фоиз миқдори бўйича шўрланмаган бўлсада, хлорид ионининг миқдори бўйича кучсиз шўрланган.

Магний катионининг тупроқ массасига нисбатан фоиз миқдори кальций иониникига нисбатан паст бўлсада мг*экв/100 г тупроқда ҳисобланган бирликда сезиларли юқори бўлди. Магний катионининг энг юқори миқдори қуруқ қолдиқнинг энг баланд даражасига тўғри келди. Шу билан бирга магний иони кальций катионида фарқли уларок нисбатан ҳаракатчан эканлиги аниқланди, яъни магний ионининг миқдори қатламлар бўйича кескинроқ фарқ қилади. Бу магний катионини кальций катионига нисбатан кучлироқ вариацияланишини кўрсатади. Магний катионининг миқдори 0 – 30 см қатламда 0,009 %, 30 – 70 см горизонтда 0,008 %, 70 – 100 см қатламда 0,013 %, 100 – 150 см қатламда 0,008 %, 150 – 200 см қатламда 0,007 % ёки юқоридаги қатламлар бўйича 0,74; 0,69; 1,04; 0,647; 0,59 мг* экв/100 г тупроқда даражасига тенг бўлди. Тупроқда сувда эрувчан ва сингдирилган магний катионининг улушини юқори бўлиши шўртобликни келтириб чиқаради. Магний миқдори кальций катионига нисбатан анча паст бўлиши керак. Лекин, ушбу шўрланмаган ўтлоқ тупроқда магнийнинг миқдори анча юқори ҳамда % концентрацияси бўйича кальций ионига деярли тенглашган, мг*экв/100 г тупроқда ифодаланган миқдори бўйича ундан юқори. Бу эса тупроқда шўртобланиш аломатларини келтириб чиқариши мумкин. Калий ва натрий ионларининг биргаликдаги фоиздаги миқдори кальций ва магний ионларининг алоҳида олинган концентрациясидан юқори. Бу ушбу ионлар бирикмаларини кальций ва магний бирикмаларига нисбатан сувда эрувчанлиги юқори эканлиги билан ҳам боғлиқ бўлиши мумкин. Калий ва натрий катионларининг фоиздаги энг юқори концентрацияси қуруқ қолдиқнинг энг юқори миқдорига мос келди. Лекин, қолган қатламлар бўйича ҳар доим ҳам монанд келиши кузатилмади. 70 – 100 см лик қатламдан ташқари бошқа қатламларда калий ва натрий ионларининг йиғинди фоиз миқдори кучли фарқ қилмади. Мг*экв/100 г тупроқдаги миқдори нисбатан кучлироқ вариацияга эга бўлди. Масалан, $K^+$ва $Na^+$ нинг тупроқ массасига нисбатан миқдори 0 – 30 см қатламда 0,021 %, 30 – 70 см қатламда 0,020 %, 70 – 100 см қатламда 0,035 %, 100 – 150 см қатламда 0,022 %, 150 – 200 см қатламда 0,023 % бўлган бўлса, эквивалент миқдорда юқорида келтирилган қатламларга мос равишда 0,92; 0,85; 1,50; 0,96; 1,00 мг*экв/100 г тупроқда бўлиши аниқланди(жадвал). Тупроқда натрий катиони концентрациясини юқори бўлиши шўртобликни келтириб чиқаради ва бу тупроқ унумдорлиги ҳамда экинлар ўсиши, ривожланиши, ҳосилдорлигига салбий таъсир кўрсатади. Ушбу кесма профилида сувли сўрим бўйича олинган қуруқ қолдиқ натижасига кўра шўрланиш бўлмасада $Na^+$+$K^+$ионлари йиғиндиси бироз юқори. Чунки шўрланмаган ўтлоқ тупроқлардан олинган бошқа бир кесмаларда $Na^+$+$K^+$ионлар йиғиндиси миқдори 1-кесма кўрсаткичларидан сезиларли паст.

Бухоро туманида шўрланган тупроқлар ҳам кенг тарқалган. Р.Қалмоқ массивидан олинган 40-кесма тупроқлари шулар қаторига киради (1 жадвал).

## Бухоро тумани турли даражада шўрланган ўтлоқ аллювиал тупроқларининг сувлисўрим таркибини ўзгариши

*1 жадвал*

| Кесма | Қатлам. см | Умумий ишқорийлик ($HCO_3^-$) | | $Cl^-$ | | $SO_4^{2-}$ | | $Ca^{2+}$ | | $Mg^{2+}$ | | $Na^++K^+$ | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | % | мг-экв/100 г.туп-рокда | % | мг-экв/100 г.туп-рокда | % | мг-экв/100 г.тупрокда | % | мг-экв/100 г.туп-рокда | % | мг-экв/100 г.туп-рокда | % | мг-экв/100 г.тупрокда |
| 1 | 0 – 30 | 0,004 | 0,07 | 0,023 | 0,64 | 0,072 | 1,50 | 0,011 | 0,55 | 0,009 | 0,74 | 0,92 | 0,021 |
| | 30 – 70 | 0,003 | 0,05 | 0,025 | 0,69 | 0,062 | 1,30 | 0,01 | 0,50 | 0,008 | 0,69 | 0,85 | 0,020 |
| | 70 – 100 | 0,004 | 0,06 | 0,032 | 0,89 | 0,110 | 2,29 | 0,014 | 0,70 | 0,013 | 1,04 | 1,50 | 0,035 |
| | 100 – 150 | 0,004 | 0,06 | 0,028 | 0,79 | 0,062 | 1,30 | 0,011 | 0,55 | 0,008 | 0,64 | 0,96 | 0,022 |
| | 150 – 200 | 0,003 | 0,05 | 0,025 | 0,69 | 0,067 | 1,40 | 0,011 | 0,55 | 0,007 | 0,59 | 1,00 | 0,023 |
| 40 | 0 – 30 | 0,004 | 0,06 | 0,025 | 0,69 | 0,350 | 7,29 | 0,078 | 3,89 | 0,037 | 3,06 | 1,09 | 0,025 |
| | 30 – 70 | 0,003 | 0,05 | 0,012 | 0,35 | 0,120 | 2,50 | 0,026 | 1,30 | 0,013 | 1,09 | 0,51 | 0,012 |
| | 70 – 100 | 0,003 | 0,05 | 0,448 | 12,63 | 0,300 | 6,25 | 0,044 | 2,20 | 0,032 | 2,67 | 14,07 | 0,324 |
| | 100 – 150 | 0,003 | 0,05 | 0,105 | 2,96 | 0,200 | 4,17 | 0,032 | 1,60 | 0,018 | 1,48 | 4,10 | 0,094 |
| | 150 – 200 | 0,004 | 0,06 | 0,025 | 0,69 | 0,350 | 7,29 | 0,078 | 3,89 | 0,037 | 3,06 | 1,09 | 0,025 |
| 80 | 0 – 30 | 0,004 | 0,06 | 0,009 | 0,25 | 0,230 | 4,79 | 0,058 | 2,89 | 0,022 | 1,78 | 0,43 | 0,010 |
| | 30 – 70 | 0,004 | 0,07 | 0,007 | 0,20 | 0,230 | 4,79 | 0,064 | 3,19 | 0,019 | 1,58 | 0,28 | 0,007 |
| | 70 – 100 | 0,003 | 0,05 | 0,009 | 0,25 | 0,210 | 4,37 | 0,056 | 2,79 | 0,019 | 1,58 | 0,30 | 0,007 |
| | 100 – 150 | 0,003 | 0,05 | 0,011 | 0,30 | 0,077 | 1,60 | 0,017 | 0,85 | 0,008 | 0,64 | 0,46 | 0,010 |
| | 150 – 200 | 0,002 | 0,04 | 0,009 | 0,25 | 0,072 | 1,50 | 0,016 | 0,80 | 0,007 | 0,59 | 0,40 | 0,009 |
| 100 | 0 – 30 | 0,004 | 0,06 | 0,501 | 14,11 | 0,250 | 5,21 | 0,034 | 1,70 | 0,031 | 2,57 | 15,12 | 0,348 |
| | 30 – 70 | 0,003 | 0,05 | 0,473 | 13,32 | 0,230 | 4,79 | 0,04 | 2,00 | 0,030 | 2,47 | 13,70 | 0,315 |
| | 70 – 100 | 0,003 | 0,05 | 0,315 | 8,88 | 0,230 | 4,79 | 0,032 | 1,60 | 0,025 | 2,07 | 10,05 | 0,231 |
| | 100 – 150 | 0,004 | 0,06 | 0,245 | 6,91 | 0,140 | 2,92 | 0,018 | 0,90 | 0,012 | 0,99 | 8,00 | 0,184 |
| | 150 – 200 | 0,003 | 0,05 | 0,016 | 0,44 | 0,072 | 1,50 | 0,014 | 0,70 | 0,007 | 0,59 | 0,70 | 0,016 |

Бу тупроқнинг 0 – 30, 70 – 100 ва 100 – 150 см қатламларида юқори миқдордаги сувда эрувчан тузлар тўпланиб қолганлиги аниқланди(жадвал). Бу тупроқнинг қатламлариумумий ишқорийлик ($HCO_3^-$) бўйича шўрланмаган, яъни умумий ишқорийлик миқдори шўрланиш даражасидан паст. Хлорид ионлари шўрланиш даражасини юзага келтирган, фақат қуруқ қолдиқ бўйича шўрланмаган 30 – 70 см қатламда хлоридлар миқдори шўрланиш даражасидан паст. Шўрланмаган тупроққа нисбатан ушбу шўрланган тупроқ кесмасида сульфат ионлари миқдори кескин ортган. Демак, шўрланишни келтириб чиқаришда анионлардан биринчи навбатда сульфат ва кейин хлорид ионлари иштирок этади. Карбонат ва бикарбонат ионлари шўрланишга сезиларли таъсир кўрсатмаган.

Шўрланмаган ва шўрланган тупроқларда кальций ва магний ионларининг нисбати ишонарли ўзгарган, яъни шўрланган тупроқларда шўрланмаган тупроқларга нисбатан сувли сўримда кальций катиони улуши ортган, магний иони улуши камайган. Лекин, абсолют миқдорда (% ва мг*экв/100г) иккала ионнинг ҳам миқдори шўрланмаган тупроқдагига нисбатан ортган, фақат кальций катиони концентарциясини ортиш суръати

магнийникидан кучлироқ бўлди. Ушбу кесма профилида $Na^{+}$+$K^{+}$ ионлари йиғиндисининг энг юқори миқдори (0,324 %) 70 – 100 см қатламда кузатилди, қолган горизонларда $Na^{+}$+$K^{+}$ ионлари йиғинди миқдори деярли шўрланмаган тупроқдаги каби бўлди. Демак, шўрланмаган тупроқларга нисбатан олганда шўрланган тупроқларда $Cl^{-}$, $SO_4^{2-}$, $Ca^{2+}$ва $Mg^{2+}$ ионларининг миқдори юқори бўлади ва айнан улар шўрланишни келтириб чиқаради. Карбонат ($CO_3^{2-}$), гидрокарбонат ($HCO_3^{-}$)ҳамда $K^{+}$+$Na^{+}$ионлари йиғиндиси бўйича шўрланган ва шўрланмаган тупроқлар сезиларли фарқ қилмайди. Фақат шўртоб, шўртобли, содали шўрланиши ва тақир тупроқларда шўрланишда $CO_3^{2-}$, $HCO_3^{-}$ва $Na^{+}$ ионлари фаол иштирок этади.

Шундай қилиб, Бухоро тумани Р.Қалмоқ ҳудудида тарқалган турли хил даражада шўрланган ўтлоқ аллювиал тупроқлар сувли сўрим таркиби бир-биридан сезиларли фарқ қилади. Бунда асосий хавфни хлорид, сульфат ва магний ионлари келтириб чиқаради. Уни ушбу тупроқларни мелиоратив ҳолатини яхшилашда ҳисобга олиш керак бўлади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ахиярова Г.Р. Быстрая реакция растений пшеницы и ячменя на засоление//Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата биологических наук. Уфа,2004. -25с
2. Белимов А.А. Взаимодействие ассоциативных бактерий и растений в зависимости от биотических и абиотических факторов// Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора биологических наук. Санкт-Петербург,2008. -46с
3. Жамбалова А.Д. Засоленные почвы зон разломов кучигерских гидротерм и их геохимические особенности//Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата биологических наук. Улан-Уде,2018. -22с.

## БУХОРО ВОҲАСИ ЎТЛОҚ АЛЛЮВИАЛ ТУПРОҚЛАРИ МИКРОБИОЛОГИК ФАОЛЛИГИГА ТУРЛИ ХИЛ ОМИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ

**Т.К.Ортиков**
*доцент СамВМИ,*
**О.Р.Умаров**
*таянч докторант БухДУ,*
**М.А.Раҳимова**
*магистр БухДУ,*

*магистр-БухДУ*

Тупроқ унумдорлиги унинг хоссаларини оптимал намоён бўлиши билан белгиланади. Ана шундай муҳим хоссалардан бири тупроқ микробиологик хоссаси ҳисобланади. Тупроқ микробиологик хоссаси унингфаоллиги билан баҳоланади. Тупроқда кечадиган кўпгина жараёнлар

микроорганизмлар томонидан амалга оширилади. Бундай муҳим жараёнларга гумификация ва дегумификация, азотофиксация, аммонификация, нитрификация, денитрификация, тупроқдаги углерод, фосфор, олтингугурт айланиши жараёнлари киради. Бу жараёнларни тўғри йўналишда, нисбатда ва оптимал даражада бориши тупроқ унумдорлигида муҳим аҳамиятга эга. Гумус ҳосил бўлиши, уни парчаланиш тезлиги ва тўпланиши тупроқда микробиологик жараёнларнинг боришига боғлиқ. Бухоро воҳаси тупроқларида ҳам микробиологик жараёнлар муҳим ўрин тутади. Маълум бир микробиологик жараёнларни кучайиши ва бошқаларини, аксинча, сусайиши тупроқ ҳосил бўлиш ва шаклланиш жараёнларига сезиларли таъсир кўрсатади. Бу айниқса Бухоро воҳасида кенг тарқалган ўтлоқ аллювиал тупроқларда ўзига хос таързда намоён бўлади. Ўтлоқ аллювиал тупроқларда микробиологик жараёнларни боришига турли хил табиий ва антропоген омиллар таъсир қилади. Бу омилларни таъсирини ўрганиш тупроқда кечадиган микробиологик омилларни теракли йўналишда бошқаришда ва тупроқ унумдорлиги ҳамда хоса ва хусусиятларини башорат қилишда долзарб ҳисобланади.

Ушбу масалаларни ўрганиш мақсадида Бухоро воҳаси тупроқлари бўйлаб экспедиция уюштирилди ва бунда турли хил табиий шароитдаги ва турлича антропоген таъсирларга учраган ўтлоқ аллювиал тупроқлардан кесмалар олиниб уларга генетик қатламлар бўйича таъриф берилиб алоҳида тупроқ намуналари олинди. Бунда ўтлоқ тупроқлар рельефи, суғорилиш давомийлиги, механик таркиби, ўстирилаётган экин тури, антропоген таъсир юкламаси, шўрланиш даражаси билан фарқ қилиши ҳисобга олиниб ажратилди. Генетик горизонтлар бўйича олинган тупроқ намуналарида гумус миқдори Тюрин усулида, зичлик махсус цилиндрлар ёрдамида оғирлик усулида. гумус заҳираси ҳисоб-китоб йўли билананиқланди. Микроорганизмлар сони махсус электив озиқ муҳитларда ўстириш орқали ҳисобланди. Микроорганизмларнинг таксономик гуруҳларидан бактериялар сони гўшт-пептонли агарда(ГПА) ва крахмал-аммиакли агарда(КАА), замбуруғлар сони Чапек муҳитида, актиномицетлар сони крахмал-аммиакли агарда(КАА) аниқланди. Бактериялар ва актиномицетлар сонини аниқлашда 5 ва 6 тупроқ суюлтирилишидан, замбуруғлар сонини аниқлашда 4 тупроқ суюлтирилишидан фойдаланилди. Микроорганизмларнинг физиоогик гуруҳларидан эркин яшовчи азотфиксаторлар сони Эшби муҳитида, аммонификаторлар ГПА да, минерал азотда ўсувчи бактериялар КАА да, нитрификаторлар Виноградский муҳитида, денитрификаторлар Гильтай муҳитида аниқланди. Бунда азотфиксаторлар, аммонификаторлар, минерал азотда яшовчи бактериялар, денитрификаторлар тупроқ эритмасининг 5 ва 6 суюлтирилишида, нитрификаторлар 4 суюлтирилишда аниқланди. Барча микроорганизмлар сони 1 грамм тупроққа нисбатан ҳисобланди.

Тадқиқот маълумотларининг кўрсатишича, Бухоро воҳаси ўтлоқ аллювиал тупроқлари микробиологик фаоллигини шаклланишида турли хил табиий ва антропоген омилларнинг роли катта. Табиий омиллардан жойнинг

рельефи, сизот сувларининг сатҳи, тупроқ механик таркиби, тупроқ ва сизот сувларининг шўрланиш даражаси, шўрланиш типи кабилар маълум бўлди. Антропоген омиллардан даланинг суғорилиш давомийлиги, экин тури, алмашлаб экиш, экин агротехникаси, даланинг маданийлашганлик даражаси тупроқ микробиологик фаоллигига кучли таъсир кўрсатади. Суғорилиш давомийлиги ўтлоқ аллювиал тупроқлар унумдорлиги, гумус ҳолати ва микробиологик фаоллигига кучли таъсир кўрсатади. Суғорилиш давомийлиги ортиши билан ўтлоқ аллювиал тупроқларнинг механик таркиби оғирлашиб борган ва гумус ҳолати ижобий томонга ўзгарган. Тупроқ механик таркиби оғирлашиши юва гумус моддаси миқдори ортиши билан тупроқда микроорганизмлар сони сезиларли ортиб борди. Тупроқ механик таркиби оғирлашганда тупроқ гранулометрик такибида майда заррачалар улушини ортиши микроорганизмлар яшаши учун қулай шароит яратиши маълум бўлди. Бу солиштирма юза ва озиқ моддалар ортиши билан боғлиқ бўлади. Органик модда, яъни гумус моддасини тупроқда ортиши микроорганизмлар кўпайиши учун яхши шароитни юзага келишига олиб келади ва микроорганизмларнинг юқори миқдорини таъминлайди. Бунда гумус микроорганизмлар учун органик модда манбаи бўлиши билан бирга тупроқ хоссаларини яхшилаб улар учун шарт-шароитларни муқобиллаштиради. Ўтлоқ аллювиал тупроқлар механик таркиби рельеф ва суғориш давомийлигига боғлиқ бўлиши аниқланди. Суғориш сувларидаги лойқа агроирригацион қатлам ҳосил қилиб тупроқ механик таркибини оғирлашиши ва гумус миқдорини ортишига олиб келди. Тупроқда қум заррачаларини ортиши гумус миқдори ва шунга боғлиқ равишда микроорганизмлар сонини камайишига сабаб бўлди. Бу айниқса янгидан ўзлаштирилган ва янгидан суғориладиган ўтлоқ тупроқларда яққолироқ кузатилди. Сизот сувлар сатҳини жуда яқин бўлиши ҳам тупроқ микроорганизмлар сонига салбий таъсир кўрсатди. Бу асосан сизот сувларининг минералашганлик даражасини юқори эканлиги ва бунда анэробиоз жараёнини кучайиши билан тушунтирилиши мумкин. Тупроқ таркибида сувда эрувчан тузлар миқдорини ортиши барча гуруҳ микроорганизмлари учун салбий таъсир қилди. Шу билан бирга сувда эрувчан тузлар таркибида хлор тузларини улушини юқори бўлиши микроорганизмлар сонини камайишига олиб келди. Микроорганизмлар сонини камайиши шўртобланган ва натрий карбонатли ишқорийликка эга бўлган тупроқларда сезиларли равишда кузатилди. Бундай шароитда нафақат сувда эрувчан тузларнинг миқдорини юқори бўлиши, балки тупроқ ишқорийлигини юқори бўлиши ҳам ўз таъсирини кўрсатади. Натрий ионлари тупроқ агрегатларини диспергациялаб, уларни парчалайди ва қатқалоқ ҳосил қилиб анаэроб шароитни юзага келтиради. Бу эса микроорганизмлар учун ноқулай ҳолатни яратади ва улар яшаши ва кўпайиши учун шароит ёмонлашади. Бу айниқса замбарағлар ва нитрификаторлар учун кучлироқ салбий таъсир кўрсатади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, гўшт пептонли агарда ўсувчи бактериялар сонитупроқ хайдов қатламида 1 грамм тупроқда

10 -30 млндона бўлиб пастки қатламларга қараб кескин камайиб боради. Бу пастки горизонтлар томон гумус миқдорини камайиб бориши ва кислород етишмаслиги билан боғлиқ бўлади. Чапек муҳитида ўсувчи замбуруғлар сони ўтлоқ аллювиал тупроқлар ҳайдалма қатламида 1 грамм тупроқда 10-80 минг донани ташкил этиб, пастки қатламлар томон бактериялар сонига нисбатан кескинроқ пасайиши кузатилди. Бу замбуруғларни анаэроб шароитда яшай олмаслиги ва улар ҳаётида органик модда ролини ўта юқорилиги билан боғлиқ бўлиши мумкин. Бундай ҳолат нитрификаторлар билан ҳам кузатилди. Чунки нитрификаторлар аэроб бактериялар ҳисобланади. Демак, тупроқда нитрификаторлар ҳисобига нитратларни ҳосил бўлиши асосан ҳайдов ва ҳайдов ости қатламларида амалга ошади. Азотфиксаторлар ичида аэроб ва внэроблари мавжуд бўлиб улар нисбати пастки қатламларга томон ўзгариб боради. Денитрификаторлар сони оғир ўтлоқ аллювиал тупроқда нисбатан юқори бўлди. Денитрификаторлар сонига нафақат аэрация ва анаэроб шароит балки органик модда миқдори ҳам кучли таъсир кўрсатди.Органик модда миқдори ортиши денитрификаторлар сонини ортишига олиб келди. Органик азотда ўсувчи (ГПА муҳитида) ва минерал азотда (КАА муҳитида) яшовчи микроорганизмлар нисбати тупроқ органик моддаси ва тупроқ қатлами чуқурлигига боғлиқ равишда ўзгарди. Тупроқда органик модда миқдорини юқори бўлиши минерал азотда ўсувчи бактериялар улушини камайишига олиб келди. Тупроқ профилида пастки қатламларга қараб органик азотда ўсувчи бактериялар сони камайиши кескинроқ бўлиши ҳисобига минерал азотда ўсувчи бактериялар улуши ортди. Микроорганизмлар сонига ўсимлик тури ва улар илдиз ажратмалари кучли таъсир кўрсатади. Бевосита илдиз атрофидан, яъни ризосфера ва ризопландан олинган тупроқ намуналарида микроорганизмлар сони юқори бўлди. Бу ўсимликлар илдиз ажратмалари билан боғлиқ бўлади, яъни бунда ўсимлик ва микроорганизмлар ўртасида симбиоз борлиги кузатилади. Экин экилмаган тупроқдагига нисбатан экин экилган жой тупроқларида микроорганизмлар сони юқори бўлади ва бу ҳолат ҳайдалма ҳамда ҳайдалма ости горизонтларида яққол намоён бўлади. Беда, мевали дарахтлар экилган жойлар тупроғида микроорганизмлар сони, ғўза ва кузги буғдой етиштирилаётган жой тупроқларидагидан юқори бўлиши кузатилди. Беда ризосферасида ҳам микрорганизмлар сони кескин ортади. Беда экилганда йилдан йилга органик модда ва қолдиқларни ортиб бориши ҳам микрорганизмлар сонига ижобий таъсир кўрсатади. Ғўза ва беда экилганда тупроқда органик моддаларни кам бўлиши, улар парчаланишини тезлашиши микроорганизмлар сонига салбий таъсир кўрсатди. Микрорганизмлар сонини бошқаришда органик модда миқдори энг асосий омиллардан бири ҳисобланади. Агроценозда органик моддани тўпланиши микроорганизмлар сонига ижобий таъсир қилувчи омил сифатида эътироф этилади. Шу билан шўр ювиш ва зовурларни чуқур қазилганлиги тупроқдаги микроорганизмлар сонини ортишига олиб келади. Бу ҳолат тупроқ шўрланишини камайиши ва токсик тузлар концентрациясини пасайиши билан боғлиқ. Шўр ювилиши

олдидан ва кейин олинган намуналарни микробиологик анализи шўни кўрсатдики шўрланишни камайиши, тузларни пастки қатламларга ювилиб кетилиши устки қатламлар тупроқларидаги микроорганизмлар сонини ортишига олиб келиб тупроқ микробиологик фаоллигига ижобий таъсир қилади. Зовурларни тўлиб қолиши ва сизот сувлар сатҳини кўтарилиши тупроқ мелиоратив ҳолатига салбий таъсир қилиб тупроқда микроорганизмлар сонини камайишига олиб келади. Ўтлоқ аллювиал тупроқлардаги микроорганизмлар сони экин агротехникасига ҳам боғлиқ бўлади. Органик ва минерал ўғитлар қўлланилганда микрорганизмлар сони кескин ортади. Органик ўғитлар гумус ҳосил бўлишида қатнашадиган микрорганизмлар сонини сезиларли ортишига олиб келади. Шу билан бирга замбуруғлар сони ҳам кескин ортиши кузатилади. Органик ўғитлар денитрификаторлар сонини ортишига ҳам олиб келади. Умуман олганда, тупроқда органик ўғитлар углерод манбаи сифатида муҳим аҳамиятга эга. Минерал ўғитлар ичида микрорганизмлар сонига таъсири бўйича азотли ўғитлар муҳим аҳамиятга эга. Азотли ўғитлар қўлланилаган дала тупроқларида азот айланишида қатнашувчи микроорганизмларнинг барчасини миқдори сезиларли ортади.Бунда азотфиксаторлар, аммонификаторлар, нитрификаторлар ва денитрификаторлар сонини ортиши кузатилади. Кўпчилик адабиётларда қайд этилишича, микрорганизмлар учун тупроқдаги углерод ва азот (C:N) нисбати муҳим аҳамиятга эга. Бу нисбат гумификация ва дегумификацияда қатнашадиган микрорганизмлар сонига ва улар фаоллигига, ушбу жараёнлардан қайси бири устун бўлишига ишонарли таъсир кўрсатади(1, 2). Азотли ўғитлар қўлланилганда углерод:азот нисбати қисқаради ва гумус парчаланиши, яъни дегумификация жараёнлари тезлашади ва бу гумусни камайишига олиб келади. Бу эса ўз навбатида микроорганизмлар сонини камайишига сабабчи бўлади. Тупроқда углерод : азот нисбати ортганда тупроқда гумификацияланиш жараёнлари жадаллашади ва бу ҳолат гумус миқдорини ортишига олиб келади. Бундай ҳолат углеродга бой, азот миқдори нисбатан паст бўлган моддалар қўлланилганда юзага келади. Масалан, ғалла экинлари сомони тупроққа ҳайдаб ташланганда гумификация жараёнлари жадаллашади ва тупроқда гумус миқдори ортади.

Шундай қилиб, Бухоро вилояти ўтлоқ аллювиал тупроқларидаги микрорганизмлар сонига бир қанча табиий ва антропоген омиллар таъсир кўрсатади ва улар таъсири остида тупроқнинг маълум бир микробиологик фаоллиги юзага келади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1.Берестецкий О.А., Возняковская Ю.М.,Доросинский Л.М. и другие.Биологические основы плодородия почвы.Москва “Колос” 1984.- 287с.

2.Туев Н.А.Микробиологические процессы гумусообразования. Москва, Агропромиздат, 1989.- 239с.

# СУҒОРИЛАДИГАН ТУПРОҚЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА УНУМДОРЛИГИНИ ҚАЙТА ТИКЛАШ

**С.С. Хайриев,**
*БухДУ Тупроқшунослик кафедраси, доценти,*
**М.И. Артикова,**
*БухДУ, I курс магистранти*

*Мақолада, Бухоро вилояти тупроқлари иқлим шароитида тупроқ унумдорлигини ва ерлардан самарали фойдаланишни такомиллаштириш факторлари бўйича айрим тавсиялар белгиланган бўлиб, унда ерларнинг унумдорлик даражасига қараб, турли алмашлаб экиш тизими асосида экин турларини табақалаб жойлаштириш ва тупроқ унумдорлигини тиклаш бўйича маълумотлар ўз аксини топган.*

Суғориладиган ерлардаги турли хилдаги тупроқ типлпридан унумли фойдаланиш ҳозирги бозор иқтисодиётининг даврида қишлоқ хўжалигини ривожлантиришдаги долзарб масалалардан ҳисобланади. Шуларни инобатга олиб Ўзбекистон республикаси ер ресурслари давлат қўмитасининг Тупроқшунослик ва агрокимё Илмий тадқиқот давлат институти, Ўзбекистон Пахтачилик ИТИ ва қишлоқ хўжалигини мехенизациялаш ИТИ олимлари томонидан: “Суғориладиган тупроқлардан фойдаланишни қайта кўриб чиқиш, унумдорлигини мунтазам равишда ошира боришга оид қўлланмалар.” асосида ердан фойдаланувчи рахбарлар учун тавсияномалар ишлаб чиқдилар.

Ҳозирги пайтда қишлоқ хўжалиги тасаруфидаги ерларнинг агрокимёвий, мелератив ва экалогик ҳолатлари талаб даражасида эмаслиги туфайли уларнинг самарали иқтисодий унумдорлиги юқори эмас.

Йилдан – йилга суғорилиб деҳқончилик қилинадиган ерлардан: зичлашиш, ер ости сувларининг кўтарилиши, ботқоқланиш, гумуссизланиш, эрозияга чалиниши ва бошқа салбий жараёнларнинг кучайиши авж олмоқда.

Илм – фаннинг ва илғорларнинг асосий тавсияларига асосланиб ишлаётган айрим деҳқон – фермер хўжаликларида тупроқ унумдорлиги тикланиши кузатилмоқда.

Ривожланаётган жамиятнинг бозор иқтисодиёти ислоҳотларини амалга оширишда, яъни, суғориладиган ерлардан узоқ муддатли такомиллашти–рилган ҳолда фойдаланувчилар учун: тупроқ бонитровкаси (балл), агромеллиоратив, агрокимёвий ва тупроқ картасини ҳар 4–5 йилда янгилаб туриш ва ўқув–семинарларини ташкил этиш мақсадга мувофиқдир.

Тупроқни асраш, уни келажак авлодларга соф ҳолда қолдириш, унумдорлигини мунтазам равишда ошираборишва ва блшқа салбий оқибатлардан асраш каби тадбирлардан бири бу тупроқларни паспортизация ва ва сертификация қилишни ташкил этишдир. Бу қишлоқ – хўжалик экинлари ҳосилдорлигини оширишда, тупроқ унумдорлигини яхшилашда,

қўлланилган ўғитларни самарамини оширишга ва ўсимликлардан экалогик тоза махсулот олишга, тупроқларда кетаётган салбий ва ижобий жараёнларни назорат қилишга хизмат қилади, ҳамда ердан фойдаланувчиларни фаолиятини назорат қилиш, зарур чора–тадбирларни амалга ошириш имконини яратади.

Ҳозирги даврда вилоятимизнинг Олот, Қоракўл, Жондар, Когон, Пешкў туманидаги фермер хўжаликларнинг тупроқларининг мелиоратив ҳолати ёмонлашган, шўрланаган ер майдонларини салмоғи кўпаймоқда. Бунинг асосий сабаби, тупроқ шароитини ҳисобга олмасдан суғориш сувларини катта нормада ишлатилиши ва зовур коллектор дренаж тармоқларининг талаб даражаси эмаслигидир. Суғорадиган тупроқлар мелиоратив ҳолатининг ёмонлашиши натижасида ўртача ва кучли шўрланган тупроқларда пахта ҳосилдорлиги 35–45% гача камаймоқда.

Хулоса қилиб айтганда, вилоятимизнинг суғориладиган турли тупроқ типлари иқлими шароитида ишлаб чиқилган райёнлаштирилган гидромодул тизимлари бўйича экинларни суғориш жараёнлари 400–500 дан 700–800 ва 900–1000 $м^3$/га бўлишига қарамасдан, кўпгина хўжаликларда суғориш нормаси 1600–2000 $м^3$/га сув билан суғорилмоқда. Оқибатда, тупроқларнинг унумли фойдаланиш тизими бузулиб, тупроқларнинг сув–физик хоссалари, таркиби ва тузилиши, ер ости сизот сувининг сатҳини кўтарилишига олиб келади ёки зовурлар орқали чиқиб кетишга сарфланади.

Ерга ишлов бериш даврида техник воситаларнинг кўп миқдорда ерга кириши натижасида тупроқларнинг 45–50 см.дан кейинги қисмида тупроқларнинг зичланиши кузатилади, шуни инобатга олиб, ўзгарувчан қуруқликда ҳайдаш ва ўсимликни ўсиш даврида культиваторларга “кесувчи пичоқ” ни ўрнатиб тупроқни кесиб чиқиш лозим. Шу кесилган жойда унга берилган сувнинг пастга кетиши таъминланади ва ердан унумли фойдаланиб экинларни ҳосилдорлиги ошади натижада ернинг унумдорлиги ҳам яхшиланади.

## Фойдаланилган адабиётлар:


1. У.Тожиев, Х.Намозов, Ш.Нафетдинов, К.Умаров. Ўзбекистон тупроқлари. Ўқув қўлланма, Тошкент–2004 й.
2. Ж.С.Сатторов. Тупроқни мухофаза қилиш ва ундан фойдаланиш муаммолари. Ўз.ФА Тупроқшунослик ва агрокимё институти, Тошкент–1995 й.
3. У.Тожиев. Ўзбекистон тупроқлари ва улардан фойдаланишнинг айрим йўналишлари. Методик қўлланма, Тошкет–1998 й.

# TUPROQ DEGRADATSIYASINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNING OLDINI OLISH CHORA - TADBIRLARI

**Ҳ.Т.Артикова**
*-б.ф.д., доцент,*
**Ж.Жумаев**
*магистрант*
*Бухоро давлат университети*

Insonning tuproqqa faol ta'sir ko'rsatishi natijasida ,uning xossa xususiyatlarining o'zgarishi , unumdorligining oshishi yoki pasayishi yer resurslarini muhofaza qilishda avvalgidan ko'ra e'tiborli bo'lishlikni taqozo etadi. Shu asnoda ayni davrda tuproqlar meliorativ holatini to'g'ri baholash va uni yaxshilash dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi. O'zbekiston Respulikasi umumiy yer fondining 52,8 % ini yuvilmagan va yuvib keltirilgan , 15,7 %ini turli darajada yuvilgan yerlar tashkil etadi. Shuningdek umumiy yer maydonining 22,2% ini sho'rlanmagan yerlar,46,3 %ini turli darajada sho'rlangan yerlar tashkil etadi .

Qishloq xo'jaligi yerlarining unumdor qatlamini degradatsiyaga uchrashining oldini olishga qaratilgan ishlar davlatimizning doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respulikasi umumiy yer fondining 52,8 % ini yuvilmagan va yuvib keltirilgan, 15,7 %ini turli darajada yuvilgan yerlar tashkil etadi. Shuningdek umumiy yer maydonining 22,2% ini sho'rlanmagan yerlar, 46,3 %ini turli darajada sho'rlangan yerlar tashkil etadi .

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda , bugungi kunda dunyo bo'yicha eroziyaga, deflyatsiyaga uchragan va xafli deflyatsiyaga moyil qishloq xo'jalik ekinlari ekiladigan maydonlar 50 % dan ko'pchilikni tashkil qilmoqda va bu kabi degradatsion jarayonlar davom etmoqda .

Yer degradatsiyasi degan aniq bir tushuncha yo'q, chunki ko'p yerlarning ustki qismi tuproq qatlamiga ega, shuning uchun bir vaqtning o'zida tuproq degradatsiyasi yer degradatsiyasi deb yuritiladi .

Tuproq degradatsiyasining o'ziga xos turlaridan biri - tuproqlarning zaharli kimyoviy va organik birikmalar, og'ir metallar, neft va neft mahsulotlari hamda radioaktiv elementlar bilan ifloslanishidir.

**Dunyoda birorta davlat yo'qki, to'liq barcha turdagi mineral xom ashyosiga ega bo'lgan. Barcha turdagi foydali qazilmalarni qazib olish jarayoni ta'sirida tuproq qoplamalari turli ko'rinishda va turli darajada mexanik buzulish ta'sirida bo'ladi .Ayniqsa ,yerning ustki , o'simliklar uchun hayot elementlariga boy bo'lgan nozik , yupqa tuproq qatlami funksiyasi buziladi.Har qanday foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida, jinslarda turli xil chuqurliklar hosil bo'ladi va ular tuproq qoplamoi bilan aralashadi, ya'ni hududni birlamchi relyefining tuproq qoplami texnogen ta'sir holatiga keladi .**

**Shu jumladan o'rmon xo'jaliklarui ham ayni davrlarda birmuncha ziyon ko'rmoqda ,shuning uchun** O'rmon xo'jaliklarida kesish qoidalariga rioya qilish va boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish va ayrim hududlarda qayta o'rmonlarni

kesish 80-100 yildan keyin amalga oshirilishi zarur. O'rmonlardagi yong'inlarning kelib chiqishiga 97% holatda odamlar sababchi bo'ladi .Shuning uchun yong'inlarning oldini olish bo'yicha olib boriladigan tashviqot va tushuntirish ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Tuproq degradatsiyasining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi har bir omillar uchun amaliy chora tadbirlar ko'riladi. Tuproqning mexanik degradatsiyasini kelib chiqishiga shamol eroziyasi va deflyatsiya jarayonlari, chorva mollarini tartibsiz boqish, foydali qazilmalarni qazib olish ,o'rmonlarni kesilishi,o'rmon yong'inlari kabi bir qancha omillar sabab bo'ladi. Shamol eroziyasi va deflyatsiya jarayonlarini oldini olish uchun ekin yerlari atrofida ixotalar barpo etish yuqori samara beradi. Sho'rtob va sho'rtobli tuproqlarni sho'rsizlantirish orqali qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarni ma'lum darajada kengaytirish mumkin. Shuning uchun ulardan foydalanish bu tuproqlar unumdorligini yaxshilash, dehqonchilikni rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Yuqorida qayd qilinganidek, sho'rtoblar agronomik xossalarining yomon bo'lishiga asosiy sabab singdirilgan natriy kationi hisoblanadi. Shuning uchun sho'rtob tuproqlar unumdorligini oshirishdagi asosiy tadbir- singdirilgan natriyni gips yoki boshqa kalsiy tuzlari tarkibidagi kalsiy kationi bilan almashtirishdir.

Umumiy singdirish sig'imidan 10 % dan ko'p Na saqlaydigan sho'rtob va sho'rtobli tuproq1arni tubdan yaxshilash uchun, ularni gipslash zarur. Tuproqqa gips solinganda tuproq eritmasidagi soda yo'qotiladi, tuproqda singdirilgan natriy ka1siy bilan siqib chiqariladi Уa natijada eritmada neytral tuz - natriy sulfat hosil bo'ladi:

$$Na_2CO_3 + CaSO_4 = CaCO_3 + Na_2S0_4$$

Eritmada kam miqdorda $Na_2S0_4$ ning hosil bo'lishi o'simliklarga zararli ta'sir etmaydi, ammo singdirish sig'imiga 20 % dan ko'p Na bo'lgan sho'rtoblarni gipslaganda eritmada ko'p miqdorda natriy sulfati hosil bo'ladi va uni tuproqdan yuvish natijasida yo'qotish mumkin. Gipslash natijasida sho'rtob tuproqlarning ishqoriy reaksiyasi bartaraf etiladi, tuproqning fizik, fizik kimyoviy va biologik xususiyatlari yaxshilanadi, uning unumdorligi oshadi.

Tuproqlarni degradatsiyasini oldini olishda unga qarshi choralarni qo'llashda zamonaviy GAT texnalogiyalaridan foydalanish katta qulayliklar tug'diradi. Chunki biz GAT texnalogiyasi yordamida ma'lum bir hududda qanday jarayonlar borayotganini bilish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

GAT texnalogiyalaridan yer monitoringida, degradatsiya jarayonlarini aniqlash va baholashda, distension zontlash ma'lumotlarini deshifrlash va landshaft uslubi yordamida ma'lumotlar bankini yaratishda, xaritalarni elektron versiyalarini tuzishda, turli darajada eroziyalangan hmada sho'rlangan tuproqlarning aniq tarqalish chegaralarinii aniqlshda, relyefning shakllarini aniqroq o'rganishda, hududning ruvojlanish tarixi va antropogrn omil xususiylari qiyalik ekspozitsiyasi, tuproq hosil qiluvchi jinslarni inobatga olish, tuproq hosil bo'lish jarayonlarini to'g'gri anglash va landshaft –ekalogik sharoitlarini hisobga olgan holda degradatsiya jarayonlarini yuzga kelish sabablari bo'yicha umumlashtirilgan tavsif berishda foydalanish mumkin. GAT texnalogiyasimi qo'lgan holda,

eroziyaga xavfli yerlarni aniqlash va baholash. An'anaviy (qog'oz) xaritalardan elektron (kompyuter) xaritalarga o'tish murakkab va juda ko'p mehnat talab qiladigan jarayondir. Bu maqsadga erishish uchun ish jarayonida kerakli miqdorda axborotlarga ishlov berishni, tahlil va ko'z bilan ko'rish imkoniyatini beruvchi GAT AreView 9,10, Adobe Photoshop va 3D Fiel maxsus dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.
Tuproqlarning degradatsion jarayonlarini oldini olish uchun quydagilarga rioya qilish lozim deb o'ylayman:

Shunday qilib tuproqdan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalarga qat'iy rioya qilish, mavjud suv resurslaridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanish ,ekinlarni oziqlantirishda organik o'g'itlardan foydalanish salmog'ini oshirish, tabiiy yaylovlardan qat'iy me'yor va reja asosida foydalanish, yer ostidan foydali qazilmalarni qazib olishda tuproq muhofazasiga qat'iy amal qilish lozim, qishloq xo'jalik texnikalarini tanlashda ularni tuproq yuzasiga ko'rsatadigan mexanik bosimiga e'tibor qaratish lozim. Tuproqlarga ishlov berish va tuproqdan foydalanish madaniyatini yanada yuqori darajada shakllantira olsak, degradatsiya jarayonlarini sezilarli holatda yaxshilashimiz mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Абдурахмонов Т., Жабборов З.А., Никадамбаев Х.Б Тупроқларни кимёвий ифлосланиш муаммолари ва муҳофаза қилиш тадбирлари махсус курсини ўқитишда педагогик техналогиялар. Т., Университет .2010.1136
2. .Тешабоев.М. Тупроқлар деградациясининголдини олиош ва оқибатларини бартараф этишга оид қонинчиликни янада такомиллаштириш чоралари. Илмий мақолалар тўплами. Тош:2012
3. Йўлдошев. Г ., Абдураҳмонов Т Тупроқ кимёси.(Ўқув қўлланма) Т.:2005-238-б
4. . Махсудов Х.М ,Тупроқ эрозияси ва муҳофазаси.ТошДАУ 2003
5. www.ziyonet.uz.

***5А112001 - Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари назарияси ва методикаси***

# ПРОБЛЕМЫ СПОРТИВНОГО ОТБОРА И ОРИЕНТИРОВАНИЯ И ПУТИ ЕГО РЕЩЕНИЯ

***Н.Э.Назарова***
*Магистрант первого курса, специальности «теория и методика физического воспитания и спортивной тренировки»*

*Статья посвящена теоретико-методологическим основам отбора одаренных детей и подростков по видам спорта, реально практикующих в регионе и проблемы спортивной ориентации учащихся образовательных школ.*

Ряд реформ, осуществляемых сегодня в нашей стране, проводится с целью повышения уровня жизни людей, создания духовно и физически здоровой среды во всех слоях населения и укрепления его здоровья. Поэтому сейчас внимание к физическому воспитанию и спорту стало важнейшей общественно-политической задачей государственного значения.

Отрадно, что в связи с исполнением Указа Президента Республики Узбекистан "О стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах" в стране осуществляется широкомасштабная работа, направленная на создание соответствующих современным требованиям условий для систематического занятия физической культурой и спортом всеми слоями населения, особенно молодого поколения, укрепление у молодежи уверенности в своих силах и возможностях посредством спортивных соревнований, воспитание мужества, чувства патриотизма и преданности Родине, а также совершенствование системы отбора талантливых спортсменов, дальнейшее развитие физической культуры и спорта в целом.

Спортивный отбор представляет собой комплекс мероприятий по выявлению спортсменов, обладающих высоким уровнем способностей, отвечающих требованиям специфики вида спорта. Эффективный отбор может быть осуществлен на основе длительных комплексных исследований, которые предполагают анализ личности спортсмена в целом и его спортивных способностей на основе педагогических, медико-биологических, психологических и антропометрических критериев отбора.[3]

Спортивный отбор - это комплекс мероприятий, позволяющих определить высокую степень предрасположенности (одаренности) ребенка к тому или иному роду спортивной деятельности. На всех этапах многолетней подготовки спортсмена должна обеспечиваться комплексная методика

оценки его личности, предполагающая использование различных методов исследования. [2], [6]

**Цель исследования:** Целью работы явилось ознакомление с теоретико-методологической системой отбора спортсменов и их ориентации в процессе многолетнего совершенствования.

**Методы и организация исследований**.

В работе были использованы следующие методы: анализ научной и методической литературы, изучения концептуальных основ проблемы спортивного отбора и ориентации детей школьного возраста.

**Результаты исследований.** Основываясь на положении, что формирование целостного знания представляет собой сложный процесс, осмысление которого должно осуществляться с разных позиций.

Это позволяет рассматривать процесс взаимодействия субъектов процесса подготовки, процесса формирования целостного знания (тренер, учитель физической культуры, научный сотрудник, спортивный врач, психолог) в аспекте сотрудничества, управления и личностной ориентации как необходимых компонентов в процессе многолетнего совершенствования подготовки и отбора спортсменов.

Для реализации системных идей применительно к нашему исследованию следует, прежде всего, уточнить признаки системы формирования целостного знания о системе спортивного отбора и ориентации детей школьного возраста, а именно:

- субстанциональность элементов, составляющих данную систему;

- структурность, характеризующуюся наличием взаимосвязей и отношений между элементами системы; функциональность, детерминирующая функционирование системы как неделимого целого.

Системный подход рассматривается как общенаучная основа исследования проблемы формирования целостного знания. С позиции такого подхода данный процесс предполагает выявление его составных элементов, установление системообразующих факторов и связей между компонентами, определение функций системы в целом. Сущность интегративно-деятельностного подхода в исследовании явилось то, что он позволяет осуществлять совокупность различных подходов, совокупность методов и принципов интеграции смежных дисциплин и, через это, формирование целостности формируемого знания. [1], [4], [5]

Эффективность спортивной тренировки как в многолетнем плане, так и в более короткие промежутки времени, вплоть до недельного цикла и отдельного занятия, будет более высокой, если акценты тренирующих воздействий будут совпадать по характеру с естественными ускорениями в развитии отдельных элементов и структур моторики и текущим состоянием ее систем. Поэтому принцип адекватности означает необходимость такой организации тренирующих воздействий, которая учитывала бы готовность систем организма человека к восприятию обучающей информации определенного типа. При этом необходимо учитывать как генотипические,

так и фенотипические сенситивности, обусловливающие конкретику этой готовности. Наконец, учитывая закономерную фазовость и цикличность развития моторики [9], [10] можно рассмотреть принцип фазового акцента. Опираясь на этот принцип, можно обоснованно распределить по времени тренировочные нагрузки разной направленности. Принцип фазового акцента обусловливает целесообразность соблюдения строгой последовательности в стимулировании развития сначала элементной основы систем движений (отдельные физические качества, обеспечивающие их морфофункциональные компоненты, отдельные биомеханические элементы), а затем их структурной организации. Этот же принцип побуждает тренера и спортсмена к принятию решения о своевременной смене направленности, содержания, объема и интенсивности тренировочной нагрузки. Исследование системы современной многолетней спортивной подготовки показало, что их совершенствование возможно на основе учета изложенных принципов и их технологической реализации. Представление о том, что система многолетней подготовки, отбор и ориентация на ее различных этапах должна быть представлена в виде целостной системы, нашло отражение в предлагаемой концепции формирования системы отбора спортсменов и их ориентации в процессе многолетнего совершенствования.

Предлагаемая концепция может обеспечить стабильность развития всей системы подготовки. Концепция формирования системы многолетнего отбора спортсменов и ориентации их подготовки.

1. Рациональное построение многолетней подготовки, направленной на высшие достижения, возможно при:

- взаимодействии системы детско-юношеского, резервного спорта и спорта высших достижений в соответствии с современными достижениями науки и практики;

- учете закономерностей спортивного отбора и направлений ориентации тренировочного процесса для повышения ее эффективности в интересах как подготовки, так и физического воспитания в системе дошкольного и школьного образования;

- обеспечении всех этапов многолетнего совершенствования равным вниманием в отношении необходимого материально-технического и финансового, кадрового, научно-методического и медицинского снабжения; строгом распределении функций и возможностей различных государственных и общественных организаций в решении задач подготовки ближайшего и отдаленного резерва сборных команд;

- обеспечении оптимального соотношения количества занимающихся на различных этапах многолетнего совершенствования, предусматривающее постоянный отсев недостаточно перспективных спортсменов и приток перспективных детей;

- создании организационных и методических условий для непротиворечивого и эффективного индивидуального развития выявленных спортивно одаренных детей и эффективной реализации их возможностей в

соревновательной спортивной деятельности, ориентированной на максимальные достижения.

2. Методологической основой обеспечения подготовки спортсменов на разных уровнях является соблюдение следующих принципов:

- минимизация педагогических, психологических и организационных ошибок и упущений в процессе их многолетней, этапной, оперативной и текущей подготовки;

- непрерывный контроль состояния систем организма спортсмена в процессе выполнения тренировочных и соревновательных нагрузок;

- оптимизация (с тенденцией к минимизации) объемов и интенсивности тренировочных нагрузок и динамики их ритмов в тренировочном процессе на этапах, периодах спортивной подготовки и проведение отдельных тренировочных занятий;

- профилактика травм и заболеваний в периоды интенсивной подготовки и при участии в соревнованиях.

3. Организационной основой является интенсификация развития спортивной науки и технологий по приоритетным направлениям:

- поиск новых нетрадиционных технологий и альтернативных подходов к совершенствованию структуры и повышению эффективности спортивной подготовки отбора спортсменов и их ориентации на всех этапах многолетнего совершенствования;

- формирование эффективной системы информационно-аналитического обеспечения процессов развития детско-юношеского и резервного спорта и спорта высших достижений;

- совершенствование системы подготовки и переподготовки кадров на основе целенаправленной стимуляции их непрерывного образования и самообразования, формирования потребности в источниках систематической информации о научно-технологических инновациях в сфере их профессиональной деятельности;

- создание удобной для пользователей инфраструктуры научно-технологического обеспечения подготовки сборных команд и их резерва на базе многоцелевых и специализированных по видам спорта центров и мобильных групп научно-методического обеспечения;

- совершенствование положений о различных организациях, в которых осуществляется подготовка спортсменов на различных этапах многолетнего совершенствования, их программ и учебных планов, критериев эффективности работы организаций и тренеров, привлеченных к многолетней подготовке на ее различных уровнях и др.

4. Управление процессом повышения эффективности подготовки отдаленного, ближайшего резерва и сборных команд осуществляется на основе следующих принципов:

- концентрация усилий ученых и специалистов на перспективных направлениях совершенствования системы спортивной подготовки;

- укрепление и развитие инфраструктуры обеспечения подготовки в детско-юношеском и резервном спорте и спорте высших достижений. [6],[7],[8]

**Выводы.** Результаты исследований позволили сформулировать основные базовые положения о системе подготовки, отбора и ориентации спортсменов в процессе многолетнего совершенствования; сформировать систему научных знаний на основе интеграции подготовки, отбора и ориентации спортсменов на разных этапах многолетнего совершенствования, позволяет на практике повысить эффективность управления тренировочным процессом, а также, уточнения методологии исследования проблемы спортивного отбора и ориентации применительно в образовательных школах.

**Литература:**


1. Бальсевич В. К. Контуры новой стратегии подготовки спортсменов олимпийского класса / В. К. Бальсевич // Теория и практика физ. культуры с.110-115
2. Булгакова Н. Ж. Спортивные способности: диагностика и формирование / Н. Ж. Булгакова // Теория и практика физ. культуры с.7-10
3. Волков Л. В. Теория и методика детского и юношеского спорта / Л. В. Волков. К.: Олимп. лит., с.15-20
4. Ильин В. Н. Проблемы и перспективы развития молекулярной генетики физической активности / В. Н. Ильин, С. Б. Дроздовская // Спорт. медицина с.67-72
6. Матвеев Л. П. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты / Л. П. Матвеев. М.: Известия, с.44-45
7. Платонов В. Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте: Общая теория и ее практические приложения / В. Н. Платонов. К.: Олимп. лит., с.65-66
8. Сахновский К. П. Теоретико-методические основы системы многолетней спортивной подготовки: дис. доктора пед. наук / К. П. Сахновский К., с. 75-84
9. Шинкарук О. А. Отбор спортсменов и ориентация их подготовки в процессе многолетнего совершенствования (на материале олимпийских видов спорта) / О. А. Шинкарук. К. : Олимп. л-ра, с.120-121
10. Bouchard C. Genetic Determinants of Endurance Performance / C. Bouchard // Endurance in Sport. Oxford: Blackwell Sci. Publ P 40-41
11. Brown J. Sport talent / J. Brown. Champaign, Ili Human Kinetics, p.50-51

# УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ

**Қ.П. Арслонов,**
*доцент,*
**А.Д. Шукуров**
*магистрант,*
*Бухоро давлат университети Бухоро, Ўзбекистон*

*Мақолада умумий ўрта таълим жисмоний тарбиянинг долзарб бўлган муаммоларидан жисмоний тарбия ўқитувчиси ва спорт тренерлариниг ўзаро ҳамкорлигини тизимли йўлга қўйилиши натижасида самарадорликнинг ошиши ва жисмоний тарбия ва спорт соҳасини ривожлантиришга эришиш йўллари тўғрисида фикр юритилди.*

Ўзбекистон Республикасида бугунги кунда келажак эртамизни ўйлаб олиб борилаётган чуқур ислоҳатлар ёш авлодни ҳар томонлама ақлий, ахлоқий ва жисмоний жиҳатдан ривожланишида жисмоний тарбия ва спорт асосий ўринни эгаллайди. Мамлакатимизда ёш авлодни соғлом руҳда тарбиялаш борасида бир қанча ишлар амалга оширилмоқда. Мухтарам юртбошимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек “Хар бир давлатнинг куч ва қудратини белгиловчи асосий омил - жисмоний ва соғлом ва ҳар томонлама ривожланган авлоддир”. Бундан кўриниб турибдики ўсиш, ривожланиш, натижадорлик ҳар қандай соҳанинг энг асосий мақсад ва вазифасидир. Инсоният ўзининг ривожланиш жараёни давомида жисмоний тарбия ва спорт бўйича турли янгича ёндашиш ва методларни ишлаб чиқди. Бу ўринда жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ўқитувчиларнинг малакаси, қобилиятига ва маҳоратига алоҳида тўхталиб ўтишимиз зарурдир. **2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси**нинг тўртинчи ижтимоий соҳанини ривожлантиришга қаратилган устувор йўналишларидан бирида таълим, маданият, илм-фан, адабиёт, санъат ва спорт соҳаларини ривожлантириш, ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш вазифаси, Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги тизимидаги спорт мактаблари ўқувчи-спортчилари ўртасида **“Болалар спорти ўйинлари”** ни ўтказиш орқали иқтидорли спортчиларни аниқлаш ва ёшлар терма жамоаларига захира яратиш ҳамда олий таълим муассасалари талабалари ўртасида **“Талабалар спорти ўйинлари”** ни ташкил этиш натижасида талабаларни спорт билан мунтазам шуғулланишга жалб этиш аҳолининг кенг қатламлари, жумладан, умумтаълим мактаби ўқувчилари, профессионал ва олий таълим муассасалари ўқувчи ва талабалари ўртасида жисмоний тарбияни оммалаштириш, улар орасида иқтидорлиларини аниқлаш мақсадида “Умумтаълим мактаби спорти” фестивали, **“Жисмоний тайёргарлиги ривожланган муассаса”** кўрик-танловини босқичма-босқич

(туман/шаҳар, ҳудуд, республика) ўтказиш тизимини ишлаб чиқиш ва **жисмоний тайёргарлик даражаси ривожланган энг яхши** умумтаълим мактаби, профессионал ва олий таълим муассасаси номинациясини жорий этишнинг ўзи ҳам танлаган мавзумизнинг долзарблигидан далолат беради.

Умумий ўрта таълим муассасаларида жисмоний тарбия ўқитувчиси томонидан иқтидорли ўқувчиларни тарбияланиши, саралашга доир муаммолар ва уларни мавжуд имкониятдан фойдаланиб ҳал этиш.

Ўзбекистонда таълим соҳасида педагогик амалиётнинг турли томонларини қамраб олаётган кучли инновацион импульс ҳаракати давом этмоқда: таълим сифатини ошириш, натижаларини олдиндан белгилаш, интерфаол ўқитиш, таълим менежментига қаратилган ёндашувлар вужудга келмоқда. Турли турдаги таълим муассасаларининг айнан негизи бўлга умумий ўрта таълимда жисмоний тарбиянинг долзарб муаммоларини ҳал этиш самарадорлигини ошириш шу соҳа изланувчилариниг пировард мақсадимиз бўлиб ҳисобланади. Айниқса жисмоний тарбия бўйича умумий ўрта таълим мактабларида жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларининг ўз соҳалари бўйича етарли назарий ва амалий билимларга мунтазам эга бўлиб боришлари учун зарур имкониятлар яратиш масаласи, ҳозирги даврда жамиятимизнинг ижтимоий-иқтисодий талабларидан келиб чиққан ҳолда мактаб жисмоний тарбиясига даҳлдор бир қатор муаммоларни ҳал этиш вазифаси ва энг асосийси маънавий ва жисмонан баркамол ривожланган шахсни тарбиялаш мақсади тўлақонли адо этилиши билан белгиланади. Юқоридаги  осон бўлмаган ишни амалга оширилиши учун ўқувчилар томонидан жисмоний тарбия асослари чуқур эгалланиши лозимдир. Умумий олганда жисмоний тарбия тўғрисида билимлар жисмоний соғломлик, жисмоний ривожланиш, таянч-ҳаракат тизими иш фаолиятини кенгайтириш йўллари, юқори жисмоний ривожланиш, ҳаракат фаолияти, соғломлаштириш ва спорт фаолиятини амалга оширишдан иборат. Мактабда жисмоний тарбия ўқитувчиси ва спорт бўйича тренерларнинг ўзаро маълумот алмашинуви жойларда йўлга қўйилган, аммо ўзаро тажриба ва маълумот алмашиш борасида баъзи бир камчиликлар мавжуд бўлиб ўз ўрнида бу  жисмоний тарбия ва спортда ечимини кутаётган муаммоларни келтириб чиқаради.

Жисмоний тарбия бўйича дарсларни ташкил этишда замонавий педагогик технологиялардан қўлланиши учун биринчи навбатда юқорида баён этилган тартибда лойиҳа ишлаб чиқилади. Иложи бўлган ҳолларда ўқув-услубий мажмуа тайёрланади. Бу жисмоний тарбия машғулотларини қизиқарли ва юқори савияда ўтишини таъминлайди. Фақат ўқитувчи ва ўқувчилар бундай машғулотларга аввало руҳий жиҳатдан тайёр бўлиши керак. Йиллар давомида ҳосил бўлган тажриба, кўникма ва малакалар, айниқса стреотиплар (қолипланган одатлар) ҳалақит бериши мумкин. Ўқитувчи буни енгиши, ўзини ва ўқувчиларни тайёрлаши зарур бўлади.

Бунинг учун ноанъанавий машғулот шакллари ва турларини, уларни ташкил этишнинг методикасини яхши эгаллаш талаб қилинади. Сўнгги пайтларда интерфаол методлардан фойдаланиш оммавий тус олмоқда.

Ўқитувчи ва ўқувчиларни фаоллаштириб, машғулотдаги асосий фигурага айлантириши ҳар бир ўқувчи ўзини машғулотнинг асосий бажарувчиси деб ҳис этмоғи даркор. Барча ўқувчиларни имкони даражасида фикрлашга, ҳаракат қилишга, жисмоний машқларни ўзига мослаштирган ҳолда бажариш одатлантирилади.

Жисмоний тарбия дарсларида тарбия, соғлмлаштириш ва ўргатиш вазифалари бир-бирига боғланган ҳолда ҳал қилинади. Шунинг учун ўқитувчи дарсни олдига аниқ мақсадлар қўйишда жисмоний тарбия системасининг умумий вазифаларига амал қилган ҳолда аниқлайди. Дарс вазифаларини, машғулот ўтказиш жойини ва дарсга тегишли жиҳоз-анжомларни белгилагандан сўнг дарс мазмунини аниқлайди.

Дарс мазмунини аниқлашда, дарснинг асосий қисмига таълуқли машқларни, сўнгра тайёргарлик ва якунловчи қисм машқларни танлаш мақсадга мувофиқдир. Ташкилий услубий кўрсатмалар дарсда қўлланиладиган воситалардан тўлиқроқ фойдаланиш ва шу билан бирга ўқувчилар тарбиясини мақсадга мувофиқ ҳал этиш учун танланади. Конспектнинг ташкилий услубий бўлимига:

1. Дарсни мақсадга мувофиқ тахлил этиш;
2. Шуғулланувчи фаолиятини дарсда ташкил этиш услублари;
3. Ўргатиш ва тарбиялашнинг услуб ва услубий усуллари;
4. Дарснинг ўтказиш шароитлари ёзилади.

Дарс тугагандан сўнг ўқитувчи ўтказилган дарс бўйича ушбу конспектга қисқача ўз мулоҳазаларини ёзиш керак.

Ҳар бир ўқувчи онгли, интизомли, жамият қуриш учун тўла маълумотли, меҳнат ва мудофаа ишларига доим тайёр бўлишлари керак. Бу вазифаларни адо этишда жисмоний тарбия дарслари муҳим босқичлардан бири ҳисобланади. Ҳар бир ўқитувчи ўзларининг фаолиятларида шуларни тўла сингдириб олишлари, уни амалда қўллай билиш керак.

Бундай ҳолларда педагогнинг раҳбарлик роли, ўқувчиларнинг қизиқиб бажаришлари катта рол ўйнайди. Бунинг учун билимларни тешириш, рағбатлантириш, янги вазифаларни бажаришда уларга таяна билишдадир. Шундагина ўқувчиларнинг активлиги, онги, интизоми ва кўрсатган натижалари оша боради.

Ҳақиқатан ҳам жисмоний тарбия дарслари кўп қиррали жараёндир. Дарсда дидактик принциплар, ўргатишдаги турли услублар ва ахлоқ тарбияси яхши йўлга қўйилганда мақсадга қўйилган вазифаларни тўла амалга ошириш имконлари яратилади.

Жисмоний тарбиянинг муҳим элементларидан ҳисобланган фазода ҳаракатланиш, тўсиқларни енгиб ўтиш, жисмоний фаолиятни буюмлар билан бажариш, жамиятда ҳаракат кўникмаларини ривожларнтиришнинг мажмуавий воситалари ҳам ўқувчиларни шахс сифатида тарбиялашда муҳим омил бўлиб ҳисобланади. Жисмоний тарбия дарсларини ташкил этишда жисмоний тарбия ўқитувчисидан ўқувчини шахс сифатида тарбиялашда психологик, педагогик, физиологик таълим назариялари, фаол таълим ва

тарбия методларидан фойдаланиб ҳар бир ўқувчининг индивидуал ҳусусиятларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширишга интилиш айнан мақсадни амалга оширишга ёрдам беради. Жисмоний тарбия ва таълим муаммоси фаолиятидаги принциплари шахсий ёндашувда ўқувчи томонидан жисмоний ва руҳий баркамоллик йўлидаги тўпланган бой билимларни эгаллаш каби муҳим масаланинг ҳал қилинишига ундайди. Бу вазифаларни ҳал қилишда жисмоний тарбия ўқитувчисининг юқори малакага эга бўлиши талаб этилади, жисмоний тарбия ўқитувчисининг кўп қиррали фаолиятида айниқса 4 вазифа алоҳида ажралиб туради булар: конструктивлик, коммуникативлик, ташкилий ва когнитив вазифалар. Жисмоний тарбия дарсларида таълимнинг принципларидан онглилик ва фаоллилик принципи талабларига риоя этиб педагог фаолияти таълим сифатини оптимал даражага етказиш, ўқувчилар тарбияланганлигига ва уларнинг соғлигини сақлаш талаблари бажарилиши учун йўналтирилган бўлиши жисмонийт тарбия ўқитувчисидан юқори малака талаб этади. Бу ўринда жисомний тарбиянинг қуйидаги муҳим компонентларини келтириб ўтсак:

1.Жисмоний тарбия дарсларида жисмоний юкламаларни белгиланиши ва ўқувчиларнинг жисмоний ривожланишининг ўсиш суръатларни аниқланиб борилиши.

2.Жисмоний тарбия воситаларидан ҳисобланган гигиеник омиллар талабларини тўлиқ бажарилиши.

3.Соғлом турмуш тарзи, шахсий гигиена бўйича тадбирланинг тизимли равишда ўтказилиб бориши.

4.Жисмоний тарбия ва спорт тадбирлари тизимини такомиллаштириб бориш.

5.Ўқувчиларни мунтазам равишда тиббий назоратдан ўтказиб бориш.

Тайёргарлик ва соғлиги даражасининг мониторингини олиб бориш.

Ҳар бир таълим муассасаси соғломлаштириш тузилмасини ўзининг моддий-техник имкониятларидан, ўқув дастури мақсади ва вазифаларидан келиб чиққан ҳолда белгилайди.

Юқоридаги муҳим компонентларнинг бажаралиши ва назорат қилиниб бориши жисмоний тарбиядаги долзарб муаммоларини ҳал қилишда замин яратилади.

Хулоса: Мактабдаги жисомний тарбия ўқитувчилариниг жойларда мавжуд тегишли спорт мутахасислари билан ҳамкорликнинг етарли даражада йўлга қўйилмаганлиги натижасида умумий ўрта таълим мактабларидаги, маълум бир спорт тури бўйича иқтидорга эга бўлган ўқувчиларнинг юқори даражада ўз иқтидорларини намоён этиши учун муаммоларни юзага келтирмоқда, шу ўринда таъкидлаш жоизки умумий ўрта таълим мактабининг ўзига ҳослиги яъни ўқувчилар контингентининг мунтазамлилиги, спорт бўйича иқтидорли ўқувчилар танлови доираси кенглиги билан жисмоний тарбия ўқитувчисига бошқа спорт муаассасалари мутахассисларига нисбатан устунлик бериб зиммасига улкан масъулият юклайди бу ўринда ҳозирда технологиялар ўзининг юксак чўқисига чиққан

бир даврда ўқитувчиларниг спорт бўйича мутахасислари билан ўзаро доимий алоқаларини тизимли тарзда ташкил этиш ва узвий боғланган яъни мактабдаги барча ўқувчиларни жалб этган ҳолда жисмоний тарбия ва спорт масаласи ҳал қилинса кўпкина иқтидорли ўқувчиларнинг юксак натижаларга эришишида катта имконият яратилади.

**Адабиётлар рўйхати:**


1. Ўзбекистон Республикасини Президентининг 2020 йил 24 январдаги “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5924- сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикасини Президентининг 2020 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947- сонли Фармони.
3. А.Абдуллаев, Ш. Хонкелдиев /Жисмоний тарбия назария ва усулияти 2005, 56 бет.
4. Абдуллаев.Ш.А., Хуррамов.Э.Э., /Замонавий таълим/ Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлаш 2016, 15 бет.
5. П. А Пилавов Вестник ТГПИ. /Развитие и внедрение идей А.Бутовского по подготовке современного учителя физического воспитания и спорта”, 2014, 161 стр.


## ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯДА СПОРТ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ


**Қ.П. Арслонов,**
*БухДУ доценти,*
**А. Бахронов**
*БухДУ магистранти*


Ўзбекистон Республикасида бугунги кунда келажак эртамизниўйлаб олиб борилаётган чуқур ислоҳатлар ёш авлодни ҳар томонлама ақлий, ахлоқий ва жисмоний жиҳатдан ривожланишида жисмоний тарбия ва спорт асосий ўринни эгаллайди. Мамлакатимизда ёш авлодни соғлом руҳда тарбиялаш борасида бир қанча ишлар амалга оширилмоқда. Мухтарам юртбошимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек “Хар бир давлатнинг куч ва қудратини белгиловчи асосий омил - жисмоний ва соғлом ва ҳар томонлама ривожланган авлоддир”. Бундан кўриниб турибдики ўсиш, ривожланиш, натижадорлик ҳар қандай соҳанинг энг асосий мақсад ва вазифасидир. Инсоният ўзининг ривожланиш жараёни давомида жисмоний тарбия ва спорт бўйича турли янгича ёндашиш ва методларни ишлаб чиқди. Бу ўринда жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ўқитувчиларнинг малакаси,

қобилиятига ва маҳоратига алоҳида тўхталиб ўтишимиз зарурдир. 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг тўртинчи ижтимоий соҳанини ривожлантиришга қаратилган устувор йўналишларидан бирида таълим, маданият, илм-фан, адабиёт, санъат ва спорт соҳаларини ривожлантириш, ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш вазифаси, Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги тизимидаги спорт мактаблари ўқувчи-спортчилари ўртасида "Болалар спорти ўйинлари" ни ўтказиш орқали иқтидорли спортчиларни аниқлаш ва ёшлар терма жамоаларига захира яратиш ҳамда олий таълим муассасалари талабалари ўртасида "Талабалар спорти ўйинлари" ни ташкил этиш натижасида талабаларни спорт билан мунтазам шуғулланишга жалб этиш; аҳолининг кенг қатламлари, жумладан, умумтаълим мактаби ўқувчилари, профессионал ва олий таълим муассасалари ўқувчи ва талабалари ўртасида жисмоний тарбияни оммалаштириш, улар орасида иқтидорлиларини аниқлаш мақсадида "Умумтаълим мактаби спорти" фестивали, "Жисмоний тайёргарлиги ривожланган муассаса" кўрик-танловини босқичма-босқич (туман/шаҳар, ҳудуд, республика) ўтказиш тизимини ишлаб чиқишва жисмоний тайёргарлик даражаси ривожланган энг яхши умумтаълим мактаби, профессионал ва олий таълим муассасаси номинациясини жорий этишнинг ўзи ҳам танлаган мавзумизнинг долзарблигидан далолат беради. Согломлаштириш шахсни хар томонлама жисмоний тарбиялаш йули билан амалга оширилади . Жисмоний такомиллаштириш йули билан согликни мустахкамлаб,жисмоний сифатларни инобатга олган холда танани чарчашини олдиндан кура олиш мумкин. Спорт тайёргарлиги машклар режаси уз махсус вазифаси ва максадлариги ега турли муддатли тарбиявий тайёргпрлик жараенлари учун тузилади. Узок муддатга мулжалланган режалаштиришнинг асосий максади-спортчида умумий сифатни тарбиялаб, спортни йукорига кутаришдир. Купчилик жисмоний тарбия мутахасисларининг фикрича, спорт тайёргарлигини йиллик режалаштириш асосий ахамиятга ега. Спортга тайёргарлик бир йилга куйилган максад ва вазифалар шунингдек, спорт тайергарлик даражасига караб, йиллик режалаштириш куйидагича булади;

а) спорт тайёргарлиги машкларининг бир даврли режалаштирилиши. Бу режалаштириш битта тайёргарлик,битта мусобакали ва битта давр охиридаги утиш даврига ега. Бундай режалаштириш йилига 1-2 мусобакада катнашиши мулжалланган спортчиларга нисбатан кулланилади,лекин улар мусобака утадиган ойгача булган киска муддат ичида утказилади.

Бир даврли режалаштириш уз афзалликларига ега, хусусан тайёргарлик муддати узок. Хар бир жисмоний сифатни алохида муфассал ривожлантиришга имкон беради. Бунда зур бир сифатни тарбиялашга куп вакт ажратилиб, уларни такомиллаштиришга хамма восета услуб каратилган холда режалаштирилади. Юкориди айтиб утилганидек, бир даврда режалаштириш асосан, бошловчи спортчилар учун тузилади ва айрим

истеьдодли спортчиларнинг узок муддатдан сунггина намоён буладиган бази кобилиятларини хам утказиб юбормасликга имкон беради;

б) икки даврли режалаштириш ва"иккилантирилган давр’’га режалаштириш.

Бу икки спорт тайёргарлигини режалаштириш орасидаги фарк унча ката емас; икки даврли режалаштиришга хар бир даврнинг охирида утиш даври булади. Бу режалаштириш мусобакалар орасида икки ва ундан куп муддат бор булганда ишлатилади ,’’бир даврли режа’’ йилнинг охирида битта булади.

Бу режалаштиришни афзаллиги шундаки агар биригинчи даврда режалаштириш натажаларга еришилмаса, иккинчи даврда восита ва услубларни узгартириш оркали бу ишга еришиш мумкин. Айни чогда спорт тайёргарлик йили даврдари орасида организмга дам бериш натижасида иккинчи даврда анча самаралирок тайёрланишга имкон беради;

в) куп даврли режалаштириш.

Бу режалаштириш бир йилда 3 ёки ундан ортик мусобака утказиладиган холларда ишлатилади, стартлар орасидаги муддат 1 ойдан ортик булиши керак. Куп даврли режалаштиришни куллаш хар бир мусобака жараёнида самалирок тайёрланишга ,шунингдек мусобака жараёни муддатини кискартиришга имкон беради.
Кичик давр режалаштиришнинг асосий узаги чарчаш ва куч-кувватга тулиш конунларидир.

Кичик давр 5 га булинади

а) дастлабки давр организмнинг машкларга тайёрлайди,Уларнинг жамланган умумий огирлиги одатда катта емас;

б) зарбдор- хажми буйича катта машклар тупламига мослашув жараёнини рагбатлантирадиган давр,

в) якинлаштирувчи давр-спортчининг бевосета мусобакага тайёргарлигини якинлаштириди, максимал ва субмаксимал иш куввати билан ажралиб туради;

г) мусобакали давр мусобака дастурига мувофик тузилади;

д) тикловчи давр организмни оддий тиклаш, яьни уни иш бажариш учун ярокли мувозанат холатига келтирувчи кискарок бир давр. Спортга тайёргарлик машгулоти машгулотларнинг бир хафта давомидаги сони спортчининг тайёргарлик даражасига караб белгиланади.Хар кандай машгулот уч кисмга булинади,

а) тайёрланиш кисми-бажариладиган бутун машкнинг 20-22* ни егаллайди.

Асосий масала бажариладиган ишга машгулот тайёрланаётган организмни кизатиб тайёрлаш, бу машгулот олдига куйилган максадларига караб,умумривожлантирувчи машклар тузилади. Машгулотни тайёрлаш кисмининг мухим масалаларидан бири ташкилий масалалардир;

б) дарснинг асосий кисми-давомийлиги буйича 60*-65* вакт олади,

Одатда машгулотда жисмоний машк бажариш масалаларини кисман хал килишга каратилган махсус машклардан бошланади. Тайёргарлик машгулоти асосий кисмининг вазифаси турли восета ва услуб ёрдамида хал килинадиган ургатиш ривожлантириш ёки такомиллаштиришга каратилган булиши мумкин;

в) дарснинг якунловчи кисми-вактнинг 10-12* ни егаллайди у асосий масала шугулланувчининг организмини тиклаш,машгулот натижаларини куриб чикиш ва керак булса мустаккил шугулланиши учун уй иши берилади.

Узбекистоннинг иссик иклими шароитида спорт тайёргарлик макшкларини ерталаб иссик тушмасидан ёки кечкурун утказиш маькул. Шу сабабдан ёзнинг иссик кунларида куп микдорда машкларни режалаштирмаслик тафсия етилади. Агар зарур булса тайёргарлик машкларини салкинрок жойда утказиш мумкин.Умуман спорт машгулотларини режалаштирганда бунга ката еьтибор бериш лозим.

**Адабиётлар рўйхати**:


1) Ўзбекистон Республикасини Президентининг 2020 йил 24 январдаги Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5924- сонли Фармони.
2) А.Абдуллаев, Ш. Хонкелдиев /Жисмоний тарбия назария ва усулияти 2005, 56 бет.


## ТАЛАБА – ЁШЛАРНИ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ ВОСИТАСИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ


**А.Абдуллаев**

*БухДУ “Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари назарияси ва методикаси” мутахахассислиги*

*I курс магистранти*

*доцент* **Р.С.Шукуров**



***Аннотация:*** Мақола мазмунида талаба-ёшларни жисмоний тарбия ва спорт машғулотларига жалб этиш, уларда соғлом турмуш маданияти тушунчаларини сингдириш ва ривожлантиришнинг педагогик шартлари, жисмоний тарбия ва спортнинг имкониятлари ва самарадорлик жиҳатлари ўрганилган, мақсадли педагогик жараённи ташкил этишнинг технологик шарт-шароитлари ҳавола этилган.



***Калит сўзлар:*** соғлом турмуш маданияти, педагогик восита, механизм, мотивация, технологик жараён.


**Долзарблик**. Замонавий таълим жараёнларининг дунё миқёсидаги бугунги тараққиёт унинг таркибидаги турли ижтимоий – педагогик йўналишлар ва ўзгаришлар,ислоҳотлар, ҳаракатларнинг кўплиги уларнинг

ранг-барнглиги билан белгиланади. Ўзбекистон республикасида охирги йилларда жисмоний тарбия ва спортни оммалаштириш, аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, мамлакатда юксак маданиятга эга бўлган ҳар томонлама етук ҳамда жисмонан соғлом инсонни шакллантириш мақсадида аҳолининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасида малака ва билимларини орттиришга қаратилган устувор йўналишларни белгилаш, шу билан бирга, жисмоний тарбия ва спорт соҳасида аҳоли соғлиғини мустаҳкамлашга кўмаклашадиган аниқ дастурларни амалиётга жорий этиш каби масалалар ўта муҳим ва долзарбдир [3].

Жамият ривожланишининг ҳозирги босқичида талаба – ёшларнинг соғлом турмуш тарзига эътибор қаратилмоқда, бу эса жамоатчиликни олий маълумотни тугатган мутахассисларнинг соғлиғи ва уларнинг касбий тайёргарлиги жараёнида касал бўлиб қолиш даражаси ошиши, кейинчалик иш қобилиятининг пасайиши билан боғлиқ [5].

Талаба-ёшларни жисмоний тарбия ва спорт воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантириш муаммоси ўз ечимини кутаётган муҳим масаладир. Ёшлар саломатлиги ҳолати миллат соғлом салоҳиятининг муҳим таркибий қисмидир, шунинг учун талабалар саломатлигини сақлаш ва ривожлантириш ва уларда соғлом турмуш тарзини маданиятини ривожлантириш бугунги кунда устувор аҳамиятга эга. Ёшлар саломатлиги ҳозирги жамиятда ижобий ечимини топиши зарур бўлган энг долзарб ижтимоий аҳамиятли муаммолардан бўлиб, мазкур муаммога эътиборсиз бўлиш, келажак авлод истиқболини қўлдан бой беришга тенг келади.

Глобаллашув жараёнида жамиятни модернизациялашнинг асосий шартларидан бири аҳолининг турмуш маданиятини ривожлантириш ва ижтимоий муҳитни соғломлаштиришдан иборат[4]

**Тадқиқотнинг мақсади.** Талаба – ёшларни соғлом турмуш тарзини шакллантириш, ривожлантиришга таъсир этувчи омилларни аниқлаш, жисмоний тарбия ва спорт воситасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, соғлиғини яхшилаш, соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришнинг педагогик шартлари ўрганилади ва тадқиқ этилади.

**Тадқиқот методлари.** Талаба – ёшларда соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришнинг умумий омилларини, педагогик восита сифатида жисмоний тарбия ва спорт машғулотларининг тарбиявий аҳамиятини назарий таҳлил қилиш ва адабиётларни ўрганиш тадқиқот усуллари қўлланилди.

Мавзуга оид мавжуд илмий манбааларни ўрганиш олий таълим “жисмоний маданият” таълим йўналишининг ўқув тарбиявий жараёнида ўтказилган кузатувлар асосида дарс ва дарсдан ташқари ўтказиладиган жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришнинг педагогик, технологик жараёнини ташкил этиш шарт – шароитлари аниқланди:

1. Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантириш ижтимоий, педагогик муаммо

сифатида тавсифланиб, соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришда Жисмоний тарбия ва спортнинг ўрни ва аҳамияти очиб берилади ҳамда олий таълим муассасаларида имкониятлари кўрсатиб берилади.

2.Ўқув жараёни, жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари жараёнида талабалар хулқ-атвор, одатлар, соғлом турмуш тарзини олиб бориш, соғлиғини сақлаш ва ривожлантиришга оид кўникмаларга асосланган билимларини такомиллаштириш.

3.Ўқув фаолиятига ўқув технологияларини жорий этиш, жисмоний тарбия назариясини ривожлантирувчи ва шахсга йўналтирилган таълимнинг педагогик назариялари билан уйғунлаштириш.

4.Талабаларни соғлом турмуш тарзини маданиятини ривожлантиришга йўналтирилган ноанъанавий ўқитиш усулларидан дарс ва дарсдан ташқари машғулотларида жорий этиш.

5. Талаба – ёшларни жисмоний тарбия ва спорт воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришнинг шакл, усул ва воситалари қўллаш орқали самарадорликка эришиш.

6.Талабаларда жисмоний тарбия ва спорт воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантириш жараёнининг самарадорлигини таъминловчи механизмларини амалда жорий этиш.

7. Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантириш орқали талабаларнинг даражасини кўрсатувчи мезонлар, унинг самадорлик даражаларини амалиётда жорий этиш.

Жисмоний тарбия инсоннинг умумий маданиятининг бир қисмидир. Жисмоний маданиятда инсон нафақат ўзининг табиий борлиғини, балки ўзи, атрофдаги дунё, табиат ва жамият билан уйғунлашишга интилиб, инсоният маданиятини ҳам эгаллайди.

Жамият ривожланишининг ҳозирги босқичида шахснинг жисмоний маданиятининг шаклланиши асосан жисмоний тайёргарликдан жисмоний соғлиқни сақлаш дастурларини амалга оширишга, шахснинг жисмоний ўзини такомиллаштириш ва психофизик фазилатлар ва хусусиятларнинг ривожланиш даражасининг ўзгаришига йўналтирилган, кўп қиррали ва шу билан бирга ажралмас жараёндир [5].

Соғлом турмуш маданиятини шакллантириш, инсон соғлигини мустаҳкамлаш, унинг жисмоний ва функсионал имкониятларини оширишда жисмоний тарбия ва спорт муҳим аҳамият касб этади. Инсон турмуш тарзи таркибида жисмоний фаолликка қонуний ва мажбурий эҳтиёж сезиши лозим. Соғлом турмуш тарзи, саломатликни мустаҳкамлаш жисмоний тарбия ва спорт билан мунтаъзам шуғулланишни тақозо этади. Зеро, талабаларни соғлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш, уларни жисмоний камолатга етишишида жисмоний тарбияга бўлган эҳтиёжини шакллантириш таълим муассасалари олдида турган муҳим вазифадир.

Шундай экан, оилий таълим муассасалари талабаларини жисмоний тарбия ва спорт воситасида соғлом турмуш маданиятини

ривожлантиришнинг муаммоси бўйича чуқур илмий тадқиқотлар ва изланишлар олиб боришга эҳтиёж мавжуд, айнан шу ҳолат мазкур тадқиқот ишининг долзарблигигни белгилаб беради.

Олий таълим муассасаси талабаларида соғлом турмуш тарзи маданияти бўйича мавжуд амалий аҳволни илмий ўрганиш ва ўзига хос бир неча хусусият борлигини кўрсатади.

Бугунги кунда техника тараққиётининг ривожланиб бораётганлиги, инсон иш фаолиятида бажарадиган ишларнинг ўрнини техника воситалари эгаллаётгани киши саломатлигини мустаҳкамлашда саълбий таъсир кўрсатмоқда. Шунигдек, замонавий ўқув жараёни кўпинча талабалар саломатлигини ёмонлашувига олиб келмоқда.

Талабаларда соғлом турмуш маданиятини ривожлантитиш масаласи жуда муҳимдир. Соғлом турмуш тарзи аввало оиладан бошланади. Ўқувчи – ёшлар ва талабаларда ёшлигидан бошлаб “Соғлом турмуш маданиятини” тушунчасини “Соғлом ҳаёт кечириш” ғоясини сингдириш асосий ва муҳим масала ҳисобланади.

Ўқув юртларида талаба – ёшларни соғлиғини ёмонлашувига олиб келадиган бир қанча омиллар , сабабларлар мавжуд. Масалан:

- кун тартибига тўғри риоя қилинмаслиги;
- жисмоний машқлар билан шуғулланмаслик, гигеник талабалар;
- чекиш, алкогол моддаларнинг тарқалиши;
- дам олиш ва бўш вақтларини, компютер заллари, кафеларда ўтказишга боғлашади;

Юқорида коўрсатиб ўтилган ҳолатлар талаба - ёшларнинг ўз вақтларини турли хилдаги бекорчилилик ишлар билан бандлиги билан ўтказиб, саломатлик ҳақидаги маданиятининг пастлигидан, уларнинг соғлиғига бепарволик билан муносабатда бўлганлигидан далолат беради. Шунинг учун бўлажак жисмоний маданият ўқувчиларини жисмоний тарбиялаш жараёнида, соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришда, дам олиш ва бўш вақтни ташкил қилишда, таълим даргохларида дарсдан ташқари миллий ва оммавий спорт тўгараклари фаолиятини тизимли, самарали ташкил қилиш соғлом турмуш маданиятини шакллантириш, ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади. Зеро, жисмоний тарбия ишига мотиватсион муносабатни шакллантириш талабаларга соғлиқни қадрият йўналиши сифатида эгаллашига қаратилиши зарур. Шунинг учун талаба-ёшларнинг соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришда жисмоний тарбия ва спорт асосий мақсади бўлиб, унинг вазифалари тананинг функтсионал, мослашувчан қобилиятларини ошириш, шахснинг жисмоний маданиятини ривожлантириш ва ўз-ўзини ривожлантиришга қаратилган шахсни тарбиялаш ва ривожлантиришдир. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки жисмоний тарбия ва спорт нафақат ўқув интизоми, балки талаба ёшларнинг соғлом турмуш маданиятини шакллантиришнинг энг муҳим таркибий қисми бўлиб жисмоний ва маънавий бирликни уйғунлаштиришга ёрдам беради, талабаларнинг саломатлиги, жисмоний ва

ақлий баркамоллиги каби умуминсоний қадриятларнинг шаклланишини таъминлайди.

**Хулоса.** Талаба – ёшларда жисмоний тарбия ва спорт орқали ақлий, ахлоқий ва жисмоний сифатларини ривожлантириш, спорт маҳоратини ошириш, саломатлигини мустаҳкамлаш, иш қобилиятларини яхшилаш, соғлом турмуш маданиятини ривожлантириш ва ва соғлом мухитни яратишнинг кўп қиррали жараёнида жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари аҳамияти ошиб бормоқда. Чунки жисмоний тарбия ва спорт инсонни ақлий - ахлоқий, маънавий комилликка, жисмоний баркамол бўлишида, таълим – тарбия жараёнининг самарали воситасидир.

**Адабиётлар рўйхати:**

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора – тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3031-сон қарори.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Кураш” миллий спорт турини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 2 октябрдаги ПҚ -3306 – сонли қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора – тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 24 январдаги ПФ -5924 – сонли фармони.

4.Жамолдинова О.Р. Соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришда узвийлик ва узлуксизлик тамойиллари амал қилишнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш: п.ф.н......диссер.афтореферати .Тошкент, 2015.

5.Мелешкова Н.А. Формирование здорового образа жизни студентов вуза в процессе физического воспитания: дис. … канд. пед. наук. Кемерово, 2005.

6.Степанок И.А.Развитие мотивации студентов университета к здоровому образу жизни средствами физической: дис. … канд. пед. наук. Магнитогорск, 2005.

7.Шукуров Р.С. Миллий кураш турлари ва уни ўқитиш методикаси (Турон кураши) ўкув – қўлланма. Бухоро, 2016.

## ТАЛАБАЛАР СОҒЛОМ ТУРМУШ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ (ТУРОН ЯККАКУРАШИ МИСОЛИДА)

**Б.Хамроев**

*БухДУ “Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари назарияси ва методикаси” мутахахассислиги*

*I курс магистранти*

**Р.С.Шукуров**

***Аннотация:*** Мақола мазмунида талаба-ёшларни Турон яккакураши спорт турига жалб этиш, уларда соғлом турмуш маданияти тушунчаларини сингдириш ва ривожлантиришда Турон яккакураши имкониятлари ва самарадорлик жиҳатлари ўрганилган, мақсадли педагогик жараённи ташкил этишнинг технологик шарт-шароитлари ҳавола этилган.

***Калит сўзлар:*** Турон яккакураши, соғлом турмуш маданияти, педагогик восита, технологик жараён.

**Долзарблик**. Жаҳонда глобаллашув даврида демократик нуқтаи – назардан янгиланаётган, ўзгараётган ҳаёт ёшларимизни ўзига хос синовлардан ўтказмоқда. Сабаби, жамиятнинг келажаги талаба ёшлар билан боғлиқ ва улар тараққиётининг асосий кучи ҳисобланади.

Мамлакатимизда барча соҳаларни модернизация қилиш ва янгилаш жараёнлари янги босқичда жадал олиб борилмоқда. Ўз навбатида ёшларимиз ҳам илм-фан ва бошқа соҳаларда эришаётган ютуқлари билан давлатимиз томонидан кўрсатилаётган ғамхўрликка муносиб жавоб бермоқдалар.Зеро, ёшларга доир олиб борилаётган давлат сиёсати бу борада мавжуд қонунчилик, янги қарорларнинг қабул қилиниши ва ислоҳотларнинг амалга оширилиши мустаҳкам кучли таянч бўлмоқда. Ёшларга таълим-тарбия бериш, уларни касбга йўналтириш ўз қизиқиши ва иқтидорига мос касб танлаши келажакда ўз соҳаси бўйича етук мутахассис бўлишига имкон беради. Айниқса олий таълим муассасалари талаба ёшларини рақобатбардор, компетентлик сифатларида мутахассис бўлиб тарбиялашда хизмат қилади.

Дунёда бугунги кунда халқаро илғор тажрибалар асосида олий таълим муассасаларида талаба ёшларнинг ҳар томонлама касбий маҳоратини ошириш, педагогик маҳоратини ривожлантириш, соғлигини мустаҳкамлаш, соғлом турмуш маданиятини шакллантириш каби масалалар долзарб муаммо сифатида эътироф этилмоқда. Зеро, ҳар томонлама етук, комил инсонни тарбиялаш жамиятимиз олдида турган долзарб масалалардан биридир.

Жисмоний тарбия ва спорт ёш авлод шахсининг жисмоний-ахлоқий, маънавий-ҳуқуқий сифатларирини ривожлантириш муаммоси миллий-тарихий илдизларга эга бўлган қудрат сифатида миллий урф-одатлар, анъаналар, қадриятлар ўз ифодасини топган. Ёшларимизни ҳам маънавий, жисмоний, ахлоқий жиҳатдан камолотга етказиш масаласи республикамизда устувор вазифа қилиб белгиланган. Чунончи, “Таълим тўғрисида" ги Қонун ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”, да ҳамда “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони, 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора – тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3031-сон Қарори, “Кураш” миллий спорт турини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 2 октябрдаги ПҚ -3306 – сонли Қарори, Шунингдек, Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири

“Ўзбекистоннинг миллий спорт турлари ва халқ ўйинларини ривожлантириш ҳамда оммалаштириш учун шарт-шароитлар яратиш” ҳисобланиб, юқорида кўрсатиб ўтилган вазифаларни бажариш заруратини янада кучайтиради.

Ривожланган кўпгина давлатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, миллий спорт турларини ривожлантириш халқ анъаналари ва қадриятларини сақлаб қолишга, аҳоли, айниқса ёшлар ўртасида соғлом турмуш маданиятини шакллантиришга, саломатликни муҳофаза қилишга хизмат қилмоқда.

Замонавий ўқув жараёни кўпинча талабалар соғлигини ёмонлашувига олиб келади. Сўнги пайтларда ўқитувчи, талабаларнинг соғлиги, бошқаларнинг соғлиги ва келажак авлод саломатлиги учун масъулиятли муносабатда тарбиялаш муаммосига чуқур қизиқиш билдиришгани бежиз эмас [5].

Турон яккакураши ҳам миллий қадриятларни сақлаб қолган ўзбек миллий спорт тури сифатида халқаро спорт майдонидан муносиб ўрин эгалламоқда. Таълим муассасаларида ўқувчи – ёшлар, талабаларнинг сони кундан – кунга ортиб бормоқда. Чунки кураш билан шуғулланиш жараёнида нафақат спорт маҳоратини оширибгина қолмасдан соғлигини мустаҳкамлаш, соғлом турмуш маданиятини шакллантиришда ўзига хос восита ҳисобланади.

Спорт тури орқали ақлий, ахлоқий ва жисмоний сифатларни ривожлантириш, саломатликни мустаҳкамлаш, иш қобилиятини ошириш, жамоада қулай соғлом муҳитни яратишнинг кўп қиррали жараёнида Турон яккакурашининг аҳамияти ортиб бораётганлиги кўзга ташланмоқда.Чунки Турон яккакураши халқимизнинг миллий, маънавий, жисмоний қадрияти ҳисобланади [7].

Бугунги кунда талаба-ёшларда соғлом турмуш маданиятини шакллантириш механизларини такомиллаштириш йўлида жисмоний тарбия ва спорт воситаларидан унумли фойдаланиш, самарадорлик жиҳатларини илмий-амалий татқиқ этиш муҳим вазифа саналади. Ушбу муаммонинг ечилиши олий таълим таълим тизими олдида ва умуман жамиятимиз олдида турган муҳим вазифани ҳал этишда назарий ва амалий асос бўлиб хизмат қилади.

**Тадқиқотнинг мақсади.** Талабаларда Турон яккакураши воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришнинг педагогик имкониятларии ҳолатини назарий тахлил этиш ва методик йўналишларини белгилаш.

**Тадқиқот методлари.** Талабаларда соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришнинг умумий омилларини, педагогик восита сифатида Турон яккакураши назарияси ва методикаси фанининг тарбиявий аҳамиятини назарий таҳлил қилиш ва адабиётларни (ҳуқуқий-меъёрий қонун ва қарорларни) ўрганиш тадқиқот усулари қўлланилди.

**Тадқиқот натижалари ва муҳокамаси.** Таълим муассасаларида ўқувчи –ёшлар, талабаларда соғлом турмуш тарзи тушунчаларини сингдириш, соғлом турмуш маданиятини, тафаккурини шакллантириш масалалари Н.АМелешкова(2005), Т.М.Кравченко (2004), Б.М.Зымасов (2006), Д.М.Сыбиков (2013), А.А.Папов (2011), И.ДЖ. Матчанов (2001), К.Содиқов

(2007), О.Жамолиддинова (2010), Д.Шарипова (2010), Ш.Х.Хонкелдиев (2010) лар томонидан ўрганилган.

Талабаларни Турон яккакураши спорт турига жалб этиш, уларда соғлом турмуш маданияти тушунчаларини сингдириш ва ривожлантиришда турон яккакураши имкониятлари ва самарадорлик жиҳатлари борасида илмий ишланмаларни етарли деб бўлмайди. Мавжуд манбаларда муаммонинг умумий томонлари ўрганилган.

Мавзуга доир мавжуд илмий манбаларни ўрганиш ва бир неча йиллик олий таълим “жисмоний маданият” таълим йўналишининг ўқув-тарбиявий жараёнда ўтказилган кузатувлар асосида талабаларини турон яккакураши воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришнинг технологик жараёнини ташкил этиш шарт-шароитлари аниқланди:

1.Турон яккакураши воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожалантириш ижтимоий, педагогик муаммо сифатида тавсифланиб, соғлом турмуш маданиятини шакллантиришда Турон яккакурашининг ўрни ва аҳамияти очиб берилади ҳамда олий таълим муассасаларида имкониятлари кўрсатиб берилади.

2.Талаба-ёшларни Турон яккакураши воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришнинг шакл, усул ва воситалари қўллаш орқали самарадорликка эришиш.

3.Талабаларда Турон яккакураши воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантириш жараённинг самарадорлигини таъминловчи механизмларини амалда жорий этиш.

4.Талабаларда Турон яккакураши воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантириш дастури мазмунидаги назарий ва амалий билим, кўникма, малакаларни шакллантириш.

5.Турон яккакураши воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантириш орқали талабаларнинг даражасини кўрсатувчи мезонлар, унинг самарадорлик даражаларини амалиётда жорий этиш.

Назарий ва амалий натижаларига асосан талабаларда Турон яккакураши воситасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришга хизмат қилувчи технологияларини такомиллаштириш ва амалда қўллаш.

Бугунги кунда соғлом туруш тарзи маданияти куникмаларини шакллантириш, унинг мазмун-мохиятини талабалар онгида чуқур сингдириш муҳим масаладир. Зеро, жамиятимизда инсон саломатлиги, жисмоний баркамоллиги, соғлом турмуш тарзи маданиятига эгалиги ўта муҳим ижтимоий қадрият ҳисобланади. Миллат саломатлигини таъминлаш, халқ генофондини бекаму-кўст сақлаш соғлом турмуш тарзи туфайлигина етарлича ижобий тарзда ҳал этилади. “Соғлом турмуш маданияти” тушунчасида “соғлом ҳаёт кечириш” ғояси асосий ва муҳим масала ҳисобланади. “Соғлом турмуш маданияти” тушунчаси кенг маънога эга бўлиб, у инсоннинг жисмоний, маънавий ва ахлоқий жиҳатдан соғлом ривожланишини қамраб олади [6].

Ўзбекистонда турон яккакураши хусусиятлари ва унинг бошқа миллий ҳамда халқаро кураш турлари билан боғлиқлиги ва аҳамияти, турон бўйича ихтисослашувчи спортчиларнинг умумий ва махсус жисмоний ишчанлик қобилиятининг педагогик, морфологик, физиологик хусусиятлари ўрганилган биринчи илмий тадқиқот иши ҳисобланади [4].

Соғлом турмуш тарзини маданиятини шакллантириш, инсон соғлигини мустаҳкамлаш, унинг жисмоний ва функционал имкониятларини ошириш жисмоний тарбия билан мунтазам шуғулланишни тақозо этади. Талабаларни соғлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш, уларнинг жисмоний камолатга етишишида жисмоний тарбияга бўлган эҳтиёжини шакллантириш таълим муассасалари олдида турган муҳим вазифадир. Шундай экан, олий таълим муассасалари талабаларини турон яккакураши восидасида соғлом турмуш маданиятини ривожлантириш муаммоси бўйича чуқур илмий тадқиқотлар ва изланишлар олиб боришга эҳтиёж мавжуд, айнан шу ҳолат мазкур тадқиқот ишининг долзарблигини белгилаб беради. Олий таълим муассасаси талабаларида соғлом турмуш тарзи маданияти бўйича мавжуд амалий аҳволни илмий ўрганиш ўзига хос бир нега хусусият борлигини кўрсатади.

Жисмоний маданият таълим йўналишининг гуруҳлари кесимида талабаларнинг билим, кўникма ва малакалари ўқитилаётган “Турон кураши ва уни ўқитиш методикаси” фани таркибида соғлом турмуш тарзи маданияти ғояларининг мавжудлиги, мавзуларининг ўтилишида саломатликни мустаҳкамлаш ғояларига эътибор ва диққатнинг мавжудлиги, назарий, амалий дарс машғулотларида ҳамда аудиториядан ташқари фаолиятни ташкил қилишда турон яккакураши спортининг нечоғлик соғлом турмуш тарзига маданиятига ижобий таъсир кўрсатувчи ғояларига эътибор қаратилганлиги масалалари ўрганилади.

**Хулоса.** Турон яккакураши спорт тури орқали ақлий, ахлоқий ва жисмоний сифатларни ривожлантириш, саломатликни мустаҳкамлаш, иш қобилиятини ошириш, соғлом турмуш маданиятини ривожлантирш ва соғлом муҳитни яратишнинг кўп қиррали жараёнида турон яккакураши аҳамиятини ортиб бораётганлиги кўзга ташланмоқда.Чунки халқимизнинг миллий, маънавий, жисмоний қадрияти ҳисобланади. Зеро, Турон яккакураши жанговарлиги, жозибадорлиги билан талаб ёшларни қизиқишини уйғота олган спорт тури ҳисобланади. Ушбу спорт тури билан шуғулланувчиларнинг ўзини тутиш маданиятини ўргатиши муҳим аҳамиятга эга бўлиб, тарбия жараёнида таълим-тарбия жараёнининг самарали воситасидир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1.2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора – тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3031-сон қарори.

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Кураш” миллий спорт турини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 2 октябрдаги ПҚ -3306 – сонли қарори.

4.Бобомуродов Н.Ш. Турон яккакурашчиларининг спорт такомиллашуви босқичидаги жисмоний тайёргарлиги хусусиятлари: пфб (PhD)......дисс. афторефарати.Чирчиқ, 2019.

5.Мелешкова Н.А. Формирование здорового образа жизни студентов вуза в процессе физического воспитания: дис. … канд. пед. наук. Кемерово, 2005.

6.Матчанов И. ДЖ. Мактабдан ташқари таълим муассасаларида ўсмирларнинг соғлом турмуш маданиятини шакллантириш: пед.ф......дисс. афторефарати.Тошкент, 2001.

7.Шукуров Р.С. Миллий кураш турлари ва уни ўқитиш методикаси (Турон кураши) ўқув – қўлланма. Бухоро, 2016.

## QISQA MASOFAGA YUGURUVCHI TALABA-QIZLARNI YILLIK TAYYORGARLIK MASHG’ULOTLARINI TUZILISHI

**M.J.Abdullaev**

*P.f.b.f.d.(PhD), dostent,,*

**J. J.Shoximov**,

*Buxoro davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti magistranti,*

.

Bugungi kunda yurtimizda Jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati darajasidagi ishlarning salmog’i juda katta ulishni tashkil etmoqda. Mustaqillikka 28 yil bo’lgan bo’lsa O’zbekiston sporti ham shu yo’lni bosib o’tdi. Bu davr ichida sportchilarimiz xalqaro maydonlarda juda ko’plab medallarni qo’lga kiritdi.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi hamda davlatimiz rahnamoligida jismoniy tarbiya va sportga katta e’tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, 2017 yil 3 iyun, Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son, 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli farmon va qarorlarida yurtimiz aholisini sog‘ligini mustahkamlash jismoniy tayyorgarligini oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga oid masalalarga e’tibor qaratilgan.

Jismoniy tarbiya orqali talabalarni sog‘ligini mustahkamlash, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish vatan himoyasiga va mehnatga bo‘lgan layoqatini kamol toptirishda yengil atletika sport turining o‘rni kattadir. Yengil atletika sport turi insonlarni har tomonlama jismoniy rivojlanishida asosiy sport turlaridan hisoblanadi. Talabalarni etuk, sog‘lom bo‘lib tarbiya topishida yengil atletikaning

yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va ko‘pkurash turlari orqali ularni jismoniy sifatlarini rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan yengil atletika darslarida talabalarni tezkorlik, kuch, chidamlilik sifatlarini rivojlanganlik darajasini oshirish darslardan olayotgan yuklamalarni organizmga bo‘lgan ta’sirini o‘rganish, yengil atletika darslarini samaradorligini ta’minlash tahlil jarayoniga yangi pedogogik texnologiyalarni ishlab chiqish vazifalari bugungi kunning dolzarb muommolaridan bo‘lib turibdi.

Albatta bugungi kunda yurtimizda xotin-qizlarni sog’lig’ini mustahkamlash, sog’lom turmush tarzini shakllantirish masalalari davlatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan siyosatning ustuvor vazifalaridan sanaladi.

Qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-qizlarni yillik mashg’ulotlarini tashkil etish va o’tkazish hali hamon o’z echimini topmagan masalalardan biridir.

Ishning maqsadi – qisqa masofaga yuguruvchi talaba-qizlarni yillik tayyorgarlik mashg’ulotlarini tuzishni o’rganish.

Bizga ma’lumki, qisqa masofalarga yuguruvchi qizlarning yilik tayyorgarlik mashg’ulotlari uch davrga bo’linadi: tayyorlov davri, taxminan 6 oy davom etadi; musobaqalashuv davri esa 4-5 oy davom etadi; o’tish davri 1-2 oyni o’z ichiga oladi.

Yillik mashg’ulotlar kuzgi, qishki, bahorgi, yozgi tayyorgarlik va musobaqalashuv davrlaridan iboratdir. Qisqa masofaga yuguruvchi qizlarning yillik mashg’ulotlari musobaqalar taqvim rejasiga asoslangan holda tayyorgarlik vazifalarini belgilaydi. Yillik tayyorgarlikni tayyorlov davrida tayyorgarligi bor qizlar bir haftada 5-6 mashg’ulotlarda ishtirok etadi. Yangi boshlovchi qizlar esa 3-4 mashg’ulotlar haftasiga o’tkaziladi. Bu tayyorgarlik mashg’ulotlarining musobaqalashuv davridagi sport muvaffaqiyatlari uchun ahamiyati juda kattadir.

Kuzgi-qishki (noyabr-dekabr) tayyorlov bosqichi, qishki musobaqalashuv bosqichi yanvarning 3-4 va fevral oyining 1-2 haftalariga to’g’ri keladi. Bahorgi tayyorlov bosqichi esa mart oyidan boshlab tayyorgarlikka e’tibor qaratiladi. Bahorgi musobaqalar aprel-may oylarida o’tkaziladi va mayning 3-4 haftasi hamda iyun oylarida tayyorgarlik mashg’ulotlarida talaba-qizlar ishtirok etadi.

Yozgi asosiy musobaqalar avgust oyining 3-4 va sentyabr oyining 1 haftasiga to’g’ri keladi. Sentyabr oyida tiklovchi mashg’ulotlar va reabilitastiya o’tkaziladi.

Kuzgi-qishki tayyorlov bosqichidagi mashg’ulotlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Har tomonlama jismoniy rivojlanishni yaxshilash.
2. Qisqa masofaga yuguruvchilar uchun kuch, tezkorlik va boshqa jismoniy sifatlarni rivojlantirish.
3. Axloqiy va irodaviy fazilatlarni tarbiyalash.
4. Qisqa masofaga yuguruvchi qizlarni funkstional tayyorgarligini oshirish.
5. Qisqa masofaga yuguruvchi qizlarda yugurish texnikasini takomillashtirish vazifalariga e’tibor qaratiladi.

Bahorgi tayyorlov bosqichining mashg’ulotlarining asosiy vazifalari quyidagilardan tashkil topadi:

1. Har tomonlama jismoniy rivojlanishni yaxshilash.
2. Qisqa masofaga yuguruvchi qizlarni jismoniy sifatlarini yanada rivojlantirish.
3. Qisqa masofaga yuguruvchi qizlarni yugurish texnikasini takomillashtirish.
4. Funkstional tayyorgarligi, irodaviy fazilatlari, psixologik tayyorgarliklarini oshirish.
5. Jismoniy tayyorgarligi, texnik-taktik tayyorgarligini maxsus mashqlar orqali rivojlantirish.

Sportchi qizlar tayyorlov davrining birinchi bosqichida o'tkazilgan nazorat musobaqalarida qatnashishlari mumkin. Ammo ularga alohida tayyorgarliksiz faqat mashg'ulotning maqsadidan kelib chiqib nazorat va chamalashlarda ishtirok etishadi.

Bahorgi tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlar ochiq havoda – anhor bo'ylarida, adirlikda, stadionlarda o'tkaziladi. Tayyorgarlik mashqlari ham shunga moslab tuziladi. Yozgi tayyorgarlik musobaqalashuv bosqichidagi mashg'ulotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Har tomonlama jismoniy rivojlanishi yurak qon-tomir tizimi, nafas olish tizimi va boshqa funkstional tizimlarning ish qobiliyatini oshirishdan iborat.
2. Qisqa masofaga yuguruvchilar uchun jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo'yicha mashqlardan foydalanish.
3. Axloqiy va irodaviy fazilatlarni yaxshilash.
4. Qisqa masofaga yuguruvchi qizlarning yugurish texnikasini takomillashtirish va musobaqalashuv tajribasini oshirishdan iboratdir.

Qisqa masofaga yuguruvchi talaba-qizlarni yillik mashg'ulotlarini tuzilishi quyidagicha rejalashtiriladi:

1. Yillik mashg'ulotlar soni – 258 tani tashkil etadi.
2. Yillik mashg'ulotlar – 516 soatni tashkil etadi.
3. Yillik yugurishning umumiy hajmi – 1700 km.ni tashkil etadi.
4. Yillik intensivlik 96-100%gacha bo'lgan yugurish hajmi 16,7 km.
5. Yillik intensivlik 91-95%gacha bo'lgan yugurish hajmi 222,8 km.
6. Yillik intensivlik 90%gacha bo'lgan yugurish hajmi 350 km.
7. Yillik yugurish mashqlari hajmi (krosslar, fartlek) – 1111 km.
8. Sakrash mashqlari, depsinishlar soni – 5200 marta.
9. Qo'shimcha og'irlashtirilgan mashqlar (tonna) – 103.
10. Umumiy jismoniy tayyorgarlik (soatda) – 339.
11. Musobaqalar soni – 14/32.
12. Nazariy tayyorgarlik soatlari – 12.
13. Nazorat o'tish sinovlari – 12 marta.
14. Tarbiyaviy ishlar soati – 25 marta.
15. Tibbiy ko'rikdan o'tish – 4 martani tashkil etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yuqorida keltirilgan mashg'ulot yuklamalar hajmi talaba-qizlarni musobaqalarga tayyorlashda asosiy omillardan hisoblanadi. Bu esa talaba-qizlar bilan o'tkazilgan mashg'ulot uslubiyatini samaradorligini

tahlil asosida aniqlashda va keyingi yillik mashg'ulotlarni rejalashtirishda amaliy dastur bo'lib xizmat qiladi.

**Адабиётлар рўйхати:**

1. Абдуллаев М.Ж. Ёш енгил атлетикачиларнинг машғулот самарадорлигини оширишда ҳаракатли ўйинларни қўллаш методикасини такомиллаштириш. Пед.фан.фал.док.(PhD), дисс. ....автореф.-Чирчиқ, 2019. – 63 б.;

2. Лях В.И. Тесты в физическом воспитании школьников. – Москва. АСТ, 1998. - 270 с.;

3. Никитушкин В.Г. Теория и методика юношеского спорта. – Москва, Физическая культура, 2010. – 203 с.,

4. Олимов М.С. Ўрта масофага югурувчи спортчи –талабаларни мусобақаларга тайёрлаш услубиёти. Пед.фан..ном. дисс. ....автореф.-Тошкент, 2011. – 29 б.;

5. Тажибаев С.С. Ёш боксчиларни тайёрлаш тизимида ҳаракатли ўйинларни қўллаш методикаси. Пед....фан....бўй...фал....док...[PhD] диссер... автореферати ,Т.: 2017, 52 бет.

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARI HARAKAT KO'NIKMALARINING SHAKLLANISHI

**A.K.Ibragimov**, *dostent,*
**B.B.Ma'murov**,
*Buxoro davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti magistranti,*

Mustaqillik sharofati tufayli millat genofondini shakllantirish, sog'lom turmush tarzini kuchaytirish va barkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo'lmish jismoniy tarbiya va sport borgan sari milliy istiqlol g'oyasining strategik quroliga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi va rahnamoligida ushbu soha qisqa vaqt ichida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari doirasida asrlarga teng o'zgarishlar va ulkan islohotlar yo'lini bosib o'tib, buyuk istiqbol sari qanot yozmoqda.

Respublikada aholining va o'sib kelayotgan yosh avlodning salomatligini mustahkamlashga qaratilgan bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. Buni tasdig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi hamda davlatimiz rahnamoligida jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, 2017 yil 3 iyun, Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son, 2018 yil 5 martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli farmon va qarorlarini misol keltirish mumkin (3).

Sog'lom avlod - sog'lom yurt demakdir. Sog'lom avlodni tarbiyalash vazifasi esa birinchi navbatda maktabgacha tarbiya muassasalari zimmasidadir [2].

Maktabgacha tarbiyani insonparvarlashtirish uni yangilash jarayonining asosi hisoblanadi. Olimlar, amaliyotchi mutaxassislarning tobora ko’proq qismi maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimi shaxsga majmuali, insoniy ta’sir o’tkazishi, har bir bolaning muntazam va imkon qadar to’la jismoniy rivojlanish huquqi amalga oshirilishini ta’minlashi kerak, degan xulosaga kelmoqdalar.

Bolalarni o’rab turgan muhit o’zgarib bormoqda. Oddiy, sodda o’yinlar o’rniga kompyuter o’yinlari kirib keldi. Bolani, aqliy, estetik rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda.

Ularni ahamiyatini inkor etmagan holda aytish kerakki, harakatli o’yinlar, sayrlar, tengdoshlari bilan muloqot qilishga bolaning vaqti tobora kamayib ketyapti. O’yin bilan bola faoliyatining boshqa turlari, o’yinlarning har xil turlari orasidagi muvozanatning buzilishi (harakatli va o’tirib o’ynaydigan, alohida va birgalikdagi) maktabgacha yoshdagi bolalar salomatligida ham, harakat qobiliyatlarining rivojlanish darajasida ham o’z salbiy aksini topadi (9,35,57).

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish muammolarini hal etishning yangi yo’llarini izlash, birinchidan, ko’rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o’sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va uslubiy sharoitlarini o’rganish zarurati bilan bog’liq.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi qiz bolalarda to’g’ri harakat ko’nikmalarining shakllanish jarayonlari ularni kelajakda kamol toptirish va maktabdagi o’qish yillarida takomillashtirish uchun zamin hisoblanadi. Bu qonuniy jarayonda uch bosqich farq qilinadi.

Birinchi bosqich - dastlabki ko’nikma hosil bo’lishi. U vaqt jihatdan qisqa bo’ladi. Bunda qiz bolalar yangi harakatlar bilan tanishadilar. Bu shakllanish bosh miya po’stlog’idagi qo’zg’alish jarayonining va ichki tormozlanishining etarli emasligi bilan harakterlanadi.

Shu bilan bog’liq ravishda qiz bolalarda harakatlarda ishonchsizlik, muskullarning umumiy tarangligi, ortiqcha harakatlar, fazo va vaqtni idroq qilishda noaniqliklar kuzatiladi. Bu keng yoyilgan qo’zg’alish irradastiyasi jarayoni natijasida kechib, harakat analizatorlarining boshqa markazlariga ham tarqaladi.

Ikkinchi bosqich - vaqt jihatdan uzoq davom etadi. U shartli refleksning ixtisoslashish jarayoni bilan ajralib turadi. Bu bosqich davomida qiz bolalarda takroriy mashqlar yo’sindagi ko’nikmaning rivojlanishi, o’rganilayotgan harakatning to’g’ri bajarilishi borgan sari yaxshilanadi. Bu ayrim harakat reflekslari va ularning butun bir sistemasini aniqlash darajasi bilan kechadi.

Ikkinchi bosqich kuzatish jarayonining tarqalishini chegaralovchi ichki differenstial tormozlanishning tobora rivojlanishi, ikkinchi signal sistemasi rolining oshishi bilan harakterlanadi. Buning natijasida bola vazifalar va o’z harakterlarini ongli tushunadigan bo’ladi. Biroq harakat ko’nikmalarning bu bosqichda hosil bo’lishi to’lqinsimon kechadi. Bu harakatlarning vaqt bilan yaxshilanishi yoki yomonlashuvida ifodalanadi.

Tadqiqotlar ko'rsatmoqdagi, umumiy taraqqiyot jarayonida harakat faoliyatining sifatidagi bunday tebranishlar ta'limning boshlanishida sodir bo'ladi.

Harakat malakalarining borgan sari sayqallashuvi va takomillashuviga qarab bosh miya po'stlog'ida bog'lanishlarning murakkab sistemasi-dinamik stereotip vujudga keladi.

Uchinchi bosqich - ko'nikmaning stabillashuvi, harakatning asosiy va variantiga muvofiq keladigan dinamik stereotipning mustahkamlanishidir. Bu bosqichga kelib bola ko'nikmalarni egallagan bo'ladi.

O'yin harakatlari erkin, tejamli, bemalol, ikkinchi signal sistemasining etakchiligida etarli aniq bo'ladi. Bola harakatni uning asosiy vazifasini tushungan holda mustaqil va ishonch bilan bajaradi, orttirgan ko'nikmasini real vaziyatlar (o'yin va hayotiy vaziyatlar) da ijodiy qo'llay oladi.

Bundan tashqari ko'nikma rivojlanishining mazkur bosqichda harakat texnikasining turli rivojlanishining mazkur bosqichida harakat texnikasining turli variantlariga muvofiq qo'shimcha harakat reakstiyalari ham xosil qilinadi.

Harakat ko'nikmalari o'zaro harakatda bo'lishi mumkin. Ko'chirish mexanizmi borasida orttirilgan ko'nikma yangi malaka va ko'nikmaning hosil bo'lishiga yordam berishi mumkin.

Bajariladigan u yoki bu harakat elementlari va strukturasining o'xshashligi, bajarishning anglab olingan umumiy prinstiplari ko'nikmani ko'chirishning zarur sharti hisoblanadi. Bunday hollarda bola o'zidagi tajriba va malakalarga tayanib yangi fazalari o'xshash bo'lishi (masalan gimnastikada) majburiy shartdir. Ko'rsatilgan ko'chirish ijobiy ko'chirish sifatida belgilanadi.

Ko'nikmalar o'xshashligi ularning tayyorgarlik bosqichi uchun harakterli bo'lgan,biroq keyingi va ayniqsa asosiy bosqichda farqli bo'lgan hollarda salbiy o'zaro harakat,salbiy ko'chirish yoki harakat aktini egallashga imkon bermaydigan ko'nikma interferenstiyasi vujudga kelishi mumkin.

Ko'nikmalar interferenstiyalarining sabablaridan biri keyinroq yangi ko'nikma yuzaga kelishida paydo bo'ladigan muffaqiyat bog'lanishlardan oldin hosil bo'lgan bog'lanishlarning mustahkamligidir.Bundan tashqari yangi harakatlarda eski narsalardan iborat har bir harakatning o'ziga xosligini farqlashga sabab bo'lishi mumkin.

Ko'nikma interferenstiyasining oldini olish va bartaraf etish uchun mashq bajarishning eski va yangi usullaridagi farqni aniq ko'rsatish, bajarish shartlari, ularni qarama-qarshi qo'yish zarur (masalan, uzunlikka sakrash va yugurib kelib balandlikka sakrash).Murakkab harakat aktlarini egallash jarayoniga tug'ma avtomatizmlar ta'sir etishi mumkin. Chunonchi, ko'nikma hosil qilishga yurish, yugurish va hokazolar harakatlarning tabiiy asosini tashkil etuvchi tug'ma qobiliyatlar ijobiy koordinastiyalar bilan ta'minlanadigan bu qulay sharoitni ham olish lozim.

**Адабиётлар рўйхати:**

1. Абдуллаев М.Ж. Ёш енгил атлетикачиларнинг машғулот самарадорлигини оширишда ҳаракатли ўйинларни қўллаш методикасини

такомиллаштириш. Пед.фан.фал.док.(PhD), дисс. ....автореф.-Чирчиқ, 2019. – 63 б.;

2. Тажибаев С.С. Ёш боксчиларни тайёрлаш тизимида ҳаракатли ўйинларни қўллаш методикаси. Пед....фан....бўй...фал....док...[PhD] диссер... автореферати ,Т.: 2017, 52 бет.

3. Усманходжаев Т.С., А.А.Пулатов, С.С.Тажибаев, Ф.А.Пулатов “Миллий ва ҳаракатли ўйинлар” Дарслик. Тошкент - 2018 й. 300 бет.;

4. Филин В.П. Воспитательная работа с юными спортсменами //Система подготовки спортивного резерва. - М.: ВНИИФК, 1994. - С. 57-90.; Система подготовки спортивного резерва/ Под общ. Ред. В.Г.

5. Фатеева Л.П. - 301 подвижных игр для младших школьников. Популярное пособие для родителей и педагогов. - Ярославль: Академия развития. 1998. - С. 4-5.;

## ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ТАЛАБАЛАРНИ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯЛАШДА ЭСТЕТИК ТАРБИЯНИНГ РОЛИ

**А.Н.Абдуллаев**
*БухДУ I босқич магистранти*

Жисмоний маданият ва эстетика ажралмас тушунчалардир. Эстетика жисмоний маданиятнинг барча таркибий қисмларини пухта қоплайди. Шундай экан, жисмоний маданиятнинг эстетик аспекти эътирозга ўрин қолдирмайди. Модомики, жисмоний маданият – шахс ижтимоий-тарихий амалиётининг натижаси экан, унинг тарихига назар ташлаш, жисмоний маданият эстетикаси ғояси, унинг энг муҳим компоненти бўлган – спортни, албатта, ижтимоий контекстда ривожлантиришга имкон беради. У ижтимоий ҳаётнинг шаклларидан бири, умумий маданиятнинг таркибий қисмидир. Шунингдек, у мамлакат фуқароларини соғломлаштириш, унинг ҳимоячиларини тайёрлаш воситаларидан биридир. Шуни унутмаслик керакки, жисмоний маданият халқ томонидан яратилган. Жамият ривожланишининг бошланғич давридаги ўйинли ҳаракатлар меҳнат тарбияси ва шу билан биргаликда жисмоний тарбиянинг муҳим воситаси бўлиб ҳисобланди. Қадимги вақтлардан буён спортнинг замонавий турлари кўп юз йилликлар давомида авайлаб сақланмоқда ва такомиллаштирилмоқда. Турнирлар, беллашувлар, мусобақалар, спорт байрамлари, олимпиадалар анъанавий тус олди. Снарядлар, спорт хоналари, майдончалар, стадионлар, спорт тадбирларининг сценарийлари ҳар доим ва ҳозирги кунда ҳам, ўз мамлакатининг миллий колорити, ўз даврига жавоб берадиган юксак эстетик дид билан ажралиб турадилар. Спортни эстетик баҳолашда қўлланиладиган қуйидаги атамаларнинг моҳиятига алоҳида тўхталиш лозим. Улар: гармония, шакл, ритм ва динамика, майинлик ва пластика, нозик ҳаракат, нафосат, вазминлик, зўр бериш, куч ва қудрат, тезлик ва таваккалчилик, аниқлик, вақт

ҳисси, техника, стратегия ва тактика, мусобақа – ғалаба, завқланиш ва бошқалар.

***Гармония*** (уйғунлик) – гавда эгилувчанлиги, қадди-қомат, ҳаракатланаётган жисмнинг гўзаллиги; қисмларнинг умуман олинган бирлиги, уйғунлиги ва мутаносиблиги, гармоник яхлитликни яратадиган бир бутун машқнинг айрим элементлари бирикмасидир. Масалан, гимнастикада – бу эстетик элементларнинг бирлашиши (секин, тез суръатда); бутун машқни ижро қилганда, кичкина элементларнинг ҳаракатнинг турли ритмлари билан бирлашишида намоён бўлади. Завқланишни келтириб чиқарувчи шакл – қиёфа; ташқи кўриниш, конфигурация, тузилиш, структура, яхлитлик ва бирлик; чиқишнинг композицияси ёки услуби; мақсадга – гўзалликка, нафосатга ва томошага оидликка эришиш услуби (масалан, бадиий гимнастикада): айниқса, майин чизиқлар мураккаб комбинацияга бирлашганида ўзига хос лаззат бағишлайди.

***Ифодали ҳаракатнинг ритми*** – шакли; ўз-ўзини ифодалаш услуби (рақсдаги каби); бир бутун чиқишнинг ажралмас белгиси; унга тугалланганлик, тўлиқлик ва бирликни бағишлайди; бу яна нақш зичлиги, тезлик вариацияси; гимнастикада – бир-бири кетидан борувчи, элементлар ва улар бирикмаларининг мутаносиблиги, изчиллиги; мусиқа кузатуви ритми билан ҳаракатларнинг мувофиқлиги.

***Динамика*** – сарфланган кучлар таъсиридаги ҳаракат; ҳаракатлар изчиллигидаги чизиқ ва шакл.

***Майинлик*** – ифодали ҳаракатнинг кўрсаткичи; нафосат, латофатни кўзлайди; шоирона ва эстетик маънога эга бўлади.

***Пластика*** (силлиқлик) – инсон танасининг тузилиши; бевосита томоша қилинади; эстетик туйғу, эстетик баҳони келтириб чиқаради; спортчилар ўзларининг хатти-ҳаракатлари билан томошабинларга ўз туйғуларини етказадилар; у ҳам динамикада, ва шунингдек, статикада намоён бўлади.

***Назокат*** – жозиба, латофат – ҳаракатлар кўркамлиги, гавда вазияти ва ҳолатида мужассамланган гўзалликнинг ранг-баранглиги.

***Латофат*** – қиёфалар, чизиқлар гўзаллиги, шаклнинг мутаносиблиги, сайқалланганлиги, ҳаракатларнинг нозиклиги, хушбичимлиги, латифлиги; спортда энг максимал кескинлик шароитларида латифликка интилиш (муз устидаги рақсларда, конькида учиш спортида).

***Вазминлик*** – психик вазминлик, спортчининг жисмоний имкониятлари; ўзи ва вазиятни бошқариш; мураккаб ўйин вазиятида вазминликни сақлаш маҳорати, айниқса, одатланмаган шароитларда; ҳаяжонлантирувчи ва чиройли манзарани яратади; ҳаттоки, ютқазаётган пайтда ҳамда низоли ва кутилмаган вазиятларда ҳам вазминликни сақлаш маҳорати – бу ҳам спортдаги гўзаллик элементи ҳисобланади.

***Зўр бериш*** – битта спортчи, бутун жамоа қувватининг сарфланиши (“жамоавий руҳ); вазн, ҳудуд, равонликни ҳисобга олган ҳолда ҳаракатни таҳлил қилишни талаб этади; албатта, динамик қобилиятларнинг ишга

солиниши зарур; бу зўр беришдан завқланиш эстетик қадрият сифатида ҳис этилади.

***Куч –*** гўзаллик; куч – қудрат – тезлик – хавф-хатар – аниқлик = спортдаги гўзалликнинг бошланғич тушунчалари ҳисобланади. Бунда куч – жисмоний имкониятлар; қудрат – куч ва тезликнинг маҳсули (қудрат гўзаллиги); тезлик – агарда у мукаммал бўлса, гўзаллик мезони сифатида; унда “мувозанатловчи элементларнинг” ажойиб таъсири мавжуд (конькида учиш: инсон ўз танасининг кучи ёрдамида ҳаракат қилади – бу улкан жозибаликдир. Спортчи ҳаракатларининг тезлиги артистларча моҳиронадир, аниқлик билан бирликда у, янада юқори баҳолашга арзийдиган, қўшимча гўзалликка эга бўлади; бу жараёнда томошабинни ҳис-ҳаяжон чулғаб олади.

***Тезлик ва таваккалчилик*** – назорат қилинаётган тезликда (масалан, тоғ-чанги спортида)ги чиқишлар чиройлидир; тезликнинг хавф-хатар, таҳлика билан боғлиқлиги; спортчи доимо кескинликда ҳаракат қилади, бироқ, томошабин буни кўрмайди ва шунинг учун “Аъло даражада!”, деб хитоб қилган ҳолда ғоят завқланади.

***Қудрат*** – вақт бирлигида бажариладиган иш (ҳаракат); спорт машқларида амалга оширилади; спортдаги баҳолаш мезони; спортда яхши мувозанатни сақлаш ёки мувозанатда туриш спортчини ғалабага чорлайди.

***Мувозанат*** – юқори малакали спортчининг белгиси; динамик куч (қайси-ки, буни гимнастлар яширишга ҳаракат қилишади); қудрат ва мувозанатнинг боғлиқлиги, нимага улкан жисмоний куч сарфланадиган, спортнинг кўпгина турларида ютуқни таъминлайдиган спортдаги яхши мувозанатланган қудратли шакл сирли гўзаллик бўлиб туюлади.

***Аниқлик*** – назорат билан биргаликдаги тўғрилик; вақтни сезиш ва ўз-ўзини бошқариш – энг юқори спорт даражасидадир.

***Назорат*** – спортчининг қурол-яроғлари ва ўзини тута билиши, ўз жиҳозларидан фойдаланиш маҳорати ва уларни ўзининг эстетик мукаммаллиги, деб ҳисоблаши, унга муваффақиятли ва чиройли натижа боғлиқ бўлган, ўз-ўзини ифодалаши билан алоқадор.

***Вақтни сезиш туйғуси*** – спорт эстетикасида ўз-ўзини бошқариш, ҳаракатлар синхронлиги билан боғлиқ; спортчининг маҳорати нақадар, баланд бўлса, шу қадар вақтни сезиш туйғуси кучли ривожланган бўлади (ўқ узиш, гольф, камондан ўқ узиш – баллистиканинг гўзаллиги).

***Ижро қилиш техникаси*** – спортчи чиқишларини баҳолаш учун муҳим мезон; бу нафақат, механик аниқлик, балки, ҳаракатларни қайтариш маҳорати – бадиийликни англаб олишнинг калитидир. Масалан, гимнастикада эстетик потенциал ўсиб боради.

***Техника*** – усуллар, ҳаракатлар рақибларнинг қаршилиги шароитларида амалга оширилади, шу сабабдан, уларнинг бажарилиши алоҳида мураккабдир.

***Ҳужум*** – унинг мақсади: рақибига ҳиссий мулоҳаза қилиш учун сония бўлакларини қолдириш; кутилмаганда юз берадиган вазиятдан завқланиш – эстетик мезонлардан биридир. Бу мукаммаллик лаҳзаси, яъни эстетика

демакдир; тажриба ва маҳоратнинг мавжудлигида ҳужум спортчи ва томошабинга завқ бағишлайди. Спортда мақсад ва унга эришиш куч-қудрат ва таваккалчиликни талаб этади. Энг асосийси – ишонч, аммо, у тажриба билан бирга келади.

***Тажриба*** – хавф-хатар даражасини тўғри баҳолаш қобилияти, ўз-ўзини назорат қилишдир. Шундагина спортчи чиқишининг тугалланганлиги кафолатланган бўлади. Бу эса томошабинга спорт эстетикаси, гўзаллигидан завқланиш ҳиссини бағишлайди. Спортнинг баъзи бир турларида эстетик таассуротнинг ошиб боришини шамол кучайтиради. Масалан, елканли қайиқ спорти, парашют спорти, планерда учиш спорти кабиларда. Ташқи таъсирланишларга жавобан, спортчи томонидан ўз ички қудратининг ҳис этилиши, унга атрофдаги вазият ва шароитни текширишга ёрдам беради. Бундай таъсирлар – зўр бериш орқали завқланишнинг яна бир карра намоён бўлишидир.

***Мудофаа*** – мудофаа ўйинидаги ижод – гўзаллик, амалий таъсирланиш кўринишида намоён бўлади.

***Стратегия*** – спортчи барча содир бўлаётган ҳодисаларни яхлит қамраб олаётган бўлса, топширилган ҳаракатни олдиндан топиб олса, амалга ошириш учун зарур бўлган элементларни ажратиб олса буларнинг барчаси стратегия ҳисобланади.

***Тактика*** – спорт спецификаси томонидан асослаб берилган маълум даражада ривожланган фикрлашни талаб қиладиган; таъсирчан характерга эга бўлган, фикрлаш тезлиги билан ажралиб турадиган, турли спорт ўйинларида ва яккама-якка олишувда муҳим бўлган, бир бутун ҳолдаги нарсага шаклланиб етилган (ўйиннинг) лаҳзалари – ўйиннинг эстетиклигини кучайтирадиган, олдиндан кутилган ҳақиқий стратегик санъатдир. Тактика – рақиб устидан ғалаба қозонишга қаратилган ўйинчилар ва жамоанинг индивидуал ва жамоавий ҳаракатларини ташқил қилади. Бу ҳар бир ўйинчининг ҳаракатларида юқори онг ва ижодий ташаббус билан ажралиб турадиган ҳаракатлар жамоавийлигига асосланган; фаол мустаҳкам ҳимоя билан қувватланган фаол ҳужумкор ҳаракатлар билан тавсифланади. Бу, ҳужум, мудофаа, рақибга қаршилик кўрсатиш, юксак маҳорат туфайли ғалабага эришиш демакдир. Тактика, айниқса, халқаро мусобақаларга тайёргарлик кўриш жараёнида узлуксиз равишда такомиллашиб боради**.**

***Мусобақа*** – бунда суръат ва ритм муҳим ўрин эгаллайди. Агарда ғолиб унга кучи тенг келадиган рақиб олдида устуворликка эга бўлганида – эстетик чўққиларга эришилади. Бирбирига муносиб бўлган рақибларнинг яккама-якка олишувидан келиб чиққан ҳолда, аста-секин ўсиб бораётган ва уларнинг биттаси учун ғалаба ёки мағлубиятга айлангунга қадар, чўққисига етгунича, ўйиннинг ўзи эстетик объект сифатида завқланиш ҳисси кўринишида – идрок этилади. Ўйиндаги кутилмаган воқеалар, усуллар, ўтишлар эътиборга молик ҳисобланади.

***Мусобақалашувчанлик*** – спортдаги гўзаллик ва устунликнинг кўпроқ аҳамиятли бўлган негизидир. Энг асосийси, спортчи ва спорт мусобақалари

ташкилотчилари спортнинг устунликка эришишда гўзаллик манбаси сифатидаги ролини асослаб билишларидадир.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш лозимки, спортда уйғунлик, тенг ҳуқуқда бўйсунганлик, пропорциявийлик, ранг-баранглик каби ҳолатлар спортчида алоҳида кескинликни келтириб чиқармайди, аммо, томошабин томонидан янада кўпроқ сезгирлик билан идрок этилади.

**Адабиётлар:**

1. Исраилов Д. Нравственная культура учителя. Тошкент.2001, 67 с

## УМУМТАЪЛИМ МАКТАБИ ЎҚУВЧИЛАРИНИЖИСМОНИЙ ТАРБИЯЛАШДА СПОРТ ТЎГАРАКЛАРИНИНГЎРНИ

**Ж.Ю.Жалолов**
*Жисмоний тарбия спорт машғулотлари назарияси ва методикаси йўналиши I босқич магистри*
**Ғ.М.Салимов**
*п.ф.н., доцент*

Жамиятимизда соғлом турмуш тарзини шакллантириш, аҳолининг, айниқса ёш авлоднинг жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан мунтазам шуғулланиши учун замон талабларига мос шарт-шароитлар яратиш, спорт мусобақалари орқали ёшларда ўз иродаси, кучи ва имкониятларига бўлган ишончни мустаҳкамлаш, мардлик ва ватанпарварлик, она Ватанга садоқат туйғуларини камол топтириш, шунингдек, ёшлар орасидан иқтидорли спортчиларни саралаб олиш ишларини тизимли ташкиллаштириш ҳамда жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантиришга йўналтирилган кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Бу борадаЎзбекистон Республикаси Президентининг “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғриси”да 2017 йил 6 июндаги қарори кўрастилганидек, юқори синф мактаб ўқувчилариниг жисмоний тарбия жараёни синфдан ташқари олиб бориладиган спорт тўгаракларинингмазмуни, ташкил қилинишини, ўқувчиларни жисмоний қобилиятларини ривожлантириш уларнинг спорт тўгаракларига танлаб олиш ва қизиқтиришдан иборат.

Спорт тўгараклари орқали аста-секинлик билан уларнинг жисмоний камолотга эришиши ва шу аснода ҳаётга, ижодиймеҳнатга ва ватан мудофаасига тайёрлаш назарда тутилади. Ўқувчилар жисмонийтарбияси жараёнида умумий ва хусусий вазифалар ҳал қилинади.

Умумий вазифалар – билим бериш, тарбиялаш ва соғломлаштиришга қаратилган бўлиб, бу ишларни амалга ошириш асосан жисмоний тарбиядан Давлат таълим стандарти дастуридагимахсус вазифалар тарзида ҳал қилинади.Мактаб жисмоний тарбия ўқитувчиларининг режалари асосида спорт тўгаракларининг вазифаларга қуйидагилар киради:

1) ўқувчилар соғлигини мустаҳкамлаш, ривожлантириш вачиниқтириш;

2) турли хилдаги меҳнат фаолиятига тайёр бўлиш учун шу ёшга хосбўлган жисмоний сифатларни ривожлантириш;

3) ҳаёт учун керакли ҳаракат малакалари ва кўникмаларини ривожлантириш вакейинчалик керак бўладиганлари билан қуроллантириш;

4) ўқувчиларга умумий ўрта таълим меъёрида жисмоний маданиятга оид

янги назарий билимларни бериш ва уларни йилдан йилга такомиллаштириш;

5) ўқувчиларни жисмоний машқлар билан мунтазам шуғулланишга

қизиқтириш ва уларда қатъий одатни шакллантириш;

6) ўқувчиларни жисмоний маданият фаоллари қилиб тарбиялаш ва бу билан

уларда ташкилотчилик қобилиятини тарбиялаш;

7) жисмоний тарбияни маънавий тарбиянинг элементлари: аҳлоқий, руҳий,

эстетик ва меҳнат тарбияси билан боғлаш, қадриятларимизга оид вазифалар биланбиргаликда ўқувчилар ёшининг улғайиши, жисмоний тайёргарлигининг ортишиниэътиборга олиб, ўқитишнинг айрим босқичларига аниқликлар киритиш ва бошқа қаторвазифаларга қаратилади.

Бу вазифалар маънавий тарбиянинг элементлари ҳисобланган ахлоқий руҳийэстетик ва меҳнат тарбияларининг вазифалари билан биргаликда ўқувчиларни ёшиниулғайиши, уларнинг жинси, жисманий тайёргарлигига қараб ўқитишнинг айрим этапларида аниқликларкиритилади ва мактаб ёшининг қуйидаги 3 хил гуруҳидаги таълим тарбия ишларида ҳалқилинади.

Мактаб ўқувчиларининг  6 (7), (10) 11 ёшларида (1-4 синфлар) ўқувчиларорганизми табиий ривожланишида бўлади. Биз унинг гармоник ривожланишини йўлгақўйишимиз керак бўлади. Марказий нерв тизимидаги бошқариш функцияси,ҳаракат таянч аппарати фаолияти ишини, юрак-томир, нафас олиш органлари ишиниянада ривожлантиришга эътибор берилади, булардан ташқари қоматни тўгри тутабилишга ўргатилади. Бу жараёнга шахсий гигиена қоидаларига оид билимлар қўшибберииш билан тарбия жараёни йўлга қўйилади (9,11). 12-15 ёшлиларда (5-9 синфлар)жисмоний машқлар ўсаётган ёш организмга самарали таъсир кўрсатади. Шунингучун жисмоний қобилиятларни ривожланишига қулай имкониятларга эга бўлишга эришамиз.

Жисмоний тарбиянинг жисмоний билимлар бериш вазифаси ҳаётда учрайдиганҳаракат малакаларини рационал техникаси билан таништириш (гимнастика, енгилатлетика, спорт ўйинлари, велосипедда юриш)га оид оз бўлса ҳам назарий тушунчаберишдир. Бу даврда болаларни «Алпомиш» ва «Барчиной» махсус тестинингталаблари ва нормаларини топширишга тайёрлаш кўзда тутилади. Жисмониймашқлар билан шуғулланиш натижасида спорт маҳоратини ошаётганлигини, жисмониймаданиятни жамиятдаги роли ва аҳамиятини тушунтириш онгига сингдиришга эришиш мумкин.

Аста-секинлик билан ташкилотчилик қобилияти такомиллашади, мусобақақоидалари ўзлаштирилади, ҳакамлик қилиш малакалари ривожлантирилади ва чиниқтиришмақсадида табиатнинг соғломлаштирувчи кучларидан фойдаланишга ўргатишлозим. 15-17 ёшдаги умумтаълим мактаби ўқувчилари организми ёши улғайган сари жисмоний қобилиятлариўсиб ва ошиб боради.

Жисмонийтарбия тўгаракларидаизчил шуғулланиш таълим тизимининг шу ёшдагиларида ишқобилиятини яхшилаш, асосий ҳаракат фаолиятлари учун чидамлилик заҳираларинииошириш, ўз танасини бошқара олиш, куч, тезкорлик, чаққонлик ва бошқа ҳартомонлама жисмонан гармоник тарбия аломатларини чуқурлаштиришга эътиборниқаратиш лозим.

Организм ўсиб борар экан, унинг функционал имкониятларини ошиб бориши ҳамтабиий. Олдин эгалланган ҳаракат малакалари заҳираси базасида янги, кейинэгалланиши лозим бўлган ҳаракат малакалари учун пойдевор яратилади. Буёшдагиларда уларнинг жисмоний маданият соҳасидаги билимларни бойитиш, спорттренировкаси асослари, спортчини ўз-ўзини назорат қилиши қоидаларига ўргатишмақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Ўқувчилар жисмоний тарбияси ва спорт тўгараклари уларнинг жисмоний ҳаракатларини амалгаоширишнинг ташкил этилган педагогик жараёнидир. Мактабдаги жисмоний тарбиягаоид ишлар ўқувчилардан ҳаваскорликни, ташаббускорликни, уюшқоқликни талабқиладиган жуда хилма-хил шалклари билан фарқ қилади. Улар ўқувчилардаташкилотчилик кўникмалари, фаоллик, топқирликни тарбиялашга ёрдам беради.

## BOSHLANG`ICH SINFLARDA JISMONIY SOG`LOMLASHTIRUVCHI TADBIRLARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

**Sh.Dj.Abdullayev**
*p. f. n., dotsent*,
**D.Sadriddinova**
*BuxDu magistranti*

*Hozirgi texnikaning rivojlanishi islohotlar o'zgarishi, zamon talabiga binoan har bir odam o'z bilimlarini mustaqil boyitishga ega bo'lishlari kerak. Bunday ko'nikma, malakalarni eng kichik yoshdan boshlash lozim. Shu boisdan kichkintoy bolalarning salomatligi, jismonan tayyorgarligi, o'qishga bo'lgan ehtiyoji, uning dunyoqarashi va boshqalar jismoniy tarbiya mutaxassisining ish mahoratiga bog'liq. Shulardan biri bolalar o`quv kun tartibini har xil harakatlar bilan boyitish. Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida o'quv kun tartibidagi jismoniy sog'lomlashtirish tadbirlarida samarali uslublardan foydalanib ularning pedagogik ahamiyatini ilmiy asoslarga tayangan holda yaratishga harakat qildik.*

O'zbekiston jismoniy tarbiya tizimida sport o'quvchilarning har tomonlama jismoniy tarbiyasining asosiy vosita va metodlari sifatida qaraladi.

Boshlangich maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasida ham sport katta o'rinni egallaydi. Sport jismoniy tarbiya vositasi sifatida bolalarning sog'ligini mustahkamlash uchun katta imkoniyatlarga egadir. To'g'ri tashkil etilgan sport mashg'ulotlari markaziy nerv tizimini takomillashtirishga, o'pka, yurak tomiri tizimining ishlarini yaxshilashga, muskul hajmining, qon tarkibining, modda almashuvining yaxshilanishiga imkon yaratadi. Sport bilan shug'ullanish jarayonida tarbiyaviy masalalarning bir qatorini va eng avvalo ijobiy axloqiy va irodalilikni tarbiyalashni hal etish uchun sharoitlar yaratiladi.

Uzluksiz ta’lim jarayonida jismoniy tarbiya mustaqil sohalardan hisoblanadi. Bu borada umumta’lim maktablarining boshlang’ich sinflarda jismoniy tarbiyani o’qitish muhim ahamiyatga ega.

Yosh bolalarning o’z erki va mustaqil ravishda turli xil amaliy harakatlar bilan shug’ullanishi natijasida jismoniy tarbiya darslarida egallagan ko’nikmalarini davom ettirib, ularni yaxshi o’zlashtirib va eng muhimi esa jismoniy tayyorgarlik darajalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu jarayonlar sinfdan va darsdan tashqari tashkil etiladigan hamda oila sharoitidagi mustaqil jismoniy tarbiya tadbirlarida amalga oshiriladi. O’zbekistonning iqlim sharoiti bunday tadbirlarni o’tkazish uchun juda qulay, hatto qish faslida ham havo ochiq va iliq yog’ingarchiliklar kamroq bo’ladi. Shu sababdan, darsgacha bo’lgan sog’lomlashtirish gimnastika mashqlarini doimiy ravishda ochiq havoda o’tkazish lozim bo’ladi.

Yog’ingarchilik uzluksiz davom etgan kunlar yoki sovuq paytlar mashqlarni yopiq joylarda va sinf xonalarida ixchamlashgan holatda o’tkazish tavsiya etiladi.

Darsgacha o’tkaziladigan sog’lomlashtirish gimnastika mashqlarini o’tkazish faqat ertalabki uyqu, chigallarni yozishgagina qaratilib qolinmasdan, balki uning negizida tashkiliy-tarbiyaviy jihatlar ham mavjuddir, ya’ni o’quvchilarning o’z vaqtida maktabga yetib kelishi, tartib-intizomga bo’ysunishi va darslarda diqqat-e’tibor hamda chidam bilan o’tirishlariga ham sabab bo’ladi. Jismoniy sog`lomlashtiruvchi tadbirlarning va o’yin-mashqlarning turlari, shakl va mazmunlari hamda maqsad va vazifalari boshlang’ich sinflarda o’z erkinligi bilan turli xil faol harakatlarni bajarishga o’rgatish bilan darslardagi toliqish, zerikish kabi holatlarga barham berishga erishiladi.

Sog`lamlashtirish tadbirlarining shakllari quyidagilardan iborat:

1) An’anaviy sport tadbirlari nboshlang`ich sinflarda milliy an’anaga aylangan butun fuqoralar, qatnashadigan sport bayramidir. Yangi yilga bag`ishlab o`tkaziladigan sport tadbirlari; 8 –mart xotin – qizlar kuniga bag`ishlangan sport tadbiri; 21 – mart “Navro`z” bayramiga atab o`tkaziladigan sport tadbiri va boshqalar.

2) Noan’anaviy tadbirlar, yil davomida olib boriladigan ta’lim muassasasining yillik kalendar rejasi asosida o`tkaziladigan tadbirlar.

3) Kun rejmida tashkil qilinib o`tkaziladigan sog`lamlashtirish tadbirlariga, ertalabki badantarbiya, chiniqtirish, mashg`ulotgacha bo`lgan gimnastika, katta tanaffusdagi o`yinlar, kun uzaytirilgan soatlar kiradi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida amalda xizmat qilayotgan o'qituvchilar va ayniqsa bu sohadagi talabalar maktab sharoitidagi katta tanaffuslarda tashkil etilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy jarayonlarning hozirgi davr talabi asosida barcha tur hamda shakllari, mazmunlari, ularning jamiyati haqidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lmog'i lozim. Bu jarayonlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloq-odob tarbiyasi va jismoniy tayyorgarlik darajalarini oshirishda asosiy omillardan ekanligini chuqur bilishlari lozim.

1-2 va 3-4 sinf o'quvchilaridan tashkil topgan guruhlarda sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi. Bunda har tomonlama muhim ahamiyatga ega bo'lgan «Sport soati» yosh bolalarning jismoniy tayyorgarligini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu yo'lda jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'qituvchilar bilan o'zaro hamkorligi zarur bo'ladi.

Jismoniy tarbiyaning ahamiyati, uning qiymati bolalar salomatligi bilan chambarchas bog'liq hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligini oshiruvchi vosita sifatida ko'riladi. Jismoniy tarbiya darslaridan tashqari o'tkaziladigan sport tadbirlari va bayramlar o'quvchilarning harakat faolligini oshiradi, bolalar organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda ularning yetarlicha dam olishiga imkoniyat yaratadi.

Kun tartibidagi jismoniy sog'lomlashtirish tadbirlari: mashg'ulotgacha o'tkaziladigan gimnastika, 8–10 daqiqa va 5–6 ta oddiy mashqlardan iborat bo'ladi; umumta'lim darslarida «quvnoq daqiqalar», o'tilayotgan fanlarning mavzusiga hamda o'quvchilarning charchash holatlarining belgilariga qarab, 2-3 ta jismoniy mashqlardan iborat bo'ladi; katta tanaffuslarda o'yinlar va kuni uzaytirilgan guruhlarda «sport soatlari», bolalarning yoshiga, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi hamda sport asbob-anjomlarini hisobga olgan holda tashkil qilinadi.

Quvnoq daqiqalar bir yoki bir necha darslarda o`tkaziladi. Quvnoq daqiqalar uchun mo`ljallangan mashqlarni o`quvchilar partada o`tirgan holda, parta yonida turib, she`rxonlik bilan bajaradilar.

Quvnoq daqiqalar o`tkazishda har bir bolaning jismoniy sog`lomligi, uning imkoniyatlari albatta hisobga olinadi. Chunki hamma o`quvchilarda charchash alomatlari bir vaqtda sodir bo`lavermaydi. Shuning uchun aksariyat bolalarning betoqat bo`la boshlashiga qarab, quvnoq qaqiqalarni davom ettirish yoki to`xtatish mumkin.

Mazkur komplekslar 3-4marta takrorlanganidan keyin o`quvchilar ularni mustaqil ravishda bajaraveradilar. Buning uchun o`qituvchining "Birinchi mashqni bajarasiz", "Ikkinchi, uchunchi mashqlarga o`tasiz" deb buyruq berishining o`zi kifoya. Jismoniy tarbiya mashq komplekslari bajarib bo`lingach, o`qituvchi qisqa vaqt ichida o`quvchilarni tinchlantiradi, bolalar diqqatini yana darsga jalb qiladi va darsni davom ettiradi.

Quvnoq daqiqalarni she`rxonlik yo`li bilan o`tkazilsa, bolalar ham dam oladi, ham bilimi boyiydi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tashkil etiladigan turli shakl, mazmun hamda maqsad va vazifalardagi sport musobaqalari yosh bolalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, jismoniy barkamollikni shakllantirishga qaratilishi bilan bir qatorda ularning sport turlariga qiziqishini oshirish, jismoniy tarbiya va sportning inson faoliyati uchun ahamiyati, ijtimoiy madaniy, ta'lim-tarbiya va boshqa sohalardagi o'rnini ongli ravishda tushunishga yetaklaydi.

Ta'lim muassasasida olib boriladigan jismoniy tarbiyaning sog`lomlashtirish ishlaridan jismoniy tarbiya darslari, sport to`garaklaridagi mashg`ulotlar, sport musobaqalari va sport bayramlari hamda ommaviy tashkil etiladigan turizm mashg`ulotlarini kiritish mumkin.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yosh avlodni sog'lomlashtirish muammolarini har tomonlama hal qilish to`g'risida» gi Qarori. 1993.
2. Xo'jayev F., Usmonxo'jayev T. «Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari», darslik, T., «O'qituvchi», 1996 y
3. www.sport-athlet.com
4. www.eurosport.ru/athletics

## YURTIMIZ KELAJAGI YO'LIDA BIRGALASHAYLIK, TOKI BIZ YOSHLAR KELAJAKDA VATAN RAVNAQI UCHUN BIRGABO'LISHIMIZ DAXLLIDIR

**O.У.Aminjonov**
*BuxDU, Harbiy ta'lim fakulteti, 1-bosqich talabasi*
**Y.Z.Abdullayev**
*BuxDU dotsenti*

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmokda.

Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urugchilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to'g'risida uylashimiz lozim.

O'zbek nomini, o'zbek ilm-fani va madaniyatini, bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yuksak salohiyatini, uning qanday buyuk ishlarga qodir ekanini

dunyoga namoyish qilishda yurtimiz zaminidan etishib chiqqan yuzlab ulug‘ zotlar fidoyilik namunalarini kursatib kelgan.

Bugun biz tarixiy bir davrda - xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz o‘z taqdirimizni o‘z qo‘limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo‘lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to‘g‘ri tushunib, tanlagan taraqqiyot yo‘limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo‘llab-quvvatlayotgani oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o‘zi tasdiqlamoqda.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

El-yurtimiz o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida bunday mash’um xatarlarni necha bor ko‘rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma’naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o‘tmish, bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘limiz barchamizga saboq bo‘lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo‘lib yashashga da’vat etishi lozim. O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko‘p bora o‘z isbotini topgan.

Ma’lumki, biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliy ma’naviyatni rivojlantirishga mutlaqo yo‘l qo‘yilmagan. Aksincha, xalqimizning tabiati, yashash tarziga yot bo‘lgan kommunistik mafkurani har qanday yo‘llar va zo‘ravonlik bilan joriy etishga harakat qilingan. Shuning uchun ham istiqlolning dastlabki kunlaridanoq bu sohadagi ahvolni tubdan o‘zgartirish yurtimizda eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi.

Bunday tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg‘ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir. Bunday holatlarga duch kelganda, umrida mamlakatimizga qadam qo‘ymagan, O‘zbekistonni hatto xaritadan ham ko‘rsatib

berolmaydigan, lekin oʻzini mutlaq haqiqatning yagona ifodachisi deb hisoblaydigan kimsalarning engil-elpi fikrlarini eshitganda, ularga qarata beixtiyor, e, baraka topkur, oldin yurtimizga bir kelib koʻring, tariximiz, ma’naviyatimiz, hayot tarzimiz bilan tanishib, undan keyin gapiring, deb aytgingiz keladi.

Oʻqituvchi va talabalari orasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish hamda ularning huquqiy tarbiyasi yuzasidan chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga alohida e’tibor qaratilayotilganligi maqsadga muvofiqdir. Oʻzbekiston Respublikasi qonunlarida boʻlib oʻtgan oʻzgarishlar fakultet yoshlari orasida huquqni muhofaza qilish idoralari vakillari ishtirokida koʻrib chiqilishi hamda dunyoda va mamlakatimizda boʻlayotgan oʻzgarishlar hamda viloyat hokimi va viloyat prokurori ishtirokida boʻlib oʻtgan karrupsiyaga qarshi kurash mavzusidagi uchrashuvlar ayni damda zarur va maqsadga muvofiqdir. Haqiqat va xolislikdan yiroq boʻlgan, faqat gʻarazli siyosiy manfaatlarni koʻzlaydigan bunday qarashlar hech kimga naf keltirmaydi va hechkimning obroʻsiga obroʻ qoʻshmaydi, albatta. Agarki biz bunday xatarlarga qarshi oʻz vaqtida qat’iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni oʻz girdobiga tortib ketishini, oqibatda ularning ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas’uliyatini oʻylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdagi har bir inson, har qaysi ota-ona, eng muhimi, har qaysi talaba chuqur anglab olishini istardim.

Mamlakatning ijtimoiy hayotida faol qatnashayotgan yoshlarimizning kelajagi ravnaq topishi maqsadida ma’naviy–ma’rifiy tadbirlar olib borilishi, yoshlarimiz oʻrtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, turli nopok yoʻllarga kirib ketishlaridan saqlash maqsadida, shuningdek, xavfsizlikni ta’minlash va norozilik kayfiyatini keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi hamda oʻquv ishlarini rivojlantirish, davomatni 100 foizga chiqarish, talabalar oʻz vazifalarini yoddan bilishlarini tashkillashtirish haqida gapirib soʻzimni tugataman.

Xulosa qilib aytganda, bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli gʻoyalar hamda mafkuralar ta’siridan saqlash, himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Gʻoyat muhim va hal qiluvchi masalalar oʻrtaga qoʻyilgan karrupsiya masalasi mamlakatimizdagi umumta’lim maktablarning yuqori sinflarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida tahsil olayotgan oʻquvchilar, oliy oʻquv yurtlarining talabalari, olim va tadqiqotchilar, oʻqituvchilar, ijodkor ziyolilar, keng jamoatchilik vakillari, umuman, ma’naviyat va ma’rifat dunyosi bilan qiziqadigan barcha insonlarni bu narsalardan ogoh etishimiz zarur deb oʻylayman.

**Adabiyotlar:**


1. 1.Sh.Mirziyoyev. «Tanqidiy tahlil qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak». // Toshkent. O’zbekiston. 2017 y.
2. 2.Sh.Mirziyoevning 2017 yil 20-maydagi «2017-2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati sayyohlik salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2980-sonli qaror qabul qilindi. // Xalq so'zi ro'znomasi. Toshkent. 2017 y. May.
3. Ma'rifat targ'ibotchilar jamiyati. // “Xalq so'zi” nashriyoti. Toshkent. 2019 y. Iyun.
4. Milliy g’oya - bizning g’oyamiz. // “Xalq so'zi” nashriyoti. Toshkent. 2019 y. Avgust.
5. http://www.xs.uz

***Иқтидорли талабалар***

# IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYAT JARAYONLARIDA KAMBAG‘ALLIKDAN QUTILISH: MUAMMO VA YECHIM

**D. Xamidov,**
*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti*
*“Ijtimoiy-madaniy faoliyat” ta’lim yo‘nalishi II bosqich talabasi*
*Ilmiy rahbar:* **H.Ismoilov**
*O‘zDSMI “Tillar va adabiyot” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Bugungi jamiyatda qashshoqlik muammosi-ijtimoiy muammolar orasidan eng dolzarbi hisoblanadi. Bu turli xil sabab va holatlardan kelib chiqqan bir murakkab hodisadir. Uning o‘rni madaniyat, iqtisodiyot, psixologiya bilan milliy mintalitet sifatida jamiyat orasida “kambag‘allik” atamasini yuzaga keltiradi. Ijtimoiy tabaqalanish yaqindan qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlik mavjudligi bilan bog‘liq jarayondir. Shuning uchun ham har bir mamlakatning taraqqiy etishida eng dolzarb muammo aholi o‘rtasida qashshoqlik darajasini iloji boricha yo‘qotish va uning ko‘rsatkichini pasaytirish eng muhim vazifalardandir.*

Dunyoda yashovchi barcha insonlarning orzusi to’la to’kis hayotda hech qanday kamchiliksiz yashab baxtli bo’lishdir. Albatta bu orzularga o’z o’zidan erishib bo’lmasligi barchamizga ma’lum. Bularning ortida faqat va faqat mehnat, harakat va intilish yotadi. Bugun dunyo jamiyatida eng dolzarb va global mavzuga aylanib borayotgan muammo bu insonlarning hali ham kambag’allik asoratidan quta olmayotganligidir. Shu o’rinda bir savol tug’ilishi tabiiy, nega odamlar qancha ko’p harakat qilishlariga qaramay bari bir hayotlarini kambag’al inson sifatida davom ettirishadi? Buning asosiy sababi nimada? Qadimiy bitiklarda “Kambag’al bo’lib dunyoga kelganing emas, kambag’al bo’lib dunyoni tark etganing sening aybingdir” deb aytiladi. Ushbu fikr haqiqatdanham insonlarni bu muammodan qutilishlari uchun o’rinli aytilgan hayot bitigi hisoblanadi. Yuqorida biz sizga aytib o’tgan fikrimizda nima uchun odamlar o’z orzulari uchun qanchalar harakat qilishmasin oxir-oqibat o’sha kambag’allik ahvollarida qolib ketishlari xususida fikr-mulohaza bildirib o’tgan edik, lekin bu savolga javob topa olmagandik. Keling ushbu savolga javob izlab ko’ramiz ? Hayotning biz bilmagan ko’plab qonunlari borki, gohida biz unga amal qilamiz deb aslida unga qarshi chiqib qo’yganimizni o’zimiz ham bilmay qolamiz. Misol uchun ko’pchiligimiz moddiyat insonni o’zgartiradi, uni insoniylik pog’onasidan manman, befarq, johil insonga aylantirib qo’yadi deb o’ylaymiz. Ko’pchiligimiz esa, boylikdan o’zimizni uzoqroq tutishga harakat qilamiz hattoki badavlat insonlarni ko’rganimizda ularga xasadimiz kelib ichimizdan allanechuk tuyg’ular o’tib ularni o’zimizdan

yiroqlashtirishga harakat qilamiz. Ba’zan esa boylikni halol yo’l bilan to’plab bo’lmaydi u faqat qing’ir-qiyshiq yo’llar orqali topiladi deb ham o’ylaymiz va farzandlarimizga xuddi shunday tarbiya ham beramiz. Qiziq? O’zimiz uni yomon ko’rsakda, lekin uni o’zimizda bo’lishini, hayotimiz ham xuddi badavlat insonlar hayotidek bo’lishini xohlaymiz. Yaxshilab bir oqilona o’ylab ko’rsak bu o’zimiz orzu qilgan hayotni o’zimiz inkor etishimizga misol bo’lmasmikan.

Hozirgi vaqtda dunyoning eng kambag’al hisoblangan aholi koeffisienti Afrika qit’asida joylashgan mamlakatlar hisobiga to’g’ri keladi. Lekin tadqiqotlar jaroyini esa bu yerda yashovchi xalqlarning mehnatkash, hayotda tinim bilmaydigan insonlar ekanligini tasdiqlaydi. Men nafaqat bu xalqlarni balki boylikni, go’zal hayotni orzu qilib lekin unga erisha olmagan insonlar hayotini quyidagicha tahlil qilaman: “Ularning bu maqsadlariga hamon erisha olmayotganliklarining birinchi sababi deb, o’zlarining kelajaklariga o’zlarining fikrlari orqali qarshi chiqishlarini misol qilib keltirsam, ikkinchi asosiy sabab deb, ularda shaxsiy hayot proggrammasi yo’qligi deb bilaman. Bundan tashqari bu maqsadlari yo’lida yetarli darajada harakat qilamaganliklari ham bu fikrimning tasdig’i bo’la oladi ”.

Bundan tashqari har bir insonni aynan kambag‘allik darajasiga olib kelib qo‘yadigan va hayotiga ta’sir etadigan ijtimoiy tashqi omillar ham anchagina hisoblanadi. Xalqaro iqtisodchilar bu omillarni mamlakatda qashshoqlik keltirib chiqaradigan asosiy sabalar sifatida keltirib o‘tishadi:[1b-84.]

- siyosiy;
- tibbiy, ijtimoiy (nogironlik, qarilik);
- pul (devalvatsiyasi, inqiroz, kam ish haqi);
- geografik (noqulay tizmalari, rivolanmagan hududlar);
- demografik (bitta ota-ona oila yuqori foiz);
- shaxs (alkogolizm, giyohvandlik, qimor);
- saralash (yaratish yetishmovchiligi).

Yana bir hayotning buyuk haqiqati borki, bu orzularimizni to’liq ekranlarda ko’rsatilgan filmlardek taassavur qila olmasligimizdir. Taassavur-inson hayolotining ichki va tashqi qiyofasi aks etgan obraz. Inson psixologiyasi shunchalar inson hayoti va hayolotini ochib berishga qodirki hatto uning taassavurida o’ylab qog’ozda aks ettirgan surati orqali uning kelajakda kim bo’lishini aniq-ravshan aytib bera olish mumkin. Bekorga inson psixologiyasi haqida to’xtalmadim. Chunki inson psixologiyasi million yillarga teng bo’lgan insoniyatga tegishli axborotlar bilan to’yingan va zaryadlangandir. Oddiygina ma’lum bir xalqqa, millatga xos bo’lgan xarakter yoki iqtidor oradan necha ming asrlar o’tsa hamki o’sha xalqning etnogenezida va avlodlar qonida nasldan naslga o’tib yashayveradi. Qaysidir ma’noda kambag’al bo’lgan insonning ong-shuurida yolg’iz bitta so’z ya’ni kambag’allik deb atalgan atamaning takror-takror qayatarilganligi uning undan keying avlodlari hayotida xuddi o’zidagidek hayotni aks ettirgan bo’lsa ajabmas. Shuning uchun ham avvalo inson o’ylashi va fikrlashi

xattoki hayol surishiga ham katta e'tibor qaratishi lozim. Shundagina bu kabi dolzarb muammolar siz-u bizni also bezovta qilmaydi. Agar biz har bir xaqlning qadimiy ming yillik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu xalqlarning o'z boshidan qancha yil ozodlik, qancha yil azob-uqubatda yashaganligi hozirgi holatidagi xalqijtimoiy hayotibilan bir biriga o'zaro proporsional ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Bilasizmi butun dunyoning boyliklari nima uchun hayotda yashovchi 1% insonlar qo'lida to'planganligini? Chunki bu insonlar hayotda o'z maqsadlari yo'lida toki orzulari ama;ga oshgunga qadar harakat qilganlar. Bundan tashqari hozirda o'zlarining ibratli va buyuk hayot yo'liga ega umr yo'llarini ham yozishga ulgurishgandir. [2b-84.] Xo'sh bizlarda ularda bor qaysi xususiyat yetishmaydi deb o'ylaysizmi? Tirishqoqlik, sabrlilik, qanoat yoki sabr-bardoshdir. Negaki bu toifadagi insonlar ertaga kambag'allik ularni tanlamasliklari uchun, ular bugun o'zlari kambag'allikni tanlab unga sabr qilib shukronalik bilan bugungi yon-atrofdagi insonlar orzuqiladigan darajaga yetib kelishgan. Mana sabablar bu muvafaqqiyatlarningeng asosiy sababi deb bilsak arziydi.

Har bir inson hayotda ma'lum bir xarakter va qobiliyatga egadir. Bu xarakter va qobiliyatni butun hayoti davomida rivojlantirib borish har bir insonning qo'lidadir. Agarki bular o'z vaqtida rivojlantirilmasa ertaga hayot uchun xuddiki keraksiz buyumga aylanadi qoladi. Misol uchun, kambag'al insonga boylik in'om qilinsa oradan biroz vaqt o'tgandan keyin u yana o'zining oldingi holatiga tushib qoladi, aksincha badavlat insondan boyliklarini tortib olsangiz u yana biroz vaqtdan so'ng o'zining oldingi holatiga qaytib oladi. Buning asosiy sababi kambag'al insonda badavlatlilik darajasiga yetish yo'lidagi hayotiy tajriba yo'qligi bo'lsa, ikkinchisida esa badavlat insonda har qanday holatda ham boylik orttira olish qobiliyati borligi uning yutug'i hisoblanadi. Shuning uchun ham, bugungi kunda dunyo jamiyatining ayni shunday qatlamini tashkil etuvchi insonlarga yordam qo'lini cho'zib xalqaro miqyosda ko'mak bergan yaxshi, lekin nima bo'lganda ham ularda bor bu xususiyat ularni hech qachon tark etmasligi aksariyat insonlarni aytmaganda ulardan keyingi avlod ham xuddi ulardek hayot kechirishi ayni haqiqatdir.

Bu dolzarb va xalqaro darajadagi global muammoga yechim topish uchun ularga yordam berish bilan bir qatorda, ularga badavlat bo'lib yashashning va boylik qanday orttirilishining sir asrorlari aks ettirilgan xalqaro miqyosda hujjatli film, videorolik va kitob nashr ettirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bundan tashqari ayni vaqtda aynan insonlarni kambag'allik holatidan olib chiqishga qaratilgan Ronda Bern va Jo Vitalening "Secret" nomli filmi va kitobining ham dunyo miqyosida keng targ'iboti tashkil etilsa o'ylaymanki bu masalaning ayni yechimi topilgan bo'lar edi. Ushbu asarni 3 yildan ortiq qayta-qayta o'qiyotgan bo'lsam qaysidir ma'noda haqiqatdan ham o'z hayotimda ham iqtisodiy ham ma'naviy jihatdan o'sib borayotganligimga guvoh bo'lmoqdaman. Ko'pincha insonlarning hayotda qashshoq yoki badavlat bo'lib yashashlarini ularning yoshliklarida o'z oldilariga qo'ygan orzulari sabab deb o'ylayman. Bundan tashqari jamiyatda shunday fikrlar ham borki (Bilim darajang qanday bo'lsa, senga

to'lanadigan maosh ham shunday bo'ladi) ularni kezi kelganda aslo imkor eta olmasligimiz ham ayni haqiqatdir. Bu bildirayotgan taklifim orqali balki xalqaro jamiyatda bu qatlam vakillarining sonini kamaytira olmasligim mumkindir, lekin bir narsani sizga ishonch bilan ayta olamanki biz bu ishimiz bilan ulardan keyingi avlodning albatta badavlat va baxtli hayot kechirishini ta'minlay olishimizga ishonaman. Zero, har doim go'zal va baxtli hayot nimaningdir qurbonligi o'rniga kelishini o'tgan tarix ham tasdiqlaydi. Bundan tashqari dunyoda mavjud mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan yuksalishlari ham yer yuzidagi kambag'allarning foizini kamaytirishga o'z hissasini qo'shadi. Shuningdek hozirgi davrda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida har bitta huddudda yashovchi aholining aniq sonini aniqlagan holda,bundan 20-30 yildan keying aholi soni qanchaga oshishini ko'zda tutib o'sha hududda sanoat korxonalari yoki ishlab chiqarish korxonalari qurilsa o'ylaymanki bu muammolar faqat 5-10 yilga emas balki ma'lum bir uzoq davrgacha siz-u bizni bezovta qilmagan bo'lar edi. Xulosa o'nida shuni aytish mumkinki, davlat taraqqiyoti yo'lida xalq uchun milliardlab moddiy mablag'larni sarflagan bilan jamiyatning har bir a'zosi bu mablag'larni qayerga va qanday qilib sarflashni bilmasa o'ylaymanki ular uchun berilgan bu imkoniyatlar baribir foydasiz hisoblanadi. Shuning uchun ham jamiyatda har bir insonga pulni qanday va qayerga sarflashni, to'g'ri va tartibli hayot kechirishni o'rgatish, qisqacha qilib aytganda, xalqning ijtimoiy-madaniy faoliyatini oshirish bugungi kunimizning eng dolzarb muammosi hisoblanadi. Basharti, ertaga bizning kim bo'lishimiz bugungi bosayotgan qadamimizga bog'liqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev A.A "Boylik qonunlari". –Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2005.
2. Ayupov R.H "Boylik va qashshoqlik falsafasi". –Toshkent, 2018 yil, 84-bet.

## BUXORO AMIRI HAYDARNING TA`LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLARI

**U.Baqoyev**
*Buxoro davlat universiteti talabasi*
**D.M.Jamolova**
*Tarix fanlari bo`yicha falsafa doktori*

Dunyo mamalakatlari davlatchilik tarixi masalalarini o'rganar ekanmiz, ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining rivoji ta'lim sohasiga qaratilgan alohida e'tibordan ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ilm-fanning rivojiga homiylik qilgan, malakali kadrlar tayyorlashni siyosat darajasiga ko'targan davlatlar hamma davrda rivojlangan, ilmsizlik va jaholat botqog'iga botgan mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirib, mustamlaka qilgan.

O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan Buxoro amirligida ham ilm-fanni rivojlantirish, ta'lim tizimini isloh qilish muhim vazifalardan biri edi. Mang'it hukmdorlaridan Amir Haydar[322] (1800-1826) o'z hukmronligi davrida ilm-fan, din va ta'lim sohalariga alohida e'tibor qaratdi. Uning bu sohada amalga oshirgan ishlari haqidagi ma'lumotlar saroy tarixchilari asarlari va ingliz sayyohlarining kundaliklarida uchraydi. Jumladan, saroy tarixchisi Mirza Abdulazim Somiy o'z asarida Amir Haydar haqida *"saxovatpesha, olim va odil podsho edi. Barcha ilmlardan yetarlicha xabardor bo`lib, ilm ila shug`ullangan paytlarida qori, davlat ila bandligiga qaramay, ilmi ilohiyotni o`rganmoqda bo`lgan tolib-ul ilmlarga saboq berar va shogirdlarining davrasi ming kishidan kam bo`lmasdi"*[323], deb yozadi.

Buxoro amirligiga Amir Haydar vafotidan 6 yil o'tib kelgan ingliz harbiyi Aleksandr Byorns u haqda "Kundaliklari"da: *"Amir Haydar davri dindorlik va diniy g'ayrat davri bo'lgan. U "Amir al-mo'minin" yoki "imonlilar qo`mondoni" nomini oldi. U faqat podshohlikni emas, imomlik vazifasini ham bajardi. Olamdan o`tganlar haqiga qur`on tilovat qildi va madrasalarda dars berdi"*[324], - deb yozadi. U Amir Haydar davridagi madrasa ta'limi xususida ham qimmatli ma'lumotlar berib, Buxoro madrasalarida Erondan tashqari barcha mamlakatlardan kelgan talabalarni uchratish mumkinligi, ular yetti yoki sakkiz yillik o'quv kursini tugatib, o'z vatanlariga bilim zaxirasi bilan qaytish imkoniyatlariga ega ekanliklari haqida to'xtalib o'tadi[325].

Buxoro ma'rifatparvari, uzoq yillar mang'itlar saroyida xizmat qilgan Ahmad Donish Amir Haydarning hukmronlik davri haqida muhim ma'lumotlar yozib qoldirgan. Uning yozishicha, Amir Haydar davrida Buxoroda ilm-fan, xususan, tarix va islom ilmlari rivojlangan[326].

Amir Haydar hukmronligining dastlabki yillarida maktab ta'limini isloh qilishga kirishdi. 1803-1804-yillarda o'tkazgan islohotlariga ko`ra, amirlikdagi barcha fuqarolar uchun zaruriy umumiy ta`lim joriy etilgan. Amirlikning tog'li hududlarda yashovchi aholisi uchun davlat xazinasidan maktablar qurdirib, u yerda dars berish uchun Buxoro shahridan muallimlar jo'natilgan. Muallimlar bilan birga

---

[322] Amir Haydar Shohmurodning to'ng'ich o'g'li (onasining ismi - Shamsiya bonu binti Abulfayzxon) bo`lib, 1779 yil 30 sentyabrda tug'ilgan. U tug'ilgach, Amir Shohmurod o'sha paytda Buxoroda qozi ul-quzzot bo'lib turgan shayxulislom Atoulloxojaning huziriga borib, uni Arki Oliyga olib keladi va chaqaloqqa ism qo'yib berishini iltimos qiladi. Shayxulislom kelgusida mo'minlar amiri hazrat Alidek hamisha g'olib bo'lib yursin deb shahzodaga hazrat Alining mashhur laqablaridan biri Haydar ismini qo'yadi. Amir Haydar 1791-1800 yillarda Nasaf viloyatida hokimlik qilgan. Buxoro amirligini 26 yil boshqargan. Ukasi Dinnosirbekning hokimiyatni egallash uchun olib borgan qurolli harakatlarni bostirgan. Diniy bag'rikenglik siyosatini yuritgan hukmdorlardan biri. Xalqaro savdo-sotiqni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Islom dinining homiysi sifatida aholi orasida diniy amallarni keng targ'ib qildirgan. Davlatni boshqarish bilan birga Buxoroning nufuzli madrasalarida mudarrislik qilib, diniy ilmlardan dars bergan. 1826 yil 6 oktyabrda 47 yoshida Buxoro shahrida vafot etgan. 7 o'g'li va 8 ta qizi bo'lgan.

[323]Мирза Абдулазим Сомий,МанғитсултонларитарихиёкиБухорохонлигинингинкирози// Шаркюлдузи , 1990. - № 3. – B. 131.

[324] Mukminova R., Mukhtarov A. The Khanate (emirate) of Bukhara``History of civilizations of Central Asia // Volume V, Development in contrast: from the sixteenth to the mind-nineteenth century UNESCO Publishing 2003. – B. 59.

[325] za.uz/uz/society

[326]Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. Форсчадан Н. Қиёмиддинов таржимаси. Тошкент: ЎзМЭ давлат нашриёти, 2013. – Б. 30.

ta'lim tizimini tashkillashtirish, darsliklar, o'quv qurollari bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish uchun saroyning nufuzli amaldorlar ham yuborilgan. Shuningdek, umumiy ta'lim bo'yicha joylarda amalga oshirilayotgan ishlar, muallimlar va amaldorlarning faoliyatini nazorat qilish uchun har bir beklikka maxsus vakillar jo`natilgan. Amir Haydar jiyani - Qarshi begi Sayid Ahmad xoja Fayziyni butun amirlikda umumiy taa'limni nazorat qilish bo'yicha ma`sul e`tib tayinlagan. U jiyaniga yo`llagan xatida: "*Siz muallimlarga tayinlangki, ular zaruriy umumiy ta`limni barcha tobe xalq puxta egallamog`ini ta`minlasinlar. Barcha kishilar umumiy zaruriy ta`limni puxta egallasinlar*"[327], - deb yozgan. Shuningdek, amir har bir tuman hokimi, qozisi va muhtasibiga maxsus yorliqlar jo'natib, ularning zimmasiga musulmonlarning farzi ayni bo'lgan namozni o'rgatish, jamoat namoziga targ'ib qilish, maktablar ochish va ularni ishlatish vazifasini yuklaydi[328].

Amir Haydar ta'lim tizimining uzviyligini ta'minlash maqsadida oliy madrasalardagi o'quv jarayoni va mudarrislar faoliyatini o'z nazorati ostiga oladi. Bu davrda Buxoro shaharida 80 ta oily va o'rtamadrasalar bo'lib, ularda minglab talabalar tahsil olgan[329]. Ushbu madrasalardan Govkushon guzaridagi 21 hujraliA'lam madrasasi (1809 yilda Mirzo Abdurahmon a'lam tomonidan qurilgan), Kokilai xo'rd guzaridagi 23 hujrali Domulla Hasan madrasasi, 32 hujradan iborat Ismoilxoja madrasasi (1822-1823), 14 hujraliMirza Badi' devon madrasasi (1815), Registon dahasi Hazrati Imom ko'chasidagi Oxund Muhammad Salim madrasasi (1822-1823), 8 hujrali Oxund Xovand madrasasi (1817-1818 yillarda Oxund mulla Muzaffar ibn qozi Mirzo Muhammad tomonidan qurilgan), Otaliq guzaridagi 97 hujrali Tursunjon madrasasi (1805-1806), Mehtar Anbar guzarida 4 minorali, 59 hujrali Xalifa Niyozquli (1805-1806) madrasalariAmir Haydar davrida qurilgan bo'lib, ularda diniy bilimlar o'qitilishiga keng e'tibor qaratilgan[330].

Amir Haydar oliy madrasalarga mudarrislarni shaxsan o'zi tayinlagan. Ularga shariatga xilof ravishda ish tutmaslikni buyurgan va mudarrisligini tasdiqlovchi "Mandati mudarris" hujjatini taqdim qilgan[331]. Madrasalarda sifatli ta'lim tizimini joriy etish maqsadida Istanbul, Kobul va boshqa shaharlarda chop etilgan qo'lyozma kitoblar sotib olib, madrasalarga hadya qilgan[332]. Amir davlat ishlaridan ortib, oliy madrasalarda ilohiyot fanidan ma'ruzalar ham o'qigan[333].

Amir Haydar davrida Buxoro madrasalarining aksariyati diniy ilm berishga mo'ljallangan bo'lib, dunyoviy fanlar deyarli o'qitilmas edi. Ayni shu davrda Qozondan kelgan Abu Nasr Kursaviy (1776-1812), Bahouddin Marjoniy (1786-

---

[327] Jo`rayev U, Usmonov Q, Jo`rayeva G, Norqulov N O`zbekiston tarixi. Toshkent:O'qituvchi, 2019. - B. 78.
[328] Нормуродова Г. Бухоро амирлиги ижтимоий қатламлари ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётдаги роли (1868-1920 йиллар). Докторлик дисс. автореф. Тошкент, 2020. - Б. 22.
[329] Sufism in Central Asia: New Perspectives on Sufi Traditions, 15th-21st Centuries Edited by Nicola Di Cosmo Paolo Sartori Volume 25 B-149 https://books.google.co.uz/
[330] Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. Тошкент: Akademnashr, 2017. – Б. 240-415.
[331] Нормуродова Г. Бухоро амирлиги ижтимоий қатламлари ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётдаги роли (1868-1920 йиллар). Докторлик дисс. автореф. Тошкент, 2020. - Б. 22.
[332] Axmadov X. Madrasalar va ularning jamiyat hayotida tutgan o`rni. Buxoro, 2019. - B. 66.
[333] Jo`rayev U, Usmonov Q, Jo`rayeva G, Norqulov N O`zbekiston tarixi.- B. 78.

1856) va boshqalar nufuzli madrasalarda diniy ilm olganlar. Ular o'qishlari davrida Buxoro shahridagi ayrim madrasalarning o'quv dasturlari va mudarrislari faoliyatini tanqid qilganlar.

Abu Nasr Kursaviyning akasi Abdulxoliq savdo-sotiq qilish maqsadida Buxoroga kelganda, mashhur shayxlardan Niyozqul Turkmaniy bilan tanishgan va uning yig`ilishlarida qatnashgan. 1790 yilda Buxoroga ta`lim olish maqsadida kelgan ukasi Abu Nasr Kursaviyga shayx Niyozqul qo`lida tahsil olishni tavsiya qilgan.Buxoro madrasasida to`rt yil tahsil olgan Kursaviy o`z yurtiga qaytib, imom-xatiblik va mudarrislik qilgan[334].

Qozonlik yana bir tolibi ilm Bahounddin Marjoniy 1812 yilda Buxoroga kelib, nufuzli madrasalarda ta`lim olgan. Amir Haydarning e'tiboriga tushgan navqiron Bahouddinga Mulla Tursunjon madrasasidan hujra berilgan. 1815 yil o'z yurtiga qaytayotganda amir undan Buxoroda qolishini so`raydi. Ammo Bahounddin bu taklifni qabul qilolmasligini bildirgach, madrasadan oladigan bir yillik stipendiyasini xayrlashuv sovg`asi sifatida taqdim etgan va yurtiga jo'natib yuborgan.[335]

Xulosa qilib aytganda, Amir Haydar davridamamlakatda ta'lim tizimi sohasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Butun amirlikdagi maktablar faoliyati nazoratga olindi, tog'li hududlarda maktablar qurilib, u yerlarning aholisini savodli qilish birlamchi vazifa etib belgilandi. Madrasa ta'limida mudarrislar faoliyatiga alohida e'tibor qaratilib, diniy bilimi mukammal bo'lgan shaxslargina bu lavozimga tayinlandi. Mang'it amirlari orasida Amir Haydarning ta'lim sohasida amalga oshirgan islohotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

## "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONI HAMD BOBINING G`OYAVIY – BADIIY TAHLILI

**Sh.Safarova**
*BuxDU talabasi*
**Z.Q.Amonova**
*f.f.n.,dots*

"Farhod va Shirin" "Xamsa" tarkibidagi ikkinchi doston bo`lib, mumtoz adabiyot an'analari asosida yaratilgan. Mazkur an'anaga muvofiq yaratilayotgan har bir asar Olloh hamdi bilan boshlanishi shart bo`lgan. Ana shu jihatdan "Farhod va Shirin" dostoni ham Olloh hamdi bilan boshlangan:

Bihamdik fath abvob ul-maoni,
Nasib et ko'ngluma fath o'lmak oni.

Navoiy ushbu ibtido baytning birinchi misrasini arabcha kalima bilan boshlaydi. Ollohga seni madh etishim va sening maqtoving bilan menga ma'no eshiklari ochildi. Endi mening ko'nglumga ularni (ma'no eshiklari)ni fath o'lmak

---

[334] Жамолова Д. Бухорода ислоҳотчилик ҳаракатининг вужудга келишида Абу Наср Курсавийнинг тутган ўрни // Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача). Бухоро: Дурдона, 2019. – Б. 47-48.

[335] Danielle Ross Tatar Empire: Kazan's Muslims and the Making of Imperial Russia https://books.google.co.uz/books Oxford university press press 2019 published United states of America

(zabt etish, qo'lga kiritish)ni o'zing nasib qilgaysan. Ya'ni shoir ollohning maqtoviga kirishish uchun , o'zidagi mahorat va aql-zakovatni oz deb o'ylaydi. Shu sababli ham, bu yo'lda o'ziga ma'no eshiklari ochilib, ularni birma-bir zabt etib, ollohni munosib tarzda alqash uchun madad so'raydi.

Ko'zumga ul eshik quflin radid et,
Aning fathig'a kilkimni kalid et.

Ko'zlarimga ul eshik (ma'nolar eshigi) ning qulfini radid et (ko'rsat). Qulfning ochilishi uchun esa kilk (qalam) imni kalit qil. Shoir bu baytda ma'nolar eshigini ochish ortidan barcha umidlariga yetishishni va ushbu eshikning kalitini tezroq ko'zlari ko'rishini istaydi, ana shu ma'nolar xazinasidan faqatgina o'zini emas, balki olam ahlini ham bahramand qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Ochib ul ganj quflin bu kalidim,
Nasibim ayla neki bor umidim.

Agar mening kalitim (bu yerda ijodkor qalami nazarda tutilmoqda) bu ganj (ma'nolar xazinasi)ning qulfini ochsa, sen (ollohga murojaat) ushbu xazinadan nimaniki umid qilgan bo'lsam, ularning barchasiga erishishni menga nasib ayla. Navoiy bu bayt orqali ijod yo'lida o'ziga barcha ma'no eshiklari ochilishini va avlodlarga munosib me'ros qoldirish niyatida ekanligini aytmoqchi.

Ayurg'och bazl ila bu benavodin,
Navosizlarg'a qormotqil havodin.

Bazl (in'om, ehson, xadiya) bilan bu benavodan ayirgach, navosiz (noumid, baxtsiz)larga havo (orzu, istak)dan qormot ( tutqizmoq, ushlatmoq). Baytda shoir ollohga qarata meni turli xil in'om, ehsonlar bilan bechoralik (ollohning nomidan va hikmatli so'zlaridan bexabar bo'lib yurish)dan ayirding, qutqarding. Endi mendek bechora bo'lib yurgan noumidlarga ham bu orzudan (bu yerda ollohning ma'noli va hikmatli so'zlarini ommaga yetkazish nazarda tutilgan) ulashgin deydi:

Gadolarg'a dag'i andin ato ber,
G'anilarg'a dag'i oni tuto ber.

Gadolarga dag'i (yana) andin (ollohning ma'noli va hikmatli so'zlarini ommaga yetkazish istagi)dan ato ber (bag'ishlamoq, hadya bermoq). G'ani ( boy,badavlat)larga oni (ollohning ma'noli va hikmatli so'zlarini ommaga yetkazish istagi)ni tuto ber (bag'ishlamoq, nasib qilmoq). Bu bayt orqali shoir bu orzuga faqatgina o'zi yoki bechoralargina erishishini emas, balki butun insoniyat gadodan tortib, boylargacha bu orzudan bahramand bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Ya'ni ollohning nomi, uning ishqi o'zini ollohning quli va bandasi deb bilgan har bir insonning qalbida bo'lishi lozimligiga ishora qilingan. Baytda (gad ova g'ani) so'zlari tazod san'atini hosil qilgan.

Shah olsa dog'i qilsun toji tarak,
Qul olsa ham anga bo'lsun muborak.

Shah (shoh, hukmdor) olsa, uni (ollohning ma'noli va hikmatli so'zlarini ommaga yetkazish istagi)ni toji tarak (bosh ustiga qo'yilgan toj) qilsin. Qul olsa bu unga ham muborak bo'lsin. Agar ollohning ma'noli va hikmatli so'zlarini ommaga yetkazish istagi shohga nasib qilsa, shoh uni boshining ustiga toj qilib kiysin. Mabodo bu orzu qulga nasib qilsa, bu unga ham muborak bo'lsin. Ya'ni

oddiy bir erki o'zida bo'lmagan qul bo'ladimi yoki butun bir mamlakatning podshohi bo'ladimi ular ollohning oldida tengdirlar va olloh o'zi istagan bandasigagina bu orzuni nasib qiladi. Baytdagi ( shoh va qul) so'zlari tazod san'atini hosil qilgan.

Anga ishq ahlini qil orzumand,
Aning birla alarni ham barumand.

Anga (ollohning ma'noli va hikmatli so'zlarini ommaga yetkazish istagi)ga ishq ahlini ham orzumand (havasmand) qil. Bu bilan ularni (ishq ahli)ni ham barumand (bahramand) qil. Ushbu bayt mantiqan yuqoridagi baytlarning davomidir. Ya'ni ollohning ma'noli va hikmatli so'zlarini ommaga yetkazish istagiga ishq ahli ham havasmand bo'lsin, buni ular ham orzu qilishsin. Marhamati va karami keng ollohim bu orzudan ularni bahramand qil.

Durin qil ko'zlariga har zamon yosh,
Va lekin lalu yoqutini qon yosh.

Ko'zlariga durin (ma'nolar xazinasining duri) ni har zamon yosh qil, lekin lal (qizil rangli tosh) va yoqutlarni qonli yosh qil. Endi bu baytda butun insoniyat nazarda tutilmoqda. Ya'ni sening ( ollohga qarata) noming va so'zlaring (Qur'oni Karim oyatlari) har zamon insonlarning ko'zlarida yosh bo'lsin. Lalu ,yoqutlar (bu yerda ham ollohning kalimalari nazarda tutilgan)ing esa ularning ko'zidan qonli yosh bo'lib to'kilsin. Baytda tashbeh san'atidan unumli foydalanilgan.

Alarg'a oshkorovu nihoni,
Ko'z ichra ashkdek asratqil oni.

Alarg'a ( musulmon ahli)ga ba'zilari oshkor, ba'zilari yashirin. Ularga bu durlarni xuddi ko'z ichida ko'z yoshidek asratgin. Bu bayt orqali shoir ollohning yashirin, sirli va ko'zga ko'rinmas ekanligiga ishora qiladi. Ya'ni insoniyat uchun ollohning qaysidir qirrasi oshkor, qaysidir qirrasi esa hanuz noma'lumligicha qolmoqda. Bugungi kunga qadar ma'lum bo'lgan ollohning muqaddas oyatlarini biz xuddi ko'zimiz ichidagi ko'z yoshni qanchalik asrasak, ularni (oyatlarni) ham xuddi shunday asrashimiz lozimligi aytib o'tilgan.

Takallum ahlig'a sarmoya ayla,
Ne dur nazm etsalar riroya ayla.

Takallum (so'zlash, gapirish) ahliga sarmoya aylamoq (yordam bermoq, ko'maklashmoq). Nima deb nazm etsalar (she'r aytmoq) ham riroya aylamoq (mukofotlamoq, taqdirlamoq). Bu yerda takallum ahli deyilganda shoirlar nazarda tutilmoqda. Baytda shoir ollohga murojaat qilib, shoirlarga xalqqa ilm-ma'rifat ulashish yo'lida ko'maklashish va yordam berishini so'raydi. Ikkinchi misrada esa ular nimaiki deb xonish qilsalar ham sen ularni taqdirlagin, mukofotlagin deyiladi. Qisqacha qilib aytganda, shoirlar olloh tomonidan xalqni ziyoli qilish va ularning qalbini go'zallikka oshno qilish uchun yerga yuborilgan vakillardir.

Zamon durjini andin to'lo qil,
Falak javfini andin imtilo qil.

Zamona durj ( qiymatli toshlar solinadigan quticha, maj: og'iz, ko'ngil)ini andin (ollohning ma'noli va hikmatli so'zlari)dan to'lo qilmoq ( to'ldirmoq). Falak (osmon, ko'k) javf ( biror narsaning ichidagi bo'shliq joyi, kovak)ini andin

(ollohning ma'noli va hikmatli so'zlari)dan imtilo qilmoq (to'ldirmoq). Bu baytda hattoki zamonning ko'nglini ham ollohning ma'noli va hikmatli so'zlari bilan to'ldirish kerakligi, bundan tashqari osmonning bo'sh joylarini ham ollohning nomi va kalomi bilan to'ldirish kerakligi aytilgan. Ya'ni butun dunyo, koinot undagi har bir tirik mavjudot ollohning yaratig'i ekanligi va ular hamisha ollohning nomi va yodi bilan yashashlari zarurligiga ishora qilingan. Barchamiz ollohning qulimiz, bir kun albatta, hammamiz yana ollohning huzuriga qaytamiz.

Ani sindurg'on elni qil shikasta,
Xujasta ko'rgan elga tut xujasta.

Ani (ollohning ma'noli va hikmatli so'zlari)ni sindirgan elni shikasta qilmoq (mayib, majruh qilmoq). Xujasta (qutlug', muborak) ko'rgan elga xujasta tutmoq. Shoir hamd qismning so'nggi baytida "Farhod va Shirin" dostonini "sindirgan elni" ollohdan shikasta qilishini, aksincha, mazkur dostonni qutlug' deb bilgan elni hamisha baxtiyor qilishini so`raydi. Baytdagi ( xujasta va shikasta) so'zlari tazod san'atini hosil qilgan.

"Xamsa" dostoni tarkibidagi boshqa dostonlar kabi "Farhod va Shirin" dostoni ham hamd, ya'ni ollohning maqtovi va uning nomini ulug'lash mazmunidagi baytlar bilan boshlangan. Bu qismda asosan ollohning cheksiz qudrati va yer yuzidagi jamiki mavjudotning bejizga yaratilmaganligi haqida fikr yuritilgan. Dostonning hamd qismi doston mazmuni bilan ham bog'lanadi. Ayni jihatni "Xamsa" tarkibidagi barcha dostonlarda ko`rish mumkin.

# N.SULTONNING "OZOD" ROMANIDAGI BADIIY TIMSOLLAR TALQINI

**N.U.Shodiyeva**
*Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi.*
*professor* **Sh.N.Ahmedova.**

**"Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi brinchi bosqich talabasi Shodiyeva Niginaning "Isajon Sultonning "Ozod" romanidagi badiiy timsollar talqini" mavzusidagi maqolasi haqida.**

Maqolada bugungi o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Isajon Sultonning "Ozod" romani haqida fikr yuritilgan.Birinchi bosqich talabasi bo'lishiga qaramay, Nigina Shodiyeva romanning mazmun-mohiyatini yaxshi tushungan, shuning uchun tahlillari tabiiy chiqqan. Talaba romandagi ramziy timsollar va ularning o'ziga xos o'rni masalalarini yoritishga harakat qilgani uning o'z qarashlari borligidan dalolat beradi. Maqola mavzusi dolzarb va anjuman talablariga moslangan. Shuni hisobga olib, maqola muallifi konferansiyada ishtirok etishi mumkin."

**O'zbek adabiyoti kafedrasi professori Shoira Ahmedova.**

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada yangi davr romannavisi Isajon Sultonning "Ozod" romani poetik mushohada qilinib, undagi bosh g'oya va sharqona an'analar borasida so'z yuritilgan. Romandagi badiiy timsollarning o'ziga xosligi va ramziy-majoziy ma'no kasb etishi talqin etilgan.*

***Kalit so'zlar***: *timsol, ramziy obrazlar, yo'l va shamol badiiy timsollari.*

***Аннотация:*** *Эта статья представляет собой поэтическое наблюдение романа нового периода Исажона Султана "Свободный",в котором обсуждаются основная идея и восточные традитии. Оригинальность и символическое значение художественных фигур в романе объяснены.*

***Ключевые слова:*** *символ, символические образы, художественные символы дороги и ветра.*

***Annotation:*** *In this article, the novel of "Free" by the novelist of new period Isajon Sulton is poetically observed, the main idea and oriental traditions are discussed in the work. The originality of the artistic symbols in the novel is interpreted as having a symbolic figurative meaning.*

***Key words:*** *symbol, symbolic images, artistic representations of road and wind.*

So'z san'ati bo'lmish badiiy adabiyot boshqa san'at turlari kabi hayotni undagi insonlarning ruhiy kechinmalari, o'y-fikrlari, mehnat faoliyati, kurashi, his-tuyg'ulari orqali aks ettiradi.Shuni ta'kidlash joizki, badiiy adabiyotning asosiy tasvir mavzusi- inson. Bir so'z bilan bilan aytganda, adabiyotshunoslik ilmida inson obrazi markaziy o'rinni egallaydi. U yashayotgan jamiyat va undagi jarayonlar, tabiat, ijtimoiy muhit singarilar esa inson timsolining o'ziga xos tomonini ko'rsatish, uning tabiatini yorqinroq aks ettirish uchun qo'llaniladi. Xo'sh, timsol nima?

"Timsol- ko'z o'ngida, xayolda, tasavvurda gavdalanadigan obraz, siymo, ko'rinish, shuningdek, belgi, ramzdir."[1]

Badiiy adabiyotda esa timsol "obraz" atamasining ma'nodoshi sifatida qo'llaniladi. Shuning uchun ham ko'p hollarda badiiy obraz o'rnida badiiy timsol tushunchasidan foydalaniladi.

Istiqlol yillarida o'zbek adabiyoti ham "yangilanish" jarayonini boshdan kechirdi.Ayniqsa, bu o'zgarishlar epik turda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu jumladan, romanchiligimiz insonning orzu- umidlari, shaxs intim kechinmalari, inson ruhiyatini tahlil etish yo'lidan bormoqda. Mustaqillik davrida yaratilgan, shaxs jumbog'i keng mushohada qilingan, majoziy ishora va timsollar jamuljamligidan tarkib topgan epik asarlardan biri- Isajon Sultonning'Ozod" romanidir. Asar kompozitsiyasi shunday qurilganki, barcha badiiy timsollar Ozod atrofida jipslashdi. Ozod esa olam sirlarini bilishga intilib, o'z tole lolasi sari olg'a borayotgan tafakkur timsolidir. U yo'lida turli akslarga va ularning taqdir kechinmalariga duch keladi. Ammo ular o'zi tashqi olamga yog'dirgan azaliy savollarning javobi yanglig' gavdalanadi. Bosh qahramon timsolida ishora va tafsilotlar negizida mustaqil fikrlab, mushohada qilayotgan, o'z-o'zini o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyoj uni yana-da yuksak pog'onalar sari chorlayotgan *ozod* insonni ko'ramiz. Zero, adabiyotshunos olim Abdug'ofir Rasulov aytganidek,

“Aslida romandagi barcha qiyofalar va obrazlar Ozodning o’zidir, deb o’ylash tarafdoriman. Akslar deganda ham mana shu mantiq nazarda tutilmaganmikin? Agar u ma’no kengliklari sari yo’lga chiqilsa, otasi kabi bo’lar va ekinzorda mehnat qilish bilan kuni o’tarmidi? Boylik sari intilsa, qismati uzumzorlar egasining taqdiri kabi armon va taassuflar aro pushaymonlik so’qmoqlarida tentirash bo’larmidi? Er yetilayotgan barcha yigitlar eranlardir. Ozod o’zining eranlik xususiyati tufayli dillarga orom beruvchi – Diloromga intildi. Ha, ayol Dilorom, biroq Vatan ham diloromdir.”[2,420]

“Adib “Ozod” timsolida shartli ravishda Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” , Alisher navoiyning “Lison ut- tayr”, Jaloliddin Rumiyning “Ichindagi ichingdadur” asarlaridagi bosh g’oyaga mutanosiblikni payvandlaydi”[3]

Ya’ni barchasining tub mohiyatida o’zlikni, olam va odamni anglash g’oyasi yotadi. Sa’dulla Quronov esa bu xususda shunday fikrlaydi: “ Ozod” romani badiiy- ifodaviy jihatdan ham sharq adabiyoti bilan tutashadi. Zero, asar syujeti F.Attorning “Mantiq ut- tayr”, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarlaridagi syujetga mohiyatan yaqin turadi. “Mantiq ut- tayr” asarida Semurg’ni izlab yo’lga otlangan qushlar yetti vodiyni bosib o’tadilar. Bu vodiylar tasavvufdagi haqiqatga eltuvchi yetti bosqichning ramzidir. “Ozod” romanida ham baxt- u saodatga yetkazuvchi sirli lolani izlab yo’lga otlangan Ozod yetti maskanni bosib o’tadi.”[4]

“Yo’l aniq: Uchyong’oqdan oshib o’tilsa, undan narida Tuz cho’li-yu Oydinko’l bor. Oydinko’ldan ham narida yaydoq biyobon, biyobon ortida esa toshloqlar yastanib yotadi. Keyin tog’-u tosh boshlanib ketadi, yanayam ichkariroqda ikki tog’ orasida sip-silliq baland qoyalar bo’y cho’zgan o’sha qoyalarning eng tepasiga chiqib borilsa bas.”[5,11]

Adib sharq mumtoz an’analarini davom ettirgan holda asosiy e’tiborni yo’l obraziga qaratadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, asarda izlab borilayotgan manzil muhim emas, eng ahamiyatlisi qahramon bosib o’tgan yo’ldir. Negaki, aynan shu uni yuksak ma’rifat cho’qqisi tomon boshlaydi, hayotdan saboq beradi:

“Sen yo’l haqida ham so’rading,- dedi yana Ustoz. –Falonchi yo’lga chiqib, Falon manzilga bordi dedilar. Bu gapning ortida yo’llarning manzaralari, tabiati, turli-tuman kishilarning qiyofalari, so’zlari va tutumlari, tog’lar-u bog’lar, anhorlar-u soylar, cho’llar-u yana turfa tomonlarda olib boradigan boshqa katta-kichik so’qmoqlar, qishloqlar-u shaharlar, kecha va kunduzlar, hayratlar va xavf-u xatarlar bor. “Falonchi” yo’lga chiqib, falon manzilga bordi, degan gap darchaga o’xshaydi, undan boqsang, ortida men aytgan narsalarni ko’ra olasan. Darcha zohir, ortidagi botindir. Oqibat esa uning manziliga yetishida ayon bo’lyapti. Aslida bularning barchasi aksdir. O’sha odamning manzilga borishdan ko’zlagan maqsadi esa ayni haqiqat.”[6,7]

Haqiqatan ham bu xil qarashlar hayot haqiqatidir. Aslida har bir inson tug’ilgandan to bu dunyoni tark etguncha uzoq yo’lni bosib o’tadi. Ammo shunisi qiziqki, odamzodning qanaqa manzilga yetib borishi shu yo’l- umr yo’lini qanday bosib o’tganiga bog’liq. Ana shu o’y asardagi uzumzorlar egasi timsoli singari insonni yoshi ulg’aygan sari orqaga bir nazar tashlashga-yu umrini sarhisob qilishga chorlaydi:

"Shunda o'tmishiningizning ovozlarini ham eshita boshlaysizmi? Ko'p yillik yashab o'tilgan umringizning so'qmoqlari, qoyalari, o'ngir-u jarlari ... voqealar ularning bag'rida o'sgan butalar kabi yetilib esayotganini ko'ra boshlaysiz. Keyin umringizni o'ylaysiz, axir, umr mana shu go'sha ustidan yellar kabi esib o'tibdi. Siz ham dunyoning ustidan shamol kabi yelib o'tib ketasiz."[7,52]

Asardagi ko'r kishi obrazi orqali esa insonning qalb ko'zining ochiq ekanligini ko'ra olishimiz mumkin. U odamning ko'zlari atrofni ko'rmasa-da, qalbi, tafakkuri orqali butun olamni hatto ko'zi ochiqlardan ham teranroq anglaydi. Inson hayotda e'tibor bermaydigan narsalarning ham qudratini ifodalab beradi:

"Bu yerlarda yastanib yotgan hamma narsa so'zdan iborat, bolam- dedi ko'r kishi bamaylixotir. – Yo'lingning atrofida nimaiki ko'rsang, hammasi so'zdir. Bilsang, odam bolasining avvali, oxiri so'zdan-u ma'nodan iborat. Dunyo tamomila teskari degan gapni eshitganmisiz? Bu ham so'z, ammo haq so'zdir. Chunki kun kelib, olam tamomila yo'q bo'lib ketadi, shunda faqat aytilgan so'zlar-u ularning ma'nolari qoladi. Ana o'shalardan yangi dunyolar bino bo'ladi."[8,63]

Bu timsol asar syujetida juda muhim ahamiyat kasb etgan. Negaki, Ozodning ma'naviy yuksalishida bu donishmand so'zlagan hikmatlari uning uchun hidoyat yo'li bo'lib xizmat qiladi. U rivoyat qilib berayotgan hikmatlarga ahamiyat bersak, ular naqadar ta'sirli, ayni paytda haqiqat ekanligini qalbimiz tubidan his qilamiz.

Ozod bilan to manzilga yetib borguncha birga bo'lgan, unga mudom yo'l ko'rsatuvchilik qilgan timsol- shamol. Ozod u tufayli "akslar falsafasi" ni mushohada qilib boradi. Darhaqiqat, shamol obrazi romandagi barcha voqeliklarning bashoratchisi, qissago'yi sifatida tasvirlanadi.

Adib asarda jumboqli o'rinlardan ko'p foyadalanadi.. Ammo har bir jumboq ostida insoniyat intilgan bir haqiqatni joylaydi. Ozod har manzilni kechib o'tgan sayin ma'rifat cho'qqisiga yaqinlasha boradi. Nihoyat, o'zligini anglaydi. Olam sirlaridan xabardor bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sultonning "Ozod" romani abadiy jumboqlarga javob tariqasida yaratilgandek go'yo. Bu falsafiylikka yo'g'rilgan asarni o'qigan sari inson o'z ichki olami bilan bir qatorda atrofni o'rab olgan dunyoning g'aroyibotlarini anglab boradi. Adibning asar orqali maqsadi ham shu- qalbni poklash, o'zlikni tanitish. Darhaqiqat, o'z o'rnida qo'llangan, qat-qat ma'nolarni o'zida jamlagan badiiy timsollar bunda, albatta, ahamiyatli. Zotan, asar mazmun-mohiyatini tushunib, talqin etishda timsollarning syujetdagi o'rnini bilish, anglash, ularning tub negiziga yetib borish juda muhimdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008. 485-bet.
[2] Rasulov A. Akslar falsafasi. –T.: "Sharq", 2012.- 420-bet.
[3] Toliboyev X. Poetik mushohadada ramziylik// Sharq yulduzi. Toshkent. 2016. №11

[4] www.kh-davron.uz. Quronov S. Isajon Sultonning ikki romani haqida.
[5] I. Sulton. Ozod.-T.: “Sharq”, 2012.-11-bet.
[6] I. Sulton. Ozod.-T.: “Sharq”, 2012.-7-bet.
[7] I. Sulton. Ozod.-T.: “Sharq”, 2012.-52-bet.
[8] I. Sulton. Ozod.-T.: “Sharq”, 2012.-63-bet.

# NIZOMULMULKNING “SIYOSATNOMA” ASARIDA DAVLAT BOSHQARUVINING AXLOQIY-FALSAFIY MOHIYATI

**N.Tursinkulov,**
*GulDU o'qituvchisi*
**X.Umirova,**
*GulDU talabasi*

O'rta Osiyo IX-XI asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida yuz bergan ijobiy yutuqlar va mutafakkirlar haqida gap ketganda, anashu yutuq va mutafakkirlarning asosiy omili va sababchisi bo'lgan markazlashgan mustaqil davlatning vujudga kelganligini e'tibordan qochirmasligimiz kerak.

Saljuqiylar davlati boshqa turk hoqonliklari qatori Islom tarixining hal qiluvchi pallasida tashkil topdi. Saljuqiylar davlatida, ayniqsa, Buyuk saljuqiylardan To'g'rulbek, Alp Arslon, Malikshoh, Sanjar davrlarida iqtisodiy va madaniy hayotda katta ko'tarilish yuz bergan. Ilm-fan va madaniyat rivojlangan. Ayniqsa, Eron, Iroq va Movarounnahrda madaniy yuksalish yuqori bo'lgan. Nishopur, Isfahon, Basra, Hirot, Marv, Buxoro, Samarqandda madrasalar bunyod qilingan.[336]

Saljuqiylar davlati XI asrda siyosiy maydonda yirik g'alabalarga erishib, kuch-qudrat jihatidan har qaysi raqibini bemalol yenga oladigan darajada edi. Har bir davlatda ham o'z rivojlanishi davrida davlatni gullab-yashnatgan hukmdorlar, ular bilan birgalikda siyosiy maydonda ijobiy faoliyat yuritgan vazir-devonlar, ilm ahliga cheksiz tafakkur urug'ini sochgan olimu fuzalolar yashab o'tganlar. Saljuqiylarda ham ana shunday shaxslar mavjud edi. To'g'rulbek davrida ushbu davlat siyosiy chegaralarini ancha kengaytirgan bo'lsa, Alp Arslon davrida yanada o'z qudratini Osiyo maydonlarida yoya oldi.

Jaloliddin Malikshoh davrida saljuqiylar davlatining chegaralari Sharqiy Turkistondan to O'rta Yer dengiziga qadar cho'zilgan edi. Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, bu ulkan hududda barcha yerlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotni boshqarish uchun malakali mutahassislar kerak bo'lar edi. Shunday bir vaziyatda Movarounnahr va Xuroson madaniy qatlamlaridan chiqqan o'qimishli mahalliy xalq vakillarini davlat ishlariga jalb etish boshlandi. Ana shunday madaniy qatlam vakillaridan biri kelib chiqishi asli Tusdan bo'lgan Abu Ali ibn Ali ibn Is'hoq bo'lib, u deyarli 30 yil davomida (1063-1092) Alp Arslon, Malikshoh saroylarida bosh vazir lavozimida faoliyat olib borgan edi. Uning yuksak salohiyati, aqlu-zakovatiga, har bir tadbirni zukkolik bilan hal etishiga

[336] O'zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000 yil.

yuqori baho bergan sulton Malikshoh vaziriga “Nizom ul-mulk” (“Davlat nizomi, qonun-qoidasi”) faxriy unvonini tuhfa etdi.[337] Nizomulmulkning hayotiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u Nishopur va Marvda o‘qigan. Voyaga yetgach, Balxga borib, Ali ibn Shodon xizmatiga o‘tadi. Keyinchalik u Dovud ibn Mikoilga dabir lavozimida xizmat qiladi. Alp Arslon saroyidagi xizmatlari tufayli u vazirlik darajasiga ko‘tariladi. 17 yoshida taxtga chiqqan Malikshoh saroyida Nizomulmulk vazirlik faoliyatini davom ettirgan holda qariyb davlatning hamma ishlarini o‘zi olib borgan. Malikshoh uni o‘z homiysi – otabek deb atagan.

Saljuqiy shohlariga halol vazirlik qilgan Nizomulmulk markazlashgan kuchli davlat uchun kurash olib borish bilan birga bu boradagi o‘z kuzatuvlarini jamlab, umumlashtirgan holda ko‘plab amiru umarolar, davlat arboblari, siyosatchilar uchun zarur qo‘llanma xizmatini o‘tab kelgan kitob “Siyosatnoma” asarini yaratdi. Unda davlatni boshqarishdagi eng mayda masalalardan tortib, g’oyat yirik va muhim muammolargacha hammasini o‘zi yashab turgan davrga qadar to‘plangan siyosiy tajribadan kelib chiqqan holda batafsil yoritgan.

Xususan, buyuk vazir Nizomulmulk qurdirgan Bag‘doddagi Nizomiya madrasasi (1067) butun jahonga mashhur bo‘lgan. Munajjim va riyoziyotchi olim Umar Xayyom loyihasiga ko‘ra, Isfahonda rasadxona qurilgan. U Malikshoh topshirig‘iga ko‘ra, rasadxonada kuzatuv ishlarini olib borgan va sosoniylarning shamsiy taqvimini isloh etib, Yangi taqvim (“Malikshoh taqvimi” yoxud “Jalol erasi”)ni tuzgan (1079). Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Sa’diy Sheroziy, Umar Xayyom fors she’riyatining so‘nmas durdonalarini yaratishgan. Muhammad G‘azzoliy, Farididdin Attor, Xoja Yusuf Hamadoniy kabi islom ulamolari va so‘fiylar ijod qilishgan.

1086 yilda ilm-ma’rifatga ixlosi baland vazir Nizomulmulk oldiga, o‘sha paytda yigirma sakkiz yoshli olim Abu Homid G’azzoliy tashrif buyuradi. Nizomulmulk majlislari esa ilm ahlining haqiyqiy oliy kengashiga aylangan edi. Abu Homid G’azzoliy Nizomulmulk majlisidagi ulamolarbilan munozaraga kirishib, u yerdagilardan ustun ekanini isbotladi. Vazir olimning iqtidori va bilim darajasini ulug’lab, 1092 yilda Bag’doddagi o‘zi tashkil etgan Nizomiya madrasasiga mudarris qilib tayinlaydi.[338]

O‘sha asrda yashab o‘tgan Abdug’ofir Forisiy aytadi: “Abu Homid G’azzoliyning Bag’doddagi hurmatlari va darajalari hatto amirlar va ashroflarning hurmatlaridan ham yuqori edi”.[339]

Nizomulmulk va G’azzoliy asarlarida davlatni adolatli boshqarish yuzasidan o‘zlarining axloqiy-falsafiy fikrlarini bayon qilar ekan nafaqat o‘sha davr, balki bugungi zamonaviy davlat boshqaruvida ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotmagan.

Nizomulmulk “Siyosatnoma” asarida davlat boshqaruvi, siyosat tamoyillari haqida atroflicha so‘z yuritilgan. Nizomulmulk mamlakatda yirik mulkdorlar va

---

[337] Eshov B.J, Odilov A.A. O’zbekisтon tarixi I – jild. *Eng qadimgi davrdan XIX asr o’rtalarigacha* (Oliy o’quv yurtlari talabalari uchun darslik) Toshkent. 2013. –B. 84.

[338] Ahmad Muhammad Tursun. Abu Homid G’azzoliy. “Qaqnus media” nashriyoti, - Toshkent, 2017 yil, 16-17 bet.

[339] O’sha asar, 17-bet.

qabila boshliqlarining ayirmachilik (separatistik) harakatlariga qarshi kurashib, davlatni boshqarish ishlarini markazlashtirish siyosatini amalga oshirgan. “Siyosatnoma”da davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixona ishlari, qo‘shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalasi, saroydagi soqchilaru posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, pochta va ayg‘oqchilik (razvedka) ishlari, ularning moddiy jihatlari, hatto shohning oilaviy ishlari, soliq va xiroj, zakot va vaqf masalalari ham o‘rin olgan.

“Siyosatnoma”ning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, vazir Nizomulmulk shoh va hokimlarni insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat’iy qoida va tartib o‘rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo‘lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta’minlash uchun harakat qilishga da’vat etishdir.

Nizomulmulk xalq, ayniqsa zulm ko‘rgan har bir kishi, umuman norozi bo‘lganlar amaldor va hokimdan tortib to vazir va shohning o‘zigacha qabullariga borib, shikoyati yoki maslahatini bayon qilishlari zarur. U aytadiki: “Podshoh haftada ikki kun zulm ko‘rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab va raiat so‘zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Muhim bo‘lgan arizalarni qabul qilib, har biriga javob berishi lozim. Agarda, “podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning so‘zlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi” degan xabar mamlakatga tarqalsa, unda zolimlar qilmishlarining oqibatini o‘ylab, qo‘rqib bedodlik qilmaydilar”.[340]

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning tub negizida ham xalq faravonligi hamda uning muammolarini ijobiy hal qilish asosiy ustuvor masaladir. Xalq qabulxonalarining ochilganligi, davlat rahbari bilan oddiy xalq o‘rtasida bevosita aloqa o‘rnatilishi xalqning huquq va erkinliklarini yanada mustahkamladi.

Afsuski jamiyatimizda rivojlanishning tomiriga bolta uradigan illatlar ham mavjud. Bu illatlardan biri korrupsiya ya’ni paraxo‘rlik bo‘lib, Nizomulmulk bu haqida ham alohida to‘xtalib o‘tadi, ya’ni davlat xizmatchilari o‘z martaba va bilimlariga ko‘ra maosh olishlari zarur. Ularning oylik xarajat maoshlari xalq hisobidan emas, balki davlat xazinasidan berish joiz. Shunda xalq narozi bo‘lmaydi, davlat xizmatchilarining xojatlari xiyonatga va pora olishga tushmaydi, zero rostligu halollikdan topilgan molu davlat ularga kifoya qiladi.

Bag’doddagi Nizomiya madrasasi mudarrisi Abu Homid G’azzoliy esa ijodda katta muvafaqqiyatlarga erishib, nafaqat ahli ilm, balki ahli davlatlaru ahli hukmlar ham bo‘yin egdi. Hatto xalifalar imom G’azzoliyga yaqin bo‘lishga intilishardi. Uning “Ihyou ulumid-din”, “Kimyoi saodat”, “Mukoshafat ul-qulub”, “Qirq hadisi qudsiy”, “Til ofatlari” kabi asarlari islom dini uchun xizmat qilgan. Shuning uchun G’azzoliy “Hujjatul-islom” degan unvonga munosib ko‘riladi.

Uning ham asarlarida davlat boshqaruviga oid axloqiy-falsafiy qarashlar o‘z aksini topgan. Uning “Ihyou ulumid-din” asarida, agar insonlar dunyoni adolat

[340] Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). Ikkinchi nashr. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2018. 20-bet.

bilan tutsalar, xusumatu dushmanliklar kesiladi, faqihlarga ehtiyoj yo‘qoladi. Lekin insonlar dunyoni shahvat va dushmanlik bilan tutganlari uchun, unda xusumat va adovat yuzaga keladi. Shunda insonlarni boshqaradigan rahbarga ehtiyoj tug‘iladi. Rahbar esa insonlarni boshqarish uchun qonunga muhtoj bo‘ladi. Insonlar shahvatga berilib, birbirlari bilan nizolashgan vaqtda ularni murosaga keltiruvchi o‘rta yo‘lni va boshqaruv qonunlarini biluvchilar faqihlardir. Shunday ekan, faqih dunyo ishlarida insonlarni to‘g‘ri yo‘lga soluvchi va siyosat qonunlarini o‘rgatuvchi rahbar, podshohlarga muallim va murshiddir. Tabiiyki, fiqh dinga ham bog‘langan, lekin bevosita emas, balki dunyo vositasi ila bog‘langandir. Zero, dunyo oxirat ekinzori, din dunyo bilan kamol topadi. Asosi yo‘q narsa mahv bo‘lishga mahkumdir. Qo‘riqchisi yo‘q narsa esa, zoe bo‘luvchidir. Saltanat va mulk podshoh bilan turgani kabi, hukumatlar orasidagi adovatni daf qilish faqat fiqh bilan bo‘ladi.[341]

Jamiyatda insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni qat’iy belgilab qo‘yilgan qonun-qoidalar asosida boshqarib borilsa, albatta adolatli fuqorolik jamiyati barpo etiladi. Biz davlat tomonidan chiqarilgan qonunlarga rioya qilishligimiz huquq va majburiyatlarimizdir. Ana shu huquq va majburiyatlarni bajarish esa insonning axloqiy fazilatiga ham bog’liqdir. Buni biz huquqiy madaniyat deb ataymiz. Aslida huquq va axloq har doim bir-birini to‘ldirib boradigan mexanizmdir.

Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari islom madaniyati va ma’rifati, davlat boshqaruvi haqidagi mo‘tabar bir asardir. Asar fors tilida yozilgan va bir necha tillarga tarjima qilingan. «“Siyosatnoma” – deb yozadi professor V.N.Zaxoder, − bu jiddiy siyosiy hujjat bo‘lib, markaziy hukumat parchalanishiga qarshi qaratilgan asardir. “Siyosatnoma” markazlashgan davlat tuzishga da’vat etib, kuchli davlat mahkamasi, armiya va boshqa tekshirish vositalarini yaratishga chaqiradi».[342]

Adolatli davlat boshqaruvi, uning mukammal nazariy asoslarini yaratish borasida ulkan “Siyosatnoma” asari muhim manba hisoblanadi. U amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolat va insofni oyoq osti qiladigan kishilarni davlat ishlariga arlashtirmaslikni, davlatni boshqarishni kengash bilan olib boorish, faoliyatlarni muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va sifatlari to‘g’risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir.

Har qaysi davrda ham davlat boshqaruvi jamiyat ijtimoiy ishlab chiqarishning yuqori pog‘onalarini egallaydi. Biroq bu boshqaruvni ko‘rolmaydigan johillar barcha davrlarda bo‘lgan va eng yomoni ular hozirda ham mavjudligi achinarli holdir. Johil jaholat urug‘ini qanchalik sochmasin davlat boshqaruvidagi insonlar bu urug‘larni yanchib tashlash uchun ularda ham kattaroq kuchga ega bo‘ladilar. Ana shunday insonlar yashab o‘tgan davr haqida va ularning hayotiy faoliyatlari to‘g‘risida doimo yaxshilik bilan eslanadi. Bugungi yoshlar esa ularning xizmatlari uchun doimo minnatdorlik hissini unutmaydilar.

---

[341] Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliy. Ihyou ulumid-din (Din ilmlarini jonlantirish), Ilm kitobi, Birinchi kitob, «Movarounnahr» nashriyoti, Toshkent – 2007. – 30 b.

[342] Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). Ikkinchi nashr. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2018. – 13-14 b.b.

# AHMAD YASSAVIY MAQBARASI

**A.Nuriddinova**
*Buxoro davlat universiteti Tarix va madaniy meros fakulteti*
*III bosqich talabasi*
**D.Jamolova**
*Ilmiy rahbar – t.f.f.d.*

***Annotatsiya*** *Ushbu maqolada tasavvuf ilmi bilimdoni, yassaviya tariqatining asoschisi Ahmad Yassaviyga bag'ishlab buyuk sohibqiron Amir Temur va shayboniylardan Abdullaxon II lar tomonidan qurilgan me'moriy inshootlar qurilishi tarixi, maqbara hamda masjidlar tuzilishi, xalq orasida keng tarqalgan binolar qurilishi bilan bog'liq rivoyatlar haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, binoning o'ziga xos xususiyatlari va bugungi kundagi holati haqida ham to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *"Devoni hikmat", Oqsaroy, qozon, nefrit tosh, go'rxona, bitiklar, shayx, darvesh, pir.*

Shayx Ahmad Yassaviy yassaviya tariqatining asoschisi bo'lib, XII-XIII asrda yashagan. Yassaviy ustozi Arslon bobodan botin ilmini mukammal o'rgangan, keyinchalik esa Islom dini markazi bo'lmish Buxoroga keladi va Shayx Yusuf Hamadoniy bilan uchrashib, unga murid tushgan hamda Ollohni madh etuvchi asarlar bitib, aholi o'rtasida Islomni targ'ib etgan. Yassaviy hayotini ochib beruvchi asar bu - "Devoni hikmat"dir. Aslida bu asar Yassaviyning o'zi tomonidan yozilmagan. Asar uning muridlari, zamondoshlari tomonidan yozilgan. Mustaqillik arafasida, ya'ni 1990-1992- yillarda bu asar ikki marta nashrdan chiqqan. Ahmad Yassaviy molparastlik, dunyo lazzatiga mukkasidan berilish, umrni yengil havaslar yo'lida qurbon qilishga qarshi o'z ta'limotini yaratdi. Bugungi kunda Yassaviyning ikki yuzdan ortiq avlodlari, izdoshlari shu ta'limot asosida faoliyat olib bormoqda. Avliyoning shiori - "O'lmasdan burun o'ling!" bo'lgan.[1, 182]

Manbalarda Yassaviy haqida quyidagi rivoyatlar keltiriladi: "… Ahmad Yassaviyning g'aroyib kuchi bo'lib, bu kuch unda yoshlik paytlaridan paydo bo'lgan. Bir kuni otasi Sayramdagi yerlarini begona o'tlardan tozalolmay qiynalib turganida, yonidan o'tayotgan Yassaviy bir so'z bilan o'sha yerlarni o'tlardan tozalagan. Shundan keyin u shimolga yolg'izlik izlab, hozirgi Turkiston yerlariga borib qoladi va o'z tarafdorlarini yig'a boshlagan. Shu paytda ular turgan joydan suv chiqa boshlaydi va u yerda ular suv manbaini bunyod etishadi. Keyin esa Yassaviyga oppoq tuya berilgan, shayx unga har kuni ertalabgi namozini tugatgach o'tirgan va tuya uni tezda Makkaga olib borgan. Yassaviy doim namozni Turkistonda boshlab, Makkada tugatgan. Ammo yahudiylardan biri bu holatga ishonmagan va buni Yassaviyning o'ziga aytgan. Yassaviy bir kuni Turkistonda namozini tugatgach, o'sha yahudiyni o'zi bilan tuyada Makkaga olib ketadi va yahudiyga tuyaga mingach ko'zini ochmasligini aytadi. Shayx namozini tugatadi, biroq yahudiy besabrlik qilib bir ko'zini ochadi va u shu zahoti Yassaviy uni olib ketgan joyga tushib qoladi. Bu holatni eshitgan shu hududdagi Yo'lbarsxon

yahudiydan g'azablanib, uni daraxtga bog'lab yoqishni buyuradi. Shu payt Makkadan qaytayotgan Yassaviy buni ko'rgan va yahudiyga rahmi kelib, uni daraxt bilan yerdan olib ketgan. Bundan hayratlangan Yo'lbarsxon Yassaviy huzuriga borib, uning talimotini o'rgangan. U shayxga qalbi bilan bog'lanib qolgan va bir umr shayxning shogirdi bo'lib, ta'limotini tarqatgan. Ularning qabri ham birin-ketin joylashgan.[4, 19]

Amir Temur Ahmad Yassaviy va uning tariqatiga katta ehtirom bilan qaragan va u kishini ma'naviy pirlaridan deb bilgan. Temur 1397-yilda saltanatning ko'chmanchi qozoq aholisi ko'p yashaydigan shimoliy qismidagi Yassi, keyinroq Turkiston deb atalgan shaharda Yassaviy maqbarasi ustiga tuzilishi va miqyosi bo'yicha misli ko'rilmagan inshoot barpo qildirdi. Bino qurilishi jarayoni haqidagi rivoyatlardan birida aytilishicha, … bir nech yil oldin Temur bu yerlarni ziyorat qilar ekan, bu binoni allaqachon to'liqligicha tasavvur qilgan, u allaqachon chiroqlar va shamlar uchun oltita bronza ustunlarni tanlagan. Ulardagi yozuvlardan ko'rinib turibdiki maqbara uning buyrug'i bilan, Ubaydulloh Sadr tomonidan 2 yil (ba'zi malumotlarda bir yil) ichida qurilib yakunlangan.[6]

Yana bir rivoyatga ko'ra, quruvchilar maqbara ustunlarini tiklashni boshlagan vaqtlarida bir qiyinchilikga duch kelganlar. Ular tomonidan qurilgan ustunlar tunda katta yashil buqa tomonidan buzib tashlangan. Bu haqda eshitgan Temur o'ylanib qoladi. Bir kuni tunda uxlab yotganida Amir Temurning tushiga bir chol kiradi va: "Yassaviyning ustozi Arslon boboning qabrini boshqa joyga o'tkazish kerakligi" ni aytadi. Amir Temur qabrni oldirgach, binoning qurilishi jarayonida muammolar bo'lmaydi.[4, 6-7]

Maqbara binokorlarining aksariyati eronlik quruvchilar bo'lib, bosh ustalar Xo'ja Hasan Sheroziy, Abdulvahhob Sheroziy, Abdulaziz ibn Sharafuddin Tabriziylardir. Ularning nomi bugungi kunga qadar maqbara ustunlararida saqlanib qolgan. Maqbara ziyoratxona, dahma va xonaqohdan iborat bo'lib, unga kiraverishdagi peshtoq ravoqli va baland gumbazlidir. Bino bezaklari Temur davrining hashamatli me'morchiligi uchun an'anaviy, ya'ni, rangli g'ishtlardan iborat naqshlar hamda belbog'lar, sumalaksimon bezaklar, hoshiyalardan iborat. Shuningdek, bu yerda ilohiy mazmundagi bitiklar muhim rol o'ynaydi. Binoda "Olloh", "Muhammad", "Toj-u taxt Ollohga tegishli", "Ollohim mening boshqaruvchim" kabi so'zlar bitilgan.[2, 66]

Maqbaraning quyi qismi milliy naqshlarga bo'yangan, rangdor, yuqorisi esa sidirg'a g'ishtdan terilgan, rangsiz. Binoning ichki qismi balandligi – 39 metr, gumbazining balandligi - 18 metr bo'lgan. Uning mahobatini Bibixonim masjidi va Oqsaroy me'moriy obidalarga tenglashtirish mumkin. Kiraverishda, oyna ichida tarixiy hujjat sifatida Sohibqiron farmoni bilan yozilgan va tasdiqlangan vaqfnoma osib qo'yilgan. Unda xazinadan muttasil ajratilishi ko'zlangan mablag' va uning sarf-xarajatlari belgilab berilgan. Maqbara ichida mashhur qirq quloq qozon ham bo'lib, u 1399-yilda usta Abdulaziz rahbarligida Qarnoqda quyilgan. Qozonning og'irligi 2 tonna, bo'yi 167 sm, eni 247 sm. bo'lib, unda haftada 2 marta kambag'al va beva-bechoralarga halim tortilgan.

Maqbara 35 ta xonadan iborat bo'lib, ulardan turli maqsadlarda (oshxona, kutubxona, masjid, quduqxona, xilxona va b.) foydalanilgan. Maqbaradagi yo'g'onligi 40-60 sm.li, ikki metr uzunlikdagi tol yog'ochidan o'yib tayyorlangan ulkan tovoqlar odamning diqqatini o'ziga tortadi.[5, 413-414]

Sohibqiron farmoni bilan Hindistondan keltirilgan yashil rangli ulkan nefrit tosh Yassaviy qabrining ustiga emas, yoniga o'rnatilgan. Maqbaradagi ayrim xonalaridan go'rxona sifatida foydalanilgan. Jumladan, Shayboniy sulton Abulxayrxon va uning xotini, Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegimning sag'anasi ham shu yerda saqlangan.

Amir Temur Xitoyga yurish paytida vafot etgach, bino qurilishi to'xtab qoladi. Faqatgina XVI asrga kelib bino qurilishi yakunlanadi. Ahmad Yassaviy maqbarasi Buxoro xoni Abdullaxon II (1533-1598) davrida to'liq qurib bitkazilgan.

Ahmad Yassaviy maqbarasidan teparoqda qirq ustunli masjid bo'lgan. 1982-yildagi arxeologik qazishlar chog'ida masjidning xarobalari topilgan. Masjidda xilvatxonalar ham bo'lib, hozirgacha yerto'la shaklidagi to'rt xonasi aniqlangan. Ular 42 ta bo'lgan, degan taxminlar bor. Maqbara va uning atroflari doimiy orasta va toza joylar bo'lgan.[7]

Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo xonliklariga bosqinchilik yurishlari davrida Ahmad Yassaviy maqbarasi katta talofot ko'rgan. General Chernyayev 1864 yil iyun oyida Turkiston shahrini egallagach, maqbaradagi qimmatbaho toshlar bilan bezangan oltin naqshinlarni Rossiyaga olib ketgan.

Oradan 111 yil o'tib, 1975-yilda Qozog'iston SSR hukumati tomonidan Ahmad Yassaviy me'moriy majmuasi hududi (65 ga)ni himoyalash va qayta tiklash rejasi qabul qilgan. 1978-yilda ushbu majmualarda muzey tashkil etilgan.[3,95-98]

Xulosa qilib aytganda, XII asrda yetishib chiqqan turkiy tasavvuf adabiyotining yirik vakili, Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Tatariston, Turkiya va boshqa o'lkalarda keng shuhrat topgan Ahmad Yassaviy vafot etgach, unga yirik hukmdorlar tomonidan munosib ehtirom ko'rsatildi. U abadiy qo'nim topgan joyda katta me'moriy majmua barpo etildi. Markaziy Osiyo me'morchiligining buyuk namunasi, temuriylar va shayboniylar moddiy madaniyatining yuksak namunasi bo'lmish bu inshoot 500 yildan beri bo'lib o'tgan ko'plab tarixiy voqealarning guvohi bo'lib kelmoqda. Uni borligicha asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazish shart va zarurdir.

## Foydalangan adabiyotlar:

1. Axmadali Asqarov. Temur va Ulug'bek davri tarixi. Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996. - B.182
2. Bo'riboy Ahmedov. Amir Temur darslari. Toshkent: Sharq, 2001. - B.66.
3. Hakim Sattoriy. Amir Temur sevgan yurt. Toshkent: Fan, 2018. - B. 95-98.
4. М. Е. Массон. Мавзолей Ходжа Ахмеда Яссеви. Ташкент, 1930. – Б. 19-20.

5. O’zbekiston milliy ensklopediyasi. 10-jild. Toshkent: O’zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. - B. 413-414.
6. https://m.kun.uz/2019.
7. http://kh-davron.uz/kutubxona.

## ERKIN VOHIDOV G'AZALLARIDA HUSNI TA'LIL SAN'ATI

**G.Teshayeva,**
*BuxDU o'zbek filologiyasi fakulteti III bosqich talabasi*
**Sh.N.Axmedova,**
*f.f.d., professor*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Erkin Vohidov ijodida, xususan, g'azallarida qo'llangan husni ta'lil san'ati, bu san'atning qo'llanilish usullari va turlari baytlar misolida tahlil qilingan. Husni ta'lilning va husni ta'lil asosida yuzaga keladigan boshqa she'riy san'atlarning g'azal matnidagi o'rni, shoir g'azallarining o'ziga xos xususiyatlar haqida ham ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *aruz vazni, barmoq vazni, husni ta'lil, g'azal, shibhi husni ta'lil, "sababi illat", timsol, lirik qahramon, zamonaviy o'zbek she'riyati.*

Zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan Erkin Vohidovning ijodi o'zining jozibadorligi, badiiyati va mazmun-mohiyati bilan ajralib turadi. Erkin Vohidov nafaqat barmoq vaznida, balki aruz vaznida ham go'zal she'rlar yaratdi. Shoir yaratgan mumtoz g'azallar, falsafiy qasidalar, sharqning buyuk shoirlari g'azallariga bog'lagan taxmis-muxammaslar, qit'a va fardlar o'zbek adabiyotining chin ma'nodagi durdonalariga aylangan. Xususan, Erkin Vohidov g'azallari o'zining jozibasi, quyma misralari va badiiy san'atlari bilan o'quvchini o'ziga rom etadi. Shoir "Devon"iga kiritilgan g'azallari ma'no jihatidan ham, badiiyati jihatidan ham betakrordir.

G'azallarda badiiy san'atlardan o'rinli foydalanish ijodkor mahoratining muhim qirralaridan biri hisoblanadi. Erkin Vohidov ham o'zinning g'azallarida ajoyib she'riy san'atlardan foydalangan. Ayniqsa, husni ta'lil san'ati g'azallarda mazmun bilan uyg'unlashib, she'rning badiiyatini kuchaytirgan. Husni ta'lil ma'naviy san'atlardan biri hisoblanib, she'rda tasvirlanayotgan narsa yoki hodisaga shoir o'zgacha, jozibali narsani sabab qilib ko'rsatadi. Atoulloh Husayniyning "Badoye us sanoye" asarida husni ta' lil san'atiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Husni ta'lil uldurkim, bir nimaning bir sifatin iqror qilurlar va ul sifatni iqror qilish uchun ul nimaning o'ziga munosib illati (sababning ma'nodoshi) sababni keltirurlarkim, haqiqatga ul sabab bo'lmag'ay, lekin lutf e'tibori bila ani sabab qilg'an bo'lurlar"[1,138].

Quyida E.Vohidov g'azallarida qo'llangan husni ta'lilning bir qancha namunalari tahlil qilingan:

*"Tashna ko'nglum ichmasin deb ko'z yoshimdan qatra ham,*
*Ashk soyining yo'liga kiprigim dahm aylading"* [3,21].

Ushbu baytda E.Vohidov husni ta'lil san'atining go'zal namunasini yaratgan. She'rdagi tasvir juda ham go'zal: "Mening tashna ko'nglim ko'z yoshidan qatra suv ichmasin deb, kipriklarimni ko'z yoshining soyi bo'lgan ko'zlarim yo'liga to'siq qilding". Shoir inson ko'zi ustidagi kipriklarning joylashishini ma'shuqaning oshiqqa bo'lgan iltifotsizligi, jazosi sifatida tasvirlaydi.

*"Ko'zda qaro na iz bul, tun dog'idan asarmu,*
*Mayxona kezdimi yo mastonavor surma"*[3,11].

Surma azaldan Sharq ayollarining sevimli pardoz vositasi bo'lib kelgan. Surma qora rangli moddaga turli aralashma yoki moylar qo'shish orqali tayyorlangan. Lirik qahramon surmaning nega aynan qora rangda bo'lish sababini qidiradi: balki bu qoralik tun dog'idan nishonadir, yoki yorni izlab surma kechalari devonaga o'xshab mayxona kezdimi?! "She'rda keltirilgan husni ta'lil, Sharq adabiyotshunosligida ta'kidlanishicha, qat'iy bo'lishi lozim. Agar gumon ma'nosida qo'llansa, u holda bu sabablar "shibhi husni ta'lil", ya'ni shubhali chiroyli o'xshatish deb ataladi".[2,28] Ushbu baytda ham husni ta'lilning shu turidan foydalanilgan. Keyingi baytda lirik qahramon qoralik sababini topadi: surma yor ko'ziga yetisha olmay hijron o'tida yonib ko'mir bo'lgan.:

*"Yor ko'ziga yetishmak savdo ekan-ku dushvor,*
*Yonib ko'mir bo'libdi bechora zor, surma"* [3,11].

Quyidagi baytda shoir nargis o'simligi misolida ajoyib husni ta'lil yaratgan. O'simlikda gul, barg va tikanning bo'lishi tabiiy holat, lekin E.Vohidov buning sababini shoirona tasvirlaydi. O'z guliga oshiq bo'lgan barg tikanning zahmatlariga indamay dosh beradi. Bunda shoir tashxis san'atidan ham foydalangan holda yori ko'yida jafo chekkan oshiq obrazini bargga ko'chiradi:

*"Voh ajab, o'z nargisiga banda bo'lmish, ne iloj,*
*Indamay kiprik-tikan zahmin chekar nomusli barg"* [3,22].

E.Vohidovning "Uzum" radifli g'azalida adabiyotimizdagi azaliy va abadiy mavzu- ishq mavzusi qalamga olingan. Mumtoz adabiyotimizdagi aksariyat g'azallarda oshiq o'z sevgisi yo'lida juda ko'p sinov-u azoblarga dosh berishi, bu sitamlarni sabr- matonat bilan yengib o'tsagina visolga erishishi tasvirlanadi. Bu g'azalda shoir may tayyorlash uchun uzum donalari xumga solinib, uzoq vaqt bijg'itilish jarayonini yorining visoliga yetishish yo'lida bandi bo'lishga mahkum etilgan bebaxt oshiq holatiga o'xshatadi:

*"Kimki oshiqlikni da'vo aylasa shuldir jazo,*
*Oqibat xum ichra bo'ldi mahkumi zindon uzum"* [3,41].

*"Karnay gulining og'zi ochiq, volayi hayron,*
*Nargisning, ajab, ikki ko'zi sanda bo'libdur".* [3,66]

Gullarning tashqi ko'rinishiga sabab qilib shoir yorning go'zalligini ko'rsatadi. Karnaygul yor go'zalligidan hayratlanib, og'zi ochilib qoladi, nargis esa uning husnidan ko'zini uzolmaydi. Umuman olganda, nargis timsoli Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida ham uchraydi. Navoiy dostonning adab haqidagi 6-maqolatidan so'ng No'shiravon va nargis haqidagi hikoyatni keltiradi[4,142].

Hikoyatda ham nargisning shakli inson ko'ziga o'xshatilgan. E.Vohidov ham gullarning tashqi ko'rinishi asosida ajoyib tasvir yarata olgan.

*"Yormi ko'zguga boqqa yorga yo boqar ko'zgu,*
*Yor yuzini ko'rganda suv bo'lib oqar ko'zgu"*[3,79].

Ushbu baytda ham ko'zgu timsoli jonlantirilgan. Haqiqatdan ham, inson ko'zguga yaqin qarasa, nafasning taftidan ko'zgu yuzasi terlab, mayda tomchilar hosil bo'ladi. Shoir ham hayotdagi shu hodisaning shoirona sababini keltiradi: ma'shuqa yuziga termulgan ko'zgu hayajondan terlab, suv bo'lib oqadi.

*"Qoshi ham o'smadin zangor, dema zangor, erur zangbor,*
*Nechukkim qon to'kib xunxor qilichlar bo'yla zanglaydir"* [3,134].

Mazkur baytda yorning qoshlari asosiy tasvir manbayi bo'lib kelgan. Shoirning fikricha, yor qoshlarining rangi o'smadan zangori tusga kirmagan, balki ular zang rangli, ya'ni qoramtir-qizg'ish tusda, negaki qilichdek qoshlar necha-necha oshiqlarning qonini to'kkanidan qoshlar zanglab, shu tusga kirgan. Bu ifoda uchun shoir qoshning qilichga o'xshashligidan mohirona foydalangan. Bu o'rinda husni ta'lilning yana bir she'riy san'at- tashbeh vositasida yuzaga kelishi ham baytning jozibasini oshirgan. Umuman, mumtoz adabiyotda yor qoshlarini qilichga o'xshatish an'anasi mavjud edi. Biroq Erkin Vohidov an'analar zamirida ham yangilik yarata oldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XX asrda ham o'zbek adabiyotida g'azal yozish an'anasi davom etdi. Bu safning oldingi qatorlarida, shubhasiz, Erkin Vohidov ham bor edi. Erkin Vohidov ustozlari Cho'lpon, Usmon Nosir, G'afur G'ulom kabi shoirlar izidan borib, aruz vaznida yangicha g'azallar yaratdi. Bu g'azallar o'zining mazmun-mohiyati, samimiyati, ravon tili va mohirona qo'llangan she'riy san'atlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, shoir g'azallarida husni ta'lil san'atining mumtoz namunalari yaqqol aks etgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Atoullo Husayniy. Badoye us-sanoye. -T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
2. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya.-T.: Sharq, 1998.
3. Vohidov E. Devon.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.

## МИРЗО АБДУЛВОҲИД МУНЗИМ –БУХОРО ЖАДИДЧИЛИКҲАРАКАТИНИНГ ФАОЛЛАРИДАН БИРИДИР

**С.Иноятов**,
*БухДУ профессори, т.ф.д.*
**А.Собиров,**
*БухДУ тарих ва маданий мерос факультети IV босқич талабаси*

Бухоро жадидчилик ҳаракатининг юксалишида катта ҳисса қўшган ва биринчилар қаторида янги усулдаги мактабни очган Мунзим (Абдулвоҳид Бурхонзода)дир.

Мунзим 1877 йилда Бухорода туғилди. У дастлабки маълумотни Бухоро мадрасаларида олди. Ёшлигида отасидан етим қолган Абдулвоҳид ўша даврнинг машҳур библиофили Шарифжон Махдум – Садр Зиё хонадонида тарбия топди. Бу хонадонда бухоролик зиёлилар тез-тез учрашиб, илмий баҳс-мунозаралар ташкил этар эдилар. Илмга чанқоқ Мунзим ана шу хонадонда Садриддин Айний билан учрашди ва бу учрашув уларни бир умрга дўстлаштирди.

Абдулвоҳид Самарқандга бориб Маҳмудхўжа Беҳбудий ва Абдуқодир Шакурий ташкил қилган янги усул мактабларида ўқитиш тажрибасини ўрганиб келгач, 1908 йилнинг октябрида С.Айний билан ҳамкорликда ўз уйида янги усулдаги мактабни очди.[343]

С.Айнийнинг “Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар” китобида таъкидлашича, бу мактаб 1908 йилнинг 23 октябрида Бухоронинг “Дарвозаи Саллоххона” гузаридаги Мирзо Абдулвоҳиднинг ҳовлисида очилиб, 12 бола ўқитилади. Уларнинг бир қисми пуллик, бир қисми эса текинга ўқитилади.[344]

Худди шундай мактаб Усмонхўжа Пўлатхўжа ўғли томонидан қўшни гузарда ҳам очилган эди.[345]

Мунзим ўз мактаби учун С.Айний билан бирга ўқув қўлланмаларни ҳам яратдилар. Маълум жаҳолатпарастларнинг иғволари ва янгиликка қарши чиқишлари натижасида 1909 йил 26 сентябрда Остонақул қушбеги, Бақохўжа қозикалон ва Бурҳониддин раис топшириғи билан Абдулвоҳид Мунзим мактаби ёпиб қўйилади.[346] Абдулвоҳид Бурхонов 1908 йилда Мукаммил Бурхонов, Ҳамидхўжа Меҳрий, Садриддин Айний, Аҳмаджон Абдусаидов ва бошқалар билан бирга “Тарбияи атфол” (“Болалар тарбияси”) номида Бухоро жадидларининг маърифий жамиятини туздилар. Бу жамиятда Усмон Хўжа, Мусо Саиджоновлар фаол қатнашдилар. Жамият аъзоларининг сони 100дан ошиб, уни моддий жиҳатдан Муҳиддин Мансуров ва Садр Зиё қўллаб-қувватлаб турдилар. Бу ташкилот бухоролик ёшларни хорижга юбориб ўқитиш, янги усул мактаблари учун дарслик, қўлланмалар яратиш, хориждаги ўқишга юборилган болаларга моддий кўмак бериш ишлари билан шуғулланди. Шу жамият кўмагида 1908 йилда Истамбулда 14 та бухоролик ва туркистонлик бола таълим олди. Шу жамият кўмагида Туркияда Абдурауф Фитратнинг бир қатор асарлари чоп этилди. Бу жамият аъзолари, жумладан, Мунзим ҳам бухоролик маърифатпарвар ва зиёлилар

[343]. Қаранг: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. –Б.269-270.

[344]. Қаранг: Темиров Ф.У. Садриддин Айнийнинг Бухородаги жадидчилик ҳаракатида тутган ўрни ва ижтимоий фаолияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. Т.2020.- Б.14.

[345]. Фиш Р., Хашим Р. Глазами совести. Душанбе: “Ирфон”, 1978. С.53

[346]. Қаранг: Жамолова Д.М. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири- XX аср бошлари), Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати.Т.-2019. – Б.15.

ўртасида илғор демократик ғояларни тарғиб этиб, халқнинг сиёсий онгини уйғотишда муҳим роль ўйнадилар. Мунзим Бухоронинг биринчи матбуоти “Бухорои шариф” газетаси ташкил топишининг ташаббускорларидан биридир. У “Мунзим” тахаллуси билан форс-тожик тилида ёзган шеърларини шу газетада босиб чиқарди. Газетанинг 1912 йилда чоп этилган 53-сонида унинг “Ватан”, 59-сонида “То ба кай” (“Қачонгача”), “Мактаб” шеърлари чоп этилган. Бу шеърларда жадидчилик ҳаракати олдига қўйилган маърифатпарварлик, ватанпарварлик, болаларимизнинг илм ўрганиши, миллий ўзлигини англаши каби ғоялар ўз аксини топган.

Мунзим хаттотлик санъати билан ҳам шуғулланган ва уни мукаммал эгаллаган. С.Айнийнинг маслаҳати билан Аҳмад Донишнинг асарларини қўлёзма вариантларини чиройли хаттотлик усулида яратган. Кейинроқ эса ўз уйида типография ташкил этиб, “Қуръони Карим”ни чоп этган ва бу нусха “Қуръони Абдулвоҳидий” ҳамда “Қуръони Мунзим” номлари билан машҳур бўлган. Россияда 1917 йил февраль инқилобидан кейин ва Бухорода амир Олимхоннинг шу йили 7 апрелдаги фармонидан сўнг Бухоро жадидлари Абдулвоҳид Бурхонов Мунзим бошчилигидаги эски-қадимчиларга ва Файзулла Хўжаев ҳамда Абдурауф Фитрат бошчилигидаги янги жадидларга бўлинадилар. Биринчи гуруҳнинг асосий фаолияти маърифат бўлса, иккинчи гуруҳ кенг ислоҳотлар тарафдори эдилар. Бу гуруҳлар ўртасидаги ихтилоф анча кучайган эди. Масалан, амирнинг 1917 йил 7 апрелдаги фармонини “Ёш бухороликлар” кенг халқ оммасига тушунтириш учун митинг, йиғилишлар ва намойишлар ўтказишни А.Фитрат бошчилигидаги гуруҳ аъзолари ёқлаб чиқадилар. Абдулвоҳид Бурхонов бошчилигидаги гуруҳ намойишга қарши чиқади. Кейинчалик бу икки гуруҳнинг бирлашуви натижасида “Ёш бухороликлар” партияси тузилиб, Мунзим унга раис қилиб тайинланади.[347]

Бухорода реакция ва таъқиблар кучайгач, Мунзим ҳам Тошкентга бориб “Учқун” ва “Қутулиш” газеталарига ҳамкорлик қилади. Унинг қатор шеърлари, жумладан, “Баёни ҳол”, “Эй мазлум Шарқ” каби шеърлари шугазеталарнинг саҳифаларида чоп этилади. Бухоро Халқ Республикаси ташкил топгач, Мунзим БХСР МИК раисининг ўринбосари, Халқ маорифи вазири, соғлиқни сақлаш нозири вазифаларида фаолият кўрсатади.

Файзулла Хўжаев бошчилигида Бухоро Халқ Совет Республикаси кадрларни чет элда ўқитишга катта эътибор берадилар. Бир гуруҳ ўқувчи ва талабаларни Германия, Туркия, Россия, Озарбайжон ва бошқа мамлактларга ўқишга юборишга ҳаракат қиладилар. Бу ишларни амалга оширишда Халқ маорифи нозири сифатида Мунзим ҳам катта ҳисса қўшади.“Германияга ўқувчи ва талабаларни юбориш иши – деб ёзади тарих фанлари номзоди, доцент, БХСРнинг тадқиқотчиларидан бири Камол Раҳмонов, - БХСРнинг Москвадаги ваколатхонаси бошлиғи Ато Хўжанинг фаол иштироки ҳамда

[347]. Қаранг: Мухаммаджонова Л.П., Алимова М.М. Бухорода жадидчилик ҳаракати тарихидан. Бухоро: “Дурдона”, 2019.-Б.48; Жамолова Д.М. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири- XX аср бошлари), Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати.Т.-2019. – Б.19.

Германиядаги Винсдарф шаҳарчаси мусулмонлар мачити имоми, татар миллати вакили олимжон Идрисий, ҳукумат раҳбарларидан Файзулла Хўжаев, Қори Йўлдош Пўлатов, Абдулвоҳид Бурхонов, Абдурауф Фитрат ташаббуслари билан амалга оширилди."[348] "Бухоро ахбори" газетасининг 1922 йил 27 августдаги 97-сонида "Германияга талаба кетадур" мақоласида бухоролик 46 талабани Олимжон Идрисий, Абдулвоҳид Бурхонов ва Каменскийлардан иборат махсус комиссия олиб бориши ҳақида хабар берилган. Бухоролик талабаларнинг Германияда таълим олишида Мунзим бош-қош бўлиб турган. У ўзи билан икки ўғлини ҳам олиб бориб Германияда ўқитган. Файзулла Хўжаев бу талабалар ҳаётидан хабар олиш мақсадида Германияга борганлиги ҳақидаги маълумотлар ҳам мавжуд. Германияда таҳсил олиб қайтган талабаларнинг асосий қисми Ўзбекистонга қайтгач, "немис айғоқчиси", "Ватан хоини", "империализм малайи" каби сохта айблар билан қатағон қилинган. Бир қисми эса Сибирь, Магадан, Воркутага сургун қилинган, кўпчилиги ГУЛАГ лагерларида ҳалок бўлган. Булардан 15-16 таси Туркияга муҳожирликка кетиб, жон сақлаб қолганлар.[349]Абдулвоҳид Бурхонов Германиядан қайтгач, Самарқандда нашриёт ходими бўлиб ишлайди. Илмий ва публицистик фаолият билан шуғулланади. 1927 йилдан бошлаб Душанбеда яшаб, "Тожикистони сурх" газетасида бадиий ходим сифатида фаолият кўрсатади. 1934 йил 5 мартда Душанбеда вафот этади. Абдулвоҳид Бурхонов Мунзим шоир, журналист, давлат арбоби сифатида Бухоро, Самарқанд ва Тожикистонда катта фаолият кўрсатган инсонлардан биридир. Афсуски, бугунги кунгача Ўзбекистон ва Тожикистонда унинг фаолияти ҳар томонлама ва чуқур ўрганилмаган. Бугун тадқиқотчилар олдида турган асосий вазифа Мунзимнинг ҳаёти, фаолияти ва ижодини чуқур тадқиқ этиб, унинг асарларини топиб нашр эттиришдан иборатдир.

odiy uyi, 2013.

## BOBUR VA MUSIQA

**M.U.Nayimova,**
*BuxDU san'atshunoslik fakulteti musiqa ta'lim yo'nalishi III bosqich talabasi, viloyat hokimi stipendiyasi sovrindori*

Sharq mutafakkirlari ijodida musiqa san'ati va uning bemisl qudrati haqidagi qarashlar nafaqat maxsus asarlarda, balki badiiy asarlar qatlarida ham ifoda etilgan. Ularda Sharq musiqa san'ati namoyandalari faoliyati, ularning cholg`u sozlariga munosabati, ijro etish mahorati kabi masalalar chuqur va atroflicha ochib berilgan.

---

[348]. Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар). Т.: "ABU MATBUOT - KONSALT", 2012. – Б.123-124.

[349]. Қаранг: Ражабов Қ. Файзулла Хўжаев (Тарихий эссе). Т.: "ABU MATBUOT - KONSALT", 2011. – Б.18; Хайитов Ш. Ўзбек мухожирлиги тарихи. Т.: "ABU MATBUOT - KONSALT", 2008. – Б.54-55

Jumladan, ulug` shoir va sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" qomusiy asari bu jihatdan ancha material bera oladi.

Bobur tarixiy shaxslar haqida to'xtalar ekan, o'rni bilan o'sha davrdagi musiqa ahli nomlarini ham faxr bilan tilga oladi. Jumladan: "Ahli fazl va ahli hunarg`a Alisherbekcha, murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg`ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxiy Noiy va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va takviyati bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar"(1, 179). Bunda shoir Alisher Navoiyning murabbiyligi haqida gapirar ekan, Ustoz Qulmuhammad, Shayxiy Noiy, Husayn Udiy hirotlik musiqashunoslarni tilga oladi. Ularni tilga olish orqali, avvalo, musiqaga muhabbatini namoyish etadi, qolaversa, Navoiyning san'at ahlini qadrlaganligini ta'kidlaydi. Hirotlik bu san'atkorlarni Alisher Navoiy tarbiya etganligi, shuning uchun ular soz chalishda shuhrat qozonganliklarini ham alohida ta'kidlaydi.

Bobur Alisher Navoiyning shoirlik iste'dodi va yaratgan asarlari haqida fikr yuritar ekan, yozadi: " Alisherbek naziri yo'q kishi edi….Yana musiqada yaxshi nimalar bog`labdi…"(1, 179) Bu ulug` mutafakkirning musiqani yaxshi tushunganini ko'rsatib turadi.

Asar tazkira xarakterida bo'lganligi uchun, Bobur o'z davrida ijodkorlari haqida ma'lumot berar ekan, ularning musiqaga muhabbatini ham alohida fazilat sifatida e'tirof etadi. Jumladan, Binoiy xususida yozadi: "Yana Binoiy edi, hiriyliktur…Burunlar musiqiydin bexabar ekandur, bu jihattin Alisherbek ta'n qilur ekandur. Musiqiyda tavr ishlar bog`laptur, ul jumladin bir naqshi bor, «Nuhrang»ga mavsum. Bu to'qquz rangning tuganishi va naqshning yallosi «Rost»tadur"(1, 189). Demak, Binoiy shoir bo'lishi barobarida musiqaga ham qiziqqan. "Nuhrang" ga ohanglar bog`lagan, shundan "Rost" maqomidagi xizmatlari tilga olingan.

Qul Muhammad Udiy o'z davrida musiqada shuhrat qozongan. Bu haqda "Boburnoma"da o'qiymiz: "Yana Qulmuhammad Udiy edi, g`ijjakni ham xo'b cholur edi. G`ijjakka bu uch qil taqti. Ahdi nag`madin va ahdi sozdin hech kim muncha ko'p va xo'b peshrav bog`lag`on emastur. Peshravdin o'zga ishlarda muncha emastur»(1, 192). Ya'ni Udiy g`ijjakni yaxshi chalgan va shu bilan shuhrat qozongan. U shu cholg`u asbobida uch xil kuy bastalalagan.

Shayx Noiy ham o'z davrida, asosan, musiqa bilan shug`ullangan: "Yana Shayxiy Noiy edi, udni va g`ijjakni ham xo'b cholur ekandur. O'n ikki-O'n uch yoshidin beri nayni xo'b cholur ekandur. Bir navbat Badi'uzzamon mirzoning suhbatida bir ishni naydin xo'b chiqarur, Qulmuhammad g`ijjakta ul ishni chiqara olmas. Derkim, g`ijjak noqis sozdur. Shayxiy filhol Qulmuhammadning iligidin g`ijjakni olib, ul ishni g`ijjakta xo'b va poqiza cholur» (1, 192 ). Shayx Noiy, Boburning yozishicha, nay chalishga usta bo'lgan, hatto Qulmuhammad g`ijjakda chiqara olmagan kuylarni u nayda chiroyli ijro eta olgan.

Bobur yashagan davrda yashagan yana bir musiqachi Shohquli G`ijjakiydir. E'tibor berilsa, u davrda keyinroq ham musiqachilar taxalluslariga o'zlari chaladaigan cholg`u asbobi nomini ham qo'shganlar. Bundan ularning qaysi sozda mahoratli ekanliklari ifoda etilgan: «Yana Shohkuli G`ijjakiy edi, Iroqiydur.

Xurosong`a kelib soz mashq qilib, taraqqiy kildi. Xeyli naqsh va peshrav va ishlar bog`labtur» (1, 192).

«Boburnoma»da yana o'qiymiz: «Yana Husayn Udiy edi. Udni mazaliq-mazaliq nimalar aytur edi. Udning torlarini yakka qilib bu cholibtur» (1, 192). Keyingi musiqachining taxallusi ud cholg`u asbobi bilan bog`langan. Ma'lumki, ud ham qadimiy cholg`u sozlaridan bo'lib, undan, asosan, mahzun ohanglar taralgan. Boburning o'zi ham musiqani his etgani holda Husayn Udiyning ud chalish uslubini tushuntirib beradi.

Bobur yana bir musiqachi haqida yozadi: «Yana musanniflardin G`ulom Shodiy edi, Shodiy xonandaning o'g`li edi, agarchi soz cholur edi, vale bu sozandalar chargasida cholmas edi. Yaxshi savtlari va naqshlari bor. Ul zamonda oncha naqsh va savt bog`lar kishi yuk edi» (1, 192). G`ulom Shodiyning san'atkor oilasidan chiqqanligi, uning sozni sozandalar birga chalmasligi, o'z musiqa-kuylari borligi Bobur tomonidan ta'kidlangan.

Boburning o'zi ham musiqaga juda qiziqqan. Bu haqda «Boburnoma»da o'qiymiz: «Necha mahal edi, mundoq nimalarg`a mashg`ulluq qilmaydur edim. Manga ham dag`dag`a bo'ldikim, bir nima bog`lagaymen. Bu taqrib bila «Chorgoh» savtini bog`ladim. Nechukkim, mahallida mazkur bo'lg`usidir» (1, 266). Ulug` shoirning e'tiroficha, u bir muddat musiqa bilan shug`ullanmagan. Keyin esa u kuylar yaratishga harakat qilganligi, buning natijasi sifatida «Chorgoh» maqomiga savtlar bog`laganligi ma'lum bo'ladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Bobur o'zining mashhur «Boburnoma» asarida adabiyot ahllari qatorida san'at namoyandalari ijodiga ham alohida e'tibor qaratganligi ayonlashadi. Qolaversa, mutafakkir shoir qarashlari uning musiqaning chuqur idrok etganligini va o'zi ham bu nafis san'at bilan shug`ullanganligi ko'rsatadi.

**Adabiyotlar:**

1. Zahiriddin M.B. Boburnoma. – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1960. – 504 b.

## ВЕЛИКОЕ МЫШЛЕНИЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА-ЭТО СЧАСТЬЕ, УДАЧА И СОВЕРШЕНСТВО

**О.Н.Мухидова**
*преподаватель кафедры «Трудового обучения» Бухарского государственного университета*
**Н.Н.Алексеева**
*Студентка I курса педагогического факультета Бухарского государственного университета*

Сегодня Узбекистан стремительно развивается. Следуя мудрым традициям наших предков, мы проводим радикальные реформы с глубоким пониманием, мы на пути к формированию нового имиджа нашей страны.

Узбекистан – исторический, духовный и культурный центр великой цивилизации, Узбекского мира. Наши выдающиеся соотечественники внесли бесценный вклад в сокровищницу мировой культуры, науки, искусства.

Наша страна не раз меняла ход истории и геополитическую реальность. Так было в прошлом, так происходит и сегодня. Современный этап истории Узбекистана, её возвращение на путь великой державы неразрывно связаны с именем нашего президента Мирзияева Шавката Миромоновича.

Президент держит под личным контролем все ключевые вопросы, связанные с развитием Узбекистана, с улучшением жизни людей.

В нашем обществе растет политическая активность, проводятся глубокие реформы во всех сферах. Их цель – Построить демократическое государство и справедливое общество, в котором реализация простого и ясного принципа, согласно которому «интерес народа имеет приоритеты перед всеми остальными», является приоритетом.

Согласно сообщениям, Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзияев лично взял на себя управление событиями в Бухаре. Сильный, волевой и амбициозный человек, лидер Узбекистана осмотрел все районы, пострадавшие от стихийного бедствия и оказал психологическую и материальную помощ пострадавшим. Люди чувствовали отеческую заботу о президенте. На этот раз также будут приняты необходимые меры и последствия потери будут быстро устранены.

Глава государства с сожалением отметил, что прошедший сильный ветер стал неожиданным и беспрецедентным стихийным бедствием, негативно сказавшимся на жизни людей, сельском хозяйстве и других сферах.

«Наши люди едины и преодолели много таких испытаний. На этот раз также будут приняты необходимые меры и последствия ущерба будут быстро устранены. Самое главное, если мы будем сражаться вместе без уныния, мы преодолеем эти трудности», - сказал Президент.

Глава нашего государства принимает все необходимые меры, чтобы спасти весь народ, нашу родную Родину, быстро, решительно и правильно. Сегодня Узбекистан является одной из самых эпидемиологических мирных стран в мире благодаря воле, бдительности и предусмотрительности президента Шавката Мирзияева, который принял трудные, а иногда и решительные меры.

Инцидент ранним утром 1 мая на Сардобинском водохранилище в Сырдарьинской области стал одной из крупнейших операций по переселению в истории Узбекистана.«Это было испытание, которого никто не ожидал. Наш первый шаг состоял в том, чтобы эвакуировать людей. Самая большая проблема заключается в том, что не будет никаких смертей. Я прошу старейшин, местных председателей и наблюдателей собрать людей, поставить их в дома, палатки, обеспечить еду и позаботиться о районе». Мы мобилизуем все наши силы и ресурсы для этого. Ни один лидер не уйдет, пока не будут созданы хорошие условия. Мы должны быть терпеливыми и

нести бремя на своих плечах. Ни один дом, ни один человек не останется без внимания», - сказал Шавкат Мирзияев.

Мы живём в самой прекрасной стране, имя которой – Узбекистан. Наша страна богата своей историей, культурой и традициями, которые достались узбекскому народу от великих предков. Но главное богатство нашей Родины – это её народ во главе с Президентом страны, Шавкатом Миромоновичем.

Благодаря деятельности президента, нашу страну признало мировое сообщество, с нашим мнением стали считаться. Мир и стабильность процветают в нашем государстве.

Государственная молодежная политика дает молодым людям хороший шанс стать полноправными гражданами страны. Гражданами, которые не просто ищут личного успеха в жизни, но и созидают для своих близких, своего народа и своей Родины. Всё это создано и создается тяжелым каждодневным трудом. Это основа Общества Всеобщего Труда.

Очевидно то, что нам жить в сформированном нами будущем. Свое будущее мы строим с сегодняшних поступков.

Каждый из нас для себя находит в слове «Родина» особый смысл. Для кого-то это место, где он родился, вырос, приобрел друзей; для другого - где понял своё предназначение в жизни, нашел себя и стал полезным обществу. Есть такие люди, которые защищают мир и покой своей Родины. Эти люди не просто защитники отечества, а герои, которые, не раздумывая, ценой своей жизни, защитят Родину от врага и опасности.

Мы, молодое поколение, пользуемся всеми благами и возможностями, которые предоставляет нам наша Родина. Родители и преподаватели старались вложить в нас как можно больше знаний, которые пригодились нам в будущем, заложили в нас все те ценности, которые определяют хорошего человека. В жизни действует «закон бумеранга» - «что посеешь, то и пожнешь». Нужно уметь не только брать, но и отдавать. Поэтому на нас возложена огромная ответственность - стать хорошими людьми, мастерами своего дела, быть полезными нашей Родине, внести свой вклад в развитие государства. А все те навыки и знания, которые мы приобретем в течение своего жизненного пути, мы должны вложить в следующее, более молодое и неопытное поколение.

Да, не всем в жизни суждено стать великим деятелем, актером или актрисой, космонавтом или знаменитым ученым, но ведь так много других очень интересных, а главное нужных и полезных профессий. Вот, например, врачи, без которых практически невозможно существование! Эти люди - герои, потому что они вовремя принимают решение и спасают людей от страшных болезней и от смерти. Или педагоги, без которых ни мы, ни наши предки не стали бы грамотными и образованными!

Для того, чтобы стать достойными гражданами своей Родины, у нас есть все возможности. Главное - нужно развивать в себе активность, желание узнать что-либо новое и полезное, быть трудолюбивым, справедливым и честным.

В жизни каждого человека есть две самые ценные вещи - это его семья и, конечно же, его Родина. Но Родина становится бесценной, когда понимаешь, насколько она тебе дорога!

Будущее страны зависит от самого народа. Основу нашего народа составляет молодежь, поэтому это так важно - дать каждому хорошее образование и выпустить в свет специалистов со знаниями, которые помогали бы дальнейшему развитию нашей страны. Но чтоб это стало реальностью, необходимо иметь отличную систему образования, которую и создало наше государство.

Сотрудничество с другими странами в области образования дает Узбекистану большие возможности, например, возможность обмена студентами, благодаря чему происходит обмен культурой и знаниями. Это повышает уровень образования в нашей стране и подтверждает слова: «Узбекистан - страна с великим будущим», так как будущее - это мы, молодежь с хорошим образованием.

Наша Родина священна как наш дом и семья, и дорога, потому что дает много возможностей и создает благоприятную почву для достижения наших целей. Так давай те же ценить каждый прожитый день в солнечном Узбекистане и помогать нашему правительству развивать все сферы деятельности быстрыми темпами. Ведь для истории двадцать шесть лет - не показатель, а для жизни - это целое поколение! Развитие государства зависит, в первую очередь, от самого народа, и что мы должны не только пользоваться дарами нашей Республики, но и отдавать ей взамен свою любовь!

Сегодня мы воспитываем молодое поколение в духе национальной идеи. На лекциях по общественным дисциплинам мы подчеркиваем, что национальная идея опирается на идею свободы личности. Личность, которая знает свои права, опирающаяся только на свои силы и возможности, умеющая самостоятельно оценивать происходящие события, согласовывать личные интересы с интересами общества, сможет правильно оценить принципы национальной идеологии. Изжить из жизни общества настроение равнодушия, иждивенчества, взяточничества, а также воспитание высоконравственного, духовно богатого, социально активного, физически сильного поколения — все это повышает эффективность национальной идеологии, наших стремлений в построении демократического общества. Национальная идея опирается на традиции и обычаи, на высокую духовность нашего народа. Она созвучна с идеями справедливости, равенства, свободы и является опорой нации и народа.

Мы хотим, чтобы наш общий Дом — Узбекистан процветал, смотрел с уверенностью в будущее, и для этого нам необходимо чтобы миролюбивые, гуманные отношения между людьми стали естественной и повседневной нормой не зависимо от их религиозных убеждений и расовой принадлежности.

Культурные ценности народа, его духовное наследие на протяжении тысячелетий служили мощным источником духовности для народов Востока. Несмотря на жёсткий идеологический прессинг на протяжении длительного периода, народу Узбекистана удалось сохранить свои исторические и культурные ценности и самобытные традиции, которые бережно передавались от поколения к поколению.

Узбекистан - страна с многолетней историей, известная всему миру, как «жемчужина Востока», дарящая теплые лучи солнца своему народу и когда-то открывшая Великий Шелковый Путь, великих мыслителей Востока (Аль-Хорезми, Аль- Бухари, Ибн Сино (Авиценна), Аль-Бируни, Амир Тимур, Алишер Навои, Бабур и многие другие), обладающая природными ресурсами, отличным климатом, позволяющим выращивать одни из самых лучших сортов хлопка в мире; страна с особенностями восточного менталитета и гостеприимностью. Узбекистан сегодня - это независимое, демократическое, светское государство, идущее быстрыми темпами по пути собственного развития и открывающее новые двери в путь мировых вершин! Так будем же достойными нашей Родины!

**Список литературы:**

1. И. А. Каримов “Высокая духовность непобедимая сила” Ташкент 2008г.
2. Шадриков В.Д. Происхождение человека. Учебное пособие для вузов. 2-е изд. – М.: Логос, 2004.
3. Ксенофонтов В. I. Духовность как экзистенциальная проблема // Философские науки, 1991.
4. «Podrobno.uz» - Новости Узбекистана

# BOSHLANG`ICH SINFLARDA KOMBINATORIK TOPSHIRIQLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH

**F.M.Qosimov**
*BuxDU,Maktabgacha va boshlangich ta’lim fakulteti dotsenti*
**M.I.Tursunova**
*BuxDU, Maktabgacha va boshlangich ta’lim fakulteti talabasi*

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan , yuksak intelektual va ma’naviy salohiyotga ega bo’lib ,dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi ,baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” O’zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Buyuk kelajak esa zukko,topqir,bilag’on yuksak

ma'naviyatli avlod bilan quriladi. Shunday ekan bilag'on, topqir, zukko yoshlarni tarbiyalash ,ularda topqirlik, zukkolikni qaror toptirish ta'lim muassasalarining ,xususan,maktabgacha ta'lim muassasasi,maktablarning oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan hisoblanadi.. Matematika darslarida o'quvchilarda topqirlik,ziyraklik,zukkolik,tezkorlik fazilatlarini shakllantirish uchun darslarni an'anaviy va noan'anaviy tarzda tashkil etish, qolaversa, darsda turli didaktik o'yinlar va metodlar,keyslar va topshiriqlar ,savollardan foydalanish samarali natija beradi. Hozirgi paytda maktablarda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo'yicha bilimlar berish bilan birga ularga o'rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo'lishini ta'minlash ,ularni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan o'quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli ,ularning to'plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo'llashga o'rgatish o'ziga xos xususiyatlarga ega.Matematik masalalar,ijodiy mazmundagi masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir .Ijodiy mazmundagi topshiriqlarning bir ko`rinishi bu misol va masalalarni biror belgisiga ko`ra sinflarga ajratishga doir (kombinatorik xarakterdagi)topshiriqlardir.

Hayotda shunday masalalarga duch kelinadiki, unda u yoki bu chekli to`plamning to`plam ostilarini qarashga to`g`ri keladi.Masalan,agronomning mavjud yerlardan mahsuldor bo`lgan yerni tanlashi; quruvchining binoni qurishda qurilish materiallaridan unumli foydalanishi;shaxmatchining mavjud bo`lgan "yurish" imkoniyatlaridan qulay "yurish"ni tanlashi; o`quvchining o`quv topshirig`ini to`g`ri va tez bajarishda qulay usulni tanlashi kabi masalalar shular jumlasidandir.Bunday masalalarga kombinatorik masalalar deyiladi.Kombinatorik mazmundagi masala-topshiriqlarni bajarishda o`quvchi kombinatorikaning ikki qoidasi:yig`indi qoidasi va ko`paytma qoidasiga asoslanadi.Yig`indi qoidasi chekli to`plamlar birlashmasidagi elementlar sonini topishni, ko`paytma qoidasi to`plamlar dekart ko`paytmasidagi elementlar sonini topishni ifodalaydi.

Kombinatorikani mustaqil fan sifatida birinchi bo`lib olmon matematigi G.Leybnits o`rgangan va 1666-yilda "Kombinatorika san`ati haqida" asarini chop etgan.

Boshlang`ich sinf matematika darsliklarida kombinatorikaga oid masalalar mavjud,ammo ular tizimli tarzda o`z ifodasini topmagan.Ko`pgina topshiriqlar yi`g`indi qoidasiga asoslangan masalalardir.

Shu bilan birga, o`rinlashtirishlar, o`rin almashtirishlar va guruhlashga doir ayrim o`quv topshiriqlari ham keltirilgan.Boshlang`ich sinfdanoq o`quvchilarni kombinatorik mazmundagi masala-topshiriqlar bilan tizimli tarzda tanishtirib borish orqali o`quvchida ijodiy faoliyati o`sadi. O`quvchi hayotiy masalalarni yechganda mustaqil fikr yuritib, ma`lum xulosalar chiqara oladigan bo`lib tarbiyalanishiga yordam beradi.1-sinfdan boshlab o`quvchilarni kombinatorik masala-topshiriqlar bilan tanishtirish matematika ta`limini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.O`quvchiga "kombinatorik masala", "kombinatorik

topshiriq" degan atamalarni ishlatmay, dastlab "yig`indini topishga doir soda masalalar"ni yechish jarayonida kombinatorikaning yig`indi qoidasini qo`llab topshiriqlar bajartiriladi.Tartib raqamlari bilan tanishtirish jarayonida o`quvchilar o`rin almashtirishlar tushunchasiga tayyorlanadi. Masalalarga namuna sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1-masala.

1-sinf o`quvchisiga stol ustidagi 3ta turli xildagi o`yinchoq mashina "DAMAS", "LASETTI", "NEKSIYA"dan 2tasini ajratib olishini so`raganda, o`quvchi turli variantlarni ko`rsatadi:

1) "DAMAS", "LASETTI" ;
2) 2) "LASETTI", "NEKSIYA";
3) 3) "DAMAS", "NEKSIYA"

2-masala

Korxonada 10ta erkak va 8ayol xodim ishloaydi.Shu korxonadan bitta xodimni necha xil usulda tanlab olish mumkin?

Yechish: a-erkak xodimni tanlash , b-ayol xodimni tanlash bo`lsin. U holda shartga ko`ra , m(a)=10, m(b)=8 bo`lgani uchun bitta xodim ni m(a yoki b)=m(a)+m(b)=10+8=18 usulda tanlash mumkin.

3-masala.

A qishloqdan B qishloqqa 2ta yo`l bor,Bdan C qishloqqa 3ta yo`l olib boradi.A qishloqdan C qishloqqa B qishloqni bosib o`tib, necha usulda borish mumkin? Degan masala kombinatorikaning ko`paytma qoidasiga asoslanib yechiladi.Masalan A dan Bga boruvchi yo`lni (a,b), B dan C ga boruvchi 3ta yo`lni (1,2,3) deb belgilansa A dan C ga B ni bosib o`tuvchi yo`llar quyidagi juftliklarni ifodalaydi:

(a;1), (a;2), (a;3), (b;1), (b;2), (b;3).Demak,bu yo`llardan 6 usulda boorish mumkin ekan.Masala formula yordamiga ko`rahisoblanadi:

N(AxB)=n(A)*n(B)=2*3=6.

4-masala.

10 ta talabadan iborat guruhga ikkita yo`llanma ajratildi.Bu yo`llanmalarni necha xil usulda tarqatish mumkin?

Yechish: a-birinchi yo`llanmani, b-ikkinchi yo`llanmani tarqatishni ifodalasin.U holda m(a)=10, m(b)=9,chunki bitta talabaga birinchi yo`llanma berilganda,ikkinchi yo`llanmaga to`qqizta talaba davogar bo`ladi.Demak,ikki yo`llanmani tarqatishlar soni m(a va b)= =m(a)*m(b)=10*9=90 ga teng bo`ladi.

5-masala.

Qurilishda 12ta suvoqchi va 8ta bo`yoqchi ishlaydi. Ulardan bir suvoqchi va bir bo`yoqchidan iborat juftlikni necha usulda tanlash mumkin?

Yechish:a-suvoqchilarni ,b- bo`yoqchilarni ifodalasin.m(a) =12, m(b)=8 bo`lgani uchun

m(a va b)=m(a)*m(b)=12*8=96 usulda tanlash mumkin.

Kombinatorik mazmundagi topshiriqlarni bajarishda o`quvchidan katta mas`uliyat talab qilinadi. Birinchidan, berilgan topshiriqning kombinatorik

topshiriq ekanligini aniqlash; ikkinchidan, kombinatorik topshiriqlarning qanday turiga mansubligini bilish: (o`rinlashtirish,o`rin almashtirish, guruhlash,); uchinchidan, topshiriqning natijasini bilish(kombinatorikaga oid formulalardan foydalanib); to`rtinchidan, o`quvchi tomonidan kombinatorik topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda matematika darslarida kombinatorik masalalarning oson usullarni topish metodlarini topib,ulardan foydalanish o'quvchilarda topqirlik, ziyraklik,faollikni oshiradi.Bu usullarni o'ylab topish esa har bir pedagogik xodimning vazifasi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon , demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent"O'zbekiston" 2016-yil 59 bet
2. Matematika 3-sinf S.Burxonov, O'.Xudoyorov, Q.Norqulova Toshkent "Sharq" 2019-yil
3. Mantiqiy masalalar. A. Quchqarov, SH. Ismoilov Toshkent- 2008-yil 30-bet
4. M.Jumayev,Z.Tadjiyeva "Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi"T. 2005y

# ИНФОРМАТИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА – ТРЕБОВАНИЕ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА

**Р.Р.Нематова**
*Старший преподаватель кафедры Психологии*
*Бухарский государственный университет*
**Н.Ф.Убайдуллаева**
*Бухарскийгасударный университета*
*Студент направление психологии*

Каждое общество, думающее о будущем своей страны, должно заботиться о гармоничном всесторонне развитом и духовно богатом развитии молодого поколения. После обретения независимости, особенно в последние четыре-пять лет, руководство страны уделяет этому вопросу большое внимание.

Важным направлением социально-экономических преобразований в Узбекистане является реформа системы образования республики и ее интеграция в мировое образовательное пространство. На это направлена и Национальная программа по подготовке кадров. Уже к концу 20-го века роль знания во всем мире невероятно возросла. Уровень владения знанием, или, более обобщенно, информацией начинает определять политический и хозяйственный статус государств. А для успешной работы в таких условиях государствам нужны люди - высококвалифицированные специалисты,

отвечающие самым высоким требованиям современности. Поэтому образование превращается в один из источников самых ценных стратегических ресурсов - человеческого капитала и знаний, что, в конечном счете, определяет общий уровень развития общества. И главным ускорителем его развития становится информатизация. Информатизация общества, в свою очередь, практически невозможна без компьютеризации системы образования, в силу чего эта проблема по своей значимости выходит сейчас на первое место в педагогической науке. Приоритетность этой проблемы усиливается еще и тем, что она является принципиально новой. Возникнув вместе с появлением компьютера, т.е. в последние два десятилетия, она не может использовать опыт прошлых веков и тысячелетий, как это делается в классической педагогике, и вынуждена развиваться только "изнутри", формируя свою научную базу одновременно во всех необходимых сферах - философии, психологии, педагогике и методике.

Педагог современной школы осуществляет профессиональную деятельность в период высоких темпов развития науки и технологий, информационной цивилизации, работает в условиях, когда научное знание устаревает и обновляется быстрее, чем успевает усвоиться учениками в рамках специально организованного процесса обучения. Глобальное противоречие современного образования заключается в том, что школа призвана подготовить ребенка к жизни в условиях неопределенности и высоких темпов развития, то есть, к жизни в мире, о котором сам учитель не имеет четкого представления.

Умение школьников получать информацию из альтернативных системе формального образования источников (СМИ, Интернет, социальная среда и т.п.) приводит к тому, что уровень социальной компетентности и информированности некоторых учащихся зачастую оказывается выше, чем у обучающего их педагога. Сам же педагог, опираясь на свой прошлый опыт и стереотипы деятельности, стремится научить школьников «тому, что знает сам».[350]

Комплексная информатизация школ и вузов ориентируется теперь на формирование и развитие интеллектуального потенциала науки, совершенствование форм и содержания учебного процесса, внедрение компьютерных методов обучения, использование в педагогической работе современных информационных технологий.

Попытаемся систематизировать, где и как целесообразно использовать информационные технологии в обучении, учитывая, что современные компьютеры позволяют интегрировать в рамках одной программы тексты, графику, звук, анимацию, видеоклипы, высококачественные

1. [350]Новыепедагогические и информационные технологии в системе образования: Учеб.пособие для студ. пед. вузов и системы повыш. квалиф. пед. кадров / Е.С. Полат, М.Ю. Бухаркина, М.В. Моисеева, А.Е. Петров; Под ред. Е.С. Полат. - М.: Издательский центр “Академия”, 2003. – 224 с.

фотоизображения, достаточно большие объемы полноэкранного видео, качество которого не уступает телевизионному:

1) при изложении нового материала — визуализация знаний (демонстрационно - энциклопедические программы; программа презентаций PowerPoint);

2) проведение виртуальных лабораторных работ с использованием обучающих программ типа "Физикон", "Живая геометрия";

3) закрепление изложенного материала (тренинг — разнообразные обучающие программы, лабораторные работы);

4) система контроля и проверки (тестирование с оцениванием, контролирующие программы);

5) самостоятельная работа учащихся (обучающие программы типа "Репетитор", энциклопедии, развивающие программы);

6) при возможности отказа от классно-урочной системы: проведение интегрированных уроков по методу проектов, результатом которых будет создание Web-страниц, проведение телеконференций, использование современных Интернет-технологий;

7) тренировка конкретных способностей учащегося (внимание, память, мышление и т.д.). [351]

Важнейшими задачами информатизации образования являются:

1) повышение качества подготовки специалистов на основе использования в учебном процессе современных информационных технологий;

2) применение активных методов обучения, повышение творческой и интеллектуальной составляющих учебной деятельности;

3) интеграция различных видов образовательной деятельности (учебной, исследовательской и т.д.);

4) адаптация информационных технологий обучения к индивидуальным особенностям обучаемого;

5) разработка новых информационных технологий обучения, способствующих активизации познавательной деятельности обучаемого и повышению мотивации на освоение средств и методов информатики для эффективного применения в профессиональной деятельности;

6) обеспечение непрерывности и преемственности в обучении;

Одной из важнейших задач информатизации образования является формирование **информационной культуры** специалиста, уровень сформированности которой определяется, во-первых, знаниями об информации, информационных процессах, моделях и технологиях; во-вторых, умениями и навыками применения средств и методов обработки и анализа информации в различных видах деятельности; в-третьих, умением использовать современные информационные технологии в

2. [351]Основы web-технологий. Курс лекций. П.Б. Храмцов, С.А. Брик, А.М. Русак, А.И. Сурин. Интернет-Университет Информационных Технологий, 2003

профессиональной (образовательной) деятельности; в-четвертых, мировоззренческим видением окружающего мира как открытой информационной системы.

В настоящее время в развитии процесса информатизации образования проявляются следующие тенденции:

1) формирование системы непрерывного образования как универсальной формы деятельности, направленной на постоянное развитие личности в течение всей жизни;

2) создание единого информационного образовательного пространства;

3) активное внедрение новых средств и методов обучения, ориентированных на использование информационных технологий;

4) синтез средств и методов традиционного и компьютерного образования;

5) создание системы опережающего образования.

Изменяется также содержание деятельности преподавателя; преподаватель перестает быть просто "репродуктором" знаний, становится разработчиком новой технологии обучения, что, с одной стороны, повышает его творческую активность, а с другой - требует высокого уровня технологической и методической подготовленности. Появилось новое направление деятельности педагога - разработка информационных технологий обучения и программно-методических учебных комплексов.[352]

В **заключение** следует отметить, что в информационном обществе, когда информация становится высшей ценностью, а информационная культура человека - определяющим фактором их профессиональной деятельности, изменяются и требования к системе образования, происходит существенное повышение статуса образования.

**Список литературы:**

1. Новыепедагогические и информационные технологии в системе образования: Учеб.пособие для студ. пед. вузов и системы повыш. квалиф. пед. кадров / Е.С. Полат, М.Ю. Бухаркина, М.В. Моисеева, А.Е. Петров; Под ред. Е.С. Полат. - М.: Издательский центр “Академия”, 2003. – 224 с.
2. Основы web-технологий. Курс лекций. П.Б. Храмцов, С.А. Брик, А.М. Русак, А.И. Сурин. Интернет-Университет Информационных Технологий, 2003
3. Панкова Г.Д. Организационные формы в информационной среде обучения //Информационные технологии в высшем гуманитарном образовании: Сб. статей, Бишкек: БГУ, 2003. - С. 148-161.

3. [352]Панкова Г.Д. Организационные формы в информационной среде обучения //Информационные технологии в высшем гуманитарном образовании: Сб. статей, Бишкек: БГУ, 2003. - С. 148-161.

# ПСИХОЛОГИЯДА ФРУСТРАЦИЯ МУАММОСИНИНГ ЎРГАНИЛГАНЛИГИ ВА УНИНГ ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТАДҚИҚИ ХУСУСИДА

**У.С.Жумаев**

*Бухду "Психология" кафедраси доценти, психология фанлари номзоди*

Психология фанида инсон руҳиятида яққол намоён бўладиган психик ҳолатлар – стресс, хавотирланиш, фрустрация ва бошқаларга алоҳида эътибор берилмоқда. Хориж психологиясида бу иборалар тушунчалари нисбатан ниҳоятда эҳтиёткорлик билан қўлланилади. Бироқ ҳақиқатда ҳам бу ерда гап организмнинг муҳитга фаол мослашиш билан боғлиқ реакцияси, яъни унинг барча психик ҳаётига чуқур таъсир этувчи ҳолати ҳақида бормоқда. Фрустрация муаммоси кўплаб назарий ва экспериментал тадқиқотлар предмети бўлиб, кўп ҳолларда тажриба ишлари ҳайвонлар ва болаларда ўтказилади. Фрустрация ҳақида кўплаб қарашлар нашр этилган бўлса ҳам кўпгина жиҳатлари қолмоқда. Шу сабабли фрустрация назариясини яратиш кераклигига шубҳа йўқ. Рид Лоусоннинг «Фрустрация илмий назариянинг ривожланиши» деган китобида мазкур муаммони турли жиҳатдан очиб беришга муваффақ бўлган.

Фрустрация тушунчасини талқин этишда ҳам қийинчиликлар мавжуд. Сўзнинг луғавий маъносига эътибор берсак, у «frustration» сўзидан олинган бўлиб, режани барбод бўлиши, фикрни, ғояни йўқотиш деган маъноларни англатади, яъни муваффақиятсизликка учрагандаги жароҳатлантирувчи ҳолатни билдиради. Кўриниб турибдики, сўзнинг луғавий маъноси кенг тарқалган, лекин ҳамма томонидан кенг қўлланилмайдиган фрустрация тушунчасига жуда яқин. Фрустрация муаммосини кенгроқ жиҳатдан ҳаётий қийинчиликларга нисбатан чидамлилик ва унга реакцияси сифатида талқин этиш керак.

И.П.Павлов бош мия катта ярим шарлари пўстлоқ қисмида нохуш ҳолат вужудга келтирадиган кўплаб ҳаётий вазиятлар ҳақида тез тез фикр юритар экан, у шундай фикрни эътироф этади: «Умуман олганда ҳаёт ёқимсиз, қийинчиликларга тўла, бу қийинчиликлар асаб тизимига кучли таъсир қилиб, ўзининг борлигидан далолат бериб туради». Ҳаёт доимо жуда қийин деб баҳолаш мумкин, қийин вазиятлар кутилмаган қўзғалишни, депрессияни вужудга келтиради. Ҳаётдаги қийинчиликларни 2 тоифага бўлиш мумкин: енгиб ўтиш мумкин бўлган қийинчиликлар, бироқ бунинг учун жуда кўп куч сарфлаш керак бўлади. К.Д.Ушинский таъкидлаб ўтганидек «Ҳар қандай меҳнат қийинчиликлар билан боғлик. Мазкур қийинчиликлар кишида руҳий тараққиёти ва касбий махоратни ўзлаштириш учун муҳим шароит ҳисобланади». Характерга мос қатъиятлилик қийинчиликларга қарши курашда, тўсиқларни енгиб ўтишда намоён бўлади. Фрустрация назарияси бундай қийинчиликларга таалуқли эмас, агарда таалуқли бўлса у ҳолда енгиб ўтилиши мумкин бўлган қийинчиликлар субъект томонидан бартараф этиб

бўлмайдиган тўсиқ сифатида субъектив тарзда идрок қилинади. Мазкур қийинчилик олдида инсон таслим бўлади.

Бошқа тоифа қийинчиликлар умуман енгиб ўтиб бўлмайдиганлари (баъзи қийинчиликларни ҳозир енгиб бўлмайди, кейинчалик эса албатта бартараф этилади. Масалан, саратон ва қандли диабед касалларига даво бўлмаслиги мумкин, лекин келажакда унинг давоси топилиши мумкин). Фрустрация муаммосини ўрганувчи тадқиқотчилар ҳақиқатда ҳам енгиб ўтиб бўлмайдиган тўсиқ, қаршилик, муаммоларни қийинчилик сифатида қараб, уларни мақсадга эришиш эҳтиёжлари қондиришга таъсир қилувчи вазият деб баҳолашади. Ҳаётда шундай қийинчиликлар мавжудки, улар омадсизлик, бахтсизлик кўринишда кутилмаганда пайдо бўлади, уларни шартли равишда тўсиқ ёки муаммо деб аташ мумкин.

Фрустрация ҳодисаси кўп ҳолларда фаолиятдаги тўсиқларга нисбатан ўрганилади, фрустрация тушунчасини ташқи сабаблар (вазиятлар) ёки у томонидан вужудга келтириладиган ҳолатга тадбиқ этиш масаласи ҳам ноаниқ ҳисобланади. Кўпгина адабиётларда мазкур тушунчани ҳар икки шаклда қўлланилганини кузатиш мумкин. Психологияга оид манбалардаги стресс – психик ҳолат, стресслар уни қўзғатувчисини фарқлагани каби фрустатор – ташқи сабаб ва фрустрация унинг организм ёки шахсга таъсирини фарқлаш лозим. Илмий манбаларда фрустратор тушунчаси ҳам қўлланилади. Бироқ фрустрация тушунчаси моҳиятини очиб беришда фрустратор иборасидан ҳам кенг фойдаланилади. Психология фанида фрустрацияга берилган таърифлар ичида АҚШлик тадқиқотчи С.Розенцвейгнинг қарашлари ҳақиқатга сазовордир. Унга кўра «Фрустрация - бу организмнинг у ёки бу ҳаётий эҳтиёжини қондириш йўлида турган енгиб бўлмас қийинчилик ёки тўсиқларга дуч келишидир». Бу ерда фрустрация организмининг ташқи муҳитга мослашишида рўй берадиган ҳодиса сифатида қаралмоқда. Браун ва Фаберлар томонидан берилган таърифга кўра, «Фрустрация - кутилаётган реакциянинг кечикиши ёки тормозланиши билан боғлиқ ҳолатларнинг натижасидир». Лоусон эса фрустрацияни «Мақсад ва реакция ўртасидаги зиддият» деб қарайди. Браун ва Фабер эса асосий эътиборни фрустраторлар таъсирида вужудга келадиган қарама-қаршиликка қаратади. Айнан мана шу қарама-қаршилик мазкур вазиятда вужудга келадиган реакциядан фарқ қилувчи эмоционалликни акс эттиради. Муаммоларнинг ташқи сабаб ва вужудга келтирган ҳолатни фарқлаш ҳақидаги қарашларни маъқуллаган ҳолда Чайльд ва Уотерзаузлар Браун ва Фаберларга қарама-қарши ўлароқ, «Фрустрация - организм фаолиятига халақит берувчи факт» деб аташни таклиф қилишади. Юқоридаги фрустрация психик ҳолат эканлиги ҳақидаги қарашларга асосланган ҳолда, рус психологи Н.Д.Левитов қуйидагича таъриф беради:

«Фрустрация - шахснинг мақсадга эришиш ёки муаммоларини ҳал этиш йўлида пайдо бўладиган объектив жиҳатдан енгиб бўлмайдиган (субъектив жиҳатдан шундай идрок қилинадиган) қийинчиликлар томонидан вужудга келтириладиган кечинма ва хулқ-атворга хос бўлган ҳолатдир». Ҳайвонларга

нисбатан тадбиқ этганда эса уни қуйидагича таърифлаш мумкин: «Фрустрация ҳайвонларнинг биологик эҳтиёжини қондириш йўлида турган қийинчиликлар туфайли пайдо бўладиган реакцияларга хос ҳолатидир». Бундай икки хил таъриф беришнинг сабаби, ҳайвонлар биологик, инсон эса ижтимоий мавжудотдир, фрустрация ҳолатида ҳам фарқ бўлиши табиий. Фрустрацияни шахс ва организм ҳаёт фаолияти учун муҳим бўлган қонуниятлари қаторига қўшиш кераклиги ҳақидаги қарашлар ҳам мавжуд. Биринчиси ирсият, ривожланиш шароити ва ҳаётий тажриба билан белгиланадиган хулқ-атвор репертуари киради. Иккинчи қувватни танланган ва саралаб олинган жараён ҳам ташкил этади. Улар ҳам ўз навбатида амал қиладиган ва фрустрацияда пайдо бўладиганларга бўлинади. Биринчиси муайян мотивлар асосида (уларда энг муҳими эҳтиёжларни қондириш) вужудга келган мақсадга эришишга қаратилган фаолиятда амал қилади. Бундай ҳолларда хулқ-атвор доимо муаммони ҳал этиш йўлидир. Бошқа танланган жараён ёки механизмлар ҳам фрустрацияда ўзига хос ўринга эга, мотивациялашган ва мақсадга йўналтирилган хулқ-атвор вериабеллиги (турли-туман кўринишда намоён бўлиш) конструктивлиги (маълум тартибда тузилганлиги) ёки етилганлиги, танлаш эркинлигини машқ қилинганлиги билан ажралиб туради. Фрустрацияга хос мақсадга йўналтирилмаган хулқ-атвор эса деструктивлик, ригидлик ва етук эмаслик хусусиятига эга. Фрустрацияни ҳеч нарса билан мотивациялашмаган деб айтиш мумкинми деган шубҳа пайдо бўлади. Агар ташқи тўсиқ бартараф этиладиган бўлса, у ҳолда бу хатти-ҳаракат нафақат мотивациялашган, балки онгли равишда ташкил этилган бўлади. Бу вазиятда хеч қандай мақсад ва мотив йўқ деб айтиш мумкин эмас.

Фрустрация муаммосини фрейдизм таълимотида ҳам учратиш мумкин. Фрейдизмнинг бевосита таъсирисиз Курт Левин ўзининг фаолиятини блокировка қилувчи тўсиқ ҳақидаги муаммосини илгари сурди. Фрустрация муаммосига бағишланган экспериментал тадқиқот олиб борадиган кўпгина тадқиқотчиларнинг фрейдизмга умуман алоқалари мавжуд эмас. Фрустрациянинг фрейдизмга хос талқинини ижтимоий психологияни янги маълумотлар билан бойитиш мақсадида ижтимоий ҳодисаларни тушунтиришга ҳам тадбиқ этилмоқда. “Фрустрация ва тажовуз” китобида ҳатто урушлар инсоннинг истак-майллари, талаб ва умидларининг поймол этилиши деб қаралади. Л.Берковитц фикрича, ижтимоий муносабатлардаги тажовуз фрустрациядан бошқа нарса эмас, у инсоннинг инстинктлари ва муҳит ўртасидаги зиддиятлардир. Антрополог Б.Малиновский фикрича эса махбуслар учун тажовуз шаклида табиат томонидан берилган фрустрация хосдир.

Майер ўзининг «Ижтимоий ҳаракатларда фрустрациянинг роли» китобида мамлакатлар ўртасидаги ўзаро алоқаларни тушунтиришда фрустрация ҳодисасини қўллайди. Масалан, у «Биз Россиядан Германия ва Япония фрустрациясидан унинг мақсадлари учун кўпроқ қўрқамиз» деб ёзади.

АҚШдаги фрустрацияга оид ишларда бихевиоризмнинг кучли таъсири сезилиб туради. Лоусон «Фрустрацияга бўлган қизиқиш, ички ҳолатга бўлган қизиқиш сифатида бихевиаристик талқинда псевдомуаммо (ёлғон, сохта) га айлантирилди» деб ёзади. Инсоннинг ички дунёси деб аталадиган онгнинг, йўналмаганликнинг, муносабатлар тизимининг ва кечинмаларнинг мавжудлиги бихевиоризм томонидан рад этилиши ёки илмий изланишлар учун арзимайди деб қарайди.

Психологиядаги объективлик талабига кўра инсоннинг ички дунёсини рад этиб бўлмайди, уни ўрганишнинг объектив методлари эса тажриба, кузатиш, ўзини-ўзи кузатишни талаб қиладиган ўзига-ўзи ҳисобот беришдан иборатдир. Бихевиоризм инсондан ижтимоий детерминациялашган мураккаб ҳолати бўлган, фрустрация муаммосини соддалаштириб, торайтириб юборади.

Одамда фрустрация кишининг фрустратор деб аталувчи қўзғатувчи вазиятлар таъсирига рекцияси сифатида ўрганилади. Агар фрустратор томонидан келтирилиб чиқариладиган ҳолатларни реакция деб тушуниш мумкин бўлса, унга қаршилик кўрсатиб бўлмайди.

Фрустрация ҳақида гап кетганда хориж психологлари энг аввало бажариладиган ҳаракат ва иш ҳаракатларини назарда тутадилар. Бироқ ҳар бир иш ҳаракат психологик жиҳатдан турлича мазмунга эга эканлигига эътибор берилмайди. Кўп ҳолларда жуда кучли ва чуқур фрустрацияни кечириш ташқи томондан кучсиз ифодаланиши мумкин, чунки у шахснинг ички ҳолатига чуқур кирган бўлади. Бошига қаттиқ мусибат тушган киши йиғламаслиги мумкин, ташқи томондан хотиржам кўриниши мумкин. Бироқ, у бор ғамни кўзидан дув-дув ёш тўкаётган кишига нисбатан чуқурроқ кечаётган бўлади.

Фрустрация пайтидаги психик ҳолатларни ўрганишга қарши бўлган психологлар, жумладан, Лоусон ҳам фрустрация вақтидаги «боғланган ўзгарувчи сифатида, тасаввур ва эмоционалликдаги ўзгаришлар» ни санаб ўтади. Фрустратор томонидан чақириладиган психик ҳолат, шубҳасиз, фрустраторнинг типига боғлиқ бўлади. С.Розенцвейг мазкур вазиятларнинг учта типини кўрсатади: Биринчи гуруҳга маҳрум бўлиш (privation) ни киритади, яъни, эҳтиёжларни қондириш ёки мақсадга эришиш воситаларининг йўқлиги. Ташқи маҳрум бўлиш сифатида фрустратор кишидан ташқарида бўлган вазият назарда тутилади. Масалан, инсоннинг қорни жуда оч, лекин, овқат топа олмайди. Иккинчи типни йўқотиш (deprivation) ташкил этади. Масалан, яқин кишисини йўқотиш, уйининг ёниб кетиши (ташқи йўқотиш) ва бошқалар. Учинчи вазичт типи – низолар. Мақсадни амалга оширишда пайдо бўладиган ички қарама-қаршиликлар йўқотиш, маҳрум бўлиш ва низоли вазиятлардаги психик ҳолатлар бир хилда эмас. Мазмуни, кучи ва аҳамиятига кўра йўқотиш, маҳрум бўлиш ва низолар ҳам бир-биридан фарқ қилади. Фрустраторларнинг таъсири ҳар доим ўзига хос индивидуал шаклларда намоён бўлади. Шундай вазиятлар ҳам учраб турадики фрустраторлар фрустрацияни юзага келтирмайди. Илмий

адабиётларда бу ҳолат кўпинча толерантлик (бағри кенглик) ибораси билан аталади, яъни фрустраторлар мавжуд бўлганда чидамлилик, тоқатлилик, оғир кечинма ҳамда кескин реакцияларнинг йўқлигидир. Толерантликнинг турли шаклари мавжуд. Энг "соғлом" ва маъқул психик ҳолат фрустраторнинг мавжудлигига қарамай, хотиржамлик, мушоҳадалиликни йўқотмаслик, содир бўлган вазиятни ҳаётий сабоқ (дарс) сифатида қабул қилишга тайёргарликдир. Толерантлик нафақат хотиржам ҳолатда, балки маъқул бўлмаган импульсив реакцияларни тўхтатиб туришда, зўриқиш ва куч сарфлашда намоён бўлишида ҳам намоён бўлиши мумкин.

Толерантликни тарбиялаш мумкин: Кейстер ва Эпдегрефнинг тажрибаларида болалар изчиллик билан яқинлашни методидан фойдаланиб аста секин мураккаблашиб борувчи вазифаларни ечишни машқ қилишган. Натижада уларда хатто энг қийин ечиб бўлмайдиган масалаларга ҳам хотиржам муносабатда бўла олишган.

Девицнинг тажрибалари кўрсатишича, одатий вазиятда ўзини хотиржам тутиб бошқа болалар билан ўйнашга ўргатилганда, сал хотиржамроқ бўлган муитда тарбияланаётган болага нисбатан фрустрацияда тажовузкорлик камроқ намоён этишади. Тўсиқларга нисбатан толерантликни ақлли ва ниҳояттда керакли деб баҳолаш мумкин. Мазкур вазиятда толерантлик ибораси адекват эмас. Бу ерда гап «тўсиқлар" га чидаш ҳақида эмас, балки, унинг зарурлиги ва фойдалилигини тан ола билиш. Аксинча фрустрацияни мазкур тўсиқ йўқ пайтида хис қилиш зарур. Толерантлик йўқ, лекин фрустрация мавжуд бўлган пайтдаги психик ҳолат қандай хусусиятга эга.

Мазкур ҳолатлар ранг-баранг бўлиб, турли сабабларга боғлиқ, улар таъсирининг аҳамияти, уларга одатланишида субъектнинг индивидуал хусусиятлари роли катта. Битта фрустратор ҳар бир кишида турлича реакцияни вужудга келтиради. Америкада чоп этилган психологик адабиётларида фрустратор таъсирига инсон реакцияси сифатида тажовузкорликни ажратиб кўрсатиш кенг тарқалган. Хатто ҳар қандай агрессияни фрустрация деб аташ расм бўлган. Мазкур муаллифлар ўзларининг мақолаларининг бирида шундай ёзишади: «Инсон табиатини ўзгаришида шу нарсага эътибор бериш керакки, у агар агрессияни кўриб қолса фрустрация йўқмикан деб шубҳаланади, агар гуруҳ ва индивид одамлари ўртасида тормозланиш (интерференция) кузатилса улар орасида тажовуз йўқмикан деган фикр пайдо бўлади, улар ҳар қандай агрессия (тажовуз)га фрустрацияга боғлашади. Фрустрация пайтидаги агрессияга шу даражада кўп эътибор беришадики, уларнинг қарашлаи фрустрация тажовуз назарияси деб юритилади. Айнипайтда агрессия фрустрациянинг ягона реакция шакли деб ҳисоблашга хеч қандай асос мавжуд эмас».

Тажовуз сўзининг айнан таржимаси босиб олиш мақсадида ўз хохиши билан хужум қилиш деган маънони билдиради. Фрустрация ҳақида сўз кетганда агрессия (тажовуз) тушунчасига кенг аҳамият берилади. Бу ҳолат ўз ичига тахдид, хужум қилиш хохиши, душманлик, бевосита бостириб бориш кабиларни ҳам қамраб олади. Тажовуз ҳолати ташқи жиҳатдан яққол

ифодаланади, яъни жанжалкашлик, қўполлик, ёвузлик ва асабийликда намоён бўлади. Тажовуз деб аталувчи типик ҳолат нафрат, тартибсиз ҳаракатлар, ёвузлик, кимгадир ёки нимагадир ғазабни сочиш хохиши билан ҳарактерланади. Тажовузкорликнинг энг кенг тарқалган кўриниши қўполликдир. Тажовуз пайтида ўзини-ўзи назорат қилиш йўқолади. Имтихондан ўта олмаган ўқувчи баъзан хеч қандай тажовузкорона ҳаракатларни содир этмаслиги мумкин, шу билан бирга бутун айбни хеч қандай йиби бўлмаган кишига – педагог, ота-она ёки ўртоқларига «заҳрини» сочиши мумкин.

Г.Андерсон шахс тараққиётининг маълум даражаси билан тажовуз ўртасидаги боғлиқликни рад этади. У шахс тараққиётининг олтита даражасини ажратади. Юқори даража - ижтимоий яхлит хулқ-атвор итоат этиш, етакчиликни тан олиш билан ҳарактерланади. Кейинги даража «устунликдан қочиш» ёки расман тан олиш, агар иложи бўлса айланиб ўтиб кетиш хос. Учинчи даражага тажовуз, душманлик, нафрат киради. Ундан қуйида иккиланиш, ҳаракатсизлик, хавотирлик туради. энг қуйи даражада эса дезентеграция, невроз туради. Бу схемадаги марказий ўринни хукмронликка ва етакчиликка муносабат эгаллайди. Тажовуз фрустрациянинг стеник ёки фаол кўринишларидан биридир. Бироқ фрустрация фаол ва стеник кўринишларини агрессияга тадбиқ этиш мумкин эмас. Баъзи тадқиқотчилар, жумладан, Майер фрустрациянинг типик кўриниши фиксация (қайд этиш) деб атайди. Бу тушунчани икки хил мазмунда тушуниш мумкин. Кўп ҳолларда у ҳаракатларнинг стереотиплиги, тез тез такрорланиш деб тушунилади. Шу билан бирга, фрустраторга алоқадорлик деб тушуниш мумкин, яъни, узоқ вақт мобайнида фрустраторни идрок қилиш, хис қилиш ва тахлил этишдир. Бу ерда ҳаракатларнинг стереотиплиги эмас, балки идрок ва тафаккурнинг такрорланиб туришидир. Фрустратор таъсирига жавобнинг алоҳида шакли – инжиқ хулқ атвордир.

Фрустрациянинг фаол кўринишларидан бири фаолиятнинг чалғиш, «унутиш» га ҳаракат қилишдир. Стеник кўринишлар билан бир қаторда фрустрациянинг фрустратор таъсирига нисбатан астеник реакция депрессия ҳам мавжуд. Депрессияни агрессияга қарама-қарши деб ҳам қабул қилиш мумкин. Уни қайд этиш (фиксация) билан адаштириш мумкин эмас. Депрессия учун эса хафа бўлиш, ишончсизлик, кучсизлик, баъзан эса афсусланиш хислари хосдир. Унинг ранг-баранг кўринишларидан бири апатия (бефарқлик) ва индамасликдир. Баркер депрессиянинг бир кўриниши сифатида Регрессияни ажратиб кўрсатади. Регрессия деганда, хулқ-атворнинг энг содда, оддий кўринишларига қайтиш, фрустратор таъсирида фаолият даражасининг бузилиши, пасайиши тушунилади. Баъзи тадқиқотчилар регрессия тушунчасига умуман бошқа ҳолатларни киритишади. Дастлаб болалар икки гуруҳга (25-40 ойликлар, 41-61 ойликлар) бўлинади. Болалар 30 минут давомида мустақил ўйнашади. Полдаги учта квадратлар ичида ўйинчоқлар, қаламлар ва қоғозлар солиб қўйилган. Сўнгра учта босқичдан иборат тажриба бошланди. Биринчи давр фрустрациядан олдинги давр деб

номланади. Болаларга дастлаб янги ва қизиқарли ўйинчоқларни ўйнаш таклиф қилинди. Ўйинчоқлар шундай жойлаштирилган эдики, улар болаларнинг эътиборини тортишиши табиий эди. Агар тажриба ўтказувчи болаларда ўйинчоқларга бўлган қизиқиш пасайганини сезса, уларни мақтаб бу ўйинчоқлар билан ўйнаш қанчалик қизиқарли ва завқли эканлигини таъкидлаб турган. Бу давр 5 минутдан 15 минутгача давом этган. Текширувчининг буйруғи билан болалар хонанинг бу қисмини тарк этиб бошқа томонига ўтишди. Нафис парда туширилиб, қизиқарли ўйинчоқлар кўриниб турадиган қилиб қўйилган. Энди фрустрация даври бошланди. Болаларга чиройли, қизиқарли ўйинчоқлар кўриниб турса ҳам, эски, зерикарли ўйинчоқларни ўйнашга мажбур бўлишган. Тажриба ўтказувчи стол ёнида ўтириб, тажриба шароити ўзгаришини сезмаган бўлиб, ниманидир ёзиб ўтиради. Учинчи давр фрустрациядан кейинги давр. Парда кўтарилиб болаларга яна қизиқарли ўйинчоқлар билан ўйнаш имкони берилди. Бу давр болаларга қизиқарли ўйинчоқлар ўйнаш эҳтиёжини қондириш учун белгиланди. Биринчи иккита даврда болаларнинг хулқ-атвори, айниқса болалар ўйинларининг “ташкил этилиши” диққат билан кузатиб турилди, яъни ўйиннинг пухта ўйналганлиги, мураккаблиги, ижодкорлигига алоҳида эътибор берилди. Ўйиннинг конструктивлиги 7 балли шкала асосида баҳоланди. Бундан ташқари ўйин операцияларини бажаришга сарфланган вақт ҳам эътиборга олинди. 30 нафар боланинг 22 тасида фрустратор таъсирида конструктивлик сезиларли даражада пасайган 3 нафар болада дастлабки даражада сақланиб қолган. 5 нафари эса ўйин фаолиятида сусткашлик вақтни чўзиш ҳолати кузатилди.

Мазкур тажриба методикаси баъзи танқидий фикрларга учраган. Масалан, тажрибага интеллект гап деган фикрлар бор. Тажрибада иштрок этган болаларнинг 20% да регрессия кузатилмаган. Умуман мазкур вазиятда фрустрация бўлганми деган савол туғилади. Дастлаб қизиқарли, янги ўйинни ўйнаган болалар энди қизиқарсиз ўйинни ўйнашни хохламасалар бу ерда регрессия ёки оддийликка қайтишнинг ўзи қани деган савол туғилади. Қизиқарли китобни ўқиб бўлган киши зерикарли китобни секин ва юзаки ўқиши табиий. Келтирилган фактлардаги регрессия кўриниши борлигига қўйилмаган ҳолда, фрустрация ҳолатида элементар кечинма ва хулқ-атвор шакллари мавжудлигини ошкор қилиб бўлмайди. Баъзи тўсиқларга дуч келган мактаб ўқувчиси худди ёш боладек кўз ёш тўкиши табиий. Регрессияга хос оддийлик нафақат ташқи ифодаланадиган реакцияларга балки, кимнингдир эркалаш, рахми келишига бўлган эҳтиёжга ҳам хос бўлиши мумкин. Агрессия каби регрессия фрустрацияси натижаси бўлиши шарт эмас. У бошқа сабабларга кўра масалан, танқид қилиш ёки ихтиёрий равишда бошқаларнинг рахмини келтириш орқали ҳам вужудга келиши мумкин. Фрустрацияга хос бўлган типик хусусият эмоционалликдир. Финч маълумотларига кўра, шимпанзеда эмоционал хулқ-атвор ташқи муҳитга мослашишнинг бошқа усуллари самара бермаган пайтда намоён бўлади. Лоусон ва Маркcларнинг фикрича болалар фрустрация пайтида кўплаб

эмоционалликни ифодалашади, чунки, улар мослашишда кам имкониятларга эгадир. Мана шу фанда эмоционал реакция вужудга келади. Фрустрация шундай низоли вазиятда пайдо бўладики, унда умидсизлик, самарасизлик туфайли мотивларнинг курашининг йўқлиги, ички иккиланиш тўсиқларини бартараф этиб бўладими деган шубҳа пайдо бўлади. Беҳисоб шубҳа ва гумонларнинг ўзи жуда катта тўсиқ ҳисобланади.

Фрустрация нафақат ўзининг психологик мазмуни ва йўналишига кўра, балки давомийлигига кўра ҳам фарқланади. Фрустрацияни ифодаловчи психик ҳолатлар қисқа муддатли учқун сифатидаги тажовуз ёки депрессия, баъзан узоқ муддатли кайфият сифатида кишининг шахси ва хулқ атворида ўзига хос из қолдириши мумкин. Бошқа психик ҳолатлар каби фрустрация: а) шахс ҳарактеридаги типик хусусият; б) нотипик, янги шахс хусусиятларининг пайдо бўлишининг ифодаси; в) эпизодик ўтиб кетувчи ҳолат бўлиши мумкин. Агрессия ҳолати – мувозанатсиз, қўпол кишиларга, депрессия ҳолати эса ўзига ишончи паст бўлган кишиларга хосдир. Бироқ, тажовуз ўзини тута биладиган, лекин аста-секин ўзини тута билмайдиган бўлиб қолган кишида бир неча фрустрациядан кейин пайдо бўлиши мумкин. Шундай фрустратор омиллар бўлиши мумкинки, энг тинчликсевар, хотиржам кишида ҳам тажовузкорликни келтириб чиқариш мумкин. Бироқ, у вазиятли ҳолат бўлгани учун шахснинг чуқур ҳолатига айланмайди. Шахс хулқ-атворидаги фрустрациянинг қуйидаги турларини фарқлаш мумкин: а) қўзғалиш – мақсадсиз, тартибсиз реакциялар; б) апатия (бефарқлик); в) тажовуз ва деструкция; г) стереотия – қайд қилинган хулқ-атворни кўр-кўрона такрорлашга мойиллик; д) регрессия – хулқ-атворнинг олдинги давридаги моделларига қайтиш ва бошқалардир.

Шундай қилиб, таълим муассасаларида тарбияланувчилар ва таълим берувчилар инновацион фаолиятини самарали амалга оширишда ҳар бир шахсда юқори мотивацион мулоқотга киришувчанликни ривожланганлиги муҳим омил саналиб, ўз фаолиятлари жараёнида биргаликдаги ижодий ишни амалга оширишда, оптимал алоқага киришувчанлик хусусияти, ташкилотчилик қобилияти ва жамоа орасида ўз ўрнига эга бўлишда низоли вазиятларни оқилона бартараф этишларида фрустрация ҳақидаги билим ва кўникмаларнинг шаклланганлиги ижобий омиллардан бири ҳисобланади.

## Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ж. Пиаже, П. Фресс «Эксперименталная психология». М. 1990.
2. А. Рогов «Настольная книга практического психолога». М. 1999.
3. Р. С. Немов «Психология». В. 3-х книгах. М. 2000.
4. Г. М. Маришук «Методики психодиагностики в спорте». М. 1990.
5. С. Жалилова «Психодиагностика». Т. 2000.
6. А. И. Шербаков «Словар». М. 1990.

# ЛИДЕРСТВО В КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЯХ И УНИКАЛЬНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ

**Ш.И.Тойирова**
*Бухарский гасударный университета*
*Учителъ кафедра психологии*
**Ж.Т.Нозимова**
*Бухарскийгасударный университета*
*Студент направление психологии*

*В этой статье освещаются характеристики лидерства и проявления лидерских навыков в конфликтных ситуациях.*

Наша жизнь связана с различными процессами, и поиск решений этих препятствий поможет нам достичь наших целей.Наши цели часто помогают нам выйти из конфликтных ситуаций. На первый взгляд, конфликт в разногласиях, но это не так, мы стараемся его охватить. Это поведенческое расстройство или ещё можно назвать психическое расстройство. Учёные понимают это по-разному. Например: психолог Ковалев Г. объясняет конфликт: «Конфликт возникает, когда люди решают социальные и личные проблемы, но любое сопротивление не вызывает споров.[353] Руководство и подчиненные могут не соглашаться друг с другом, и каждый согласится». Тем не менее, они часто вынуждены работать вместе, и конфликт иногда вызывает раздражение, эмоции, недоразумение, пренебрежение и другие причины.

Жизнь не может быть без конфликта, но мы должны быть в состоянии найти способы разрешения конфликтов и конфликтов в жизни, особенно в случае старших руководителей. Разница в лидерстве в предотвращении конфликтов важно знать этику гравитации. Если лидер всегда настаивает на том, что я лидер, его работа с подчинёнными, если они не согласны, постепенно замедлится, что приведет к нездоровой обстановке в команде и в группе. Конфликты воздействуют на психику человека таким образом, что он создает внутренние чувства и негативные реакции на людей. Ухудшение отношений между руководителем и подчинённым может привести к этапам игнорирования руководителем работника и негативного отношения к руководителю. Конфликты не влияют на формирование фазы лидерства, но эта деятельность может завершиться только тем, что окажет негативное или позитивное влияние на самовыражение в процессе обеда. Положительный эффект конфликта может быть очень эффективным, даже в руководстве.Оценка и анализ конфликтов требует их классификации и систематизации по типу.

---

[353]**БиллУизерс** Управление конфликтами. - СПб., 2004.

Социологи фокусируются на макро- или микро-уровнях конфликтов, их основных типах, социально-экономических, национально-этнических и политических. Юристы разделяют внутренние и внешние конфликты, их проявление, а также экономические, финансовые и имущественные споры в контексте рынков домохозяйств, семьи, культуры, общества и труда.
Управление имеет другой подход к классификации конфликтов. Он основан на элементах конфликта, его индивидуальных обстоятельствах, способах его проявления, причинах конфликта, конфликтной ситуации, ее мотивах, интересах, деятельности личности, социальной группы (сообщества) и общества.

В зависимости от характера конфликта его можно найти во всех аспектах общественной жизни. В связи с этим И.Е. Ворожский и его коллеги делят конфликт на социально-экономические, религиозные, этнические, политические, военные, правовые, семейные, социальные и другие типы конфликтов.[354]

Из анализа психологической литературы можно сказать, что лидеры взаимодействуют в большинстве случаев через пять основных способов: убеждение, утверждение, подражание, влияние, принуждение.[355]

Из вышеупомянутых методов ясно, что они также отражаются в формах взаимодействия между офицерами и сотрудниками полиции. Потому что в некоторых случаях порядок выдачи приказов и распоряжений, изданных управляющим, оценивается по возникновению противоречий, в зависимости от того, соответствуют ли они установленным внутренним правилам учреждения. Порядок исполнения приказов и заданий, учитывая, что лидер обладает достаточными полномочиями в сообществе, может отражать уровень веры в влияние. В противном случае подчиненность голове значительно ослаблена.
Мы рекомендуем следующее руководству для предотвращения и разрешения конфликта:

1. Разрешение конфликта должно быть сначала должным образом оценено с учетом обстоятельств конфликта.
2. Нет необходимости создавать условия для конфликта.
3. Определение сущности конфликта, личного примирения в разрешении конфликта.
4. Необходимо выявить субъективные причины конфликта.
5. Определение направления конфликта субъектами.
6. Прислушиваться к мыслям и чувствам участников конфликта и не делать поспешных результатов, сосредоточиться на предмете конфликта.
7. Внимательно прислушиваясь к тому, что говорится о нем после конфликта, время взрыва и грубость всего этого усиливают конфликт.

---

[354]**Андреева Г. М.**Социальная психология. М.:Аспект Пресс, 2000.-376 с.

[355]**Гришина Н.В.**Психология конфликта. - СПб., 2005.

8. Необходимо найти наилучший способ разрешения конфликта.

**Список использованной литературы**


1. Билл Уизерс Управление конфликтами. - СПб., 2004.
2. Андреева Г. М. Социальная психология. М.:Аспект Пресс, 2000.-376 с.
3. Гришина Н.В. Психология конфликта. - СПб., 2005.


## QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASH VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA DAVLAT ORGANLARINING MA’SULIYATI


**F.U.Nodirbekov**
*Andijon davlat universiteti, Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti III bosqich talabasi*


Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish yuzasidan qator chora-tadbirlar izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlashning institutsional va huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimi yaratildi.

Mazkur yo‘nalishdagi islohotlarni amalga oshirish davomida milliy qonunlarga xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalarini singdirish masalasiga alohida e’tibor berildi va bu munosabat 2008 yilda qabul qilingan «Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida»gi Qonunda o‘z aksini topdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-yanvar kuni “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida" gi qonun imzolandi. U**shbu hujjat mamlakatimizdagi korruptsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslarini belgilab, u 6 tabobva 34 moddadan tashkil topdi.**

Qonundan ko‘zlangan maqsad korrupsiyaga qarsha kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Hujjatda “korrupsiya”, “korrupsion huquqbuzarlik” va “manfaatlar mojarosi” kabi tushunchalarga izoh berilgan.

Bu davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning namoyon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha shakllariga

nisbatan murosasiz munosabat qaror topadi.34 moddadan iborat qonunda, avvalo, korrupsiya bilan bog‘liq tushunchalar berilgan. Korrupsiya shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir.

Hujjatda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy tamoyillari sifatida qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining o‘zaro hamkorligi; korrupsiyadan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarligi bo‘yicha choralar ustuvorligi keltirib o‘tilgan.

Qonunda davlat organi xodimi biror bir shaxs tomonidan uni korrupsion huquqbuzarlikni sodir etishga da’vat qilish holati, shuningdek, boshqa ishchilar tomonidan shu kabi holatlarning amalga oshirilishi bo‘yicha unga oshkor bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z rahbari yoki huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat etishi belgilangan. Mazkur majburiyatlarning bajarilmasligi qonunchilikka muvofiq tegishli ravishda jazoga tortilishiga olib keladi.

**Qonunda belgilangan asosiy yo‘nalishlar davlat idoralari, tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korruptsiyaga qarshi kurashish choralarining samardorligini oshirish, jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaga oid hodisalarga yo‘l qo‘ymaslik, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishdan iboratdir.**

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy prinsiplari va yo‘nalishlari mustahkamlangan. Unga ko‘ra, qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va oshkoralik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi, qorrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplaridir.Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sirasiga aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish kiradi. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash ham shular jumlasidandir.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashuvchi vakolatli organlar tizimi keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar, Adliya vazirliklari, Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi

davlat organlaridir. Qonunga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonun hujjatlariga asosan boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Qonundan kelib chiqib korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va ularning tizimlarida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid faoliyat yanada takomillashadi.Ushbu yo‘nalishdagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyalarni tashkil etish nazarda tutilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Bunday komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Qonundagi e’tiborli jihatlardan yana biri, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning ishtirok etishi mexanizmlari belgilanganidir. Zero, bu institutlar jamiyatda jamoat nazorati qaror topishida, adolat muvozanati ta’minlanishida o‘ziga xos o‘rin tutib kelmoqda. Ularning jamiyat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi korrupsiya illatiga qarshi kurashishda ishtirok etishi shu yo‘nalishdagi faoliyat samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish, javobgarlikning muqarrarligini ta’minlashga oid me’yorlar belgilangani qonunning muhim jihatlaridan. Qonunga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning zamonaviy shakllari va uslublaridan foydalaniladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlariga doir murojaatlari to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqiladi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot bergan shaxslarning himoya qilinishi ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu qonun nafaqat korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi mustahkamlanishi, balki har bir rahbar, har bir fuqaroning o‘ziga yuklatilgan vazifani sidqidildan, halol ado etishini talab etadi. Bu mamlakatimizda sog‘lom muhit qaror topishiga, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda qilingan ma`ruzadan. // “Xalq so`zi” 2016-yil 7-dekabr.
2. “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida"gi qonundan. 2017-yil 3-yanvar Toshkent.
3. 2017-2021-yillarda O`zbekistonni yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, 2017-yil, 82-bet

# ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРНИНГ ҒОЯВИЙ-МАФКУРАВИЙ ТАРБИЯСИДА МАЪНАВИЙ МЕРОС ИМКОНИЯТЛАРИ

**Д.Турсунов**
*Жиззах давлат педагогика институти*
*Умумий педагогика кафедра ўқитувчиси*
**Д.Каромиддинова**
*Жиззах давлат педагогика институи*
*Тарих факультети МҒ,маънавият асослари,*
*ҳуқуқ таълими йўналиши II босқич талабаси*

Республикамизда амалга оширилаётган фаол ислоҳотлар ғоявий-мафкуравий тарбияни янги босқичга кўтариш, ўқувчиларда ғоявий мафкуравий компетентликни ривожлантириш масаласини алоҳида тадқиқ этишни тақозо этади. Ўзбекистон Республикасида умуминсоний қадриятларга содиқлик; халқимизнинг миллий меросини мустаҳкамлаш ва ривожлантириш; инсоннинг ўз имкониятларини эркин намоён қилиши, шунингдек, баркамол инсонни вояга етказиш масаласи ҳаётий зарурият сифатида эътироф этилмоқда. Ўқувчиларда юксак маънавиятни шакллантириш умуммиллий, умумдавлат миқёсидаги вазифага айланди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ғоявий-мафкуравий тарбия масаласига ўз эътиборини қаратиб, ўзининг маъруза ва нутқларида “мафкура соҳасида бўшлиқ деган нарсанинг ўзи ҳеч қачон бўлмайди. Чунки инсоннинг қалби, мияси, онгу тафаккури ҳеч қачон ахборот олишдан, фикрлашдан, таъсирланишдан тўхтамайди. Демак, унга доимо маънавий озиқ керак. Агар шу озиқни ўзи яшаётган муҳитдан олмаса ёки бу муҳит уни қониқтирмаса, нима бўлади, айтинглар? Бундай озиқни у аста-секин бошқа ёқдан излайди. Шунга йўл бермаслигимиз керак. Мана, гап нима ҳақида кетяпти!”[356], деб таъкидлаб ўтади.

Айниқса, Шавкат Мирзиёев маъруза ва нутқларида жамиятни педагогизациялаш шароитида ғоявий-мафкуравий тарбия жараёнига комплекс ёндашиш лозимлиги, ижтимоий институтлар ҳамкорлигини тизимли йўлга қўйиш муҳимлигига алоҳида эътибор қаратилмоқда: “Ўзини жамиятимиз, ёшларимиз маънавияти, ғоявий-мафкуравий тарбияси учун масъул деб билган инсонлар – бу маҳалла ёки диний ташкилотлар бўладими, ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимлари ёки катта таъсир кучига эга ижодкор зиёлилар бўладими – уларнинг барчаси айниқса фаол бўлишлари лозим”[357].

---

[356]Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнь куни Тошкент шаҳрида «Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби» мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. http://uza.uz/oz/politics/vatanimiz-ta-diri-va-kelazhagi-y-lida-yanada-amzhi-at-b-lib--15-06-2017

[357] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнь куни Тошкент шаҳрида «Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби» мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. http://uza.uz/oz/politics/vatanimiz-ta-diri-va-kelazhagi-y-lida-yanada-amzhi-at-b-lib--15-06-2017

Ҳозирги вақтда бош ва асосий ғоялар, тамойил ва тушунчалар таълим-тарбия жараёнида ўқувчилар онгини ғоявий ва маънавий жиҳатдан ривожланишида ҳамда уларни турли ёт ва бегона ғоялар таъсиридан ҳимоялашда муайян даражада роль ўйнамоқда. Бугунги кунда миллий мафкура назариясида бош ва асосий ғоялар ҳамда тамойиллар шаклланган бўлсада, бироқ ҳозиргача унинг назарий концепциясида ғоявий тарбия жараёни учун долзарб аҳамиятга эга бўлган мафкуравий категориялар аниқ шакллантирилмаган.

Маълумки, мафкуравий категориялар– бу методологик ва дунёқараш мазмунига эга бўлган, мафкуравий билиш ҳамда мафкуравий амалиёт тарихий тараққиёти натижасида вужудга келиб, ғоявий тус олган ва ўзаро бир-бири билан қонуний боғланган асосий тушунчалардир.

Улар таснифланганда асосан уч турга: идеал (позитив) образларни ифодаловчи категориялар; ноидеал (негатив) образларини ифодаловчи категориялар; ҳолат ва жараёнларни ифодаловчи категорияларга бўлинади.

Мукаммал структурага эга бўлган ҳар бир мафкура концепциясида ғоялар ва тамойиллардан ташқари мафкуравий категориялар ҳам мавжуд бўлади. Улар ўз мазмуни ва функциясига кўра кенг халқ оммасида образлар яъни, мафкуравий тимсолларни яратади. Француз олими Густав Лебон айтганидек, “омма бу – доимо онгли шахснинг йўқолиши ва туйғу ҳамда фикрларнинг бирор йўналишга қаратилиши демакдир. Уларнибошқариш учун инсонларнинг аввало туйғулари ва тасаввурларига таъсир кўрсатиш керак. Бунинг учун эса ғояларни образларга айлантириш керак. Ана шунда улар (ғоялар) онгостига кириб боради, туйғуларга айланади. Туйғулар омма хулқ-атворининг асосий стимуляторига айланади”[358].

Инсонни туйғуси ва тасаввурига таъсир эта олмаган мафкура жамиятда ўз вазифасини бажара олмайди. Шу нуқтаи назардан ёндашганда, ҳозирда миллий мафкура орқали кишилар, жумладан, ўқувчи-ёшларнинг туйғуси ва тасаввурига таъсир эта олиши учунунинг концепциясида идеал (позитив) ва ноидеал (негатив) образларни ҳамда борлиқдаги ҳолат ва жараёнларни ифодаловчи категорияларни шакллантириш зарурати мавжуд.

Миллий мафкура учун зарур бўлган идеал (позитив) образларни ифодаловчи категориялар ўқувчилар онгида идеал (позитив)инсон ва макон тўғрисида тасаввур ҳосил этиш ва уларни ана шу образлар томон ҳаракат қилишга ундаш, ноидеал (негатив) образларини ифодаловчи категориялар эса, идеал(позитив) инсон ва маконнинг акси бўлган образлар тасаввурини ҳосил этишва уларни мазкур хавф-хатарлардан огоҳ этиш вазифаларини бажаради. Миллий мафкура учун зарур бўлган ҳолат ва жараёнларни ифодаловчи категориялар ҳам ўз навбатида ижтимоий воқеликдаги ҳолат ва жараёнларни мафкуравий мақсаддан келиб чиққан ҳолда, ўқувчи-ёшларга халқчил ва ишонарли равишда ифодалаб бериш вазифасини бажаради. Мана

[358]Лебон Г. Психология народов и масс. – СПБ:1896. –159 с.

шунда мазкур уч турдаги категориялар ўз функциялари орқали миллий мафкуранинг ғоявий ва маънавий тарбияни ташкил этишдаги самарадорлигини таъминлаб беради.

Юқорида таъкидлаганимиздек, миллий мафкурада мазкур таснифдаги категорияларга эҳтиёж катта. Ҳозирда албатта, бундай категорияларнинг баъзилари миллий мафкура таркибида мавжуд, лекин уларни такомиллаштириш ва бошқа категориялар билан комбинациялаштиришга зарурат мавжуд.

Маълумки, "дунёвий фан тили билан айтганда эзгулик ва ёвузлик, диний тафаккур нуқтаи назаридан қараганда хайр ва шарр инсон табиатига хос"бўлиб, буни мафкура орқали ўқувчи-ёшларга англатиш биринчи даражали масала ҳисобланади[359]. Албатта, ушбу масаланитадқиқ этишда "миллий тарихимиз ва умумбашарий тараққиёт ривожига унутилмас ҳисса қўшган олиму фузалоларнинг мафкура ва унинг жамият ҳаётидаги аҳамияти ҳақида қолдирган илмий мероси, фалсафий қарашларини ҳар томонлама ўрганиш"[360]лозим бўлади.

Таъкидлаш лозимки, тарихан Шарқ ва Ғарб мутафаккирлари томонидан инсон моҳиятида бунёдкор ва вайронкор кучнинг мавжудлиги ўзаро якдиллик билан тасдиқланган. Айниқса, баъзи мутафаккирлар ўз асарлари орқали бевосита мафкура учун категория бўла оладиган даражада инсондаги идеал (позитив) ва ноидеал (негатив) кучларни ифодаловчи тушунчаларни яратганлар. Жумладан, Шаркда инсоншунослик бўйича жуда катта илмий тадқиқотларни амалга оширган Абу Наср Фаробий одам ва инсон тушунчаларини бир-биридан фарқлаган. У ўз асарларида: "Одамларга нисбатан уларни бирлаштирувчи бошланғич асос "инсонийлик"дир. Шунинг учун ҳам, одамлар инсоният туркумига кирганликлари туфайли ўзаро тинчликда яшамоқлари лозим"[361], дея таъкидлаган. Мутафаккир бу фикрлари орқали одам тушунчасини инсон тушунчасига нисбатан пассив характерга эга дея баҳолаб, инсон тушунчасига эса, жамиятда тинчликни сақлашда асосий роль ўйновчи ижтимоий мавжудот дея қараган.

Мутафаккир аждодларимиздан яна бири Абу Райҳон Беруний идеал инсон образини ифодалашда олийжаноб одам ва жавонмард тушунчаларидан фойдаланган. Мутафаккир ушбу тушунчаларни: "Олийжаноб одам ўзининг жони ва ўзининг мулкидан бошқа ҳеч нарсага эгалик қилмайди, қонунан ўзига тегишли мулкни бошқаради. Агар бундай одам бошқаларнинг оғир ишини ўз елкасига олиб, улар учун ўзи машаққат тортиб, Оллоҳ унга инъом этган нарсаларни муҳтож одамларга берса, ундай одам жавонмард (фатиёт) деб аталади"[362], дея таърифлаган.

Буюк мутафаккир Алишер Навоий ҳам инсон моҳиятидаги идеал(позитив) ва ноидеал (негатив) кучларни кўра олган. Навоий бундай

---

[359]Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. – Т.: Академия. 2007. –195 б.

[360]Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз.–Т.: Ўзбекистон, 2000, – Ж.8. –501 б. – Б.12.

[361] Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашр.,1993. –186 б.

[362]Беруни А.Р. Минералогия: собрание сведений для познания драгоценностей. – М.: 1963. –14 с.

кучларга эга бўлган инсонларни ифодалашда “аҳли маъни” ва “аҳли сурват” тушунчаларидан фойдаланган[363].

Мутафаккир “Аҳли маъни” деганда ўз эҳтиёжларини ўзгаларники билан уйғунлаштирган, жамият учун хизмат қилишдан лаззатланадиган, ҳар бир ишни оқибатини ўйлаб қиладиган юксак маънавият ва тафаккур соҳибларини назарда тутган. “Аҳли сурват” тоифасига эса, инсоний муносабатларда фақат шаклу шамойилга муҳим эътибор берувчи кишиларни киритган. Уларга виқорли бўлиш, кибрланиш, зеб-зийнатга берилиш, ўзгаларга зулм ўтказишдан хузурланиш хосдир, - деган. Бу тоифадаги кишилар кучлилар олдида қул, ожизлар учун зулмкор. Улар ўз эътиқодсизликлари туфайли фақат бугунги кун ҳузур-ҳаловати билан яшайдилар, бу билан у дунёларини куйдирадилар[364], - дея таъкидлаган.

Шу ўринда таъкидлаш лозимки, юқорида санаб ўтилган барча мутафаккирлар инсон моҳиятида икки кучнинг мавжудлигини ҳисобга олган ва унга дихотомик ёндашган ҳолда уларни махсус тушунчалар орқали ифодалашга уринган. Мазкур тушунчалар ўз вақтида муайян мафкура учун категория бўлмаган бўлсада, лекин ижтимоий ҳаётда инсоният маънавий дунёсига катта таъсир кўрсата олган.

Ҳозирда ушбу мутафаккирларнинг қолдирган меросини ўрганиш ва улардан ижодий фойдаланиш ғоявий тарбия учун зарур бўлган инсонга хос идеал (позитив) ва ноидеал (негатив) образларни ифодаловчи категорияларни шакллантиришда жуда қўл келади.

## KASBIY TA`LIM O`QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI O`QUV-TARBIYAVIY JARAYONGA TADBIQ ETISH MUAMMOLARI

**Z.A.Nasimova**
*BuxDU “Pedagogika” kafedrasi magistratura talabasi*

Pedagogik texnologiyalarni ta`lim jarayoniga tadbiq etish mohiyati xususida so`z yuritish uchun «ta`lim texnologiyasi» tushunchasining tub ma`nosini anglash talab etiladi.

«Texnologiya» yunoncha so`z bo`lib, «techne»-mahorat, san`at hamda «logos»-tushuncha, ta`limot so`zlarining birikmasidan iborat. «Ta`lim texnologiyasi» tushunchasi esa lug`aviy jihatdan (inglizcha «an educational technology») ta`lim (o`qitish) jarayonini yuksak mahorat, san`at darajasida tashkil etish borasida ma`lumotlar beruvchi fan (yoki ta`limot) ma`nosini anglatadi.

Qayd etib o`tish joizki, pedagogik texnologiya nazariyasi o`tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo`lsada, aynan «pedagogik texnologiya» tushunchasiga nisbatan turlicha yondoshuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespal’ko pedagogik texnologiyani «amaliyotga tadbiq

[363]Алишер Навоий. Шоҳбайтлар. – Т.: “Тамаддун”, 2016. – . 208 б. – Б.5.
[364]Ҳаққулов И. Камол эт касбким... – Т.: Чўлпон, 1990. – Б.80-81.

qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi» deya ta`riflaydi hamda asosiy diqqatni o`quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. N.F.Talizina esa pedagogik texnologiyani «fan va amaliyot oralig`ida muayyan tamoyillarni olg`a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo`llash kabi masalalarni hal etishga yo`naltirilgan mustaqil fan» bo`lishi lozimligini qayd etadi.

«Ta`lim texnologiyasi» xususida yaratilgan adabiyotlarda mazkur tushunchaga berilgan ta`riflarga asoslangan holda biz ushbu tushunchani quyidagicha sharhlashga jur`at etdik: pedagogik texnologiya - bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo`naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

Ta`lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi dastlab /arbiy Evropa hamda AQSHda yuzaga kelgan edi. Bizga ma`lumki, /arbiy Evropa mamlakatlari va AQSHda «Pedagogika» fani mavjud emas, shu bois «pedagogik faoliyat», «pedagogik tizim», shuningdek, ularga bog`liq ravishda yuzaga keluvchi «pedagogik texnologiya» tushunchasi ham iste`molda yo`q. Ushbu mamlakatlarda shaxsga ta`lim berish jarayoni «ta`lim jarayoni» sifatida nomlanadi, shaxsga bilimlar berish, uning ma`lumotini oshirish, ta`lim samaradorligini ta`minlashga xizmat qiluvchi fanlar majmui «Metodika» deb yuritiladi. Metodika fanlarini o`qitishda asosiy e`tibor ta`lim sifatini yaxshilash, uning samaradorligini ta`minlashga qaratiladi.

O`zbekiston Respublikasi (shu jumladan, MDH mamlakatlari) ta`lim tizimi amaliyotida o`qitilib kelinayotgan «Pedagogika» fanining predmeti shaxsni shakllantirish, uning kamolotini ta`minlashga yo`naltirilgan ta`limiy hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish jarayonining mazmunidan iboratdir. YA`ni, shaxsning etuk kamoloti ikki muhim faoliyat-ta`limiy va tarbiyaviy faoliyat jarayonining samarasi natijasi sifatida namoyon bo`ladi.

Mustaqillik sharoitda O`zbekiston Respublikasi ta`lim muassasalari faoliyati jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish borasidagi faoliyat bir qator etakchi tashkilotlar tomonidan olib borilmoqda. Xususan, Xalqaro SOROS fondi (Ochiq institut), AXELS, IREX, JICA kabi tashkilotlar tomonidan olib borilgan faoliyat o`zining samaradorligi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. So`nggi besh yillar davomida yuqorida nomlari keltirilgan tashkilotlar ko`magi va rag`bati asosida Respublikaning bir qator etakchi oliy o`quv yurtlari qoshida innovatsion (pedagogik texnologiya) markazlari tashkil etildi.

Pedagogik texnologiya nazariyasi va uni ta`lim jarayonida qo`llash muammolariga bag`ishlangan zamonaviy tadqiqotlar mazkur nazariyaning ta`lim rivojini ta`minlashdagi ahamiyatini chuqur anglab etish, uning imkoniyatlarini aniqlash va keng ko`lamli axborot maydonini egallashga yordam beradi.

Pedagogik texnologiya nazariyasini shakllantirish va undan foydalanish mexanizmini bilish ta`lim jarayonini rivojlantirish va boshqarishning eng samarali shakl va metodlarini aniqlash imkonini beradiki, buning faqat nazariy, balki amaliy ahamiyati ham beqiyosdir.

Ta`lim majmuining kontseptual tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

- har qanday texnologiya negizida mehnat faoliyati ko`rinishidagi o`zaro jamoaviy ta`sir yotadi. Texnologiya mehnat jarayonining o`ziga singdiriladi. Texnologiyaning amalga oshirilish shaklidan qat`iy nazar, asosiy maqsad umumiy jarayonining operatsiyalar tavsifi, predmeti, vositalari va yakuniy natija bilan belgilanadi. Binobarin, pedagogik texnologiyaning pedagogik jarayonni amalga oshirish shakli sifatidagi mohiyati pedagogik faoliyat sohasida namoyon bo`ladi;

- insonning ongi jamoaviy o`zaro ta`sir in`ikosining ideal shakli hamda dialektik qarama-qarshiligini ifoda etib, o`zgartirilgan mehnat sifatida namoyon bo`ladi. Shunga ko`ra ongni qayta shakllantirish qonuniyatlarini ijtimoiy texnologiyadan, ushbu qonuniyatlarini joriy etishning asosiy shakllarini esa pedagogik texnologiyaga asoslangan pedagogik amaliyotdan izlash taqozo etiladi;

- pedagogik texnologiya ijtimoiy texnologiyadan ajralib chiqib, o`z taraqqiyotida shartli jamoaviy repetitsiyaviy (mashqlantiruvchi) refleks bosqichini bosib o`tgan holda, asosiy texnologik o`zaro ta`sirlarini maqsadga muvofiq tarzda takrorlovchi harakat va operatsiyalar tizimiga ajratiladi. Bundan kuzatilgan maqsad ijtimoiy ongni mustahkamlash va to`plangan ijtimoiy tajribani yangi avlodlarga etkazishdan iborat bo`lgan, uning predmeti esa ideallashtirilgan tavsifga ega;

- pedagogik texnologiya mohiyatining umumiy jihatlari, shakl va mazmuni, qarama-qarshiliklar tizimi, miqdoriy va sifat o`zgarishlari dialektikasi, qurilish, amal qilish va rivojlanishining umumiy qonun va qonuniyatlari texnologiyaning umumfalsafiy kontsetsiyasi doirasida muvaffaqiyatli ravishda ko`rib chiqilishi mumkin. Uning harakat mantiqi moddiy ishlab chiqarish sohasidagi yuqorida ko`rib chiqilgan qonuniyatlar (ob`ektiv texnologiya), uning dialektik nuqtai nazardan qarama-qarshi tomoni bo`lgan – ma`naviy ishlab chiqarish, shuningdek, ta`lim sohasi qonuniyatlarini ko`chirish jarayonini aks ettirishdan iborat;

- pedagogik texnologiya nazariy negizga ega, zero, asl texnologiya o`zining mustahkam ilmiy-nazariy poydevoriga asoslanadi. Pedagogik texnologiya nazariyasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasini shakllantirish jarayoni har qanday fanning shakllanishida muhim o`rin tutuvchi asosiy qonuniyatlarga bo`ysunadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish sohasi rivojlangan sayin e`tibor umumnazariy elementlarning sintez etilishiga qaratiladi;

- pedagogik texnologiya nazariyasining yaratilish va rivojlanish mantiqi asosiy bosqichlarda umumiy texnologik nazariyaning shakllanishini aks ettiruvchi holat sifatida namoyon bo`ladi. Mazkur holat asosi fikrlash jarayonining eng muhim shakli sifatida xulosa chiqarish imkonini beruvchi deduktiv yondashuv hisoblanadi;

- pedagogik texnologiya nazariyasining yaratilishi uchun «g`isht qo`yishning» asosiy davri pedagogik texnologiyaning boshlang`ich «hujayrasi»ni ifoda etuvchi pedagogik jarayonda texnologik jihatning mohiyatini ochishga yordam beruvchi, o`ziga xos tushuncha va kategoriyalar tizimini aks ettiruvchi texnologik o`zgarish, texnologik vosita hamda texno-pedagogik o`zaro ta`sir bilan bog`liqdir.

Nazariyaning kontseptual asosini ishlab chiqishga alohida e`tibor berildi. Ushbu asos pedagogik texnologiya matritsasi deb ataladi. **Pedagogik texnologiya matritsasi (texno-pedagogik matritsa) – bu minimal darajada zarur belgilar (nazariy konstruktlar)ga tayanuvchi rang-barang, sifatli pedagogik texnologiyalarning mavjud modeli.** Uning negizida quyidagi elementlar: asoslangan elementar texno-pedagogik o`zaro ta`sir, texno-pedagogik o`zgarishlar (qayta qurishlar)ni aks ettiruvchi predmet talabalarning bilimlari, malakalari, ko`nikmalari; texnologik-pedagogik vosita tabiatini qayd etuvchi elementlar, tabiiy, ijtimoiy, texnikaviy; predmetning texno-pedagogik harakat bosqichlari va ularning o`zgarishlarini (qayta qurilishini) belgilovchi texno-pedagogik natijaga birlashtiradigan, shuningdek, pedagogik texnologiya nazariyasining kontseptual asosini ifoda etadigan elementar texno-pedagogik o`zaro ta`sir xususida ishlab chiqilgan tasavvur yotadi.

**Pedagogik texnologiyani ta`lim jarayoniga tadbiq etishning umumlashgan ketma-ketligini quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq** sanaladi (tajriba ishlarini amalga oshirishda mazkur ketma-ketlikdan uslubiy asos sifatida foydalanganmiz):

- talabalarning istiqboldagi faoliyati mazmunini tahlil qilish, ta`lim jarayonida hal qilinishi lozim bo`lgan maqsad va vazifalarni belgilash;
- umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirishda ta`lim vositalarini qo`llashga oid ta`lim uslubi mazmunini ishlab chiqish;
- oliy o`quv yurtlari o`quv dasturlarida talabalar tomonidan ta`lim vositalaridan foydalanish texnologiyasini o`zlashtirishlari uchun vaqt mezonini belgilash;
- talabalarda ko`nikma va malakalarni rivojlantirishga oid mashqlar tizimini ishlab chiqish;
- talabalarda hosil bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarning sifatini nazorat qilish bilan bog`liq ob`ektiv nazorat o`tkazish va testlar tizimini ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan "pedagogik texnologiya"ni amalda sinash va uni o`quv jarayoniga tadbiq etish.

Pedagogik texnologiya o`zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

1. Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo`lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.
2. Pedagogik texnologiya didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi, shuningdek, ta`lim-tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo`ladi.
3. Pedagogik texnologiya ta`lim-tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir.
4. Pedagogik texnologiya – yo`naltiruvchi vazifani bajaradi, ya`ni, u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirishga xizmat qiladi.
5. Pedagogik texnologiya-shaxsiylik xususiyatiga ega bo`lib, yangi texnologiyani ta`lim-tarbiya jarayonida qo`llashga nisbatan yagona, qat`iy, me`yoriy (standart) talablar qo`yilmaydi. Har bir pedagog u faoliyat olib

yuritayotgan ta`lim-tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart-sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan texnologik yondoshuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

6. Pedagogik texnologiya o`zida ta`lim, tarbiya va shaxs taraqqiyoti (kamoloti) birligini ifoda etadi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo`lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, ta`lim oluvchining mustaqilligini ta`minlash, o`qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat.

Pedagogik texnologiya doirasida quyidagi vazifalar hal etiladi:

– Ta`lim jarayonining umumiy, yaxlit loyihasini ishlab chiqish.

– Ta`lim jarayonida hal etilishi lozim bo`lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash.

– Ta`lim jarayoni mohiyatini bashoratlash (tahmin qilish) va uning mazmunini ishlab chiqish.

– Ta`lim jarayoni samaradorligini ta`minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shakl, metod, usul hamda texnik vositalarni tanlash.

– Ta`lim jarayonida ta`lim oluvchining erkin, mustaqil faoliyat ko`rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma`lum ko`nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o`rnini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashhislash.

– Ta`lim oluvchilar faoliyatini yo`naltirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish.

– Ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya loyihasini jamoada sinash, maqsadning natijalanganlik darajasini tahlil etish.

Mazkur vazifalarning ijobiy hal etilishi quyidagi shartlarga amal qilinishiga bog`liq: mavjud shart-sharoitlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etish; ta`lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish; ta`lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish; ta`lim oluvchilar faoliyatini ob`ektiv nazorat qilish va baholash; xususiy fanlarni o`qitish jarayonida imkon qadar albatta, samarali ravishda texnik vositalar imkoniyatidan keng foydalanish; pedagogik tizimda maqsad aniq va ravshan qo`yilmog`i lozim.

**I. Tajriba tavsifi va kengligining o`lchovi.** Har qanday fanning mazmuni egallanayotgan kasb xususiyatlariga mos ob`ektlar, jarayonlar va faoliyat uslublari to`g`risidagi ma`lum axborotlar majmuidir. O`quv predmetlari ob`ektlar tarkibi, faoliyat uslublari va jarayonlari bilan farqlanadi. Ba`zi fanlar umumiy ob`ektga, hodisaga yoki faoliyat metodiga ega bo`lishi mumkin bo`lgan holdagina, ular o`rtasidagi fanlararo aloqa to`g`risida so`z yuritish mumkin.

Ob`ektiv mavjud bo`lgan hodisa, uslub yoki ob`ektlar to`g`risidagi ma`lum sohaga tegishli axborotlar qarab chiqilayotgan fan sohasini ifodalaydi. Bugungi kunda insonlar misli ko`rilmagan sur`atlarda o`sib borayotgan axborotlar hajmini o`zlashtirib ulgurishga qodir emas, biroq u yoki bu sohaga oid fikrlash hamda faoliyat uslublarini egallash mumkin. Buning uchun to`laqonli hamda ongli

faoliyat olib borishni ta`minlay oluvchi bilimlar asosida mustaqil o`rganish uchun asos yaratuvchi ob`ektlar fan mazmunidan ajratib olinishi lozim bo`ladi.

**14.3. Pedagogik texnologiyaning bosqichlari**

Ta`lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyat qo`llashning muhim omillaridan biri - muayyan, yaxlit ta`limiy jarayonni oldindan loyihalash, ta`lim oluvchilar tomonidan o`zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko`nikma va malakalar darajasini tashhislash hamda ta`lim maqsadining muvaffaqiyatli natijalanishini bashoratlay olishdan iboratdir. Ayni vaqtda pedagogik yo`nalishda faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqot institutlari, xalq ta`limi muassasalari va oliy o`quv yurtlari oldida o`quv jarayonini loyihalashning eng maqbul, barcha turdagi o`quv muassasalarida shakli, metod va vositalaridan qat`iy nazar tashkil etiladigan ta`lim uchun birdek xizmat qiluvchi andozani yaratish maqsadga muvofiqdir. Biz ilmiy-tadqiqotlarimizni amalga oshirish uchun pedagogik texnologiyani loyihalashning quyidagi ketma-ketlikdan iborat bosqichlarini ishlab chiqdik (3 – shakl):

**- birinchi bosqichda** kasb ta`limi fakul’teti talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyatini tahlil qilindi. Tahlil natijasida talaba faoliyatining istiqbolini belgilovchi va kelajak faoliyatida u duch keladigan vazifalar aniqlab olindi.

- **ikkinchi bosqichda** umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirishning psixofiziologik asoslari; o`qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqildi va ta`limning har bir davri uchun uning mazmuni aniqlab berildi.

- **uchinchi bosqichda** umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarning tarkibiy qismlari, shakllantirish jarayoni; malakalar ko`chishi va moslashuvchanligi xususiyatlari, umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida ta`lim vositalarini qo`llash texnologiyasi ishlab chiqildi;

- **to`rtinchi bosqichda** umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirish didaktik jarayonining eng muvofiq ta`lim shakllari aniqlandi. Uning natijasi sifatida ko`nikma va malakalarni rivojlantirish pedagogik tizimida o`qituvchi va talaba munosabatlari mazmuni ishlab chiqildi;

**- beshinchi bosqichda** umummehnat va kasbiy malakalarni qo`llashga oid ta`lim metodi mazmuni ishlab chiqildi, uning natijasi sifatida umummehnat ko`nikma va malakalarni rivojlantirish jarayonida trenajerlardan foydalanish texnologiyasi yaratildi;

- **oltinchi bosqichda** ta`lim maqsadi asosida ko`nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi ishlab chiqildi hamda o`quv qo`llanmalari mazmuni bilan umumlashtirildi, natijalar belgilangan ko`rsatkichlari darajasida ta`lim jarayoniga tadbiq etildi;

- **ettinchi bosqich** - o`zlashtirish darajasini baholash mezonlari va ta`lim maqsadlariga mos keluvchi talabalarning bilim va ko`nikmalarini aniq nazorat qilish bilan bog`liq testlar tizimi ishlab chiqildi. Ta`lim maqsadlariga erishish imkonini beruvchi o`quv mashg`ulotlarining tuzilmasi va mazmuni shakllantirildi,

hamda talabalarning umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi;

**- sakkizinchi bosqichda** - umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlanganlik darajasini baholashning ko`rsatkich va mezonlari tajriba-sinov ishlari asosida sinab ko`rildi. Bosqich natijasida loyihaga tegishli tuzatishlar kiritildi.

O`qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish bir qadar murakkab jarayon bo`lib, mazkur jarayonda mutaxassislik yo`nalishlari hamda ularning o`ziga xos xususiyatlarini inobatga olish taqozo etiladi. Tadqiqot ishini olib borish jarayonida o`qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni o`quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etish muammolari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

– pedagogik texnologiya nazariyasi va uning asoslari borasida ma`lumotlar bera oluvchi manbalarning etarli emasligi;

– mavjud manbalarda xususiy fanlar, shuningdek, muayyan ta`lim muassasalarining faoliyat yo`nalishlariga hamda xususiyatlariga muvofiq ularning faoliyatiga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish mexanizmining ishlab chiqilmaganligi;

– yangi pedagogik texnologiyalarni ta`lim tizimida o`quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etish yo`lida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarining yaxlit holda tahlil etilmaganligi hamda bu borada qo`lga kiritilgan tajribalarning ommalashtirilishi borasida sustkashlikning mavjudligi;

– ta`lim muassasalari, shu jumladan, oliy ta`lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning yangi pedagogik texnologiya asoslarini puxta o`zlashtirmaganliklari hamda o`z faoliyatlarida ulardan samarali foydalanish malakasi (tajribasi)ga ega emasliklari;

– pedagog xodimlarni tayyorlash jarayonini texnologiyalashtirish borasida keng ko`lamli amaliy harakatning tashkil etilmaganligi.

Qayd etib o`tilgan muammolarning bartaraf etilishi etuk mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, bo`lg`usi pedagoglarda umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni takomillashtirishga imkon yaratadi.

Mehnat va kasb ta`limi o`qituvchilarida umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirish muammolarining tahlili uning pedagogik muammo sifatida o`zining to`laqonli echimini topmaganligini ko`rsatdi. Bu yo`nalishning ta`lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar talablariga muvofiqligini ta`minlash uchun o`qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llash uslublarini ishlab chiqish, ko`nikma va malakalarning rivojlanganlik darajasini aniqlash, ularni ta`lim tizimiga joriy qilishning samarali yo`nalishlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo`ldi.

Umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirishning psixofiziologik sharoitlari, psixologik xususiyatlari, bilim, ko`nikma va malakalarning psixofiziologik mexanizmi va ijtimoiy-tarixiy o`rnining tahlili asosida ta`lim oluvchilarning bilim darajasini yanada oshirishda etarlicha foydalanilmayotgan ko`plab imkoniyatlar mavjud ekanligi aniqlandi. SHu asosda

talabalarda bilim, ko`nikma va malakalarning rivojlanishi va biridan ikkinchisiga aylanish jarayonlari mazmuni ochib berildi.

Islohotlar tufayli ta`lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar keng kirib kelmoqda, biroq buning natijasida yuzaga keladigan ulkan didaktik imkoniyatlardan foydalanish uchun etarli nazariy - uslubiy asos yaratilgan emas. O`qituvchilarni tayyorlashning o`quv-tarbiyaviy jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va tadbiq qilish muammolarini o`rganish natijasida tadqiqot muammosini hal qilishda pedagogik texnologiyalar va texnologik yo`nalish imkoniyatlari tahlil qilindi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

**1.** Bespal'ko V.P. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii. - M.: Pedagogika. 1989. - 190 s.
**2.** Vorob'ev A.I., Limanskiy S.A. Texnicheskoe konstruirovanie i modelirovanie. Uchebnoe posobie dlya studentov IPF pedinstitutov i uchashixsya peduchilish. -T.: Ukituvchi. 1990. –110 s.
**3.** Jo`raev R.H., Tolipov O`.Q. Pedagogik faoliyat, texnologiyalar va mahorat. // Uzluksiz ta`lim j. 2003. № 2. 3-10 b.
**4.** Kukushin V.S. Sovremennie pedagogicheskie texnologii: Nachal'naya shkola. Posobie dlya uchitelya. – Rostov na Donu: Reniks. 2003. – 448 s.

## ОИЛА - БАРҚАРОР ЖАМИЯТ ТАЯНЧИ

**З.Р.Илхомиддинова,**
*Наманган мухандислик-технология институти IV босқич талабаси*
**М.А.Махсудова**
*п.ф.н.“Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази Наманган вилоят бошқарма бошлиғи*

Оила ҳақида Мухтарам Юртбошимиз Шавкат Мирзиёев “Оила мен учун муқаддас. Муқаддаслиги шуки, авваламбор қаерда ишлащдан қатъи назар, ким бўлишидан қатъи назар агар оилада тарбия, оилада муҳит, оилада ҳалоллик, муносабат, тарбияга алоҳида эътибор бермаса, ҳеч қачон натижа бўлмайди. Шунинг учун мен фарзандларимнинг тарбиясига жуда катта эътибор бераман. Ҳар бир фарзандимга ҳам, неварамга ҳам алоҳида ўзимнинг муносабатим бор. Ҳар бир неварамнинг алоҳида характерини биламан, орзусини, истагини биламан”

“Одам бахтлиман дейишга қанчалик ҳаққи бор? Агар оиланг билан сен бахтли бўлсанг, бахтлиман дейишга ҳаққинг бор...” деган эдилар.[1]

Оила ўзи нима дегани? Ушбу сўз қандай луғавий маъноларга эга? Асли у қайси тилларга мансуб? Ижтимоий ҳодиса сифатида бўлса нимани

англатади? У қандай ва қачон пайдо бўлган? Оила ўзи ҳозирга қадар қанақа тарихий-тадрижий йўлни босиб ўтган?

Оила деган истилоҳ аслида араб тилида “аёлманд, ниёзманд” маъносини билдирувчи “оил” сўзидан келиб чиққан. Оила “аёл” сўзи билан ўзакдош бўлиб, фарзандларни тарбиялаш, ёшлар маънавий ва жисмоний камолоти, уларни жипслаштириш, жамият иқтисодий-ижтимоий тараққиётини таъминлаш сингари муҳим вазифаларни бажаради. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти томонидан 2006 йилдан чоп этила бошланган беш жилдли “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”нинг учинчи китобида ҳам ушбу сўзнинг арабча эканлиги таъкидланиб, унинг бешта маъноси берилган. [2]

Оиланинг дастлабки *биринчи* асосий маъноси: “Эр-хотин, уларнинг бола-чақалари ва энг яқин туғишганларидан иборат бирга яшовчи кишиларнинг мажмуи, хонадон”. *Иккинчиси* - кўчма маънода: “Бир мақсад ва маслак билан бирлашган кўп кишилар, халқлар ва мамлакатлар”. *Учинчи* маъноси: “Ўсимликлар ва ҳайвонлар системетикасида тузилиши жиҳатидан бир-бирига ўхшаш, келиб чиқиш жиҳатидан бир-бирига ўзаро яқин бир неча уруғни ўз ичига олган гуруҳ: дуккаклилар оиласи. Ўрдак тумшуқлилар оиласи”. *Тўртинчи* маъноси бўлса: “Қардош тиллар гуруҳи: Олтой тиллар оиласи. Сом-хом тиллар оиласи”. *Бешинчи* маъноси жонли сўзлашув тилида қўлланади: “Рафиқа, хотин. Масалан: Оилам мактабда ўқитувчи (сифатида фаолият кўрсатади)”

Ўзбекистон миллий энциклопедиясида эса оилага қуйидаги таъриф берилган: “***Оила - никоҳ ёки туғишганликка асосланган кичик гуруҳ***. Унинг аъзолари рўзғорининг бирлиги, ўзаро ёрдам ва маънавий масъулияти билан бир-бирига боғланган. **Оиланинг муҳим ижтимоий вазифалари** - инсон зотини давом эттиришдан ва болаларни тарбиялашдан, оила аъзолари турмуш шароитини ва бўш вақтини самарали тарзда уюштиришдан иборатдир. Оилавий муносабатлар нисбатан мустақил ҳодиса саналса-да, жамиятдаги мавжуд ижтимоий, иқтисодий ҳамда мафкуравий муносабатлар билан белгиланади ва уларнинг таъсирида ўзгариб боради. Шунга мувофиқ, ҳар бир жамият ҳам ўзгариб, ўзига мос оилалар типини ва оилавий муносабатларни ўрнатади” [3]

1981-йилда Москвада “Рус тили” нашриётида чоп этилган икки томлик “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да оила атамасига ***“Эр-хотин, уларнинг бола-чақалари ва энг яқин туғишганларидан иборат бирга яшовчи кишиларнинг мажмуи, хонадон”*** сифатида таъриф-тавсиф берилган. “Оиланинг келиб чиқиши ҳали батамом ойдинлашган эмас, - дейилган Шўролар замонида чоп этилган “Филасофия луғати”да. - Мутахассисларнинг аксарияти ибтидоий жамоа тузумининг энг аввалида оила ҳали бўлмаган, кейинчалик “группавий” нигоҳ, сўнгра бўлса мазкур жамият оиланинг асосий формаси сифатида жуфт оила пайдо бўлган, деб ҳисоблашда ҳамон давом этмоқдалар. [4]

Янги тадқиқотлар бир қанча олимларни энг аввал-бошданоқ жуфт оилалар мавжуд эди, бу оила эр ва хотин уруғи базасида (оталик даври, оналик даври) яшаган ва қариндошликни оталар томондан ҳам, она томондан ҳам ҳисоблаб борган, деган бир илмий хулосага олиб келди” [5]

Файласуф Ф.Адлернинг фикрига биноан, ***“Оила мўжазгина бир жамиятчадир, бутун инсоният жамиятининг дахлсизлиги ҳам унинг жипислигига боғлиқ”.*** Ж.Сантаяна бўлса ***“Оила табиатнинг шоҳ асарларидан биридир”*** деган ғояда муҳим ва ҳақли хулосага келган эди. Инсониятнинг тарихидаги энг буюк воизлардан бири Сицерон ***“Никоҳ кишилик жамиятининг биринчи поғонасидир”***, деган беҳад муҳим фикр-мулоҳазаси, хулосасини билдирган эди.

“Оила - эр-хотинлик иттифоқи, қариндошлик алоқалари, умумий хўжалик юритадиган эр ва хотин, ота-оналар ва болалар, ака-укалар, опа-сингиллар, бува-бувилар ва бошқа қариндошлар ўртасидаги муносабатларга асосланадиган кичик ижтимоий гуруҳ ва жамият асоси, давлат қудратининг манбаи” деган таъриф ҳам бор. [6]

“Оила - ҳаёт адабийлиги, авлодларнинг давомийлигини таъминлаб берадиган, урф-одатларимиз, анъаналаримиз, ахлоқий ва меъёрий тартиб-қоидаларни мужассам этган, келажак авлод тарбиясига ҳам бевосита таъсир кўрсатадиган, инсонлар ўртасида ўзига хос муносабатлар шаклланадиган ижтимоий макондир” ҳамда “Оила бу - яшаш муҳити ўзига хос авлодлараро ва фуқаролараро ўзаро муносабатларнинг ўзаро мажмуи, инсоннинг шахс сифатида шакллантирувчи тарбия маконидир”, деган ўзига хос янги таъриф-тавсифлар ҳам мавжуд [7]

Яна бир таърифга биноан, “Оила - жамият ҳаётини олға сурувчи, уни янада ҳам юксакроқ янги бир босқичга кўтариб, равнақ топтирувчи, келажак авлодларни тарбиялаб етиштирувчи, камол топтириш учун масъул бўлган ниҳоятда муҳим ўчоқдир” [8]

О. Сафаров ва М. Маҳмудов ҳам муаллифлигида ёзилган “Оила маънавияти” номли китобида эса қуидаги таърифига ҳам дуч келамиз: “Оила - инсониятнинг ўз-ўзидан кўпайиши, ўз-ўзини бошқариш ва яхлит бир жамиятни бунёдга келтирган ҳолда яшаш ниятида юзага келтирган илоҳий ҳамда мўжизавий кашфиёти” [9]

Ҳозиргача дунёдаги бир қатор давлатларда илмий фаолият кўрсатувчи юзлаб тадқиқотчилар томонида ҳам оила деган бир тушунчанинг барча функцияларини ўз таркибига буткул қамраб олишга ҳаракат қилинган, лекин барча томонидан якдил тарзда ва бир овоздан тан олинмаган юзлаб турли таърифлари берилган.

Оила ҳодисасига ижтимоий-ҳуқуқий маънода тариф бериш заруряти ва эҳтиёжи ўзини яққол намоён этмоқда. Оила ижтимоий ва табиий ҳодиса сифатида турли-туман ҳуқуқий қоидалар воситасида шакилланади ва мустаҳкамланади. Оиланинг айни бундай мақоми инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Деклорациясида ҳам ўз ифодасини топган. Унинг 16-моддасига кўра, “Оила жамиятнинг табиий ва асосий ҳужайраси саналади ва жамият

ҳамда давлат томонидан ҳимоя қилинишга ҳақли”. Ушбу Деклорациядаги оила тушунчасига берилган айни шундай таъриф Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида ўзининг аксини топган. Асосий қонунимиз, яъни Қомусимизнинг 63-моддасига биноан, ***“Оила - жамиятнинг асосий бўғинидир ҳамда жамият ва давлат муҳофазасида бўлиш ҳуқуқига эга”.***

1997 йилнинг 5 декабрида Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси қабул қилинганлиги беш йиллигига бағишланган тантанали мажлисда эса Биринчи Президентимиз Ислом Каримов ҳам “Оила фаровонлиги - миллат фаровонлиги” деб номланган табрик сўзида ушбу масала хусусида шундай фикр-мулоҳазасини билдирган эди: “Шу Конституцияни ёзишда ўзим ҳам иштирок этганман, унга ўз билимимни, керак бўлса, бутун борлиғимни ҳам берганман. [10]

Биз оила ҳақида гапирар эканмиз, авваламбор, оила ҳаётнинг абадийлигини ва авлодларнинг давомийлигини таъминлайдиган, энг муқаддас урф-одатларимизни сақлайдиган, шу билан бирга, келажак насллар қандай инсон бўлиб етишишига бевосита таъсир кўрсатадиган тарбия ўчоғи эканлигини тан олишимиз даркор.

Шаркда қадим-қадимдан оила муқаддас Ватан саналган. Агар оила соғлом ва мустаҳкам бўлсагина, маҳаллаларда ҳам тинчлик омонлик ҳамда ҳамжиҳатликка эришилади. Бинобарин маҳалла ҳамда юрт мустаҳкам бўлсагина, давлатда ҳам осойишталик ва барқарорлик ҳукм суради…[11]

Оила ҳақида сўз юритар эканмиз. Аввало, кўз ўнгимизда Она симоси шакилланади. Нимага деганда оиланинг муқаддас эканлигини таъминловчи энг биринчи омил - Она, аҳли аёлнинг покизалиги, оқилалиги меҳру мруввати, садоқати ва вафодорлигидир.

Инсон табиати, феъл-атвори гўдаклигидан шакилланар экан, миллий дунёқараш ҳам бола вужудига она сути билан киради.[12]

Она алласи фақат чақолоқ ором олиши учунгина айтилмайди, балки унинг воситасида боланинг кўнгил дунёсига миллий руҳ кириб келади. Она тилидаги мехр-муҳаббат, наслий туйғулар ва орзулар гўдакнинг жисму-жонида илдиз қолдиради

Оила деб аталмиш табаррук сўзга аталган мақоламизни куйидаги сўзлар билан якунламоқчимиз. Оила - халқ, миллат ҳаёти тарихининг бир бўлаги, унда аввало аждодлар насли, руҳи, турмуш тарзи ва ўтмиш кечинмалари яшайди. Томчида қуёш акс этгани каби оилада аждодлар ҳаётининг наслий қадриятлари яшайди, камол топади ва сақланади.

## **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**:


1. Мирзиёев Ш.М. “Оила ва бахт ҳақида” Газета. uz, “Жаноб Президент” ҳужжатли фильмдаги президент интервьюси . 25.07.2018 й.
2. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006 й.

3. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Т.: 2007 й. -97 ва 469-бетлар.
4. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”. М.: “Рус тили” нашриёти, 1981 й. 1-том, 526-бет.
5. “Филасофия луғати”. Т.: “Ўзбекистон”, 1973 й. 355-бет.
6. “Фалсафа: қомусий луғат”и. Т.: “Шарқ”, 2004 й. 310-311-бетлар.
7. “Оила” махсус илмий-маърифий, ижтимоий-психологик ва рангли-безакли журнал. 2004 йил, 1-сон, 64, 74-бетлар.
8. “Оила” илмий-маърифий, ижтимоий-психологик ва рангли-безакли журнал, 2005, 3-4-сон, 82-бет.
9. О.Сафаров ва М.Маҳмудов “Оила маънавияти” Т.: “Маънавият”, 2009 й. 245-бет.
10. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: “Ўзбекистон”, 1992 й.
11. Б. Исоқов “Оила - жамиятнинг юраги”. “Наманган”. 2018 йил, 111-б.
12. “Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида” Т.: Ўзбекистон, 1998 й. 400-401-бетлар.

# АБДУЛЛА АВЛОНИЙ ДИДАКТИК МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ МУҲИМ ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТ СИФАТИДА

**К.Пардаева**,
*ЖДПИ Умумий педагогика кафедраси*
*катта ўқитувчиси,*
**Ф.Тангирова,**
*ЖДПИ Бошланғич таълим факультети талабаси*

Сўнгги йилларда мамлакат ҳаётининг турли жабҳаларида, ривожланишнинг турли соҳаларида ўтмиш, бугун ва келажак уйғунлигида янгича руҳдаги ўсиш-ўзгаришлар содир бўлмоқда. Илм-фан, таълим-тарбия, маънавият ва маърифат масалалари янада долзарб моҳият касб этиб, давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди. Бу жараёндаги ишларни сифат ва самара жиҳатдан янги босқичга кўратишда, аҳоли ва ёшларни турли ахборот хуружларидан ҳимоя қилиб, мафкуравий иммунитетини кучайтириш, тафаккур оламини ривожлантиришда миллий-маънавий қадриятлар, буюк аждодларимиз, алломаларимиз мероси бой ва таъсирчан дидактик манба ҳисобланади. Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев 2020 йил 24 январда Олий Мажлис Парламентига йўллаган мурожаатномасида ҳам бу борада алоҳида таъкидлаб ўтди: “*Биз жадидчилик ҳаракати, маърифатпарвар боболаримиз меросини чуқур ўрганишимиз керак. Бу маънавий хазинани қанча кўп ўргансак, бугунги кунда ҳам бизни ташвишга солаётган жуда кўп саволларга тўғри жавоб топамиз. Бу бебаҳо бойликни қанча фаол тарғиб этсак, халқимиз, айниқса, ёшларимиз бугунги тинч ва эркин ҳаётнинг қадрини англаб етади”.*

Дарҳақиқат, XX аср бошларида Туркистонда кенг ёйилган жадидчилик ҳаракати намоёндалари ўз фаолиятларида жамият ижтимоий-маърифий ҳаётига турли мазмундаги янги ислоҳотлар, янги қарашларни тарғиб қиладилар. Улар жамият инқирозининг асосий сабабини саводсизлик, илмсизлик, маърифатсизликда кўриб, асосан, халқни илм-маърифатли қилиш, диний ва дунёвий билимларни тенг ўрганиш, таълим-тарбия тизимини янгилаш ва ривожлантириш юзасидан жадал ислоҳотларни амалга оширадилар.

Бу фаолиятда атоыли маърифатпар Абдулла Авлонийнинг ҳам алоҳида ўрни бор. Аллома  1917 йил тўнтаришига қадар Туркистонда жуда катта ижтимоий-маърифий ишларни амалга оширган жадидлар ҳаракатининг кўзга кўринган намояндаларидан эди. Абдулла Авлоний илғор зиёли кишилар билан ҳамкорликда театр томошалари ва матбуотдан тушган маблағларга дунёвий илмларни ўқитадиган “Усули жадид”, яъни янгича илғор усулдаги мактаблар очади ва бу мактабларда оддий халқ болаларини ўқитади. У бошқа ҳаммаслаклари каби ўз миллатидан етук олимлар, билимдон мутахассислар, маданият арбоблари етишиб чиқиб, юртни обод, Ватанни озод, фаровон этишларини орзу қилади ва бу йўлда фидойилик кўрсатади, намуна бўлади.

Манбаларга кўра, Абдулла Авлоний 1907 йилда Тошкентнинг Миробод маҳалласида, кейинчалик Дегрез маҳалласида янги усулдаги мактаблар очади. Мактаблардаги ўқув асбоб-жиҳозларини ўзгартиради, ўз қўли билан парта ва доскалар ясайди. Мактабга қабул қилинган болаларнинг асосий қисми камбағал кишиларнинг болалари учун уларни кийим-кечак, озиқ-овқат, дафтар-қалам билан таъминлаш мақсадида, дўстларининг кўмагида “Жамияти хайрия” ташкил этади ва бу жамиятга ўзи раислик қилади. “Нашриёт” ширкати тузиб, Хадрада “Мактаб кутубхонаси” номли китоб дўконини очади. Авлонийнинг мактаби ўз олдига қўйган мақсад ва вазифаларига кўра машғулотларни синф-дарс тизими асосида ўз она тилида олиб борилиши билан эски усул мактабларидан фарқ қилади. У ўз мактабида болаларга география, тарих, адабиёт, тил, ҳисоб, ҳандаса, ҳикмат каби фанлардан муайян маълумотлар беради.

Абдулла Авлонийнинг илк ўқувчилардан бири, Тошкент Давлат университетида узоқ йиллар дарс берган таниқли педагог, марҳум ЮсуфТоҳирий Авлоний Мирободда ташкил қилган мактаб ҳақидаги хотираларида шундай деб ёзган эди:

“Шаҳарнинг қарама-қарши чеккасида, темир йўл ишчилари истиқомат қиладиган Мирободда янги типдаги мактаб очилганлиги ҳақида эшитиб қолдик. Тез орада бу мактабнинг фазилатлари ҳақидаги шов-шувлар, унинг муаллими Авлонийнинг довруғи бутун шаҳарга тарқалди. Ҳамманинг тилида: “Мирободдаги мактаб 6 ойда ўқиш-ёзишни ўргатармиш, жўғрофия, ҳисоб, табиатни ўрганиш деган дарслар ўқитилармиш”,- деган гап юрарди. Бизга жуда сирли туюлган бу мактабни ва унинг донишманд муаллимини кўришга ошиқардик. Ниҳоят бир куни уч-тўрттамиз боришга жазм қилдик.

Мактаб пастаккина, ним қоронғу бўлиб, масжид йўлагига жойлашган эди. Хонанинг тепасида ёруғлик учун қолдирилган туйнукдан қиш ва баҳорда қор билан ёмғир ҳам тушиб турарди. Лекин хонада ўқувчилар ва домланинг шогирдлари кўп эди. Хаёлимизда домланинг аллақандай бир сирли томони бор эди. Бизни қотмагина, кичик жуссали, қорачадан келган, истараси иссиқ, чўққи соқол бир киши кутиб олди. Бу номи тилга тушган муаллим Авлоний эди. Ўқишга қабул қилиндик. Кўп ўтмай кўз олдимизда янги бир дунё очилганига тўла ишонч ҳосил қилдик. Болаларимизнинг олди бир неча йилдан бери мактабга қатнаб юрган бўлсалар ҳам мирободликлар олдида уялиб қолдик. Улар ўқиш-ёзишда, ҳисоб масалаларини ҳал этишда, табиат ҳодисаларидан хабарлари билан ҳаммамизни лол қолдиришди. Айни замонда бизнинг эски мактабимиз бўшаб, Мироботдаги Абдулла Авлоний мактаби биздан борган болалар билан лиқ тўлди. Шу тариқа бу мактаб тобора шухрат топиб борди”[365].

Абдулла Авлоний ўзи ва бошқа маърифатпарварлар томонидан очилган “Усули жадид” мактаблари учун тўрт қисмдан иборат “Адабиёт ёхуд миллий шеърлар” ҳамда “Биринчи муаллим” (1912), “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” (1913), “Иккинчи муаллим” (1915), “Мактаб гулистони” (1917) каби дарслик ва ўқиш китоблари яратади. Бу асарларида ҳамда публицистик мақолаларида дунё халқлари маданиятини, илм-фанни, мактаб ва маорифни улуғлаб, ўз халқини илмли, маданиятли бўлишга чақиради.

XX аср бошларида янги мактаблар учун ёзилган алифбелар анчагина эди. Шулар орасида Авлонийнинг “Биринчи муаллим”и ҳам ўзига хос ўринга эга бўлиб, мазкур китоб 1917 йил тўнтаришига қадар 4 марта нашр этилган. Авлоний уни ёзишда мавжуд дарсликларга, биринчи навбатда, Саидрасул Азизийнинг “Устози аввал”ига суянади (дарс бериш жараёнида орттирган тажрибаларидан самарали фойдаланади).

А.Авлонийнинг “Иккинчи муаллим” китоби “Биринчи муаллим” китобининг узвий давоми саналади. Шу боисдан ҳам аллома меросини ўрганган олимлар биринчи китобни, шартли равишда, алифбе, иккинчи китобни эса хрестоматия деб ҳам аташган.

Абдулла Авлонийнинг педагогикага оид асарлари ичида “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асари XX аср бошларидаги педагогик фикрлар тараққиётини ўрганиш соҳасида ҳам ниҳоятда муҳим аҳамият касб этади.

“Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асари ахлоқий ва таълимий тарбиявий асар бўлиб, унда инсонларни “яхшиликка чақирувчи, ёмонлардан қайтарувчи” бир илм- ахлоқ ҳақида фикр юритилади. Муаллиф китобда инсон ахлоқига хос яхши ва ёмон фазилат-сифатларга таъриф бериш билан бир қаторда, ўз фикрларини асословчи қисқа ва ихчам ҳикоятлар, ҳикматли байт ва ибoралардан ҳам маҳорат билан фойдаланади. Шу жиҳатларга кўра, Авлоний ижоди тадқиқотчилари мазкур асарни Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг”, Носир Хисравнинг “Саодатнома”, Саъдийнинг “Гулистон”

[365]Ю.Тоҳирий. Доно Мураббий. “Тошкент оқшоми”газетаси, 1966 йил 10 ноябрь.

ва "Бўстон", Жомийнинг "Баҳористон", Навоийнинг "Маҳбуб ул-қулуб", Аҳмад Донишнинг "Фарзандларга васият" асарлари қаторидаги ўзига хос тарбиявий асар сифатида баҳолашади.

Абдулла Авлоний тажрибали педагог сифатида болани гўдаклигидан яхши тарбиялаш заруратини илгари суриб, "Агар бир киши ёшлигида нафси бузулиб, тарбиясиз, ахлоқсиз бўлиб ўсдими, аллоҳу акбар, бундай кишилардан яхшилик кутмоқ ердан туруб юлдузларга қўл узатмак кабидур",- дейди. Аллома болаларда ахлоқий хислатларнинг таркиб топишида ижтимоий муҳит, оилавий шароит ва боланинг атрофидаги кишилар ғоят катта аҳамиятга эга эканлиги тўғрисида муҳим фикр-тавсиялар беради.

Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, ўзбек педагогикаси тарихида Абдулла Авлоний биринчи марта педагогикага "Педагогия", яъни бола тарбиясининг фанидир", деб таъриф берди. Табиий бундай таъриф Авлонийнинг педагогика фанини яхши билганлигидан далолат беради. Хуллас, жадид маърифатпарварлик ҳаракатида муҳим ўрин тутувчи Абдулла Авлонийнинг ижтимоий-педагогик фаолияти, ижоди ниҳоятда сермаҳсул бўлиб, бугунги замонавий дидактик таълимот учун самарали аҳамият касб этади.

## МДХ ДАВЛАТЛАРИДА АУДИТОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ ЎРГАНИШ ТАЖРИБАСИ: ҚОЗОҒИСТОН МИСОЛИДА

**А.Х.Сатторов**

*Тошкент молия институти*

Бугунги кунда Қозоғистонда аудиторлик фаолиятини амалга ошириш жараёнида давлат органлари, жисмоний ва юридик шахслар, аудиторлар, аудиторлик ташкилотлари ўртасида юзага келадиган муносабатларни тартибга солувчи асосий қонун ҳужжати Қозоғистон Республикасининг "Аудиторлик фаолияти тўғрисида"ги Қонуни ҳисобланади. Ушбу Қонунга мувофиқ, аудит молиявий ҳисоботларни тузиш тўғрисидаги мустақил фикр ва молиявий ҳисобдорлик билан боғлиқ бошқа маълумотларни баён қилиш мақсадида ўтказиладиган текширув ҳисобланади.

Ҳар қандай ташкилотнинг молиявий ҳисоботи ўзида унинг молиявий аҳволи, активлари ва мажбуриятларининг мавжудлиги, даромадлилиги, ўз капиталига эгалиги тўғрисидаги маълумотларни акс эттиради. Шу ва бошқа маълумотлар асосида ҳисобдорликдан фойдаланувчилар нафақат ташкилотнинг мулкий ҳолати, балки унинг ривожланиш истиқболлари ҳақида ҳам тегишли хулосаларни чиқаришлари мумкин. Бунда аудитор томонидан тасдиқланган ҳисоботлар анча ишончли бўлади – бу молиявий ҳисоботларга ишончни орттиради. Масалан, инвестор бизнесга маблағ киритишга тайёр, у ўзининг капитал қўйилмалари ишончлилигига ишонч ҳосил қилиши учун ушбу бизнеснинг жорий ва истиқболдаги омиллари тўғрисида тасаввурга эга бўлиши лозим. Бошқа томондан эса, сармоя маблағларини ўзлаштирмоқчи бўлган томон ҳам қўшимча молиялаштиришдан манфаатдордир. Инвестор ишончли маълумотларга

қараб, ҳисоб-китоб қилади. Унга ишончли маълумотларнинг тасдиғи сифатида аудиторлик хулосаси хизмат қилади. Шунингдек, молиявий ҳисобдорликни ташкил этиш, ҳисобни юритиш ва ҳисоботни тузишдан компания маъмурияти ҳам манфаатдор, чунки у ўз кўрсаткичларининг тўғри ва ишончлилиги учун фойдаланувчилар олдида жавобгардир.




*Аудиторлик фаолиятининг ташкилий тузилиши*[366]

Аудит тўғрисидаги Қонуннинг ўз вақтида қабул қилинганлиги республикадаги аудиторлар ва аудиторлик ташкилотларининг ҳақиқий мустақиллигини мустаҳкамлашга хизмат қилди. “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги Қозоғистон Республикаси Қонуни талабларига мувофиқ, Республика ва ҳудудий аудиторлар палаталарини тузиш, тафтиш комиссиясини сайлаш, аудиторларни аттестациядан ўтказиш бўйича малака комиссиясини ташкил этиш юзасидан чора-тадбирлар ишлаб чиқилди ва ўтказилди[1].

Қозоғистон Республикасида аудитстандартлари Аудиторлар палатаси томонидан қабулқилинади ва ваколатли давлат органи томонидан тасдиқланади[2].

Бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг ҳуқуқий асоси Қозоғистон Республикаси Конституцияси, Фуқаролик кодекси, Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги кодекс, Солиқ кодекси, “Банкротлик тўғрисида”ги, “Акциядорлик жамиятлари тўғрисида”г ва “Хорижий инвестициялар тўғрисида”ги Қонунлар, шунингдек, Қозоғистон Республикасининг компаниялар, фирмалар ва бошқа тижорат ташкилотлари фаолиятини тартибга солувчи бошқа меъёрий ҳужжатларида белгиланган талабларни ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилган.

[366] Тадқиқотчи томонидан тузилган




*Аудиторликташкилотларинингҳуқуқий-таркибий шакли*[367]

Ҳозирги кунда Қозоғистон аудиторлик хизматлари бозорида 165 та аудиторлик ташкилотлари ва 513 нафар якка тартибдаги аудиторлар, бундан ташқари, хорижий компаниялар, шу жумладан, “Deloitte”, “Ernst&Young”, “KPMG”, “PricewaterhouseCoopers” каби қитъалараро аудиторлик-консалтинг корпорациялари фаолият юритади.

Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, бугун ривожланган мамлакатлар аудиторларининг тан олишларича, аудитнинг мақсади барча муҳим жиҳатларда бухгалтерия ҳисобининг ишончлилиги тўғрисидаги фикрни шакллантиришдан иборат. Ушбу мақсадга эришиш учун ўзига хос ёндашувлар, тартиб-тамоиллар ва усуллар доирасидан фойдаланилмоқда. Бугунги кунга келиб, Қозоғистонда аудиторлик фаолияти кенг ривож топди. Эндиликда аудит фақат пуллик хизматларни кўрсатибгина қолмасдан, балки муҳим ижтимоий функцияни ҳам бажармоқда, яъни у мўътадил иқтисодий муносабатларнинг юзага келишига хизмат қилади. Аудиторлик текширувлари молиявий фаолият таҳлили билан биргаликда яхшигина рентабелликка эга.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1.Закон Республики Казахстан от 20 ноября 1998 года № 304-I “Об аудиторской деятельности”
2.Гражданский кодекс Республики Казахстан. Общая часть.

## NAVOIY ASARLARIDAGI ASTRONOMIK QARASHLAR

**N.Rahmonova**
*Toshkent viloyati, Oxford brookes universiteti*
*II bosqich talabasi*

[367]Тадқиқотчи томонидан тузилган

*Navoiyketma-ket, beshta dostonning barchasida juda ko`p bora, bir – biriga o`xshatishlarsiz, astronomik qarashlarni, osmon hodisalarini yulduzlarni, sayyoralarni lirik qolipga mohirona tarzda soladi. Bu esa bevosita shoirning buyuk, ko`p qirrali istedod sohibi ekanligini anglatadi. Navoiyning besh dostonining qadri ham manashu astranomik qarashlar bilan bog`liq.*

Allomalarimizningbizgaqoldiribketganyuksakbilimmanbayibo'lmishkitoblarii lm-ma'rifatahligaulkanxazinavazifasinio'tabkelmoqda. Barchamizga ma'lumki, Buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiyning ko'p qirrali salohiyati, chuqur ilmi, uning yozgan asarlari butun dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda.Shoirlikdan tashqari uning astranomiya, fizika faniga oid ilmi qanchalar yuksak darajada ekanligini ilmiy nuqtayi nazardan bir tomonlama ko'rsatib berishimiz kerak hisobladim. Navoiy ijodini, uning asarlarini o'rgangan, o'qigan inson komillik sari odimlay boshlaydi. Uning asarlari go'yoki, bir dengiz bo'lsa, u dengizdan har kim istaganicha dur oladi. Bu sohada qalam tebratganlar Navoiy dengizidan ajoyib durlar qo'lga kiritdilar, lekin ancha qimmat durlar hamon dengiz tubida. Uning asarlarini o'rganganimiz sari, dengiz qari qanchalar chuqur, ya'ni o'rganilmay qolgan qanchadan qancha sirlar yashiringanini ko'rgandek bo'lamiz. Har bir shaxsning tushunchasi turlicha, men ham "Xamsa" asarini o'z qarashim bilan o'rgandim. Bolaligimdan she'riyat va fizika faniga qiziqishim tufayli Navoiy "Xamsa" sida astranomiya bilan lirika o'rtasidagi bog'liqliklar e'tiborimni tortdi. Navoiy o'z ijodining eng yuksak cho'qqisini, shubhasiz "Xamsa" asariga kirgan dostonlari tashkil etadi. "Xamsa" orqali o'zbek adabiyoti jahon adabiyotidan eng yuqori o'rinlardan birini egalladi. Uning bebaho istedodi avvalo shunda ko'rinadiki, u 50 mingga yaqin misradan iborat bu buyuk asarni kundalik ishlardan, xususan davlat ishlaridan uzulmagan holda juda qisqa bir muddat ichida yozib tugallagan."Xamsa" yaratish g'oyasi Navoiyda juda erta, u hali Nizomiy, Xusrav Dehlaviy dostonlarini o'qib yurgan yoshlik yillaridan yuzaga kelganini, bunda shu ikki shoir asosiy madadkor bo'lganini Navoiyning o'zi "Saddi Iskandariy" dostonida e'tirof etadi."Xamsa"ni yaratilish jarayoni ham juda xarakterlidir. Navoiy deyarli har dostonning oxirida o'zining mazkur asarni yozish jarayonida bir kun bo'lsa ham tinch o'tirib ishlay olmaganidan zorlanadi. Uning tinchligini buzganlar vazir Navoiydan insof va adolat, haqiqat va madad so'rab kelgan kishilar edi. Ularning keti uzulmadi. Shoirning vijdoni ularga uzr aytib, qabul qilmay, ularning arz-dodlarini tinglamay jo'natib yuborishga yo'l qo'ymasdi. Navoiy "Xamsa"ni yozishga har tomonlama kamolga yetganda kirishdi. Bu shoirning estetik qarashlari bu davrda jahon miqyosida yuqori saviyaga ko'tarilgandan, uning bu sohada g'oyat ilg'or nuqtayi nazarda turgandan ham yaqqol ko'rinib turibdi."Xamsa" ning yuzaga kelishi XV asrda juda katta tarixiy voqea bo'ldi. Bu o'zbek xalqi madaniyatining jahon adabiyoti saviyasida, o'zbek ziyolisining esa yetuklik darajasiga ko'tarilganidan darak berardi. Shunday bir buyuk asarni o'zbek tilida vujudga kelgani chindan ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan edi. Chunki, Navoiy davrida o'zi O'zbek bo'laturib, asarlarni o'z ona tilida

emas, balki fors tilida yozuvchilar ko’p edi. Bu hol o’zbek xalqining ma’naviy taraqqiyotiga madaniyatning rivojlanishiga asosiy yo’l bo’la olmas edi.Olimlarimiz bu asarni o’rganish va tekshirishda, uning hali bizga noma’lum tomonlarini, g’oyalarini, san’atlarini ochishda, tadqiq etishda yana ham ko’p ishlarni amalga oshiradilar, deb o’ylaymiz.«Xamsa»ning yaratilishi jarayoniga diqqat bilan nazar solinsa, asar voqealari Navoiyning kundalik hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqea va hodisalar bilan bog‘liqligi, ularning uzluksiz ravishda shoir kayfiyatiga, ijodiga o‘z ta’sirini turli shakllarda ko‘rsata borishi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Shoirning astronomiya hodisalari haqidagi fikrlari uning dostonida aks etishi asarni qimmatini yanada oshirganini oddiy ko`z bilan o`qib sezish qiyn. ***Agar e’tibor beradigan bo`lsak shoir ketma-ket, beshta dostonning barchasida juda ko`p bora, bir – biriga o`xshatishlarsiz, astronomik qarashlarni, osmon hodisalarini, yulduzlarni, sayyoralarni lirik qolipga mohirona tarzda soladi. Bu esa bevosita shoirning buyuk, ko`p qirrali istedod sohibi ekanligini anglatadi***. Endi esa, Navoiyning beshta dostonining har biridagi lirik qolipga joylashtirilgan va betakror tarzda qo’llanilgan so’zlarni taxlil qilib ko’ramiz

***Alisher Navoiyning yuksak istedodi, ko’p qirrali salohiyati shuni ko’rsatadiki, u o’z lirikasini yanada jonlantirish maqsadida astranomik hodisalar, tushunchalarni o’zi egallagan tarixiy bilimlar bilan uyg’unlashtiradi. Navoiy ushbu dostonni yozishga kirishar ekan, hatto osmondagi yulduzlar turkumi – nasri toyir ham himmat qanotini qoqib gardun qorong’uligida sayr qila boshladi, deydi.***

“Hayratul-abror’’ning boshlanish qismi bir necha kirish boblaridan tashkil topgan. “Hayratul-abror’’ dostonida asosan Navoiy garchi dunyoda ko’p go’zal narsalar yaratilgan bo’lsa ham, shu bilan birga, olamda, kishini tasavuriga sig’maydigan darajada voqealar yuz berib turadi. Masalan, yulduzlar olami turli holatlarga tushsa, buning sirlarini bilmoqchi bo’lganlar bunga erisha olmasalar ham, bundan xudoga hech bir ziyon va hech bir tashvish yo’q. Chunki ular hammasi xudoning irodasi bilan harakatda va o’zaro bir-biriga muvofiq holda harakat qiladi. Sayyoralar ham uni izmida. Dengiz to’fonlari yuz berishi, zilzila turib, tog’larni osmonga chiqib ketishi-bular hammasi uning buyukligi deydi Navoiy. O’z asarida tabiat hodisalarini shunday moxirona tasvirlab beradiki, lol qolmay iloj yo’q.

Shoir mohirona tarzda sayyoralarga murojaat eta boshlaydi: “U(ko’ngil) yana bir (osmon) bog’iga kirib, joy oldi. Unda kumush badanli bir maxbuba turardi”. Klassik poetikada tashxis degan san’at bor. Bu san’at shoirga borliqdagi jonsiz narsalarni jonlantirib, insoniy sifatlarda shaxslantirib tasvirlash imkonini beradi. Bunda Navoiy xuddi shu usulni qo’llagan. Chunki shoir “buti siminbadan” qandaydir “qoshi fusungar, ko’zi tannoz” bir malak emas, balki ikkinchi osmonda joylashgan Atorud “(Merkuriy) sayyorasidir. Navoiy keyingi “Nodirai nuqta sanj”- Zuhra (Venera), Mirrix (Mars), Mushtariy (Yupiter), Zuhal (Saturn) planetalari xususida ham tashxis usulida mulohaza yuritgan. Dostonning bu va shunga o’xshash astranomiyani lirikaga bog’lash fantaziyasining roli nihoyatda katta.

***“Osmonni to’qqiz qutisi bo’lib, hammasi zar bilan ishlangan, ularning ichida yuz minglab qimmatbaho durlar bor. Undagi har bir durning yorug’ligiga farog’at shamidir, oddiy dur emas, sham ham emas, ko’chani yorituvchi durdir” deya yulduzlarga beqiyos lirik o’xshatish bergan,***

Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida fizik-lirik qarashlarni chetlab o’tmadi. U ushbu dostonni mukammallashtirish maqsadida ham o`z ilmiga tayangan holda astranomik qarashlarni ilgari surdi va so`z o’yinlarida foydalandi.

*Chu tortib **Zuhra** lahni Borbadni*
*Olib **Bahrom**vashlardin xiradni.*

*O’kush Farhodu Shirin aylasang jam,*
*Shabistonda bir parvonau sham’,*

*Va gar ming **Besutun**dek qilsang idrok,*
*Yo`lida bir kesak, bal bir ovuch xok.*

Bu yerda Zuhra – Venera, Sharqda esa erta tongda, G’arbda kechqurun porlab ko’rinadigan yorqin yulduz. Qadimgi yunonlarda muhabbat ma’budasi sifatida tasvirlangan. Zuhra ba’zan Nohid nomi bilan ham ataladi. Zuhra go’zallik, muhabbat hamda musiqa homiysi hisoblanadi.

Bahrom – Mirrix – Mars sayyorasi. Ilmi nujumcha Bahrom harbiy ishlar homiysi sanalgan.Besutun – Behistun – Shimoliy Eronda, Hamadon shahridan 100 km g’arbda tog’ oralig’idagi qoya. Bu qoya rivoyat va afsonalarda ko`pincha Farhod nomi bilan vobasta holda tilga olinadi. Farhod shu tog’ etaklarida kanal qazigan, shu tog’ni kesib yo’l ochgan qahramon sifatida tasvirlanadi.

***Atorud** bodpoyidin bo`lub shod,*
*Berib avroqu ajzosini barbod.*

*Yeturgach **Zuhra**ga davlad rikobi,*
*Difin yirtib qudumi ehtisobi.*

*Quyoshga chun surub gardin xiromin,*
*Uyotdin yer quyi aylab maqomin.*

*Chopib Bahromg’a raxshin chu yaksar,*
*Bo`lub ul Nahsi Asg’ar Sa’di Akbar.*

*Tushub chun **Mushtariy** sori mururi,*
*Quyoshni yoshurib har lam’a nuri.*

Atorud – Utorid- Merkuriy Sayyorasi. Forscha Dabir ham deyiladi. U yozuvchilarning, san’atkorlarning, umuman donishmandlikning homiysi hisoblanadi.

Mushtariy – Yupiter – forscha Birjis ham deyiladi. Ilmi nujumda Mushtariyni “Sa’di akbar” (yuksaklikdagi joy) va “Falak qozisi” deb ham yuritadigan joyi, oltinchi falakda emish.

*Qaro tun gar nishon aylab **Suhoni**,*
*Falakcha novakig’a ul nishoni.*

*Debon **Turki falak** otqonda zihlar,*
*Tavahhum toridin ochib girihlar.*

Suho- Hulkar turkumidagi xira ko`rinadigan yulduzning nomi. Bu yerda shoir Farhodning merganligini ta’riflab, shunday xira yulduzni ham nishonga ola bilar edi, - deydi.

Turki falak – maj. Mirrix – Mars sayyorasi. Mirrix Sharq adabiyotida urush, jangchilik, homiysi ma’nosida Bahrom ham deyiladi. Shoir Farhodning jangovarlik yarog’larini mohirlik bilan egallaganini maqtab, u o’q otganda Mirrix ham ofarin o’qiydi demoqchi.

*Yeti gardung’a ofat shashparidin,*
*Bo’lub suv **Hut** bag’ri xanjardin.*

*Asad bo’ynin uzub sarpanja birla,*
*Zabuni bir **asad** har panja birla.*

Hut – aynan: kata baliq; o`n ikkinchi oftob burjining nomi, fevral-mart oylariga to`g’ri keladi.

Asad – aynan: arslon oftob burjlaridan beshinchisining nomi, iyul-avgust oylariga to`g’ri keladi.

Bu va oldingi baytlarida Navoiy yana o`sha ig`roq san’atini, aqlga nomuvofiq, hayotda mumkin bo’lmagan mubolag`ani ishlatadi. Farhod xanjarining zarbidan Hutning bag`ri ezilib, suvga aylanib ketishi, panjasi bilan Asadning bo`ynini uzib olishi mumkin, deb ta’riflanadi.

*Yig`ochi soyasida charx koxi*
*Quyiroq shoxasidin **Sidra** shoxi.*

*Urub tig`i falak jismig`a suhon,*
*O`tub ul jismidin andoqki ko`hon.*

Sidra –yettinchi osmondagi muhtasham daraxt.

*Bo`lub g`orida har dun ankabuti,*
*Bir **usturlobi** gardun ankabuti.*
*Falakdek tab’i soyir, jismi sokin,*

***Layli va Majnun asarida*** Navoiy Muhammad payg`ambarning sayyoralar, yulduzlar, o`n ikki burj aro ko`kka ko`tarilishi tasviri ajoyib manzara kasb etadi. Navoiy ilmi nujumdan yaxshi ma’lumotga ega bo`lganligi sababli sayyora, yulduzlarning nomlaridangina emas, ularning xususiyatlarini ham ko`zda tutadi va

tashxis san'atidan foydalanib, koinotdagi jonsiz narsalarni insoniy sifatdan jonlantiradi va Me'roj tunining mo`jizaviy holatini tasvirlaydi.

*__Bahrom__ ko`rub biyik janobin,*
*Tashlab qilichin, o`pub rikobin.*

*Birjisqa chun yetib rikobi,*
*Ish anga saodat iktisobi.*

*Soyislig`iga __Zuhal__ urub fol,*
*Gaz dasta bila qo`lida g`arbol.*
*Savru __Hamal__ aylabon fig`onlar,*
*Qurboni aning qilurg`a jonlar…*

Ushbu asardagi Bahromni Mirrix ham deydilar; Forslarda Bahrom, yunonlarda Mars sayyorasi. Uni urush homiysi hisoblaganlar. Qadimgi ilmi nujumga ko`ra Bahrom beshinchi falak sayyorasi bo`lib, yerdan kichik, to'rtinchi o`rinda turadi.

Birjis – Mushtariy(Yupiter) sayyorasining forscha nomi. Ilmi nujumda bu sayyora "Sa'di akbar" va "Falak qozisi" ham deb yuritiladi, joyi beshinchi falakda deydilar. Shoir bu baytda Muhammad payg`ambar otining uzangisini Bahrom o`pdi, keyin Birjisga rikobi yetishti va bundan u g`oyat saodatmand bo`ldi deydi.

Zuhal – Saturnning arabcha nomi, Kayvon ham deyiladi. Joyi oltinchi falakda ekan. Shoir bu baytda Zuhal sayyorasi Muhammad payg`ambarga otboqar bo`lishni orzu qilganini ta`riflaydi.

Savr- eski astralogiyada osmondagi o`n ikki burjning ikkinchisi. Quyosh yili hisobida birinchi oy nomi mart oyiga to`g`ri keladi.

Hamal- o`n ikki burjning birinchisi, unga quyosh mart oyida kiradi. Quyosh yili hisobida birinchi oy nomi mart oyiga tog`ri keladi

***"Sab'ai Sayyor"*** Alisher Navoiyning to`rtinchi dostoni bo`lib, Dostonning birinchi bobida shoir sayyoralar olami, kosmologik mifologiya bilan bog`liq holda dunyoning yaratilishi haqidagi o`z falsafiy qarashlarini ifodalaydi. Uning koinot sirlari va burjlarga aloqador falsafiy fikrlari bayon etilgan. Navoiy dostonni yozar ekan, hikoyatlar misolida Nizomiy boshlab bergan yettilik garmoniyasini takomilga yetkazdi. Yetti kecha va unda aytiladigan yeti hikoyat foniga haftaning yeti kuni, unga homiylik qiladigan yeti sayyora, u bilan bog`liq yeti iqlim, yeti qasr, yeti go`zal, yeti rang, yeti sayohatchi motivlarini shunday mahorat bilan joylashtirdiki, natijada hafta kunlari, sayyoralar, ranglar, iqlimlar, musofirlar, go'zallar, xullas hamma motivlar o`zaro uyg`un holda markaziy qahramon va hikoya atrofida xuddi o`sha davrdagi koinot haqidagi tasavvurlar bo`yicha yer atrofida aylangan yeti sayyora kabi harakat qildilar. Bu bilan Navoiy sayyoralar misolida olam muvozanati haqidagi o`z fikrini bayon etmoqda. Demak, Navoiyning yettilik garmoniyasidan, yana aniqrog'i, "Sab'ai sayyor" dostonidan kelib chiqadigan dastlabki xulosasi olam muvozanati masalasidir.

**"Saddi Iskandariy"**

Bu asar dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch sohibquronning eng mashhuri janongir Iskandarga bag`ishlangan bo`lib, “Xamsa”ning yakunlovchi dostonidir. Navoiy ushbu bobda tasavvuf talimoti asosida olamning yaratilish tarixiga to`xtalib o`tadi. 9 qavat osmon, sayyoralar, yulduzlar turkumining har biriga alohida ta`rif beradi. Yaratganning buyukligigga hamdu sano aytadi. Bularning barchasidan maqsad eng oliy zot Odamni yaratish ekanligini ta’kidlaydi.

Yettinchi qavat ustida sakkizinchi osmon bo`lib, undan turg`un yulduzlar joy olgan. Moviy gumbazlar harakati janubiy-birinchi va sharqiy – ikkinchi harakatlarga bo`linadi. Janubiy harakatlar natijasida kecha va kunduz yuzaga keladi. Janubiy yulduzlar harakati osmonda hech ham sezilmaydi.

“Yana bir falakni qatl qiladigan joy qilib bunyod etdingki, uning orom oluvchisi do`st atalmish – qotildir. Bu Mirrix – (Mars) planetasi bo`lib, beshinchi falakda joylashgan. Kishilar uning tig`idan hech qachon omonlik topa olmaganlar. Uni yaltiroq tig’i balo chaqmog`i bo`lib, undan oqadigan suv xalqni g’arq qiluvchi ofatdir. El bo`ynini kesmoq, o`tkir qilich bilan boshni uchirmoq unga hamishalik odatdir. U shunchalik qonxo’rki, kesilgan boshning kosasini qadah qilib may o`rniga qon ichadi, qon emas, qatra-qatra zahar yutgandek qahr bilan nur sochadi.

Sen yana bir pok, toza gulbog` - Jannat ham bunyod etdingki, uning maqom qiluvchisi hurdan ham afzaldir. U osmon mulkining shohi quyosh bo`lib, oromgohi feruza rangli osmon taxtidir. U ko`k ahlining yarashiqli bezagi, ko`rar ko`zi, balki ko`z qorachig`idir. Porloq chaqmoqlar unga ko`zgu bo`lib, da’volariga guvoh zarralardir. Baland ko`pik peshtoqidagi quyoshmonand zarrin naqshlar singari ular yeri ham ko`kda aylanuvchi moviy gumbazlar arodir.

Yana bir yuksak falakka serjilva Zuhra (Venera- Cho`lpon) yulduzini joylading. Sozanda va xonandalar homiysi hisoblangan quyosh chehralik bu “barbad” chaluvchi o`z sozini chalganda go`yo jon iplari unga tor bo`ladi. Sarguzashtlar uning toriga guzorish beradi, tirnog`lari esa bag`rlarga – horish. U qachon yoqimli kuy bunyod etsa, buyuk aql sohiblari ham faryod chekmay qola olmaydi. Barbatning ovozi yetib brogan joyda na dilig`ashlik qoladi, na g`am-tashvish. U go’yo doira ichidagi qo`ng`iroqchalar singari ko`k tokida xotiri jamlik bilan ohang tuzadi.

Yana birini kutubxona qilib yaratding (Utorud – Merkuriy sayyorasiga ishora) va u yerga kitobat ishlarida oqilu donolarni to`plading. Ular yashirin fikr va mazmunlarni diqqat bilan tekshiruvchi nuqtadonlar orasidagi nozik hunar egalaridir. Asosiy qismning so`nggi bobida yeti faylasuf hakim: Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmus, Farfinyus va Arastu Iskandarning onasiga ta’ziya bildirgani keladilar va shu bilan Iskandar voqeasi poyoniga yetadi.

Doston boshqa dostonlardan farq qilib, kattagina xotima bilan yakunlanadi. Xotima “Saddi Iskandariy” dostonini tugallash bilan muayyan ma`noda “Xamsa” ga ham yakun yasaydi.

Dostonni so`nggi bobida Navoiy unga baxt-davlat rahnamolik qilib, nihoyat “Xamsa” ni yakunlaganini yozar ekan, “Hayratul-abror” dostonini yozishdan boshlab, “Saddi Iskandariy” yakunlangunicha bo`lgan jarayonni birma-bir eslab o`tadi. Navoiy tong otib kech kirguncha el-yurt tashvishi bilan band bo`lgani holda

salaflari uzoq muddat yozgan “Xamsa”ni juda qisqa muddatda- ikki yilda yakunlaganini, agar bevosita faqat yozish uchun ketgan vaqtni hisoblab chiqilsa, olti oyga ham bormasligini faxriya tarzda bayon qiladi.

Biz aynan manashu qarashlarni ilmiy nuqtai nazardan to’laligicha bayon qilib kitob holiga keltirib, dunyo ahliga yetkazishimiz va Navoiyning yana bir ilm xazinasidan parchani namoish qilishimiz va shu bilan kelajak avlodimiz adabiyotlarini boyitishimiz lozim.

Navoiy asarlarining sehrli tilsimining kaliti ham mana shunda. Kimki bu tilsimni tushuna olsa sehrli mamlakat darvozasini ochganday bo’ladi go’yo. Navoiyning besh dostonining qadri ham manashu astranomik qarashlar bilan bog`liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O’zbekadabiyotitarixi. Beshjildlik. 2-jild (XVasrningikkinchiyarmi).- T.:Fan, 1977.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to`plami. 20 jildlik.- fan, 1993. 11-jild.
3. Erkinov A.S. Navoiy – peyzaj ustasi, - T.:Fan, 1988.
4. Navoiy Alisher. Sab’ai sayyor:.T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami: Xamsa: Hayratul-abror. T.:Fan , 1991.
6. Xasanov S. Navoiyning yeti tuxfasi. Toshkent: G’.G`ulom nomidagi nashriyot- matbaa birlashmasi, 1991. B. 151-161.
7. Ziyotov.Z. Shumerlar va Turon qavmlari. Toshkent: Mumtoz so’z: 2012.
8. Komilov N. Najmiddin Kubro./Tasavvuf.- Toshkent: Movorounnahr-O’zbekiston, 2009. B
9. Muhiddinov M. Nurli qalblar gulshani. Toshkent. Fan – 2007
10. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Mukammal asarlar to`plami.-fan, 1977
11. Alisher Navoiy. Layli va Majnun; Sab’ai Sayyor. G’.G’ulom nomidagi nashriyot- matbaa birlashmasi, 2012

## ЁШЛАР ТАЪЛИМ-ТАРБИЯСИДА ИНТЕРНЕТДАН ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ

**Ш. Қулиева**
*п.ф.н., доцент Бухоро давлат университети*
**Ш.Иззатова**
*III курс талабаси*

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг ёшлар маънавиятини юксалтириш ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича илгари сурган бешта муҳим ташаббуси, жумладан, аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланишни ташкил этиш борасида қўйилган вазифалар ижроси ушбу соҳада ахборот-

коммуникация технологияларидан кенг фойдаланиш бўйича амалий ва инновацион тадқиқотларни ривожлантиришни талаб этади.

Ҳозирги замон илмий техника босқичининг характерли хусусиятларидан бири жамият ҳаётининг барча жабҳаларини компьютерлаштиришдан иборатлиги касбий ва шу каторда педагогик фаолиятнинг тузилишини кескин ўзгартиришини келтириб чиқаради. Таълим тизими барча бўғинларининг ахборот технологияларидан фойдаланиши таълимнинг ахборотлашувида кундалик талабни келтириб чиқаради, бу эса, ўз навбатида, олий таълим муассасаларида тайёрланадиган бўлажак ўқитувчидан янги ахборотлар муҳитида бемалол ишлай олувчи билим ва кўникмаларни шакллантиришни талаб этади.

Биринчи президентимиз Ислом Каримов алоҳида таъкидлаганларидек, "...биз мамлакатимизнинг истиқболи ёш авлодимиз қандай тарбия топишига, қандай маънавий фазилатлар эгаси бўлиб вояга етишига, фарзандларимизнинг ҳаётда нечоғли фаол муносабатда бўлишига, қандай олий мақсадларга хизмат қилишига боғлиқ эканини ҳамиша ёдда тутишимиз керак". Шу сабабли ҳам биринчи навбатда таълим мазмуни ва унинг таркибини кенгайтириш ва чуқурлаштириш, хусусан, бу мазмунга нафақат билим, кўникма ва малака, балки умуминсоний маданиятни ташкил қилувчи - ижодий фаолият тажрибаси, теварак-атрофга муносабатларни ҳам киритиш ғояси кун тартибига қўйилди [1].

Ҳозирги даврда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш кескин кучайганлиги учун таълим берувчига ва таълим олувчига жуда катта ва турли-туман ахборот технологиялари билан ишлашга тўғри келганлигидан уларнинг асосийларини юқори билим ва ақл идрок билан ажратиб олиш зарур.

Интернет бу – хозирги замон талабидаги ягона оммабоп компютер тармоғи ҳисобланиб, бизга барча соҳаларга оид ноаниқлик яъни онгимизга мавҳум бўлган тушунчалар ҳақида очиқ – оддий ва равон маълумот берувчи ахборот манбаидир.

Табийки, ҳозирги кунда ушбу омилга бўлган эҳтиёжмандлар сони кундан кунга ортиб бормоқда. Мазкур тармоқ бутун дунё миқёсида глобал тармоқдир. Зеро унда мавжуд янгиликлардан хабардор этувчи матинлар, тасвир ҳамда овоз ҳизматлари ва бир қатор имкониятлар барча жабҳада катта енгилликларни юзага келтираётган бўлса-да, аммо иккинчи томондан инсониятни беихтиёр вертуал оламга жалб этиб бормоқда.

Айниқса бу таъсир доирасидан ўсмир ёшлар ҳам йўқ эмас. Бу борада мутахассисларнинг сўзлари қуйидаги натижаларни исботламоқда:
интернет тармоғидаги ижобийлик инсоннинг фан, соҳа ва фаолиятига боғлиқ муҳим аниқ далилларга эга бўлишида ҳар томонлама қулайлиги ва тегишли вақт миқдорининг тежалишига олиб келиши кундек равшан, лекин қизиқувчанлик сабабли Интернет ахборотларидаги ортиқча маълумотларга ҳаддан зиёд берилиб кетишларидир.

Изланувчанлик, фикрий ривожланиш, мушоҳада, тахлил қилиш қобилияти ва хотиранинг ўткирлик даражасини сусайтиришга сабаб бўлмоқда.

Маълумки, Интернет воситасидан фойдаланиш ҳеч кимга мажбурий бўлмаган ва инсоннинг ўз тафаккуридан келиб чиққан қонун қоидалар асосида бўлиши кераклиги ҳамда ундаги меъёр талаблари, яъни Интернет тармоғидан ахборотларни тўғри танлаш ҳар жиҳатдан ўринлидир. Бундан кўриниб турибдики, ушбу тармоқ воситасининг ўз ичига қамраб олган ахборотлар миқёси шу қадар кенг ва кўп эканлиги гоҳида ўзимизга керакли бўлган маълумотларни ажратиб олишимизда ҳам қийинчилик туғдирмоқда.

Ҳозирги замон ёшларини фан асослари билан қуроллантиришда, ўқитишнинг илғор педагогик технологиялар ютуқлари асосида «Таълим тўғрисида»ги Қонун ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» талабларини бажариш мақсадида уларнинг ақлий тафаккурларини юқори даражада ривожлантиришга эришиш таълим муассасалари олдидаги энг муҳим вазифалардан биридир.

Бу мақсадни амалга ошириш учун «Ўқув-тарбиявий жараёнини илғор педагогик технологиялар билан таъминлаш» «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»нинг иккинчи ва учинчи босқичларида бажариладиган асосий вазифалардан бири сифатида белгиланади. Бунга сабаб:

1. Аҳоли таълимини жадаллаштириш ва самарадорлигини оширишнинг бирдан-бир йўли энг илғор педагог тадбирлардан фойдаланиш.

2. Фан ва техника тараққиётининг ўта ривожланганлиги натижасида ахборотларнинг кескин кўпайиб бораётганлигини ва уларни ёшлар онгига тўла-тўкис синдириш ва ёшларни ҳаёт талабларига жавоб берадиган ҳолда тайёрлаш учун вақтнинг камлиги ва бошқалар.

Бу мақсадга эришиш учун тараққий этган мамлакатларда муваффақият билан қўлланиб келаётган педагогик технологияларни ҳамда халқимизнинг бой миллий таълим манбаларидан фойдаланиб, Ўзбекистон Республикасининг миллий педагогик технологиясини яратиш зарур. Бу муаммони ечишдаги тезкор усуллардан энг қулай ва ҳар томонлама зарурий маълумотларни қисқа вақтда тўплаш, таққослаш, синтез қилиш ва уларнинг энг муҳимларини ажратиб олишга имкон берувчилари электрон кутубхоналар, телеконференциялар ва интернетдан фойдаланиш ҳисобланади. Интернет ҳозирги кунда ахборот технологиялари тизимининг ажралмас қисми бўлиб, ундаги асосий бўғин бу ўзаро бир-бири билан боғланган компьютерлардир. Компьютерлар алоқа воситаларидан фарқли ўлароқ, фойдаланувчига маълумотни кўриш, ўқиш ва эшитиш асосида маълумотдан унумли фойдаланишга имкон яратади. Бундан ташқари унда маълумотни узатиш, қабул қилиш тезлиги ўта юқоридир. Шу билан бирга, ишлаб чиқаришдаги ёш мутахассисларнинг билим, кўникма ва малакаларини шакллантиришга имкон берувчи педагогик усуллардан бири масофадан ўқитишни йўлга қўйиш ҳам бу кундаги долзарб муаммолардан ҳисобланади,

чунки кўплаб мамлакатларда ўқитишнинг турли хил усулларидан ва ҳозирги замон телекоммуникация технологиялардан фойдаланиб масофадан ўқитиш амалга оширилади. Бу эса, жуда кўплаб таълим олувчилар ва талабгорларни бир вақтда энг сўнгги ва долзарб муаммолар билан куроллантиришга имкон беради. Бу уларни таълимнинг муҳим қисмларидан бўлган мустақил ишлашга ўргатишни таъминлашга олиб борувчи усуллардан иборат.

Масофадан ўқитишни амалга оширишда биринчи асосий ва зарурий муаммолардан бири узатиладиган машғулотнинг ҳар томонлама тарихий, илмий, амалий муаммоли ва ниҳоят, етарлича кўргазмали ҳамда у ёки бу ҳодиса, қонун ёки технологик жараёнга боғлик бўлган ва унинг мазмунини тўлдирувчи аниқ ва тушунарли иловалар, кўргазмалар билан тўлдирилган бўлиши шарт.

Иккинчидан, узатиладиган маълумотнинг илмий аҳамиятли қисмларини етарли даражада соддадан мураккабга қараб тушунтириш методикасидан тизимли фойдаланилган ҳолда амалга оширилиши зарур.

Учинчидан, узатиладиган маълумотнинг дастурий таъминоти шу курснинг илмий ва амалий аҳамиятлиларини ва ишлатилиш соҳаларини ҳар томонлама яхши биладиган кўп йиллик педагогик тажрибага эга бўлган мутахассис томонидан ишлаб чиқилган бўлиши керак.

Тўртинчидан, узатиладиган машғулотнинг мазмуни юқори педагогик маҳоратга эга бўлган таълим берувчилар томонидан тайёрланиши шарт. Бунга сабаб юқори педагогик маҳорат эгаси ўзининг узоқ йиллик тажрибаси асосида таълим олувчига тушунарли бўладиган ва унинг билим даражасига мос ҳамда талаба учун зарур бўлган маълумотларни соддароқ ҳолда келтириш мақсадга мувофиқ. Бундан ташқари, маърузанинг аҳамиятини очиб берувчи ва хотирага яхши сақланиб қолувчи мисоллар билан бойитилган бўлиши зарур.

Демак, педагоглар ёшларимизнинг келажакда жамият тараққиётини ривожлантиришига ҳамда таълим-тарбия жараёнини мақбул (оптимал) қуришга, талаба ёшларда ҳур фикрлилик, билимга чанқоқлик, Ватанга содиқлик, инсонпарварлик туйғуларини шакллантиришга ижобий таъсир кўрсатади. Жамиятимиз доимо тараққиёт этади. Бунинг учун эса янгича билим бериш, ўзгариб борувчи меҳнат ва ҳаёт шароитларига мувофиқ, танқидий ижодий фаолият билан шуғуллана олиш кўникмалари таркиб топган бўлиши лозим. Демак, таълим-тарбия ёш авлодни ҳаётга, меҳнатга тайёрлашда ҳамда мавжуд жамият имкониятларини шакллантириш янада ривожлантириш мақсадида кекса авлод томонидан орттирилган тарихий тажрибани тўлдирилган ҳамда янада мукаммаллаштирилган ҳолда ёш авлодга сингдиради. Таълим-тарбия моҳияти сақланаётган ҳолда ўқитувчи ўз иш фаолитида усуллар, воситалар ва шаклларни ўзгарган шароитларда янгилашга мажбурдир, чунки янги давр унга доимо янги талаб қўяди.

**Адабиётлар:**

1. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., “Шарқ”, 1997.
2. Холлиев И., Ҳусанов Ж. Касб-ҳунар таълими: Технология. Маънавият. Маҳорат / А. Икромовнинг умумий таҳрири остида. – Т.: “Ўқитувчи”, 2003. – 256 б.
3. Қосимов А.Х., Ф.А. Холикова Педагогик маҳорат ва педагогик технологиялар фанидан маърузалар матни, Тошкент. – ТАТУ. 2004. – 50 б.
4. https://naqshband.uz/makolalar/internet-va-foydalanish

# ИҚТИСОДИЙ ЎСИШИНИ БАРҚАРОРЛАШТИРИШДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ЎРНИ

**Ф.Р.Илхомов**
*ТАТУ Фарғона филиали талабаси*
**М.Бутабоев**
*ТАТУ Фарғона филиали профессори, и.ф.н.*

Иқтисодиётда бозор муносабатларига ўтиш жамият ижтимоий иқтисодий ҳаётининг барча соҳаларига ахборот коммуникацион технологиялари(АКТ)нинг сўнгги ютуқларини жорий этиш жараёнини тезлаштириб юборди. Бугунги кунда ахборот тизимлари ва технологиялари “ахборотлаштириш”, “компьютер-лаштириш”, “электрон ҳукумат”, “электрон бошқарув”, “очиқ таълим”, ”аққли уйлар”, “ақлли шаҳарлар” каби атамалар фаолиятимизда қўлланилмоқда. Уларнинг лойиҳалаштириш, яратиш, ишга тушириш ва кенг қўллашдан мақсад – жамиятдаги ижтимоий-иқтисодий тараққиётда вужудга келадиган айрим муаммоларни ҳал этиш ва меҳнат самарасини янада оширишдан иборат.

Интелектуал ғоя ва инновацияларни бошқариш кенг тарқалган ва жамоатчилик томонидан тан олинган зарурият бўлиб, мамлакатимизда ҳам бу борада муайян ишлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Республикамизда 2017 йилда қабул қилинган Ҳаракатлар стратегиясини[1] амалга ошириш шароитида мамлакатнинг рақобатбардошлигини ошириш, иқтисодий салоҳиятини юксалтириш, инновацияларни кенг жорий этиш ва шулар асосида ресурслардан оқилона фойдаланиш кабилар **рақамли иқтисодиётни** шакллантириш омилларидан ҳисобланади. Чунки бошқарувда рақамли технологияларни кенг қўллаш, мамлакатда электрон ҳукумат тизимини жорий этиш муаммосини, ижтимоий ривожланишнинг кўп вариантлилиги ва муқобиллигини эътироф этишга асосланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 ноябрдаги “Илмий-тадқиқот муассасаларининг инфратузилмасини янада мустаҳкамлаш ва инновацион фаолиятини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-

3365-сон қарори бунга мисол бўла олади. Мазкур қарорда “Илғор олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот институтлари билан кичик инновацион корхоналарни яратиш орқали таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини мустаҳкамлаш” каби вазифаларни белгиланганлиги бу соҳада интелектуал ғоя, билим ва инновацияларни бошқаришни такомиллаштиришни талаб этади. [2]

Корхоналар бизнес-жараёнини ташкил этишда моддий ресурсларнинг бошқаришни автоматлаштирилишидан сўнгги жараён бу номоддий ресурсларни ҳам бошқаришни автоматлаштириш ҳисобланади.

Президент Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек “Бугун биз давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларини тубдан янгилашга қаратилган инновацион ривожланиш йўлига ўтмоқдамиз. Бу бежиз эмас, албатта. Чунки замон шиддат билан ривожланиб бораётган ҳозирги даврда ким ютади? янги фикр, янги ғояга, инновацияга таянган давлат ютади.” [3]

Президентнинг 2018 йил 19 февралдаги “Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғри-сида”ги Фармонини қабул қилиниши ҳам соҳани жадал ривожлантиришни мақсад қилиб олинганлигини ифодалайди. [4] Мазкур қарор ва фармонларда, ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасига хорижий инвестиция-ларни жалб этиш, тўғридан-тўғри сармоялар иштирокидаги лойиҳалар ҳиссасини ошириш зарурлиги, инвестициялар, айниқса, тўғридан-тўғри сармоялар ҳажмини ошириш чора-тадбирлари белгилаган.

Инсоният глобал ўзгаришлар даврига кирди. Яқин келажакда унинг ҳаётий фаолияти, иқтисодиёти ва бошқаруви, фан ва техниканинг асосий соҳалари янги шакл ва мазмунга эга бўлади. Инсон тафаккури дунё қараши ижтимоий муносабатларнинг ўзгаришига олиб келади. Рақамли технологияларни, рақамли сўзлашувларни ҳаётга кириб келиши келажакдаги дунёнинг ўзига хос ҳусусиятларидан биридир. Бу микроэлектроника, ахборот технологиялари ва телекоммуникация соҳаларидаги тараққиётга боғлиқ бўлади. Шундай қилиб рақамлаштириш объектив муқаррар жараёндир, уни тўхтатиш мумкин эмас.

Рақамли иқтисодиётнинг вужудга келиши янги ахборот технологияларини ривожлантириш билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, бу икки жараённи бир-биридан алоҳида муҳокама қилиш мумкин эмас. Бизнинг фикримизча, ахборот технологияларни ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, рақамли иқтисодиётни яратиш учун зарур бўлган асосдир. Рақамли иқтисодиёт кўп қиррали фаолият бўлиб, унда рақамли ахборот ва билимлар ишлаб чиқаришнинг асосий омили сифатида қўлланилади, зарурий фаолият майдони тариқасида замонавий ахборот тармоғи иқтисодиёт структурасини оптималлаштириш ва унумдорликни оширишнинг етакчи омили тариқасида АКТлар самарали қўлланилади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиеёевнинг Олий Мажлис қуйи ва юқори палаталарига Мурожаатномасида, “...Мамлакатда

илм-фанни янада равнақ топтириш, ёшларимизни чуқур билим, юксак маънавият ва маданият эгаси этиб тарбиялаш, рақобатбардош иқтисодиётни шакллантириш борасида бошлаган ишларимизни жадал давом эттириш ва янги, замонавий босқичга кўтариш мақсадида мен юртимизда 2020 йилга “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” деб ном беришни таклиф этаман” [5] деган сўзларининг ўзиёқ мамлакат қтисодий ўсишини барқарорлаштиришда рақамли иқтисодиётни йўлга қўйишни долзарблигига яна бир мисол бўлади.

Миллий бозорларнинг ривожланиб, халқаро иқтисодий тизимларга кириб боришини электрон бизнессиз тасаввур қилиб бўлмайди. Яъни, кенг маънода замонавий ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланмасдан савдо операцияларини, яъни товарга буюртма бериш, тўловларни амалга ошириш, товарларни истъемолчиларга етказиб бериш, савдо хизматларини бажариш каби ишларни бажариб бўлмайди.

Рақамли иқтисодиёт бу интернет иқтисодиёти, электрон бизнес ва электрон тижорат ёрдамида ишлаб чиқилган ва сотилаётган рақамли технологияларга асосланган иқтисодий фаолиятдир. Бу ерда товарлар ва хизматлар электрон формада сотилади. Рақамли иқтисодиётда хизматлар ва товарлар учун тўловлар кўпинча электрон пулларда рақамли банклар орқали амалга оширилади. Виртуал (рақамли) электрон валюта – пул сифатида муомалага киритилади, улар моддий эквивалентга эга бўлмаган накд тангалар ва маълумотлар базасидаги кодлар жамланмасидир. Ҳозирда машҳур криптовалюта пуллар Bitcoin, Etherium, Ripple, IOTA, Bitcoin Cash, Stellar, Monero ва Litecoin лар ҳисобланиб, улар блокчейн номини олган (блоклар занжири).

**Ягона рақамли макон дастури**




***Муаллиф томонидан тайёрланди.***

Инновацион ривожланиш даврида рақамли иқтисодиётнинг ҳиссаси ортиб бормокда. Айникса, Хитойда рақамли иқтисодиёт тез ривожланиб бораётганлигини биргина Алибаба+Алиэкспресс (Alibaba, Ali Express) Тансет ва Хиаоми компаниялари мисолида кўрсак бўлади. Улар жаҳонда рақамли иқтисодиёт муҳитида етакчи бўлиб туришибди. Улар жаҳон бозорига

рақамли товар ва хизматларни экспорт қилишда олдинда бормоқдалар. “Рақамли иқтисодиёт” кўп қиррали фаолият бўлиб унда рақамли ахборот ва билимлар ишлаб чиқаришнинг асосий омили сифатида қўлланилади ва самарадорликни оширишнинг асоси сифатида АКТ қўлланилади [6, 7].

2019 йилда Хитой аҳолисининг мобил тўловлари 1180 млрд. долларни ташкил этиб, АҚШга қараганда карийб 11,5 баробар кўп бўлди. Хитойда мобил технологиялардан фойдаланиб бизнес юритиш оммавийлашган. Буларнинг сабаби Хитойда рақамли бизнес учун рақобат муҳитини мавжудлиги, қолаверса давлатнинг рақамли иқтисодиёт соҳасига берган имтиёзлари ва ниҳоят электрон бизнеснинг катта бозори мавжудлигидир.

Кейинги ўн йилликда Хитой ва Ҳиндистоннинг жаҳонда электрон тижорат транзакцион ҳаражатлардаги салмоғи 40 фоизга ошди. Айниқса, бугун Хитойнинг интернет тижорат трансакциялари Франция, Германия, Япония, Буюк Британия ва АҚШникидан (биргаликда олинганда) кўпдир. Хитойда
2018 йилда 801 млн. интернет хизматидан фойдаланувчилари бўлиб, ундан 700 млн.га яқини мобил технологиялардан фойдаланиб бизнес юритадилар. [8].

“Рақамли дунё”да ижтимоий ва иқтисодий муносабатлар, компания ва фирмалар ўртасидаги савдо муносабатлар рақамли банкларнинг асосий фаолиятига айланади. Рақамли банклар ижтимоий тармоқлар орқали мижозлар билан “учрашади” ва мижознинг қизиқтирган саволларига атрофлича жавоб беради, уларга хилма-хил хизматларни таклиф қилади, мақсадли кредитларни кичик фоизларда таклиф қилади. Ҳар қандай чекловлар йўқ бўлади. Рақамли банкларда мурожаат марказлари, банкоматлар, онлайн ва мобил банк хизматлари ишлаб турибди.

Рақамли иқтисодиёт – ишлаб чиқаришнинг асосий омили сифатида рақамли маълумотлар, рақамли бошқарув, рақамли тўловлар, рақамли тижорат бўлиб, такрор ишлаб чиқаришнинг фазаларини бошқаради, назорат қилади. Рақамли иқтисодиётнинг яна бир хусусияти жамиятнинг тўхтовсиз ўсиб бораётган эҳтиёжларини икир-чикиригача, тўлалигигача аниқ ўлчаб, келажакдаги ўзгаришларни башорат қила олади (ҳамма нарса очиқ бўлади). Иқтисодиётнинг барча субъектлари ва объектлари эҳтиёжлари рақамли компонентга эга бўлади. Рақамли иқтисодиёт тузилмасида ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчилар, сотувчилар ва харидорлар муносабатлари “рақамли” муҳитга асосланади.

## Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича “Харакатлар стратегияси” тўғрисида”ги ПФ-4749-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 ноябрдаги “Илмий-тадқиқот муассасаларининг инфратузилмасини янада

мустаҳкамлаш ва инновацион фаолиятини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3365-сон қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасидаги маърузаси. -Т.: 2017 йил 22 декабр. http://prezident.uz/uz/lists/view/1371.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 февралдаги “Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада такомиллаш-тириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиеёевнинг Олий Мажлис қуйи ва юқори палаталарига Мурожаатномаси. “Ҳалқ сўзи” газетаси 2020 й. 24 январь. №7
6. How big is China’s Digital economy?, Bruegel, Working Paper, Issue 04, 17 May, 2018 htpp://www.itu.int/eng/ITU-D/
7. China’s Digital Economy a Leading Global Force. MGI Discussion Paper, August, 2017
8. http:/Bit.samag.ru/more/67.
9. https:/ria.ru/science.

# BUYUK ALLOMALARIMIZ OILADA BOLA TARBIYASINING AHAMIYATI HAQIDA QARASHLARI

**M.Rasulov**
*JDPI talabasi*
**D.R.Sodiqova**
*JDPI o’qituvchi*

*Ushu maqolada Sharq mutafakkirlarining oila va oilada bola tarbiyasi haqidagi fikrlari keltirib o’tilgan.*

O’zbekona milliy axloqda ota - bobolarimizning nodir qo’lyozmalari, tarixiy - tajribalari davrlar sinovidan o’tgan saboqlari va bizga doimo madad bo’lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Ularning sharofatlari tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avlodlardan-avlodlarga o’tib kelmoqda. Endilikda milliy istiqlol tufayli milliy - axloqiy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. Ulardan bolalarni ma’naviy jihatdan tarbiyalashda foydalanish oilaviy tarbiyamiz uchun obektiv zarurtga aylandi.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ta’lim - tarbiya masalalari muhim o’rin egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e’tibor berganlar. Muhamad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Nosr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhamad Qoshg’oriy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Umar Xayyom, Ahmad Yugnakiy, Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o’rtaga qo’yilgan va ularni hal etish yo’llari ko’rsatib berilgan.

Bular jumlasiga Yusuf Xos Xojibning “Qutadg’u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul Haqoyiq”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Sa’diyning “Bo’ston va guliston”, Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” va “Mahbub-ul qulub”, Nizomul-mulkning “Siyosatnoma” kabi pandnoma, nasihatnoma tarzda yozilgan asarlari kiradi.

Umuman, oilada bola tarbiyasi masalasi juda qadimdan mutafakkirlarni qiziqtirib kelgan, ular bu masalaga hayotiy faoliyatning muhim bir tomoni sifatida qaraganlar va uni hal etishni o’zlarining vazifasi deb hisoblaganlar.

Abu Rayhon Beruniy “O’tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “E’tiqodlar va dinlar haqida” kabi ko’pgina asarlarida bolalarni axloqiy tarbiyasiga oid qimmatli fikrlarni yozadi. Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarni insonning tabiati bilan bog’laydi. Inson tabiati ota - ona. Avvalo oilada shakllanadi. Shunga ko’ra, bola tarbiyasida ota - ona ta’siri va namunaga benihoya kattadir. Masalan, Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o’rtaga tashlaydi. Oilada tozalik, pokizalik va tartib mavjud emas ekan, u yerda ma’naviy poklik ham bo’lmaydi. Bu fikrini tanni toza tutish bilangina cheklab bo’lmaydi, balki ko’p harakat qilishga chaqiradi. Bu harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligini bir butunligi to’g’risidagi g’oya bilan bog’liqdir. Bu narsa bola tarbiyasida jismoniy sog’lomlik bilan ma’naviy kamolot o’rtasidagi o’zaro muvofiqlik, mutanosiblik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir, degan fikrni olg’a surgan.

Beruniyning yozishicha, kishilar hayotlarida turli holatda bo’ladilar va turlicha harakat qiladilar. Ularning ayrimlari bilan maqtaladilar, boshqalari bilan qoralanadilar. Bularning hammasi bolalar ko’z o’ngida yuz beradi. Buni to’la his etgan ota - ona ehtiyot bo’lmoqlari zarur. Ota - onalar bilan birga harakat qilishlari, turli o’yinlar uyushtirishlari, ular bilan birga o’zaro suhbatlar o’tkazishlari maqsadga muvofiq deb maslahat beradi. Bu bilan Beruniy bolalarni tarbiyalashning muayyan uslubiyotini ham asoslab bergan.

Beruniy ota - onalarga qarata bolaning mo’tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g’azablanishidan, qo’rqishdan va xafalikdan, u yqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Ota - oaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Yaxshi xulqlarni paydo bo’lishi, bola ruhiyatiga ta’sir qilibgina qolmasdan, uning fiziologik o’sishiga ham yordam beradi. Yomon xulq esa turli mijoz buzilishlariga ham olib keladi. Aksincha, bola organizmidagi o’zgarishlar uning ruhiyatidagi, xatti - harakatidagi o’zgarishlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola xulq - atvorining mo’tadilligi natijasida tan va ruh sog’lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi.

Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o’rinni egallaydi. U o’zining qator asarlarida bolani salomatligi, uning tarbiyasi haqida eng muhimi bola – ruhiyatini o’rganish borasida ko’plab qimmatbaho fikrlarni asoslagan. Ularning hammasi bir butun

bo'lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi va u ma'naviy axloqiy barkamol insonni shakllantirish haqidagi g'oyaga borib taqaladi.

Ibn Sinoning "Inshorat", "Donishnoma", "Xay ibn yaqzon", "Salamon va Absol", "Tib qonunlari", "Tadbir ul-manozil" kabi asarlarida tarbiyaning barcha shakllariga oid qarashlari mavjud. Bu qarashlar yuz yillar davomida avlodlar uchun tarbiyalash maktabi bo'lib kelmoqda. Masalan, uning "Tadbir ul - manozil" nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalasiga bag'ishlangandir.

Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlash va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib "Alla" ikki vazifani bajaradi, deydi. Birinchisi, uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bag'ishlanadi; Ikkinchisi, beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu-umidi yurak to'ridan siqilib chiqaradi. Bu o'ziga qo'shiq bolasiga qasidadek yangraydi va u farzandining murg'ak qalbiga, butun shuuriga singib boradi. Shu tarzda bolada o'zi ham anglamagan holat paydo bo'ladi. U asta - sekin bu yorug' olamni anglay boshlaydi. Ana shu anglashdan o'rganish boshlanadi. Xuddi shu o'rganish tarbiyalanishdir. Zotan, o'rganish sezishdan boshlanadi. Ibn Sino ana shu holatga e'tiborini qaratib, "Yosh bolaning sezgirlik quvvati katta odamga teng keladi", - degan fikrni bildirgan.

Ibn Sino "Tib qonunlari" nomli asarida bolaga tug'ilmasdan turib g'amxo'rlik qilish uchun onaning salomatligi, jismoniy va ruhiy pokligi zarurligini ta'kidlab, shaxs salomatligini saqlashni faoliyatning boshqa tomonlari bilan birga olib borish g'oyasini ilgari suradi.

Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig'i – otaning roliga alohida e'tibor beradi. "Aga oilada, - deydi u, - oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa, u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda undan yomon natijalar kelib chig'ishi mumkin". Bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilsa, oila baxtli bo'ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi. Ota - ona kim bo'lishidan qat'iy nazar bu vazifani mas'uliyat bilan ado etishi lozim.

Ibn Sino bola tarbiyasida otaning burchi haqida to'xtalib o'tadi. Eng avvalo, ota farzandi tug'ilgach unga yaxshi ism qo'yishi va tarbiyalashga kirishmog'i lozim. Ayniqsa, bola tarbiyasida ota - onaning yaxshi fazilati, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar esa yuksak axloqiylik asosida bo'lishini ta'kidlaydi.

"Tadbir ul-manozil" asarida yer va xotinning yaxshi sifatlari sanab o'tiladi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o'rnak bo'lib, uning kelajak taqdirini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida uqtiriladi.

Ibn Sino oilada bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda mehnasevarlikning roliga alohida urg'u berib, ota - onalarni farzandlarga nisbatan kasb - hunar o'rgatishga chaqiradi. Mehnatni ulug'laydi. Mehnasiz hayot kechirishning bolaga bo'lgan salbiy ta'sirini ko'rsatib beradi. Ayiqsa, Ibn Sino aqliy, axloqiy, yestetik va jismoniy tarbiyaning birligi va ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi

fikrlari bugungi kunda ham ijtimoiy va amaliy ahamiyat kasb yetmoqda hamda milliy – ma'naviy qadriyat sifatida e'tiborga loyiqdir.

Oila va oilaviy tarbiya borasida XI asrda yashab, ijod etgan mashhur ulug' shoiri mutafakkir va donishmandi Yusuf Xos Xojib o'zining "Qutadg'u bilig" ("Qut ato etgan bilim") nomli asarida keng to'xtalib o'tadi. Mutafakkir"Qutadg'u bilig" asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib shunda deb yozadi: "Farzand qanchalik bilimli, aqlli - hushli bo'lsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug' bo'ladi". U bola tarbiyasida otaning mas'uliyatiga alohida e'tibor beradi. "Kimning o'g'il qizi yerka bo'lsa, - deb yozadi u, unga shu kishining o'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo'ysa bolada gunoh yo'q, barcha jafo otaning o'zida; o'g'il - qizning xulq - atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi. Ota bolalarni nazorat qilib, turli hunarlarni o'rgasa, ular ulg'aygan o'g'il - qizim bor deb sevinadi; o'g'il - qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l - atvorlari go'zal bo'lsin" - deb ota - onalarga maslahat beradi. Bola asta - sekin hunar o'rganib, hayotdan ta'lim olib bilimdon bo'ladi, chinakam insoniy go'zallika yerishadi. Inson faqat farzandlariga yaxshilik urug'ini sochibgina qolmasdan, bu urug'ni parvarish ham qila bilishi zarur. Bu narsa ular tarbiyasida zohir bo'ladi. Mutafakkir yaxshilik va yezgulik chinakam insonlarning olijanob fazilatidir, degan xulosaga kelar ekan, undan olamda agar yaxshi kishilar bo'lmaganida haqiqiy insoniylik ham bo'lmas edi, degan falsafiy xulosaga keladi.

Shunday qilib, buyuk allomalarning qoldirgan bebaho madaniy, ma'rifiy merosi - yosh avlod uchun ibrat va namuna ekanligi, ularning ta'lim-tarbiyaga oid ma'rifiy ta'limotlari yoshlarni Ona-Vatanga, millatga sadoqat va hurmat ruhida tarbiyalashda, ularni iymon, e'tiqodli, mehr - oqibatli, insof va diyonatli, odob - axloqli, oqil va odil inson qilib tarbiyalashda yordam beradi.

## ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ СИФАТИ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ АЙРИМ МУАММОЛАРИ

**Ш.Ҳ.Қулиева**
*БухДУ п.ф.н., доцент,*
**Ф.Ш.Авезова**
*Қоровулбозор туман Технология фани ўқитувчиси*
**Ш.Иззатова**
*БухДУ III курс талабаси,*

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев раҳбарлигида ишлаб чиқилган 2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари бўйича ҳаракатлар стратегиясининг 4.4. Таълим ва фан соҳасини ривожлантириш бандида таъкидланишича: узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш йўлини давом эттириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ, юқори малакали кадрлар тайёрлаш; таълим

муассасаларини қуриш, реконструкция қилиш, капитал таъмирлаш, уларни замонавий ўқув-лаборатория ускуналари, компьютер техникаси ва ўқув-методик қўлланмалар билан жиҳозлаш бўйича ишларни амалга ошириш орқали уларнинг моддий- техника базасини мустаҳкамлаш юзасидан аниқ мақсадга қаратилган чора-тадбирларни кўриш назарда тутилган [1].

Ҳаракатлар стратегиясининг мазмунидан келиб чиққан ҳолда технологик тараққиёт ва ўқув жараёнини ташкил этишнинг замонавий услублари бўйича сўнгги ютуқларни ўрганиш ва таҳлил этиш асосида таълим тизимини модернизациялаш, олий таълим тизимини сифат ва самарадорлигини оширишнинг муҳим йўналишлари, ўқув-услубий жараёнга инновацияларни жорий этиш, педагогларни замонавий билим ва амалий кўникмалар билан қуроллантириш, таълим сифатини таъминлашга нисбатан инновацион ёндашувларни таълим жараёнига татбиқ этиш билан боғлиқ масалаларни ҳал этишга алоҳида эътибор қаратилган.

Узлуксиз таълим тизимининг ҳар бир бўғинида таҳсил олувчиларнинг фаол фаолиятларини таъминламасдан туриб кўзлаган буюк мақсадларимизга эриша олмаслигимизни ҳаётнинг ҳар қадамида ҳис этмоқдамиз. Шунинг учун ҳам таҳсил олувчиларнинг онгли, изланувчан-ижодий фаолиятларини таъминловчи омиллардан имкон қадар кенг кўламда фойдаланиш шу куннинг муҳим муаммоларидан бири ҳисобланади. Шу пайтгача ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ва олий таълим муассасалари бўлажак мутахассисларда касбий билим, кўникма ва малакаларни таркиб топтиришни асосий мақсад қилиб қўйилган бўлса, бугунги кунда эгаллаган билимларга асосланиб, мустақил ва ижодий ёндашган ҳолда муаммоларни ечимини топиш, хулоса чиқариш, ташкилий ҳамда бевосита фан ва ишлаб чиқариш жараёнларида иштирок этишга қодир мутахассисларни тайёрлашни кўзда тутади. Бундай хислатларни шакллантиришда технология таълими ўқитувчиларининг роли шаксиз муҳимдир.

Тайёрланадиган мутахассисларнинг, шунингдек технология фани ўқитувчиларининг касбий-педагогик тайёргарлик даражасини ошириш бир томондан илғор педагогик технологиялардан фойдаланишни кўзда тутса, иккинчи томондан замонавий таълим-тарбия ишининг методологик асосларини ишлаб чиқишга асосланади. Шунингдек, технология таълими ўқитувчисига қўйиладиган талабларнинг туб моҳиятини тўлиқ тушуниб етмаслик, ишлаб чиқариш жараёнига янги замонавий техникалар ва илғор технологияларни етарлича жорий этмаслик, истиқболли йўналишлар, мутахассисликлар ва ихтисосликларни тўлиқ билмаслик бугунги ёшларни келажакда ўзига мос ўринларини топишга ҳам ўзининг салбий таъсирини кўрсатади.

Бўлажак технология таълими ўқитувчиларини тайёрлаш сифат ва самарадорлигини ошириш қуйидаги асосий босқичлардан иборат бўлиши У.Н.Нишоналиевнинг ишларида ўз аксини топган:

- бўлажак мутахассисларда шундай билимлар тизимини таркиб топтириш керакки у бир вақтнинг ўзида политехник ва педагогик жиҳатдан замон талабларига жавоб берадиган касбий саводхонликни таъминласин;

- илгари номаълум бўлган шарт-шароит ва фавқулотдаги вазиятларда тўғри хулоса чиқариши учун мустақил фикр юритишга ўргатиш;

-талабаларни имкон қадар мустақил ишлашларига мажбур этувчи илмий тадқиқот ишларига жалб этиш, бунда реферат, курс иши ёзишдан бошлаб, битирув малакавий иш(лойиҳа)ларини ишлаб чиқишга тайёрлаш мақсадга мувофиқдир.

Кўпгина тадқиқотчиларнинг фикрича, педагогик олий таълим муассасаларидаги технология фани ўқитувчиларини тайёрлашнинг ҳозирги аҳволини яхшилаш, тайёрланадиган мутахассислар касбий самарадорлигини ошириш бевосита таълим-тарбия жараёнини методик таъминоти билан боғлиқ. Ана шундай долзарб муаммо А.Р.Ходжабоевнинг докторлик диссертацияси ва ундан сўнгги ишларида батафсил ёритилган. Ҳозирги пайтда талабаларни ўқитишда фойдаланилаётган жиҳозлар машғулот самарадорлигини ошириш талабларини қондирмайди. Шунингдек технология ўқитувчилари тайёрлаш ишининг якуний қисми ҳисобланган педагогик амалиёт ва битирув малакавий ишларини ҳимоя қилишни ҳам иккинчи даражали иш деб қарамасдан давр талабларига муштарак ҳолда қараш лозим. Чунки шу пайтгача талабаларнинг ўқиш даврида ўқув устахоналари ва лаборатория–амалий машғулотларидан ўзлаштирилган касбий кўникма ва малакалари йиллик ва давлат имтиҳонларида ҳисобга олинмай келинди. Талаба «Технология таълими практикуми» фанидан синов ёки имтиҳон топширади, лекин бунда назарий билимлар билан чегараланиб қолинади ва талабаларнинг амалий кўникма ва малакаларини қандай даражада ўзлаштирилиши ва қандай сифатда бажарилишини назорат қилиб баҳолаш умуман назардан четда қолади.

Битирувчи курс талабаларининг малакавий амалиёти ва ёш ўқитувчиларнинг дастлабки пайтдаки педагогик фаолиятларида ўрганиб таҳлил қилиш шундан далолат берадики, улар назарий билимларни амалиётда қўллаш борасида кўплаб қийинчиликларга учрайдилар.

Бўлажак технология фани ўқитувчиларининг амалийлик жиҳатларини кучайтиришнинг муҳим омилларидан бири, уларни техник тафаккурини шакллантиришдир, техник тафаккур умумкасбий ва махсус билимларни сафарбар этган ҳолда доимий равишда техник–технологик масалалар ечимини топишга, янгиликлар яратишга асосланади. Ўрганилаётган объект (предмет, ҳодиса, жараён)нинг тузилиши, ишлаши уларга қўйилган муҳим талабларни тушунтириш, қонунлар ва ҳодисаларга асосланишини талаб этади. Ишлатилган ҳар бир тушунчага имкон борича изоҳ беришда, шу тушунча амалий қўлланилиши ҳам исботланади. Шу йўл билан назарий билимнинг ҳаётий воқеалардан ажралиб қолиши илмий билимлар аҳамияти ва ўрнини нотўғри тасаввур этиш ва ўз амалий фаолиятида улардан фойдалана олмаслик ҳолларига олиб келади. Назария билан амалиётнинг

узвий боғлиқлигини таъминлаш бевосита турли фанларни ўзаро алоқадорлигини талаб этиб, ўрганилаётган билимларнинг мукаммаллигини таъмин этади.

Демак, технология фани ўқитувчиларининг тайёрлаш сифати қуйидагиларни ўз ичига олади:

- профессор-ўқитувчилар ва таълим олувчиларнинг илмий интеллектуал салоҳияти;
- бошқарув, инновацион педагогик ва ахборот, тарбиявий ва назорат технологияларини самарали қўллаш;
- моддий-техникавий таъминот;
- меъёрий-ҳуқуқий ва ўқув-методик таъминот;
- рағбатлантириш;
- бюджетдан ташқари ишларни ташкил қилиш.

Технология фани ўқитувчиларини тайёрлаш сифати самарадорлик кўрсаткичига боғлиқ бўлиб қуйидагиларни ўз ичига олади:

- таълимга тизимли ёндашиш кўлами ва муқобиллиги;
- таълим кўргазмалилиги, ўқитувчи тушунтиришларининг аниқ ва мақсадга йўналтирилганлиги;
- ҳамкорликда ўқитиш технологиясининг сифати (таълим берувчи ва таълим олувчи).

Технологик таълим йўналиши талабаларини таълим-тарбиясининг педагогик йўналганлиги таълим олувчиларни у ёки бу моддий неъматлар ишлаб чиқаришда ечимини топиш зарур бўлган масалалар моҳиятидан келиб чиқади.

Технологик таълимнинг муҳим йўналиши таълим олувчиларда замонавий ишлаб чиқариш жараёнлари ҳақидаги тасаввурларни шакллантириш ҳисобланиб, педагогик, техник-технологик билим ва амалий кўникмалар орқали амалга оширилади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш.М. 2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси.
2. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантириш Т.,: “Фан” нашриёти, 2004 й. 130 бет.
3. Нуриддинов Б.С., Абдуқудусов О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш муаммолари Тошкент, “TACIS”, 2001й. 114 бет.
4. Перегудов Л.В., Саидов М.Х. Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти Т.,: “Молия” нашриёти, 2002 й. 184 бет.

# СПОРТЧИ ПСИХОЛОГИК-ЭМОЦИОНАЛ ҲОЛАТИНИ КОРРЕКЦИЯЛАШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

**Ж.Ш.Носиров,**
*Бухоро давлат университети “Психология” кафедраси тадқиқотчиси*

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда ёшларни ватанпарварлик, миллий анъана ва қадриятларимизга ҳурмат руҳида тарбиялаш, маънавий етук ва жисмонан соғлом баркамол авлодни вояга етказиш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш юзасидан муайян ишлар амалга оширилмоқда. “Жамиятимизда соғлом фикр, соғлом куч устувор бўлиши учун биз маънавий ҳаётимизни юксалтириш, аҳоли, аввало ёшларимизни турли зарарли таъсирлардан асраш, уларни ҳар томонлама етук инсонлар қилиб тарбиялаш маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ҳам муҳим ислоҳотлардан биридир” “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида жисмонан соғлом, руҳан ва ақлан ривожланган, мустақил фикрлайдиган, Ватанига содиқ, қатъий-ҳаётий нуқтаи назарига эга ёшларни тарбиялаш, демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш” вазифалари белгиланган.

Жаҳондаспортчилар психологик-эмоционал ҳолатини коррекциялашнинг юзасидан жуда катта ишлар олиб борилмоқда. Эмоционал идентификация ғояси А.В.Петровский томонидан ишлаб чиқилган. А.И.Папкиннинг экспериментида бўлса эмоционал идентификация тадқиқ қилинган. Н.С.Мансуров жамоавий жипсликни таркибиниўрганишга ҳаракат қилган. А.И.Донцов бўлса спорчиларда жипсликни структурасини ишлаб чиққан Р.М.Загайнов командада психологик муҳитни шакллантириш жараёнига таъсир этувчи омилларни табақалаштирган. В.В.Шпалинский стратометрия назариясини ривожлантиришга ўз хиссасини қўшган.

